O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEKISTONDA TARIXIY VA MADANIY YODGORLIKLARNI TADQIQ QILISHDA TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIK SOHALARINING O‘ZARO HAMKORLIGI: MUAMMO, YECHIM VA ISTIQBOLLARI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI TO‘PLAMI



GULISTON–2026

UDK 930.85:7.072(575.1)(062)
KBK 63.3(5O‘)+85.1
O‘-16

“**O‘zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarni tadqiq qilishda tarix va san’atshunoslik sohalarining o‘zaro hamkorligi: muammo, yechim va istiqbollari**” mavzusidagi 2026-yil 15-16 oktyabrda o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: "EXISTENTIUM-PRINT". 2026.- 589 bet.

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug‘i asosida Guliston davlat pedagogika instituti ilmiy-texnik anjumanlar tadbirlar rejasiga ko‘ra 2026-yil 15-16 oktyabr o‘tkazilgan konferensiya doirasida tayyorlangan.

Anjuman materiallari to‘plamidagi maqola va tezislar sohaga doir ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodim-izlanuvchilar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

Masalalarning xolisona yoritilishiligi, keltirilgan dalil va ilmiy muomalaga kiritilgan manbalarning ishonchliligi bo‘yicha mas’uliyat mualliflar zimmasidadir.

Mas’ul muharrirlar:
J.X.Karshibayev, b.f.d, professor
B.Sh.Kurbanov, f.f.b.f.d (PhD) dotsent
E.E.Kurbanov, s.f.b.f.d (PhD), dotsent

Taqrizchilar:
A.A.Asqarov, Akademik, t.f.d, professor.
M.M.Is’hoqov, t.f.d, professor
S.S.Qudratov, t.f.n, professor

Tahririyat hay’ati:

B.B.To‘ychiboyev, E.E.Kurbanov, N.P.Jumaboyev, R.Z.Xayrov, U.B.Mirzaliyev, I.N.Djurayev, O.Sh, Kanimkulov, X.B.O‘rmonov, N.N.Raximov, M.F.G‘aniyev, F.Sh.Imomov, A.A.Sattorov, R.R.Xakimov, Sh.A.Yusupova.

ISBN 978-9910-302-30-5

KIRISH

O‘zbekiston hududi qadimdan Sharq va G‘arbni bog‘lab turgan muhim sivilizatsion makonlardan biri bo‘lib kelgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qo‘qon, Toshkent va boshqa shaharlarimizda saqlanib kelayotgan tarixiy yodgorliklar nafaqat milliy, balki umuminsoniy madaniy merosning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularda xalqimizning davlatchilik an’analari, shaharsozlik madaniyati, me’moriy tafakkuri, hunarmandchilik maktablari, diniy-falsafiy qarashlari hamda badiiy didi mujassamdir.

Tarixiy yodgorlikni chuqur o‘rganishda tarix fani muhim o‘rin tutadi. Tarixchi yodgorlikning barpo etilish davri, siyosiy-ijtimoiy muhiti, uni yaratgan hukmdorlar, me’morlar va hunarmandlar, yodgorlik bilan bog‘liq voqealar, manbalar hamda uning jamiyat hayotidagi o‘rnini aniqlashga harakat qiladi. San’atshunoslik esa mazkur yodgorlikning me’moriy-badiiy xususiyatlari, uslubi, kompozitsiyasi, bezaklari, ranglar uyg‘unligi, naqsh va ramzlar tizimi, tasviriy ifodasi hamda mahalliy san’at maktablari bilan bog‘liq jihatlarini tadqiq etadi.

Shu ma’noda, tarix va san’atshunoslik bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro uzviy bog‘liq ilmiy yo‘nalishlardir. Faqat tarixiy yondashuv asosida olib borilgan tadqiqot yodgorlikning badiiy qimmatini to‘liq ochib bera olmasligi mumkin. San’atshunoslik nuqtai nazaridan amalga oshirilgan tahlil ham yodgorlikning tarixiy jarayondagi o‘rni va ahamiyatini chuqur anglash uchun tarixiy manbalarga tayanishni talab etadi. Bunday yondashuv tarixiy-madaniy yodgorliklarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, badiiy qiyofasi, ramziy mazmuni va bugungi kundagi ahamiyatini har tomonlama ochib berish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, tarixchilar, san’atshunoslar, arxeologlar, me’morlar, restavratorlar, muzeyshunoslar, arxivshunoslar va boshqa soha mutaxassislarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Har bir yodgorlikni tadqiq etishda yagona mutaxassislik doirasi bilan cheklanib qolmasdan, turli fan vakillarining ilmiy xulosalarini uyg‘unlashtirish zarur

Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham tarixiy yodgorliklarni o‘rganish va muhofaza qilishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. 3D-modellashtirish, lazerli skanerlash, fotogrammetriya, geoaxborot tizimlari, elektron kataloglar ularning holatini muntazam kuzatib borish va ilmiy ma’lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazish imkonini bermoqda.

Mazkur anjuman materiallari tarixiy va madaniy yodgorliklarni tadqiq qilish natijalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish, yosh avlodda milliy merosga hurmat va daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish xizmat qiladi.

Guliston davlat pedagogika instituti rektori
J.X.KARSHIBAYEV

1-YO‘NALISH. O‘ZBEKISTON TARIXIY–MADANIY YODGORLIKLARINI BIRLAMCHI MANBALAR (ARXEOLOGIK, ETNOLOGIK) ASOSIDA TADQIQ ETISHDA TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIK SOHALARINING INTEGRATSIYASI.

JARQO‘TON - O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ENG QADIMGI SHAHARLARDAN BIRI: ARXEOLOGIK TOPILMALARNING TARIXIY VA SAN’ATSHUNOSLIK TAHLILI

Asqarov A.A.
Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zMPU,
Akademik, tfd, professor,

Ona-Vatanimiz tarixining o‘ta dolzarb muammolari qatorida “o‘zbek davlatchiligi tarixi” masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, O‘zbekiston xududida tashkil topgan davlatchilik tarixining ilk bosqichlarini birlamchi manba’ - arxeologik materiallar asosida yoritishni lozim. Biz bayon etmoqchi bo‘lgan birlamchi manba’ O‘zbekistonda davlatchilik tarixining 3500 yildan kam emasligi haqida boy materiallar bermoqda. Bu noyob manba’ Jarqo‘ton nomli arxeologiya obidasi bo‘lib, bu ko‘xna shahar xarobasi bundan 3500 yil muqaddam Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududidan o‘tgan Sherobod daryosining ko‘xna o‘zani Bo‘stonsoy yoqasida qad ko‘targan. Uning maydoni 100 gektardan kam emas. Shahar ikki qismdan iborat, ya’ni Arki a’lo va “Shahriston” dan iborat (Askarov, 46). Arki a’loda shahar hokimining qarorgoxi-xukmdor saroyi joylashgan. (Akarov, Shirinov, 99-104). Arki a’loning umumiy maydoni 3 gektardan kam emas. Uning atrofi qalin mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Arki a’loga tutashgan holda, uning sharqiy va janubiy tomonida, bu qadimgi shaharning asosiy aholisi - dehqon va xunarmandlar joylashgan “shahriston” qad ko‘targan.

Shaharning tarixiy topografiyasiga ko‘ra, shahriston maydonida dehqon va xunarmandlarning patriarxal jamoa qo‘rg‘onlaridan tashkil topgan 20 ga yaqin aholi turar-joy massivlari joylashgan. Ularning har birini atrofi mustahkam mudofaa inshoatlari bilan o‘rab olingan. Ammo ularning barchasini yaxlit o‘rab olgan mudofaa devori hali shakllanmagan.

Shahristondan janubda, qadimgi ariq qoldigi orqa tomonida, Bo‘stonsoy jarlari bo‘ylab, kamida 20 gektar maydonni egallagan nekrapol, ya’ni shahar qabristoni

joylashgan (Askarov, Abdullaev, 8-9). Bu noyob yodgorlikning ochilish tarixiga nazar tashlansa, u qutilmagan holda ro‘y berdi,ya’ni qadimgi shahar madaniyatining yana bir nodir obidasi-Sopollitepada (bu yodgorlik Sherobod vohasida Kuxitang daralaridan oqib chiqqan O‘lanbuloq soy bazasida qad ko‘targan) ushbu satrlar muallifi tomonidan arxeologik qozishma ishlari yakunlanayotgan kezlarda Jarqo‘ton haqida xabar topildi.

Ko‘p yillik izlanishlar davomida Jarqo‘tonni haqiqatda O‘zbekiston xududidagi eng qadimgi ilq shahar ekanligini isbotlavchi juda boy ashyoviy dalillar topildiki, ular haqida hikoya qilishdan avval qadimgi Sharq shaharlarining shakllanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy omillar haqida eslatib o‘tishni joiz topdik.

Tarixiy tahlil taqozasiga ko‘ra, o‘tmishi uzoq, tarixi va madaniyati boy, o‘troq xalqning dastlabki davlatchiligi zaminida shaharsozlik madaniyati yotadi. Bu xulosa er qurrasida, birinchi bor eng qadimgi davlatlar tashkil topgan qadimgi Sharq mintataqalari misolida ilmiy isbotlangan (Masson, 119-128).

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ilq bor vatani hisoblanmish Mesopotamiyada miloddan oldingi 1V-ming yillikning oxiri va 111- ming yillik davomida, ya’ni bundan 5-5,5 ming yil avval Shumer, Lagash, Suza kabi shaharlar tashkil topgan (Adams 81; Chayld G. 162; Dyakonov, 49-63, 64-74; Varga D. 10-44). Anashu shaharlar bazasida mitti davlatlar shakllanib, ular tarixda shahar-davlatlar nomi bilan mashxurdirlar.

Qadimgi shahar-davlatlarning tashkil topishida o‘troq aholining dehqonchilik va xunarmandchilik xo‘jaligi asosiy iqtisodiy omil bo‘lib, ular dastlab atrof aholi punktlarining xo‘jalik markazi, tuman, viloyat yoki ma’lum bir okrugning siyosiy, diniy va o‘z-o‘zini idora etuvchi tabaqalashgan jamoalarning ijtimoiy boshqaruv markazi, ya’ni ilq davlati bo‘lgan. Shaharlarning tashkil topishida asosan aholining o‘troq xo‘jalik hayoti va u bilan bog‘lik yana uch omil mavjudligi tarixan zarur hisoblanadi.

Birinchisi - qulay tabiiy sharoit, ya’ni unumdor tuproq, suv va boshqa geografik omillar; ikkinchisi hosildor sug‘orma dehqonchilik va uni ta’minlovchi agrotexnika. Bular shaharlarning paydo bo‘lishidagi iqtisodiy omillar hisoblanadi. Uchinchisi, anashu iqtisodiy omillar asosida vujudga kelgan tabaqalashgan jamiyatning diniy, harbiy va siyosiy jihatdan boshqaruv tizimini tug‘ilishiga sharoit etilgan bo‘lishi kerak., ya’ni iqtisodiy hayotda yuz bergan tub o‘zgarishlar (dehqonchilikda sun’iy sug‘orish sistemasining kashf etilishi, daryolardan magistral kanallar orqali yangi erlarga suv chiqarish, erni ishlashda omoch va hayvondan foydalanish, xunarmandchilikning to‘qimachilik sohasida yig‘iruv va to‘quv dastgohining kashf

etilishi, kulolchilikda charhning va murakkab xumdonning kashf etilishi, metal eritish va quyish texnologiyasining kashf etilishi, uy hayvonlaridan transportda foydalanishga o‘tish, qurilishda reja asosida uy-joy va monumental binolar qurishga o‘tish, atrof muhit haqida to‘plangan bilimlar asosida astranomiya, astrologiya, quyosh soati, kalendar, murakkab hisoblash sistemasini ixtiro etish va boshqalar) tufayli ijtimoiy hayotda tabaqalanish yuz berdi. Anashu tabaqalanish jarayoni ma’lum nuqtaga etgach, jamiyatni boshqarish zaruriyati tug‘ildi. Bu ijtimoiy omil edi. Qachonkim bu uch omil dialektik yaxlitligida tarixiy sharoit tug‘ilgandagina qadimgi shaharlar va ular bazasida shahar-davlatlar paydo bo‘ladi (Askarov, Shirinov. 14-24).

Qadimgi Sharq shaharlarini erta tashkil topishiga olib kelgan mana shu uch omil O‘rta Osiyoda, jumladan O‘zbekiston xududida bormidi? degan savol tug‘iladi. qo‘limizdagi mavjud ashyoviy dalillarga ko‘ra, bu savolga ijobiy javob berish mumkin.

Odatda, jahon fanida qabul qilingan ilmiy ishlanmaga ko‘ra, bir aholi punktini shahar deb atash uchun qator omillarni etilishi talab etiladi. Ular kuyidagilar: territoriyasi 5-6 ga va undan kam bo‘lmagan maydonda aholining zich joylashgan bo‘lishi, aholi zich joylashgan maydonning chor atrofi qalin mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan bo‘lishi, shahar yuqori tabaqa va xokimlarinig turor joylari oddiy fuqoralar turor joy massivlaridan ajrab turishi, shahar xokimining baland fundament (platforma) ustiga qurilgan monumental qasri, ya’ni shahar o‘rdasi bo‘lishi, shahar maydonida, ya’ni shahristonda shahar aholisining barcha qatlamlari uchun xizmat qiluvchi muqaddas diniy markaz-mahobatli ibodatxona majmui tashkil topgan bo‘lishi, shahar iqtisodiy asosini ko‘p tarmoqli xunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etgan bo‘lishi, shahar ramzi va belgisi hisoblanmish shahar muxri va tug‘rosini mavjudligi va boshqalar.

O‘zbekiston xududida o‘rganilgan qator yodgorliklar, jumladan Surxondaryo viloyati Sherobod tumani E.Berdiev nomli jamoa xo‘jaligida joylashgan Jarqo‘ton yodgorligi anashu talablarning barchasiga javob beruvchi Respublikamiz xududidagi eng qadimgi va yagona shahar qoldigi edi (Askarov va Shirinov, 46-132).

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Jarqo‘tonda 1973 yildan to hozirgacha arxeologik qozishma ishlari davom etmoqda. Shu davr ichida maydoni 100 gektardan kam bo‘lmagan bu qadimgi shahar ikki qismdan - arki a’lo (shahar o‘rdasi) va “shahriston” dan iborat ekanligi, uning “shahriston” qismidan birnecha turor-joy massivlari,turli tarmoqli shahar xunarmandchiligining ob’ektlari, otashparastlar ibodatxonasi; ark maydonidan esa shahar xokimining mahobatli saroy kompleksi, metal eritish pechlari va boshqalar topib o‘rganildi. Uzoq yillar davomida muntazam

olib borilgan arxeologik qazishmalar jarayonida professional darajada yuksak rivojlangan kulolchilik va bronza metallurgiyasi ishlab chiqarish korxonalari, zargarlik va mehnat qurollari ishlab chiqarish ustaxonalari, paxta va ipak mahsulotlari homashyosiga asoslangan to‘qimachilik manufakturalarining ashyoviy dalil va qoldiqlari topib o‘rganildi (Askarov, 13-57).

Jarqo‘ton xududida olib borilgan keng ko‘lamli izlanishlar uning sanasini aniqlash va ushbu maskanda yuz bergan tarixiy jarayonni birnecha bosqichlarga bo‘lib o‘rganish imqoniyatini berdi. Shunga ko‘ra, jarqo‘tondagi qadimgi shahar hayoti uch boskichga, ya’ni jarqo‘ton (miloddan avvalgi 1500 - 1350 yillar), ko‘zali (mil. av.1350 - 1200 yillar) va mo‘lali (mil. av. 1200 - 1000 yillar) bosqichlariga bo‘lindi (Askarov, 89-105). Keyinroq, jarqo‘tonning qarama-qarshisida, bo‘ston soyning o‘ng sohilida o‘rganilgan yodgorliklar munosabati bilan mo‘lali bosqichini ikki fazaga ya’ni mo‘lali (mil. av. 1200 - 1000 yillar) va bo‘ston (mil. av. 1000 - 900 yillar) fazalariga bo‘lib o‘rganish imqoniyati tug‘ildi (Raxmanov, 16-17). Shunday qilib, jarqo‘ton yodgorligi misolida O‘zbekiston xududida umum maydoni 100 gektardan kam bo‘lmagan eng qadimgi shahar - davlat tarixi o‘rganildi.

Jarqo‘ton xududiy jihatdan nafaqat O‘rta Osiyoda, balki O‘rta Sharq mintaqasida o‘rganilgan bronza davrining eng yirik qadimgi shahar xarobasi edi. U Termiz shahridan 60 km chamasi shimolda, Sherobod daryosining qadimda Amudaryogacha suvi borib etgan, hozirda esa suvsiz to‘qoyzorga aylangan Bo‘ston soy yoqasiga joylashgan. Suv oqimiga ko‘ra, dastlab Bo‘ston soyning chap sohili o‘zlashtirilgan. Bu joyda turar joy massivlari va ular bazasida shakllangan ko‘p tarmoqli ahli xunar xo‘jaliklari qad ko‘targan. Bo‘ston soy sohilida joylashgan bu shahar shimol va g‘arbdan soy bilan chegaralangan, sharqdan esa uning xududiy chegalarini belgilovchi biror aniq chiziq kuzatilmaydi. Uning sharqiy chegarasini paxta maydonida tuproqqa qarishib yotgan sopol parchalariyu, toshdan ishlangan mehnat qurollarini sochilib yotishidan bilish mumkin xolos.

Arki a’lo.

Yodgorlikning bizgacha nisbatan buzilmay saqlanib qolgan shimoliy qismida umum maydoni 3 gektarni tashkil etgan Arki a’lo joylashgan. U somon qo‘shilgan xomg‘ishtdan ishlangan qalin mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Devorning qalinligi 3 metr, uning mudofaa qudratini oshirish uchun ma’lum masofada u kvadrat shaklda qurilgan burjlar bilan mustahkamlangan. O‘z davrida balandligi 5-6 metrdan kam bo‘lmagan bu mudofaa inshoatidan bizgacha saqlangan qismining balandligi 1 metrdan oshmaydi.

Arkning mikrorelefiga ko‘ra, uning pasayib borgan ichki qismida baland-pastliklar ko‘zga tashlanadi. Ark maydonida solingan shurflarning natijasiga qaraganda do‘ngliklar turor-joy massivlari, pastliklar esa ko‘cha yoki o‘zlashtirilmagan uchastkalar bo‘lib chiqmoqda. Arkka kirish darvozasi uning janubida bo‘lib, undan ark markaziy qismiga tomon ketgan pastlik ya’ni ko‘cha kuzatiladi. Ark darvozasidan boshlangan yo‘l aslida markaziy yo‘l bo‘lib, u taxminan 25-30 metr masofada g‘arbga tomon, xuddi o‘sha joydan pastlik-yo‘lni sharqqa tomon ketganligi kuzatiladi. G‘arbga tomon ketgan birinchi yo‘l arkning janubiy g‘arbiga borganda baland do‘nglikka borib taqaladi. Ana shu do‘nglikni qozilganda, u joydan somonli xomg‘ishtdan qurilgan monumental bino qoldigi topildi. U kvadrat shaklda, o‘lchami: 42x42 m. Bino tashki devorining qalinligi 4 m. Devor tashqi tomondan 13 ta kvadrat shaklda qad ko‘targan mudofaa burjlar bilan mustahkamlangan. Binoga kirish darvozasi uning janubiy devorining qoq o‘rtasiga, ikkita burj oraligida joylashgan.

Yuqorida ta’kidlangan markaziy yo‘ldan g‘arbga tomon ketgan yo‘l monumental bino darvozasiga kelib to‘xtagan. Shoxona qasr sifatida Arki a’loda qad ko‘targan bu inshoat aslida shahar xukmdorining saroyi bo‘lsa ajab emas. Chunki Ark maydonida ochilgan 3 ta turor-joy massivlari orasida bu bino o‘zining mahobatli ko‘rinishi bilan boshqalardan tubdan ajralib turadi.

Xukmdor qasri ichidagi xonalar juda oddiy, ular tashqi devor osti bo‘ylab joylashtirilgan. Saroyning o‘rta qismida esa yaqin 20 kvadrat metr joyni egallagan supa borligi aniqlandi. Tarix taqozasiga ko‘ra, monumental bino havlisida supaning bo‘lishi ushbu saroyni shahar xukmdorining qarorgoxi ekanligidan dalolat edi.

Markaziy yo‘ldan sharqqa tomon ketgan yo‘l boshqa bir do‘nglikka borib to‘xtaydi. U joyda ham qazish ishlari olib borilganda jez (bronza) ishlab chiqarish bilan bog‘lik xunarmandlar massivi ochildi. To‘g‘ri, Jarqo‘tonda o‘tkazilgan 28 yillik arxeologik ilmiy izlanishlar jarayonida uning turli joylaridan yuzlab bronzadan ishlangan mehnat va harbiy qurollar, zebi-ziynat bezaklari, urug‘, jamoa totemlari aks ettirilgan muhrlar, jamoa oqsoqollari va sardorlarning ijtimoiy nufuzidan dalolat beruvchi tamg‘a va tumorlar topilganki, ular mahalliy metal eritish va metaldan mehnat qurollari va harbiy asbob-anjomlar ishlab chiqarish ustaxonalari bo‘lganligidan guvohlik berardi. Masalan, Jarqo‘tondan topilgan shahar ibodatxonasini qazish vaqtida, uning xo‘jalik-xizmat qismidan mahsus chilangarlik ustaxonasi ochilgan. Ustaxonaning sharqiy devori ostida kengligi 70 sm, uzunligi 2,5 m, balandligi 1 m. keladigan supa ustida qurilgan 5 ta o‘choqlar topilgan. O‘choqlarning devorlari uzoq olov haroratida bo‘lganligidan ko‘kimtir shlaqqa

aylanib ketganligi va u joydan metal eritish qozon (tigel) larining parchalari topilganligi uchun bu o‘choqlarni bronza xomashyosini eritish pechlari deb atadik. Bunday pechlar Jarqo‘tonda , uning bir necha turor-joy massivlarida ham uchratilgan. Biroq, kutilmaganda, Ark maydonidan, yuqoridagilardan tubdan farq qiluvchi butun bir metal eritish sexi ochildiki, bunday kashfiyot hozirgacha O‘rta Osiyo arxeologiya tarixida uchratilmagan noyob fakt edi.

“Metallurgiya zavodi” deb atayotgan joydan bir-biriga yaqin qilib qurilgan 2 ta, ikki yarusli doirasimon metal eritish pechlari ochildi. Pechlarning har ikkalasini birinchi yarusga joylashtirilgan olovxonasi va olovxonalardan ularning devorlari bo‘ylab yuqoriga, ikkinchi yarusga ko‘tarilgan tarnovsimon alanga yo‘llari hamda u alanga o‘tkazish yo‘llari ustiga qurilgan (ya’ni ikkinchi yarusda) o‘choqlar saqlangan. Birinchi pechda uning aylanasi bo‘ylab 7 ta, ikkinchi pechda esa 5 ta o‘choq qoldiqlari topildi. U o‘choqlarda tosh kukunlari oralashtirib yasalgan sopol qozon (tigel) larda qalayiga misni oralashtirib bronza metali olingan. Birinchi pech olovxonasining chuqurligi 2 m, diametri 130x110 sm; ikkinchisiniki - chuqurligi 110 sm, diametri 110x105 sm. Har ikkala pechning olovxonalarida kamida 1 metr qalinlikda kul qatlami saqlangan. Olovxona devorlari va o‘choqlar issiq kuchli harorat tufayli ko‘kimtir shlakka aylanib ketgan.

Har ikkala pechlarga bir vaqtni o‘zida bir joyda turib olov yoqish mumkin. Chunki ularning olovxona eshiklari pechlarning janubiy g‘arbiga, bir-birlariga yaqin qilib qurilgan. Endi, pechlarning bizgacha to‘lik saqlanmagan ikkinchi yarusi haqidagi kuzatuvimizga ko‘ra, o‘choqlar joylashgan ikkinchi yarusning ustki qismi arkasimon tom bilan yopilgan bo‘lib, u, xonada kuchli issiq haroratni saqlab turishga xizmat etgan.Arkasimon tomning qoq o‘rtasida maxsus qurilgan tuynukcha bo‘lib, olov yonib turgan paytlarda hosil bo‘lgan tutunlarni shu tuynukcha orqali tashqariga chiqarib yubarilgan. O‘choqlar arkasimon xona devorlari aylanasi bo‘ylab joylashgan. O‘choqlar orqa tomonidan maxsus qo‘yib ketilgan teshikchalardan qozon-tigellarni tashqariga chiqarib, undagi metall eritmasini maxsus qoliplarga quyilgan. Navbatdagi operatsiya vaqtida esa yana qozon-tigellar o‘z o‘rniga qo‘yilib, maxsus teshiklar berkitilib, metall eritish davom etgan.

Pechlarni qazish jarayonida topilgan ashyoviy dalillarga karaganda, har ikkala pechlarda, bir vaqtni o‘zida 12 ta qozon-tigellarda metall eritish rejalashtirilgan. O‘choqlarning razmeriga qaraganda, pechlarda tag qismi 18-20 sm atrofidagi qozon-tigellarda metall eritilgan. Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, pechlarda bir vaqtni o‘zida 25-30 kg atrofida sof bronza xom ashyosini olish mumkin bo‘lgan. Bu uzoq o‘tmishimizdagi boboqalanlarimizning ishlab chiqarish imqoniyatlarini hisobga

olganda ibtidoiy jamoachilik davri uchun juda katta yutuq edi. Jurnalistlar tabiri bilan aytganda, bu topilma bronza davrining metallurgiya zavodi edi.

Ibodatxona.

Ibodatxonaning sharqiy mudofaa devorini shimoliy qismida doira shaklda qurilgan yagona burj joylashgan. Unga koridor tomondan mudofaa devori ichiga joylashtirilgan kvadrat shakldagi xona orqali o‘tilgan. Ushbu burj otashparastlarni ibodatga chaqirish burji bo‘lsa ajab emas.

Endi, ibodatxona qoshidagi xo‘jalik-xizmat qismiga kelsak, u kompleksni to‘rtdan bir qismini tashkil etadi. Ibodatxonaning xo‘jalik-xizmat qismidan, yuqorida eslatib o‘tilgan g‘alla omboridan tashqari, bronzadan mitti buyumlar tayyorlash ustaxonasi, muqaddas ichimlik tayyorlash “sexi” va ularni saqlash omborlari topildi. Bu ishlab chiqarish punktlari va ularga tegishli ashyoviy dalillarga qaraganda. jarqo‘tonlilarning dafin marosimi bilan bog‘lik bo‘lgan barcha masalalalarning echimi otashparast mu’bodlar nazoratida bo‘lib, ularning faol ishtiroqida bajarilgan ko‘rinadi.

Sopollitepa va Jarqo‘tonda olib borilgan arxeologik dala tadqiqotlarimizdan ma’lumki, Sopolli madaniyatida dastlab qabrlarni hovli-joy ichiga, uylarning poli ostiga yoki ularning devorlari tagiga va xonaga kirish eshigi astonasi ostiga ko‘mish keng tus olgan. Shuningdek, Ba’zi hollarda katta patriarxal oila istiqomat qilayotgan havlining harobaga aylangan qismi urug‘ jamoalarining xilxonalariga aylantirilgan. Bunday xollarda qabrlarga qo‘yilgan mehnat va harbiy qurollar kundalik hayotda foydalanib kelingan yaroqli qurollardan iborat bo‘lgan.

Bu manzarani ko‘p yillik faoliyatimiz davomida sopollitepa madaniyatining dastlabki (sopolli va jarqo‘ton) bosqichlarida bevosita kuzatdik. Ko‘mish marosimi bilan bog‘lik bo‘lgan bu urf-odat ushbu madaniyatning ko‘zali bosqichidan etiboran tubdan o‘zgardi.Chunki, aynan xuddi shu davrda katta patriarxol oila otashkadalaridan tashqari butun bir shahar yoki shahar-davlat masshtabida xizmat qiluvchi monumental ibodatxonalar paydo bo‘ldiki, endilikda ular jamiyatni boshqarish tizimidagi asosiy omillardan biriga aylandi, tug‘ilib kelayotgan daslabki sinfiy jamiyatning ideologiya markazi, aholiga ruhiy madad va taskin beruvchi bosh sajdagox tashkil topdi.

Darhaqiqat, arxeologik materiallarning qiyosiy taxliliga ko‘ra, jarqo‘ton ibodatxonasi miloddan avvalgi XIV asrda qadimgi qal’a o‘rnida qad ko‘targan. Aynan shu davrdan boshlab jarqo‘tonlilar hayotida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Endilikda hayotdan ko‘z yumgan odamlarni ular yashagan xonalarga ko‘mish barham topdi. Shahar tashqarisida alohida barcha uchun babbarobar qabristonlar paydo bo‘ldi. Masalan, Jarqo‘ton shahar xarobasining janubida, yuqorida ta’kidlaganimizdek,

qadimgi shahardan tashqarida, birnecha tabiiy tepalarni egallagan, umum maydoni 20 ga dan kam bo‘lmagan qabriston tashkil topdi. Ularda o‘tkazilgan arxeologik izlanishlar natijasida qo‘lga kiritilgan ashyoviy dalillarga qaraganda marxumlarni yashab turgan o‘z havli joylariga ko‘mish urf-odati jarqo‘ton bosqichining so‘ngi damlarida barham topgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Jarqo‘ton va shu madaniyatga tegishli boshqa yodgorliklarda ochilgan uy-joy massivlarining birortasida ham na ko‘zali, na mo‘lali, na buston komplekslariga oid bironta ham qabr uchratilmadi. Bu birinchidan

Ikkinchidan, Sopollitepa madaniyatining sopolli va jarqo‘ton bosqichlarida biror kimsa olamdan o‘tsa, ananaviy urf-odatga ko‘ra, uning qabriga, uning hayotlik davridagi (ayollarning taqinchoqlaridan tashqari) kasbi-koriga tegishli mehnat va harbiy qurollarini qo‘shib ko‘mish odat bo‘lgan. Undan tashqari dafn marosimiga qatnashgan har bir oila nomidan sopol idishlarda marxum qabriga suyuk yoki qo‘yiq ovqat qo‘yilgan. Mana shu ananaga ko‘zali bosqichidan boshlab, qat’iy ravishda ba’zi bir tuzatishlar kiritildi, ya’ni agar qabrga qo‘yilgan mehnat va harbiy qurollarini avvallari asli qo‘yilib kelgan bo‘lsa, endilikda ular o‘rniga u qurollarning mahsus tayyorlangan mitti nusxalari qo‘yiladigan bo‘ldi. Ehtimol,bu o‘zgarishlar u vaqtda mehnat qurollari asosan bronzadan yasalgani uchun metall xom ashyosini iqtisod qilish bilan bog‘lik bo‘lgandir. Ehtimol, bu o‘zgarish zaminida qandaydir diniy g‘oyaviy ma’no yotar? Har qalay, bu o‘zgarish aynan o‘sha davr otashparastlar mafkurasida patriarxal oilaviy otashkadalarning umum shahar ibodatxonasi darajasiga o‘sib chiqish jarayonida sodir bo‘ldi.

Uchinchidan, umumshahar yoki ma’lum bir voha miqyosida monumental bosh ibodatxonasining shakllanishi munosabati bilan otashparastlar mafkura olamida qandaydir o‘zgarishlar yuz berdi. Masalan. marxumni "narigi" dunyoga kuzatish bilan bog‘lik bo‘lgan marosimlar endilikda ibodatxona mu’bodlari nazoratida bO‘lib, ular tartibga solgan meyoriy o‘lchamlarda o‘tkazilgan. Chunki ibodatxonaning xo‘jalik-xizmat qismini qazish vaqtida marxumni dafin etish bilan bog‘lik ba’zi bir masalalar echimini ibodatxona o‘z zimmasiga olgan ko‘rinadi. Bunday xulosaga kelishimizga kuyidagi dalillar ishora qiladi:

1) Ibodatxonaga kirish darvozasi qarshisidagi ochiq havli yonidan mahsus metallurgiya ustaxonasi ochildi. Ustaxona sharqiy devoriga yopishtirib (kengligi O,7O sm, balandligi 1 m.) qurilgan supa ustiga qator (5ta) o‘choqchalar o‘rnatilgan. O‘choqchalarning ba’zi birlarida bronza xom ashyosi eritiladigan tigel (qozon) parchalari topildi. ·ozon tagida ko‘kimtir tus olgan bronza eritmasi saqlangan. Ustaxonaning g‘arbiy devoriga yopishtirib (balandligi 1 m.) kvadrat shaklda (1,5x1,5

m.) qurilgan yana bitta supa ochildi. Supaning shimoliy qismiga usti tekis yorg‘uchoq o‘rnatilgan.Uning ustida bronzadan qandaydir asboblar tayyorlanganligidan guvohlik beruvchi ko‘kimtir metall zarrachalari saqlangan. Supa yonidan 7 m. chuqurlikda quduq ochildi. Ustaxona ichidagi madaniy qatlamni qazish vaqtida esa metall eritmasining parchalari, metall shlaklar, bronza mitti pichoqlar, bolta, tesha va boshqa o‘y-ro‘zg‘or asboblari topildi. Ustaxonadan topilgan bronza predmetlari orasida bironta ham xo‘jalikda ishlatilishga yarakli bo‘lgan asbob-uskuna uchratilmadi. Demak, ushbu ustaxonada faqat marxumlar uchun, ularning kasbi-qoriga muvofiq buyurtma bajarilgan. Boshqacha qilib aytganda, jarqo‘ton bosqichining ikkinchi yarmidan boshlab qabrlarda uchratilayotgan mitti bronza predmetlari marhum egalari tomonidan uning kasbi-koriga ko‘ra, maxsus tayyorlatilgan mehnat va jangavor qurollarning imitatsiyasi bo‘lgan.

2) Ibodatxona xo‘jalik qismining janubiy-g‘arbiy burchagida teng ikkiga ajratilgan koridorsimon xona joylashgan. Ularni qazish vaqtida devor ostidan loydan ishlanib, quydirilmay qizil rangga bo‘yalgan birnecha odam xaykalchalari topildi. Odatda bunday xaykalchalar kenataf mozorlarda (qadimda bedarak yo‘qolgan qabiladoshlarining mayyiti o‘rniga lattadan yasalgan ko‘g‘irchoq yoki loydan ishlagan haykalcha ko‘mish, yoki bo‘lmasa, qabrga yo‘qolgan egasi o‘rniga marxum mulkidan ko‘zichoq ko‘mish odati bo‘lgan. Mana shunday mozorlar, odatda, kenataf mozorlar, deb yuritiladi) uchratiladi. Kenataf mozorlar Sopollitepa madaniyatining ilk bosqichlarida ham bo‘lgan. Ammo, bedarak yo‘qolgan marxumlar uchun maxsus tayyorlab qo‘yilgan xaykalchalarni ibodatxonaning “omborida” saqlanishi marxumlarning “narigi” dunyoga uzatish bilan bog‘lik ishlarni endi to‘lik ibodatxona qo‘liga o‘tib ketganligidan guvohlik beradi.

Ibodatxona xo‘jalik-xizmat qismini qazish vaqtida, uning ikki joyidan muqaddas ichimlik tayyorlaydigan “sex” izlari topildi. Birinchi “sex” (ibodatxonaning 2-nchi bosqichiga tegishli) 9-nchi xonani to‘liq egallagan. Xona poli va uning devorlari och-qizil yupqa gips suvoq bilan suvolgan. Xonaning biroz pasaytirilgan qoq o‘rtasiga, bo‘g‘iziga qadar polga cho‘ktirilgan xum o‘rnatilgan. Xumga ikki tomondan qalin gips suvoqli ariqchalar tortilgan. Har ikkala ariqcha boshida gipslangan chuqurchalar bo‘lib, ularga sopol barkashlar qo‘yilgan. Sopol barkashlarning ichi ham yarmigacha qatlam-qatlam gips bilan suvolgan. Polga cho‘ktirilgan xum tagida qorayib qotib ketgan qandaydir suyuklik qoldigi, uzum urug‘lari va jiyda danagi uchratildi. Xum yaqinidan xumo qushi qiyofasida ishlangan sopol idish topildi. “Sex” yonida yana bir xona (10) bo‘lib, uning devorlari ostidan birnecha xumlarning parchalari uchratildi. Agar 9-nchi xona muqaddas ichimliklar

tayyorlash “sex” bo‘lsa, 10-nchi xona “sex” qoshidagi omborxona bo‘lishi mumkin. Xuddi shunga o‘xshash boshqa bir “sex” qoldigi ibodatxonaning (3-nchi bosqich) 11-nchi xonasidan topildi. Bu joyda xonaning shimoliy qismini ikki tomoni supa qilib ko‘tarilgan, uning o‘rtasi esa pol sathida qoldirilib, unga katta sopol barkash o‘rnatilgan. Supalar ustiga dumoloq rezervuarlar yasalib, ularni ichi gipslangan. Ulardan sopol barkash tomon gips suvoqli ariqchalar tortilgan. Xonaning janubiy-sharqiy burchagidan qorniga qadar polga cho‘ktirilgan xum topildi.Xonaning qoq o‘rtasiga esa aylana shaklda qurilgan altar o‘rnatilgan.

Garchi bu ikki “sex”da qanday ichimliklar tayyorlanganligi haqida guvohlik beruvchi aniq ashyoviy dalillar bo‘lmasada, ammo ularda otashparastlarning muqaddas ichimligi tayyorlanganligiga bilvosita ishora qiluvchi faqtlar yo‘q emas. Masalan, qadimgi Baktriyaning janubida (Shimoliy Afgoniston) hamda qo‘shni Marg‘iyonada prof. V.I. Sarianidi bronza davri yodgorliklarida izlanishlar olib borib, janubiy Baktriya yodgorliklarining uchtasida (Dashli-3, Tillatepa va ·utluq tepa) va Marg‘iyonada uch joyda (Gonur tepa, To‘g‘oloq-1 va To‘g‘oloq-21) otashparastlarning ibodatxonalarini ochgan. V.I. Sarianidi Gonur tepada gips suvoqli xona ochib, uni otashparastlik ibodatxonasi bilan bog‘laydi. Shuningdek, ibodatxona qoshidagi yordamchi xonalarning biri to‘laligicha gipslanganligini qayd etib, unda (oq xonada) esa kishini kayfiyatini ko‘taruvchi muqaddas ichimliklar tayyorlangan, degan xulosaga keladi. Uning bunday xulosaga kelishida kuyidagilar asos bo‘lgan: 1) "oq xona" devori ostidan uchta ichi qatlam-qatlam gipslangan sopol idishlar topilgan. Ularni MDU qoshidagi maxsus laboratura tekshiruvidan o‘tgazilganda, idish ichidagi gips qatlamlari orasidan, kutilmaganda, efedra shoh izlari hamda ko‘p miqdorda ko‘knor va nasha urug‘ining izlari topilgan (Sarianidi, 33; 101-102).

2) Xuddi shunday " oq xona"lar Marg‘iyona vahosining bosh ibodatxonasi To‘g‘oloq-21 da va "qishloq ibodatxonasi" To‘g‘oloq-1 da ham uchratiladi. Bu xonalarda, xuddi jarqo‘ton ibodatxonasida uchratilganidek, tagi teshik konussimon idish-sopol suzgichlar topilganki, ulardan xauma yoki kishini kayfiyatini ko‘taradigan maxsus ichimlik tayyorlashda foydalanganlar. Jarqo‘tonda uzumchilik bo‘lganligi haqida guvohlik beruvchi dalillarni eslar zkanmiz, bunga shubxa qolmaydi.

3) Jarqo‘ton ibodatxonasining xo‘jalik qismi, umuman jarqo‘tonda ko‘plab uchraydigan mehnat qurollaridan biri-qumtoshlardan ishlangan har xil katta-kichiklikdagi yorg‘uchoqlaru, granit va choqmoqtoshlardan yasalgan ularning ustki toshi-yanchgichlardir. Bu xildagi qurollar Dashli-3, To‘g‘oloq-21, To‘g‘oloq-1 va Gonur tepada ham ko‘plab topilgan. V.I. Sarianidi ularning bir qismini MDUning maxsus laboraturasida binokulyar mikraskop yordamida tekshirtirganda, ularda

(ishchi qismida) ko‘knor urug‘ining zarrachalari uchratilgan. Shuningdek, qorayib ketgan ko‘knor urug‘ining o‘zi esa ibodatxona topilmalaridan biri, sirtiga aniq qilib odam ko‘zlari tushirilgan naychasimon suyak ichidan topilgan (Sarianidi, 1992, str. 89).

Shunday qilib, qadimgi Baktriya va Marg‘iyonada topilgan bronza davrining otashparastlar ibodatxonalari zardushtiylik dinining ildizlari aynan mana shu viloyatlarda yaratilganligidan guvohlik beradi. To‘g‘ri, ba’zi bir parazlarga ko‘ra, Zardusht miloddan avvalgi V11 asrning ikkinchi yarmi va V1 asrning boshlarida yoki undan avval yashagan tarixiy shaxs sifatida yangi dinni yaratmadi, balki u qabiladoshlari qadimdan topinib kelayotgan otashparastlar dinini isloh qildi. Boshqacha qilib aytganda, u eski diniy e’tiqod va tasavvurlar tizimiga o‘zgarib borayotgan zamon talabi asosida o‘z qarashlarini, konsepsiyasini kiritdi.

Qadimgi Baktriya va Marg‘iyonaning bronza davri otashparastlar ibodatxonalaridan ko‘rinib turibdiki, Zardushtga qadar bunyod etilgan diniy e’tiqod maskanlari o‘zlarining monumental mahobati va diniy marosimlarining boy va serhashamligi bilan ajralib turgan. Efedra, ko‘knor nasha kabi giyovand o‘simlik qoldiqlarini ibodatxona komplekslarida ko‘plab uchrashi Avesta va Veda an’analarida xauma ichimligiga meyoriy o‘lchamlarda o‘rin berishga olib kelganligidan dalolat beradi. Ishonch bilan aytish mumkinki, Marg‘iyonada Zardusht islohiga qadar olovga topinish va xauma ichimligini ilohiylashtirish kuchli bo‘lgan. Bu e’tiqod ob’ektlari Zardusht ta’limotida ham o‘zgarib borayotgan zamon talabi asosida o‘z o‘rnini topgan.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan arxeologik izlanishlar va qazishmalar jarayonida topilgan ashyoviy dalillar taxlilidan kelib chiqib, ўuyidagi yakuniy xulosaga kelish mumkin:

1). O‘zbekiston Respublikasining janubiy viloyatlarida miloddan avvalgi 2-nchi ming yillikning birinchi yarmi davomida qadimgi sharq sivilizatsiyasiga xos urbanistik tarixiy sharoitda yuksak rivojlangan qadimgi ilk shahar madaniyati tarkib topdi. Ushbu qadimgi shahar madaniyatining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy asoslari Surxondaryo viloyatining Sherobod vahosida qad ko‘targan noyob yodgorliklar - Sopolli tepa va Jarqo‘ton misolida o‘rganildi.

2). Agar Sopolli tepa o‘zining qadimgi shaharsozlik madaniyatiga xos barcha alomatlari bilan protoshahar, yani Avestada tilga olingan vara inshoatini eslatsa, Jarqo‘ton yodgorligi O‘zbekiston xududida birinchi bor shakllangan tom ma’nodagi qadimgi shahar edi. Jarqo‘ton xududiy jihatdan ·adimgi Sharq shaharlaridan tarkibiy jihatidan farq qilmaydi.

3). U yoki bu yodgorlikni qadimgi shahar deb atalishi uchun ko‘yiladigan ilmiy talablardan kelib chiqilganda ham Jarqo‘ton u talablarga javob berishi mumkin bo‘lgan noyob yodgorlikdir. Qadimgi shaharlarga xos bo‘lgan birinchi alomat - shahar maydonida arki a’lo va shahristonni tarkib topgan bo‘lishi bo‘lsa, Jarqo‘tonda bu sodir bo‘lgan, ya’ni 1OO gektarli Jarqo‘tonni 3 gektari arki a’lo va qolgan qismi shahriston maydonini tashkil etadi.

Ikkinchi alomat - o‘troq dehqonchilik madaniyati aholisi zich joylashgan maskan mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan bo‘lishi Sopollitepa va Jarqo‘tonda o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Uchunchi alomat - shahar arki qismida monumental mahobatli binoni ya’ni umumshahar jamoalari boshligining qarorgohini tarkib topishi Jarqo‘tonda o‘z aksini topgan.

To‘rtinchi alomat - shahar maydonida barcha uchun babbarobar xizmat qiluvchi bosh sajdagoh - diniy mafkura markazini shakllangan bo‘lishi. Jarqo‘tonda shunday bosh sajdagoh - mahobatli monumental ibodatxona tarkib topgan.

Beshinchi alomat - qadimgi shaharda xunarmandchilikning turli tarmoqlarini professional darajada tarkib topgan bo‘lishi. Sopollitepa va Jarqo‘tonda bu yo‘nalish yuksak darajada rivojlangan. Ayniqsa Jarqo‘tonda kulolchilik (bu soha Sopolitepada ham yuksak rivojlangan), metallurgiya, to‘kimachilik, amaliy san’at, uy-joy qurilishi sohalari bo‘yicha ixtisoslashish jarayoni professional darajada bo‘lganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shahar xunarmandchilik mahsulotlari nafaqat ichki bozor, balki tashki bozor uchun ham keng ko‘lamda ishlab chiqarilgan. Masalan, ushbu qadimgi shahar madaniyatiga tegishli kulolchilik mahsulotlarini uzoq Xitoy hududlarigacha kirib borganligi haqida guvohlik beruvchi ashyoviy dalillar mavjud. Demak, bu o‘sha davr shahar aholisi tarkibi haqida faraz qilishga ishora bo‘lib, qadimgi jarqo‘ton shahar aholisi erkin dehqon jamoalari-kashovarzlardan tashqari shahar xunar va savdo ahli “ozodkor” va “guvokor” lardan ham iborat bo‘lgan. Shahar hayoti nafaqat diniy, balki dunyoviy jihatdan tashkil etilgan boshqaruv tizimi asosida qurilgan. Shahar xukmdorining monumental koshonasining arki a’loda shakllanishi bunga dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Дяконов И.М. Города-государства Шумера. История древнего мира, том 1, Москва, 1983 г.

2. Дяконов И.М. Ранние деспотии в Месопотамии. История древнего мира, том 1, Москва, 1983 г.

3. Adams R. Heartland oo‘ Cittes, Chicago, 1981.

4. Chayld G. Drevneyshiy Vostok v svete novыx roskopok. Moskva, 1956 g.

5. Domokosh Varga. Drevnыy Vostok. Budapesht,1979 g.

6. Авеста: избранные гимны. Перевод с авестийского и комментарии профессора И.М. Стеблин-Каменского. Душанбе, 1990 г.

7. Мери Бойс. Зороастрийсы: верования и обичаи. Москва, 1987 г.

8. Аскаров А. Древнеземледелческая культура зпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент, 1977 г.

9. Аскаров А. Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Самарканд, 1993 г.

10. Аскаров А. Ширинов Т. Древнебактрийский храм огня в Южном Узбекистане. Сб. Градостроителство и архитектура. Ташкент, 1989 г.

11. Аскаров А. Абдуллаев Б. Джаркутан. Ташкент,1983 г.

12. Массон В.М. Алтын - Депе. Ленинград, 1981 г.

13. Массон В.М. Экономика и социалный строй древних обществ (в свете данных археологии). Ленинград, 1976 г.

14. Рахманов У. Керамическое производство зпохи бронзы южного Узбекистана. Автореф. соискание канд. истор. наук. Самарканд, 1987 г.

15. Сарианиди В.И. В поисках страны Маргуш. Москва, 1993 г.

16. Сарианиди В.И. И здес говорил Заратуштра. Москва, 1992 г.

IJTIMOIY ANTROPOLOGIYADA SAN’AT VA UNING FUNKTSIYALARI

M.M.Is’hoqov
TDSHU, professori
Tarix fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada san’atni madaniyat hodisasining muhim ijtimoiy antropologik xossalari ochiqlanadi. San’at inson va uning jamiyati tomonidan yaratilar ekan, insonning va uning jamiyatiga xizmat qilishi orqali o‘zining antropologik mohiyatini namoyon etishi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: san’at, antropologiya, estetika, moddiylik, ma’naviy kontekst, simvolika, psixologik ta’sir, madaniy o‘zlik, san’atning nisbiyligi, an’anaviylik, globallashuv, virtual olam va san’at.

San’at antropologiyasi ijtimoiy antropologiyaning muhim tarmog‘idir. Ko‘p hollarda olimlar ijtimoiy antropologiya bilan madaniy antropologiya tushunchalarini bir ma’noda qo‘llaydilar. Madaniyat va uning barcha ifodalari, jumladan, san’at ham aslida ijtimoiy antropologiyaning inson faoliyati hosilasi sifatida insonning o‘ziga va uning jamiyatiga xizmat qiladi. Demak, san’at antropologiyasi moddiy va ma’naviy

qiyofada inson madaniy ijodining ijtimoiy va ramziy ma’nolarini o‘rganadigan maxsus yo‘nalishidir.

San’at antropologiyasi san’atni shunchaki go‘zallik (estetika) obyekti sifatida emas, balki uni yaratgan **jamiyatning ijtimoiy munosabatlari, e’tiqodlari, tillari va kundalik hayoti bilan bog‘liq holda** tadqiq qiladi.

Bu yo‘nalish san’atni

a) ijtimoiy aloqa vositasi sifatida;

b) ramzlar va e’tiqod tizimi;

c) an’anaviy madaniyat va san’at;

d) g‘arb va g‘arb emas san’at;

e) regional va global miqyoslarda san’at xususiyatlari;

f) qadimgi yoki an’anaviy qabilalar madaniyati va san’ati;

g) raqamli zamonaviy san’at sifatida o‘rganadi

Antropologlar san’at asarlarini jamiyat a’zolari o‘rtasidagi aloqa (kommunikatsiya) tili deb hisoblashadi. San’at orqali insonlar o‘zlarining ijtimoiy mavqei, jamiyatdagi maqomi va boshqa jamoaviy va keng ma’nodagi ijtimoiy munosabatlarini namoyish etadilar.

Ramziy e’tiqod tizizimi yo‘nalishi turli madaniyatlardagi tasvirlar, haykallar, marosimiy raqslar va cholg‘u ijrolarining **ramziy ma’nolarini** tahlil qiladi. Masalan, an’anaviy jamiyatlardagi niqoblar yoki tanaga chizilgan rasmlari) shunchaki bezak emas, balki diniy marosimlar, ajdodlar ruhi bilan bog‘lanish yoki balog‘at yoshiga yetish (initsiatsiya) marosimlarining muhim qismi hisoblanadi.

G‘arb mumtoz san’atshunosligi uzoq vaqt davomida faqat Yevropa san’atini boshqa mintaqalar san’atidan yuqori qo‘ygan bo‘lsa, san’at antropologiyasi **barcha xalqlar va qabilalarning ijodini teng huquqli** deb biladi. Holbuki, “sodda, to‘pori” yoki “ajabtovr” deb atalgan san’at turlarining zamirida murakkab falsafiy va ijtimoiy-ma’naviy tizim yotganini hisobga oladi va ilmiy asosda o‘rganadi

Bugungi kunda san’at antropologiyasining e’tibor doirasi jahon miqyosida namoyon bo‘lish bilan birga mahalliy, mintaqaviy, etnik san’at turlarini, ularning noyob namunalarini ko‘rish, mushohada va fikr-mulohaza qilish imkoniga ega. Bu yalpi global hodisa san’atning san’atning ijtimoiy, ma’naviy, ma’rifiy, estetik ta’sir imkoniyatlarini favqulodda kengaytirib qo‘ydi. Zamonaviy shaharlardagi submadaniyat ko‘rinishlarining amaldagi shakllari (maydon va hiyobonlardagi rang-bo‘yoq, chizma va bo‘rtma tasvirlar, turli ramziy belgilar), dekorativ san’at namunalari inson hayotidagi ularning o‘rni – bularning barchasi san’at (va, albatta

madaniyat ko‘lamining muhim unsuru sifatida) san’at antropologiyasining ajralmas qismidir.

Bu o‘rtada raqamlashgan dunyo o‘z talablarini qo‘ymoqda. San’at mahsulatlari internetda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda, sun’iy intellekt yordamida san’at asarlari yaratilmoqda. Bu intensiv ta’sir doirasida insonning intellectual faoliyati xususiyatlari ham o‘zgarmoqda. Biroq, unutmaslik kerakki, sun’iy intellekt, virtual mahsulotning har qanday turi, avvalo inson aqli va zakovatininhg samarasidir.

Shulardan kelib chiqib san’at antropologiyasining ayrim muhim jihatlariga e’tibor qaratamiz. Masalaning mohiyatini ochish uchun quyidagi:

A) San’atning antropologik mohiyati **b)** san’atning funksiyalari mahalliy san’at turlari va ularning global san’at harakati oqimidagi taqdiri **v)** madaniy transmissiya nazariyasiga ko‘ra san’atnng jamiyat hayotidagi maqomi kabi qirralar orqali ochiqlashga harakat qilamiz.

San’at tushunchasining ijtimoiy antropologik mazmuni

San’at insoniyat madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u jamiyatning estetik qarashlari, diniy e’tiqodlari, ijtimoiy munosabatlari va tarixiy tajribalarini ifodalovchi ramziy tizim hisoblanadi. Ijtimoiy antropologiyada san’at nafaqat estetik hodisa, balki muayyan jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy tuzilmasini aks ettiruvchi madaniy fenomen sifatida o‘rganiladi. Antropologlar san’atni insonlarning o‘zaro munosabatlari, marosimlari, iqtisodiy faoliyati va siyosiy tizimlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladilar.

Madaniyat insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmui sifatida qaralsa, san’at ushbu boyliklarning eng muhim ifoda shakllaridan biri hisoblanadi. Har bir jamiyat o‘zining tarixiy tajribasi, ekologik sharoiti va ijtimoiy tuzilmasiga mos ravishda san’atning o‘ziga xos shakllarini yaratadi. Natijada san’at madaniy identifikatsiya, ijtimoiy birdamlik va jamoaviy xotirani shakllantirish vositasiga aylanadi.

Antropologiyada san’atning o‘rganilishi XIX asr oxirlaridan boshlangan bo‘lib, dastlabki tadqiqotlar ibtidoiy jamiyatlar san’ati bilan bog‘liq edi. Keyinchalik funksionalizm, strukturalizm, simvolik antropologiya va postmodern antropologiya vakillari san’atni turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qildilar. Bugungi kunda esa san’at antropologiyasi mustaqil tadqiqot yo‘nalishiga aylangan bo‘lib, san’atning yaratilishi, iste’moli, tarqalishi va madaniy transmissiyasi masalalarini o‘rganadi **[Alan Barnard: 312–318]**.

Antropologik yondashuvda san’at tushunchasi G‘arb estetikasi doirasidagi an’anaviy talqindan farq qiladi. Yevropa san’atshunosligida san’at ko‘pincha estetik

zavq uyg‘otuvchi faoliyat sifatida talqin qilinsa, antropologiyada u jamiyatning ramziy tizimi va ijtimoiy kommunikatsiya vositasi sifatida ko‘riladi.

Frans Boas Shimoliy Amerika hindulari san’atini o‘rganish jarayonida san’at asarlarining shakli va mazmuni muayyan madaniy muhit bilan bog‘liqligini ta’kidlagan. Uning fikricha, har bir xalqning san’ati o‘sha xalqning tarixiy rivojlanishi va madaniy tajribasi mahsulidir. Shu sababli bir madaniyat san’atini boshqa madaniyat mezonlari asosida baholash ilmiy jihatdan noto‘g‘ri hisoblanadi **[Franz Boas: 9-27.]**. Boasning *madaniy relativizm*[*]*(* tamoyili san’at antropologiyasi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, san’atning qiymati va estetik xususiyatlari universallikdan ko‘ra madaniy kontekst bilan belgilanadi. Ya’ni madaniyat avvalo kimga, qaysi xalqqa, qaysi makonga tegishliligi orqali nisbiy xususiyatga egadir

XX asrning ikkinchi yarmida **Klifford Girts** tomonidan ishlab chiqilgan interpretativ antropologiya san’atni ma’nolar tizimi sifatida talqin qildi. Girtsning fikricha, san’at jamiyat a’zolariga dunyoni tushunish va talqin qilish imkonini beruvchi ramzlar majmuasidir. San’at asarlari insonlarning hissiyoti, tajribasi va dunyoqarashini ifodalovchi madaniy matn sifatida qaralishi kerak **[Clifford Geertz: 94–120]**.

Alfred Gell esa san’atni estetik obyektdan ko‘ra ijtimoiy harakat vositasi sifatida tushuntirgan. Unga ko‘ra, san’at asarlari insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantiradi, ijtimoiy ta’sir ko‘rsatadi va ma’lum darajada “ijtimoiy agent” vazifasini bajaradi **[Alfred Gell: 6–27]**.

San’atning jamiyatdagi funksiyalari

Antropologiyada san’at shunchaki estetik zavq manbai emas, balki jamiyatni birlashtiruvchi, uning qadriyatlarini saqlovchi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi universal mexanizm sifatida o‘rganiladi. Ijtimoiy antropologiyada san’at tushunchasiga keng ta’rif beriladi. Fransuz antropologi Klod Levi-Stros ta’kidlaganidek, “San’at – inson ongining ramziy tizimlar orqali atrof-muhitni va ijtimoiy borliqni tartibga solishga bo‘lgan urinishidir. An’anaviy va zamonaviy jamiyatlarda san’at faqat vizual yoki estetik vazifani bajarmaydi, u jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, diniy va ijtimoiy tuzilmalari bilan uzviy bog‘liqdir.

San’at har qanday jamiyat hayotida ko‘plab funksiyalarni bajaradi. Ijtimoiy antropologiya nuqtai nazaridan san’atning asosiy funksiyalarini quyidagilarga ajratish

[*] *Madaniy relativizm* – bu har qanday jamiyatning urf-odatlari, qadriyatlari va e'tiqodlarini faqat o'sha madaniyatning o'z ichki mezonlari asosida tushunish va baholash kerakligini bildiruvchi antropologik tushunchadir. Unga ko'ra, hech bir madaniyat boshqasidan ustun yoki “to'g'riroq” hisoblanmaydi, barcha urf-odatlar nisbiydir.

mumkin: **Integrativ funksiyasi**: San’at jamiyat a’zolarini umumiy hissiyotlar, ramzlar va g‘oyalar atrofida birlashtirishning eng kuchli vositasidir. Ritual va marosimlar jarayonidagi raqslar, qo‘shiqlar yoki tana bezaklari (tatuirovka, skarifkatsiya) individualizmni kamaytirib, jamoaviy birdamlikni yuzaga keltiradi. Antropologiyada san’at jamiyatni birlashtiruvchi eng qadimiy madaniy institutlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Insoniyat tarixining ilk bosqichlaridan boshlab qo‘shiq, musiqa, raqs, bezak san’ati, teatr, marosim va tasviriy san’at nafaqat estetik ehtiyojlarni qondirgan, balki guruh ichidagi birdamlikni mustahkamlash, hamkorlikni rivojlantirish va umumiy ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish vazifasini ham bajargan.

Antropologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, san’at insonlarni umumiy hissiyotlar, ramzlar va marosimlar atrofida birlashtirib, "biz" tushunchasini shakllantiradi. Bu jarayon jamiyatning ichki barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Polshalik sotsial antropolog Bronisław Malinovskiyning fikricha, san’at umumiy emotsiyalarni uyg‘otish va kollektiv birdamlikni mustahkamlash orqali ijtimoiy tizimning barqarorligini ta’minlaydi.

San’atning eng muhim integrativ vazifalaridan biri kollektiv identitetni shakllantirishdir. Har bir jamiyat o‘zining tarixiy xotirasi, qadriyatlari va madaniy tajribasini san’at orqali ifodalaydi. Milliy madhiyalar, xalq qo‘shiqlari, folklor, xalq raqslari, amaliy bezak san’ati, milliy me’morchilik va tarixiy monumentlar fuqarolarda umumiy tarix va umumiy taqdir haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Natijada shaxs o‘zini ma’lum etnik, diniy yoki milliy hamjamiyatning ajralmas qismi sifatida anglay boshlaydi.

Siyosatshunos Benedikt Anderson tomonidan 1983-yilda nashr etilgan “Tasavvur qilingan jamoalar: millatchilikning kelib chiqishi va tarqalishi haqida mulohazalar” nomli kitobida ilk bor *“tasavvur qilingan hamjamiyat”* tushunchasini qo‘llaydi. Unga ko‘ra keng ko‘lamli guruhlar a’zolari – masalan, millatlar – hech qachon o‘z millatdoshlarining ko‘pchiligini bilmasligi yoki uchratmasligi, ammo ular o‘zlarining jamoaviy aloqasi va o‘ziga xosligini chuqur va ongli tasavvur etishini ta’kidlaydi. Xuddi shunday san’at va madaniy ramzlar millionlab bir-birini tanimaydigan insonlarni umumiy tarix va umumiy identitet atrofida birlashtiradi – deydi olim.

Shuningdek san’at jamiyatning madaniy xotirasini saqlaydi va uni keyingi avlodlarga uzatadi. Ertaklar, afsonalar, dostonlar, maqollar, xalq qo‘shiqlari, milliy naqshlar va amaliy san’at namunalarida jamiyatning tarixiy tajribasi mujassamlashgan. Ularni o‘rganish va takrorlash orqali yangi avlodlar o‘z madaniy merosini o‘zlashtiradi. Nemis tarixchisi Yan Assman san’atni jamoaviy xotiraning

eng muhim tashuvchilaridan biri sifatida baholaydi. Olim san’at tarixiy tajribani uzoq muddat davomida saqlab qolishga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Antropologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, san’at turli madaniyatlar o‘rtasida muloqot o‘rnatishning samarali vositasidir. Musiqa, raqs, kino, teatr va tasviriy san’at til bilishni talab qilmaydigan universal kommunikatsiya shakllarini yaratadi. Shu sababli san’at turli etnik va diniy guruhlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Hind antropologi Arjun Appadurai o‘z asarlarida globallashuv sharoitida madaniy oqimlar va san’at shakllari turli jamiyatlarni yangi transmilliy madaniy maydonda birlashtirayotganini bir necha bor ta’kidlab o‘tadi.

Ushbu funksiyada orqali san’at jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni kamaytirish va ijtimoiy murosani mustahkamlash vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Turli festivallar, xalq sayillari, umumxalq bayramlari, teatr tomoshalari va jamoaviy musiqa tadbirlari turli ijtimoiy qatlam vakillarini bir makonda jamlaydi. Bunday tadbirlar davomida mavjud ijtimoiy tafovutlar vaqtincha ikkinchi darajaga o‘tadi va umumiy madaniy tajriba ustuvor ahamiyat kasb etadi. Birgalikda qo‘shiq aytish, musiqa chalish yoki raqsga tushish davomida ishtirokchilarning harakatlari va emotsiyalari birlashadi. Zamonaviy tadqiqotlar bunday birdamlik o‘zaro ishonch va hamkorlikni kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida san’atning integrativ funksiyasi yangi shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Virtual konsertlar, xalqaro kino festivallari, internet orqali tarqaladigan musiqiy loyihalar, raqamli muzeylar va transmilliy madaniy platformalar geografik jihatdan uzoqda yashovchi insonlarni umumiy estetik tajriba asosida bog‘lamoqda. Shu bilan birga, antropologlar global ommaviy madaniyat mahalliy san’at an’analariga ham ta’sir ko‘rsatishini qayd etadilar. Natijada integratsiya jarayoni ikki yo‘nalishda kechadi: bir tomondan, global madaniy birdamlik kuchayadi; ikkinchi tomondan, mahalliy madaniy identitetni saqlashga bo‘lgan ehtiyoj ortadi.

San’atning integrativ funksiyasi nuqtayi nazaridan ijtimoiy antropologiya jamiyatning ijtimoiy yaxlitligi va barqarorligini ta’minlovchi universal madaniy mexanizm hisoblanadi. San’at umumiy ramzlar, kollektiv emotsiyalar va madaniy xotirani shakllantirish orqali shaxslarni yagona ijtimoiy makonga birlashtiradi. U kollektiv identitetni mustahkamlaydi, avlodlar o‘rtasidagi madaniy uzviylikni ta’minlaydi, turli guruhlar o‘rtasidagi muloqotni rivojlantiradi va ijtimoiy ishonchni kuchaytiradi. Zamonaviy antropologik nazariyalarda san’at integratsiyani faqat milliy yoki etnik doirada emas, balki global madaniy makon miqyosida ham amalga oshiruvchi muhim institut sifatida baholanadi.

Ramziy-kommunikativ va kognitiv funksiyasi. San’at axborot uzatishning muhim vositasidir. Yozuv paydo bo‘lishidan oldin ham insonlar o‘z bilimlari va tajribalarini tasviriy san’at, naqshlar va marosimlar orqali avlodlarga yetkazganlar. Qadimgi g‘or rasmlarida ov jarayonlarining tasvirlanishi nafaqat estetik maqsadga, balki amaliy va kommunikativ vazifalarga ham xizmat qilgan. Shuningdek, har bir madaniyatda san’at asarlari muayyan “kodlar” va ramzlar tizimidan iborat bo‘ladi. San’at yozma nutq rivojlanmagan jamiyatlarda ham, zamonaviy axborotlashgan dunyoda ham muhim ijtimoiy normalarni, mifologik dunyoqarashni va tarixiy xotirani avloddan-avlodga uzatish vazifasini bajaradi.

San’atning ushbu funksiyasi insonlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlash hamda bilim va dunyo haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdagi o‘rnini tushuntirishga xizmat qiladi. Antropologlarning ta’kidlashicha, inson biologik mavjudot sifatida emas, balki madaniy mavjudot sifatida yashaydi. Insonning atrof-muhitni idrok etishi, voqelikni talqin qilishi va boshqa insonlar bilan muloqot qilishi madaniyat vositasida amalga oshadi. Shu bois ramzlar, belgilar, til, urf-odatlar va marosimlar insoniyat madaniyatining asosiy kommunikativ vositalari hisoblanadi **[Alan Barnard: 35-58]**.

Ijtimoiy antropologiyada madaniyat ko‘pincha ramzlar tizimi sifatida talqin qilinadi. Ramz muayyan ma’no va g‘oyalarni ifodalovchi belgi yoki obyekt hisoblanadi. Ramzlarning ma’nosi biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy tajriba orqali shakllanadi. Masalan, davlat bayrog‘i, diniy belgilar, milliy kiyimlar va marosimiy jihozlar muayyan jamiyat uchun muhim ma’nolarni ifodalovchi ramzlardir. Amerikalik antropolog Klifford Girts madaniyatni “inson tomonidan yaratilgan ma’nolar to‘ri” deb ta’riflagan. Uning fikricha, insonlar o‘zlari yaratgan ramzlar tizimi ichida yashaydilar va voqelikni aynan shu ramzlar orqali tushunadilar. Shu sababli antropologiyaning vazifasi madaniy ramzlarning mazmunini talqin qilish va ularning jamiyat hayotidagi o‘rnini aniqlashdan iboratdir.

Kommunikatsiya jarayonida odamlar nafaqat so‘zlar, balki turli ramzlar, imo-ishoralar, kiyim-kechak, marosimlar va san’at asarlari orqali ham muloqot qiladilar. Ijtimoiy antropologiyada kommunikatsiya keng ma’noda tushuniladi va til, yozuv, ramzlar, marosimlar, miflar, san’at, diniy amaliyotlar kabi bir qator vositalarni o‘z ichiga oladi. Madaniyat ushbu vositalar orqali jamiyat a’zolariga umumiy ma’no maydonini yaratib beradi.

Kognitiv funksiya madaniyatning insonlarga dunyoni tushunish, tasniflash va izohlash imkonini beruvchi vazifasidir. “Kognitiv” atamasi lotincha cognitio – “bilish”, “anglash” ma’nolarini anglatadi. Madaniyat insonlarga tabiatni tushunish,

jamiyatni anglash, voqealarni izohlash va bilimlarni tizimlashtirish imkonini beradi. Kognitiv antropologiya vakillari madaniyatni bilimlar tizimi sifatida o‘rganadilar.

Ramziy-kommunikativ va kognitiv funksiyalar madaniyatning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Ramziy-kommunikativ funksiya insonlar o‘rtasida ma’no va axborot almashinuvini ta’minlasa, kognitiv funksiya insonlarning dunyoni tushunishi va izohlashiga xizmat qiladi. Til, marosimlar, miflar, san’at va xalq bilimlari ushbu funksiyalarning asosiy vositalari hisoblanadi. Ijtimoiy antropologiya madaniyatning aynan shu jihatlarini o‘rganish orqali insoniyat tafakkuri va ijtimoiy hayotining murakkab mexanizmlarini tushuntirib beradi.

Tarbiyaviy (ijtimoiy nazorat) funksiyasi: San’atning ushbu funksiyasi jamiyatning madaniy uzluksizligini ta’minlashda, avlodlar o‘rtasida qadriyatlarni uzatishda va ijtimoiy me’yorlarga rioya qilinishini nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. San’at orqali yosh avlodga axloqiy me’yorlar, urf-odatlar va tarixiy bilimlar yetkaziladi. Ertaklar, dostonlar, afsonalar, xalq qo‘shiqlari, teatr tomoshalari va tasviriy san’at shu vazifani bajaradi. Ushbu vazifa bilan san’an insonlarda jamiyat tomonidan ma’qullangan xulq-atvor normalarini shakllantiradi va tabularni (ta’qiqlarni) mustahkamlaydi. Bu orqali jamiyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy, diniy, huquqiy va madaniy qadriyatlarni shaxs ongiga singdiriladi. Shu sababli antropologlar san’atni madaniy ijtimoiylashuvning asosiy vositalaridan biri deb hisoblaydilar.

Ijtimoiy nazorat – bu jamiyat tomonidan insonlarning xulq-atvorini mavjud me’yorlarga moslashtirishga qaratilgan mexanizmlar yig‘indisidir. Antropologiyada ijtimoiy nazorat: *rasmiy* va *norasmiy* kabi ikki shaklda ko‘riladi. San’at asosan norasmiy ijtimoiy nazorat vositasi hisoblanadi. Chunki, qonun jazolaydi, san’at esa ishontiradi. Qonun majbur qiladi, san’at esa qadriyatlarni ichki e’tiqodga aylantiradi. Masalan, xalq dostonlari, ertaklar yoki teatr asarlarida ochko‘z, yolg‘onchi yoki xiyonatkor obrazlar oxir-oqibat jazolanadi. Halol, jasur va odil qahramonlar esa mukofotlanadi. Natijada tinglovchi yoki tomoshabin jamiyat qaysi xulqni ma’qullashi va qaysi xulqni rad etishini anglaydi. Bu hodisani antropologlar ***madaniy sanksiyalar**** deb izohlaydilar.

Har qanday jamiyat yangi avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlashi zarur. Bu jarayon ijtimoiylashuv deyiladi. San’at mazkur jarayonning asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Bolalar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, qo‘shiqlar, milliy o‘yinlar va

* *Madaniy sanksiyalar* – jamiyat a’zolarini qabul qilingan qadriyatlar va me’yorlarga rioya qilishga majbur qiluvchi ijtimoiy chora-tadbirlar va munosabatlar tizimi. Ular odamlarning xulq-atvorini tartibga soladi. Antropologlarning ta’kidlashicha, madaniy sanksiyalar madaniy merosni avloddan avlodga yetkazish va jamiyat ichidagi birdamlikni (ijtimoiy uyg‘unlikni) saqlab qolish uchun kuchli poydevor vazifasini o‘taydi.

marosimlar orqali jamiyat qadriyatlarini o‘zlashtiradilar. O‘zbek xalq ertaklarida, mehnatkashlik, sabr, ota-onaga hurmat, mehmondo‘stlik, saxovat doimo ijobiy fazilat sifatida tasvirlanadi. Aksincha, xiyonat, ochko‘zlik, yolg‘on va qo‘rqoqlik qoralanadi. Masalan, “Alpomish” dostonida urug‘ manfaatini himoya qilish, ota-onaga hurmat va va’daga sodiqlik ijtimoiy ideal sifatida ko‘rsatilgan. Shunday qilib, san’at bevosita ta’lim bermasa ham, madaniy kodlarni bolalar ongiga singdiradi. Bu jarayon antropologiyada *enkulturatsiya*[*] *(enculturation)* deb yuritiladi.

Ijtimoiy antropologiyaning muhim g‘oyalaridan biri shuki, insonlar ko‘pincha ramzlar orqali boshqariladi. San’at ranglar, naqshlar, musiqa, kiyim, raqs, me’morchilik, haykaltaroshlik orqali jamiyatdagi maqom, jins, yosh, qarindoshlik yoki diniy mansublikni bildiradi. Masalan, ko‘plab Afrika, Avstraliya va Amerika tub xalqlarida tanaga chizilgan naqshlar shaxsning yoshini, urug‘ini, nikoh holatini, harbiy maqomini ko‘rsatib beradi. Bunday belgilar ijtimoiy nazorat vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki har kim o‘z maqomiga mos xatti-harakat qilishga majbur bo‘ladi.

Shuningdek antropologlar marosimlarni san’atning eng murakkab shakllaridan biri deb hisoblaydilar. Marosimlarda milliy musiqa, raqs, kiyimlar va hakazolar birgalikda namoyon bo‘ladi. Bu jarayonlarda jamiyatning asosiy qadriyatlari takror-takror namoyish qilinadi. Misol uchun, nikoh marosimi faqat ikki insonning oilaviy birlashuvi emas, u qarindoshlik tizimini, jinsiy rollarni, ota-onalik mas’uliyatini va meros tizimini ham mustahkamlaydi. Demak, marosim san’ati ijtimoiy tartibni qayta ishlab chiqaradi.

Fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym jamiyat birdamligini “kollektiv ong” orqali tushuntirgan. Kollektiv ong – bu jamiyat yoki guruh a’zolarining umumiy e’tiqodlari, qadriyatlari, urf-odatlari va hissiyotlari majmuasidir. Bu tushuncha shaxsiy onglardan ustun turib, odamlarni birlashtiradi va ularning ijtimoiy xatti-harakatlarini belgilab beradi. Olimning fikricha, individlar tug‘iladi va vafot etadi, ammo kollektiv ong avloddan-avlodga o‘tib, o‘zgarishsiz yoki transformatsiyalangan holda saqlanib qoladi. Kollektiv ong jamiyatning ma’naviy asosi bo‘lib, jamoa a’zolarini bir-biriga bog‘lab turuvchi eng muhim omil aynan ana shu umumiy ong va birdamlikdir. Shu birdamlik orqali jamiyatdagi umumiy qadriyatlar san’at va marosimlar vositasida muntazam ravishda qayta ishlab chiqariladi. San’at kishilarda, umumiy hissiyot, birdamlik va ijtimoiy mas’uliyatni hosil qiladi. Natijada jamiyat ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytiradi **[Durkheim E. 208-245]**.

[*] *Enkulturatsiya* – shaxsning o'zi yashayotgan jamiyatning madaniy me'yorlari, qadriyatlari, urf-odatlari va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayonidir. Bu jarayon natijasida inson o'z madaniyatining to'laqonli a'zosiga aylanadi.

Analitik psixologiyaning asoschisi, Shveytsariyalik psixiatr Karl Yung bu jarayonni “kollektiv ongsizlik” deb atab, bu jarayon barcha insonlarga xos bo‘lgan, avloddan-avlodga irsiy o‘tadigan umuminsoniy tajriba, xotira va obrazlar qatlami deb hisoblaydi. Hamma madaniyat va xalqlarda uchraydigan o‘xshash tushlar, afsonalar va ramzlar aynan shu qatlam ta’sirida yuzaga keladi. Bu tug‘ma ma’lumot bo‘lib, o‘rganilmaydi, balki har bir insonda genetik jihatdan mavjud bo‘ladi.

Polshalik sotsial antropolog Bronisław Malinovskiy san’atni madaniyatning funksional elementi sifatida isohlaydi. Uning fikricha, san’at ijtimoiy birdamlikni, urf-odatlarni, marosimlarni va jamoaviy hamkorlikni mustahkamladi. Shu tariqa u ijtimoiy tartibni saqlashga xizmat qiladi **[Malinowski B. 35-58]**.

Siyosiy (hokimiyat legitimatsiyasi) funksiyasi: Ijtimoiy antropologiyada san’at insonning estetik ehtiyojlarini qondirish vositasi bo‘lish bilan birga, siyosiy hokimiyatni shakllantirish, mustahkamlash va qonuniylashtirish mexanizmlaridan biri sifatida ham qaraladi. Antropologlarning fikricha, davlat hokimiyati o‘zining siyosiy ustunligini saroylar, ibodatxonalar, haykallar, monumental me’morchilik, tantanali marosimlar, hukmdor portretlari, davlat ramzlari va milliy san’at orqali tabiiy va muqaddas hodisa sifatida namoyon qiladi. Natijada jamiyat a’zolari siyosiy tartibni shunchaki majburiyat emas, balki ijtimoiy normalarning ajralmas qismi sifatida qabul qiladilar.

San’atning siyosiy funksiyasi deganda san’atning siyosiy g‘oyalarni, hokimiyat munosabatlarini va davlat mafkurasini ifodalash, targ‘ib qilish hamda legitimlashtirishdagi roli tushuniladi. Mazkur funksiya quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: davlat hokimiyatini ramziy ifodalash; siyosiy mafkurani targ‘ib qilish; hukmdor yoki siyosiy elitaning obro‘sini mustahkamlash; milliy birlikni shakllantirish; davlat ramzlarini ommalashtirish; siyosiy xotirani yaratish; kollektiv o‘zlikni mustahkamlash. Antropologik nuqtayi nazardan, san’at siyosiy institutlarning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, hokimiyatning ramziy kapitalini yaratadi.

Legitimatsiya – hokimiyatning jamiyat tomonidan qonuniy va maqbul deb tan olinishi jarayonini ta’minlaydi. Germaniyalik jamiyatshunos Maks Veber ramziy san’at legitim hukmronlikning uchta turini ajratadi: *an’anaviy, xarizmatik va ratsional-huquqiy legitimlik*. San’at ushbu legitimlik shakllarining har birini mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, qirollik toj marosimlari, hukmdor portretlari, saroy me’morchiligi, davlat madhiyasi va tantanali paradlar hokimiyatning qonuniyligini ramziy jihatdan namoyish etadi. Ya’ni, hokimiyatni san’at oddiy siyosiy institut emas, balki muqaddas, tarixiy yoki milliy qadriyat sifatida qabul qilinishiga yordam beradi. Masalan, qadimgi Misr fir’avnlari ibodatxonalardagi ulkan haykallar

orqali o‘zlarini xudolarning vakili sifatida namoyish qilganlar. Shuningdek, Rim imperatorlari tangalar, triumfal arkalar va monumental haykallar orqali imperator hokimiyatining ilohiyligini targ‘ib qilganlar.

San’at mafkurani boshqarish va tarqatishning muhim vositasidir. Fransuz sotsiologi va etnologi Per Burdyo san’atni siyosiy hokimiyatning ramziy kapitali sifatida izohlaydi. Uning fikriga ko‘ra, ramzlar zo‘ravonliksiz hukmronlik qilish imkonini beradi. Davlat muzeylar, milliy teatrlar, tarixiy obidalar, davlat bayramlari va rasmiy portretlar orqali o‘zining ramziy kapitalini yaratadi. Shuningdek, kino, teatr, adabiyot, haykaltaroshlik, rassomlik, ommaviy musiqa orqali hukmron mafkura jamiyat onggiga singdiriladi. Natijada hukmron guruhning qadriyatlari jamiyat tomonidan “tabiiy madaniyat” sifatida qabul qilinadi. Bourdieu buni *“ramziy kuch” (symbolic power)* deb ataydi.

Amerikalik antropolog va sotsiolog Klifford Girtz Balidagi davlat tizimini o‘rganar ekan, hukmdor hokimiyatining asosiy kuchi harbiy qudratda emas, balki marosimlarning estetik mukammalligida ekanligini ta’kidlaydi. Ya’ni davlat marosimlari hokimiyatning mavjudligini doimiy ravishda namoyish etuvchi teatrdir.

Italiyalik faylasuf Antonio Gramshi san’at va madaniyatni hukmron sinf gegemonligini belgilovchi asosiy vosita deb hisoblaydi. Qirollik saroylaridagi toj kiyish marosimlari hukmdorning qonuniy maqomini omma oldida tasdiqlash vazifasini bajargan. Toj, hassa, taxt, qimmatbaho kiyimlar, va ordenlar shunchaki oddiy bezaklar emas. Ular siyosiy ierarxiyani ko‘rinadigan shaklga aylantiradigan estetik buyumlardir. Shu sababli davlatlar san’atni faol ravishda moliyalashtiradi va nazorat qiladi. Yuqoridagi jihatlari sababli, san’at siyosiy legitimatsiya, maqomni namoyish etish va ijtimoiy birdamlikni ta’minlashning eng samarali madaniy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi.

Ijtimoiy antropologiyada san’atning ushbu funksiyasi estetik, zavq psixologiya, evolyutsion psixologiya, kognitiv antropologiya, neyroestetika va madaniy antropologiya kesishgan nuqtada o‘rganiladi. Antropologlarning ta’kidlashicha, inson biologik mavjudot bo‘lishi bilan birga ramziy tafakkurga ega mavjudot hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Alan Barnard, Social Anthropology (Cambridge: Cambridge University Press, 2010).
2. Franz Boas, Primitive Art (New York: Dover Publications, 1955).
3. Clifford Geertz, Local Knowledge: Further Essays in Interpretive Anthropology (New York: Basic Books, 1983), 94–120.

4. Alfred Gell, Art and Agency: An Anthropological Theory (Oxford: Clarendon Press, 1998), 6–27.
5. Durkheim E. The Elementary forms of religious life. New York: Free Press, 1995 (1912). – P.208-245.
6. Malinowski B. A Scientific theory of culture and other essays. Chapel Hill: University of north Carolina Press, 1944. – P.35-58.

USTRUSHONA TARIXIY-MADANIY MEROSINI O‘RGANISHDA ARXEOLOGIK YODGORLIKLAR VA TANGA TOPILMALARINING O‘RNI

Q.O.Almanov
Guliston Davlat universiteti
“Tarix” kafedrasi professori, t.f.d., (DSc)

Annotatsiya: Maqolada Ustrushona tarixiy-madaniy merosini o‘rganishda arxeologik yodgorliklar, tanga topilmalari, numizmatik materiallar hamda ularning hudud iqtisodiyoti, savdo va pul muomalasi tarixini yoritishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ustrushona, arxeologiya, numizmatika, tarixiy meros, arxeologik yodgorliklar, tanga, tanga topilmalari, iqtisodiyot, savdo, pul muomalasi, hunarmandchilik, Bunjikat, afshin, tamg‘a, ikonografiya.

Ustrushona qadimgi va ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-madaniy hududlaridan biri bo‘lib, uning moddiy madaniyati, xo‘jalik hayoti va iqtisodiy munosabatlarini o‘rganishda arxeologik hamda numizmatik manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Hududdagi Bunjikat, Zomin, Dizak, Sobot singari shahar va qishloq manzilgohlaridan aniqlangan arxeologik materiallar Ustrushonada dehqonchilik, hunarmandchilik, konchilik va savdo munosabatlarining rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, Ustrushona hududidan topilgan mahalliy va xorijiy tangalar mintaqaning iqtisodiy hamda siyosiy tarixini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ulardagi hukmdor tasvirlari, tamg‘alar, sug‘diy yozuvlar va ikonografik belgilar mahalliy tanga zarbi an’analari, pul muomalasi hamda qo‘shni hududlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Shu bois Ustrushona tarixiy-madaniy merosini arxeologik yodgorliklar va numizmatik topilmalar asosida kompleks o‘rganish hududning qadimgi va ilk o‘rta asrlardagi taraqqiyotini yanada chuqurroq yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mintaqaning iqtisodiy hayotida shaharlar alohida ahamiyat kasb etgan. Bunjikat, Zomin, Dizak, Sobot va boshqa shahar hamda qishloq manzilgohlari nafaqat ma’muriy va madaniy markazlar, balki ishlab chiqarish, hunarmandchilik va ayirboshlash munosabatlarining muhim nuqtalari sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan. Ustrushonaning Sug‘d, Choch va Farg‘ona bilan tutashligi esa ichki mintaqaviy savdo bilan bir qatorda uzoq masofali savdo munosabatlarining rivojlanishiga sharoit yaratgan. Tadqiqotlarda Ustrushona hududida karvon yo‘llari miloddan avvalgi IV–II asrlardan boshlab shakllana boshlagani va keyingi davrlarda ularning iqtisodiy ahamiyati ortib borgani ta’kidlanadi **[Пардаев М.Ҳ., Ғофуров Ж.И: 14]**. Ustrushona iqtisodiyotining arxeologik jihatdan o‘rganilishida A.A.Gritsinaning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olimning Ustrushonaning shimoliy qismiga bag‘ishlangan arxeologik-topografik tadqiqotlari natijasida hududdagi qishloq va shahar manzilgohlari, ularning joylashuvi, sug‘orish inshootlari va xo‘jalik faoliyatini tiklash uchun muhim materiallar to‘plangan **[Грицина А.А., Мамаджанова С.Д., Мукимов Р.С: 240]**. Ustrushonaning iqtisodiy taraqqiyotida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik turli sohalari muhim ro‘l o‘ynagan. Voha tarixiga oid arxeologik materiallarda buning izlari yaqqol ko‘rinadi. Ustrushona hududlarida katta daryolari va suv havzalarining keng o‘rin egallamaganligi dehqonchilikning alohida iqtisodiyotning drayveriga aylanishiga yo‘l qo‘ymagan. Asosan Sangzor daryosi bo‘ylarida shuningdek turli soylardan suv olish imkoniyati bo‘lgan keng hududlarda dehqonchilikning rivojlanishi va iqtisodiy taraqqiyotda muhim bir o‘rinlarni egallashi kuzatiladi. Shu bilan bir qatorda, dehqonlarning harakati faqat erga ishlov berish bilan emas, balki suv resurslarini boshqarish, kanallar va sug‘orish inshootlarini barpo etish bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lgan. Shu jihatdan Ustrushonadagi qishloq manzilgohlarini sug‘orish tarmoqlaridan alohida o‘rganish mumkin emas. O.U.Mamirovning o‘rta asrlar Ustrushonasi bog‘dorchiligiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqoti mazkur xo‘jalik tarmog‘ining arxeobotanik asoslarini yoritadi. Muallif arxeologik materiallar asosida uzum, olma, oblepixa, yong‘oq kabi o‘simliklarning xo‘jalikdagi o‘rnini ko‘rsatib, Ustrushonada bog‘dorchilik madaniyati shakllanganini ta’kidlaydi **[Мамиров О.У: 57]**. Bunday materiallar Ustrushona qishloq xo‘jaligini faqat g‘allachilik bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Bog‘dorchilikning iqtisodiy ahamiyatini baholashda arxeobotanik materiallar ayniqsa muhimdir. Agar meva va uzum qoldiqlari, ularni qayta ishlashga oid buyumlar hamda bog‘dorchilik mehnat qurollari bir arxeologik majmuada uchrasa, bu holatni oddiy oziq-ovqat iste’moli emas, balki muayyan darajada ixtisoslashgan xo‘jalik faoliyati sifatida talqin qilish imkoni paydo bo‘ladi. O.Mamirovning tadqiqoti aynan shu jihati

bilan Ustrushona iqtisodiyoti tarixida muhim manbashunoslik ahamiyatiga ega **[Мамиров О.У: 58]**. Ustrushona iqtisodiyotining yana bir muhim yo‘nalishi konchilik va metallga ishlov berish bilan bog‘liq bo‘lgan. Tog‘li va tog‘oldi hududlarining mavjudligi metall resurslaridan foydalanish uchun tabiiy imkoniyat yaratgan. Arxeologik tadqiqotlarda metallurgiya va temirchilik bilan bog‘liq materiallarning aniqlanishi hududda xom ashyoni qazib olish va undan mehnat qurollari hamda boshqa buyumlar tayyorlash jarayoni mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu jarayonni Ustrushona shaharlarining iqtisodiy funktsiyalari bilan bog‘lab o‘rganish maqsadga muvofiqdir **[Грицина А.А., Мамаджанова С.Д., Мукимов Р.С: 240]**. Ustrushona shahar iqtisodiyotini o‘rganishda Bunjikat — Qal’ai Qahqaha arxeologik majmuasi alohida ahamiyatga ega. A.A. Gritsina, S.D. Mamadjanova va R.S.Mukimovning umumlashtiruvchi tadqiqotlari Bunjikatni Ustrushona siyosiy va madaniy hayotining muhim markazlaridan biri sifatida ko‘rsatadi **[Грицина А.А., Мамаджанова С.Д., Мукимов Р.С: 241]**. A.Gritsinaning tadqiqotlarida ham Ustrushonaning Markaziy Osiyoning bir nechta tarixiy-madaniy mintaqalari o‘rtasidagi tranzit o‘rni alohida ta’kidlangan. Bu holatni arxeologik materiallar bilan bir qatorda numizmatik topilmalar orqali ham kuzatish mumkin. Ustrushona iqtisodiy tarixini o‘rganishda tangalar muhim numizmatik manba hisoblanadi. Chunki tanga faqat to‘lov vositasi sifatida emas, balki siyosiy hokimiyat, savdo aloqalari, iqtisodiy munosabatlar, metall ta’minoti va mintaqalar o‘rtasidagi madaniy ta’sirlarni aks ettiruvchi tarixiy manba sifatida ham qimmatlidir. Ayniqsa, Ustrushonaning ilk o‘rta asrlarga oid bronza tangalarida hukmdor tasviri, mahalliy tamg‘a va so‘g‘dcha yozuvlarning uchrashi mintaqada mahalliy tanga zarb qilish an’anasi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Mavjud numizmatik ma’lumotlarga ko‘ra, Ustrushonada zarb etilgan tangalar oltin yoki kumushdan ko‘ra asosan bronzadan tayyorlangan bo‘lib, ularning ayrim namunalari Shahriston va Panjikent kabi arxeologik yodgorliklardan topilgan **[Алманов Қ. О: 31]**. Shu bilan birga, Ustrushonaning pul muomalasini faqat mahalliy tangalar bilan cheklab o‘rganish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Kultepa qo‘rg‘onidan topilgan xazina tarkibida 42 ta sosoniy tangasi va ularning ikki bo‘lagi aniqlangan bo‘lib, tangalarning asosiy qismi sosoniylar hukmdori Piro‘z I davriga, bittasi esa Xusrav II davriga tegishli ekanligi qayd etilgan. Xazinaning joylashtirilish sanasi VII asrning 20-yillariga, ya’ni taxminan 620-yillardan keyingi davrga taalluqli deb qaraladi. Bu ma’lumot Ustrushonada tashqi kelib chiqishga ega kumush tangalar ham uzoq vaqt davomida muomalada bo‘lganini ko‘rsatadi **[Fedorov M: 6-15]**. Shuningdek, M. Fyodorov tadqiqotlarda Ustrushonada kumush tangalar muomalasida import qilingan sosoniy draxmalari muhim o‘rin tutgani, mis tangalar esa mahalliy

zarbxonalar bilan bog‘liq bo‘lgani ta’kidlanadi. Numizmatik manbalar Ustrushonaning tashqi iqtisodiy aloqalarini ham tadqiq etish imkonini beradi. Mahalliy tanga tiplarida sosoniy Eroni, Sug‘d, Vizantiya va Hindiston numizmatik an’analari bilan bog‘liq ayrim xususiyatlarning namoyon bo‘lishi Ustrushonaning Markaziy Osiyodagi madaniy-iqtisodiy almashinuv jarayonlaridan chetda qolmaganini ko‘rsatadi **[Алманов Қ. О: 31]**. 2024 yilda nashr etilgan So‘g‘d tanga legendalari va kontramarkalari katalogi ham Ustrushona tangalarini Farg‘ona, Choch va boshqa mintaqalar tanga materiallari bilan birgalikda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Ustrushonaning qadimgi va ilk o‘rta asrlardagi iqtisodiy taraqqiyotini tanga-pul tizimi bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur masalani o‘rganishda arxeologik yodgorliklar, yozma manbalar, xazina topilmalari va numizmatik materiallarni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish zarur. Xususan, tangalarning metall tarkibi, tipologiyasi, tasvir va yozuvlari, zarb qilingan hududi, xronologiyasi hamda xazina va arxeologik qatlamlardagi konteksti Ustrushonaning iqtisodiy hayoti va pul muomalasini qayta tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat Ustrushona iqtisodiyotining tashqi iqtisodiy aloqalarini baholashda muhimdir. Ilk o‘rta asrlarda Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i va unga qo‘shni hududlardagi Choch, O‘tror, Farg‘ona,Ustrushona, Sug‘d (asosan Samarqand, Panch, Kesh, Naxshab), To‘xoriston (Chag‘oniyon, Termiz, Xuttal, Kobadiyon va b.), Xorazm kabi voha hukmdorliklarining qariyb barchasida tanga zarbining yo‘lga qo‘yilishi nafaqat iqtisodiy zaruriyat bilangina bog‘liq bo‘lmay, balki hamma davrlarda bo‘lgani kabi pul zarb qilish ma’lum ma’noda davlat mustaqilligini ham ifodalagan **[Смирнова О. И: 59-64]**. Ustrushonada tanga zarb qildirish ham Sug‘d va Chochdan ancha kech boshlangan bo‘lib, milodiy VI–VII asrlarga to‘g‘ri keladi. Buni Ustrushona tangalari topilgan madaniy qatlamlar hamda tangalarning yasalish texnikasi va ikonografik xususiyatlari ko‘rsatib turibdi. Voha tangalarini birinchilardan bo‘lib o‘rgangan numizmat va arxeolog olimlar shunday fikrga kelishgan. Holbuki, Ustrushonaga janub va janubi-g‘arbdan qo‘shni Sug‘d vohasida, xususan, Samarqandda tanga zarbi an’anasi milod boshlariga borib taqalsa, vohaning shimoliy qo‘shnisi Chochda milodiy III – IV asrlarda tanga bostirish yo‘lga qo‘yilgan edi **[Ртвеладзе Э.В: 19]**. Islomdan oldingi sug‘diy yozuvli Ustrushona tangalarining teskari tomonida γ ko‘rinishidagi tamg‘a va uning ikki yonida oromiycha ideogramma *MR’Y* bilan birga “Chirdmish”, “Raxanch”, “Satachari” kabi 3 ta hukmdor ismi uchrab **[Смирнова О.И: 32-35, 324-333]**, ko‘pchilik tadqiqotchilar ushbu ideogrammani mahalliy “afshin” unvoni bilan tenglashtiradilar **[Алманов Қ. О: 31]**. Ustrushona tangalarining boshqa voha hukmdorliklarnikidan

tafovut qiladigan jihati, ularda o‘rin olgan hukmdor tasviri o‘ziga xos qiyofada, farqli bosh kiyimida (toj?) tasvirlanishidir. Shuningdek, mintaqaning bu davr tangalaridan faqatgina Ustrushona tangalarida fil tasviri uchraydi. Garchi, bu davrda zarb qilingan 𐨗 shakldagi tamg‘ali tangalarda sug‘diy yozuvda Raxanch, Chirdmish, Satachari kabi hukmdor nomlari uchrasa ham **[Смирнова О.И: 324-335]**, ulardan birontasi yozma manbalarda aks etgan Ustrushona hukmdorlari ismlariga to‘g‘ri kelmaydi. Ya’ni, tangalarda joy olgan mazkur ismlardan hech qaysisi shu paytgacha yozma manbalarda uchratilmadi. Vohada Sarmich – degan toponim aholi manzilgohi bor bo‘lib, bu qishloq Nurota tog‘laridagi qadimiy qoya tasvirlariga boy Sarmish-soy darasi nomi bilan yaqin o‘xshashlikka ega. Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, garchi mazkur toponim qadimgi va o‘rta asr yozma manbalarida tilga olinmagan bo‘lsa-da, Qadimgi Ustrushona aholisi tili – so‘g‘diy tilga xos bo‘lgan Sarmich va Sarmishsoy toponimlari vohaning qadimiy aholisi bilan uzviy aloqadorligini ko‘rsatadi. Bugungi Boyovut va Yangiobod tumanlari hamda Nurota tog‘larining tarixan Qadimgi Ustrushona tarixiy-geografik viloyati bilan bog‘liqligini hisobga olsak, bu taxmin asosli bo‘lib tuyuladi. Shu o‘rinda ilk o‘rta asrlarga tegishli so‘g‘diy yozuvli Ustrushona tangalari **[Смирнова О.И: 32-35; 324-333]** orasida hukmdor ismi sifatida Chirdmish so‘zi uchrashini va u bilan Sarmich, Sarmish toponimlari orasida qandaydir darajada aloqadorlik borligini aytib o‘tish kerak **[Almanov Q.O: 189]**. “Ustrushona tangalari” deb atab kelingan fandagi tangalarni keyingi yillarda yangi bir tipi aniqlanib, undagi jumlalar numizmat G‘.Boboyorov tomonidan *sttcry ’wstwršnc MR’Y...* – “Ustrushona hukmdori... Satachari” shaklida o‘qildi (*qarang* 4-tanga) **[Бобоёров Ғ: 18-40]**. Bu esa ushbu tangalar guruhining aynan Ustrushona hukmdorligiga tegishli ekanini ko‘rsatdi. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar paytida yana bir qator yangi nusxadagi Ustrushona tangalari aniqlangan bo‘lib, ularning ayrimlaridagi sug‘diy yozuvlar to‘laqonli o‘qilganicha yo‘q. Ustrushona tangalarida o‘rin olgan tamg‘alar asosan bir xil bo‘lib (𐨗), kichik farqlar tangani zarb qildirgan hukmdor bilan bog‘liq ravishda uchray boshlaydi. Shu o‘rinda boshqa ayrim hukmdorliklar tangalarida bo‘lgani kabi Ustrushona tangalarida ham asosiy tamg‘aga qo‘shimcha belgi ulangani ko‘zga tashlanadi. Masalan, quyida ko‘rinib turganidek Raxanch nomli hukmdor tangalarida aynan asosiy tamg‘a saqlangan bo‘lsa (*qarang* 1- tanga) Chirdmish tangalarida tamg‘aning tepa uchlari chap tomonga qayrilgan holatdagi ko‘rinishni oladi -  (*qarang* 2- tanga).



1



2



3



4

Raxanch tangalarining ayrim tiplarida esa xristianlik simvoli bo‘lmish xoch o‘rin olishi bilan birga asosiy tamg‘a shaklida ham o‘zgarishlar bo‘lgani tamg‘aning chapga qayrilgan pastki qismiga yana shunga o‘xshash qo‘shimcha belgi biriktirilgani payqaladi -  (*qarang* 3- tanga) **[Смирнова О.И: 181].** Bunday holat Ustrushonaga qo‘shni Samarqandning Ixshidlar davri tangalarida va Panch hukmdorligi tangalarida yaqqol seziladi.

Satachari tangalarida esa asosiy tamg‘a va uning tepa uchlari o‘ngga qayrilgan varianti aks etgan tamg‘a yonma-yon joy olganligi ko‘zga tashlanib () **[Смирнова О.И: 329-332]**, bu esa ushbu tamg‘alarning alohida-alohida ramziy belgilar bo‘lganidan darak beradi. Quyida ulardan namunalar keltiramiz:



5



6

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, ba’zan muayyan bir hukmdorlikda mavjud sulola vakili o‘zidan oldin hukmronlik qilgan qarindoshi (otasi, akasi yoki yaqinlaridan biri)dan hokimiyatni meros qilib olar ekan, an’anaviy tamg‘aga biron bir qo‘shimcha

belgi ilova qilgani ko‘zga tashlanadi. Bu asosan Samarqand ixshidlari, Panch hukmdorlari tangalariga xosdir **[Гойибов Б. К: 6-11]**.

Shunday qilib, Ustrushona iqtisodiyotining tarixini rekonstruktsiya qilishda bir manba turiga tayanish etarli emas. Arxeologik manzilgohlar ishlab chiqarish va xo‘jalikning moddiy asosini ko‘rsatsa, arxeobotanik materiallar qishloq xo‘jaligining muayyan tarmoqlarini aniqlashga imkon beradi, tanga xazinalari esa iqtisodiy almashinuv va pul muomalasining ayrim mexanizmlarini ochib beradi. Shuning uchun Ustrushona iqtisodiyotini «dehqonchilik - hunarmandchilik - konchilik - shahar - savdo - pul muomalasi» o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida o‘rganish ilmiy jihatdan samaraliroq yondashuv hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тўйчибоев Б.Б. Қадимий Уструшона ҳудуди тарихий топографияси муаммолари хусусида (мил.авв. VII – милодий IV асрлари) // ЎММТ. 32-сони. – Тошкент, 2001. – Б. 73-78.; To‘ychiboyev B.B. Sirdaryo o‘lkasi qadimgi va o‘rta asrlar davri tarixiy geografiyasi. – Toshkent, 2023. – 154 b.
2. Пардаев М.Ҳ., Ғофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта асрлар қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). – Тошкент: ILMIY – TEXNIKA AXBOROTI – PRESS NASHRIYOTI, 2016. – Б. 14.
3. Грицина А.А., Мамаджанова С.Д., Мукимов Р.С. Археология, история и архитектура средневековой Уструшаны. – Самарканд: МИЦАИ, 2013. – 240 с. ISBN 978-9943-357-27-3.; Грицина А.А. Северная Уструшана в середине I тысячелетия до н.э. – начале XIII в. н.э. (археолого-топографическое исследование): автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Самарканд, 1990.
4. Мамиров О.У. Gardening of Ustrushana in the Middle Ages (On Archaeological Materials) // International Journal of Social Science Research and Review. – 2022. – Vol. 5, №9.
5. Алманов Қ. О. Ғарбий Турк хоқонлиги даврида Уструшона Тарих фан. фалсафа докт. (PhD) дисертатцияси... Қарши:, 2021. – 31 б.
6. Fedorov M. Central Asia: Money circulation in early-mediaeval Ustrushana, Farghana and Tokharistan (6th–first half of 8th century AD) // ONS Newsletter. – 2003. – Vol. 177. – P. 6–15.
7. Смирнова О. И. Первые монеты из Уструшаны // ЭВ, XX, 1972. – С. 59-64.
8. РтвеладзеЭ. В. Древние монеты Срденей Азии - Ўрта Осиёнинг қадимги тангалари. – Ташкент, 1987. – С. 19.
9. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. – М.: Наука, 1981.

10. Almanov Q.O.XIX asr oxiri XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisi etnik tarkibi va uning etnotoponimikada aks etishi Tarix fanlari doktori (DSc) disertatsiyasi.. Urganch., 2025. - 189 b.
11. Бобоёров Ғ. Илк ўрта асрлар тангаларида Ўзбекистон ҳудудидаги давлатчиликка доир маълумотлар // Ўзбекистон тарихи манбашунослиги масалалари. – Т., 2010. – Б. 18-40.
12. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М. 1970. – С. 181.
13. Гойибов Б. К нумизматический истории Согда // Ilmiy axborotnoma. Научный вестник. – Samarqand, 2016. – №4 (98). – Б. 6-11.

RUY GONSALES DE KLAVIXO KUNDALIGIDA AMIR TEMUR DAVRI SAMARQANDINING TARIXIY-MADANIY MUHITI

Ayupov O.
Guliston davlat universiteti
Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.n.
120100 Sirdaryo viloyati Guliston shahri
E-mail: ayupovorif-4141@mail.ru
Tel: +998 91 506 75 20

Annotatsiya: Maqolada Ruy Gonsales de Klavixo kundaligi asosida Amir Temur davri Samarqandining tarixiy-madaniy muhiti, saroy hayoti, diplomatik marosimlari, qurultoy va bayram an’analari hamda Sharq va G‘arb o‘rtasidagi siyosiy-madaniy aloqalarning xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Samarqand, Ruy Gonsales de Klavixo, Temuriylar, tarixiy meros, madaniy muhit, saroy hayoti, diplomatiya, elchilik, diplomatik marosimlar, qurultoy, bayramlar, Movarounnahr, Kastiliya, Sharq va G‘arb, tarixiy manba.

Kirish. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshlarida Movarounnahr hamda unga tutash hududlarda yuzaga kelgan siyosiy jarayonlar shubhasiz xalqaro munosabatlarga ham salbiy ta’sirini ko‘rsatdi, ya’ni xalqaro munosabatlar yanada murakkablashib qoldi. Aynan shu davrda Markaziy Osiyoda siyosiy hokimyatning mustahkamlanishi, savdo yo‘llari ustidan to‘liq nazorat o‘rnatish va joylashuv manfaatlarining to‘qnashuvlari davlatlarning o‘rtasidagi munosabatlarda diplomatiyaning ahamiyati yanada oshdi, shuningdek aynan shu davrda Amir Temur nafaqat kuchli harbiy-siyosiy arbob, balki xalqaro munosabatlardan davlat manfaatlari sifatida foydalangan hukmdor sifatida namoyon bo‘ldi. Uning faoliyatida diplomatiya

va harbiy yurishlar alohida yo‘nalish emas, balki yagona tarkibiy qismlik strategik ahamiyatga ega kuch sifatida shakllandi, shu bilan birga u turli davlatlar bilan munosabatlarda elchilik almashinuvlari, turli diplomatik yozishmalar, muzokaralar va albatta diplomatik bosim kabi o‘ziga xos vositalardan mohirona foydalandi. Mana shunday asosiy maqsadlar mamlakatning siyosiy mavqeini xalqaro davlatlar orasida mustahkamlashga, tashqi tomondan kelayotgan turli xavflarni kamaytirishga hamda xalqaro maydonda o‘z manfaatlarini ilgari surishga asos bo‘lib xizmat qildi [Sog‘uniy A., Karomatov H: 42-44].

Tadqiqotdan maqsad Amir Temur diplomatiyasining eng muhim strategik xususiyatlarini tahlil qilish bilan birga, uning xalqaro munosabatlardagi o‘rnini ochib berishdan iborat, shu bilan bir qatorda Amir Temurning G‘arb mamlakatlari bilan olib borgan xalqaro diplomatik aloqalari uning tashqi siyosati ko‘lamining qanchalik keng ekanligi tahlil qilindi.

Asosiy qism. Amir Temur o‘zining hukmronlik davrida olib borgan tashqi siyosiy faoliyatida faqat elchilar yuborish yoki hukmdorlar bilan turli xalqaro muzokaralar olib borish bilan cheklanib qolmagan, chunki bunday harakat ana shu davrning talabi bo‘lgan, oddiy tashqi aloqalardan foyda yo‘q edi, shuning uchun u xalqaro aloqalarni diplomatik vositalar ya’ni siyosiy, iqtisodiy va harbiy manfaatlar bilan o‘zaro uyg‘unlashtirdi. Barchamizga ma’lumki, Amir Temur o‘zining harbiy tizimi bilan ham xalqaro maydonda alohida o‘rin egallagan edi, shu jihatdan uning diplomatiyasini muhim strategik xarakterga ega bo‘lgan siyosiy vosita sifatida baholash mumkin. U uchun turli mamlakatlar bilan xalqaro aloqalarni shakllantirish muayyan vaziyatga moslashish edi, ya’ni bir davlat bilan do‘stona aloqalar yoki o‘zaro ittifoq o‘rnatish, boshqa mamlakat bilan muzokaralar olib borish yoki siyosiy bosimni kuchaytirish kerak bo‘lsa xalqaro maydondagi barcha vaziyatlar hisobga olingan. Ushbu diplomatiyaning yana bir muhim jihati shundaki, savqo va iqtisodiy manfaatlar ham o‘z o‘rniga ega edi, shuning uchun o‘sha davrlarda Movarounnahrning Sharq va G‘arbni bog‘lovchi savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani xalqaro aloqalarni mustahkamlashga yanada ko‘p imkoniyat yaratgan. Shuningdek, savdo yo‘llarini xavfsizligi, savdogarlarning o‘zaro kelishuv asosidagi faoliyatlari va turli mamalakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda siyosiy munosabatlarning mustahkamlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababdan Temur diplomatiyasining faqat harbiy-siyosiy manfaatlar bilan cheklab qo‘yish mumkin emas, ya’ni bu masala bir yoqlama yondashuv hisoblanib qolgan bo‘lardi.

Amir Temur o‘z diplomatiyasini yuritayotgan bir paytda Movarounnahrdan tashqi hududlarda ya’ni Eron, Iroq, Oltin O‘rda, Kichik Osiyo va Yevropa

hududlarida ham muhim siyosiy vaziyatlar yuzaga kelayotgandi[Xo‘jayev A: 199], shuning uchun ham Temur o‘z diplomatiyasida ana shu jarayonlarni ham hisobga olgan, shuni unutmaslik lozimki u xalqaro vaziyatni keng ko‘lamda baholash qobiliyatiga ega hukmdor edi. Mazkur mamlakatlardagi kuchlar nisbatining doimiy o‘zgarib turishi Temur hukmronlik qilib kelayotgan davlatning tashqi siyosiy manfaatlariga ham bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Amir Temurning G‘arb mamlakatlari bilan aloqalari alohida ahamiyatga egadir. XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Amir Temur va yevropa hukmdorlari o‘rtasida elchilar almashinuvi va o‘zaro xalqaro yozishmalar davomiy ravishda amalga oshirilgan, bunga sababchi muhim omillardan biri Kichik Osiyodagi siyosiy vaziyat, xususan Usmonli davlati rahbari Boyazid I bilan qarama-qarshilikdir. 1402-yilda yuz bergan Anqara jangida Temurning Boyazid I ustidan qozongan g‘alabasi Yevropadagi siyosiy kuchlar nazaridan chetda qolmadi albatta, ular bu jangni katta qiziqish bilan kuzatishdi, chunki Usmonli davlatining Kichik Osiyo va Bolqon hududlarida o‘z maydonini kengaytirib borishi Yevropa mamlakatlari uchun jiddiy xatar uyg‘otayotgan edi. Shu sababli Amir Temurning Usmonli davlatiga qarshi olib borgan harakatlari Yevropa hukmdorlari tomonidan tegishli manfaatlar nuqtayi nazaridan baholangan.

Kastiliya qiroli Genrix III bilan o‘rnatilgan diplomatik munosabatlar Amir temur diplomatiyasiga yorqin misol bo‘la oladi. Uning bu kelishuviga aynan Boyazid I ga qarshi umumiy kelishuvga erishish bo‘lgan, Genrix III bilan elchilar almashinuvi bilan birgalikda Temur Konstantinopolning paleolog hukmdorlari, Anglyaning Genrix IV, venetsiyliklar, Galata genuyaliklari, Trebizond imperatori, Fransiyaning Karl VI va Aragon hamda Kataloniyaning Martin I lar bilan ham o‘zaro elchilar almashdi [Alexandrescu-Dersca: 2, 19-29, 92], [Delaville Le Roulx: 389-91] 1402 yilgi Pasxa bayramida Genrix III ikkita elchi, Payo Gomes de Sotomayor va Hernan Sanches de Palazuelosni yubordi, bunga javoban Temur Muhammad Qoziyni (ba’zi manbaalarda Hoji Muhammadni), Boyazidning haramidan asirga olingan ikki ayolni o‘z ichiga olgan sovg‘alar bilan elchilar yuboradi, Genrix III bunga javoban yana ikkinchi bor elchilarni yuboradi, ular orasida Klavixo, ilohiyot o‘qituvchisi rohib Alonso Paez de Santa Mariya, qirollik qo‘riqchisi Gomes de Salazar, Alfonso Fernandez de Mesa va boshqalar bor edi. [Manz, Beatrice Forbes & Dunaway, Margaret L: 25]. Ushbu elchilik jamoasi 1403 yili 22-mayda Kadis yaqinidagi Santa-Mariya portidan yo‘lga chiqib, ba’zi muammolar sababli 1406-yili 24-martda Genrix III ning saroyiga yetib kelishadi. Samarqandga kelgan Klavixo mamlakat haqida ko‘plab ma’lumotlarni, shu jumladan saroy tarixchilari tomonidan tasvirlab bo‘lmaydigan ko‘plab oddiy

ma’lumotlarni batafsil yoritib bergandi, Temurning qurultoyi haqida hisobot, ayniqsa bayramlar bilan bog‘liq turli marosimlarni o‘z kundaligiga yozib ketishga ulgurgan, hozirda ko‘p tarixiy manbaalar uning kundaligidagi ma’lumotlarga asoslanadi.

Yevropa bilan olib borilgan siyosiy aloqalar Amir Temurning xalqaro maydonda faqat mintaqaviy manfaatlar bilan cheklanib qolmaganiga yana bir isbot hisoblanadi. U o‘z davrining yirik siyosiy kuchga ega rahbarlar bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatish orqali xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga intilgan, shuningdek uning siyosiy aloqalari Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muloqotlarni ham rivojlantirishda muayyan tarixiy ahamiyat kasb etgan. Umuman olgan Temur diplomatiyasining samaradorligi uning diplomatik vositalarni davlatning umumiy siyosiy, iqtisodiy, harbiy strategiyasi bilan bog‘lay olganidadir, barchasi parallel ravishda qo‘llanilgan, natijada diplomatiya Amir Temur davlatining tashqi siyosatida mustaqil ahamiyat kasb etgan muhim vositaga aylangan.

Xulosa. Amir Temur diplomatiyasi XIV-XV asrlarda xalqaro munosabatlarga kirib borgan tarixiy jarayondir. Uning diplomatik faoliyati tasodifan yuzaga kelib qolmagan, balki mamlakatning uzoq muddatli siyosiy, iqtisodiy, harbiy va strategik manfaatlari bilan uzviy bog‘liq holda yuritilgan. Temur o‘zining xalqaro aloqalarida doimo jahonda yuz beryaotgan vaziyatlarni hisobga olgan, ya’ni elchilikda, muzokaralarda, yozishmalarda va siyosiy ittifoqlarda ana shu vaziyatlardan samarali foydalangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki Temur diplomatiyasining asosiy kuchi diplomatik va harbiy vositalarning o‘zaro uy’gunlik kasb etganidadir. U diplomatiyada doim davlat manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ygan, shuningdek xalqaro maydonda o‘z mamlakati mavqeyini mustahkamlashga ham intilgan. Uning G‘arb davlatlari bilan olib borgan aloqalari, o‘zaro elchilar almashinuvlari Temurning xalqaro mavqesi kengligini yanada aniq ko‘rsatib beradi. Shunday qilib, Temur diplomatiyasini o‘rganish nafaqat Temuriylar davrini, balki Markaziy Osiyodagi davlatlararo olib borilgan xalqaro munosabatlarni va diplomatik tafakkurning tarixiy rivojini anglash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Temurning siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qilish qobiliyati, davlat manfaatlarini aniq belgilab olishi va turli siyosiy vositalardan uyg‘un holda foydalanish qobiliyati uning diplomatik tajribasidagi eng yorqin jihatlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. MM Alexandrescu-Dersca, La campagne de Timur en Anatolie , Buxarest, 1942 yil.

2. J. Delaville Le Roulx, “Rapports de Tamerlan avec les chrétiens”, Delaville Le Roulx, La France en Orient au XV e siècle , Bibliothèque des Écoles Françaises d'Athènes et de Rim 44, I, Parij, 1896-83-betlar.
3. Manz, Beatrice Forbes & Dunaway, Margaret L.. “CLAVIJO, RUY GONZÁLEZ DE” Iranika entsiklopediyasi . 1992- yil 15-dekabrda chop etilgan. https://doi.org/10.1163/2330-4804_EIRO_COM_7746
4. A. Sog‘uniy, H. Karomatov. Temur Tuzuklari. Forschadan tarjima. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
5. Xo‘jayev A. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: O‘zME, 2010. 199-bet.
6. Rahimboyev A. Amir Temur va Yildirim Boyazid orasidagi maktublashuv.

USTRUSHONA ANTIK VA ILK O‘RTA ASRLARDA (tarixiy va arxeologik manbalar taxlili)

ABDURAIMOV DILSHOD SULTANOVICH
Guliston davlat universiteti, Tarix kafedrasi v.b. dotsenti
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
+99899 474 68 97

Annotatsiya: Ushbu maqolada antik va ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning muhim sivilizatsiya o‘choqlaridan biri bo‘lgan Ustrushona davlati tarixi va madaniyati yoritilgan. Muallif yozma va arxeologik manbalarni kompleks tahlil qilish orqali o‘lkaning ma’muriy-hududiy tuzilishi hamda ichki boshqaruv tizimini tadqiq etadi.

Kalit so‘zlar: Ustrushona, Antik davr, Ilk o‘rta asrlar, Arxeologik, manbalar, Bunjikat, Afshinlar, Sug‘d, Yozma manbalar, Shahriston, Devoriy suratlar, Buyuk Ipak yo‘li, Sirdaryo ,Rustak, Sopol idishlar, Ossuariy, Arab xalifaligi.

Markaziy Osiyo tarixi haqida ishonchli va qimmatli ma’lumotlarni makedoniyalik Aleksandr yurishlarida unga hamrohlik qilgan muarrixlar hamda o‘sha davr tarixchilarining asarlari orqali mintaqadagi bir qator hududlar to‘g‘risidagi dastlabki ma’umotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Bu davr yozma manbalaridagi ma’lumotlarni tadqiq qilgan tadqiqotchilar Ustrushona va uning hududidagi tarixiy shahar va qo‘rg‘onlarnining joylashuv o‘rniga qarab bir qator hulosalarni berib o‘tishadi[1:75]. Eslatib o‘tamiz, mazkur davr yozma asarlari bizgacha qisqartirilgan ko‘rinishda va qadimiy tillarda yetib kelgan.

Bunday asarlarga Polibiy (er.av. III a.oxiri-er.av. II a.), Strabon (er.av. I a. – er. I a.), Pompey Trog (er.av. I a. - er. I a.), Yustin (II-III aa.), Diodor Sitsiliyalik (er.av. I a.- er. I a.), Pliniy To‘ng‘ich (I a.), Kvint Kursiy Ruf (er.av. I a. – er. I a.), Arrian (II a.), Dionisiy Perieget (II a.) kabi muarrixlarning asarlarini keltirib o‘tishimiz mumkin. Ustrushona tarixini yoritishda, ayniqsa, Kvint Kursiy Ruf, Flaviy va Arrian kabi rim va yunon tarixchilarining asarlari qimmatli manbadir. Yunon tarixchisi Arrianning “Anabasis Aleksandr” nomli asari kompilyatsiya bo‘lsa-da, unda voqealar zamondoshlarining manbalaridan foydalangan holda voqealar izchil keltirilgan[2:9-10]. Tadqiqotchilarning fikricha, Arrian makedoniyalik Aleksandrning Markaziy Osiyoga yurishlarini va bunga mos ravishda, Ustrushona hududlari haqidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lgan asarlarning eng ishonarli muallifi hisoblanadi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar Aleksandriya Esxatani Xo‘jand shahri o‘rnida, deb fikr bildirishadi. Bu shahar qadimgi savdo yo‘llari kesishuvida joylashgan bo‘lib, katta strategik ahamiyatga ega bo‘lganligi bilan ham aloxida o‘rin tutadi. Qariyib 2 ming yillik tarixga ega bo‘lgan ko‘hna tarixiy maskanning o‘rganilishi bugungi kunda ham davom etmoqda[3:33-34]. Ayrim olimlar bu shaharni O‘zgand, O‘sh, Novda o‘rnida joylashganligini taxmin qiladi. Hattoki, Kiropol Aleksandriya Esxata nomi bilan atalgan, degan qarashlar ham mavjud. Antik davr mualliflaridan biri Yustin “Aleksandr Baqtriya va Sug‘diyonada 7 ta shahar barpo etgan, shulardan biri Yaksart (Sirdaryo) daryosi bo‘yiga qurilgan Aleksandriya Esxata shahridir”,– deb yozgan. Unga ko‘ra, bu shahar juda tez fursatda – o‘n yetti kunda qurib bitkazilgan. Shahar devorlarining aylanasi olti ming qadam bo‘lgan. M.M. Lyutovning ta’kidlashicha, Aleksandriya Esxata shahri hozirgi Xo‘jandning aynan o‘rnida emas, balki Sirdaryoning Bekobodga yaqin joyida qurilgan. Bizningcha, bu qadimiy shahar xozirgi Xo‘jandda Sirdaryo atroflarida joylashgan bo‘lgan.

Ustrushona haqidagi ma’lumotlar ilk o‘rta asrlarga oid Xitoy solnomalarida (Beyshi, Suyshu, Tanshu) keltiriladi. Ularda bu mulkning nomi Shuaydushina, Sudushina, Suduyshana, Sutulisena nomi bilan keltiriladi, uning chegaralari va qo‘shni viloyatlargacha bo‘lgan masofalar ko‘rsatiladi. Jumladan, Syuan-Tszan (VII asr) mamlakatning shimolida suv va o‘tlardan holi bo‘lgan katta qumli cho‘lni (Mirzacho‘l), janubda esa Bosi tog‘larini (Turkiston tizma tog‘lari) ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, Xitoy solnomachilari vaqti-vaqti bilan zaharli tutun chiqib turadigan g‘or kabi tabiiy hodisani ham ta’kidlab o‘tganlar. Keyinchalik bu hodisa haqida arab mualliflari ham yozgan edilar. Bunday g‘orlar (ungurlar) qadimdan sajda obyektlari bo‘lgan. Shunday joylardan biri Yagnobning quyi oqimida, Ravot qishlog‘i ro‘parasida joylashgan[4:3-6].

Ustrushona tarixini o‘rganish masalasi ilmiy adabiyotlarda ancha yoritilgan bo‘lib, bu borada ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, rus sharqshunosi Vasily Bartold o‘z asarlarida Movarounnahrning siyosiy va madaniy tarixini tahlil qilgan holda, Ustrushonaning o‘rni haqida muhim ma’lumotlar beradi. Ustrushona hukmdorlarining mustaqil siyosati, arab istilosiga qarshi kurashlari hamda mintaqaviy siyosatdagi roli Bartold tomonidan ilmiy asosda yoritilgan.

Shuningdek, taniqli arxeolog va tarixchi Y.F.Buryakov, A.A.Gritsina, M.Ishoqov, U.Mavlonov, M.H.Pardayev, A.Berdimurodov, J.I.G‘ofurov, Z.Xolboyev, T.O.Omonjulov, S.S.Qudratov, B.B. To‘ychiboyev, T.U.Salimov, A.Otaxo‘jayev, A.Raimqulov, F.Toshboyevlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham Ustrushonaning qadimgi madaniyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. U boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi doirasida olingan natijalar Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan bir qatorda Ustrushonadagi madaniy jarayonlarni ham qiyosiy o‘rganishga imkon yaratgan.

O‘zbekistonlik olimlardan Ya. G‘ulomov, A.Asqarov, B.Litvinskiy kabi tadqiqotchilar ham Ustrushonaning tarixiy-madaniy rivojlanishi, arxeologik yodgorliklari va etnik tarkibini o‘rganishga katta hissa qo‘shganlar. Xususan, B. Litvinskiy Ustrushonani Sug‘d sivilizatsiyasi bilan bog‘liq holda tahlil qilib, uning madaniy integratsiya jarayonidagi vositachilik rolini asoslab bergan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, arxeologikva tarixiy tadqiqotlar Ustrushonaning yuqori darajada rivojlangan moddiy madaniyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Qal’alar, ibodatxonalar, turar-joy majmualari, sug‘orish inshootlari hamda hunarmandchilik markazlari bu hududda rivojlangan shahar madaniyati mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Ayniqsa, topilgan san’at asarlari, devoriy rasmlar, sopol buyumlar va metall ishlov berish namunalarida turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri yaqqol seziladi. Bu esa Ustrushonaning madaniy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etganligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Смирнова О.И. Археологические разведки в Уструшане в 1950 г.// МИА. № 37. Москва-Ленинград, 1953. – С. 189.

2. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Сохранившиеся книги. Под ред. В.С. Соколова. – Москва, 1963.

3. Droysen J. Alexander des Grossen Zuge durch Turan – RMR Zweiter Jahrgang, 1834. – P. 91–92; Негматов Н.Н. О работах Ходжепитско-Уструшанского отряда в 1955 г. /// АРТ. III, 1956.
4. Массон М.Е. Из истории горной промышленности Таджикистана. – Ленинград, 1934. – С. 60.

INTEGRATION OF ENGINEERING GRAPHICS AND INFORMATION CULTURE IN THE STUDY AND DIGITAL RECONSTRUCTION OF HISTORICAL MONUMENTS IN NAMANGAN (CASE OF AKHSIKENT)

ANVAROV ALISHER ABDULATIFOVICH
Senior Lecturer of Digital Technologies
Namangan state technical University, Uzbekistan
alisher1972hoji@gmail.com
ANVAROVA MOHLAROYIM ALISHER QIZI
Student

Abstract: This paper explores the digital preservation of Namangan’s historical heritage, focusing on the ancient site of Akhsikent. By integrating engineering graphics, 3D laser scanning, and Building Information Modeling (BIM), the research establishes a comprehensive methodological framework for virtual reconstruction and archiving.

Keywords: Engineering Graphics, Digital Reconstruction, Akhsikent, Namangan Architecture, Information Culture, 3D Modeling, Computer-Aided Design, Cultural Heritage, Laser Scanning, Photogrammetry, Virtual Restoration, Architectural Conservation, Data Integration, Structural Analysis, Digital Archiving.

1. Introduction

The protection and scientific documentation of historical and cultural monuments represent a fundamental pillar of national identity and global heritage preservation. In the context of Uzbekistan, a country characterized by an exceptionally rich architectural and archaeological legacy, traditional methods of preservation are increasingly being supplemented-and in some dimensions, transformed-by advanced digital technologies. The intersection of historical research, art history, and engineering graphics forms a powerful interdisciplinary matrix that allows for a deeper, more precise understanding of ancient structures.

Namangan region, located in the fertile Fergana Valley, occupies a unique place in this landscape. It holds profound historical significance, housing both subterranean archaeological treasures and unique standing architectural monuments from later Islamic periods. Among these, the ancient city of Akhsikent stands as a paramount monument of urban planning, military defense, and craftsmanship spanning from the antiquity to the medieval era. However, time, environmental degradation, seismic activities, and human interventions pose continuous threats to these vulnerable mudbrick and baked brick structures.

Traditional descriptive and manual graphic methods often fail to capture the complex, deformed geometric realities of partially ruined architectural objects [Smith, 45]. This technological gap underscores the urgent necessity of integrating modern engineering graphics (Computer-Aided Design (CAD), 3D photogrammetry, terrestrial laser scanning, and Building Information Modeling) with a robust information culture within the humanities. Information culture in this context implies not only the usage of digital tools but also the systematic collection, metadata structuring, and ethical preservation of digital cultural assets. This paper aims to analyze the innovative opportunities provided by engineering graphics in studying and virtually reconstructing the historical monuments of Namangan, establishing a workflow that bridges the gap between empirical historical data and precise geometric visualization.

2. Methods and Materials

The research methodology adopts a strictly interdisciplinary approach, synthesizing historical-archaeological analysis with advanced spatial and digital engineering techniques. The primary object of study is the Akhsikent archaeological complex, supplemented by comparative structural elements found in traditional 18th-20th century Namangan monuments, such as the Mulla Bozor Oxund mosque and local madrasahs.

To achieve an accurate digital reconstruction, a three-tiered digital documentation workflow was established:

Terrestrial Photogrammetry and Remote Sensing**:** High-resolution digital cameras and Unmanned Aerial Vehicles (UAVs) were deployed to capture thousands of overlapping aerial and terrestrial photographic images of the exposed foundations, defensive walls, and surviving citadel elements of Akhsikent [Karimov, 112].

Terrestrial Laser Scanning (TLS): Spatial point clouds were generated using high-precision laser scanners to capture exact spatial coordinates (X, Y, Z) of

architectural surfaces, accounting for millimeter-level deformations, structural lean, and surface weathering caused by centuries of soil erosion [Smith, 78].

Parametric CAD and BIM Modeling: The raw spatial data (point clouds and polygonal meshes) were imported into parametric CAD environments (such as Autodesk AutoCAD and Revit). Here, historical architectural orders, brick-laying patterns, and structural modules were isolated and reconstructed based on mathematical proportions extracted from surviving fragments [Murodov, 55].

The historical source material includes archival drawings from 20th-century Soviet archaeological expeditions, descriptive accounts by medieval chroniclers (such as Babur's descriptions of Akhsi in the *Baburnama*), and comparative ethnographic data on Fergana architectural schools [Babur, 12]. The architectural data was classified into categorical databases, defining material properties, spatial coordinates, and chronological layers [Askarov, 204].

3. Results and Discussion

The implementation of engineering graphics tools yielded a multi-layered, interactive 3D digital model of the selected sectors of Akhsikent, including its monumental defensive gates and artisan residential quarters. The conversion of unorganized point clouds into highly structured parametric models revealed critical insights into the structural engineering logic used by ancient builders in the Fergana Valley [Askarov, 215].

One of the key discoveries made during the geometric analysis of the reconstructed fortifications was the precise proportional system governing the mudbrick (*paxsa*) layers and internal timber reinforcement frameworks. Engineering graphics software enabled the calculation of the structural loads of the massive walls, demonstrating that ancient builders utilized complex localized geometric adaptations to distribute weight evenly across unstable terrain along the Syr Darya riverbank [Murodov, 59].

To demonstrate the distinct advantages of this integrated digital approach over conventional architectural documentation, a comparative analysis was compiled during the study:

Documentation Metric	**Traditional Architectural Drafting**	**Digital Engineering Graphics & BIM**
Measurement Accuracy	Manual (centimeter-level errors)	Automated (millimeter-level precision)
Data Dimension	2D Orthographic projections only	Full 3D Spatial + Semantic Data (4D/5D)

Time Efficiency	Weeks of manual field sketching	Days of scanning and automated processing
Deformation Capture	Highly generalized or omitted	Exact representation of structural cracks
Interdisciplinary Sharing	Physical paper or static PDF files	Cloud-based interactive databases

Furthermore, the research successfully integrated these engineering outputs with the concept of **information culture**. Information culture involves establishing standardized metadata for digital architectural assets, ensuring that a 3D model is not merely an artistic visualization, but an open-source, scientifically validated repository of historical information. Every reconstructed beam, dome, or brick wall in the CAD environment was linked to specific archaeological databases containing information on material composition, excavation year, and confidence level of the restoration [Karimov, 142].

This systematic approach directly addresses a major problem in contemporary art history and museology: the proliferation of speculative, unscientific 3D models that misrepresent historical realities to the public [Smith, 102]. By embedding information culture within engineering workflows, any deviation or hypothetical reconstruction is transparently flagged, preserving the scientific integrity of Namangan’s architectural heritage.

4. Conclusion and Future Perspectives

The integration of engineering graphics with historical and art historical analysis represents an evolutionary leap in how Uzbekistan’s cultural heritage is studied, preserved, and disseminated. The application of these methods to the monuments of Namangan, particularly the complex site of Akhsikent, proves that digital reconstruction can uncover hidden structural logic that remains invisible to the naked eye or traditional manual drafting methods.

The main conclusions of this research indicate that:

- Engineering graphics provide an empirical foundation for historical conservation, turning passive observation into active, structurally sound virtual restoration [Karimov, 150].
- The synthesis of spatial data with semantic historical databases fosters a higher level of information culture among researchers and the public alike [Murodov, 64].
- Digital models serve as a permanent safeguard against the physical loss of monuments due to environmental and anthropogenic pressures [Askarov, 220].

Looking toward future perspectives, the established digital models of Akhsikent lay the groundwork for creating immersive Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) open-air museums directly at the archaeological site. This will allow tourists and researchers to visualize the ancient city in its original grandeur while standing amidst its ruins. Furthermore, the integration of Artificial Intelligence (AI) algorithms with CAD systems could soon automate the cross-referencing of regional architectural styles, enabling predictive reconstructions of missing segments of other ruined monuments across the Fergana Valley. It is highly recommended to establish a unified National Digital Heritage Cloud of Uzbekistan to consolidate these interdisciplinary datasets for future generations of scholars.

References (Alphabetical Order)

1. Askarov, A. *Ancient Akhsikent: Archaeological Research and Historical Interpretation*. Tashkent: Fan, 2012.
2. Babur, Z. M. *The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor*. Translated by W. M. Thackston. New York: Modern Library, 2002.
3. Karimov, I. A. *Digital Technologies in the Conservation of Central Asian Architecture*. Samarkand: Institute of Archaeology, 2018.
4. Murodov, S. *Traditional Architecture of the Fergana Valley: Methods, Materials, and Proportions*. Namangan: Nasr, 2015.
5. Smith, J. *Principles of 3D Laser Scanning and Photogrammetry for Cultural Heritage Sites*. London: Academic Press, 2020.

XIVA XONLIGIDAGI NEMIS MENNONITLAR MODDIY-MADANIY MEROSI: MANBASHUNOSLIK VA MUZEYSHUNOSLIK JIHATIDAN TADQIQ

Abdullayeva Mohira Saparboy qizi
Xorazm Ma’mun akademiyasi
Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi
kichik ilmiy xodimi
mokhirabdullayeva1998@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-7092-1940

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi hududida istiqomat qilgan nemis-mennonitlar jamoasining moddiy-madaniy merosi manbashunoslik va muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Tadqiqotda Oq masjid hududida shakllangan mennonitlar jamoasining tarixiy faoliyatini yoritishda yozma, arxiv, moddiy-ashyoviy va fotovizual

manbalarning ilmiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, muzey fondlarida saqlanayotgan qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, maishiy hayot va fotografiyaga oid predmetlarning tarixiy-texnologik ahamiyati ochib beriladi. Mennonitlarning agrotexnika, chorvachilik, metallga ishlov berish, qurilish va fotografiya sohalaridagi faoliyati Xiva xonligida Yevropa texnologik tajribasining mahalliy muhit bilan o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadigan muhim tarixiy jarayon sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari Oq masjid mennonitlari merosini tizimli kataloglashtirish, raqamlashtirish va xalqaro manbalar bilan qiyosiy o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, nemis-mennonitlar, Oq masjid, manbashunoslik, muzeyshunoslik, fotografiya, Vilgelm Penner, Xudoybergan Devonov.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasida amalga oshirilgan harbiy-ma’muriy islohotlar, xususan, harbiy xizmat tizimidagi o‘zgarishlar diniy e’tiqodi va pasifistik qarashlari sababli qurolli harbiy xizmatni rad etgan nemis-mennonitlarning migratsiya jarayonlarini jadallashtirdi. Natijada mennonitlarning ayrim guruhlari Rossiya imperiyasining janubiy va sharqiy hududlariga, jumladan, Turkiston o‘lkasiga ko‘chib o‘tib, yangi aholi manzilgohlarini tashkil etdilar. Ushbu migratsiya jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri Xiva xonligi hududi bilan bog‘liq bo‘lib, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) davrida yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar natijasida 1884-yilda Xiva shahri yaqinidagi Oq masjid hududida nemis-mennonitlar jamoasi shakllandi. Mazkur jamoa 1937-yilgacha Xorazm hududining xo‘jalik, ijtimoiy va madaniy hayotida muayyan iz qoldirdi (Ratatz, 2001; Matniyozov, 2005).

Oq masjid mennonitlari tarixini tadqiq etishda yozma manbalar bilan bir qatorda jamoaning kundalik turmushi, xo‘jalik faoliyati, hunarmandchiligi, ishlab chiqarish tajribasi va texnologik ko‘nikmalarini bevosita aks ettiruvchi moddiy hamda fotovizual manbalarni kompleks o‘rganish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Xususan, muzey fondlarida saqlanayotgan mehnat qurollari, xo‘jalik buyumlari, maishiy jihozlar, ishlab chiqarish vositalari, fotografik materiallar va boshqa ashyolar mennonitlar jamoasining Xorazm hududidagi faoliyatini konkret tarixiy dalillar asosida yoritish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, Oq masjid mennonitlariga oid muzey eksponatlarini manbashunoslik va muzeyshunoslik yondashuvlari asosida o‘rganish ularning kelib chiqishi, funksiyasi, foydalanish sohasi va tarixiy-madaniy kontekstini aniqlash bilan bir qatorda, Xiva xonligi va keyingi tarixiy davrlardagi nemis-mennonitlar merosining o‘rnini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va manbalar

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, tipologik va muzeyshunoslik usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar Oq masjid nemis-mennonitlari jamoasining shakllanishi, ijtimoiy tarkibi, xo‘jalik faoliyati va moddiy-madaniy merosini turli turdagi manbalar asosida kompleks tahlil qilish imkonini

berdi. Manbalar mazmuni, kelib chiqishi va tarixiy xususiyatlariga ko‘ra yozma-arxiv, moddiy-ashyoviy hamda fotovizual guruhlarga ajratildi.

Birinchi guruhni yozma va arxiv hujjatlari tashkil etadi. Xiva xonligi devonxonasi materiallari, demografik qaydlar hamda Oq masjid aholisi to‘g‘risidagi metrik ma’lumotlar jamoaning tarkibi, joylashuvi va ijtimoiy tuzilishini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining I-125-fondida saqlanayotgan hujjatlar mennonitlar jamoasining Xiva hududidagi mavjudligi va faoliyatini konkret tarixiy ma’lumotlar asosida o‘rganish imkonini beradi.

Ikkinchi guruh moddiy-ashyoviy manbalardan iborat. “Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondlarida saqlanayotgan Oq masjid nemis-mennonitlariga oid xo‘jalik, hunarmandchilik va maishiy buyumlar jamoaning kundalik turmushi, ishlab chiqarish faoliyati va texnologik tajribasini o‘rganishda muhim daliliy ahamiyatga ega. Ushbu predmetlarni funksional va tipologik jihatdan tasniflash ularning qo‘llanilish sohasi hamda jamoa hayotidagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi.

Uchinchi guruhni fotovizual manbalar tashkil etadi. Vilgelm Penner faoliyatiga oid fotografik materiallar va Xudoybergan Devonovning ijodiy merosi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda fotografiya amaliyotining shakllanishi va rivojlanishini o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Mazkur materiallar nafaqat tarixiy voqelikning vizual tasvirini, balki fotografik texnologiyalar va professional tajribaning mintaqada tarqalish jarayonini ham tahlil qilish imkonini beradi (Nurjanov, Jumaniyozova, 2010).

Asosiy natijalar

Turli turdagi manbalarni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish Oq masjid nemis-mennonitlari tarixini migratsiya jarayonidan boshlab Xiva hududida jamoaviy hayotning shakllanishigacha bo‘lgan izchil tarixiy jarayon sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Mavjud ma’lumotlar asosida jamoa tarixida Lausan davri va 1884-yildan boshlangan Oq masjid davrini farqlash mumkin. Oq masjid bosqichi mennonitlarning Xiva hududida nisbatan barqaror manzilgohga ega bo‘lib, xo‘jalik va ijtimoiy faoliyatini yo‘lga qo‘ygan davri sifatida ajralib turadi.

Demografik va genealogik ma’lumotlarda Quiring, Toews, Schmidt, Dyck, Pauls va Janzen kabi oilalarning qayd etilishi jamoaning muayyan oilaviy tarkib asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Diniy hayot bilan bog‘liq ma’lumotlar esa Claas Epp nomi bilan bog‘liq cherkov jamoaning diniy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi (Belk, 1976). Shu jihatdan Oq masjid mennonitlarini qisqa

muddatli migratsion guruh sifatida emas, balki ma’lum ijtimoiy va diniy institutlarga ega bo‘lgan jamoa sifatida tadqiq etish mumkin.

Muzey fondlarida saqlanayotgan moddiy manbalarni funksional va texnologik jihatdan tasniflash mennonitlar faoliyatining bir nechta asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Birinchi yo‘nalish qishloq xo‘jaligi va chorvachilik bilan bog‘liq. Xo‘jalik predmetlari, qishloq xo‘jaligi qurollari, metall omochlar hamda sutni qayta ishlashga mo‘ljallangan vositalar jamoaning ishlab chiqarish faoliyatida texnik vositalardan foydalanilganini ko‘rsatadi. Yangi qoramol zotlari va bug‘doy navlaridan foydalanish haqidagi ma’lumotlar bilan birgalikda mazkur ashyolar mennonitlarning xo‘jalik tajribasi va mahalliy agrar muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganish uchun asos yaratadi (Absalomov, 2018). Bunda alohida predmetni “yangi texnologiya” sifatida baholashdan ko‘ra, uning mahalliy xo‘jalik tizimida qanday vazifani bajarganini aniqlash muhimdir.

Ikkinchi yo‘nalish hunarmandchilik, metallga ishlov berish va yog‘ochsozlik faoliyati bilan bog‘liq. Mazkur sohalarga oid ashyolar mennonitlarning nafaqat o‘z ichki ehtiyojlarini ta’minlaganini, balki mahalliy iqtisodiy muhit bilan amaliy aloqalarda bo‘lganini o‘rganish imkonini beradi. Qurilish va bezak ishlarida ishtirok etish bilan bog‘liq ma’lumotlar esa texnik ko‘nikmalar va mahalliy qurilish an’analari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir masalasini tadqiq etish uchun muhimdir (Matniyozov, 2005).

Uchinchi yo‘nalish fotografiya bilan bog‘liq. Vilgelm Pennerning fotografiya sohasidagi faoliyati va uning Xudoybergan Devonov bilan aloqalari Xorazmda fotografiya texnologiyasi va professional fotografik amaliyotning rivojlanishi kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi. Fotografik manbalarni texnik, ikonografik va tarixiy jihatdan tahlil qilish orqali nafaqat tasvirlangan obyekt yoki shaxs, balki fotografiya vositalari, tasvir yaratish amaliyoti va vizual madaniyatning shakllanish jarayonlarini ham o‘rganish mumkin (Nurjanov, Jumaniyozova, 2010).

Muhokama

Oq masjid nemis-mennonitlari merosini faqat diniy yoki etnik migratsiya tarixi doirasida o‘rganish jamoaning Xorazm tarixidagi faoliyatining ko‘lamini to‘liq ochib bermaydi. Arxiv hujjatlari, moddiy-ashyoviy va fotovizual manbalarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish ularning xo‘jalik faoliyati, hunarmandchiligi, qurilish amaliyoti, maishiy madaniyati va texnologik tajribasini kompleks ravishda tadqiq etish imkonini beradi.

Muzey eksponatlarining funksional, texnologik va tarixiy-tipologik xususiyatlarini aniqlash ayniqsa muhimdir. Bunday yondashuv predmetning faqat

tashqi ko‘rinishi yoki nomini qayd etish bilan cheklanmay, uning qanday maqsadda ishlatilgani, qanday texnologik jarayon bilan bog‘liqligi, qaysi davrga mansubligi va jamoa hayotida qanday vazifa bajarganini aniqlashga imkon beradi. Shu asosda moddiy merosni tarixiy jarayonlarning bevosita dalili sifatida ilmiy muomalaga kiritish mumkin.

Shu bilan birga, muzey predmetlarini identifikatsiya qilish va tarixiy jihatdan tavsiflashda muayyan metodologik muammolar mavjud. Ayrim ashyolarning ishlab chiqarilgan sanasi, kelib chiqish hududi, ishlab chiqaruvchisi, dastlabki egasi va Xorazmga kelib tushish yo‘li to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘liq saqlanmagan bo‘lishi mumkin. Shu sababli predmetlarni atributsiya qilishda ularning shakli, materiali, texnologik xususiyatlari va funksional vazifasi bilan bir qatorda, arxiv ma’lumotlari, kataloglar, genealogik materiallar va boshqa muzey kolleksiyalari bilan qiyoslash talab etiladi.

Bunday kompleks yondashuv Oq masjid mennonitlari moddiy merosining kelib chiqishi va tarixiy kontekstini aniqroq belgilashga yordam beradi. Ayniqsa, Yevropa va Rossiya hududlaridagi o‘xshash predmetlar bilan qiyosiy tahlil olib borish ularning ishlab chiqarish muhiti va texnologik aloqalarini aniqlash uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Biroq bunday qiyoslashlarda predmetlarning o‘xshashligi ularning kelib chiqishini avtomatik ravishda tasdiqlamasligini hisobga olish zarur.

Shuningdek, muzey fondlarini kataloglashtirish va raqamlashtirish Oq masjid mennonitlari merosini tadqiq etishning zamonaviy yo‘nalishlaridan biridir. Predmetning inventar raqami, nomi, materiali, o‘lchami, funksiyasi, taxminiy sanasi, kelib chiqishi, provenansi va unga oid arxiv ma’lumotlarini yagona elektron metadata tizimida qayd etish kelgusida manbalarni qiyosiy o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa

Oq masjid nemis-mennonitlari jamoasining moddiy-madaniy merosi Xorazmning XIX asr oxiri – XX asr birinchi uchdan biridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biridir. Arxiv hujjatlari, demografik va metrik qaydlar, muzey eksponatlari hamda fotovizual materiallarni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish jamoaning shakllanishi, ijtimoiy tarkibi, xo‘jalik faoliyati va madaniy aloqalarini kompleks ravishda yoritish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari Oq masjid mennonitlari faoliyatining qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, hunarmandchilik, qurilish va fotografiya kabi turli yo‘nalishlarda namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, muzey fondlarida saqlanayotgan moddiy ashyolar jamoaning kundalik hayoti va ishlab chiqarish amaliyotini o‘rganish uchun

bevosita daliliy material sifatida ahamiyatlidir. Fotovizual manbalar esa mazkur jarayonlarning vizual jihatlarini hamda Xorazmda fotografik amaliyotning rivojlanish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, moddiy meros obyektlarini ilmiy muomalaga kiritishda ularning atributsiyasi va provenansini aniqlash muhim metodologik vazifa bo‘lib qolmoqda. Predmetlarning funksional, texnologik va tarixiy-tipologik xususiyatlarini arxiv hujjatlari va boshqa muzey kolleksiyalari bilan qiyoslash ularning tarixiy qiymatini aniqroq belgilash imkonini beradi.

Umuman, Oq masjid nemis-mennonitlari merosini manbashunoslik va muzeyshunoslik yondashuvlari asosida o‘rganish Xiva xonligi va undan keyingi davrda Xorazm hududida kechgan madaniy aloqalar, xo‘jalik tajribasi, texnologik jarayonlar va kundalik hayot tarixini yanada chuqurroq yoritishga imkon beradi. Mazkur merosni ilmiy tavsiflash, kataloglashtirish, raqamlashtirish va kelib chiqish tarixini yangi arxiv hamda muzey materiallari asosida aniqlashtirish esa kelgusidagi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Absalomov, E. (2018). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda agrotexnika va texnologiyalar transferi jarayonlari. O‘zbekiston tarixi, №3, 62–74-b.
2. Belk, F. R. (1976). The Great Trek: Central Asian Mennonites History. Scottdale: Herald Press.
3. Matniyozov, M. (2005). XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti. Toshkent: Fan
4. Nurjanov, K., Jumaniyozova, M. (2010). Xudoybergan Devonov va Markaziy Osiyoda fotografiya san’atining shakllanishi. Urganch: Xorazm.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. I-125-fond, 1-ro‘yxat, 458-jild. Oq masjid qishlog‘i aholisining 1912–1935-yillardagi demografik ro‘yxatlari.
6. Ratatz, A. (2001). Mennoniten in der Wüste: Die Migration nach Zentralasien (1880–1935). Stuttgart: Franz Steiner Verlag.

MUSTAQILLIK YILLARIDA USTRUSHONA TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI

Sh.Baratov
“Ideal Study” xususiy maktabi direktori

Annotatsiya: Maqolada mustaqillik yillarida Ustrushona tarixiy-madaniy merosining arxeologik manbalar asosida o‘rganilishi, yodgorliklar, manzilgohlar, moddiy madaniyat namunalari hamda ularni tadqiq etishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ustrushona, tarixiy meros, madaniy meros, arxeologiya, arxeologik manbalar, yodgorliklar, moddiy madaniyat, manzilgohlar, shaharsozlik, hunarmandchilik, mozorqo‘rg‘onlar, etnomadaniyat, tarixiy geografiya, numizmatika, mustaqillik.

Ustrushona Markaziy Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar tarixida muhim o‘rin tutgan tarixiy-madaniy o‘lkalardan biri hisoblanadi. Uning boy moddiy-madaniy merosini o‘rganishda arxeologik yodgorliklar, shahar va qishloq manzilgohlari, mozorqo‘rg‘onlar, hunarmandchilik buyumlari hamda numizmatik topilmalar muhim manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Ustrushona tarixini arxeologik va yozma manbalar asosida tadqiq etish ko‘lami kengayib, hududning shaharsozligi, hunarmandchiligi, xo‘jalik hayoti, etnomadaniy jarayonlari va tarixiy geografiyasiga oid yangi ilmiy ma’lumotlar qo‘lga kiritildi.

Mustaqillik yillarida Nurtepa, Qaliyatepa, Rasulboyqultepa, Pardaqultepa, Komilbobotepa, Xontepa, Kultepa va boshqa yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Ustrushona moddiy madaniyatining turli jihatlarini yoritish imkonini berdi. Mazkur izlanishlar natijasida qadimgi va ilk o‘rta asrlar manzilgohlari, shahar madaniyati, chorvador va o‘troq aholi o‘rtasidagi madaniy aloqalar hamda hunarmandchilik an’analariga oid materiallar ilmiy muomalaga kiritildi.

Ustrushona tarixi Sog‘d yoki Choch bilan bog‘liq periferik hudud sifatida emas, balki o‘z siyosiy boshqaruvi,madaniyati, xalqaro-mintaqaviy aloqalarga ega bo‘lgan tarxiy- madaniy o‘lka sifatida katta o‘ringa ega bo‘lganligi tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topdi. Bu davrda qator yodgorliklarda oldin boshlangan qazuv tadqiqot ishlari muvaffaqiyatli davom ettirildi. Jumladan, Nurtepa, Qaliyatepa, Rasulboyqultepa, Pardaqultepa, Komilbobotepa, Xontepa, Kultepa, Nurota da olib borilgan tadqiqotlarda mintaqa tarixiga oid yangi topilmalar topildi **[Негматов Н.Н., Беляева Т.В : 23-27, Пардаев М.Х: 49-50, Грицина А.А: 24, Грицина А.А: 82-92].** Ushbu tadqiqotlar natijasida Shimoli-g‘arbiy Ustrushona hududi rustoqlari lokalizatsiyasi tuzib chiqildi. Biroq ushbu tadqiqotlar hududning qadimiy va ilk o‘rta asrlar davri moddiy madaniyati, jumladan, ilk manzilgohlarning paydo bo‘lishi, shaharsozlik an’analari, hunarmadchilikning paydo bo‘lishi, qadimiy davr tarixiy-

geografik tasviri, tarixiy topografiyasi, siyosiy-iqtisodiy, hayoti muammolarini o‘rganish bilan cheklanadi. Hududning qadim va ilk o‘rta asrlar davri tarixini o‘rganish borasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning yana bir yo‘nalishi tarixiy geografik o‘lkaning arxeologik xaritasini yaratish borasidagi tadqiqotlardir. Voha tadqiqotchisi O.Mamirovning ishlarida tarixiy Ustrushona o‘lkasi Shahriston vohasi, xususan, Shahristonsoy, Kattasoy, Bosmandasoy, Oqsuv, Isfanasoy va Xo‘jabaqirgansoy havzalarining yuqori oqimini o‘z ichiga oluvchi sharqiy va janubiy-sharqiy Ustrushona. Jizzax vohasi, Zominsoy, Sangzar suv havzasiga kiruvchi shimoli-g‘arbiy Ustrushona, Xo‘jamushkentsoy havzasi va bunga tutash hududlarning tekislik cho‘l qismi (hozirgi Sirdaryo viloyati va Jizzax viloyatining ayrim tumanlari) kiruvchi shimoliy Ustrushonadir kabi hududlarga b`olinib tadqiqi etilishi keltirib o‘tilgan. Ushbu tadqiqotchining ilmiy tadqiqotida Ustrushona arxeologik xaritasini yaratish yo‘nalishidagi tadqiqotlar natijasida shimoliy Ustrushonada 137 ta **[Грицина А.А: 42-63], shimoli-g‘arbiy Ustrushonada 450 dan ortiq[Пардаев М.Х: 21]**, sharqiy Ustrushonada 250 dan ortiq **[Смирнова О.И: 189-230]** arxeologik yodgorlik aniqlanganligi aytib o‘tilgan **[Мамиров О.У: 24]**. Ushbu aniqlangan arxeologik yodgorliklar tarixiy Ustrushona hududlarida davlatimiz mustaqillikga erishgandan so‘ng hududlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish uchun yaratilgan imkoniyatlar natijasida amalga oshdi. Tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘ldi.

- Qadimgi va ilk o‘rta asrlar arxeologik yodgorliklarini aniqlash va xaritaga tushirish
- Ustrushona shahar madaniyatini o‘rganish
- Qadimgi va ilk o‘rta asrlar qishloq makonlarini tadqiq qilish
- Mozorqo‘rg‘onlar va dafn marosimlarini o‘rganish
- Chorvador va o‘troq aholining o‘zaro munosabatlarini aniqlash
- Sug‘orish va dehqonchilik tarixini tadqiq etish
- Hunarmandchilik va moddiy madaniyatini o‘rganish
- Diniy etiqodlar va manaviy madaniyatini o‘rganish
- Numizmatik va antropologik materiallarni almiy muomlaga kiritish

Ushbu tadqiqotlar avval boshlangan tadqiqotlarning amaliy davomi sifatida davom ettirildi. Xususan, ushbu voha tarixini arxeologik va yozma manbalar asosida mustaqillik davrida o‘rgangan tadqiqotchilar orasida L.Sverchkov, M.X.Pardayev, A.Gritsina, M.Ishoqov, A.Berdimuradov, S.Qudratov, F.Maqsudov, F.Toshboyev, J.G‘ofurov, K.Raximov, B.To‘ychiboyev, Q.Almanov, O.Mamirovning ishlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin **[Сверчков Л.М: 24, Пардаев М.Х: 142-148,**

Грицина А.А: 267, Тўйчибоев Б.Б: 73-78, To‘ychiboyev B.B: 223, To‘ychiboyev B.B: 154, Мақсудов Ф.А: 32, Ғофуров Ж.И: 32, Toshboyev F.E: 33-41, Toshboyev F.E: 249, Toshboyev F.E: 55-59, Ғофуров Ж.И: 24, Алманов Қ. О: 21, Мамиров О.У: 24]. Shuningdek keyingi davrlarda voha tarixining turli sohalarini arxeologik va yozma manbalar asosida bir qancha tadqiqotchilar tamonidan o‘rganilib, 800 dan ortiq arxeologik obyektlar o‘rni aniqlanganligi diqqatga sazovordir. Ustrushonaning shimoliy- g‘arbiy qismlarida arxeologik tadqiqotlar amalga oshirgan M. Pardayev, A.Gritsina tadqiqotlarining asosiy mazmuni shundan iboratki, ushbu tadqiqotchilar Shimoli-g‘arbiy Ustrushonaning arxeologik yodgorliklarini o‘rganishda davomida vohaning qo‘shni hududlardagi aholi bilan madaniy aloqalar o‘rnatganligini isbotlaganlar. Xususan, voha tarixi bo‘yicha yirik mutaxasis M. Pardayevning Qaliyatepa shahar yodgorligi, Pardaqultepa, Komilbobotepa, Rasulboyqultepa kabi qishloq makonlarida antik va ilk o‘rta asrlarga mansub Qovunchi va Jetasar asar madaniyati jamoalariga oid materallar borligi aniqlanganligi diqqatga sazovordir **[Lapsaova M: 13]**. Jizzax vohasidagi qishloq makonlari va Qaliyatepa shahar yodgorligidagi M.H. Pardayevning tadqiqotlarida asosan qadimgi vohaning o‘troq va dasht chorvador aholi madaniyatiga oid topilmalar tahlil qilinib, o‘rtoq dehqon hamda chorvadorlar madaniyatining o‘zaro madaniy aloqalari va bir biriga tasiri masalalariga arxeologik yodgorliklardan topilgan zomorf timsollar vositasida o‘zining tasdig‘ini topganligini ilmiy hulosalar bilan asoslab bergan **[Пардаев М: 42-46, Пардаев М.Х: 146-153]**. Ushbu arxeologik yodgorliklardagi zoomorf tutqichli krujkalar, ko‘zacha, qozon tagliklar, xurmacha va boshqalardagi yangicha shakllar va yasalish uslublari dasht qabilalariga oid ekanligi tadqiqotchi tamonidan asoslab berilgan. Ustrushona kulollik idishlarida bunday zoomorf timsollar ko‘plab uchrashi O. Mamirov tadqiqotlarida keng tahlil qilingan **[Мамиров О.У: 24]**. Ustrushonadagi qadimgi ko‘chmanchi chorvadorlarning turmush tarzi mintaqaning boshqa hududlarida kuzatilganidek, asosan mozor-qo‘rg‘onlarni qazish orqali qo‘lga kiritilgan arxeologik materiallar yordamida o‘rganilgan **[Гайдукевич В.Ф: 335-352, Негматов Н.Н: 36, Салтовская Е.Д: 253-255]**. Xususan, mozor-qo‘rg‘onlarning dasht va tog‘oldi hududlarida joylashuvi **[Грицина А.А: 186-195]**, qabrlarning xususiyatlari, yo‘nalishi, qabr ichiga qo‘yilgan “tortiq buyumlar”ning klassifikatsiyasi, ko‘mish udumlari **[Грицина А.А: 76]** ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning e’tiborini tortgan **[Алимов У.А., Сверчков Л.М: 87; Авзалов Р.З., Самойлик П.Т: 327-330; Марафиев С.Ш., Москаленко Н.А: 73-88; Мирбобоев А.К: 295]**. Vohaning Xarakana rustoqi o‘rnidagi bugungi G‘allaorol tumani Chuvilloq qabrlari

va Uchtepa mozorqo‘rg‘onlari O‘.Alimov tomonidan ochib o‘rganilgan bo‘lsa, Qizili massivida Xo‘jamushkentsoy bo‘ylari, Sho‘rbuloqsoy va Ravotsoyda M. H. Pardayev, Zomin tumanidagi Sag‘onoq, Sirdaryo viloyatidagi Ulkan-Soyliq, Saritepa va Kindiktepa mozor-qo‘rg‘onlari A.A. Gritsina tomonidan qayd qilinib, ochib o‘rganilganlishi voha tarixi uchun yangi fikr va mulohazalar berdi **[Мамиров О.У: 24]**. Vohaning yana bir jonkuyar tarixchi arxeologi F.E.Toshboyevning 2003–2016 yillarda shimoli-g‘arbiy Ustrushonadagi G‘ulbo, Ko‘rpa, Qamish, Bekkeldi va Qoratepa mozorqo‘rg‘onlarida olib borgan keng qamrovli tadqiqotlari natijasida, o‘lkadagi “qo‘nar-ko‘char” yani chorvadorlar madaniyatini o‘rganish borasidagi olib borilgan muhim ilmiy tadqiqotlar umumlashtirilgan **[Toshboyev F.E: 237 Б; Ўша муаллиф: 143–147; Ўша муаллиф: 76–81, Тошбоев Ф. Э., Пардаев М. Х., Грицина А. А: 184–189]**. Chorvadorlar madaniyatiga oid F.E.Toshboyev, O.Mamirov va boshqalarning keyingi yillarda o‘rgangan Sayxonsoy, Chayonli, Xatab, Pishog‘or mozorqo‘rg‘onlarida turlicha dafn marosimlari va moddiy ashyolarning topilishi, ushbu voha antik va ilk o‘rta asrlar davriga kelib, chorvadorlarning muhim geografik hududlaridan biri bo‘lganligini isbotlagan **[Тошбоев Ф.Э., Мамиров О.У: 20-32; Toshboyev F.E: 33-62; Toshboyev F.E., Mamirov O.U., Tugalov B.B: 151-156.]**. Bu joyda qo‘nar-ko‘char chorvador qavmlar tomonidan o‘zlashtirib boshlaganligi, ushbu davrlarda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tarixida chorvador qavmlar muhim o‘rin tutganligi ko‘rsatib berilgan. Ushbu olib borilgan so‘ngi yillardagi arxeologik izlanishlarga ko‘ra, vohaga mil. avv. III – II asrlarda tabiiy va iqlimiy o‘zgarishlar natijasida, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi sarmat, dah, yuechji, xun, usun kabi qabilalarning kirib kelganligi aniqlangan **[Lapsaova M: 13]**. Shunigdek ushbu madaniyatga oid tadqiqotlar olib borgan yana bir yirik arxeolog olim F.A.Maqsudovning tadqiqotlarini alohida ajratib ko‘rsatish zarur. Professor F.Maqsudov tamonidan Ustrushonadagi qoraxoniylar davriga oid ko‘chmanchi chorvadorlarning shahar manzilgohini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotida dastlabki vohadagi ko‘chmanchilarning yirik reja asosida qurilgan shahar o‘rni aniqlanib, keng ommaga uning o‘rni to‘grisida mal`umotlar berildi **[Мақсудов Ф.А: 28]**. Vohaning Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi Morguzar tog‘larining soy vodiysi va bir tog‘ platosida hududlarida kosmik kuzatuv natijasida olingan suratlar va GES tahlillar yordamida olingan materiallar asosida qadimgi davr chorvadorlarning ushbu hududni bronza davridan o‘zlashtirib boshlaganligi arxeolog F.A.Maqsudov tomonidan aniqlanib, ilmiy muomlaga kiritilishi, mintaqa tarixida chorvadorlar qavmlarning o‘rni yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi

[Мақсудов Ф.А: 20]. Vohaning ilk o‘rta asrlar siyosiy tarixi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan yana bir tadqiqotchisi Q.Almanovning tadqiqotlarida keltirilishicha, Ustrushonaning tabiiy geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari va iqtisodiy holati boshqa voha hukmdorliklaridan, xususan, qo‘shnilari Choch, Farg‘ona va Sug‘ddan bir muncha farqlanganligi, sababi esa, ushbu mintaqadagi hudularning katta bir qismini tog‘lik hududlar tashkil etishi, ushbu tog‘ va daralardagi vohalar ham o‘z geografik joylashuviga ko‘ra birmuncha noqulayliklarga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Ustrushonaning tog‘li qismi bir-biridan alohida-alohida, tor tog‘ daralarida joylashgan bo‘lib, dehqonchilikka mos hududlar nisbatan kamligi, Ustrushonaning voha qismi esa nisbatan tarqoq joylashgan bir necha iqtisodiy-ma'muriy markazlardan tashkil topganligi va bu yerda ham dehqonchilikka mos joylar unchalik keng hududlarni egallamaganligi qayd etiladi. Ushbu tadqiqotchining muhim ilmiy hulosalarida, Ustrushonada keng dalalarni suv bilan ta'minlaydigan yirik daryo havzasining yo‘qligi ushbu vohada sun'iy sug‘orish bilan bog‘liq dehqonchilikning keng rivojlanishiga yo‘l qo‘ymasligi keltiriladi. Shu tufayli bu yerdagi tekislik yerlar uzoq asrlar davomida sug‘orma dehqonchilikdan uzoq, cho‘l va dasht hududlar sifatida qaralgan bo‘lib, ushbu hududlardan mintaqada yashovchi chorvador qavmlar mavsumiy yaylovlar sifatida foydalangan degan fikrlar keltiriladi[Алманов Қ. О: 21]. Ushbu olim o‘z fikrlarini asoslash uchun 630- yillar atrofida Chochdan Sug‘dga Ustrushonaning tekislik qismi – bugungi Sirdaryo va Jizzax viloyatlari orqali o‘tayotgan xitoy rohibi Syuan Szan yozib qoldirgan ma'lumotlar bilan asoslab beradi. Rohib Syuan Szan Ustrushonaning shimoli-g‘arbida “Ulkan qum cho‘li”(Qizilqum. Balki, Mirzacho‘l) borligini yozib, cheki-chegarasi noma'lum bu hududda na o‘simlik va na suv topilmasligiga urg‘u beradi va faqatgina yuksak tog‘larga qarab yoki yo‘llardagi skeletlar orqali yo‘lning yo‘nalishini aniqlash mumkinligini aytib o‘tadi.

Xulosa. Umuman olganda, vohaning tog‘li va tekislik hududlarida hususan, O‘rta Sirdaryobo‘yi va unga tutash hududlarda yangi shaharlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi iqtisodiy hayotning muhim belgidi bo‘lgan hunarmandchilik bilan bevosita bo‘gliq bo‘lgan. Hunarmandchilikning turli sohalariga ixtisoslashgan aholi maskanlarining bo‘lishi bu narsani yana bir bor isbotlaydi. Mustaqillik yillarida qadimiy Ustrushona hukmdorligining o‘tmish tarixi moddiy madaniyat asosida o‘rganib ommalashtirishda Y.F. Buryakov, M.X. Pardayev, A.A. Gritsina, M. Ishoqov, A. Berdimurdov, Z. Xolboev, T.O. Omonjulov, S.S. Qudratov, B.B. To‘ychiboev, J.G‘ofurov, Q.O. Almanov va boshqalarning u yoki bu darajada hissasi bor. Ular orasida ayniqsa A.A. Grisina, M. Pardaev va F. Toshboyevlarning arxeologik izlanishlari ancha keng va chuqurligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

14. Негматов Н.Н., Беляева Т.В. Общий отчет об исследованиях Нуртепе в 1980-1985гг и продолжения работ по дальнейшему изучению и сохраннению памятника. //АРТ (1985). Вып. XXV. – Душанбе: Дониш. 1994. – С. 23-27; Пардаев М.Х. Буюк Ипак йўли ёқасидаги “Дизак” шаҳри ўрни тўғрисида. //Буюк Ипак йули ёқасидаги Марказий Осиё шаҳарлари. – Самарқанд. 1994. – Б. 49-50; Грицина А.А. Северная Уструшана в середине 1 тысячелетия до н.э. – в начале XIII в н.э. (Археолого-топографическое исследование). Автореф. канд. ист. наук. – Самарканд, 1990. – С. 24; Ўша муаллиф. Городища Нурата. //ИМКУ. Вып. 27. – Самарканд. Регистан. 1996. – С. 82-92.

15. Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Т.: Фан. 1992. – С.42-63.

16. Пардаев М.Х. Северо-западная Уструшана в эпоху раннего средневековья. Автореф. канд. ист. наук. –Т.: 1995. –С. 21.

17. Смирнова О.И. Археологические разведки в Уструшане 1950г. // МИА. Т.37. – М.-Л., 1953. – С.189-230.

18. Негматов Н.Н., Пулатов У.П., Хмельницкий С.Г. Уртакурган и Тирмизактепа. – Душанбе, Дониш. 1973. – С.105-108.; Билалов А.И. Из истории ирригации Уструшаны. (МКУ. Вып. 4). – Душанбе, Дониш. 1980. – С.191.

19. Сверчков Л.М. Поселение Мык – источник по истории средневековой Уструшаны...– 24 с.; Пардаев М.Х.

20. Lapsaova M. Qadimgi Ustrushonaning antik va ilk o‘rta asrlar tarixida Qovunchi madaniyatining o‘rni t.f.b.f.d (PhD) disertatsiyasi avtoreferati.-Samarqand,2025.-13 b.

21. Пардаев М. Қўй ва бўри руҳига сиғинишнинг ўзаро боғлиқлиги ҳақида // Узбекистонда ижтимоий фанлар. 1- сон. – Тошкент, 1995. – Б. 42-46; Пардаев М.Х.Қадимги Жиззах вохасида ўтроқ деҳқонлар ва кўчманчи чорвадорлар маданияти // ЎММТ 33 сон. – Тошкент, 2002. – Б. 146-153.

22. Гайдукевич В.Ф. Могильник близ Ширинсая в Узбекистане // СА. – 1952. – № 26. – С. 335-352; Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Уструшаны с древних времен по X веков н.э. // МИА, № 37. – Москва, 1953; Салтовская Е.Д. О раскопках могильника Дашти-Ашт в 1976 // АРТ. – Душанбе, 1982. – Вып. XVI. – С. 253-255.

23. Грицина А.А. Кочевники в Уструшане (на примере изучения курганов в Сырдарьинской и Джизакской областях) / Цивилизации скотоводов и

земледельцев Центральной Азии / Под ред. К.И.Ташбаева.. – Самарканд, Бишкек. 2005. – С. 186-195.

O‘ZBEKISTON TARIXIY YODGORLIKLARIDA MILLIY BEZAK SAN’ATINING SHAKLLANISHINI BIRLAMCHI MANBALAR ASOSIDA O‘RGANISH

Berikbayeva Dilnoza Turayevna
Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika mutaxassisligi 2 bosqich magistranti
+998911001945

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston tarixiy yodgorliklarida milliy bezak san’atining shakllanish jarayoni arxeologik topilmalar, me’moriy qoldiqlar, epigrafik yozuvlar va amaliy san’at namunalari kabi birlamchi manbalar asosida tahlil qilinadi. Naqshlarning tarixiy-badiiy taraqqiyoti, ramziy mazmuni hamda hududiy xususiyatlari yoritilib, ularni kompleks tadqiq etishning ilmiy yondashuvi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy yodgorlik, milliy bezak san’ati, birlamchi manba, arxeologik topilma, ornament, naqsh, girih, islimiy, koshinkorlik, ganchkorlik, epigrafika, me’moriy bezak, san’atshunoslik, madaniy meros, kompozitsiya, ramziylik.

KIRISH

O‘zbekiston hududi qadimdan turli sivilizatsiyalar, madaniy qatlamlar va badiiy an’analar tutashgan makon sifatida shakllangan. Bu jarayon, ayniqsa, tarixiy-me’moriy yodgorliklarning bezak tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi. Me’moriy obidalardagi geometrik girihlar, islimiy naqshlar, epigrafik kompozitsiyalar, koshin, ganch, yog‘och va rangtasvir bezaklari muayyan davrning estetik qarashlari bilan birga, jamiyatning dunyoqarashi, hunarmandchilik tajribasi va texnologik imkoniyatlarini ham aks ettiradi.

Milliy bezak san’atini faqat tayyor me’moriy shakl yoki zamonaviy restavratsiya ko‘rinishi asosida baholash yetarli emas. Chunki yodgorliklarning ayrim qismlari turli davrlarda qayta ta’mirlangan, ayrim bezaklar yangilangan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli naqsh va bezaklarning shakllanishini aniqlashda arxeologik topilmalar, dastlabki qurilish qatlamlari, sopol va koshin parchalari, devoriy tasvirlar, epigrafik yozuvlar, tarixiy fotosuratlar hamda o‘lchov chizmalari kabi birlamchi manbalarga tayanish ilmiy jihatdan muhimdir.

Samarqand me’morchiligidagi bezak tizimini o‘rgangan D.E. Omonov va Sh.X. Allaberdiyev geometrik hamda o‘simliksimon naqshlarning interyer va me’moriy qismlarda kompozitsion vazifa bajarishini, tokcha, izora, sharafa, ravoq kabi qismlarda turli bezak turlari qo‘llanishini qayd etadi [Omonov D.E 17-20]. Bu holat milliy bezak san’atining alohida ornamentlar yig‘indisi emas, balki me’moriy makon bilan uzviy bog‘langan yaxlit badiiy tizim ekanini ko‘rsatadi.

Milliy bezak san’atini o‘rganishda birlamchi manbalarning ahamiyati

Birlamchi manba tarixiy hodisa yoki badiiy jarayon bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan dalil hisoblanadi. Tarixiy yodgorliklar bezagini tadqiq etishda bunday manbalarga obidaning o‘zidagi asl bezak qatlamlari, arxeologik qazishma materiallari, koshin va ganch bo‘laklari, sopol buyumlar, yog‘och o‘ymakorligi namunalar, yozuvlar, tamg‘alar, devoriy suratlar hamda qadimiy qurilish qoldiqlari kiradi. Ularning afzalligi shundaki, ular bezakning kelib chiqishi, ishlanish texnikasi va davriy xususiyatlarini bevosita kuzatish imkonini beradi.

Masalan, biror me’moriy yodgorlikdagi naqshning bugungi ko‘rinishi restavratsiya natijasi bo‘lishi mumkin. Arxeologik qatlamdan topilgan dastlabki koshin parchasi esa uning asl rang gammasi, sir tarkibi, geometrik moduli yoki kompozitsion ritmi haqida ancha ishonchli ma’lumot beradi. Shu bois birlamchi manbalarni badiiy tahlil bilan birlashtirish tarix va san’atshunoslik integratsiyasining asosiy ilmiy tamoyillaridan biri bo‘lishi lozim.

Milliy bezaklarning tarixiy shakllanish bosqichlari

O‘zbekiston hududidagi bezak san’ati uzoq tarixiy rivojlanish natijasida shakllangan. Qadimgi davrlardagi geometrik va ramziy tasvirlar keyinchalik me’morchilikning murakkablashuvi bilan ritm, simmetriya hamda tarmoqlanuvchi kompozitsiyalarga ega bo‘ldi.

Islom madaniyati ta’sirida geometrik girih, o‘simliksimon islimiy va xattotlik kompozitsiyalari yuksak darajada rivojlandi. Ayniqsa, Temuriylar davri me’morchiligida bezak badiiy ifodaning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Samarqanddagi Registon majmuasi, Shohi Zinda, Bibixonim masjidi va Go‘ri Amir singari obidalarda koshin, mozaika, mayolika va epigrafik bezaklarning o‘zaro uyg‘unligi kuzatiladi. UNESCO Samarqandning Temuriylar davridagi me’morchilik va san’at taraqqiyotini butun mintaqa uchun muhim ta’sir ko‘rsatgan hodisa sifatida baholaydi. Bu tarixiy kontekst bezak san’atini faqat dekor sifatida emas, balki davrning madaniy identifikatori sifatida o‘rganishni talab etadi.

2026-yilda nashr etilgan B. Quchqarov va F. Qobulova tadqiqotida O‘zbekiston me’moriy yodgorliklaridagi naqsh, koshinkorlik, ganchkorlik va rangtasvir

bezaklarining shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari Registon va Ichan-Qal’a misolida tahlil qilingan [Quchqarov B.U 317-322]. Ushbu yondashuv bezak san’ati taraqqiyotini hududiy maktablar va me’moriy muhit bilan bog‘lab o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Naqsh turlarining badiiy-kompozitsion xususiyatlari

Milliy bezak san’atida geometrik naqshlar alohida o‘rin tutadi. Girih kompozitsiyalarida ko‘pburchaklar, yulduzsimon shakllar va o‘zaro tutash chiziqlar qat’iy matematik tartib asosida birlashadi. Bunday naqshlarda ritm, mutanosiblik va takroriylik asosiy badiiy vosita hisoblanadi. Ularning me’moriy sirtga moslashtirilishi ustaning nafaqat bezakchilik mahoratini, balki geometrik tafakkurini ham namoyon etadi.

Islimiy naqshlar esa o‘simliksimon shakllarning stilizatsiyasiga asoslanadi. Novda, barg, gul va g‘uncha shakllari uzluksiz harakat taassurotini hosil qilib, kompozitsiyaga plastik yumshoqlik beradi. Islimiy bezaklar ko‘pincha geometrik girih bilan uyg‘unlashtiriladi. Bunday sintez milliy bezak san’atining muhim xususiyatlaridan biridir.

Epigrafik bezaklar me’moriy kompozitsiyaning mazmuniy qatlamini kuchaytiradi. Yozuv me’moriy sirtni bezash bilan birga, tarixiy sana, diniy mazmun, quruvchi yoki homiy haqida ma’lumot beruvchi birlamchi manba vazifasini ham bajaradi. Shu sababli epigrafik matnlar san’atshunoslik tahlilida shakl va mazmunning birligi nuqtai nazaridan o‘rganilishi zarur.

1-jadval. Milliy bezak san’atini birlamchi manbalar asosida tahlil qilish mezonlari

Birlamchi manba turi	Aniqlanadigan xususiyat	San’atshunoslik ahamiyati
Arxeologik koshin va sopol parchalari	Rang, sir, geometrik modul, ishlov texnikasi	Bezakning dastlabki holatini aniqlash
Ganch va yog‘och o‘ymakorligi qismlari	Naqsh turi, chuqurlik, ritm, texnika	Mahalliy ustachilik maktabini tavsiflash
Epigrafik yozuvlar	Matn, uslub, sana, kompozitsiya	Davr va mazmunni aniqlashtirish
Devoriy tasvirlar	Rang, syujet, ornament, kompozitsiya	Badiiy an’ana va estetik qarashlarni ochish
Tarixiy chizma va fotosuratlar	Avvalgi holat, yo‘qolgan elementlar	Restavratsiya va qiyosiy tahlil uchun asos

Hududiy maktablar va bezak an’analarining o‘ziga xosligi

O‘zbekiston tarixiy yodgorliklaridagi bezak san’ati umumiy qonuniyatlarga ega bo‘lsa-da, hududiy maktablarda farqlar mavjud. Samarqandda ko‘k-moviy koshin va murakkab kompozitsiyalar, Buxoroda g‘isht terish, koshin va ganch bezaklarining vazminligi, Xivada esa sirlangan koshin hamda yog‘och o‘ymakorligining mahalliy an’analar bilan uyg‘unligi ajralib turadi.

Birlamchi manbalar asosida kompleks tadqiq etish modeli

Milliy bezak san’atining shakllanishini chuqur o‘rganish uchun quyidagi bosqichli tadqiqot modeli taklif etiladi. Birinchi bosqichda yodgorlik va uning tarixiy davri aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda obyektga oid birlamchi manbalar yig‘iladi va ularning kelib chiqish darajasi baholanadi. Uchinchi bosqichda bezak turi morfologik jihatdan tasniflanadi: geometrik, o‘simliksimon, epigrafik yoki aralash. To‘rtinchi bosqichda material va texnika - koshin, ganch, yog‘och, rangtasvir, g‘isht terish usuli tahlil qilinadi. Beshinchi bosqichda kompozitsion tuzilish, ritm, simmetriya, rang va me’moriy sirt bilan nisbat o‘rganiladi. Oltinchi bosqichda boshqa yodgorliklar bilan qiyosiy tahlil o‘tkaziladi. Yetinchi bosqichda tarixiy-badiiy xulosa chiqarilib, bezakning qaysi an’ana va davriy jarayon bilan bog‘liqligi asoslanadi.

Tarix va san’atshunoslik integratsiyasining ilmiy ahamiyati

Tarixiy yodgorliklardagi milliy bezak san’atini tadqiq etishda tarix va san’atshunoslik metodlarining integratsiyasi ayniqsa muhim. Tarix fani bezakning paydo bo‘lish davri, ijtimoiy-madaniy sharoiti, buyurtmachi va ustalar muhiti haqida ma’lumot bersa, san’atshunoslik uning shakli, uslubi, kompozitsiyasi, ramziy mazmuni va estetik qiymatini tahlil qiladi. Arxeologiya esa ushbu ikki yo‘nalishni moddiy dalillar bilan mustahkamlaydi.

XULOSA

O‘zbekiston tarixiy yodgorliklaridagi milliy bezak san’ati ko‘p asrlik tarixiy, badiiy va hunarmandchilik tajribasining mahsulidir. Uning shakllanish jarayonini ilmiy asosda yoritish uchun me’moriy obidaning bugungi ko‘rinishi bilan cheklanmasdan, arxeologik topilmalar, asl bezak qatlamlari, koshin va ganch parchalari, epigrafik yozuvlar, devoriy tasvirlar hamda tarixiy grafik materiallar kabi birlamchi manbalardan kompleks foydalanish zarur.

Taklif etilgan bosqichli kompleks tadqiqot modeli birlamchi manbalarni tarixiy, morfologik, texnologik, kompozitsion va qiyosiy tahlil bilan uyg‘unlashtiradi. Bu yondashuv tarix va san’atshunoslik sohalari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirib, milliy bezak san’atining shakllanish qonuniyatlarini aniqroq ochish, hududiy maktablarning o‘ziga xosligini belgilash hamda tarixiy-madaniy merosni ilmiy asosda saqlash va targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Omonov D.E., Allaberdiyev Sh.X. Patterns and ornaments made in historical and modern architectural monuments in ancient Uzbekistan //International Journal of History and Political Sciences.-2025.-Vol.5,Issue01.-P.17–20.DOI: 10.37547/ijhps/Volume05Issue01-05.

2. Quchqarov B.U., Qobulova F. Studying artistic and decorative ornaments in Uzbekistan’s architectural monuments // Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus.-2026.-Vol.1,No.1.-P.317-322.DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/2083.

3. UNESCO World Heritage Centre. Samarkand – Crossroad of Cultures. World Heritage List, No. 603rev. (Tarixiy-me’moriy kontekst va yodgorliklar tavsifi).

REGISTON MAJMUASINI O‘RGANISHDA TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIKNING INTEGRATSIYASI

Davlatov Orziqul Bahodirovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix” yo‘nalishi, magistratura 1-bosqich talabasi
+998915790979

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand shahridagi Registon majmuasini o‘rganishda tarix va san’atshunoslik fanlarining o‘zaro integratsiyasi masalasi yoritilgan. Registon majmuasining shakllanish tarixi, uning Temuriylar davri va keyingi tarixiy jarayonlardagi o‘rni, shuningdek, majmuani tashkil etuvchi Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalarining me’moriy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Registon majmuasi, Samarqand, tarix, san’atshunoslik, Temuriylar, me’morchilik, koshinkorlik, naqsh, madaniy meros, integratsiya, Afrosiyob.

Kirish.

O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan me’moriy yodgorliklar xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosini o‘zida mujassam etadi. Ana shunday noyob tarixiy-me’moriy majmualardan biri Samarqand shahrining markazida joylashgan Registon majmuasidir. Samarqand qadimgi Afrosiyob davridan boshlab Markaziy Osiyoning muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, XIV–XV asrlardagi Temuriylar davrida shahar yuksak taraqqiyotga erishib, ilm-fan, me’morchilik va san’atning muhim markaziga aylangan. YUNESCO

ham Samarqandning aynan Temuriylar davrida, XIV–XV asrlarda, eng katta rivojlanish bosqichiga erishganini qayd etgan.

Registon maydonining bugungi ko‘rinishi bir vaqtning o‘zida emas, balki bir necha asr davomida shakllangan. Majmuadagi eng qadimgi bino Mirzo Ulug‘bek madrasasi bo‘lib, uning qurilishi 1417-yilda boshlanib, 1420-yilda yakunlangan. Ulug‘bek madrasasi Registonning g‘arbiy qismida qad rostlagan va dastlab majmuaning asosiy me’moriy markazlaridan biriga aylangan. [Po‘latov X., Mamatmusayev T. T:22-23]

Asosiy qism.

XVII asrda Registon maydoni yanada takomillashtirildi. Yalangto‘sh Bahodir tashabbusi bilan Sherdor madrasasi 1619-1636-yillarda, Tillakori madrasasi esa 1646-1660-yillarda bunyod etildi. Shu tariqa Registon maydonining hozirgi uch madrasa Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalaridan iborat yaxlit me’moriy ansambli shakllandi. Registon majmuasining tarixiy ahamiyati faqat uning qadimiyligida emas. U o‘z davrida ilm-ma’rifat, siyosiy va ijtimoiy hayotning muhim markazlaridan biri bo‘lgan. Ayniqsa, Ulug‘bek madrasasida diniy fanlar bilan bir qatorda matematika va astronomiya kabi fanlarning rivojiga katta e’tibor berilgan. Shu jihatdan Registonni o‘rganish tarixiy voqealar, ta’lim tizimi va ilm-fan taraqqiyotini anglash imkonini beradi. [Jalolov M. T: 224]

Registonning me’moriy-badiiy qiyofasi esa uni san’atshunoslik nuqtayi nazaridan ham nihoyatda muhim obyektga aylantiradi. Binolarning ulkan peshtoqlari, ko‘k va moviy rangdagi koshinlari, geometrik hamda islimiy naqshlari, kufiy va suls yozuvlari, muqarnaslari va bezak kompozitsiyalari Markaziy Osiyo me’morchiligining yuqori darajasini namoyon etadi. Sherdor madrasasi peshtoqidagi hayvon va quyosh tasvirlari, Tillakorining oltin suvi yuritilgan ichki bezaklari esa Registon ansamblining badiiy o‘ziga xosligini yanada kuchaytiradi. Shu sababli Registon majmuasini faqat tarixiy yodgorlik sifatida emas, balki tarix, me’morchilik, tasviriy san’at, amaliy bezak san’ati va ilm-fan taraqqiyotini o‘zida birlashtirgan kompleks madaniy hodisa sifatida o‘rganish zarur. Tarix fani majmuaning qachon, qanday sharoitda va kimlar tomonidan bunyod etilganini ochib bersa, san’atshunoslik uning me’moriy shakli, bezaklari, naqshlari, ranglari va badiiy ramzlarini tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur ikki yo‘nalishning integratsiyasi Registonning tarixiy-madaniy ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. [Pardaev B. S: 4-5]

Registon majmuasining tarixiy qiymatini faqat uning qurilish sanalari yoki me’moriy obyektlari bilan cheklab bo‘lmaydi. U o‘zida Markaziy Osiyoda davlat hokimiyati, diniy-ma’rifiy hayot, ilm-fan va badiiy tafakkurning o‘zaro aloqasini

mujassamlashtirgan. Shu jihatdan Registonni tadqiq etishda tarix fani obidalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy sharoitni aniqlasa, san’atshunoslik ushbu tarixiy jarayonlarning me’moriy va badiiy shakllarda qanday namoyon bo‘lganini tahlil qiladi. Registon ansamblining hozirgi ko‘rinishi bir vaqtning o‘zida turli tarixiy davrlarning me’moriy tafakkurini aks ettiradi. Majmuaning asosiy tarkibini Ulug‘bek madrasasi, Sherdor madrasasi va Tillakori madrasasi tashkil etadi. Ularning bir makonda joylashishi tasodifiy hodisa emas, balki shaharsozlik, diniy-ma’rifiy va estetik tamoyillarning uyg‘unlashuvi natijasidir. YUNESCO hujjatlarida Registon maydonidagi ansamblning shakllanishi Temuriylar davri va undan keyingi XVII asr qurilish faoliyati bilan bevosita bog‘lanadi. [Abdurahmonov H. T: 132]

Ulug‘bek madrasasi Registon ansamblining tarixiy jihatdan eng qadimgi asosiy qismlaridan biri bo‘lib, uning bunyod etilishi Mirzo Ulug‘bekning ilm-fan va ta’limga bo‘lgan e’tibori bilan chambarchas bog‘liq. Ulug‘bek nafaqat davlat arbobi, balki astronom va matematik sifatida ham tarixda muhim iz qoldirgan. Shu sababli uning nomi bilan bog‘liq madrasa me’moriy yodgorlik sifatida emas, balki Temuriylar davrida ilmiy bilim va diniy ta’limning o‘zaro aloqasini ifodalovchi tarixiy manba sifatida ham qaralishi lozim. YUNESCO Samarqandning Temuriylar davridagi me’morchiligi va san’ati butun mintaqadagi islom me’morchiligi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlaydi. Bu yerda tarix va san’atshunoslik integratsiyasining muhim jihati namoyon bo‘ladi: binoning funksiyasi uning badiiy qiyofasini belgilaydi. Madrasa ta’lim maskani sifatida qurilgan bo‘lsa-da, uning monumental peshtoqi, hujralar tizimi, ichki hovlisi va bezaklari shunchaki amaliy ehtiyoj bilan izohlanmaydi. Me’moriy shakl orqali binoning ijtimoiy mavqei, diniy-ma’rifiy mazmuni va homiyning siyosiy nufuzi ham ifodalangan. Registon majmuasini san’atshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishda uning kompozitsion tuzilishi alohida ahamiyatga ega. Uch madrasa maydon atrofida o‘zaro muvozanatli tarzda joylashgan bo‘lib, ularning peshtoqlari maydonning umumiy vizual qiyofasini shakllantiradi. Bunday kompozitsiya me’moriy makonni oddiy binolar yig‘indisidan yaxlit ansambl darajasiga olib chiqadi. Tarixiy jihatdan esa ushbu ansambl bir davrda, yagona me’moriy loyiha asosida qurilgan emas. Aksincha, Registon turli tarixiy bosqichlarda shakllangan. Ulug‘bek madrasasidan keyin XVII asrda Sherdor va Tillakori madrasalarining barpo etilishi natijasida maydonning bugungi monumental ko‘rinishi yuzaga kelgan. Registon ansamblini o‘rganishda tarix va san’atshunoslik fanlarining integratsiyasi uning tarixiy va badiiy mohiyatini yaxlit anglash imkonini beradi. Tarix fani Registonning shakllanish jarayoni, qurilish davrlari, Temuriylar va keyingi

davrlardagi siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy muhitni o‘rganadi. San’atshunoslik esa ansambl tarkibidagi Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalarining me’moriy tuzilishi, koshinkorlik, geometrik va o‘simliksimon naqshlar, xattotlik hamda tasviriy bezaklarini tahlil qiladi. [Raximov Sh. T: 5-8]

Muhokama va natijalar

Registon majmuasini kompleks tadqiq etishda bir nechta metodlardan foydalanish mumkin. Birinchi navbatda, tarixiy-qiyosiy metod yordamida majmuaning turli davrlardagi holati va rivojlanish bosqichlari aniqlanadi. Turli tarixiy manbalar, sayyohlar xotiralari, arxiv hujjatlari va ilmiy tadqiqotlarni qiyoslash orqali obidaning tarixiy evolyutsiyasi tiklanadi. Ikkinchi metod — formal-badiiy tahlil. Bunda me’moriy shakl, kompozitsiya, proporsiya, rang, material, naqsh, ritm va dekorativ elementlarning o‘zaro munosabati o‘rganiladi. Uchinchi yo‘nalish — ikonografik va ikonologik tahlil. Ayniqsa Sherdor madrasasidagi tasviriy elementlarni o‘rganishda ushbu metod muhim. Tasvirning nimani ifodalashi, uning qanday tarixiy-madaniy sharoitda paydo bo‘lgani va qanday ramziy ma’noga ega ekani aniqlanadi. To‘rtinchi yo‘nalish — me’moriy-tipologik tahlil. Bunda Registon madrasalarining reja tuzilishi, hovli, hujralar, peshtoq, ravoq va boshqa me’moriy qismlari boshqa Markaziy Osiyo madrasalari bilan o‘xshash. [YUNESCO. World Heritage Sites in Central Asia. P: 5-6]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Registon ansamblini tarix va san’atshunoslik integratsiyasi asosida o‘rganish uning tarixiy, me’moriy va badiiy ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Tarixiy yondashuv ansamblning shakllanish davri, siyosiy va madaniy muhitini ochib bersa, san’atshunoslik uning me’moriy kompozitsiyasi, koshinkorlik, naqsh, rang va bezaklarining badiiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalarining o‘ziga xosligi turli tarixiy davrlardagi ilm-fan, me’morchilik va amaliy san’at taraqqiyotini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov H. Samarqand –Sharq durdonasi. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020

2. Jalolov M. Samarqand me’morchiligi tarixi. –Toshkent: Fan, 2012

3. Pardaev B. O‘zbekiston tarixiy yodgorliklari va ularning saqlanishi. –Samarqand: Zarafshon, 2018

4. Po‘latov X.Sh. O‘zbekiston arxitektura yodgorliklari. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2003

5. Raximov Sh. Registon majmuasi: tarix va me’morchilik tahlili. –Toshkent: O‘zbekiston, 2015

6. YUNESCO. World Heritage Sites in Central Asia: Registan Ensemble of Samarkand. –Paris: UNESCO Publishing, 2019.

O‘ZBEKISTON XALQLARI ETNOGRAFIK MEROSINI O‘RGANISH - IJTIMOIY ISH TA’LIMIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VOSITASI SIFATIDA

Ergashev Ixtiyor Baxtiyor o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: ergashev.ixtiyor90@gmail.ru

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston xalqlarining etnografik merosini o‘rganish orqali bo‘lajak ijtimoiy ish mutaxassislarida millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muzey pedagogikasi, mahalla bilan hamkorlik va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanishning metodik yo‘nalishlari hamda ularning natijalarini baholash mezonlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: etnografik meros, ijtimoiy ish, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, madaniyatlararo kompetentlik, madaniy xilma-xillik, urf-odatlar, marosimlar, hunarmandchilik, oilaviy an’analar, muzey pedagogikasi, mahalla, milliy-madaniy markazlar, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy hamkorlik, etnografik tadqiqot.

O‘zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirish jarayonida aholining turli qatlamlari bilan ishlay oladigan, kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy ish faoliyatining o‘ziga xosligi shundaki, mutaxassis turli yosh, ijtimoiy mavqe, millat va madaniy muhitga mansub insonlar bilan bevosita muloqot qiladi. Bunday sharoitda kasbiy tayyorgarlik faqat ijtimoiy xizmat ko‘rsatish usullarini o‘zlashtirish bilan cheklanmasdan, madaniy xilma-xillikni anglash, inson qadr-qimmatini hurmat qilish va kamsitishning oldini olishga qaratilgan bilim hamda ko‘nikmalarni ham qamrab olishi lozim. O‘zbekiston tarixan turli etnik va madaniy jamoalar o‘zaro aloqada yashab kelgan hududlardan biridir. O‘zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, rus, koreys, uyg‘ur va boshqa xalqlarning urf-odatlari, oilaviy an’analari, hunarmandchiligi hamda maishiy madaniyati mamlakatning ko‘p qirrali etnografik merosini tashkil etadi. Ushbu merosni o‘rganish turli jamoalarning tarixiy tajribasi, madaniy o‘ziga xosligi va o‘zaro ta’sirini anglashga xizmat qiladi. R. H. Murtazayeva O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik masalalarini tarixiy taraqqiyot, etnik jarayonlar hamda davlat siyosati bilan bog‘liq holda yoritgan [Murtazayeva, 2020]. Millatlararo totuvlikning muhim

asoslaridan biri bag‘rikenglikdir. YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan 1995-yil 16-noyabrda qabul qilingan «Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»da bag‘rikenglik madaniyatlar xilma-xilligini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri anglash bilan bog‘liq tushuncha sifatida belgilangan. Deklaratsiyada uning shakllanishida bilim, ochiq muloqot va inson huquqlarini hurmat qilishning ahamiyati ko‘rsatilgan [UNESCO, 1995, 1-modda]. Mazkur tamoyillar ijtimoiy ish ta’limida turli madaniy guruhlar bilan ishlashga tayyorlashning muhim me’yoriy asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy ijtimoiy ishda madaniyatlararo kompetentlik mutaxassisning turli madaniy muhit vakillari bilan hurmat va o‘zaro tushunishga asoslangan kasbiy munosabat o‘rnata olish qobiliyatini anglatadi. Bunday kompetentlik boshqa xalqlarning urf-odatlarini bilish bilangina cheklanmaydi. U shaxsning ehtiyojlari, qadriyatlari, oilaviy sharoiti va individual tanlovini hisobga olish, madaniy stereotiplardan saqlanish hamda xizmat ko‘rsatishda tenglik tamoyiliga amal qilishni ham nazarda tutadi. Shu sababli etnografik merosni ijtimoiy ish ta’limiga tatbiq etish tarixiy-madaniy bilimlarni kasbiy faoliyat bilan bog‘lashga yo‘naltirilishi zarur.

Etnografik meros xalqning moddiy va ma’naviy madaniyatiga oid tarixiy tajribani o‘zida mujassam etadi. Uning tarkibiga turar-joy va kiyim-kechak an’analari, hunarmandchilik, xalq taomlari, oilaviy marosimlar, bayramlar, og‘zaki ijod namunalari hamda kundalik turmush bilan bog‘liq urf-odatlar kiradi. Beshik to‘yi, nikoh va to‘y marosimlari, Navro‘z bayrami, mehmondo‘stlik va o‘zaro yordam an’analari turli hudud va jamoalarda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. Ularni qiyosiy o‘rganish talabalar uchun madaniy o‘xshashliklar bilan bir qatorda tarixiy shakllangan tafovutlarni ham anglash imkonini yaratadi. Biroq etnografik xususiyatlarni muayyan millatga mansub barcha insonlarga birdek xos, o‘zgarmas belgilar sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Madaniy an’analar tarixiy sharoit, avlodlararo munosabatlar, migratsiya, urbanizatsiya va ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida yangilanib boradi. Bir etnik jamoaga mansub oilalar ham turmush tarzi, dunyoqarashi va marosimlarga munosabati jihatidan farqlanishi mumkin. Bo‘lajak ijtimoiy ish mutaxassisi uchun ushbu holatni tushunish muhim, chunki kasbiy amaliyotda insonning ehtiyojlari faqat uning etnik mansubligiga qarab belgilanmasligi lozim. Etnografik merosning ta’limiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda tarixiy-qiyosiy, etnografik tavsiflash, manbashunoslik va pedagogik tahlil usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Tarixiy-qiyosiy yondashuv urf-odatlarning shakllanishi va o‘zgarishini o‘rganishga, manbashunoslik usuli esa yozma ma’lumotlar, muzey ashyolari va og‘zaki tarix materiallarini qiyoslashga xizmat qiladi. Pedagogik tahlil

orqali etnografik bilimlarning ijtimoiy ish kasbiy kompetensiyalari bilan bog‘liqligi aniqlashtiriladi. Mazkur yondashuvlar asosida etnografik materiallardan foydalanishning bir necha o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarini belgilash mumkin. Avvalo, ijtimoiy ish ta’limining tegishli fanlari mazmuniga O‘zbekiston xalqlari etnografiyasi, millatlararo munosabatlar tarixi va madaniyatlararo muloqotga oid mavzularni kiritish zarur. Bunda talabalar alohida xalqlarning marosimlari yoki urf-odatlarini yodlash bilan cheklanmay, ularning tarixiy shakllanishi, ijtimoiy vazifasi va zamonaviy hayotdagi o‘zgarishlarini tahlil qilishlari lozim. Masalan, turli jamoalardagi oilaviy marosimlarni qiyoslash orqali oila, qarindoshlik, avlodlararo yordam va farzand tarbiyasi bilan bog‘liq umumiy qadriyatlar hamda madaniy farqlarni aniqlash mumkin. Bunday mashg‘ulotlar oilalar bilan ishlashda madaniy omillarni hisobga olish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Muzey pedagogikasi etnografik merosni o‘rganishning muhim amaliy vositalaridan biridir. O‘lkashunoslik va etnografiya muzeylarida saqlanayotgan milliy kiyimlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, hunarmandchilik mahsulotlari, mehnat qurollari va marosimlarga oid ashyolar talabalarga tarixiy-madaniy jarayonlarni moddiy manbalar asosida tushunish imkonini beradi. Muzey mashg‘ulotlarida buyumning yaratilish davri, materiali, foydalanish vazifasi, hududiy xususiyati va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlardan foydalanish mumkin. Bunda etnografik ashyo faqat ko‘rgazma namunasi emas, balki muayyan jamoaning tarixiy turmush tarzini o‘rganish manbasi sifatida qaraladi. Mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik ham bo‘lajak mutaxassislarning amaliy tayyorgarligini boyitishi mumkin. Mahalla faollari, hunarmandlar, keksa avlod vakillari va milliy-madaniy markazlar bilan tashkil etiladigan uchrashuvlar talabalarni turli madaniy tajribalar bilan tanishtiradi. Og‘zaki tarix usuli asosida o‘tkaziladigan suhbatlarda oilaviy an’analar, mahalladagi o‘zaro yordam, bayramlarni nishonlash va hunarmandchilik ko‘nikmalarining avloddan avlodga o‘tishi haqidagi ma’lumotlar to‘planishi mumkin. Bunday faoliyatda suhbatdoshning roziligini olish, shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligini saqlash va olingan ma’lumotlarni xolis talqin qilish talab etiladi. Farg‘ona vodiysidagi kulolchilik, to‘qimachilik va zargarlik an’analari, Xorazmning marosim madaniyati, Buxoro va Samarqandning ko‘p qatlamli shahar madaniyati etnografik ta’lim uchun qimmatli material bo‘la oladi. Ushbu hududlar misolida hunarmandchilik maktablari, oilaviy urf-odatlar va madaniy almashinuv jarayonlarini o‘rganish talabalarga tarixiy-madaniy xilma-xillikni aniq misollar asosida tushunishga yordam beradi. Biroq hududiy an’analarni o‘rganishda ularni muayyan etnik guruhning yagona va o‘zgarmas xususiyati sifatida ko‘rsatmaslik, mahalliy tafovutlar va zamonaviy

o‘zgarishlarni ham hisobga olish muhimdir. Ijtimoiy ish ta’limida etnografik materiallarni kasbiy vaziyatlar bilan bog‘lash alohida ahamiyatga ega. Masalan, rolli mashg‘ulotlarda turli madaniy muhitga mansub oilalar bilan muloqot, ijtimoiy xizmatdan foydalanishda yuzaga keladigan tushunmovchiliklar yoki avlodlararo qarashlar farqi kabi vaziyatlarni tahlil qilish mumkin. Talabalardan bunday vaziyatlarda biror madaniyatni ustun qo‘ymasdan, tomonlarning ehtiyojlarini aniqlash, hurmatli muloqot o‘rnatish va maqbul yechim taklif etish talab qilinadi. Natijada etnografik bilim kasbiy qaror qabul qilish jarayoni bilan bog‘lanadi. «Madaniyatlar festivali», davra suhbatlari va jamoaviy loyihalar ham ta’limiy imkoniyatlarga ega. Biroq ularni faqat milliy taomlar, kiyimlar yoki sahna chiqishlarini namoyish etish bilan cheklash yetarli emas. Mazkur tadbirlar tarixiy izoh, manbalar tahlili, madaniyatlararo muloqot va yakuniy muhokama bilan boyitilgandagina kasbiy tayyorgarlikka xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan tadbirning tashqi ko‘rgazmaliligi emas, balki talabalarning olgan bilimlarini ijtimoiy ish vaziyatlariga tatbiq eta olishi asosiy mezon bo‘lishi lozim. Etnografik merosga asoslangan mashg‘ulotlarning samaradorligini baholash uchun aniq ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, talabaning turli xalqlar madaniyati haqidagi bilim darajasi, stereotipik fikrlarni aniqlay olishi, madaniy farqlarni hurmat qilgan holda muloqot yuritishi, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilishi va axloqiy me’yorlarga rioya etishi baholanishi mumkin. Bunday baholash yozma topshiriqlar, vaziyatli masalalar, kuzatuv varaqalari, reflektiv kundaliklar va mashg‘ulotdan oldingi hamda keyingi so‘rovlar asosida tashkil etilishi mumkin. Mazkur usullar tavsiya etilayotgan ta’limiy yondashuvni keyinchalik empirik jihatdan sinovdan o‘tkazish imkonini beradi. Shuni hisobga olish kerakki, etnografik merosga oid mashg‘ulotlarning bag‘rikenglik darajasiga ta’siri haqida qat’iy xulosa chiqarish uchun maxsus pedagogik tadqiqot talab etiladi. Bunda ishtirokchilar soni, tadqiqot davomiyligi, baholash mezonlari va natijalarni qiyoslash usullari aniq ko‘rsatilishi zarur. Mazkur maqolada esa etnografik merosning tarbiyaviy imkoniyatlari nazariy-metodologik jihatdan asoslanib, uni ijtimoiy ish ta’limida qo‘llash yo‘nalishlari taklif etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston xalqlarining etnografik merosi bo‘lajak ijtimoiy ish mutaxassislarida millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish uchun muhim ta’limiy manba hisoblanadi. Urf-odatlar, oilaviy marosimlar, hunarmandchilik va mahalliy hamjamiyatlarning tarixiy tajribasini o‘rganish talabalarni madaniy xilma-xillikni anglashga, turli qarashlarni hurmat qilishga hamda kasbiy muloqotda individual yondashuvni qo‘llashga

tayyorlashi mumkin. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun ijtimoiy ish ta’limiga «O‘zbekiston xalqlari etnografiyasi va madaniyatlararo muloqot» mavzularini tizimli kiritish, muzeylarda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish, mahalla va milliy-madaniy markazlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, ta’lim natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuvning amaliy samaradorligini aniqlash esa keyingi pedagogik tadqiqotlarning muhim vazifasi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murtazayeva R. H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik: darslik. – Toshkent: Go To Print, 2020. – 344 b.

2. UNESCO. Declaration of Principles on Tolerance. Adopted by the General Conference of UNESCO at its 28th session. – Paris, 16 November 1995. – https://www.unesco.org/en/legal-affairs/declaration-principles-tolerance

O‘ZBEK OILASIDA MILLIY AN’ANALAR VA OILAVIY QADRIYATLARNING AVLODLARARO UZVIYLIGI

Habibjonova Nodira Shavkat qizi
Namangan davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchisi
G-mail: habibjonovanodira@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek oilasida milliy an’analar va oilaviy qadriyatlarning avlodlararo davomiyligi, ularning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati, oilaviy barqarorlik va jamiyat ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rni tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar*: Oila, milliy an’analar, oilaviy qadriyatlar, avlodlararo uzviylik, tarbiya, ma’naviyat, meros, urf-odat, hamjihatlik, hurmat, o‘zaro yordam, milliy o‘zlik, barqarorlik, jamiyat.*

KIRISH

Oila jamiyatning eng muhim va fundamental ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, uning barqarorligi va farovonligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan hisoblanadi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiylashuvi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni egallashi hamda jamiyatdagi xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirishi, avvalo, oilaviy muhitda amalga oshadi. Shu bois oilaning mustahkamligi, undagi sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit va oila a’zolarining huquq hamda manfaatlarini ta’minlash masalalari jamiyatning barqaror rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholining turmush tarzidagi o‘zgarishlar, mehnat migratsiyasi, bandlik bilan bog‘liq muammolar, oilaviy

nizolar, ajrimlar, farzandlar tarbiyasi va boshqa ijtimoiy omillar oilaning barqarorligiga muayyan ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur holatlar oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish va ijtimoiy farovonligini ta’minlashga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oila manfaatlarini himoya qilish va uning farovonligini ta’minlashda davlat, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur hamkorlikni takomillashtirish orqali oilalarning ijtimoiy muammolarini kompleks hal etish, oilaviy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyat farovonligini oshirish imkoniyatlari kengayadi.Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada oila manfaatlarini himoya qilish va farovonligini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy roli, ularning oilalar bilan hamkorlik mexanizmlari, mavjud muammolar hamda mazkur yo‘nalishni takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Oila insonning ijtimoiylashuvi boshlanadigan eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek oilasida kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, o‘zaro mehr-oqibat, qarindoshlik rishtalarini asrash, mehmondo‘stlik va oilaviy mas’uliyat kabi qadriyatlar kundalik hayot jarayonida shakllanib, yosh avlod ongiga singdirib boriladi. “Shu jihatdan oila nafaqat biologik avlod davomiyligini, balki ma’naviy-madaniy merosning avlodlararo uzviyligini ham ta’minlovchi muhim ijtimoiy institutdir”[1]. Oilaning ushbu vazifasi ayniqsa yosh avlodning milliy o‘zligini shakllantirish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Oilada kundalik munosabatlar orqali beriladigan tarbiya milliy qadriyatlarning saqlanib qolishi va keyingi avlodga yetib borishining tabiiy mexanizmini yaratadi. Milliy an’analar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. O‘zbek oilalarida farzand tarbiyasida kattalarning hayotiy tajribasidan foydalanish, ota-onaga hurmat, qarindosh-urug‘lar bilan yaqin munosabatni saqlash, hashar, marosimlarda hamjihatlik kabi an’analar muhim tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. “Mazkur an’analar oilada bevosita amaliy faoliyat, shaxsiy namuna va kundalik muloqot orqali yosh avlodga uzatiladi”[2]. Avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar oilaviy qadriyatlarning saqlanishi va rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Bobo-buvilar, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi muntazam muloqot orqali oilaning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, hayotiy tajribasi hamda axloqiy me’yorlari yosh avlodga yetkaziladi. “Shuning uchun avlodlararo muloqotning uzluksizligi oilaviy qadriyatlarning faqat saqlanib qolishini emas, balki zamonaviy sharoitga mos ravishda qayta talqin qilinishini ham ta’minlaydi”. Bu jarayonda ota-ona va katta avlod vakillarining shaxsiy namunasi muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki bola milliy

qadriyatlarni faqat tushuntirish orqali emas, balki oiladagi real munosabatlar va xatti-harakatlarni kuzatish orqali ham o‘zlashtiradi[3].

Avlodlararo muloqotning kuchli bo‘lishi oilada o‘zaro tushunish va hurmat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, katta avlodning tajribasi yoshlarning zamonaviy qarashlari bilan uyg‘unlashib, oilaviy qadriyatlarning yangi sharoitlarda davom etishiga imkon beradi. O‘zbek xalqining milliy mentalitetida kattalarni e’zozlash, ularning hayotiy tajribasi va maslahatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish muhim qadriyatlardan biri sanaladi. Ushbu an’ana oilada bolaning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirish, mas’uliyat va hurmat tuyg‘ularini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Kattalarga hurmat tamoyili avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikni mustahkamlab, oilaning ichki barqarorligini ta’minlovchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi”[4]. Mazkur qadriyat yosh avlodda nafaqat hurmat, balki mas’uliyat va muomala madaniyatining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun kattalarga hurmat an’anasini zamonaviy tarbiya jarayonida mazmunan davom ettirish oilaviy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega.

Mehmondo‘stlik, qo‘ni-qo‘shnilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash o‘zbek oilaviy madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu qadriyatlar oilaning yopiq doiradagi munosabatlari bilangina cheklanmay, uning mahalla va keng jamoatchilik bilan ijtimoiy aloqalarini ham mustahkamlaydi.”Natijada oilada shakllangan hamjihatlik va o‘zaro ko‘mak tamoyillari keyingi avlodning ijtimoiy xulq-atvoriga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi”[5]. Bunday qadriyatlarning davomiyligi oilaning jamiyat bilan aloqalarini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘zaro yordam va hamjihatlik kabi an’analarning yosh avlod tomonidan o‘zlashtirilishi jamiyatda ijtimoiy birdamlikning kuchayishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek oilasida milliy an’analar va oilaviy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy-ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Oilada shakllangan mehr-oqibat, o‘zaro hurmat, kattalarni e’zozlash, kichiklarga g‘amxo‘rlik, qarindoshlik rishtalarini asrash va hamjihatlik kabi qadriyatlar avloddan avlodga o‘tib, milliy o‘zlikning saqlanishiga xizmat qiladi. Mazkur qadriyatlarning davomiyligi, avvalo, oilaviy tarbiya va avlodlararo muloqotning muntazamligiga bog‘liq bo‘lib, katta avlodning hayotiy tajribasi yosh avlod uchun muhim tarbiyaviy manba vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, ota-onaning shaxsiy namunasi farzandlarda milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ularga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mehmondo‘stlik, o‘zaro yordam, qarindoshlik munosabatlarini mustahkamlash va

jamoaviy hamjihatlik kabi an’analar oilaviy doiradan tashqariga chiqib, mahalla va jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Biroq globallashuv, urbanizatsiya va zamonaviy turmush tarzining kengayishi natijasida ayrim an’anaviy qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllarida o‘zgarishlar yuzaga kelayotganini ham hisobga olish lozim. Shu sababli milliy an’analarni o‘zgarmas shaklda saqlashdan ko‘ra, ularning mazmun-mohiyatini zamonaviy ijtimoiy sharoit bilan uyg‘unlashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda oila bilan bir qatorda ta’lim muassasalari, mahalla va jamoatchilik institutlarining hamkorligi yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘un shakllanishiga imkon yaratadi. Avlodlararo muloqotni mustahkamlash, oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish va milliy merosga hurmat ruhini kuchaytirish orqali oilaviy qadriyatlarning uzviyligini yanada barqarorlashtirish mumkin. Umuman olganda, o‘zbek oilasida milliy an’analar va oilaviy qadriyatlarning avlodlararo davomiyligini ta’minlash milliy o‘zlikni asrash, oilaviy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyatning ma’naviy taraqqiyotini ta’minlashning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev N., Fayzullayev T. O‘zbekiston tarixi: yangi davr. – Toshkent: Sharq, 2009. – 560 b.

2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 304 b.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

4. Oila psixologiyasi: darslik / G‘.B. Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2010. – 296 b.

5. O ‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 76 b.

БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ ТАРИХИЙ-МАДАНИЙ МЕРОС ЁДГОРЛИКЛАРИНИ ЎРГАНИШДА РЕСТАВРАЦИЯ СОҲАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

С.Ф.Ҳайдаров
Шароф Рашидов номидаги Самарқанд
давлат университети тадқиқотчиси
+998994465946

Аннотация. Тезисда реставрация Бухоро вилояти маданий меросини асраш воситаси ва айни пайтда уни илмий жиҳатдан ўрганиш усули сифатида кўриб чиқилади. Таъмирлаш пайтида тўпланган дала кузатувлари, археологик ҳамда материалшунослик маълумотлари ёзма манбалардаги бўшлиқларни тўлдириб, ёдгорликларнинг қурилиш технологияси, даврлари ва меъморий услубини аниқлаш учун ишончли далиллар базасини яратади. Шунингдек, XX аср 20 йиллари ва мустақиллик йиллари босқичларидаги муҳофаза ҳамда таъмирлаш ишлари, соҳанинг ҳуқуқий-меъёрий асослари ва амалий йўналишлари баён этилади.

Калит сўзлар: Бухоро, реставрация, консерватсия, маданий мерос, ЮНЕСКО, автентиклик, тарихий марказ, қурилиш анъаналари, ёдгорлик, мустақиллик даври.

Бухоро вилояти Марказий Осиёда маданий мерос объектлари энг зич жойлашган ҳудудлардан биридир. Шаҳарда X асрга мансуб Исмоил Сомоний мақбараси, Пойи Калон мажмуаси, Арк қалъаси, Лаби Ҳовуз ансамбли ва савдо гумбазлари (тоқилар) бор; шаҳардан ташқарида эса Вобкент, Ғиждувон, Пойкент, Ромитан ва Варахша ҳудудларидаги ёдгорликлар ҳам диққатга сазовор. Воҳада 800 дан ортиқ меъморий обида мавжуд бўлиб, фақат шаҳарнинг ўзида 292 та объект давлат муҳофазасига олинган. 216 гектар майдонни эгаллаган ва 339 гектарлик муҳофаза зонаси билан ўралган «Бухоро тарихий маркази» 1993 йилда ЮНЕСКОнинг 17 сессиясида 602 рақам билан Умумжаҳон мероси рўйхатидан жой олган [https://whc.unesco.org].

Бироқ бу ёдгорликлар доимий хавф остида туради. Уларга табиий эскириш, грунт сувларининг кўтарилиши, тупроқнинг шўрланиши, сейсмик таъсирлар, иқлим ўзгаришлари ҳамда аввалги нотўғри таъмирлашлар салбий таъсир кўрсатади. Мутахассислар емирилиш сабабларини учта гуруҳга бўлади: табиий-иқлимий эскириш; грунтнинг зичлашиши туфайли пойдеворда нуқсонлар пайдо бўлиши; ер ости суви кўтарилиши ва деворларнинг намланиши. Намлик ортганда ғиштнинг мустаҳкамлиги 30 фоизгача пасайиши қайд этилган [Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги жорий архиви (ЎзР ММА ЖА), 20–35)]. Масалан, 1976 йилги зилзила Мир Араб мадрасасининг гумбазлари ва ички ҳовли айвонларига зарар етказган. Шундай

экан, реставрацияни оддий таъмирлаш деб қараш тўғри эмас: бу маданий мерос обидаларини илмий асосда асраш ва ўрганишнинг тизимли йўлидир.

Мавзуга доир манба ва адабиётларни шартли равишда тўртта гуруҳга ажратиш мумкин. Биринчи гуруҳ Бухоро тарихи ва меъморий меросини ёритган асарлардан иборат. Наршахийнинг «Бухоро тарихи» шаҳар ва унинг қадимий иншоотлари ҳақидаги илк ёзма маълумотлардан бири бўлиб, ёдгорликларни тарихий муҳитда тушунишга асос беради [Narshaxiy Abu Bakr]. Г.А.Пугаченкова ва Л.И.Рempелнинг Ўзбекистон санъати тарихига оид умумлаштирувчи иши [Пугаченкова Г.А., Рempель Л.И.], В.А.Шишкиннинг Варахша ва Бухоро воҳаси археологиясини ўрганган асари [Шишкин В.А.], шунингдек О.А.Сухаревaнинг Бухоро шаҳри ва унинг аҳолисига бағишланган тадқиқоти [Сухарева О.А.] ёдгорликлар вужудга келган ижтимоий-тарихий вазиятни англашда ёрдам беради.

Иккинчи гуруҳга Марказий Осиё меъморчилигининг типологияси ва бадиий-конструктив қонуниятларини таҳлил қилган ишлар киради. Л.Ю.Маньковскаянинг типологик тадқиқоти [Маньковская Л.Ю.] ва М.С.Булатовнинг меъморий пропорциялар ҳамда геометрик уйғунликка бағишланган китоби [Булатов М.С.] реставраторларга ёдгорликнинг дастлабки шакли ва ўлчамларини илмий асосда тасаввур қилишда таянч бўлади. Лекин бу асарлар кўпроқ Бухоро ёдгорликларини тасвирлаш ва таҳлил қилишга қаратилган; реставрация методологияси ва амалиёти уларда тизимли ёритилмаган.

Учинчи гуруҳни халқаро ва миллий меъёрий ҳужжатлар ташкил этади. Булар ЮНЕСКОнинг 1972 йилги Умумжаҳон маданий ва табиий меросни ҳимоя қилиш тўғрисидаги конвенцияси [UNESCO. Convention, 1972], 1964 йилги Венетсия хартияси [Международная хартия, 1964], Ўзбекистоннинг 2001 йилги «Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида»ги қонуни [O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2001], шунингдек 2018 йил 19 декабрдаги Президент қарори ва 2021 йил 3 мартдаги Вазирлар Маҳкамаси қарорларидир. Улар соҳанинг ҳуқуқий асосини белгилаб беради.

Тўртинчи гуруҳга сўнгги йилларда Бухоро ёдгорликларини таъмирлаш ва асрашга бағишланган тадқиқотлар киради. Р.Абриевнинг мустақиллик йилларида тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш жараёнларини ёритган монографияси [Abriyev R.B 2015: 52-64] шулар жумласидандир. Н.З.Ҳаётованинг мақолаларида мустақиллик йиллари реставрация ишлари, ҳуқуқий асослар ва халқаро ҳамкорлик [Hayotova N.Z.

2022: 6–13], шунингдек ёдгорликларнинг ҳолати, емирилиш омиллари ва кадрлар муаммоси [Hayotova N.Z. 2024: 7–15] таҳлил қилинган. Д.А.Абдуллаеванинг тадқиқоти эса XX аср 20-йиллардаги муҳофаза ва таъмирлаш ишларини архив ҳужжатлари асосида кўрсатиб беради [Abdullayeva D.A: 324–327].

Кўриб чиқилган адабиётлар шуни кўрсатадики, совет даврида яратилган ишлар ёдгорликларни ўрганиш учун мустаҳкам илмий замин ҳозирлаган. Аммо мустақиллик йиллари реставрация ва консерватсия тажрибасини Бухоро мисолида тизимли умумлаштирган алоҳида тадқиқот етарли эмас. Мавзунинг долзарблиги айнан шу билан белгиланади.

Тарихан таъмирлаш ишлари асосан вақф маблағлари ҳисобидан, усталарнинг анъанавий усуллари билан олиб борилган. Бундай ёндашув илмий талабдан кўра амалий эҳтиёжга таянган.

Кейинчалик ёдгорликлар давлат муҳофазасига олиниб, илмий-реставрация устахоналари ташкил этилди, археологик қазишмалар ва меъморий ўлчов ишлари кенгайди. Бироқ айни пайтда «янгича» шаҳарсозлик сиёсати эски Бухоронинг ғарбий ва шимолий қисмидаги тарихий иншоотларнинг бутунлай бузилишига олиб келди: бугун тарихий ҳудуднинг атиги учдан бир қисми сақланган. 12 километрлик шаҳар қалъа деворидан бир неча ўн метр ва қадимий дарвозаларнинг фақат иккитаси қолган. Бунинг устига, янги ерларни ўзлаштириш, суғориш, канал ва сув омборлари қурилиши ер ости суви сатҳининг кўтарилишига сабаб бўлган [Hayotova N.Z. 2024: 9].

XX аср ўрталаридан реставратор усталар тайёрлаш масаласи долзарб бўла бошлади. Давлат назоратида таъмирлаш корхонаси ташкил этилиб, шогирдлар уста реставраторлар раҳбарлигида касб ўрганган. Лекин мустақилликнинг илк йилларида бундай корхоналар, кўплаб давлат корхоналари қатори, фаолиятини тўхтатган [Hayotova N.Z. 2024: 14].

Реставрация фаолияти Венетсия хартияси (1964), ЮНЕСКОнинг Умумжаҳон мероси тўғрисидаги конвенцияси (1972) ва миллий қонунчиликда мустаҳкамланган тамойилларга суянади. Булар: минимал аралашув, қайтарилувчанлик, автентиклик, илмий ҳужжатлаштириш ва янги қўшимчаларни аслий қисмдан ажратиб кўрсатиш [Международная хартия, 1964; UNESCO. Convention, 1972].

Миллий ҳуқуқий базанинг асосини 2001 йил 30 августда қабул қилинган «Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш

тўғрисида»ги қонун ташкил этади. Унга таяниб 2002 йил 29 июлда Вазирлар Маҳкамаси қарори қабул қилинди ва Бухоро шаҳрини ҳам қамраб олувчи идоралараро комиссия тузилиб, назорат қилиш имконияти пайдо бўлди. Президентнинг 2018 йил 19 декабрдаги қарори 10-бандига кўра Бухородаги ЮНЕСКО Умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган тарихий ҳудудлар алоҳида муҳофаза қилинадиган тарихий-маданий ҳудуд ҳисобланади; уларда режалаштирилган қурилиш ва обод қилиш лойиҳалари Маданий мерос департаменти ҳамда ЮНЕСКО Умумжаҳон мероси маркази билан мажбурий тартибда келишилиши белгиланди. 2020 йилда 11 та лойиҳа Умумжаҳон мероси марказига юборилди ва шу йили сентябрда Бухоро тарихий марказида режалаштирилган объект лойиҳасига ижобий хулоса олинди. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 мартдаги 191-сонли қарори эса муҳофаза қоидаларини бузганлик учун маъмурий ва жиноий жавобгарликни кучайтирди; шу йили Бухоро вилоятидаги ўта оғир аҳволдаги 40 та маданий мерос объектининг рўйхати шакллантирилди [Hayotova N.Z. 2022: 12]. Яна 2021 йилда Бухородаги етти объект, жумладан Исмоил Сомоний мақбараси, Чор Бакр ва Баҳоуддин Нақшбанд мажмуалари ҳамда Пойи Калон ансамбли ЮНЕСКОнинг Ислом олами мероси рўйхатига киритилди [Hayotova N.Z. 2022: 12].

Реставрация ёдгорлик ҳақида янги билим берувчи манба ҳамдир. Меъморий-археологик тадқиқотлар пойдевор, девор қатламлари ва кейинги қўшимчаларни очиб, иншоот бир неча босқичда қурилганини аниқлашга имкон беради. Қурилиш технологиясини ўрганишда ғишт ўлчамлари, териш тизими (масалан, Сомонийлар даврига хос нақшли териш), қоришма таркиби, ганч ва сирланган кошин тайёрлаш усуллари таҳлил қилинади. Материалшунослик таҳлили лаборатория усуллари ёрдамида хом ашё манбаларини, бузилиш сабабларини ва мос тиклаш материалларини белгилайди. Тозалаш жараёнида очилган битиклар, нақш қатламлари ва ранглар палитраси эпиграфик ҳамда безак тадқиқотлари учун, демакки манбашунослик учун ҳам янги маълумот беради. Ниҳоят, ўлчов чизмалари, фотофиксатсия ва замонавий 3Д-сканерлаш маълумотлари келгуси тадқиқотчилар учун архив базасини ташкил этади.

Реставрация методикасида материал танлаш алоҳида ўрин тутади. Мутахассислар қайд этишича, ҳозирги кунда ёдгорликларни таъмирлашда цемент ва гидрозол ишлатилмайди, ўрнига иншоотнинг қурилиш манбасига мос шағал, қум ва кулдан фойдаланилмоқда. Сабаби, 2020 йилгача қўлланган цемент қоришмаси юқори қисмга оғирлик туширган ва ёмғир пайтида намлик тортиб, «замбуруғсимон» ёриқлар пайдо қилган [Hayotova N.Z. 2024: 13].

Реставрация тарихий хотира ва миллий ўзликни асрайди, анъанавий ҳунармандчиликнинг авлодлараро узатилишига хизмат қилади ҳамда маданий туризм орқали маҳаллий иқтисодиётга ҳисса қўшади. Бухоро шаҳрининг асл қиёфасини сақлаб қолиш эса туризм ривожининг асосий омилларидан биридир.

Мустақиллик йилларида соҳадаги муаммоларни бартараф этиш ва Ўзбекистоннинг маданий мерос борасидаги ўрнини мустаҳкамлаш мақсадида тизимли ишлар амалга оширилди.

Хулоса қилиб айтганда, Бухоро ёдгорликларини ўрганишда реставрация алоҳида техник соҳа эмас, балки тарих, археология, меъморчилик ва материалшуносликни бирлаштирувчи комплекс илмий йўналишдир. Адабиётлар таҳлили Бухоро ёдгорликларини ўрганишда бой илмий анъана мавжудлигини кўрсатади, лекин мустақиллик давридаги реставрация ва консерватсия тажрибаси ҳали тизимли умумлаштирилмаган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Abdullayeva D.A. XX asrning 20-yillarida Buxoro me’moriy obidalarining ta’miroti masalasi // Scientific Journal of Fergana State University. Ijtimoiy gumanitar fanlar. Tarix. – 2023. – №1. – B. 324–327.

2. Hayotova N.Z. Buxoro shahrida tarixiy-madaniy obidalarni ta’mirlash va saqlash masalalari // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. – 2022. – Vol. 2, Issue 1. – B. 6–13.

3. Hayotova N.Z. Buxoroda tarixiy yodgorliklarining holati va ularni saqlash muammolari // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. – 2024. – Vol. 4, Issue 2. – B. 7–15.

4. Narshaxiy Abu Bakr. Buxoro tarixi. – Toshkent.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi «Moddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasining «Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuni. 2001-yil 30-avgust.

7. UNESCO. Convention Concerning the Protection of the World Cultural and Natural Heritage. Paris, 1972.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi 191-son «Moddiy madaniy meros ob’ektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

9. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX–XV вв. М.: Наука, 1978.

10. Маньковская Л.Ю. Типологические основы среднеазиатской архитектуры (IX – начало XX в.). Ташкент: Фан, 1980.

11. Международная хартия по консервации и реставрации памятников и достопримечательных мест (Венецианская хартия). Венеция, 1964.

12. Пугаченкова Г.А., Рempель Л.И. История искусств Узбекистана. М., 1965.

13. Сухарева О.А. Бухара XIX – начала XX в. (позднефеодальный город и его население). М.: Наука, 1966.

14. Шишкин В.А. Варахша. М., 1963.

15. Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги жорий архиви (ЎзР ММА ЖА)

TARIXNI RANGLAR VA NAQSHLARDA AKS ETTIRISH: O‘ZBEKISTON TARIXIY-ME’MORIY MEROSINI O‘RGANISHDA MINIATYURA, MUZEY FONDLARI VA AMALIY SAN’ATNING AHAMIYATI

Ibraximov Barotjon Botirovich
Namangan davlat pedagogika instituti
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi dotsenti
Tel.: +99893-912-6889

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston tarixiy-me’moriy ob’yektlarini o‘rganishda miniatyura san’ati, muzey fondlari va xalq amaliy san’ati namunalarining ilmiy-ma’rifiy ahamiyati tahlil qilinadi. Ularning tarixiy xotira, me’moriy meros va milliy madaniyatni tadqiq etishdagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *miniatyura, me’morchilik, tarixiy meros, muzey, muzey fondi, amaliy san’at, hunarmandchilik, naqsh, kulolchilik, zardo‘zlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, madaniyat, tarixiy xotira, meros.*

Kirish

O‘zbekiston hududi qadimdan Sharq sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo‘lib, bu hududda turli tarixiy davrlarda yuksak darajadagi shaharsozlik, me’morchilik, tasviriy va amaliy san’at namunalari shakllangan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qo‘qon, Shahrisabz, Termiz kabi shaharlarda saqlanib qolgan me’moriy yodgorliklar xalqimizning ko‘p asrlik tarixini o‘rganishda muhim manba

vazifasini bajaradi. Tarixiy ob’yektlarni faqat me’moriy inshoot sifatida emas, balki ularni yaratgan jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va estetik qarashlarini aks ettiruvchi kompleks manba sifatida tadqiq etish muhimdir.

Tarixiy-me’moriy merosni o‘rganishda yozma manbalar bilan bir qatorda tasviriy san’at asarlari, ayniqsa, miniatyuralar, muzey kolleksiyalari va xalq amaliy san’ati namunalari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular orqali ayrim me’moriy inshootlarning o‘z davridagi ko‘rinishi, bezak xususiyatlari, shahar muhiti, kiyim-kechak, hunarmandchilik va kundalik hayotga oid ma’lumotlarni aniqlash mumkin. Miniatyura san’ati Sharq xalqlari madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, XIII–XVII asrlarda Markaziy Osiyo, Eron, Xuroson, Hindiston va boshqa hududlarda yuksak darajada rivojlangan. O‘zbekiston hududida, ayniqsa, Samarqand va Buxoro miniatyura maktablari shakllanib, kitobat san’ati bilan chambarchas bog‘liq holda taraqqiy etgan [Zohidov, 18-b.]. UNESCO ma’lumotlarida ham Buxoro va Samarqand miniatyura maktablarining o‘ziga xos an’analar shakllantirgani qayd etiladi.

Miniatyura san’atining tarixiy-me’moriy ob’yektlarni o‘rganishdagi o‘rni

Miniatyura san’ati, avvalo, o‘rta asrlar hayotini tasviriy shaklda aks ettirgan muhim manbalardan biridir. Qo‘lyozma kitoblar tarkibidagi miniatyuralarda hukmdorlar saroyi, shaharlar, bozorlar, masjid va madrasalar, bog‘lar, qal’alar, karvonlar hamda turli marosimlar tasvirlangan. Shu jihatdan miniatyuralar tarixchi va san’atshunos uchun nafaqat badiiy asar, balki tarixiy vizual manba sifatida ham katta qiymatga ega.

Miniatyuralarda tasvirlangan me’moriy inshootlarning shakli, peshtoq va gumbazlari, minoralari, bezaklari hamda ichki makonlari o‘sha davr me’morchiligi haqida qo‘shimcha ma’lumot beradi. Ayniqsa, hozirgi kungacha to‘liq saqlanib qolmagan yoki keyingi davrlarda qayta qurilgan inshootlarning dastlabki ko‘rinishini aniqlashda tasviriy manbalar muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek miniatyura san’ati rivojida Kamoliddin Behzod ijodi alohida o‘rin egallaydi. Uning ijodiy maktabi inson, tabiat, shahar muhiti va me’moriy makonlarni badiiy tasvirlashning yuqori darajasini namoyon etgan. Behzod ijodida me’moriy detallar oddiy fon sifatida emas, balki asarning mazmuniy va kompozitsion qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi [Ashrafi, 43-b.].

Miniatyuralar orqali tarixiy shaharlarning ijtimoiy makonini ham o‘rganish mumkin. Masalan, bozorlarda hunarmandlar faoliyati, saroydagi marosimlar, savdo-sotiq jarayonlari, sayohatchilar va turli tabaqa vakillarining hayoti tasvirlangan. Bu

esa tarixiy ob’yektni faqat bino sifatida emas, balki inson faoliyati bilan bog‘liq madaniy makon sifatida tadqiq qilish imkonini beradi.

Sadriddin Pochaev ijodiga oid miniatyuralar ham mazkur masalada alohida e’tiborga loyiq. Uning Buxoro me’moriy yodgorliklariga bag‘ishlangan asarlarida Somoniylar maqbarasi, Chor Minor, Minorai Kalon va Mir Arab madrasasi kabi ob’yektlar tasvirlangan. Bu asarlar me’moriy yodgorliklarning tasviriy san’atda aks etish jarayonini o‘rganish uchun muhim material hisoblanadi [San’at jurnali, 2006, 1-son].

Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzeyi fondida qadimiy qo‘lyozmalar, miniatyuralar, xattotlik namunalari va amaliy san’at asarlari saqlanayotgani ham ushbu yo‘nalishning ilmiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Muzey fondlari – tarixiy-me’moriy merosni tadqiq etishning muhim manbasi

O‘zbekiston muzeylari xalqimizning moddiy va ma’naviy merosini saqlash, ilmiy o‘rganish va keng jamoatchilikka etkazishda muhim ilmiy-ma’rifiy markaz hisoblanadi. Muzey fondlarida arxeologik topilmalar, qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlar, tasviriy san’at asarlari, hunarmandchilik buyumlari va me’morchilik bilan bog‘liq ko‘plab eksponatlar saqlanadi.

Muzey fondlarining muhim xususiyati shundaki, ularda bir tarixiy davrga oid turli xil manbalarni birgalikda o‘rganish imkoniyati mavjud. Masalan, arxeologik topilma ma’lum bir shahar yoki me’moriy majmuaning iqtisodiy hayoti haqida ma’lumot bersa, kulolchilik buyumlari mahalliy hunarmandchilik an’analarini ko‘rsatadi. Miniatyura esa shu davrdagi shahar va uning me’moriy muhitini tasviriy tarzda aks ettirishi mumkin.

O‘zbekiston davlat san’at muzeyi fondlarida tasviriy va xalq amaliy san’atining turli namunalari saqlanadi. Muzeyning asosiy vazifalaridan biri moddiy va ma’naviy merosni asrash, o‘rganish, restavratsiya qilish va kelajak avlodlarga etkazishdan iborat.

Muzey fondlarini tarixiy-me’moriy tadqiqotlarga jalb etish tarixiy rekonstruksiya uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Chunki ayrim buyumlar, masalan, qadimiy eshiklar, yog‘och o‘ymakorligi namunalari, ganchkorlik qismlari, koshinlar yoki naqsh elementlari ma’lum bir me’moriy maktabning xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

1930-yillarda O‘zbekiston hududlarida tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiyalar davomida me’morlar, arxeologlar, etnograflar va san’atshunoslar tomonidan ko‘plab xalq amaliy san’ati namunalari to‘plangan. Bu ekspeditsiyalar natijasida ganchkorlik,

yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik va boshqa hunarmandchilik turlariga oid qimmatli materiallar muzey fondlariga kiritilgan [O‘zbekiston madaniy merosi, 16-b.].

Bugungi kunda O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida XIX asrning birinchi yarmidan hozirgi kungacha bo‘lgan davrga oid minglab amaliy san’at namunalari saqlanmoqda. Ular orasida kulolchilik, zargarlik, zardo‘zlik, kashtachilik, gilamchilik, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik asarlari mavjud.

Amaliy san’at namunalarining tarixiy-me’moriy tadqiqotlardagi ahamiyati

Xalq amaliy san’ati O‘zbekiston tarixiy-me’moriy merosining ajralmas qismidir. Chunki me’moriy obidalarning badiiy qiyofasini yaratishda naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, kandakorlik va boshqa hunarmandchilik turlarining o‘zaro uyg‘unligi muhim rol o‘ynagan.

Me’moriy inshootning tashqi shakli bilan bir qatorda uning ichki bezaklari ham tarixiy davrning estetik qarashlarini aks ettiradi. Masjid, madrasa, saroy va maqbaralardagi geometrik va islimiy naqshlar, ranglar uyg‘unligi, epigrafik bezaklar va o‘ymakorlik uslublari ma’lum hududning badiiy maktabini aniqlash imkonini beradi.

Masalan, Buxoro zardo‘zligi, Rishton kulolchilik maktabi, Marg‘ilon atlas va adraslari, Chust do‘ppido‘zligi va pichoqchiligi, Shahrikhon pichoqchiligi kabi hududiy hunarmandchilik maktablari O‘zbekiston madaniy makonining rang-barangligini ko‘rsatadi.

Amaliy san’at namunalarini me’moriy obidalar bilan birgalikda o‘rganish orqali tarixiy hududlarning madaniy o‘ziga xosligini aniqlash mumkin. Masalan, ma’lum bir naqshning kulolchilik buyumlarida, yog‘och o‘ymakorligida va me’moriy bezaklarda takrorlanishi ushbu naqshning mahalliy badiiy an’anaga mansubligini ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, amaliy san’at namunalari orqali texnologik jarayonlarni ham o‘rganish mumkin. Kulolchilikda ishlatilgan xomashyo, naqsh va ranglar, yog‘och o‘ymakorligida foydalanilgan daraxt turlari, ganchkorlikdagi kompozitsion usullar, zardo‘zlikdagi material va texnikalar tarixiy hunarmandchilik taraqqiyoti haqida ma’lumot beradi.

Talabalar uchun tarixiy-me’moriy merosni o‘rganishda ushbu manbalarning pedagogik ahamiyati

Miniatyura, muzey fondlari va amaliy san’at namunalaridan ta’lim jarayonida foydalanish talabalar tarixiy tafakkurini rivojlantirishning samarali vositalaridan

biridir. An’anaviy darslarda tarixiy ob’yekt haqida matnli ma’lumot berish bilan cheklanib qolish o‘rniga, talabaga uning tasviri, bezak elementlari, muzey eksponati yoki miniatyurasini ko‘rsatish mavzuni ancha tushunarli qiladi.

Masalan, Samarqanddagi Registon majmuasi, Buxorodagi Minorai Kalon yoki Xivadagi Ichan qal’a haqida dars o‘tilganda tarixiy ma’lumotlar bilan bir qatorda ushbu obidalarning miniatyura, fotosurat, chizma, muzey eksponatlari va amaliy san’atdagi aksini taqqoslash mumkin. Bunday metod talabada **“tarixiy ob’yekt – tasviriy manba – moddiy manba – badiiy talqin”** o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash imkonini yaratadi.

Miniatyura san’ati ham zamonaviy ta’lim jarayonida katta imkoniyatlarga ega. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda miniatyura san’ati mustaqillik yillarida yangi mazmun bilan rivojlanib, zamonaviy amaliy san’atning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Talabalarni muzeylarga olib borish, muzey fondlari bilan tanishtirish, tarixiy obidalar bo‘yicha virtual ekskursiyalar tashkil etish, amaliy san’at namunalarini kataloglashtirish va ularning badiiy xususiyatlarini tahlil qilish tarix fanini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

Xulosa

O‘zbekiston tarixiy-me’moriy merosini chuqur o‘rganishda yozma manbalar bilan bir qatorda miniatyura san’ati, muzey fondlari va xalq amaliy san’ati namunalaridan foydalanish katta ilmiy ahamiyatga ega. Ular tarixiy obidalarning nafaqat me’moriy xususiyatlarini, balki ularni yaratgan jamiyatning estetik qarashlari, turmush tarzi, hunarmandchilik an’analari va ma’naviy dunyosini ham o‘rganish imkonini beradi.

Miniatyuralar o‘rta asr shahar va me’moriy muhitining tasviriy qiyofasini tiklashga yordam beruvchi muhim vizual manba sifatida namoyon bo‘ladi. Muzey fondlari esa tarixiy jarayonni moddiy manbalar asosida tadqiq qilish imkonini beradi. Amaliy san’at namunalari orqali esa mahalliy badiiy maktablar, bezak an’analari, hunarmandchilik texnologiyalari va hududiy o‘ziga xosliklarni aniqlash mumkin.

Shu sababli tarixiy-me’moriy ob’yektlarni o‘rganishda **“me’moriy yodgorlik – miniatyura – muzey eksponati – amaliy san’at namunasi – yozma manba”** o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni kompleks tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv yoshlarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish, milliy madaniy merosga hurmatini kuchaytirish va tarixiy xotirani asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev N. San’at tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.

2. Ашрафи М. М. Бехзод и развитие Бухарской школы миниатюры XVI века. – Душанбе: Дониш, 1987. – 239 с.
3. Ашрафи М. М. Бухарская школа минитюрной живописи: 40–70-у гг XVI века. – Душанбе: Дониш, 1974. – 43 с.
4. Ашрафи М. М. Таджикская миниатюра. Бухарская школа XVI–XVII ввеков. – Душанбе, 2011. – 143 с.
5. Bulatov S. S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog‘och o‘ymakorligi atamalariga oid izohli lug‘at. – Toshkent: Mehnat, 1991.
6. Nodir B. Tasviriy va amaliy san’at atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: San’at, 2001.
7. Pugachenkova G. A., Galerkina O. Миниатюра Средней Азии. – Москва: Изобразительное искусство, 1979.
8. Umarov A., Ahmedov M. Tasviriy san’at atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
9. Umarov A. R. Chingiz Ahmarov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1979. – 129 b.
10. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005.
11. O‘zbekiston madaniy merosi. O‘zbekiston davlat san’at muzeyi to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston madaniy merosi, 2020.
12. O‘zbekiston tarixi. 7-jild. O‘zbekistonning madaniy merosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
13. O‘zbekiston davlat san’at muzeyi. Muzey fondlari va kolleksiyalari katalogi. – Toshkent: San’at, 2018.
14. Mahmudov T. M. Традиции миниатюры в современной живописи Узбекистана. – Тошкент: Издателство литературй и искусства, 1984.
15. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. – Toshkent: Fan, 1997. – 149 b.

TEMURIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGIDA OQAVA SUV VA DRENAJ TIZIMLARINING ME’MORIY-KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI

Imomov Fozil Shakarbek o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti,
San’atshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi
Elektron pochta: fozilimomov68@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar davri shaharsozlik madaniyatida oqava suv va drenaj (kanalizatsiya) tizimlarining me’moriy va konstruktiv xususiyatlari tadqiq etilgan. Saroy, jamoat va hammom inshootlarida qo‘llangan pishgan g‘isht hamda sopol quvurlar (kuburlar) va yer osti kollektorlarining (tazroblarning) muhandislik yechimlari me’moriy-arxeologik ma’lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Temuriylar davri, shaharsozlik, oqava suv, drenaj tizimi, tazrob, kubur, sopol quvurlar, me’moriy konstruksiya, pishgan g‘isht, sanitariya-gigiyena, hammom, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz.

XIV–XV asrlarda Movarounnahrda yuz bergan Temuriylar Renessansi davrida shaharsozlik hamda me’morchilik san’ati yuksak taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tarildi. Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqand, Shahrisabz, Buxoro kabi yirik ma’muriy-madaniy markazlarda barpo etilgan saroylar, madrasalar hamda jamoat hammomlari o‘sha davr me’moriy-muhandislik tafakkurining yorqin namunasidir [2; 3]. Bunday inshootlarni bunyod etishda me’morlar binolarning estetik mukammalligi va salobatiga, shuningdek, ularning uzoq muddatli chidamliligi hamda sanitariya-gigiyenik xavfsizligini ta’minlovchi muhandislik va drenaj yechimlariga ham e’tibor qaratganlar.

Oqava suvlarni oqizish, yer osti va yer usti zovurlari hamda drenaj tizimlarini loyihalash shunchaki tasodifiy qurilish tajribasi emas, balki Movarounnahr va Xuroson olimlarining aniq fanlar, amaliy geometriya va geodeziya sohasidagi ilmiy-amaliy yutuqlari bilan bir muhitda shakllangan an’anaga tayangan. Bu muhitda Mirzo Ulug‘bekning o‘rni alohida. U 1394-yilda Sultoniyada tug‘ilgan va yoshligidan bobosi Amir Temurning saroyi bilan birga harbiy yurishlarda bo‘lgan [7; 8]. Yurishlar davomida shahar va istehkomlar qurilishi, suv ta’minoti va yer ishlari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘lgan. Keyinchalik Samarqand atrofidagi Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Shamol, Bog‘i Chinor kabi saroy-bog‘ majmualari bilan bog‘liq qurilish-obodonlik an’anasi ham uning davrida davom etgan [2]. (Ulug‘bekning bu majmualarning suv ta’minotiga bevosita rahbarlik qilgani haqidagi fikr alohida manba bilan tasdiqlanishi lozim.)

1409-yildan Samarqand va Movarounnahrni boshqargan Mirzo Ulug‘bek geodeziya, astronomiya va matematika fanlarini yangi bosqichga olib chiqdi. 1420-yillarda Samarqandning Obi-Rahmat (Ko‘hak) tepaligida qurilgan uch qavatli rasadxonada radiusi taxminan 40 metr bo‘lgan Fahriy sekstanti yordamida ekliptikaning og‘ish burchagi (23°30′17″) va Samarqandning geografik kengligi yuksak aniqlikda belgilandi [7; 8]. 1437-yilda yakunlangan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” («Ziji Sultoniy»)da 1018 ta yulduzning koordinatalari hamda ikki yuz qirqqa yaqin geografik punktning koordinatalari keltirilgan [9]. Ushbu asarda yer sirtining nishabligi yoki drenaj hisoblari bayon etilmagan; biroq o‘lchov va hisob madaniyatining yuksak darajasi, Qozizoda Rumiy va Ali Qushchi kabi olimlarning matematik-astronomik faoliyati shaharsozlik va qurilishda ham aniq o‘lchovga tayanish uchun ilmiy zamin yaratgan. Shuningdek, Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarida bayon etilgan atrof-muhit gigiyenasi haqidagi qarashlar, jumladan, turg‘un suvning salomatlikka zararli ta’siri haqidagi tavsiyalar o‘rta asr musulmon shaharlarida sanitariya madaniyatining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan [10].

Shuningdek, shahar ko‘chalari, maydonlar hamda yirik me’moriy majmualar ostidan pishgan kvadrat g‘ishtlardan terilgan, usti ravoqli yoki gumbazsimon yopilgan yer osti yopiq kanallari – tazroblar (tazarlar) o‘tkazilgan [3; 5]. Bunday kollektorlar bahorgi qor-yomg‘ir suvlarini, ko‘cha sel oqimlarini hamda maishiy va ustaxona oqava suvlarini bino poydevorlari va gruntga zarar yetkazmasdan shahar tashqarisidagi zovurlar, soylar va daryo o‘zanlariga yo‘naltirgan [5; 6]. Yopiq tazar tizimining Buxoroda keyingi asrlarda ham saqlanib qolgani bu an’ana uzoq davom etganini ko‘rsatadi [6]; hammom oqava suvlari ham shu kanallar orqali chiqarilgan. Hammomlar kabi ko‘p suv sarflaydigan inshootlarda oqava suvlar nishablikli novlar va ma’lum masofalarda o‘rnatilgan cho‘kindi to‘playdigan quduqlar orqali markaziy kanallarga yo‘naltirilgan deb taxmin qilish mumkin [4; 5]. Natijada shahar hududida suvning turib qolishi, zaxlanish va yuqumli kasalliklar tarqalishining oldi olingan [10].

Shuningdek, shahar ko‘chalari, markaziy maydonlar hamda yirik me’moriy majmualar ostidan pishgan kvadrat g‘ishtlardan mustahkam qilib terilgan va usti ravoqli hamda gumbazsimon shaklda yopilgan keng o‘lchamli yeralti yopiq kanallari – *tazroblar* o‘tkazilgan [3; 5]. Ushbu yeralti kollektorlari va zovur tarmoqlari bahoriy kuchli qor-yomg‘ir suvlarini, ko‘cha sel oqimlarini hamda xonadonlar va ishlab chiqarish ustaxonalaridan chiqqan maishiy oqava suvlarni mahobatli bino poydevorlariga, yerosti grunt qatlamlariga zarar yetkazmagan va ularni cho‘kish hamda deformatsiyaga uchratmagan holda shahar tashqarisidagi tabiiy zovurlarga,

soylarga hamda daryo o‘zanlariga ravon oqizib yuborishdek nihoyatda mas’uliyatli muhandislik vazifasini bajargan [5; 6]. Buning ustiga, Temuriylar davri shahar madaniyatida muhim sanitariya-gigiyenik va ijtimoiy-madaniy obyekt hisoblangan jamoat hamda saroy hammomlarida ishlatilgan ulkan hajmga ega oqava suvlar poydevor tubidagi aniq nisbatda o‘lchangan nishabliklar, maxsus suv toshiruvchi novlar va ma’lum masofalarda o‘rnatilgan cho‘kindi to‘plovchi tindirgich quduqlar (revisiya va tindirish tizimlari) orqali markaziy tazroblarga yo‘naltirilgan [4; 5]. Natijada shahar hududida turg‘un suv to‘planishi, zaxlanish, chirish hamda turli yuqumli kasalliklar va noxush hidlarning tarqalishiga yo‘l qo‘yilmagan, shahar muhitida yuksak ekologik va gigiyenik muvozanat saqlangan [10].

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri shaharsozligida oqava suv va yer osti drenaj tizimlarining tartibli yo‘lga qo‘yilishi o‘sha davrdagi geodeziya, amaliy geometriya, gidrotexnika va tibbiyot sohasidagi ilmiy yutuqlar bilan amaliy me’morchilikning o‘zaro uyg‘unligini ko‘rsatadi [7; 9; 10]. Pishirilgan sopol quvurlar (kuburlar), pishgan g‘ishtli yer osti kollektorlari (tazroblar) va cho‘kindi quduqlari mahalliy qurilish amaliyoti doirasida o‘z davrining ilg‘or sanitariya-gigiyenik yechimlari hisoblangan [2; 4].

Saqlanib qolgan arxeologik va me’moriy namunalarni har taraflama va kompleks tarzda o‘rganish, ularning muhandislik-grafik modellari hamda tarixiy chizmalarini raqamli va an’anaviy vositalar yordamida qayta tiklash (rekonstruksiya qilish) va ushbu natijalarni zamonaviy ta’lim jarayoniga tizimli tatbiq etish milliy me’moriy merosimizning ilmiy-texnik va strukturaviy asoslarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. O‘zbekiston hududidagi ko‘hna obidalar – maqbara, madrasa, saroy va karvonsaroylarning me’moriy geometriyasi, modulli proporsiyalari, konstruktiv elementlari hamda poydevor va gumbaz yechimlarini chuqur tahlil qilish orqali ajdodlarimiz qo‘llagan noyob muhandislik tajribasini ilmiy muomalaga olib kirish imkoni yaratiladi.

Shuningdek, ushbu mavzuni oliy ta’lim tizimida keng va atroflicha o‘rganish bo‘lajak me’morlar, muhandis-konstruktorlar hamda san’atshunos talabalarda fazoviy tasavvur va analitik fikrlash ko‘nikmalarini yuqori bosqichda shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tarixiy chizma va modellar bilan ishlash jarayonida talabalar milliy me’morchilikda keng qo‘llanilgan girix va an’anaviy geometrik shakllarning murakkab uzviyligini tushunib yetadilar. Bu esa ularga ajdodlarimizning zilzilabardoshlik, tabiiy iqlim sharoitlariga moslashuvchanlik hamda resurs tejamkorligiga asoslangan ratsional muhandislik yechimlarini atroflicha o‘zlashtirish imkonini beradi.

Buning natijasida bugungi kun shaharsozligi va me’morchiligida ko‘p asrlik tarixiy tajriba hamda milliy uslubiy elementlardan ijodiy va ratsional foydalanish uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Zamonaviy loyihalash amaliyotida ushbu boy merosni shunchaki ko‘chirish emas, balki uning texnik-geometrik tamoyillarini zamonaviy qurilish texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash milliy shaharsozlik identikligini saqlab qolish va boyitishda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarov A.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi va moddiy madaniyati. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 112–118.
2. Zohidov P.Sh. Temuriylar davri me’morchiligi va shaharsozlik san’ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996. – B. 84–91.
3. Pugachenkova G.A. Zodchestvo Tsentralnoy Azii. XV vek. – Tashkent: Izdatelstvo literatury i iskusstva, 1976. – C. 145–152.
4. Ahmedov M.K. O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014. – B. 203–210.
5. Belenitskiy A.M., Bentovich I.B., Bolshakov O.G. Srednevekovyy gorod Sredney Azii. – Leningrad: Nauka, 1973.
6. Rempel L.I. Staraya Bukhara: Stranitsy zhizni, byta, stroitelnogo dela, remesla i iskusstva. – Tashkent: Fan, 1952.
7. Kari-Niyazov T.N. Astronomicheskaya shkola Ulugbeka. – Moskva–Leningrad: Izd-vo AN SSSR, 1950.
8. Ulugh Beg. MacTutor History of Mathematics Archive, University of St Andrews. https://mathshistory.st-andrews.ac.uk/Biographies/Ulugh_Beg/
9. The Astronomical Tables of Ulugh Beg (Zij-i Sultani). Utrecht University. https://webspace.science.uu.nl/~gent0113/ulughbeg/ulughbeg_zij_i_sultani.htm
10. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent (o‘zbekcha nashri).

SO‘G‘D HUKMDORLARINING YOZGI QARORGOHI – KOFIRQALA: MODDIY MADANIYAT VA BADIIY SAN’AT NAMUNALARI

D.Z.Isrofilova
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti Tarix fakulteti
1-kurs magistranti +998943990545

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyati Tayloq tumanida joylashgan ilk o‘rta asrlarga oid Kofirqala shahar harobasi hamda undan topilgan moddiy madaniyat va badiiy san'at namunalari tarix hamda san’atshunoslik fanlari integratsiyasi asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yodgorlikning me'moriy tuzilishi, saroy majmuasidan topilgan monumental devoriy suratlar, yongan yog‘och o‘ymakorligi panellari hamda loy muhrlar (bullalar) So‘g‘d hukmdorlarining saroy madaniyati va o‘sha davr tasviriy san'atining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishda birlamchi manba sifatida tadqiq etilgan. Maqolada Kofirqala arxeologik topilmalarining So‘g‘d tarixi va madaniyatini o‘rganishdagi ilmiy ahamiyati har taraflama yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kofirqala, So‘g‘diyona, ilk o‘rta asrlar, Tayloq, Darg‘om, moddiy madaniyat, yog‘och o‘ymakorligi, devoriy suratlar, bullalar, ixshidlar qarorgohi, san’atshunoslik.

O‘zbekiston hududidagi ilk o‘rta asrlar arxeologik yodgorliklari orasida Kofirqa’la shahar harobasi o‘zining noyob topilmalari va o‘ziga xos tarixi bilan alohida ajralib turadi. Hozirgi Tayloq tumani hududida, Darg‘om kanali bo‘yida qad rostlagan ushbu yodgorlik V-VIII asrlarda So‘g‘d hukmdorlari – Samarqand ixshidlarining yozgi qarorgohi hamda muhim ma’muriy va harbiy markaz vazifasini o‘tagan. Ushbu yodgorlikni o‘rganish jarayonida topilgan noyob me’moriy tuzilmalar, monumental devoriy suratlar, yongan yog‘och o‘ymakorligi panellari va yuzlab loy muhrlar (bullalar) tarix va san‘atshunoslik fanlarining o‘zaro integratsiyalashgan holda tadqiq etilishini taqozo etadi. Mazkur maqolada Kofirqala yodgorligining moddiy madaniyat ashyolari hamda tasviriy san’at namunalari yordamida So‘g‘d hukmdorlarining hayot tarzi, saroy madaniyati va o‘sha davr badiiy san’atining o‘ziga xos xususiyatlari kompleks tahlil qilinadi.

Kofirqal’a shaharchasi – Darg‘om kanalining chap qirg‘og‘ida, Afrosiyobning janubiy tomonida, Samarqanddan 12 kilometr janubda joylashgan. Shaharning umumiy maydoni 16 gektar bo‘lib, ark, shahriston va raboddan iborat. Ark kvadrat shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 76x76 metr, balandligi 25 metrni tashkil etgan. Shahriston ham to‘rtburchak shaklida bo‘lib tomonlari 360 metrdan. Rabodning katta qismi hozirda ekin maydoniga aylantirilganligi uchun uning aniq hajmi noma’lumdir. Ushbu yodgorlikning ark va shahriston qismini aniq ulchash imkoni mavjud. Qazishmalar natijasida ark hududida So‘g‘d ixshidlarining muhtasham saroy majmuasi joylashgani aniqlangan. O‘rta asr arab geografi Ibn Havqalning “Kitāb ṣūrat

al-Ard” asarida Samarqanddan bir farsax (taxminan 6 km) janubda joylashgan hamda Farg‘ona hukmdorining qarorgohi bo‘lgan Rivdat nomli manzilgoh tilga olingan. Tadqiqotchilar F. Grenet va E. de la Vaissière (2002) Kafirqala yodgorligini aynan shu Rivdat manzilgohi deb identifikatsiya qilishni taklif etishgan. Bu qarash Kafirqalaning Samarqandning janubiy tumanlaridagi eng yirik arxeologik obyekti ekanligiga asoslangan edi. Shunga qaramay, yong‘in qatlamidan topilgan tangalar Kofirqala Farg‘ona hukmdorining arabitlarga qarshi kurashish uchun Sug‘d ixsidi (hukmdori) bilan ittifoq tuzish maqsadida bu yerga kelishidan biroz oldinroq ham allaqachon mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Bu majmua ixshidlarning yozgi qarorgohi vazifasini o‘tagan. Arkda saqlangan madaniy qatlamlar asosan uch davrga mansub bo‘lib, birinchi davr VII-VIII asrlarga, uning davr VIII asrning yarmiga, davrlarga X-XII asrlarga oiddir. Kofirqala yodgorligining eng noyob va qimmatli topilmalaridan biri bu yong‘in qatlamidan topilgan minglab muhr izlari (bullyalar) hisoblanadi. Italiya-O‘zbekiston va Yaponiya-O‘zbekiston qo‘shma ekspeditsiyalari davrida mazkur yong‘in qatlamidan jami 700 ga yaqin muhr topilgan bo‘lib, bu Markaziy Osiyoda bitta yodgorlikdan topilgan eng yirik muhrlar to‘plamidir.

Bu muhrlarda turli xil ilohlar, odamlar va hayvonlarning relyefli tasvirlari, geometrik shakllar hamda sug‘d va baqtriy tillaridagi yozuvlar aks ettirilgan.

Ushbu san’at namunalari qadimgi sug‘dlar dunyoqarashi, diniy e’tiqodlari va tasviriy san’at taraqqiyotini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

2015–2016-yillardagi arxeologik tadqiqotlar davomida sitadelning shimoli-sharqiy qismidagi katta binodan devoriy suratlar parchalari topildi.

Garchi bu devoriy suratlar mintaqadagi fojiali voqealar (arablar istilosi davridagi yong‘in) natijasida qattiq shikastlangan bo‘lsa-da, ular o‘sha davr mahobatli rassomlik san’atining yorqin namunalaridir.

Suratlardagi ranglar gammasi, dekorativ bezaklar va naqsh elementlari qadimgi Kofirqala me’morchiligi va ichki bezak san’ati haqida qimmatli ma’lumotlarni beradi. Shuningdek, binoning yog‘och ustunlar o‘rnatiladigan kvadrat shaklidagi yondirilgan poydevorlari va ularning joylashish tartibi me’morchilik texnikasining yuksak darajada bo‘lganini ko‘rsatadi. Yong‘in qatlamidan va qazishma hududlaridan turli xil sopol idishlar, metall buyumlar hamda numizmatika namunalari topib o‘rganilgan.

Sopol buyumlar: Islomgacha bo‘lgan davrga oid kulolchilik namunalari o‘zining xilma-xilligi, shakllari va yasalish texnikasining mukammalligi bilan hududning mahalliy hunarmandchilik san’atidan dalolat beradi. Numizmatika namunalari: Yong‘in qatlamidan topilgan bronza va kumush tangalar (jumladan,

hukmdor Tarxun davriga oid, mil. 700–710-yillarda zarb qilingan tangalar) yodgorlikning xronologiyasini aniqlash bilan birga, o‘sha davr pul muomalasi va iqtisodiy-madaniy aloqalari haqida ma’lumot beradi. Yodgorlik bo‘yicha ilk ilmiy ishlar 1920-yillarning oxirlariga borib taqalib, Kofirqalaning birinchi topografik xaritasi M. E. Masson tomonidan 1928-yilda tuzilgan.

Ilk muntazam arxeologik qazishmalar G.V.Grigoriyev tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, u asosan yodgorlikning rabod (shahar atrofi) qismiga e’tibor qaratgan va u yerdan sopol xumdonini o‘z ichiga olgan turli hunarmandchilik materiallarini topgan.

Keyingi davrlarda O.A.Obel'chenko shahar qismida ikkita asosiy yashash davrini aniqlagan, G.V.Shishkina (1961, 1969) esa shaharning tashqi qismidagi nekropolni qazib o‘rgangan. Ushbu nekropol materiallari keyinchalik V. A. Nil'sen (1965, 1966) tomonidan qayta tiklanib tahlil qilingan. Sovet Ittifoqining oxiri va O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti tomonidan sitadel hududida dastlabki sinov shurflari (tranchelar) ochilgan.

Shundan so‘ng, 2001–2008-yillarda Bolonya universiteti va O‘zbekiston FA Arxeologiya instituti hamkorligida Italiya-O‘zbekiston ekspeditsiyasi sitadel hududida keng ko‘lamli va tizimli qazishmalar olib borgan.

Aynan shu ekspeditsiya davrida qariyb 500 ta muhr (bulla) topilgan yong‘in qatlami ilk bor kashf etilgan va o‘rganilgan **[Mantellini S., Berdimuradov A.E.: 107-132; Cazzoli S., Cereti C.G.: 133-164].**

Kofirqala sitadelining eng noyob badiiy topilmalari qatoriga qarorgohning markaziy qismidan, taxt xonasidan topilgan yongan yog‘och o‘ymakorligi panellari kiradi. Panellar sitadelning eng ichki markaziy xonasi (15/16-xona)dan aniqlangan bo‘lib, ularning barchasi ko‘mirlashgan holatda edi [Kafir-kala: 21-33]. Majmuaga kvadrat shaklidagi panel (taxminan 130×114 sm), yoysimon panel (taxminan 300×55 sm, uning 156×55 sm qismi saqlangan) hamda bir nechta bo‘laklar kiradi. Tahlillar panellar terak yog‘ochidan yasalganini ko‘rsatdi **[Kafir-kala: 21-33].**

Yog‘och yer ostida parchalanib ketmagan: ko‘mirlashuv uni saqlab qolgan, shu sababli o‘yma naqshlar deyarli barcha mayda tafsilotlari bilan yetib kelgan **[Kafir-kala: 21-33].** Kvadrat va yoysimon panellarda ma’buda Nana hamda unga turli hadyalar keltirayotgan odamlar tasvirlangan **[Kafir-kala: 21-33].** Bu holat So‘g‘d saroy bezagi diniy ikonografiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Panellarni qazishma maydonidan xavfsiz olib chiqish uchun ularga paraloid B-72 va parafin surtilgan, so‘ng laboratoriyada maxsus tozalash ishlari olib borilgan

[Kafir-kala: 21-33]. Keyinchalik Luvr muzeyi mutaxassislari ishtirokida VI–VII asrlarga oid yongan panel restavratsiya qilindi; bu taxt xonasi me’moriy bezagining grafik rekonstruksiyasini bajarishga imkon berdi **[Kun.uz: 2022].** Shu bois panellar So‘g‘d tasviriy san’atining noyob namunasi sifatida baholanadi.

Numizmatik materiallar ham Kofirqalaning tarixiy ahamiyatini to‘ldiradi. Yodgorlikdan topilgan ko‘p sonli tangalar Samarqand vohasida So‘g‘d hokimiyatidan islomiy boshqaruvga o‘tish jarayonini aniq kuzatish imkonini beradi **[Gariboldi A., Mantellini S., Berdimuradov A.: 97-126].** Shunday qilib, devoriy suratlar, yog‘och o‘ymakorligi, muhrlar va tangalar birgalikda saroy madaniyatini tarixiy va san’atshunoslik nuqtayi nazaridan yaxlit o‘rganish uchun asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyati Tayloq tumanida joylashgan ilk o‘rta asrlarga oid Kofirqala yodgorligi O‘rta Osiyo, xususan, qadimgi Sug‘d civilizatsiyasining shaharsozlik, me’morchilik va tasviriy san’at tarixini o‘rganishda fundamental ahamiyat kasb etuvchi noyob obyekt hisoblanadi. Kofirqala oddiy mudofaa istehkomi bo‘lmay, balki Sug‘d ixsidlari davrida muhim ma’muriy vazifalarni bajaruvchi, hujjat almashinuvi va siyosiy jarayonlar markazi bo‘lgani yong‘in qatlamidan topilgan 700 ga yaqin loy muhrlar (bullalar) orqali isbotlandi. Sitadel hududidan topilgan monumental devoriy suratlar parchalari, yongan yog‘och o‘ymakorligi panellari, o‘ziga xos shakldagi sopol idishlar hamda numizmatika namunalari (jumladan, Tarxun davri tangalari) ilk o‘rta asrlar Sug‘d saroy madaniyati va amaliy san’atining yuksak darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Cazzoli S., Cereti C.G. Sealings from Kafir Kala: Preliminary Report // Ancient Civilizations from Scythia to Siberia. – 2005. – Vol. 11. – P. 133–164.
2. Conservation and restoration of wood carving unearthed from Kafir-kala in Uzbekistan // Journal of Western Asiatic Studies (al-Rāfidān). – 2020. – Vol. 41. – P. 21–33.
3. Gariboldi A., Mantellini S., Berdimuradov A. Numismatic finds from Kafir Kala as evidence of the Islamic transition in Samarkand. – P. 97–126.
4. Louvre museum to present 70 unique restored Uzbek artifacts // Kun.uz. – 22.10.2022. – https://kun.uz/en/news/2022/10/22/louvre-museum-to-present-70-unique-restored-uzbek-artifacts
5. Mantellini S., Berdimuradov A.E. Archaeological Explorations in the Sogdian Fortress of Kafir Kala (Samarkand Region, Republic of Uzbekistan) // Ancient Civilizations from Scythia to Siberia. – 2005. – Vol. 11. – P. 107–132.

XITOY ELCHISI CHEN CHENG QAYDLARI TEMURIYLAR SULOLASI DAVRI ME’MORIY YODGORLIKLARINI O‘RGANISHDA MANBA SIFATIDA

Nodira Izatova
Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti
+998 999591726

Annotatsiya: Tezisda Min sulolasi elchisi Chen Chengning 1414–1415-yillardagi safari natijasida yozilgan qaydlaridagi Hirot, Samarqand va Keshdagi saroy, masjid, madrasa va muhandislik inshootlari tavsifi “Boburnoma” va zamonaviy tadqiqotlar bilan qiyoslab tahlil qilinadi. Tavsiflarning san’atshunoslik uchun ahamiyati ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Chen Cheng, Temuriylar sulolasi, Hirot, Samarqand, Kesh, Oqsaroy, Bibixonim masjidi, madrasa, sardoba, shamol tegirmoni, sirlangan bezak.

Temuriylar sulolasi davrida barpo etilgan me’moriy yodgorliklarning ko‘pchiligi bizgacha qisman saqlangan yoki keyingi ta’mirlar natijasida o‘zgargan holda yetib kelgan. Ularning dastlabki qiyofasini tiklashda binolarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan zamondoshlarning guvohliklari alohida ahamiyatga ega. Bunday guvohliklar orasida Min sulolasi elchisi Chen Chengning qaydlari kam o‘rganilgan manbalardan biri hisoblanadi. U Li Xian bilan birga 1414-yilda Shohrux huzuriga, Hirotga yo‘l olgan va qaytgach imperatorga ikki asar taqdim etgan. Birinchisi yo‘l bosqichlari kunma-kun yozilgan “G‘arbiy o‘lkaga safar kundaligi”, ikkinchisi esa elchilar bo‘lgan shaharlar tasvirlangan “G‘arbiy o‘lkadagi boshqa yurtlar bayoni”dir [Chen Cheng, Li Xian: 5, 53].

Xitoylik tadqiqotchi Wang Jiguang ikkinchi asardagi ma’lumotlarni o‘n sakkiz turga ajratadi. U shaharning o‘rni, tog‘ va daryolari, aholisi bilan bir qatorda qurilishga oid qaydlarni ham alohida guruh sifatida ko‘rsatadi [Wang Jiguang: 79–81]. Haqiqatan ham, elchi har bir shahar haqida qisqa yozgan bo‘lsa-da, saroy, masjid, madrasa, hammom, sardoba va tegirmonlarning tuzilishini aniq qayd etgan. Bu qaydlar binoning qanday materialdan va qanday bezak bilan qurilganini aniqlashda tarixchi uchun ham, san’atshunos uchun ham birdek muhim.

Chen Cheng Hirot hukmdorining qarorgohini batafsil tasvirlaydi. Uning yozishicha, qarorgoh shaharning shimoli-sharqiy burchagida joylashgan. Bino g‘isht va toshdan qurilgan, tomi tekis bo‘lib, baland supaga o‘xshagan. Unda yog‘och to‘sin va sopol cherepitsa ishlatilmagan, ichida esa o‘nlab gumbazli xonalar bo‘lgan. Devor va derazalar oltin va zangori rang hamda sir bilan bezatilgan, eshiklarga naqsh o‘yilib, suyak qadalgan, polga gilam to‘shalgan [Chen Cheng, Li Xian: 53–54].

Elchining to‘sin va cherepitsa yo‘qligini alohida ta’kidlashi bejiz emas. Xitoy me’morchiligida bino yog‘och sinch ustiga tiklanib, tomi cherepitsa bilan yopilgan. Shu sababli g‘ishtdan ko‘tarilgan gumbaz va ravoqlar unga g‘ayrioddiy ko‘ringan. Aynan shu qiyos tufayli Temuriylar me’morchiligining asosiy texnik xususiyati, ya’ni pishiq g‘isht va gumbazli tom yopish usuli begona kuzatuvchi tomonidan aniq qayd etilgan. Elchi tilga olgan sir esa bugungi kunda koshin deb ataladigan sirlangan qoplamaga to‘g‘ri keladi.

Elchi shahar qurilishiga ham e’tibor bergan. Uning qayd etishicha, bozor ko‘chalarining ikki tomonida do‘konlar qurilgan, ustiga soyabon tortilgan yoki g‘ishtdan ravoq qilib yopilgan, yorug‘lik uchun tomdan tuynuk qoldirilgan. Shu tufayli quyoshli kunda ham, yomg‘irda ham xaridorlar ochiq osmon ostida qolmagan [Chen Cheng, Li Xian: 56]. Bu tavsif Turkiston shaharlaridagi gumbazli savdo inshootlari, ya’ni toq va timlarning XV yuzyillik boshidagi ko‘rinishini tasdiqlaydi.

Hirotdagi madrasa haqidagi qayd ayniqsa qimmatli. Chen Chengning yozishicha, shahar o‘rtasida katta bino bo‘lib, uning to‘rt tomonida keng xonalar va ayvonlar joylashgan. Hovli o‘rtasiga katta qozonga o‘xshash, aylanasi bir necha chjan keladigan bronza idish qo‘yilgan va uning sirtiga yozuv o‘yilgan. Xonalarda tolibi ilmlar va turli ilmlarni biluvchilar yashagan. Elchi bu muassasani Xitoydagi oliy o‘quv yurti bilan solishtirgan [Chen Cheng, Li Xian: 68]. Fan bu binoni Shohrux 1410-yilda qurdirgan madrasa deb hisoblaydi va undan bugungi kunga hech qanday iz qolmaganini ta’kidlaydi [Fan C.: 832–833]. Demak, Chen Cheng tavsifi bu yodgorlikning tuzilishi haqidagi kam sonli guvohliklardan biridir. Hovlidagi yozuvli bronza qozon esa Yassi shahridagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun quyilgan mashhur qozon bilan qiyoslash imkonini beradi.

Samarqand haqidagi qaydlarda shaharning jome masjidi tasvirlanadi. Elchining yozishicha, shaharning shimoli-sharqiy burchagida musulmonlar ibodat qiladigan bino bor. Uning tuzilishi juda puxta, ustunlari zangori toshdan bo‘lib, nozik o‘ymakorlik bilan bezatilgan. To‘rt tomoni keng ayvonlar bilan o‘ralgan, o‘rtasida va’z o‘qiladigan joy bor. Kitoblar qo‘y terisiga o‘ralgan, yozuvlari oltin suvi bilan bitilgan [Chen Cheng, Li Xian: 76]. Fan bu tavsifni Temur qurdirgan jome masjidi, ya’ni Bibixonim masjidiga tegishli deb hisoblaydi va to‘rt ayvonli reja elchi qaydlariga to‘liq mos kelishini ko‘rsatadi [Fan C.: 839].

Bu xulosani “Boburnoma” ham tasdiqlaydi. Bobur Temur Ohanin darvozasi yaqinida toshdan jome masjidi qurdirganini, unda asosan Hindistondan keltirilgan tosh yo‘nuvchilar ishlaganini yozadi. Uning ta’kidlashicha, masjid peshtoqidagi yozuv shunchalik yirik bitilganki, uni bir kuro‘hga yaqin masofadan o‘qish mumkin

bo‘lgan [Бобур З.М.: 55–56]. Ikki manba bir-biridan mustaqil holda binoning toshdan ishlangan qismlarini qayd etadi. Bibixonim masjidining shaharning shimoli-sharqiy qismida joylashgani ham Chen Cheng ko‘rsatgan o‘ringa mos keladi. Elchi Samarqand hukmdori qarorgohining ko‘rkamligi Hirotdagidan past ekanini ham yozadi [Chen Cheng, Li Xian: 75]. Bu qayd 1415-yilga kelib davlatning siyosiy markazi Hirotga ko‘chganini me’moriy belgilar orqali ham ko‘rsatadi.

Keshdagi Temur saroyi haqidagi qayd yodgorlikning taqdirini kuzatish imkonini beradi. Chen Chengning yozishicha, shahar ichida Temur qurdirgan bog‘ bo‘lib, unda o‘nlab ko‘shk va ayvonlar bor edi. Binolar keng ko‘lamda qurilgan, darvoza va ayvonlari baland va keng bo‘lgan. Asosiy zalning to‘rt burchagida balandligi bir necha chi keladigan oq tosh ustunlar turgan, ular qimmatbaho nefritga o‘xshagan. Devorlar oltin va zangori rang bilan bezatilgan, derazalarga sir qoplangan, biroq bularning barchasi buzilib qolgan edi [Chen Cheng, Li Xian: 81]. Fan bu tavsifni Oqsaroy xarobalariga tegishli deb hisoblaydi [Fan C.: 846].

Bobur bir yuz yildan ko‘proq vaqt o‘tib Keshda Temur qurdirgan ulkan peshtoqni ta’riflaydi. Uning yozishicha, asosiy peshtoqning ikki yonida viloyat va devon beklari uchun kichikroq peshtoqlar bo‘lgan, bu bino Kisro toqidan ham balandroq deyilgan [Бобур З.М.: 58]. Ikki guvohlikni qiyoslash muhim xulosaga olib keladi. Chen Cheng 1415-yilda bog‘dagi ko‘shklar va bezaklarning buzilganini qayd etgan, Bobur esa asosiy peshtoqni hali turgan holda ko‘rgan. Demak, Temur vafotidan keyin e’tibordan chetda qolgan saroy majmuasining yengilroq qurilgan qismlari, ehtimol, tez yemirilgan, g‘isht va koshin bilan qoplangan asosiy peshtoq esa uzoq saqlanib qolgan.

Elchi amaliy san’at mahsulotlariga ham baho bergan. Uning yozishicha, Hirotda sopol idishlar ayniqsa puxta ishlangan, ular gul va o‘simlik naqshlari bilan, besh xil rangda bezatilgan, shakli ham chiroyli. Biroq ular Xitoy chinnisidek yengil va tiniq emas, chertilganda jarang bermaydi. Elchi buning sababini mahalliy loyning xususiyatida ko‘radi. Shuningdek, xonadonlarda derazalar rangli shisha bilan bezatilib, xonaga yorug‘lik kiritilgan [Chen Cheng, Li Xian: 69]. Bobur esa Ulug‘bek Samarqandda qurdirgan Chinnixona haqida yozib, uning devor etagidagi bezaklari butunlay Xitoydan keltirilgan chinnidan ishlanganini qayd etadi [Бобур З.М.: 57]. Ikki manbani birga o‘rganish Temuriylar davri kulolchiligi va me’moriy bezagida xitoy chinnisi bilan raqobat ham, undan foydalanish ham bir vaqtda kechganini ko‘rsatadi.

Chen Cheng qaydlarida muhandislik inshootlari ham o‘rin olgan. Oqar suv kam joylarda qishloqlar va yo‘llar bo‘yida sardobalar qurilgan. Ularning ustiga baland bino

ko‘tarilgan, ichida keng hovuz bo‘lib, devorlari g‘isht va tosh bilan qoplangan, elchi ularni muzxonaga o‘xshatgan [Chen Cheng, Li Xian: 65]. Shaharlarda erkaklar va ayollar uchun alohida hammomlar bo‘lib, ularning ichida o‘ndan ortiq gumbazli xona joylashgan [Chen Cheng, Li Xian: 65–66]. Bobur ham Ulug‘bek qurdirgan Mirzo hammomining sahni turli toshlardan terilganini yozadi [Бобур З.М.: 56]. Elchi Xitoyda ko‘rmagan shamol tegirmonini esa batafsil tasvirlaydi. Tegirmon baland joyga qurilib, to‘rt tomoniga eshik ochilgan, eshik oldiga shamolni ichkariga yo‘naltiruvchi devor qo‘yilgan, o‘rtadagi tik ustun shamol qaysi tomondan essa ham aylanib, toshni harakatga keltirgan [Chen Cheng, Li Xian: 66–67]. Bu tavsif Xuroson shamol tegirmonlarining XV yuzyillik boshidagi tuzilishini qayta tiklash uchun asos bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, Chen Cheng qaydlari Temuriylar sulolasi davri me’moriy yodgorliklarini o‘rganishda mustaqil va ishonchli manba hisoblanadi. Ularda binolarning qurilish materiali, tom yopish usuli, bezak turlari va 1415-yildagi holati qayd etilgan. Bu ma’lumotlar “Boburnoma” va zamonaviy tadqiqotlar bilan qiyoslanganda Bibixonim masjidi, Oqsaroy va Hirotdagi Shohrux madrasasi kabi yodgorliklarning dastlabki ko‘rinishini aniqlashtirishga yordam beradi. Shu bois Chen Cheng asarlarini o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilish va ulardagi me’moriy ma’lumotlarni tarixchi va san’atshunoslar hamkorligida tizimlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобур З.М. Бобурнома / Ҳозирги ўзбек тилига В. Раҳмонов ва К. Муллахўжаева табдил қилган. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 288 б.

2. 陈诚，李暹．西域行程记；西域番国志[M]//国立北平图书馆善本丛书第一集. 北平：国立北平图书馆，1937. [Chen Cheng, Li Xian. G‘arbiy o‘lkaga safar kundaligi; G‘arbiy o‘lkadagi boshqa yurtlar bayoni // Milliy Beypin kutubxonasi nodir kitoblar to‘plami, 1-seriya. – Beypin: Milliy Beypin kutubxonasi, 1937.]

3. Fan C. The Timurid Regions and Moghulistan through the Eyes of a Ming Diplomat: An Annotated Translation of the Xiyu fanguo zhi and Selected Poems by Chen Cheng (1415) // Journal of the Economic and Social History of the Orient. – 2023. – Vol. 66. – P. 795–884.

4. 王继光. 中国西部文献题跋[M]. 兰州：兰州大学出版社，2014. [Wang Jiguang. G‘arbiy Xitoyga oid yozma manbalarga so‘zboshi va xotimalar. – Lanzhou: Lanzhou University Press, 2014.]

QORAXONIYLAR DAVRI ILM VA TABOBAT MUASSASALARI: YOZMA MANBA, ATAMA VA VAQFNOMA DALILLARI

Jo‘rayeva Muxlisa
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
“Psixologiya va pedagogika” kafedrasi magistranti
+998 93 961 66 74

Annotatsiya: Maqolada XI asr Qoraxoniylar davri ilm va tabobat muassasalari uch qatlamli dalil asosida tahlil qilinadi. “Qutadg‘u bilig” me’yorni, “Devonu lug‘ati-t-turk” kasbiy atamani, Samarqanddagi bimaristan vaqfnomasi esa amaldagi holatni ko‘rsatadi. Uch dalil turining birlashuvi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Qoraxoniylar, Samarqand, bimaristan, vaqfnoma, otachi, sag‘un, toyin, bilga, tabobat, ziyolilar tabaqasi, yozma manba, moddiy meros.

Tarixiy va madaniy merosni o‘rganishda muassasa masalasi alohida qiyinchilik tug‘diradi. Bino saqlanib qolishi mumkin, biroq uning ichida qanday kasb egalari ishlagani, ular qanday nomlangani va qanday ta’minlangani binoning o‘zidan anglashilmaydi. Bu ma’lumotni faqat yozma dalil beradi. Quyida XI asr Qoraxoniylar davri ilm va tabobat muassasalari uch turdagi dalil, ya’ni me’yoriy matn, lug‘at atamasi va vaqfnoma hujjati asosida ko‘rib chiqiladi.

Birinchi qatlamni Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni beradi. Asarda olimlar va faqihlar jamiyatda halolni haromdan ajratuvchi asosiy mezon sifatida ta’riflanadi, ular haqiqat va davlat uyining bosh tirgovichi hamda ustuni deb ataladi. Muallif ularsiz ilmu ma’rifat bu olamda insonlarga yo‘l ko‘rsatuvchi mash’al bo‘la olmasligini uqtiradi. Tabiblar toifasi esa alohida qatlam sifatida keltirilib, har bir tirik inson kasallanishi muqarrar ekani, shu bois tabiblarni saroyga va xalqqa yaqin tutish lozimligi bayon etiladi. Yosh va tajriba bilan qo‘lga kiritilgan martaba o‘ge atamasi orqali ifodalanib, aqlli va hayotni teran anglovchi keksa kishilardan doimo maslahat olish kerakligi uqtiriladi [Юсуф Хос Ҳожиб: 1995].

Bu qatlamning o‘ziga xosligi shundaki, u me’yor beradi. Doston kasb egalarining nomini emas, ularga qanday munosabatda bo‘lish kerakligini bayon etadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham dostonning bu jihati ilmiy va ziyoli martabaning jamiyat iyerarxiyasida daxlsiz o‘rin egallagani dalili sifatida baholanadi [Мусаметов Б., Эркинова С.: 555].

Ikkinchi qatlamni Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” qomusi beradi. Uning qiymati beixtiyorligidan kelib chiqadi, chunki muallif kasblar haqida yozmagan, u so‘z izohlagan. Tabiblik amaliyoti otachi so‘zi orqali ifodalanadi va muallif bu atamaning aniq qo‘llanish holatini ko‘rsatib beradi, ya’ni u insonda ko‘zga

tushgan pardani maxsus vositalar bilan jarrohlik yo‘li orqali davolovchi tajribali tabibga nisbatan ishlatilgan [Маҳмуд Кошғарий: 406].

Bu qayd tibbiyot tarixi uchun nihoyatda qimmatli. Undan XI asr turkiy tabiblari katarakta operatsiyasini bajara olgani va buning uchun maxsus asboblar qo‘llagani anglashiladi. Bunday ma’lumot “Qutadg‘u bilig” matnidan chiqmaydi, chunki she’riy nasihatning vazifasi jarrohlik usulini tavsiflash emas. Shu tariqa ikki manba mehnat taqsimotini namoyon etadi, ya’ni biri kasbning ijtimoiy zarurligini asoslaydi, ikkinchisi uning amaliy mazmunini qayd etadi.

Qomusdagi yana ikkita atama ilmiy tabaqaning ichki tuzilishini ochib beradi. Sag‘un so‘zi qarluq qabilasi keksalari va e’tiborli oqsoqollarining hurmatli laqabi ekani, shuningdek turkiy tabiblarga nisbatan ala sag‘un shaklida qo‘llangani qayd etiladi [Маҳмуд Кошғарий: 671]. Demak tabiblik martabasi yosh va tajriba bilan bog‘langan, bu esa “Qutadg‘u bilig”dagi o‘ge tushunchasi bilan mazmunan mos keladi. Toyin so‘zi esa islom dinida bo‘lmagan boshqa e’tiqod jamoasi va ibodatxonasining boshlig‘ini bildiradi, muallif bunday shaxsni musulmon olimlari va muftiylari darajasidagi kishi deb ochiq ta’kidlaydi [Маҳмуд Кошғарий: 456].

Oxirgi qayd alohida diqqatga sazovor. Diniy e’tiqod jihatidan yot hisoblangan ruhoniy ilmiy va ijtimoiy martaba bo‘yicha musulmon olimiga tenglashtirilmoqda. Bu XI asr Qoraxoniylar jamiyatidagi ilmiy martabaga munosabat e’tiqoddan ustun turganini ko‘rsatadi va zamonaviy tadqiqotlarda ham shu tarzda talqin qilinadi [Amonov E. A.: 253].

Uchinchi qatlam hujjatli dalildir va aynan u tahlilni moddiy merosga bog‘laydi. Qoraxoniy hukmdori Ibrohim Tamg‘achxon tomonidan poytaxt Samarqandda barpo etilgan kasalxona, ya’ni bimaristan vaqfnomasi hujjatlarida bosh shifokor va tabib barcha xodimlar orasida eng yuqori haq oluvchi shaxs ekani qayd etilgan [Мусаметов Б., Эркинова С.: 557].

Bu hujjatning ahamiyati ikki tomonlama. Birinchidan, u “Qutadg‘u bilig”dagi moddiy homiylik talabini nazariy da’vatdan amaldagi davlat siyosatiga aylantiradi. Doston tabiblarni qadrlashni tavsiya qilgan edi, vaqfnoma esa bu tavsiya haqiqatan bajarilganini, ustiga-ustak maosh tizimining eng yuqori nuqtasida turganini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, gap aniq shahardagi aniq bino haqida bormoqda, ya’ni Samarqand bimaristani O‘zbekiston hududidagi moddiy meros obyekti sifatida qaraladi. Shu tariqa matn, atama va hujjat bir nuqtada uchrashadi.

Shu bilan birga uch qatlamni qiyoslash me’yor bilan voqelik orasidagi tafovutni ham ko‘rsatadi. Manbalarda qayd etilishicha, taniqli qozi Ahmad ibn Mansur al-Ispijobiy vafotidan so‘ng uning kutubxonasidan Samarqand muftiylarining fiqhiy

xatolarini ko‘rsatuvchi fatvolar saqlangan sandiq topilgan, biroq marhum olim tiriklik chog‘ida ularni oshkor qilishga jur‘at eta olmagan [Мусаметов Б., Эркинова С.: 556]. Faqih Abul Yusr al-Pazdaviy esa saroy zodagonlari tazyiqi tufayli Samarqand ilmiy muhitini vaqtincha tark etishga majbur bo‘lgan.

Eng keskin misol 1161-yilga tegishli. Qoraxitoylar hukmronligi davrida mahalliy musulmonlarga kengroq huquqlar berilishini talab qilgani uchun olim as-Sayyid Nosiriddin Abul Qosim Muhammad ibn Yusuf al-Husayniy as-Samarqandiy Samarqandda qatl etilgan [Мусаметов Б., Эркинова С.: 556]. Demak “Qutadg‘u bilig”da tasvirlangan daxlsiz hurmat amalda har doim ham ta’minlanmagan. Tadqiqotchi uchun bu holat muhim, chunki me’yoriy matnni tarixiy voqelik sifatida o‘qish xato bo‘lishini ko‘rsatadi.

Qomusning tadqiqotchilik uslubi haqida ham qayd etish lozim. Muallif lug‘at so‘zlarining ma’no qirralarini isbotlash uchun yuzlab she’riy misralar va to‘rtliklarni keltiradi, ular orasida Alp Er Tunga motamiga bag‘ishlangan marsiya alohida o‘rin tutadi [Düzgün D.: 207-208]. Asarning muqaddima qismidagi metodologik mulohazalar esa davr ziyolilarining aniq fanlar va lisoniyotga akademik mas’uliyat bilan yondashganini ko‘rsatadi [Düzgün D.: 202].

Xulosa

XI asr Qoraxoniylar davri ilm va tabobat muassasalarini o‘rganishda uch turdagi dalil bir-birini to‘ldiradi. “Qutadg‘u bilig” me’yorni beradi, ya’ni olim va tabibga qanday munosabatda bo‘lish kerakligini. “Devonu lug‘ati-t-turk” kasbiy atamani va uning amaliy mazmunini beradi, jumladan otachi so‘zi orqali katarakta jarrohligi, sag‘un orqali tabiblik martabasining yosh bilan bog‘liqligi, toyin orqali esa e’tiqoddan qat’i nazar ilmiy martabaning tan olinishi. Samarqand bimaristani vaqfnomasi esa me’yorning amalda bajarilganini hujjat bilan tasdiqlaydi.

Bundan kelib chiqadigan metodik xulosa quyidagicha. Muassasa tarixini faqat bino yoki faqat matn orqali tiklab bo‘lmaydi. Me’yoriy matn nima bo‘lishi kerakligini, lug‘at kasbning tildagi nomi va mazmunini, vaqfnoma esa amaldagi moliyaviy va tashkiliy holatni ko‘rsatadi. Uchala dalil turi birlashganda Samarqand bimaristani kabi obyekt shunchaki qurilma emas, muayyan kasb egalari muayyan tartibda ishlagan tirik muassasa sifatida namoyon bo‘ladi. Tarix va san’atshunoslik hamkorligi aynan shu nuqtada amaliy natija beradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. Amonov E. A. Social Condition of the Population During the Qarakhani Period // Synapses: Insights Across the Disciplines. – 2025. – Vol. 2, Issue 11. – P. 250–256.

2. Biran M. Qarakhanid Studies: A View from the Qara Khitai Edge // Cahiers d’Asie centrale. – 2001. – № 9. – P. 77–89.

3. Düzgün D. Divanü Lügati’t-Türk’te Sosyal Normları Karşılayan Kavramlar // A. Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. – Erzurum, 2007. – Sayı 35. – S. 199–212.

4. Eglar Z., Magnarella P. J. A View of Social Classes in the Eleventh Century Karakhanid State // Anthropos. – 1971. – Bd. 66, H. 1/2. – P. 235–242.

5. Genç R. Karahanlı Devlet Teşkilâtı (XI. Yüzyıl). – Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1981. – 366 s.

6. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. I–III жилдлар / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. – Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1960–1963.

7. Мусаметов Б., Эркинова С. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асарида Қорахонийлар даври аҳолисининг ижтимоий қатламларининг ёритилиши // Oriens. – 2025. – № 5(22). – 553–560-бетлар.

8. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим) / Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – 964 б.

ИЗ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ БАКАЛЕЙНОЙ ТОРГОВЛИ И РЫНОЧНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА)

Каримова Наргиза Икрамовна
доктор философии (PhD) по истории, докторант
Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, Ташкент, Узбекистан.
E-mail: nargiz_82_88@mail.ru;
ORCID: 0000-0002-1276-963X

Аннотация. В статье на основе архивных документов рассматривается история строительства торговых лавок и развития торговой инфраструктуры Центральной Азии во второй половине XIX - начале XX века. Особое внимание уделяется архитектурным проектам, базарам и организации бакалейной торговли.

Ключевые слова: история торговли, торговая архитектура, Центральная Азия, Туркестан, базары, торговые лавки, бакалейная торговля, архитектурные проекты, торговая инфраструктура, строительство, ярмарки, Самарканд, Ташкент, Коканд, Андижан.

ВВЕДЕНИЕ

История развития торговли в Центральной Азии тесно связана с формированием соответствующей торговой инфраструктуры. Организация торговли предполагала не только непосредственную реализацию различных видов товаров, но и наличие специально предназначенных для этого помещений - торговых лавок, базаров, ярмарочных сооружений и других объектов. Поэтому изучение истории торговли представляет особый интерес во взаимосвязи с развитием архитектуры торговых сооружений. Архивные документы позволяют рассмотреть данный процесс на конкретных примерах Ташкента, Самарканда, Коканда, Андижана и других торговых пунктов региона.

Цель статьи - на основе представленных архивных документов рассмотреть отдельные аспекты истории развития торговой архитектуры и бакалейной торговли в Центральной Азии во второй половине XIX - начале XX века, выявив взаимосвязь между строительством торговых сооружений, формированием городской торговой инфраструктуры и организацией торговли. Для достижения поставленной цели рассматриваются архивные материалы, характеризующие устройство ярмарочных помещений в Ташкенте, строительство торговых лавок в Самарканде, Коканде и Андижане, а также документальные сведения об организации бакалейной и керосиновой торговли на станции Зирабулак.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

В документе от 15 июня 1882 года, посвящённом ярмарочной инфраструктуре Ташкента, поднимался вопрос об отчётности по расходам на устройство ярмарочных помещений. В Контрольной палате отсутствовало значительное количество счетов и документов, подтверждавших расходы на строительство ярмарочных помещений в Ташкенте [Сырдарьинское областное правление, л. 1–1 об.].

Этот материал свидетельствует о наличии специальных помещений для деятельности ярмарки и о том, что их строительство сопровождалось административно-финансовым контролем. Таким образом, формирование торгового пространства включало не только возведение сооружений, но и учёт расходов и ведение соответствующей отчётности.

В рапорте от 28 мая 1872 года по Самарканду отмечалось, что в 1868 году по просьбе некоторых купцов было разрешено построить лавки в Самаркандской цитадели. Купцы получили право пользоваться ими на определённых условиях с последующей передачей в казну; в документе

указывалось, что данное обязательство было исполнено [Канцелярия Туркестанского генерал-губернатора, л. 7].

В продолжении того же документа сообщалось, что в 1869 году отставной фельдфебель 6-го батальона Григорий Быстров обратился с просьбой разрешить строительство гостиницы для проезжающих в том же квартале, где находились лавки. Такое заведение было признано полезным для цитадели, и для него было отведено место напротив лазарета [Канцелярия Туркестанского генерал-губернатора, л. 7]. Эти сведения показывают соседство торговых и обслуживающих сооружений в городской среде.

Документы о Воскресенском базаре в Коканде содержат конкретные сведения о техническом состоянии торговых помещений и проектах нового строительства. В связи с ветхостью существовавших торговых помещений городской архитектор Маурер по поручению городского хозяйственного управления подготовил эскизы строительства 11 новых лавок. Предполагаемая стоимость строительства составляла от 17 500 до 19 250 рублей, а ожидаемый ежегодный доход от эксплуатации лавок - не менее 2 200 рублей [Канцелярия Туркестанского генерал-губернатора, л. 1].

Эти данные показывают взаимосвязь архитектурного проектирования, сметного расчёта и предполагаемой экономической отдачи торговых сооружений. Эскизы были рассмотрены и одобрены Строительным отделением, а составление плана и сметы предполагалось после их утверждения. Следовательно, строительство базарных лавок проходило через последовательные стадии проектирования и административного согласования.

В другом документе, связанном со строительством на Воскресенском базаре Коканда, сообщалось о назначении торгов и переторжки на отдачу подряда по строительству лавок. Торг должен был начаться со сметной суммы 20 707 рублей 98 копеек; предложения принимались устно либо посредством запечатанных объявлений [Ферганское областное правление, л. 26].

Пояснительная записка по старогородскому базару Андижана раскрывает непосредственно архитектурно-планировочные особенности торговых сооружений. Документ относился к отчёту и смете по строительству 25 лавок и фиксировал изменения между утверждённым проектом и фактически возведённым зданием. Постройка была вытянута и сужена, наружный периметр тротуара уменьшен на 0,5 сажени, ширина террасы со двора - на 0,08 сажени, а её наружный периметр - на 2,25 сажени; площадь постройки с террасой стала меньше на 10,5 квадратной сажени. Наружные ступени были заменены

внутренними, был добавлен общий коридор для трёх лавок и устроено пять люков в подвалы [Ферганское областное правление, л. 18].

В документе причиной этих изменений называлось неправильное первоначальное измерение участка, предназначенного под лавки, с захватом частей двух прилегающих улиц. Поэтому при разбивке здания пришлось перегруппировать расположение лавок и отказаться от наружных ступеней на тротуары, по возможности сохранив размеры утверждённого проекта и минимальную ширину боковых и задней улиц. Общий вид фасада, за исключением окон, не изменялся [Ферганское областное правление, л. 18].

Материалы по Андижану особенно важны для изучения истории торговой архитектуры, поскольку в них зафиксированы не только количество лавок, но и изменения периметра здания, террасы, ступеней, коридоров, подвальных люков и фасада. Эти сведения позволяют проследить практическую корректировку проекта торгового сооружения в процессе строительства.

Связь торговых сооружений с непосредственной торговой деятельностью прослеживается в документе 1915 года по станции Зирабулак. Персидско-подданный Таджиали Кербалай Ага оглы обратился к Российскому императорскому политическому агенту в Бухаре с просьбой разрешить ему открыть при станции Зирабулак Средне-Азиатской железной дороги бакалейную и керосиновую торговлю. В документе также отмечена пошлина в размере 1 рубля 50 копеек за соответствующее удостоверение [Российское императорское политическое агентство в Бухаре, л. 58].

Этот источник позволяет непосредственно соединить архитектурное и торговое направления темы. Если документы по Ташкенту, Самарканду, Коканду и Андижану характеризуют материальную основу торговли - ярмарочные помещения, базары и лавки, - то материал по Зирабулаку отражает административную сторону открытия именно бакалейной и керосиновой торговли.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Рассмотренные архивные документы показывают различные стороны развития торговой инфраструктуры Центральной Азии во второй половине XIX - начале XX века. Материалы по Ташкенту отражают финансовую отчётность строительства ярмарочных помещений; документы по Самарканду - строительство лавок с участием купцов; источники по Коканду - проектирование новых торговых помещений, их стоимость, ожидаемую доходность и организацию подрядных торгов; материалы по Андижану -

конкретные изменения архитектурно-планировочных решений при строительстве 25 лавок.

Документ по станции Зирабулак дополняет эту картину сведениями об организации бакалейной и керосиновой торговли. Совокупность источников позволяет рассматривать историю торговли во взаимосвязи с историей архитектуры: лавки, базары и ярмарочные помещения являлись материальной основой организации торговой деятельности.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ИСТОЧНИКИ

1. Канцелярия Туркестанского генерал-губернатора. И-1, оп. 12, д. 332. О постройке новых лавок в городе Коканде, Ферганской области. Л. 1.
2. Канцелярия Туркестанского генерал-губернатора. И-1, оп. 16, д. 445. Постройка лавок в Самаркандской цитадели. 1869–1872 гг. Л. 7.
3. Российское Императорское Политическое агентство в Бухаре. И-3, оп. 1, д. 800. О разрешении разным лицам построек мукомольных мельниц, об открытии бакалейной торговли и др. вопросы. Л. 58.
4. Сырдарьинское областное правление. И-17, оп. 1, д. 14099. О доставлении в Контрольную палату отчётности по постройке в Ташкенте. 1882 г. Л. 1–1 об.
5. Ферганское областное правление. И-19, оп. 1, д. 31812. О постройке 11 лавок на Воскресенском базаре в городе Коканде. 1904–1908 гг. Л. 26.
6. Ферганское областное правление. И-19, оп. 2, д. 1031. Пояснительная записка к отчёту по постройке 25 лавок на базаре Гультюбинской площади города Андижана. 1914 г. Л. 18.

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARIDAGI TARIXIY-DEMOGRAFIK JARAYONLAR.

Mirzaliyev Ulug‘bek
Guliston davlat pedagogika instituti
Tarix fafedrasi dotsenti, t.f.b.f.d (PhD)
+99897 247 88 40

Annotatsiya: maqolada Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridagi 1956-1980 yilardagi tarixiy demografik jarayonlar, jumladan tug‘ilish, nikoh, ajralish tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oila, aholi, demografiya, tug‘ilish, nikoh, ajralish,

Demografik jarayonlar tarkibida oila alohida ahamiyat kasb etadi.Oila aholi takror barpo bo‘lishining demografik zamini hisoblanadi.Tug‘ilish va o‘lim jarayoni oila takror barpo bo‘lishining asosiy elementi hisoblanadi.

Aholini takror barpo bo‘lishida birinchi navbatda oila shakllanishi katta ahamiyat kasb etadi.Ma’lumki, aholi asosan oilada dunyoga keladi va u shaxs sifatida shakllanib o‘zining demografik faoliyatini boshlaydi(1:14). Aholini takror barpo etish jarayonida uning jinsiy tarkibi muhim o‘rin egallaydi.Tug‘ilgan bolalar orasida qizlarning ulushi 0,480-0,490, o‘g‘il bolalarning 0,510-0,520 (jami 1 ta) deb qabul qilgan(2:162).

Demograflar A.B.Sinelnikov va V.A.Borisovlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, bir avlodning o‘rnini ikkinchi bir avlod davom etirishi uchun har bir tug‘ish yoshidagi (16-49yosh) ayolga 2,6 ta bola to‘g‘ri kelishi kerak ekan.Shundagina muayan aholining ko‘payishi emas, balki uni ma’lum sonda ushlab turishga erishish mumkinligini ta’kidlagan(3:25).

Oila paydo bo‘lishi va rivojlanishini ilmiy o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, oilaning tashkil bo‘lishida asosiy omil nikoh-hisoblanadi.Nikoh arabcha “uylanish” ma’nosini anglatadi.Nikoh-erkak bilan ayol oila qurishining tarixan shakllangan va qonun va din tomonidan mustahkamlangan shakllidir(4:70).

Sirdaryo va Jizzax viloyatlari O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy madaniy hayotida o‘z o‘rniga ega hududlardan hisoblanadi.Bu viloyatlargi tarixiy-demografik jarayonlarni o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan ushbu viloyatlardagi tug‘ilish,o‘lim,nikoh,ajralish jarayonlarini tahlil qilamiz. 1958-yil Jizzax shahrida 577 ta tug‘ilish qayd qilingan,139 ta o‘lim qayd qilinib, shundan 56 tasini ayollar tashkil qilgan.Jizzax shahrida 193 ta nikoh, 10 ta ajralish sodir bo‘lgan. 1958-yil viloyatda eng ko‘p nikoh G‘allaorol tumanida 611 ta, eng kam nikoh Obruchevo (hozirgi Dashtobod)da 36 tani tashkil qilgan.Shu davrda qayd qilingan nikohlarning asosiy qismi turli millat vakillari orasida qayd qilingan.

1958-yilda Jizzax viloyada ajrashishlar Jizzax shahrida 10ta, G‘allaorol tumanida 1ta, Forish tumanida 2 ta qayd qilingan. (5:78). Lekin, Qo‘ytosh, Jizzax, Zomin tumanlarida ajralish qayd qilinmagan. Bu shundan dalolat beradiki, o‘zbek milliy mentalitetida oila muqaddas dargoh ekanligini yaxshi anglaganligidan dalolat beradi. Hamda oila qurganlarning katta qismi ikkinchi jahon urushi davri qiyinchiliklarinini boshidan kechirganlardir. 1958-yil Sirdaryo viloyatining Mirzacho‘l shahrida (hozirgi Guliston) 614 kishi tug‘ilib, 145 kishi o‘lgan, shundan 86 ta erkak, 59 ta ayollardir. Sirdaryo viloyati hududida 1958-yil eng ko‘p tug‘ilish Boyovut tumanida 2124 ta, eng

ko‘p o‘lim Sirdaryo tumanida 194 ta, eng ko‘p nikoh Sirdaryo tumanida 841 ta, eng ko‘p ajralish Yangiyer shahrida 5 tani tashkil qilgan(6:74).

Boyovut, Xovost tumanlarida ajralish qayd etilmagan. Shu yili Jizzax viloyatiga nisbatan Sirdaryo viloyatida ajralishlar ko‘p bo‘lgan. Bunga asosiy sabab, Mirzacho‘lni o‘zlashtirish uchun turli hududlardan aholi safarbar qilindi. Kelgan aholining ko‘pgina qismi boshqa millat vakillari edi. 1959-yilgi ma’lumotlarga qaraganda O‘zbekistonda yuz yoshdan oshganlar 787 kishi bo‘lgan, shundan 573 tasi ayol, 214 tasi erkakni tashkil qilgan(7:4). 1959-yili Sirdaryo viloyatida yuz yoshdan oshganlar 17 tani tashkil qilib, shundan-14 tasi ayol, 3 tasi-erkakni tashkil qilgan(8:28). Sirdaryo viloyati shaharlarida o‘sha yili yuz yoshdan oshganlar 6 tani tashkil qilgan bo‘lsa, bu qishloqlarda 11 tani tashkil qilgan.

Qiziqarli tomoni shundan iboratki,shaharlardan yuz yoshdan oshganlarning hammasi ayollardir. 1959-yil Sirdaryo viloyatida nikohga kiruvchilarning yoshi erkaklarda 22-24 yosh,ayollarda 18-20 yoshni tashkil qilgan. 1973-yilda Jizzax viloyatida 25-29 yoshda erkaklarda 44 ta ajralish, 30-34 yoshdagi erkaklarda-38 ta ajralish, 35-39 yoshli erkaklarda 33 ta ajralish, 40-49 yoshdagi erkaklarda 19 ta ajralish, 50-59 yoshli erkaklarda 3 ta ajralish, 20-24 yoshli erkaklarda 20 ta ajralish sodir bo‘lib, 5yildan-9yilgacha yashab ajrashgan erkaklarda 61 tani,bular 25-29 yoshlilar 20 ta, 30-34 yoshlilar-21 ta,35-39 yoshlilar-9tani, 40-49 yoshlilar 7tani, 20-24 yoshlilar-4 tani tashkil qilgan(9:5). Bundan shuni aytish mumkinki, asosan 25-29 yoshli erkaklarda ajralish ko‘proqni tashkil qilgan. Bunga asosiy sabab, oilaning ayrim qiyinchiliklariga sabrli bo‘laolmaganligi va befarzanlik sabab bo‘lgan. 1973-yil viloyatida ajralishlarda ayollarning salmog‘i, 20-24 yoshdagilarda-45ta, 25-29 yoshdagilarda-38ta, 30-34 yoshdagilarda-36ta, 35-39 yoshlilarda-25ta, 40-49 yoshlarda-10ta, 50-59 yoshdagilarda-1ta, 18-19 yoshdagilarda-3tani tashkil qilgan. Viloyat hududidagi ajrashgan ayollarning asosiy qismi 20-24 yoshlilardir. Buni asosiy sabablaridan farzandsizlik va iqtisodiy muammolar tashkil qilgan.Sirdaryo viloyatida 1973-yildagi ajralishlarning tahlil qilar ekanmiz, bunda 30-34 yoshli erkaklarda-91ta, 35-39yoshlilarda-61ta, 25-29 yoshlilarda-68ta, 40-49yoshlilarda-36ta, 50-59yoshlilarda-10ta, 60yosh va undan oshganlar-1tani tashkil qilgan. Bunda asosan 30-34 yoshdagi erkaklarda ajralish ko‘p qayd qilingan. Bunga sabab,turli millat vakillarining bu hududda ko‘pchilikni tashkil qilganligidir(10:10).1976 yil Sirdaryo viloyatida 473 ta ajralish bo‘lgan bo‘lsa, Jizzax viloyatida 238tani tashkil qilgan (11:10). Bu o‘z navbatida Sirdaryo viloyatida ajralish ko‘proq sodir bo‘lganligidan dalolat bermoqda. 1977-yil Jizzax viloyatida eng ko‘p nikohga kirgan erkaklar yoshi 22yoshda,eng ko‘p nikohga kirgan ayol yoshi-19yoshni tashkil qilib,

Sirdaryo viloyatida ham,xuddi shunday holat kuzatilgan(12:5). 1979-yil Jizzax viloyatida 135ta ajrashgan, Sirdaryo viloyatida 615 ta ajrashgan. Ajralishlarning Sirdaryo viloyatida ko‘p bo‘lishiga sabab, Sirdaryo viloyatining Yangiyer, Guliston, Shirin, Sirdaryo shaharlarida aholisining katta qismi boshqa millat vakillaridan iboratligi ham viloyat hududida ajralishlarning ko‘p bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Jizzax viloyati aholisining asosiy qismi,mahalliy millat vakillaridan iborat bo‘lganligi ham ajralishlarning kamroq bo‘lishiga sabab bo‘lgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Борисов В.А. Демография. Москва., 1999 г. -С. 14.
2. Валентей Д.А,. Кваша А.Й.Основа демографии. Москва.: Мисл. 1989. -С.16
3. Журнал “Здоровё” №3, Москва, 1988. -С. 25.
4. Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. Toshkent. “Universitet” 1997. -b. 70.
5. O‘z.RDMA.Fond-1619,11-ro‘yxat,2065-ish,b. 78.
6. O‘z.RDMA.Fond-1619,11-ro‘yxat,2065-ish,b. 74.
7. O‘z.RDMA.Fond-1619,11-ro‘yxat,3173-ish,b. 4
8. O‘z.RDMA.Fond-1619,11-ro‘yxat,3173-ish,b. 28
9. O‘z.RDMA.Fond-1619,11-ro‘yxat,3368-ish,b. 5
10. O‘z.RDMA.Fond-1619,11-ro‘yxat,3368-ish,b. 10
11. O‘z.RDMA.Fond-1619,11-ro‘yxat,3629-ish,b. 10
12. O‘z.RDMA.Fond-1619,11-ro‘yxat,3727-ish,b. 5

MUMTOZ O‘ZBEK NASRIDA TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLAR TASVIRI: MUALLIF POZITSIYASI VA TARIXIY HAQIQAT TALQINI

ORCID: *0009-0003-8164-7024*
Mamatqulov Botir Jovli o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi 1-toifali muhandisi
Tel.: +998937649494
E-mail: botir@terdpi.uz

Annotatsiya: Maqolada mumtoz o‘zbek nasrida, xususan “Boburnoma” va “Shajarayi turk”da tarixiy-madaniy yodgorliklar, shaharlar va me’moriy inshootlar tasviri muallif pozitsiyasi hamda

tarixiy haqiqat mezonlari asosida tahlil qilinib, yozma manbalarning yodgorlikshunoslikdagi ilmiy ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: mumtoz nasr, tarixiy haqiqat, muallif pozitsiyasi, Boburnoma, Shajarayi turk, tarixiy manba, yodgorlik, me’morchilik, Samarqand, Axsikent, Xorazm, xotira, manbashunoslik, tarix, san’atshunoslik.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarni o‘rganishda moddiy manbalar bilan bir qatorda yozma manbalar ham alohida ilmiy qiymatga ega. Me’moriy inshoot, shahar, qal’a, masjid, madrasa, bog‘, ko‘prik, ziyoratgoh yoki boshqa tarixiy makonning fizik qiyofasi vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi, ayrim hollarda butunlay yo‘qolishi mumkin. Biroq shu obyektga zamondosh yoki unga yaqin davrda yaratilgan yozma matnlar uning nomi, joylashuvi, vazifasi, qurilish xususiyati, estetik taassuroti hamda ijtimoiy-madaniy ahamiyatini saqlab qoladi. Shu jihatdan mumtoz o‘zbek nasri nafaqat adabiy-estetik hodisa, balki tarix, manbashunoslik, me’morchilik tarixi va san’atshunoslik kesishgan nuqtadagi muhim manba majmuasi sifatida qaralishi lozim.

Mumtoz nasrda tarixiy haqiqat muallifning voqelikni qay tarzda tanlashi, tartibga solishi va baholashi bilan uzviy bog‘liq. Tarixiy matn hech qachon faktlarning mexanik ro‘yxati emas: muallif nimani muhim deb bilsa, shuni tanlaydi; ayrim hodisani keng, boshqasini qisqa yoritadi; makon va shaxsga munosabatini tasvirning o‘zidayoq ifodalaydi. Demak, bunday asarlarni o‘rganishda ikki qatlamni farqlash zarur: birinchisi — tekshirilishi mumkin bo‘lgan tarixiy-topografik yoki madaniy ma’lumot; ikkinchisi — muallifning shu ma’lumotga bergan bahosi, hissiy munosabati va badiiy talqini. Aynan shu ikki qatlam munosabati muallif pozitsiyasini ochadi va tarixiy haqiqatning adabiy shaklda qanday qayta yaratilganini ko‘rsatadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si bu masalani tadqiq etish uchun eng sermahsul manbalardan biridir. Asarda Movarounnahr, Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Kobul, Hindiston va boshqa hududlarning siyosiy voqealari bilan birga shaharsozlik, tabiiy muhit, me’moriy inshootlar, bog‘lar, suv tarmoqlari, yo‘llar va mahalliy turmushga oid ko‘plab kuzatuvlar berilgan. Boburning bayon usuli makon haqida umumiy taassurot bilan cheklanmaydi; u ko‘pincha obyektning geografik o‘rni, atrof muhit bilan aloqasi, ko‘rinishi yoki funksional belgisini ham qayd etadi. Masalan, Farg‘ona hududidagi qasabalar va Axsining Sayhun daryosiga nisbatan joylashuvi aniq ko‘rsatilishi “Boburnoma”ni tarixiy geografiya uchun muhim yozma dalilga aylantiradi [Bobur, 2002: 36]. Bunday qaydlar bugungi arxeologik va topografik ma’lumotlar bilan qiyoslanganda tarixiy makonning o‘zgarish dinamikasini tiklash imkonini beradi.

“Boburnoma”ning yodgorlikshunoslik uchun eng qimmatli jihatlaridan biri me’moriy obyektning faqat nomini emas, uning qurilish va bezak xususiyatlarini ham

eslab qolishidir. Samarqanddagi Masjidi Muqatta’ tasvirida yog‘och qismlarning bo‘laklab ishlanishi, islimiy va xitoyi naqshlar bilan bezatilishi, devor hamda shiftlarning shu usulda pardozlanishi qayd etiladi. Muallif masjid qiblasining madrasa qiblasidan farq qilishiga ham e’tibor qaratib, buni astronomik usul bilan bog‘laydi [Bobur, 2002: 57]. Bu parchada tarixiy ma’lumot, me’moriy kuzatuv va estetik tafsilot bir nuqtada birlashadi. Natijada matn inshootning o‘z davridagi qiyofasini rekonstruksiya qilishga xizmat qiladigan yozma “vizual hujjat” vazifasini bajaradi.

Boburning muallif pozitsiyasi tarixiy ishonchlilikni ta’minlashga qaratilgan ochiq metodologik tamoyilda ham ko‘rinadi. U voqealarni bayon etishda maqsad shikoyat yoki o‘zini maqtash emasligini, “har so‘zning rostini” yozishga intilganini alohida ta’kidlaydi [Bobur, 2002: 64]. Mazkur e’tirof “Boburnoma”ni mutlaq xolis manba deb qabul qilish uchun emas, balki muallifning o‘ziga qo‘ygan ichki mezonini aniqlash uchun muhimdir. Chunki Bobur voqealarning bevosita ishtirokchisi, hukmdor va manfaatdor siyosiy shaxs hamdir. Shuning uchun uning xabarlari boshqa yozma manbalar, epigrafik materiallar, arxeologik topilmalar hamda me’moriy tadqiqotlar bilan qiyosiy tekshirilishi zarur. Shunday qiyosiy yondashuv muallifning rostgo‘ylik prinsipini manbashunoslik mezonlari asosida sinash imkonini beradi.

Muallif pozitsiyasi ayniqsa tarixiy shaxs va makon tasvirida seziladi. Bobur ayrim shaharlarga nisbatan mehr, ayrim siyosiy raqiblarga nisbatan tanqid, ayrim sarkarda va ijodkorlarga nisbatan ehtirom bilan munosabat bildiradi. Biroq subyektivlik tarixiy qiymatni kamaytiradigan omil sifatida emas, manbaning ichki tuzilishini tushuntiradigan belgi sifatida talqin qilinishi kerak. Muallifning nimaga hayratlanganini, qaysi inshootni batafsil tasvirlaganini yoki qaysi jihatni e’tiborsiz qoldirganini aniqlash orqali o‘sha davrning estetik didi, hukmdorlik madaniyati va shahar haqidagi tasavvurlari haqida qo‘shimcha xulosalar chiqarish mumkin. Demak, tarixiy haqiqat bu matnlarda faqat “nima bo‘lgan?” savoliga emas, balki “zamondosh muallif bu voqelikni qanday ko‘rgan?” savoliga ham javob beradi.

“Boburnoma”da tarixiy-madaniy makon ko‘pincha inson faoliyati bilan birga tasvirlanadi. Masjid yoki madrasa alohida bino sifatida emas, hukmdor siyosati, ilmiy muhit, diniy amaliyot va shahar tuzilishining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Bog‘lar va suv inshootlari esa obodonchilik, iqlimga moslashuv va saroy madaniyati bilan bog‘lanadi. Shu sababli asardagi yodgorlik tasvirlarini faqat san’atshunoslik tavsifi sifatida o‘qish yetarli emas. Ular tarixiy antropologiya, shahar tarixi va madaniy xotira nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinishi lozim. Yozma manbadagi obyekt nomlari va tavsiflarini zamonaviy GIS xaritalari, arxeologik qatlamlar va

saqlanib qolgan me’moriy detallar bilan tutashtirish esa tadqiqotning yangi raqamli yo‘nalishlarini ochadi.

Mumtoz tarixiy nasrning yana bir muhim namunasi — Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asaridir. Muallif asarni yozish sababini tarixiy ma’lumotlarning yozilmay qolishi bilan bog‘laydi va munosib tarixnavis topilmagach, “o‘zimiz aytduq” deya ishni zimmasiga olganini bildiradi [Abulg‘ozi, 1992: 9]. Ushbu bayon muallifning tarixni avlod xotirasida saqlab qolish mas’uliyatini anglaganini ko‘rsatadi. “Shajarayi turk”da tarixiy voqealar bilan birga urug‘-qabila nomlari, ularning kelib chiqishiga oid izohlar, siyosiy munosabatlar va Xorazm tarixiga doir ko‘plab etnografik ma’lumotlar uchraydi. Masalan, ayrim etnonimlarning ma’nosi izohlanishi muallifning tarixiy voqelikni tushuntirishga, nom va hodisa o‘rtasida sababiy aloqa o‘rnatishga intilganini ko‘rsatadi [Abulg‘ozi, 1992: 29].

“Boburnoma” va “Shajarayi turk”ni qiyoslaganda, tarixiy haqiqatni ifodalashning ikki yaqin, biroq turlicha modeli ko‘rinadi. Bobur ko‘p hollarda bevosita ko‘rgan joyi, qatnashgan voqeasi yoki uchrashgan shaxsi haqida aniq kuzatuv beradi; Abulg‘ozi esa shaxsiy xotira, sulolaviy tarix, oldingi yozma manbalar va og‘zaki rivoyatlarni bir tizimga keltiradi. Shu sababli Bobur matnida topografik detallar va kuzatuvchanlik kuchli bo‘lsa, Abulg‘ozi asarida genealogik izchillik, tarixiy xotirani saqlash va nomlarning kelib chiqishini sharhlash yetakchi xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki holatda muallif pozitsiyasi faktning matnga kirish usulini belgilaydi; shu bois manbani tanqidiy o‘qish uning ilmiy qiymatini pasaytirmaydi, aksincha, fakt va talqin chegarasini aniqroq belgilaydi.

Tarixiy-madaniy yodgorliklarni zamonaviy tadqiq etishda bunday nasriy manbalardan foydalanishning amaliy algoritmi ham muhim. Avvalo, matndan obyektga oid toponim, inshoot nomi, qurilish materiali, bezak turi, joylashuv va funksiyaga doir birliklar ajratiladi. Keyin ular davrning boshqa yozma manbalari bilan solishtiriladi. Uchinchi bosqichda arxeologik hisobot, restavratsiya hujjati, epigrafik yozuv yoki saqlanib qolgan me’moriy obyekt bilan muvofiqlik tekshiriladi. Shundan so‘nggina muallifning badiiy bahosi va hissiy munosabati alohida tahlil qilinadi. Bunday tartib tarixiy faktni adabiy taassurotdan ajratish bilan birga, ularning o‘zaro bog‘lanishini ham yo‘qotmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda qisman saqlangan yoki yo‘qolgan obyektlarni o‘rganishda yozma tasvir restavratsiya konsepsiyasi uchun bevosita dalil bo‘la olmasa ham, ilmiy gipoteza tuzish uchun muhim tayanch vazifasini bajaradi.

Mumtoz nasriy manbalar san’atshunoslik tadqiqotlari uchun ham metodik imkoniyat yaratadi. Muallif ishlatgan “naqsh”, “imorat”, “masjid”, “madrasa”, “bog‘”, “qal’a” singari birliklar bir tomondan real obyektni anglatadi, ikkinchi tomondan davrning estetik tasnifini aks ettiradi. Masalan, Boburning Masjidi Muqatta’ bezagiga oid qaydi naqshning texnik bajarilish usuli bilan birga uning ko‘rkamlik qiymatini ham bildirib turadi [Bobur, 2002: 57]. Bu jihat tarixchi uchun qurilish faktini, san’atshunos uchun bezak tizimini, adabiyotshunos uchun esa tasvir usulini beradi. Fanlararo yondashuvning samarasi aynan shu ko‘p qatlamli ma’lumotni bitta metod doirasiga siqib qo‘ymasdan, har bir fan mezoni bilan tekshirishda namoyon bo‘ladi.

Bunday manbalarni raqamli gumanitar tadqiqotlarga jalb etish ham istiqbolli yo‘nalishdir. Mumtoz nasrdagi tarixiy joy nomlari raqamli xaritada belgilansa, matn ichidagi makonlar harakati va muallifning geografik ko‘lami vizual ko‘rinadi. Yodgorlik va inshootlarga oid tavsiflar semantik teglar bilan belgilansa, “me’morchilik”, “bezak”, “suv inshooti”, “diniy bino”, “mudofaa obyekti” kabi guruhlar bo‘yicha korpus tahlili amalga oshirilishi mumkin. Bunda matnning asl nusxasi, ilmiy nashri va zamonaviy transliteratsiyasi o‘rtasidagi farqlar ham hisobga olinishi kerak. Chunki bitta harf yoki toponimdagi xato geografik identifikatsiyani o‘zgartirishi mumkin. Demak, raqamlashtirish manbashunoslik aniqligini almashtirmaydi; u faqat tekshirilgan matn asosida yangi tahlil imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz o‘zbek nasrida tarixiy-madaniy yodgorliklar tasviri fakt, xotira va badiiy idrokning birikmasidan tashkil topadi. “Boburnoma”dagi topografik aniqlik, me’moriy tafsilot va muallifning rostgo‘ylik tamoyili, “Shajarayi turk”dagi tarixiy xotirani saqlash mas’uliyati va izohlovchi bayon usuli bu asarlarning tarix hamda san’atshunoslik uchun manbaviy salohiyatini belgilaydi. Ularni tanqidiy-qiyosiy metod asosida o‘rganish yozma ma’lumotni arxeologik va me’moriy dalillar bilan bog‘lash, yo‘qolgan yoki o‘zgargan tarixiy makonlar haqida asosli ilmiy tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shu ma’noda mumtoz nasr tarixiy-madaniy merosni anglashda ikkilamchi badiiy qo‘shimcha emas, balki moddiy yodgorliklarning tarixiy kontekstini tiklovchi muhim yozma manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarayi turk. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – 192 b.
2. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2002. – 336 b.
3. Bo‘riyev, O. “Boburnoma”dagi toponimlar izohli lug‘ati. – Toshkent: Navro‘z, 2015.
4. Turdibekov, M.T. “Shajarayi turk” onomastikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020.

5. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. Qayta ishlangan ikkinchi nashr. – Toshkent: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2017. – 688 b.

FARHOD GES - O‘ZBEKISTONNING XX ASR SANOAT VA MUHANDISLIK MEROSI OBYEKTI SIFATIDA

Mavlanov A.O.
Guliston davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
Tel: +998 91 809 80 59

Annotatsiya: Ushbu tezisda Farhod GESning qurilish tarixi, muhandislik xususiyatlari, energetika tizimidagi o‘rni hamda O‘zbekistonning XX asr sanoat va muhandislik merosi obyekti sifatidagi tarixiy ahamiyati mavjud manbalar asosida ilmiy jihatdan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Farhod GES, Sirdaryo, energetika, gidroenergetika, sanoat merosi, muhandislik merosi, elektr energiyasi, gidroinshoot, Mirzacho‘l, Bekobod, elektrlashtirish, sanoatlashuv, tarixiy meros, infratuzilma, modernizatsiya.

Kirish. XX asrda O‘zbekistonda amalga oshirilgan elektrlashtirish jarayonlari mamlakatning sanoat va qishloq xo‘jaligi taraqqiyotida muhim o‘rin egalladi. Yirik energetika inshootlarining barpo etilishi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi yerlarni o‘zlashtirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qildi. Shu jihatdan Sirdaryo daryosi bo‘yida bunyod etilgan Farhod gidroelektr stansiyasi O‘zbekiston energetika tizimi tarixidagi yirik muhandislik inshootlaridan biri hisoblanadi. Farhod GESni qurishning texnik-iqtisodiy masalalari 1940-yilda o‘rganila boshlangan bo‘lib, Ikkinchi jahon urushi sharoitiga qaramasdan, 1942-yil 18-noyabrda uning qurilishi to‘g‘risida qaror qabul qilingan. 1943-yildan boshlangan bunyodkorlik ishlari yirik mehnat resurslari va murakkab muhandislik yechimlarini talab qilgan. Inshoot elektr energiyasi ishlab chiqarish bilan bir qatorda Mirzacho‘l hududini suv bilan ta’minlash va sanoat korxonalarining energetik ehtiyojlarini qondirishga ham yo‘naltirilgan edi.

Shu sababli Farhod GES tarixini faqat energetika sohasi doirasida emas, balki XX asr O‘zbekistonining sanoat va muhandislik merosi nuqtayi nazaridan ham tadqiq etish muhimdir. Mazkur maqolada Farhod GESning qurilish tarixi, muhandislik xususiyatlari va tarixiy ahamiyatini mavjud manbalar asosida yoritish hamda uning O‘zbekiston sanoat merosidagi o‘rnini ochib berish maqsad qilingan.

Asosiy qism. Farhod gidroelektr stansiyasining barpo etilishi O‘zbekistonda XX asrning birinchi yarmida amalga oshirilgan elektrlashtirish va sanoatlashtirish

jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. 1940-yillarga kelib respublikada yirik quvvatli elektr stansiyalariga ehtiyoj sezilarli darajada ortdi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi davrida sanoat korxonalarining O‘zbekistonga ko‘chirilishi elektr energiyasiga bo‘lgan talabni yanada kuchaytirdi. Shu sharoitda Chirchiq–Bo‘zsuv yo‘nalishida energetika inshootlari qurilishi bilan bir qatorda Sirdaryoning o‘rta oqimidagi gidroenergetik imkoniyatlardan foydalanish masalasi ham kun tartibiga qo‘yildi [Азимов Р.Э.: 46]. Farhod GESni qurish va uning texnik-iqtisodiy imkoniyatlarini o‘rganish 1940-yilda O‘rta Osiyo Gidroenergetika loyihalashtirish bo‘limi tomonidan boshlangan. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi sababli loyiha vaqtincha to‘xtatilgan bo‘lsa-da, 1942-yil 18-noyabrda Farhod GESni qurish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Loyiha topshirig‘ini ishlab chiqish shu yilning dekabr oyida boshlanib, qurilish ishlari 1943-yil 10-fevraldan amalga oshirila boshlandi. Stansiyaning “Farhod” deb nomlanishi Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi bunyodkor Farhod obrazi bilan bog‘langan [Юлдашев М.Ю.: 18]. Inshootni barpo etishda murakkab muhandislik yechimlari ishlab chiqilgan. Manbalarda V.V. Poslavskiy bosh loyiha muhandisi, I.Yu. Karakis bosh me’mor, V.S. Kaminskiy bosh muhandis sifatida qayd etiladi. Loyihada Sirdaryo suvini Bekobod orqali Mirzacho‘l hududiga yo‘naltirish va undan bir vaqtning o‘zida elektr energiyasi ishlab chiqarishda foydalanish ko‘zda tutilgan. Bu holat Farhod GESning oddiy energetika korxonasi emas, balki energetika va irrigatsiya vazifalarini o‘zida birlashtirgan yirik muhandislik majmuasi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Farhod gidrouzeli o‘z davri uchun murakkab gidrotexnik majmua hisoblangan. Uning tarkibiga sekundiga 4400 kubometrgacha suv o‘tkazishga mo‘ljallangan, uzunligi 120 metr va balandligi 38 metr bo‘lgan tuproq to‘g‘oni, 13,7 kilometrlik derivatsion kanal, Mirzacho‘l sug‘orish kanallarining bosh rostlagichlari, bosim havzasi hamda stansiyaning bosim uzeli kirgan [Юлдашев М.Ю.: 33]. Farhod GES qurilishining yana bir muhim jihati uning katta mehnat resurslari hisobiga amalga oshirilganidir. Manbalarda Farg‘ona, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Andijon va Toshkent viloyatlaridan 60 mingdan ortiq kishi qurilish ishlariga jalb qilingani qayd etilgan. Urush sharoitida texnika va malakali ishchi kuchining yetishmasligi sababli qurilishning ayrim jarayonlarida qo‘l mehnatidan keng foydalanilgan. Ishchilarning yashash va mehnat sharoitlari ham nihoyatda murakkab bo‘lgan.

Qurilish ko‘lamini amalga oshirilgan muhandislik ishlaridan ham ko‘rish mumkin. Dissertatsiyada qariyb 14 kilometrlik kanalni barpo etish jarayonida katta hajmdagi tuproq va tog‘ jinslarini qazish, 400 ming kubometr temir-beton yotqizish,

200 ming kubometr qoyatosh keltirish, shuningdek, 5,5 ming tonna metall konstruksiyalar va 3,5 ming tonna gidroenergetik uskunalarni montaj qilish rejalashtirilgani ko‘rsatiladi. Bu ko‘rsatkichlar Farhod GES qurilishi o‘z davrining yirik muhandislik loyihalaridan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi. Farhod GES qurilishi tarixida harbiy asirlar mehnati ham qayd etilgan. Xususan, Bekobod yaqinidagi lagerlarda saqlangan nemis va yapon harbiy asirlarining bir qismi Sirdaryo to‘g‘oni, Shirinsoy tunneli, Farhod GES, boshqaruv binosi va boshqa obyektlarni barpo etishga jalb qilingan. M.Nazirxo‘jayev tadqiqotida O‘zbekistonga keltirilgan yapon harbiy asirlari bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar haqida ma’lumotlar berilgan [Назирхўжаев М.Қ.: 70–73].

Farhod GESning tarixiy ahamiyati uning faqat elektr energiyasi ishlab chiqarishi bilan chegaralanmaydi. Inshoot Mirzacho‘lni o‘zlashtirish, irrigatsiya tizimlari va nasos stansiyalarini energiya bilan ta’minlash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish hamda sanoat korxonalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yishda muhim omil bo‘ldi. Ayniqsa, Bekoboddagi metallurgiya ishlab chiqarishi va urush davrida O‘zbekistonga ko‘chirilgan sanoat korxonalarini energiya bilan ta’minlash zarurati Farhod GES qurilishining iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirgan.

Farhod GESning ishga tushirilishi Mirzacho‘lning xo‘jalik jihatdan o‘zlashtirilishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Elektr energiyasi irrigatsiya va kollektor-drenaj tarmoqlari, nasos stansiyalari, qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda yangi tashkil etilgan aholi punktlari infratuzilmasining faoliyatini ta’minlashda muhim o‘rin egalladi. Shu tariqa gidroelektr stansiyasi energetika, irrigatsiya, sanoat va qishloq xo‘jaligini yagona infratuzilmaviy tizim doirasida bog‘lagan muhim obyektga aylandi. Farhod GESning muhandislik jihatidan ahamiyatli tomonlaridan yana biri uning energetik quvvatidir. Tadqiqotlarga ko‘ra, stansiyada to‘rtta turbinali generator o‘rnatilgan bo‘lib, uning belgilangan elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati 126 MVtni tashkil etgan [Юлдашев М.Ю.: 35]. Mazkur ko‘rsatkich Farhod GESning XX asr o‘rtalarida O‘zbekiston energetika infratuzilmasidagi salmoqli o‘rnini ko‘rsatadi.

Xulosa. Shunday qilib, Farhod GESni faqat elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi obyekt sifatida emas, balki O‘zbekistonning XX asrdagi sanoat va muhandislik merosining muhim namunasi sifatida baholash mumkin. Uning tarixida murakkab gidrotexnik yechimlar, ommaviy mehnat safarbarligi, energetika va irrigatsiyaning o‘zaro uyg‘unlashuvi hamda Mirzacho‘lning iqtisodiy o‘zlashtirilishi kabi jarayonlar mujassamlashgan. Shu jihatdan Farhod GES tarixini o‘rganish O‘zbekistonning

sanoatlashuvi, energetika infratuzilmasi va muhandislik tafakkuri tarixini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Азимов Р. Э. Электроэнергетика Узбекистана: становление и развитие. – Ташкент: Фан, 2008. – 312 с.
2. Назирхўжаев М. Қ. 1945–1950 йилларда Тошкент вилоятидаги япон ҳарбий асирлари тарихидан // Материалы VI Международной научно-практической конференции «GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2019: CENTRAL ASIA». – Т. XI. – Нур-Султан, 2019. – Б. 70–73.
3. Юлдашев М. Ю. Фарҳод ГЭС: қурилиш тарихи ва аҳамияти. – Тошкент, 2013. – 176 б.

O‘RTA SIRDARYO HAVZASINING TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARINI O‘RGANISHDA ARXEOLOGIK MANBALARNING O‘RNI

Mamatov Sh.M.
Guliston davlat universiteti
“Tarix” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
Tel: +998 99 937 07 66

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘rta Sirdaryo havzasining tarixiy-madaniy yodgorliklarini o‘rganishda arxeologik manbalarning o‘rni, qadimgi va o‘rta asr aholi maskanlari, ularning shakllanishi, rivojlanishi hamda tarixiy-madaniy xususiyatlarini aniqlashdagi ilmiy ahamiyati kompleks ravishda tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Sirdaryo, arxeologiya, tarixiy yodgorliklar, madaniy meros, aholi maskanlari, qishloqlar, Eski Xovos, Xushkent, Choch, O‘tror, Isfijob, Ustrushona, sug‘orish, moddiy madaniyat, arxeologik tadqiqotlar.

Kirish. O‘rta Sirdaryo havzasi qadimdan Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-geografik va madaniy hududlaridan biri hisoblangan. Sirdaryo va uning irmoqlari bo‘ylarida qadimgi davrlardan boshlab aholi maskanlari shakllanib, ular mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, Toshkent vohasi, Mirzacho‘l va O‘tror hududlarida joylashgan Xos, Xovos, Chinoz, Chordara, O‘tror va Iqon kabi maskanlarning tarixiy rivojlanishi O‘rta Sirdaryo havzasining mintaqadagi o‘rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hududning tarixiy taraqqiyotida uning qulay geografik joylashuvi ham katta rol o‘ynagan. Qadimgi va o‘rta asrlarda O‘rta Sirdaryo havzasidagi qator shahar va qishloqlar Buyuk ipak yo‘lining muhim tarmoqlarida joylashib, Buxoro, Samarqand, Choch va

Farg‘ona orqali Xitoy tomon yo‘nalgan savdo yo‘llarini o‘zaro bog‘lab turgan. Shu tariqa mazkur hudud nafaqat iqtisodiy aloqalar, balki o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasidagi etnomadaniy munosabatlar rivojlangan muhim makon vazifasini bajargan.

O‘rta Sirdaryo havzasining tarixiy-madaniy yodgorliklarini tadqiq etishda arxeologik manbalar alohida o‘rin tutadi. Hududda olib borilgan ko‘p yillik arxeologik izlanishlar natijasida qadimgi va o‘rta asrlarga oid o‘troq aholi manzilgohlari, ko‘chmanchi chorvador aholiga tegishli mozorqo‘rg‘onlar hamda boshqa moddiy madaniyat yodgorliklari aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Shuningdek, O‘rta Sirdaryo havzasidagi arxeologik yodgorliklarning xaritalashtirilishi hududning tarixiy topografiyasi va aholi joylashuvi xususiyatlarini aniqlash imkoniyatini kengaytirgan. Xususan, Eski Xovos yodgorligi O‘rta Sirdaryo havzasining tarixiy-madaniy taraqqiyotini o‘rganishda muhim arxeologik manbalardan biridir. Tadqiqotlarda mazkur yodgorlikda hayot miloddan avvalgi IV–III asrlardan XX asr o‘rtalarigacha davom etgani, uning hududi 40 gektardan ortiq maydonni egallagani hamda Samarqand, Farg‘ona va Choch yo‘nalishlarini bog‘lovchi qadimgi yo‘llar chorrahasida joylashgani qayd etilgan.

Shu jihatdan, O‘rta Sirdaryo havzasidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni arxeologik materiallar asosida kompleks tadqiq etish qadimgi va o‘rta asrlardagi aholi maskanlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, xo‘jalik faoliyati hamda hududlararo madaniy aloqalarni yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi. Mazkur maqolada O‘rta Sirdaryo havzasidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarning o‘rganilishida arxeologik manbalarning o‘rni va ilmiy ahamiyatini dissertatsiya materiallari asosida tahlil qilish ko‘zda tutiladi.

Asosiy qism. O‘rta Sirdaryo havzasining tarixiy-madaniy yodgorliklarini o‘rganishda arxeologik manbalar yozma manbalardagi ma’lumotlarni to‘ldiruvchi va ayrim hollarda tarixiy jarayonlarni aniqroq tiklash imkonini beruvchi muhim manba hisoblanadi. Sirdaryo bo‘ylarida qadimdan aholi yashab, o‘ziga xos moddiy madaniyat yaratgan bo‘lsa-da, bu jarayonlarni batafsil yorituvchi yozma ma’lumotlar yetarli emas. Shu sababli hududdagi qadimgi va o‘rta asr aholi maskanlarining shakllanishi, joylashuvi va rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda arxeologik tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Dissertatsiyada ham Sirdaryo va Toshkent viloyatlari hududlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar mintaqaning qadimgi tarixini tiklashda asosiy manbalardan biri sifatida baholangan.

O‘rta Sirdaryo hududini arxeologik jihatdan tizimli o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmida ancha faollashgan. Xususan, 1970–1990-yillarda shimoli-g‘arbiy Ustrushona hududida A.E. Berdimurodov, S.R.Raximov, U.A.Alimov,

M.X.Pardayev, A.A.Gritsin Za, L.M.Sverchkov kabi tadqiqotchilar tomonidan keng ko‘lamli arxeologik izlanishlar amalga oshirilgan. Natijada o‘troq aholi manzilgohlari bilan bir qatorda ko‘chmanchi chorvador aholiga tegishli mozorqo‘rg‘onlar ham o‘rganilgan. A.A. Gritsina rahbarligidagi Sirdaryo arxeologik otryadi tomonidan bugungi Sirdaryo viloyati hududidagi arxeologik yodgorliklarning xaritalari tuzilishi mintaqaning tarixiy topografiyasini aniqlashda muhim ilmiy natija bo‘lgan [Грицина А.А.; Бердимуродов А.Э: 23; Алимов У.А., Сверчков Л.М: 101–102]. Arxeologik materiallarning tahlili qadimgi aholi maskanlarining shakllanishida tabiiy-geografik sharoit, ayniqsa, suv manbalari hal qiluvchi o‘rin tutganini ko‘rsatadi. O‘rta Sirdaryo havzasida qadimgi o‘troq aholi o‘z manzilgohlarini daryo, soy va boshqa suv manbalariga yaqin hududlarda barpo etib, sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Sirdaryo, Chirchiq, Iloq (Ohangaron), Aris va boshqa suv havzalari atrofida shakllangan manzilgohlar vaqt o‘tishi bilan qishloq va shahar tipidagi yirik maskanlarga aylangan. Dissertatsiyada Choch, O‘tror va Isfijob qishloqlarining asosan sug‘orma dehqonchilikka qulay hududlarda shakllangani hamda keyinchalik savdo yo‘llari va bozorlar atrofida yangi aholi maskanlari paydo bo‘lgani asoslangan.

O‘rta Sirdaryo havzasining muhim arxeologik yodgorliklaridan biri Eski Xovos hisoblanadi. U hozirgi Xovos tumani Xovosobod qishlog‘i hududida joylashgan. O.Mamirov tadqiqotlariga ko‘ra, yodgorlikda hayot miloddan avvalgi IV–III asrlardan XX asrning o‘rtalarigacha davom etgan. Dastlab Eski Xovos katta qishloq tipidagi maskan sifatida baholangan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlarda uning hududi 40 gektardan ortiq maydonni egallagani aniqlangan. Shundan qariyb 2 gektari ark hududiga to‘g‘ri kelgan, yodgorlikning saqlanib qolgan qismlaridagi balandlik esa 15 metrga yetgan [Mamirov O.O‘: 14].

Eski Xovosning tarixiy ahamiyatini belgilaydigan jihatlardan yana biri uning qadimgi savdo va kommunikatsiya yo‘llari chorrahasida joylashganidir. Samarqanddan sharqqa yo‘nalgan yo‘l Eski Xovos orqali bir necha tarmoqqa ajralgan. Yo‘llardan biri Kurkat orqali Xo‘jand va Farg‘onaga, boshqasi esa Choch tomon yo‘nalgan. Choch yo‘nalishidagi yo‘llardan biri Sirdaryo kechuvidan Benaket (Shohruhiya), Xarashkent va Binketga olib borgan. Ikkinchi yo‘l esa Sirdaryoning chap qirg‘og‘i bo‘ylab o‘rta asrlardagi Xushket tomon davom etib, keyinchalik Benaket bilan tutashgan. Bu ma’lumotlar Eski Xovosning nafaqat aholi maskani, balki Sug‘d, Farg‘ona va Choch o‘rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalarni ta’minlagan muhim tranzit nuqta bo‘lganini ko‘rsatadi [Маъруфов III: 26–28].

O‘rta Sirdaryo havzasining tarixiy-madaniy merosini o‘rganishda Choch, O‘tror va Isfijob vohalaridagi aholi maskanlari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu

hududlarda qishloqlarning shakllanish tarixini qadimgi davrlargacha kuzatish mumkin. Arxeologik materiallarning tahliliga ko‘ra, Iloq, Chirchiq va Aris daryolari bo‘ylarida neolit, bronza va ilk temir davrlaridan boshlab dastlabki qishloq tipidagi aholi maskanlari shakllana boshlagan. Keyingi tarixiy bosqichlarda o‘troq dehqon aholi hamda turli ko‘chmanchi guruhlarning hududga kirib kelishi natijasida qishloqlar soni va ularning etnomadaniy tarkibida o‘zgarishlar yuz bergan. Ilk o‘rta asrlardagi migratsion jarayonlar esa hududning etnomadaniy qiyofasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

O‘tror vohasi yodgorliklarining arxeologik jihatdan o‘rganilishi O‘rta Sirdaryo tarixini yoritishda alohida o‘rin egallaydi. Janubiy Qozog‘iston hududidagi uzoq yillik tadqiqotlar natijasida ko‘plab qadimgi aholi maskanlari aniqlangan. K.A. Akishev, K.M. Baypakov va L.B. Erzakovich tomonidan O‘tror vohasida olib borilgan tadqiqotlar qadimgi va o‘rta asr manzilgohlarining joylashuvi, tuzilishi hamda tarixiy topografiyasini o‘rganishga xizmat qilgan [Акишев К.А., Байпаков К.М., Ерзакович Л.Б: 138]. N.P. Podushkin esa Janubiy Qozog‘istondagi ilk dehqonchilik madaniyatiga oid yangi manzilgohlarni tadqiq etgan [Подушкин Н.П: 71–75].

Arxeologik tadqiqotlarning takomillashib borishi yodgorliklarni faqat qazishmalar orqali emas, balki tarixiy-topografik va kartografik usullarda ham o‘rganish imkonini yaratgan. Xususan, O‘tror vohasi va Sirdaryoning o‘rta oqimida aerofotosuratlardan foydalanish natijasida ilgari ma’lum bo‘lmagan ko‘plab aholi maskanlari aniqlangan. Dissertatsiyada keltirilishicha, bunday tadqiqotlar davomida ilgari ma’lum bo‘lgan yodgorliklarga qo‘shimcha ravishda qariyb 80 ta yangi aholi punkti va xo‘jalik maskani qayd etilgan. Aerofotosuratlar qishloqlarning tarixiy topografiyasini aniqlash bilan birga qadimgi sug‘orish tarmoqlari, relyef, suv manbalari va aholi maskanlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganish imkonini ham bergan.

Sug‘orish tizimlari qadimgi va o‘rta asr qishloqlarining shakllanishida asosiy iqtisodiy omillardan biri bo‘lgan. O‘rta Sirdaryo havzasining qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil tabiiy sharoitida dehqonchilikning rivojlanishi daryo va uning irmoqlaridan suv chiqarishga bevosita bog‘liq edi. Tekisliklarda qishloq xo‘jaligi vohalari Sirdaryo vodiysi va uning irmoqlari atrofida, tog‘oldi hududlarida esa tog‘lardan oqib tushuvchi daryo va soylar bo‘yida shakllangan. Shu bois arxeologik yodgorliklarni qadimgi irrigatsiya tizimlaridan ajratilgan holda o‘rganish hududdagi qishloq madaniyatining shakllanish mexanizmini to‘liq ochib bera olmaydi.

O‘rta Sirdaryo havzasidagi arxeologik yodgorliklar mintaqaning faqat xo‘jalik tarixini emas, balki o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasidagi munosabatlarni ham yoritadi. Hudud geografik jihatdan Choch, Ustrushona, O‘tror va Isfijob singari

tarixiy-madaniy viloyatlarni o‘zaro bog‘lagan. Shu sababli Sirdaryo havzasi uzoq tarixiy davr davomida o‘troq dehqonlar va ko‘chmanchi chorvadorlarning o‘zaro aloqalari kechgan o‘ziga xos “kontakt maydoni” vazifasini bajargan. Bunday aloqalar aholi maskanlarining joylashuvi, xo‘jalik faoliyati, savdo munosabatlari va mintaqaning etnomadaniy qiyofasiga ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, O‘rta Sirdaryo havzasidagi Eski Xovos, Xushkent, Mirzarabot karvonsaroyi, Choch va Iloq hududlaridagi aholi maskanlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar mintaqaning tarixiy-madaniy merosini ilmiy jihatdan tavsiflashda muhimdir. Dissertatsiyada ushbu obyektlarga doir yangi qarashlar ilmiy muomalaga kiritilgani qayd etilgan. Bu yodgorliklarni kompleks o‘rganish ularning tarixiy topografiyasi, iqtisodiy vazifalari, savdo-kommunikatsiya tizimidagi o‘rni va mintaqadagi madaniy jarayonlar bilan bog‘liqligini yanada chuqurroq yoritishga imkon beradi.

Xulosa. Umuman, O‘rta Sirdaryo havzasining tarixiy-madaniy yodgorliklarini o‘rganishda arxeologik manbalar birlamchi ilmiy asoslardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Eski Xovos singari yirik yodgorliklar, Choch, O‘tror va Isfijob vohalaridagi qishloq manzilgohlari, qadimgi irrigatsiya tarmoqlari hamda arxeologik-topografik tadqiqotlar natijalari hududning qadimgi va o‘rta asrlardagi taraqqiyotini kompleks rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Shu jihatdan yozma ma’lumotlarni arxeologik dalillar bilan qiyosiy o‘rganish O‘rta Sirdaryo havzasining tarixiy-madaniy merosini tadqiq etishning eng muhim metodologik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Акишев К.А., Байпаков К.М., Ерзакович Л.Б. Древний Отрар: топография, стратиграфия, перспективы / АН КазССР, Ин-т истории, археологии и этнографии им. Ч.Ч. Валиханова. – Алма-Ата: Наука, 1972. – 213 с.
2. Алимов У.А. Отчёт о полевых работах Джизакского археологического отряда за 1983 г. // Архив Института археологии АН РУз. – Самарканд, 1985. – Ф. 6. – Оп. 1. – Д. 7. – 12 л.
3. Алимов У.А., Сверчков Л.М. Работы в Джизакской области // Археологические открытия 1984 года. – М.: Наука, 1986. – 454 с. 1.
4. Бердимуродов А.Э. Раннесредневековые археологические памятники Джизакского оазиса: автореф. дис. ... канд. ист. наук. – М., 1985. – С. 23. 1.
5. Грицина А.А. Северная Уструшана в середине I тысячелетия до н. э. – начале XIII в. н. э. (археолого-топографическое исследование): автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Самарканд, 1990.

6. Mamirov O.O‘. Shimoliy-g‘arbiy Ustrushona moddiy va ma’naviy madaniyati (arxeologik materiallar asosida): tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 57 b.
7. Маъруфов Ш.К. Сирдарё вилоятининг қадимги ва ўрта асрлардаги тарихи: тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Андижон, 2025. – 55 б.
8. Подушкин Н.П. Новые поселения раннеземледельческой культуры на юге Казахстана // Известия Академии наук Казахской ССР. Серия общественных наук. – Алма-Ата, 1968. – Вып. 5. – С. 71–75.

ILK O‘RTA ASRLAR XORAZM TARIXIY-MADANIY MEROSINI O‘RGANISHDA ARXEOLOGIK VA TASVIRIY SAN’AT MANBALARINING O‘RNI

R.A.Ne’matov
Guliston davlat universiteti
“Tarix” kafedrasi katta o‘qituvchisi, t.f.b.f.d., (PhD)

Annotatsiya: Mazkur tezisda ilk o‘rta asrlar Xorazm tarixiy-madaniy merosini o‘rganishda arxeologik topilmalar, sopol buyumlar, ossuariylar va tasviriy san’at namunalarining tarixiy, madaniy jarayonlarni yoritishdagi o‘rni hamda turkiy madaniy ta’sirlarni aniqlashdagi ahamiyati borasida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, arxeologiya, Afrig‘iylar, To‘qqal’a, ossuariy, sopol buyumlar, tasviriy san’at, moddiy madaniyat, tarixiy meros, madaniy meros, turkiy madaniyat, arxeologik topilmalar, madaniy aloqalar, san’at, xoqonlik.

Ilk o‘rta asrlarda Xorazm vohasi Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-madaniy markazlaridan biri bo‘lib, bu davrda hududda kechgan siyosiy va madaniy jarayonlar G‘arbiy Turk xoqonligi faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Xorazmning mintaqadagi o‘ziga xos geografik o‘rni, mahalliy davlatchilik an’analari hamda turli etnik va madaniy qatlamlarning o‘zaro aloqalari uning moddiy va badiiy madaniyatida ham o‘z aksini topgan. Shu sababli vohaning ilk o‘rta asrlar tarixini yoritishda yozma ma’lumotlar bilan bir qatorda arxeologik va san’atshunoslik manbalarini kompleks o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Xorazm hududidan aniqlangan shahar qoldiqlari, sopol va metall buyumlar, numizmatik materiallar hamda boshqa arxeologik topilmalar vohaning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Ayniqsa, sopol buyumlar va To‘qqal’a

ossuariylari kabi tasviriy san’at namunalari mahalliy badiiy an’analar bilan bir qatorda qadimgi turkiy madaniyatga xos ayrim belgilarni ham o‘zida mujassam etgan. Bu esa G‘arbiy Turk xoqonligi davrida Xorazmda kechgan madaniy jarayonlarni tarix va san’atshunoslik sohalarining o‘zaro integratsiyasi asosida tadqiq etish zaruratini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, ilk o‘rta asrlar Xorazm tarixiy-madaniy merosini arxeologik topilmalar va tasviriy san’at namunalari asosida o‘rganish nafaqat vohaning madaniy taraqqiyotini, balki mahalliy va turkiy madaniy an’analarning o‘zaro ta’sirini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilk o‘rta asrlarda, xususan, V–VIII asrlarda Xorazm vohasida yuz bergan siyosiy va madaniy jarayonlar hududdan aniqlangan arxeologik materiallarda o‘z aksini topgan. Mazkur davrda Xorazm dastlab Eftaliylar, keyinchalik Turk xoqonligi bilan bog‘liq siyosiy jarayonlar doirasida rivojlangan. Eftaliylar davriga oid moddiy madaniyat namunalarini aniq ajratish masalasi murakkab bo‘lsa-da, Turk xoqonligi davriga kelganda arxeologik va tasviriy san’at materiallari vohada kechgan madaniy o‘zgarishlarni nisbatan kengroq kuzatish imkonini beradi. Xususan, qadimgi turkiy madaniyat bilan bog‘liq tangalar, tamg‘alar, terrakotalar, muhrlar, harbiy qurollar, dafn marosimlariga oid buyumlar, devoriy rasmlar va mifologik tasvirlar ushbu jarayonlarni o‘rganishda muhim manbalar hisoblanadi **[Bernstam A.N: 54–58; Smirnova O.I: 290; Malikov A.M: 34–42]**.

Xorazm hududidan topilgan arxeologik materiallarni mazmunan ikki guruhga ajratish mumkin: birinchisi, Turk xoqonligi madaniyati bilan bevosita bog‘liq topilmalar; ikkinchisi esa xoqonlik hukmronligi davrida mahalliy madaniy muhitda yaratilgan moddiy yodgorliklardir. Bunday tasnif Xorazmda mahalliy madaniy an’analar bilan turkiy unsurlarning o‘zaro munosabatini aniqlash imkonini beradi. Xoqonlikka xos moddiy madaniyat namunalarining Xorazmda Choch, Farg‘ona yoki Sug‘dga nisbatan kam uchrashi, bir tomondan, arxeologik tadqiqotlarning ko‘lami bilan, ikkinchi tomondan esa Xorazmning xoqonlik markazlaridan geografik jihatdan uzoq joylashgani va mahalliy boshqaruv tizimining nisbatan mustaqil xususiyatlari bilan izohlanishi mumkin. Dissertatsiyada ham Xorazmning geografik jihatdan xoqonlik boshqaruv markazi Suyabdan uzoqligi mahalliy boshqaruvning nisbatan erkin saqlanishiga ta’sir etgan omillardan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Xorazmning ilk o‘rta asrlar tarixiy-madaniy merosini o‘rganishda To‘qqal’a (To‘q-qal’a) ossuariylari alohida ahamiyatga ega. Ushbu yodgorlikdan topilgan sopol ossuariylardan birida marhumning atrofida aza tutayotgan kishilar tasvirlangan. Tasvirda marhum chalqancha yotqizilgan, uning atrofidagi kishilar esa yuzlarini

tirnash, sochlarini yulish orqali motam holatini namoyon etgan. Shunga o‘xshash syujetlar VII–VIII asrlarga oid Panjikent devoriy rasmlarida ham uchraydi. A.M. Belenitskiy tomonidan o‘rganilgan Panjikent tasvirlarida marhum atrofida aza tutayotgan kishilarning harakatlari qayd etilgan bo‘lib, mazkur tasvirlar qadimgi turkiy motam an’analari bilan qiyoslanadi **[Belenitskiy A.M: 34, 81]**.

Mazkur marosimning tarixiy asoslarini aniqlashda yozma va epigrafik manbalar ham muhimdir. Qadimgi turkiy bitiklarda hukmdor yoki nufuzli shaxs vafot etganida motam tutuvchilarning yuzlarini kesishi, sochlarini yulishi va yig‘lashi bilan bog‘liq udumlar qayd etilgan. Jumladan, Bilga xoqon bitiktoshidagi ma’lumotlarda ham shunday motam marosimlari aks etgan **[Abdurahmonov G‘., Rustamov A: 132]**. Shu sababli To‘qqal’a ossuariysidagi tasvirlarni faqat badiiy bezak sifatida emas, balki Xorazmning ilk o‘rta asrlardagi diniy-marosimiy hayoti va madaniy aloqalarini o‘rganishga xizmat qiluvchi muhim tasviriy manba sifatida baholash mumkin.

Xorazm moddiy madaniyatida turkiy ta’sirlarni o‘rganishda harbiy san’at bilan bog‘liq tasvirlar ham muhim o‘rin tutadi. S.P.Tolstov Ural daryosi havzasidan aniqlangan ilk o‘rta asrlarga oid Xorazm kumush idishlaridagi jangchilar tasvirlarini Xorazm, Sug‘d, Oltoy, Sharqiy Turkiston va Minusinsk havzasidagi materiallar bilan qiyoslagan. Jangchilarning dubulg‘asi, o‘qdon-sadoqlari, qilichlari va boshqa harbiy anjomlarida qadimgi turkiy harbiy madaniyatga yaqin belgilar kuzatilgan **[Tolstov S.P: 216–218]**. Xususan, o‘q-yoy solingan sadoqlarning shakli Sharqiy Turkiston va Sug‘d devoriy rasmlaridagi namunalarga yaqinligi qayd etilgan **[Tolstov S.P: 217]**. Bunday tasviriy materiallar Xorazm san’atida mahalliy va tashqi madaniy unsurlar o‘zaro uyg‘unlashganligini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Tarixiy va madaniy jarayonlarni o‘rganishda numizmatik materiallar ham tasviriy san’atning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. G‘arbiy Turk xoqonligining Choch hududida zarb qilingan tangalari bilan Afrig‘iylar davri Xorazm tangalarida uchraydigan ayrim tasviriy elementlar o‘rtasida o‘xshashliklar mavjud. Xususan, ushbu davrda Markaziy Osiyoda zarb qilingan tangalar orasida Choch va Xorazm tangalarida otliq tasvirining uchrashi diqqatga sazovordir. Choch tangalarida G‘arbiy Turk xoqonligiga xos hokimiyat ramzlari yetakchi bo‘lsa, Afrig‘iylar tangalarida qadimgi Xorazm tanga zarbi an’analari saqlanib qolgan **[Babayarov G‘: 12–13]**.

Tangalar ikonografiyasidagi yana bir muhim jihat — tamg‘alardir. Xorazmshoh Afrig‘iylar tangalarida an’anaviy mahalliy tamg‘alar bilan bir qatorda ayrim hukmdorlar davrida o‘ziga xos belgilar uchraydi. Xususan, Askajvor Chag‘on tangasidagi tamg‘aning xoqonlik davri tamg‘alariga ayrim jihatdan yaqinligi siyosiy

va madaniy aloqalarni tahlil qilishda muhim material beradi. Umuman, islomdan avvalgi Markaziy Osiyo tangalaridagi tamg‘alar hukmdor yoki sulolaga mansublikni ifodalovchi ramziy belgilardan biri bo‘lgan **[Tolstov S.P: 120–145; Vaynberg B.I: 53–60]**. Shu jihatdan numizmatik materiallarni tarixiy va san’atshunoslik usullari asosida birgalikda tadqiq etish Xorazmning siyosiy hamda madaniy tarixiga oid qo‘shimcha xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Ilk o‘rta asrlar Xorazm tasviriy san’atidagi diniy-mifologik obrazlar ham madaniy aloqalarning muhim ko‘rsatkichidir. Xususan, qadimgi turkiy dunyoqarashdagi Umay obrazi hamda Xorazm va boshqa sharqiy eroniy xalqlarning diniy tasavvurlaridagi Anaxita (Nana) obrazi qiyosiy jihatdan muhimdir. Umay qadimgi turkiy tasavvurlarda farzand, ona, qut-baraka va hokimiyat homiysi sifatida namoyon bo‘lgan. Tasviriy san’atda uning uch qirrali bosh kiyimda ifodalanishi qadimgi turkiy san’atning xarakterli belgilaridan biri sifatida ko‘rsatiladi **[Kubarev G: 339–346; Baratova L.S: 415–422]**.

Anaxita yoki Nana obrazi esa Xorazm va Sug‘d kabi o‘troq madaniy hududlarda hosildorlik, baraka va hokimiyat bilan bog‘liq ilohiy timsol sifatida tasviriy san’atda o‘z ifodasini topgan **[Smirnova O.I: 174]**. Y.A.Rapoportning Xorazm ossuariylariga oid tadqiqotlari mazkur diniy tasavvurlarni moddiy madaniyat namunalari asosida o‘rganish imkonini beradi **[Rapoport Yu.A: 103]**. Umay va Nana obrazlarining vazifalarida ayrim yaqinliklar mavjud bo‘lsa-da, ularning ikonografik belgilarida muayyan farqlar saqlanib qolgan. Bu esa ilk o‘rta asrlarda Xorazm madaniyatida mahalliy diniy-badiiy an’analar tashqi madaniy ta’sirlar bilan o‘zaro aloqada rivojlanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Xorazmning ilk o‘rta asrlar moddiy madaniyati faqat alohida san’at asarlari bilan cheklanmaydi. Bu davrda vohada yangi qal’a va qo‘rg‘onlarning bunyod etilishi, manzilgohlar tizimining rivojlanishi ham tarixiy-madaniy muhitdagi o‘zgarishlarning muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Tadqiqotlarda Xorazmdagi ushbu jarayonlarda o‘troq va ko‘chmanchi aholining o‘zaro aloqalari muayyan o‘rin tutgani qayd etiladi **[Kdirniyozov O.Sh: 65–69]**.

Demak, ilk o‘rta asrlar Xorazm tarixiy-madaniy merosini tadqiq etishda arxeologik va tasviriy san’at manbalarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. To‘qqal’a ossuariylaridagi motam sahnalari, kumush idishlardagi jangchi obrazlari, Afrig‘iylar tangalarining ikonografiyasi va tamg‘alari, shuningdek, Umay hamda Nana singari diniy-mifologik timsollar vohada kechgan murakkab madaniy jarayonlarni yoritishga imkon beradi. Mazkur materiallar Xorazmda mahalliy madaniy an’analar saqlanib qolishi bilan bir vaqtda, G‘arbiy Turk xoqonligi

davrida turkiy madaniyatga xos ayrim unsurlar ham moddiy va tasviriy san’at namunalarida namoyon bo‘lganligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – Б. 132.
2. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI–VIII вв. н.э.). – Ташкент, 2007. – С. 12–13, 30.
3. Баратова Л.С. Византийско-согдийско-тюркский симбиоз на монетах Средней Азии // Second International Congress on Turkic Civilization, Bishkek, October 4–6, 2004. – Bishkek, 2005. – С. 415–422.
4. Беленицкий А.М. Живопись древнего Пянджикента. – М.: Изд-во АН СССР, 1954. – С. 34, 81.
5. Бердимуратов А., Богомолов Г. Тюрки в искусстве раннесредневекового Согда // Согдийский сборник. Новейшие исследования по истории и истории культуры Согда в Узбекистане. Вып. 7 / под ред. Ш. Камолиддина. – Berlin: LAP Lambert Academic Publishing, 2020. – С. 61–69.
6. Бернштам А.Н. Древнетюркские рунические надписи из Ферганы // Эпиграфика Востока. – 1956. – № 11. – С. 54–58.
7. Кдирниёзов О.Ш. Марказий Осиё цивилизацияси ва илк ўрта асрлар Хоразм маданияти // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида. – Самарқанд, 2013. – Б. 65–69.
8. Кубарев Г. К вопросу о женских древнетюркских изваяниях на Алтае // Культуры степной Евразии и их взаимодействие с древними цивилизациями. – СПб.: ИИМК РАН, Периферия, 2012. – С. 339–346.
9. Маликов А.М. Из истории культуры древних тюрок Ферганы // Ватан тарихининг долзарб муаммолари. – Самарқанд, 2004. – Б. 34–42.
10. Рапопорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма (оссуарии). – М., 1971. – (Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции; т. VI). – С. 103.
11. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М.: Наука, 1970. – С. 174, 290.
12. Толстов С.П. Древний Хорезм: опыт историко-археологического исследования. – М.: Издание МГУ, 1948. – С. 216–218.
13. Толстов С.П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнехорезмийский алфавит // Вестник древней истории. – 1938. – № 4 (5). – С. 120–145.
14. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: Наука, 1972. – С. 53–60.

“SIYOSATNOMA” ASARI O‘RTA ASRLAR ME’MORCHILIGI VA SHAHARSOZLIK MADANIYATINI O‘RGANISHDA YOZMA MANBA SIFATIDA

Orifxo‘jayev Sherzodxo‘ja
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
“Psixologiya va pedagogika” kafedrasi magistranti

Annotatsiya: *Maqolada Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari o‘rta asrlar me’morchiligi va shaharsozlik madaniyatini o‘rganishda yozma manba sifatida tahlil qilinadi. Asardagi madrasa majmualari, sardoba qurilishi va viloyat markazlaridagi inshootlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar moddiy madaniyat dalillari bilan qiyoslanadi. Yozma manbaning me’moriy tadqiqotdagi o‘rni asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Siyosatnoma, Nizomulmulk, Saljuqiylar, me’morchilik, shaharsozlik, madrasa, Nizomiya, sardoba, bemoriston, karvonsaroy, ribot, moddiy madaniyat, Movarounnahr, yozma manba.*

Tarixiy va madaniy yodgorliklarni tadqiq qilishda san’atshunoslik an’anaviy ravishda uchta dalil turiga tayanadi, ya’ni saqlanib qolgan obidaning o‘ziga, arxeologik qazishma natijalariga hamda miniatyura va boshqa tasviriy manbalarga. Yozma rivoyaviy manbalar esa ko‘pincha ikkinchi darajali material sifatida qaraladi. Holbuki ular obidaning tashqi qiyofasini emas, balki uning qanday ehtiyojdan kelib chiqib, kim tomonidan, qancha muddatda va qanday texnologiya bilan barpo etilganini ko‘rsatadi. Aynan shu ma’lumotlar toshning o‘zidan o‘qib bo‘lmaydi.

Nizomulmulkning “Siyosatnoma” (“Siyar ul-muluk”) asari o‘zbek va xorijiy tarixshunoslikda asosan davlat boshqaruvi, devonchilik hamda iqto tizimini o‘rganish manbai sifatida tadqiq etilgan. Uning me’morchilik va shaharsozlikka oid qatlami esa nisbatan kam e’tibor qozongan. Ushbu maqolada ana shu qatlam ajratib olinadi va uning o‘rta asrlar Movarounnahr hamda Xuroson shahar markazlarini o‘rganishdagi imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

Asar muallifining o‘zi yirik bunyodkor bo‘lgani masalaning birinchi jihatini tashkil etadi. Nizomulmulk davlat homiyligida moliyalashtiriladigan “Nizomiya” madrasalari tarmog‘ini barpo etgan bo‘lib, ular Bag‘dod, Isfahon, Nishopur, Balx, Hirot, Basra, Marv va Omul kabi markazlarda qad rostlagan [Özaydın A.: 3-4]. Bu tarmoqning me’moriy ahamiyati shundaki, uning binolari oddiy darsxonalar majmui bo‘lmagan. Har bir madrasa hujralar, talabalar yotoqxonasi, jome masjidi, kutubxona, oshxona va hammomni o‘z ichiga olgan yaxlit majmua sifatida loyihalangan. Tarmoqning eng nufuzli markazi bo‘lmish Bag‘dod Nizomiyasi 1066-yilda faoliyat boshlagan.



Bu ma’lumotning san’atshunoslik uchun qiymati aniq. Gap alohida bino haqida emas, balki yangi me’moriy tipologiya haqida bormoqda. Ta’lim, ibodat, turar joy va maishiy xizmat funksiyalarini bitta majmuada birlashtirgan madrasa turi keyinchalik butun Sharq me’morchiligida, jumladan Movarounnahr madrasalari qurilishida ham asos bo‘lib xizmat qilgan. Yozma manba bu tipologiyaning qachon va qanday maqsad bilan shakllanganini qayd etadi, saqlanib qolgan obidalar esa uning keyingi taraqqiyotini ko‘rsatadi. Ikki dalil turi shu tarzda bir-birini to‘ldiradi.

Nizomulmulk nomi bilan bog‘liq yana bir obida Isfahon Juma masjidining janubiy ayvoni ortida bunyod etilgan gumbazli inshootdir. Ilmiy adabiyotda u “Nizomulmulk gumbazi” yoki “Malikshoh gumbazi” nomi bilan mashhur bo‘lib, Saljuqiylar me’morlik maktabining yuksak namunasi sifatida baholanadi [Özaydın A.: 3-4]. Bosh vazir bundan tashqari hammomlar, karvonsaroylar, shifoxonalar, suv inshootlari, ko‘priklar hamda karvon yo‘llari bo‘yida ribotlar qurdirgan. Muhim jihat shundaki, uning bu faoliyati saltanatdagi boshqa amaldorlarni ham shunga o‘xshash loyihalarga undab, o‘ziga xos me’moriy va bunyodkorlik raqobati muhitini yuzaga keltirgan.

Bu kuzatuv obidalarni o‘rganishda muhim tuzatish kiritadi. Saljuqiylar davri qurilish faolligi faqat sulton homiyligi bilan izohlanmaydi. Vazirlar, amirlar va viloyat hokimlari o‘rtasidagi obro‘ uchun kurash ham binolar sonini va hashamatini belgilagan omil bo‘lgan. Obidaning o‘zi bu ijtimoiy mexanizmni ko‘rsatmaydi, uni faqat yozma manba ochib beradi.

Asarning o‘n uchinchi fasli — “Josuslar va ularning mulk hamda raiyat tinchligi yo‘lidagi ish-tadbirlari haqida” — me’morchilik tarixi uchun eng qimmatli parchani saqlab qolgan. Unda Azad ud-Davla haqidagi hikoyat keltiriladi va hikoyat davomida viloyat markazining inshootlari ketma-ket sanab o‘tiladi. Matnda saroy, kasalxona (bemoriston), xazinaxona, qorovulxona, turar joy uylari, tahxona hamda savdo do‘konlari tilga olinadi [Низомулмулк: 82].

Ushbu ro‘yxatning ahamiyati shundaki, u muallif tomonidan maxsus tuzilmagan. Bino nomlari hikoyat syujeti davomida beixtiyor qayd etilgan, ya’ni muallifning ularni bezash yoki ko‘paytirishga hech qanday sababi bo‘lmagan. Shu bois ro‘yxat X–XI asrlar viloyat markazida qanday bino turlari mavjud bo‘lganini ishonchli tarzda ko‘rsatadi. Undan monumental qurilish bilan bir qatorda fuqarolik va savdo qurilishi ham yuqori darajada rivojlangani, shaharsozlik madaniyati esa shakllangan tizim bo‘lgani anglashiladi [Бурҳонов С. С.: 25].

Hikoyatdagi ikkinchi tafsilot qurilish texnologiyasiga tegishli. Manbada qozi maxsus yer osti inshootini, ya’ni sardobani bir oy ichida qurdirib tugatgani va ishni

yakunlab hukmdor huzuriga kelgani bayon etiladi [Низомулмулк: 82]. Bu qayd oddiy syujet tafsiloti bo‘lib ko‘rinadi, biroq undan bir necha xulosa chiqadi.

Sardoba pishiq g‘isht va murakkab muhandislik yechimini talab etuvchi inshoot hisoblanadi. Uning gumbazi, suv yig‘ish tizimi va yer osti qismi aniq hisob-kitobsiz barpo etilmaydi. Bunday inshootning bir oy ichida sifatli qurib bitkazilishi o‘sha davr viloyat markazida tayyor g‘isht zaxirasi, malakali usta-me’morlar guruhi hamda tashkillashgan qurilish jarayoni mavjud bo‘lganini bildiradi [Бурҳонов С. С.: 25]. Yakka hunarmand bunday ishni bunday muddatda bajara olmaydi. Demak, gap ustaxona va brigada darajasida uyushgan qurilish sohasi haqida bormoqda.

Aynan shu yerda yozma manbaning me’moriy tadqiqotdagi o‘rni aniq ko‘rinadi. Saqlanib qolgan sardobalar bizga ularning shakli, o‘lchami va qurilish uslubini ko‘rsatadi. Qazishma esa g‘isht turi va qatlam sanasini beradi. Biroq inshootning qancha muddatda qurilgani, uni kim buyurgani va nima uchun shoshilinch ravishda bunyod etilgani faqat yozma matndan ma’lum bo‘ladi. Uch dalil turi qo‘shilganda obida haqidagi tasavvur to‘liq bo‘ladi.

Shuni ham qayd etish lozimki, “Siyosatnoma”dagi me’moriy ma’lumotlar tizimli bayon shaklida emas, tarqoq holda beriladi. Muallifning maqsadi bino tavsiflash bo‘lmagan, u hukmdorga ma’muriy o‘git yozgan. Shu sababli bu qatlamni ajratib olish uchun matnni maxsus maqsad bilan qayta o‘qish talab etiladi. Xuddi shu usul boshqa pand-nasihat asarlariga ham qo‘llanishi mumkin.

Xulosa

“Siyosatnoma” asari o‘rta asrlar me’morchiligi va shaharsozlik madaniyatini o‘rganishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri manba bo‘la oladi. Undan uch turdagi ma’lumot olinadi. Birinchisi me’moriy tipologiya, ya’ni Nizomiya madrasalari misolida ta’lim, ibodat va maishiy funksiyalarni birlashtirgan majmua turining shakllanishi. Ikkinchisi bino turlari ro‘yxati, ya’ni viloyat markazidagi saroy, bemoriston, xazinaxona, qorovulxona, turar joy va savdo inshootlari. Uchinchisi qurilish texnologiyasi va uyushmasi darajasi, ya’ni sardobaning bir oy ichida barpo etilishi.

Bu ma’lumotlarning qimmati shundaki, ularning aksariyati obidaning o‘zidan ham, arxeologik qatlamdan ham olinmaydi. Bino kim tomonidan, qaysi ehtiyoj uchun va qancha muddatda qurilganini faqat yozma matn qayd etadi. Shu bois tarixiy va madaniy yodgorliklarni tadqiq qilishda yozma rivoyaviy manbalarni arxeologik hamda tasviriy dalillar bilan birga qo‘llash maqsadga muvofiq. Tarix va san’atshunoslik sohalarining hamkorligi aynan shu nuqtada amaliy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bosworth C. E. The Political and Dynastic History of the Iranian World (A.D. 1000–1217) // The Cambridge History of Iran. Vol. 5. – Cambridge: Cambridge University Press, 1968.
2. Ergün H. Siyasetname’de Bürokrasi // Elektronik Sosyal Bilimler Dergisi. – 2023. – Cilt 22, Sayı 86. – S. 663–682.
3. Özaydın A. Nizâmülmülk’ün Büyük Selçuklu İmparatorluğu’na Hizmetleri // Selçuk Üniversitesi Selçuklu Araştırmaları Dergisi. – 2018. – Sayı 8. – S. 1–31.
4. Sevim A., Merçil E. Selçuklu Devletleri Tarihi: Siyaset, Teşkilât ve Kültür. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 1995. – 631 s.
5. Агаджанов С. Г. Государство Сельджукидов и Средняя Азия в XI–XII вв. – М.: Наука, 1991. – 303 с.
6. Бурҳонов С. С. Аҳамияти ду ҳикоя аз “Сиёсатнома”-и Низомулмулк дар омӯзиши сатҳи фарҳанги моддии Мовароуннаҳру Хуросони асрҳои X–XI // Номаи донишгоҳ – Учёные записки. – 2023. – № 1(74). – С. 23–28.
7. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулук) / Форс тилидан тарж. Шодмон Воҳид, Афтондил Эркинов. 2-нашр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 240 б.

ҚАЛИЯТЕПА ЁДГОРЛИГИДАН ТОПИЛГАН СИРЛАНГАН КУЛОЛЛИК БУЮМЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ВА БАДИИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ (XV–XVI АСРЛАР)

Пардаев Мухторқул Ҳасанович
Я. Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти
етакчи илмий ходими, тарих фанлари номзоди, доцент.,
Ҳасанбоев Тўрақул Фозилжон ўғли
Жиззах давлат педагогика университети
Умумий тарих кафедраси ўқитувчиси.
+99891 188 09 88

Аннотация. Мақолада Қалиятепа ёдгорлигидан топилган XV–XVI асрларга оид сирланган кулоллик буюмларининг тарихий ва бадиий хусусиятлари археологик манбалар асосида ёритилган. Идишларнинг шакли, ранги ва безак услублари таҳлил қилиниб, уларнинг маҳаллий кулоллик анъаналари ҳамда минтақавий маданий алоқалардаги аҳамияти очиб берилган.

Калит сўзлар: Қалиятепа, Жиззах воҳаси, XV–XVI асрлар, сирланган кулоллик, археологик топилмалар, кулоллик санъати, идиш шакллари, ранглар уйғунлиги, безак нақшлари, бадиий таҳлил, тарихий манбалар ва санъатшунослик, маҳаллий анъаналар, маданий алоқалар, тарихий-маданий мерос.

Ўзбекистон ҳудудида кулоллик ҳунармандчилиги кўп минг йиллик тарихга эга бўлиб, унинг тараққиёти шаҳар маданияти, ҳунармандчилик марказлари ва бадиий тафаккур ривожи билан узвий боғлиқдир. Айниқса, ўрта асрларда йирик шаҳарларда кулолчилик ишлаб чиқарилишига алоҳида эътибор қаратилиб, ҳунармандларнинг ихтисослашган маҳаллалари шаклланган. Мазкур жараён кулоллик буюмларининг нафақат кундалик турмушдаги амалий аҳамиятини, балки уларнинг бадиий-безак хусусиятларини ҳам такомиллаштирган.

Жиззах воҳасида жойлашган Қалиятепа ёдгорлигида сўнгги йилларда ўтказилган археологик қазув тадқиқотлари натижасида топилган XV–XVI асрларга оид сирланган кулоллик идишлари ҳудуднинг тарихий-маданий тараққиёти, ҳунармандчилик анъаналари ҳамда бадиий-эстетик қарашларини ўрганишда муҳим археологик манба ҳисобланади. Ушбу буюмларнинг ранг хусусиятлари, шакл-шамойили, сир қатлами ва безак мотивларини тарихий ҳамда санъатшунослик нуқтаи назаридан қиёсий таҳлил қилиш орқали уларнинг ўзига хос бадиий ечимлари ва маҳаллий кулолчилик анъаналарини аниқлаш имконияти юзага келади.

Тадқиқотларда топилган сирланган идишларнинг ассортименти анча бой бўлиб, улар лаган (ош товоқ)лар, катта коса(чуқур товоқ)лар, косалар, ним коса(косача ёки пиёла)лар, хурмачалардан ташкил топган. Сирланган гулдор идишлар геометрик шакллар, турли ўсимликлар барги, бўтоқ ва гуллари билан безатилган бўлиб, улар асосан оқиш, оч кўк фон устига, тўқ кўк, яшил, оч қора, тўқ малла рангли бўёқлар билан чизилган[Пардаев М., Ҳасанбоев Т.: 63-64]. Ушбу келтирилган фикрларга асосланган ҳолда сирланган кулоллик идишлар қуйидагича тавсифланди:

Лаганлар. Қалиятепадан топилган мазкур идишлар умумий овқатланиш жараёнида асосан қуюқ таомларни тортишда ишлатилаган. Лаганлар сариқ тупроқ лойидан кулоллик чархида ясалган. Тадқиқотлар давомида лаганларнинг икки тоифаси қайд этилди:

Биринчи тоифа лаганларнинг гардиш диаметри 29 см. ни, сақланиб қолган ён деворлари 0,6-0,7-0,9 см. ни ташкил қилади. Гардишнинг ташқи томони юқори қисмига оқ, қолган қисмига эса оч қизғиш ранг берилган. Гардиш ички томони оқ ранг билан сирланган. Ички томон юқори қисмида ҳаворанг, ундан кейин 2 та параллел тарздаги тўқ яшил рангдаги горизонтал чизиқлар мавжуд. Гардишнинг сақланиб қолган пастки томонида ҳам худди юқоридагидек, 2 та тўқ яшил рангли чизиқлар қайд қилинган. Ушбу параллел тарздаги чизиқлар

ораси қорамтир бўёқ билан турли геометрик-панжарасимон шакллар билан безатилган.

Иккинчи тоифага оид лаганларнинг гардиш диаметри 27,5 см., сақланиб қолган ён деворлари 0,6 см.га тенг. Биринчи тоифа лаган гардиши сингари ушбу идиш ташқи томонининг юқори қисмига ҳам оқ ранг, қолган қисмига эса оч қизғиш ранг берилган. Гардиш ички томони оқ ранг билан сирланган ва юқори қисмида горизонтал тарздаги ҳаворанг бўёқ излари мавжуд. Уларнинг сақланиш ҳолати қониқарли даражада. Гардишнинг пастки томони ҳаворанг ва қорамтир шахматнусха геометрик шакллар билан безатилган.

Чуқур товоқ. Ушбу ошхона идиши умумий овқатланишда қуюқ ва нисбатан кўпроқ суюқ таомлар истеъмолида ишлатилган. Қазув тадқиқоти жараёнида топилган товоқнинг гардиш диамерти 30 см.ни, тагдон диаметри 10,5 см.ни, чуқурлиги 7,0 см.ни, умумий баландлиги эса 8,5 см.ни ташкил қилади. Гардишнинг ташқи томони унинг бўғзигача кўк ранг билан бўялган, рангнинг сақланиши ўртача ҳолатда ва намгарчилик туфайли кўп жойлари кўчиб кетган.

Товоқ ташқи томонининг фақат гардиш ости қисмигина сирланган, қолган қисмига оч қизғиш ранг суртилган. Идиш гардиши ички томонининг барча қисми кўк ранг билан сирланган. Гардиш ички томонининг юқори қисми кўк фон устига туширилган, қорамтир рангли, шахматнусха катакчали геометрик шакллар билан безатилган. Ушбу безакнинг пастки қаторида кўк фон устига қорамтир бўёқ билан чизилган занжир халқалари бўлиб, улар бир бири билан туташиб кетган шакллардан иборат [Пардаев М., Ҳасанбоев Т.: 64-71].

Коса. Бу турдаги идишлар тўғридан тўғри ошхона идишлари бўлиб, оиланинг умумий овқатланиш фаолияти билан боғлиқдир. Идишлар дастурхон идишлари туркумига кириб, ҳажман пиёладан каттароқ, асосан суюқ таомларни истеъмол қилиш учун мўлжалланган[Ўзбек тилининг изоҳли луғати:410]. Косалар ўз фойдаланиш хусусияти, безаклари, шакл ва ўлчамларига қараб икки тоифага бўлинади.

Тадқиқот натижасида топилган биринчи тоифа косаларнинг гардиш диаметри 19,5 см., тагдон диаметри 8 см., умумий баландлиги 9,5 см. ни ташкил қилади. Идишнинг ташқи томони тагдонидан, унинг танасигача чиқадиган қисмига оч қизғиш, қолган қисмига эса оқ ранг берилган. Косанинг ташқи томон гардиши юқори қисмида горизонтал тарзда бир бирига параллел ҳаворанг, оч кўк, кўк рангли геометрик чизиқлар туширилган ва бундай безакли нақшлар гардиш ички томон юқори қисмида ҳам учрайди. Ташқи томон

марказида тўқ кўк рангда айлана чизилган, унинг ички қисмига ҳаворанг буюқ берилган. Айлана ташқи томонида ҳам тўқ кўк рангли, ўсимлик япроғига ўхшаш турли геометрик шакллар мавжуд. Косанинг ички томони оқ ранг билан сирланган. Тагдон ички томон марказига тўқ кўк ранг билан турли горизонтал ва вертикал геометрик чизиқлар туширилган.

Иккинчи тоифа косалар ҳам кулоллик чархида тайёрланган бўлиб, идишнинг тагдон қисми тўлиқ, ён деворлари 4-5 см. гача сақланиб қолган. Тагдон маркази ўйиб ишланган ва идишнинг ташқи томонига оч қизғиш ранг берилган. Косанинг ички томони оқ ранг билан сирланган. Тагдон ички томонида кўк ранг билан, қалин қилиб чизилган 2 та айлана шакли мавжуд. Марказий айлана ичи тўқ ҳаворанг билан бўялган. Икки айлана чизиқлар орасига тўқ кўк ранг билан, япроқсимон геометрик шакллар туширилган[Пардаев М., Ҳасанбоев Т.:64-72].

Нимкоса. Пиёладан каттароқ, косадан кичикроқ бўлган дастурхон идиши бўлиб, асосан умумий овқатланиш жараёнида ишлатилган. Анъанавий дастурхон маданиятида “нимкоса” атамаси косанинг тахминан ярим ҳажмига тенг бўлган, таом тортиш учун мўлжалланган идишни англатади; улар шаклан бир хил бўлиб, асосий фарқи ҳажмий кўрсаткичларида намоён бўлади [Пещерева Е.М.: 244]. Тадқиқотларда аниқланган нимқосалар ўлчами, безаги ва шакл-шамойилига қараб икки тоифага бўлинади.

Биринчи тоифа нимкосалар тагдон қисмининг ярми, ён деворлари баландлиги 7 см.гача сақланиб қолган. Идиш тагдони диаметри 7 см. га, баландглиги 0,5 см. га тенг. Идишнинг ташқи томонига қизғиш ранг берилган. Нимкосанинг сақланиб қолган ички томонида 3 қатор турли геометрик шакллар мавжуд. Ушбу безакларнинг юқори ва ўрта қисмидагилари бир-бирига ўхшаш. Унда горизонтал тарзда оқ ранг устига кўк фон берилган параллел чизиқлар мавжуд. Кўк фон чизиқларнинг икки томонида, унга параллел тарзда қора чизиқлар чизилган. Биринчи ва иккинчи қатордаги тасвирлар ичи оқ ранг билан сирланган, уларга турли геометрик қорамтир рангдаги шакллар туширилган. Ушбу қорамтир шаклларнинг баъзилари ўсимлик танаси ва унинг япроқларига ўхшайди.

Иккинчи тоифа нимкосаларнинг фақат, тагдон қисми тўлиқ, ён деворлари эса 2-3 см. гача сақланиб қолган. Нимкосанинг ташқи томонига оч қизғиш ранг берилган. Мазкур идишнинг ички томони ҳаворанг бўёқ билан сирланган. Тагдон ички томон марказида қорамтир бўёқ билан, қалин қилиб чизилган

айлана шакли мавжуд. Нимкоса ички томон ён деворларида яшил рангдаги турли геометрик безак шакллари сақланиб қолган.

Пиёла. Пиёлаларнинг шакли кўпгина ҳолларда косаларнинг айнан ўзи ёки уларнинг мўъжаз нусҳаси бўлиб қайтарилади. Соҳа мутахассислари таъкидлаганидек, юнон косаси “фиала”дан кейинчалик ўзбекча “пиёла” номи келиб чиққан ва бу шаклдаги идишларни ишлаб чиқариш юнон кулоллик маҳсулотлари таъсирида вужудга келган[Исамиддинов М.: 29., Пардаев М., Пардаев А.:66]. Археологик қазув тадқиқотларида топилган ва XV-XVI асрлар билан даврлаштирилган пиёла гардишининг диаметри 10 см., тагдон диамерти 4,3 см., чуқурлиги 4,5 см., умумий баландлиги 5,7 см. ни ташкил қилади. Ушбу идишнинг гардишидан тагдон қисмигача оқ ва тагдон ҳамда тана қисми бошланадиган қисмигача оч қизғиш ранг берилган. Пиёла гардишининг юқори қисмига горизонтал тарзда 2 та параллел кўк чизиқлар туширилган. Шундай чизиқлар идишнинг ташқи томонидаги оқ ранг берилган жойнинг тугаган қисмида, ҳамда гардиш ички томони юқори қисмларида ҳам мавжуд. Мазкур идишнинг оқ ранг берилган ташқи томонининг марказий қисми кўк, тўқ кўк рангли, турли геометрик шакллар билан безатилган. Ушбу шакллар кўринишидан узум меваси ва унинг япроқларига ўхшайди. Пиёланинг ички томони худди ташқи сингари оқ ранг билан сирланган. Тагдон ички қисми марказида тўқ кўк ранг айлана шакли бўлиб, унинг ўртаси ва ён томонларида, худди идишнинг ташқи томонида учраган, тўқ кўк рангли, узум япроқлари тасвири туширилган[Пардаев М., Ҳасанбоев Т.:64-72].

Қўшқулоқ хурма. Ушбу турдаги идишлар кундалик ҳаётда асосан сут ва сут маҳсулотларини сақлашда фойдаланилган. Э. М. Пещереванинг берган этнографик маълумотларга кўра, сут соғиш, қатиқ ивитиш, қаймоқ олиш каби бир қанча жараёнлардан ташкил топган “сут хўжалиги” хурмаларнинг бир неча хилларини вужудга келиши учун асосий сабаб бўлган[Пещерева Е.М.: 60-62]. Тадқиқотларда топилган хурма гардишининг диаметри 27 см., тагдон диаметри 11,5 см. га тенг ва идишнинг баландлиги эса 17,4 см. ни ташкил қилади. Мазкур идиш ташқи томони қорин қисмигача оқ ва қолган қисмига эса оч қизғич ранг берилган. Оқ ранг устидан фақат идишнинг бўғиз қисмигагина қорамтир ҳар хил геометрик шакллар туширилган.

Хурмага 2 та бир-бирига параллел тарзда қулоқ дастаклари ўрнатилган бўлиб, ушбу жиҳат, этнографик маълумотларга кўра, бу хилдаги идишларни қўшқулоқ номи билан аталишига сабаб бўлган. Қўшқулоқнинг ташқи томонида горизонтал тарзда, бир-бирига параллел чизиқлар бўлиб, улар қорамтир бўёқ

билан идишнинг ранг берилган қисмигача чизиб чиқилган[Пардаев М., Ҳасанбоев Т.:64-72].

Сўнгги йилларда Қалиятепа шаҳристонида топилган кулоллик идишлари қиёсий солиштирилганда, бундай сирланган идишлар Қадимги Уструшонанинг Кўҳна Ховос ёдгорлиги [Грицина А., Раҳимов К., Мамиров О. :59] маданий қатламларида ҳам қайд қилинган. Бундан ташқари, юқорида тавсифланган коса, нимкосалар Тошкент воҳасида жойлашган ёдгорликлардан топилган мазкур турдаги идишлар билан ҳар томонлама ўхшашлик хусусиятига эгадир [Ильясова С. Р.:373-381]. Қиёсий ўрганиш натижасида XV-XVI асрларга оид сирланган кулоллик идишлари бир нечта тур ва тоифаларга бўлинди. Қалиятепа ёдгорлигига мансуб кулоллик буюмларининг деярли барча наъмуналари Самарқанд вилоятида жойлашган Шероз қалъа[Суюнов С., Раҳмонов Ҳ., Пирматов И.: 26-34], Дабусқалъа [Бердимурадов А.Э., Уно Такао, Рахимов К.А., Грицина А.А.:54-55], Бухоронинг Вардонзе қўрғони арки[Мирзаахмедов. Д. К., Поззи С., Адылов Ш. Т., Султанова М., Мирзаахмедов С.: 340-349], Марв ва Янги Нисо [Пугаченкова Г.А.: 400-416] шаҳар харобалари маданий қатламларидан ҳам топилган ҳамда XV-XVI асрлар билан даврланган.

Хулоса қилиб айтганда, Жиззах воҳаси сўнгги ўрта асрларда минтақавий сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар тизимида муҳим ўрин тутган. Қалиятепа ёдгорлигидан топилган XV–XVI асрларга оид сирланган кулоллик идишларининг тарихий-санъатшунослик таҳлили воҳада кулоллик ҳунармандчилиги ривожланганидан далолат беради. Буюмларнинг ранг хусусиятлари, шакл-шамойили ва безак композицияларини қиёсий ўрганиш орқали уларнинг бадиий ўзига хослиги, маҳаллий анъаналар ҳамда бошқа ҳудудлар билан маданий алоқаларини аниқлаш мумкин. Тадқиқот натижалари Жиззах воҳаси кулолчилик санъати тараққиётида, аввало, Марказий Суғд, кейинчалик Тошкент ва Бухоро воҳалари ҳамда Хуросоннинг йирик шаҳар маданиятлари билан алоқалар муҳим аҳамият касб этганини кўрсатади. Шу билан бирга, мазкур маданий таъсирларни аниқлашда буюмларнинг археологик топилма контексти, технологик хусусиятлари ва безак услубларини комплекс ўрганиш муҳимдир. Сирланган кулоллик буюмларини бирламчи археологик манбалар асосида тарих ва санъатшунослик фанлари интеграциясида тадқиқ этиш Жиззах воҳасининг ҳунармандчилик тарихи, бадиий тафаккури ва маданий алоқаларини чуқурроқ ёритиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Бердимурадов А.Э., Уно Такао, Рахимов К.А., Грицина А.А.. Работы Дабускалинского отряда в 2009 году. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар журнали. 7-сон. Самарқанд. 2012. рис.3.

2.Ильясова С. Р. Кашинная керамика Ташкента XV-XVI вв. История и Археология Турана. № 3. Самарканд. 2017.

3.Исамиддинов М. Сополга битилган тарих. Тошкент., “Фан”. 1993.
4.Грицина А., Раҳимов К., Мамиров О. Кўҳна Ховос ёдгорлигида 2015-2017-йилларда олиб борилган археологик тадқиқотлар. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 11-сон. Самарқанд. 2018.
5.Мирзаахмедов. Д. К., Поззи С., Адылов Ш. Т., Султанова М., Мирзаахмедов С. Городище Варданзе - Динамика обживания цитадели по материалом керамических комплексов средневековья. история и археология Турана. История и Археология Турана. № 3. Самарканд. 2017.
6.Пардаев М., Пардаев А. Жиззах воҳасининг IV-VI асрлардаги кулоллик идишлари. ЎММТ. 29-нашр. Самарқанд. 1998.
7.Пардаев М., Ҳасанбоев Т. Жиззах воҳасининг XV-XVI асрларга оид сирланган кулоллик идишлари. Ўзбекистон археологияси № 1(26). Самарқанд. 2022.
8.Пещерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии. Москва, 1959.
9.Пугаченкова Г.А. Глазурованная керамика Нисы XV-XVI вв. Труды ЮТАКЭ. Том I. Ашхабад. 1949.
10.Суюнов С., Раҳмонов Ҳ., Пирматов И. Шероз қалъа ёдгорлиги тўғрисида. Ўзбекистон археологияси. № 2(15) Самарқанд. 2017.
11.Ўзбек тилининг изоҳли луғати “Ўзбекистон нашриёти”. Тошкент, 2020. 2-том

QADIMGI FARG‘ONADA DEHQONCHILIKNING PAYDO BO‘LISHI

Qudratov Solijon Sulaymonovich
Guliston davlat universiteti
Tarix kafedrasi professori,
tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada Farg‘ona vodiysida dehqonchilikning shakllanishi, eneolit va bronza davriga oid arxeologik topilmalar, Chust madaniyatining taraqqiyoti hamda sug‘orish tizimlarining rivojlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, qadimgi aholi manzilgohlari, xo‘jalik munosabatlari va voha davlatchiligining vujudga kelishi masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, dehqonchilik, eneolit, bronza davri, Buvanamozor, Shag‘im mozori, Xak xazinasi, So‘x topilmalari, Sarazm, Chust madaniyati, Dalvarzintepa, sug‘orish tizimi, voha, davlatchilik, Sho‘raboshot madaniyati, arxeologik tadqiqotlar.

Farg‘ona vodiysida dehqonchilikning paydo bo‘lishi Markaziy Osiyoning qadimgi xo‘jalik va madaniy taraqqiyotini o‘rganishdagi muhim masalalardan biridir. Uzoq vaqt davomida vodiyda sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik miloddan

avvalgi XIII–XII asrlarda shakllangan, degan qarash ustuvor bo‘lib kelgan. Biroq keyingi arxeologik tadqiqotlar Farg‘onada dehqonchilik an’analarining ildizlari bundan ham qadimgi davrlarga borib taqalishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Xususan, G‘ovasoy vohasidagi Buvanamozor (Bibi Ona) yodgorligining quyi qatlamlari, Shag‘im mozoridan topilgan ashyolar, Xak xazinasi hamda So‘x topilmalari eneolit va ilk bronza davrida vodiyda dehqonchilik bilan bog‘liq xo‘jalik-madaniy jarayonlar mavjud bo‘lganligi haqidagi qarashlarga asos bo‘lmoqda [Rahmanov, 2022; Amanbaeva va boshq., 2005].

Z. Rahmanov Farg‘ona vodiysidan topilgan bir-biriga chirmashgan ikki ilon tasviri tushirilgan So‘x buyumi, Xak va Aflotun xazinalari, Qorasuv tarozi toshi, O‘shdagi Sulaymontog‘ muzey majmuasida saqlanayotgan tarozi toshlari, Paxtaobod topilmasi hamda Norin daryosining o‘rta oqimidagi Shamollisoy qishlog‘idan topilgan buyumlarni eneolit va ilk bronza davri bilan bog‘laydi. Tadqiqotchining fikricha, ushbu topilmalar Farg‘ona vodiysida mazkur davrlardayoq dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholi guruhlari mavjud bo‘lganligini taxmin qilish imkonini beradi [Rahmanov, 2022].

Mazkur topilmalarning ilmiy ahamiyati ularning faqat qadimiyligi bilan belgilanmaydi. Ular vodiyda ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakllarining tarqalishi, aholining turli madaniy muhitlar bilan aloqalari va hunarmandchilikning dastlabki rivojlanish bosqichlarini aniqlash uchun ham muhimdir. Shu bilan birga, alohida topilgan metall buyum yoki tarozi toshi muayyan hududda rivojlangan dehqonchilik tizimi mavjud bo‘lganligini bevosita isbotlamaydi. Bunday xulosalar manzilgohlar, xo‘jalik inshootlari, o‘simlik qoldiqlari va boshqa arxeologik dalillar bilan birgalikda asoslanishi zarur.

Farg‘onadagi ilk dehqonchilik aholisining kelib chiqishi masalasida turli ilmiy qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar ularni Yuqori Zarafshondagi Sarazm madaniyati bilan, boshqalari esa Janubiy Turkmaniston va qadimgi Elam madaniy muhiti bilan bog‘liq migratsiya jarayonlari orqali izohlaydilar. Bu qarashlar Farg‘onada dehqonchilikning shakllanishini faqat mahalliy taraqqiyot natijasi sifatida emas, balki Markaziy Osiyoning janubiy va g‘arbiy hududlari bilan kechgan madaniy aloqalar doirasida ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

V. Ruzanov Farg‘onada metallga ishlov berishning dastlabki bosqichlarini miloddan avvalgi III ming yillikning ikkinchi yarmi – II ming yillikning boshlari bilan bog‘laydi. Uning fikricha, Sarazm hududidan hozirgi O‘zgan atroflariga ko‘chib kelgan aholi metallga ishlov berish an’analarini olib kirgan bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchi bu davrda mahalliy rudalardan foydalanish imkoniyatlari

cheklanganligini qayd etib, metall xomashyosi Eron va Afg‘oniston hududlaridan keltirilgan bo‘lishi ehtimolini ilgari suradi [Рузанов, 2023].

Xak xazinasiga oid metall buyumlarning kimyoviy tarkibi va tipologik xususiyatlarini qiyosiy o‘rgangan V. Ruzanov ularning ayrimlarini miloddan avvalgi II ming yillik o‘rtalarida Murg‘ob vohasidan kelgan aholi guruhlari bilan bog‘laydi [Рузанов, 2020]. Bu yondashuv Farg‘ona vodiysidagi qadimgi metall buyumlarni keng mintaqaviy almashinuv va migratsiya jarayonlari bilan bog‘liq holda talqin qilish imkonini beradi.

Sarazm, Murg‘ob va Farg‘ona o‘rtasidagi ehtimoliy aloqalarni o‘rganishda metall buyumlarning shakli, kimyoviy tarkibi, tayyorlanish texnologiyasi va tarqalish hududlarini qiyoslash alohida ahamiyatga ega. Biroq buyumlar o‘rtasidagi tipologik o‘xshashlik har doim ham aholining bevosita ko‘chib kelganligini anglatmaydi. Bunday umumiyliklar savdo, xomashyo almashinuvi yoki texnologik tajribaning tarqalishi natijasida ham yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli migratsiya haqidagi qarashlarni boshqa arxeologik ma’lumotlar bilan mustahkamlash talab etiladi.

Eneolit va ilk bronza davriga oid dehqonchilik manzilgohlarining vodiy hududida hozircha yetarlicha aniqlanmaganligi muammoli masalalardan biridir. Ayrim tadqiqotchilar buni qadimgi manzilgohlarning sel va yog‘in suvlari ta’sirida yemirilishi bilan izohlaydilar. Farg‘ona vodiysining tektonik jihatdan faol hududda joylashganligi hisobga olinsa, ayrim qadimgi madaniy qatlamlar keyingi geologik jarayonlar natijasida chuqur yotqiziqlar ostida qolgan bo‘lishi ham mumkin. Biroq mazkur taxminni tasdiqlash uchun maxsus geoarxeologik tadqiqotlar talab etiladi.

Farg‘onada rivojlangan bronza davriga, xususan, Namozgoh VI bosqichiga bevosita taalluqli arxeologik yodgorliklarning hozircha yetarlicha aniqlanmaganligi ham vodiy qadimgi tarixining muhim ilmiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu holat eneolit va ilk bronza davriga oid ayrim topilmalar bilan so‘nggi bronza davrida keng tarqalgan o‘troq dehqonchilik madaniyati o‘rtasidagi tarixiy uzviylikni aniqlashni murakkablashtiradi.

Farg‘ona vodiysida so‘nggi bronza davriga kelib o‘troq dehqonchilik madaniyati keng rivojlangan. Ushbu madaniyat arxeologiya fanida Chust madaniyati nomi bilan ma’lum. Unga oid 80 dan ortiq yodgorlik aniqlanganligi qayd etiladi. Chust madaniyatining muhim belgilaridan biri qo‘lda yasalgan, qizil bo‘yoq bilan bezatilgan naqshli sopol idishlardir [Заднепровский, 1960; Иванов, 1999].

Mazkur madaniyatga oid dastlabki topilmalar 1939–1940-yillarda Katta Farg‘ona kanali qurilishi jarayonida aniqlangan. T. G. Oboldueva tomonidan Andijon

viloyatining Lug‘umbek qishlog‘i hududidan naqshli sopol idish va bronza pichoq topilgan [Оболдуева, 1951]. Chust madaniyatini tizimli arxeologik o‘rganish esa 1950-yildan boshlangan. V. I. Sprishevskiy 1950–1961-yillarda Chust manzilgohida tadqiqotlar olib borgan. 1952-yildan Andijon viloyatining Oyim qishlog‘i yaqinidagi Dalvarzintepa yodgorligini o‘rganish ishlari boshlangan [Спришевский, 1954].

Chust manzilgohida mudofaa devorlari, turar joylar va xo‘jalik inshootlari aniqlangan. Manzilgoh markazidagi ochiq maydon tashqi xavf yuzaga kelgan vaqtda aholi hamda chorvani himoyalash uchun foydalanilgan bo‘lishi mumkin. Sharqiy qismida devor bilan o‘ralgan hovli va uning ichida aylana hamda to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi bir xonali turar joylar o‘rganilgan.

Chust aholisi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Arxeologik ma’lumotlar ularning omochdan foydalanganligi, arpa, bug‘doy va tariq yetishtirganligidan dalolat beradi. Turar joylar va mudofaa inshootlari xom g‘isht hamda guvaladan qurilgan. To‘qimachilik, kulolchilik va metallga ishlov berish hunarmandchilikning rivojlangan tarmoqlari bo‘lgan. Chust manzilgohining yuqori madaniy qatlamlari ayrim tadqiqotlarda miloddan avvalgi XI–X asrlarga oid deb baholangan. Bu qatlamlardan Yaz I va Kuchuk I madaniy an’analariga o‘xshash kulolchilik charxida tayyorlangan sopol idishlar ham topilgan.

Chust madaniyati qadimgi Baqtriya, Sug‘d va Xorazm hududlaridagi bo‘yalgan sopol idishlar an’analariga ega dehqonchilik madaniyatlari bilan muayyan umumiyliklarga ega. Ayrim tadqiqotchilar uni miloddan avvalgi XIV–XI asrlarda keng tarqalgan mintaqaviy madaniy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida baholaydilar [Заднепровский, 1960].

Chust madaniyatining muhim xususiyatlaridan yana biri aholining vohalar bo‘ylab joylashganligidir. Tadqiqotlarda ushbu davrga oid 15 ta voha ajratib ko‘rsatilgan. Ular qadimgi daryolar va irmoqlar bo‘yida shakllangan bo‘lib, ayrim vohalar orasidagi masofa 20–30 kilometrni tashkil etgan. Har bir vohada nisbatan yirik markaziy manzilgoh va uning atrofida kichik qishloqlar joylashgan [Заднепровский, 1960; Заднепровский, «К истории оазисного расселения...»].

Bunday joylashuv tizimi dehqonchilikning tabiiy suv manbalari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Sug‘orish inshootlarini qurish, suv taqsimotini tashkil etish va mavjud tarmoqlarni saqlash jamoaviy mehnat hamda muayyan boshqaruv mexanizmlarini talab qilgan. Shu asosda ayrim tadqiqotchilar Chust madaniyatining so‘nggi bosqichlarida, miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda, Farg‘onada voha davlatchiligining dastlabki shakllari vujudga kelganligini ilgari suradilar [Матбобоев, 2014].

Voha tizimining shakllanishi dehqonchilik jamoalari o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Suv manbalaridan birgalikda foydalanish, sug‘orish tarmoqlarini saqlash va mehnatni tashkil etish zarurati alohida manzilgohlar doirasidan tashqariga chiqadigan boshqaruv munosabatlarini yuzaga keltirgan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, vohalarning barchasi bir xil siyosiy tuzilishga ega bo‘lgan, degan xulosaga kelish uchun yetarli asos mavjud emas. Ularning rivojlanish darajasi aholi soni, xo‘jalik imkoniyatlari, mudofaa tizimi va geografik sharoitga qarab farqlangan bo‘lishi ehtimol.

Bu masalada Dalvarzintepa yodgorligi alohida o‘rin tutadi. Ark va mudofaa devorlariga ega bo‘lgan ushbu manzilgoh qadimgi Farg‘onadagi yirik markazlardan biri sifatida baholanadi. Uning mudofaa tizimi va ichki tuzilishi aholi manzilgohlarini tashkil etishda muayyan rejalashtirish tamoyillari mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi [Матбабаев, Абдуллаев, 2011].

Dalvarzintepa va Chust manzilgohlaridagi qurilish qoldiqlari qadimgi aholining me’moriy tajribasi va jamoaviy mehnatni tashkil etish imkoniyatlarini o‘rganishda muhimdir. Mudofaa devorlarini barpo etish, turar joylar va xo‘jalik maydonlarini joylashtirish muayyan amaliy bilimlarni talab qilgan. Shu sababli Chust madaniyatiga oid barcha manzilgohlar hech qanday rejasiz, tartibsiz qurilgan, degan qarashni umumlashtirish to‘g‘ri emas. Biroq yirik manzilgoh va mudofaa inshootlarining mavjudligi o‘z-o‘zidan to‘liq shakllangan davlat tizimini isbotlamaydi. Bu masala ijtimoiy tabaqalanish, boshqaruv, xo‘jalik aloqalari va hududiy tashkilotga oid boshqa dalillar bilan birgalikda baholanishi lozim.

Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida qadimgi dehqonchilik va yirik manzilgohlarning rivojlanishida tabiiy-geografik sharoit muhim ahamiyat kasb etgan. Vodiy yagona geografik hudud bo‘lsa-da, uning turli qismlarida yog‘ingarchilik miqdori sezilarli farqlangan. Tadqiqotlarda Qo‘qon va uning g‘arbiy hududlarida yillik yog‘in miqdori 80–100 mm, Andijon atrofida 230–260 mm, O‘shda 360 mm, O‘zgan vohasida esa 600 mm gacha yetishi qayd etilgan. Qoradaryo va Yassi daryolarining doimiy suv manbalari sifatidagi ahamiyati ham Sharqiy Farg‘onada dehqonchilik uchun qulay sharoit yaratgan.

Shu sababli Chust madaniyatiga oid ko‘plab manzilgohlar aynan Sharqiy Farg‘onada joylashgan. G‘ovasoy, Kosonsoy, Podsho‘otasoy va Qoradaryo havzalaridagi yodgorliklar ham qadimgi aholi joylashuvida suv manbalarining muhim rol o‘ynaganligini ko‘rsatadi. Daryolar va soylar bo‘yida shakllangan manzilgohlar dehqonchilik maydonlari bilan turar joylar o‘rtasidagi hududiy aloqalarni ta’minlagan.

Bu holat qadimgi vohalarning xo‘jalik jihatdan shakllanishida suv resurslari hal qiluvchi omillardan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Sharqiy Farg‘ona moddiy madaniyatida o‘ziga xos kulolchilik an’analari ham kuzatiladi. Bu hududda qo‘lda yasalgan va bo‘yoqli naqshlar bilan bezatilgan sopol idishlarning ayrim shakllari vodiyning boshqa qismlarida kam uchraydi. Tadqiqotchilarning bir guruhi ushbu farqlarni Chust madaniyatining mahalliy varianti sifatida talqin qilsa, boshqalari ularni xronologik tafovutlar bilan izohlaydi.

Chust madaniyatini davrlashtirish masalasi ham ilmiy munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Yu. A. Zadneprovskiy O‘sh manzilgohidan olingan radiokarbon natijalar asosida madaniyatni miloddan avvalgi XVI/XV–VIII/VII asrlarga oid deb hisoblagan [Заднепровский, 1997]. B. Matboboyev Chust, Dalvarzintepa va O‘sh yodgorliklaridan olingan namunalar asosida uning davrini miloddan avvalgi XII–VIII/VII asrlar bilan belgilagan [Матбобоев, 2014].

A. Anarboyev dastlab Chust madaniyatining mavjudlik davrini miloddan avvalgi XVI–XV asrlardan VII asrgacha deb baholagan. Keyinchalik Chust-Bibi Ona manzilgohida olib borilgan tadqiqotlar asosida ushbu davriy chegaralarni miloddan avvalgi XIV asr oxiri – IX asr oxiri bilan belgilash fikrini ilgari surgan [Анарбаев, Баратов, 2022].

G. P. Ivanov esa Chust madaniyati yodgorliklarining quyi qatlamlarini miloddan avvalgi II ming yillik oxirlari, xususan, XIII asr, yuqori qatlamlarini esa Shimoliy Baqtriya sopol idishlari bilan qiyoslash asosida miloddan avvalgi VIII–VII asrlar bilan davrlashtirishni taklif qilgan [Иванов, 1999].

Chust madaniyati xronologiyasiga oid ushbu qarashlar o‘rtasidagi tafovut uning davomiyligi, shakllanish bosqichlari va keyingi madaniyatlar bilan munosabatlarini aniqlashga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, madaniyatning boshlanish sanasini miloddan avvalgi XVI–XV asrlarga yoki XIII–XII asrlarga joylashtirish Farg‘onadagi o‘troq dehqonchilikning qadimgi Baqtriya va Sug‘d madaniyatlari bilan xronologik munosabatlarini turlicha talqin qilishga olib keladi. Shu sababli alohida yodgorliklardan olingan radiokarbon natijalarni stratigrafik qatlamlar va sopol majmualari bilan qiyoslash zarur.

Chust madaniyatining keyingi madaniy jarayonlar bilan munosabati ham muhim ilmiy masaladir. Ayrim manzilgohlarning yuqori qatlamlarida Eylaton madaniyatiga xos naqshli va qizil angobli sopol buyumlar uchraydi. Bu holatni ayrim tadqiqotchilar Chust madaniyatining tanazzuli va dehqon aholining chorvador guruhlar bilan qo‘shilib ketishi natijasi sifatida talqin qiladilar.

Biroq ushbu jarayonni faqat chorvador aholining ustun ta’siri bilan izohlash bir tomonlama yondashuv bo‘lishi mumkin. Dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan jamoalar o‘rtasidagi madaniy-iqtisodiy aloqalar, o‘zaro ta’sir va xo‘jalik an’analarining almashinuvi ham muhim o‘rin tutgan. Shu nuqtayi nazardan, ayrim chorvador guruhlarning dehqonchilik madaniyati ta’sirida o‘troqlashganligi haqidagi qarash ham ilmiy muhokamaga loyiqdir.

Farg‘ona vodiysining bronza davri aholisini faqat dehqonlar va chorvadorlar yashagan qat’iy ajratilgan hududlarga bo‘lish ham barcha arxeologik holatlarni to‘liq tushuntirib bermaydi. Ayrim vohalarda dehqonchilik va chorvachilik jamoalari yonma-yon yashab, o‘zaro xo‘jalik va madaniy aloqalarni rivojlantirgan bo‘lishi mumkin. S. Sorokin ilgari surgan ularning yagona konfederativ uyushma doirasida mavjud bo‘lganligi haqidagi qarash ham ana shu munosabatlarni izohlashga qaratilgan.

Miloddan avvalgi V–II asrlarda Sharqiy Farg‘onada Sho‘raboshot madaniyati rivojlangan. Tadqiqotlarda ushbu davrda manzilgohlar soni Chust madaniyati davridagiga nisbatan 15 barobar oshganligi qayd etiladi. G. P. Ivanovning fikricha, bu bosqichda kulolchilik charxida tayyorlangan qizil angobli sopol idishlar keng tarqalgan. Shu bilan birga, Chust madaniyatiga xos qo‘lda yasalgan naqshli sopol idishlar, tosh omochlar, pichoqsimon o‘roqlar va xo‘jalik o‘ralarining davom etishi madaniy vorisiylik alomatlarini ko‘rsatadi [Иванов, 1999].

Chust va Sho‘raboshot madaniyatlari o‘rtasidagi o‘tish jarayonini faqat chorvadorlarning kirib kelishi bilan izohlash yetarli emas. Bu jarayonda mahalliy dehqonchilik an’analarining davomiyligi, chorvador guruhlarning o‘troqlashuvi va turli madaniy komponentlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi ham hisobga olinishi zarur.

Farg‘ona vodiysidagi bronza davri chorvador jamoalarining kelib chiqishi masalasida A. Anarboyev va S. Baratov Fedorov madaniyatining so‘nggi bosqichi, Sargari-Alekseyevka, Valik hamda Begazi-Dandiboy madaniyatlari bilan bog‘liq arxeologik majmualarga e’tibor qaratadilar. Vodiydagi chorvadorlarga oid qadimgi topilmalar qatorida Arpa va Dahan mozorlaridan aniqlangan, miloddan avvalgi XVI–XIV asrlarga mansub deb baholangan ashyolar alohida o‘rin tutadi [Анарбоев, Баратов, 2024].

Mazkur qabrlardagi ayrim dafn an’analarining Chust madaniyatiga mansub Qashqarchi va Yapag‘i mozorlaridagi katakomba tipidagi qabrlarga o‘xshashligi dehqonchilik va chorvachilik jamoalari o‘rtasidagi madaniy aloqalar masalasini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, Farg‘ona vodiysida dehqonchilikning shakllanishi bir necha tarixiy bosqichlarni qamrab olgan murakkab jarayon bo‘lgan. Eneolit va ilk bronza davriga oid ayrim arxeologik topilmalar vodiyda dehqonchilik an’analarining dastlabki ildizlarini izlash imkonini bersa, Chust madaniyati davrida o‘troq dehqonchilik, hunarmandchilik, sug‘orish tizimlari va vohalar bo‘ylab joylashgan manzilgohlar tizimi ancha rivojlangan.

Chust madaniyatining so‘nggi bosqichlarida yirik manzilgohlar, mudofaa inshootlari va jamoaviy xo‘jalik faoliyatining rivojlanishi boshqaruv munosabatlarining murakkablashuviga zamin yaratgan. Biroq bu jarayonni bevosita davlatning to‘liq shakllanishi bilan tenglashtirishdan ko‘ra, voha davlatchiligining vujudga kelishiga olib kelgan tarixiy shart-sharoitlar sifatida baholash ilmiy jihatdan asosliroqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Аманбаева Б.Э., Рогожинский А.Е., Мэрфи Д. Могильник Шагым – новый памятник эпохи бронзы Восточной Ферганы (Кыргызстан) // 2.Археологические исследования в Узбекистане в 2004–2005 годы. – Вып. 5. – Ташкент: Фан, 2005.
3.Анарбаев А., Баратов С. Новые археологические работы на поселении Чуст-Бибиона // ИМКУ. – Вып. 42. – Ташкент, 2022. – С. 216.
4.Анарбоев А. Қадимги ва ўрта асрларда Ахсикент // Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент: Фан, 2001.
5.Анарбоев А.А., Баратов С.Р. Урбанизационные процессы в развитии древней культуры на территории Ферганского культурно-исторического региона (эпоха бронзы и раннего железа) // Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixida Axsikent: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Fan, 2024.
6.Anorboev A. Farg‘onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o‘rni. – Toshkent, 2022.
7.Баратов С.Р. К проблеме автохтонных культур эпохи бронзы Средней Азии // Древние культуры Евразии: материалы международной научной конференции, посвящённой 100-летию А.Н. Бернштама. – Санкт-Петербург, 2010.
8.Гаврющенко П.П. Куланчакское укрепленное поселение (к истории Ферганы второй половины I тыс. до н.э.): автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Фрунзе, 1970.
9.Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. – М.: МИА, 1960. – № 118.
10.Заднепровский Ю.А. К истории оазисного расселения в первобытной Средней Азии // КСИА. – Вып. 167. – Москва. – Нашр йили аниқлаштирилиши лозим.

11.Заднепровский Ю.А. Ошское поселение: к истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. – Бишкек, 1997.
12.Иванов Г.П. Археологические культуры Ферганы: дис. ... канд. ист. наук. – Самарканд, 1999.
13.Матбабаев Б., Абдуллаев В. Оборонительные сооружения древней Ферганы (конец II тыс. до н.э. – первая половина I тыс. н.э.). – Ташкент, 2011.
14.Матбобоев Б. Қадимги Фарғонада илк давлатчилик илдизлари // O‘zbekiston tarixi. – 2014. – № 1.
15.Оболдуева Т.Г. Отчет о работе первого отряда археологической экспедиции БФКа // ТИИА АН УзССР. – Т. IV. – Ташкент, 1951.
16.Рахманов З.О. Этапы освоения Северной Ферганы (на основе изучения археологических памятников): дис. ... доктора философии (PhD) по историческим наукам. – Ташкент, 2022.
17.Рузанов В. Происхождение, датировка и химико-металлургическо-морфологические признаки изделий Хакского комплекса // Археология Узбекистана. – 2020. – № 1 (18). – Самарканд.
18.Рузанов В. Рудная база металлургии Фергано-Ташкентского региона в эпоху энеолита и бронзы // O‘zbekiston arxeologiyasi. – 2023. – № 1 (28).
19.Спришевский В.И. Чустская стоянка эпохи бронзы // СЗ. – Москва, 1954. – № 3.

ZAMONAVIY O‘ZBEK JAMIYATIDA YOSHLARNING TARIXIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY-MADANIY MEROSNING AHAMIYATI

Qambarov Abdujabbor Boxroliyevich
Namangan davlat pedagogika instituti,
“Falsafiy va tarixiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel.: +998 94 907 27 80
Elektron pochta: abduzabborkambarov15@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o‘zbek jamiyatida yoshlarning tarixiy tafakkurini shakllantirishda tarixiy-madaniy merosning ahamiyati tahlil qilinadi. Milliy va ijtimoiy xotiraning o‘zaro aloqadorligi, moddiy va nomoddiy merosning tarbiyaviy imkoniyatlari, tarixiy

yodgorliklardan ta’lim jarayonida foydalanish hamda tarixiy bilimlarni rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy tafakkur, tarixiy ong, madaniy meros, tarixiy yodgorlik, milliy xotira, ijtimoiy xotira, milliy o‘zlik, milliy ong, tarixiy tajriba, madaniy qadriyat, ma’naviy tarbiya, tarixiy manba, yoshlar tarbiyasi, madaniy identiklik, merosni muhofaza qilish.

Tarixiy tafakkur jamiyatning o‘tmish haqidagi bilimlari, tarixiy voqealarni anglash va baholash qobiliyati hamda tarixiy tajribadan hozirgi ijtimoiy hayot uchun xulosa chiqarish jarayoni bilan bog‘liq. Uning shakllanishida tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash va madaniy meros muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, global axborot almashinuvi jadallashgan hozirgi sharoitda yoshlarning tarixiy voqelikka mustaqil va tanqidiy munosabat bildirishi, tarixiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini egallashi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Tarixiy tafakkurni faqat o‘tmishga oid voqea va sanalarni bilish bilan cheklash mumkin emas. U tarixiy jarayonlarning sabab va oqibatlarini tushunish, turli davrlardagi ijtimoiy munosabatlarni qiyoslash, tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni tahlil qilish hamda tarixiy tajribani zamonaviy voqelik bilan bog‘lash qobiliyatini ham qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy-madaniy meros yoshlar uchun o‘tmish haqida ma’lumot beruvchi manba bo‘lish bilan birga, mustaqil fikrlash va tarixiy hodisalarga asosli baho berishni rivojlantiruvchi ta’limiy vosita hisoblanadi.

Madaniy merosning mazmuni va jamiyat hayotidagi o‘rni masalasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. M. Xayrullayev va D. Shorahmedovning “Madaniyat va meros” asarida madaniy merosning mohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq jihatlari o‘rganilgan [Xayrullayev, Shorahmedov, 1973]. Madaniy merosni o‘tmishdan saqlanib qolgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmui sifatida tushunish bilan birga, uning keyingi avlodlar tomonidan o‘zlashtirilishi, ilmiy baholanishi va jamiyat hayotida qo‘llanilishini ham hisobga olish zarur. Bunday yondashuv madaniy merosning tarixiy xotirani saqlash va ijtimoiy tajribani avlodlar o‘rtasida uzatishdagi ahamiyatini ochib beradi. Madaniy meros moddiy va nomoddiy shakllarda namoyon bo‘ladi. Moddiy merosga me’moriy obidalar, arxeologik yodgorliklar, tarixiy buyumlar, qo‘lyozmalar va boshqa ashyoviy manbalar kiradi. Nomoddiy meros esa xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, an’anaviy bilimlar, ijrochilik san’ati va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan madaniy tajribalarni qamrab oladi. Ularning o‘zaro aloqadorligi madaniy merosni yaxlit ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida o‘rganish imkonini beradi. F. Musayevning “Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari” asarida jamiyat taraqqiyotining falsafiy va ijtimoiy asoslari muhokama qilinadi [Musayev, 2007]. Ma’naviy-madaniy qadriyatlar jamiyatning

ijtimoiy munosabatlari, ta’lim-tarbiya tizimi va tarixiy tajribasi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli yoshlarning tarixiy tafakkurini shakllantirishda madaniy merosni faqat o‘tmishdan qolgan yodgorliklar yig‘indisi sifatida emas, balki jamiyatning ma’naviy hayoti va ijtimoiy xotirasi bilan bog‘liq jarayon sifatida o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Tarixiy tafakkur, milliy xotira va ijtimoiy xotira o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, mazmunan bir-biridan farq qiladi. Ijtimoiy xotira muayyan jamiyat yoki ijtimoiy guruhning o‘tmish haqidagi umumiy tasavvurlari va tajribalarini qamrab oladi. Milliy xotira esa xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy an’analari va o‘zligini anglash jarayoni bilan bog‘liq. Tarixiy tafakkur mazkur xotira shakllariga tayangan holda o‘tmishni dalillar asosida tahlil qilish, turli talqinlarni qiyoslash va mustaqil xulosa chiqarish imkonini beradi. Binobarin, tarixiy xotirani rivojlantirish bilan birga, uning ilmiy asoslangan tarixiy bilimlar bilan uyg‘unligini ta’minlash ham zarur.

O‘zbekiston hududida saqlanib qolgan tarixiy-madaniy yodgorliklar yoshlarning tarixiy tafakkurini shakllantirish uchun boy manbaviy imkoniyatlarga ega. Qadimgi shahar xarobalari, me’moriy obidalar, arxeologik topilmalar, toshbitiklar, qo‘lyozmalar va boshqa madaniy boyliklar turli tarixiy davrlardagi ijtimoiy munosabatlar, davlatchilik, xo‘jalik hayoti, diniy tasavvurlar hamda badiiy tafakkur haqida ma’lumot beradi. Ularni o‘rganish yoshlarda tarixiy jarayonlarning davomiyligi va o‘zgaruvchanligini anglash, moddiy manbalar bilan yozma ma’lumotlarni o‘zaro qiyoslash ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Me’moriy yodgorliklar bu borada alohida ahamiyatga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlardagi me’moriy majmualar muayyan davrning qurilish texnikasi, shaharsozlik an’analari, badiiy didi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi. Bunday obidalarni o‘rganishda ularning faqat tashqi ko‘rinishi yoki me’moriy bezaklariga e’tibor qaratish yetarli emas. Yodgorlikning barpo etilish davri, bunyodkori, vazifasi, keyingi o‘zgarishlari va tarixiy muhitini tahlil qilish uning manbashunoslik ahamiyatini to‘laroq ochib beradi. Tarixiy-madaniy merosdan ta’lim jarayonida foydalanish yoshlarning tarixiy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, nazariy ma’lumotlarni bevosita kuzatish va tahlil qilish orqali o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Xususan, tarixiy obidalarga o‘quv ekskursiyalarini tashkil etish, muzey eksponatlarini o‘rganish, mahalliy tarixga oid materiallar bilan ishlash, tarixiy xaritalar va yozma manbalarni qiyoslash muhim usullardan hisoblanadi. Bunday mashg‘ulotlar jarayonida yoshlar yodgorlik haqida tayyor ma’lumotni qabul qilish bilan cheklanmay, uning tarixiy ahamiyatini mustaqil aniqlashga yo‘naltirilishi lozim. Madaniy merosni o‘rganishda tarixiy ma’lumotlarning ishonchliligini baholash ham muhim o‘rin tutadi. Ayrim yodgorliklar haqida xalq og‘zaki ijodida saqlangan

rivoyatlar, mahalliy xotira va ilmiy tadqiqotlardagi xulosalar o‘rtasida farqlar bo‘lishi mumkin. Ularni o‘zaro qiyoslash yoshlarga tarixiy fakt, ilmiy talqin va rivoyatni farqlashni o‘rgatadi. Bu esa tarixiy tafakkurning asosiy belgilaridan biri bo‘lgan tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida milliy o‘zlikni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish hamda gumanitar soha olimlarini qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, o‘tmishga xolisona, mafkuraviy qarashlardan xoli baho berish, arxeologik izlanishlarni rivojlantirish, muzey eksponatlarini xatlovdan o‘tkazish va ularning kataloglarini yaratish vazifalari belgilangan [Mirziyoyev, 2018]. Mazkur vazifalar tarixiy bilimlarni chuqurlashtirish, madaniy merosni ilmiy o‘rganish va uning yoshlar ta’limi hamda tarbiyasidagi imkoniyatlaridan foydalanishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Sh. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichi, islohotlarning mazmuni va milliy rivojlanish istiqbollari keng yoritilgan [Mirziyoyev, 2021]. Jamiyatning tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini o‘rganish zamonaviy taraqqiyot jarayonlarini anglash bilan uzviy bog‘liqdir. Shu jihatdan, madaniy merosni asrash faqat tarixiy yodgorliklarni jismoniy saqlab qolish bilan cheklanmaydi. Ularni ilmiy o‘rganish, hujjatlashtirish, keng jamoatchilikka tanishtirish va ta’lim jarayoniga kiritish ham merosni muhofaza qilishning muhim tarkibiy qismlaridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ularni davlat hisobiga olish, ilmiy o‘rganish va ulardan oqilona foydalanish bilan bog‘liq vazifalar belgilangan. Xususan, qarorning 1-bandida madaniy meros obyektlarini aniqlash, hujjatlashtirish, davlat kadastrini yuritish, arxeologik tadqiqotlarni nazorat qilish, muzey ashyolari va kolleksiyalarini hisobga olish hamda merosni targ‘ib etish vazifalari nazarda tutilgan [O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4068-son qarori, 2018, 1-band]. Ushbu chora-tadbirlar tarixiy-madaniy boyliklarning ilmiy, ma’rifiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish uchun tashkiliy-huquqiy asos yaratadi.

Tarixiy-madaniy merosning tarbiyaviy ahamiyati uning yoshlarda Vatan tarixi va ajdodlar faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg‘otishi bilan ham belgilanadi. Biroq bunday qiziqishning barqaror tarixiy bilimga aylanishi ta’lim mazmuni va o‘qitish usullariga bog‘liq. Yodgorliklar haqida faqat umumiy ma’lumot berish yoki ularni milliy faxr ramzi sifatida tavsiflashning o‘zi yetarli emas. Yoshlar obidalarning tarixiy sharoiti,

jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ularni saqlash zaruratini dalillar asosida tushunishi lozim. Bugungi axborot muhitida tarixiy mavzularga oid turli ma’lumotlar, tasvirlar va talqinlar keng tarqalmoqda. Bu holat yoshlarning tarixga qiziqishini oshirish bilan birga, ishonchsiz yoki biryoqlama ma’lumotlarni qabul qilish xavfini ham yuzaga keltiradi. Shu sababli tarixiy-madaniy merosni o‘rganish jarayonida ilmiy adabiyotlar, muzey materiallari, tarixiy hujjatlar va mutaxassislar xulosalariga tayanish muhimdir. Raqamli texnologiyalardan foydalanib, tarixiy yodgorliklar haqidagi tekshirilgan ma’lumotlarni yoshlarga qulay shaklda taqdim etish ham ta’limning samaradorligini oshirishi mumkin. Yoshlarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda mahalliy tarix materiallari bilan ishlash alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilar va talabalar o‘zlari yashab turgan hududdagi tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar, muzeylar va arxiv materiallarini o‘rganish orqali umumiy tarixiy jarayonlarni mahalliy misollarda anglash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu yondashuv tarixiy bilimlarni hayotiy tajriba bilan bog‘lashga, madaniy merosni asrashga nisbatan shaxsiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarixiy-madaniy merosning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun ta’lim muassasalari, muzeylar, arxivlar va madaniy merosni muhofaza qilish tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunday hamkorlik doirasida tarixiy manbalarga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlari, amaliy kuzatuvlar, muzey darslari va mahalliy tarix bo‘yicha kichik tadqiqotlarni tashkil etish mumkin. Natijada tarixiy bilimlar tayyor ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasidan mustaqil tahlil va xulosa chiqarish bosqichiga ko‘tariladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tarixiy-madaniy meros zamonaviy o‘zbek jamiyatida yoshlarning tarixiy tafakkurini shakllantirishning muhim ilmiy-ma’rifiy va tarbiyaviy asoslaridan biridir. Uning ahamiyati faqat o‘tmish haqidagi bilimlarni yetkazish bilan cheklanmay, tarixiy jarayonlarni qiyosiy tahlil qilish, manbalarga tanqidiy yondashish, milliy va ijtimoiy xotiraning mazmunini anglash hamda madaniy qadriyatlarga mas’uliyatli munosabatni rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Tarixiy yodgorliklar, muzey eksponatlari, yozma manbalar va mahalliy tarix materiallaridan ta’lim jarayonida tizimli foydalanish, ularni zamonaviy pedagogik usullar bilan uyg‘unlashtirish yoshlarning mustaqil tarixiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – 2018 йил 28 декабрь. – Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти.

2. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – 464 б. – ISBN 978-9943-6992-3-6.
3. Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 272 б. – ISBN 978-9943-01-051-2.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
5. Хайруллаев М., Шорахмедов Д. Маданият ва мерос. – Тошкент: Фан, 1973.

USTRUSHONA ILK O‘RTA ASRLAR MUDOFAA INSHOOTLARINING ARXEOLOGIK VA ME’MORIY XUSUSIYATLARI.

Rayimjonov Ismoiljon Xoshimjon o‘g‘li
GulDu o‘qituvchisi
ismoil90yil@gmail.com
+998916221908

Annotatsiya: Maqolada Ustrushonaning ilk o‘rta asrlar davri mudofaa inshootlari arxeologik va me’moriy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda qal’a va istehkomlarning joylashuvi, mudofaa devorlari, qurilish materiallari, konstruktiv yechimlari hamda tabiiy-geografik muhitdan foydalanish xususiyatlariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, paxsa va xom g‘ishtdan foydalanish, devor konstruksiyalarining turli usullarda barpo etilishi, tabiiy relyefning mudofaa tizimiga qo‘shilishi hamda qal’a va manzilgohlarning hududiy joylashuvi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ustrushona, ilk o‘rta asrlar, mudofaa inshootlari, qal’a, istehkom, paxsa, xom g‘isht, Bunjikat, Qal’ai Qahqaha, qurilish madaniyati.

Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida mahalliy hokimliklarning kuchayishi, shahar va qishloq manzilgohlarining rivojlanishi hamda hududlararo iqtisodiy aloqalarning faollashuvi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayonlar moddiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan qurilish va me’morchilikning rivojiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, qal’a, qo‘rg‘on, shahar devorlari va boshqa mudofaa inshootlarining takomillashuvi o‘sha davrdagi siyosiy va ijtimoiy sharoitning moddiy ifodalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ustrushona ana shu jarayonlarni o‘rganish uchun muhim tarixiy-madaniy hududlardan biridir. Arxeologik tadqiqotlar Ustrushonada shaharlar, qal’alar, qishloq manzilgohlari va hukmdor qarorgohlarining murakkab tizimi shakllanganini ko‘rsatadi.

Ustrushonaga bag‘ishlangan umumlashtiruvchi tadqiqotlarda uning Sug‘d, Choch, Farg‘ona va boshqa qo‘shni tarixiy hududlar oralig‘idagi geografik mavqei hamda mintaqalararo aloqalardagi o‘rni alohida qayd etiladi.[1.228] Ustrushona

geografik jihatdan Sug‘d, Choch va Farg‘ona oralig‘idagi muhim hudud bo‘lib, uning qurilish madaniyatida mahalliy an’analar bilan mintaqalararo me’moriy tajribaning o‘zaro aloqasi masalasi alohida tadqiqotni talab qiladi. Gritsina, Mamadjanova va Mukimov ham Ustrushonaning qo‘shni tarixiy hududlar bilan aloqalarini uning tarixiy taraqqiyotining muhim jihati sifatida ko‘rsatadilar.[1.228]

Ustrushona mudofaa me’morchiligini o‘rganishning muhim jihati shundaki, bu hududdagi istehkomlar bir xil me’moriy andoza asosida qurilmagan. Ularning joylashuvi ko‘pincha relyef, suv manbalari, voha va tog‘oldi landshafti, mavjud aholi manzilgohlari hamda strategik yo‘nalishlar bilan bog‘liq holda shakllangan. Shu sababli Ustrushona mudofaa inshootlarini o‘rganishda faqat devorlarning texnik tuzilishini emas, balki ularning tabiiy muhit bilan o‘zaro aloqasini ham hisobga olish zarur.

Ustrushona arxeologiyasini tizimli o‘rganish jarayonida hududdagi shahar xarobalari, qal’alar, qo‘rg‘onlar va qishloq manzilgohlari muhim ilmiy manbaga aylandi.

Shimoli-g‘arbiy Ustrushona hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qal’a-qo‘rg‘onlar va qishloq manzilgohlarining shakllanishi hamda rivojlanishini o‘rganishga imkon berdi. Xususan, Sangzor havzasi va Jizzax vohasidagi ayrim yodgorliklar orqali ilk o‘rta asrlarda qal’a-manzilgohlarning rejalashtirilishi va ularning keyingi taraqqiyoti haqida tasavvur hosil qilish mumkin.[2.10-14]

Ustrushona ilk o‘rta asrlar qurilish madaniyatining muhim xususiyatlaridan biri - mahalliy qurilish materiallaridan foydalanishdir. Ayniqsa, xom g‘isht va paxsa devorlar qurilishida keng qo‘llangan. V.L.Voroninaning Markaziy Osiyo qadimgi qurilish texnikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari ushbu hududdagi xom g‘isht va paxsa konstruksiyalarining rivojlanishini o‘rganishda muhim ilmiy manbalardan biridir.[3]

Ustrushonada uylar asosan xom g‘isht, paxsa, tosh, yog‘och va qolipli paxsalardan qurilgan. G‘ishtlarning tuprog‘i shu joydan qurilish atrofidan olingan. Shuningdek, tuproq va g‘isht savdosi bilan shug‘ullanuvchi maxsus shahslarning bo‘lganligi haqida manbalarda ma’lumotlar bor.[4.288]

VI-VIII asrlarda 52x26x8, 50x25x9, 48x24x10, 47x23x9 sm o‘lchamdagi to‘g‘ri to‘rtburchak ko‘rinishdagi g‘ishtlar ko‘proq ishlatilgan. Paxsa asosan sarg‘ish tuproq, loyidan tayyorlangan. Toshlar asosan tog‘li hududlarda, kam hollarda esa tabiiy tekstlik joylarda devorlar tagligi sifatida qo‘llanilgan. Yog‘och materiallaridan asosan katta xonalarning usti yopilganda, ikki qavatli uylar bunyod etilganda, to‘g‘ri-to‘rtburchakli eshiklarning peshtoqida foydalanilgan.

Qadimshunos olim M.H.Pardayevning shimoli-g‘arbiy Ustrushona qishloq qurilishi me’morchiligiga oid tadqiqotlari esa mazkur masalani bevosita Ustrushona materiallari asosida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bu hududda olib borilgan arxeologiya tadqiqotlar natijasida aniqlangan yodgroliklardagi topilgan moddiy madaniyatga oid ma’lumotlarga ko‘ra, devor qurulish texnikasi xom g‘ishtdan qurilgan, paxsadan barpo etilgan, paxsa va xom g‘isht qatorlari navbatma-navbat ishlatilgan hamda paxsa va g‘ishtning aralash-qurama usulida qo‘llangan variantlarga ajratganiligi haqida ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkin.[5.142-148]

Bu ma’lumot Ustrushona qurilish madaniyatida bitta universal qurilish usuli mavjud bo‘lmaganini, aksincha, me’moriy-tuzilmaviy xususiyatlari ehtiyoj va mahalliy sharoitga qarab turli texnik usullardan foydalanilganini ko‘rsatadi.

Mudofaa inshootlarida bunday me’moriy yechimlarning qo‘llanishi alohida ahamiyatga ega. Chunki mudofaa devori faqat tashqi devor sifatida emas, balki butun istehkom tizimining asosiy me’moriy-tuzilmaviy elementi hisoblangan. Devorning qalinligi, balandligi, burjlar bilan mustahkamlanishi va tabiiy balandliklardan foydalanish uning himoya funksiyasini kuchaytirgan. Ustrushonaning tabiiy-geografik muhiti uning mudofaa inshootlari shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Hududning tog‘li, tog‘oldi va voha qismlarining mavjudligi qal’a va qo‘rg‘onlarni joylashtirishda turli me’moriy yechimlardan foydalanishga imkon bergan.

Tog‘oldi va balandroq joylarda joylashgan istehkomlarda tabiiy relyefning o‘zi mudofaa tizimining bir qismiga aylangan. Balandlik, qiya yonbag‘ir yoki tabiiy to‘siqlar sun’iy mudofaa devorlari bilan birlashtirilgan. Natijada quruvchilar ayrim hollarda tabiiy sharoitdan maksimal darajada foydalanib, sun’iy qurilish hajmini kamaytirish bilan birga mudofaa samaradorligini oshirishga intilgan.[6.81] Bu holat Ustrushona mudofaa me’morchiligining muhim xususiyatlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Ustrushona mudofaa me’morchiligini o‘rganishda Shahristondagi Qal’ai Qahqaha majmuasi alohida ahamiyatga ega. U tarixiy manbalarda Bunjikat bilan bog‘lanadigan Ustrushona poytaxti hududidagi yirik me’moriy majmualardan biridir. Arxeologik tadqiqotlar bu yerda saroy va boshqa shahar obyektlarining murakkab tizimi mavjud bo‘lganini ko‘rsatgan.[1.288] Qal’ai Qahqaha majmuasining ahamiyati faqat uning me’moriy bezaklari yoki saroy inshootlari bilan cheklanmaydi. Yodgorlik shahar hududining tabiiy relyef va mudofaa tizimi bilan qanday uyg‘unlashganini o‘rganish uchun ham muhim material beradi.

Bunjikatning shahar tuzilishi esa Ustrushonadagi shaharsozlik va mudofaa masalalarini birgalikda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Yozma manbalarda ham

Bunjikatning devorlar bilan o‘ralgan ichki va tashqi qismlardan tashkil topgani, darvozalar tizimi va shahar atrofidagi xandaqlar haqida ma’lumotlar uchraydi. Qadimshunos olim M.H.Pardayev tadqiqotlarida Ustrushona qishloq makonlarida olib borgan tadqiqotlari asosida devorlar qurilish konstruksiyasini 4 toifaga ajratgan. Xom g‘ishtdan, paxsadan, paxsa va xom g‘isht qatorlarini almashlab, paxsa va g‘ishtni aralash qurama xolatlda urushdan xosil bo‘lgan devorlardir.[5.142-148] Bunday arxeologik materiallar bilan yozma manbalar birgalikda o‘rganilgandagina Bunjikatning mudofaa tizimini to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Shu jihatdan Bunjikat misolida yozma manba va arxeologik dalilning o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyati yaqqol ko‘rinadi. Mavjud arxeologik ma’lumotlarni umumlashtirish Ustrushona mudofaa me’morchiligida bir necha muhim xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi:

Birinchidan, tabiiy-geografik muhitdan mudofaa maqsadida foydalanish muhim omil bo‘lgan. Tog‘, tog‘oldi va voha landshaftlarining xususiyatlari qal’a va istehkomlarning joylashuvi hamda rejalashtirilishiga ta’sir ko‘rsatgan;

Ikkinchidan, mahalliy qurilish materiallari va texnikalarining xilma-xilligi kuzatiladi. Paxsa, xom g‘isht va ularning turli kombinatsiyalaridan foydalanish Ustrushona qurilish tajribasining moslashuvchanligini ko‘rsatadi;

Uchinchidan, mudofaa inshootlari alohida obyekt sifatida emas, balki manzilgohning umumiy tuzilishi bilan bog‘liq holda shakllangan. Bunjikat misolida shahar qismlari, devorlar, darvozalar va boshqa obyektlarning o‘zaro aloqasi buni ko‘rsatadi;

To‘rtinchidan, Ustrushona mudofaa me’morchiligini Markaziy Osiyoning boshqa hududlaridan mutlaqo ajralgan hodisa sifatida qarash ham, uni faqat tashqi ta’sirlarning natijasi deb baholash ham biryoqlama bo‘ladi.

Shunday qilib, Ustrushona mudofaa inshootlarining o‘ziga xosligi ularning faqat “mustahkamligi” bilan emas, balki tabiiy muhit, qurilish materiali, konstruktiv tajriba va manzilgohning ijtimoiy-siyosiy vazifalarining bir butun tizimda namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi.

Ustrushona ilk o‘rta asrlar mudofaa inshootlarini o‘rganish natijasida hududda mudofaa tizimida hududning tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda qurilish tajribasi muayyan darajada shakllanganini ko‘rishimiz mumkin.

Qal’a va istehkomlarning joylashuvi, devorlarning konstruktiv xususiyatlari, paxsa va xom g‘ishtdan foydalanish, tabiiy relyefni mudofaa tizimining tarkibiy qismiga aylantirish kabi jihatlar Ustrushona qurilish madaniyatining muhim belgilarini tashkil etishini alohida takidlab o‘tish mumkin.

Qal’ai Qahqaha va Bunjikat kabi yodgorliklar mudofaa me’morchiligini shaharsozlik jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganish uchun muhim arxeologik manba hisoblanadi. Ayniqsa, Bunjikatning shahar tuzilishi va mudofaa tizimi haqidagi arxeologik hamda yozma ma’lumotlarning o‘zaro taqqoslanishi Ustrushona shaharsozligining murakkab xususiyatlarini ochib berish imkonini beradi.[7.2]

Ustrushona mudofaa me’morchiligining asosiy xususiyati, bizningcha, uch omilning o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi:

-tabiiy-geografik sharoitdan foydalanish;

-mahalliy qurilish materiallari va texnikalarining qo‘llanishi;

-mudofaa inshootlarining shahar va qishloq manzilgohlari umumiy tuzilmasi bilan bog‘liqligi.

Shu sababli Ustrushonaning ilk o‘rta asrlar mudofaa inshootlarini faqat harbiy ehtiyoj bilan izohlash yetarli emas. Ustrushonani Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlar qurilish madaniyati tarixida alohida tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.A.Gritsina, S.D.Mamadjanova, R.S.Mukimov. Archeology, history and architecture of medieval Ustrushana - Samarkand: IICAS, 2014. - 228 p.

2. Sharofov Sirojiddin Jaloliddin ugli. FROM THE HISTORY OF THE STUDY OF USTRUSHANA'S ARCHAEOLOGY. International multidisciplinary jurnal for research & development.ISSN:2394-6334https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd Volume12, issue 08 (2025)

3. Воронина В. Древняя строительная техника Средней Азии // Архитектурное наследство.1953,№3 https://abashin.org/2024/06/08/voronina-v-drevnyaya-stroitelnaya-tehnika-srednej-azii/?utm_source=chatgpt.com 26.09.2026

4. Беленицкий А.М., Большаков О.Г., Бентович И.Б. Средневековый город Средней Азии // М. 1973. С.288.

5. Пардаев М.Ҳ. Шимоли-ғарбий Уструшона қишлоқ қурилиши меъморчилигининг илк ўрта асрлардаги айрим хусусиятлари // ЎММТ. 28-сон. Самарқанд, 1997. 142-148 бетлар.

6. Пардаев М.Ҳ., Тўйчибоев.Б.Б. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2017. -314 б.

7. Muslim Atayev. Ustrushana mintaqasidagi shahar va qishloqlar. https://muslim.uz/uz/e/post/36878-ustrushana-mintaqasidagi-shahar-va-qishloqlar?page=2&per-page=126.09.2026.

JIZZAX VOHASI AHOLISINING ISLOMGACHA BO‘LGAN DINIY E’TIQODLARI HAQIDA

Raimov S.R.
Jizzax shahridagi Everest-Jizzax
o‘quv markazi direktori,
+998995569667
Sardorbekraimov759@gmail.com.

Annotatsiya: Maqolada Jizzax vohasi aholisining islomgacha bo‘lgan diniy e’tiqodlari shu paytgacha o‘rganilgan tarixiy-arxeologik, yozma va etnologik manbalar asosida tahlil qilinadi. Unda tabiatga, ajdodlarga sig‘inish, totemistik qarashlar, zardushtiylik unsurlari hamda dafn marosimlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Jizzax vohasi, Ustrushona, qadimgi dinlar, diniy e’tiqod, zardushtiylik, animizm, totemizm, tabiat kulti, suv kulti, olov kulti, ajdodlar kulti, dafn marosimlari, arxeologiya.

KIRISH

Jizzax vohasining tabiiy geografik joylashuvi va qadimdan turli madaniy va etnik jarayonlar kesishgan hudud bo‘lganligi uning Markaziy Osiyo qadimgi tarixidagi muhim o‘rnini belgilaydi. Tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar Jizzax hududining qadimgi va ilk o‘rta asrlarda Ustrushana tarixiy-madaniy hududi bilan uzviy aloqada bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayrim davrlarda bu hudud So‘g‘d bilan bog‘liq bo‘lgan, keyinchalik esa Ustrushana siyosiy-madaniy birligi doirasida rivojlangan.

Jizzax vohasining islomgacha bo‘lgan diniy tarixini o‘rganishda asosiy muammolardan biri, ushbu davrga oid yozma manbalarning kamligi va turli diniy an’analarning bir hududda uzoq vaqt davomida yonma-yon mavjud bo‘lganidir. Shu sababli masalani faqat yozma manbalar asosida emas, balki arxeologik materiallar, dafn marosimlari, muqaddas joylar, hayvon tasvirlari, kulollik idishlari, ulardagi shakl va naqshlar, umuman turli moddiy madaniyat namunalari bilan birgalikda o‘rganish talab etiladi. Ustrushona- Jizzax vohasi aholisining qadimgi diniy-ma’naviy hayotiga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda ham totemizm, shomonizm, Ko‘k tangriga sig‘ini, zardushtiylik, Zardo‘shtiylikning olohida but va sanamlarga e’tiqod qiluvchi shakli - “Oq e’tiqod” [Pardaev M.H., G‘ofurov J.I: 186-189], buddaviylik va boshqa ko‘plab e’tiqod shakllari qayd etilgan.

Ma’lumki, dastlabki diniy tasavvurlari tabiat hodisalari, hayvonot va o‘simliklar olami, ajdodlar xotirasi hamda inson hayoti va o‘lim bilan bog‘liq sirli hodisalarni anglashga bo‘lgan intilishlar zamirida shakllangan. Jizzax vohasi aholisining qadimgi dunyoqarashini ham ana shu umuminsoniy jarayonlardan ajratib

bo‘lmaydi. Vohaning tog‘, dasht va daryo vodiylari bilan bog‘liq tabiiy muhiti aholining diniy tasavvurlarida tabiat kuchlariga nisbatan sig‘inishning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Ustrushona aholisining diniy qarashlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda olov kulti, it, bo‘ri, ayiq, qush, ilon, qoplon, tog‘ echkisi, ot, ho‘kiz va qo‘y kabi hayvonlarning turli e’tiqodlar bilan bog‘langani ko‘rsatiladi [Toshboev F.E: 63-68]. Bu ma’lumotlar totemistik tasavvurlarning muayyan darajada mavjud bo‘lganini taxmin qilish imkonini beradi. Umuman qadimda turli diniy qatlamlar bir-biri bilan qorishib ketganligi, masalan, muayyan hayvonning muqaddas sanalishi keyinchalik zardushtiylik, mahalliy tabiat kulti yoki xo‘jalik an’analari bilan birlashib ketishida kuzatiladi.

Jizzax vohasi Markaziy Osiyoning qadimiy tarixiy-madaniy hududlaridan biri hisoblanadi.Uning geografik joylashuvi, Sangzor daryosi havzasi, tog‘oldi va dasht hududlarining tutashganligi vohada qadimdan o‘troq dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo munosabatlarining rivojlanishiga imkon bergan. Mazkur hudud qadimgi va ilk o‘rta asrlarda Ustrushona tarixiy-madaniy viloyatining shimoli-g‘arbiy qismi sifatida shakllangan. Jizzax vohasining arxeologik yodgorliklarini o‘rganish natijasida hududda qadimgi va ilk o‘rta asrlarga oid ko‘plab moddiy-madaniy qatlamlar aniqlangan [Pardayev M.H., To‘ychiyev B.B: 27].

Jizzax vohasi aholisining islomgacha bo‘lgan diniy e’tiqodlarini o‘rganish O‘zbekiston tarixining muhim masalalaridan biridir. Chunki diniy qarashlar jamiyatning faqat ma’naviy hayotini emas, balki uning xo‘jalik faoliyati, oilaviy munosabatlari, dafn marosimlari, san’ati va kundalik turmush tarzini ham belgilab bergan.

Qadimgi aholining diniy qarashlari haqida bevosita yozma manbalar kam bo‘lgani sababli masalani o‘rganishda arxeologik materiallar alohida ahamiyat kasb etadi. Qabrlar, qabristonlarning joylashuvi, dafn usullari, marhum bilan birga qo‘yilgan buyumlar, hayvon suyaklari, sopol idishlar, metall buyumlar va boshqa arxeologik topilmalar o‘sha davr kishilarining o‘lim va narigi dunyo haqidagi tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi.

Diniy e’tiqodlarni aniqlashda dafn inshootlari ham alohida ahamiyatga ega. F.E. Toshboyevning so‘nggi tadqiqotlarida shimoli-g‘arbiy Ustrushona, jumladan, Jizzax vohasidagi qabrlar tuzilishi va hududiy tarqalishi tahlil qilingan. Unda qadimgi davrga oid tosh quti shaklidagi qabrlar, saklar davridagi o‘ra qabrlar, antik va ilk o‘rta asrlarda esa katakomba, ayvonli lahad, yorma va boshqa turdagi qabrlarning uchrashi ko‘rsatiladi. [Toshboyev F.E: 160]

Demak, Jizzax vohasi aholisining diniy qarashlarini o‘rganishda qabristonlar va dafn marosimlari asosiy arxeologik manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida tabiat hodisalari diniy dunyoqarashning shakllanishida muhim o‘rin egallagan. Tabiat inson uchun hayot manbai bo‘lishi bilan birga, xavf-xatar va noma’lum kuchlarning manbai sifatida ham namoyon bo‘lgan. Shu sababli suv, quyosh, olov, tog‘, daraxt, hayvonlar va boshqa tabiat unsurlarining muqaddaslashtirilishi tabiiy jarayon sifatida shakllangan. Jizzax vohasining tabiiy geografik sharoiti bunday qarashlarning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratgan. Sangzor daryosi, buloqlar, tog‘oldi hududlari va sug‘oriladigan yerlar aholining xo‘jalik hayotida katta ahamiyat kasb etgan [Aqchayev F, G‘iyosov S: 202].

Ayniqsa, suv bilan bog‘liq tasavvurlar qadimgi dehqonchilik jamiyatlari uchun muhim bo‘lgan. Zamonaviy etnologik tadqiqotlarda Jizzax vohasida ayrim buloqlar va suv manbalarining muqaddas sanalishi, ular bilan bog‘liq urf-odat va marosimlarning mavjudligi qayd etiladi. Tadqiqotchilar bunday qarashlarni qadimiy diniy tasavvurlarning keyingi davrlardagi ko‘rinishlari bilan qiyosiy ravishda o‘rganadilar.

Jizzax vohasi aholisining islomgacha bo‘lgan diniy qarashlarini o‘rganishda zardushtiylik alohida ahamiyatga ega. Markaziy Osiyoda zardushtiylikning tarqalishi uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, uning mahalliy ko‘rinishlari turli hududlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Ustrushonada zardushtiylik bilan bog‘liq diniy qarashlar mahalliy qadimiy e’tiqodlar bilan qorishib ketgan. Ayrim yozma manbalarga tayangan tadqiqotlarda Ustrushonada butlar, olov va mahalliy ilohiy obrazlar bilan bog‘liq diniy tasavvurlar mavjud bo‘lgani qayd etiladi.

Ustrushonaning ko‘plab joylarida qayd qilingan ostadon va xum ostadonlar,Eski Xovos xududida miloddan avvalgi III-II asrlarga oid bo’lgan Anaxita xaykalchasining topilishi [Gritsina A.A:61] Ustrushonada zardushtiylikning keng yoyilganligini, hukmdorlar saroyidagi butlar esa mazdaizmning alohida mahalliy ko‘rinishini ifoda etgan but va sanamlarga sig’inish mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydi. Bu holatlar Ustrushona dasht aholisining dehqonchilk vohalari bilan madaniy aloqalari rivojlanganligi va uning ta’sirida zardushtiylikning ham yoyilganligidan darak beradi.

Hayvonlar, ayniqsa qo‘y, ot, qoramol va echki nafaqat xo‘jalikda, balki diniy ramz sifatida ham qadrlangan. Ayrim tadqiqotlarda bunday qarashlar totemistik tasavvurlar bilan bog‘lanadi [Sharofov S: 6]. Diniy marosimlarda qo‘llaniladigan olov esa, yorug‘lik va hayot timsoli sifatida e’zozlangan. Biroq, arxeologik topilmalardagi har qanday o‘choqni diniy marosim bilan bog‘lashdan avval uning vazifasini aniqlash

zarur**.** Arxeologik materiallar va tarixiy ma’lumotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, voha aholisining diniy dunyoqarashi bir xil diniy tizimdan iborat bo‘lmagan. Uning tarkibida tabiat kultlari, animistik va totemistik tasavvurlar, hayvonlar bilan bog‘liq marosimlar, ajdodlar kulti, olovga bo‘lgan e’tiqod va zardushtiylikning mahalliy unsurlari mavjud bo‘lgan.

Shunday qilib, Jizzax vohasining islomgacha bo‘lgan diniy tarixi ko‘p qatlamli va murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Vohadagi qadimgi aholi dunyoqarashining ilk qatlamlarini tabiat hodisalariga ehtirom, hayvonlar bilan bog‘liq totemistik tasavvurlar, ajdodlar kulti va turli marosimiy amaliyotlar tashkil etgan. Keyingi davrlarda zardushtiylik mazkur diniy muhitning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Biroq u Jizzax vohasida mahalliy e’tiqodlar bilan o‘zaro ta’sirga kirishgan va o‘ziga xos shakl kasb etgan. Olov, farn, qo‘y, ot va boshqa hayvonlar bilan bog‘liq ramzlar bu jarayonning ayrim ko‘rinishlarini aks ettiradi. Kelgusida Jizzax vohasi yodgorliklari, qabr majmualari, diniy inshootlari va moddiy madaniyat namunalari asosida maxsus tadqiqotlar olib borish mazkur masalaning hali to‘liq ochilmagan jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Aqchayev F.Sh., G‘iyosov S. Jizzax vohasi aholisining suv bilan bog‘liq qarashlari: tarixiy-etnologik tahlil // Tafakkur ziyosi. - 2025.

2.Berdimurodov A.E. Jizzax vohasi (Shimoli-g‘arbiy Ustrushona)ning ilk o‘rta asr arxeologik yodgorliklari (V–X asrlar): tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. - Moskva, 1985.

3.Muhammadjonov A.R. O‘zbekiston tarixi. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.

4.Pardayev M.H., G‘ofurov J.I. G‘arbiy Ustrushonada zardo‘shtiy qavmlar izlari // O‘zbekiston arxeologiyasi, 2-son. - Toshkent: Fan, 2011.

5.Pardayev M.H., Toshboyev F.E. Ustrushonaning qadimgi davr davlatchilik tarixi. - Toshkent: Vneshinvestprom, 2020.

6.Pardayev M.H., To‘ychiyev B.B. Ustrushona qadimda va ilk o‘rta asrlarda. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

7.Pardayev M.H., Ubaydullayev I.H. Jizzax rivojlangan o‘rta asrlarda // O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi. 38-nashr. - Samarqand, 2012.

8.Sharofov S. Ustrushona chorvadorlarining qadimgi e’tiqodlari va marosimlari haqida // Sharqshunoslik: tarix, siyosat va huquq masalalari. - 2025.



9.Toshboyev F.E. Qadimgi Ustrushonada bronza davri yodgorliklarining o‘rganilishiga doir // Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy materiallari. - Jizzax, 2023.
10.Tugalov B.B. Qadimgi Ustrushona hududida katakomba qabrlarining o‘rganilishi xususida // Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti materiallari. - Jizzax, 2023.
12.Тошбоев Ф.Э. К религиозным верованиям скотоводов древней Уструшаны // ВОСТОК-ФОКУС. Актуальные вопросы изучения истории, международных отношений и культур стран востока. - Новосибирск, 2024.

TARIXIY-MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TABIIY VA TEXNOGEN XAVFLARGA BARQARORLIGINI TA’MINLASH: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Roziqov Shohijahon Rashid o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi Kunduzgi ta’lim fakulteti
4-o‘quv kursi kursanti
Tel: +998888654010
E-mail manzili: shohaslzoda777@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada tarixiy-madaniy meros obyektlarining tabiiy va texnogen xavflarga barqarorligi tarixiy tajriba hamda zamonaviy risk boshqaruvi uyg‘unligida tahlil qilinadi. Xavf, zaiflik, monitoring, profilaktika va tayyorgarlikni birlashtiruvchi konseptual model hamda amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: meros, yodgorlik, barqarorlik, zilzila, yong‘in, namlik, monitoring, konservatsiya, restavratsiya, profilaktika, seysmika, xavf, zaiflik, raqamlashtirish, hujjatlashtirish.

Tarixiy-madaniy meros obyektlari jamiyatning tarixiy xotirasi, me’moriy tafakkuri va san’at an’analarini mujassam etadi. Ularni muhofaza qilishni faqat shikastlangandan keyingi restavratsiya bilan cheklash yetarli emas: zilzila, suv va namlik, yong‘in, shamol, transport vibratsiyasi, muhandislik avariyalari va antropogen bosim obyektning jismoniy holati hamda autentikligiga zarar yetkazishi mumkin.

UNESCO, ICCROM, ICOMOS va IUCN madaniy meros riskini tashqi xavfning o‘zi emas, xavf, zaiflik va boshqaruv imkoniyatlarining o‘zaro bog‘liqligi sifatida ko‘radi [UNESCO/ICCROM/ICOMOS/IUCN: 7-10]. Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi va

Buxoro Arkida qayd etilgan tarixiy seysmik deformatsiyalar ham birlamchi manbalar bilan zamonaviy xavf tahlilini birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [Korzhenkov A.M. va boshq.: 80-95; Korzhenkov A.M. va boshq.: 60-87].

Tadqiqotning maqsadi tarixiy tajriba, an’anaviy qurilish yechimlari va zamonaviy risk tahlilini uyg‘unlashtirish asosida meros obyektlari barqarorligini ta’minlashning ilmiy-amaliy modelini taklif etishdir. Tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, struktur-funksional, risk tahlili va tizimli umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Real obyekt bo‘yicha muhandislik eksperimenti o‘tkazilmagani sababli sun’iy mustahkamlik foizlari yoki ehtimollik ko‘rsatkichlari keltirilmaydi.

Tarixiy qurilish tajribasi obyektning mahalliy iqlim va konstruktiv muhitga moslashish mexanizmlarini tushunishga yordam beradi. Buxoro me’morchiligiga oid tadqiqotlarda paxsa, xom va pishiq g‘isht, yog‘och hamda ganchning tarixiy tizimdagi o‘rni, ularning ekologik va seysmik sharoit bilan bog‘liq jihatlari ko‘rsatilgan [Davronova N.: 506-517]. Biroq an’anaviy materialni “qadimiy va barqaror” degan umumiy baho bilan emas, poydevor, drenaj, namlik va keyingi restavratsiyalar bilan aloqada tahlil qilish lozim.

Tarixiy va arxeologik manbalar avvalgi falokatlar hamda ta’mirlashlarning “xotirasi”ni saqlaydi. Darzlar, deformatsiya izlari, konstruktiv o‘zgarishlar va qayta tiklash qatlamlari qaysi elementlar zaif bo‘lganini aniqlashga yordam beradi. Demak, tarix va san’atshunoslik ma’lumotlari favqulodda vaziyatlar sohasidagi zaiflik tahlilining qo‘shimcha daliliy bazasiga aylanishi mumkin.

Zilzila, namlik, yong‘in, vibratsiya va texnogen avariyalar bir xil ta’sir mexanizmiga ega emas. Shu sabab ularni “xavf manbai - ta’sir mexanizmi - zaif element - ehtimoliy zarar - muhofaza chorasi” zanjiri bo‘yicha baholash maqsadga muvofiq. Masalan, zilzila mavjud darzlarni kuchaytirishi, drenaj buzilishi namlikni oshirishi, noto‘g‘ri restavratsiya esa konstruktiv tizimning ishlashini o‘zgartirishi mumkin. Samarqand va Buxoro bo‘yicha arxeoseysmologik tadqiqotlar aynan tarixiy deformatsiyalarni zamonaviy xavf bahosi bilan bog‘lash imkonini ko‘rsatadi [Korzhenkov A.M. va boshq.: 60-87; Korzhenkov A.M. va boshq.: 80-95].

1-jadval. Tarixiy-madaniy meros obyektlariga ta’sir qiluvchi asosiy xavflar va ularni kamaytirish yo‘nalishlari

Xavf turi	Ehtimoliy ta’sir	Zaif element	Tarixiy yondashuv	Zamonaviy muhofaza
Zilzila	Darz, siljish	Devor, gumbaz	Mos konstruktiv tizim	Seysmik monitoring
Suv/namlik	Sho‘rlanish,	Poydevor, suvoq	Drenaj	Namlik nazorati

Xavf turi	Ehtimoliy ta’sir	Zaif element	Tarixiy yondashuv	Zamonaviy muhofaza
	yemirilish			
Yong‘in	Issiqlik zarari	Yog‘och qismlar	Olovni cheklash	Detektor, tarmoq auditi
Shamol/iqlim	Eroziya	Fasad, tom	Himoya qatlami	Davriy konservatsiya
Vibratsiya	Mikrodarz	Devor, minora	Past transport bosimi	Vibratsion monitoring
Texnogen avariya	Yong‘in, suv bosishi	Tarmoq yaqin qismlar	Cheklangan analog	Avariya rejasi
Antropogen bosim	Eskirish	Bezak, kirish zonasi	Tartibli foydalanish	Oqim va zona boshqaruvi

Jadvaldagi tarixiy yechimlar zamonaviy muhandislik talablarini almashtirmaydi; ular obyektning tarixiy konstruktiv mantiqini tushunishga xizmat qiladi. Muhofaza qarori materiallarning o‘zaro mosligi, namlik almashinuvi va autentik qiymat bilan birgalikda baholanishi lozim.

Lazerli skanerlash, fotogrammetriya, GIS va sensor monitoring obyekt holatini vaqt bo‘yicha qiyoslash imkonini beradi. O‘zbekistondagi tarixiy yodgorliklarda lazer skanerlash konstruktiv hisob bilan bog‘lanib, seysmik zaiflikni tahlil qilishda qo‘llangan [Takhirov Sh.M. va boshq.: 192-204]. Glasgow School of Art binosida yong‘indan keyingi 3D hujjatlashtirish ham deformatsiyalar va konservatsiya qarorlarini tahlil qilishga xizmat qilgan [Wilson L. va boshq.: 24-32]. O‘zbekistonda raqamli transformatsiya bo‘yicha tadqiqotlar 3D modellashtirish, GIS va raqamli arxivning hujjatlashtirish salohiyatini ko‘rsatmoqda [Nuridinov T.Q., Kaybildayeva B.M.: 1233-1245].

Maqolaning ilmiy yangiligi barqarorlikni faqat konstruktiv mustahkamlik emas, balki tarixiy axborot, zaiflik, monitoring, profilaktika, tayyorgarlik va tiklashning yagona sikli sifatida talqin qilishdadir. Shu asosda quyidagi konseptual model taklif etiladi: TARIXIY VA ARXEOLOGIK MANBALAR → TARIXIY-KONSTRUKTIV XUSUSIYATLAR → XAVFLARNI ANIQLASH → ZAIFLIKNI BAHOLASH → MONITORING → PROFILAKTIKA → FAVQULODDA VAZIYATGA TAYYORGARLIK → TEZKOR MUHOFAZA → TIKLASH → QAYTA BAHOLASH.

Model xalqaro tasdiqlangan standart emas, balki tarix va san’atshunoslik manbalarini favqulodda vaziyatlar riskini boshqarish mantig‘i bilan bog‘laydigan mualliflik konseptual taklifidir. Uning afzalligi restavratsiyani yakuniy maqsad sifatida emas, uzluksiz xavf boshqaruvi siklining bir bosqichi sifatida ko‘rishidir.

Amaliy tavsiyalar

Meros obyektining pasportiga tabiiy va texnogen xavflar, zaif konstruktiv elementlar hamda avvalgi shikastlanishlardan iborat “xavf profili”ni kiritish; muhim obyektlarda 3D bazaviy model yaratish; namlik, yong‘in va seysmik xavf uchun davriy monitoringni yo‘lga qo‘yish; hududiy xavf xaritalaridan foydalanish; favqulodda vaziyatda mas’ul tashkilotlar vazifalarini belgilovchi operativ reja ishlab chiqish tavsiya etiladi. Har qanday texnik aralashuv tarixiy material, konstruktiv sxema va autentik qiymat bilan muvofiqlashtirilishi kerak.

Xulosa

1. Tarixiy-madaniy meros barqarorligi xavf, zaiflik, tarixiy qiymat, boshqaruv va tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liqligi bilan belgilanadi.
2. Tarixiy, arxeologik va me’moriy manbalar zamonaviy risk tahliliga qo‘shimcha daliliy baza beradi.
3. An’anaviy qurilish tajribasi mahalliy sharoitga moslashuvni tushuntiradi, ammo zamonaviy xavfsizlik talablarini almashtirmaydi.
4. Zilzila, namlik, yong‘in va texnogen ta’sirlar turli mexanizmlarga ega, shu sabab universal bitta baholash usuli yetarli emas.
5. 3D skanerlash, GIS va sensor monitoring hujjatlashtirishni kuchaytiradi, lekin professional ekspertizani almashtirmaydi.
6. Tarix, san’atshunoslik, restavratsiya va favqulodda vaziyatlar sohalari integratsiyasi uzluksiz risk boshqaruvi uchun zarur.
7. Taklif etilgan model keyingi tadqiqotlarda aniq obyektlar bo‘yicha instrumental va dala ma’lumotlari asosida sinovdan o‘tkazilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akbarova U. Muzeylarda madaniy merosni saqlash va asrashning zamonaviy usullari // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali. – 2026. – T. 8. – № 6. – B. 1172–1177. DOI: 10.70728/a.series.ijt.v08.i06.039.

2. Davronova N. Buxoro me’morchiligidagi an’anaviy qurilish materiallari va texnologiyalari: barqarorlik, ekologik moslik va seysmik xavfsizlik // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2025. – Special Issue 06. – B. 506–517. DOI: 10.47689/2181-1415-vol6-iss6/S-pp506-517.

3. Korzhenkov A.M., Mirzaakhmedov D.K., Anarbaev A.A., Saidov M.M., Nazarov A.A., Vakarchuk R.N., Korzhenkova L.A. Seismic deformations in the Bukhara Ark // Problems of Engineering Seismology. – 2026. – Vol. 53. – № 1. – P. 60–87. DOI: 10.21455/VIS2026.1-3.



4. Korzhenkov A.M. va boshq. Traces of seismic impacts in the walls of the Ulugbek Madrasah (Samarkand, Uzbekistan) // Geophysical Processes and Biosphere. – 2024. – Vol. 23. – № 4. – P. 80–95. DOI: 10.21455/GPB2024.4-6.

5. Nuridinov T.Q., Kaybildayeva B.M. Tarixiy va madaniy merosni raqamli transformatsiya qilish: xalqaro tajriba va O‘zbekiston Respublikasi rivojlanish istiqbollari // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. – 2026. – T. 8. – № 7. – B. 1233–1245. DOI: 10.70728/a.series.ijt.v08.i07.035.

6. O‘zbekiston Respublikasi. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida: 2001-yil 30-avgustdagi 269-II-son Qonun, amaldagi tahrirlar bilan.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Seysmik xavfsizlikni ta’minlash hamda seysmologiya sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: 2025-yil 20-oktabrdagi PF-184-son Farmon.

8. Takhirov Sh.M., Gilani A., Quigley B., Myagkova L. Assessment of Seismic Vulnerability and Retrofit Strategies of a Historic Building on the Great Silk Road Based on its Current Condition Captured by Laser Scans // International Journal of Architectural Heritage. – 2019. – Vol. 13. – № 1. – P. 192–204. DOI: 10.1080/15583058.2018.1497231.

9. UNESCO, ICCROM, ICOMOS, IUCN. Managing Disaster Risks for World Heritage. – Paris: UNESCO World Heritage Centre, 2010. – 66 p. ISBN 978-92-3-104165-5.

10. Wilson L., Rawlinson A., Frost A., Hepher J. 3D digital documentation for disaster management in historic buildings: Applications following fire damage at the Mackintosh building, The Glasgow School of Art // Journal of Cultural Heritage. – 2018. – Vol. 31. – P. 24–32. DOI: 10.1016/j.culher.2017.11.012.

ANTIK DAVR O‘RTA OSIYO MODDIY MADANIYATI VA ETNOMADANIY JARAYONLARINI ARXEOLOGIK MANBALAR ASOSIDA O‘RGANISH

Sattorov Nurbek Abdurazzoqovich
Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘MPU
tarix kafedrasi dotsenti, t.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada antik davrda O‘rta Osiyoning tarixiy-madaniy viloyatlari etnomadaniy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadimgi Xorazm, Farg‘ona (Parg‘ana) va Choch viloyatlarida shaharsozlik madaniyatining shakllanish jarayoni arxeologik va yozma manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, xorasmiylarning Amudaryo quyi havzasiga ko‘chib kelishi, Makedoniyalik Iskandar yurishlari va yunon-baqtriya davrining mintaqa ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta’siri, yuechji-to‘xorlar masalasi hamda Kushon davlatining etnosiyosiy jarayonlardagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Maqolada O‘rta Osiyo qadimgi jamoalarining urbanizatsiyalashuvi Amudaryo va Sirdaryo havzalarida ikki xil yo‘ldan borgani asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari antik davrda turkiy va eroniy tilli aholining etnik qorishuvi o‘zbek xalqi etnogenezida muhim bosqich bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: antik davr, etnogenez, qadimgi Xorazm, Parg‘ana, Choch, urbanizatsiya, Jonbos qal’a, Qo‘yqirilgan qal’a, Qovunchi madaniyati, yuechji-to‘xorlar, Kushon davlati.

O‘zbek xalqining etnogenezi masalasini o‘rganishda antik davr alohida o‘rin tutadi. Aynan shu davrda O‘rta Osiyoning ikki daryo oralig‘i va unga tutash hududlarida shaharsozlik madaniyati keng yoyilib, mintaqaning tarixiy-madaniy viloyatlari to‘la shakllandi, o‘troq dehqon va chorvador aholi o‘rtasidagi iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Shu bois antik davr etnik jarayonlarini chuqur tahlil qilmasdan turib, o‘zbek xalqi shakllanishining keyingi bosqichlarini to‘g‘ri tushunish mushkul.

Antik davrda mintaqa tarixida bir qator muhim voqealar ro‘y berdi. Xorasmiylarning Amudaryo quyi havzasiga ko‘chib kelishi, Makedoniyalik Iskandarning Sharqqa yurishlari, Salavkiylar va Yunon-Baqtriya podsholiklarining tashkil topishi, Davan (Parg‘ana) va Qang‘ davlatlarining paydo bo‘lishi, yuechji-to‘xorlarning janubga siljishi va Kushon davlatining vujudga kelishi shular jumlasidandir. Ushbu voqealarning har biri mintaqa aholisining etnik tarkibiga, moddiy va ma’naviy madaniyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Shuni ta’kidlash lozimki, antik davr urbanizatsiya jarayonlari mintaqaning barcha hududlarida bir vaqtda va bir xil sur’atda kechmagan. Amudaryo havzasidagi viloyatlar bilan Sirdaryo havzasidagi viloyatlarning shakllanish yo‘li, ularga qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ta’sir darajasi turlicha bo‘lgan. Bu farqlarni aniqlash esa

mintaqada kechgan etnogenetik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi antik davrda O‘rta Osiyo etnomadaniy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlarni qadimgi Xorazm, Parg‘ana va Choch viloyatlari misolida tahlil qilish hamda ularning o‘zbek xalqi etnogenezidagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

Antik davr O‘rta Osiyo tarixi, xususan, qadimgi Xorazm tarixini ilmiy asosda o‘rganish XX asrning 30-40-yillaridan boshlandi. Bu sohada S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining xizmatlari beqiyos. S.P.Tolstov o‘zining “Древний Хорезм” va “По древним дельтам Окса и Яксарта” asarlarida Quyi Amudaryo havzasining bronza davridan to o‘rta asrlargacha bo‘lgan tarixini arxeologik materiallar asosida izchil yoritib berdi (Толстов С.П., 48). Quyi Sirdaryo saklarining moddiy madaniyati O.A.Vishnevskaya tadqiqotlarida keng tahlil qilingan (Вишневская О.А., 73). Qadimgi Xorazm qishloq manzilgohlari va aholi joylashuvi masalalari Ye.Ye.Nerazik ishlarida, qal’alarning mudofaa tizimi esa Q.Sobirov tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Qadimgi Farg‘onaning dehqonchilik madaniyati, jumladan, Chust madaniyati Yu.A.Zadneprovskiy tomonidan atroflicha tadqiq etilgan (Заднепровский Ю.А., 62). Toshkent vohasi shaharsozlik madaniyatining genezisi va rivojlanish bosqichlari Yu.F.Buryakov monografiyasida yoritilgan (Буряков Ю.Ф., 82). Davan davlati haqidagi qadimgi xitoy manbalari ma’lumotlari N.Ya.Bichurin tarjimalari orqali ilmiy muomalaga kiritilgan (Бичурин Н.Я., 50).

Yuechji-to‘xorlar masalasi xorijiy tadqiqotchilarning ham diqqat markazida bo‘lib kelgan. Xususan, V.B.Xenning “to‘xor” atamasining kelib chiqishi va to‘xor tili masalasini maxsus tadqiq etgan (Henning W.B., 49). Kushon podshosi Kanishkaning Rabatak yozuvi esa N.Sims-Uilyams va J.Kribb tomonidan nashr etilib, kushonlar tarixini o‘rganishda yangi imkoniyatlar ochdi (Sims-Williams N., Cribb J., 196).

Antik davr etnik jarayonlarini o‘zbek xalqi etnogenezi bilan bog‘liq holda tahlil qilishda akademik A.Asqarovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olim qadimgi Xorazm tarixiga oid maqolasida xorasmiylarning Hilmend vodiysidan ko‘chib kelishi haqidagi konsepsiyani ilgari surgan (Аскаров А., 76-84), monografiyalarida esa antik davrni o‘zbek xalqi etnogenezining muhim bosqichlaridan biri sifatida asoslab bergan (Аскаров А., 215). Akademik K.Shoniyozov ham qang‘ar elatining shakllanishi va uning o‘zbek xalqi tarkibidagi o‘rni masalasiga to‘xtalgan (Шониёзов К., 114-116).

Mazkur mavzuning ayrim jihatlari- muallifning avvalgi tadqiqotlarida ham ko‘rib chiqilgan (Sattorov N., 133-138).

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, antik davr O‘rta Osiyo viloyatlarining tarixi alohida-alohida yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsada, ulardagi urbanizatsiya jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish va bu jarayonlarni o‘zbek xalqi etnogenezi bilan bog‘lab o‘rganish hali ham dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotda antik davr O‘rta Osiyo etnomadaniy hayotida yuz bergan o‘zgarishlarni o‘rganishda tarixiylik va xolislik tamoyillariga amal qilinib, tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil hamda xronologik yondashuv kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

So‘nggi bronza va ilk temir davrida O‘rta Osiyoning ikki azim daryosi, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida boshlangan mintaqaviy rivojlanish hamda tarixiy-madaniy xo‘jalik viloyatlarining tarkib topishi antik davrda ham izchil davom etdi. Bu jarayonni, eng avvalo, qadimgi Xorazm misolida kuzatish mumkin.

Ko‘chmanchilik turmush tarziga asoslangan Quyisoy madaniyati sohiblari sak-massaget qabilalari bo‘lib, ular Quyi Amudaryo va Orolbo‘yining tub joyli aholisi hisoblangan (Вишневская О.А., 97; Толстов С.П., 77-87). Atoqli arxeolog S.P.Tolstovning bu o‘lkani “Avesto”dagi ezgulik xudosi Axuramazda yaratgan Aryanam Vayjah bilan bog‘lagani ham bejiz emas edi.

Miloddan avvalgi VI asrda qadimgi Xorazm tarixida tub burilish yasagan voqea yuz berdi. Akademik A.Asqarovning fikricha, Ahamaniylar podshosi Doro I ning soliq siyosati natijasida Hilmend vodiysida yashagan avestoiy xorasmiylar o‘z yurtlarini tark etib, Amudaryoning quyi oqimi tomon ko‘chishga majbur bo‘lganlar. Skilak va Gerodot ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, bu voqea miloddan avvalgi 513-yildan keyin sodir bo‘lgan. Kema va sollarda sak-massagetlar yurtiga kirib kelgan xorasmiylar bo‘lajak Xorazm vohasining g‘arbi va janubida, Xumbuztepa, Hazorasp va Ko‘zaliqir hududlarida joylashib, sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullana boshladilar. Ta’kidlash lozimki, ular Hilmend vodiysida o‘troq hayot kechirgan, sug‘orma dehqonchilikda boy tajriba to‘plagan aholi edi. Xorasmiylarning kirib kelishi bilan sak-massagetlar vatanida yangi etnotoponim, ya’ni “Xorazm” atamasi paydo bo‘ladi (Асқаров А., 76-84).

Miloddan avvalgi IV-III asrlardan boshlab qadimgi Xorazmning madaniy-xo‘jalik hayotida katta yuksalish kuzatiladi. Miloddan avvalgi IV asrdan milodiy III asrgacha bo‘lgan davrda urbanistik jarayon Quyi Amudaryoning har ikki sohilini qamrab oldi. O‘lkada katta-kichik yuzga yaqin qal’a qad ko‘tardi. Mamlakatda siyosiy vaziyat barqarorlashib, yangi yerlarni o‘zlashtirish, shaharlarning yiriklashuvi

va markazlashuv jarayonlari boshlandi. Miloddan avvalgi I asr boshlaridan Xorazm hukmdorlari o‘z tasvirlari tushirilgan tangalar zarb eta boshladilar. Milodiy III asrdan boshlab bu tangalarda Xorazm podsholarining ismlari, masalan, Afrig‘iylar sulolasining ilk vakili Arsamux I hamda Vazamar nomlari uchraydi. Miloddan avvalgi III asrda oromiy alifbosi asosida mustaqil xorazm yozuvi yaratildi, haykaltaroshlik, tasviriy san’at va musiqa rivoj topdi. Milodiy I-II asrlardan esa vohada maydoni kichikroq bo‘lgan yangi shaharlar qurilishi avj oldi.

Agar arxaik davrda shahar hayoti asosan Amudaryoning chap sohilida jamlangan bo‘lsa, antik davrga kelib aholi gavjumligi o‘ng sohilga ham o‘tdi. Ekin maydonlarini suv bilan ta’minlash dehqonchilik xo‘jaligining qon tomiriga aylandi. O‘ng qirg‘oqda Amirobod, Tozabog‘yob va Kaltaminor kanallari barpo etilib, ekin maydonlari yanada kengaydi. Har bir yangi kanalning qazilishi yangi shaharlar va dehqonchilik massivlarining paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Vohada Bozor qal’a, Tuproq qal’a, Jonbos qal’a, Oqchaxon qal’a, Ko‘na Uaz, Ko‘hna Urganch, Ichan qal’a, Kat qal’a kabi dunyoviy xarakterdagi shahar-davlat markazlari bilan bir qatorda yirik diniy markazlar ham (Hazorasp, Qo‘yqirilgan qal’a, Shovot tuproq qal’asi, Chilpiq qal’a, To‘q qal’a va boshqalar) qad ko‘tardi. Monumental ibodatxonalar, pillapoyali stilobat ustiga qurilgan otashgohlar, diniy markaz vazifasini o‘tagan qal’alarning aylana shaklda qurilishi zardushtiylik qadimgi Xorazmda davlat dini darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Arxaik davr yodgorliklarida asosiy qurilish materiali sifatida to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi xom g‘ishtlar ishlatilgan bo‘lsa, miloddan avvalgi IV asrdan boshlab qurilishda kvadrat g‘ishtlar keng qo‘llanila boshlandi. Bu davrda muhandislik bilimlari ham ancha rivoj topdi. Davr me’morchiligining muhim xususiyatlaridan biri qal’alar mudofaa inshootlarining puxta va monumental qurilishi, darvoza oldi qurilmalarining murakkabligi bilan ajralib turadi.

Bu davrda Xorazmda qal’alarni asosan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida qurish an’anaga aylanadi, kvadrat, aylana va uchburchak tarhli qal’alar esa kam uchraydi. Antik davr shaharlari orasida harbiy xarakterdagi qal’alar (Jonbos qal’a, Katta Guldursun, Qizil qal’a, Kalajik, Ayoz qal’a 1) ham bo‘lib, ular asosan vohaning qumliklar bilan chegaradosh hududlarida qad ko‘targan.

Diniy xarakterdagi qal’alarga xos qadimgi Xorazm an’anasi Qo‘yqirilgan qal’a misolida yaxshi kuzatiladi. Qal’a markazida aylana shakldagi ikki qavatli inshoot joylashgan bo‘lib, uning me’moriy tarhi o‘ziga xos mudofaa xususiyatiga ega. Qal’a atrofidan topilgan ko‘plab haykalchali ostadonlar zardushtiylik e’tiqodi bilan bog‘liqdir. Qal’a kichik bo‘lishiga qaramay, me’moriy va harbiy jihatdan talabga to‘la

javob beradigan mudofaa tizimiga ega. Demak, Qo‘yqirilgan qal’a ikki vazifani bajargan: birinchidan, u diniy-ma’muriy markaz bo‘lgan; ikkinchidan, u O‘rta Osiyoda qurilgan eng qadimgi rasadxonalardan biri hisoblanadi. Uning har ikkala vazifasi bir-biri bilan mantiqan bog‘lanib ketgan.

Ma’lumki, ilk shaharlarning ma’muriy boshqaruvi dastlab diniy rahnamolar zimmasida bo‘lgan. Ular o‘z davrining ilg‘or, ma’rifatli kishilari hisoblanib, osmon jismlarini kuzatish va undan jamiyat, xo‘jalik hayotini boshqarishda foydalanish yo‘llarini izlaganlar. Osmon jismlari bilan “so‘zlashish”ning ilmiy asosi Qo‘yqirilgan qal’a qurilmasida o‘z aksini topgan.

Shunday qilib, antik davrda qadimgi Xorazm madaniy hayotida Sharq me’morchiligining an’anaviy yutuqlari o‘z ifodasini topdi. Vohaning tabiiy-geografik sharoitiga mos me’morchilik yo‘nalishi ishlab chiqildi, me’morchilik va muhandislik ilmida Xorazm maktabi shakllandi. Zardushtiylik dini esa mukammal tizimga aylandi. Qo‘yqirilgan qal’a, To‘q qal’a kabi noyob yodgorliklar bu dinning asosiy mazmuni va mohiyatini o‘zida aks ettiradi. Antik davr Xorazmiga xos bu tarixiy manzara ikki daryo oralig‘idagi boshqa qadimgi o‘troq tarixiy-madaniy o‘lkalar uchun ham xarakterli edi.

Miloddan avvalgi III-II asrlarda O‘rta Osiyoda tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, qadimgi Farg‘onada mahalliy kadxudotlar, vispati va zantupati maqomidagi hokimliklarning siyosiy uyushmasidan iborat Davan (Dayuan, Parg‘ana) davlati tarkib topdi.

Ma’lumki, qadimgi Farg‘ona saklari bronza davridayoq buloq suvlari asosida shakllangan Qoradaryo irmoqlari havzalarida sug‘orma dehqonchilik madaniyatini yaratganlar. Ajdodlarimizning bu xo‘jalik kashfiyoti fanda “Chust madaniyati” nomi bilan mashhur. Arxeologlar qadimgi Farg‘onaning shimoli-sharqiy hududlarida Chust madaniyatiga oid 15 ta mikrovohada 80 dan ortiq yodgorlik qayd etganlar (Заднепровский Ю.А., 62). Bu madaniyatning so‘nggi bosqichiga oid ilk shahar izlari Dalvarzintepa (Andijon viloyati, Oyim tumani) va Buvanamozor (Namangan viloyati, Chust tumani) yodgorliklarida o‘rganilgan. Ilk temir va antik davrga kelib Chust madaniyati an’analari asosida rivojlangan qadimgi dehqonchilik madaniyatlari (Eylaton, Sho‘rabashat) butun vodiyni qamrab oldi va o‘troq turmush tarzi jamiyatning iqtisodiy asosiga aylandi.

Miloddan avvalgi III asrdan boshlab shaharsozlik madaniyati butun vodiy bo‘ylab keng yoyildi. Vodiy orqali o‘tgan Ipak yo‘li bo‘ylab Axsikent, Kubo (Quva), Marg‘ilon, Bob (Pop) kabi shaharlar qad ko‘tardi.

Shunday qilib, miloddan avvalgi III-I asrlar va milodiy eraning boshlarida qadimgi Farg‘onada sug‘orma dehqonchilik an’analari asosida Farg‘ona (Parg‘ana) xalqi va uning xitoy manbalarida Davan deb atalgan ilk davlati tashkil topdi. Davan nomining asl xitoycha shakli “Dayuan” bo‘lib, “tog‘lar orasidagi vodiy” ma’nosini anglatadi (Бичурин Н.Я., 50). Uning mahalliy nomi bo‘lgan Parg‘ana ham “tog‘lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik” ma’nosini beradi. Demak, xitoyliklar qadimgi Farg‘ona davlati nomini o‘z tiliga tarjima qilib, Dayuan (Davan) deb ataganlar.

Antik davr o‘zbek etnogenezini o‘rganishda muhim muammolardan yana biri dayuechji qabilalarining O‘rta Osiyo ichki hududlariga, ayniqsa, uning janubiy mintaqalariga kirib kelishi bilan bog‘liq. Tarixdan ma’lumki, miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida O‘rta Osiyoning shimoliy dashtlarida yashagan asianlar, pasianlar, toxarlar va sakaravaklar sak-massagetlar konfederatsiyasini tashkil etib (Страбон, 1964. XI, 8, 2), Ahamaniylar va Makedoniyalik Iskandar qo‘shinlariga qarshi mardonavor kurashganlar. Ammo Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya va Sug‘diyona yunonlar tasarrufiga o‘tgach, sak-massaget qabilalari ittifoqi xavotirga tushib qoldi.

Ayniqsa, Yunon-Baqtriya davlati tashkil topgach, uning bosqinchilik siyosatidan cho‘chigan konfederatsiya qabilalarining katta qismi to‘xorlar yetakchiligida Sharqiy Turkiston tomon ko‘chib ketdi. Ular asosan Tangritog‘ning janubi-g‘arbiy qismiga joylashib, Sharqiy Turkistonning turkiy tilli muhitida qadimgi hind-yevropa xalqlaridan biri bo‘lgan to‘xorlar makonini vujudga keltirdilar va qo‘shni eroniy hamda turkiy etnoslar bilan uzviy etnomadaniy aloqada bo‘ldilar. Turfon, Qorashahar va Kucha kabi voha hukmdorliklarida shahar aholisining katta qismini to‘xor-eroniy tilli etnoslar tashkil etgan bo‘lib, bu yerlar o‘sha davrda “to‘rt To‘xor o‘lkasi” deb atalgan (Henning W.B., 158-162). Boshqacha aytganda, miloddan avvalgi III-II asrlardan boshlab Tangritog‘ning markaziy va janubi-g‘arbiy qismlari, xususan, uning janubiy etaklari to‘xorlar yashaydigan hududga aylangan.

Ayrim tadqiqotchilar yuechji-to‘xorlar Sharqiy Turkistondan chiqib, Parg‘ana, Ustrushona va Sug‘diyonani oralab, avval Shimoliy Baqtriyaga, so‘ng Janubiy Baqtriya va Shimoliy Hindistongacha kirib borganlarida prototurkiy tilda so‘zlashgan, degan farazni ilgari suradilar. Bu faraz tarafdorlarining fikricha, Baqtriyaning ijtimoiy va siyosiy hayotida eroniy til muhiti yetakchi mavqega ega bo‘lgani bois yuechji-to‘xorlar bu yerga kelgach, til jihatidan to‘liq eroniylashib ketganlar.

Baqtriyada tashkil topgan Kushon davlati qadimdan davom etib kelayotgan mahkamachilik an’analarini ellinlar ta’sirida takomillashgan boshqaruv tizimi bilan uyg‘unlashtirib, o‘zbek xalqi etnogenezi va davlatchilik tarixida katta yutuqlarga erishdi. Etnosiyosiy va etnomadaniy rivojlanishda ilk bor o‘zlikni anglashning

poydevori qo‘yildi. Kushon podshosi buyuk Kanishka o‘zidan oldingi hukmdorlardan farqli ravishda mamlakatda hukm surgan yunon tilini bekor qilib, mahalliy baqtriy tilini davlat tili deb e’lon qildi va mahkamachilikda yunon yozuvi o‘rniga baqtriy yozuvini qo‘llashga farmon berdi. Muomaladagi tangalarda ilk bor Kanishka tasviri va turkiy xalqlarga xos ramz, ya’ni samoviy tulpor tasviri zarb etila boshlandi. Kushonlar uzoq ajdodlari tilini unutib, eroniylashgan bo‘lsalar-da, o‘z nasl-nasablarini unutmaganlar. Rabatak ibodatxonasi yozuvida Kanishka o‘zini va ajdodlarini “oriy” deb tilga oladi (Sims-Williams N., Cribb J., 196). Bu holat yuqoridagi fikrimizning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Yozma manbalarda antik davr O‘rta Osiyosining qadimgi turkiy etnoslari haqida yetarli ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, arxeologik materiallar bu davrda o‘lkada turkiy etnik guruhlar yashaganidan guvohlik beradi. Masalan, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Qang‘ davlati doirasida, uning markaziy mintaqalari bo‘lgan Sirdaryoning o‘rta havzasi va Toshkent vohasida yangi etnos, ya’ni qang‘ar elati tarkib topa boshladi. Uning etnik asosini mahalliy sug‘diylar va Sirdaryo bo‘yi turkiy qabilalari tashkil etgan. Keyinchalik ular tarkibiga hunlarning kirib kelishi turkiy etnik qatlamning yanada qalinlashuviga olib keldi (Асқаров А., 201; Шониёзов К., 20). Ana shu qorishgan etnosning moddiy madaniyati fanda “Qovunchi madaniyati” nomi bilan o‘rin olgan.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘rta Osiyo qadimgi jamoalarining urbanizatsiyalashuvi ikki yo‘ldan borgan. Birinchisi Amudaryo va uning irmoqlari havzalarida, ikkinchisi esa Sirdaryo va uning irmoqlari havzalarida tarkib topgan sivilizatsiya o‘choqlaridir.

Antik davrda tarkib topgan har bir madaniy-xo‘jalik markazining o‘troq aholisi asosida baqtriy, sug‘diy, xorazmiy, Choch va Parg‘ana xalqlari shakllanib bordi. Shu bilan birga, Qang‘ davlati doirasida sug‘diylar va turkiy qabilalar qorishuvidan qang‘ar elatining tarkib topishi, Kushon davlati davrida esa etnosiyosiy o‘zlikni anglashning poydevori qo‘yilishi o‘zbek xalqi etnogenezida antik davr muhim bosqich bo‘lganini tasdiqlaydi. Bu davrda turkiy va eroniy tilli aholining bir hudud doirasida yonma-yon yashashi va o‘zaro etnik qorishuvi yanada chuqurlashdi.

Umuman olganda, antik davrda O‘rta Osiyo etnomadaniy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlarni o‘rganish o‘zbek xalqining etnik tarixini yaxlit va xolis yoritishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Асқаров А. Қадимги Хоразм тарихига оид баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. – Тошкент, 2004. – Б. 76-84.

2. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет. 2007.
3. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O‘zbekiston, 2015.
4. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. II. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР. 1950.
5. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982.– С. 108-110.
6. Вишневская О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII-V вв. до н.э. – Москва: Наука. 1973.
7. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. № 118. – Москва-Ленинград. 1962.
8. Сатторов Н. Шимолий Бақтрия ва Зарафшон минтақаларида деҳқончилик ва чорвачилик маданияти соҳиблари этномаданий алоқаларининг ўзбек халқи этногенези шаклланишидаги ўрни // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 3-jild, 12/1-son. 2023. – Б. 133-138.
9. Страбон. География в 17 книгах. – Москва: Наука. 1964.
10. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: Изд-во МГУ. 1948.
11. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Изд-во восточной литературы.1962. – С. 47-87.
12. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ. 2001.
13. Henning W.B. The Name of the “Tokharian” Language // Asia Major. New Series. – Vol. I.1949. – P. 158-162.
14. Sims-Williams N., Cribb J. A New Bactrian Inscription of Kanishka the Great // Silk Road Art and Archaeology. – Vol. 4. – Kamakura. 1962. – P. 75-142.

MIZDAHQON ARXEOLOGIK MAJMUASI ASOSIDA X–XIV ASRLARDA XORAZM METALLSOZLIK USTAXONALARINING RIVOJLANISHI VA ISHLAB CHIQARISH TUZILMASI

Sabirov Mansur Ruzmetovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar fakulteti
Tarix kafedrasi stajyor o‘qituvchi
Mansur1985@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-3970-5861
+998974515777

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tadqiqotda Mizdahqon arxeologik majmuasi materiallari asosida X–XIV asrlarda Xorazm hududida metallsozlik hunarmandchiligining rivojlanish darajasi, temirchilik va rixtagarlik (rangli metallarni eritish va quyish) ustaxonalarining ishlab chiqarish tuzilmasi hamda texnologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yodgorlikning janubi-g‘arbiy va sharqiy mahallalarida aniqlangan temir va mis eritish o‘choqlari, ustaxona inshootlari, dashqollar (yarim tayyor temir xomashyosi), metallga ishlov berish asboblari hamda tayyor mahsulotlar arxeologik manba sifatida o‘rganilgan.

Tahlillar natijasida Mizdahqonda metallga ishlov berish jarayonlari xomashyoni tayyorlash, eritish, tozalash, toblash va tayyor buyumlar ishlab chiqarish kabi bosqichlarga ajralgani, ustaxonalar esa muayyan ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti asosida faoliyat yuritgani aniqlandi. Shuningdek, temirchilik mahsulotlari xo‘jalik, maishiy va harbiy ehtiyojlarni ta’minlagan bo‘lsa, rixtagarlik ustaxonalari mis va bronzadan turli badiiy hamda amaliy buyumlar tayyorlashga xizmat qilgani ko‘rsatib berildi. Tadqiqot natijalari Mizdahqonning X–XIV asrlarda Xorazmning yirik hunarmandchilik va metallsozlik markazlaridan biri bo‘lganini, undagi ustaxonalar esa o‘rta asr shahar iqtisodiyoti va ishlab chiqarish tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat ko‘rsatganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Mizdahqon, Xorazm, X–XIV asrlar, metallsozlik, temirchilik, rixtagarlik, ustaxona, arxeologik majmua, dashqol, metall eritish texnologiyasi.

O‘rta asrlarning rivojlangan va so‘nggi bosqichlarida Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida hunarmandchilik, ayniqsa metallsozlikning temirchilik va rixtagarlik (quyuvchilik) kabi ixtisoslashgan yo‘nalishlari muhim ahamiyat kasb etgan. X–XIV asrlarda shaharlarning rivojlanishi, aholi va ishlab chiqarish markazlarining kengayishi natijasida hunarmandchilik mahallalari shakllanib, metallga ishlov berish sohalari yanada ixtisoslashgan tizimga ega bo‘ldi[1].

Xorazmning yirik savdo-hunarmandchilik markazlaridan biri bo‘lgan Mizdahqon yodgorligidagi arxeologik tadqiqotlar (M.Sh.Kdyrniyazov, R. Baudinov, B.Turganov) o‘rta asrlar metallsozlik ustaxonalarining tuzilishi, texnologik

xususiyatlari va xomashyo bilan ta’minlanish zanjirini o‘rganishda noyob ma’lumotlar beradi[2]. Ushbu tezisning maqsadi Mizdahqondan topilgan ustaxonalar va artefaktlar asosida X–XIV asrlarda Xorazm temirchilik va rixtagarlik sohasi me’moriy va texnologik strukturasini ilmiy asoslab berishdan iborat Mizdahqon arxeologik yodgorligi materiallari X–XIV asrlarda Xorazmda metallsozlik hunarmandchiligi yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar asosida temirchilik va rixtagarlik ustaxonalari maxsus ishlab chiqarish joylari, mehnat qurollari hamda texnologik jarayonlarga ega bo‘lgan ixtisoslashgan hunarmandchilik markazlari sifatida faoliyat yuritgani aniqlanadi. Arxeologik topilmalar, jumladan metall eritish o‘choqlari, asbob-uskunalar va yarim tayyor mahsulotlar Xorazm shaharlarida metallga ishlov berish jarayoni tizimli yo‘lga qo‘yilganini tasdiqlaydi. Bu esa Mizdahqonning nafaqat savdo markazi, balki o‘rta asr Xorazmida muhim metallsozlik ishlab chiqarish maskanlaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

Arxeologik izlanishlar ko‘rsatishicha, XIII–XIV asrlarda Mizdahqon mahallalarida individual ustaxonalardan tashqari, ixtisoslashgan metallsozlik majmualari faoliyat ko‘rsatgan. Yodgorlikning turli hududlaridan 4 ta temir erituvchi hamda temirchilik ustaxonasi va 1 ta mis eritish ustaxonasi izlari ochib o‘rganilgan [3].

Temirchilik o‘choqlari me’morchiligi: Janubi-g‘arbiy mahalla 1-xonasidagi o‘choq toshdan silindrsimon shaklda qurilib, tashqi tomoni pishiq g‘isht bilan qoplangan hamda pastki qismi yer ostiga chuqurlashtirilgan. Balandligi taxminan 1,20 metr (0,60 m qismi saqlangan), devor qalinligi 0,35 metr bo‘lgan o‘choqning shimoliy burchagida havo damlovchi maxsus tirqish qoldirilgan. O‘choq polidagi tosh tegirmon diametri 1,1 metrni tashkil qiladi[3]. Arxeologik tadqiqotlar Mizdahqonda XIII–XIV asrlarda metallsozlik ishlab chiqarishi tasodifiy hunarmandchilik faoliyati emas, balki maxsus tashkil etilgan ustaxonalar tizimi asosida rivojlanganini ko‘rsatadi. Temir eritish va qayta ishlash inshootlarining me’moriy tuzilishi, o‘choqlarning maxsus qurilishi hamda havo berish moslamalarining mavjudligi o‘sha davr metallsozlik texnologiyasi ancha takomillashganini tasdiqlaydi. Bu topilmalar Mizdahqonda temirchilik va rixtagarlik sohalari ishlab chiqarish jarayonlari aniq yo‘lga qo‘yilgan, ixtisoslashgan hunarmandchilik tarmoqlari sifatida faoliyat yuritganini ko‘rsatadi.

Xomashyo saqlash va toblash texnologiyasi: Ushbu ustaxonaning sharqiy qismida (№7 xona) polga ko‘milgan xum (1,40 x 0,5 m) ichidan 89 dona “kulcha” shaklidagi dashqollar (yarim tayyor temir xomashyosi) topilgan[3]. Bu holat ustaxonada xomashyo quyish va uni urib-toblash orqali tarkibidagi shlak qoldiqlarini

siqib chiqarish jarayoni amalga oshirilganini hamda ushbu majmualar shahar va uning atrofidagi boshqa ustaxonalarni tayyor temir xomashyosi bilan ta’minlab turganini isbotlaydi[4].

Ustaxonalar tarhi va asbob-uskunalar majmui: Sharqiy mahalla I dagi 11-xona g‘arbiy burchagidan loydan silindrsimon qurilgan temirchilik o‘chog‘i (balandligi 1,20 m, diametri 1 m) aniqlangan. Ustaxona “G” shaklida bo‘lib, uzunligi 6,50 m, markaziy eni 2,30 m ni tashkil etadi. Sharqiy devor bo‘yidagi supadan mis simlar, pichoq, og‘irlik toshlari hamda temirchilik asboblari – bolg‘a va ombur topilgan[3]. Supalarning mavjudligi etnografik manbalar bilan mos tushib, u yerga toblash navbatida turgan buyumlar va asboblar terib qo‘yilganini ko‘rsatadi[5]. Mizdahqon ustaxonalaridan topilgan dashqollar, metallga ishlov berish qurollari va ishlab chiqarish inshootlari X–XIV asrlarda Xorazmda temirchilik texnologiyasi bosqichma-bosqich va tizimli rivojlanganini ko‘rsatadi. Xomashyoni saqlash, eritish, tozalash va toblash jarayonlarining alohida bosqichlarga ajratilgani ustaxonalarda ishlab chiqarish jarayoni yaxshi tashkil etilganini bildiradi. Shuningdek, ustaxona tarhi va topilgan asbob-uskunalar majmui temirchilik hamda rixtagarlik faoliyati uchun maxsus ishlab chiqarish muhiti shakllanganini tasdiqlaydi. Bu ma’lumotlar Mizdahqon shahrida metallsozlik nafaqat mahalliy ehtiyojlarni qondirgan, balki atrof hududlarni ham tayyor metall xomashyosi va buyumlari bilan ta’minlagan muhim hunarmandchilik tarmog‘i bo‘lganini ko‘rsatadi.

Rixtagarlik (mis va bronza eritish) ustaxonalari: Janubi-g‘arbiy mahalla “Sharq” hovlisidan (№2 hovli) mis eritish o‘chog‘i izlari ochilgan. O‘choq devorlari ko‘k rangga kirgan bo‘lib, pol qatlamida qalin kul, mis parchalari va shlak qoldiqlari sochilib yotgan. Bu yerda bronzadan quyma badiiy va maishiy buyumlar tayyorlangan[3]. Mizdahqon ustaxonalaridan topilgan metall mahsulotlari 4 ta asosiy guruhga bo‘linadi:

1. Hunarmandchilik asboblari: bolg‘a, ombur, tigel, og‘irlik toshlari;
2. Dehqonchilik va duradgorlik qurollari: o‘roq, bog‘mon o‘rog‘i, motiga, bolta, tesha, randa, mix;
3. Maishiy va xo‘jalik buyumlari: pichoq, qaychi, qulflar;
4. Rixtagarlik va zargarlik buyumlari: qo‘ng‘iroq, munchoq, tovoq, kosa, bronza ko‘zgular, sirg‘a va uzuklar [2; 6].

Mizdahqondagi rixtagarlik ustaxonalarining arxeologik topilmalari X–XIV asrlarda Xorazmda rangli metallarga ishlov berish, quyish va badiiy buyumlar tayyorlash texnologiyalari rivojlanganini ko‘rsatadi. Mis eritish o‘choqlari, shlak qoldiqlari va metall parchalari bu yerda maxsus ishlab chiqarish jarayonlari yo‘lga qo‘yilganini

tasdiqlaydi. Topilgan buyumlarning turli funksional guruhlarga ajralishi esa Mizdahqon hunarmandchiligi faqat maishiy ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanmaganini, balki qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, savdo va badiiy ishlab chiqarish sohalarini ham qamrab olganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, yodgorlikdagi metallsozlik majmualari Xorazm shahar madaniyatida ixtisoslashgan hunarmandchilik tizimi shakllanganining muhim arxeologik dalili hisoblanadi.

Mizdahqon arxeologik majmuasi materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlar X–XIV asrlarda Xorazmda metallsozlik, xususan, temirchilik va rixtagarlik tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan hamda ixtisoslashgan ishlab chiqarish tizimiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Yodgorlik hududidan aniqlangan temir va mis eritish o‘choqlari, metallga ishlov berish asboblari, dashqollar hamda tayyor mahsulotlar ushbu sohalarda murakkab texnologik jarayonlar mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi.

Mizdahqon ustaxonalarining me’moriy tuzilishi va jihozlanishi ishlab chiqarish jarayonlari – xomashyoni tayyorlash, eritish, tozalash, toblash va tayyor buyumlar yasash kabi bosqichlarga bo‘linganini ko‘rsatadi. Bu esa o‘rta asr Xorazm shaharlarida metallsozlik oddiy hunarmandchilik faoliyati emas, balki ma’lum darajada tashkil etilgan va mehnat taqsimotiga asoslangan ishlab chiqarish sohasi bo‘lganini anglatadi.

Rixtagarlik ustaxonalari va ulardan topilgan rangli metall buyumlar Xorazmda mis va bronzaga ishlov berish, quyma mahsulotlar tayyorlash hamda badiiy metallsozlik an’analari rivojlanganini ko‘rsatadi. Temirchilik mahsulotlari esa qishloq xo‘jaligi qurollari, maishiy buyumlar va harbiy anjomlar ishlab chiqarish ehtiyojlarini ta’minlagan.

Shunday qilib, Mizdahqon arxeologik yodgorligi X–XIV asrlarda Xorazmning yirik metallsozlik markazlaridan biri bo‘lganini, undagi ustaxonalar esa mahalliy iqtisodiyot, shahar hayoti va hunarmandchilik tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritganini tasdiqlaydi. Mazkur arxeologik materiallar Xorazmda o‘rta asrlarda metallga ishlov berish texnologiyalari yuqori bosqichga erishganini o‘rganishda muhim manbaviy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Неразик Е. Е. Сельское жилище Хорезма (I–XIV вв.) / Е. Е. Неразик. – Москва: Наука, 1966. – С. 226.
2. Кдырниязов М.-Ш., Бауеддинов Р. Средневековый Миздакхан (поселение и материальная культура) / М.-Ш. Кдырниязов, Р. Бауеддинов. – Самарканд: МИЦАИ, 2010. – С. 80–101.

3. Кдырниязов М.-Ш. Материальная культура городов Хорезма XIII–XIV вв. / М.-Ш. Кдырниязов. – Нукус: Каракалпакстан, 1989. – С. 32, 87–107.
4. Турганов Б. Xorazmning metallsozlik hunarmandchiligi (Qadimgi davrdan XX asr boshigacha) / B. Turganov. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B. 79–81.
5. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси / С. Иброҳимов. – Тошкент: Фан, 1958. – Б. 349.
6. Кдырниязов М.-Ш., Турганов Б. Железные изделия из средневекового Миздакхана / М.-Ш. Кдырниязов, Б. Турганов // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2007. – № 4. – С. 82–85.

ANUSHTEGINIYLAR DAVRIDA (XI–XIII ASRLAR) XORAZM BADIIY METALLSOZLIGIDA BEZAK USLUBLARI VA RAMZIY TASVIRLARNING SHAKLLANISHI

Sabirov Mansur Ruzmetovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar fakulteti
Tarix kafedrasi
Stajyor o‘qituvchi
Mansur1985@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-3970-5861
+998974515777

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda Anushteginiylar davrida (XI–XIII asrlar) Xorazm hududida rivojlangan badiiy metallsozlik an’analari, xususan, rixtagarlik, kandakorlik va bezak berish texnologiyalari arxeologik topilmalar hamda yozma manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Zamaxshar, Qizilqal’a, Qavatqal’a va Shemaxaqal’a yodgorliklaridan aniqlangan bronza hamda mis buyumlarning badiiy bezak tizimi, ulardagi zoomorfik (qush va hayvon tasvirlari), epigrafik (yozuvli) hamda islimiy naqshlarning shakllanish xususiyatlari o‘rganilgan.

Shuningdek, metall buyumlarni tayyorlashda qo‘llanilgan qolipaki quyish, kandakori va zarhallash usullarining texnologik imkoniyatlari tahlil qilinib, Xorazm badiiy metallsozlik maktabining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari XI–XIII asrlarda Xorazmda metallga badiiy ishlov berish yuqori darajada rivojlanganini, undagi bezak uslublari esa mahalliy an’analar va Sharq san’ati ta’siri asosida shakllangan murakkab badiiy tizimni tashkil etganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Anushteginiylar, badiiy metallsozlik, rixtagarlik, kandakorlik, bronza buyumlar, zoomorfik tasvirlar, epigrafik naqshlar, islimiy bezak, Qizilqal’a, Zamaxshar.

KIRISH

XI asr oxiri – XIII asr boshlarida Anushteginiylar davlatining harbiylashgan va iqtisodiy jihatdan qudratli imperiyaga aylanishi Xorazm shahar madaniyati hamda

amaliy-badiiy san’atining, xususan, badiiy metallsozlikning yuksak darajada taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Bu davrda Xorazm qal’a va shaharlaridagi (Gurganj, Mizdahqon, Qavatqal’a, Zamaxshar) metallsozlik ustaxonalari Sharqning yirik hunarmandchilik markazlari bilan o‘zaro aloqada, badiiy metall buyumlar tayyorlashda yangicha uslublarni qo‘lladi [1].

Badiiy metall buyumlarga ishlov berishda hayvon va qush ramzlari, epigrafik (arabiy yozuvlar) hamda islimiy naqshlarning sintezi Anushteginiylar davri Xorazm badiiy maktabining o‘ziga xos tasviriy va ramziy tilini shakllantirdi. Ushbu tadqiqotning maqsadi arxeologik artefaktlar va manbashunoslik ma’lumotlari asosida XI–XIII asrlarda Xorazm badiiy metallsozligidagi bezak uslublari va ramziy tasvirlarning ilmiy-badiiy mohiyatini ochib berishdan iborat.

ASOSIY QISM

Anushteginiylar davrida badiiy metall buyumlar tayyorlashda rixtagarlik (bronza quyuvchiligi), qolipaki (sovuq va issiq qoliplarga quyish) hamda kandakori (o‘yma va zarb berish) texnologiyalari keng qo‘llanilgan. Arxeologik va yozma manbalar tahlili badiiy metallsozlikda quyidagi uslubiy shuningdek, ramziy yo‘nalishlar ustuvor bo‘lganini ko‘rsatadi:

X-XI asrlarga oid Zamaxshar va XII-XIII asr boshlariga oid Qizilqal’a yodgorliklaridan bronzadan quyma shaklda yasalgan qush ko‘rinishidagi metall qubbalar topilgan [2]. Zamaxshardan topilgan uchta qubbaning ikkitasi o‘rdak, bittasi kabutar ko‘rinishida bo‘lsa, Qizilqal’adagi kabutar shaklidagi qubbaning qanotlari va quyrug‘i relyefli chiziqlarda alohida mahorat bilan aks ettirilgan (balandligi 5,3 sm, uzunligi 5,5 sm, ichi kovak) [2]. Badiiy metall buyumlarning dastalari va qismlarini qush shuningdek, hayvon shaklida yasash Anushteginiylar davri Xorazm metallsozligida keng tarqalgan ramziy an’ana hisoblangan[3].

Keltirilgan arxeologik ma’lumotlar Anushteginiylar davrida Xorazm badiiy metallsozligida quyish va bezak berish usullarining yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Zamaxshar va Qizilqal’a yodgorliklaridan topilgan qush shaklidagi bronza qubbalar mahalliy ustalarning nafaqat texnik mahoratini, balki zoomorfik tasvirlardan ramziy-badiiy vosita sifatida foydalanish an’analarini ham namoyon etadi. Qush obrazlarining buyum qismlarida qo‘llanishi o‘rta asr Xorazm metallsozligida estetik qarashlar, ramziy ma’nolar va amaliy uslub uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Bu topilmalar XI–XIII asrlarda Xorazmda badiiy metall buyumlar ishlab chiqarish rivojlangan hunarmandchilik sohasi bo‘lib, unda mahalliy an’analar hamda Sharq amaliy san’ati uslublari o‘zaro uyg‘unlashganini tasdiqlaydi.

Qavatqal’a, Qizilqal’a, Shemaxaqal’a va qishloq makonlaridan bronzadan quyib tayyorlangan va kandakori usulida ishlov berilgan shamdon, chiroq va maishiy idishlar qismlari ko‘plab aniqlangan [4]. XII–XIII asr boshiga oid badiiy metall buyumlar (qozon, shamdon, chiroq) hoshiya shuningdek, turunj naqshlar bilan bezatilgan bo‘lib, ularda islimiy, xattotlik naqshlar hamda uslublashtirilgan qush va hayvonlar tasviri uyg‘unlashtirilgan [5].

Topilmalar XII–XIII asr boshlarida Xorazm badiiy metallsozligida nafaqat texnologik usullar, balki murakkab bezak tizimi ham shakllanganini ko‘rsatadi. Qavatqal’a, Qizilqal’a va Shemaxaqal’a yodgorliklaridan aniqlangan bronza buyumlar quyish, kandakori va bezak berish usullarining yuqori darajada rivojlanganini tasdiqlaydi. Buyumlarda islimiy, epigrafik hamda zoomorfik naqshlarning uyg‘un qo‘llanishi Xorazm metallsozlik san’atida estetik qarashlar va ramziy ifoda vositalari keng rivojlanganidan dalolat beradi. Mazkur materiallar Anushteginiylar davrida badiiy metall buyumlar faqat maishiy ehtiyojlar uchun emas, balki ijtimoiy mavqe va madaniy an’analarni ifodalovchi san’at namunalari sifatida ham muhim ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi.

Badiiy metallsozlikda buyumlarga oltin va kumush suyi yuritish (zarhallash) va kumush bilan ishlov berish orqali ularning estetik qiymatini oshirish yuqori bosqichga ko‘tarilgan. Ushbu fikrlarga qo‘shimcha sifatida, XIV asr arab sayyohi Ibn Battuta (1333 y.) Urganch qozisi va amiri xonadonlarida oltin suyi yuritilgan kumush idishlar, tilla qoshiqlar ishlatilganini qayd etadi [6]. Yozma va arxeologik manbalarda uchraydigan “Kumushchi” va “Oltunchi” (zargar) kabi kasb atamalari metall buyumlarni badiiy bezash va zarhallash bo‘yicha ixtisoslashgan ustalar qatlami shakllanganini tasdiqlaydi [7]. Mazkur holat XI–XIII asrlarda Xorazmda badiiy metallsozlik yuqori darajada rivojlangan va murakkab bezak texnologiyalariga ega bo‘lgan hunarmandchilik tarmoqlaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

XULOSA

Anushteginiylar davri (XI–XIII asrlar) Xorazm badiiy metallsozligi o‘zining rivojlangan texnologik usullari va murakkab bezak tizimi bilan ajralib turgan. Arxeologik topilmalar, xususan, Zamaxshar, Qizilqal’a, Qavatqal’a va Shemaxaqal’a yodgorliklaridan aniqlangan bronza hamda mis buyumlar mahalliy ustalar tomonidan quyish, kandakori, zarhallash kabi usullar keng qo‘llanilganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Xorazm badiiy metallsozligida zoomorfik (qush va hayvon tasvirlari), epigrafik hamda islimiy naqshlar nafaqat bezak vositasi, balki davrning estetik qarashlari va ramziy tasavvurlarini ifodalovchi muhim badiiy elementlar sifatida shakllangan. Metall buyumlarning shakli va

bezaklaridagi uyg‘unlik mahalliy hunarmandchilik an’analari hamda Sharq amaliy san’ati ta’sirining o‘zaro bog‘liqligini namoyon etadi.

Shuningdek, qimmatbaho metallar bilan ishlov berish, zarhallash va kumushlash texnologiyalarining rivojlanganligi Xorazmda metallga badiiy ishlov berishga ixtisoslashgan hunarmandlar faoliyati mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. “Kumushchi” va “Oltunchi” kabi kasbiy atamalar esa badiiy metallsozlik sohasida mehnat taqsimoti bilan birga ustalar ixtisoslashuvi shakllanganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Anushteginiylar davri Xorazm badiiy metallsozligi yuqori texnologik darajaga ega bo‘lgan, amaliy va estetik vazifalarni uyg‘unlashtirgan rivojlangan hunarmandchilik tarmoqlaridan biri bo‘lgan. Mazkur davr metall buyumlari Xorazm shahar madaniyati, badiiy tafakkuri va hunarmandchilik an’analarini o‘rganishda muhim arxeologik manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Турганов Б. Xorazmning metallsozlik hunarmandchiligi (Qadimgi davrdan XX asr boshigacha) / B. Turganov. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B. 79–81.
2. ҚРСМ (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tarix va madaniyat davlat muzeyi). Qizil qal’a to‘plami. Kp. 3602. inv. 239; Kp. 22865. inv. 241; Kp. 42661. inv. 1502.
3. Вишневская Н. Ю. Ремесленные изделия Джигербента / Н. Ю. Вишневская. – Москва: Восточная литература, 2001. – С. 87.
4. Манылов Ю. П. Археологические материалы в фондах государственного музея искусств Каракалпакской АССР / Ю. П. Манылов // Вестник КК ФАН РУз. – Нукус, 1982. – № 2. – С. 53–57.
5. Рапопорт Ю. А. Раскопки городища Шах-Санем в 1952 г. / Ю. А. Рапопорт // ТХАЭЭ. Т. 2. – Москва: Изд-во АН СССР, 1958. – С. 414–415.
6. Иброҳимов Н. Ибн Батута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати / Н. Иброҳимов. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 47–48.
7. Кдырниязов М.-Ш., Бауеддинов Р. Средневековый Миздакхан (поселение и материальная культура) / М.-Ш. Кдырниязов, Р. Бауеддинов. – Самарканд: МИЦАИ, 2010. – С. 80–101.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA AMUDARYO BO‘LIMINING SIYOSIY-MA’MURIY TARIXIGA OID TARIXIY VA ARXIV MANBALARI TAHLILI

A.I.Sadikov
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Tarix fakulteti 3-bosqich doktoranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Amudaryo bo‘limining siyosiy-ma’muriy tarixiga oid tarixiy asarlar va arxiv hujjatlari manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, ularning ilmiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Amudaryo bo‘limi, Turkiston general-gubernatorligi, siyosiy tarix, ma’muriy boshqaruv, tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, manbashunoslik, Xiva xonligi, Xiva xonlari arxivi, O‘zMA, I-125 fond, I-907 fond, Ichan-qal’a, qo‘lyozmalar, tarixiy asarlar, mahalliy tarixchilar.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Amudaryo bo‘limi tashkil etildi. Amudaryo bo‘limi boshqaruv faoliyatini o‘rganish nafaqat mintaqaning siyosiy tarixi, balki uning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarini anglashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va uslublar. Tadqiqotning asosiy manbalarini O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarida saqlanayotgan tarixiy va arxiv hujjatlari, shuningdek, Xiva xonligi tarixiga oid mahalliy tarixiy asarlar tashkil etadi. Jumladan, I-125 va I-907 fondlari, Xiva davlat “Ichan-qal’a” tarixiy-me’moriy muzey qo‘riqxonasida saqlanayotgan hujjatlar hamda qo‘lyozma manbalardan foydalanildi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, xronologik va tarixiy-tahliliy usullardan foydalanildi.

Asosiy qism. Amudaryo bo‘limi siyosiy boshqaruviga oid tarixiy manbalarni mazmun va mohiyatiga ko‘ra ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: *a) Xiva xonligi mahalliy tarixchilari tamonidan yozilgan tarixiy asarlar* va *b) Xiva xonlari arxivi va devonxonasi hujjatlari.*

Birinchi guruhga oid tarixiy asarlarni yozilish sabablariga ko‘ra shartli ravishta ikki guruhga tasniflash mumkin: 1) saroy tarixchilarining asarlari; 2) tazkira janiridagi va mafkura tasirida yozilgan asarlar.

Birinchi guruhga oid tarixnavislik asarlardan Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarai Xorazimshohiy” [Bayoniy, 177] asarini keltirishimiz mumkin. Asar o‘z ichiga Muhammad Rahimxon soniyning hukimronlik yillari va Asfandiyorxonning taxtga o‘tirish voqealarini o‘z ichiga qamrab olgan. Aslida kitobning avvalgi qismlari mavjud bo‘lib, afsuski, bizgacha etib kelmagan. Shuning uchun kitob 15-boptan

boshlangan. Kitobning ushbu qismi mazkur davrga xos anana *invokatsiya,* yaniy Allah nomini tilga olish bilan boshlagan. Undan so‘ng Muhammad Rahimxon taxtga o‘tirishidan boshlab voqealar izchil bayon qilinadi. Rus qo‘shinlarining xivani egallashi haqidagi voqealari tafsiloti keltirilar ekan, Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Mang‘it va Qipchoq kabi shaharlarning birin ketin egallanishi aytiladi. Bayoniy Rus bosqinining asosiy sababi sifatida xon rus asirlarni topshirmaganligi bilan izohlaydi. Ammo Bayoniy voqealar tafsilotini bayon qilar ekan, aslida Xivani bo‘ysundirish Ruslarning azaliy rejasi bo‘lib, ushbu yo‘lda asirlar ishi bahona bo‘lib xizmat qilgani tushuniladi. Undan tashqari, O‘rta Osiyo xalqlarining azaliy o‘zaro ichki ixtiloflar, elatlararo mahalliychilik, tarafkashlik illatlari mazkur inqirozga sabab bo‘ldi. Millatlararo birlikning yo‘qligi rus askarlari uchun ham qulay imkoniyat bo‘ldi. Bayoniy Xiva egallangandan so‘ng Amudaryo bo‘limidagi Rossiya ma’muriyati tarafidan nazorat qilinishini ochiq izohlamagan bo‘lsa ham Amudaryo ma’muriyati topshiriqlarini bajarilish jarayonlarini keltirib o‘tadi. Masalan, Amudaryo hokimi Ivanov yavmutlarning to‘lamagan salg‘urtini to‘latishi, rusiya fuqarolarining tuyalarin qaytirish va ularni jazolash kibi buyruqlarinің ijrosi voqealarini keltiradi.

Undan tashqari Amudaryo hokimi Ivanov va Rossiya amaldorlari maslahati bilan Xivaga kasalxona, telegrafxona va boshqa inshoatlar qurilishi tarixini keltiradi.

Umuman olganda asar 1873-1914-yillardagi Xiva xonligining tarixi tafsilotlari orqali Amudaryo bo‘limi siyosiy jarayonlarini ko‘z oldimizga keltirishimiz va ma’lum ma’noda tasavvurimizni boyitishimizga xizmat qiladi.

Tasavvufga oid *tazkira* janiridagi asarlardan “Riyazuz zakirin” asaridir [Allohyor, 130]. Asar Allohyor Qudayberdi qalamiga mansub bo‘lib, asli Xorazmlik tasavvuf ahllaridan hisoblanadi. Musannif o‘z asarini ustozi Muhammad Zakir eshon ibn Muhammad Sharif eshonga atab yozgan. Asarda yirik tasavvuf nomoyondalari Xo‘ja Ahror Valiy, Sulton Uvays Qaraniy, Shayx Abbos Valiy va Abdulloh Norinjoniy kabi tasavvuf shayxlarining zikri ham keltirilgan. Shuningdek, XIX-asr oxiri Amudaryo bo‘limi va Amudaryo quyi oqimi bo‘ylaridagi tasavvuf shayxlarining shajarasi va qisqacha tarixi keltirilgan. Jumladan, Qutlug‘ xo‘ja eshon, Sirojuddin eshon, Muhammad Idris eshon, Atoulloh eshon, Jontemir eshon, Abdurasul oxun, Bahauddin eshon, Najim eshon va boshqa eshonlar haqida malumotlar berilgan. Umuman olganda asarda XIX-asr Janubiy orol bo‘liy xalqlari orasida tasavvuf talimotining tarqalishi va bunda Qutlug‘ xo‘ja eshonnin xizmatlari beqiyos ekanini ko‘rishimiz mumkin [Idrisov, 10]. Qo‘lyozma asar 1310–1313-hijriy yillarda (milodiy 1892-1895) yozilgan bo‘lib, oxiriga etkazilmagan.

H. Madaminovning «Xorazm tarixiga oid materiallar» asari [Madaminov, 609] o‘tkan asirning birinchi ellik yillik voqealarini o‘z ichiga qamrab oladi. Asarda ushbu yillardagi xalqning ijtimoiy ahvoli va turmush tarzi ochib berilgan. Ayniqsa, ilim-fan, talim tarbiya kabi masalalarga alohida e’tibor qaratgan. Amudaryo bo‘limiga oid siyosiy jarayonlar haqida to‘xtalar ekan, 1917-yillardagi jadid harakati namoyondalari bo‘lgan yosh xivaliklarning Amudaryo bo‘limi bilan aloqalari ijobiy tus olganini yozadi. 1917-yilda yosh xivaliklar harakati xonlikka qarshi qo‘zg‘alon ko‘targandan keyin, xon darhol mazkur harakatning oldini olish chorasini ko‘radi. Natijada, ayrimlari qo‘lga olinib, jazolanadi. Ayrimlari Amudaryo bo‘limiga qochib qutiladi. 1918-yilning 22-avgustida yana birlashkan yosh xivaliklar harakati Amudaryo bo‘limi ma’muriyati yordamida To‘rko‘lda inqilob tashkilotini tuzish maqsatida majlis o‘tkazadi. Majlista ezilgan xalqni bunday jabr-istamlardan qanday ozod qilish haqida fikir-mulohazalar va takliflar o‘rtaga tashlanadi. Xivani vayron qilgandan keyin Junaydxon 1919-yilda Amudaryo muzofoti tamon harakat etakchilarini yo‘q qilish uchun bir qancha askarlar jo‘natadi. Ammo Junaydxon o‘zi o‘ylagandek maqsadiga eta olmaydi. Xulosa qilib aytkanda, asarda Amudaryo muzofotining To‘rko‘l shahri inqilobiy-siyosiy jarayonlar va ularning oqibatlarining shohidi bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu turdagi asarlardan yana biri B.Safarovning ”Xorazm xonligiga tegishli tarixiy materiallar”dir [Safarov, 11645]. Mazkur asarda Amudaryo bo‘limiga tegishli bo‘lgan tabiiy-geografik sharoit, aholining turmush tarzi hamda hududda yuz bergan siyosiy jarayonlar haqida atroflicha malumotlar keltirilgan.

Ikkinchi guruhga kiruvchi manbalar – O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxividagi Xiva xonlari arxivi I-125, O‘zMA I-907 fondlarda saqlanayotkan hujjatlar [O‘zMA, 907], Xiva davlat “Ichan-qala” tarixiy-memoriy muzey qo‘riqxonasida saqlanayotkan hujjatlar va O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotkan qo‘lyozma ayrim qozilik hujjatlar to‘plami kiradi.

Dissertatsiyaga aloqador tarixiy hujjatlarning o‘rin olgan mazkur davlat muassasalari va shaxsiy kollektsiyalar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. Mavzuga oid tarixiy hujjatlarning asosiy qismi mazkur muassasa tarkibidagi Xiva xonlari arxivi I-125, O‘zMA I-907 va boshqa fondlarda saqlanayotkan hujjatlar o‘rin olgan. Mazkur fondlardagi yig‘ma jildlarda Amudaryo bo‘limi ma’muriy idoralariga tegishli ish yuritish va ijtimoiy masalalarga aloqador hujjatlaridan tashqari, 1873 yildan oldingi qoraqalpoqlar siyosiy va ijtimoiy turmushining turli sohalariga oid hujjatlarni ham o‘z ichiga olgan.

Ayniqsa, Xiva xonlari arxivi I-125 fondda o‘tkan XIX-asrning 30-yillaridan XX-asr boshlarigacha bo‘lgan davrni qamrab olgan. Fondda qoraqalpoqlar tarixiga oid 1300 ortiq turli hujjatlar [Жалилов, 7] joy olgan. Mazkur hujjatlarning deyarli barchasi arab yozuvi, eski o‘zbek (chig‘atoy) va forsiy tillarda yozilgan. Demak, qoraqalpoqlarning o‘z tili va deyalikti bo‘lishiga qaramay siyosiy va ma’muriy ishlarning barchasida eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida ish yuritkanligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zMA I-907-fond Amudaryo bo‘limi kontseleriyasi fondi hisoblanadi. Bu fonda Amudaryo bo‘limidagi ma’muriy hujjatlar, yillik kirim-chiqim hisobotlari, savdo-sotiq, soliq va boshqa turdagi hujjatlar o‘rin olgan bo‘lib, aksari rus, malum qismlari arab alifbosida yozilgan.

Xiva davlat «Ichan-qala» tarixiy-memoriy muzey qo‘riqxonasi. Mazkur muassasada Xiva xonligi bilan Amudaryo bo‘limi o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar, jumladan, pochta, telegrafxona qurilishi, savdo masalasida savdogarlardan maxsulot turiga qarab boj solig‘i olinish tartibi [XDIQTMQQ, KP 3664] va boshqa masalalarda o‘zaro amaliy yordam ko‘rsatish haqidagi yozishmalar, xonlik va Amudaryo bo‘limi hududida ijtimoiy tartibni saqlash, irrigatsiya masalalarini o‘zaro kelishim asosida hal qilish kabi hujjatlar o‘rin olgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Amudaryo bo‘limining siyosiy-ma’muriy tarixini o‘rganishda mahalliy tarixiy asarlar, arxiv hujjatlari va qo‘lyozma manbalari muhim ilmiy ahamiyatga ega. O‘zMA I-125, I-907 fondlari hamda Ichan-qal’a muzey qo‘riqxonasida saqlanayotgan hujjatlar bo‘limning boshqaruv tizimi va siyosiy jarayonlariga oid qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur manbalarni qiyosiy va manbashunoslik asosida tahlil qilish Amudaryo bo‘limining siyosiy-ma’muriy tarixini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Allohyor Qudayberdi. “Riyozuz zakirin”. Abdusalim Idrisovning shaxsiy fondi, №13. – Nukus: 2025. – B. 17–130.
2. Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Қўлёзма манбалар асосида нашрга тайёрловчи Иқболой Адизова. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 177.
3. Идрисов А. Қарақум ийшанлары тарийхы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2023. – Б. 10.
4. Жалилов О. XIX–XX аср бошларидаги Қорақалпоқ тарихидан. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 7.

5. Madaminov H. Xorazm tarixiga oid materiallar. O‘zR MA I-125-fond, 1-ro‘yxat, 609-yig‘ma jild.
6. Safarov B. Xorazm xonligiga tegishli tarixiy materiallar. O‘zR FA ShI, №11645 raqamli qo‘lyozma.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi. O‘zMA I-907-fond – Amudaryo bo‘limi kanselyariyasi hujjatlari.
8. Xiva davlat “Ichan-qal’a” tarixiy-me’moriy muzey qo‘riqxonasi (keyingi o‘rinlarda XDIQTMQQ), KP 3244, KP 3274, KP 3631, KP 3664.

SHIRVOQ OTA ZIYORATGOHINING TARIXIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Salimov Y.G‘
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali dotsenti, sots.f.n
Elektron pochta: yusufsalimov45@gmail.com
+99899 776-50-53

Annotatsiya: O‘zbekiston tarixida halqimizning shonli o‘tmishi bilan bir qatorda benazir madaniy ob’yektlarining, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarining ahamiyati beqiyosdir. Aynan shu obidalar, ziyoratgohlar turistik jozibadorligi orqali dunyo halqlarini mamlaktimizga tashriflarini tashkil etilishiga undamoqda.

Samarqand viloyatining Urgut tumani o‘zining tarixi, muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari bilan mashhurdir. Ayniqsa, Shirvoq ota ziyoratgohiga mahalliy aholi va turistlar ziyorat qilib kelishmoqda. Bu joyning so‘lim va go‘zal tabiati, musaffo havosi barchaning e’tiborini jalb etmoqda. Boshqa ziyoratgohlar kabi ushbu ziyoratgohning o‘ziga xos tarixi va xususiyatlari bo‘lib, maqolada ushbu ziyoratgohning tarixi haqida fikrlar yuritilada.

Kalit so‘zlar: arxelogiya, tarixiy-madaniy, ob’yekt, meros, milliylik, tadrijiy, milliy o‘zlik, tendensiya, me’yor, qonun.

Shirvoq ota ziyoratgohi - Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi “Xo‘jayduk” mahallasi hududida joylashgan bo‘lib, O‘zbekistondagi madaniy meros obyekti, diqqatga sazovor joylardan biri hisoblanadi. Manbaalarga ko‘ra ushbu ziyoratgoh XIX asrlarga tegishliligi bayon etiladi. Ziyoratgoh davlat mulki sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan [1] [2].

“Xo‘jayduk” mahallasi oqsoqollarining fikriga ko‘ra, ziyoratgohdagi g‘or ichida taxminan X-asrlardan so‘ng yashab o‘tgan Shirvoq ota nomi bilan yuritilgan avliyo darajasidagi shaxsning qabri qo‘nim topgan [Og‘zaki tarix. “Xo‘jayduk” mahallasi oqsoqollari bilan suhbat].

Ziyoratgoh hududida 4 ta buloq mvjud bo‘lib, suvi bir necha ming yillardan buyon yer qa’ridan chiqib kelmoqda. Hozirda ushbu buloq suvlarining 2 tasining shifobahsh hususiyatlaridan aholi foydalanib kelmoqdalar. Biri niyatlarni vojib qilsa, yana biri teri-tanosil: sevol, qichima, qo‘tir kabi kasalliklarga shifodir. Mahalliy aholi ushbu buloq suvlarini iste’mol qilganliklari orqali o‘z niyatlariga erishib kelayotganliklarini, kasalliklari esa tuzalayotganliklarini e’tirof etishgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, avliyo zot Shirvoq ota niyat bulog‘iga qo‘llarini tiqib niyat talablar uchun niyat qilganlar, qo‘tir buloqdagi loylarni olib bemorlarning tanasiga surtib shifo topishlariga ko‘maklashganlar. Shu maskandagi 4 ta buloq suvlari avliyoning sharofati bilan yer qa’ridan chiqib, shu yerdagi aholini ichimlik suvi hamda ziroatchilik uchun suv bilan ta’minlagan ekan. Shuning bilan avliyo zot o‘z davrida Islom dinini tag‘ib qilgan ekan. Bu manzildagi 600 yildan ziyod umr ko‘rgan 100dan ortiq tut daraxtlari o‘ziga xos manzara kasb etadi. Mahalliy aholining fikricha, buloq suvlarining suvi qariyib 6 yillar mobaynida kamayib ketganligini, bu yerda turli odamlar to‘planishib ko‘ngilxushlik qilishganligi sababli buloq suvi kamayib ketgan ekan. Bu manzilda 2001-yillarda ulamolar to‘planishib, bu yer muqaddas qadamjo ekanligini, diniy ilmga ega insonlar nazoratga olishini ta’kidlashib, ko‘zlangan rejalar amalga oshirilgandan so‘ng yana buloq suvlari ko‘payganligi ma’lum qilindi. Hozirda ushbu buloq suvlaridan ziyoratchilar, shu yerning aholisi bahra olmoqdalar [Og‘zaki tarix. “Xo‘jayduk” mahallasi oqsoqollari bilan suhbat].

Qabr joylashgan g‘or ustidan Durdon nomli noyob daraxt o‘sib chiqqan. Mahalliy aholning fikricha, bu daraxt “ezgu niyat daraxti” ham deb nomlanar ekan. Ushbu daraxt noyob daraxt hisoblananib, asosan arab davlatlarida uchrar ekan. Ziyoratgohda bu daraxt yagonadir. Daraxt g‘or ichida joylashgan qabr va g‘orning qoq ustki qismidan o‘nib chiqqan. Ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu daraxtning yoshi ming yildan oshgan. Shuningdek, avliyo zotning hassasidan ushbu daraxt o‘nib chiqqanligi to‘g‘risida oqsoqollar tomonidan fikrlar bildirildi [Og‘zaki tarix. “Xo‘jayduk” mahallasi oqsoqollari bilan suhbat].

Ziyorat umidida kelganlar daraxtga turli rangdagi iplarni bog‘lashadi, juftlari bilan qo‘sha qarishni, befarzandlar esa farzandli bo‘lishlarini Yaratgandan so‘rashadi. Daraxt shohlarida yuz minglab iplar bog‘lab qo‘yilgan bo‘lib, aksariyati

bog‘langaniga ko‘p yillar bo‘lganligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Shubhasiz umid bilan kelganlarning ko‘pchiligi baxtini topgan, farzandli bo‘lgan bo‘lishlari tabiiy.

Xulosa o‘rnida qayd etish lozimki, Shirvoq ota ziyoratgohida tarixchi olimlar va arxeologlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilsa, tariximizga oid yangi ma’lumotlar olishga erishilgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-sonli qarori. Lex.uz. Qaraldi: 2022-yil 21-iyul.

2. “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-sonli qarori. Backend.madaniymeros.uz. 2023-yil 25-fevralda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2022-yil 6-avgust.

СУБҲОНҚУЛИ ХОННИНГ БАЛХДАГИ МАДРАСАСИ ВАҚФ ТАЪМИНОТИ ВА БОШҚАРУВИГА ДОИР

Сангирова Д.Х.
Гулистон давлат университети
тарих кафедраси доценти, т.ф.н.
+998 993696705

Аннотация: Мақолада Субҳонқули хоннинг Балх шаҳридаги мадрасасига оид вақф ҳужжати асосида таълим муассасасининг иқтисодий таъминоти, бошқарув тартиби ва мулкий ҳуқуқларига оид масала таҳлил қилинади. Тадқиқотда вақфнома таржимаси, унга илова қилинган суд қарори ҳамда тақдим этилган манбашунослик шарҳидан фойдаланилди. Натижалар мадраса таъминоти қишлоқ ерлари, шаҳар савдо объектлари ва хизмат кўрсатиш муассасалари даромадларига таянганини кўрсатади. Вақф шартларида мулкни сақлаш, таъмирлаш, хизматчиларга ҳақ тўлаш ва талабаларни таъминлаш ўзаро боғлиқ вазифалар сифатида белгиланган.

Калит сўзлар: Аштархоний сулоласи, Субҳонқули хон, Балх, мадраса, вақфнома, вақф мулки, мутаваллий, қози, таълим таъминоти, мулкий низо.

Кириш: Вақфномалар муайян мулкни диний, таълимий ёки хайрия мақсадларига вақф сифатида ажратишни ҳуқуқий жиҳатдан расмийлаштирган ҳужжат саналади. Уларда вақфга берилган мулклар, улардан олинадиган даромадни сарфлаш тартиби, бошқарув шартлари ва мутаваллининг вазифалари белгиланган. Шу жиҳатдан вақфномалар мадраса ва бошқа муассасаларнинг

моддий таъминоти, мулкий муносабатлар ҳамда хўжалик бошқарувини ўрганишда муҳим.

Марказий Осиёда хусусан, Бухоро хонлиги тарихи вақф мулкчилиги масалалари юзасидан бир қатор тадқиқотлар олиб борилган. Р. Д. Макчезни Балхдаги вақф мулкларини ўрганиб кенг илмий жамоатчиликка маълум қилган [1, 265 - 266.]. О. Д. Чехович Самарқанд ҳужжатлари асосида Хўжа Аҳрорнинг Марказий Осиё ва Афғонистондаги мулкларига доир маълумотларни илмий муомалага киритган [2, 256- 266]. К. З. Ашрафян эса О. Д. Чеховичнинг «Бухарские документы XIV в.» китобига ёзган тақризида Бухоро вақфларини ўрганишда мазкур ҳужжатларнинг аҳамиятига эътибор қаратган [3]. Афғонистоннинг иқтисодиёти ва аграр муносабатлари бўйича мутахассис россиялик шарқшунос А. Д. Давыдов XVII аср вақфномаси асосида Балхдаги Субҳонқули хон мадрасаси мулкларини ўрганган. (Унинг тадқиқотидан Р. Г. Мукминова ҳам вақф хўжалиги ва аграр муносабатларни таҳлил қилишда фойдаланган [4. 352 с.]). Мазкур тадқиқотлар вақфнома мулкчилиги тарихини кенгроқ ўрганишга, шунингдек, ўрта аср жамиятида мадарсалар таълимининг қандай моддий шароитлар асосида ташкил этилганини ёритишга имкон беради.

Субҳонқули хоннинг Балхдаги мадрасасига оид вақфномада мадрасанинг меъморий тузилиши, вақфга берилган мулклар, даромадларни сарфлаш йўналишлари, хизматчилар вазифалари ва бошқарув шартлари ҳақида маълумот келтирилган. Мазкур материалнинг аҳамияти шундаки, у ҳукмдор ҳомийлигини фақат бино қурдириш билан боғлиқ ҳолда эмас, балки таълим муассасаси учун давомли даромад манбаларини ажратиш, уларни бошқариш ва ҳимоя қилиш жараёни сифатида ўрганишга ёрдам беради.

Тадқиқотнинг мақсади: Субҳонқули хон мадрасаси вақфномаси асосида таълим муассасасининг иқтисодий таъминоти, бошқарув ваколатлари ва мулкий ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тартибини очиб беришга қаратилган. Шу мақсаддан келиб чиқиб, вақф мулкларининг таркибини аниқлаш, даромадларни тақсимлаш шартларини таҳлил қилиш, мутаваллий ва қозининг вазифаларини кўрсатиш ҳамда суд қарорларининг вақф ҳуқуқини мустаҳкамлашдаги ўрнини баҳолаш вазифалари белгиланди.

Материаллар ва методлар: Тадқиқотнинг асосий материали тақдим этилган “Субҳонқули хон” ҳужжатидаги вақфнома таржимаси, икки суд қарори ва уларга берилган манбашунослик шарҳидан иборат. Ҳужжатда Балхнинг шаҳар тузилиши ва мадрасаларига оид рус тилидаги қўшимча парчалар ҳам

мавжуд. Уларга ёрдамчи маълумот сифатида қаралди ва асосан мақоланинг асосий хулосалари вақфнома ва суд қарорларига таянилди.

Тақдим этилган шарҳга кўра, вақфнома ва икки суд қарори 56 × 654 сантиметр ўлчамдаги бир ўрамга ёзилган. Қўлёзма ҳошиялардан ташқари 106 сатрдан иборат бўлиб, насталиқ хатида битилган. Вақфноманинг аниқ санаси матнда келтирилмаган. Шарҳда ҳошиядаги 1098 ҳижрий йил санали муҳр ҳамда суд қарори санасининг эҳтимолий ўқилиши асосида ҳужжат тахминан 1686-1694 йилларга мансуб деб баҳоланган.

Тадқиқотда манба танқиди, тарихий-ҳуқуқий, институционал ва матннинг ички қиёсий таҳлили усулларидан фойдаланилиб, ҳужжатнинг сақланиш ҳолати, нусхалари, саналаш асослари ва таржима хусусиятлари, хусусий мулкни вақфга ўтказиш тартиби, мулкий даъволар ва қози қарорлари, мутаваллий, қози, мударрислар ҳамда хизматчиларнинг вазифалари ва ўзаро муносабатлари ўрганилди, шунингдек, вақфномада мулкнинг даъволардан холи экани ҳақидаги баён суд қарорларида қайд этилган низолар билан солиштирилди.

Натижалар: Вақфномада мадрасанинг таълим ва яшаш манзили ҳақида сўз юритилганда, мадраса Хожа Абу Наср Порсо зиёратгоҳининг шарқий томонида қурилганлиги айтилади. Ҳужжат матнида унинг таркибига марказий ҳовли, пештоқ, икки катта гумбазли қисм ва юқори ҳамда қуйи қаватлардаги 150 та ҳужра кирган бўлиб, гумбазли қисмлардан бири дарсхона, иккинчиси масжид вазифасини бажарганлиги ҳақида сўз боради [5]. Мазкур маълумотлар мадрасада таълим, ибодат қилиш ва яшаш учун алоҳида, ўзаро боғлиқ жойлар ажратилганини кўрсатади. Ҳужраларнинг мавжудлиги эса талабаларнинг мадрасада истиқомат қилиши учун шароит яратилганлигидан далолат беради. Мадрасанинг шаҳар тузилишидаги ўрни ҳам эътиборга лойиқ. Вақфномда унинг чегаралари бозор, тимча, мактаб, ҳовлилар ва умумий йўлга нисабатан белгиланган. Бу ҳолат мадрасанинг шаҳар савдо ва турар жой муҳити билан яқин алоқада бўлганини кўрсатади.

Вақфномада мадрасага ажратилган вақф мулкларининг таркиби ҳам баён этилган. Улар Сайидабод, Раҳматобод ва Жути-Работ қишлоқлари, айрим жамоаларнинг лалми ерлар, ҳаммом, дўконлар ҳамда тимчалардан иборат бўлган[6] .

Вақф мулклари мадраса таъминотининг иқтисодий асосини қишлоқ хўжалиги ва шаҳар хўжалиги даромадлари ташкил этган. Қишлоқ ерларидан тушган ижара ҳақи ва ҳосилдан ажратилган улушлар, шунингдек, ҳаммом,

дўкон ва савдо жойларидан олинган тушумлар мадраса харажатларига сарфланган. Таъминот учун ғалла ва пул маблағларидан фойдаланилган.

Вақфномада ушбу ерларнинг жойлашуви ва чегаралари ҳам батафсил баён этилган. Уларнинг чегаралари ариқлар, қўшни қишлоқлар, давлат ерлари, қумликлар ва бошқа белгилар орқали белгиланган. Жумладан, Сайидабод ерлари тавсифида Шаҳсалар ва Қорашоҳ ариқлари, Жути-Работ чегараларида Янгиариқ номлари келтирилган[7]. Ушбу номлар вақф ерларининг тарихий жойлашувини аниқлаш ва ҳудуднинг тарихий географиясини ўрганиш учун муҳим маълумотлардир.

Вақфномада санаб ўтилган мулкларнинг мадраса таъминотига ажратилиши уларнинг ҳуқуқий мақомини ҳам ўзгартирганлигини ҳисобга олинганлиги кузатилади. Хусусий мулкни вақфга ўтказиш ўз мулкини диний, таълимий ёки хайрия мақсади учун амалга ошириб, унга молия ажратиши ва ушбу қарорни ҳуқуқий жиҳатдан расмийлаштириши орқали амалга оширилган. Шу ўринда, мулкнинг ўзи сақланиши, ундан олинадиган даромад эса вақф таъсисчиси белгиланган эҳтиёжларга сарфланиши назарда тутилган дейиш мумкин. Марказий Осиё вақфлари тарихини ўрганган Р.Д. Макчесни бу жараённи мулкдорнинг ўз мулкини эркин тасарруф этиш ҳуқуқидан воз кечиши сифатида изоҳлайди[8. P.6-13].

Тадқиқотимиз доирасига тортилган ҳужжатда вақфга ажратилган мулклар хоннинг қонуний хусусий мулки экани ва уларни вақф қилишга тўсқинлик қилувчи даъволар мавжуд эмаслиги таъкидланган. Мадраса ва масжид хоннинг бошқа мулкларидан ажратилиб, мутаваллий бошқарувига топширилган бўлиб, вақф мулкини сотиш, ҳадя қилиш, гаровга қўйиш ва мерос сифатида ўтказиш таъқиқланган. Ушбу шартлар мулкни муайян шахснинг ихтиёридан чиқариб, белгиланган муассаса манфаатига боғлашга қаратилганлиги кузатилади. Вақфномада мулкдан олинадиган даромадни сарфлаш тартиби ҳам белгиланиб, уларнинг мадраса ва масжид таъминотига йўналтирилиши ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланганлигини кўрсатади.

Ўрта аср иқтисодий муносабатлар тарихидан маълумки, вақф ерларидан тушган маблағлар мадраса биносини сақлаш, мударисслар ва хизматчиларга ҳақ тўлаш ҳамда талабалар таъминотига йўналтирилган. Пул ва ғалла шаклидаги тўловлар таълим аҳлининг кундалик эҳтиёжларини қоплаган. Ўрганилаётган ҳужжатда даромадлар аввало мадраса ва вақф мулкларини таъмирлашга сарфланиши белгиланганлигини англатади. Мулклар ва биноларнинг ҳолати ёмонлашса, таъминотнинг ўзи ҳам заифлашиши мумкин эди. Бизнинг

тадқиқотимиз объекти бўлган ҳужжатда вақф мулкларидан келадиган даромаднинг бешдан бири тўрт нафар мударрисга ажратилиши қайд этилган. Шунингдек, имом, муаззин, кутубдор, қорилар, мактабда таълим берувчи шахслар, сартарош ва фаррошларнинг вазифалари белгиланган. Қолган даромадларни ҳужраларда яшовчи талабалар ўртасида тақсимлаш назарда тутилган

Таъминот олиш муайян вазифаларни бажариш билан боғланган бўлиб, талабалар мунтазам илм билан шуғулланиши, хизматчилар ўз ишларини адо этиши лозим эди. Шу маънода вақф даромади вазифа ва ҳуқуқларни ўзаро боғловчи тартибнинг иқтисодий асосини ташкил этган дейиш мумкин.

Вақфномада бошқарув ва ажара муносабатлари ҳақида ҳам сўз юритилади. Унда мулла Шо Боқи ибн мулла Боқи умрбод мутаваллий этиб белгиланган, ундан кейин Балх қозиси умумий мутаваллий бўлиши назарда тутилгани қайд этилган[9]. Мутаваллий вақф мулкларини бошқариш ва белгиланган шартларни бажаришга масъул бўлиб, унинг вазифаларига вақфга ажратилган ерлар, бинолар, дўконлар ва бошқа мулкларнинг ҳолатини кузатиш, зарур бўлганда таъмирлаш, даромадларни йиғиш, тушумларни қабул қилиш, маблағларни тақсимлаш, ҳисоб китоб юритиш, агарда мулкка нисбатан даъво қўзғатилса ёки бошқа низолар келиб чиқса, қозига мурожаат қилиш мумкинлиги сингарилар кирган. Қисқача айтганда, у мулкнинг бошқарувчиси ҳисобланган.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, таҳлил қилинган вақфнома мадраса таъминоти, мулкни бошқариш ва даромадларни тақсимлаш тартибини ўрганиш учун муҳим тарихий манба ҳисобланади. Унда қишлоқ ерлари билан бир қаторда ҳаммом, дўкон ва савдо жойларининг қайд этилиши мадраса фаолияти қишлоқ хўжалиги ҳамда шаҳар иқтисодиётидан келадиган тушумларга таянганини кўрсатади. Даромадларнинг пул ва ғалла шаклида белгиланиши таълим аҳлининг турли эҳтиёжларини қоплашга қаратилган. Вақфнома шартлари мударрислар, талабалар ва хизматчилар таъминотини мулклардан олинадиган даромадлар билан боғлаган. Мутаваллийга мулкларни сақлаш, тушумларни йиғиш ва уларни белгиланган мақсадларга сарфлаш вазифаларининг юклатилиши мадраса хўжалигини бошқаришда масъулият ва ваколатлар белгиланганидан далолат беради.

Вақф мадраса қурилишини қўллаб-қувватлаш билан бирга, унинг кейинги фаолияти учун ҳам моддий асос яратишга хизмат қилган. Бу тарихий тажрибанинг бугунги олий таълим учун аҳамияти муассасанинг узоқ муддатли таъминотини режалаштириш, ўқитувчи меҳнати ва талаба эҳтиёжларига маблағ

ажратиш ҳамда даромадларни бошқариш масъулиятини аниқ белгилаш масалаларида кўринади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. McChesney R. D. Waqf in Central Asia: Four Hundred Years in the History of a Muslim Shrine, 1480–1889**.** Princeton: Princeton University Press, 1991. 356 p .
2. Чехович О. Д. Самаркандские документы XV–XVI вв. (О владениях Ходжи Ахрара в Средней Азии и Афганистане). Москва: Наука, 1974. –631 с.
3. Ашрафян К. З. Бухарские документы XIV в. [Рецензия на книгу: Чехович О. Д. Бухарские документы XIV в. Ташкент: Наука, 1965] // Народы Азии и Африки. - 1966. - № 4. - Электрон нусха: Восточнаялитература.https://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XIV/Buchara_dok/recenz_1966.phtml (мурожаат санаси: 10.10.2026).
4. Мукминова Р. Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам «Вакф-наме». — Ташкент: Наука, 1966. — 352 с.
5. Имения медресе Субханкули-хана в Балхе (по вакфной грамоте XVII в.) / пер. А. Д. Давыдова // Краткие сообщения Института востоковедения. - Т. XXXVII: Афганский сборник. - 1960. - Электронныйресурс.https://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XVII/1680-1700/Vakf_subhankul.htm (мурожаат санаси: 09.10.2026). [1, вақфнома таржимаси, 45–56- сатрлар.
6. Имения медресе Субханкули-хана в Балхе (по вакфной грамоте XVII в.) / пер. А. Д. Давыдова // Краткие сообщения Института востоковедения. - Т. XXXVII: Афганский сборник. - 1960. - Электронный ресурс.https://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XVII/1680-1700/Vakf_subhankuli htm (мурожаат санаси: 09.10.2026). [1, вақфнома таржимаси, 64–75- сатрлар.
7. Имения медресе Субханкули-хана в Балхе (по вакфной грамоте XVII в.) / пер. А. Д. Давыдова // Краткие сообщения Института востоковедения. -Т. XXXVII: Афганский сборник. - 1960. - Электронный ресурс.https://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XVII/1680-1700/Vakf_subhankuli_htm (мурожаат санаси: 09.10.2026). [1, вақфнома таржимаси, 66–72- сатрлар.
8. McChesney R. D. *Waqf in Central Asia: Four Hundred Years in the History of a Muslim Shrine, 1480–1889*. Princeton University Press, 1991, 6–7, 11–13-бетлар.
9. Имения медресе Субханкули-хана в Балхе (по вакфной грамоте XVII в.) / пер. А. Д. Давыдова // Краткие сообщения Института востоковедения. — Т. XXXVII:

Афганский сборник. - 1960. - Электронный ресурс.https://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XVII/1680-1700/Vakf_subhankuli_htm (мурожаат санаси: 09.10.2026). [1, вақфнома таржимаси, 145–146- сатрлар.

QOYATOSH TASVIRLARI KO‘P FUNKSIYALI MADANIY TIZIM SIFATIDA (O‘zbekiston yodgorliklari misolida)

To‘ychiboyev Bahodir Bosimovich
Guliston davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi v.b. professori, t.f.n.
+998 93 271 16 69

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston va unga tutash hududlardagi qoyatosh tasvirlarining funksional va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Petrogliflarning diniy-marosimiy, ijtimoiy, xo‘jalik, kosmologik va axborot uzatish vazifalari o‘nta konseptual yo‘nalish asosida umumlashtirilib, ularning ko‘p funksiyali madaniy tizim sifatidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: qoyatosh tasvirlari, petrogliflar, madaniy landshaft, muqaddas makon, marosim, palimpsest, kosmologiya, xo‘jalik faoliyati, jamoaviy xotira, vizual kommunikatsiya, etnomadaniy davomiylik, xronologiya, semantik talqin, arxeologik kontekst, madaniy tizim.

Qoyatosh yodgorliklari yozuv tizimi shakllanmagan yoki keng tarqalmagan davrlar uchun muhim vizual-arxeologik manba hisoblanadi. Ularda qadimgi jamoalarning xo‘jalik faoliyati, ijtimoiy munosabatlari, dunyoqarashi, diniy-marosimiy tasavvurlari va maishiy tajribasi turli syujetlar orqali aks etgan [Формозов, 1980: 43–69]. O‘zbekiston va unga tutash hududlardagi Zaraut-Kamar, Sarmishsoy, Siypantosh, Saymali-Tosh va Tamg‘ali kabi yirik majmualar qoyatosh san’atining xronologik va madaniy xilma-xilligini namoyon etadi [Кабиров, 1976; Агафонова, Кожомбердиев, 1978; Шер, 1980; Ранов, 2016; Хўжаназаров, 2018; Rock Art in Central Asia, 2011].

Markaziy Osiyo qoyatosh tasvirlarining funksional xususiyatlarini o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan faollashdi [Мухаммаджонов, 1957: 9–18]. Dastlabki tadqiqotlarda ular ko‘proq badiiy yoki diniy-marosimiy yodgorlik sifatida talqin qilindi. A.P. Okladnikov va V.D. Zaporojskaya petrogliflarni ibtidoiy e’tiqod va mifologiya bilan bog‘lagan bo‘lsa, Ya.A. Sher ularning semiotik, M.A. Devlet esa ramziy-kommunikativ xususiyatlariga e’tibor qaratdi [Окладников, Запорожская, 1969: 45–130; Шер, 1980: 54–57; Дэвлет, Дэвлет, 2011: 41–43]. Biroq ovchilik,

chorvachilik, mehnat va harbiy faoliyatga oid tasvirlar petrogliflarning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan ularni ko‘p funksiyali madaniy tizim sifatida o‘rganish muhimdir.

Mavjud tadqiqotlar va ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili qoyatosh tasvirlarining funksional va semantik talqinini o‘nta konseptual yo‘nalishga ajratish imkonini beradi.

1. Landshaft–muqaddas makon yondashuvi. Qoyatosh tasvirlari ko‘pincha buloqlar, daryo vodiylari, tog‘ dovonlari, qadimgi yo‘llar va daralar kabi muhim landshaft nuqtalarida joylashgan. Aholi harakati faol hududlardagi tasvirlar axborot uzatish va ijtimoiy muloqot vazifasini bajargan bo‘lishi mumkin. Yetib borish qiyin bo‘lgan baland tog‘ majmualarida esa muqaddas-marosimiy xususiyatlar ustunlik qilishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois tasvirlarning vazifasi ular joylashgan tabiiy muhit bilan bog‘liq holda baholanishi zarur [Rock Art in Central Asia, 2011; Хўжаназаров, 2018: 95–102].

2. “Madaniy landshaft” va qoyatosh tasvirlarining makoniy talqini. Petrogliflarni manzilgohlar, qabristonlar, qadimgi yo‘llar, buloqlar va muqaddas joylar bilan bog‘liq yaxlit madaniy makon tarkibida o‘rganish ularning vazifalarini aniqlash imkonini kengaytiradi. Bunda tasvirlarning mazmuni arxeologik kontekst, tabiiy-geografik sharoit va etnografik ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi [Рогожинский, 2008: 90–95; Дэвлет, Дэвлет, 2005: 7–9].

3. Qurbonlik va jamoaviy marosimlar modeli. Hayvonlar, ov sahnalari, inson figuralari va dinamik kompozitsiyalar ayrim majmualarning qurbonlik hamda jamoaviy marosimlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatishi mumkin. Jumladan, Sarmishsoydagi buqa, bug‘u va echki obrazlari hosildorlik, qurbonlik va kosmologik tasavvurlar bilan talqin qilinadi. Bunday syujetlar qadimgi jamoalarning tabiat va muqaddas kuchlar haqidagi qarashlarini ramziy ifodalagan bo‘lishi mumkin [Кабиров, 1976; Мухаммаджонов, 1957: 9–18; Хужаназаров, 1988: 60–62; Хўжаназаров, 2018: 109–114].

4. Palimpsest va qayta muqaddaslashtirish. Turli davrlarga oid tasvirlarning bir-birining ustiga ishlanishi, palimpsest, qoyatosh majmualaridan uzoq vaqt foydalanilganini ko‘rsatadi. Keyingi avlodlar mavjud tasvirlarga yangilarini qo‘shish orqali makonni qayta o‘zlashtirgan va uning ramziy ahamiyatini davom ettirgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli palimpsest nisbiy xronologiyani aniqlash bilan birga, makonning qayta muqaddaslashtirilishini o‘rganishda ham ahamiyatlidir [Мартынов, Марьяшев, Абетеков, 1992: 45–60; Хўжаназаров, 2018: 118–123; Дэвлет, Дэвлет, 2005: 8–9].

5. Kosmologik-semantik talqin. Geometrik belgilar, abstrakt ramzlar va ayrim zoomorf obrazlar qadimgi jamoalarning makon, vaqt va koinot haqidagi tasavvurlarini ifodalagan bo‘lishi mumkin. Tasvirlarning quyosh chiqishi va botishi kabi astronomik yo‘nalishlar bilan ehtimoliy aloqasi ulardan vaqtni hisoblash yoki kuzatuv maqsadida foydalanilgani haqidagi qarashlarni yuzaga keltiradi. Biroq bunday talqinlar har bir yodgorlikning aniq konteksti asosida tekshirilishi lozim [Сулейманов, 2002: 3–27; Окладников, 1964: 7–15].

6. Maishiy-xo‘jalik funksiyasi. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, mehnat va harbiy to‘qnashuvlarga oid syujetlar petrogliflarning kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Zarautsoy, Sarmishsoy va boshqa yodgorliklardagi ov, hayvonlarni haydash hamda qurol-yarog‘ tasvirlari qadimgi jamoalarning xo‘jalik yuritish usullari va turmush tarzini o‘rganishda muhim manbadir [Хужаназаров, 2008: 217–225; Шацкий, 1961: 91–100; Константинов, 2012: 122–125].

7. Jamoaviy xotira va tasvirlar orqali axborot uzatish. Syujet va obrazlarning turli davrlarda takrorlanishi petrogliflarning jamoaviy xotirani saqlash va avlodlararo axborot uzatishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Ular orqali diniy tasavvurlar, ijtimoiy tajriba, qadriyatlar va qahramonlik an’analari ramziy shaklda yetkazilgan bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda qoyatosh tasvirlari vizual-kommunikativ tizim vazifasini ham bajargan [Формозов, 1980: 19–28; Дэвлет, Дэвлет, 2011: 270–305; Rozwadowski, Lymer, 2012: 149–163].

8. “Tirik yodgorlik” va etnomadaniy davomiylik. Ayrim qoyatosh majmualaridan hozirgacha ziyorat joylari sifatida foydalanilishi va ular atrofida xalqona e’tiqod hamda marosimlarning saqlanishi petrogliflarning zamonaviy madaniy muhit bilan aloqasini ko‘rsatadi. Qadimgi ramzlarning dastlabki mazmuni o‘zgargan bo‘lsa-da, makonning muqaddaslik maqomi keyingi diniy va xalqona tasavvurlar orqali davom etgan bo‘lishi mumkin.

9. Xronologik davomiylik va an’ana. Bronza, ilk temir, antik va o‘rta asrlarga oid tasvirlarning bir majmuada uchrashi ushbu makonlardan uzoq tarixiy davrlar davomida foydalanilganini ko‘rsatadi. Tasvir yaratish an’anasining davomiyligi ayrim ramziy va makoniy xususiyatlar saqlanganidan, ularning mazmuni va vazifalari esa tarixiy sharoitga muvofiq o‘zgarib borganidan dalolat beradi. Shu bois qoyatosh san’ati o‘zgarmas emas, balki tarixan rivojlanuvchi madaniy hodisa sifatida o‘rganilishi zarur [Хўжаназаров, 2018; Шер, 1980].

10. Ko‘p funksiyali tizim nazariyasi. Qoyatosh majmuasi bir vaqtning o‘zida muqaddas-marosimiy, kosmologik, ijtimoiy-kommunikativ, iqtisodiy-maishiy, memorial hamda jamoaviy o‘zlik va mansublikni ifodalovchi vazifalarni bajargan

bo‘lishi mumkin [Формозов, 1980: 14–32; Борисенко, Худяков, 2000: 221–225; Хужаназаров, 2008: 217–225; Рогожинский, 2008: 90–95; Дэвлет, Дэвлет, 2005: 5]. Shu sababli petrogliflarning funksiyasini aniqlashda tasvir mazmuni, landshaft, arxeologik kontekst, xronologiya va ijtimoiy-madaniy muhit birgalikda hisobga olinishi lozim.

Tahlillar qoyatosh tasvirlarini faqat diniy-marosimiy yoki badiiy hodisa sifatida tushuntirish ularning tarixiy ahamiyatini to‘liq ochib bermasligini ko‘rsatadi. Tabiiy-geografik muhit, qadimgi yo‘llar, suv manbalari va muqaddas makonlar bilan bog‘liqlik petrogliflarning amaliy hamda ramziy vazifalarini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Palimpsest holatlari va tasviriy an’analarning davomiyligi mazkur makonlar turli avlodlar tomonidan qayta o‘zlashtirilganini ko‘rsatadi. Xo‘jalik syujetlari qadimgi turmush tarzini, takrorlanuvchi obrazlar esa jamoaviy xotira va vizual axborot uzatish jarayonlarini o‘rganish imkonini beradi. Kosmologik talqinlar esa arxeologik va landshaft dalillari bilan asoslanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va unga tutash hududlardagi qoyatosh tasvirlari qadimgi jamoalarning diniy tasavvurlari, dunyoqarashi, xo‘jalik faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va madaniy xotirasini aks ettiruvchi ko‘p funksiyali madaniy tizimdir. Ularning marosimiy, kosmologik, iqtisodiy, hududiy, memorial va kommunikativ vazifalari o‘zaro bog‘liq holda shakllangan hamda tarixiy jarayonlarda o‘zgarib borgan. Shu bois petrogliflarni tabiiy va ijtimoiy muhit bilan bog‘langan yaxlit madaniy tizim sifatida tadqiq etish, GIS texnologiyalari, raqamli hujjatlashtirish va semantik ma’lumotlar bazalaridan foydalanish muhim istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Агафонова Г. А., Кожомбердиев И. К. Петроглифы Саймалы-Таша, Иссык-Куля и Кетмень-Тюбе. – Фрунзе: АН Киргизской ССР, 1978. – 176 с.
2. Борисенко А. Ю., Худяков Ю. С. Вопросы происхождения, семантики, функционирования и эволюции поминальных комплексов древних тюрок Центральной Азии // Святилища: Археология ритуала и вопросы семантики. – Санкт-Петербург, 2000. – С. 221–225.
3. Дэвлет Е. Г., Дэвлет М. А. Мифы в камне: Мир наскального искусства России. – Москва: Алетейя, 2005. – 472 с.
4. Дэвлет Е. Г., Дэвлет М. А. Сокровища наскального искусства Северной и Центральной Азии. – Москва: ИА РАН, 2011. – 380 с.
5. Кабиров Ж. Сармишсойнинг қоятошларидаги расмлар. – Тошкент: Фан, 1976. – 156 б.

6. Константинов Н. А. Сцены охоты на раннесредневековых петроглифах Горного Алтая // Известия Алтайского государственного университета. – 2012. – № 4–2 (76). – С. 122–125.
7. Мартынов А. И., Марьяшев А. Н., Абетеков А. К. Наскальные изображения Саймалы-Таша / Отв. ред. К. М. Байпаков. – Алма-Ата, 1992. – 110 с.
8. Мухаммаджонов А. Р. Сирли тошлар изидан // Фан ва турмуш. – 1957. – № 1. – Б. 9–18.
9. Окладников А. П. Олень Золотые Рога: Рассказы об охоте за наскальными рисунками. – Ленинград–Москва: Искусство, 1964. – 240 с.
10. Окладников А. П., Запорожская В. Д. Петроглифы Забайкалья. Ч. 1. – Ленинград: Наука, 1969. – 218 с.
11. Ранов В. А. Бегущие по скалам: наскальные рисунки Памира. – Душанбе: Дониш, 2016. – 412 с.
12. Рогожинский А. Е. О современных задачах археологии наскального искусства Казахстана и Средней Азии // Археология, этнография и антропология Евразии. – Новосибирск, 2008. – № 4 (36). – С. 90–95.
13. Сулейманов Р. Х. Новый памятник первобытного искусства в Центральной Азии // San’at. – Ташкент, 2002. – Вып. 1. – С. 3–27.
14. Формозов А. А. Памятники первобытного искусства на территории СССР. – Москва: Наука, 1980. – 136 с.
15. Хужаназаров М. М. Наскальные изображения сцены танца из Сайхансая // Общественные науки в Узбекистане. – 1988. – № 5. – С. 60–62.
16. Хужаназаров М. М. Наскальные изображения древних кочевников Каратау // Культура номадов Центральной Азии: материалы Международной конференции (Самарканд, 22–24 ноября 2007 г.). – Самарканд: МИЦАИ, 2008. – С. 217–225.
17. Хўжаназаров М. Сармишсой (қоятош расмлари, илмий тадқиқотлар) / Масъул муҳаррирлар: А. Э. Бердимуродов, Д. В. Черемисин. – Тошкент: NURFAYZ NASHRIYOTI, 2018. – 132 б.
18. Шацкий Г. В. Охота и доместикация по наскальным изображениям Чадаксай // ИМКУ. – 1961. – № 2. – С. 91–100.
19. Шер Я. А. Петроглифы Средней и Центральной Азии. – Москва: Наука, 1980. – 328 с.
20. Rock Art in Central Asia. A Thematic Study. Наскальное искусство в Центральной Азии. Тематическое исследование / Ed. J. Clottes. – Paris: International Council on Monuments and Sites (ICOMOS), 2011. – 382 p.
21. Rozwadowski A., Lymer K. Rock Art in Central Asia: History, Recent

Developments and New Directions // Rock Art Studies: News of the World IV / Eds. P. Bahn, N. Franklin, M. Strecker. – Oxford: Oxbow Books, 2012. – P. 149–163.

АРХЕОЛОГИК МАНБАЛАР ВА УЛАРДАН МУЗЕЙЛАРДА ФОЙДАЛАНИШ ҲАҚИДА

Toshboyev F. Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, t.f.d. (DSc),
E-mail: furqattoshboyev1973@gmail.com
Tel: (93) 303 46 33

Аннотация: Мазкур мақолада археологик тадқиқотлар натижасида аниқланган моддий манбалар, уларнинг тарихий-маданий аҳамияти ҳамда музей экспозицияларида намойиш этиш имкониятлари таҳлил қилинади. Дафн иншоотлари ва бошқа ёдгорликларда қайд этилган кулолчик идишлари, қурол-яроғлар, зеб-зийнат буюмлари, металл буюмлар ва бошқа ашёвий манбалар минтақа қадимги аҳолиси ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётини ўрганишда муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Мақолада мазкур археологик топилмаларни музейларда илмий тизимлаштириш, консервация қилиш, экспозиция ва интерактив кўргазмаларга киритишнинг асосий тамойиллари ҳам ёритилади.

Калит сўзлар: Уструшона, мозорқўрғон, археологик манба, моддий маданият, катакомба, дафн маросими, қурол-яроғ, тақинчоқ, мунчоқ, кўзгу, музей, музей экспозицияси, археологик мерос.

Марказий Осиёнинг қадимги тарихини ўрганишда археологик ёдгорликларда ўрганилган моддий манбалар алоҳида аҳамият касб этади. Айниқса, мозорқўрғонлар материаллари дафн маросимлари, диний эътиқодлар ва жамиятнинг ижтимоий тузилиши ҳақида тасаввур бериши билан биргаликда, иқтисодий муносабатлар ва маданий ҳаётнинг турли шаклларни ўрганишда муҳим ўрин тутади. Уларда ўрганилган моддий манбалар (кулолчик идишлари, қурол яроғ, зеб-зийнат ва бошқа рўзғор буюмлари) Жиззах вилояти тарихи ва маданияти давлат музейига топширилган. Ушбу топилмалар биринчидан, халқимизнинг қадимдан юксак маданият сохиблари бўлиб, ҳунармандчилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш борасида ҳам юқори даражадаги ишлаб чиқариш кўникмасига эга бўлганлигини кўрсатса, иккинчидан ушбу топилмаларнинг музей фондларига қўйилиши халқимизда шонли тарихи ва бой маданий меросидан фахрланиш ҳиссини кучайтиради.

Мавжуд археологик, ёзма ва этнографик манбалар юртимизда қадимда яшаган таҳолида металлсозлик, ёғочга ишлов бериш, кулоллик ва тўқимачилик соҳасининг юксак даражада ривожланганлигини кўрсатади. Уй-рўзғор буюмлари орасида тўқимачилик маҳсулотлари – гилам, кигиз, олача, сўзана, турли хил кийим бош, от анжомлари, хуржун ва ҳ... кабилар ясаш алоҳида аҳамият касб этган. Улар Марказий Осиёнинг бошқа ҳудудлари жумладан, хунларга оид қабрлардан топилган манбаларга ўхшайди [Тошбоев Ф.Э., Inomova M.F. I.: 173-175][1]. Ушбу қабилаларга оид 2,6 м, х 1,95 м келадиган рангли гилам ўрганилган. Уни тўқишда яшил, сариқ, тўқ қизил ва қора қизил рангли иплар ишлатилган. Гиламнинг атрофига 24-28 ммли кичик катакчалар шаклида нақш солинган. Унинг ўртасга яшил ип билан 9 та дарахт, 4 жуфт буғу, қуш, 5 жуфт арслон ва ер ҳайдаётган ҳўкиз тасвири туширилган. [Хўжаев А.: 228]. Бу топилмани ҳозирги пайтда чорвадор аҳоли томонидан тўқиладиган тўшама буюмлар билан солиштириб кўрадиган бўлсак, чорвадорларда бу каби буюмлар тўқиш анъанасининг жуда қадимдан мавжуд бўлганлигини англаш мумкин.

Қадимги аҳолининг кийим боши, иссиқ ва совуққа мослиги, тоғу- тошда юриш, отда чопиш ва ҳамда химояланиш учун жуда қулайлиги тарихий ёзма манбаларда кўп ёритилган. Антик давр тарихчиси Арриан, скифлар учун бебаҳо терилар ва ундан тайёрланган турли хил буюмлар олтин ва кумуш даражасида қадрлангани, ҳайвонларнинг майин жунларидан қаҳратон қишларни ҳам писанд қилмайдиган ўтовлар ясалгани, ҳатто ҳайвонлар терисидан ўқ ўтмайдиган қалқон, эгар жабдуқлар тайёрланганини таъкидлайди [Арриан.: 133]. Эчки ва туянинг жуни ҳамда, от думи ва ёлларидан энг пишиқ арқонлар тўқилган. Археологик экспедициялар вақтидаги кузатишларда чорва моллари юнги ва терисидан юқорида санаб ўтилгани каби буюмларни тўқиш ва ясаш Уструшонанинг тоғлик ҳудудларида ҳозир ҳам давом этаётганлигининг гувоҳи бўлдик.

Уструшона мозорқўрғонларида ўрганилган сопол идишлар орасида хурмачалар кўпчиликни ташкил этиб, улар анча пишиқ ва силлиқ ясалган. Улар ўз ташқи кўринишлари жаҳатидан айрим ҳолларда кўзаларга ўхшаб кетсада, уларнинг гардиш айланаси кенглигидан бу турдаги сопол идишларни ажратиш мумкин. Барча сопол идишлар каби хурмачаларни пишириш ҳам сифатли тарзда амалга оширилган. Хурмачаларнинг кўпчилиги гирдиғум-паст бўйли, тагдони

[1]Тошбоев Ф.Э., Inomova M.F. Ustrushonada o‘rganilgan moddiy manbalar va ulardan muzeylarda foydalanish haqida // Muzeyshunoslik XXI asrda tadqiqotlar, an’analar va innovatsiyalar Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari To‘plami. 2- kitob. - Toshkent, 2022. - Б. 173-178.

текис ва кенг, оғиз қисми билан тагдонининг диаметри бир-бирига мос. Уларга чизма нақшлар бериш учун тўлқинсимон ва тўғри чизиқлардан фойдаланилган. Бу чизиқли безаклар ўткир учли асбоб ёрдамида идишнинг ҳали қотиб улгурмаган сиртига чизилган. Айрим хурмачаларга эса умуман безак берилмаган**.** Идишлардаги қатор тўлқинсимон чизиқлар тароқсимон кўринишда амалга оширилган. Кўпинча тўлқинсимон чизиқнинг икки томонидан худди шундай кўп қаторлик, бироқ тўғри – горизонтал чизиқлар ўтказилган [Тошбоев Ф.Э.: 103-107]. Баъзи идишлар гардишининг пастки, бўйин қисмига ўйиб хоч шакли туширилган.

Мозорқўрғонларида баъзи кўзачалар кулоллик чархида сифатли, майин тупроқ лойидан ясалган бўлиб лой таркибига бошқа аралашма қўшилмаган, хумдонда сифатли қилиб, ҳамма жойи бир хилда пиширилган. Идишнинг сирти жигарранг ангоб билан бўялган. Ангоб баъзи жойларга қалин берилган. Идишнинг бўйнига яқин жойида валиксимон бўртма айлана ўтказилган, оғиз гардиши сиртга бироз қайрилган. Бу идиш оғиз гардишининг диаметри таг қисми диаметридан анча катта. Бу тоифадаги кўзаларда кўпроқ ўтроқ ҳаёт соҳиблари томонидан ишлаб чиқарилган сопол идишларга хос хусусиятлар мавжуд [Пардаев М.Х.: 54].

Бундан ташқари мозорқўрғонлардан хумча, пиёла, қозон, ёғлоғи (кружка), мустахара (фляга) каби идишлар ҳам ўрганилган. Бу сопол идишлар мозорқўрғонлар даврий санасини белгилашда устивор хусусиятларга эга, Л.М. Левинанинг Ўрта Сирдарё бўйи сопол идишлари классификациясида, Қовунчи маданиятининг биринчи ва иккинчи босқичларида Сирдарёнинг қуйи кисмидан кириб келган “Жети-Осор” жамоаларининг таъсири кучли бўлганлиги, учинчи босқичда эса, ҳудудга ўтроқ воҳа Сўғд таъсирининг кучайганлиги тўғрисидаги фикрини тасдиқлайди [Левина Л.М**.:** 78]. Юқорида санаб ўтилган моддий манбаларга эга мозорқўрғонлар, антик даврда Ўрта Осиёга кўчманчиларнинг навбатдаги оммавий кириб келиши ва Уструшона ҳудудида яшаган чорвадор жамоаларининг яшаш тарзи, маданияти, хўжалиги ва жамият тузилиши ҳақида кўплаб маълумотлар беради.

Уструшона мозорқўрғонларида ўз сифатини йўқотмаган темирдан ясалган ўткир тиғли қуроллар кўплаб қайд қилинди Орадан икки минг йилдан ортиқ вақт ўтишига қарамай, бу жанг қуроллари ўзининг сифати ва асл ҳолатини маълум миқдорда сақлаб қолган. Бу эса, антик даврда Уструшонада ҳунармандчиликнинг металлсозлик соҳаси ҳам юксак даражада тараққий этганлигини кўрсатади [Гумилев Л.: 52]. Аслида туркийлар металлургияни

тараққий эттириб, ўз қўшинини қайта қуроллантириб, зирхли суворилардан танланган зарбдор қисмлар ташкил эта олган эдилар. Улар шохли ёй, зирҳ кўйлак, найза, қилич, ўткир суворий шамширлари билан қуролланишган. Ёзма ёдгорликларда келтирилган ушбу қисқа хабарлар Уструшона мозорқўрғонларидаги археологик материаллар орқали яна бир бор ўз тасдиғини топмоқда.

Тарихий манбаларда Уструшонадаги Минк рустоқи ва Марсманд шаҳарларида тайёрланадиган темир қурол-аслаҳалар ҳақида маълумотлар берилган. Айтишларича, бу қурол-аслаҳалар билан “бутун Хуросон таъминланган ва Бағдоддан то Ироққа қадар кўплаб жангчилар қуролланишган” [Грицина А.А.: 75-78]. Уструшоналиклар томонидан тайёрланган қурол-аслаҳаларнинг бундай кенг тарқалиши шубҳасиз, унинг сифати ва нархининг оммага мос бўлишидир. Бу албатта хом-ашё билан боғлиқ бўлган. Шу ўринда айтиш мумкинки, ўлканинг тоғли ҳудудларида темир, олтин, мис, кумуш, купорос, ақиқнинг йўл-йўл тури ҳамда туз конлари ишлаб турган. Уструшона мозорқўрғонларида ўрганилган қурол-яроғлар Уструшона аҳолиси орасида ҳарбий касб ва қуролсозлик маданиятининг мавжуд бўлганини кўрсатади. Қуролларнинг техник хусусиятлари, металл сифати, ишланиш услуби ва безак элементлари орқали қадимги металлургия ва ҳунармандчилик тараққиёти ҳақида ҳам хулоса чиқариш мумкин.

Музей фондларига топширилган топилмалардан бири 2019 йилда Зомин тумани, Хатаб қишлоғида бузилган қабрдан топиб ўрганилган най ҳисобланади. Суякдан ясалган най қолдиғи юртимизда яшаган аҳоли томонидан илк ва ривожланган ўрта асрларда мусиқа сбоби сифатида кенг фойдаланилган. Бу мусиқа асбоби – най, халқимиз орасида “Ғажир най” дейилган. Ушбу найнинг сақланиб қолган узунлиги 23 смдиаметри 2см. Найнинг устки томонидан 4 та (5 синган) бир хил ўлчамдаги тешикчалар бор. Мусиқашуносларнинг таъкидлашича бу най ғажирнинг бош қанот суягидан ясалган. Бу найнинг илк ўрта асрларга оид қабрдан чиқишига қараганда, ундан фойдаланиш ҳам қадимдан мавжуд бўлган. Яқин вақтларгача Зомин воҳаси, Қашқадарё ва Сурхондарё ҳудудларида бу асбобдан фойдаланишган. Ўз вақтида бу най жуда ёқимли куй таратиши билан машҳур бўлган.

Шундай қилиб, мозорқўрғон материаллари археологик манба сифатида қадимги аҳолининг моддий маданиятини тиклаш, ижтимоий ва этномаданий жараёнларни аниқлаш ҳамда диний-маънавий тасаввурларни реконструкция қилиш имконини беради. Умуман олганда, археологик ва ёзма манбадардаги

таҳлиллар, қадимги уструшоналиклар амалий санъатининг юқори даражада ривожланганлигидан далолат беради. Ҳалқимизнинг ҳунармандчилик билан боғлиқ бу каби анъаналарини ўрганиш, мавжуд материалларни асраш ва музейлаштириш, маънавий баркамол авлодни шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Тезис юзасидан бир қанча таклфлар илгари сурмоқчимиз: 1. Уструшона мозорқўрғонларида ўрганилган қурол-яроғлар асосида уларни музей экспозициясида алоҳида «Уструшона ҳарбий маданияти» бўлимида жойлаштириш мақсадга мувофиқ. Уларнинг ёнига қуролнинг вазифаси, ясалиш технологияси, археологик топилган жойи ва тахминий хронологияси ҳақида қисқа илмий ахборот берилиши керак.

2. Уструшона мозорқўрғонларида ўрганилган зеб-зийнат буюмлари асосида музей экспозициясида зе-зийнат буюмлари атрофида «Қадимги Уструшона зеб зийнатлари» мавзусида алоҳида изоҳ бериш илмий жиҳатдан самаралидир.

Мозорқўрғонларда қайд этилган моддий ашёлар таркибида қозон, товоқ, коса, пиёла каби сополдан ясалган маиший буюмлар ҳам муҳим ўрин тутади. Қабрга марҳум билан бирга кундалик ҳаётда ишлатилган буюмларни қўйиш анъанаси инсоннинг «нариги дунё» ҳақидаги тасаввурлари билан боғлиқ бўлган. Бундай буюмлар орқали қадимги аҳолининг кундалик турмуши, ҳунармандчилиги, овқатланиш маданияти ва маиший эҳтиёжлари ҳақида маълумот олиш мумкин. Мозорқўрғонлардан топилган буюмларнинг қиммати уларнинг алоҳида-алоҳида мавжудлигидагина эмас, балки бир археологик мажмуа таркибида ўзаро боғлиқ ҳолда ўрганилишидадир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар.. Фар-она, 2013. Б. 228.
2. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар... – Б.203.
3. Арриан. Поход Александра. – М. –Л., Изд-во АН СССР, 1962. –С.133.
4. Тошбоев Ф.Э. Уструшона чорвадорларининг кулоллик идишлари ҳақида баъзи мулоҳазалар. Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида” Ўз РФА Археология институтида бўлиб ўтган Республика илмий конференция материаллари Самарқанд, 2016. 103-107.
5. Агзамходжаев Т. Раскопки погребальных курганов близ станции Вревской // ИМКУ. № 2. Тошкент: 1961. С.51.
6. Левина. Л.М. Керамика Нижний и Средней Сырдарьи в 1-тысячилетие нашей эры… М.1972. С. 78,
7. Обельченко О.В. Лявандакский могильник. ИМКУ №2. Ташкент: 1961. С. 68.

8. Пардаев М.Ҳ., Пардаев А.Х., Жиззах воҳасининг IV-VI асрлардаги кулоллик идишлари // ЎММК, 29-нашри, Самарқанд, 1998. Б. 54,
9. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар… тошкен6т, 2007. Б.52.
10. Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн Хаукаля.... –С.226.
11. Грицина А.А. Изучение курганов в Сырдарьинской области // ИМКУ. Вып. 28. – Самарканд, 1997. – С.75-78.

MARKAZIY OSIYODA HAZRAT ALI NOMI BILAN BOG‘LIQ ZIYORATGOHLAR

Toxtiyev Shuxrat Rustamovich,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA”
kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: shuhrat55567@mail.ru Tel.: (99)817-09-36

Annotatsiya: *Maqolada Hazrat Ali shaxsini shialar o‘rtasida ilohiylashtirilishi tufayli turli rivoyatlarning kelib chiqishiga va hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Afg‘oniston hududlarida ham xalifa Ali nomi bilan bog‘liq muqaddas joylar vujudga kelgani yoritilgan bo‘lib, shialar Makka va Madina shaharlariga haj ziyorati vaqtida amal qilinadigan tartib-qoidalar, udum va marosimlarni bajarishi kabi shunday tartib-qoidalar asosida o‘zlarining muqaddas shaharlarini ham ziyorat etishlari aniqlangan.*

Tayanch iboralar: *Markaziy Osiyo, Hazrat Ali, Iroq, Najaf, Shohimardon, Duldul, rivoyat, sunniylar, shialar, Mozori Sharif, Haydar, shialar.*

Ma’lumki, Hazrat Ali 661 yil 19-yanvarda Abdurrahmon ibn Muljam as-Sorimiy (xorijiylik oqimi vakili) degan shaxs tomonidan Kufa masjididan chiqish paytida jarohatlanadi va ikki kundan so‘ng vafot etadi.

Hazrat Alining o‘limi bilan bog‘liq turli rivoyatlar ham mavjud. Mana shunday rivoyatlardan birida aytilishicha, hazrat Ali o‘z o‘limi yaqinligini bilib, uni yarador qilgan xorijiyni qatl etmasliklari va o‘lganidan so‘ng uning jasadini tuyaga bog‘lashlari va tuya qaysi joyga borib cho‘kkalasa, uni o‘sha joyga ko‘mishlarini vasiyat qilgan. Hazrat Ali qanday vasiyat qilgan bo‘lsa, uning o‘limidan keyin jasadini tuyaga bog‘lganlar va ochiq dalaga qo‘yib yuborganlar. Tuya 20 km. yurib, dam olish uchun cho‘kkalagan va o‘sha yerga hazrat Alini dafn etganlar. Uning

go‘riga baland tepalik qilib tuproq uyushgan va qabr atrofiga chaylalar qurishgan. Shundan keyin qabr atrofida yana chaylalar qurilib, Najaf shahri barpo etilgan[Ibragimov DJ.: 37]. Zero, an-Najaf arab tilidan tarjimada “tepalik”, “do‘nglik” ma’nosini bildiradi.

Hazrat Ali shaxsini musulmonlar orasida ilohiylashtirish turli rivoyatlarning kelib chiqishiga va Markaziy Osiyo hududida bir necha qadamjo va mozorlarni hazrat Ali nomi bilan bog‘lab, muqaddaslashtirishga olib kelgan. Markaziy Osiyoda bunday muqaddas joylar Shohimardon, ya’ni “erlar shohi”, “mardlar shohi” nomi bilan yuritiladi. Bu hazrat Aliga berilgan nomlardan biri bo‘lib, turli rivoyatlarga ko‘ra, hazrat Ali janglarda jasurlik, mardlik ko‘rsatib shu nomga sazovar bo‘lgan. Naql qilinishicha, o‘limi odidan o‘g‘illari imom Hasan va imom Husaynlarni chaqirib: “Jigarbandlarim, bugun sizlar bilan abadiy vidolashsam kerak. Ertaga ertalab oq tuya mingan bir badaviy kelib, sizlardan mening jasadimni so‘raydi. Sizlar darhol jasadimni unga topshiringlar! Ammo zinhor uning orqasidan ergashmanglar”, deb vasiyat qiladi. O‘g‘illari yig‘lab, “Uning ortidan bormasak, qabringizni qayerdan izlab topamiz”, deb so‘raydilar. Hazrat Ali qayerda uch tomoni tog‘ bilan o‘ralgan tekislik bo‘lsa, o‘sha yer mening qabrim bo‘ladi, deb dunyodan ko‘z yumadi. Dunyo bo‘yicha ana shunday maskandan yettitasi mavjud [Petrash Yu.G.: 51-54; From history to theology: 320].

O‘zbekistonning Farg‘ona viloyati Shohimardon qishlog‘ida hazrat Ali nomi bilan bog‘liq muqaddas joy bo‘lib, u Oloy tog‘ining 1540-1570 m. balandligida joylashgan. O‘rta asr yozma manbalarida Shohimardon haqida hech qanday ma’lumotlar yo‘q. Chamasi bu muqaddas joy taxminan XVII-XVIII asrlarda mashhurlikka ega bo‘lib, Farg‘ona vodiysining eng qadrli muqaddas joyiga aylangan. XIX asrda Shohimardon Qo‘qon xonligining hokim va amaldorlarining asosiy ziyorat joyiga aylangan[Fedchenko A.P: 310-311.].

XX asrning 20-yillarida Shohimardon shayxlari Sovet hukumatiga qarshi kayfiyatda bo‘lganlar. 1929 yil Shohimardonda mashhur inqilobiy yozuvchi va davlat arbobi Xamza Hakimzoda Niyoziy o‘ldirilgan. Shundan so‘ng Shohimardondagi muqaddas joy atrofidagi qishloq Xamzaobod nomini olgan. 50-yillarda u yerdagi oldingi maqbara buzib tashlanib, uning o‘rniga Xamza qabriga maqbara qurilgan. Shunga qaramay, bu joy hazrat Ali nomi bilan bog‘liq muqaddas joy hisoblanib, nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki Markaziy Osiyoning barcha aholisi uchun ziyoratgoh bo‘lib qolavergan. Shohimardon hududi va uning atrofi rasmiy ravishda dam olish oromgohiga aylantirilgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, bu qishloqqa Shohimardon nomi qayta berilgan[Islam na territorii.: 110].

Markaziy Osiyoda hazrat Ali nomi bilan bog‘liq yana bir qancha afsonaviy muqaddas joylar mavjud. Shulardan biri Xiva shahri tashqi qal’asining Shohimardon darvozasidan chiqqach, 1 km. narida joylashgan Badirxon qishlog‘idagi katta qabristondagi mozordir va uni “bu mozorda er- yigitlarning shohi – hazrat Ali yotibdi”[Rahmonov A., Yusupov S.: 8] deb atashadi. Undan tashqari Farg‘ona vodiysining Soxa degan hududidagi “Yigitpirim” mozorida va Afg‘onistonning Mozori Sharif shahrida ham hazrat Ali qabri mavjud.

Markaziy Osiyoning ba’zi hududlarida shunday joylar borki, xalq bu yerlarni ham hazrat Ali nomi bilan bog‘laydi. Rivoyatlarga ko‘ra, hazrat Ali Markaziy Osiyoni bosib olishda shaxsan o‘zi qatnashgan va bu yerni kofirlardan ozod qilib, jangda halok bo‘lgan. Shuning uchun ham hazrat Ali to‘xtab o‘tgan, namoz o‘qigan yoki qandaydir jasoratlar ko‘rsatgan yerlar ham muqaddaslashtirilgan. Bunday joylar qadamjo, ya’ni “oyoq izi qolgan” yerlardir. Yana hazrat Ali qilichi izi qolgan joylar ham bo‘lib, ular Zulfiqor deb ataladi. Masalan, Namangan viloyatining G‘ova qishlog‘idagi Keskantosh mozori bunga misol bo‘la oladi. Yana boshqa yerlarda hazrat Ali o‘z hassasi bilan yerga urganda u yerdan chashma yoki buloq chiqqan va baland daraxtlar o‘sib chiqqan muqaddas joylar ham mavjud. Masalan, Tojikistonning O‘ratepa shahridagi “*Xauz-e Mo‘ron*”, Leninobod viloyatidagi “*Chashma-e Arzanak*”, Namangan viloyati Baliqli qishlog‘idagi “*Sulton Vays*”, Toshkent viloyati To‘ytepa shahridagi “*Axtam saxoba*” mozorlari bunga yaqqol misoldir. Yana boshqa muqaddas joylar bo‘lib, hazrat Ali namoz o‘qiganda qoldirgan qo‘l izlarini (“*panja*”deyiladi) Markaziy Osiyoning turli hududlarida uchratish mumkin. Hazrat Alining Duldul degan otining izlari ham muqaddas hisoblanib, bunday muqaddas joylar Duldul nomi bilan Turkmanistonning Ashxobod tumani Yonbosh, Eski Niso qishlog‘i, Xorazm, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida mavjud[Islam na territorii.: 110].

Turkmanistondagi Yonbosh qishlog‘i Kopetdog‘ tog‘ining etagida Duldul nomi bilan bog‘liq tosh bordir, u *Duldul dash* deyiladi. Rivoyatlarga ko‘ra, hazrat Ali namoz o‘qish uchun to‘xtaganda otini temir qoziqqa bog‘lab qoziqni shu toshga qoqib qo‘ygan ekan. O‘zi esa 30 metr pastroqdagi toshning ustida namoz o‘qigan ekan. Ushbu tosh ham saqlanib qolib, u *Namoz dash* deb ataladi. Unda hazrat Ali o‘z panja izlarini qoldirgan ekan. Yana 50-60 metr pastroqda muqaddas hisoblangan *Bogaz dash* (Xomiladorning toshi) nomli tosh bordir. Ushbu toshning oldiga asosan bepushtlikdan davo istab, farzandli bo‘lish niyatida bo‘lgan ayollar tashrif buyuradilar, *Namoz dash* ustida namoz o‘qib, *Bogaz dash*ga suyanib iltijo qiladilar[Demidov S.M.: 69-72].

Hazrat Ali Xorazmga kelib o‘z mahoratlarini ko‘rsatgani haqida ham rivoyatlar mavjuddir. Masalan, Xorazmga kelganida namoz o‘qish uchun Makkaga o‘zining qanotli Duldul degan otida bormoqchi bo‘lib Amudaryodan sakragan ekan Duldul oldi oyoqlari bilan qirg‘oqni bosib, orqa oyoqlari suvning ustida qolib ketgan ekan[Snesarev G.P.: 52-58].

Ma’lumki, hazrat Ali hech qachon Markaziy Osiyo hududida bo‘lmagan. Muqaddas joylarda xizmat qiluvchilar hazrat Ali haqidagi afsonaviy rivoyatlarga asoslanib, ularni dalillamoq uchun, hazrat Ali qabri qanday qilib Markaziy Osiyoga kelib qolganini turlicha izohlashmoqchi bo‘ladilar. Masalan, shunday izohlardan biri shunday bayon etiladi: hazrat Ali vafot etgandan keyin, uning jasadini o‘z yurtida ko‘mish uchun turli guruhlar talabgor bo‘lgan. Janozaga kelgan har bir guruhlar o‘z tobutlarini ochishganda, har birining tobutida hazrat Ali jasadi yotgan ekan. Shuning uchun ham yettita (ba’zi rivoyatlarga ko‘ra o‘n bitta) joyga uni dafn etishgan ekan. Yana bir rivoyatga ko‘ra, hazrat Ali jasadini osmondan tuya kelib olgan va ular izsiz yo‘qolishgan. Lekin shunday dalil saqlanib qolganki, hazrat Ali qabri ikki daryo, ya’ni oq va qora daryo quyilishida joylashgan. Bunda oq daryo tog‘lardagi oppoq qorlarni erishidan kelib chiqqan va qora daryo yer tagidan chiqqan suv, deb aytiladi. Mana shunday joylardan biri Shohimardondagi hazrat Ali mozoridir[Suxareva O.A.: 64].

Hazrat Alini Markaziy Osiyoda bunday mashhurligiga sabab, hazrat Ali shaxsini ilohiylashtirishda so‘fiylik katta rol o‘ynaganidadir. Chunki so‘fiylar hazrat Ali shaxsini juda e’zozlaganlar, ular hazrat Alini *ezoterik* (yashiringan, pinhona) bilib, o‘z sohibi hisoblaganlar.

Shunday qilib, Hazrat Ali shaxsini musulmonlar o‘rtasida ilohiylashtirilishi tufayli turli rivoyatlarning kelib chiqishiga va hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Afg‘oniston hududlarida ham hazrat Ali nomi bilan bog‘liq muqaddas joylar vujudga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. From history to theology: Ali in Islamic beliefs. Edited by Ahmet Yasar Ocak. – Ankara, Turkish Historical Society. 2005.
2. Demidov S.M. Legenda i pravda o «svyatix» mestax. – Ashxabad, Ylym, 1988.
3. Ibragimov DJ. Na zemle potomkov Aladdina. – M.: “Nauka”, 1988.
4. Islam na territorii byvshey Rossiyskoy imperii. Ensiklopedicheskiy slovar. – M.: Vostochnaya literatura, 1999. T. 2.
5. Petrash Yu.G. «Svyashenniy» obman. – T.: Uzbekistan, 1965.

6. Rahmonov A., Yusupov S., Xorazmda “muqaddas” joylar va ularning vujudga kelish sirlari. – T.: “Qizil O‘zbekiston”, “Pravda Vostoka”, “O‘zbekistoni So‘rx” birlashgan nashriyoti, 1963.
7. Snesarev G.P. Xorezmskiye legendy kak istochnik po istorii religioznix kultov Sredney Azii. – M.: Nauka, 1983.
8. Suxareva O.A. Islam v Uzbekistan. – T.; 1960.
9. Fedchenko A.P. Puteshestviye v Turkestan. – M.: 1950.

ЎЗБЕКИСТОНДА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ТАРИХИЙ ВА МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ

Тукаева З.А.
Гулистон давлат университети тарих
кафедраси катта ўқитувчиси т.ф.ф.д (PhD)
+998931951696

Аннотация. Мақолада ҳозирги Ўзбекистон ҳудудидаги Темурийлар даври тарихий ва маданий объектларини тадқиқ қилишнинг манбашунослик ва методологик масалалари муҳокама қилинади. Самарқанд ва Шаҳрисабз ёдгорликлари мисолида меъморий меросни саналаш, тарихий вазифасини аниқлаш, асл қисмларини кейинги таъмирлаш қатламларидан ажратиш ҳамда шаҳар муҳити билан боғлиқ ҳолда ўрганиш йўналишлари белгиланади. Тадқиқот очиқ электрон манбалар ва меросни сақлашга оид халқаро ҳужжатларнинг сифат таҳлилига асосланади.

Калит сўзлар: Темурийлар, Самарқанд, Шаҳрисабз, тарихий ёдгорлик, манбашунослик, меъморий мерос, асллик, тарихий шаҳар муҳити.

Кириш. Темурийлар даври тарихини ўрганишда меъморий ёдгорликлар, археологик қолдиқлар ва улардаги ёзувлар сиёсий ҳамда маданий жараёнларнинг моддий гувоҳи сифатида аҳамиятлидир. Бундай объектлар ҳукмдорларнинг қурилиш сиёсати, диний муассасалар, таълим ва илм-фан, ҳунармандчилик ҳамда шаҳар ҳаёти ўртасидаги алоқаларни тадқиқ қилиш имконини беради. Бироқ бинонинг бугунги кўринишини унинг қурилган давридаги ҳолати билан тўлиқ тенглаштириш мумкин эмас. Асрлар давомида вазифа, меъморий тузилиш ва безаклар ўзгарган; айрим қисмлар йўқолган ёки қайта тикланган. Шунинг учун ёдгорликни тарихий манба сифатида қўллаш унинг ўзгаришлар тарихини аниқлашдан бошланади.

ЮНЕСКО Самарқанднинг XIV–XV асрлардаги ривожланишини шаҳар тарихининг муҳим босқичи сифатида баҳолайди. Шаҳар мероси таркибида

Бибихоним, Шоҳи Зинда, Гўри Амир ва Улуғбек расадхонаси каби объектлар қайд этилади [1]. Шаҳрисабзда эса Оқсарой ҳамда сулолавий хотира билан боғлиқ мажмуалар тадқиқот учун алоҳида аҳамият касб этади [2]. Бу объектларнинг тарихий қиммати уларнинг бадиий ечимлари билан чекланмайди. Улар ҳокимиятнинг маконда ифодаланиши, диний ҳаёт ва ижтимоий муносабатларни таҳлил қилиш учун ҳам далил бўла олади.

Мавзунинг тарихшунослигида Л. Голомбек ва Д. Уилбернинг Темурийлар меъморчилигига бағишланган икки жилдли асари муҳим библиографик таянч ҳисобланади [3]. Унинг доираси ҳозирги Ўзбекистон чегараларидан кенг бўлиб, маҳаллий ёдгорликларни минтақавий қиёслаш учун адабиётлар базасини кенгайтиришга хизмат қилади. Мазкур мақолада эса асосий эътибор очиқ манбалар орқали текшириладиган маълумотлар ва объектларни ўрганиш мезонларига қаратилади.

Мақола мақсади: Ўзбекистондаги Темурийлар даври тарихий ва маданий объектларини ўрганишда далилларни баҳолаш мезонларини белгилаш ҳамда тадқиқот билан муҳофаза ўртасидаги боғлиқликни очиб беришга қаратилган.

Методлар. Тадқиқот манбалар ва расмий мерос ҳужжатларининг қиёсий таҳлили шаклида амалга оширилди. Тадқиқотда хронологик, тарихий-таққослаш ва манбашунослик таҳлили усуллари қўлланилди. Улар орқали тарихий-маданий объектларнинг барпо этилиши ва кейинги ўзгаришлари вақт кетма-кетлигида ўрганилиб, Темурийлар даврининг муайян босқичлари билан боғланди, турли марказлардаги мерос намуналарининг умумий ва маҳаллий хусусиятлари қиёсланди ҳамда манбалардаги маълумотларнинг ишончлилиги баҳоланди.

Манбашунослик таҳлилида маълумотнинг яратилган вақти, муаллиф ёки ташкилотнинг мақсади, жанри ва объектга муносабатини ҳисобга олиш муҳим. Клавихонинг эсдаликларида Самарқанд атрофидаги боғларнинг тузилиши ва ободончилиги ҳақида маълумотлар келтирилган. Элчилар жойлаштирилган боғда олтита катта ҳовуз, оқар сув ҳамда баланд ва соя берувчи дарахтлар билан ўралган хиёбонлар мавжуд бўлган. Бу тасвир боғларда сув иншоотлари ва дарахтзорлар ўзаро уйғун ҳолда жойлаштирилганини кўрсатади [4. 105].

Клавихо мазкур боғдаги саройни ҳам тасвирлайди. Унинг ёзишича, сарой сунъий тепалик устида қурилган бўлиб, атрофи сув билан тўлдирилган чуқур хандақ билан ўралган. Саройга икки томондан кўприклар орқали кирилган. Хоналарнинг олтин, ложувард ва сирланган кошинлар билан безатилиши иморатнинг ҳашаматли хусусиятини намоён этган [5/ 106].

Эсдаликларда элчиларнинг Самарқандга йўл олиши ҳам қайд этилган. 1404 йил 8 сентябрда Амир Темур қабулига бораётган элчилар боғлар, уйлар ва турли моллар сотиладиган бозорлар жойлашган ҳудуддан ўтганлар. Мазкур хабар шаҳар атрофидаги боғлар, турар жойлар ва савдо масканларининг бир-бири билан боғлиқ ҳолда мавжуд бўлганини англатади [6. 106].

Клавихо Амир Темур билан учрашув жараёнига алоҳида эътибор қаратган. У ҳукмдорнинг фаввора олдида ўтирганини, элчиларнинг белгиланган тартибда таъзим қилганини ёзади. Қабул давомида Амир Темур Кастилия қиролининг аҳволи ва саломатлигини сўраган, элчилар эса ташриф мақсадини баён қилганлар [7. 107].

Эсдаликларда қабул маросимида элчиларнинг ўтириш тартиби ҳам тасвирланган. Кастилия элчилари дастлаб Хитой элчисидан қуйи ўринга жойлаштирилган бўлса-да, Амир Темур уларни юқорироқ ўринга ўтқазишни буюрган. Бу воқеа дипломатик қабулда ўрин белгилаш сиёсий муносабатларни ифодаловчи восита бўлганини кўрсатади [8. 109].

Клавихо зиёфат дастурхони ҳақида ҳам маълумот беради. Меҳмонларга қўй ва от гўштидан тайёрланган таомлар, турли мевалар ҳамда ичимликлар тортилган. Таомларни узатишда олтин ва кумуш идишлардан фойдаланилган. Ушбу тасвир саройда меҳмон кутиш тартиби ва дастурхон маданиятини ўрганиш учун аҳамиятлидир [9. 110].

Клавихонинг эсдаликларида элчилар қабул қилинган боғ Дилкушо номи билан тилга олинади. Боғ ҳудудида ипак ва бошқа матолардан тайёрланган кўплаб чодирлар ўрнатилган. Бу хабар қабул маросимлари боғдаги иморатлар билан бирга вақтинчалик қурилмалардан ҳам фойдаланилган ҳолда ташкил этилганини кўрсатади [10. 110].

Кейинги зиёфат ўтказилган боғдаги иморат ҳам Клавихонинг диққатини тортган. У иморатнинг кошинлар билан қопланганини, хоналар қимматбаҳо пардалар ва безатилган жиҳозлар билан жиҳозланганини қайд этади. Мазкур маълумотлар Темур даври боғ-саройларининг ички безаги ва маросимий вазифаларини ўрганишда ёзма манба сифатида хизмат қилади [11.111].

Натижалар. Клавихонинг эсдаликларидаги маълумотлар таҳлили Самарқанд ва унинг атрофидаги боғ-саройларни меъморий тузилиши, сув таъминоти ва маросимий вазифалари ўзаро боғлиқ бўлган тарихий объектлар сифатида ўрганиш имконини берди. Элчилар жойлаштирилган боғда олтита катта ҳовуз, оқар сув ва дарахтли хиёбонларнинг мавжудлиги сув иншоотлари боғнинг маконий ташкил этилишида муҳим ўрин тутганини кўрсатади. Сунъий

тепаликдаги саройнинг сувли хандақ билан ўралиши ва унга кўприклар орқали кирилиши эса сувдан боғ ободончилиги билан бирга саройга киришни тартибга солишда ҳам фойдаланилганини англатади.

Сарой хоналарининг олтин, ложувард ва сирланган кошинлар билан безатилгани ҳақидаги хабарлар уларнинг ички қиёфасини ўрганиш учун ёзма далил бўлиб хизмат қилади. Бироқ мазкур тасвирлар асосида безакларнинг аниқ ўлчами, таркиби ёки жойлашувини тўлиқ тиклаш мумкин эмас. Шунинг учун Клавихо қайдларини меъморий қолдиқлар, археологик материаллар ва бошқа тасвирий манбалар билан қиёслаш объектнинг дастлабки кўриниши ҳақидаги хулосаларни асослашнинг зарур шарти сифатида белгиланди.

Элчиларнинг қабулга бораётган йўлида боғлар, уйлар ва бозорлар учрагани ҳақидаги маълумот Самарқанд атрофидаги ҳудудларнинг ўзлаштирилишига оид муҳим кузатувдир. Бу хабар боғ-саройларни шаҳар ҳаётидан ажратилган ҳолда ўрганиш етарли эмаслигини кўрсатади. Уларнинг тарихий вазифасини аниқлашда турар жойлар, савдо масканлари ва ҳаракат йўналишлари билан муносабатини ҳам ҳисобга олиш лозим. Айни пайтда, сафарномадаги мазкур кузатув шаҳар атрофининг тўлиқ режасини тиклаш учун етарли далил ҳисобланмайди.

Амир Темур қабулига доир хабарлар боғ-саройларнинг дипломатик маросимлар ўтказиладиган макон бўлганини кўрсатди. Ҳукмдорнинг фаввора олдида ўтириши, элчиларнинг таъзим қилиши ва улар билан суҳбатлашиши қабул жараёнида меъморий муҳитдан фойдаланилганини англатади. Кастилия элчиларининг Хитой элчисидан юқори ўринга ўтқазилиши эса маросим иштирокчиларини жойлаштириш сиёсий муносабатларни ифодалаганини кўрсатади. Демак, объектнинг тарихий аҳамиятини баҳолашда унинг қурилиш хусусиятлари билан бирга унда амалга оширилган маросимлар ҳам ўрганилиши керак.

Зиёфатлар, қимматбаҳо идишлар, пардалар ва жиҳозларга оид тасвирлар сарой муҳитининг кўчмас иморат ҳамда кўчма буюмлар уйғунлигидан ташкил топганини очиб беради. Дилкушо боғида ипак ва бошқа матолардан тайёрланган чодирларнинг ўрнатилиши қабул ва зиёфатлар учун вақтинчалик маконлар ҳам яратилганини кўрсатади. Шу боис бугун сақланган меъморий қисмлар ўша даврдаги маросим муҳитининг барча хусусиятларини қамраб олмайди. Клавихонинг хабарлари моддий жиҳатдан сақланмаган айрим унсурларни аниқлашда аҳамиятлидир.

Таҳлил натижасида далилларни баҳолашда муаллифнинг бевосита кузатуви билан ундан келиб чиқарилган тадқиқотчи талқинини ажратиш зарурати белгиланди. Ҳовузлар сони, кўприклар, безаклар ва чодирлар ҳақидаги хабарлар матнда қайд этилган кузатувлардир. Уларнинг муҳофаза, сиёсий намойиш ёки шаҳарсозликдаги ўрни ҳақидаги хулосалар эса қўшимча далиллар билан текширилиши лозим бўлган талқинлар ҳисобланади.

Ушбу натижалар тадқиқот билан муҳофаза ўртасидаги боғлиқликни ҳам кўрсатади. Боғ-сарой меросини сақлашда алоҳида иморат билан бирга сув иншоотлари, кириш йўллари ва атроф муҳитга оид далилларни ҳужжатлаштириш муҳимдир. Клавихо тасвирлари йўқолган қисмларни ўрганишга йўналиш беради, аммо уларнинг ўзи муайян объектни қайта қуриш учун етарли асос бўла олмайди. Тиклаш ечимлари ёзма маълумотларни моддий ва археологик далиллар билан қиёслаш асосида белгиланиши керак.

Хулоса. Ўзбекистондаги Темурийлар даври тарихий ва маданий объектларини тадқиқ қилиш ёдгорликнинг қурилиш тарихи, вазифаси ва кейинги ўзгаришларини биргаликда ўрганишни талаб этади. Манбалар таҳлили объектнинг даврга мансублигини алоҳида қисмлар бўйича текшириш, ёзма хабарни моддий далил билан қиёслаш ва таъмирлаш ҳужжатларини мустақил манба сифатида қўллаш заруратини кўрсатди. Ёдгорликнинг шаҳар муҳити билан муносабати ҳам унинг тарихий талқинига бевосита таъсир қилади.

Рақамли реконструкцияларда тасдиқланган қисмлар билан фаразларнинг ажратилиши илмий натижанинг текширилишига ёрдам беради. Ушбу ёндашув Темурийлар меросини тарихий манба сифатида аниқроқ талқин қилиш ва уни сақлаш бўйича қарорларни далиллар билан асослаш имконини кенгайтиради.

Фойдаланилган манбалар ва адабиётлар

1. UNESCO World Heritage Centre. Samarkand – Crossroad of Cultures. World Heritage List, № 603. URL: https://whc.unesco.org/en/list/603/ (мурожаат санаси: 11.10.2026).

2. UNESCO World Heritage Centre. Historic Centre of Shakhrisyabz. World Heritage List, № 885. URL: https://whc.unesco.org/en/list/885/ (мурожаат санаси: 11.10.2026).

3. UNESCO World Heritage Committee. Decision 40 COM 7B.48: Historic Centre of Shakhrisyabz (Uzbekistan) (C 885). 2016. URL: https://whc.unesco.org/en/decisions/6713/ (мурожаат санаси: 11.10.2026).

4. ICOMOS. International Charter for the Conservation and Restoration of Monuments and Sites (The Venice Charter 1964). Adopted by ICOMOS in 1965.

Мақолада қўлланилган моддалар: 9, 11, 16. URL: https://www.icomos.org/images/DOCUMENTS/Charters/venice_e.pdf (мурожаат санаси: 11.10.2026).
5. Клавихо Руй Гонсалес де. *Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406).* — Москва: Наука, 1990. — С. 106.
6. Клавихо Руй Гонсалес де. *Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406).* — Москва: Наука, 1990. — С. 106.
7. Клавихо Руй Гонсалес де. *Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406).* — Москва: Наука, 1990. — С. 107–108.
8. Клавихо Руй Гонсалес де. *Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406).* — Москва: Наука, 1990. — С. 108–109.
9.Клавихо Руй Гонсалес де. *Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406).* — Москва: Наука, 1990. — С. 109–110
10. Клавихо Руй Гонсалес де. *Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406).* — Москва: Наука, 1990. — С. 109–110.
11. Клавихо Руй Гонсалес де. *Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406).* — Москва: Наука, 1990. — С .111.

TARIXIY GASTRONOMIK MEROSDAN ZAMONAVIY NOMODDIY MADANIY MEROS SIYOSATIGACHA: O‘ZBEKISTONDA UNUTILAYOTGAN TAOMLARNI ANIQLASH, HUJJATLASHTIRISH VA MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI

Turdiyev Madiyor Mamanazarovich
Alfraganus University katta o‘qituvchisi
m_turdiyev@afu.uz ORCID: 0009-0000-9560-3741

Annotatsiya. Maqolada tarixiy manbalarda qayd etilgan gastronomik obyektlarni nomoddiy madaniy meros elementi sifatida identifikatsiya qilish va baholashning metodologik modeli ishlab chiqilgan. Markaziy muammo shundan iboratki, O‘zbekistonning nomoddiy madaniy meros siyosati (1991–2025) doirasidagi inventarizatsiya amaliyoti faol amal qilayotgan va ko‘rinadigan elementlarga yo‘naltirilgan, amaliyotdan chiqqan obyektlarni meros maqomiga o‘tkazishning ilmiy apparati esa shakllanmagan. Natijada “unutilayotgan taom” tushunchasining operatsional ta’rifi, to‘rt pog‘onali mansublik shkalasi, o‘n ikki mezonli matritsa va uning asosidagi ikki o‘qli model - meros qiymati indeksi (MQI) hamda muhofaza ustuvorligi indeksi (MUI) - va o‘n bosqichli algoritm taklif etilgan. Model to‘rtta namunada sinovdan o‘tkazilgan; namunalarning to‘rt xil qaror zonasiga

taqsimlanishi uning tafovutlash qobiliyatini ko‘rsatgan. Normativ hujjatlar tahlili davrlashtirishga tuzatish kiritish imkonini bergan hamda 2024-yilda belgilangan “yo‘qolgan namunalarni qayta tiklash” vazifasi uchun metodologik ta’minot yo‘qligini ko‘rsatgan.

Kalit so‘zlar: nomoddiy madaniy meros, gastronomik meros, unutilayotgan taom, davlat madaniy meros siyosati, inventarizatsiya, manbaviy verifikatsiya, mezonli baholash, muhofaza ustuvorligi, tarixiy manbashunoslik.

KIRISH

Nomoddiy madaniy meros zamonaviy talqinda moddiy natijaga emas, bilim, ko‘nikma, amaliyot va ularni uzatish mexanizmiga qaratilgan tushunchadir [18]. 2003-yilgi konvensiya nomoddiy merosning namoyon bo‘lish sohalarini belgilar ekan, oziq-ovqat madaniyatini mustaqil soha sifatida ajratmaydi: gastronomik meros hujjatga faqat ijtimoiy amaliyotlar, marosim va bayramlar hamda tabiat va olamga oid bilimlar sohalari orqali bilvosita kiradi [3]. Ushbu strukturaviy xususiyat gastronomik merosning institutsional “ko‘rinmasligi”ning birinchi sababi bo‘lib, u milliy inventarizatsiya amaliyotiga ham ko‘chgan.

Tarixiy taom — retsept emas. U tayyorlash texnologiyasi, mahsulotni tanlash va saqlash bilimi, mavsumiylikka moslashgan xo‘jalik tajribasi, mehnat taqsimoti, marosim tartibi, ijtimoiy xotira va hududiy o‘zlik belgilarini bir vaqtda jamlaydi; obyektni retseptga qisqartirish esa muhofaza predmetini yo‘qotadi [19;22]. Globallashuv, urbanizatsiya va oziq-ovqat sanoatining standartlashuvi natijasida ayrim obyektlar faol amaliyotdan chiqmoqda. Biroq bu jarayonni tavsiflovchi “unutilgan taom” iborasi ilmiy termin sifatida avtomatik qabul qilinmaydi: obyekt manbada qayd etilgan bo‘lsa-da hech qachon keng amalda bo‘lmagan, nomi o‘zgargan holda yashab kelayotgan, boshqa taom tarkibiga singib ketgan yoki faqat ayrim hududda saqlangan bo‘lishi mumkin. Shu bois maqolada quyidagi tushunchalar farqlanadi: tarixiy gastronomik obyekt (manbaviy, neytral kategoriya); tirik gastronomik meros (muntazam amal qiluvchi va uzatilayotgan obyekt); zaiflashayotgan meros (tashuvchilar doirasi torayayotgan obyekt); unutilayotgan taom (amaliyotdan chiqqan, biroq jonli xotira tashuvchilari saqlangan obyekt); yo‘qolgan taom (faqat manba qaydi saqlangan obyekt); qayta tiklangan meros (manba va xotira asosida amaliyotga qaytarilgan obyekt).

Madaniy merosni asrab-avaylash O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqaroning burchi, meros esa davlat muhofazasidagi qadriyat sifatida mustahkamlangan [1]; milliy taraqqiyot strategiyasida madaniy meros Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishning tarkibiy qismi sifatida qaraladi [2]. O‘zbekiston 2003-yilgi konvensiyani 2008-yilda ratifikatsiya qilgan [4]. Bugungi kunda mamlakatning UNESCO ro‘yxatlaridagi elementlari orasida bevosita

gastronomik xarakterdagi element bitta - palov madaniyati va an’analari (2016-yil, № 01166) mavjud [25;27]. Milliy darajada esa Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-fevraldagi 47-son qarori bilan ro‘yxatlar tizimi, jumladan zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo‘lgan namunalar ro‘yxati va tarixiy-madaniy ekspertiza mexanizmi joriy etilgan [7]. Ziddiyat aynan shu nuqtada: mexanizm mavjud, biroq gastronomik segmentda undan foydalanish uchun zarur ilmiy mezonlar tizimi ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot savollari. (1) Tarixiy gastronomik obyektning meros elementi sifatidagi maqomi qanday shartlar majmuasi bajarilganda tan olinishi mumkin? (2) Manbalardagi gastronomik qaydlarning tashqi kuzatuvchi pozitsiyasi bilan bog‘liq cheklovlari qanday verifikatsiya protsedurasini taqozo etadi? (3) Yo‘nalishi qarama-qarshi mezonlarni bitta baholash tizimida birlashtirish qanday shartlarda asosli bo‘ladi? (4) 1991–2025-yillardagi siyosat bosqichlarida gastronomik meros qanday o‘rin egallagan va model amaldagi inventarizatsiya mexanizmiga qaysi nuqtalarda ulanadi?

Gipoteza. Tarixiy gastronomik obyektning meros maqomi manbadagi qayd bilan berilgan birlamchi xususiyat emas, balki ko‘p manbali muhitga bog‘lab o‘rganish va jonlilik holatini baholash natijasida aniqlanadigan hosila xususiyatdir. Agar identifikatsiyalashtirish tartib-taomil tariqasida amaliy-o‘lchovli mezonlarga keltirilsa, e’tibordan chetda qolayotgan masalalarni shaxsiy yondashuvlarga emas, balki ushbu tartib-taomil natijasiga tayanadigan siyosat predmetiga aylantirish imkoni paydo bo‘ladi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Tadqiqot tarixiylik va xolislik tamoyillariga tayanadi. Manbashunoslik va tekstologik tahlil gastronomik qaydning asl matndagi holatini hamda keyingi tahrirlar ta’sirini aniqlash uchun; tarixiy-qiyosiy va komparativ metodlar bir obyektning turli manbalardagi tavsiflarini solishtirish uchun; tarixiy-antropologik yondashuv va etnologik metod obyektning ijtimoiy funksiyasini tiklash uchun [22]; kontent-tahlil normativ hujjatlar korpusini o‘rganish uchun; “case study” modelni sinovdan o‘tkazish uchun; ko‘p manbali solishtirish jarayoni esa yozma manba, og‘zaki xotira va etnografik material o‘rtasidagi nomuvofiqlikni ochish uchun qo‘llanildi.

Manba korpusi besh tipga ajratildi: leksikografik manbalar; geografik-tavsifiy asarlar; sayohatnoma va elchilik kundaliklari; mahalliy tarixiy-avtobiografik asarlar; XIX–XX asr boshlaridagi sharqshunoslik kuzatuvlari [11;16]. Har bir tip uchun ishonchlilik kuzatuvning bevositaligi, voqea bilan matnni yakunlash orasidagi vaqt oralig‘i va muallifning madaniy kompetensiyasi ya’ni turli madaniyat, millat va

e’tiqod vakillari bilan samarali, o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot qila olish hamda birga ishlay olish ko‘nikmasi bo‘yicha baholandi. Tanlanma olti bosqichda shakllantirildi: obyektlarni ajratish; takroriy va tasdiqlanmagan ma’lumotlarni chiqarish; hududiy-xronologik verifikatsiya; bugungi mavjudlikni aniqlash; ball berish; qaror zonasiga taqsimlash.

Baholash shkalasi sifatida 0–10 emas, 0–5 shkalasi tanlandi. Ekspert bahosiga tayanadigan sifat ma’lumotlarida darajalar sonining ortishi ekspertlararo kelishuv ko‘rsatkichini pasaytiradi va o‘lchov aniqligini oshirmasdan soxta aniqlik taassurotini yaratadi; 0–5 shkalasi esa har bir darajaga og‘zaki deskriptor biriktirish va shu orqali baholashning takrorlanuvchanligini ta’minlash imkonini beradi.

Mezonlar yagona yig‘indiga keltirilmadi. Tarixiylik yoki identitet mezonlarida yuqori ball obyektning qadr-qimmatini, jonlilikning pasayishi mezonida yuqori ball esa uning yo‘qolish darajasini bildiradi. Ushbu yo‘nalish ziddiyati sababli mezonlar ikki mustaqil indeksga ajratildi: meros qiymati indeksi (MQI, 1–8-mezonlar, maksimal 40 ball) va muhofaza ustuvorligi indeksi (MUI, 9–12-mezonlar, maksimal 20 ball). Tadqiqot to‘liq inventar yaratmaydi, tayyorlash texnologiyasini faqat autentiklik indikatori darajasida yoritadi va obyektning etnik mansubligini hal qilmaydi - uning o‘rniga mansublik darajasini belgilaydi.

3. NATIJALAR

3.1. Manba korpusi va mansublik pog‘onalari. Manbada qayd etilish obyektni milliy meros deb e’lon qilish uchun yetarli asos emas. Shu sababli to‘rt pog‘onali shkala ishlab chiqildi: I - manbada qayd etilgan (faqat matn dalili); II - Markaziy Osiyo madaniy arealiga xos (mintaqaviy tarqalish tasdiqlangan); III - o‘zbek gastronomik merosi bilan bog‘lash mumkin (mahalliy davomiylik izlari mavjud); IV - bevosita o‘zbek meros elementi sifatida identifikatsiya qilinishi mumkin (uzluksiz amaliyot va jamoa tan olishi tasdiqlangan). 1-jadvalda korpusning tipologik kesimi berilgan.

1-jadval. Tarixiy manbalarda qayd etilgan gastronomik obyektlar (tipologik kesim)

Muallif va asar	Davr	Hudud	Gastronomik qayd	Pog‘ona	Bugungi holati	Ishonchlilik
Sima Tsyan, “Shiszi” (Chjan Szyan ma’lumotlari) [11]	m. av. II–I asr	Dayuan-Davan (Farg‘ona)	Uzumdan ichimlik tayyorlash va uni uzoq saqlash amaliyoti	I–II	Texnologiya uzilgan	O‘rta–yuqori
Al-Muqaddasiy,	X asr	Movarounnahr, Xuroson	Hududiy oziq-ovqat va eksport	II	Qisman saqlangan	Yuqori

Muallif va asar	Davr	Hudud	Gastronomik qayd	Pog‘ona	Bugungi holati	Ishonchlilik
“Ahsan at-taqosim” [12]			nomenklaturasi			
Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘otit turk” [13]	XI asr	Turkiy tillar tarqalgan doira-turkiy areal, Movarounnahr	Tutmoch — xamir asosidagi suyuq taom; leksik qayd	III	Nomi saqlangan, oraliq amaliyot-amaliy marginal	Yuqori
R. G. de Klavixo, elchilik kundaligi [14]	XV asr boshi	Samarqand	Saroy ziyofati marosimi; ot go‘shti, biya suti ichimligi	II	Keskin qisqargan	Yuqori
Z. M. Bobur, “Boburnoma” [15]	XVI asr	Farg‘ona, Movarounnahr	Meva-sabzavot nomenklaturasi, mahalliy navlar	IV	Asosan saqlangan	Yuqori
A. Vamberi, sayohatnoma [16]	XIX asr	Xiva, Buxoro, Samarqand	Kundalik ovqatlanish, don asosidagi ichimlik	II–III	Amaliyotdan chiqqan	O‘rta


3.2. Baholash matritsasi. Obyektni baholash uchun o‘n ikki mezondan iborat matritsa ishlab chiqildi (2-jadval). Uning asosiy xususiyati — ikki blokka bo‘linishi va to‘qqizinchi mezonning teskari shkalada o‘lchanishi [23]. Shu tarzda “qimmatli” va “xavf ostida” xarakteristikalari bir-birini so‘ndirmaydi.

2-jadval. Tarixiy gastronomik obyektni identifikatsiya qilish va baholash mezonlari

№	Mezon	Asosiy indikator	Ball	Verifikatsiya (tasdiq) manbasi
MQI bloki — meros qiymati indeksi (maksimal 40 ball)				
1	Tarixiylik	Obyektning yozma manbada qayd etilgani va qaydning eng erta sanasi	0–5	Birlamchi tarixiy manba
2	Manbaviy tasdiqlanganlik	Mustaqil manbalar soni va ularning tipologik xilma-xilligi	0–5	Manbashunoslik va tekstologik tahlil
3	Hududiy lokalizatsiya	Muayyan voha, viloyat yoki etnomadaniy makon bilan bog‘lanishi	0–5	Manba qaydi va etnografik material
4	Texnologik autentiklik	O‘ziga xos ingredient, texnologik rejim yoki asbob-uskunaning mavjudligi	0–5	Qiyosiy-texnologik tahlil
5	Nomoddiy bilim	Formallashmagan, ustoz-shogird yo‘li	0–5	Dala tadqiqoti, intervyu


№	Mezon	Asosiy indikator	Ball	Verifikatsiya (tasdiq) manbasi
	komponenti	bilan o‘zlashtiriladigan ko‘nikma ulushi		
6	Avlodlararo uzatilish	Bilim va ko‘nikmaning kamida uch avlod davomida uzatilgani	0–5	Og‘zaki tarix materiallari
7	Ijtimoiy-marosimiy funksiya	Marosim, bayram, mehmondo‘stlik yoki jamoaviy amaliyotdagi belgilangan o‘rni	0–5	Etnologik kuzatuv va manba
8	Identitet bilan bog‘liqlik	Mahalliy yoki milliy o‘zlikni ifodalashdagi ahamiyati	0–5	Etnologik va sotsiologik ma’lumot
MUI bloki — muhofaza ustuvorligi indeksi (maksimal 20 ball)				
9	Jonlilikning pasayishi (teskari shkala)	Faol → zaiflashgan → marginal → faqat nom saqlangan → amaliyotdan chiqqan	0–5	Dala kuzatuvi, umumiy ovqatlanish ma’lumotlari
10	Yo‘qolish xavfi	Tashuvchilar sonining qisqarish sur’ati va hududiy torayish dinamikasi	0–5	Monitoring va jamoa so‘rovlari
11	Qayta tiklash imkoniyati	Manba va jonli xotira bazasining asoslangan rekonstruksiya uchun yetarliligi	0–5	Manba korpusi va og‘zaki tarix
12	Muhofaza salohiyati	Jamoa qiziqishi va amaldagi institutsional-huquqiy mexanizmning mavjudligi	0–5	Normativ hujjatlar, jamoa bilan ishlash

3.3. Qaror zonalari va modelning aprobatsiyasi. Ikki indeks kesishuvi to‘rtta qaror zonasini hosil qiladi va bu zonalar amaldagi milliy ro‘yxatlar tizimiga bevosita mos keladi (1-rasm). Palov kalibratsiya namunasi sifatida olindi: yuqori MQI (37) va past MUI (6) uni IV zonaga joylashtiradi, bu esa elementning reprezentativ ro‘yxatdagi haqiqiy maqomiga muvofiq keladi va modelning amaliyotda qo‘llanishga yaroqliligini (asosliligini) tasdiqlaydi [25]. Qimiz ko‘p manbali tasdiqqa ega (MQI 31), biroq bugungi amaliyoti asosan cho‘l va sug‘orma dehqonchilik chegarasidagi hududlarda saqlangani MUI ni yuqori qiladi (15) - I zona. Tutmoch XI asr manbasida ishonchli qayd etilgan [13], ammo hududiy lokalizatsiyasi noaniq va marosimiy funksiyasi hujjatlashtirilmagan (MQI 18), yo‘qolish xavfi esa yuqori (MUI 16) - II zona, ya’ni qo‘shimcha manbaviy tadqiqot talab etiladi. Bo‘za amaliyotdan chiqqan va uning yo‘qolishi madaniy emas, ko‘proq normativ-ijtimoiy omillar bilan bog‘liq (MQI 16, MUI 8) - III zona. Namunalarning to‘rt xil zonaga taqsimlanishi modelning tafovutlash qobiliyatini ko‘rsatadi: u har bir obyekt uchun boshqacha boshqaruv qarorini beradi.



1-rasm. Meros qiymati va muhofaza ustuvorligi indekslari asosidagi qaror modeli

3.4. Identifikatsiya algoritmi. Matritsa mustaqil vosita sifatida ishlamaydi - u ketma-ket bosqichlardan iborat algoritmning yettinchi qadamini tashkil etadi (2-rasm). Algoritmning ikki muhim xususiyati bor: uchinchi bosqichda verifikatsiyadan o‘tmagan obyekt yo‘q qilinmaydi, balki ilmiy arxivga o‘tkaziladi va yangi manba topilganda qayta ko‘rib chiqiladi; oxirgi bosqichda esa monitoring natijalari baholashga qaytariladi, ya’ni model statik emas, davriy qayta baholanadigan tizimdir.



2-rasm. Tarixiy gastronomik merosni identifikatsiya qilish va muhofazaga integratsiya algoritmi

3.5. Davrlashtirishning tuzatilgan varianti. Normativ hujjatlar korpusining kontent-tahlili dastlab taxmin qilingan davrlashtirishga ikki nuqtada tuzatish kiritish zarurligini ko‘rsatdi. Birinchidan, chegara 2010-yil emas, 2008-yil: konvensiya ratifikatsiyasi milliy siyosatning yuridik mantig‘ini o‘zgartirgan hodisadir [4]. Ikkinchidan, 2022-yil emas, 2024-yil hal qiluvchi chegara bo‘lib chiqadi, chunki aynan o‘shanda ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilgan va yo‘qolgan

namunalarni qayta tiklash vazifasi birinchi marta normativ hujjatda belgilangan [9] (3-jadval).

3-jadval. 1991–2025-yillardagi davlat siyosati bosqichlari va gastronomik segmentning holati

Bosqich	Chegara	Hal qiluvchi hujjat yoki voqea	Gastronomik segmentning holati
I. Milliy qayta anglash	1991–2001	Ixtisoslashgan nomoddiy meros vositasi yo‘q; Boysun madaniy makonining e’tirof etilishi (2001) [26] asosan tashqi tashabbus	Siyosat obyekti sifatida mavjud emas
II. Umumiy meros huquqining shakllanishi	2002–2007	VM ning 2002-yil 29-iyuldagi 269-son qarori [6]: meros umumiy tartibga solinadi, nomoddiy segment ajratilmaydi	Bilvosita, marosim tarkibiy qismi sifatida
III. Konvensiyaviy integratsiya	2008–2016	Konvensiya ratifikatsiyasi (2008) [4]; VM ning 2011-yil 23-fevraldagi 47-son qarori [7] - ro‘yxatlar tizimi va ekspertiza mexanizmi; palov (2016) [25]	Bitta element orqali xalqaro vakillik; xavf ostidagi obyektlar aniqlanmagan
IV. Kengayish va ko‘rinuvchanlik	2017–2023	Xalqaro ro‘yxatlarda ishtirokning kengayishi; PQ-4068 (2018) [5] va VM ning 846-son qarori (2019) [8] asosida moddiy meros milliy inventari	Asimmetriya: moddiy meros inventarizatsiya qilinadi, gastronomik segment inventardan tashqarida
V. Institutsional-raqamli bosqich	2024–2025	VM ning 2024-yil 29-iyundagi 368-son qarori [9] - ilmiy-tadqiqot instituti va “yo‘qolgan namunalarni qayta tiklash” vazifasi; 256-son qarori (2025) [10] - raqamli reglament	Huquqiy vazifa qo‘yilgan, uni bajarish uchun metodologik ta’minot yo‘q

MUHOKAMA

Yozma manba va og‘zaki xotira o‘rtasidagi farq metodologik jihatdan hal qiluvchidir. Tashqi kuzatuvchi odatda o‘zi uchun notanish holatni qayd etadi va kundalik amaliyotni tavsiflamaydi; natijada korpusda saroy ziyofatlari va mehmondo‘stlik marosimlari ortiqcha, kundalik oziqlanish esa kam ifodalangan. Og‘zaki xotira teskari xususiyatga ega: kundalikni yaxshi saqlaydi, biroq xronologik chuqurligi uch-to‘rt avloddan oshmaydi. Shu bois ikkala manba turi bir-birini almashtirmaydi, balki triangulyatsiya qilinishi lozim.

Autentiklikni o‘zgarmaslik sifatida emas, texnologik uzluksizlik sifatida tushunish maqsadga muvofiq: obyekt o‘zgargan bo‘lishi mumkin, muhimi - o‘zgarish

uzatilish zanjiri ichida yuz berganmi yoki zanjir uzilgandan keyin tashqaridan kiritilganmi. Aynan shu mezon asoslangan rekonstruksiyani gastronomik ixtirodan ajratadi. Manba va jonli xotiraga tayanmagan, biroq “tiklangan tarixiy taom” sifatida taqdim etilayotgan mahsulot - o‘ylab topilgan an’ana [17;20] bo‘lib, u merosni himoya qilmaydi, aksincha, meros maydonining ishonchliligini pasaytiradi. Muzeylashtirish xavfi ham shu bilan bog‘liq: nomoddiy meros tirik amaliyot bo‘lgani uchun uni eksponatga aylantirish muhofaza emas, konservatsiyadir. Turizm uchun soddalashtirilgan variant vaqt o‘tishi bilan mahalliy variantlarni siqib chiqarishi mumkin - tijoratlashuv qisqa muddatda ko‘rinuvchanlikni oshirib, uzoq muddatda xilma-xillikni kamaytiradi [21]. Shu sababli modelda qayta tiklash bosqichi hujjatlashtirish va avlodlararo uzatish dasturi bilan majburiy bog‘langan.

Xalqaro ro‘yxatga kiritish va milliy hujjatlashtirishni farqlash zarur: Reprezentativ ro‘yxat vakillik va ko‘rinuvchanlik vazifasini, muhofaza vazifasini esa asosan milliy inventar va zudlik bilan muhofaza mexanizmi bajaradi - amalda esa siyosiy e’tibor birinchisiga qaratiladi [3;18]. Bu tadqiqotning davlat siyosatiga oid asosiy xulosasiga olib keladi: 1991–2025-yillarda shakllangan tizim obyektni tanlashda vakillik va ko‘rinuvchanlik tamoyillariga tayangani sababli xavf ostidagi va amaliyotdan chiqqan elementlar tasodifan emas, tizimli tarzda inventarizatsiya doirasidan tashqarida qolgan. Gastronomik segment bu qonuniyatning eng aniq indikatoridir: 3-jadvalda ko‘rsatilganidek, moddiy meros bo‘yicha keng ko‘lamli milliy inventar tuzilgan bir davrda gastronomik meros bo‘yicha tizimli ro‘yxat shakllantirilmagan.

Ushbu asimmetriya merosshunoslikdagi vakolatli meros diskursi tushunchasi doirasida izohlanadi [24]: institutlar tan oladigan meros shakllari doirasi tor bo‘lib, tan olinmagan amaliyotlar meros maydonidan tashqarida qoladi. Muhim jihat shundaki, O‘zbekiston sharoitida bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun yangi huquqiy institut yaratish shart emas. 2011-yilgi 47-son qarori bilan joriy etilgan mexanizm allaqachon zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo‘lgan namunalar ro‘yxatini nazarda tutadi [7], 2024-yilgi 368-son qarori esa yo‘qolgan namunalarni qayta tiklash vazifasini bevosita belgilaydi [9]. Yetishmayotgani - institut emas, metodologiya. Taklif etilayotgan model qaror zonalarini amaldagi ro‘yxatlar tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tkazish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot meros maqomining hosila xususiyat ekanligi haqidagi gipotezani tasdiqladi: manbadagi qayd - identifikatsiyaning boshlanish nuqtasi, yakuni emas. Ishlab chiqilgan apparat to‘rt elementdan iborat: tushunchalarning operatsional

ta’riflari, to‘rt pog‘onali mansublik shkalasi, ikki indeksli o‘n ikki mezonli matritsa va o‘n bosqichli algoritm. Aprobatsiya modelning tafovutlash qobiliyatini, kalibratsiya namunasi esa tashqi validlikni tasdiqladi. Davrlashtirish tahlili 2008 va 2024-yillarni hal qiluvchi chegaralar sifatida aniqladi hamda gastronomik segmentda huquqiy vazifa bilan metodologik ta’minot o‘rtasidagi uzilishni ochib berdi. Shundan kelib chiqib quyidagi ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi:

1) gastronomik merosni alohida hisobga olish yo‘nalishi sifatida ajratish va “O‘zbek gastronomik nomoddiy merosi inventari”ni tashkil etish - bu 47-son qarori bilan joriy etilgan ro‘yxatlar tizimidagi soha bo‘shlig‘ini to‘ldiradi [7];

2) tarixiy taomlarni hujjatlashtirishning yagona protokolini tasdiqlash: majburiy maydonlar sifatida manba, mansublik pog‘onasi, MQI va MUI ko‘rsatkichlari hamda qaror zonasi belgilansin;

3) raqamli gastronomik meros reyestrini 2025-yilgi 256-son qarori bilan joriy etilgan raqamli ma’muriy reglament infratuzilmasiga integratsiya qilish [10];

4) hududiy gastronomik xaritani tuzish - bu obyektlarning hududiy torayish dinamikasini o‘lchash va MUI hisobiga empirik asos yaratish imkonini beradi;

5) og‘zaki tarix ekspeditsiyalarini birinchi navbatda II zonaga tushgan obyektlar bo‘yicha tashkil etish, chunki aynan ularda jonli xotira tashuvchilari tugash arafasida;

6) bilim tashuvchilar - mahalliy oshpazlar va oilaviy an’ana saqlovchilari reyestrini yuritish hamda ularni ekspertiza kengashi ishiga jalb qilish;

7) xavf ostidagi obyektlar monitoringini uch-besh yillik sikl asosida yo‘lga qo‘yish va natijalarni qayta baholashga qaytarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan. 53- va 61-moddalar. — Toshkent, 2023. (Maqolada: Kirish)

2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. — 464 b.

3. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiya (Parij, 2003-yil 17-oktabr). Parij: UNESCO, 2003.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani (Parij, 2003-yil 17-oktabr) ratifikatsiya qilish haqida” 2007-yil 12-dekabrdagi O‘RQ-122-son Qonuni. www.lex.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son qarori. www.lex.uz

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2002-yil 29-iyuldagi 269-son qarori. www.lex.uz

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2011-yil 23-fevraldagi 47-son qarori. www.lex.uz

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 4-oktabrdagi 846-son Qarori. www.lex.uz

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 29-iyundagi 368-son Qarori. www.lex.uz

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nomoddiy madaniy meros namunalarini ro‘yxatga kiritish yoki undan chiqarish bilan bog‘liq davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 24-apreldagi 256-son qarori. www.lex.uz

11. Сыма Цянь. Исторические записки (Ши цзи). Т. 9 / пер. Р. В. Вяткина, А. Р. Вяткина, А. М. Карапетьянца, М. Ю. Ульянова. - М.: Восточная литература, 2010. - 623 с.

12. Al-Muqaddasi. (1994). The best divisions for knowledge of the regions (B. Collins, Trans.). Reading: Garnet Publishing.

13. Koshg‘ariy, M. (1960–1963). Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘otit turk) (S. Mutallibov, Tarj., 1–3-jildlar). Toshkent: O‘zSSR FA nashriyoti.

14. Klavixo, R. G. de. (1990). Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura (1403–1406). Moskva: Nauka.

15. Bobur, Z. M. (1989). Boburnoma. Toshkent: Yulduzcha.

16. Vambery, A. (1864). Travels in Central Asia. London: John Murray.

17. Appadurai, A. (1988). How to make a national cuisine: Cookbooks in contemporary India. Comparative Studies in Society and History, 30(1), 3–24.

18. Bortolotto, C. (2007). From objects to processes: UNESCO’s “Intangible cultural heritage”. Journal of Museum Ethnography, 19, 21–33.

19. Brulotte, R. L., & Di Giovine, M. A. (Eds.). (2014). Edible identities: Food as cultural heritage. Farnham: Ashgate.

20. Hobsbawm, E., & Ranger, T. (Eds.). (1983). The invention of tradition. Cambridge: Cambridge University Press.

21. Kirshenblatt-Gimblett, B. (1998). Destination culture: Tourism, museums, and heritage. Berkeley: University of California Press.

22. Mintz, S. W., & Du Bois, C. M. (2002). The anthropology of food and eating. Annual Review of Anthropology, 31, 99–119.

23. Moseley, C. (Ed.). (2010). Atlas of the world’s languages in danger (3rd ed.). Paris: UNESCO Publishing.

24. Smith, L. (2006). Uses of heritage. London: Routledge.

25. UNESCO ICH. Palov culture and tradition (Representative List, 2016, № 01166). https://ich.unesco.org/en/RL/palov-culture-and-tradition-01166

26. UNESCO ICH. Cultural space of Boysun District (Representative List, 2008; 2001-yilda “Shoh asar” deb e’lon qilingan, № 00019). https://ich.unesco.org/en/RL/cultural-space-of-boysun-district-00019

27. UNESCO ICH. Uzbekistan: elements on the Lists of Intangible Cultural Heritage. https://ich.unesco.org/en/state/uzbekistan-UZ

28. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz

ZARAFSHON VA SIRDARYO ORALIG‘I (SUG‘D–USTRUSHONA) HARBIY MADANIYATINING SHAKLLANISHI: YOZMA VA ARXEOLOGIK MANBALARNING QIYOSIY TAHLILI (MILODDAN AVVALGI I MING YILLIK – MILODIY VIII ASR)

Xaliyeva Shahnoza Aliyevna
Mustaqil izlanuvchi, Jizzax shahar
1-umumta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Zarafshon va Sirdaryo oralig‘ida harbiy madaniyatning shakllanishi Avesto, antik tarixchilar ma’lumotlari va arxeologik topilmalar asosida o‘rganiladi. Sug‘d va Ustrushonadagi qurol-yarog‘, mudofaa inshootlari hamda jangovar an’analarning tarixiy xususiyatlari manbashunoslik yondashuvi orqali qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Avesto, Sug‘d, Ustrushona, Zarafshon, Sirdaryo, harbiy madaniyat, arxeologiya, qurol-yarog‘, mudofaa, yasht, manbashunoslik, jangovar an’analar, qal’a, tarixiy meros.

Zarafshon va Sirdaryo oralig‘i qadimdan Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-madaniy hududlaridan biri hisoblangan. Mazkur mintaqada o‘troq dehqonchilik vohalari va chorvador jamoalarning o‘zaro aloqalari, xo‘jalik munosabatlari hamda hududiy xavfsizlik ehtiyojlari ta’sirida harbiy madaniyatning o‘ziga xos shakllari vujudga kelgan.

Tarixiy Sug‘d va Ustrushona hududlaridan aniqlangan mudofaa inshootlari, qurol-yarog‘ topilmalari va yozma ma’lumotlar ushbu jarayonni o‘rganish uchun muhim manbaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Miloddan avvalgi I ming yillikdan milodiy VIII asrgacha bo‘lgan davrda mintaqa harbiy madaniyatining shakllanish xususiyatlarini aniqlash yozma va arxeologik manbalarni o‘zaro qiyoslashni talab etadi. Chunki qadimgi yozma manbalar harbiy hayotning ayrim jihatlarini yoritgan bo‘lsa, moddiy madaniyat yodgorliklari qurol-yarog‘, mudofaa tizimi va jangovar an’analarning amaliy ko‘rinishlarini o‘rganish imkonini beradi. Avesto diniy-marosimiy mazmunga ega bo‘lib, unda qadimgi xalqlarning harbiy tasavvurlari aks etgan. Antik mualliflar asarlari esa harbiy yurishlar, mustahkamlangan manzilgohlar va jangovar harakatlar haqida ma’lumot beradi [Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida, 2008]. Avestoning Mihr-yasht, Bahrom-yasht va boshqa madhiyalarida jangovar qurollar, harbiy aravalar, qo‘shin safi, g‘alaba va jangchilarni himoya qilish bilan bog‘liq tasavvurlar uchraydi. Biroq mazkur matnlar turli tarixiy davrlarda shakllanganligi sababli ulardagi ma’lumotlarni muayyan hudud yoki davr bilan bevosita bog‘lash har doim ham mumkin emas. Ayniqsa, diniy-poetik tasvirlar bilan tarixiy mazmunga ega ma’lumotlarni farqlash muhimdir. Mihr-yashtda Mitraning jangovar aravasida ko‘plab o‘q, nayza, bolta va gurzilar mavjudligi tasvirlangan [Авеста, 1992, Mihr-yasht, 125–129-bandlar]. Ushbu miqdoriy ko‘rsatkichlar diniy-poetik mubolag‘a xususiyatiga ega. Biroq sanab o‘tilgan qurol turlari qadimgi harbiy madaniyatga xos buyumlar haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi. Shu bois Avestodagi harbiy ma’lumotlarni baholashda qurol turlarining qayd etilishi bilan ularning mifologik talqinini farqlash zarur. Sug‘d toponimining Avestoda uchrashi mintaqaning qadimgi tarixiy geografiyasini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Jumladan, Mihr-yashtda Sug‘d harbiy mazmundagi tasvirlar bilan bog‘liq holda tilga olinadi. Videvdatda esa Sug‘d diniy-geografik tasavvurlar tizimining tarkibiy qismi sifatida qayd etiladi. Ushbu ma’lumotlar bir hududning turli mazmundagi matnlarda aks etganini ko‘rsatadi. Biroq ularning shakllanish davri va matndagi vazifasi bir xil

emasligi sababli mazkur qaydlarni yagona tarixiy voqelikning bevosita tasviri sifatida qabul qilish mumkin emas. Ustrushona toponimi Avestoda uchramaydi. Uning tarixiy-geografik tavsifi keyingi davr yozma manbalarida, jumladan, Hudud ul-olam asarida qayd etilgan [Hudud ul-olam, 2008]. Mazkur asar o‘rta asrlar tarixiy geografiyasiga oid bo‘lgani sababli undan miloddan avvalgi davr harbiy voqealarini bevosita tiklash uchun foydalanish ilmiy jihatdan asosli emas. Ustrushona harbiy madaniyatining qadimgi bosqichlarini o‘rganishda arxeologik topilmalar alohida ahamiyat kasb etadi. Avesto yashtlarida yoy va o‘q, nayza, bolta, pichoq, gurzi, palaxmon hamda tig‘li qurollarning qayd etilishi qadimgi harbiy anjomlar tarkibi haqida tasavvur beradi. Himoya vositalari sifatida sovut, qalqon va dubulg‘a ham tilga olinadi. Bunday qurollar va himoya anjomlarining qadimgi ko‘chmanchi jamoalar harbiy madaniyatidagi o‘rni B.A. Litvinskiy tadqiqotlarida ham ko‘rib chiqilgan [Литвинский, 1972]. Biroq ushbu tadqiqotdagi umumiy mintaqaviy ma’lumotlarni Sug‘d yoki Ustrushonaga oid bevosita arxeologik dalil sifatida talqin qilish mumkin emas.

Yozma manbalardagi mazkur ma’lumotlar Ustrushona hududidan topilgan arxeologik materiallar bilan qiyoslanganda muhim natijalar kuzatiladi. F.E. Toshboyevning Ustrushona xalqlari harbiy qurollariga bag‘ishlangan tadqiqotida Sag‘anoq, G‘ulbo va Shirinsoy mozorqo‘rg‘onlaridan aniqlangan qurol-yarog‘lar ko‘rib chiqilgan. Ular orasida qilich, xanjar va kamon o‘qlarining temir uchlari mavjud [Toshboyev, 2013, 66–73-b.]. Mazkur topilmalar mintaqada temir qurollardan foydalanilganini ko‘rsatadi. Ushbu arxeologik materiallarning ahamiyati, avvalo, ularning aniq yodgorliklardan topilganligi va moddiy buyumlar sifatida o‘rganilishi bilan belgilanadi. Avestoda qayd etilgan qurol turlari bilan Ustrushona topilmalari o‘rtasida umumiy tipologik o‘xshashlik mavjud bo‘lishi mumkin. Biroq bu o‘xshashlik ularning aynan bir davrga mansubligini yoki bir xil jangovar vazifani bajarganini isbotlamaydi. Chunki diniy matnlarning shakllanish geografiyasi va xronologiyasi arxeologik majmualarning davrlashtirilishi bilan to‘liq mos kelmaydi. Harbiy madaniyatning yana bir muhim jihati jangovar aravalardan foydalanish haqidagi tasavvurlar bilan bog‘liq. Mihr-yashtda to‘rt ot qo‘shilgan jangovar arava tasvirlanadi [Авеста, 1992, Mihr-yasht, 125-band]. Ushbu ma’lumot qadimgi eroniy diniy-madaniy muhitda jangovar arava obrazining mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq Sug‘d va Ustrushona hududlarida aynan shu turdagi aravalar keng qo‘llanganini tasdiqlash uchun mahalliy arxeologik yoki tasviriy dalillar zarur. Sug‘d va Ustrushona harbiy madaniyatining moddiy asoslarini o‘rganishda mudofaa me’morchiligi yodgorliklari alohida o‘rin tutadi. Antik mualliflarning Markaziy Osiyodagi harbiy

yurishlarga oid xabarlarida mustahkamlangan aholi manzilgohlari, ularning mudofaa devorlari va darvozalari haqida ma’lumotlar uchraydi. Xususan, Arrian asarida Sug‘d hududidagi harbiy harakatlar va mustahkamlangan manzilgohlar tasvirlangan [Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida, 2008]. Bunday ma’lumotlar mintaqada mudofaa inshootlari harbiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lganini ko‘rsatadi. Ustrushonadagi arxeologik tadqiqotlar mudofaa me’morchiligining rivojlanishini yanada aniqroq kuzatish imkonini beradi. B.B. Tuychiboyevning Ustrushona qadimgi va ilk o‘rta asrlar tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotida Nurtepa yodgorligi va mintaqaning mudofaa tizimi masalalari yoritilgan [Туйчибаев, 2004]. Nurtepa kabi yodgorliklarni o‘rganish mudofaa inshootlarining shakllanishi aholi manzilgohlari taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq kechganini ko‘rsatadi. Mazkur jarayonni faqat tashqi harbiy xavf bilan izohlash yetarli emas. Mustahkamlangan manzilgohlar aholining yashash joylari, xo‘jalik resurslari va mahalliy boshqaruv markazlarini himoya qilish vazifasini ham bajargan. Shu jihatdan mudofaa me’morchiligi harbiy madaniyatning moddiy ko‘rinishi bo‘lishi bilan birga, mintaqaning ijtimoiy va siyosiy taraqqiyoti bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni ham aks ettiradi. Qadimgi harbiy madaniyatning tashkiliy jihatlari Avesto madhiyalarida nisbatan cheklangan holda aks etgan. Ularda jangchilar, jangovar harakatlar va g‘alaba bilan bog‘liq tasvirlar mavjud. Biroq bu ma’lumotlar asosida Sug‘d yoki Ustrushonaning aniq qo‘shin tuzilishi, harbiy bo‘linmalari va boshqaruv tizimini to‘liq tiklash mumkin emas. Buning uchun yozma manbalardagi ma’lumotlarni arxeologik va boshqa tarixiy dalillar bilan solishtirish talab etiladi. Harbiy madaniyatning mafkuraviy-ramziy jihatlari Avestoda kengroq namoyon bo‘ladi. Bahrom-yashtda g‘alaba, jangchining ilohiy himoyasi va harbiy kuch haqidagi diniy tasavvurlar ifodalangan [Авеста, 1992, Bahrom-yasht]. Ushbu ma’lumotlar qadimgi jamoalarning jangovar ruhiyati va diniy dunyoqarashini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda diniy-poetik tasvirlarni muayyan hududdagi harbiy marosimlarning bevosita tarixiy tavsifi sifatida talqin qilish ehtiyotkorlikni talab etadi. Ustrushona mozorqo‘rg‘onlaridan aniqlangan qurol-yarog‘lar va dafn marosimiga oid materiallar qadimgi jangovar an’analarni o‘rganishda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. F.E. Toshboyevning tadqiqotida ayrim dafn holatlari va qurol topilmalari otliq jangchilar faoliyati bilan bog‘liq holda talqin qilingan [Toshboyev, 2013, 66–73-b.]. Biroq dafn holatining o‘zi muayyan jang taktikasini to‘liq isbotlamaydi. Bunday xulosalar qurol turlari, ularning joylashuvi, yodgorlikning davrlashtirilishi va boshqa tarixiy manbalar bilan qiyoslangandagina ilmiy asosga ega bo‘ladi. Zarafshon va Sirdaryo oralig‘i harbiy madaniyatining shakllanishi bir-biri bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni qamrab olgan. Qurol-

yarog‘larning takomillashuvi, metallga ishlov berish ko‘nikmalarining rivojlanishi, mustahkamlangan manzilgohlarning vujudga kelishi hamda jangovar an’analarning shakllanishi uning moddiy va tashkiliy asoslarini tashkil etgan. Diniy-marosimiy tasavvurlar esa harbiy faoliyatning mafkuraviy jihatlarini aks ettirgan. Yozma va arxeologik manbalarni qiyosiy o‘rganish ushbu jarayonlarning ayrim tomonlarini o‘zaro tasdiqlash bilan birga, ularning xronologik va hududiy farqlarini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Zarafshon va Sirdaryo oralig‘ida harbiy madaniyatning shakllanishi qadimgi Sug‘d va Ustrushona hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, metallga ishlov berish an’analari, mudofaa me’morchiligi hamda jangovar tajribaning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Avesto va antik mualliflar asarlaridagi ma’lumotlarning arxeologik materiallar bilan qiyosiy tahlili mintaqa harbiy madaniyatining moddiy va ma’naviy jihatlarini o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish imkonini beradi. Ustrushona mozorqo‘rg‘onlaridan aniqlangan qilich, xanjar va kamon paykonlari harbiy qurollarning amaliy qo‘llanilganini ko‘rsatsa, Nurtepa singari mustahkamlangan manzilgohlar mudofaa tizimining shakllanishi va takomillashuvini aks ettiradi. Avestodagi jangovar qurollar, harbiy aravalar va g‘alaba bilan bog‘liq diniy-ramziy tasvirlar esa qadimgi jamoalarning harbiy tasavvurlarini yoritadi. Biroq ushbu ma’lumotlarning tarixiy ahamiyatini belgilashda manbalarning yaratilish davri, hududiy mansubligi va diniy-poetik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Shu jihatdan, Sug‘d va Ustrushona harbiy madaniyatini faqat qurol-yarog‘lar yoki mudofaa inshootlari bilan cheklab o‘rganish yetarli emas. Uning shakllanishi moddiy madaniyat, harbiy tashkilot va diniy-ramziy qarashlar o‘zaro ta’sirida kechgan tarixiy jarayon sifatida baholanishi lozim. Yozma va arxeologik manbalarning tanqidiy-qiyosiy tahlili ushbu jarayonning umumiy xususiyatlarini aniqlash bilan birga, ayrim harbiy an’analarni muayyan davr va hududga nisbat berishda mavjud manbaviy cheklovlarni ham ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aḥmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari (Qadimgi zamon va o‘rta asrlar). – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 352 b.
2. Авеста: Избранные гимны / Перевод с авестийского, предисловие, примечания и словарь И. М. Стеблин-Каменского. – Москва: Дружба народов, 1992. – 208 с.
3. Hudud ul-olam (Movarounnahr tavsifi) / Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar A. Bo‘riyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 64 b.
4. Литвинский Б. А. Древние кочевники «Крыши мира». – Москва: Наука,

Главная редакция восточной литературы, 1972. – 272 с.
5. Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida: Terma parchalar / Tuzuvchi va tarjimon Zohir A’lam. – Toshkent, 2008. – 184 b.
6. Toshboyev F. E. Ustrushona xalqlarining harbiy qurollari haqida dastlabki mulohazalar // O‘zbekiston arxeologiyasi. – 2013. – № 2 (7). – B. 66–73.
7. Туйчибаев Б. Б. Уструшана в древности и раннем средневековье (по археологическим материалам): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Самарканд, 2004. – 26 с.

КУЛЬТУРА, СОХРАНЁННАЯ В СЛОВЕ

Хайрова Н.Р.
Студентка 3-го курса
Гулистанского государственного университета
образовательного направления
«Филология и обучение языкам: русский язык»

Аннотация: В статье рассматривается слово как носитель историко-культурного наследия Узбекистана. Анализируются фольклор, письменные источники, рукописи и эпиграфические памятники, раскрывается их значение для сохранения исторической памяти, национальных ценностей и духовных традиций народа.

Ключевые слова: культура, язык, наследие, слово, история, искусство, литература, фольклор, эпиграфика, рукописи, память, традиции, ценности, письменность, памятники.

Историко-культурное наследие Узбекистана представляет собой сложное единство материальных и духовных ценностей, сформировавшихся на протяжении многовековой истории страны. Архитектурные памятники Самарканда, Бухары, Хивы и других исторических городов, археологические находки, произведения изобразительного и декоративно-прикладного искусства, музейные коллекции являются важнейшими свидетельствами прошлого. Вместе с тем значительная часть исторической памяти народа Узбекистана сохраняется в слове - языке, фольклоре, литературных произведениях, рукописях, исторических документах и эпиграфических надписях.

Слово обладает особой способностью сохранять и передавать культурный опыт. В нём отражаются особенности мировоззрения народа, его нравственные

представления, традиции, обычаи, отношение к природе, труду, семье и обществу. Поэтому язык можно рассматривать не только как средство общения, но и как один из важнейших механизмов сохранения исторической памяти.

Особенно значимую роль в сохранении историко-культурного наследия Узбекистана играет фольклор. Пословицы, поговорки, сказки, легенды, предания и эпические произведения передают исторический опыт, нравственные ценности и традиции узбекского народа от поколения к поколению [3; 25-б.]. Фольклор сохраняет коллективную память и отражает духовную культуру Узбекистана. Развитие письменности расширило возможности сохранения этого наследия: письменные тексты фиксировали исторические события, знания, литературные произведения и духовные представления народов, населявших территорию современного Узбекистана [1; 130-б.].

Письменные памятники сохраняют не только содержание текстов, но и сведения о языке, графике, материале, оформлении и особенностях создания. Их комплексное изучение позволяет глубже понять историческую эпоху и культурную среду [1; 130-б.]. Особую ценность представляют рукописи, сочетающие литературное содержание с каллиграфией, орнаментом и миниатюрой. Поэтому их исследование непосредственно связано с искусствоведением [4; 84-б.].

Именно здесь особенно ярко проявляется взаимосвязь истории и искусствоведения. Исторический подход позволяет определить эпоху создания памятника, его происхождение, социально-культурный контекст и значение. Искусствоведческий анализ, в свою очередь, раскрывает особенности художественной формы, композиции, орнамента, каллиграфии и изобразительного оформления. Таким образом, один и тот же объект может выступать одновременно историческим источником и произведением искусства. Подобный подход позволяет значительно расширить возможности исследования культурного наследия.

Особую разновидность письменных источников составляет эпиграфика. Надписи на архитектурных сооружениях, мемориальных объектах и других памятниках материальной культуры являются важным источником исторической информации. Они могут содержать сведения о времени создания памятника, его назначении, заказчиках, создателях, исторических событиях и общественной жизни определённой эпохи.

Эпиграфический текст нельзя отделять от самого памятника. Надпись существует в конкретном архитектурном или художественном пространстве и является частью его образной структуры. Поэтому её исследование требует одновременного обращения к историческому содержанию, языковым особенностям и художественной форме объекта. Взаимодействие текста и изображения особенно характерно для архитектурных и книжных памятников. Надпись, орнамент, изображение и архитектурная форма могут создавать единый художественно-смысловой комплекс. В результате слово становится частью визуального пространства памятника, а памятник, в свою очередь, становится материальным носителем текста.

Историко-культурное наследие Узбекистана необходимо изучать комплексно, рассматривая архитектурные памятники, рукописи, произведения искусства и тексты как единую культурную систему. Их взаимосвязанное изучение позволяет глубже раскрыть историческую память, национальные ценности и духовный опыт народа [2; 52-б.]. Современная цифровизация рукописей, музейных и библиотечных фондов способствует сохранению и популяризации культурного наследия.

Для Узбекистана подобный подход имеет особое значение. Богатое архитектурное, книжное, литературное и фольклорное наследие страны представляет собой взаимосвязанную систему материальных и духовных ценностей. Изучение отдельных её компонентов в отрыве друг от друга может привести к неполному пониманию исторического значения памятника.

Следовательно, слово является не только средством коммуникации, но и важнейшим хранителем исторической памяти. Фольклор сохраняет народный опыт, литература - духовные представления различных эпох, рукописи - письменное и художественное наследие, а эпиграфика непосредственно связывает текст с конкретным историко-культурным объектом [4; 214-б.]. Комплексное изучение этих источников в единстве с архитектурными и художественными памятниками способствует более глубокому исследованию национальной культуры. Взаимодействие истории и искусствоведения при этом позволяет рассматривать памятник одновременно как свидетельство исторического процесса и как результат художественного творчества.

Заключение. Таким образом, историко-культурное наследие Узбекистана сохраняется не только в архитектурных памятниках, произведениях искусства и музейных коллекциях, но и в слове. Язык, фольклор, литература, рукописи и эпиграфические тексты являются важными носителями исторической памяти,

национальных ценностей и духовного опыта народа. Их комплексное изучение во взаимосвязи с историей и искусствоведением способствует более глубокому пониманию, сохранению и популяризации культурного наследия Узбекистана.

Исследование историко-культурного наследия Узбекистана требует комплексного подхода, при котором письменные и устные источники рассматриваются во взаимосвязи с архитектурными и художественными памятниками. Такое взаимодействие истории, искусствоведения и филологии позволяет глубже раскрыть содержание и значение культурного наследия. Особую роль в этом процессе играет слово. Оно сохраняет знания о прошлом, передаёт национальные ценности и связывает поколения. Поэтому изучение письменных и устных источников должно рассматриваться как важное направление сохранения, научного изучения и популяризации историко-культурного наследия Узбекистана.

Список использованной литературы:

1. Damrosch D. Writing Systems and Cultural Memory // Literature. - Hoboken: Wiley-Blackwell, 2022. - DOI: 10.1002/9781119775737.ch7.
2. Кононова И.В., Нильсен Е.А., Гунькова Д.Е., Федорова Л.В. (ред.). Язык и культура в эпоху глобализации: сборник материалов III Всероссийской (национальной) научной конференции с международным участием. - Санкт-Петербург: Издательство СПбГЭУ, 2024.
3. Мадаев О., Жўраев М., Сабитова Т., Мухитдинова Н. Ўзбек фольклори: дарслик. - Тошкент: ZEBO PRINT, 2022. - 400 б. - ISBN 978-9943-8303-2-5.
4. World Society for Study, Preservation and Popularization of Cultural Legacy of Uzbekistan; National Library of Uzbekistan. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонасининг қўлёзма ва китоб мероси. - Toshkent: Silk Road Media, 2022. - 425 p. - ISBN 978-9943-58038-1.

AKADEMIK O‘TKUR ISLOMOVNING O‘ZBEKISTON ARXEOLOGIYASI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Xudoyberdiyev A.A
Guliston davlat pedagogika instituti,
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy hayotini olis o‘tmishini o‘rganishda, yurtimizning yetuk bilimdoni, tarixchi-arxeolog, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori, professor, Respublikada arxeologiya va tarix sohasining rivojiga va tarixchi kadrlarning yetishtirishga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ ustoz O‘tkur Islomovich Islomov hayoti va faoliyati, ibratlari hamda O‘zbekiston arxeologiyasiga kirib kelishi haqida to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Arxeologiya, arxeologik maktab, akademiya, madaniy aloqalar, ekspeditsiya, neolit madaniyati, xronologiya, Obishir, Qo‘shilish, Machay, Selung‘ur, Mohandaryo, Kampirak, Qizilqir, Obirahmat

Ma’lumki, asrlar davomida shiddat bilan kechayotgan ijtimoiy taraqqiyot insoniyatni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan yetukligini, ijtimoiy faolligini taqozo etadi. Insonlarning ijtimoiy dunyoqarash va xulq-atvor me’yorlari bir avloddan ikkinchi avlodga oila sharoitida ota-onalardan, ta’lim muassasalarida ustoz-shogird munosabatlari shuningdek, milliy tarixiy merosimizni o‘rganish vositasida yetib kelgan. Prezidentimizning “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy me’rosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak”. [1.1] degan fikrlari zamirida avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orish, mazkur ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda tushunarli, jozibali shaklda yetkazib berish muhimligi ta’kidlab o‘tiladi. Yaqin tariximizdagi buyuk ustoz tarixchimiz yuzlab shogirtlarga ustozlik qilgan ustozimiz akademik O‘tkur Islomovich Islomovning ilmiy me’rosini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kishilik jamiyatining tarixini, xususan, ibtidoiy jamiyat tarixini o‘rganish va uni tiklashda moddiy manbalar muhim o‘rin tutadi. Qadimgi davr tarixini o‘rganish yo‘lida arxeologik yodgorliklarni izlab topish, o‘rganish, moddiy manbalarni ilmiy muamolaga kiritish va ular orqali ibtidoiy davr tarixiy jarayonlarini tiklash mutaxassis olimlarning zimmasidagi muhim, o‘z navbatida murakkab vazifalardan biri sanalgan. O‘tkir Islomov butun umrini O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi tarixini o‘rganishga bag‘ishlagan keksa arxeologlar avlodining yetakchi namoyondasi hisoblanib, mashaqqatli va o‘z navbatida zafarli hayot yo‘lini bosib o‘tgan .

Arxeologiya tarixi fanining bugungi taraqqiyot darajasida o‘tmishdagi olimlarning biografi materiallari asosida “fan siymolalari”ni rekonstruksiya qilishga urinish va “shaxslarda namoyon bo‘ladigan fan tarixi”ni yaratish alohida dolzarblik kasb etadi. Xususan, Vatanimiz arxeologiyasini o‘rganish jarayonida “shaxs aspekti” muhim ahamiyatga ega. O‘zR FA akademigi, A. Beruniy nomidagi davlat mukofoti sohibi O‘tkur Islomovich Islomovning shaxsi va uning O‘rta Osiyo arxeologiyasiga qo‘shgan hissasi o‘rganish va yoshlarga yetkazish dolzarb ahamiyatga ega.

Akademik O‘tkur Islomovning ilmiy faoliyati va Markaziy Osiyo arxeologiyasi va tarix fani rivojiga qo‘shgan hissasi ko‘plab manbalarda yoritilgan. A.Asqarov, T. Sh. Shirinov va A. P. Derevyanko tomonidan yozilgan maqolalarda **[2, 3]**, B.Nazirov, A.Jumayev tomonidan yozilgan maqolalarda **[4]** olimning ilmiy merosi, arxeologik maktab yaratishdagi o‘rni hamda O‘zbekiston arxeologiyasining taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy Arxeologiya Markazi tamonidan F.Maqsudov muharrirligida O‘zbekiston akademigi O‘tkir Islomovich Islomov xotirasiga bag‘ishlangan «O‘rta Osiyoning tarix oldi madaniyatlari» mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallarida , Farhod Maqsudov Baxtiyor Sayfullaev, Sayyora Mirsoatova, Anvar Omonov, Ra’noxon Ahmadaliyeva, Raxmon Ibragimov, Rustam Sulaymanov, Akmal Muhammadiyev, Sunatulla Tursunov, Ergashev Orifjon, Pavlenok K. K., Pavlenok G. D., Kogai S. A., Derevnina A. S., Yudin I. A., Tursunov S. S. maqolalarida **[5]** Akademik O‘tkur Islomovning tarix va arxeologiyaga faniga kirib kelishi , arxeologik ekspeditsiyalarni tashkil etishdagi ilmiy boshqaruvi, shuningdek, yosh arxeologlarni tayyorlashdagi xizmatlari yoritilib, uning Markaziy Osiyo arxeologiyasidagi o‘ziga xos ilmiy maktabi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Tadqiqotda akademik O‘tkur Islomovich Islomovning ilmiy faoliyati arxeolgiya faniga kirib kelish tarixini o‘rganishda xolislik tamoyiliga amal qilinib, tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil hamda xronologik yondashuv kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

O‘zbekiston, xususan Markaziy Osiyoning ma’naviy-ma’rifiy hayotini olis o‘tmishini o‘rganish haqida gap ketganda, yurtimizning yetuk bilimdoni, tarixchi-arxeolog, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori, professor, Respublikada arxeologiya va tarix sohasining rivojiga va tarixchi kadrlarning yetishtirishga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ ustoz O‘tkur Islomovich Islomov hayoti va faoliyati, ibratlarini eslamaslikning iloji yo‘q.

Akademik O‘tkur Islomov 1932-yilda Toshkent shahrida ziyolilar, ya’ni o‘qituvchilar oilasida tavallud topgan. Uning otasi Islom Ismoilov – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi, onasi Habiba Ismoilova esa el suygan pedagog va tarbiyachi sifatida yosh avlod tarbiyasi va kamolotga yetkazish yo‘lida faoliyat olib borganlar **[2, 147]**.

O‘tkur Islomovning yoshlig chog‘ida yoq oila muhiti, ota-onaning mehnatsevarligi hamda maktab o‘qituvchilarining ma’naviy ta’siri ostida qalbida o‘z xalqining boy tarixi va ma’naviy-madaniy merosiga bo‘lgan chuqur qiziqishni uyg‘otdi. O‘tkur Islomov maktabni a’lo baholar bilan tamomlagandan so’ng ota-onasi izidan borib, dastlab Toshkent pedagogika bilim yurtida (1947-1951), so‘ngra Toshkent davlat pedagogika institutining Tarix fakultetida (1952-1956) tahsil oldi **[3, 145]**.

O‘tkur Islomov institutni imtiyozli diplom bilan tamomlab, dastlabki pedagogik faoliyatini Toshkent viloyati Qorasuv tumanidagi 14-sonli o‘rta maktabda o‘qituvchilikdan boshladi. U bu yerda o‘z faoliyatini g‘ayrat va fidoyilik bilan olib borib, mahalliy aholi orasida tezda e’tibor qozondi. Biroq tarix va arxeologiyaga bo‘lgan kuchli qiziqish uni O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix va arxeologiya institutiga yetakladi. **[1, 147]**.

O‘tkur Islomov O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix va arxeologiya institutida arxeologiyaning otasi hisoblangan Yahyo G‘ulomov rahbarligida katta laborant lavozimida ish boshladi. 1957-yilda Yahyo G‘ulomov uni Buxoro viloyatida olib borilayotgan Mohandaryo arxeologik ekspeditsiyasiga yubordi. O‘. Islomov dastlab Qizilqir yodgorligida, so‘ngra aspirantlar M. Qosimov va H. Nasriddinovlar bilan birgalikda H. Muhammediyev rahbarligida Buxoro vohasini antik davrda o‘rab turgan Kampirak devor qoldiqlarini tadqiq etishda ishtirok etdi. Ushbu ishlarni bajarish jarayonida ekspeditsiya a’zolari bir oy davomida og‘ir sharoitda, tuya karvonlaridan foydalanishga majbur bo‘lishdi. **[2, 147]**.

Ekspeditsiya natijasida xalq orasida noma’lum bo‘lgan “Kampirak devor” qoldiqlari hamda Varg‘azut tosh davri yodgorliklari kashf etildi. Bundan tashqari, Qizilqum hududidagi Boshtepa va Baraxsha kabi qadimiy yodgorliklarga oid yangi ilmiy ma’lumotlar to‘plandi. Mohandaryo ekspeditsiyasi o‘z ishini muvaffaqiyatli yakunlab, O‘tkur Islomovning arxeolog sifatida shakllanishi muhim qadamlardan biri bo‘ldi.**[6]**.

O‘tkur Islomovning ilmiy malakasini oshirish maqsadida 1959-1963 yillarda sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasining Arxeologiya institutining Leningrad bo‘limida mashhur arxeolog, akademik A.P.Okladnikov rahbarligida aspiranturada tahsil oldi.

Shu dargohda u M.M.Gerasimov, M.P.Gryaznov, S.A.Semyonov, P.I.Borisovskiy, B.B.Piotrovskiy, N.N.Gurina, V.M.Masson kabi jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan tan olingan ko‘plab yetuk professorlar bilan muloqotda bo‘ldi, ulardan saboq oldi va ma’ruzalar tingladi.

Ushbu ilmiy muhit O‘tkur Islomovning iste’dodli olim sifatida shakllanishiga, arxeologiya fanini chuqur va izchil o‘rganishiga hamda O‘zbekiston tosh davrini o‘rganilishida muammolarini muvaffaqiyatli hal etishiga asosiy omil bo‘ldi. 1963-yilda u “Quyi Zarafshonning neolit madaniyati” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi, O‘tkur Islomov O‘zbekistonda tosh davrini o‘rgangan birinchi o‘zbek olimi sifatida tarixda qoldi. **[6]**.

O‘tkur Islomovning ilmiy faoliyatida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix va Arxeologiya instituti olimning butun ilmiy hayoti va ijodiy taqdir yo‘lining asosiy markaziga aylandi. O‘tkur Islomov institutda dastlab kichik xodim (1963-1964) so‘ngra katta ilmiy xodim (1964-1970), bo‘lim mudiri (1970-2000) lavozimlarda faoliyat ko‘rsatgan. **[2, 148]**.

Uning qariyb ellik besh yillik mehnat faoliyati davomida erishgan salmoqli natijalarida aynan shu dargohning o‘rni beqiyosdir. Arxeologiya instituti o‘z davrida dunyoga tanilgan yetuk olimlar hamda fan va jamoat arboblarini yetishtirdi. Akademik O‘tkur Islomov esa ana shunday ulug‘ ilm-fan namoyandalarining yorqin vakillaridan biriga aylandi . Yosh mutaxassisning yuqori tashkilotchilik qobiliyati, arxeologiya faniga bo‘lgan fidoiyligi, talabchanligi va halolligi uni tez orada ijtimoiy fanlar rahbarlari e’tiboriga tushirdi. Keyinchalik u safdoshlari bilan birgalikda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining qadimiy va navqiron Samarqand shahrida tashkil etilgan Arxeologiya institutini shakllantirishda, xususan, “Samarqand arxeologiya maktabi”ga asos solishda faol ishtirok etdi.

O‘tkur Islomov ilmiy faoliyatida mezolit davri yodgorliklarini ham keng ko‘lamda tadqiq qildi. Toshkent, Farg‘ona, Surxondaryodagi mezolit davri yodgorliklarini o‘rgandi. Toshkent yaqinidagi “Qo‘shilish”, Farg‘onadagi “Obishir” va Surxondaryodagi “Machay” g‘orida **[7]**. muhim yodgorliklarda tadqiqot ishlari boshlandi. O‘tkur Islomov ushbu yodgorliklarning nihoyatda katta xronologik va tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asosladi shu bilan birgalikda hamda O‘rta Osiyo hududida 50 dan ortiq tosh davriga oid yangi yodgorliklar mavjudligini aniqladi. Tadqiqotlar natijasida O‘tkur Islomov O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib mezolit davri odamlarining moddiy madaniyati va turmush tarzi tarixini ilmiy asosda asoslab berdi. O‘rganilgan tadqiqotlar natijasida 1978-yilda “O‘rta Osiyo mezoliti” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi **[8]**. Doktorlik dissertatsiyasini

himoya qilgandan so‘ng, O‘tkur Islomov o‘z ilmiy e’tiborini arxeologiya fanining eng qadimgi bosqichi – paleolit davrini chuqur o‘rganishga qaratdi va bu yo‘nalishda yangi ilmiy muvaffaqiyatlarga erishdi.

1980-yillaridan boshlab, O‘tkur Islomov rahbarligida paleolit davriga oid Selung‘ur g‘orida keng ko‘lamli qazish ishlari olib borildi **[9]**. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, akademik O‘tkur Islomov va uning shogirdlari faoliyati yangi bosqichga ko‘tarilib, katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Shu jumladan 1998-yildan boshlab O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi va Rossiya Fanlar Akademiyasining qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etildi. Bu ilmiy ekspeditsiyaga O‘zbekiston tomonidan akademik O‘.Islomov, Rossiya tomonidan esa akademik A.P.Derevyanko rahbarlik qildi. **[10]**. Ushbu taniqli arxeolog olimlar guruhining hamkorligi Markaziy Osiyo paleolit davri muammolarini, jumladan, insonning paydo bo‘lishi masalasini o‘rganishga qaratildi va buning natijasida qator jahonshumul kashfiyotlar amalga oshirildi.

2003-yilning yozida arxeologlar tomonidan Obirahmat g‘orida kamida 50 ming yil muqaddam yashagan qadimgi odamning suyak qoldiqlari topildi **[11]**. Obirahmatdagi bu topilma nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo qadimgi tosh davri arxeologiyasi uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etdi.

Akademik O‘tkur Islomovning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari jami 8 ta monografiya, yirik asarlar va 160 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop ishlarida o‘z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, Akademik O‘tkur Islomovning ilmiy ishlarida nazariya va amaliyot chambarchas qo‘llanilgan. Olim arxeologik materialarni tarixiy va madaniy jihatdan tahlil qilib davriy klassifikatsiyani aniq belgilash va ibtidoiy jamiyatning iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini asoslash kabi masalalarda o‘z maktabini yaratdi.

Yahyo G‘ulomov Arxeologiya maktabining yetuk vakillaridan biri bo‘lgan iqtidorli arxeolog olim, akademik O‘tkur Islomov o‘zidan, shogirdlariga, bugungi yosh avlodga hamda Yurtimiz tarixi bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka boy ilmiy meros qoldirdi. Uning ko‘plab ilmiy tadqiqotlari natijalari kelgusida ham uzoq yillar davomida O‘zbekiston tarixining tosh davriga oid dolzarb muammolarni hal etishda asosiy yo‘l-yo‘riq va nazariy manba (dasturilamal) bo‘lib xizmat qilaveradi.

Akademik O‘tkur Islomov Markaziy Osiyo arxeologiya fanining, xususan, tosh davri sohasining yirik va tan olingan namoyandasi hisoblanadi. U o‘zining qariyb ellik besh yillik ilmiy faoliyati davomida nafaqat Yahyo G‘ulomov kabi ustozlarning ilmiy an’analarini davom ettirdi, balki Samarqand Arxeologiya maktabining

shakllanishiga ham faol hissa qo‘shdi. Olimning ilmiy tadqiqotlari keng qamrovli bo‘lib, 8 ta monografiya va 160 dan ortiq ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Bu tadqiqotlar O‘zbekiston tarixi va madaniyatining eng qadimiy bosqichlarini yoritishda fundamental ahamiyat kasb etadi. Shuni qayd etish joizki, Akademik O‘tkur Islomov O‘zbekistonning ibtidoiy davr tarixini o‘rganishda katta ilmiy meros qoldirgan olimdir. Akademik O‘tkur Islomovning ilmiy fidoiyligi, qat’iyati va Vatan tarixiga bo‘lgan muhabbati barcha shogirdlari, hamkasblari va tarixga qiziquvchi jamoatchilik qalbida yorqin xotira sifatida abadiy saqlanib qoladi. Olimning ilmiy tadqiqotlari nafaqat tarixning eng qadimgi bosqichlarini yoritishga, balki milliy arxeologiya maktabining rivojlanishiga ham xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” Toshkent: “O‘zbekiton” nashriyoti 2023, 214-b.
2. Asqarov A., Shirinov T. Sh. Akademik O‘tkir Islomov // O‘zbekiston arxeologiyasi. 2014. № 1 (8). – B. 147-150.
3. Деревянко А. П. Академик Ўткир Исломович Исломов // Ўзбекистон археологияси. 2014. № 1 (8). – С. 145-146.
4. B.Nazirov, A.Jumayev O‘tkur Islomov – Markaziy Osiyo Paleolitshunosligining Yirik Namoyandasi // Tadbirkorlik va Pedagogika . 2025. № 5. – B.42-51.
5. F. A. Maqsudov. “O‘zbekiston Moddiy Madaniyati Tarixi” 43-Nashri T-2022.
6. Исламов У. И. Первобытная культура в низовьях Зарафшана. – Ташкент: Фан 1966.
7. Исламов У. И. Пешера Мачай. – Ташкент: Фан 1980.
8. Исламов У. И. Обиширская культура. – Ташкент: Фан 1988.
9. Исламов У. И. Культура каменнлгл века Центральной Ферганы- Ташкент: Фан 1995
10. Деревянко.А.П.,Исламов.У.И., Петрин В.Т., Сулайманов Р.Х., Алимов К., Крахмаль К.А., Исследования грота Оби-Рахмат (Респулика Узбекистан) в 1998 г.// Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий.-Новосибирск: Изд-во ИАЭт СОРАН. 1998
11. B.Sayfullayev,S.Mirsoatova, A.Omonov, R.Ahmadaliyeva – O‘zbekistonning ibtidoiy davr arxeologiyasi bo‘yicha yirik olim – O‘tkur Islomovich Islomov 90 yoshda // “O‘zbekiston Moddiy Madaniyati Tarixi” 43-Nashri T-2022.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI XORAZM MADANIYATIGA OID ARXEOLOGIK YODGORLIKLARNING O‘RGANILISHI

Xudoyberganova Nozima Islombek qizi
Ma’mun universiteti I bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: PhD Yusupov Shakir Xaitbayevich

Annotatsiya. Maqolada Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmning shaharsozlik madaniyati, arxeologik yodgorliklari va savdo-hunarmandchilik markazlarining o‘rganilishi tahlil qilinadi. Gurganjdagi Toshqal’a yodgorligiga oid arxeologik materiallar yozma manbalar bilan qiyoslanib, vohaning XIV–XV asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, temuriylar, Xorazm, Gurganj, Ko‘hna Urganch, Toshqal’a, Orolbo‘yi, arxeologik yodgorliklar, shaharsozlik, mudofaa inshootlari, savdo, hunarmandchilik, moddiy madaniyat, arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalar, tarixiy toponimlar.

Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganish O‘rta Osiyo o‘rta asrlar tarixining muhim masalalaridan biridir. XIV asrning so‘nggi choragi va XV asrda vohada kechgan siyosiy jarayonlar, shaharlarning rivojlanishi, savdo-hunarmandchilik munosabatlari hamda moddiy madaniyat xususiyatlari arxeologik va yozma manbalarni o‘zaro qiyoslash asosida tadqiq etishni talab qiladi. Ayniqsa, Amir Temurning 1372–1388-yillardagi Xorazm yurishlari va ularning shaharlar hayotiga ta’siri tarixshunoslikda turlicha baholangan.

Sovet davri tarixshunosligida Amir Temurning Xorazmga harbiy yurishlari ko‘pincha vayronagarchilik va shahar madaniyatining inqirozi bilan bog‘lab talqin qilingan. Bunday yondashuvda harbiy harakatlarning oqibatlari asosiy o‘rin egallab, vohadagi shaharlarning keyingi rivojlanishi, hunarmandchilik va savdo munosabatlarining davomiyligi yetarlicha yoritilmagan. Keyingi arxeologik tadqiqotlar esa Xorazm shaharlari tarixini faqat harbiy-siyosiy voqealar bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Vohadagi o‘zgarishlarni tahlil qilishda ekologik sharoit, suv ta’minoti, savdo yo‘llari va siyosiy boshqaruv tizimi kabi omillarni ham hisobga olish zarur. Xorazm arxeologik yodgorliklarini tizimli o‘rganish XX asrning 30–40-yillaridan keng tus oldi. V. V. Bartold, A. Yu. Yakubovskiy, S. P. Tolstov, N. N. Vakturskaya, G. A. Pugachenkova, G. A. Fedorov-Davidov, A. A. Asqarov va boshqa tadqiqotchilarning ishlari vohaning o‘rta asrlar tarixi, shahar madaniyati, moddiy yodgorliklari va numizmatik materiallarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Arxeologik izlanishlar natijasida Janubiy Orolbo‘yida Amir Temur va temuriylar davri bilan bog‘liq shahar xarobalari, mudofaa inshootlari, turar joylar,

hunarmandchilik obyektlari hamda tarixiy toponimlar aniqlangan. Ushbu materiallar vohaning XIV–XV asrlardagi madaniy hayotini tiklash uchun muhim manba hisoblanadi [Yusupov, Eshchanova, 2011]. Mazkur davr Xorazm shahar madaniyatini o‘rganishda Gurganj alohida o‘rin tutadi. Shaharning Toshqal’a deb atalgan qismi, jumladan, Kaan mahallasi hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar o‘rta asrlardagi shaharsozlik va hunarmandchilik an’analarini o‘rganish imkonini bergan. Bu yerda savdo rastalari, hunarmandchilik bilan bog‘liq binolar, mudofaa devorlari va burjlar qoldiqlari aniqlangan. Ayniqsa, 1952-yilgi qazishmalarda qayd etilgan arxeologik materiallar Gurganjning XV–XVII asrlardagi moddiy madaniyati haqida muhim ma’lumotlar beradi [Vakturskaya, 1959]. Toshqal’ada aniqlangan me’moriy qoldiqlar shaharning keyingi asrlarda ham yashashda davom etganini ko‘rsatadi. Mudofaa inshootlari, savdo va hunarmandchilik binolarining mavjudligi Gurganjning iqtisodiy faoliyati to‘xtab qolmaganidan dalolat beradi. Biroq XV–XVII asrlarga oid arxeologik qatlamlarning mavjudligi 1388-yilgi harbiy harakatlar oqibatida shaharning qay darajada zarar ko‘rganini o‘z-o‘zidan aniqlab bermaydi. Shu sababli Amir Temur yurishlarining oqibatlarini baholashda arxeologik qatlamlar xronologiyasi va yozma manbalar ma’lumotlarini birgalikda tahlil qilish muhimdir.

Gurganjning Amir Temur davridagi tarixi Sharafiddin Ali Yazdiy asarida keltirilgan ma’lumotlar bilan ham bog‘liq. Yozma manbalarda Urganchning ayrim qismlari vayron qilingani, keyinchalik shaharni qayta tiklash choralari ko‘rilgani haqida xabarlar uchraydi. Jumladan, 1391-yilda Urganchni qayta tiklashga ruxsat berilgani to‘g‘risidagi ma’lumot shahar tarixida yangi bosqich boshlanganini ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda manbalarda tilga olingan Kaan mahallasi Ko‘hna Urganchdagi Toshqal’a hududi bilan bog‘lanadi. B. A. Ahmedov yozma manbalarga tayanib, Gurganjda buzilgan ayrim inshootlarning amir Muso tomonidan qayta tiklanganini qayd etadi. Shaharning keyingi siyosiy voqealarda ham muhim o‘rin tutgani haqidagi ma’lumotlar uning mudofaa va iqtisodiy imkoniyatlari saqlanib qolganidan dalolat beradi. Xususan, XV asr boshlarida Gurganjning harbiy-siyosiy kurashlar markazlaridan biri bo‘lgani, 1431-yilda Abulxayrxon qo‘shinlariga qarshilik ko‘rsatilgani shaharning keyingi tarixini o‘rganishda ahamiyatlidir [Ahmedov, 1965, 11–16-b.]. Gurganjdagi arxeologik tadqiqotlar natijalarini savdo munosabatlariga oid yozma ma’lumotlar bilan qiyoslash ham muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. XV asrga oid xabarlarda Urganchning mintaqalararo savdodagi ishtiroki aks etgan. Jumladan, 1438-yilda Gurganjda bo‘lgan sherozlik savdogar Xo‘ja Shamsuddin Muhammadning bu yerdan turli mahsulotlarni xarid qilib, Hojitarxonda sotgani

haqida ma’lumot mavjud. Savdo mollari orasida mushki anbar, muskus, Xitoy ipagi, atlas, ipak xomashyosi va dori-darmonlarning tilga olinishi Urganchning mahalliy mahsulotlar bilan bir qatorda uzoq hududlardan keltirilgan tovarlar ayirboshlanishida ham ishtirok etganini ko‘rsatadi. Bu ma’lumotlar Gurganjning XV asrda tranzit savdo markazlaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolganini anglatadi. Shahardagi savdo rastalari va hunarmandchilik mahallalari qoldiqlari esa iqtisodiy hayotning moddiy dalillari hisoblanadi. Arxeologik va yozma manbalarning bunday uyg‘unligi shaharning faqat siyosiy voqealar tarixini emas, balki uning iqtisodiy vazifalari, hunarmandchilik ixtisoslashuvi va madaniy aloqalarini ham o‘rganish imkonini beradi. Xorazmda Amir Temur va temuriylar davri moddiy madaniyatini tadqiq etishda arxeologik topilmalarning davriy mansubligini aniqlash alohida ahamiyatga ega. Xususan, sopol buyumlar, me’moriy qoldiqlar va numizmatik materiallar shaharlarning rivojlanish bosqichlarini belgilashda muhim manbalar hisoblanadi. N. N. Vakturskayaning Xorazm o‘rta asrlar sopol buyumlarini xronologik tasniflashga bag‘ishlangan tadqiqoti arxeologik qatlamlarni davrlashtirish uchun muhim ilmiy asoslardan biridir [Vakturskaya, 1959]. G. A. Fedorov-Davidovning Xorazmning XIV asr siyosiy hayoti va Oltin O‘rda davri numizmatikasiga oid ishlari esa mintaqadagi siyosiy-iqtisodiy munosabatlarni o‘rganishda ahamiyat kasb etadi. Shaharsozlik yodgorliklarini tadqiq etishda tarixiy toponimlarni aniqlash ham muhim vazifalardan biridir. O‘rta asr manbalarida uchraydigan shahar, qal’a va mahalla nomlarini arxeologik obyektlar bilan qiyoslash orqali aholi manzilgohlarining joylashuvi, shahar hududining o‘zgarishi va tarixiy voqealar kechgan makonlarni aniqlash mumkin. Ayniqsa, Kaan mahallasi va Toshqal’a o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi yozma ma’lumotlar bilan arxeologik dalillarni birgalikda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Xorazm arxeologik yodgorliklarini o‘rganish natijalari muzey fondlarini boyitish va tarixiy-madaniy merosni keng jamoatchilikka tanishtirishda ham muhim ahamiyatga ega. Qazishmalarda aniqlangan sopol buyumlar, tangalar, me’moriy bezaklar va boshqa moddiy madaniyat namunalari davrning xo‘jalik hayoti, hunarmandchilik an’analari va badiiy didini yoritishga xizmat qiladi. Ularning ilmiy tavsifi, xronologiyasi va topilgan arxeologik konteksti asosida muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish Amir Temur va temuriylar davri Xorazm madaniyati haqida tarixiy jihatdan asoslangan tasavvur shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar davri Xorazm madaniyatini o‘rganishda arxeologik tadqiqotlar muhim manbashunoslik ahamiyatiga ega. Gurganjning Toshqal’a hududida aniqlangan me’moriy qoldiqlar, savdo-

hunarmandchilik obyektlari va moddiy madaniyat namunalari shahar hayotining XIV asr oxiridan keyingi davrlarda ham davom etganini ko‘rsatadi. Yozma manbalar, arxeologik topilmalar va tarixiy toponimlarni qiyosiy tahlil qilish Xorazm shaharlarining siyosiy voqealar ta’siridagi o‘zgarishlarini, iqtisodiy aloqalarini va madaniy taraqqiyotini yanada to‘liqroq yoritishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Amir Temur yurishlarining oqibatlari haqidagi turli tarixshunoslik qarashlarini baholashda har bir shahar va yodgorlikning arxeologik ma’lumotlariga alohida tayanish zarur. Bunday yondashuv Xorazmning temuriylar davri madaniy merosini ilmiy asosda o‘rganish, muhofaza qilish va muzey ekspozitsiyalarida namoyish etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. — М., 1965.
2. Вайнберг Б. И. К истории Кунградских Суфи // МХЭ. — Вып. 4. — М., 1960.
3. Вактурская Н. Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX–XVII вв.) // Труды ХАЭЭ. — Т. IV. — М.: Наука, 1959.
4. Массон М. Е. Монетный клад XIV в. из Термеза // Бюллетень САГУ. — 1929. — Вып. 18. — № 7.
5. Федоров-Давыдов Г. А. Из истории политической жизни Хорезма XIV в. // КСИЭ. — Вып. 30. — М., 1958.
6. Федоров-Давыдов Г. А. Нумизматика Хорезма золотоордынского периода // Нумизматика и эпиграфика. — Т. IV. — М., 1965.
7. Юсупов Ш., Эшчанова М. Темурийлар даврида Жанубий Хоразм ҳудуди шаҳарлар таснифи // Антик давр цивилизацияси тараққиётида Хоразмнинг ўрни: Республика илмий анжумани материаллари. 2011 йил 20 май. — Урганч–Ҳазорасп–Хива, 2011.

O‘ZBEKISTON TARIXIY-MADANIY MEROSIDA QADIMGI DAVLATCHILIK RAMZLARI: ARXEOLOGIK VA TASVIRIY MANBALAR TAHLILI

Xurramova Sevinch Jamshid qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Tarix yo‘nalishi 33-24 guruh talabasi

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyo xalqlari tarixida davlat va hokimiyat ramzlari sifatida qo‘llanilgan tug‘, bayroq hamda tamg‘alarning kelib chiqishi, vazifalari va tarixiy taraqqiyoti yoritiladi. Yozma manbalar, arxeologik topilmalar va tasviriy san’at namunalari asosida qadimgi turkiy xalqlarda tug‘ning muqaddas maqomi, bayroqlarning siyosiy-harbiy ahamiyati, tamg‘alarning urug‘-qabila mansubligi va mulkni belgilashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Afrosiyob devoriy suratlari, “Avesto”, “Boburnoma” va o‘rta asr tarixiy manbalaridagi ma’lumotlar orqali ramzlarning davlatchilik an’analari, etnik jarayonlar va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishdagi ilmiy ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar. qadimgi davlatchilik, davlat ramzlari, tug‘, bayroq, tamg‘a, turkiy xalqlar, Afrosiyob, Sug‘d, Baqtriya, totemizm, etnik tarix.

Kirish

Har bir xalq o‘zining tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini turli ramzlar orqali ifodalab kelgan. Muayyan davrlarda bu ramzlar nafaqat madaniy qarashlarni, balki siyosiy hokimiyatni, harbiy uyushuvni va jamoaning o‘zligini ham namoyon etgan. Hukmdorlar hamda davlatlar qo‘llagan belgilar xalqning kelib chiqishi va qadimiyligi, sulolaviy an’analar, siyosiy birlashuv, madaniy yutuqlar va jamoaviy xotira bilan bog‘liq mazmunlarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Arxeologik qazishmalar Markaziy Osiyoda tamg‘alar, tug‘lar, bayroqlar, muhrlar, tangalar va kundalik buyumlarda turli urug‘, shahar, davlat yoki hunarmandchilik uyushmalariga tegishli belgilar ishlatilganini ko‘rsatadi. Bunday manbalar iqtisodiy va ijtimoiy hayot, turmush madaniyati, san’at, siyosiy tuzilmalar hamda sulolalar tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois qadimgi ramzlarni yozma manbalar va arxeologik dalillar bilan qiyosiy o‘rganish davlatchilik tarixining ayrim jihatlarini aniqlashtirish imkonini beradi.

Tug‘ - hokimiyat va harbiy birlik timsoli

Davlat bayrog‘ining qadimgi shakllaridan biri sifatida tug‘ alohida o‘rin tutadi. Qadimgi turkiy muhitda tug‘ oddiy harbiy belgi bo‘lib qolmay, urug‘ ruhi va jamoaning muqaddas timsoli sifatida ham e’zozlangan. Ko‘chmanchi qo‘shinlarda u harbiy tuzilmaning ajralmas qismi bo‘lgan; ayrim manbalarda har bir urug‘ yoki bo‘linmaning o‘z tug‘i mavjudligi qayd etiladi. Jumladan, jujanlar harbiy-ma’muriy

tizimida ming kishilik bo‘linma tarkibidagi yuz kishiga bittadan tug‘ to‘g‘ri kelgani, jami o‘nta tug‘ bo‘lgani haqida ma’lumot keltiriladi [Гумилев Л. 15; Альбаум Л.И. 77.].

An’anaviy turkiy tug‘ uzun tayoqqa mahkamlangan ot dumi yoki bir tutam ot yolidan iborat bo‘lgan. Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida qo‘tos dumidan ham foydalanilgan. Tug‘ga metall uchlik, mato bo‘laklari yoki tasmalar biriktirilishi mumkin edi. Uning ko‘rinishi va rangi hukmdorning maqomi yoki harbiy birlikning o‘ziga xosligini bildirgan.

Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida tug‘ni bayroq ma’nosida izohlaydi. Manbalarda xon va xoqonlarning martabasi to‘qqiz tug‘ bilan ifodalangani, “to‘qqiz tug‘li xon” iborasi esa qudratli hukmdorga nisbatan qo‘llangani qayd etiladi [Mahmud Qoshg‘ariy. 440.]. Tug‘ bilan bog‘liq atamalar ham ijtimoiy-harbiy lavozimlarni anglatgan: “tug‘luq” - tug‘ egasi, “to‘qsoba” esa o‘z tug‘iga ega harbiy qism boshlig‘i sifatida izohlanadi [Абдураимов М.А. 86.].

Afrosiyobdagi Varxuman saroyiga oid VII asr devoriy suratlarida hukmdor va uning a’yonlari bilan birga bir necha tug‘ tasvirlangan. Tadqiqotchilar suratdagi o‘n bir tug‘ni Varxumanga bo‘ysungan hokimliklar yoki harbiy bo‘linmalar bilan bog‘laydilar. Akademik A. Asqarov ushbu tasvirni Markaziy Sug‘dda o‘n bir ixshidlik mavjud bo‘lganligi va ularning Samarqand hukmdori Varxuman atrofida siyosiy birlashuvini aks ettirishi mumkin, deb talqin qiladi [Альбаум Л.И, 77; Асқаров А. 369.]. Bu fikr tasviriy manbalarni siyosiy tarixni o‘rganishda ehtiyotkorlik bilan tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Tug‘ning marosimiy ahamiyati yozma manbalarda ham uchraydi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da mo‘g‘ul xoni huzurida tug‘lar tiklanishi, ularga qarata marosimiy harakatlar bajarilishi, qimiz sochilishi va qo‘shin tomonidan tantanali suron ko‘tarilishi haqida yozadi [Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 90.]. Ushbu qayd tug‘ning harbiy belgi bo‘lish bilan birga, siyosiy hokimiyat va jamoaviy e’tiqod bilan bog‘liq timsol bo‘lganini anglatadi.

Bayroqlarning qadimgi tarixi va siyosiy vazifasi

Bayroq, tug‘, a’lam va sanjoq kabi atamalar turli davr va hududlarda siyosiy yoki harbiy belgilarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bayroq jamoaning kimga mansubligini ko‘rsatish, qo‘shinlarni jang maydonida farqlash, xabar yetkazish va hukmdor maqomini namoyon etish vazifalarini bajargan. Dastlab urug‘ yoki jamoa belgisi sifatida shakllangan tasvirlar vaqt o‘tishi bilan hokimiyat ramzlariga aylangan.

Markaziy Osiyo hududidagi bayroq an’analari juda qadimiy ildizlarga ega. “Avesto”ning “Videvdot” qismida Baqtriya “ming tug‘li, ming bayroqli”

mazmunidagi ta’rif bilan tilga olinadi. “Avesto” matnlarida shamolda hilpirayotgan bayroqlar, baland ko‘tarilgan yalovlar va dushman tug‘i haqidagi ifodalar ham uchraydi. Undagi “drafša” so‘zi, shuningdek, sug‘diy va baqtriy tillaridagi o‘xshash shakllar bayroq yoki tug‘ tushunchasi bilan bog‘lanadi [Авеста. 10.]. Bu ma’lumotlar qadimgi Eroniy va Markaziy Osiyo an’analarida bayroqning muhim ramziy o‘ringa ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Firdavsiyning “Shohnoma” asarida temirchi Kavaning charm peshbandidan bayroq yasab, zolim Zahhokka qarshi xalqni kurashga boshlagani hikoya qilinadi. Bu rivoyatda bayroq adolat uchun kurash va xalqning birlashuvi timsoliga aylanadi. Qadimgi san’at yodgorliklari ham harbiy bayroqlarning shakli va ishlatilishiga oid ma’lumot beradi. Masalan, Ermitajda saqlanayotgan VI–VIII asrlarga oid Xorazm kumush idishida qal’ani qamal qilayotgan qo‘shin tasvirlangan bo‘lib, unda turli bayroq va tug‘larni ko‘rish mumkin [Толстов С. П. 216.].

Bayroqning yo‘qotilishi ayrim jamiyatlarda siyosiy va harbiy mag‘lubiyat belgisi hisoblangan. Mo‘g‘ul an’analarida bayroqning dushman qo‘liga tushishi qarshilik ko‘rsatish imkoniyatining yo‘qolishi bilan bog‘langan. Arab muhitida bayroqning shayx chodirida saqlanishi uning hokimiyat maqomini ifodalagan. Xitoy harbiy risolalarida esa bayroq yoki nog‘oraning yo‘qotilishi og‘ir jazo bilan bog‘langan holatlar keltiriladi [Дмитриев С. В. 9.]. Bunday misollar bayroqning oddiy ko‘rsatkich emas, balki intizom, sadoqat va siyosiy nufuz timsoli bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ramzlar, totemizm va turkiy dunyoqarash

Qadimgi bayroq va tamg‘alarda uchraydigan tasvirlarning bir qismi diniy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Ayrim hayvonlar, qushlar yoki daraxtlar urug‘ va qabilalarning himoyachisi, ajdodi yoxud muqaddas timsoli sifatida tasavvur qilingan. Ilmiy adabiyotlarda turkiy xalqlarning tarixiy e’tiqodlarida bo‘ri, ayiq, burgut, ilon va daraxt kabi timsollar muhim o‘rin tutgani qayd etiladi [Аширов А. 16].

Totemistik tasavvurlar vaqt o‘tishi bilan turli shakllarda ifodalangan: hayvonning butun tasviri yoki uning panjasi, tumshug‘i, dumi singari ayrim qismlari ramziy belgiga aylangan. Bunday tasvirlarning barchasini avtomatik ravishda totemizm bilan izohlash mumkin emas; ularning mazmuni topilgan joyi, davri, boshqa tasvirlar va yozma manbalar bilan qiyoslab aniqlanishi lozim.

Turkiy xalqlarning ramziy merosi Xitoy, Rim, Vizantiya, Tibet, arab, hind, fors va turkiy yozma manbalarda, shuningdek, og‘zaki ijod hamda etnografik an’analarda aks etgan. Ko‘plab turkiy qabilalar bo‘rini muqaddas ajdod yoki himoyachi timsoli sifatida tasavvur qilgan. Shu qarashlar bilan bog‘liq holda ayrim bayroq va

tamg‘alarda bo‘ri boshi tasvirlanganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Bunday belgilar turkiy jamoalarning kelib chiqish haqidagi tasavvurlari va siyosiy o‘zligini ifodalashga xizmat qilgan.

Oq xunlar yoki eftaliylar bayrog‘i haqidagi ayrim tadqiqotlarda oq rang va besh qirrali och sariq yulduz tasviri tilga olinadi [Маҳмудов Қ. 20-21.]. Biroq qadimgi bayroqlar ko‘pincha to‘liq saqlanib qolmagani sababli ularning rang va tasvirlarini tiklashda manbaning ishonchliligi hamda talqinning ilmiy asoslari alohida tekshirilishi zarur.

Islom davri va o‘rta asr davlatlarining bayroqlari

Islom dini tarqalganidan keyin mintaqadagi siyosiy ramzlar tarkibida o‘zgarishlar yuz berdi. Ayrim hollarda tasviriy belgilar bilan bir qatorda yoki ularning o‘rnida arab yozuvidagi diniy iboralar va matnlar ishlatildi. Bu jarayonni barcha davlatlar uchun bir xil va bir vaqtda sodir bo‘lgan hodisa sifatida ko‘rish to‘g‘ri emas: ramzlarning shakli siyosiy an’ana, diniy muhit va mahalliy madaniyatga qarab farqlangan.

Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Somoniylar davrida hokimiyatni tasdiqlash bilan bog‘liq bayroq va sarpo yuborish marosimi bayon etiladi. Asarda Nasr ibn Ahmadning Ismoil ibn Ahmadni Buxoroga yuborishi va Ismoilning hokimiyati ramziy tarzda tasdiqlanishi bilan bog‘liq voqea keltirilgan [Наршахий. 148.]. Ushbu ma’lumot bayroqning hukmdorlik vakolatini bildirish va siyosiy qarorni ommaga namoyish etish vositasi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Qoraxoniylar, Oltin O‘rda, G‘aznaviylar va Saljuqiylar bayroqlariga oid tavsiflarda turli geometrik shakllar, yarim oy, yulduz, tovus va ikki boshli burgut singari tasvirlar tilga olinadi. Biroq bu bayroqlarning ayrimlari haqidagi ma’lumotlar keyingi davr mualliflari yoki zamonaviy rekonstruksiyalarga tayanishi mumkin. Shuning uchun bayroqlarning rangi va tasvirini qat’iy tarixiy fakt sifatida qabul qilishdan oldin ularning manbalarini alohida tekshirish lozim. Umuman olganda, bayroq o‘rta asrlarda ham hukmdorlik, sulolaviy mansublik va harbiy-siyosiy birlikni ifodalashda davom etgan.

Tamg‘alar va etnik tarixni o‘rganish

Tamg‘a turkiy va boshqa xalqlarda urug‘ yoki qabila mansubligini bildiruvchi belgi sifatida qo‘llanilgan. Uning dastlabki shakllari oddiy geometrik belgilar - doira, kvadrat, uchburchak va chiziqlardan, shuningdek, hayvon yoki qush tasvirlaridan iborat bo‘lishi mumkin. Tamg‘alar chorva mollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari va hunarmandchilik mahsulotlariga bosilgan; vaqt o‘tishi bilan ular mulk, oila yoki shaxsga tegishlilikni ham ko‘rsatgan.

Tamg‘alar ko‘pincha avloddan avlodga o‘tib, ayrim hollarda qo‘shimcha chiziq yoki unsur bilan o‘zgartirilgan. Shu sababli bir-biriga o‘xshash tamg‘alar o‘rtasidagi munosabatni aniqlashda faqat tashqi shaklga tayanish yetarli emas. Belgining arxeologik konteksti, tarqalish hududi, yozma manbalardagi qaydlar va etnografik ma’lumotlar birgalikda o‘rganilishi kerak.

O‘zbek xalqining etnik va siyosiy tarixini tadqiq etishda qang‘li va boshqa urug‘-qabilalarga nisbat berilgan tamg‘alar muhim manbalardan hisoblanadi. Adabiyotlarda qang‘lilarning bir tamg‘asi bir chiziq shaklida bo‘lib, “qovurg‘a”, “kosov” yoki “alif” deb atalganligi, ikkinchi shakli esa “qo‘sh alif”, “ikki qovurg‘a” yoki “qo‘sh tamg‘a” nomlari bilan izohlangani keltiriladi. Shunga o‘xshash belgilar qipchoq, qoraqalpoq va boshqird guruhlariga oid ma’lumotlarda ham uchraydi [Шониёзов К. 131-132.]. Ayrim urug‘ nomlarining tamg‘a bilan bog‘lanishi esa belgilarning etnonimlar va jamoaviy xotira bilan aloqasini ko‘rsatadi.

Mahmud Qoshg‘ariy va Rashididdin kabi mualliflar asarlarida qabila belgilariga oid ma’lumotlar uchraydi. O‘g‘uzxon haqidagi rivoyatlar ham tamg‘ani mulk va ulus bilan bog‘liq tushuncha sifatida talqin qilish an’anasini aks ettiradi. Bunday ma’lumotlar tarixiy-etnografik ahamiyatga ega bo‘lsa-da, rivoyat va tarixiy dalil o‘rtasidagi farqni saqlash lozim.

Qadimgi tug‘lar keyingi bayroq an’analarining shakllanishiga, tamg‘alar esa muhr va gerb kabi belgilar rivojiga ta’sir ko‘rsatgan. Ba’zan ramzlar birgalikda qo‘llangan. Jumladan, Amir Temurga nisbat beriladigan uch halqali belgi uning bayrog‘i bilan bog‘liq tasvirlarda ham uchrashi qayd etiladi. Bunday misollar ramzlar tarixini o‘rganishda tasviriy manbalar, moddiy dalillar va yozma xabarlarni qiyosiy tahlil qilish zarurligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Xulosa

Qadimgi davlatchilik ramzlari - tug‘, bayroq va tamg‘alar - Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy tarixi, harbiy tashkiloti, diniy tasavvurlari va etnik munosabatlarini o‘rganishda muhim manbalardir. Tug‘ ko‘pincha hukmdorlik va harbiy birlikni, bayroq siyosiy mansublik hamda jamoaviy safarbarlikni, tamg‘a esa urug‘-qabila mansubligi va mulkni belgilashni ifodalagan.

“Avesto”, “Boburnoma”, “Buxoro tarixi” kabi yozma manbalar, Afrosiyob devoriy suratlari va boshqa arxeologik topilmalar ramzlarning tarixiy vazifalarini turli jihatdan yoritadi. Ularni o‘zaro qiyoslash orqali qadimgi va o‘rta asr jamiyatlarida hokimiyat qanday namoyon etilgani, jamoalar o‘zligini qanday ifodalagani hamda ramzlar siyosiy xotirani shakllantirishda qanday rol o‘ynagani haqida xulosalar chiqarish mumkin.

Shu bilan birga, ayrim tarixiy bayroqlarning rangi yoki tasviri haqidagi ma’lumotlar keyingi rekonstruksiyalarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ilmiy tadqiqotlarda manbalarni tanqidiy tahlil qilish, dalil va taxminni farqlash hamda arxeologik, yozma va tasviriy materiallarni birgalikda o‘rganish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гумилев Л. Қадимги турклар. - Тошкент: Фан, 2007. - Б. 15.
2. Маҳмуд Қошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). 3-жилд. - Тошкент, 1963. - Б. 440.
3. Бартольд В. В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. - Алматы: Жалын, 1993. - С. 90.
4. Абдураимов М. А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве. Т. 2. - Ташкент: Фан, 1966. - С. 86.
5. Альбаум Л. И. Живопись Афрасиаба. - Ташкент: Фан, 1975. - С. 77.
6. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. - Тошкент, 2014. - Б. 369.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. - Тошкент: Юлдузча, 1990. - Б. 90.
8. Авеста: “Видевдот” китоби / М. Исҳоқов таржимаси. - Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2007. - Б. 10.
9. Авесто. Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. - Тошкент: Шарқ, 2001. - Б. 11, 81.
10. Толстов С. П. Древний Хорезм. - Москва: Издание МГУ, 1948. - С. 216.
11. Дмитриев С. В. Знамя в военно-политической культуре тюрко-монгольских кочевников // Журнал социологии и социальной антропологии. - 2001. - Т. IV, № 4. - С. 91.
12. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. - Б. 16.
13. Маҳмудов Қ. Туркий байроқлар рамзи // Фан ва турмуш. - 1991. - № 12. - Б. 20–21.
14. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. - Тошкент: Камалак, 1991. - Б. 148.
15. Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. - Тошкент: Фан, 1990. - Б. 131–132.

MAHDUM-I A’ZAM MEMORIAL-ME’MORIY MAJMUASI TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIK FANLARARO TADQIQOTLARI KONTEKSTIDA

G‘aniyev M.F.
GDPI tayanch-doktoranti
+998901030269

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston tarixiy-madaniy va me’moriy yodgorliklarini tadqiq etishda tarix hamda san’atshunoslik fanlari integratsiyasining metodologik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida XVI asrga oid Samarqand yaqinidagi Dahbed (Mahdumi A’zam) majmuasi tanlangan. Ishda birlamchi yozma manbalar (Hasan Nisoriy, Zayniddin Vositiy va Mahdumi A’zam asarlari), vaqf hujjatlari, epigrafik va xattotlik bitiklari hamda me’moriy-stilistik va kompozitsion tahlil usullarining o‘zaro sintezi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida majmuaning XVI–XIX asrlar davomidagi me’moriy evolyutsiyasi, Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri siyosiy-g‘oyaviy muhitining me’moriy makonda aks etishi hamda Naqshbandiya tasavvufiy estetikasi va me’moriy yechimlar o‘rtasidagi konseptual bog‘liqlik isbotlab berilgan.

Kalit so‘zlar: Mahdumi A’zam majmuasi, Dahbed, tarix va san’atshunoslik integratsiyasi, birlamchi manbalar, epigrafika, vaqf hujjatlari, Naqshbandiya, Shayboniylar, me’moriy evolyutsiya, xattotlik.

Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston hududida saqlanib qolgan boy tarixiy-madaniy va me’moriy meros nafaqat o‘tmish shaharsozlik hamda bezak san’atining yorqin namunasidir, balki o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy va ma’naviy-tasavvufiy muhitini o‘zida aks ettirgan kompleks manba hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu yodgorliklarni chuqur tadqiq etishda bir yo‘nalishli yondashuv - ya’ni obyektni faqat me’moriy-estetik nuqtai nazardan baholash yoki faqat yozma xronikalar ma’lumotlari bilan cheklanish obyektiv manzarasini shakllantirishga to‘liq imkon bermaydi. Shu sababli, me’moriy obidalarni va ularga tutash majmualarni tadqiq qilishda tarix, manbashunoslik, epigrafika, vaqfshunoslik va san’atshunoslik stilistik, ikonografik va kompozitsion tahlil fanlari integratsiyasini yo‘lga qo‘yish metodologik jihatdan dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqot obyekti sifatida XVI asrga oid, Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi Xoja Sayyid Ahmad Kosoniy Dahbediyga bag‘ishlangan Samarqand yaqinidagi Dahbed qishlog‘ida joylashgan Mahdumi A’zam majmuasi tanlangan. Tadqiqot predmeti esa ushbu majmuani o‘rganishda birlamchi yozma, epigrafik va hujjatli manbalar hamda me’moriy-san’atshunoslik tahlillarining sintezlashuv mexanizmlari va ularning samaradorligini ko‘rsatib berishdan iborat.[“Samarqand viloyati vaqf ishlari boshqarmasi”:. I-471-fond]

Ko‘p hollarda me’moriy majmualarga berilgan san’atshunoslik tavsiflari ularning barpo etilishi hamda bosqichma-bosqich kengayishi orqasida turgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillardan, xususan vaqf hujjatlari hamda epigrafik manbalardan uzilgan holda olib boriladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - Mahdumi A’zam majmuasi misolida birlamchi manbalar va san’atshunoslik metodlarining o‘zaro integratsiyasi yodgorlik haqidagi ilmiy qarashlarni qanchalik boyitishi hamda mavjud tarixiy va uslubiy noaniqliklarni bartaraf etishdagi o‘rnini isbotlab berishdan iborat.

XVI asrda Movarounnahrda vujudga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy muhitni, xususan Shayboniylar sulolasi va Naqshbandiya tariqati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglamasdan turib, Dahbeddagi Mahdumi A’zam majmuasining shakllanish jarayonini har tomonlama baholash imkonsizdir.

Mahdumi A’zam (Xoja Sayyid Ahmad Kosoniy, 1461–1542) va uning avlodlari faoliyati hamda Dahbed ziyoratgohining shakllanish tarixi bir qator o‘rta asr manbalarida o‘z aksini topgan:

Hasan Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asarida Mahdumi A’zamning Shayboniy hukumdorlar Jonibek Sulton, Ubaydulloxon, Baroqxon bilan munosabatlari, uning ma’naviy nufuzi va Dahbedda qaror topishi haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi. [Ismoil Bekjonov:. 2-78.b]

Zayniddin Vositiyning “Badoe’ ul-vaqoe’” asarida esa XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-madaniy hayot, xususan Dahbeddagi xonaqoh va uning tevarak-atrofidagi majmualarning dastlabki holati va u yerda o‘tkazilgan ma’naviy suhbatlar tavsifi berilgan.[A. Ekinci tarjimasi:.3-127.b]

Uning “Ganjnoma”, “Risolai tanbehi us-salotin” kabi asarlari majmua g‘oyaviy-tasavvufiy yo‘nalishini hamda ziyoratgohning sodda, lekin chuqur ma’naviy mazmunga ega me’moriy tamoyillarini anglashga yordam beradi.

Dahbed majmuasi, xonaqoh, masjid va unga tutash yer-suv mulklariga oid saqlanib qolgan vaqf hujjatlari binolarning dastlabki tarhi, xonalar ketma-ketligi, hududiy chegaralari va ularning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarganligini aniq ko‘rsatib beradi.

Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang‘itlar davrida berilgan suyurg‘ol, tarxonlik hamda vaqf daxlsizligi to‘g‘risidagi yorliqlar majmuaning turli asrlarda qay darajada ta’mirlangani va kengaytirilganini xronologik ketma-ketlikda tiklashga imkon beradi.

Dahbed majmuasidagi eng muhim va boy birlamchi manbalardan biri bu - epigrafik yozuvlardir: Majmua markazida joylashgan katta marmar suppa (*dahma*) ustida Mahdumi A’zam va uning sulolasi vakillari hamda Yalangto‘sh Bahodir va

uning qizining sag‘analari joylashgan. Ushbu sag‘analardagi xattotlik san’ati namunalari: sulsi va nasta’liq xatlari marhumlarning vafot etgan sanalari, shajaralari hamda unvonlarini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Sag‘analardagi Qur’on oyatlari, hadislar va tasavvufiy she’riy baytlar shunchaki bezak emas, balki dafn etilgan shaxslarning ijtimoiy-diniy maqomi hamda davr kalligrafik maktabining rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Dahbeddagi Mahdumi A’zam majmuasi Markaziy Osiyo shaharsozlik va ziyoratgoh me’morchiligida o‘ziga xos ochiq va yopiq makonlar sintezini namoyon etadi. XVI–XIX asrlar davomida bosqichma-bosqich shakllangan ushbu majmua Shayboniylar va keyingi davrlar me’morchilik hamda amaliy san’at an’analarini o‘zida jamlagan.[Muraltov A, Boboyev H:.4-212-bet]

Balandligi taxminan 1,5–2 metr bo‘lgan, to‘rtburchak shakldagi baland suppa xorazmcha va samarqandcha marmar o‘ymakorligi uslubida ishlangan. Dahma ustida Mahdumi A’zam hamda uning avlodlari, shuningdek, jamiyatda yuqori mavqega ega bo‘lgan shaxslarning marmar sag‘analari joylashgan. San’atshunoslik nuqtai nazaridan bu uslub Naqshbandiya tariqatining “kamtarona va ochiq qabr” (kamtarinlik) konsepsiyasini aks ettiradi.



1-rasm. Mahdumi A’zam (Xoja Sayyid Ahmad Kosoniy, 1461–1542) ziyoratgohi hozirgi ko‘rinishi.

Majmuaning eng qadimiy yopiq binosi bo‘lib, markaziy gumbazli zaldan iborat. Bino poydevori va devorlarida XVI asr O‘rta Osiyo gumbazkorlik san’atiga xos bo‘lgan *toq-u ravak* arka va gumbaz osti bag‘allari tizimi mahorat bilan qo‘llanilgan.[Kattayev K. *Mahdumi A’zam va Dahbed*– Samarqand:.5-244-bet.]

Majmua tarkibidagi ustunli masjid va ochiq ayvonlar keyingi davrlar me’moriy qatlamlarini ko‘rsatadi. Bu yerda O‘rta Osiyo yog‘och o‘ymakorligi hamda sharqona milliy naqqoshlik san’ati yorqin namoyon bo‘ladi.

Majmuadagi san’atshunoslik tahlili bir nechta asosiy amaliy san’at turlarini qamrab oladi:

Masjid va ayvon ustunlari, eshik hamda panjaralardagi geometrik *(girih)* va o‘simliksimon (*islimiy*) naqshlar. Ustun ko‘za va bo‘g‘izlaridagi murakkab o‘ymakorlik ishlari Samarqand va Farg‘ona yog‘och o‘ymakorlik maktablarining o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi.

Xonaqoh va masjidning ichki interyerida ganch o‘ymakorligi hamda gumbaz osti *muqarnas* bezaklaridan unumli foydalanilgan. Bezaklardagi soddalik va simmetriya tasavvufiy estetikaga mos ravishda og‘ir vizual yuklama yaratmaydi.

Dahma hamda sag‘analarda qo‘llanilgan marmar o‘ymakorligi alohida san’at asaridir. Tosh yuzasidagi bo‘rtma naqshlar, hoshiyalar va kalligrafik yozuvlarning chiroyli garmoniyasi XVI–XVII asrlar *sangtaroshlik* san’atining yuqori darajasidan dalolat beradi.

Dahbeddagi Mahdumi A’zam majmuasini har ikkala fan usullari sintezida o‘rganish natijasida obyekt haqida quyidagi konseptual va ilmiy xulosalarga erishiladi: San’atshunoslik tahlilida majmuadagi *Dahma* va *Xonaqoh*ning mahobati hamda markaziy o‘rni yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tarixiy manbalar (masalan, “Muzakkiri ahbob” va vaqf hujjatlari bilan solishtirilganda, bu me’moriy yechim Movarounnahrda Shayboniylar hukumronligi davrida davlat va tasavvuf pirlari o‘rtasidagi ittifoqning moddiy ko‘rinishi ekani oydinlashadi.

Shayboniy hukmdorlar Jonibek Sulton, Ubaydulloxon va keyinchalik Yalangto‘sh Bahodir o‘z hokimiyatini ma’naviy jihatdan qonuniylashtirish uchun Naqshbandiya pirlariga ehtirom ko‘rsatgan va majmuani doimiy ravishda kengaytirib, ta’mirlab turgan. Me’morchilikdagi muhtashamlik aynan shu siyosiy-diniy doiralarning maqsadlariga xizmat qilgan.

San’atshunoslik nuqtai nazaridan majmuada turli asrlarga oid me’moriy uslublar XVI asr gumbazli xonaqohi, XVII asr dahma san’ati va XIX asr yog‘och o‘ymakorlik ayvonlari bir-biriga ulanib ketgan. Birlamchi yozma manbalar hamda vaqf yorliqlari



ushbu qurilish va ta’mirlash bosqichlarining aniq sanalarini tiklash imkonini beradi. [F. Abduxoliqov, E. Rtveladze, A. Hakimov va B. Abduhalimov:.6-115.b]

XVI asrda birinchi yarmi Dastlabki xonaqoh hamda Mahdumi A’zam qabri atrofidagi dastlabki sag‘analar paydo bo‘lgan. Keyingi asrlar davomida Yalangto‘sh Bahodir davrida dahmaning qayta tartiblanishi, atrofdagi majmuaning kengaytirilishi va uning qizi uchun marmar sag‘ana o‘rnatilgan.

Sag‘analardagi kalligrafik bitiklar san’atshunos uchun davr xattotlik va sangtaroshlik maktabi darajasini ko‘rsatib bersa, manbashunos uchun dafn etilgan shaxslarning aniq shajarasi, vafot yillari va unvonlarini aniqlashda birlamchi hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy va me’moriy merosini, xususan Samarqanddagi Dahbed (Mahdumi A’zam) majmuasini tadqiq etishda tarix va san’atshunoslik fanlari integratsiyasini qo‘llash bo‘yicha olib borilgan ushbu tadqiqot quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

Me’moriy yodgorliklarni faqatgina ularning tashqi ko‘rinishi va dekorativ-uslubiy xususiyatlari bo‘yicha baholash yoki faqat yozma xronikalar va arxiv hujjatlari bilan cheklanish obyekt haqida yuzaki hamda bir yoqlama tasavvur beradi. Tarixiy manbashunoslik va san’atshunoslik tahlili obidaning yaratilish va evolyutsiya bosqichlarini to‘liq tiklashga imkon beradi.

Majmuadagi *dahma*ning sodda hamda ochiq marmar suppa ko‘rinishida ishlanishi va xonaqoh interyeridagi bosiqlik Naqshbandiya tariqatining kamtarinlik hamda ma’naviy poklik konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liq. Birlamchi manbalar (tasavvufiy risolalar) ushbu me’moriy va san’atshunoslik yechimlarining konseptual poydevorini ochib beradi.

Tarix va san’atshunoslik integratsiyasi metodologiyasi O‘zbekiston hududidagi boshqa murakkab me’moriy va ziyoratgoh majmualarini tadqiq etish, ularni ilmiy va xronologik jihatdan to‘g‘ri atributsiya qilish hamda ilmiy va restavratsiya ishlarini to‘g‘ri yo‘naltirishda amaliy namuna bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dahbed majmuasi epigrafikasi va vaqf hujjatlari / O‘zR MDA (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi) I-471-fond — “Samarqand viloyati vaqf ishlari boshqarmasi” fondlari.

2. Hasan Nisoriy. *Muzakkiri ahbob* (Do‘stlar yodnomasi) / Fors tilidan tarjima, so‘zboshisi va izohlar muallifi: Ismoil Bekjonov. – Toshkent: Yozuvchi, 1993.

3. Zayniddin Vositiy. *Badoe’ ul-vaqoe’* (Nodir voqealar) / A. Ekinci tarjimasi. – Toshkent: Fan, 1979.

4. Muraltov A., Boboyev H. *Samarqand me’moriy obidalari tarixi va san’atshunoslik tahlili.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
5. Kattayev K. *Mahdumi A’zam va Dahbed:* Tarixiy-manbashunoslik va tasavvufiy tadqiqotlar. – Samarqand: Sug‘diyona, 2004.
6. F. Abduxoliqov, E. Rtveladze, A. Hakimov va B. Abduhalimov- O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar (Epigrafika Uzbekistana): Samarqand. – Toshkent: Uzbekistan, 2015.

ILK O‘RTA ASRLARDA JIZZAX VOHASI QISHLOQ MAKONLARI ME’MORCHILIGI VA QURILISH LOYIHASI: KONSTRUKTIV USULLAR, TIPOLOGIYA VA EVOLYUTSIYA

G‘ofurov Jasur Isaqovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
+998933096735

Annotatsiya: Ushbu maqola V–VIII asrlarda Jizzax vohasi hamda shimoli-g‘arbiy Ustrushona qishloq makonlarining me'moriy-qurilish xususiyatlari, konstruktiv usullari va rejalashtirish evolyutsiyasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada Pardaqultepa, Komilbobotepa, Qing'irtepa va Almantepa I–II, Yoqubbobotepa kabi arxeologik yodgorliklardan topilgan me'moriy majmualar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Jizzax vohasi, Ustrushona, ilk o'rta asrlar, qishloq me'morchiligi, Pardaqultepa, Komilbobotepa, Almantepa, Yoqubbobotepa xom g'isht, paxsa, "qulfi kalit", platforma, Qaliyatepa, taroqsimon yo'laklar, aylanma yo'laklar.

Ilk o'rta asrlar (V–VIII asrlar) O'rta Osiyo, xususan shimoli-g'arbiy Ustrushona hududi uchun feodal munosabatlarning shakllanishi, shahar va qishloq madaniyatining o'ziga xos arxitektonik uslubda ravnaq topishi bilan xarakterlanadi. Yozma manbalar hamda arxeologik ma'lumotlarda ta'kidlanganidek, Ustrushona davlati hududidagi antik va o'rta asrlarga oid arxeologiya yodgorliklari kompleksining taxminan 65–70 foizini aynan ilk o'rta asr obidalari tashkil etadi. Tarixiy manbalarda va o'rta asr mualliflari asarlarida Ustrushona hududi "qal'a-rabotlar mamlakati" deb sifatlanishi [1] bu davrda mudofaa inshootlari va istehkomli qishloq makonlarining naqadar zich joylashganligini ko'rsatadi.

Jizzax vohasining ilk o'rta asrlar arxeologiyasi va me'moriy xususiyatlari Pardaqultepa, Komilbobotepa, Qing'irtepa, Almantepa I hamda Almantepa II, Yoqubbobotepa kabi qishloq qal'alari va rabotlarida o'tkazilgan keng ko'lamli

qazishmalar misolida atroflicha o'rganilgan [5, 6, 10]. J.I. G'ofurov, M.H. Pardaev hamda A.E. Berdimurodov kabi arxeolog-olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar shimoli-g'arbiy Ustrushonada qishloq imoratlari va qal'alarining qurilish usullari, ishlatilgan xomashyo turlari hamda rejalashtirish tamoyillarining rivojlanish bosqichlarini aniqlash imkonini berdi [7, 8, 10].

Yodgorlik nomi	**Davriyligi**	**Asosiy rejalashtirish xususiyati**
Pardaqultepa	IV–VIII asrlar (3-qurilish bosqichi)	Markaziy o'q koridoridan aylanma va ikki qavatli xonalarga transformatsiyalanish
Komilbobotepa Yoqubbobotepa	VII–VIII asrlar	"Qurama" rejalashtirish, taroqsimon va aylanma yo'laklar gibridi
Qing‘irtepa	VII–VIII asrlar	An'anaviy markaziy koridor asosidagi takomillashgan reja
Almantepa I	VII–VIII asrlar	Ichki mudofaani kuchaytiruvchi aylanma yo'laklar
Almantepa II	VII–VIII asrlar	Klassik taroqsimon yo'lakli xonalar tizimi (6 ta parallel xona)

Qurilish ashyolarining tipologiyasi: O'rta Osiyoning boshqa tarixiy-madaniy oasislari kabi Jizzax vohasida ham qal'a va qishloq turar joylari qurilishida asosiy xomashyo sifatida xom g'isht va paxsa xizmat qilgan. Yog'och va tosh materiallaridan esa muayyan maxsus konstruktiv vazifalarni bajarishda foydalanilgan.

Xom g'ishtlar bevosita qurilish maydoni yaqinida, mahalliy qizg'ish va sarg'ish tuproq loyidan quyilgan hamda pishitilgan. Vohadagi V–VIII asrlarga oid obidalardan topilgan g'ishtlar to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib, ularning o'lchamlari Ustrushona, So'g'd, Shosh-Iloq va Farg'ona mintaqalarida VI–VIII asrlar qurilishlarida ishlatilgan umumiy xom g'ishtlar o'lchamlari va shakliga to'liq mutanosib keladi [2]:

48 × 24 × 10 sm; 46 × 23 × 10 sm; 46 × 26 × 12 sm.

46 × 23 × 9 sm; 42 × 52 × 10 sm; 40 × 20 × 10 sm.

G'isht qatorlari orasiga bog'lovchi vosita sifatida 1,5–3 sm qalinlikda o'rtacha qattiqlikdagi, yaxshi pishitilgan sifatli loy yotqizilgan.

Paxsa asosan sarg'ish tuproq loyidan tayyorlangan va bino devorlarining mustahkam poydevori hamda monolit qismlarini ko'tarishda qo'llanilgan.

Qishloq turar joylarini qurilishida yog'och va tosh materiallarining o'rni: yog'och materiallari asosan keng va katta hajmli xonalarning ustini bolorlar bilan yopishda, ikki qavatli imoratlarning qavatlararo to'sinlarida hamda eshik va darchalarning peshtoqida "eshik boshi" (to'sin) sifatida ishlatilgan. Yog'ochga bo'lgan talab yaqin joylashgan Turkiston, Morguzar va Nurota tog' tizmalaridagi o'rmonzorlar hisobidan qondirilgan. Tosh materiali juda kam holatlarda ayrim devor poydevorlari

tagida va ta'mir jarayonida foydalanilgan. Ko'p hollarda toshlar vaqt o'tib o'z ahamiyatini yo'qotgan eshik va o'tish joylarini urib berkitishda ishlatilgan.

Qishloq turar joylarini qurilishida devor ko‘tarish va urish texnologiyalari: Shimoli-g'arbiy Ustrushona qal'alarida, devorlar konstruksiyasiga ko'ra, 4 asosiy toifaga bo'linadi:

1. Faqat xom g'ishtdan ko'tarilgan devorlar;
2. Paxsadan ko'tarilgan devorlar;
3. Paxsa va xom g'isht qatorlarini almashlab urish orqali ko'tarilgan devorlar;
4. Paxsa va g'isht aralash, qurama holatda urilgan devorlar.

"Qulfi kalit" devor ko‘tarish qoidasi: pastki qatlamdagi ikki g'isht tutashgan chokni yuqoridagi g'ishtning o'rtasi (yarim beli) bosib tushadi. Bu orqali vertikal choklar ustma-ust tushishi oldi olinadi va devorning monolitligi hamda bosimga chidamliligi ta'minlanadi.

G'ishtlar asosan yotqizib urilgan. Mahalliy ustalar tomonidan "qulfi kalit" deb ataluvchi qoidaga barcha hollarda qat'iy amal qilingan: pastki qatlamdagi ikki g'isht ulangan chokni yuqoridagi bir g'isht o'rtasi (yarim beli) bosib tushgan. Tomi gumbazsimon yopilgan xonalarning yuqori qismida, eshik peshtoqlarida va ta'mir qilingan devorlarda g'ishtlar ko'ndalang hamda tik holatda urilgan. Eshik kesakilari mayda somonli loy bilan suvalgan.

Paxsa devorlar ikki xil texnik usulda ko'tarilgan:

- **Qirqma paxsa**: Loy quloch kashlab kuch bilan o'rilgan va sirti o'tkir temir ko'rakcha (kapcha) bilan qirqib tekislangan. Bunday paxsaning balandligi hozirgi saqlangan holatida ham 70 sm ni tashkil etadi (bu O'rta Osiyo qurilishi tarixining o'ziga xos an'anasidir). Har 80–100 sm masofada ko'ndalangiga kesilib (pech), paxsa "blok"lari hosil qilingan. Bu bloklar shaxmat usulida joylashtirilib, yuqori qatlam pastki qatlam birikmasini "bog'lama tugun" shaklida bosib tushgan.
- **Mushtlama paxsa**: Sirti biroz dag'al va g'adir-budur bo'lganligi sababli, bunday devorlar aksariyat hollarda suvalgan.

Almashinuvchi va qurama devorlar: paxsa va xom g'isht qatorlarini almashlab urish Pardaqultepaning ilk qurilish bosqichlarida ko'p kuzatiladi. Bunda bir yoki ikki qatlam paxsa ustidan bino balandligiga qarab g'isht terilishi davom ettirilgan. Qurama devorlarda g'ishtlar paxsa ichiga shaxmat yoki geometrik shakllar hosil qilgan holda, uzunasiga va ko'ndalangiga joylashtirilgan. Komilbobotepada esa g'ishtlarning bir qator qilib uzluksiz bir-biriga tirab urilishi kuzatilgan.

Ustrushonaning qishloqlar qurilishi me‘morchiligida qal’a-qo‘ro‘lar **poydevor-platforma** tizimining mudofaadagi ahamiyati: O'rta Osiyoning ilk feodal davri

me'morchiligida, xususan VI–VIII asrlarda Xorazm, So'g'd va Buxoro tekisliklarida binolarni baland poydevor-platforma ("tag kursi") ustiga qurish keng rasm bo'lgan [2, 3, 4]. S.P. Tolstov ta'kidlaganidek, VI–VIII asrlarda qal'a va ko'shk qurilishida platformalardan foydalanish ularning mudofaa imkoniyatlarini takomillashtirgan, shu sababli bunday imoratlarga devorbuzar, toshotar qurollar va lahm xavf sololmagan [3]. Yu. Yaqubov fikricha, platformalar mudofaadan tashqari kuzatuv punkti vazifasini ham o'tagan: u yerdan tevarak-atrof yaxshi ko'ringan, tinchlik davrida esa hokim bu yerdan shahar va qishloqdagi fuqarolar hayotini kuzatgan [4]. V.A. Nil'sen platformani "ma'lum hududda alohida holda qurilgan imoratlarning asosiy tarkibiy qismi" deb ta'riflaydi [2].

Jizzax vohasining Pardaqultepa, Komilbobotepa, Rasulboyqultepa hamda Yoqubbobotepa yodgorliklarida o'tkazilgan shurflar kutilmagan natijani berdi: qal'alarning tashqi mudofaa devorlarini kesish orqali barcha devorlar platforma ustida emas, balki bevosita materik qatlam ustida turganligi aniqlandi. Platformalar (balandligi 1,5–1,8 m) faqat qal'a markazidagi asosiy imoratlar tagida barpo etilgan bo'lib, bu inshootlarga ikki pog'onali profil bag'ishlagan [5, 6].

Jizzax vohasining qadimiy markazi sanalgan Qalyatepa (Dizak) shahar yodgorligi atrofidagi qal’a-qo‘ro‘lar integratsiyalashgan mudofaa kontseptsiyasi sifatida ko‘rish mumkin.

Qal'a tashqi devorlarining yaxlit platformaga ega emasligi vohaning harbiy-strategik xususiyatlari bilan izohlanadi:

1. **Regional mudofaa zanjiri**: Pardaqultepa va Komilbobotepa kabi qal'a-rabotlar alohida izolatsiyalangan mudofaa ob'ekti bo'lmay, markaziy shahar — Qaliyatepa (Dizak) atrofidagi umumiy mudofaa tizimining halqalaridan biri bo'lgan.
2. **Yagona harbiy boshqaruv**: Harbiy xavf tug'ilganda voha aholisi va qal'a jangchilari Qaliyatepa hokimi boshchiligida yagona front hosil qilgan yoki Qaliyatepaning baland devorlari ortiga chekingan.
3. **Retranslyator zona xarakteri**: Jizzax vohasi o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida iqtisodiy-madaniy muloqot zonasi ("retranslyator zona") bo'lganligi sababli, bu yerda ko'chmanchilarning uzoq muddatli qamal operatsiyalari kamdan-kam kuzatilgan.

Qishloq qal'alarining ichki tuzilishi va maishiy sharoitlari muayyan sanitariya va xavfsizlik talablariga moslashtirilgan.

Pol va shuvoq texnikasi: Pardaqultepa va Komilbobotepa xonalari devorlari va pol sathi mayda somonli loy bilan yupqa qilib suvalgan. Suvash ishlari davriy ravishda takrorlangani sababli pol qatlami ko'p qavatli (laminar) ko'rinishga

kelgan. Xo'jalik va yordamchi xonalarda pol sifatida tegilmagan materik yer yoki shibbalangan tuproq xizmat qilgan.

Yoritish va havo almashtirish ("ambrazuralar"). V.A. Nil'sen ta'kidlaganidek, tekis bolorlar yordamida yopilgan tomlar shiftdagi tuynuklar orqali yoritilgan [2]. Shu bilan birga, devorlarda "ambrazura" ko'rinishidagi to'g'ri to'rtburchak tuynuk-shinaklar qoldirilgan. J.I. G'ofurov ko'rsatishicha, bu tuynuklar bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajargan:

- Xonalarni shamollatish (ventilatsiya);
- Kamondan o'q otish uchun shinak;
- Qish mevsumida teshikka bitta g'isht tiqib loy bilan suwash yoki eski latta bilan ihota qilish imkoniyati.

Eshiklar, oshiq-moshiqlar va peshtoq konstruksiyalari. V.A. Voronina Penjikent misolida ta'kidlagani kabi [9], Ustrushona qishloq qal'alarining ichki xonalarida tabaqali yog'och eshiklar deyarli o'rnatilmagan — ular gilamlar bilan to'silgan yoki ochiq qoldirilgan. Mustahkam ikki tabaqali yog'och eshiklar faqat kirish kompleksida hamda vestibyul xonalarida qo'llanilgan. Eshik tabaqalari ostki va ustki yog'och "o'qlari" orqali toshdan yo'nilgan oshiq-moshiqlarga o'rnatilgan.

Eshik peshtoqlarini qurishda 5 xil konstruktiv usul aniqlangan:

1. Ikki yon g'isht tushama ustida ponasimon yotqizilgan g'ishtli arksimon peshtoq;
2. Paxsa poydevor ustida g'ishtlardan urilgan ponasimon ark;
3. Yog'och "eshik boshi" ustidan somon loy bilan shakllantirilgan gumbazsimon simulyatsiya;
4. Yog'och "eshik boshi" yordamida yasalgan yassi va tekis peshtoq;
5. Ikki qavatli uylarda ustma-ust tushgan eshiklar (pastki eshik ustidagi paxsa yuqori eshik ostonasi vazifasini bajargan).

Shimoli-g'arbiy Ustrushonada xonalarning tomi ikki xil usulda yopilgan:

1. **Gumbazli yopma**: Asosan tor yo'laklar va kichik hajmli yordamchi xonalarda qo'llanilgan.
2. **Bolor to'sinli tekis yopma**: Katta xonalar, mehmonxonalar va ikki qavatli imoratlarning ustini yopishda keng qo'llanilgan.

Rejalashtirish tiplari va ularning dinamikasi

• IV–VI asrlar (Markaziy o'q koridori): Pardaqultepa va Rasulboyqultepaning dastlabki bosqichlarida markazdan o'tuvchi birgina tor yo'lak va uning ikki yonida joylashgan xonalar tizimi ustunlik qilgan.

• VII–VIII asrlar (Aylanma yo'laklar): Almantepa I obidasida markaziy xonalarni to'liq o'rab oluvchi aylanma yo me'morchiligida yo'laklar paydo bo'ldi [8]. Bu usul ichki mudofaa quvvatini sezilarli darajada oshirgan.

• VII–VIII asrlar (Taroqsimon yo'laklar): V.A. Lavrov va V.A. Voronina ta'kidlagan "taroqsimon yo'laklar" sxemasi So'g'd va Ustrushona uchun xarakterli bo'lib [9], Almantepa II obidasida (6 ta parallel xona) yorqin namoyon bo'lgan [8]. Komilbobotepa hamda Yoqubbobotepada esa ushbu ikki usulning gibrid (qurama) ko'rinishi kuzatiladi. Sangzor o'rta oqimidagi qal'alar qurilishida tabiylik va rel'ef e'tiborga olingan [10].

Xonalar loyihasi rivojlanish dinamikasi. Ustrushona qishloq makonlaridagi xonalar joylashgani, aksariyat hollarda ushbu imoratning funksiyasidan va u yerdagi hayotning davomiyligidan kelib chiqqan. Muayyan qishloq makonida hayot davomiyligi qancha uzoq vaqt bilan o‘lchansa, undagi qayta qurishlar, ta’mirlash ishlari shuncha ko‘p amalga oshirilgan. Bu esa xonalar loyihasiga vaqti-vaqti bilan o‘zgartirishlar kiritilishiga sabab bo‘lgan. Bunga misol tariqasida Qalyatepa shahar yodgorligidan 2 km janubiy-g‘arbda joylashgan, Yoqubbobotepa qishloq makonining ochilgan markazdagi tor yo‘lakli 2-honasi, keying qurilish davrida imoratning mudofasini kuchaytirish maqsadida xom g'ishtlar bilan ikki tarafiga “ko‘ylak qilib kiygizilgan” urilgan. Bu bilan imoratning mudofasini kuchaytirilgan.

Shimoli-g'arbiy Ustrushonaning V–VIII asrlarga oid qishloq makonlari me'morchiligini o'rganish quyidagi muhim xulosalarni beradi:

1. Ustrushona qishloq me'morchiligi O'rta Osiyoning umumiy qurilish an'analari (xom g'isht o'lchamlari, paxsa bloklari, "qulfi kalit" usuli) bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan [2].

2. Jizzax vohasining jug'rofiy va harbiy-strategik kon'yunkaturasi "regional mudofaa" tizimini taqzo etgan. Qal'alarning platformalari faqat markaziy bino tagida qurilib, tashqi devorlar materikda turishi Qaliyatepa (Dizak) boshchiligidagi mudofaa integratsiyasidan dalolat beradi.

3. Rejalashtirish tamoyillari IV–VI asrlardagi sodda markaziy o'q sxemasidan VII–VIII asrlarda aylanma va taroqsimon murakkab xonalar majmuasiga qadar takomillashgan [8, 9].

4. Mahalliy xomashyo (loy, paxsa, tog' o'rmonlari yog'ochlari)dan oqilona foydalanish va ko'p qavatli hamda gumbazli me'moriy shakllarni o'zlashtirish Ustrushona binokorlik maktabining yuksak darajasini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Уструшаны с древнейших времен до X в. н.э. // МИА №37. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1953. - 243 с.
2. Нилсен В.А. Становление феодалной архитектуры Средней Азии (V–VIII вв.). - Ташкент: Фан, 1966. - С. 204–206, 232.
3. Толстов С.П. По следам древнехорезмской цивиализации. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1948. - 100 с.
4. Якубов Ю. Раннесредневековые селские поселения горного Согда. - Душанбе: Дониш, 1988. - 100 с.
5. Пардаев М.Н. Шимоли-ғарбий Уструшона қишлоқ қурилиши меъморчилигининг илк ўрта асрлардаги айрим хусусиятлари // Ўзбекистонда моддий ва маънавий маданият (ЎММТ). 28-нашр. - Самарқанд: Суғдиёна, 1997. - Б. 144–145.
6. Пардаев М.Н. Сангзор ҳавзасининг илк ва ўрта асрлар қалъа-работи // Ўзбекистон қадимда ва ўрта асрларда. — Самарқанд, 1992. - Б. 54–57.
7. Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Замок Кингиртепа // История материалной культуры Узбекистана (ИМКУ). Вып. 21. - Ташкент: Фан, 1988. - С. 66–75.
8. Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Раскопки верхнего здания Алмантепа // История материалной культуры Узбекистана (ИМКУ). Вып. 23. - Ташкент: Фан, 1990. -С. 147–159.
9. Воронина В.А. Изучение архитектуры древнего Пенджикента // Материалы и исследования по археологии СССР (МИА). Вып. 15. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1950. - 190 с.
10. Пардаев М.Н., Ғофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари. - Тошкент: Fan va texnologiya, 2016. - Б. 126–140.

“MUSAXXIR AL-BILOD” ASARIDA SUV MANBALARI VA SUG‘ORISH MASALALARI

Shaymatov R.M.
Guliston davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
+998941690026

Annotatsiya. Maqolada Muhammadyor ibn Arab Qatag‘onning “Musaxxir al-bilod” asaridagi suv manbalari va sug‘orishga oid ma’lumotlar kontent-tahlil usulida o‘rganildi. Asarda sug‘orish inshootlari, harbiy harakatlarda suvdan foydalanish, quduq-buloqlar, daryolar va kechuvlar, yog‘in hodisalariga oid ma’lumotlar tahlil qilindi. Tahlilda Murg‘ob daryosidagi to‘g‘onning qamal vositasi sifatida buzdirilishi, Qoraxo‘ja to‘g‘oni va mirob mansabi haqidagi noyob dalillar aniqlandi.

Kirish. O‘rta Osiyoda dehqonchilikning rivojlanishi ko‘p jihatdan sun’iy sug‘orishga bog‘liq bo‘lgan. Mintaqaning sug‘orish tarixi V.V.Bartold [Бартольд В.В. 161.], Ya.G‘.G‘ulomov [Гулямов Я.Г. 316] va A.Muhammadjonov [А. Р. Мухаммаджанов. 263] lar tadqiqotlarida yoritilgan. Biroq, XVI asrda, xususan, Shayboniylar hukmronligi davrida suv xo‘jaligining tashkil etilishi va sug‘orish tizimining faoliyati masalalari nisabatan kam o‘rganilgan.

“Musaxxir al-bilod” (Mamlakatlarning egallanishi) asari Muhammadyor ibn Arab Qatag‘on qalamiga mansub bo‘lib, fors tilida yozilgan. Asar 1498–1610-yillar voqealarini qamrab olgan olgan. Akademik B. Ahmedov uni faktik va qomusiy ma’lumotlarga boy, boshqa manbalarni aniqlashtirishga yordam beruvchi muhim manba sifatida baholagan [Ахмедов Б.А. 256]. Asar 2008-yilda Tehronda nashr etilgan, 2009-yilda esa I. Bekjonov va D. Sangirova tarjimasida o‘zbek tilida chop etilgan [Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. 408 b].

Tadqiqot maqsadi: “Musaxxir al-bilod” asaridagi suv manbalari va sug‘orishga oid barcha ma’lumotlarni aniqlab, ularning tarixiy ahamiyatini baholagan holda XVI asr suv manbalarining xo‘jalik hayotida va harbiy-siyosiy sohadagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

Metodlar: Tadqiqotda manbashunoslik tahlili, tarixiy-qiyosiy, geografik, toponimik hamda kontent tahlildan foydalanildi. Tarixiy geografik yondashuv suv manbalari va sug‘orish inshootlarini hududiy joylashuvini o‘rganishga yordam beradi. Kontent-tahlil asosida asardagi tegishli qaydlar mazmuniga ko‘ra guruhlanib, ularning sug‘orish tarixini o‘rganishdagi ahamiyati ochib berildi.

Kutilayotgan natija: Asarda keltirilgan sug‘orish masalalariga oid ma’lumotlar besh guruhga ajaritildi: 1) sug‘orish inshootlari va suv xo‘jaligi, 2) harbiy

harakatlarda suvdan foydalanish 3)quduqlar, buloq-chashmalar va hovuzlar, 4) daryolar va kechuvlar, 5) yog‘in va ob-havo hodisalari.

Asarda sug‘orish inshootlari va suv xo‘jaligiga oid ma’lumotlar Murg‘ob to‘g‘onining buzilishi bilan bog‘liq voqea orqali aks etgan. “Iskandarnishon hazrat sohibqironning Marvi Shohi jahon tomon yurish qilgani” deb nomlangan faslda so‘z boradi. Abdulloh xon Marvi Shohijahon qal’asiga uch marta qilingan hujumi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Shundan so‘ng davlat arboblari qal’ani kuch bilan olish o‘rniga Murg‘ob daryosidagi to‘g‘onni buzish va atrofdagi aholini ko‘chirishni taklif qiladi. Ularning fikricha, suvsiz qolgan atrof aholisi ko‘chib ketganini ko‘rgan marvliklar qal’ani o‘zlari topshiradi. Asarda hukmdor aholini Amudaryodan o‘tkazib, Buxoro atrofidagi yerlarga joylashtirishni buyuradi va o‘zi Murg‘ob sohiliga borib to‘g‘onni buzdirib tashlagani yozilgan [Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. 266-267].

Abdulloh xonning Turkiston bilan bog‘liq yurishlarida tarixiy bir voqea sodir bo‘ladiki, xon dushmani bo‘lgan Bobo sulton ov qilishga chiqqan edi, yomg‘irning ko‘p yog‘ishi natijasida Ulug‘tog‘ atrofida, Jo‘jixon mozori yaqinida “Qoraxo‘ja to‘g‘oni” buziladi. Bobo sulton ko‘plabodamlaridan ayriladi va qolgan kishilari bilan Manqit tomonga ketadi. Keltirilayotgan ma’lumot suv bilan bog‘liq bo‘lgan tabiat hodisalari ham jang yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatgan deyish mumkin [Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. 318].

Abdulloh xon qo‘shinining harbiy harakatlarda ya’ni qamallarda suvdan foydalanishga doir ma’lumotlar asardan o‘rin olgan. Xonning Balxga yurishida handaq suvi ikki xil vazifa bajarganligi aytiladi: birinchisi mudofaa vositasi va ikkinchisi qamal qiluvchining bosim quroli ekanligi.

1501 yilda Muhammad Shayboniy xon Balxni egallash uchun yurish qiladi. Balxliklar kelgan elchining “taslim bo‘lishi” haqidagi shartlariga rozi bo‘lmagach, Shayboniy xon qo‘shinlari handaq suvini mudofaa devori tomonga yo‘naltiradi. Qamal uch oy davom etgan va sovg‘a salomlar olib xon Samarqandga qaytadi. Keltirilgan voqea handaq shahar mudofaasida muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatadi.

Asarda bu singari bir necha voqealar qayd etilgan. Jumladan, Abdulloh xon Balx va Shibirg‘onga hujum qiladi, qamal to‘qqiz oy davom etadi, holat endi ochlik va suvsizlik bilan kuchayib boradi. Natijada, xon qal’ani “suvsiz” qoldirish tufayli dushmanni sulh tuzishga majbur qilgan [Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. 300].

Muhammadyor ibn Arab Qatag‘anning asarida quduqlar, buloq-chashmalar va hovuzlar bilan bog‘liq ma’lumotlar uchraydi. Cho‘l yo‘llaridagi quduqlar qo‘shin harakatining tayanch nuqtalari bo‘lganligini asoslovchi voqealar qayd etilgan. 1512-13 yilda Ubaydulloh sulton 1800 kishi bilan cho‘l tomondan “Yetti quduq yo‘li” deb

atalgan hudud orqali Buxoroga yurish qiladi. Abdulloh xon “Kasbi qa’lasi”ga yurish chog‘ida 200 kishi bilan “Qirq quduq manzili”ga borgani haqida so‘z yuritiladi, shuningdek, Bobo sultonni “Qora quduq” tomonidan Manqit eli tomon borgani voqealari asarda aks etgan. Mazkur holat quduq bilan bog‘liq joy nomlari mavjud bo‘lganligiga ishora beradi.

Abdulloh xon Sabron qal’asini egallashda u yerning qozisi Bekichik qozini ushlab, xon uning aybini bo‘yiga qo‘yib, oldiniga ikki o‘g‘lini o‘ldirib, o‘zini tiriklayin chuqur quduqqa tashlagan, quduq og‘zini tosh va g‘isht bilan mahkamlagan [Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. 343]. Shundan ko‘rinib turibdiki, “quduq jazo” vositasi bo‘lgan [Abdullayev M. 35-40].

Asarda eng ko‘p tilga olinadigan suv manbalari daryo va kechuvlardir. Ular deyarli har doim qo‘shin yurishi bilan bog‘liq holda keltiriladi. Masalan, Amudaryo (Jayhun), Sirdaryo (Sayhun), Murg‘ob, Ko‘hak (Zarafshon), Chirchiq, Atrek, Sariqsuv, Ko‘kcha, Kalas, Xo‘jand nomi bilan uchraydi. Muallif asarda daryodan o‘tish texnikasi ham tasvirlangan. Termiz kechuvida sol yasab va kemada suzib o‘tgani tilga olinadi [Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. 288, 289]. Asarda Ko‘hak daryosi Samarqandga qarashli bo‘lib, Xojarabot mavzesidan boshlanishini [Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. 168], Ko‘kcha daryochasi esa Sayhunga quyilib, Shoh Zafar qal’asi turgan tepalik etagini yuvib turgani aytilgan [Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. 377]

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, muallif suvga xo‘jalik obyekti sifatida emas, balki asosan harbiy-siyosiy voqealar sahnasi sifatida qaragan. Bu holat asarning janriga mos keladi: solnoma hukmdorlarning yurishlari va g‘alabalarini ulug‘lashga qaratilgan, xo‘jalik hayoti esa voqealar foni sifatida aks etilgan.

Murg‘ob to‘g‘onining buzdirilishi asardagi eng muhim dalildir. U uch jihatdan ahamiyatli. Birinchidan, Marv vohasining sug‘orilishi daryodagi to‘g‘onga bog‘liq bo‘lganini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, to‘g‘on buzilishi butun voha aholisining hayotiga ta’sir qilishini zamondoshlar aniq tushunganini ko‘rsatadi. Uchinchidan, aholini Buxoro atrofiga ko‘chirish buyrug‘i to‘g‘on buzilishining iqtisodiy oqibatlari oldindan hisobga olinganidan dalolat beradi. Marv to‘g‘onini buzish orqali vohani bo‘ysundirish keyingi davrlarda ham takrorlangani tarixiy adabiyotda qayd etilgan, bu esa mazkur usulning mintaqada an’anaviy bo‘lganini taxmin qilishga imkon beradi.

Balx va Shohruxiya qamallarida esa suvni to‘sish qal’ani taslim qildirishning asosiy omili sifatida ko‘rinadi. Shohruxiya misolida tabiiy daryo va sun’iy xandaq-anhorlarning birgalikda yagona mudofaa tizimini tashkil etgani diqqatga sazovor.

Xulosa

“Musaxxir al-bilod” sug‘orish tarixi bo‘yicha maxsus manba bo‘lmasa-da, XVI asrda suvning xo‘jalik va harbiy-siyosiy ahamiyatini ko‘rsatuvchi qimmatli dalillarni o‘z ichiga olgan. Asarda suvga oid ma’lumotlarning aksariyati daryolar va kechuvlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Murg‘ob to‘g‘onining buzdirilishi suvdan qamal va bo‘ysundirish quroli sifatida ongli foydalanilganining aniq misoli deb aytish mumkin. Asarda qamallarda qal’ani suvdan mahrum qilish taslim qildirishning samarali usuli sifatida foydalanganligini ko‘rsatadi. Cho‘l yo‘llaridagi quduqlar va kechuvlar haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish tarixiy rekonstruksiya uchun nihoyatda muhim.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. – Санкт-Петербург, 1914. – 161 с.

2. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времён до наших дней. – Ташкент, 1957. –316

3. Мухаммаджанов А. Р. История орошения Бухарского оазиса (с древнейших времен до начала XX в.). – Ташкент, 1978 – 263 с.

4. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв. (письменные памятники). – Ташкент: Фан, 1985. –256 с.

5. Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. Мусаххир ал-билод (Мамлакатларнинг эгалланиши) / Форс тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлари: И. Бекжонов, Д. Сангирова. Масъул муҳаррир: Ш. Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 408 б.

6. Abdullayev M. Shayboniylar davrida mukofotlash va jazo tizimi (“Musaxxir al-bilod” asari misolida). // O‘tmishga nazar, – Toshkent, 2026. 9 jild, 4 son. –B.35-40.

2-YO‘NALISH. O‘ZBEKISTON TARIXIY–ME’MORIY OB’EKTLARINI O‘RGANISHDA MINATYURA SAN’ATI, MUZEY FONDLARI, AMALIY SAN’AT NAMUNALARINING O‘RNI

IJTIMOIY ANTROPOLOGIYADA SAN’AT VA UNING FUNKTSIYALARI (2-maqola)

M.M.Is’hoqov
TDSHU, professori
Tarix fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada san’atni madaniyat hodisasining muhim ijtimoiy antropologik xossalari ochiqlanadi. San’at inson va uning jamiyati tomonidan yaratilar ekan, insonning va uning jamiyatiga xizmat qilishi orqali o‘zining antropologik mohiyatini namoyon etishi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: san’at, antropologiya, estetika, moddiylik, ma’naviy kontekst, simvolika, psixologik ta’sir, madaniy o‘zlik, san’atning nisbiyligi, an’anaviylik, globallashuv, virtual olam va san’at.

San’atning eng qadimgi psixologik funksiyalaridan biri *katarsis (ruhiy poklanish)* hisoblanadi. Bu tushuncha ilk bor Aristotel tomonidan ishlab chiqilgan. Uning fikricha, tragediyalarni tomosha qilgan inson qo‘rquv, achinish, hamdardlik va iztirob kabi hissiyotlarni boshdan kechiradi va natijada ruhiy yengillikka erishadi. Zamonaviy psixologlar katarsisni murakkab emotsiyalarni xavfsiz tarzda boshdan kechirish va qayta ishlash jarayoni sifatida izohlaydilar. Antropologik nuqtayi nazardan esa marosim teatrlar, niqobli tomoshalar va mifologik sahna ko‘rinishlari aynan shu psixologik vazifani bajaradi.

So‘nggi yillarda neyropsixologiya va neyroestetika bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar san’atning stressni kamaytirishdagi rolini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tasviriy san’at bilan shug‘ullanish yurak urishini me’yorlashtiradi, xavotirni pasaytiradi, diqqatni jamlaydi va ruhiy tiklanishni tezlashtiradi. Evolyutsion antropologlarning fikricha, san’at dastlab insonlarning psixologik moslashuvini ta’minlagan. Qo‘shiq aytish, birgalikda raqs tushish, g‘orlarga rasm chizish va ritmik musiqalar ijtimoiy stressni kamaytirgan, o‘zaro ishonchni kuchaytirgan va guruh a’zolari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlagan. Shu sababli san’at evolyutsiya davomida biologik moslashuvning bilvosita mexanizmlaridan biriga aylangan.

Ijtimoiy antropologiya nuqtayi nazaridan san’atning psixologik funksiyasi insonning hissiy, kognitiv va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi murakkab madaniy mexanizm hisoblanadi. Zamonaviy antropologiya, psixologiya va neyroestetika tadqiqotlari san’atning inson psixikasiga ta’siri biologik, kognitiv va madaniy omillarning o‘zaro uyg‘unligi natijasida yuzaga kelishini ko‘rsatmoqda. Shu sababli san’at estetik hodisagina emas, balki inson ruhiy salomatligi va jamiyatning psixologik barqarorligini ta’minlovchi universal madaniy institut sifatida e’tirof etiladi.

Diniy va marosimiy funksiyasi: Ijtimoiy antropologiyada san’at va din insoniyat madaniyatining bir-biridan ajralmas ikki tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Dastlabki jamiyatlarda tasviriy san’at, musiqa, raqs, haykaltaroshlik, bezak san’ati va teatr mustaqil estetik faoliyat emas, balki diniy e’tiqodlar hamda marosim amaliyotining tarkibiy elementi bo‘lgan. Shu sababli ko‘plab antropologlar san’atning ilk shakllari aynan diniy marosimlar doirasida shakllanganini ta’kidlaydilar.

San’at diniy tizimlarda muqaddas g‘oyalarni ko‘rinarli va hissiy jihatdan idrok etiladigan shaklga keltiradi. Inson mavhum ilohiy kuchlarni, ruhlarni yoki kosmik tartibni bevosita idrok eta olmaganligi sababli ularni ramzlar, tasvirlar, musiqa, me’morchilik va marosimlar vositasida moddiylashtiradi. Shu tariqa san’at diniy tajribaning vizual va emotsional tiliga aylanadi.

Fransuz sotsiologi va faylasufi, fransuz sotsiologik maktabining asoschisi Emil Dyurikgeymning fikricha, diniy san’at va marosimlar individual e’tiqoddan ko‘ra, ko‘proq jamiyatning kollektiv ongini va birdamligini mustahkamlaydi.

Ritual antropologiyada san’at marosimning tashqi bezagi emas, balki uning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Diniy musiqa, ritmik harakatlar, tana bezaklari, marosim liboslari va buyumlari ishtirokchilarning hissiy holatini o‘zgartiradi hamda ularni kundalik hayotdan marosim makoniga olib kiradi. Natijada marosim ishtirokchilari o‘zlarini muqaddas voqelik bilan bevosita aloqada deb his qiladilar. Amerikalik antropolog Viktor Tyorner marosimning ramziy elementlari *liminallik*[*] bosqichini hosil qilishini ko‘rsatadi. Aynan san’at elementlari – niqoblar, qo‘shiqlar, raqslar va tana bezaklari – ishtirokchilarning ijtimoiy maqomini vaqtincha o‘zgartirib, ularni yangi ruhiy va ijtimoiy holatga olib o‘tadi.

Diniy san’at murakkab diniy g‘oyalarni ramziy shaklda ifodalaydi. Har bir diniy madaniyat o‘zining ramziy tiliga ega bo‘lib, ranglar, geometrik shakllar, hayvon

[*] *Liminallik* (lotincha “limen” – “ostona” so'zidan olingan bo’lib, “oraliq holati” ma’nosini bildiradi) – bu o'tish yoki katta o'zgarishning noaniq o'rta bosqichi bo’lib, bu bosqich inson eski holatingini tark etadi, lekin hali yangi holatga to'liq kirmaydi.

tasvirlari, o‘simlik ornamentlari va me’moriy kompozitsiyalar orqali kosmologik qarashlarni aks ettiradi.

Amerikalik antropolog va sotsiolog Klifford Girtz madaniyatni ramzlar tizimi sifatida talqin qilib, diniy san’at ushbu ramzlarning eng kuchli ifodasi ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, diniy marosimlarda qo‘llaniladigan san’at insonlarga dunyo tartibi va undagi o‘rni haqida yaxlit tasavvur beradi. Masalan, islom me’morchiligidagi geometrik ornamentlar va arabesk naqshlari ilohiy tartib va cheksizlik g‘oyalarini ifodalasa, buddaviy mandalalar koinotning ramziy modeli sifatida talqin qilinadi.

Diniy marosimlarda ijro etiladigan musiqa, xor, qo‘shiq, raqs va teatr jamoaviy hissiyotlarni uyg‘unlashtiradi. Emile Dyurikgeym tomonidan ishlab chiqilgan ***“jamoaviy to‘lqinlanish” (****collective effervescence)* tushunchasiga ko‘ra, diniy marosimlarda yuzaga keladigan umumiy ruhiy ko‘tarilish jamiyat a’zolarini yagona axloqiy hamjamiyat sifatida birlashtiradi. San’at aynan shu hissiy uyg‘unlikni vujudga keltiruvchi asosiy vositalardan biridir. Shu sababli diniy qo‘shiqlar, qo‘ng‘iroq sadolari, zikr, xor kuylari va marosim raqslari diniy birdamlikni mustahkamlash vazifasini bajaradi.

San’at diniy tajribani faqat tushunishga emas, balki uni his qilishga yordam beradi. Musiqa, yorug‘lik, tutatqi hidlari, ranglar va ritmik harakatlar inson sezgi organlariga kompleks ta’sir ko‘rsatib, diniy tajribani chuqurlashtiradi. Amerikalik antropolog Roy Abraham Rappaport marosimning samaradorligi ko‘p jihatdan uning estetik tashkil etilishiga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, marosimning takrorlanuvchi ritmi va estetik shakli diniy haqiqatlarning ishonchliligini mustahkamlaydi. Shuningdek san’at diniy jamoalarning o‘ziga xosligini belgilovchi muhim omildir. Masjid, cherkov, sinagoga yoki ibodatxonadagi me’moriy uslublar, diniy kiyimlar, ikonografiya va marosim musiqasi muayyan diniy guruhni boshqa jamoalardan ajratib turadi.

Ijtimoiy antropologiya nuqtayi nazaridan san’atning diniy va marosimiy funksiyasi muqaddas tajribani yaratish va uzatishning universal madaniy mexanizmi hisoblanadi. Zamonaviy antropologik nazariyalarda san’at marosimning bezagi emas, balki uning mazmunini vujudga keltiruvchi faol ramziy tizim sifatida talqin qilinadi. Shu bois diniy san’at insoniyat madaniyatining eng qadimiy va eng barqaror institutlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Mahalliy san’at tushunchasi va turlari

Mahalliy san’at (local art) – muayyan hudud, etnik guruh yoki madaniy jamoaga xos bo‘lgan badiiy an’analar, uslublar va ijodiy amaliyotlar majmuasini

anglatadi. Mahalliy san’at turlari o‘sha jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, tabiiy muhiti, xo‘jalik faoliyati, diniy qarashlari va ijtimoiy tuzilishi bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Antropologlar mahalliy san’atni xalqning tarixiy tajribasi va madaniy merosining ifodasi sifatida baholaydilar. Mahalliy san’at “xalq san’ati” yoki “an’anaviy san’at tushunchalari bilan ma’lum darajada bog‘liq bo‘lsa-da, ular aynan bir xil mazmunga ega emas. Xalq san’ati ko‘proq folklor va hunarmandchilik mahsulotlarini anglatsa, mahalliy san’at tushunchasi moddiy va nomoddiy madaniyatning barcha estetik shakllarini qamrab oladi.

Frans Boasning ta’kidlashicha, san’at asarlarini tushunish uchun ularning yaratilgan madaniy muhitini o‘rganish zarur. Har bir xalq san’ati o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan estetik me’yorlar va qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Shu sababli mahalliy san’atni boshqa madaniyat mezonlari asosida baholash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas.

Mahalliy san’atning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tarixiy davomiylik;
- avlodlararo uzatilish;
- etnik va madaniy identifikatsiyani ifodalash;
- an’anaviy ramzlar va belgilar tizimiga ega bo‘lish;
- mahalliy tabiat va turmush tarzi bilan bog‘liqlik.

Mahalliy san’at turlari ko‘pincha jamiyatning kundalik hayoti, marosimlari va diniy amaliyotlari bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Shu sababli antropologlar san’atni mustaqil faoliyat emas, balki madaniyatning tarkibiy qismi sifatida o‘rganadilar. Mahalliy san’atning asosiy turlariga *tasviriy san’at, musiqa san’ati, raqs san’ati, amaliy bezak san’ati, og‘zaki ijod san’ati* va hakazolar kiradi.

Mahalliy san’at etnik va madaniy identifikatsiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir xalq o‘zining tarixiy xotirasi va qadriyatlarini san’at orqali namoyon etadi. Mahalliy san’at etnik birdamlikni mustahkamlaydi, tarixiy xotirani saqlaydi, madaniy chegaralarni belgilaydi, kollektiv o‘zlikni shakllantiradi.

Mahalliy san’at odatda *moddiy* va *nomoddiy* shakllarga ajratiladi. Bunday tasnif san’atning yaratilish usuli, uzatilish mexanizmi va ijtimoiy funksiyasiga asoslanadi.

Moddiy mahalliy san’at. Bu san’at inson tomonidan yaratilgan, jismoniy shaklga ega bo‘lgan estetik obyektlarni qamrab oladi. Ular uzoq muddat saqlanadi va madaniy merosning moddiy qatlami hisoblanadi. Bunga xalq me’morchiligi, kulolchilik, yog‘och va tosh o‘ymakorligi, metallga ishlov berish, kashtachilik, zargarlik, gilamdo‘zlik, milliy kiyimlar, musiqa asboblari, marosim buyumlari va

hakazolar kiradi. Ushbu san’at turlari estetik qiymat bilan birga xo‘jalik, diniy va ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi.

Britaniyalik antropolog Alfred Gell san’atni estetik jihatdan emas, balki ijtimoiy ta’sir ko‘rsatadigan texnologiya sifatida talqin qiladi. Gell nazariyasiga ko‘ra, mahalliy san’at buyumlari oddiy predmet emas. Bu san’at asarilarning qadri uning chiroyida emas, balki uni yaratishda qo‘llanilgan murakkab texnologik mahoratda namoyon bo‘ladi. Aynan ushbu mahorat tomoshabinda hayrat uyg‘otadi hamda san’at asariga ijtimoiy ta’sir kuchini beradi **[**Gell A: 12-17**]**. Shuningdek olim *“texnologik sehr”* tushunchasini ilgari surib, mahalliy san’atning kuchi tomoshabinning buyumni qanday yaratilganini tushunmasligida ekanligini ta’kidlaydi. Murakkab hunarmandchilik usullari odamda hayrat, qiziqish va hurmat hissini uyg‘otadi. Shu tariqa san’at buyumi ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish vositasiga aylanadi.

Nomoddiy mahalliy san’at. Nomoddiy san’at moddiy shaklga ega bo‘lmagan, ammo inson faoliyati orqali muntazam ravishda qayta yaratiladigan madaniy hodisalardan iborat. Xalq qo‘shiqlari, dostonlar, ertaklar, afsonalar, maqollar, xalq raqslari, marosim tomoshalari, og‘zaki ijod, an’anaviy ijrochilik uslublari shular jumlasidandir. Bunday san’at shakllari yozma manbalardan ko‘ra ko‘proq og‘zaki an’ana orqali avloddan-avlodga uzatiladi.

Britaniyalik antropolog Tim Ingold san’atning nomoddiy tomoni haqida fikr bildirib, quyidagilarni ta’kidlaydi. Uning fikricha, mahalliy san’atning asosini tayyor buyum emas, balki uni yaratishga imkon beradigan amaliy mahorat tashkil etadi. Hunarmandchilik ko‘nikmalari tayyor bilim sifatida boshqalarga o‘tkazilmaydi. Ushbu mahorat oddiy nusxa ko‘chirish yoki kuzatish orqali emas, balki insonning takroriy mashqlari va shaxsiy tajribasi orqali shakllanadi. Har bir shogird ushbu tajribani o‘zi boshidan kechirishi, buyum bilan ishlashi va harakatlarni takrorlashi orqali o‘zlashtiradi. Demak, mahalliy san’atning uzluksizligi yozma qoidalarga emas, balki amaliy tajribaga asoslanadi. Shuning uchun mahalliy san’atning eng muhim nomoddiy elementi – bu hunarmandning bilimlari, tajribasi va kasbiy ko‘nikmalaridir **[Ingold T. 352-356]**.

Braziliyaning shimoli-sharqiy qismidagi Fortaleza shahrida rangli qum butilkalari san’ati rivojlangan. Bu noyob hunarmandchilikda bo‘yoq yoki yelimdan foydalanilmaydi. Turli rangdagi tabiiy qumlar shaffof idishlarga uzun va ingichka cho‘plar yordamida qatlam-qatlam qilib joylanadi. Shisha idishlarda ko‘pincha Braziliyaning tropik plyajlari, quyosh botishi, palma daraxtlari va mahalliy tabiat manzaralari tasvirlanadi. Har bir asar qo‘lda, mutlaq aniqlik va sabr-toqat talab qiladigan soatlab mashaqqatli mehnat evaziga yaratiladi. Rangli qum butilkalarini

yasash texnologiyasi mahalliy jamoalarda ko‘p avlodlar davomida saqlanib kelgan. Buyumning moddiy tomoni shisha idish va rangli qumdan iborat bo‘lsa, uning nomoddiy tomoni ushbu san’atni yaratish mahorati, texnikasi va avloddan-avlodga o‘tuvchi bilimlaridir. Aynan mana shu ikki unsur birgalikda mahalliy san’atning yaxlit mohiyatini tashkil etadi.

O‘zbekistonda mazkur san’at turiga eng yaqin o‘xshashlikni Rishton, G‘ijduvon va Buxoro kulolchilik maktablarida kuzatish mumkin. Bu maktablarda ham mahalliy tabiiy xomashyolar: maxsus tuproq, mineral bo‘yoqlar, ishqorli sir qo‘llaniladi. Ishlab chiqarish jarayoni qo‘lda amalga oshiriladi hamda hunarmandchilik sir-asrorlari ustoz-shogird an’anasiga tayaniladi. Shuning uchun antropologik nuqtai nazardan ushbu san’at turlari moddiy va nomoddiy madaniy merosning uyg‘unlashgan namunalarini ifodalaydi.

Mahalliy san’at tasodifan yuzaga kelmaydi. Uning shakllanishiga tabiiy-geografik omillar, xalqning xo‘jalik faoliyati, diniy va mifologik qarashlari va tarixiy aloqalari kabi bir qator omillar o‘zaro ta’sir qiladi.

Tabiiy-geografik omillar. Mahalliy san’at hech qachon tabiiy muhitdan ajralgan holda vujudga kelmaydi. Antropologlar fikricha, har qanday san’at turi avvalo insonning yashayotgan geografik makoni, mavjud tabiiy resurslari hamda ekologik sharoitlariga moslashuvi natijasida shakllanadi. Shu sababli dunyoning turli hududlarida uchraydigan mahalliy san’at turlari nafaqat estetik didni, balki muayyan ekologik muhitning mahsulini ham aks ettiradi.

Tim Ingold ta’kidlaganidek, inson va uning yaratgan buyumlari tabiatdan tashqarida mavjud bo‘la olmaydi. San’at insonning atrof-muhit bilan uzluksiz amaliy munosabati jarayonida shakllanadigan faoliyatdir. Mahalliy san’atning eng muhim omili – tabiiy resurslardir. Iqlim, landshaft va tabiiy resurslar san’at texnologiyasi hamda material tanloviga bevosita ta’sir qiladi.

Xalqning xo‘jalik faoliyati. San’at jamiyatning iqtisodiy hayotidan ajralgan holda rivojlanma olmaydi. Insonning tirikchilik manbai, ishlab chiqarish vositalari, mehnat taqsimoti va tabiiy resurslardan foydalanish usullari san’atning materiali, shakli, bezaklari, ramzlari va texnologiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Amerikalik antropolog, etnolog va lingvist Franz Boas ta’kidlaganidek, xalq san’ati muayyan etnik guruhning kundalik turmushi va xo‘jalik hayotidan ajralmas holda rivojlanadi. San’at asarlari nafaqat estetik ehtiyojlarni, balki ishlab chiqarish, mehnat va ijtimoiy hayot talablarini ham aks ettiradi.

Mahalliy san’at turlarining shakllanishida xalqning xo‘jalik faoliyati hal qiluvchi omillardan biridir. Xo‘jalik tizimi san’at uchun zarur bo‘lgan tabiiy

xomashyo bazasini, ishlab chiqarish texnologiyalarini, mehnat ko‘nikmalarini va kasbiy ixtisoslashuvni vujudga keltiradi.

Diniy va mifologik qarashlar. Mahalliy san’at turlarining aksariyati xalqning diniy e’tiqodlari va mifologik tasavvurlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Qadimgi jamiyatlarda san’atning asosiy vazifasi go‘zallik yaratish emas, balki inson, tabiat va ilohiy kuchlar o‘rtasidagi munosabatlarni ramziy ifodalash bo‘lgan. Shu bois san’at asarlaridagi naqshlar, ranglar, hayvon obrazlari, geometrik shakllar va marosim buyumlari ko‘pincha muqaddas mazmunga ega bo‘lgan. Qadimgi jamiyatlarda quyosh, oy, yulduzlar, tog‘lar, daryolar, daraxtlar, qushlar, ilonlar oddiy tabiat hodisalari yoki mavjudotlar emas, balki ilohiy kuchlarning timsoli hisoblangan. Natijada ushbu obrazlar kulolchilikda, gilam naqshlarida, yog‘och o‘ymakorligida, zargarlikda, tosh o‘ymakorligida eng ko‘p uchraydigan bezaklarga aylangan.

Fransuz etnologi va sotsiologi Klod Levi Stross totemik tafakkur tabiatni tasniflash va jamiyatni anglash usuli ekanligini ko‘rsatgan. Totemik hayvonlar ko‘plab mahalliy san’at turlarida muqaddas timsol sifatida aks etadi. Masalan, *burgut* – osmon va qudrat, *bo‘ri* – jasorat va ajdod, *bug‘u* – yangilanish, *ilon* – himoya va hosildorlik, *baliq* – baraka, *qo‘chqor* – kuch va farovonlik hisoblangan. O‘zbek amaliy bezak san’atida keng uchraydigan qo‘chqor shoxi naqshi chorvador jamiyatlarning mifologik qarashlari bilan bog‘liq bo‘lib, u kuch, serhosillik va himoya ramzi sifatida talqin etilgan.

Ko‘plab mahalliy naqshlar oddiy bezak emas. Ular diniy kosmologiyani ifodalaydi. Dunyoning ko‘pgina xalqlarining diniy tasavvurlariga ko‘ra, geometrik shakllar va ranglar ham o‘zida bir qator yashirin va ramziy ma’nolarni mujassam etadi. *Doira* – koinot, *kvadrat* – yer, *uchburchak* – muvozanat, *spiral* – hayot aylanishi, *sakkiz qirrali yulduz* – mukammallik va uyg‘unlik ma’nolarini bildirgan. O‘zbek xalq amaliy san’atida ham diniy va mifologik qarashlarning izlari yaqqol ko‘rinadi. Misol uchun, o‘zbek so‘zanalarida quyosh va hayot daraxti motivlari, Rishton kulolchiligida islimiy va geometrik naqshlar, Buxoro zardo‘zligida jannat bog‘ini eslatuvchi gul ramzlari, Qoraqalpoq gilamlarida himoya va baraka ramzlari, Xiva yog‘och o‘ymakorligida murakkab geometrik kompozitsiyalar ko‘zga tashlanadi. Mahalliy san’atda rang tanlash ham ko‘pincha diniy tasavvurlar bilan bog‘liq. Masalan, *oq* – poklik, *yashil* – hayot va jannat, *ko‘k* – osmon va ilohiy himoya, *qizil* – hayotiy quvvat, *qora* – sir, motam yoki himoya ma’nosini anglatgan. Shuning uchun ko‘plab xalq san’ati buyumlarida ranglar estetik emas, balki ramziy mezonlar asosida tanlangan.

Ko‘plab jamiyatlarda hunarmandchilik faqat kasb emas, balki muqaddas faoliyat deb qaralgan. O‘zbek hunarmandchiligida ish ustozdan fotiha olib, duo bilan boshlagan. Ayrim marosimlarga rioya qilingan. Kasb sirlari muqaddas meros sifatida saqlagan va otadan bolaga o‘tkazilgan. Bu holat hunarmandchilikning nomoddiy madaniy meros sifatidagi ahamiyatini kuchaytirgan.

Tarixiy aloqalar. Mahalliy san’atning rivojlanishi ichki madaniy an’analar bilan bir qatorda tashqi tarixiy aloqalar ta’sirida ham sodir bo‘ladi. Turli davrlarda amalga oshirilgan savdo, migratsiya, siyosiy munosabatlar, harbiy yurishlar va diniy-madaniy almashinuvlar natijasida yangi texnologiyalar, materiallar, badiiy uslublar va ramziy tizimlar bir hududdan boshqasiga tarqalgan. Mahalliy ustalar esa bu yangiliklarni o‘z madaniy muhitiga moslashtirib, ularga yangi mazmun bergan. Natijada o‘ziga xos, ammo ko‘p qatlamli mahalliy san’at maktablari vujudga kelgan.

Tarix davomida xalqaro savdo yo‘llari san’at taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo‘lgan. Buyuk Ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arb o‘rtasida ipak, chinni, shisha, qimmatbaho toshlar, metall buyumlar, bo‘yoqlar, yangi texnologiyalar, bezak uslublari va hakazolar almashilgan. Tarixiy migratsiyalar san’at an’analarining keng hududlarga tarqalishiga sabab bo‘lgan. Tarixda hukmdorlar mashhur ustalarni turli shaharlarga ko‘chirgan. Amir Temur tomonidan turli mamlakatlardan Samarqandga olib kelingan me’morlar, naqqoshlar, zargarlar va kulollar mahalliy san’at taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Ko‘chib kelgan hunarmandlar yangi texnologiyalarni, kasb sirlarini, bezak usullarini va ishlab chiqarish tajribalarini o‘zlari bilan olib kelgan. Natijada mahalliy san’at yangi shakllar bilan boyigan.

San’atda individuallik – ijodkorning o‘ziga xos dunyoqarashi, estetik qarashlari, mahorati va shaxsiy tajribasining badiiy asarda aks etishidir. Antropologik tadqiqotlarda uzoq vaqt davomida san’at ko‘proq kollektiv madaniyat mahsuli sifatida talqin qilingan. Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab san’atkor shaxsining roli ham alohida o‘rganila boshlandi. Individuallik ijodiy uslub, mavzu tanlovi, estetik qarashlar, texnik mahorat, ramzlardan foydalanish usuli kabi jihatlarda namoyon bo‘ladi. Har bir san’atkor mavjud madaniy an’analarga tayangan holda yangi talqinlar yaratadi.

San’atdagi individuallik mutlaq erkinlik degani emas. Har bir ijodkor ma’lum madaniy an’analar doirasida faoliyat yuritadi. Fransuz sotsiologi, antropologi va faylasufi, XX-asrning eng nufuzli ijtimoiy fan nazariyotchilaridan biri Pyer Burdye (1930–2002) san’atni “madaniy maydon” tushunchasi orqali izohlagan. Uning fikricha, san’atkorning ijodi shaxsiy qobiliyat bilan bir qatorda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va madaniy kapital ta’sirida shakllanadi **[Pierre Bourdieu: 29–73]**.

Shuning uchun san’atdagi individuallik “madaniy an’analar” va “shaxsiy ijodkorlik” kabi ikki omilning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Masalan, maqom ijrochilari umumiy musiqiy an’anaga amal qilgan holda har bir asarni o‘ziga xos uslubda ijro etadilar.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar san’atdagi individuallikning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda san’atkorlar internet orqali global auditoriyaga chiqish, turli madaniyat elementlarini birlashtirish va yangi media texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Globallashuv jarayonlaridagi ushbu imkoniyatlar mahalliy san’at an’analarining yo‘qolish xavfini ham kuchaytirmoqda. Shu sababli zamonaviy antropologiyada mahalliy san’at va individual ijodkorlik o‘rtasidagi muvozanat masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Gell A. Art and Agency. – Oxford, 1998.
2. Ingold T. The Perception of the Environment. – London: Routledge, 2000.
3. Pierre Bourdieu, The Field of Cultural Production (New York: Columbia University Press, 1993).

O‘ZBEKISTON TARIXIY ME’MORIY OB’YEKTLARINI O‘RGANISHDA MINIATYURA SAN’ATI, MUZEY FONDLARI VA AMALIY SAN’AT NAMUNALARINING AHAMIYATI

Abdusalomova Shodiyona Sherzod qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston hududidagi tarixiy-me’moriy ob’ektlarni o‘rganishda miniatyura san’ati, muzey fondlari va amaliy san’at namunalarining ilmiy va tarixiy ahamiyati yoritilgan. Miniatyuralarda aks etgan me’moriy tasvirlar, muzeylarda saqlanayotgan tarixiy eksponatlar hamda naqsh, ganchkorlik, koshinkorlik va boshqa amaliy san’at namunalari asosida me’moriy yodgorliklarning badiiy-estetik va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Mazkur manbalarni kompleks o‘rganish tarixiy obidalarning asl qiyofasi va ular bilan bog‘liq madaniy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini berishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy-me’moriy ob’ektlar, miniatyura san’ati, muzey fondlari, amaliy san’at, madaniy meros, me’moriy yodgorliklar, naqsh, kitoba, epigrafika, Temuriylar davri, badiiy manba.

O‘zbekiston hududidagi tarixiy me’moriy ob’ektlar xalqimizning ko‘p asrlik moddiy va ma’naviy merosini aks ettiruvchi muhim manbalardan biridir. Ularni o‘rganishda me’moriy yodgorliklarning o‘zi bilan bir qatorda, miniatyura san’ati, muzey fondlarida saqlanayotgan tarixiy buyumlar hamda amaliy san’at namunalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Miniatyura asarlarida aks ettirilgan me’moriy inshootlar, muzey eksponatlaridagi bezak va buyumlar, shuningdek, naqqoshlik, kulolchilik, ganch va yog‘och o‘ymakorligi namunalari tarixiy davrning badiiy-estetik qarashlarini yoritishga xizmat qiladi. Mazkur manbalarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish orqali tarixiy ob’ektlarning me’moriy, badiiy va madaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq anglash mumkin.

O‘zbekiston tarixiy me’moriy ob’ektlarini miniatyura san’ati, muzey fondlari va amaliy san’at namunalari asosida o‘rganish milliy madaniy merosni ilmiy tadqiq etish, asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazishda muhim ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan tarixiy-me’moriy ob’ektlar oddiy qurilish inshootlari bo‘lib qolmay, xalqimizning ko‘p asrlik davlatchilik tajribasi, diniy-ma’naviy qarashlari va estetik tafakkurini o‘zida mujassam etgan moddiy-madaniy meros namunalaridir. Mazkur yodgorliklarni tadqiq etish bugungi kunda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki ko‘plab me’moriy obidalar uzoq tarixiy jarayon davomida qayta ta’mirlangan, ayrim bezak qismlari o‘zgargan yoki vaqt ta’sirida asl ko‘rinishini yo‘qotgan.

Shu sababli tarixiy me’morchilikni faqat mavjud bino va inshootlarning qoldiqlari asosida o‘rganish yetarli emas. Ularni o‘sha davrga oid tasviriy san’at, hunarmandchilik va amaliy san’at namunalari bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish tarixiy qiyofani yanada to‘liqroq tiklash imkonini beradi. Mazkur yondashuvda miniatyura san’ati, muzey fondlarida saqlanayotgan moddiy manbalar hamda amaliy san’at asarlari muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Miniatyura san’ati, xususan, O‘rta Osiyo hududida kitob bezagi vazifasidan tashqari, o‘z davrining me’moriy muhiti, shahar hayoti va madaniy jarayonlarini tasvirlovchi badiiy manba sifatida ham katta ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Temuriylar davrida Samarqand va Hirotda shakllangan miniatyura maktablari ijodida me’moriy inshootlarning tasviri keng uchraydi. Kamoliddin Behzod, Qosim Ali va Mahmud Muzahhib kabi

musavvirlarning asarlarida saroylar, bog‘lar, masjidlar va boshqa me’moriy makonlarning aks ettirilishi o‘sha davr me’morchiligi haqida tasavvur hosil qilishda muhim vizual manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shu jihatdan tarixiy-me’moriy ob’ektlarni miniatyura san’ati, muzey fondlari va amaliy san’at namunalari bilan birgalikda o‘rganish yodgorliklarning nafaqat me’moriy tuzilishini, balki ularning badiiy-estetik mazmuni va tarixiy-madaniy muhitini ham kengroq yoritish imkonini beradi.

Buxoro miniatyura maktabi XVI-XIX asrlarda Buxoro maktabida shahar manzaralari janri rivojlandi. Unda Ark, Minorai Kalon, Labi-Hovuz ansambli atrofi juda aniq topografik aniqlikda chizilgan. Tadqiqotchi A.A. Hakimovning ta’kidlashicha, Buxoro miniatyuralarida perspektiv qonunlari bo‘lmasa-da, binolarning nisbatlari va bezak tizimi deyarli fotografik aniqlikda berilgan.[Rakhimova Z. : 1 - 49]

Bu miniatyuralar restavratsiya uchun muhim. Masalan, Shahrisabzdagi Dorut Tilovat majmuasidagi buzilib ketgan koshinlar aynan “Zafarnoma” miniatyuralaridagi ranglar asosida tiklangan. O‘zbekiston muzeylarida 2 milliondan ortiq me’morchilikka oid eksponat saqlanadi. Ularni 4 guruhga bo‘lish mumkin.

O‘zbekiston Davlat tarixi muzeyi, Afrosiyob muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi fondlaridagi topilmalar:

- Pishiq g‘isht va koshinlar: Dalvarzintepa, Fayoztepa, Qoratepadan topilgan I-III asrlarga oid koroplastika va g‘ishtlar kushon davri me’morchiligida sinchdan tashqari pishiq g‘isht ishlatilganini isbotlaydi.

- Ganch va yog‘och o‘ymakorligi parchalari: Varakhsha saroyi (VII-VIII asr) dan topilgan ganch parchalari va Buxoro arkidan topilgan IX asrga oid yog‘och ustunlar bugungi kunda muzeylarda saqlanadi. Ular ustida olib borilgan kimyoviy tahlillar qadimda ganch tarkibiga qamish tolasi va tabiiy yelim qo‘shilganini ko‘rsatdi. [Cultural Legacy of Uzbekistan in the World Collections:5 - 127]

- Vaqf hujjatlari: O‘zRFA Sharqshunoslik instituti va Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasida saqlanayotgan 500 dan ortiq vaqf hujjati mavjud. Masalan, Nodir Devonbegi madrasasining 1622-yilgi vaqf hujjatida madrasa hovlisida 18 ta hujra, qishki masjid va kutubxona bo‘lgani qayd etilgan. Hozirda kutubxona saqlanmagan.

- 1880-1920-yillarda olingan Turkiston albomi, S.M. Prokudin-Gorskiy fotosuratlari. Ular Sovet davrida buzib tashlangan masjidlarning asl qiyofasini tiklashda asosiy manba bo‘lmoqda.

Tarixiy-me’moriy yodgorliklarning peshtoq va devorlarida uchraydigan epigrafik yozuvlar vaqt o‘tishi, tabiiy yemirilish yoki restavratsiya jarayonlari

natijasida shikastlanishi va ayrim hollarda o‘zgarib ketishi mumkin. Shu bois asl yozuvlarning ko‘chirma nusxalari tarixiy ob’ektlarning dastlabki mazmunini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondlarida Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek davriga tegishli ko‘plab kitoba va epigrafik materiallarning saqlanishi ushbu manbalarning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Mazkur yozuvlarni tahlil qilish orqali me’moriy inshootning barpo etilgan davri, bunyodkorlik faoliyatida ishtirok etgan me’morlar hamda qurilishni amalga oshirgan homiylar haqida ma’lumot olish mumkin. Jumladan, Samarqanddagi Registon majmuasida joylashgan Sherdor madrasasi peshtoqidagi Yalangto‘sh Bahodir nomi bilan bog‘liq yozuv me’moriy obidaning tarixini o‘rganishda muhim epigrafik manbalardan biri sifatida qaraladi. Shu kabi kitobalarni muzey fondlari va me’moriy ob’ektlarning o‘zidagi mavjud ma’lumotlar bilan qiyosiy o‘rganish tarixiy yodgorliklarning asl mazmunini ilmiy jihatdan aniqlashtirishga yordam beradi.

O‘zbek me’morchiligi va amaliy san’ati bir ildizga ega. Ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Akademik L.I. Rempel o‘z tadqiqotlarida isbotlaganidek, me’moriy bezakdagi girih va islimiy naqshlar gilam, so‘zana va yog‘och o‘ymakorligidagi naqshlar bilan bir xil qonuniyat asosida tuziladi. Ya’ni, me’moriy ob’yektdagi naqshning ma’nosini tushunish uchun so‘zana va gilamdagi ramziy ma’nolarni bilish kerak. Masalan, chor-panjara naqshi ham eshikda, ham Registon koshinlarida himoya ramzi sifatida ishlatiladi. Bugungi kunda UNESCO nomoddiy meros ro‘yxatiga kiritilgan 6 ta an’anaviy maktab me’morchilikni o‘rganishda tirik laboratoriya hisoblanadi:

- Buxoro ganchkorlik maktabi: Usta Shirin Murodov va uning shogirdlari an’anasi.

- Xiva yog‘och o‘ymakorligi maktabi: Juma masjididagi 212 ta ustunning har biridagi naqshni takrorlay oladigan ustalar hali ham mavjud.

- Samarqand koshinkorlik maktabi: Rishtondan keltirilgan tabiiy bo‘yoqlar va sirlar tarkibi XI asr koshinlari bilan bir xil.

- Marg‘ilon kulolchilik va kashtachilik an’analari. Bu ustalar ishtirokisiz olib borilgan restavratsiyalar ko‘pincha muvaffaqiyatsiz chiqqan. 1970-yillarda Buxorodagi Samaniylar maqbarasini sement bilan “restavratsiya” qilish bunga misol. Keyinchalik an’anaviy materiallar bilan qayta tiklandi.

XIX asrga oid suzana va palaklarda ko‘pincha “mehrobiy” kompozitsiya uchraydi - bu aslida masjid mehrobining matodagi tasviri. Ba’zi so‘zanalarda Buxoro arki, Xivaning Kalta Minor kabi ob’yektlar tasviri tushirilgan bo‘lib, bu xalq xotirasida me’morchilikning qanday saqlanganini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Madaniy meros agentligi va Yaponiyaning Waseda universiteti hamkorligida Afrosiyob devoriy rasmlari, Fayoztepa ibodatxonalari miniatyura va muzey ma’lumotlari asosida 3D formatda tiklanmoqda. O‘zbekiston tarixiy me’moriy ob’yektlarini o'rganish - bu o‘tmishni shunchaki konservatsiya qilish emas, balki uni qayta anglash jarayonidir. Miniatyura san'ati bizga o‘tmish me’morining ko‘zi bilan qarash imkonini bersa, muzey fondlari uning qo‘li teggan materialni va yozib qoldirgan hujjatini beradi, amaliy san’at namunalari esa uning bilimi va mahorati bugun ham yashab kelayotganini isbotlaydi.

Kelajakda me’moriy yodgorliklarni o‘rganishda arxeolog, san’atshunos, epigrafist va an’anaviy ustalarni bir jamoaga birlashtirgan kompleks ekspeditsiyalar tashkil etish maqsadga muvofiq. Faqat shundagina biz merosni muzey eksponatiga emas, balki yashab kelayotgan madaniyatga aylantira olamiz.

Tarixiy-me’moriy obidalardagi epigrafik yozuvlar va ularning muzeylarda saqlanayotgan ko‘chirma nusxalari yodgorliklarning qurilish davri, bunyodkorlari va homiylari haqida muhim ma’lumot beradi. Shu sababli kitobalarni me’moriy ob’ektlar va boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy o‘rganish O‘zbekiston me’moriy merosining tarixiy va badiiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Rakhimova Z. Miniature: Art with a Long History. UNESCO Tashkent Office, 2021.
2. UNESCO. Uzbekistan – Oriental Miniatures (14th–17th Centuries). Al-Biruni Institute of Oriental Studies, 2022.
3. Savitsky I.V. Karakalpakstan State Museum of Art: Collection Highlights. London: Scala, 2022. — 80 p.
4. The Collection of the State Museum of Applied Art and Handicraft’s History of Uzbekistan. Tashkent: Cultural Legacy of Uzbekistan, 2021–2022.
5. Cultural Legacy of Uzbekistan in the World Collections. Tashkent: World Society for the Study, Preservation and Popularization of the Cultural Legacy of Uzbekistan, 2021–2022.
6. Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzeyi. “Meros qadriyati” ko‘rgazmasi va muzey fondi materiallari. Toshkent, 2022.
7. Miniatyura san’ati. UNESCO nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro‘yxatida. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, 2020.
8. Painting. The Uniqueness of Miniature Art Transferred to Wall Paintings. *Society and Innovations*, Special Issue, 2022.

9. Traditional and Contemporary Forms of Miniature Art: Preserving Cultural Heritage and Exploring New Creative Directions. *Journal of Applied Science and Social Science*, 2025.
10. Cultural Heritage of Uzbekistan: Museums, Collections and Applied Arts. Tashkent: Cultural Legacy of Uzbekistan, 2021–2022.

TARIXIY VA MADANIY MEROSNI TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI VOSITASIDA O‘RGANISHDAGI INNOVATSION IMKONIYATLAR

Podpolkovnik Beysenov Kenjabay Sarsanbayevich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlikfakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, dotsent.
+998988 339 7071
bisenovkenjaboy@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy va madaniy meros obyektlarini saqlash, o‘rganish hamda targ‘ib qilish jarayonida tasviriy san'at va muhandislik grafikasi imkoniyatlarini uyg'unlashtirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, me'moriy yodgorliklar va arxeologik topilmalarni raqamlashtirishda 3D modellashtirish, fotogrammetriya, kompyuter grafikasi va raqamli rangtasvir kabi innovatsion texnologiyalarning o'rni yoritilgan. Tadqiqot davomida tarixiy merosni grafik vositalar orqali qayta tiklash (rekonstruksiya qilish) va ta'lim jarayoniga tatbiq etishning pedagogik hamda texnik jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Tarixiy meros, madaniy yodgorliklar, muhandislik grafikasi, tasviriy san'at, 3D modellashtirish, fotogrammetriya, innovatsion texnologiyalar, raqamli rekonstruksiya, kompyuter grafikasi.

Kirish

Har bir xalqning ko‘p asrlik tarixiy va madaniy merosi uning ma'naviy boyligi, o‘ziga xosligini namoyon etuvchi milliy o‘zligining ajralmas qismidir. O‘tmishdan qolgan moddiy-madaniy obidalar, arxeologik topilmalar va me'moriy yodgorliklar ajdodlarimizning bunyodkorlik salohiyati, estetik dunyoqarashi va yuksak tafakkuridan darak beradi. Bugungi jadal globallashuv, shiddatli axborotlashuv hamda raqamlashtirish davrida ushbu noyob meros obyektlarini asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga o‘z holicha, zararletmagan holda yetkazish hamda ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Vaqt o‘tishi bilan tabiiy omillar, iqlim o‘zgarishlari va antropogen ta'sirlar tufayli ko‘plab tarixiy inshootlar shikastlanmoqda yoki butunlay yo‘qolib ketish xavfi ostida qolmoqda. Shu bois, ularni saqlab qolish va o‘rganishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlariga tayanish talab etiladi. Xususan, **tasviriy san’at va muhandislik grafikasi vositalarini innovatsion texnologiyalar bilan uyg'un holda qo'llash** bu borada mislsiz yuqori samaradorlik beradi. [1: 45].

Muhandislik grafikasi tarixiy obidalarning aniqligi, o‘lchovi va konstruktiv tuzilishini ta'minlasa, tasviriy san'at ularning estetik go‘zalligi, rang-tasviri hamda emotsional ta'sir kuchini yaqqol namoyon etadi. Ushbu ikki muhim yo‘nalishning o‘zaro integratsiyasi qadimiy me'morchilik namunalari va artefaktlarni ilmiy tadqiq qilish hamda ularning vizualizatsiya ko‘lamini kengaytirishda mutlaqo yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi. [2: 112].

1. Tarixiy merosni o‘rganishda muhandislik grafikasining o‘rni

Tarixiy me'morchilik va ashyoviy manbalarni o'rganishda muhandislik grafikasi ularning fazoviy tuzilishini, geometrik shakllarini va konstruktiv xususiyatlarini aniqlashda asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Qadimiy inshootlarning chizmalari, bosh rejalari, kesimlari va proyeksiyalarini yaratish ularning arxitektura qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi [3: 78].

- **Raqamli o'lchash va chizma tayyorlash:** Arxitektura yodgorliklarini lazerli skanerlash va fotogrammetriya usullari yordamida olingan ma'lumotlar muhandislik dasturlarida (AutoCAD, ArchiCAD, Kompas-3D) aniq 2D chizmalarga aylantiriladi [4: 34].
- **Geometrik tahlil:** Qadimgi binokorlik san'atidagi mutanosiblik (proporsiya), simmetriya va konstruktiv yechimlarni chizma geometriya hamda muhandislik grafikasi qonuniyatlari orqali tiklash ilmiy xatoliklarning oldini oladi [5: 67].

2. Tasviriy san’at vositalarining estetik va vizual imkoniyatlari

Tasviriy san'at tarixiy merosni faqat ilmiy hujjatlashtirib qolmay, balki uning estetik va badiiy qiyofasini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va zamonaviy raqamli tasviriy san'at vositalari o'tmish muhitini jonlantirishga yordam beradi [6: 90].

- **Badiiy rekonstruksiya:** Vaqt o'tishi bilan vayron bo'lgan yoki qisman saqlanib qolgan tarixiy binolarning tashqi ko'rinishini rassomlar va grafik dizaynerlar ilmiy ma'lumotlarga tayanib, mukammal rangli eskizlar va tasvirlar shaklida tiklaydilar [7: 150].

- **Virtual muzeylar va ekspozitsiyalar:** Tasviriy san'atning kompyuter grafikasi bilan uyg'unlashuvi natijasida muzey eksponatlarini uch o'lchamli virtual formatga o'tkazish, ularni har qanday rakursdan kuzatish imkoniyati yaratilmoqda [8: 201].

3. Innovatsion texnologiyalar va integratsiyalashgan yondashuv

Bugungi kunda "raqamli meros" (Digital Heritage) tushuni ilmiy muomalaga faol kirib bormoqda. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan birlashtirish quyidagi innovatsion imkoniyatlarni taqdim etadi:

- **3D va 4D modellashtirish:** Tarixiy obidalar nafaqat fazoviy ko'rinishda (3D), balki ularning asrlar davomida uchragan o'zgarishlari va vaqt omilini hisobga olgan holda (4D) modellashtiriladi [9: 88].
- **Augmented Reality (AR) va Virtual Reality (VR):** To'ldirilgan va virtual reallik texnologiyalari yordamida foydalanuvchilar qadimiy shaharlar va me'moriy majmualar bo'ylab "sayohat qilish", ularning ichki tuzilishini muhandislik kesimlarida ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar [10: 134].
- **Sun’iy intellekt (AI) va grafik tahlil:** Arxeologik topilmalar va qadimiy yozuvlarni grafik jihatdan qayta ishlash hamda ularning yetishmagan qismlarini neyrotarmoqlar yordamida tiklash amaliyoti joriy etilmoqda [11: 55].

Xulosa qilib aytganda, tarixiy va madaniy merosni o‘rganishda tasviriy san’at hamda muhandislik grafikasi imkoniyatlarini innovatsion yondashuvlar asosida uyg'unlashtirish ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshiradi. Bu jarayon yodgorliklarni aniq o'lchovlar asosida saqlab qolish, ularning ilmiy-badiiy rekonstruksiyasini amalga oshirish hamda keng jamoatchilik, xususan, yosh avlodga zamonaviy multimedia vositalari orqali yetkazishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov, I. A. (2021). *Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q*. Toshkent: O'zbekiston, 45-b.
2. Sodiqov, M. T. (2023). *Madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish texnologiyalari*. Toshkent: Fan va texnologiya, 112-b.
3. Nurmuhammedov, B. (2022). *Muhandislik grafikasi va me'moriy loyihalash asoslari*. O'quv qo'llanma. Toshkent: Voris, 78-b.
4. Ivanov, V. P. (2020). *Fotogrammetriya v issledovanii arxitekturnyx pamyatnikov*. Moskva: Arxitektura-S, 34-39 ss.
5. Ahmedov, R. (2024). Qadimiy me'morchilikda geometrik mutanosibliklar. *San'atshunoslik jurnali*, 2(1), 65-72.
6. Umarov, E. (2021). *Tasviriy san'at va raqamli grafika*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 90-b.

7. Bekchanov, Z. (2023). Tarixiy obidalarni badiiy rekonstruksiya qilish uslublari. *Ilmiy axborotnoma*, 4(15), 148-155.
8. Tursunov, A. (2022). *Virtual muzeylar: kecha, bugun, ertaga*. Samarqand: Zarafshon, 201-b.
9. Xolmatov, D. (2025). 3D va 4D texnologiyalarining madaniy merosni saqlashdagi o'rni. *Innavatsion texnologiyalar*, 1(3), 85-91.
10. Raximov, S. (2023). *AR va VR texnologiyalari ta'limda va madaniyatda*. Toshkent: Akademnashr, 134-b.
11. Yusupov, K. (2024). Sun'iy intellekt yordamida arxeologik obyektlarni tahlil qilish. *O'zbekiston axborot texnologiyalari*, 3(2), 52-59.

O‘ZBEKISTON ME’MORIY MEROSINI O‘RGANISHDA MUZEY KOLLEKSIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Cho‘liyev Og‘abek Ro‘zimbek o‘gli
Osiyo Texnologiyalar Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekistonning boy tarixiy-me’moriy merosini tadqiq etishda muzey fondlari hamda kolleksiyalarining manbashunoslik ahamiyati va tutgan o‘rni yoritilgan. Shuningdek, me’moriy obidalarning asl qiyofasini tiklashda muzey eksponatlaridan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: me’moriy meros, muzey kolleksiyalari, fond, tarixiy obida, koshin, restavratsiya, miniatyura, amaliy san’at, arxitektura, dekor, manbashunoslik, eksponat, madaniy meros, O‘zbekiston, integratsiya.

O‘zbekiston Respublikasining boy va ko‘p asrlik madaniy merosi, xususan, Islom sivilizatsiyasi va Sharq renessansi davrida bunyod etilgan me’moriy obidalar jahon sivilizatsiyasi va madaniyatining unikal namunalari hisoblanadi. Sharq me’morchiligining nodir durdonalari sanalgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz hamda Toshkent shaharlaridagi tarixiy binolar, masjid va madrasalar, maqbara hamda saroylar o‘zining betakror va yuksak muhandislik-arxitektura yechimlari bilan ajralib turadi. Ushbu me’moriy merosni asrab-avaylash, chuqur tadqiq etish va kelajak avlodga yetkazish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan ustuvor vazifalardan biridir. Biroq, asrlar davomida yuz bergan tabiiy ofatlar, iqlimiy o‘zgarishlar va inson omili ta’sirida ko‘plab me’moriy obidalarning dastlabki ko‘rinishi va ularni bezab turgan naqshlar, koshinlar hamda ganchkorlik bezaklari

jiddiy zarar ko‘rgan yoki yo‘qolgan. Bunday sharoitda me’moriy yodgorliklarning dastlabki qiyofasini tiklash, ularning qurilish tarixi va bezaklarining badiiy xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganishda muzey kolleksiyalari hamda fondlari asosiy va almashtirib bo‘lmaydigan manbashunoslik bazasi bo‘lib xizmat qiladi. Muzey fondlarida saqlanayotgan arxeologik topilmalar, tarixiy koshin parchalari, qadimiy me’moriy chizmalar va miniatyuralar me’morchilik va san’atshunoslik sohalarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy obidalarning buzilgan yoki yo‘qolgan qismlarini aynan muzey eksponatlarini qiyosiy-tahlil qilish orqali qayta rekonstruksiya qilish va restavratsiya jarayonida ilmiy aniqlikka erishish mumkin. Shu boisdan, O‘zbekiston me’moriy merosini yaxlit hamda atroflicha o‘rganishda muzey kolleksiyalarining ilmiy-amaliy imkoniyatlarini tadqiq etish ushbu sohadagi dolzarb va mas’uliyatli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston me’moriy merosini o‘rganish va ularni ilmiy asosda qayta tiklash murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, bunda muzey fondlari va kolleksiyalari birlamchi moddiy manba vazifasini o‘taydi. Muzeylarda saqlanayotgan eksponatlarni me’moriy obidalar bilan qiyosiy-tahlil qilish tadqiqotchilarga binolarning asl qiyofasi va bezak uslublarini aniqlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Birinchidan, arxeologik va me’moriy bezak parchalarining ahamiyatidir. Ko‘pgina me’moriy yodgorliklar vaqt o‘tishi bilan o‘zining tashqi koshin va ganchkorlik bezaklarini yo‘qotgan. Biroq, turli yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan va muzey fondlariga topshirilgan koshin, sirli g‘isht hamda ustun parchalari binolarning qaysi davrga mansubligi va ularning bezak ornamentlarini aniqlash imkonini beradi [Mavrulov A. A: 45-48]. Ushbu topilmalar restavratsiya jarayonida yo‘qotilgan elementlarni aynan o‘z holaticha tiklash uchun aniq namuna bo‘ladi. Masalan, Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondida saqlanayotgan XV asrga oid devor bo‘laklari orqali Temuriylar davrida qurilgan inshootlarning qiyofasini bilish mumkin. Devor bo‘laklari ko‘k rangda bo‘yalgan va turli xil naqshlar bilan beztilgan [Muzey fondi KK-1405]. Bu topilma tarkibi, naqshlari, davri va boshqa xususiyatlari bilan muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, miniatyura san’ati va tasviriy manbalarning o‘rni. Sharq miniatyura san’ati namunalari muzey kolleksiyalarining eng nodir qismi hisoblanadi. Miniatyuralarda o‘sha davr me’moriy obidalari, ularning fasad qismi, gumbazlari hamda ichki bezaklari o‘zining nozik detallari bilan aks ettirilgan [Pugachenkova G. A: 112-115]. Miniatyura asarlari yordamida bugungi kunga qadar yetib kelmagan yoki jiddiy vakuumga uchragan me’moriy elementlarni ilmiy grafik rekonstruksiya qilish imkoni tug‘iladi [Xakimov A. A: 78-81].

Uchinchidan, fondlardagi yozma va arxiv hujjatlarining o‘rni**.** Muzeylarning qo‘lyozmalar va hujjatlar fondida saqlanayotgan vaqfnomalar, me’moriy chizmalar va qadimiy fotosuratlar obidalarning qurilish tarixi hamda ularning davrlar o‘tishi bilan qanday o‘zgarganini xronologik ketma-ketlikda o‘rganishga xizmat qiladi [Zahidov P. Sh: 45-48]. Shuningdek, etnografik materiallar va mahalliy usta-hunarmandlarning amaliy san'at namunalari me’moriy dekor texnologiyasini tushunishda muhim o‘rin tutadi [Rahmatullaev Y. N: 102-105]. Demak, muzey kolleksiyalari shunchaki ko‘rgazma obyekti emas, balki O‘zbekiston me’moriy merosini har tomonlama, xolis va ilmiy asosda tadqiq etishda almashtirib bo‘lmaydigan fundamental tayanch fondi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy merosini atroflicha va ilmiy asosda tadqiq etishda muzey kolleksiyalari o‘rnini bosib bo‘lmaydigan fundamental manba hisoblanadi. Tadqiqot va tahlillar natijasida quyidagi amaliy va nazariy xulosalarga kelindi:

-Ilmiy qayta tiklash (restavratsiya) kafolati: Muzey fondlarida saqlanayotgan koshinlar, ganchkorlik va arxeologik topilmalar me’moriy obidalarning yo‘qolgan bezak elementlarini aynan o‘z holaticha va ilmiy aniqlik bilan qayta tiklashga imkon beradi.

-Rekonstruksiyada manbashunoslik bazasi: Sharq miniatyura san’ati va muzeylardagi arxiv hujjatlari orqali bugungi kunda saqlanib qolmagan me’moriy inshootlarning dastlabki qiyofasini grafik va fazoviy modellashtirish mumkin.

-Sohalararo integratsiya: Me’morchilik va muzeyshunoslik sohalarining o‘zaro hamkorligi madaniy merosimizni nafaqat asrab-avaylash, balki uni ta’lim va turizm sohasi orqali keng targ‘ib qilishda yuqori samara beradi.

Takliflar:

-Muzey fondlaridagi me’moriy bezak va koshin namunalarining unifikatsiyalashgan raqamli 3D-katalogini yaratish;

-Tarixiy obidalarni qayta ta’mirlash va restavratsiya qilish loyihalarida muzey ekspert-mutassislarining ishtirokini yo‘lga qo‘yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mavrulov A. A. O‘zbekistonda madaniy merosni muhofaza qilish va o‘rganish masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 210 b.
2. Pugachenkova G. A. O‘zbekiston me’moriy merosi va tasviriy san’at masalalari. – Toshkent: San’at, 2015. – 310 b.
3. Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondi . KK-1405.

4. Rahmatullaev Y. N. O‘zbekiston muzeyshunosligi va ko‘rgazmali san’at tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 195 b.
5. Xaqimov A. A. San'atshunoslik va me'morchilik sintezi. – Toshkent: San'at jurnali nashriyoti, 2017. – 160 b.
6. Zahidov P. Sh. Sharq me’morchiligi san’ati va manbashunosligi. – Toshkent: Sharq, 2020. – 180 b.
7. Zilper M. I. Muzey fondlaridagi arxeologik va etnografik kolleksiyalar katalogi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – 225 b.

O‘ZBEKISTON TARIXIY-MADANIY MEROSINI O‘RGANISHDA AMALIY SAN’AT NAMUNALARINING O‘RNI

Djurayev I.N.
Guliston davlat pedagogika instituti
“Tarix” kafedrasi dotsenti
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
+998979022081

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tunkat arxeologik yodgorligidan topilgan Somoniylar davriga oid kufiy yozuvli sirlangan sopol kosa o‘rganiladi. Undagi epigrafik matn, badiiy bezak, diniy-estetik mazmun va mintaqaviy madaniy aloqalardagi o‘rni, keng o‘rganilib tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Tunkat, Iloq, Somoniylar, sirlangan keramika, sopol kosa, kufiy yozuv, epigrafika, amaliy san’at, kulolchilik, moddiy madaniyat, diniy-estetik qarashlar, arxeologik topilma, Movarounnahr, hunarmandchilik, madaniy meros.

Qadimgi Tunkat shahri Qurama tog‘ tizmasidan Ohangaron daryosi tomon oqib tushuvchi Otchoparsoy va Sovuqbuloqsoy oralig‘ida joylashgan bo‘lib, taxminan 180 gektar maydonni egallagan. Arxeologik tadqiqotlar natijalari ushbu yodgorlikning o‘rta asrlarda yirik metallurgiya markazlaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Shaharda metallga ishlov berish jarayonlari milodiy IV asrdan boshlangan, V–VIII asrlarda esa metallurgiya ishlab chiqarishi rivojlanib, IX–X asrlarga kelib hunarmandchilikning mazkur sohasi yanada ixtisoslashgan.

Tunkat yodgorligida olib borilgan qazishmalar davomida metallurgiya bilan shug‘ullangan nufuzli kishilarga tegishli turar-joy majmuasi, ustaxonalar, metall eritish pechlari va boshqa moddiy madaniyat namunalari o‘rganildi. Turar-joy binosi ochilgan qazishma maydonining g‘arbiy qismida chiqindi tashlash uchun foydalanilgan chuqurlar ham aniqlangan. Ulardan Somoniylar davriga oid ko‘plab

arxeologik ashyolar topilgan bo‘lib, ular orasida yozuv bitilgan va yaxshi saqlangan sirlangan sopol kosa alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur kosa to‘rtta chiqindi chuquridan birinchisida topilgan. Buyum konussimon shaklda yasalgan bo‘lib, balandligi 4,7 sm, gardishining diametri 13,5 sm, tekis tag qismining diametri esa 6 sm ni tashkil etadi. Kosa sirti oq rang bilan qoplangan, uning ichki qismiga esa qora-jigarrang bo‘yoq yordamida yozuv tushirilgan. Yozuv idishning ichki devori bo‘ylab aylana shaklida joylashtirilgan va arab yozuvining kufiy uslubida bitilgan.

Kosadagi yozuvning epigrafik xususiyatlari va mazmuni

Tunkatdan topilgan kosaning eng muhim jihatlaridan biri uning ichki yuzasiga bitilgan yozuvdir. Yozuvning joylashtirilishi va bajarilish uslubi unda matn mazmuni bilan bir qatorda badiiy bezak vazifasiga ham alohida e’tibor berilganini ko‘rsatadi.

Yozuvning o‘qilishi quyidagicha talqin qilinadi:

Arabcha yozuv:

كل فيها هنيئا مريئا

Harakatlar bilan berilishi:

كُلْ فِيهَا هَنِيئًا مَرِيئًا

Transliteratsiyasi:

Kul fīhā hanīʾan marīʾan.

Mazmunan tarjimasi:

“Undan xush yoqimli va huzur bilan tanovul qiling” yoki “Yoqimli va hazmi oson bo‘lsin” [Илясова С. Р., Илясов Дж. Я. 36-39].

Matnning ushbu talqini arab tilidagi hanīʾan va marīʾan so‘zlarining semantik ma’nolariga asoslanadi. Birinchi so‘z yoqimli, huzurbaxsh va ko‘ngilga xush keladigan holatni ifodalasa, ikkinchisi taomning hazmi oson bo‘lishi, kishi uchun foydali va yoqimli kechishini anglatadi. Shu sababli, mazkur iborani taomdan bahramand bo‘lish bilan bog‘liq ezgu tilak sifatida izohlash mumkin [Илясова С. Р., Илясов Дж. Я. 82-86].

Kosa yuzasidagi yozuvning kufiy uslubda bajarilgani uning epigrafik tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yozuvlarda harflarning shakli, o‘zaro joylashuvi va bezak xususiyatlari matnni idish yuzasiga moslashtirishga xizmat qilgan. Harakat belgilarining yozuvda aks etmagani esa o‘rta asrlardagi epigrafik an’analar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq harflarning aniq o‘qilishi va ularning o‘zaro bog‘lanishini belgilashda yozuvning asl nusxasi yoki sifatli tasvirini paleografik jihatdan tekshirish zarur.

Mazkur ibora mazmunan islomiy madaniyatda uchraydigan ezgu tilaklar va taom ne’matidan bahramand bo‘lish haqidagi tasavvurlar bilan uyg‘unlashadi. Qur’oni karimning 52-sura, 19-oyatida jannat ahliga: “Yenglar va ichinglar, qilgan amallaringiz sababli sizlarga yoqimli bo‘lsin”, mazmunidagi murojaat uchraydi. Kosadagi yozuvni ushbu oyatning bevosita ko‘chirmasi deb hisoblash uchun yetarli asos bo‘lmasa-da, uning mazmuni islomiy muhitda shakllangan taom, farovonlik va ne’matdan bahramand bo‘lish haqidagi qarashlarga hamohangdir [Илясова С. Р., Имамбердыев Р. А. 62.].

Shu nuqtayi nazardan, idishdagi matnni diniy mazmun bilan boyitilgan maishiy tilak sifatida talqin qilish mumkin. U kosadan foydalangan kishiga taomning yoqimli bo‘lishi va undan huzur topish tilagini yetkazgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Bunday yozuvlar kundalik hayotda foydalaniladigan buyumlar orqali ezgu tilaklar va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni ifodalash imkonini bergan.

Somoniylar davri kulolchiligida diniy-estetik qarashlar

IX–X asrlarda Movarounnahrda kulolchilik ishlab chiqarishi yuksak darajada rivojlangan. Sirlangan sopol idishlarda turli ranglar, geometrik shakllar, o‘simliksimon naqshlar va yozuvlardan foydalanish hunarmandlarning badiiy mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, arab yozuvining bezak elementi sifatida qo‘llanilishi moddiy madaniyatda estetik qarashlar bilan ma’naviy mazmunning o‘zaro uyg‘unlashganini ko‘rsatuvchi muhim hodisalardan biridir.

Tunkatdan topilgan kosada oq sirli sirt bilan qora-jigarrang yozuv o‘rtasidagi rang kontrasti kompozitsion yaxlitlikni yuzaga keltirgan. Harflarning idish ichki devori bo‘ylab aylana shaklida joylashtirilishi esa yozuvning buyum shakliga mos ravishda tashkil etilganini ko‘rsatadi. Bunda matn faqat axborot yetkazuvchi vosita bo‘lib qolmay, idishning tashqi va ichki ko‘rinishini bezovchi badiiy unsur vazifasini ham bajargan [Илясова С. Р., Имамбердыев Р. А. 98.].

Kufiy yozuvning aniq va geometrik xususiyatlari sopol buyum yuzasida muayyan ritm va mutanosiblikni hosil qiladi. Harflarning ketma-ketligi, ularning o‘zaro munosabati hamda yozuvning aylana bo‘ylab joylashishi idishning umumiy badiiy qiyofasini belgilagan. Natijada amaliy maqsadda ishlab chiqarilgan kosa kundalik foydalanish buyumi bo‘lish bilan birga, estetik qiymatga ega moddiy madaniyat namunasiga aylangan.

Mazkur holat Somoniylar davri hunarmandchiligida foydalilik va go‘zallik tamoyillari bir-biriga zid bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Aksincha, buyumning amaliy vazifasi badiiy bezak va ma’naviy mazmun bilan to‘ldirilgan. Kosadagi yozuv orqali

ifodalangan ezgu tilak uning kundalik hayotdagi vazifasini ramziy mazmun bilan boyitgan bo‘lishi mumkin.

Islomiy an’analarda taomni qadrlash, ne’mat uchun shukr qilish va dasturxon atrofidagi odob-axloq qoidalariga rioya etish muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan qaralganda, kosadagi ibora insonning kundalik ehtiyoji bilan ma’naviy qadriyatlari o‘rtasidagi aloqani aks ettiradi. Biroq ushbu yozuvdan idish egasining aniq diniy qarashlari yoki undan foydalanish jarayonida bajarilgan muayyan marosimlar haqida qat’iy xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Uning mazmuni, avvalo, ezgu tilak va estetik bezakning o‘zaro uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi [Isabekov B., Ismoyilov U. 34].

Demak, Tunkat kosasi diniy va maishiy mazmun, amaliy vazifa hamda badiiy bezakning bir buyumda mujassamlashganini ko‘rsatuvchi muhim arxeologik manbadir.

Tunkat kosasining mintaqaviy madaniy aloqalar doirasidagi o‘rni

Tunkatdan topilgan kosa o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan sirlangan sopol buyumlar va ulardagi yozuvli bezaklar an’anasi bilan bog‘liq holda o‘rganilishi lozim. Shunga o‘xshash yozuvli idishlar Movarounnahrning boshqa yodgorliklarida, jumladan, Poykand va Binkat materiallari orasida ham ma’lum. Nishopurdan topilgan yozuvli sirlangan sopol buyumlar esa ushbu badiiy an’ananing Xuroson hududida ham rivojlanganini ko‘rsatadi.

Bunday idishlarning ayrim namunalari Eron hududidagi to‘plamlarda hamda Quvaytdagi “As-Sabah” kolleksiyasida saqlanadi [Илясова С. Р., Имамбердыев Р. А. 132-133.]. Ularning shakli, sirlash texnologiyasi, yozuv uslubi va bezak kompozitsiyasini qiyosiy o‘rganish o‘rta asrlar kulolchilik san’atining hududiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tunkat kosasining boshqa yodgorliklardan topilgan namunalarga o‘xshashligi umumiy badiiy an’analar mavjud bo‘lganini ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, bunday o‘xshashliklar buyumlar aynan bir markazda ishlab chiqarilganini yoki ular o‘rtasida bevosita savdo aloqalari bo‘lganini o‘z-o‘zidan isbotlamaydi. Buning uchun sopol massasining tarkibi, ishlab chiqarish texnologiyasi, shakliy xususiyatlar va yozuvlarning paleografik belgilarini o‘zaro taqqoslash talab etiladi.

Tunkatning yirik metallurgiya markazi sifatidagi mavqei ham ushbu topilmani o‘rganishda muhim tarixiy kontekst hisoblanadi. Shahar aholisining hunarmandchilik faoliyati, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va iqtisodiy aloqalari uning moddiy madaniyatida turli sohalarga mansub buyumlarning mavjud bo‘lishiga zamin yaratgan. Sirlangan kosa esa Tunkat aholisining kundalik turmushi, iste’mol

madaniyati va badiiy didini o‘rganishda qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi [Isabekov B., Ismoyilov U. 89.].

Buyumning chiqindi chuquridan topilgani uning foydalanishdan chiqqanidan keyingi bosqichi haqida ham ma’lumot beradi. Ehtimol, kosa ma’lum muddat kundalik turmushda ishlatilganidan so‘ng yaroqsiz holga kelib, chiqindi sifatida tashlangan. Biroq uning to‘liq saqlanganligi va chuqurga tushish sharoitlarini aniqlash uchun arxeologik kontekst, sinish izlari hamda boshqa topilmalar bilan o‘zaro aloqasini batafsil tahlil qilish zarur.

Xulosa

Tunkat arxeologik yodgorligidan topilgan IX–X asrlarga oid kufiy yozuvli sirlangan sopol kosa Somoniylar davri moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Uning shakli, sirlash usuli, ranglar uyg‘unligi va arab yozuvidagi matni o‘rta asrlar kulolchilik san’atining texnologik hamda badiiy xususiyatlarini yoritishga yordam beradi.

Kosadagi “Kul fīhā hanīʾan marīʾan” iborasi mazmunan taomdan yoqimli tarzda bahramand bo‘lish va ezgu tilak bildirish bilan bog‘liq. Matnni Qur’oni karim yoki hadislardan bevosita olingan iqtibos sifatida talqin qilish uchun yetarli dalil mavjud bo‘lmasa-da, uning semantik mazmuni islomiy madaniyatdagi ne’mat, farovonlik va shukronalik tushunchalari bilan uyg‘unlashadi.

Yozuvning idish ichki devori bo‘ylab aylana shaklida joylashtirilishi, oq sir va qora-jigarrang harflarning o‘zaro uyg‘unligi buyumning estetik xususiyatlarini yanada kuchaytirgan. Shu tariqa, kosa amaliy vazifasi, yozuv mazmuni va badiiy bezagi birlashgan moddiy madaniyat namunasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Topilmaning Poykand, Binkat va Nishopur kabi yodgorliklar materiallari bilan qiyosiy o‘rganilishi Somoniylar davrida sirlangan sopol buyumlar bezagida qo‘llanilgan yozuv an’analarining umumiy va mahalliy jihatlarini aniqlashga imkon beradi. Tunkat kosasining arxeologik konteksti esa Iloq vohasida hunarmandchilik, kundalik turmush va iste’mol madaniyatining rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, mazkur topilma Somoniylar davrida moddiy buyumlarning nafaqat xo‘jalik ehtiyojlarini qondirish, balki ezgu tilaklar va estetik qarashlarni ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qilganini ko‘rsatuvchi muhim arxeologik dalildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Илясова С. Р., Илясов Дж. Я., Имамбердыев Р. А., Исхакова Е. А. «Нет блага в богатстве…». Глазурованная керамика Ташкентского оазиса IX–XII веков. - М.: Фонд Марджани, 2016. - 596 с.
2. Илясов Дж. Я., Илясова С. Р. Арабские надписи на глазурованной керамике Мавераннахра IX–X вв. // Эпиграфика Востока. - Вып. 26. - 2001. - С. 19–30.
3. Илясов Дж. Я., Имамбердыев Р. А. Новые арабские надписи на глазурованной керамике Бинкета // Журнал востоковедения Российской академии наук (ЗВО РАН). - Новая серия, т. 1 (XXVI). - 2002. - С. 124–133.
4. Илясова С. Р., Имамбердыев Р. А. Eine Sammlung glasierter Keramik aus Taschkent // Tribus: Jahrbuch des Linden-Museums, Stuttgart. — Bd. 54. - 2005. - S. 91–101.
5. Isabekov B., Ismoyilov U. Ohangaron vodiysi o‘rta asr shaharlari aholisining taomlanish madaniyati tarixi (Suyurlitepa yodgorligidan topilgan moddiy ashyolar asosida) // Muarrix. — 2024. - T. 2. - № 1. - Б. 91–99.

JIZZAX VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYINING NOYOB FONDLARI

Haydarova Yodgora Baxtiyor qizi
Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi bo‘lim boshlig‘i
+99891 592 99 74

Annotatsiya. *Mazkur maqolada muzeylarning noyob fondlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritilib, Jizzax viloyati tarixi va madaniyati muzeyida saqlanayotgan noyob eksponatlar tarixiy jihatdan tahlil etilgan. Bundan tashqari ushbu fondlarning yaratilishi, saqlanish holati va kelgusida saqlash usullari haqida ilmiy tavsiyalar ham keltirilgan.*

Kalit so‘zlar. *Noyob fond, so‘zana, oypalak, palak, jabba juvak, etnografiya, hunarmandchilik, arxeologiya, topilma, numizmatika, tanga tumor.*

Muzeylarda saqlanayotgan eksponatlar ayniqsa, noyob fondlar nafaqat tarix uchun balki, kelajak uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki, muzeylardagi noyob eksponatlar orqali insonlarda, xususan yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bebaho tarixiy va madaniy merosga hurmat, g‘urur va iftixor, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalash hamda kuchaytirish mumkin.[O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonunini ro‘yobga chiqarish uchun zarur

bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida // (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 14-15-son.] Umumiy tasniflaganda, noyob fondlar – muzeylarda mavjud ko‘rgazmali maydondan aksar hollarda alohida ajratilgan maxsus hududda saqlanuvchi eksponatlar hisoblanadi. Sababi, ular tarixiy-ilmiy jihatdan yuqori qiymatli, yagona nusxada ekanligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari muzeylardagi noyob fondlarga taalluqli eksponatlarni saqlashda muzey xodimlaridan ham qator vazifalar talab qilinadi. AQSh Milliy muzeyining birinchi direktori Jorj Braun Gud buni “o‘ziga xos kasbiy iste’dod yohud “muzey hissi” deb ataydi. Shuningdek, olim yana qo‘shimcha qiladiki: muzeylarni o‘ziga xos qiladigan narsa - bu ulardagi noyob fondlardir. Muzey kolleksiyalari shunchaki buyumlar yig‘indisi emas; ular sinchkovlik bilan tanlab olingan majmualar va kasbiy yondashuvga asoslangan bilim mahsulidir. [Stevan Lubar. Museums need collections and connections. - USA. 2018. –P.5. *(Ma’lumot asl maqoladan tarjima qilish orqali olindi.*]

Muzeylardagi noyob fondlarini saqlashda har xil guruhlardagi harorat va namlik sharoitlarini hisobga olgan holda muzey ashyolarini saqlash uchun eng samarali sharoitlarni yaratishga, havoni ifloslantiruvchi jismlardan himoya qilishga, to‘g‘ri yoritishga va nihoyat, muzey ashyolarini mexanik shikastlardan himoya qilishga shu jumladan, zarur hollarda muzey fondlarini muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Zamonaviy muzey saqlov ishini jahon va xalqaro talablar darajasida tashkil etishda ilmiy yordamchi materiallardan foydalanish maqsad muvofiq sanaladi. Bular: maketlar, suratlar, xaritalar, chizma va rejalar, zamonaviy texnika vositalari, audio va video jihozlar bo‘lib, ular orqali tomoshabinga muzeyning noyob ekspozitsiyasi haqida hikoya qiluvchi voqealarni yanada chuqurroq, to‘liq va yorqinroq nayon etish mumkin. [Boltayev B. O‘zbekistonda xalqaro talablarga mos muzeylarni shakllantirish omillari. – Toshkent, 2025. – B. 49.]

Jahon miqyosida muzeyshunoslik va noyob fondlarni saqlashga oid tadqiqotlarga ko‘ra, muzeylardagi noyob kolleksiyalaridan foydalanish va ularning ochiqligi masalasida olimlar qator fikr va mulohazalarni ilgari surmoqda. Xususan, “noyob kolleksiyalarni “yashirish” o‘rniga, ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishimiz zarur” – deyiladi. Amaliy va iqtisodiy sabablarga ko‘ra, muzeylardagi noyob kolleksiyalarining aksariyati odatda muzey binosidan uzoqda joylashgan va jamoatchilik uchun kirish qiyin bo‘lgan maxsus omborlarda saqlanadi. Biroq, agar muzeylar o‘z noyob kolleksiyalaridan samaraliroq foydalanishni va jamoatchilikning ular bilan yaqindan tanishishiga imkon yaratishni istasa, ochiqlikni oshirishning yangi usullarini topishlari shart. Muzeylar yaxlit yondashuvni qo‘llashi

hamda “kolleksiyalash” va “kolleksiyalardan foydalanish” jarayonlarini o‘zaro uzviy bog‘liq deb bilishi lozim. “Agar odamlar o‘z madaniy merosi bilan bevosita aloqada bo‘la olmasalar, bu kolleksiyalarning nima keragi bor?” deya keltiriladi, xorij maqolasida. [Piter Ostritsch. Head of Collections at Sörmlands museum in Nyköping, Sweden. “No hidden Treasures! “ // International council of museums. - Sweden. 2023.] Darhaqiqat, muzeylardagi noyob fondlarni ehtiyotkorlik bilan saqlash zarur, shu bilan birga ulardan ommani boxabar qilish, nodir fondlarni tanishtirish ham zarur hisoblanadi.

Yurtimizda bu borada, yillar kesimida ko‘plab islohotlar, zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, Jizzax viloyatidagi qator muzeylarida mavjud noyob fondlarni saqlash, ularni kelajak avlod uchun ham yaxshi holatda yetkazish asosiy masala sifatida ko‘tarilgan. Mazkur jarayonlarni birgina Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi tarkibida saqlanayotgan noyob fondlar miqyosida tahliliy tasniflash mumkin.

Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanayotgan noyob fondlar 3 ta asosiy guruhga bo‘lingan. Ular: tarix, tabiat va san’at bo‘limlaridir. Tarix bo‘limini 50 dan ortiq qadim va o‘rta asrlarga tegishli arxeologik topilmalar tashkil etadi. Xumdon, qadimgi mehnat qurollari, sopol parchalari, tosh qurollar va uzoq tarixda foydalanilgan uy-ro‘zg‘or buyumlari shular jumlasidandir. Sanab o‘tilgan har bir eksponatning ilmiy sharhi va tegishli ilmiy xulosalari olimlar tomonidan muzey fondiga topshirilgan. Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining joriy arxiv ma’lumotlari. 2026-yil.] Muzeyning tabiat bo‘limida 40 dan ortiq noyob hayvon va qushlar saqlanib, har birining ma’lumotlari, o‘ziga xos xususiyatlari va holati bayon etilgan.

Ushbu muzeyning san’at bo‘limi alohida ajaralib turuvchi xususiyatlarga ega bo‘lim hisoblanib, unda 60 ga yaqin xalqimizning qadim an’ana va urf odatlari, milliylik hamda qadriyatlarini aks ettiruvchi noyob fondlar saqlanmoqda. Masalan, Palak,[2] yohud oypalakning matosi qora lonkadan bo‘lib, kungaboqar gulini eslatuvchi va geomitriksimon naqshlar aks ettiriladi. Amaliy san’at, qo‘l mehnati bo‘lib, uning hajmi 2,20 x 1,80 sm. Muzeydagi saqlov holati – yaxshi [Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining joriy arxiv ma’lumotlari. 2026-yil.] *(1-rasmga qaralsin).*

[2] Palak – qo‘lda yoki mashinada kashta tikib tayyorlanadigan badiiy buyum. Xonani bezatish uchun devorga osiladi. Ip-gazlamaga bosma va boshqa turli choklarda kashta solinadi. To‘lin oyli osmon aks ettiriladigan naqsh mujassamoti osmon, oy va yulduzlarni ifodolovchi ramziy shakllar doira va yulduzlardan iborat bo‘ladi. Gullarning yirikligi va kashtalar quyuq qoplab tikilishiga ko‘ra palak so‘zanadan farq qiladi.

Yana bir noyob fond – 9 oylik palak bo‘lib, uning matosi sariq lonkadan bo‘lib, chekkasiga ikki qator yo‘lsimon naqsh qora ipakdan tikilgan, palakning o‘rtasida to‘qqizta oysimon naqsh solinib, to‘rt burchagiga tumorsimon naqsh tikilgan. Bu kashtaning ipaklari xazina ipaklari deyiladi, ya’ni asrlar davomida ham o‘z jilosini yo‘qotmagan. Jizzax kashtachilik maktabiga xos uslubda tayyorlangan. O‘lchami 3 m x 2 90 sm. Hozirgi kunda saqlanishi holat – yaxshi. *(2-rasmga qaralsin).*



1-rasm



2-rasm

Bundan tashqari, ushbu bo‘limda so‘zana, sochpopuk, parcha chopon, sirg‘a, joynomoz, quroq dasturxon, zardevor, bolalar zar choponchasi, kashta, sandalpo‘sh, jabba juvak, tanga qator, bozbond, qadimiy tillaqosh, oypalak, tagdo‘zi choyshab, paranji, bargaklar ham mavjud. Ular orasida eng ko‘p e’tiborimizni tortganlarini izohini keltiradigan bo‘lsak bu – jabba juvak. Jabba juvak - XIX- asr oxiri XX asr boshlariga mansub bo‘lib, kelinlarimiz tomonidan jabba juvak sifatida taqilgan. Jabba juvak yasashda misdan va tangalardan foydalanib, zargarlar tomonidan qo‘l mehnati yordamida tayyorlangan. Xomashyosi – metal tanga, kumush hisoblanib, o‘rtacha vazni – 50-60 mg. *(3-rasmga qaralsin.)* Jabba juvakni mazkur davrlarga oid xalq hunarmandchiligining noyob va nafis misollaridan biri deyish mumkin.

Muzeyda saqlanayotgan yana bir noyob fondlardan biri bu - tanga qator XX asrga mansub bo‘lib, har-xil hajmdagi tangalar bir-biriga ulanib, mahalliy zargarlar tomonidan qo‘l mehnatida yasalgan bo‘lib, kelinlarimiz tomonidan ko‘krak bezagi sifatida taqilgan. [O‘sha manba] *(4-rasmga qaralsin)*

3-rasm



4-rasm



Tanga qator asosan metal va kumushdan tayyorlanib, o‘rtacha 175 grni tashkil etgan. Hozirgi

kunda muzeyda tanga qator noyob fondining holati yaxshi darajada. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha noyob eksponatlar ayniqsa, xalqa hunarmandchiligining na’munlari ko‘plab bosqichlardan so‘ng tayyor holatga kelgan va bu jarayonning barchasi qo‘l mehnati asosida amalga oshirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanayotgan noyob fondlar tarix, etnografiya, muzeyshunoslik, tabiatshunoslik, numizmatika, madaniyat, arxeologiya, xalq og‘zaki ijodi kabi fan yo‘nalishlarida ilmiy ahamiyati katta bo‘lishi bilan birga, muzeyga tashrif buyurayotgan yoshlarda vatanparvarlik, tarixning ma’lum qismidan amaliy ravishda boxabar bo‘lish, sa’nat va hunarmandchilikka qiziqish uyg‘otish kabi xususiyatlarni oshirishda muhim hisoblanadi. Shu bois, bunday eksponatlarni uzoq kelajakka yaxshi holatda yetkazish uchun zamonaviy texnologiyalar qamrovini oshirish, sun’iy intellekni jalb etish, eksponatlarning raqamli nusxalarini yaratish va modellashtirish kabilarni amaliyotda qo‘llash maqsadga muvofiqdir .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boltayev B. O‘zbekistonda xalqaro talablarga mos muzeylarni shakllantirish omillari.// Muzeylar: an’ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. – Toshkent, 2025. – B. 49.
2. Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining joriy arxiv ma’lumotlari. 2026-yil.
3. Piter Ostritsch. Head of Collections at Sörmlands museum in Nyköping, Sweden. “No hidden Treasures!“ // International council of museums. - Sweden. 2023. *–P. 8.(Ma’lumot asl maqoladan tarjima qilish orqali olindi.)*
4. Stevan Lubar. Museums need collections and connections. - USA. 2018. –P.5. *(Ma’lumot asl maqoladan tarjima qilish orqali olindi.)*
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonunini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida // (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 14-15-son.lex.uz

TARIXIY-ME’MORIY OBYEKTLARNI O‘RGANISH HAMDA MUZEY FONDLARINI BOYITISHDA TARIX VA ARXEOLOGIYA INSTITUTINING O‘RNI

Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich
Guliston davlat pedagogika instituti
“Tarix” kafedrasi dotsenti, t.f.n. (PhD)
https://orcid.org/0009-0006-6069-099X
E-mail: kanimkulov812310@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutining tarixiy-me’moriy yodgorliklarni tizimli o‘rganish, ularning me’moriy-tuzilmaviy xususiyatlarini aniqlash va topilmalar asosida davlat muzey fondlarini boyitishdagi fundamental roli 1950–1960-yillardagi arxiv hujjatlari hamda 2024–2026-yillardagi yangi arxeologik kashfiyotlar asosida tahlil qilinadi. Xorazm, Zarafshon va Pomir-Farg‘ona ekspeditsiyalarida o‘rganilgan Varaxsha, Tuproqqal’a va Bolaliqtepa yodgorliklaridan topilgan monumental san’at namunalari Tug‘unbuloq, Toshbuloq hamda Surxondaryodagi Bandixon II yodgorliklaridan aniqlangan yangi ashyolar bilan qiyoslanib, ularning ilmiy va muzeyshunoslik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Tarix va arxeologiya instituti, me’moriy meros, muzey fondlari, xronologik tizimlashtirish, Tuproqqal’a, Varahsha, Tug‘unbuloq, Bandixon II, Harvard uslubi, muzeylashtirish.

Kirish O‘zbekiston hududi qadimgi dunyo va o‘rta asrlar sivilizatsiyalarining chorrahasida joylashgan hududlardan biri bo‘lib, undagi monumental me’morchilik va moddiy madaniyat namunalari jahon tamaddunining ajralmas qismini tashkil etadi. Ushbu boy madaniy va me’moriy merosni tizimli ravishda qidirib topish, arxeologik jihatdan ochish, davrlashtirish hamda ularni ilmiy va muzey ashyosi sifatida konservatsiya qilishda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutining o‘rni beqiyosdir. XX asrning o‘rtalariga qadar (1940-yillargacha) mintaqadagi tarixiy-me’moriy obyektlarni o‘rganish asosan vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan xarakterga ega bo‘lib, topilgan osori-atiqalarni saqlash va tizimlashtirishning mukammal ilmiy-metodologik asosi mavjud emas edi[1].

Tarix va arxeologiya instituti tashkil etilgandan so‘ng, fundamental tadqiqotlar doirasi kengaydi. Ayniqsa, 1950-yillar oxiri va 1960-yillar boshida institut rahbariyati (direktor A.X. Babaxodjayev va ilmiy kotib Ye.A.Deyeva) tomonidan ilgari surilgan ilmiy-tashkiliy strategiya me’moriy yodgorliklarni kompleks o‘rganish va ularni muzeylashtirish jarayonini jadallashtirdi[2]. Bugungi kunda esa mustaqillik yillarida, xususan, arxeologik tadqiqotlar doirasida 2024–2026-yillarda erishilgan olamshumul kashfiyotlar ushbu klassik maktab an’analarining bevosita davomi hisoblanadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi – institutning tarixiy-me’moriy merosni restavratsiya qilish va muzey fondlarini tubdan boyitishga qo‘shgan tarixiy va zamonaviy hissasini ilmiy-uslubiy jihatdan tizimlashtirish hamda qiyosiy tahlil etishdan iborat.

Ushbu maqolani tayyorlashda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi arxivida saqlanayotgan Tarix va arxeologiya institutining 1957–1962-yillardagi muammoli-tematik rejalari, ekspeditsiya hisobotlari va ilmiy ma’lumotnomalari asos qilib olindi.[3].

Maqolada xususan, XX asr o‘rtalarida Varahsha va Tuproqqal’a saroylarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, XXI asrning birinchi choragi yakunida Tug‘unbuloq va Bandixon II yodgorliklarida amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan me’moriy konstruksiyalar va ularni muzeylashtirish usullari jihatidan qiyosiy tahlil qilindi[4]. Shunigdek, institut olimlari tamonidan XX asr 50-yillaridan boshlab olib borilgan qazishmalar davomida topilgan arxeologik yodgorliklar, ganch va gips haykallari, devoriy suratlar hamda ossuariylar turlarga ajratilib, ularning muzey fondlarini shakllantirish va ilmiy jihatdan boyitishdagi ahamiyati tahlil qilindi[5].

Tarix va arxeologiya instituti tarix uchun qisqa vaqt faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, institutning ilmiy faoliyati natijasida O‘zbekiston tarixi yangi ma’lumotlar bilan boyidi va davlat muzey fondlari minglab nodir eksponatlar bilan ta’minlandi. Natijalarni ikki yirik xronologik bosqichda ko‘rib chiqish mumkin.

Birinchisi, klassik davr arxeologik yutuqlari va muzey fondlari shakllanishi. Bunda institut tomonidan yoki institute hamkorligida turli yillardagi o‘tkazilgan Xorazm, Zarafshon va Pomir-Farg‘ona kompleks ekspeditsiyalari davomida ochilgan Tuproqqal’a (Xorazm shohlari saroyi), Varahsha (Buxorxudotlar qarorgohi) va Bolaliktepa (Toxariston me’morchilik yodgorligi) saroy majmualari antik va ilk o‘rta asrlar monumental arxitekturasining cho‘qqisi ekanligini ko‘rsatish mumkin. Ayniqsa, S.P.Tolstov[6], Ya.G‘ulomov, V.A.Shishkin[7] boshchiligidagi ekspeditsiyalar faoliyatini misol qilib olsak bo‘ladi. Ekspeditsiyalar natijasida yuqoridagi obyektlardan topilgan devoriy suratlar (masalan, Varahshadagi qizil devorda tasvirlangan sirtlon va fillar jangi ov sahnasi, Afrosiyob devoriy suratlari, Tuproqqal’adagi shohlar galereyasi ganch haykallari) O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi va O‘zbekiston davlat san’at muzeyining eng qimmatli eksponatlari qatoridan joy oldi[8].

Ikkinchisi esa, zamonaviy arxeologik kashfiyotlar va bugungi kundagi muzey fondlarining boyishi(2024–2026-yillar). So‘nggi uch yillikda Fanlar Akademiyasi qoshidagi ilmiy tadqiqot institutlari (masalan, Milliy Arxeologiya markazi) olimlarining xalqaro ekspeditsiyalar doirasida olib borgan ishlari muzey fondlariga

butunlay yangi tipdagi ashyolarni taqdim etdi. Bular qatoriga, Tug‘unbuloq va Toshbuloq (Zomin tog‘lari, 2024-2025) manzilgohlarida O‘zbekiston Milliy Arxeologiya Markazi direktori F.Maqsudov va Vashington universiteti arxeologi Maykl Frachetti boshchiligida olib borilgan tadqiqotlarni alohida ko’rsatishimiz mumkin[4]. Mazkur ekspeditsiya eng so‘nggi texnologik jihozlar, jumladan, dronlar va lidar deb nomlanuvchi masofadan zondlash vositasi yordamida yer ostidagi aholi manzilgohlarini aniqlay oldi. Dengiz sathidan 2000–2200 metr balandlikda joylashgan mazkur yirik mudofaa va sanoat shaharlari mamlakatimiz hududlarida Buyuk Ipak yo‘lining tog‘li tarmoqlarida urbanizatsiya jarayoni ancha rivojlanganini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar davomida aniqlangan yuzlab metallurgiya pechlari qoldiqlari, temirdan yasalgan qurollar va o‘ziga xos sopol buyumlar joriy yilda muzeylarning maxsus ekspozitsiyalaridan o‘rin oldi[9]. Dengiz sathidan 2000-2200 metr balandlikda joylashgan bu yirik mudofaa va sanoat shaharlari mamlakatimizning tog‘li hududlarida ham o‘tmishda urbanizatsiya darajasi rivojlanganini ko‘rasatadi. Shuningdek, Termiz Davlat Universiteti Ilmiy-tadqiqot markazi yetakchi ilmiy xodimi A.Shapulatov hamda Xitoy Xalq Respublikasi Shimoliy-G‘arbiy universiteti Madaniy meros maktabi direktori, professor Ma Jian boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyaning tadqiqotlari Surxon vohasida ilk temir davri madaniyatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi[10].

Yodgorlik nomi va davri	**Muzey fondlariga topshirilgan asosiy ashyolar**	**Kashf etilgan / Tizimlashtirilgan davri**
Tuproqqal’a va Varahsha (Antik va Ilk o‘rta asrlar)	Rangli devoriy suratlar, ganch haykallar, relyefli gips pannolari, qadimgi tangalar.	1950–1960-yillar (Arxiv ma’lumotlari asosida)
Tug‘unbuloq va Toshbuloq (VIII–XI asrlar)	Metall eritish qoliplari, temir qurollar, sirlangan va sirlanmagan o‘ziga xos tog‘ sopollari.	2024–2025-yillar (Yangi kashfiyotlar)
Bandixon II (Surxondaryo, Mil. avv. I ming yillik)	Yoz madaniyatiga oid tosh va suyak qurollar, qadimgi qoramtir sopol majmualari.	2025–2026-yillar (So‘nggi tadqiqotlar)

Tarix va arxeologiya institutining tarixiy-me’moriy obyektlarni tadqiq etish metodologiyasi sho‘ro davrida muayyan ideologik bosim ostida bo‘lgan bo‘lsa-da, bir qator olimlarning (M.Ye.Masson, S.P.Tolstov, Ya.G.G‘ulomov, V.A.Shishkin) fidoyiligi tufayli fanga taqdim etilgan materiallar o‘z qiymatini yo‘qotmadi. Biroq, u

davrda topilgan eksponatlarni joyida saqlash va ochiq osmon ostidagi muzeylar tashkil etish imkoniyati cheklangan edi, natijada ko‘plab me’moriy elementlar va devoriy suratlar markaziy muzeylarga ko‘chirildi, obyektlarning o‘zi esa qayta ko‘mildi.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa 2024–2026-yillardagi tadqiqotlarda strategiya tubdan o‘zgardi. Hozirgi kunda Tug‘unbuloq yoki Bandixon II kabi obyektlarni o‘rganishda nafaqat ashyolarni muzeyga olib kelish, balki yodgorlikning o‘zini turistik va arxeologik muzey-qo‘riqxonaga aylantirish konsepsiyasi ilgari surilmoqda[4]. Bu yondashuv tarixiy-me’moriy obyektlarni asrash bilan bir qatorda, hududiy muzeylar fondini ham joyida boyitish imkonini bermoqda. Tug‘unbuloqdan topilgan yuqori texnologik metallurgiya ashyolari bugungi kunda O‘rta Osiyo o‘rta asrlar sanoat arxeologiyasi bo‘yicha dunyo olimlari o‘rtasida katta munozaralarga sabab bo‘lmoqda va xalqaro muzey ko‘rgazmalariga tavsiya etilmoqda.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak**,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti faoliyat olib brogan yillarda mamlakatimiz madaniy-me’moriy merosini arxeologik va tarixiy jihatdan tiklashda kata ishlarni amalga oshirdi. Institutning 1950–1960-yillardagi faoliyati natijasida ochilgan antik va o‘rta asrlar saroy me’morchiligi namunalari milliy davlat muzey fondlarining ilmiy o‘zagini va eksponat zaxirasini yaratilishida kata rol o‘ynadi.

2024–2026-yillarda amalga oshirilgan yangi kashfiyotlar (Tug‘unbuloq, Bandixon II) O‘zbekiston muzey fondlarini ilgari fanga ma’lum bo‘lmagan yuqori tog‘li urbanizatsiya va ilk Baqtriya mudofaa me’morchiligiga oid ashyolar bilan boyishiga xizmat qildi.

Zamonaviy muzeylashtirish jarayonida topilgan moddiy ne’matlarni shunchaki vitrinalarga joylashtirish emas, balki obyektlarni raqamlashtirish (3D modellashtirish) va ochiq osmon ostidagi muzey-qo‘riqxonalarni tashkil etish mantiqiga asoslanishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti arxivi. Fond-54, ro‘yxat-1, hujjat
2. Бабаходжаев А.Х., Деева Е.А. Докладная записка об уточнении структуры Института истории и археологии. 1962 г.
3. O‘zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti arxivi. Fond-54, ro‘yxat-1, hujjat-1,2,3,4. (Tarix va arxeologiya institutining yillik ish rejalari hamda hisobotlari)
4. Maksudov, F. et al. (2024). Lost Silk Road cities unearthed in Uzbekistan's high mountains. Nature / BBC Science News, [online]. Available at: https://www.bbc.com/news/articles/c238kv8ddeyo

5. Альбаум Л.И. Балалык-тепе: К истории материальной культуры и искусства Тохаристана. Ташкент: Издательство АН УзССР. 1960.
6. Толстов С.П. Древний Хорезм. Москва: МГУ. 1948 г.
7. Шишкин В.А. Варахша. Москва: Изд. Академии наук СССР. 1963 г
8. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. Ташкент: Издательство АН УзССР. 1958.
9. O‘zbekiston tog‘larida yo‘qolgan Ipak yo‘li shaharlari topildi. https://www.bbc.com/uzbek/articles/cz7w3x3r3xjo/lat
10. Shapulatov A., Jian Ma. Bandixon II (Surxondaryo, 2025-2026): Baqtriya hududidagi mudofaa tizimiga oid qadimgi temir davri (Yoz-II, Yoz-III madaniyatlari) me’moriy inshootlarining ochilishi. // TerDU xabarlari. № 2. 2026 yil 29 aprel. 152-159 b.

G.A.PUGACHENKOVANING ILMIY IZLANISHLARI VA HAYOT FAOLIYATI

Karimova Saodat Ermamatovna
Yangiyer sh, 8-umumta’lim maktabi
Tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘rta Osiyo tarixiga doir XX asr boshida arxeologik-etnologik maktab yaratilishida katta hissa qo‘shgan va maktab ochgan arxeolog olima faoliyatiga bag‘ishlanadi. Ma’lumki, yurtimizning azim o‘tmish tarixi boy madaniy merosga, ulkan arxeologik, etnologik moddiy va ma’naviy boylikka ega o‘lkadir. Shu sabablik G.A.Pugachenkova boshlagan ishlar tariximizning uzoq va jarangdor ochib bergan.

Kalit so‘zlar: Arxeologiya, sana’t, O‘rta Osiyo, madaniyat, Baqrtiya, sharq me’morchiligi.

Markaziy Osiyo xalqlari moddiy – madaniyati tarixining keng qamrovli bilimdoni Galina Anatolevna Pugachenkovadir. Pugachenkova 1915 – yil 7 – fevralda Verniy shaxrida tavallud topgan. 1930 yil maktabni tugatgan keyin Galina Anatolevna Toshkentdagi O‘rta Osiyo ishlab chiqarish institutining arxitektura bo‘limiga “Arxitektor” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga kiradi. G.A.Pugachenkova 1937 – yili o‘qishni tugatgandan keyin o‘sha O‘rta Osiyo institutining arxitektura tarixi kafedrasi qoshidagi aspirantura bo‘limiga o‘qishga kiradi.

1941–yil olima o‘zining tadqiqotlari natijasida arxitektura nomzodligi ilmiy darajasidagi dissertatsiya ishini ximoya qilgan. 1942–yildan 1960–yilgacha O‘rta Osiyo Davlat Universitetining tarix fakulteti Arxeologiya kafedrasi dotsenti

lavozimida ishlagan. 1958–yildan 1960–yilgacha Xamza nomidagi San’atshunoslik institutining katta ilmiy xodimi lavozimida ishlagan. 1960–yildan e’tiboran Galina Pugachenkova Toshketdagi Xamza nomidagi San’atshunoslik Institutining san’at tarixi va arxitektura markazi mudiri lavozimida ishlagan.

20 – asrning 40 – yillaridan boshlab olima ayol xozirgi O‘zbekiston xududi, qolaversa Turkmaniston, Afg‘oniston va qo‘shni davlatlar xududida olib borgan arxeologik qazima ishlarida faol ishtirok eta boshlagan.

1946–1961 yillar Pugachenkova Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspuditsiyasining 7– otryadi boshlig‘i bo‘lgan **[A.A.Xakimov: 11-12]**. Ekspeditsiya tadqiqotlari natijasida, o‘zi va jamoasi bilan topilgan Parfiya podsholigi va Qadimgi Baqtriya, Dalvarzintepa va Kampirtepa shaxarsozligining qurilish me’morchiligi masalalarida san’atshunoslik nuqtai nazarida asolangan bir qancha ma’lumotlar yig‘indisida o‘zining monografiyasini chiqardi.

1959–yili Pugachenkova o‘zining ko‘p yillik ilmiy tadqiqoti natijasida san’atshunoslik doktori ilmiy darajasini olish uchun “Janubiy Turkmaniston quldorlik va feodalizm davrida me’morchilik taraqiyoti” mavzusida dissertatsiya ishini ximoya qilgan. 1959 – yildan 1984 – yilgacha o‘zbek san’anshunoslik ekspeditsiyasining boshlig‘i va ilmiy tadqiqot raxbari xisoblangan. 1962 – yili professor unvonini olgan **[2]**. 1968 – yili O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining muxbir – a’zosi bo‘lib saylangan. 1984 yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining *xaqiqiy* a’zosi etib saylangan *(akademik)*.

1959 – yili Galina Pugachenkovaning tashabbus va xarakatlari natijasida O‘zbekiston San’atshunoslik Ensiklopediyasi tashkil etilgan [www.fondforum.uz\\]**.** Bu xarakatlari bilan olima dunyo san’atshunoslar jamiyatiga xali fanga ma’lum bo‘lmagan san’at namunalarini, O‘zbekistonda madaniyatning chuqur tarixi va ildizlarini butun insoniyat uchun ochib berdi.

1983 – yildan O‘zbekistondagi tarix va san’atshunoslikka asoslangan bir qancha jurnallar muxarririyati a’zosi xisoblanadi.

1987 – yildan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix institutida akademik maslaxatchi. Galina Anatolevna Pugachenkovoning ilmiy ishlari O‘rta Osiyo va unga yondosh o‘rta Sharq mamlakatlarining qadimiy va o‘rta asrlar badiiy va moddiy yodgorliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan. O‘rta Osiyo va me’morchiligi va uning taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari hamda Sharq me’morchiligi rivojida tutgan o‘rni, Xolchayon, Dalvarzintepa kabi yodgorliklarni o‘rganish, Kushon san’atining kelib chiqishi, Baqtriya, Parfiyanig Gandxara san’atiga qo‘shgan xissalarini qadimgi san’at osori atiqalari (O‘rta Osiyo gliptikasi haykaltaroshligi va b.,) va minatyura

san’ati – xorijda saqlanayotgan O‘rta Osiyoga oid rasmlar va O‘zbekistonda mavjud rasmli qo‘lyozmalarni bezagan minatyuralardan O‘rta Osiyo minatyura maktabiga tegishlilarini tadqiq etgan. Galina Pugachenkovaning Markaziy Osiyoda xududida arxeologiya fani bo‘yicha “O‘zbekiston san’ati” o‘quv darsligi muallifi bo‘lib, oliy ta’lim markazlari uchun muxim manba bo‘lib xizmat qiladi. Qo‘l ostidagi mutaxassislar bilan birgalikda O‘zbekistondagi moddiy va ma’naviy yodgorliklar ro‘yxati tuzilgan bir qancha tomli kitob muallifi. G.Pugachenkova 60 yildan oshiqroq vaqt mobaynida O‘rta Osiyo badiiy madaniyat yodgorliklarini izlash bilan shug‘ullangan. 700 dan oshiqroq ilmiy maqola, monografiya va e’lonlar muallifi bo‘lib, ko‘plari ingliz, fransuz, nemis, italyan va boshqa tillarda nashr etilgan.

G.A.Pugachenkova O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, Sharq mamlakatlarining Xalqaro Arxitektura Akademiyasi akademigi, Tojikiston Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi, Germaniya Arxeologiya institutining muxbir a’zosi, O‘rta va Yaqin Sharq Instituti muxbir a’zosi, 1976 – yili Strasburg (Fransiya) Universitetining faxriy doktori, 1999 – yili Bokudagi Sharq mamlakatlari xalqaro me’morchilik akademiyasi faxriy akademigi kabi eng katta unvonlar bilan ardoqlangandir **[A.A.Xakimov: 11-12]**.

1993 – yili O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining akademigi bo‘lib saylangan. 2000 – yili unga O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining oltin medali bilan mukofotlangan.

G.Pugachenkova faoliyati turli davlatlarning xukumatlari tomonidan samarali mexnatlari xisobga oligan xolda mukofotlar bilan taqdirlangan. 20 – asrning 80 – yillarida “qilgan mexnatlari uchun” medali bilan, “Xamza”(1966) davlat mukofoti, mustaqillik yillarida “Beruniy”(1992), “Do‘stlik”(1995), “Buyuk xizmatlari uchun” (2002) **[O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi:351-b.]** kabi ordenlar bilan xukumatimiz tomonidan O‘zbekistonda ilm – fanga qo‘shgan xissalari xolis xizmatlari yuksak baxolangan.

G.Pugachenkova – 1995 yil Fransiya xukumati tomonidan taqdirlangan va “Akademik palma” mukofotiga ega bo‘lgan yagona O‘zbekistonlik olimadir.

Galina Pugachenkovaning xayot yo‘li – bu O‘rta Sharq mamlakatlari xayotini o‘rganishga bag‘ishlangan umr yo‘lidir.

Galina Anatolevna Pugachenkova mashxur arxeolog Mixail Yevgenivich Massonning turmush o‘rtog‘idir.

Galina Anatolevna Pugachenkova 2007 yilning 18 fevral kuni Toshkentda vafot etgan. Olima Toshkentdagi Dombirabod mozoriga o‘zining turmush o‘rtog‘i, mashxur arxeolog, akademik Mixail Masson qabri yoniga ko‘milgan.

2010 – yil 16 – mart kuni Toshkentda Milliy san’at Markazida Galina Anatolevna Pugachenkova tavalludining 95 – yillik kechasi bo‘lib o‘tdi (1915-2007). Bu kecha “Galina Pugachenkova: san’at ununtmaydi” degan nom bilan o‘tqazildi. Shuningdek ushbu markazda mashhur olim Galina Pugachenkovaning “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg‘armasi tomonidan chop etilgan “Ulug‘bek davri me’morchiligi” deb nomlangan kitobning taqdimot marosimi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur jamoat tashkiloti tomonidan “ijod” rassomlar, san’atshunoslar va xalq ustalari uyushmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu tadbirda taniqli olimlar, san’atshunoslar, rassomlar, pedagoglar, ijodkor yoshlar, jamoat tashkilotlari va mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan diplomatik korpus vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda Birinchi prezident Islom Karimov rahnamoligida ilm-fan, madaniyat san’at, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar xalqimiz, ayniqsa, yoshlar manaviyatini yuksaltirish, ularni milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotgani ta’kidlandi.

Bu masalalarni hal etishda jamoat tashkilotlari ham salmoqli hissa qo‘shmoqda. “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg‘armasi faoliyatida ijtimoiy-gumanitar fanlarni qo‘llab-quvvatlash, olimlarning ilmiy ishlarini o‘rganish, chop etish va targ‘ib qilishga ko‘maklashish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Poytaxtimizning 2200 yilligiga bag‘ishlangan “Toshkent - bir shahar tarixi” to‘plami, taniqli arxeolog Edvard Rtveladzening “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi, davlatlari, madaniyatlari” kitobi hamda boshqa ko‘plab nashrlarning chop etilishi va taqdimoti shular jumlasidandir.

G.Pugachenkovaning ilmiy merosida Amir Temur va Temuriylar davri me’morchiligi muhim o‘rin egallaydi. “Ulug‘bek davri me’morchiligi” nomli kitob akademik olimaning eng so‘nggi ilmiy ishlarini o‘z ichiga olgan. Hajman kichik, ammo mazmunan teran ushbu yangi kitob Mirzo Ulug‘bek zamonidagi O‘zbekiston me’morchiligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi.

Mazkur kitobni o‘qib, Galina Pugachenkovaning yuksak iste’dod sohibasi bo‘lgani, uning qadimiy davr haqida ta’sirchan, ifodali va oddiy tilda chiroyli hikoya qilish, murakkab ilmiy muammolar mazmun-mohiyatini chuqur anglash qobiliyatiga ega bo‘lganiga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin.

Kitob “Ulug‘bek davri me’morchiligi”, “Samarqand yodgorliklari haqida uch rivoyat”, “Shohizinda”, “Bibixonim me’moriy yodgorligi” kabi bo‘limlarni o‘z ichiga olgan.

Galina Pugachenkova qadimiy va o‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo me’morchiligi, tasviriy va amaliy san’ati tarixining buyuk tadqiqotchisi sifatida butun

dunyoga mashhur. U yaratgan ilmiy ishlar 700 dan ortiq bo‘lib, ularning ko‘p qismi ingiliz, fransuz, nemis, italyan va boshqa tillarda chop etilgan. Davlatimiz rahbari farmonlariga muvofiq, olima istiqlol yillarida Vatanimizning yuksak mukofotlari – “Do‘stlik”, “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlangan. Galina Pugachenkova mexnatini butun dunyo tan olgan olimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. А.А.Хакимов.О Знание трудов Г.А.Пугаченковой и их роли в развитии исторического искусствоведения. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.1995 й. № 5-6-7
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Galina_Pugachenkova
3. www.fondforum.uz\\ Галина Пугаченкова:искусство помнить.
4. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.7-том. 2004.

O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDI QADIMGI AMALIY SAN’AT NAMUNALARINI O‘RGANISHDA G.PUGACHENKOVANING IZLANISHLARI

Kurbanov E.E
Guliston davlat pedagogika instituti
“Tarix” kafedrasi mudiri, dotsent
S.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola Galina Pugachenkovaning O‘zbekistonning janubiy hududidagi qadimgi amaliy san'at va madaniyatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarini taqdim etadi. Pugachenkova zardushtiy qavmlar va ularning ostadonlari o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, Kushon davri yodgorliklari muhimligini ta'kidlaydi, bu asarda O‘rta Osiyo tarixiga oid qimmatli bilimlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Amaliy sana’t, Buddaviylik, Janubiy hudud, ahxeologik tadqiqo, Kushonlar davri, haykaltaroshlik, madaniy meros.

Markaziy Osiyo xalqlari moddiy – madaniyati tarixining keng qamrovli bilimdoni Galina Anatoliyevna Pugachenkova qadimgi diniy, mafkuraviy xayot va u bilan bog‘liq urf – odat, marosimlarni “nuqtadonlik” bilan tahlil etgan, bu mavzuda muntazam qalam tebratib kelgan. Xususan, olimaning zardushtiy qavmlarning asosiy atributi hisoblangan ostadonlar va ularning shakl xususiyatlarini keyingi davrdagi sag‘analar (naus) o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi ilmiy fikrlari diqqatga sazovordir.

O‘rta Osiyo bo‘ylab tarqalgan ostadonlarning shakli asosan ikki xil ekanligi tadqiqotchilar nazaridan chetda qolmagan. Bir guruh ostadonlar tashqi ko‘rinishi

oval-aylana shaklida, chorvadorlar o‘toviga qiyoslab yasalgan bo‘lsa, ikkinchi guruh qal'a, ularda darvozalar, harbiy minoralar moxirlik bilan ajratilgan.

G.A.Pugachenkova haqli ravishda “chodirsimon gumbazli maqbaralar” evolyusiyasini ovalsimon ostadonlar bilan bog‘laydi, ularni turkiy xalqlarga tegishli ekanligini ta'kidlaydi. Pugachenkova ta’kidlaganidek, mazkur “eskilik qoldig‘i” keyingi davrda, ayniqsa so‘nggi o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda tom ma’nodagi mahobatli me’moriy obidalar – maqbaralarni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.



Milodiy I-IV asrlarda hukmronlik qilgan Kushon podsholigi faqat qadimgi Baqtriya hayotida muhim davr bo‘libgina qolmasdan, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari madaniy taraqqiyotida hal etuvchi davrlardan biridir. Surxondaryoning Kushon davri madaniyatini o‘rganish borasidagi ilk arxeologik qazishmalar 1926 yilda amalga oshirilgan.

1932 yilda hozirda Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitaji ko‘rgazmalarida saqlanayotgan Ayritom piromoni topilgan. 1936-1938 yillarda professor M.Ye.Masson va san’atshunos arxeolog G.A.Pugachenkova boshchiligida faoliyat ko‘rsatgan Termiz arxeologik ekspedisiyasi Ayritom va Eski Termizning Kushon davri yodgorliklarini o‘rganishda birmuncha muvaffaqiyatga erishdi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Surxondaryo viloyatining Kushon davri yodgorliklarini o‘rganish L.I.Albaum faoliyati bilan bog‘liq. 1949-1960 yillar oralig‘ida viloyatning hozirda mavjud Kushon davri arxeologik yodgorliklarining aksariyati ilk bor bu mutaxassis tomonidan ro‘yxatga olinib xaritaga tushirilgan.

1959–yildan buyon Surxondaryoning Kushon davri yodgorliklarida San'atshunoslik institutining xodimlari arxeologik ilmiy–tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Uzoq yillar mobaynida bu ekspedisiyaga akademik G.A.Pugachenkova ilmiy rahbarlik qilgan.



Ekspedisiya tomonidan 1959-1960-yillarda bir necha obidalardan (Xonaqotepa, Qorabog‘tepa) iborat Denov atrofidagi Xolchayon qishlog‘ida joylashgan yodgorliklar o‘rganildi. Xonaqotepada juda ko‘plab mahobatli haykaltaroshlik namunalari topilgan bo‘lib, bu haykallarning bir qismida, G.A.Pugachenkovaning ta'kidlashicha, Kushon sulolasi asoschilari tasvirlangan. Bu yerdan topilgan yuksak san'at namunalari asosida G.A.Pugachenkova Shimoliy Baqtriyada badiiy san'at maktabi mavjud bo‘lgan degan g‘oyani ilgari surgan. 1967 yildan buyon Dalvarzintepada uzluksiz ravishda qazishma ishlari o‘tkazilmoqda (G.A.Pugachenkova, B.A.Turg‘unov, E.V.Rtveladze, KatoKyudzo).

Hozirga qadar Dalvarzintepaning qurilish bosqichlari, mudofaa istehkomlari, kulolchilar mahallasi, shahar zodagonlarining turar joylari, buddaviylik ibodatxonasi o‘rganildi. Dalvarzintepadan topilgan oltin buyumlardan iborat xazina, shaxmat donalari, san'at durdonalari bo‘lgan haykallar va devoriy rangtasvirlar Kushon davri baqtriyaliklarning madaniyatini o‘rganishda yangi sahifani boshlab berdi. Surxondaryoning Kushon davri shaharlari Eski Termiz va Zartepa (Angor tumani) misolida ham o‘rganilmoqda.

Angor vohasining qadimgi markazi Zartepada O‘zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya instituti va Sankt-Peterburgdagi Moddiy madaniyat tarixi institutining V.M.Masson boshchiligidagi Baqtriya ekspedisiyasi keng ko‘lamda arxeologik qazishmalarni olib bordi.

Kushon davri shaharlari aholisining diniy e'tiqodlari, ularning tili va yozuvini o‘rganishda Eski Termizning buddaviylik ibodatxonalari, Qoratepa va Fayoztepalarda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar tufayli qimmatli dalillarga ega bo‘lindi. Eski Termizning Kushon davri diniy markazi bo‘lgan Qoratepada 1961 yildan Moskva Ta'mirlash instituti, Sharqshunoslik va Ermitajning G.A.Pugachenkova, B.YA.Staviskiy boshchiligidagi birlashgan ekspedisiyasi tadqiqotlar olib bordi. Markaziy Osiyo va Shimoliy Hindiston xalqlari madaniyati va madaniy aloqalari, shuningdek, buddaviylik dinining bu o‘lkaga tarqalishidan darak beruvchi ko‘plab ashyoviy dalillar topildi.

Kushon saltanati xalqlari antropologik ko‘rinishlari, urf-odatlari, tili, yoeuvlari va sarhadlari muammosini o‘rganish borasida ham muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu muammolarni yorituvchi manbalar Ayritom, Bandixon vohasida va Boysuntog‘ning janubiy yon bag‘irlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar tufayli qo‘lga kiritildi.

Surxondaryoning Kushon davri tarixi va madaniyatiga bag‘ishlanib rus va boshqa xorijiy tillarda o‘nlab yirik asarlar, minglab ilmiy-ommabop maqolalar chop etilgan. Pugachenkova boshliq mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan “Janubiy O‘zbekistonning antik davr madaniyatidan”, “Qadimgi Baqtriya”, “Baqtriya qadimiyotlari”, “Qoratepa. Eski Termizning buddaviylik ibodatxonasi”, SH.R.Pidayevning “Shimoliy Baqtriyaning Kushon davri qishloqlari”, E.V.Rtveladze va SH.R.Pidayevniing “Janubiy O‘zbekistonning qadimgi tangalari qatalogi”, G.A.Pugachenkovaning “Xolchayon”, “Xolchayon haykallari”, “Dalvarzintepaning badiiy san'at asarlari”, G.A.Pugachenkova va E.V.Rtveladzening “Dalvarzintepa - Janubiy O‘zbekistondagi Kushon davri shahri” kabi yirik asarlar nashr etildi.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga qaramasdan Kushon davri tarixi va madaniyatining ko‘p jabhalari hanuzgacha muammoli bo‘lib qolmoqda. Kushon podsholigiga asos solgan xalqlarning asl vatani, aholisining etnik tarkibi,

Kanishkaning hukmronlik qilgan sanasi va Kushon davlatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi masalalari shular jumlasidandir [1].

Ko‘hna Ayritom yodgorligi Termizdan 17 km uzoqlikda, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, Termizdan Pomir oldi o‘lkalariga ketuvchi yo‘l ustida joylashgan. Baland tepalikdan iborat ushbu ko‘hna yodgorlik janubiy-g‘arbdan shimoliy-sharq tomonga cho‘zilgan bo‘lib, uch tomondan devorlar bilan o‘ralgan. Yodgorlikning g‘arb tomonida minoralar qoldiqlari aniqlangan. Shimol tomonda tadqiqotchilar tomonidan ibodatxona qoldiklari deb e'tirof etilgan tepaliklar qoldiklari joylashgan. Ko‘hna manzilgohdan sharq tomonda, yo‘l yoqasida burj shaklidagi paxsa qoldiqlari joylashgan bo‘lib, uning yonidan 1933–yilda xumdon qoldiqlari ochilgan [Pugachenkova A.A: 39].

Undan sal oldinroq, 1932–yilda Ayritom yodgorligining yonida Amudaryo qirg‘og‘iga yaqin joyda suv tubidan musiqachilar tasvirlangan tosh lavhalar topib olindi. O‘z davrida juda katta shov-shuvga sabab bo‘lgan bu topilmalar kushon davri Shimoliy Baqtriya yodgorliklaimni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1933–yildayoq topilma topilgan joyda M.Ye.Masson boshchiligidagi arxeologik ekspedisiya ishlay boshladi. Unchalik keng bo‘lmagan arxeologik qazishmalar natijasida bu yerdan Budda ibodatxonasining qoldiqlari va Ayritom ustunlarining qolgan bo‘laklari topildi. Bu topilmalarning M.Ye.Masson tomonidan milodning 1-2 asrlariga, K.V.Trever tomonidan esa mil.avv. II asrga oidligi qayd qilindi.

Ayritom yodgorligi xarobalari o‘rganilayotgan dastlabki davrda bu yerdagi topilmalar xronologik jihatdan “qadimgi davr”, “Baqtriya g‘ishtlari”, “ellinistik davr”, “islomgacha davr” tarzida sanalanib kelingan bo‘lsada, yodgorlik sanasiga keyingi davr tadqiqotlari aniqlik kiritdi. Ammo dastlabki tadqiqotlar Ayritomning moddiy madaniyatini o‘rganish va izohlashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Dastlabki qazishmalar jarayonida tadqiqotchilar me'morchilik-burilish uslublari, inshootlarning rejaviy tuzilishi, qurilish ashyolari, ularning sifati va tarkibiga katta e'tibor qaratdilar. Vyazmitina tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, baland tepalikdagi peshtoqida tasvirli tosh hoshiyasi bo‘lgan ibodatxona inshooti nisbatan qadimgiroq davrga oid bo‘lib, u yerdagi ustunlar ostadan topilgan to‘rtburchak sopol qoplamalarni M.Ye.Masson “Baqtriya g‘ishtlari” deb atagan. Atrofida bugun ibodatxona inshootlarini mujassamlashtirgan ibodatxona markazi aftidan Hindistondan kelgan qaysidir Budda jamoasi a'zolari tomonidan bunyod etilgan bo‘lsa kerak. Bino peshtoqidagi tasvirlarning diqqatni tortadigan tomoni undaki, tasvirlarning alohida qismlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu hol ularni bunyod etishda turli ustalar ishtirok etganligidan dalolat beradi. Undan tashqari, peshtoqning ayrim qismlari turli davrlarda yoki ta'mirlash jarayonida bunyod etilgan degan fikrlar ham bor. Peshtoqdagi musiqachilar tasvirlangan sharafa nisbatan yaxshi saqlangan va badiiyligi kuchli. Qolganlari nisbatan qo‘polroq bo‘lib, tasvirlari ham sermazmun

emas. Umuman olganda, tasvirlari va tuzilishiga ko‘ra, peshtoq manzaralari ellinizm namunalarini eslatadi. Peshtoqdagi musiqachilar boy qimmatbaho taqinchoqlar bilan tasvirlangan. Ular orasidagi uzun shokilli sirg‘alar, qo‘shmarjon, jevaklar, bilaguzuklar, tillaqoshlar, yelkadan oshirib tashlangan diniy bo‘yinbog‘lar - bularnish barchasi hind kiyim-kechak an’analariga xosdir. Shu bilan birga uzun va qisqa yengli raqqosalar kiyimi va bosh bilan butun gavdani yopib turgan keng kamzullar rim kiyim-kechak an’analarini eslatadi [Pugachenkova G.A: 3].

Peshtokda tasvirlangan musiqa asboblarining bir qismi mahalliy musiqa asboblari bo‘lsa, bir qismi mahalliy xususiyatga ega emas.

Shuningdek, G.A.Pugachenkovaning o‘sha yillarda antik davr me'morchiligi sohasida olib borgan tadqiqotlari ham diqqatga molikdir [4].

Ayritom ibodatxona manzilgohida olib borilgan dastlabki tadqiqotlar paytida milodning ilk asrlariga oid hunarmandchilik ishlab chiqarish mahsulotlari ham topilgan bo‘lib, ular orasida kulolchilik buyumlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Ko‘hna yodgorlikda sopol qotishmalar va turli sopol parchalarining ko‘pligi, shuningdek, sopol pishiruvchi xumdonlar qoldiqlari bu yerdagi hunarmandchilik ishlab chiqarishida sopol idishlar tayyorlash ustunlik qilganligidan dalolat beradi.

Termiz arxeologik kompleks ekspedisiyasining asosiy maqsadlaridan biri Ko‘hna Termiz va uning atroflaridagi turli davrlarga oid moddiy madaniyat yodgorliklarini aniqlash va ularda tadqiqot ishlari olib borishdan iborat edi. Ushbu tadqiqotlarga qazishma ishlariga aloqador bo‘lgan turli mutaxassislar jalb etildi va ular maxsus guruhlarga bo‘lindi.

1936–yilgi qazishmalar natijasida Ko‘hna Termizning tarixiy topografiyasiga ham birmuncha aniqliklar kiritildi. Xususan, shahar qal’asi, shahar maydonlari va shahar oldi qismlari o‘rganildi. Ammo bu tadqiqotlarning natijalari ko‘p hollarda o‘rta asrlar davri bilan baholanadi.

Dastlabki tadqiqotlar natijasida nisbatan qadimgi davrga oid yaxshiroq o‘rganilgan yodgorlik Ko‘hna Termiz hududidagi Chingiztepa xarobalaridir. Chingiztepaning yuza qismidan topilgan toshlar M.Ye.Masson tomonidan milodning I asriga (Kadfiz I) oid ekanligi aniqlangan. 1936–yilgi qazishmalar uchun Chingiztepaning janubi-g‘arbiy qismi tanlanib, o‘sha mavsumda 120 m^2 dagi to‘rtta xona qoldiqlari ochilgan. Xonalardan topilgan tangalar, sopol idish namunalari va qurilish uslubi Chingiztepaning rivojlanish pallasi kushonlar davriga oidligi haqida ma’lumot beradi.

1937-1938 yillarda ham Ko‘hna Termizda arxeologik tadqiqotlar davom ettirildi [Asqarov A.A:5]. Ushbu tadqiqotlar natijasida Termiz shahrining dastlabki o‘rni aniqlandi. Ya’ni, ko‘hna shaharga ilgari taxmin qilingan Chingiztepa o‘rnida emas, balki unga dastlab o‘rta asrlarda qad ko‘targan (qal'a o‘rnida asos solinganligi isbotlandi. Aynan shu yerda, 10 ga dan ziyodroq bo‘lgan maydonda antik davrda

atrofi devorlar bilan o‘ralgan shahar mavjud bo‘lgan. Ko‘hna shaharning bir necha joyida olib borilgan tekshiruv ishlari natijasida bu yerdagi antik davr madaniy qatlami boshqa davr qatlamlariga nisbatan ancha qalin ekanligi aniklandi. 1938–yilda antik davr shahar devorlari ostidan, shak-shubhasiz, aniq sanadan dalolat beruvchi ashyolar topildi. Xususan, uch qirrali bronza kamon o‘qining uchi, Yevtidem I (taxm. mil.avv. 220-180 yy.) va Yevkratid (taxm. mil.avv. 170-145 yy.) zarb ettirgan yunon-baqtriya tangalari shular jumlasidandir.

Yunon-Baqtriya podsholigi qulaganidan keyin, ayniqsa, kushonlar davrida ko‘hna shahar o‘z rivojining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilganligi 1937-1938 yilgi tadqiqotlar natijasida o‘zining aniq isbotini topdi. Amudaryo oldi ko‘hna shahrining keng maydonida miloddan avvalgi so‘nggi asrlar va milodning dastlabki asrlariga oid boy arxeologik topilmalari bo‘lgan madaniy qatlamlar aniqlandi hamda o‘rganildi. Topilmalar orasida sirlangan va bo‘yoq bilan ishlov berilgan nozik sopol idishlar, bronza va suyakdan tayyorlangan buyumlar, ellinistik madaniyat izlari bo‘lgan, tosh va ganchdan ishlangan haykaltaroshlik hamda me'morchilik ishlarining namunalari ko‘plab uchraydi. Shuningdek, qo‘hna shaharning turli joylaridan Kushon podsholari Kadfiz II, Kanishka, Xuvishka va Vasudevalarning ko‘plab mis tangalari topilgan. Antik shaharning shimoliy-shark tomonidan metall ishlab chiqarish, xususan, temirni qayta ishlash bilan boshiq ashyolar topilgan. Metall ishlab chiqarish, aftidan, Ko‘hitangtog‘dagi xomashyoga asoslangan bo‘lsa kerak.

Qoratepaning shimoli-sharqiy tomonida rejaviy tuzilishi jihatidan to‘g‘ri burchakli bo‘lganligi aniq ko‘rinib turgan yirik inshoot xarobalari saqlanib qolgan. Uning yaqinida, shahar tashqi devorlarining yonginasida, bir necha kulolchilik xumdonlarining qoldiqlari joylashgan. O‘sha atrofda sopol va temir qotishmalari, bu ashyolardai ishlangan ko‘plab buyumlar qoldiqlarining topilishi shundan dalolat beradiki, bu yerda mavjud bo‘lgan hunarmandchilik ustaxonalari faqat kohinlar uchungina xizmat qilmasdan, ortiqcha mahsulotni bozorga ham chiqargan.

Xullas, G.A.Pugachenkova ishtirokida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar O‘zbekiston hududlaridagi antik davr tarixiy-madaniy jarayonlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ayritom manzilgohi xarobalarida, Ko‘hna Termizdagi olib borilgan arxeologik tadqiqotlar O‘rta Osiyo hududlaridagi keyingi yunon-budda madaniyati yodgorliklarini har tomonlama o‘rganishni boshlab beribgina qolmay, shu davrga oid ko‘pgina yodgorliklarning davri va sanasini aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ko‘hna yodgorlikning joylashgan o‘rni, unga asos solingan vaqt, uning boshqa hududlar bilan munosabatlari hamda moddiy madaniyati masalalariga ko‘pgina aniqliklar kiritildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Кушон даври тарихи ва маданиятини ўрганиш. www.surxon.uz/.
2. Пугаченкова Г.А. Искусство Бактрии эпохи кушан. -М., 1979.

3. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. -Т., 1986.
4. Термиз буюк йўллар чорраҳисидаги кўҳна ва янги шаҳар Т.,2001.
5. Асқаров А.А. Ўзбекистон тарихи. Энг қадимги даврлардан эрамизнинг V асригача. -Т.. 1994.

КЕРАМИКА ТАШКЕНТА В СОБРАНИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА: ИСТОРИЯ, ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННОСТЬ

Левтеева Л.Г., ст.н.с. Государственного
Музея истории Узбекистана, к.и.н.

Аннотация: В статье содержится описание керамических изделий из Ташкента, хранящихся в фондах археологии и этнографии Государственного музея истории Узбекистана. Керамика древняя и важная разновидность народно-прикладного искусства Узбекистана, она играла и продолжает играть большую роль в повседневном быту населения. В годы независимости в стране уделяется большое внимание дальнейшему развитию этого вида народного промысла. Керамика способствует воспитанию уважительного отношения к народным традициям, гордости за достижения мастеров-керамистов, формированию высоких эстетических идеалов, воспитывает понимание дизайна, развивает чувство цвета, ритма и стиля. Хранящиеся в музее керамические изделия, имеющие многовековую историю, используются современными мастерами, которые изучают опыт предшественников (формы, красители, технологии производства).

Ключевые слова: Ташкент, музей, фонд, археология, этнография, керамика, изделие, ремесла, гончарное производство, коллекция.

Одним из наиболее древних, исключительно интересных видов прикладного искусства Узбекистана, сохранившим до наших дней отчетливую локализацию местных школ и традиций, является керамика. Она активно участвуют в формировании предметной среды и составляет важный элемент культурной жизни общества. Мастерство узбекских мастеров керамики славилось в народе издревле. На основе многовековых традиций народного гончарного ремесла в Узбекистане сложились и выросли самобытные школы мастеров-керамистов, которые развивают и умножают традиции этого яркого и оригинального вида искусства.

Производство керамических изделий получило в нашей стране. настоящий расцвет в годы независимости. Творчески осмысливая опыт мастеров прошлого, современные гончары создают оригинальные произведения, отвечающие эстетическим требования современного интерьера. А помогают им в этом великолепные образцы, хранящиеся в музеях республики.

Для узбекского гончарного искусства характерна отчетливая специфика ряда локальных школ с их своеобразными особенностями. Основными из них являются Риштан, Хорезм, Ташкент, Самарканд, Бухара, Гиждуван, Гурумсарай, Шахрисябз.

Важным центром керамического производства с древних времен является Ташкент, о чем свидетельствуют археологические и этнографические коллекции керамики, хранящиеся в Государственном музее истории Узбекистана. Их сбор проводился на протяжении всего времени функционирования Музея с момента его создания в 1876 г.

В 1886 г. в двух верстах от Ташкента (ныне юго-восточная окраина Ташкента) был найден керамический кувшин тыквообразной формы с ручкой [1, Инв. № 7/53]. В 1891 г. в Музей поступила большая археологическая коллекция ученого-востоковеда Е.Ф. Каля, куда входили керамические изделия, найденные во время раскопочных работ в Ташкенте. После смерти в 1914 г. исследователя Средней Азии И.Т.Пославского часть собранной им коллекции была передана в Туркестанский восточный институт и затем оттуда поступила в Ташкентский музей, [1, колл. № 17] и сфероконические сосуды. 11 декабря 1895 г. в Ташкенте был создан Туркестанский кружок любителей археологии (ТКЛА) [11, с. 44-45]. В результате передачи 4 ноября 1899 г. кружком своих коллекций в археологический отдел Ташкентского публичного музея из музея кружка были переданы найденные близ Ташкента разнообразные по форме и орнаментации сфероконические сосуды (симобкузача) для хранения ртути [1, колл. № 120]; светильники (чироги), покрытые глазурью [1, Инв. № 268]; керамические столики дастарханы и их фрагменты, покрытые орнаментальными элементами в виде круглых штампов – медальонов, найденные при раскопках холма Таштепа, близ Ташкента [1, *Инв.* 1922. С. 242], и др. В 1907 г. член ТКЛА Н.П.Остроумов проводил небольшие раскопочные работы по вскрытию курганных захоронений на восточной окраине Ташкента Среди погребального инвентаря были найдены три керамических сосуда первых веков нашей эры, которые попали в музей [*Инв.*, 1918. С. 6-7]. 8 ноября 1910 г. состоялось заседание ТКЛА. где Н.П.Остроумов сообщил о находке на окраине Ташкента

множества бракованных симобкузача, которые затем также были переданы поступили в музей [12, с. 22].

В феврале 1917 г. в музей поступил керамический кувшин, обнаруженный в с. Никольское близ Ташкента. В мае 1919 г. фон-Эггерт проводил раскопки под Ташкентом близ Ногай-кургана. В музее хранится колл. № 131, которая содержит фрагменты керамических сосудов и светильников.

В августе 1940 г. А.И.Тереножкин начинает археологические раскопки на холме Актепа под Ташкентом. В ходе раскопок было обнаружено большое количество предметов материальной культуры V1-ХП вв., основную массу которых составляют фрагменты керамической посуды. Керамические изделия V1-VП вв. представлены фрагментами хумов, корчаг, кувшинов, кружек, мисок, котлов, жаровен с потеками ангобной краски на стенках, а также украшенные нарезным, штампованным орнаментом; керамические пряслица. Среди керамики Х-ХП вв. преобладали глазурованные и неглазурованные сосуды хорошей станковой работы. Основная масса неглазурованной посуды - кувшины из серой и красной глины, котлы и горшки. Глазурованная посуда представлена фрагментами блюд, чаш, кувшинов и светильников. Сосуды покрыты белым ангобом, по которому наносилась роспись коричневой, оливковой, желтой и красной красками. [7, с. 66-67].

В 1955-1960 гг. проводились сбор, регистрация материалов, обследование Дукентсая, Наугарзансая, городищ Ак-Курган, Канка, Шахрухия в Ташкентской области, Олтинтепа, Товкаттепа, Актепа (за Самарканд-дарбаза), Чукурсая, района Сагбан в Ташкенте. Полученные в ходе раскопок керамические сосуды поступили в фонд Музея истории. [7, с. 32]

В 1974 г. археологическим отрядом музея, получившем название Туябугузский, были начаты стационарные раскопки на памятнике Киндыктепа (район Ташкентского моря). На городище и остатках цитадели были найдены и доставлены в музей глиняные круглодонные груболепные сосуды, значительное количество фрагментов керамики, остатки крупных хумов, фрагменты раннесредневековых сосудов, кухонные круглодонные и плоскодонные сосуды VП-VШ вв. Интересна глиняная подставка для котла в виде морды животного, фрагмент лощеного сосуда ХП в., покрытый резным орнаментом (елочки и треугольники), фрагменты керамики ХП-ХШ вв., покрытые светло-желтой поливой и различным орнаментом. Предметы, найденные на городище Киндыктепа, поступали в музей и в последующие годы. Интересны

керамические печати разной формы, все с резными изображениями [1, колл. № 208].

В колл. № 266 археологического фонда музея хранятся материалы с городища Мингурюк (первые века н.э. - X1-XШ вв. н.э.) из раскопок в 1957 г., проводившихся в 1958-1959 гг., в 1962 г., а также подъемный материал (сборы Ю.Ф.Бурякова в 1953-1957 гг.). Здесь были обнаружены части архитектурного комплекса, предметы быта, в основном посуда, изготовленная на гончарном круге и ручным способом [3; 4]. В ходе раскопок были обнаружены и поступили в Музей истории фрагменты поливных сосудов XП в., многочисленный комплекс фрагментов кухонных горшков с ручками и орнаментацией тулова фестончатыми налепами; фрагменты венчиков хумча и тогора; тонкостенные чаши, груболепные котлы и жаровни, кувшины с коленчато-изогнутым венчиком и грушевидным туловом, тщательной отделкой. Керамика ручной лепки включает огнеупорные сосуды и обычные бытовые, представленные кувшинами с ручками и без ручек, горшками, хумами и хумча. Под ручкой одного из горшков имеется налеп в виде рогов козла. Крупные сосуды – хумы и хумча сделаны от руки и лишь частично подправлены на гончарном круге. В кухонной посуде преобладают котлы шаровидной формы, сковородовидные жаровни, слепленные из глины, с обилием шамотных примесей, часто закопченные внутри. Датированы первыми веками н.э. Интересна курильница в форме плоской чаши на ножке, ножка орнаментированной стреловидными прорезями. Датированы Ш-V вв. В большом количестве встречены крышки сосудов, особенно котлов Ш-1V вв. н.э. Сосуды V1-VП вв. н.э. сформованы на гончарном круге, это: кувшины кувшинчики, кружки, котлы, сосуды типа коса и др. В 1965 г. музею были переданы найденные на городище Мингурюк фрагменты частей сосудов с изображениями животных

Между Чорсу и Хадрой была найдена обильная керамика XV1-X1X вв. В северной части в местности Чукурсай было зафиксировано погребальное поле захоронений в хумах и оссуариях, V1-VП вв. В северо-западной части города при закладке траншеи наряду с фрагментами сосудов были найдены керамические трубы водоотводов X1-XП вв. В результате обследования, проведенного музеем на городищах Кугаиттепа в с. Ногай., в музей были переданы глазурованные сосуды, хумы. В 1974 г. поступили сосуды, симобкузача, фрагменты глазурованной керамики, обнаруженные в районе Кукчинской части г. Ташкента, и керамика, найденная при рытье котлована под спортивным комплексом по ул. Чупаната.

В 1985 г. в музей поступили керамические сосуды: светильники, фрагменты керамической глазурованной посуды XV-XV1 вв. из раскопок Ташкентского археологического отряда, проведенных в 1982 г. в районе строительства Крытого рынка в Ташкенте. В 1986-1988 гг. М.И.Филанович передала музею материалы с городища Бинкет 1Х-Х вв., ХП в., Шаштепа 1-П вв., Актепа Юнусабадского VП-VШ вв., Шаштепа V1-Ш вв. до н.э., из погребения Богустон (Чиланзар, из могильников 1-1V вв. из района ТТЗ и местности Богустон, Бинкета (Х-XV1 вв.): керамические сосуды, игрушки, фрагменты глазурованных сосудов с Шаштепа Х-ХП вв. с изображением животного, эпиграфического орнамента, керамик с Бинкета, ХП в., фрагменты и целые сосуды (чаши), в основном глазурованные, с изображением животных и птиц – лягушки, гуся, черного аиста, фантастической птицы, украшенные растительным орнаментом в виде листьев папортника и цветочным орнаментом, XV1 в. [колл. №№ 296-28, 296-127, 296-129,296-130]. Во время раскопок городища Кугаиттепа на территории г. Ташкента в 1980 г. был найден фрагмент керамической печати (больше половины) с изображением козла. [колл. № 296-163]. Интересен красноглиняный кувшин с канелюрами с Кугаиттепа VШ в. С Шаштепа получены сосуды и фрагменты сосудов с зооморфными ручками 1-1V вв.

Керамический материал древнего периода поступал в Музей истории и в последующие годы. В основном это были сосуды бытового назначения.

Значительное место занимают в этнографическом фонде Музея истории коллекции керамических изделий народов Узбекистана XVШ-XX вв. [5, с. 14-254]. Основа коллекции была заложена известными этнографами М.С.Андреевым, Е.М.Пещеревой, В.О.Вырвинской и др., проводившими сбор керамики в крупнейших центрах керамического производства, в т.ч. и в Ташкенте. Керамическое производство Х1Х-XX вв. представлено в фондах ГМИУ, бытовой и декоративной посудой, сосудами специального назначения, а также деталями гончарного круга *чарх,* наборами узорных штампов *накшин колип* для декорирования изделий, в т.ч. кистями *калам* для полихромной росписи и другими инструментами [2, колл. №№ 12, 37, 100, 110].

Керамическая посуда ташкентских мастеров состояла из хозяйственной и столовой посуды *катта лаган, урта лаган, кичик лаган*, разнообразных чаш и др. [5, с. 40-100]. Известностью пользовались гончары Т.Миркаримов, Т.Талипов, усто Мир-Али, Шакирмат, Якубджан, Ю.Салихов и другие. Среди ташкентских мастеров XX столетия известны имена усто Ташпулата,

А.Аминова, К.Турапова, А.Абдукаюмова, А.Каюмова, Ч.Садыкова, И.Салиева, Р.Акбальяна, которые провели интересные опыты по восстановлению забытых и утерянных в веках технологических и художественных приемов древних мастеров [8].

Одним из видных керамистов Ташкента в XX в. был потомственный мастер М.К.Рахимов (1903-1985 гг.). Выполненные им изделия отличаются особым мастерством и большим вкусом, имеют совершенные формы. Это наборы национальных блюд для плова, сосудов для молока и вина, чая и фруктов, нарына, кувшины, вазочки, пиалы, сувениры. Художник использовал разные приемы и технику: лощение, резьбу, полихромную и монохромную роспись, гравировку, вдавленный орнамент с применением штампов и др. [1, колл. 100]. М.К.Рахимова отличает использование в своем творчестве лучших традиций в орнаментальном искусстве мастеров прошлого. В его керамических произведениях широко представлены элементы узоров, украшавших сосуды, найденные при проведении раскопок на Афрасиабе, в Сурхандарьинской области и др. Образцы таких изделий, выполненных с использованием орнаментальных мотивов древней керамики кушанского периода, поливной расписной керамики Афрасиаба, Хорезма, Кувы, Ташкента, представлены в ГМИУ. Одним из ценных приобретений Музеем истории образцов работы известного мастера явилась горельефная композиция, представляющая процесс гончарного производства.

Дело М.К.Рахимова успешно продолжают сегодня его сын Акбар, заслуженный деятель искусств Узбекистана и внук Алишер. В их работах подкупает бережное отношение к традициям древнего керамического искусства. Ими возрожден стиль *кашгари*, издревле известный в Ташкенте. В 1994 г. в память о М.К.Рахимове был создан Дом-музей М.К.Рахимова, в котором особое место занимает гончарная мастерская, хранятся личные вещи, книги и произведения большого мастера. На базе мастерской керамистов Рахимовых в 2005 г. в Ташкенте была открыта первая школа керамики «Усто шагирд» [9, с. 75-86]. Изделия современных мастеров сохраняют свою уникальность, соединяя в себе традиционные технологии с инновационными подходами.

О большом социальном, идейно-эстетическом и художественном значении, какое придается в Узбекистане декоративно-прикладному искусству, и в т.ч. гончарному делу, свидетельствуют вышедшие в 2017-2023 гг. Указы Президента Республики Узбекистан "О мерах по дальнейшему развитию ремесленничества и всесторонней поддержке ремесленников", от 17.11.2017 г.

N УП-5242 и «О мерах по при влечению населения к ремесленничеству и созданию благоприятных условий для развития ремесленнической деятельности», от 12 июня 2023 г. N УП-91; Постановления Президента Республики Узбекистан "О мерах по ускоренному развитию и поддержке гончарного дела", от 23.03.2021 г. N ПП-5033 и "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы поддержки ремесленнической деятельности", от 30.12.2021 г. N ПП-77. Возрождению исчезающих или полностью забытых промыслов призвана и деятельность Республиканского объединения мастеров народного искусства «Усто», и Ассоциации "Хунарманд", чему способствовали Постановление Президента Республики Узбекистан от 17.11.2017 г. N ПП-3393 "О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Ассоциации "Хунарманд"; Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 03.07.1998 г. N 279 "О вопросах организации деятельности специального творческо-производственного объединения "Усто" при Министерстве по делам культуры Республики Узбекистан".

Источники.

1. Государственный музей истории Узбекистана. Фонд археологии (ГМИУ. ФА). Колл. 33 7; 17; 120; 131; 208; 268; 296.
2. Государственный музей истории Узбекистана. Фонд этнографии (ГМИУ. ФЭ). Колл. №№ 12; 37; 100; 110.

Литература

3. *Буряков Ю.Ф.,* Городище Мингурюк в Ташкенте // Тр.САГУ. Вып. 81. Ташкент, 1956.
4. *Буряков Ю.Ф., Зильпер Д.Г.* Археологические наблюдения в 1957 голду на городище Мингурюк в Ташкенте // Тр. ТашГУ. Вып. 172. Ташкент, 1959.
5. *Иноятов К., Садыкова Н., Турсуналиев К.. Левтеева Л.Г.* Каталог металлических и керамических изделий Узбекистана XVШ-XX века. Т., 2000.
6. *Кустарные промыслы* в быту народов Узбекистана X1X-XX вв. Ташкент: Фан, 1986.
7. *Левтеева Л.Г.* Некоторые итоги комплектования археологического фонда Музея истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека / Времен связующая нить (по материалам музейных фондов). Сб. ст. Ташкент, 1992.
8. *Левтеева Л.Г.,* Музейные собрания предметов ремесленничества и декоративно-прикладного искусства Ташкента XVШ-XX веков. Тезисы доклада / Урбанистическая культура Узбекистана. Материалы Международной научной конференции. Т., 4-5 декабря 2003 г.

9. *Левтеева Лариса.* Художественная керамика М.К. Рахимова в собрании Государственного музея истории Узбекистана // Вклад Мухитдина Рахимова в развитие прикладного искусства Узбекистана. Материалы научно-теоретической конференции к 120-летию со дня рождения. Ташкент, 2024. С. 75-86.
10. *Левтеева Л.Г., Минасянц В.С.* Эхо ушедших эпох. Ташкент, 2017.
11. *Лунин Б.В.* Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. /Туркестанский кружок любителей археологии. 1895-1917 гг. Ташкент, 1958.
12. *Минасянц В.С.* К истории комплектования коллекции археологического фонда Музея истории народов Узбекистана (1876-1917 гг.). / Времен связующая нить. Сб. ст. Ташкент, 1992.
13. *Протоколы* Туркестанского кружка любителей археологии. (ПТКЛА), П. 1897; Х1. 1907.

MINATYURA SAN’ATI VA UNING ME’MORIY OBIDALARNI REKONSTRUKSIYA QILISHDAGI ROLI

Mirzaliyev U.B
GDPI tarix kafedrsi dotsenti, t.f.f.d, (PhD)
Tovashova D
Guliston davlat pedagogika instituti
tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy ob’ektlarini kompleks o‘rganishda minatyura san’ati, muzey fondlari va amaliy san’at namunalarining ilmiy va madaniy-ma’rifiy ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot temuriylar davri minatyura maktabi, xususan Kamoliddin Behzod ijodi va uning davomchilari asarlarida Samarqand, Buxoro, Hirot va boshqa shaharlarning me’moriy obidalari tasvirini aks ettiruvchi manbaviy imkoniyatlarni tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar. minatyura san’ati, muzey fondlari, amaliy san’at, tarixiy-me’moriy ob’ektlar, madaniy meros, Kamoliddin Behzod, temuriylar davri, madaniy rekonstruksiya, O‘zbekiston.

O‘zbekiston hududida qadimdan rivojlangan shahar madaniyati o‘ziga xos me’moriy obidalarning keng tarqalishi bilan ajralib keladi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Toshkent va Termiz kabi shaharlar ko‘p asrlik tarixi davomida o‘nlab madrasa, masjid, maqbara, saroy va karvonsaroy kabi nodir obidalarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Bu ob’ektlarning ilmiy o‘rganilishi, avvalambor, ularning fizik holatini, konstruktiv xususiyatlarini va badiiy yechimlarini tahlil qilishni talab

qiladi. Biroq, ko‘plab tarixiy ob’ektlar bugungi kunda qisman yoki butunlay yo‘qolib ketgan, bezak qatlamlari noto‘g‘ri restavratsiya natijasida buzilgan yoki tabiiy ofatlar tufayli zarar ko‘rgan. Aynan shunday holatlarda minatyura san’ati, muzey fondlari va amaliy san’at namunalari ob’ektlarning dastlabki ko‘rinishini, ichki tuzilishi va bezak tizimini rekonstruksiya qilishda benihoyat muhim manbaaviy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston tarixiy-me’moriy ob’ektlarini kompleks o‘rganishda minatyura san’ati, muzey fondlari va amaliy san’at namunalarining o‘rni va o‘zaro bog’liqligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan: birinchidan, temuriylar minatyura maktabi asarlarida me’moriy obidalarning aks etish xususiyatlarini tahlil qilish; ikkinchidan, O‘zbekiston muzeylari fondlarida saqlanayotgan me’moriy yodgorliklar va ular bilan bog’liq amaliy san’at namunalarini ilmiy aylanishga jalb etish darajasini baholash; uchinchidan, ushbu manbalar asosida ayrim ob’ektlarning rekonstruksiyasiga doir tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, uch turli manba turkumini bir tizimda kompleks tahlil qilish orqali ularning o‘zaro to‘ldiruvchi funksiyasi ilk bor alohida yoritiladi.

Tarixiy-me’moriy ob’ektlarni o‘rganishda minatyura san’atining o‘rni. Temuriylar davri miniatyura maktabi XV-XVI asrlarda Hirot, Samarqand va Buxoro shaharlarida yuksak darajada rivojlangan bo‘lib, uning yetakchi vakili Kamoliddin Behzod hamda uning shogirdlari Mahmud Muzahhib, Shayx-Zoda, Mir Sayyid Ali, Murod Samarqandiy kabi san’atkorlar ijodi nafaqat qo‘lyozma kitoblarni bezashda, balki o‘z davrining me’moriy muhitini qayd etishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Behzodning “Zafarnoma” va “Buston” qo‘lyozmalari uchun yaratilgan miniatyuralarida Samarqand shahrining ko‘chalari, davlat saroylari, masjidlar, madrasalar va bozor maydonlari tarixiy ob’ektlarning qanday ko‘rinishga ega bo‘lganini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu miniatyuralarda aks etgan me’moriy ob’ektlarning konstruktiv tahlili Shohizinda, Registon va Go‘ri Amir ansambllarining dastlabki ko‘rinishini rekonstruksiya qilish uchun muhim ma’lumot beradi. Miniatyuralarda gumbazlar, peshtoqlar, archa-ayvonlar va bezak naqshlari batafsil tasvirlangan bo‘lib, ular bugungi kunda saqlanib qolgan yoki qisman yo‘qolgan qismlarni aniqlashda beqiyos manba hisoblanadi.

Miniatyura san’atining manbaaviy ahamiyati nafaqat tasviriy hujjat sifatida, balki etnografik ma’lumot beruvchi manba sifatida ham namoyon bo‘ladi. Miniatyuralarda shahar aholisi hayoti, kiyim-kechak, mehnat jarayonlari, diniy marosimlar va bayramlar tasvirlanishi orqali me’moriy ob’ektlarning ijtimoiy muhit bilan bog’liqligi o‘rganiladi. Shu tarzda, miniatyura san’ati ilmiy aylanishda nafaqat

badiiy asar, balki tarixiy-me’moriy rekonstruksiyaning komponenti sifatida e’tirof etilishi zarur.

Xivalik miniatyura maktabi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, asosan XIX asrda yuksalib, Ichan-qal’a devorlari ichidagi xonlik saroylarida saqlanayotgan qo‘lyozma kitoblarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Tash-Hovli saroyi, Oq masjid, Juma masjid kabi ob’ektlarning bezak tizimi va ichki makon tuzilishi aks ettirilgan miniatyuralar me’moriy ob’ektlarning o‘ziga xos stilistik xususiyatlarini qayd etadi. Muzey fondlarining roli. Muzeylar tarixiy-me’moriy ob’ektlarni o‘rganishda ikki yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, ular ko‘chma bo‘lmagan me’moriy yodgorliklarning bezak elementlari, epigrafik yozuvlar, terrakota plitalar va me’moriy detallar saqlanadigan markazga aylanadi. Amir Temuriy muzeyi fondlarida saqlanayotgan XIV-XV asrlarga oid me’moriy terrakota naqshlar, g’ishtin bezaklar va sopol koshinlar Ak-Saroy, Bibi-Xonim masjidi, Go‘ri Amir maqbarasining bezak tizimini qayta tiklashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, muzeylar amaliy san’at namunalarining asosiy saqlovchisi sifatida, me’moriy ob’ektlarning badiiy muhitini tushunish uchun zarur bo‘lgan yordamchi materiallarni jamlaydi. O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi fondlaridagi miniatyura kolleksiyasi, shuningdek Samarqand “Go‘ri Amir” maqbarasi muzeyi, Buxoro me’morchilik-badiiy hunarmandlik muzey-qo‘riqxonasi fondlari tarixiy me’moriy obidalarning badiiy-badiiy kontekstini shakllantiradi.

Amaliy san’at namunalarining ahamiyati. Amaliy san’at turlaridan zardo‘zlik, kandakorlik, ganchkorlik, naqqoshlik, koshinkorlik va yog’och o‘ymakorligi namunalari tarixiy-me’moriy ob’ektlarning bevosita badiiy-estetik komponenti bo‘lib hisoblanadi. Bu namunalar, o‘z navbatida, me’moriy makonni tashkil qiluvchi bezak tizimining qonuniyatlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy san’at ustalarining Mahmud Usmonov, Shamsiddin Qamoliddinov, Ortiq Qodirov, Akmal Ikromov singari ustoz-shogird an’anasi davomchilari yaratgan amaliy san’at namunalari ham zamonaviy muzey kolleksiyalarining ajralmas qismiga aylangan.

Yana bir e’tiborga molik jihat - madaniy merosning raqamli reshetkasida miniatyura, muzey eksponati va amaliy san’at namunasini bir-biri bilan bog’laydigan veb-platformalarni yaratish zaruriyati. Bunday platformalar yodgorlikning tipologik xususiyatlarini, geometrik o‘lchamlarini, san’atshunoslik tahlilini va tarixiy manbalarda aks etilishini bir tizimda birlashtirib, tadqiqotchi va tashrif buyuruvchilarga to‘liq ma’lumot beradi. Bu yondashuv nafaqat ob’ektning ilmiy tahlilini chuqurlashtiradi, balki jamoatchilikning madaniy merosga qiziqishini

oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, ilmiy loyihalar doirasida bunday raqamli platformalarni ishlab chiqish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanishi zarur.

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, minatyura san’ati, xususan temuriylar davri miniatyura maktabi asarlari, O‘zbekiston tarixiy-me’moriy ob’ektlarini o‘rganishda tasviriy manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Ularda aks etgan me’moriy makon, bezak tizimi va shahar muhiti nafaqat badiiy qimmatga egaligi, balki tarixiy ob’ektlarning rekonstruksiyasini amalga oshirishda ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, O‘zbekiston muzeylari fondlarida saqlanayotgan me’moriy yodgorliklar va amaliy san’at namunalari tarixiy ob’ektlarni kompleks o‘rganishning zarur komponenti hisoblanadi. Ushbu fondlarni raqamlashtirish, ilmiy nashr etish va xalqaro aylanishga jalb qilish sohadagi ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Uchinchidan, amaliy san’at namunalari me’moriy ob’ektlarning badiiy yechimini shakllantiruvchi asosiy element bo‘lib, ularni alohida ko‘rinishda emas, balki me’moriy muhit bilan birgalikda o‘rganish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu uch manba turkumini bir tizimda kompleks qo‘llash tarixiy-me’moriy ob’ektlarning to‘liq ilmiy rekonstruksiyasini amalga oshirish imkonini beradi. Kelajak tadqiqotlari uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi: birinchidan, O‘zbekiston muzeylari fondlari va jahon muzeylari kolleksiyalarida saqlanayotgan O‘zbekiston me’moriy yodgorliklarining umumlashtirilgan elektron katalogini yaratish; ikkinchidan, miniatyura san’atini kompleks o‘rganishga jalb etish bo‘yicha maxsus ilmiy markazlar tashkil etish; uchinchidan, amaliy san’at ustalarining ustoz-shogird an’analarini madaniy merosni saqlash mexanizmi sifatida qo‘llab-quvvatlash. Bu chora-tadbirlar O‘zbekiston tarixiy-me’moriy merosini kompleks o‘rganish, saqlash va kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov D. A. O‘zbekiston tarixi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2018. - 464 b.
2. Abdullayeva X. S. Temuriylar davri miniatyura san’ati. - Toshkent: Fan, 2019. - 220 b.
3. Mahkamov A. M. Kamoliddin Behzod va uning maktabi. - Toshkent: San’at, 2020. - 196 b.
4. Usmonov Q. Me’moriy yodgorliklarni restavratsiya qilish nazariyasi va amaliyoti. - Samarqand: Zarafshan, 2017. - 248 b.
5. Hakimov K. A. Buxoro me’morchilik-badiiy hunarmandlik muzey-qo‘riqxonasi fondlari katalogi. - Buxoro: Imom Buxoriy, 2019. - 312 b.

6. Asqarov A. A. Amir Temuriy muzeyi eksponatlari bo‘yicha qo‘llanma. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2021. - 280 b.

O‘ZBEKISTON TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARIDA OV VA HARBIY QUROLLARNING AKS ETISHI: ARXEOLOGIK VA TASVIRIY MANBALAR TAHLILI

Z.A.Muxammadov
Guliston davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklarida ov va harbiy qurollarning aks etishi arxeologik topilmalar, qoyatosh suratlari va devoriy tasvirlar asosida tahlil qilinib, ularning tarixiy-madaniy hamda manbashunoslik ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, ovchilik, ov qurollari, harbiy qurollar, arxeologiya, tasviriy manbalar, Sarmishsoy, Afrosiyob, Varaxsha, qoyatosh suratlari, devoriy suratlar, kamon, nayza, moddiy madaniyat, qurolsozlik.

O‘zbekiston hududi qadimdan insoniyatning xo‘jalik faoliyati, ovchilik an’analari va harbiy madaniyati shakllangan tarixiy-madaniy makonlardan biri hisoblanadi. So‘nggi paleolitdan boshlab insonning tabiiy muhitga moslashuvi, oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji va yashash uchun kurashi turli mehnat hamda ov qurollarining paydo bo‘lishiga olib kelgan. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida esa ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, harbiy to‘qnashuvlar va siyosiy tuzilmalarning shakllanishi natijasida ayrim ov qurollari jangovar vazifalarni ham bajara boshlagan. Shu sababli ov va harbiy qurollarni o‘rganish qadimgi jamiyatlarning xo‘jalik hayoti, harbiy ishi va texnologik taraqqiyotini yoritishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston hududidagi ov va harbiy qurollarning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda arxeologik hamda tasviriy manbalar alohida o‘rin tutadi. Selung‘ur, Ko‘lbuloq, Obirahmat va Teshiktosh singari paleolit yodgorliklaridan aniqlangan tosh buyumlar va boshqa moddiy topilmalar qadimgi aholining ovchilik faoliyati hamda qurol yasash texnologiyasini tiklash imkonini beradi. Arxeologik topilmalarning shakli, materiali, ishlov berish texnikasi va funksional belgilarini o‘rganish qurollarning sodda ko‘rinishlardan takomillashgan shakllarga tomon rivojlanishini kuzatishda muhimdir.

Arxeologik topilmalarni tasviriy san’at namunalari bilan qiyosiy o‘rganish esa mazkur masalaning manbaviy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Xususan, Sarmishsoy qoyatosh suratlarida ov sahnalari, yovvoyi hayvonlar, ovchilar, kamon-

o‘q va nayza kabi qurollar tasvirlangan. Ilk o‘rta asrlarga oid Afrosiyob devoriy suratlarida otliq ovchi va nayzadan foydalanish holatlari, Varaxsha saroyi devoriy suratlarida esa hayvonlar, insonlar hamda ovchilik bilan bog‘liq kompozitsiyalar aks etgan. Bunday tasvirlar qurollarning tashqi shakli bilan bir qatorda ulardan ov jarayonida foydalanish usullarini aniqlashga ham yordam beradi.

O‘zbekiston hududida ov va harbiy qurollarning shakllanishi uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo‘lib, uning dastlabki bosqichlarini arxeologik manbalar asosida kuzatish mumkin. Yozuv paydo bo‘lmagan davrlar tarixini o‘rganishda tosh va suyakdan yasalgan qurollar, o‘q va nayza uchlari, pichoqlar hamda keyingi davrlarga mansub metall qurol-aslahalar asosiy moddiy dalillar hisoblanadi. Ularning yasalish materiali, shakli, ishlov berish texnikasi va arxeologik kontekstini tahlil qilish qurollarning oddiy shakllardan murakkab va ixtisoslashgan turlarga tomon taraqqiy etganini aniqlash imkonini beradi. O‘zbekiston hududidagi paleolit yodgorliklari ov qurollarining dastlabki shakllanish bosqichlarini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Selung‘ur, Ko‘lbuloq, Obirahmat va Teshiktosh yodgorliklaridan aniqlangan moddiy topilmalar qadimgi aholining toshga ishlov berish usullari, tabiiy muhitga moslashuvi va ovchilik faoliyatini yoritadi. Xususan, Selung‘ur g‘or-makonidagi tosh buyumlar qadimgi qurol yasash texnikasini, Ko‘lbuloqdan topilgan tosh qurollar va hayvon suyaklari esa ovchilik xo‘jaligining xususiyatlarini o‘rganish uchun muhimdir. Teshiktosh g‘oridan aniqlangan fauna qoldiqlari va arxeologik materiallar ham o‘rta paleolit aholisi hayotida ovchilik muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Obirahmat g‘or-makoni materiallari O‘zbekiston hududida qadimgi ov qurollarining rivojlanishini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu yodgorlikdan topilgan ayrim mikronuqtalarning morfologik xususiyatlari ularni og‘ir nayza uchidan ko‘ra yengil uloqtiriluvchi qurolning uch qismi sifatida talqin qilish imkonini bergan. Biroq bunday topilmalarni bevosita kamon o‘qi uchlari sifatida belgilashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Qurol funksiyasini aniqlashda uning shakli bilan cheklanib qolmasdan, foydalanish izlari, sinish xarakteri, zarba deformatsiyasi va arxeologik kontekstini kompleks o‘rganish zarur **[Plisson H: 83-90]**.

Arxeologik topilmalarning funksional vazifasini aniqlashda eksperimental-traseologik tadqiqotlar ham katta ilmiy ahamiyatga ega. T.Shirinovning Markaziy Osiyo bronza davri mehnat va harbiy qurollariga bag‘ishlangan tadqiqotlari buyumlardagi foydalanish izlari orqali ularning amaliy vazifalarini aniqlash imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv ayrim qurollarning ovchilikda, xo‘jalik faoliyatida yoki jangovar maqsadlarda ishlatilganini farqlash uchun muhim

metodologik asos yaratadi **[Shirinov T: 136]**. Ov va harbiy qurollarning tarixiy rivojlanishini faqat moddiy topilmalar asosida to‘liq yoritish qiyin. Shu sababli arxeologik materiallarni tasviriy san’at yodgorliklari bilan qiyosiy tahlil qilish muhimdir. Qoyatosh suratlari va devoriy rasmlarda ovchi hamda jangchilarning harakati, qurolni tutish usuli, ov jarayonidagi holati, qurolning shakli va ayrim konstruktiv xususiyatlari aks etgan. Bu jihatdan tasviriy manbalar arxeologik topilmalarning funksional vazifalarini izohlash imkoniyatini kengaytiradi.

O‘zbekiston hududidagi ana shunday muhim tasviriy manbalardan biri Sarmishsoy qoyatosh suratlari hisoblanadi. Sarmishsoy petrogliflarida yovvoyi hayvonlar, ovchilar, ov jarayonlari, kamon-o‘q, nayza va boshqa qurollar tasvirlangan. Ushbu tasvirlar qadimgi aholining ovchilik faoliyati bilan bir qatorda qurollardan foydalanish usullarini ham o‘rganish imkonini beradi. Sarmishsoy tasvirlarining turli tarixiy davrlarga mansubligi ov qurollarining uzoq vaqt mobaynida qo‘llanilishi va ularning shakliy o‘zgarishlarini qiyosiy kuzatishda alohida ahamiyat kasb etadi **[Мухаммадов Х]**. Sarmishsoy materiallarining ahamiyati shundaki, arxeologik qazishmalardan topilgan qurolning o‘zi ko‘pincha undan qanday foydalanilganini to‘liq ko‘rsatib bera olmaydi. Qoyatosh tasvirida esa qurol inson faoliyati bilan birgalikda aks ettiriladi. Masalan, ovchining kamonni tortishi, nayza yordamida hayvonga hujum qilishi yoki jamoaviy ov jarayonining tasvirlanishi muayyan qurolning amaliy funksiyasini aniqlashga ko‘maklashadi. Shu sababli Sarmishsoy petrogliflarini arxeologik qurol topilmalari bilan qiyoslash tarix va san’atshunoslik sohalarining o‘zaro integratsiyasi uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Ilk o‘rta asrlar ovchilik va harbiy madaniyatini o‘rganishda Afrosiyob devoriy suratlari alohida ahamiyatga ega. VII asrga mansub ushbu devoriy tasvirlarda elchilar, otliqlar, marosimlar bilan bir qatorda ov bilan bog‘liq sahnalar ham mavjud. Ayniqsa, shimoliy devordagi kompozitsiyada otliq ovchining nayza yordamida yirtqich hayvonga zarba berishi tasvirlangan. Mazkur tasvir nayzaning ilk o‘rta asrlarda nafaqat jangovar, balki otliq ov quroli sifatida ham qo‘llanganligini o‘rganish uchun muhim tasviriy dalil bo‘lib xizmat qiladi **[Альбаум Л.И.]**. Afrosiyob tasvirlarini arxeologik topilmalar bilan birgalikda tahlil qilish qurolning tashqi shakli bilan uning amaliy vazifasi o‘rtasidagi munosabatni aniqlashga yordam beradi. Arxeologik yodgorlikdan topilgan nayza uchi uning materiali, o‘lchami va yasalish texnologiyasini ko‘rsatsa, devoriy tasvirdagi nayza undan foydalanish usuli, otliq ovchi bilan munosabati va ov jarayonidagi funksiyasini ko‘rsatadi. Shu sababli moddiy va tasviriy manbalarni o‘zaro qiyoslash tarixiy rekonstruksiyaning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Buxoro vohasidagi Varaxsha saroyi

devoriy suratlari ham O‘zbekiston hududida ovchilik madaniyati va qurollardan foydalanish tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Saroy devoriy bezaklarida insonlar, hayvonlar va ov bilan bog‘liq kompozitsiyalarning aks ettirilishi ovchilikning ilk o‘rta asrlar hukmdorlik va saroy madaniyatida muayyan o‘rin egallaganini o‘rganishga imkon beradi. Varaxsha tasvirlarini Afrosiyob materiallari bilan qiyosiy o‘rganish ovchilikning oddiy xo‘jalik mashg‘ulotidan tashqari ijtimoiy va madaniy mazmun kasb etganini yoritishda ham muhimdir **[Шишкин В.А: 56]**.

Ov qurollari bilan harbiy qurollar o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik ham alohida e’tiborga loyiq. Nayza, kamon va o‘q, pichoq, xanjar kabi vositalarning ayrimlari dastlab ovchilik va kundalik xo‘jalik ehtiyojlari bilan bog‘liq holda rivojlangan bo‘lsa, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning murakkablashuvi va harbiy faoliyatning kuchayishi ularning jangovar vazifalarini kengaytirgan. Natijada bir xil qurol turi tarixiy sharoitga qarab ovchilikda ham, harbiy faoliyatda ham qo‘llanishi mumkin bo‘lgan. Dissertatsiyada ham qurollarning funksional xususiyatlarini arxeologik, yozma, etnografik va tasviriy materiallarni qiyoslash orqali aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklaridagi ov va harbiy qurollarni o‘rganishda kompleks manbashunoslik yondashuvi muhim hisoblanadi. Arxeologik topilmalar qurolning materiali, texnologiyasi, tipologiyasi va xronologiyasini aniqlashga imkon bersa, Sarmishsoy singari qoyatosh suratlari hamda Afrosiyob va Varaxsha devoriy tasvirlari ulardan foydalanish jarayonini vizual jihatdan tiklashga yordam beradi. Shu tariqa tarix, arxeologiya va san’atshunoslik ma’lumotlarini o‘zaro qiyoslash O‘zbekiston hududida ov va harbiy qurollarning shakllanishi, takomillashuvi va funksional o‘zgarishlarini yaxlit tarixiy jarayon sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklaridan aniqlangan arxeologik topilmalar, Sarmishsoy qoyatosh suratlari hamda Afrosiyob va Varaxsha devoriy tasvirlari ov va harbiy qurollarning shakllanishi, takomillashuvi va qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu manbalarni tarix, arxeologiya va san’atshunoslik fanlari asosida kompleks o‘rganish qadimgi va ilk o‘rta asrlar ovchilik hamda harbiy madaniyatini yanada to‘liq yoritish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Альбаум Л. И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1975.

2. Ширинов Т. Орудия производства и оружие эпохи бронзы Среднеазиатского Междуречья: по данным экспериментально-трассологического изучения. – Ташкент: Фан, 1986. – 136 с.
3. Шишкин В. А. Варахша. – Москва: Издательство АН СССР, 1963.

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI TUZILMASIDAGI QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI MUZEYI XUSUSIDA

X.B.O‘rmonov
Guliston davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi o‘qituvchisi
+99899 472 63 88

Annotatsiya: Maqolada Guliston davlat universiteti tuzilmasidagi qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi, arxiv hujjatlari va mahalliy dala tadqiqotlari asosida muzeyni tashkil etish jarayoni, uning dastlabki faoliyati, ahamiyati, keyingi davrlarda olib borilayotgan tadqiqotlar va ularning natijalari, qatag‘on qilingan shaxslarning xronologik ro‘yxati va ularning soni haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Muzey, arxiv, xujjat, tadqiqot, xotira, qirg‘in, urf-odat, fidoyi, shaxslar, ayblov, siyosiy, tergov, noxaq, sud, paxta ishi, qatag‘onlik, qoloqlik.

Buyuk ajdodlarimizning muqaddas
xotirasi va jasorati oldida bosh egamiz
Shavkat Mirziyoyev

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyiga tashriflari chog‘ida “Bu muzey muzeylarning muzeyi... bu kabi muzeylar har bir viloyat markazida, xududlardagi oliy ta’lim muassasalari qoshida bo‘lishi lozim”, - degan topshiriqlari ijrosi o‘laroq. El-yurtimiz ozodligi, erkinligi va mustaqilligi uchun olib borilgan ko‘p yillik mashaqqatli kurashlarni xaqqoniy va to‘laqonli aks ettirish, mustabid tuzum davridagi ommaviy qatag‘onlar tufayli qurbon bo‘lgan, insoniylik sha’ni, qadir qimmati toptalgan vatandoshlarimizning xotirasini abadiylashtirish, yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat tuyg‘ularini singdirish maqsadida O‘zbekisto Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabrdagi № 936-sonli qarori [1], asosida Guliston davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi 2019-yi 1-fevraldan o‘z faoliyatini boshlagan.

“Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi milliy manaviyatimizni yuksalishida tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan muzeylardan biridir. Muzey ekspozitsiyasini tashkil

qilish uchun kerakli bo‘lgan ashyoviy baza yaratilgan. Tegishli arxiv xujjatlari, fotosuratlar, ashyoviy buyumlar, kitoblar, videomateriallar to‘plangan. Viloyatimizdagi o‘lkashunoslik muzeyida saqlanayotgan qatag‘onlik davriga oid eksponatlar, kerakli xujjatlar ishchi guruh a’zolari tomonidan muzeyga olib kelingan. Muzeyda asosan 1860-1990-yillar oralig‘ida yuz bergan qatag‘onlikning og‘ir jabr-zulumlarini boshidan o‘tkazgan shaxslarning kundaliklari, raxbariyat bilan yozishmalari, ularning saqlab qo‘ygan kitoblari, kundalik daftarlari va boshqa davlat arxivlarida saqlanayotgan xujjatlardan ko‘chirmalar saqlanadi va tadqiqot qilinadi.

Ajdodlarini yaxshi bilgan xalqimiz bobolarimiz va momolarimiz yetib kelgan boy tarix, ilm-fan, adabiyot va san’at sohalarida yaratilgan asarlar, urf-odatlar, qadriyatlarni avaylab asrab, o‘tgan allomalarni xamisha xotirlab ehtirom bajo keltirmoqda. Buning zamirida shubxasiz, katta mano, teran mohiyat hikmat yotadi. Ma’lumki XX asr boshlarida Turkistoda vujudga kelgan, milliy uyg‘onish harakati namoyondalari xalqni mustamlakachilik, ijtimoiy va madaniy qoloqlikdan olib chiqish uchun harakat qilgan. Afsuski, o‘sha davr xukumron doiralari ota-bobolarimizning ilmiy-ma’naviy salohiyatini yo‘q qilishga qaratilgan qatag‘on siyosatini olib bordi. Ularga nisbatan har-xil tuxmatlar uyushtirib, “Xalq dushmani”, “Vatan xoini”, “Burjua millatchisi” kabi yorliqlar bilan otuvga hukm qilganlar.

Muzeyda 1860-yildan 1916-yilgacha xalq qo‘zg‘alonlarida ishtiroki uchun jazolanganlar, Sovet hokimiyatiga qarshi kurash qurbonlari 1917-1924-yillar, siyosiy ayblovlar va «quloqlashtirish» qurbonlari 1925-1936-yillar, “Katta qirg‘in” qurbonlari 1937-1938-yillar, Ikkinchi jahon urushi yillarida hamda 50-yillargacha bo‘lagn davrda qatag‘on qilinganlar, «Paxta ishi» va “O‘zbeklar ishi” xronologik yillar kesimida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi Qatag‘on qurbonlarini me’rosini yanada chuqur o‘rganish va ularni xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida[2], F-5598 - sonli Farmoyishi ijrosini ta’minlash yuzasidan viloyatda tuman va maxallalar kesimida, davlat arxivlari bo‘limlarida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib borilmoqda.

Ilmiy tadqiqot ishlarida aniqlanishicha Sirdaryo viloyatidan mardikorlikka olinganlar jami 42 kishi bo‘lib, ulardan oliy jazoga 1 kishi, surgun qilinganlar 6 kishi, turli yillarga qamalganlar 17 kishi, okrug sudlari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilganlar 18 kishini tashkil qiladi.

1917-1924-yillarda Turkistonda Sovet xokimiyatiga qarshi kurash olib borgan 76 nafar Sirdaryoliklarning oliy jazoga 1 kishi, surgan qilinganlar 36 kishi, Sirdaryo viloyati inqilobiy trebunali tomonidan jazoga tortilganlar 21 kishi, xukumatga qarshi

kurashda ayblanganlar 4 kishi, turli yillarga qamoqqa olinganlar 14 kishini tashkil etadi.

1930-yilda Sovet xokimiyati amalga oshirgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jumladan industriyalashtirish, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish butun Respublika singari Sirdaryo viloyatining rivojiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Sovet xokimiyatining olib borgan manashu noto‘g‘ri siyosatiga qarshi chiqqan va to‘g‘ri fikirni bildirgan Sirdaryodagi maxalliy axoli o‘zining qanchadan-qancha tadbirkor va ishbilarmon farzandlaridan maxrum bo‘ldi. 1925-1936-yillarda sovet tuzumi tomonidan jami 302 nafar Sirdaryolik turli siyosiy ayblovlar bilan noxaq ayblanib jazolanganlar. Ulardan oliy jazoga 5 kishi, turli yillarga qamoq jazosiga 97 kishi, mexnat tuzatish lageriga 23 kishi, surgun va quloq qilinganlar 177 kishini tashkil etadi.

Sovet davlati siyosiy qatag‘onlarining eng yuqori nuqtasi 1937-1938-yillardagi “Katta qirg‘in” jarayoni bo‘ldi. SSSR NKVDsi tomonidan 1937-yil 30-iyul kuni tasdiqlangan №00447 raqamli mutlaqo maxfiy buyruqqa ko‘ra qatag‘on 5-avgustda “barcha respublikalar va viloyatlarda” boshlanishi lozim edi. Bu davrda davlat, fan, madaniyat arboblari, ziyolilar, ulamolar, xattoki oddiy insonlar ham qatag‘on domiga torlilganlar. Bugungi kungacha aniqlangan malumotlarga qaraganda, Sirdaryoda jami 195 nafar shaxslar “Katta qirg‘in” qurboni bo‘ldilar. Shundan oliy jazoga 15 kishi, turli yillarga qamoq jazosiga 88 kishi, surgun jazosiga 19 kishi, tergov, mexnat tuzatish lagerlari va turli jazolarga 27 kishini tashkil qiladi.

Sovet mustabid tuzumining qatag‘on siyosati fashizmga qarshi urishning qiyinchiliklariga qaramay davom etdi. 1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshida, ziyolilarning eng ilg‘or qismiga qarshi qaratilgan qatag‘onlik qilichi bir qator yozuvchilar, shoirlar, olimlar va boshqalarning boshiga tushdi. Bu jarayonda Sirdaryodan jami 47 nafar shaxslar qatag‘on qilingan. Bulardan turli yillarga qamalganlar 33 kishi, surgun qilinganlar 10 kishi, xalq dushmani sifatida xukm qilinganlar 4 kishini tashkil etadi.

XX asrning 80-yillarida sobiq Markaz tomonidan o‘zbek xalqiga nisbatan ommaviy qatag‘onlarning yangi bosqichi boshlandi. “Paxta ishi” deb nom olgan siyosiy kampaniya orqali o‘zbek xalqi shaniga turli tuxmat va bo‘xtonlar yog‘dirilib, minglab begunox insonlar jazoga tortildi. Sirdaryo viloyatida bu jarayonda jami 184 kishi noxaq ayblovlar bilan jinoiy javobgarlikka tortildilar. Ulardan turli yillarga qamalganlar 150 kishi. Tilxat asosida ochiqlikdagilar 12 kishi, tergov jarayonida bo‘lganlar va tergovda vafot etganlar 22 kishini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar Respublikamiz viloyatlari ichida eng yosh viloyat xisoblangan Sirdaryo viloyatida

namoyon bo‘lmoqda[3;36]. Endi tarixiy viloyatlarimizni qanchalik jabr-zulm ko‘rganini tasavvur qilish insonni dilvayronalikka olib keladi.

Keyingi tadqiqotlar natijasida, muzeyda viloyatdan qatag‘on qilinganlar, surgun qilinib viloyatga jo‘natilganlar va boshqa xolatlarda qatag‘on qilinganlar to‘g‘risida “Qatag‘on qurbonlari” Sirdaryo viloyati misolida monografiya, Qatag‘on yillari qurbonlari qo‘llanma, Millatimiz fidoyilari qo‘llanma va 50 ga yaqin ilmiy maqolalar chop ettirildi.

Shunday qilib ko‘ramizki chor mastamlakachiligi va mustabid sovet tuzumi o‘zining 100 yildan ziyodroq davom etgan hukumronligi davrida o‘ziga qaram va tobe bo‘lgan milliy hududlarda, jumladan O‘zbekistonda o‘z bedoodligi va qabohatini har qanday yo‘llar bilan bo‘lmasin amalga oshirishga erishib borgan[4;12].

Ayniqsa bundan yurtimiz fuqarolarining sara qismi sanalgan ilg‘or, taraqqiyparvar ziyolilar, milliy kadrlar eng ko‘p jafo chekdi, ming bir hil azob uqubatlarga duchor etildi. Yurtimizning bunday yurtparvar, vatanparvar sog‘lom kuchlari har qanday murakkab vaziyatlarda ham o‘z fuqarolik pozitsiyalarida sobit turib, sovuq tuzum zo‘ravonlari zug‘umi va xurujiga dosh berib, Vatan istiqboli yo‘lida mardonavor harakatda davom etdilar. Bugun biz ularni eslab kelajak avlodga bizni, yurtimizning mustaqilligi uchun o‘z jonlaridan kechgan xatto boshlari qilich tagida turgan pallada ham yurtini sotishni xayoliga keltirmagan ota-bobolarimizni yosh avlodga xolisona tushuntirib bermog‘imiz eng birinchi vijdon ishimiz bo‘lmog‘i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.11.2017 yildagi 936-son. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmasida qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 08.10.2020 yildagi F-5598-son. Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida.

3. Ў.Эрбўтаева, Ҳ.Ўрмонов. Қатағон қурбонлари Сирдарё вилояти мисолида. – Тошкент.: Фарзай полиграф. 2022, - 160 б.

4. Ў.Эрбўтаева, Ҳ.Ўрмонов. Миллатимиз фидойилари. – Гулистон.: ГулДУ нашриёти. 2021, - 92 б

RAQAMLI MUZEYLAR: AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING EKSPOZITSIYA VA KOLLEKSIYA BOSHQARUVIDAGI ROLI

Primqulov Abdullo Mavlon o‘g‘li
Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati
davlat muzeyi bosh mutaxassisi
Tel.: +998 99 669 14 03
Elektron pochta: Primqulovabdullo7@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli texnologiyalarning muzey ekspozitsiyalari va kolleksiyalarini boshqarishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Virtual ko‘rgazmalar, AR/VR texnologiyalari, elektron kataloglar va raqamli arxivlarning imkoniyatlari yoritilib, O‘zbekiston hamda xorijiy muzeylar tajribasi asosida raqamlashtirishning afzalliklari, muammolari va rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli muzey, axborot texnologiyalari, muzey ekspozitsiyasi, muzey kolleksiyasi, raqamlashtirish, elektron katalog, virtual ko‘rgazma, kengaytirilgan reallik, virtual reallik, raqamli arxiv, interaktiv ekspozitsiya, multimedia, QR-kod, ma’lumotlar bazasi, muzey fondlari.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi madaniyat muassasalari, jumladan, muzeylar faoliyatini tashkil etish va boshqarish usullariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy muzeylarning asosiy vazifalari bo‘lgan tarixiy-madaniy boyliklarni to‘plash, saqlash, ilmiy o‘rganish va namoyish etish jarayonlari raqamli vositalar bilan boyib bormoqda. Natijada muzey faoliyatining nafaqat ekspozitsiyalarni tashkil etish, balki kolleksiyalarni hisobga olish, kataloglashtirish, ilmiy tadqiq etish va tashrif buyuruvchilarga axborot taqdim etish kabi yo‘nalishlarida ham yangi imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Raqamli muzey tushunchasi muzey faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan zamonaviy yondashuvni ifodalaydi. U faqat eksponatlarning elektron tasvirlarini yaratish bilan cheklanmay, muzey fondlarini boshqarish, ma’lumotlarni saqlash, ilmiy tavsiflash, virtual ekspozitsiyalar tashkil etish va keng auditoriya bilan muloqot qilish jarayonlarini ham qamrab oladi. Raqamli muzey an’anaviy muzeyning o‘rnini to‘liq egallovchi tizim emas, balki uning ilmiy, ma’rifiy va axborot imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qaralishi maqsadga muvofiq [Giannini, Bowen, 2022]. Muzey faoliyatini raqamlashtirish jarayonlari XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida elektron ma’lumotlar bazalari va kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi bilan rivojlana boshladi. Internet tarmog‘ining kengayishi, yuqori aniqlikdagi tasvirga olish uskunalari, uch o‘lchamli modellashtirish, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarining paydo bo‘lishi ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. Ayniqsa, raqamli

platformalar muzey kolleksiyalarini geografik masofadan qat’i nazar o‘rganish imkonini yaratib, muzeylarning axborot tarqatish doirasini kengaytirmoqda. UNESCOning muzeylar faoliyatiga oid hisobotida ham raqamli vositalar va masofaviy xizmatlarning muzeylar uchun ahamiyati yoritilgan [UNESCO, 2020]. Axborot texnologiyalarining muzey ekspozitsiyalaridagi ahamiyati tashrif buyuruvchilarga tarixiy-madaniy obyektlar haqidagi ma’lumotlarni turli shakllarda taqdim etish imkoniyati bilan belgilanadi. An’anaviy ekspozitsiyada asosiy axborot eksponat, uning yorlig‘i va ekskursovod izohi orqali yetkazilsa, raqamli vositalar ushbu ma’lumotlarni tasvir, ovoz, video, animatsiya va interaktiv modellar bilan to‘ldirishga xizmat qiladi. Bu esa eksponatning yaratilish tarixi, vazifasi, ishlatilish usuli va madaniy muhitini tushuntirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Virtual ko‘rgazmalar muzey ekspozitsiyalarini internet orqali namoyish etishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Ular yordamida foydalanuvchilar muzeyga bevosita tashrif buyurmasdan turib eksponatlarning raqamli tasvirlari, tavsiflari va o‘zaro bog‘liq ma’lumotlar bilan tanishishlari mumkin. Uch o‘lchamli modellar esa ayrim ashyolarni turli tomondan ko‘rish, ularning tuzilishi va badiiy xususiyatlarini batafsil o‘rganish imkonini beradi. Biroq raqamli tasvir eksponatning asl nusxasini to‘liq almashtira olmaydi. Shu sababli virtual ko‘rgazmalarni muzeyning an’anaviy ekspozitsiyasini to‘ldiruvchi ma’rifiy vosita sifatida baholash to‘g‘riroqdir [Giannini, Bowen, 2022].

Muzey ekspozitsiyalarini takomillashtirishda kengaytirilgan reallik — AR (Augmented Reality) va virtual reallik — VR (Virtual Reality) texnologiyalari ham muhim imkoniyatlarga ega. AR texnologiyasi real muhitdagi obyektlarga qo‘shimcha raqamli ma’lumotlar, tasvirlar va animatsiyalarni joylashtirishga asoslanadi. VR texnologiyasi esa foydalanuvchini kompyuter vositasida yaratilgan virtual muhitga olib kiradi. Ushbu texnologiyalar tarixiy binolarning dastlabki ko‘rinishini tiklash, arxeologik yodgorliklarning ehtimoliy rekonstruksiyalarini namoyish etish yoki tarixiy voqealarning ilmiy asoslangan vizual talqinini yaratishda qo‘llanilishi mumkin. Bunda tarixiy haqqoniylik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Virtual rekonstruksiyalar arxeologik topilmalar, yozma manbalar, tarixiy xaritalar va ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayanishi lozim. Manbalarda yetarlicha ma’lumot saqlanmagan holatlarda esa rekonstruksiyaning shartli yoki taxminiy jihatlari foydalanuvchiga ochiq ko‘rsatilishi zarur. Aks holda raqamli texnologiyalar tarixiy bilimlarni boyitish o‘rniga ilmiy jihatdan asoslanmagan tasavvurlarni shakllantirishi mumkin. Interaktiv panellar, sensorli ekranlar, multimedia qurilmalari va mobil ilovalar ham zamonaviy muzey ekspozitsiyalarining muhim tarkibiy qismlariga aylanmoqda. Ular tashrif

buyuruvchilarga o‘z qiziqishlariga muvofiq ma’lumot tanlash, eksponatlarni qiyoslash va qo‘shimcha materiallar bilan tanishish imkonini beradi. QR-kodlardan foydalanish esa eksponat yonidagi cheklangan hajmdagi axborotni elektron katalog, audiogid yoki maxsus veb-sahifadagi kengaytirilgan ma’lumotlar bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Bunday texnologiyalardan foydalanishda axborotning ishonchliligi, til jihatidan qulayligi va turli yoshdagi tashrif buyuruvchilar uchun tushunarliligi ta’minlanishi muhimdir.

Raqamli texnologiyalarning muzey faoliyatidagi yana bir muhim yo‘nalishi kolleksiyalarni boshqarish bilan bog‘liq. Muzey fondlarida saqlanayotgan ashyolarning soni va xilma-xilligi ularni aniq hisobga olish, ilmiy tavsiflash, saqlanish holatini nazorat qilish hamda zarur ma’lumotlarni tezkor topishni talab etadi. An’anaviy hisob hujjatlari bilan bir qatorda elektron ma’lumotlar bazalaridan foydalanish ushbu vazifalarni bajarishni yengillashtiradi. Muzey ashyolarini hujjatlashtirish va ular haqidagi ma’lumotlarni tizimlashtirishning xalqaro tamoyillari ICOM–CIDOC tomonidan ishlab chiqilgan yo‘riqnomalarda ham aks etgan [ICOM–CIDOC, 1995]. Eksponatlarni raqamlashtirish jarayonida ularning yuqori sifatli fotosuratlari, zarur hollarda uch o‘lchamli modellari va ilmiy tavsiflari tayyorlanadi. Elektron katalogga ashyoning nomi, inventar raqami, yaratilgan davri, materiali, o‘lchamlari, kelib chiqishi, muzeyga qabul qilinishi, saqlanish holati va boshqa muhim ma’lumotlar kiritilishi mumkin. Bunday ma’lumotlarni yagona tizimda jamlash muzey xodimlarining ilmiy-tadqiqot, hisobga olish va fondlarni boshqarish faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kolleksiyalarni boshqarish tizimlari - CMS (Collection Management System) muzey ashyolari haqidagi ma’lumotlarni elektron shaklda yuritish, ularni qidirish, tahrirlash va o‘zaro bog‘lash imkonini beradi. Mazkur tizimlar orqali eksponatlarning fondlar o‘rtasidagi harakati, ko‘rgazmalarda ishtirok etishi, restavratsiya va konservatsiya jarayonlari haqidagi ma’lumotlarni ham qayd etish mumkin. Shu bilan birga, elektron kataloglar an’anaviy hisob hujjatlarini o‘z-o‘zidan bekor qilmaydi; ular muzey ashyolarini hisobga olishning amaldagi huquqiy va tashkiliy talablari bilan muvofiqlashtirilgan holda yuritilishi lozim [ICOM–CIDOC, 1995]. Ma’lumotlar bazalari va bulutli saqlash texnologiyalari muzey axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq raqamli ma’lumotlarning xavfsizligi va uzoq muddat saqlanishini ta’minlash alohida e’tibor talab qiladi. Ma’lumotlarning zaxira nusxalarini yaratish, foydalanish huquqlarini belgilash, fayl formatlarini nazorat qilish va axborot tizimlarini muntazam yangilab borish raqamli kolleksiyalarni boshqarishning muhim shartlaridir. Demak, raqamlashtirish faqat ma’lumotlarni

kompyuterga kiritish emas, balki ularning ishonchliligi, yaxlitligi va kelgusida foydalanish imkoniyatini ta’minlaydigan uzluksiz jarayondir. Muzey ashyolarini saqlash va konservatsiya qilishda ham axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, harorat, namlik va yorug‘lik ko‘rsatkichlarini elektron vositalar yordamida kuzatish, eksponatlarning saqlanish holati haqidagi ma’lumotlarni tizimli qayd etish hamda o‘zgarishlarni qiyosiy tahlil qilish profilaktik muhofaza choralarini rejalashtirishga yordam beradi. Bunda raqamli monitoring muzey mutaxassislarining bevosita kuzatuvi va konservatsiya ishlarini almashtirmaydi, balki ularni zarur ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. O‘zbekiston muzeylarida ham raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston davlat san’at muzeyi va boshqa muzeylar kolleksiyalarini raqamli shaklda hujjatlashtirish, ekspozitsiyalarga zamonaviy axborot vositalarini joriy etish hamda muzey boyliklarini keng jamoatchilikka tanishtirish uchun muhim imkoniyatlarga ega. Bu yo‘nalishdagi ishlarni rivojlantirishda muzey fondlarining o‘ziga xos xususiyatlari, texnik ta’minot, mutaxassislar malakasi va moliyalashtirish imkoniyatlarini hisobga olish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-son qarorida madaniy meros sohasini rivojlantirish bilan bog‘liq tashkiliy vazifalar belgilangan. Qarorning 7-ilovasida 2021–2023-yillarda davlat muzeylaridagi muzey ashyolari va kolleksiyalarini elektron identifikatsiya qilish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar nazarda tutilgan [O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5150-son qarori, 2021, 7-ilova]. Mazkur hujjat muzey kolleksiyalarini elektron hisobga olish va raqamli ma’lumotlar tizimini shakllantirishning mamlakatimizdagi huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq istiqbolli tashabbuslar mavjud. Xususan, Amir Temur davri tarixiga oid Loy jangini AR va VR texnologiyalari asosida vizuallashtirish, tarixiy voqeani elektron rekonstruksiya orqali namoyish etish g‘oyasi ilgari surilgan. Mazkur loyiha amalga oshirilsa, tashrif buyuruvchilar tarixiy voqeaning kechishi, ishtirokchilari va tarixiy muhiti haqida interaktiv ma’lumot olish imkoniga ega bo‘lishlari mumkin. Biroq bunday rekonstruksiyani yaratishda tarixiy manbalarga tayanish, voqea tafsilotlarini ilmiy asoslash va badiiy talqinni tarixiy faktlardan ajratib ko‘rsatish muhimdir. Loyihaning amaliyotga joriy etilishi uning texnik, tashkiliy va moliyaviy ta’minotiga bog‘liq. Tarixiy janglarni vizual rekonstruksiya qilish masalasi B. B. Mamadiyevning “Sohibqiron Amir Temurning Oltin O‘rda xoni To‘xtamish bilan jangi panoramasi” mavzusidagi 2024-yilgi

maqolasi bilan ham mavzu jihatidan bog‘liq [Mamadiyev, 2024]. Bunday yondashuvlar tarixiy voqealarni ko‘rgazmali namoyish etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, turli tarixiy janglarga oid rekonstruksiyalarni tayyorlashda ularning har biriga tegishli manbaviy asoslarni alohida aniqlash talab etiladi. Xorijiy muzeylar tajribasi raqamli texnologiyalardan foydalanishning turli shakllarini namoyon etadi. Jumladan, The British Museum, The Louvre, Smithsonian Institution va Davlat Ermitaji kabi yirik muzeylar kolleksiyalar haqidagi elektron ma’lumotlar, raqamli tasvirlar va virtual axborot resurslarini taqdim etish yo‘nalishida tajribaga ega. Google Arts & Culture platformasi ham turli mamlakatlardagi muzeylar va madaniyat muassasalariga oid raqamli materiallar bilan tanishish imkonini beradi [Google Arts & Culture]. Mazkur tajribalar muzey kolleksiyalarini elektron kataloglashtirish, ularni ommalashtirish va masofaviy foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Biroq xorijiy tajribani mahalliy muzeylar faoliyatiga tatbiq etishda texnik imkoniyatlar va muassasaning amaliy ehtiyojlarini hisobga olish lozim. Ayrim muzeylar uchun dastlab elektron inventarizatsiya va raqamli katalog yaratish ustuvor vazifa bo‘lsa, boshqalarida virtual ko‘rgazmalar, interaktiv ekspozitsiyalar yoki uch o‘lchamli rekonstruksiyalarni joriy etish imkoniyatlari kengroq bo‘lishi mumkin. Shu sababli raqamlashtirish ishlari muzey fondlarining holati, mavjud axborot resurslari, kadrlar salohiyati va tashrif buyuruvchilar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Madaniyat muassasalarining raqamli transformatsiyasini baholashga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham texnologik, tashkiliy va boshqaruv omillarini o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqish muhimligi yoritilgan [Agostino, Costantini, 2022]. Raqamli muzeylarni rivojlantirishda hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar ham mavjud. Ular qatoriga zamonaviy texnik uskunalar bilan ta’minlash, maxsus dasturiy vositalarni joriy etish, muzey xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish, elektron ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash va raqamlashtirish ishlarini barqaror moliyalashtirish kiradi. Bundan tashqari, muzey ashyolarining raqamli tasvirlaridan foydalanish huquqi, mualliflik huquqi va ma’lumotlarni ochiq e’lon qilish tartibi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar muzeylarning ekspozitsiya va kolleksiya boshqaruvi sohasidagi imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Virtual ko‘rgazmalar, AR/VR texnologiyalari, interaktiv vositalar va elektron kataloglar tarixiy-madaniy merosni o‘rganish hamda keng jamoatchilikka taqdim etishning yangi shakllarini yaratadi. Ayni paytda raqamlashtirishning samaradorligi texnologik yangiliklarning ko‘pligi bilan emas, balki ularning muzeyning asosiy

vazifalariga qanchalik xizmat qilishi, ma’lumotlarning ilmiy ishonchliligi va fondlarni saqlash talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi. O‘zbekiston muzeylarida raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish, elektron kataloglashtirishni takomillashtirish va malakali mutaxassislar tayyorlash tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish hamda muzeylarning ilmiy-ma’rifiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Agostino D., Costantini C. A measurement framework for assessing the digital transformation of cultural institutions: the Italian case // Meditari Accountancy Research. – 2022. – Vol. 30, № 4. – P. 1141–1168. – DOI: 10.1108/MEDAR-02-2021-1207.
2. Giannini T., Bowen J. P. Museums and Digital Culture: From Reality to Digitality in the Age of COVID-19 // Heritage. – 2022. – Vol. 5, № 1. – P. 192–214. – DOI: 10.3390/heritage5010011.
3. Google Arts & Culture. Raqamli san’at va madaniy meros platformasi. – https://artsandculture.google.com
4. ICOM–CIDOC. International Guidelines for Museum Object Information: The CIDOC Information Categories. – Paris: International Council of Museums, 1995. – ISBN 92-9012-124-6.
5. UNESCO. Museums Around the World in the Face of COVID-19. – Paris: UNESCO, 2020.
6. Мамадиев Б. Б. «Соҳибқирон Амир Темурнинг Олтин Ўрда хони Тўхтамиш билан жанги панорамаси» мавзусидаги мақола. – 2024.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-son “O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – 7-ilova.

XVI ASR BUXORO SAVDO INSHOOTLARI VA HUNARMANDCHILIK: BINO TURINING MAHSULOTGA BOG‘LIQLIGI

M.Qarshiboyeva
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
“Psixologiya va pedagogika” kafedrasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada XVI asr Buxoro savdo inshootlari hunarmandchilik bilan bog‘liqligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Toq, tim va timcha turlarining tarkibiy farqi sotiladigan mahsulot qiymati bilan izohlanadi. Timi Abdullaxon misolida binoning yopiq shakli ipak matoning qimmatidan kelib chiqqani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Buxoro, shayboniylar, me’morchilik, savdo inshooti, toq, tim, timcha, Toqi Zargaron, Timi Abdullaxon, hunarmandchilik, amaliy san’at.

Buxoroning o‘rta asr me’moriy merosi o‘rganilganda asosiy e’tibor odatda diniy va ma’rifiy inshootlarga qaratiladi. Savdo hamda jamoat binolari uzoq vaqt chetda qoldi, holbuki aynan ular davr me’morchiligining amaliy yo‘nalishini eng to‘liq ochib beradi. Sabab oddiy, ya’ni masjid yoki madrasa qurish diniy burch va nufuz masalasi bo‘lgan bo‘lsa, tim yoki karvonsaroy qurish bevosita xo‘jalik hisobiga tayangan va shu bois o‘zini oqlashi shart edi **[Юсупова М. А: 105]**.

Bu holat savdo binolarini o‘rganishda alohida imkoniyat yaratadi. Ularning tarhi, o‘lchami va yopiqlik darajasi bezak yoki an’anadan emas, balki ichida sotiladigan mahsulotdan kelib chiqqan. Demak bino turi bilan hunarmandchilik mahsuloti o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud va uni aniqlash mumkin. Quyida shu bog‘liqlik Buxoro misolida ko‘rib chiqiladi.

Shaharda savdoning ulushi juda katta edi. 1558-yil oxirida Buxoroda bo‘lgan ingliz elchisi A. Jenkinson shahar hududining uchdan bir qismi savdogarlarga tegishli bo‘lganini, shahar uch qismga bo‘linganini hamda har bir hunar o‘z mahallasi va o‘z bozoriga ega ekanini qayd etadi **[Дженкинсон А: 178]**. Abdullaxon II davrida hudud yana kengaytirilib, toqlar, timlar, chorsular, karvonsaroylar, hunarmandchilik ustaxonalari va do‘konlar paydo bo‘ldi **[Мукминова Р. Г: 52]**. Bu ro‘yxatdagi har bir atama alohida bino turini bildiradi va ularni farqlash zarur.

Toq ko‘chalar kesishgan joyda qurilgan, usti gumbaz bilan yopilgan savdo o‘tish joyidir. Uning o‘ziga xosligi shundaki, bino ko‘chani to‘sib qo‘ymaydi, ya’ni kunduzi u savdo maydoni, kechasi do‘konlar yopilgach oddiy o‘tish yo‘lagiga aylanadi. Bunday inshootlar sof amaliy vazifa bajargan va boy bezakdan mahrum bo‘lgan, ularning badiiy ta’siri esa ko‘p gumbazli yopmaning ochiq qoldirilgan qurilmasidan kelib chiqadi **[Юсупова М. А: 105]**.

Buxoroda bunday inshootlarning oltitasi ma’lum, uchtasi bugungacha saqlangan. Toqi Zargaron ularning eng erta va eng kattasi bo‘lib, XV asrda, ya’ni hali temuriylar davrida qurilgan. Zargarlik buyumlari savdosiga mo‘ljallangan bu bino qadimiy shahriston chorrahasida joylashgan, tarhi chorsi, o‘qlari bo‘ylab to‘rtta peshtoq to‘rtta ko‘chaga qaratilgan. Markaziy qismini sakkizta o‘zaro kesishgan toq vositasida ko‘pburchakli ustuvor ustiga ko‘tarilgan ulkan gumbaz tashkil etadi. Jami bino o‘ttiz olti do‘kon va ustaxonani sig‘dirgan **[Аҳмедов М. Қ.: 63]**.

Toqi Sarrafon saqlanganlarining eng kichigi bo‘lib, obvod yo‘lagiga ega emas. Zalning to‘rtta kesilgan burchagidan biriga guzar masjidi, ikkinchisiga hammomga kirish yo‘li, qolgan ikkitasiga esa sarroflar joylari tutashadi. Masjid kirishidagi bitikda qurilish 1534-1535 yillarda tugallangani qayd etilgan **[Аҳмедов М. Қ.: 64]**. Toqi Telpak Furushon esa besh ko‘cha chorrahasi ustida turadi va aynan shu holat uning me’moriy yechimini belgilagan, ya’ni markaziy gumbaz olti poyaga o‘rnatilgan, shimoliy yo‘lagida esa bir necha xil yopma qurilmasi qo‘llangan.

Uch inshootning nomi hunar nomidan olingani alohida diqqatga sazovor. Zargaron zargarlar, Sarrafon sarroflar, Telpak Furushon telpak sotuvchilar bozorini bildiradi. Yo‘qolgan uchtasi ham shunday nomlangan, ya’ni Dunbafurushon, Anarfurushon va Tirgaron **[Юсупова М. А: 105]**. Manbalarda temirchilik chorsusi ham qayd etilgan **[Ҳофиз Таниш ал-Бухорий: 27]**. Demak bino turi shahar tarhida o‘z o‘rnini hunar orqali topgan va me’moriy obyekt hunarmandchilik tarmog‘ining tuguni sifatida shakllangan.

Tim toqdan tubdan farq qiladi. Toqda kechasi do‘konlar yopilgach binoni kesib o‘tgan ko‘chalar ochiq qolgan bo‘lsa, tim yopiq imorat sifatida ishlagan, ya’ni u savdo ko‘chasining bir qismi emas, mustaqil bino bo‘lib, unga faqat maxsus kirish orqali kirilgan. Buxorodagi yagona saqlangan maxsus yopiq bozor Timi Abdullaxondir. Uni Abdullaxon II 1577-1578 yillarda bosh savdo ko‘chasida maxsus ipak matolari savdosi uchun qurdirgan, binoda oltita ravoqli kirish bo‘lgan va ichida jami ellik besh savdo ravog‘i joylashgan **[Аҳмедов М. Қ.: 64]**.

Aynan ipak savdosi uchun yopiq bino qurilishi tasodifiy emas. Ipak mato Buxoro tashqi savdosining asosiy tovari bo‘lgan va uning bir toyi bir necha oilaning yillik daromadiga teng kelgan. Ochiq rastada bunday tovarni saqlash ham, sotish ham xavfli edi. Shu sababli tim binosi bir vaqtning o‘zida savdo joyi, ombor va qo‘riqlanadigan xazina vazifasini bajargan, kechasi yopilishi hamda yagona nazorat qilinadigan kirish tizimi shundan kelib chiqadi. Bu misolda me’moriy yechim bevosita mahsulot qiymatidan kelib chiqqani yaqqol ko‘rinadi.

Timi Kalon yonida XVI asr oxirida Chaharsuki Darun barpo etilgan bo‘lib, unda o‘ttizga yaqin do‘kon bo‘lgan, shundan to‘rttasi etik, to‘rttasi gilam savdosiga ajratilgan edi **[Мукминова Р. Г.: 33]**. Bu kichikroq shakl bo‘lib, Samarqandda bunday inshootlar timcha deb atalgan. Shu tariqa savdo binolarining aniq darajalanishi ko‘rinadi, ya’ni eng yirigi va eng ochig‘i toq yoki chorsu, o‘rtachasi va yopig‘i tim, eng kichigi esa timcha. Ularning har biri muayyan tovar turiga va muayyan savdo ko‘lamiga moslashgan.

Bunday tartib zamondoshlar e’tiborini ham tortgan. Bobur Samarqandning bir xususiyatini alohida qayd etadi, ya’ni har bir hunar uchun alohida bozor ajratilgan va ular bir-biri bilan aralashmaydi **[Бабурнаме: 61]**. Samarqand vaqfnomalarida shahar hududida paxta titish, bo‘yoqxona, taqachilik, tokarlik, kulolchilik, shamchilik va boshqa saksonu ikki xil do‘kon tilga olinadi **[Мукминова Р. Г.: 30]**. Demak hunarga qarab ixtisoslashish butun Movarounnahr shaharlariga xos tamoyil bo‘lgan.

Savdo binolarining sanalari masalasida ehtiyotkorlik talab etiladi. Uzoq vaqt barcha toqlar buxorolik shoir Mushfiqiy bitgan tarixga tayanib bir vaqtda, 1586-1587 yillarda qurilgan deb hisoblanardi. Aslida har birining o‘z sanasi bor, chunonchi Toqi Zargaron XV asrga oid, Toqi Sarrafon 1534-1535 yillarda tugallangan. Bir shoirning tarixlari asosida barcha savdo gumbazlarini bir sanaga bog‘lash noto‘g‘ri bo‘lgani kabi, ularni butunlay rad etish ham asossiz, ya’ni har bir tarix aniq bino uchun alohida tekshirilishi lozim.

XVI asr Buxoro savdo inshootlarini o‘rganish natijasida bino turining tanlanishi bezak yoki an’anaga emas, sotiladigan mahsulotning qiymati va xususiyatiga bog‘liq bo‘lgan. Ochiq toq kundalik va nisbatan arzon tovar uchun, yopiq tim esa qimmatbaho ipak mato uchun mo‘ljallangan, timcha esa bir necha do‘konni birlashtirgan kichik shakl vazifasini bajargan. Timi Abdullaxonning yopiq tuzilishi, yagona nazorat qilinadigan kirishi va ombor vazifasini bajarishi bevosita ipak matoning qimmatidan kelib chiqadi.

Savdo inshootlarini faqat me’moriy shakl va qurilmaviy yechim nuqtayi nazaridan o‘rganish yetarli emas. Bino nomi hunarni, tarhi esa tovar turini saqlab qolgan, shu bois ularni talqin qilishda hunarmandchilik va amaliy san’at tarixiga oid ma’lumotlar bevosita jalb etilishi lozim. Yozma manbalar, vaqfnomalar va sayohatnomalar esa binoning qaysi hunarga xizmat qilganini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abbasova-Yusupova M. The Bukharan School of Architecture in the 15th–17th Centuries. – Samarkand: IICAS, 2022. – 264 p.

2. Аҳмедов М. Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 200 б.
3. Бабурнаме. Записки Бабура / Пер. М. Салье. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1958. – 529 с.
4. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию в 1558–1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. / Пер. с англ. Ю. В. Готье. – Ленинград: ОГИЗ, 1932. – С. 167–192.
5. Мукминова Р. Г. Бухара – столица ханства, город купцов и искусных мастеров // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1997. – № 9-10-11. – С. 51–56.
6. Мукминова Р. Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам «Вакфнаме». – Ташкент: Наука, 1966. – 355 с.
7. Мукминова Р. Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке. – Ташкент: Фан, 1976. – 234 с.
8. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома («Шарафномайи шоҳий»). Биринчи китоб / Форс тилидан С. Мирзаев тарж. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 480 б.
9. Юсупова М. А. Эволюция зодчества Бухары XVI – начала XVII века // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1997. – № 9-10-11. – С. 97–108.

QORAXONIYLAR DAVRI HARBIY VA MAROSIM RAMZLARI AMALIY SAN’AT NAMUNASI SIFATIDA

Qo‘ldoshev Sarvar
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel:+998 909616674
email: quldashev.sarvariy@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Qoraxoniylar davri harbiy va marosim ramzlari amaliy san’at namunasi sifatida tahlil qilinadi. Bechkam, qabraq va tanguq atamalari misolida buyumning nomi, xomashyosi hamda vazifasi aniqlanadi. Yozma manbalarning muzey fondlari va tasviriy dalillar bilan qiyoslanishi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Qoraxoniylar, amaliy san’at, harbiy ramz, bechkam, qabraq, tanguq, ot chirmatmoq, alamdor, tug‘chi, muzey fondi, buyumshunoslik.

Muzey fondlarida saqlanadigan o‘rta asr buyumlari tadqiqotchi oldiga o‘ziga xos muammo qo‘yadi. Buyumning shakli, o‘lchami va xomashyosi ko‘rinib turadi, biroq uning qanday nomlangani, qaysi vazifani bajargani hamda qanday maqomga ega bo‘lgani ko‘pincha noma’lum qoladi. Tasviriy manbalar ham xuddi shu chegaraga ega, ya’ni miniatyura buyumning ko‘rinishini beradi, uning nomini esa bermaydi. Ana shu bo‘shliqni yozma manba to‘ldiradi.

Qoraxoniylar davri buyum nomlari turkiy yozma yodgorliklarda tarqoq holda saqlanib qolgan. Ularning bir qismi lug‘at asarlarida, bir qismi doston va qo‘shiq parchalarida uchraydi. Mazkur atamalarni to‘plab tizimga solish ishini R. Genç o‘zining Qoraxoniylar davlat tuzilishiga bag‘ishlangan tadqiqotida amalga oshirgan. Ushbu maqolada shu atamalar buyumshunoslik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda “Qutadg‘u bilig” dostonida bevosita qayd etilgan qurol nomlari bilan to‘ldiriladi.

Eng aniq ma’lumot harbiy va marosim ramzlariga tegishli. Qoraxoniylar harbiylari ipak mato yoki yovvoyi ho‘kiz, ya’ni qutos dumidan yasalgan maxsus nishonlarni bechkam deb atashgan [Mahmud Koshg‘ariy: 191]. Bu qaydda buyumshunoslik uchun zarur bo‘lgan uch unsurning barchasi mavjud, ya’ni atama, xomashyo va vazifa. Nayza uchiga mato yoki ipak parcha bog‘lash amaliyoti qabraq nomi bilan yuritilgan bo‘lib, jangchilar shu belgi orqali jang maydonida o‘zlarini tanitgan, bunday mato belgilari esa tanguq deb atalgan [Mahmud Koshg‘ariy: 447].

Ushbu ma’lumotning amaliy qiymati aniq. Miniatyurada nayza uchidagi ipak parcha bezak sifatida qabul qilinishi mumkin. Yozma manba esa uning bezak emas, jang maydonida tanib olish vositasi ekanini, ya’ni aniq funksional buyum ekanini ko‘rsatadi. Xuddi shu tarzda qutos dumidan yasalgan nishon muzey fondida oddiy popuk bo‘lib ko‘rinadi, matn esa uni bechkam deb nomlaydi va harbiy belgi maqomini beradi.

Marosim amaliyoti sifatida ot chirmatmoq odati alohida qayd etiladi. Jangdan oldin yigit va bahodirlar o‘z otlari dumini ipak mato bilan o‘rab bog‘lagan, bu mardlik nishoni hisoblangan [Genç R.: 304-305]. Odatning tarixiy davomiyligi ham ma’lum, chunki Sulton Alp Arslon Malazgirt jangidan oldin o‘z otining dumini shaxsan bog‘lagani manbalarda qayd etilgan. Bu misol buyum va marosimning ajralmasligini ko‘rsatadi, ya’ni ipak mato bu yerda material bo‘libgina qolmay, ma’noli harakatning vositasi hamdir.

Ramzlarning institutsional maqomi ham qayd etilgan. Qoraxoniy hukmdorlari o‘z xizmatida tug‘chi, ya’ni tug‘ ko‘taruvchi hamda alamdor, ya’ni davlat bayrog‘ini olib yuruvchi xos amaldorlarga ega bo‘lgan [Genç R.: 300]. Demak bayroq va tug‘

shunchaki buyum emas, ular uchun maxsus lavozim ajratilgan. Bundan tashqari hukmdor yurishida yetti yuzta oltin va kumush bilan bezatilgan gurz olib borilgani qayd etiladi [Genç R.: 300]. Bu ko‘rsatkich zargarlik va bezak san’atining saroy marosimlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lganini bildiradi.

Qurol turlari bo‘yicha esa “Qutadg‘u bilig” dostonining o‘zi bevosita ma’lumot beradi. Xizmatchining burchi tavsiflanganda u qilich, oybolta va o‘q zarbiga ko‘ksini tutishi lozimligi aytiladi [Yusuf Xos Hojib: 2918-2933]. Jangovar kiyim masalasida dostonda zirh kiyib kurashish talabi qat’iy qo‘yiladi [Yusuf Xos Hojib: 2360]. Kamon va o‘q otish mahorati alohida baytlarda tilga olinadi [Yusuf Xos Hojib: 2589-2597], qilich esa hukmdor hokimiyatining ramzi sifatida ham keladi [Yusuf Xos Hojib: 4288-4295]. Demak doston qurol-yarog‘ va himoya vositalarining nomlarini beradi, ramz va nishonlar tavsifi esa boshqa manbalardan to‘ldiriladi.

Atamalarning ishonchliligini tekshirish imkoni ham mavjud. Bechkam so‘zi Qoraxoniylar va uyg‘urlar urushlariga oid qadimiy doston hamda qo‘shiq parchalarida ham uchraydi [Genç R.: 305]. Ikki mustaqil matn turining bir atamani tasdiqlashi uning adabiy ixtiro emas, jonli tilda qo‘llangan haqiqiy buyum nomi ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur atamalarni moddiy meros bilan bog‘lash uchun tarixiy zamin ham mavjud. Qoraxoniylar davrida Buyuk ipak yo‘li ustidagi Samarqand, Buxoro, O‘zgan, Qashqar va Balasog‘un shaharlari yirik savdo va hunarmandchilik markazlariga aylangan, shu davrda barpo etilgan minoralar, maqbaralar va karvonsaroylar esa hozirgacha saqlanib qolgan [Davidovich E. A.: 134-138]. Demak dostonda tilga olingan buyumlar aynan shu shaharlar hunarmandchiligining mahsuli bo‘lgan va ularning bezak uslubi saqlanib qolgan obidalar naqshi bilan qiyoslanishi mumkin.

Shuni ham qayd etish lozimki, dostondagi buyum nomlari tizimli ro‘yxat shaklida berilmagan. Muallifning maqsadi buyum tasvirlash bo‘lmagan, u hukmdorga o‘git yozgan. Atamalar esa harbiy va saroy hayotini tasvirlash jarayonida beixtiyor qayd etilgan. Aynan shu beixtiyorlik ularning qiymatini oshiradi, chunki muallifning buyum nomini o‘zgartirish yoki bezashga sababi bo‘lmagan.

Qoraxoniylar davri yozma yodgorliklari harbiy va marosim ramzlarini talqin qilishda bevosita manba bo‘la oladi. Ular buyumning uch xususiyatini birga beradi, ya’ni atamasini, xomashyosini hamda vazifasini. Bechkam ipak mato yoki qutos dumidan yasalgan harbiy nishon, qabraq nayza uchiga bog‘langan mato belgisi, tanguq esa shunday belgilarning umumiy nomi ekani aniqlanadi. Bayroq va tug‘ uchun tug‘chi hamda alamdor lavozimlari ajratilgani bu buyumlarning davlat

maqomiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Qurol va himoya vositalarining nomlari esa “Qutadg‘u bilig” dostonida bevosita qayd etilgan.

Bundan kelib chiqadigan metodik xulosa quyidagicha. Muzey fondi buyumning shakli va xomashyosini, tasviriy manba uning ko‘rinishi hamda qo‘llanish holatini, yozma manba esa nomi, vazifasi va maqomini beradi. Uch dalil turi alohida olinganda to‘liq bo‘lmaydi. Shu sababli Qoraxoniylar davri moddiy merosini tadqiq qilishda turkiy yozma yodgorliklarni buyumshunoslik va san’atshunoslik tahlili bilan birga qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunda har bir atamaning qaysi manbadan olingani aniq ko‘rsatilishi shart, chunki doston, lug‘at va qo‘shiq parchalari bir xil darajadagi dalil emas. Tarix va san’atshunoslik hamkorligi aynan shu nuqtada amaliy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Biran M. Qarakhanid Studies: A View from the Qara Khitai Edge // Cahiers d’Asie centrale. – 2001. – № 9. – P. 77–89.
2. Davidovich E. A. The Karakhanids // History of Civilizations of Central Asia. Vol. IV, Part One. – Paris: UNESCO Publishing, 1998. – P. 119–143.
3. Genç R. Karahanlı Devlet Teşkilâtı (XI. Yüzyıl). Türk Hâkimiyet Anlayışı ve Karahanlılar. – Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1981. – 366 s.
4. Golden P. B. An Introduction to the History of the Turkic Peoples. – Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1992. – 483 p.
5. Okudan G. Karahanlı Devleti’nin Sarayı, Askeri ve İdari Yönleriyle Teşkilat Tarihi. – Ankara: IKSAD Publications, 2019. – 120 s.
6. Караев О. История Караханидского каганата (X – начало XIII вв.). – Фрунзе: Илим, 1983. – 301 с.
7. Кочнев Б. Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991–1209 гг.). – Москва: София, 2006. – 314 с.
8. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони) / Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 488 б.
9. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим) / Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – 964 б.

O‘ZBEKISTONNING ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTIGA A’ZO DAVLATLAR BILAN MADANIY ALOQALARIDA MUZEY VA AMALIY SAN’AT NAMUNALARINING O‘RNI

D.T.Qudratov
Guliston Davlat universiteti
“Tarix” kafedrasi dotsenti, t.f.b.f.d, (PhD)
Tel: +998 99 476 03 06

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar bilan madaniy aloqalari, muzey ko‘rgazmalari, xalq hunarmandchiligi va amaliy san’at namunalarini o‘zaro targ‘ib etish jarayonlari tarixiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Islom hamkorlik tashkiloti, madaniy aloqalar, madaniy meros, muzey, ko‘rgazma, amaliy san’at, hunarmandchilik, folklor, milliy meros, san’at, madaniy almashinuv, xalq diplomatiyasi, madaniy hamkorlik, an’analar.

Bugungi globallashuv sharoitida xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash, milliy tarixiy-madaniy merosni xalqaro miqyosda targ‘ib etish hamda turli xalqlarning san’at va an’analarini o‘zaro tanitishning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda muzey fondlari, ko‘rgazmalar, xalq amaliy san’ati, hunarmandchilik, folklor va milliy san’at namunalari madaniy muloqotning samarali shakllari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xorijiy davlatlar, jumladan, Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlar bilan madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Malayziya, Indoneziya, Pokiston, Bangladesh va boshqa mamlakatlar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik doirasida madaniyat va san’at kunlari, ko‘rgazmalar, folklor festivallari, hunarmandchilik tadbirlari hamda muzeylararo almashinuvlar tashkil etildi. Xususan, Pokiston bilan aloqalarda xalq amaliy san’ati, hunarmandchilik, folklor va muzey faoliyatiga oid hamkorlikning rivojlanishi O‘zbekiston milliy madaniy merosini xalqaro miqyosda namoyish etish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Shu jihatdan, O‘zbekistonning Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar bilan madaniy aloqalarida muzey va amaliy san’at namunalarining o‘rni, ularning madaniy merosni asrash va targ‘ib etishdagi ahamiyati hamda xalqlar o‘rtasidagi madaniy muloqotni rivojlantirishdagi rolini tarixiy jihatdan o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu jarayonlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinib, O‘zbekistonning xalqaro madaniy hamkorligida muzey, hunarmandchilik va amaliy san’atning tutgan o‘rniga e’tibor qaratiladi.

Har yil madaniyat, kino kunlari, kontsertlar, ko‘rgazmalar va turizm yarmarkalari tashkil etiladi — bu Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) doirasidagi madaniy muloqat va insonlararo tushunishga xizmat qiladi. Malayziyaning Texnik hamkorlik dasturi (MTCP) doirasida 1994 yildan 850 o‘zbekistonlik mutaxassis tayyorlangan, hozirda 500 atrofida o‘zbek talabalar Malayziyada ta’lim olmoqda. Ikki davlat o‘rtasida 25 ta hamkorlik shartnomasi imzolangan[Иллиас И: 25]. Bu O‘zbekiston-Malayziya hamkorligining yuqori diamikasidan darak beradi.

Malayziya Madaniyat va turizm vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, 1992 yil 20 iyun kuni Kuala-Lumpur shahrida imzolangan madaniy va ilmiy hamkorlik to‘g‘risidagi Hukumatlararo shartnomani amalga oshirish maqsadida, 1993–1995 yillarda quyidagi Dastur [Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 2, иш – 71, варақ – 4] ni amalga oshirishga kelishib oldilar:

1-moddada ko‘rsatilganidek, O‘zbek tomoni 1993 va 1995 yillarda Malayziyaga kontsert dasturlari bilan bir nafar davlat musiqiy, teatr yoki tsirk jamoasini yuboradi hamda 1993 va 1994 yillarda Malayziyadan shunga o‘xshash bir jamoani 20 kungacha bo‘lgan muddatga, ishtirokchilar soni 100 nafargacha bo‘lgan holda qabul qilinganni ta’kidlandi [Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 2, иш – 71, варақ – 4].

2-modda Malayziya tomoni 1993 va 1995 yillarda O‘zbekistonga kontsert dasturlari bilan qo‘shiq va raqsdan iborat folklor-etnografik ansamblni yuborishligi hamda 1994 va 1995 yillarda O‘zbekistondan shunga o‘xshash bir jamoani 15 kungacha bo‘lgan muddatga, ishtirokchilar soni 30 nafargacha bo‘lgan holda qabul qilishi e’tirof etilgan. 3-moddada esa tomonlar alohida mashhur ijrochilarni (skripka, fortepiano, vokal va boshqalar), shuningdek, dirijyorlar va rejissyor-qo‘yuvchi guruhlarni 20 kungacha bo‘lgan muddatga taklif etishga ko‘maklashadilar deb ta’kidlangan. Shu o‘rinda, 4-moddada tomonlar xalq amaliy bezak san’ati buyumlari yoki muzey kollektsiyalaridagi tasviriy san’at va haykaltaroshlik asarlari ko‘rgazmalarini o‘zaro almashishni amalga oshiradi. Ko‘rgazmalardagi eksponatlar soni 50 tagacha bo‘lib, 2–3 nafar mutaxassis hamrohligida 30 kungacha namoyish etilishi (1994 yilda — Malayziyada, 1996 yilda — O‘zbekistonda) kelishib olingan[Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 2, иш – 71, варақ – 5].

Ushbu Dasturning amalga oshirilishi jarayoni, shuningdek, hamkorlikning istiqbollari tomonlar tomonidan 1994 yil oxirida Toshkent shahrida va 1996 yil oxirida Kuala-Lumpur shahrida muhokama qilinishi, buning uchun qabul qiluvchi tomon ikkinchi tomondan 2–3 nafar vakilni taklif etilishi aytib o‘tilgan. Ushbu Dasturni amalga oshirish tajribasi muvaffaqiyatli bo‘lgan taqdirda, Tomonlar yangi kelishuv imzolamasdan uning amal qilish muddatini 1997–2000 yillargacha

uzaytiririshga kelishib olganlar va 1–8-moddalarda nazarda tutilgan almashinuvlar davriyligini saqlab qolishligi ta’kidlangan[Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 2, иш – 71, варақ – 7]. Aks holda, Tomonlar o‘zaro kelishuv asosida madaniy hamkorlikning yangi, o‘zaro manfaatli shakllarini izlab topishlarini aytib o‘tganlar.

1996 yil noyabr oyida O‘zbekiston-Malayziya munosabatlari tarixi yana bir voqea bilan boyidi. Kuala Lumpurning muxtasham “Federal” mehmonxonasi majlislar zalida Uzbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”, “O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li”, “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” kitoblarining taqdimoti bo‘ldi [Раҳмон М: 228]. O‘zbekiston davlat matbuot qo‘mitasi raisi Rustam Shog‘ulomov O‘zbekiston Prezidentining har uchala kitobi haqida yig‘ilganlarga atroflicha ma’lumot berdi. O‘zbekiston 1996 yilda IKT a’zosi sifatida faol ishtirokni boshladi va Islom mamlakatlari bilan intellektual, siyosiy muloqotga kirishdi. Asarlar taqdimoti bu jarayonning madaniy ko‘rinishi edi.

2005 yil boshida Malayziyada xalqaro darajadagi “The Halal Journal” nashri chiqishni boshladi. U xalol mahsulotlar sanoati, standartlashtirish, texnologiyalar va bozor masalalariga bag‘ishlangan ilk global jurnallardan biri hisoblanadi[Hidoyat: 12]. Bu esa O‘zbekistonning xalol sertifikatlashtirish tizimi (2018)ga zamin yaratdi**.** O‘zbekistonda 2018 yilda “Uzstandard” agentligi va Malayziyaning JAKIM (Halal Certification Authority) tashkiloti hamkorligida xalol sertifikatlash tizimi joriy etildi. Bu o‘zbek mahsulotlarining Saudiya Arabistoni, BAA va Malayziya bozorlariga kirishini engillashtirdi.

Indoneziya O‘zbekiston mustaqilligini 1991 yil 28 dekabrda tan olgan, va 1992 yil 23 iyunda diplomatik aloqalar o‘rnatilgan. 1992 yilda O‘zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov va 1995 yilda Indoneziya Prezidenti Suxartoning o‘zaro tashriflari bu munosabatlarning tarixiy asosini yaratgan [И. А. Каримов: 119]. Islom Karimov va Suxarto o‘rtasidagi o‘zaro tashriflar Indoneziya–O‘zbekiston munosabatlarini faqat ikki tomonlama emas, balki IHT[ИҲТ, sobiq Islom Konferensiyasi Tashkiloti — IKT] kabi xalqaro islomiy platformalar doirasida ham rivojlantirish uchun siyosiy poydevor yaratdi.

1996 yil 9 fevral kuni Tashqi aloqalar milliy uyushmasi binosida “O‘zbekiston–Indoneziya” do‘stlik jamiyati tashabbus guruhi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda 16 nafar kishi ishtirok etdi[Ўз МА, фонд – М-2, рўйҳат – 1, иш – 177, варақ – 1]. Qatnashuvchilarga jamiyatning 1996 yildagi faoliyat rejasi loyihasi muhokama uchun taqdim etildi. Tashabbus guruhi a’zolari tomonidan qator takliflar ilgari surildi:

1. Navro‘z bayramini TashDU (Toshkent Davlat universiteti) saroyida nishonlash taklifi berildi. Bu tadbir jamiyatning ilk tashkiliy ishlaridan biri bo‘lib, Indoneziya fuqarolarini o‘zbek xalqi urf-odatlari va an’analari bilan tanishtirish maqsadida tashkil etilishi rejalashtirildi. Navro‘z kabi milliy bayramni Indoneziya fuqarolari ishtirokida o‘tkazish — insonlararo muloqot, islom tsivilizatsiyasining madaniy turfa qirralarini o‘zaro tanitishda katta ahamiyat kasb etdi.
2. O‘zbekiston xalq rassomi A.Mirzayev Indoneziya elchixonasidan vakilini o‘z ustaxonasiga taklif etish hamda o‘z asarlaridan iborat ko‘rgazma uyushtirishni taklif qildi. Xalq xonandasi Hasan Rajabiy shu kuni o‘sha erda kontsert dasturini taqdim etdi.
3. Abdug‘ani Abdukarimxo‘jayev – xalq amaliy san’ati bo‘yicha tajriba kombinati direktori – keramika buyumlari ko‘rgazmasini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi.
4. Sayyora Saidzoda – Indoneziya elchixonasiga talabalar almashinuvi bo‘yicha hamkorlik tashabbusi bilan murojaat qilishni taklif etdi.

Mirzayevning ko‘rgazmasi va Hasan Rajabiyning kontserti — muloqot madaniyati, noinstitutlashgan diplomatiya va “madaniyat orqali aloqa modeliga kiruvchi faoliyat hisoblandi. Sayyora Saidzodaning talabalar almashinuvi” bo‘yicha tashabbusi, keyinchalik amalga oshirilgan O‘zbekiston–Indoneziya ta’limiy dasturlari, stajirovkalar va ilmiy konferentsiyalar uchun zamin yaratgan.

1996 yildagi mazkur yig‘ilish — O‘zbekiston mustaqilligidan so‘ng Yangi Jahon bilan, jumladan, Janubiy-Sharqiy Osiyo islom mamlakatlari, xususan Indoneziya bilan madaniy-gumanitar sohada muloqot o‘rnatishga qaratilgan birinchi amaliy tashabbuslardan biri bo‘ldi[Ўз МА, фонд – М-2, рўйҳат – 1, иш – 177, варақ – 1].

Mazkur yig‘ilishdagi tashabbuslar IHTning 1995 yilgi “Islomiy dunyoda madaniy yaqinlashuv va tafohumni kuchaytirish” tamoyiliga mos keladi.

Xususan, talabalar almashinuvi va madaniy tadbirlar — IHTning “Cultural Exchange and Youth Empowerment” (Madaniy almashinuv va yoshlarni rag‘batlantirish) dasturlari doirasida ko‘zda tutilgan asosiy sohalardan hisoblanadi.

1996 yilgi mazkur yig‘ilish — O‘zbekistonning Indoneziya bilan munosabatlarida madaniyat orqali muloqot va jamoatchilik diplomatiyasining ilk ifoda bo‘lgan. Bu tadbir faqat bir bayram yoki ko‘rgazma emas, balki janubiy-sharqiy islom dunyosi bilan strategik madaniy va ta’limiy aloqalarga qadam qo‘yish bo‘lgan.O‘zbekiston va Indoneziya IHTning a’zo davlatlari sifatida islom madaniyati,

o‘zaro hamjihatlik, ta’lim va turizm sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadida qator rezolyutsiyalar asosida harakat qilib kelgan.

Shuni ta’kidlash kerak, O‘zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti (IHT)ga a’zo davlatlar bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama madaniy aloqalarini izchil kengaytirib kelmoqda. Mazkur jarayon O‘zbekistonning xalqaro maydondagi madaniy diplomatiyasi, “yumshoq kuch” strategiyasi va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashqi siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, Pokiston Islom Respublikasi bilan munosabatlar alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu erda masalaning yana bir muhim jihati shu bo‘ldiki, madaniy hamkorlikning huquqiy-me’yoriy asosi 1992 yil 27 iyun kuni Toshkent shahrida imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Pokiston Islom Respublikasi hukumati o‘rtasida madaniyat, sog‘liqni saqlash, fan va texnika, kadrlar tayyorlash, turizm, sport va ommaviy axborot vositalari sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida”gi bitim[Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 723, варақ – 168] orqali yaratilgan. Ushbu bitim ikki davlat o‘rtasidagi madaniy, ilmiy va ta’lim sohalaridagi munosabatlarning tizimli va barqaror rivojiga asos bo‘ldi.

Shuningdek, «Pokiston–O‘zbekiston» do‘stlik jamiyati faoliyati madaniy muloqotni institutsionallashtirishda muhim rol o‘ynamoqda [Ўз МА, фонд – М-2, рўйҳат – 1, иш – 198, варақ – 28].

1974 yildan beri Pokistonning Milliy xalq va an’anaviy meros instituti (Lok Virsa) tomonidan tashkil etib kelinayotgan Lok Mela — eng yirik yillik madaniy festivalga, har yili O‘zbekiston hunarmandlaridan tashkil topgan delegatsiya tashrif buyuradi[Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 480, варақ – 5]. Shu jumladan, 1994 yil 7-15 oktyabr kunlari Pokistonning Islomobod shahrida o‘tkazilgan “Xunarmandlar ish ustida” nomli festivalda respublikamizdan umumiy soni 52 nafar hunarmandchilik, matbuot, madaniyat va san’at namoyondalaridan tashkil qiluvchi ijodiy guruh ishtirok etdi [Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 723, варақ – 168]. O‘zbekistondan 5 nafar ustalar ishtirok etib, deyarli barchalari o‘z yo‘nalishlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritdilar.

Yillik an’anaga aylangan festival Islomobod shahrida, Lok Virsa majmuasida (Shakarparian hududida) o‘tkaziladi [Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 480, варақ – 24]. Lok Mela mehmonlarga Pokiston madaniyatini jonli tarzda his qilish imkonini beradi. Unda:

- Viloyat pavilonlari: har bir hudud o‘zining hunarlari va madaniy merosini namoyon etadi;

- Hunarmandlar ko‘rgazmalari: ustalar o‘z mahsulotlari va mahoratini ko‘rsatadilar;
- Folklor chiqishlar: xalq musiqasi va raqslari;
- Milliy taomlar burchaklari: butun mamlakat bo‘ylab an’anaviy taomlar;
- Ustaxonalar va bozorlar: qo‘l mehnati mahsulotlarini sotib olish imkoniyati.

Bu festival hunarmand va artistlar uchun o‘z qobiliyatlarini butun mamlakat miqyosida namoyon qilish imkonini yaratadi hamda milliy madaniyatni mustahkamlaydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Pokiston Islom Respublikasi bilan madaniy hamkorlik yo‘nalishidagi munosabatlar bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. Ayniqsa, 1994–1999 yillar oralig‘ida ikki davlat o‘rtasida amalga oshirilgan madaniy tadbirlar, qo‘shma festivallar va ijodiy almashinuvlar mazkur munosabatlarning amaliy ifodasi bo‘ldi. Bu davr madaniy diplomatiya mexanizmlarining shakllanishi va madaniyat orqali xalqaro hamkorlikni kuchaytirish yo‘lidagi muhim bosqich sifatida qaraladi. 1994 yilda O‘zbekiston Davlat filarmoniyasi qoshidagi “Zarafshon” va “Shodlik” folklor ansambllari Islomobod va Ravalpindi shaharlarida 8 ta kontsert namoyish qilgani [Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 723, варақ – 168], ikki davlat o‘rtasidagi folklor almashinuvining ilk namunalaridan biri sifatida qayd etiladi.

1994 yil 10-20 oktyabr kunlari esa Lahor shahrida o‘tkazilgan II-xalqaro qo‘g‘irchoq teatrlari festivalida O‘zbekiston Respublikasi qo‘g‘irchoq teatri ishtirok etib, “Fotimaning sarguzashti” asarini urdu tilida maxsus tayyorlab, Islomoboddagi “Nevdek” zalining sahnasida 7 marta namoyish qilingan[Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 723, варақ – 168]. Bu, nafaqat ijodiy, balki til va ijro mahoratlarining ham muloqot vositasiga aylanganini ko‘rsatdi.

1996 yilda Lahor shahrida Islom me’morchiligi yodgorliklarini saqlash bo‘yicha xalqaro anjuman tashkil etildi. O‘sha yili III-xalqaro qo‘g‘irchoq teatrlari festivalida ham O‘zbekistonning ishtiroki ta’kidlandi [Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 723, варақ – 168]. Bu ishtiroklar O‘zbekistonning faol madaniy diplomatiyasini namoyon etish bilan birga, mintaqaviy madaniy muloqotlarni chuqurlashtirishga xizmat qildi.

1996 yilda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi hamda Pokistonshning «Lok Virsa» (“Xalq merosi”) tadqiqot markazi o‘rtasida keng qamrovli madaniy hamkorlik bo‘yicha kelishuvga erishildi. Mazkur kelishuv quyidagi sohalarni qamrab oldi: madaniyat, sog‘liqni saqlash, fan va texnologiya, turizm, sport va ommaviy axborot vositalari. Bu kelishuv madaniy hamkorlikni markazlashtirish va tizimlilashtirish sari tashlangan muhim qadam hisoblanadi.

Bundan tashqari, 1996 yil 13 aprel kuni O‘zbekiston xalqaro ma’rifiy aloqalar milliy uyushmasi tashabbusi bilan o‘zbekistonlik bir guruh ayollar delegatsiyasi Pokiston Islom respublikasi sanoat markazi -Lahor shaxriga bordilar. 10 kishidan iborat ushbu delegatsiyaga Toshkent shahar sog‘liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi raisi Lola Jalolova rahbarlik qildilar. Lola Jalolova Laxorda O‘zbekiston jumxuriyatida xotin qizlarga munosabat keskin ijobiy tomonga o‘zgarganligini ta’kidlab o‘tgan.

Ushbu uchrashuvda Lahorning “Baxsh janna” ezgi teatrida katta kontsert o‘tkazilgan va shu kuni delegatsiya safarida 600 yil oldin Buxorodan kelib qolgan buxorolik vatandoshlar bilan uchrashuv uyushtirilgan. 18 aprelda Lahordagi Xaynun dori ishlab chiqaradigan laboratoriyada bo‘ldilar [Ўз МА, фонд – М-2, рўйҳат – 1, иш – 166, варақ – 97].

1996 yil 7 may kuni S.Raximov tumani 309 chi Shark tillari litseyida Pokiston islom respublikasining O‘zbekistondagi favqulodda va Muxtor elchisi Shavkat ali Sheyx janoblari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tgan va uchrashuvda Xalqaro madaniy ma’rifiy aloqalar milliy assotsiatsiyasi rais muovini N.I.Ibroximova, XAMA Osie va Afrika mamlakatlari bo‘limi mudiri A.X.Raximov “O‘zbekiston Pokiston” jamiyati vitse prezidenti A.P.Raximov, Xalq ta’limi bo‘limi mudiri A.F.Raxmatullaev Sharq tillari litseyi direktori Sh.D. Ernazarova qatnashgan, va shuni ta’kidlash kerak savol javoblar urdu tilida bo‘lib o‘tgan [Ўз МА, фонд – М-2, рўйҳат – 1, иш – 166, варақ – 34].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning IHTga a’zo davlatlar bilan madaniy aloqalarida muzey ko‘rgazmalari, hunarmandchilik va xalq amaliy san’ati muhim o‘rin tutadi. Ushbu hamkorlik milliy madaniy merosni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish, xalqlar o‘rtasidagi madaniy muloqotni mustahkamlash va tarixiy qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Иллиас И. Малайзия – Ўзбекистоннинг жанубий-шарқий Осиёга кириш дарвозаси // Халқ сўзи, 5 февраль 2025 йил, № 25 (8920).
2. Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 2, иш – 71, варақ – 4.
3. Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 2, иш – 71, варақ – 4.
4. Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 2, иш – 71, варақ – 5.
5. Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 2, иш – 71, варақ – 7.
6. Раҳмон М. Малайзияда тақдимот маросими // Халқ сўзи, 12 ноябр 1996 йил, № 228 (1480).
7. Халқаро “Халол журнал”// Hidoyat, 2005, № 6. – Б. 12.

8. Узбекистан и Индонезия создали законодательную основу торгово-экономического сотрудничества // https: //regnum.ru/news/1230970 07.07.2025.
9. ИҲТ, собиқ Ислом Конференцияси Ташкилоти — ИКТ.
10. Ўз МА, фонд – М-2, рўйҳат – 1, иш – 177, варақ – 1.
11. Ўз МА, фонд – М-2, рўйҳат – 1, иш – 177, варақ – 1.
12. Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 723, варақ – 168.
13. Ўз МА, фонд – М-2, рўйҳат – 1, иш – 198, варақ – 28.
14. Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 480, варақ – 5.
15. Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 723, варақ – 168.
16. Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 480, варақ – 24.
17. Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 723, варақ – 168.
18. Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 723, варақ – 168.
19. Ўз МА, фонд – М-7, рўйҳат – 1, иш – 723, варақ – 168.
20. Ўз МА, фонд – М-2, рўйҳат – 1, иш – 166, варақ – 97.
21. Ўз МА, фонд – М-2, рўйҳат – 1, иш – 166, варақ – 34.

MINIATYURA SAN’ATI NAMUNALARIDA SHARQ XALQLARI BADIIY-MADANIY MEROSI TALQINI

Sulaymonov Asqarali
Toshkent Arxitektura-qurilish universiteti
“Muhandislik grafikasi” kafedrasi professori
e-mail: sulaymonovasqarali@gmail.uz

Annotatsiya: maqolada Sharq miniatyura san’ati namunalarida tarixiy xotira, adabiy syujetlar, me’moriy muhit va kundalik turmushning badiiy talqiniga oid ma’lumotlar keltirilgan. Hirot, Safaviylar va Usmonli maktablari misolida tasviriy uslub hamda madaniy meros o‘rtasidagi bog‘liqlik qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Sharq miniatyurasi, madaniy meros, kitobat san’ati, Hirot maktabi, Temuriylar davri madaniyati, Behzod fenomeni, badiiy talqin, badiiy meros, kompozitsiya.

Sharq xalqlarining badiiy-madaniy merosi faqat yozma tarixiy manbalar va me’moriy yodgorliklarda emas, balki qo‘lyozma kitoblarga ishlangan miniatyuralarda ham aks etgan. Ushbu asarlarda sharq xalqlarining san’ati va madaniyati davr kishilarining kiyinish madaniyati, saroy va shahar muhiti, turmush marosimlari,

me’moriy inshootlar, tabiatga munosabat hamda adabiy qahramonlar haqidagi tasavvurlar badiiy shaklda namoyon bo‘ladi. Shu bois miniatyurani tarixiy voqelikning oddiy nusxasi emas, balki muayyan ijtimoiy va estetik qarashlar vositasida qayta yaratilgan vizual manba tarixning obyektiv talqini sifatida baholash lozim. Mazkur maqolaning maqsadi Sharq miniatyura maktablari misolida badiiy tasvir va madaniy merosning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashtirishdan iborat.

Sharq miniatyura san’ati asarlarini badiiy-kompozitsion tahlil yondashuvlari miniatyurachi rassomlarning badiiy merosga nisbatan yondashuvlarini ochib berish imkonini beradi. Tahlilning birinchi yo‘nalishi qo‘lyozma va miniatyuraning tarixiy-madaniy kontekstini, ikkinchisi tasviriy detal va ramzlarning ma’nosini, uchinchisi esa turli maktablarda rang, chiziq, makon va syujetga ko‘ra kompozitsion yechimini qiyoslashni nazarda tutadi [Swietochowski M.: 49-71]. Bunda miniatyura tarixiy voqelikning tasviriy talqini sifatida mustaqil tasdiqlovchi hujjat sifatida emas, boshqa yozma va moddiy manbalar bilan solishtiriladigan badiiy dalil sifatida qaraladi.

Sharq kitobat san’ati xattotlik, lavha, hoshiyalash, zarhal bezak va rangtasvirning yaxlit tizimidan tarkib topgan. Miniatyura matn mazmunini ko‘rsatish bilan cheklanmay, undagi voqeaga muayyan badiiy munosabat bildiradi. Doston va tarixiy asarlarga ishlangan tasvirlarda voqealar ko‘pincha bir nechta makoniy qatlamlarda ifodalanadi: bino ichki qismi, bog‘, ko‘cha va tabiat manzarasi bitta kompozitsiyada uyg‘unlashadi [Dimand M.S.:52]. Bunday tuzilish Sharq tasviriy tafakkurining o‘ziga xosligini namoyon etadi. U Yevropa Uyg‘onish davriga xos yagona ko‘rish nuqtasiga asoslangan perspektiva bilan aynan bir xil tamoyilga bo‘ysunmaydi. Tasvirning ustuvor jihati shartlilik prinsipi asosida real voqelikni tasvirlashga yo‘naltirilgan.

XIV-XV asrlarda kitobat san’atining rivojlanishida Temuriylar saroyidagi ilmiy-adabiy muhit alohida ahamiyat kasb etdi. Hirot hukmdorlik va madaniy hayot markazlaridan biriga aylangan davrda qo‘lyozmalar yaratish, bezash hamda ularga miniatyuralar ishlash yuqori badiiy darajaga ko‘tarildi. Hukmdorlar va amirlarning homiyligi xattot, musavvir, muzahhib hamda sahhoflar faoliyatini birlashtirgan kitobat ustaxonalarining rivojlanishiga zamin yaratdi. Ushbu jarayon Sharq qo‘lyozmasini matn, tasvir va bezakning yagona san’at asari sifatida shakllantirdi [Yalman S.:1370]. Bu asarlar sharq xalqlarining badiiy madaniy merosi sifatida dunyoning eng nufuzli muzey, galereya hamda kutubxonalarida saqlanmoqda.

Hirot maktabi ijodiy tajribasini anglashda Kamoliddin Behzod nomi muhim o‘rin tutadi. Uning nomi bilan bog‘langan asarlarda shakllarning ritmik joylashuvi, me’moriy detallar aniqligi, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar va kundalik hayotga xos epizodlar murakkab kompozitsiya tarkibida tasvirlanadi. Biroq miniatyura asarlarini

Behzodga nisbat berishda qo‘lyozmaning sanasi, nusxalanish tarixi va muzey kataloglaridagi atributsiyani tekshirish muhimdir. Zero, ayna shu yo‘l bilan, birinchidan, tarixiy voqelikning obyektivligi, ikkinchidan, tarixiy badiiy meros sifatidagi ahamiyatiga aniqlik kiritiladi. Ijodkorning individual uslubini butun Hirot ustaxonasi an’analari bilan aynanlashtirmaslik lozim [Jumaboyev N.P.: 139-145]. Bu fikrni aniq asar misolida tekshirish mumkin. Metropoliten san’at muzeyida saqlanayotgan Sa’diyning “Bo‘ston” asari qo‘lyozmasining “Yusuf va Zulayho” lavhasi (taxminan 1525-1535-yillar, Buxoro; inv. 1974.294.4) Hirotda ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan matnning keyinchalik Movarounnahr badiiy muhitida tasvir bilan boyitilganini ko‘rsatadi. Muzey tavsifida qayd etilgan ushbu provenans Sharq qo‘lyozma madaniyatida adabiy syujet va rassomlik maktablari hududlararo almashinuvini tahlil qilishga asos bo‘ladi. “Yusuf va Zulayho” syujetini muayyan rassomga faqat umumiy uslubiy o‘xshashlik orqali nisbat berish yetarli emas; bunda qo‘lyozmaning sanasi, yaratilish joyi va katalog ma’lumotlari muhimdir [The Metropolitan Museum of Art, inv. 1974.294.4]. Miniatyuralarda aks etgan me’moriy muhit tarixiy-madaniy merosni tadqiq etish uchun ayniqsa qimmatli. Peshtoq, ravoq, ustun, koshin, hovli va bog‘ kabi me’moriy inshoot elementlari faqat sahna fonini yaratmaydi, balki voqeaning saroy, madrasa, uy yoki jamoat makonida sodir bo‘layotganini belgilaydi. Me’moriy tasvirlarni mavjud obidalar bilan qiyoslash tarixiy tasavvurni kengaytiradi, ammo miniatyuradagi bino detallarini aniq yodgorlikning o‘lchamli chizmasi sifatida talqin etish metodik jihatdan noto‘g‘ri. Musavvirlar real me’moriy kuzatuvni dekorativ umumlashtirish va ramziy tartib bilan uyg‘unlashtirganlar.

Sharq miniatyurasining madaniy mazmunini yoritishda adabiyot bilan bog‘liqlik ham asosiy o‘rin tutadi. Nizomiy, Sa’diy, Firdavsiy, Jomiy va Alisher Navoiy asarlari bilan aloqador tasviriy an’analar axloqiy tanlov, adolat, ilm, muhabbat va hukmdorlik haqidagi g‘oyalarni ko‘rgazmali badiiy shaklda ifodalagan. Bir syujetning turli davr va maktablardagi talqinlari qiyoslanganda nafaqat kompozitsion farqlar, balki o‘zgargan estetik did va ijtimoiy ideal ham ko‘rinadi. Demak, kitob miniatyurasi adabiy matnning bezagi bo‘lish bilan birga, uning davr madaniyatidagi qabul qilinishi va qayta talqin qilinishidan dalolat beradi.

Yana bir dalil – Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” asariga ishlangan, 1523-1524-yillarga oid “Zulayho Yusufning kiyimidan tutmoqda” miniatyurasidir. Metropoliten muzeyi ushbu varaqni hozirgi O‘zbekiston hududi, Buxoro bilan bog‘laydi. Lavhada qahramonlar harakati va saroy interyeri adabiy voqeaning axloqiy-ruhiy mazmunini ochuvchi vizual unsurlarga aylangan. Ikki qo‘lyozmani

qiyoslash bir adabiy mavzuning turli kitobat an’analarida qayta ishlab chiqilganini anglatadi. Bunda bezak, sahna qurilishi va obrazlar o‘rtasidagi nisbat mustaqil tahlil mezoni bo‘lishi kerak [The Metropolitan Museum of Art, katalog, 455023]. Ayni paytda alohida etirof etish joizki, har ikki namuna ham madaniy meros maqomida qaralishi mumkin.

Safaviylar davridagi rangtasvir an’analari temuriylar kitob san’ati tajribasini davom ettirish bilan birga yangi did va buyurtmachi ehtiyojlari ta’sirida o‘zgardi. Ayrim kompozitsiyalarda dekorativlik kuchaydi, alohida varaqlarga ishlangan tasvirlar va albomlar kengroq tarqaldi [Swietochowski M.: 49-71]. Bu o‘zgarishlarni oddiy ravishda bir maktabning ikkinchisiga almashinuvi deb emas, balki ustaxonalar o‘rtasidagi uslubiy davomiylik va badiiy izlanishlar sifatida talqin qilish lozim.

Usmonli miniatyura san’ati ham Sharq badiiy merosining muhim tarkibiy qismidir. Unda tarixiy voqealar, harbiy yurishlar, saroy marosimlari, shahar makoni va hukmdorlik timsollari tasvirlangan qo‘lyozmalar muhim o‘rin egallaydi. Matrakchi Nasuhga oid topografik tasvirlarda shaharlarning me’moriy tuzilishi va yo‘l manzaralarini ifodalashga intilish seziladi. Naqqosh Usmon bilan bog‘liq an’analarda esa saroy tarixini bayon qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunday asarlar tarixshunoslik va san’atshunoslik uchun tutash tadqiqot maydonini yuzaga keltiradi, ammo ulardagi manzaralar ham badiiy tanlov va shartlilikdan xoli emas.

Madaniy merosning miniatyuralardagi talqinini o‘rganishda uch ilmiy muammo mavjud. Birinchisi, ayrim tasvirlarning muallifi va yaratilgan davrini ishonchli belgilash murakkabligidir. Ikkinchisi, badiiy shartlilik bilan tarixiy voqelik orasidagi chegarani aniqlash zaruratidir. Uchinchisi, qo‘lyozmalar turli muzey va kutubxonalarda saqlangani bois ularni yagona qiyosiy tizimda o‘rganishning qiyinligidir. Bu muammolarni hal etishda katalog tavsiflari, provenans ma’lumotlari, yozma manbalar, me’moriy qiyoslar va ikonografik tahlilni birgalikda qo‘llash maqsadga muvofiq.

Miniatyura namunalari madaniy merosni avlodlarga yetkazishning ta’limiy vositasi hamdir [Sulaymonov A.: 117-121]. Ijtimoiy manbalarda keltirilgan qarashlardan kelib chiqib, miniatyuralarni ta’limda qo‘llashni ‘Tarixiy kontekstni aniqlash – kompozitsiya jihatidan tasviriy tuzilishni tahlil qilish – madaniy belgilarni izohlash – boshqa manbalar bilan qiyoslash – asosli xulosa chiqarish” izchilligida tashkil etish miniatyuralarni badiiy madaniy meros sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Ushbu ketma-ketlik metodik tavsiya bo‘lib, uning samaradorligini alohida empirik tadqiqotda baholash talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq miniatyura san’ati tarixiy xotira va badiiy tafakkur uyg‘unlashgan ko‘p qatlamli madaniy hodisadir. Unda xalq turmushi, adabiy-estetik qadriyatlar, saroy marosimlari va me’moriy muhit rang, chiziq, kompozitsiya hamda ramziy obrazlar orqali qayta talqin etiladi. Hirot, Safaviylar va Usmonli maktablari o‘rtasidagi davomiylik hamda tafovutlar Sharq xalqlari badiiy-madaniy merosining rang-barangligini ko‘rsatadi. Miniatyuralardan tarixiy manba sifatida foydalanish ularni yozma va moddiy dalillar bilan qiyoslashni, san’at asari sifatida o‘rganish esa individual uslub va davr estetik mezonlarini hisobga olishni talab qiladi. Bunday fanlararo yondashuv qo‘lyozmalarni raqamlashtirish, muzey fondlarini ilmiy tavsiflash va madaniy merosni ta’limda mazmunli o‘rganish uchun istiqbolli yo‘nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dimand M.S. A Guide to an Exhibition of Islamic Miniature Painting and Book Illumination. – New York: The Metropolitan Museum of Art, 1933. – 52 p.
2. Jumaboyev N. P. Kamoliddin Behzodning sharqona tasviriy san’at uslubi va asarlari tahlili // Oriental Art and Culture. – 2020. – III. – B. 139-145.
3. The Metropolitan Museum of Art. “Yusuf and Zulaikha”, Folio 51r from a Bustan of Sa‘di. Taxm. 1525-1535, Buxoro. Inv. 1974.294.4. https://www.metmuseum.org/art/collection/search/452672 (murojaat: 11.10.2026).
4. The Metropolitan Museum of Art. “Zulaikha Seizing the Skirt of Joseph’s Robe”, Folio of a Yusuf and Zulaykha of Jami. 1523-1524, Buxoro. Collection catalogue no. 455023. https://www.metmuseum.org/art/collection/search/455023 (murojaat: 11.10.2026).
5. Sulaymonov A. Artistic and Aesthetic Education of Students by Means of Art Books // European Journal of Humanities and Social Sciences. – 2020. – No. 2. – P. 117-121. DOI: 10.29013/EJHSS-20-2-117-121.
6. Swietochowski M. The Development of Traditions of Book Illustration in Pre-Safavid Iran // Iranian Studies. – 1974. – Vol. 7, No. 1–2. – P. 49-71. DOI: 10.1080/00210867408701456.
7. Yalman S. (based on L. Komaroff). The Art of the Timurid Period (ca. 1370-1507) // Heilbrunn Timeline of Art History. – The Metropolitan Museum of Art, 2002. https://www.metmuseum.org/ko/essays/the-art-of-the-timurid-period-ca-1370-1507 (murojaat: 11.10.2026).

MUZEY EKSPONATLARINI ATRIBUTSIYA QILISHDA TARIXIY MANBALAR VA SAN’ATSHUNOSLIK TAHLILINING O‘ZARO UYG‘UNLIGI

Sultanov Shoxjaxon Rahmon o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti,
Nurmatova Zilola Dorxon qizi
Turan International University talabasi

Annotatsiya: *Maqolada muzey eksponatlarini ilmiy atributsiya qilishda tarixiy manbalar va san’atshunoslik tahlilining o‘zaro aloqasi yoritiladi. Buyumning yaratilgan davri, hududiy mansubligi, muallifi va badiiy xususiyatlarini aniqlashda hujjatlashtirish hamda qiyosiy tahlilning ahamiyati asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *muzey eksponati, atributsiya, san’atshunoslik, tarixiy manba, muzeyshunoslik, provenans, inventarizatsiya, badiiy uslub, hunarmandchilik, moddiy madaniyat, kataloglashtirish, tarixiy hujjat, qiyosiy tahlil, ilmiy tavsif, madaniy meros.*

Kirish

Muzey kolleksiyalarida saqlanayotgan tarixiy buyumlar, san’at asarlari va hunarmandchilik namunalari o‘tmish madaniyatini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Biroq eksponatning tarixiy va badiiy qiymatini to‘liq ochib berish uchun uning tashqi ko‘rinishini tavsiflashning o‘zi yetarli emas. Buyumning qachon va qayerda yaratilgani, qanday materiallardan tayyorlangani, muallifi yoki ustaxonasi, dastlabki vazifasi hamda muzey kolleksiyasiga kelib tushish tarixi aniqlanishi lozim.

Muzeyshunoslikda ushbu masalalar eksponat atributsiyasi bilan bog‘liq. Atributsiya buyumning kelib chiqishi, yaratilgan davri, muallifligi, hududiy mansubligi va boshqa identifikatsion xususiyatlarini mavjud dalillar asosida aniqlash jarayonidir. Ushbu jarayon tarixiy hujjatlar, inventar daftarlari, yozuv va tamg‘alar, materiallar, texnologik belgilar hamda san’atshunoslik tahlilini birgalikda o‘rganishni talab qiladi.

Xalqaro muzeylar kengashi (ICOM) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan Object ID standarti madaniy buyumlarni identifikatsiya qilishda ularning turi, materiali, tayyorlash texnikasi, o‘lchamlari, yozuvlari, o‘ziga xos belgilari, nomi, mavzusi, sanasi yoki davri hamda yaratuvchisi haqidagi ma’lumotlarni qayd etishni nazarda tutadi [ICOM, “Object ID”]. Bu yondashuv eksponatni tavsiflash va uning identifikatsiyasini asoslash uchun tizimli ma’lumotlar zarurligini ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi muzey eksponatlarini atributsiya qilishda tarixiy manbalar va san’atshunoslik tahlilining o‘zaro bog‘liqligini ochib berish, mavjud ma’lumotlarni

tekshirish usullarini yoritish hamda ilmiy atributsiya sifatini oshirishga xizmat qiluvchi yondashuvlarni asoslashdan iborat.

Muzey eksponatlarini atributsiya qilishning mazmuni va vazifalari. Eksponat atributsiyasi muzey kolleksiyasidagi buyumning ilmiy tavsifini aniqlashtirish va uning tarixiy o‘rnini belgilashga qaratilgan jarayondir. Bu jarayonda buyumning moddiy xususiyatlari bilan bir qatorda, uning yaratilish sharoiti, badiiy uslubi, foydalanish vazifasi va saqlanish tarixi ham o‘rganiladi.

Masalan, tarixiy sopol idishni atributsiya qilishda uning shakli, loy tarkibi, sir turi, ranglari, naqshlari va tayyorlash texnikasi tahlil qilinadi. Ushbu belgilar boshqa hududlarda yoki davrlarda yaratilgan o‘xshash buyumlar bilan qiyoslanadi. Biroq bitta naqsh yoki rangning mavjudligi buyumning aniq hududga mansubligini isbotlamaydi. Ishonchli xulosa chiqarish uchun bir nechta mustaqil belgi va manbalarni birgalikda ko‘rib chiqish zarur.

Atributsiyaning muhim vazifalaridan yana biri buyumning provenansini, ya’ni uning yaratilishidan boshlab ma’lum bo‘lgan egalik va saqlanish tarixini aniqlashdir. Bu ma’lumotlar eski inventar daftarlarida, xarid yoki hadya hujjatlarida, ko‘rgazma kataloglarida, yozishmalarda va buyumning o‘zidagi yozuv yoki tamg‘alarda saqlangan bo‘lishi mumkin. Getty muzeyi provenans tadqiqotlarida ham tarixiy hujjatlar, inventarlar, yozuvlar, yorliqlar va buyumdagi boshqa belgilarni birgalikda o‘rganish muhimligi ta’kidlanadi [J. Paul Getty Museum, “Research on Museum Collection Provenance”].

Eksponat atributsiyasi muzey katalogining sifatiga ham bevosita ta’sir qiladi. Buyumning sanasi, nomi yoki kelib chiqishi haqidagi noto‘g‘ri ma’lumot keyingi tadqiqotlar, ko‘rgazma matnlari va ta’lim materiallarida takrorlanishi mumkin. Shu sababli atributsiya natijalarini dalillar bilan asoslash, noaniqliklarni qayd etish va yangi ma’lumotlar paydo bo‘lganda katalog yozuvlarini yangilash lozim.

Tarixiy manbalarning atributsiya jarayonidagi ahamiyati. Tarixiy manbalar eksponatning kelib chiqishi va tarixiy kontekstini aniqlashga yordam beradi. Bunday manbalarga muzey inventarlari, eski kataloglar, arxiv hujjatlari, xatlar, hisob-kitob yozuvlari, xarid hujjatlari, tarixiy fotosuratlar va buyumga oid yozuvlar kiradi.

Inventar daftarida buyumning muzeyga kelib tushgan sanasi, dastlabki nomi yoki taqdim etuvchi shaxs haqida ma’lumot bo‘lishi mumkin. Eski ko‘rgazma katalogi esa buyumning avvalgi tasnifi va ilmiy talqini haqida tasavvur beradi. Biroq tarixiy hujjatda qayd etilgan ma’lumotni tekshirmasdan mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Hujjatning sanasi, muallifi, tuzilgan maqsadi va boshqa manbalar bilan mosligi hisobga olinishi kerak.

Ayniqsa, muallif yoki ustaxona nomini aniqlashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Buyumdagi imzo yoki tamg‘a muhim dalil bo‘lishi mumkin, biroq uning haqiqiyligi, qaysi davrda qo‘yilgani va aynan nimani anglatishi tekshirilishi zarur. Xuddi shuningdek, eski katalogda keltirilgan mualliflik haqidagi ma’lumot keyingi tadqiqotlarda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Tarixiy manbalarni qiyoslash atributsiya natijalarining ishonchliligini oshiradi. Masalan, inventar daftaridagi sana buyumning material va texnologik xususiyatlari bilan mos kelmasa, tafovutning sababi alohida o‘rganilishi kerak. Bunday vaziyatda sanani avtomatik ravishda o‘zgartirish emas, balki mavjud dalillarni solishtirib, noaniqlikni ilmiy tavsifda qayd etish maqsadga muvofiq.

San’atshunoslik tahlili va qiyosiy metod. San’atshunoslik tahlili eksponatning badiiy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bunda kompozitsiya, shakl, ranglar uyg‘unligi, naqsh tizimi, material, texnika, uslub va bezak elementlarining o‘zaro munosabati o‘rganiladi. Ushbu belgilar buyumning muayyan badiiy an’ana yoki davr bilan aloqasini aniqlashda yordam berishi mumkin.

Masalan, kashtachilik namunasini tahlil qilishda naqsh motivlari, ranglarning joylashuvi, tikish usuli va kompozitsion tuzilish e’tiborga olinadi. Keyin ushbu xususiyatlar ishonchli sanasi va kelib chiqishi ma’lum bo‘lgan boshqa namunalar bilan taqqoslanadi. Bunday qiyoslash hududiy badiiy maktablar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, uslubiy o‘xshashlikning o‘zi mualliflikni isbotlamaydi. Bir ustaxona yoki badiiy maktabga mansub buyumlar o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin, ammo ularning yaratilgan vaqti va muallifi turlicha bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun atributsiyada badiiy tahlil tarixiy hujjatlar, material va texnologik tekshiruvlar bilan to‘ldirilishi kerak.

Getty tadqiqot markazi tomonidan yuritiladigan Categories for the Description of Works of Art (CDWA) tizimi san’at asarlari, me’moriy obyektlar va boshqa madaniy buyumlarni tavsiflash uchun kategoriyalar hamda kataloglashtirish bo‘yicha tavsiyalarni taqdim etadi. Unda ma’lumotlarning ishonchli, ilmiy va nufuzli manbalarga tayangan holda qayd etilishi muhimligi ko‘rsatiladi [Getty Research Institute, “Categories for the Description of Works of Art: General Guidelines”].

Demak, san’atshunoslik tahlili atributsiyaning zarur tarkibiy qismi bo‘lsa-da, u boshqa dalillardan ajratilgan holda qo‘llanmasligi kerak. Eng ishonchli natija buyumning badiiy xususiyatlari, moddiy tarkibi va tarixiy hujjatlari bir-birini tasdiqlagan holatda yuzaga keladi.

Atributsiya jarayonini takomillashtirishning amaliy yo‘nalishlari. Muzey eksponatlarini atributsiya qilish sifatini oshirish uchun izchil va hujjatlashtirilgan ish jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqichda buyumning dastlabki tavsifi tuziladi. Uning nomi, materiali, texnikasi, o‘lchami, holati, yozuvlari, tamg‘alari va o‘ziga xos belgilari qayd etiladi. Zarur hollarda buyumning umumiy ko‘rinishi va alohida detallari suratga olinadi.

Ikkinchi bosqichda tarixiy hujjatlar o‘rganiladi. Inventar daftarlaridagi ma’lumotlar, eski kataloglar, yozishmalar va boshqa tegishli hujjatlar aniqlanib, ularning kelib chiqishi va ishonchliligi baholanadi. Buyumning muzey kolleksiyasiga kelib tushish tarixi imkon qadar tiklanadi.

Uchinchi bosqichda san’atshunoslik va qiyosiy tahlil o‘tkaziladi. Buyumning badiiy xususiyatlari ishonchli manbalarda tavsiflangan o‘xshash namunalar bilan taqqoslanadi. Zarur hollarda materialshunoslik, texnologik yoki laboratoriya tekshiruvlari jalb etiladi.

To‘rtinchi bosqichda barcha dalillar birgalikda baholanadi. Buyumning yaratilgan davri, hududiy mansubligi yoki muallifligi haqidagi xulosa dalillar bilan asoslanadi. Ma’lumot yetarli bo‘lmagan holatlarda aniq sana yoki muallifni qat’iy ko‘rsatish o‘rniga, taxminiy davr yoki ehtimoliy mansublik qayd etilishi lozim.

Beshinchi bosqichda atributsiya natijalari muzey katalogiga kiritiladi va foydalanilgan manbalar ko‘rsatiladi. Yangi dalillar aniqlanganda yozuvni qayta ko‘rib chiqish imkoniyati saqlanadi. ICOMning Object ID standarti va CIDOC hujjatlashtirish tavsiyalari buyumlarni tizimli identifikatsiya qilish, tavsiflash va ular haqidagi ma’lumotlarni izchil saqlash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi [ICOM, “Object ID”; ICOM-CIDOC, “Standards and Guidelines”].

Raqamli kataloglar ushbu jarayonni yengillashtirishi mumkin. Elektron bazada buyumning fotosuratlari, inventar raqami, tarixiy ma’lumotlari, badiiy tavsifi va manbalari o‘zaro bog‘lanadi. Biroq raqamlashtirish ilmiy tekshiruv o‘rnini bosmaydi; uning samarasi kiritilgan ma’lumotlarning sifati va muntazam yangilanishiga bog‘liq.

Xulosa

Muzey eksponatlarini atributsiya qilish tarixiy manbalar va san’atshunoslik tahlilining o‘zaro uyg‘unligini talab etadigan murakkab ilmiy jarayondir. Buyumning yaratilgan davri, hududiy mansubligi, muallifi va badiiy xususiyatlarini aniqlashda tarixiy hujjatlar, inventar yozuvlari, provenans ma’lumotlari, material va texnologik belgilar hamda qiyosiy tahlil birgalikda qo‘llanishi kerak.

Atributsiya natijalarining ishonchliligi dalillarning sifati, ularning o‘zaro mosligi va xulosalarning qay darajada asoslanganiga bog‘liq. Yetarli ma’lumot mavjud

bo‘lmagan holatlarda noaniqlikni ochiq qayd etish ilmiy mas’uliyatning muhim shartidir.

Muzeylarda standartlashtirilgan hujjatlashtirish, raqamli kataloglashtirish va atributsiya natijalarini muntazam yangilash tizimini rivojlantirish eksponatlarning tarixiy hamda badiiy qiymatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu tariqa tarix va san’atshunoslik hamkorligi muzey kolleksiyalarini ishonchli ilmiy manbaga aylantirish, madaniy merosni muhofaza qilish va uni kelajak avlodlarga yetkazishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Getty Research Institute. Categories for the Description of Works of Art (CDWA): General Guidelines. https://www.getty.edu/publications/categories-description-works-art/general-guidelines/
2. ICOM. Object ID: An International Standard for Identifying Cultural Objects. https://icom.museum/en/resources/standards-guidelines/objectid/
3. ICOM-CIDOC. Standards and Guidelines for Museum Documentation. https://icom-documentation.mini.icom.museum/normes/cidoc-normes/
4. J. Paul Getty Museum. Research on Museum Collection Provenance. https://www.getty.edu/museum/provenance/.

МИНИАТЮРА И МУЗЕЙНЫЕ ФОНДЫ КАК ИСТОЧНИКИ ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИКО-АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКИСТАНА

Р. З. Хайров
Гулистанский государственный педагогический институт
доцент кафедры «Искусствоведение»,
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам
Тел.: +998994754475

Аннотация: В статье рассматривается значение восточной миниатюры, музейных коллекций и образцов прикладного искусства как визуальных источников изучения историко-архитектурного наследия Узбекистана. Обосновывается их информационный, художественный, исторический и педагогический потенциал в современном искусствоведческом исследовании.

Ключевые слова: миниатюра, музей, музейные фонды, история, архитектура, рукопись, искусство, прикладное искусство, визуальный источник, образование, искусствоведение.

Изучение историко-архитектурного наследия Узбекистана требует обращения не только к письменным и археологическим источникам, но и к произведениям изобразительного и прикладного искусства. Особое место среди таких источников занимает миниатюра, поскольку в ней зафиксированы представления о городской среде, дворцовой и бытовой архитектуре, интерьерах, костюме, ремеслах и различных формах общественной жизни. Как отмечает А. Хакимов, художественное наследие Узбекистана необходимо рассматривать в его исторической динамике, учитывая взаимосвязь художественных традиций и культурных процессов [Хакимов А.А., 121].

Восточная миниатюра формировалась в тесной связи с рукописной книгой. Поэтому миниатюрное изображение представляет собой не только самостоятельное художественное произведение, но и своеобразный визуальный документ. Композиции рукописей позволяют реконструировать отдельные особенности исторической среды, которые не всегда сохраняются в архитектурных памятниках. В этом отношении особенно значимы произведения, связанные с культурой эпохи Темуридов и последующих государств Центральной Азии.

Существенное значение для изучения восточной миниатюры имеет исследование М. М. Ашрафи «От Бехзада до Риза-йи Аббаси. Развитие миниатюры XVI-начала XVII века», в котором рассматриваются основные этапы становления и развития миниатюрной живописи Востока, художественные школы и особенности творчества мастеров XVI-начала XVII века [Ашрафи М.М., 45-52]. Особое внимание уделяется преемственности художественных традиций, взаимодействию различных миниатюрных школ и роли выдающихся мастеров в формировании художественного языка восточной миниатюры. Эти положения позволяют рассматривать миниатюрные изображения как важный визуальный источник при исследовании историко-культурной среды Центральной Азии и сопоставлять их с сохранившимися памятниками архитектуры, письменными и археологическими материалами.

Особенно показательны миниатюры, в которых изображены дворцы, медресе, городские площади, сады, павильоны и жилые постройки. При анализе подобных произведений важно учитывать специфику художественного языка миниатюры. Художник не стремился к фотографической фиксации

пространства: архитектура подчинялась композиции, ритму, символике и повествовательной задаче. Поэтому миниатюра не может рассматриваться как точный чертеж здания. Вместе с тем она содержит ценную совокупность признаков - характер членения фасада, форму арок и куполов, расположение окон, декоративные элементы, особенности интерьера и организацию пространства. Именно сопоставительный анализ позволяет использовать эти сведения в историко-искусствоведческом исследовании.



Рисунок 1. Взаимосвязь миниатюры, музейных фондов и историко-архитектурного наследия Узбекистана.

Важным направлением является изучение музейных фондов. Музейная коллекция представляет собой систематизированный комплекс материальных свидетельств, каждое из которых получает дополнительную научную ценность благодаря атрибуции, датировке, описанию происхождения и сопоставлению с другими предметами (Рис. 1). В Музее искусства восточной миниатюры имени Камолиддина Бехзода хранятся образцы миниатюрной живописи, рукописные материалы и произведения прикладного искусства, связанные с художественными школами Бухары, Самарканда, Герата, Тебриза и Исфахана. Деятельность музея объединяет хранение, научное изучение, реставрацию и популяризацию художественного наследия Востока.

В научном отношении музейный предмет необходимо рассматривать как часть историко-культурного контекста. При этом музейная экспозиция должна рассматриваться не только как пространство демонстрации, но и как научно организованная система коммуникации. Корректная этикетка, цифровой паспорт предмета, сведения о происхождении и реставрации существенно повышают исследовательскую ценность коллекции. Для студентов

искусствоведческих специальностей это создает возможность осваивать методы атрибуции и визуального анализа непосредственно на материале национального художественного наследия.

Не менее важным является вопрос критической интерпретации визуального материала. Исследователь должен различать документальную информацию и художественную условность. Повторяющиеся архитектурные мотивы, устойчивые схемы изображения и детали предметного мира становятся надежнее как исторические свидетельства тогда, когда подтверждаются несколькими независимыми источниками. Поэтому методика работы с миниатюрой должна включать атрибуцию произведения, определение времени и места его создания, установление литературного сюжета, анализ художественной манеры и сопоставление с археологическими и архитектурными данными. Такой алгоритм особенно продуктивен при изучении Самарканда, Бухары и других исторических центров Узбекистана. Он позволяет перейти от простого описания изображения к реконструкции культурной среды, в которой создавались памятники.

Особый интерес представляет взаимосвязь миниатюры и прикладного искусства. В традиционной культуре Узбекистана художественная образность существовала в единой системе: книжная иллюстрация, орнамент, керамика, текстиль, металлические изделия и архитектурный декор взаимодействовали между собой. Это позволяет исследователю выявлять устойчивые мотивы, композиционные схемы и символические значения. Исследования З. Сулаймоновой показывают, что развитие миниатюры может рассматриваться не только с формально-стилистической, но и с философско-эстетической точки зрения [Сулаймонова З., 48-49].

Современная музейная практика расширяет возможности такого анализа. Цифровизация коллекций, создание электронных каталогов, высококачественная фотографическая фиксация и цифровая реконструкция позволяют сопоставлять предметы, хранящиеся в разных учреждениях. В результате исследователь получает возможность формировать комплексные базы визуальных источников. Это особенно важно для памятников, отдельные элементы которых утрачены, перестроены или сохранились фрагментарно.

Для художественного образования работа с музейными фондами имеет также методическое значение. Изучение миниатюры и прикладного искусства позволяет студентам воспринимать историко-культурное наследие не как совокупность дат и названий, а как систему конкретных визуальных образов.

Анализ композиции, цвета, орнамента, архитектурных деталей и бытовых сцен развивает наблюдательность, художественное мышление и навыки искусствоведческого анализа. В учебном процессе целесообразно организовывать задания по сопоставлению миниатюр с фотографиями и чертежами архитектурных памятников, составлению визуальных реконструкций и подготовке музейных аннотаций.

Таким образом, миниатюра, музейные фонды и произведения прикладного искусства образуют важный комплекс источников для исследования историко-архитектурного наследия Узбекистана. Их научная ценность раскрывается наиболее полно при междисциплинарном подходе, объединяющем искусствоведение, историю, археологию, музееведение и образование. Перспективным направлением является создание цифровых исследовательских платформ, где изображения миниатюр, музейные предметы, письменные источники и данные об архитектурных памятниках будут связаны в единую информационную систему. Такой подход способствует более глубокому пониманию художественной культуры Узбекистана и создает условия для сохранения и передачи историко-культурного наследия будущим поколениям.

ЛИТЕРАТУРА

1. Хакимов А.А. Искусство Узбекистана: история и современность. - Ташкент: Изд-во журнала «San’at», 2010. – 504 с.
2. Ашрафи М.М. От Бехзада до Риза-йи Аббаси. Развитие миниатюры XVI-начала XVII века. - Ташкент: МИЦАИ; SMI-ASIA, 2011. - 175 с.
3. Сулаймонова З. Миниатюра санъати ривожланишининг фалсафий-эстетик талқини // Фалсафа ва ҳуқуқ. - 2010. - № 2. - Б. 48-49.
4. Шоёкубов Ш. Современная миниатюра Узбекистана. - Ташкент: Ўзбекистон, 2006. - 376 с.
5. O‘zbekiston san’ati. - Ташкент: Издательско-полиграфическая акционерная компания «Шарк», 2001.
6. Музей искусства восточной миниатюры имени Камолиддина Бехзода. Официальные материалы музея.

MUZEY FONDLARI – O‘ZBEKISTON TARIXIY-ME’MORIY MEROSINI TADQIQ ETISHNING MUHIM MANBASI

G‘.M.Xolmatov
Namangan davlat pedagogika instituti
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi
katta o‘qituvchisi (PhD)
+998 (93)-674-66-69

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston hududidagi tarixiy-me’moriy merosni o‘rganishda muzey fondlarining ilmiy va manbashunoslik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muzey fondlarida saqlanayotgan arxeologik topilmalar, me’moriy bezak elementlari, kulolchilik, kandakorlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik, to‘qimachilik va boshqa amaliy san’at namunalari tarixiy obidalarning yaratilish davri, badiiy xususiyatlari, texnologik an’analari hamda ularni yaratgan jamiyatning madaniy hayoti haqida muhim ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: muzey fondlari, tarixiy meros, me’moriy obidalar, muzeyshunoslik, arxeologik topilmalar, amaliy san’at, restavratsiya, konservatsiya, madaniy meros.

O‘zbekiston hududi qadimdan Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari tutashgan, shaharsozlik, me’morchilik, hunarmandchilik va amaliy san’at yuksak darajada rivojlangan hududlardan biri sifatida tarixda muhim o‘rin egallab kelgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qarshi, Toshkent va boshqa tarixiy shaharlarda shakllangan me’moriy maktablar xalqimizning ko‘p asrlik moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘zida mujassamlashtiradi. Masjid, madrasa, maqbara, saroy, karvonsaroy, qal’a va boshqa inshootlar nafaqat me’moriy yodgorlik, balki muayyan davrning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy va estetik qarashlarini aks ettiruvchi tarixiy manba hisoblanadi.

Bugungi kunda viloyat, shahar, tuman markazlarida, xalq ta’lim tizimida 1200 dan ortiq muzeylar bo‘lib, ularning eng yiriklari poytaxtimizda joylashgan. SHu bilan birga, o‘nlab yozuvchilar, shoirlar rassomlar, olimlar va mashhur san’at arboblarining uy muzeylari mavjud. Ushbu muzeylarda xalqimizning uzoq tarixidan hikoya qiluvchi, milliy mafkura va tafakkurni rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g‘urur va iftixorni yuksaltirishga xizmat qiluvchi ekspozitsiyalar qo‘yilgan [Asqarov A.: 108].

Muzey fondining ilmiy ahamiyati faqat unda saqlanayotgan eksponatlarning soni bilan belgilanmaydi. Ularning kelib chiqishi, topilgan joyi, davri, materiali, ishlab chiqarish texnologiyasi, bezak xususiyatlari, funksional vazifasi va boshqa ilmiy-pasport ma’lumotlari tarixiy tadqiqot uchun muhimdir. Shu jihatdan muzey fondlari tarixiy-me’moriy obidalarni alohida yodgorlik sifatida emas, balki ularni yaratgan ijtimoiy-madaniy muhit bilan birgalikda o‘rganish imkonini beradi.

O‘zbekiston muzeylarida saqlanayotgan arxeologik materiallar mamlakat hududida qadimdan mavjud bo‘lgan shaharsozlik va me’morchilik madaniyatining shakllanish bosqichlarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan sopol buyumlar, qurilish materiallari, naqshli terrakotalar, g‘isht namunalari, metall buyumlar, me’moriy bezak qismlari va boshqa ashyolar orqali qadimgi va o‘rta asr shaharlarining moddiy madaniyati haqida tasavvur hosil qilish mumkin [Suyunova M.: 164].

Ayniqsa, me’moriy obidalardan topilgan yoki ularning tarkibiy qismlari sifatida muzey fondlariga olingan bezak elementlari alohida ilmiy qiymatga ega. Masalan, sirlangan koshinlar, terrakota plitalari, ganchkorlik namunalari, yog‘och o‘ymakorligi qismlari va epigrafik yozuvlar me’moriy inshootlarning badiiy qiyofasini tiklash uchun muhim dalil bo‘lib xizmat qiladi. Ayrim hollarda obidaning o‘zida saqlanib qolmagan bezak elementlari muzey fondidagi namunalar asosida qiyosiy o‘rganilishi mumkin.

Tarixiy-me’moriy merosni tadqiq etishda muzey fondlarining yana bir muhim jihati shundaki, ular turli davrlarga oid moddiy manbalarni bir makonda jamlaydi. Ashyoni o‘rganish jarayonida yoki bevosita ekspozitsion zarurat uchun yaratilgan rekonstruksiyalar, maketlar, modellar, xaritalar, loyihalar, grafiklar, jadvallar, chizmalar, shartli tasvirlar ilmiy yordamchi material deyiladi. Ulaming ayrimlari, ba’zi bir sabablarga ko‘ra ekspozitsiyaga joylashtirib bo‘lmaydigan ashyolaming tashqi qiyofasini tasavvur qilishga imkoniyat yaratadi. Boshqalari, ashyo haqida qo‘shimcha axborot beradi [Qurbonova D.: 20]. Natijada tadqiqotchi ma’lum hududning madaniy taraqqiyotini uzoq tarixiy davr kesimida qiyoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, Samarqand yoki Buxoro hududidan topilgan turli davrlarga oid kulolchilik, metallga ishlov berish, yog‘och o‘ymakorligi va me’moriy bezak namunalarini o‘rganish orqali ushbu shaharlarda badiiy-hunarmandchilik an’analarining davomiyligi va o‘zgarishlarini aniqlash mumkin.

Muzey fondlari tarixiy-me’moriy obidalarni restavratsiya qilish jarayonida ham katta ahamiyatga ega. Restavratsiyaning asosiy talablaridan biri tarixiy yodgorlikning asl qiyofasini imkon qadar ilmiy asosda tiklashdir. Bunda faqat zamonaviy tasavvur yoki umumiy badiiy andozalarga tayanish yetarli emas. Obidaning qurilish davri, me’moriy uslubi, bezak motivlari va ishlatilgan materiallarini aniqlash uchun turli tarixiy manbalarni, jumladan muzey fondlaridagi ashyolarni o‘rganish talab etiladi [Izatullayeva M.: 61].

Muzey fondlaridagi namunalar restavrator uchun o‘ziga xos “moddiy dalil” vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, tarixiy binoda saqlanib qolmagan koshin

naqshining boshqa namunasi muzey fondida mavjud bo‘lsa, uning geometrik shakli, ranglar uyg‘unligi, naqsh kompozitsiyasi va ishlab chiqarish texnologiyasi qiyosiy tahlil qilinadi. Bu esa restavratsiya ishlarida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini kengaytiradi.

Muzey fondlarining tarixiy-me’moriy merosni o‘rganishdagi ahamiyati fotosurat, chizma, eskiz, xarita va boshqa tasviriy materiallar bilan yanada kengayadi. Ayniqsa, XIX–XX asrlarda yaratilgan tarixiy fotosuratlar ayrim obidalarning avvalgi holatini o‘rganish imkonini beradi. Vaqt o‘tishi bilan buzilgan, qayta qurilgan yoki ayrim bezak elementlarini yo‘qotgan me’moriy yodgorliklarning oldingi ko‘rinishini tarixiy fotosuratlar orqali aniqlash mumkin. Muzey fondlaridagi bunday tasviriy materiallarni zamonaviy fotografik va arxitektura o‘lchovlari bilan qiyoslash restavratsiya tarixini ham o‘rganish imkonini beradi.

Bundan tashqari, muzey fondlari tarixiy-me’moriy obidalarni faqat moddiy obyekt sifatida emas, balki xalqning ijtimoiy va ma’naviy hayoti bilan bog‘liq hodisa sifatida tadqiq etishga imkon beradi. Masjid va madrasalar, saroy va karvonsaroylar, bozor va hammomlar kabi inshootlarning vazifasi ularni yaratgan jamiyatning ehtiyojlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettirgan. Muzeylarda saqlanayotgan maishiy buyumlar, hunarmandchilik mahsulotlari, yozuvli ashyolar va boshqa materiallar ushbu inshootlarning kundalik hayotdagi o‘rnini tushunishga yordam beradi [Султанова Г.О.: 41].

Masalan, tarixiy shaharlardagi hunarmandchilik markazlari bilan bog‘liq buyumlarni o‘rganish orqali ma’lum bir me’moriy majmuaning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini yanada chuqurroq anglash mumkin. Shu ma’noda muzey fondi va tarixiy-me’moriy obida o‘rtasida uzviy ilmiy bog‘liqlik mavjud. Biri moddiy dalilni saqlasa, ikkinchisi ushbu dalil yaratilgan tarixiy-madaniy makonni namoyon etadi.

Bugungi kunda muzey fondlarini raqamlashtirish jarayoni ham tarixiy-me’moriy merosni tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Eksponatlarning elektron kataloglarini yaratish, yuqori aniqlikdagi fotografik tasvirlarni saqlash, uch o‘lchamli modellashtirish va raqamli arxivlardan foydalanish tadqiqotchilarga noyob materiallarni masofadan turib o‘rganish imkonini beradi. Bu ayniqsa turli muzeylar fondlarida saqlanayotgan bir xil yoki o‘xshash tarixiy ashyolarni qiyosiy tadqiq qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

Raqamlashtirish jarayonida eksponatning faqat tashqi ko‘rinishini emas, balki uning ilmiy tavsifi, kelib chiqish joyi, inventar ma’lumotlari, material tarkibi, o‘lchamlari va ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan ma’lumotlarini yagona tizimga kiritish muhimdir. Shundagina muzey fondlari zamonaviy tarix, arxeologiya,

san’atshunoslik, me’morchilik va restavratsiya tadqiqotlari uchun samarali ilmiy platformaga aylanishi mumkin.

Muzey fondlari bilan tarixiy-me’moriy merosni tadqiq etishning yana bir muhim jihati fanlararo yondashuvdir. Tarixchi uchun muzey ashyosi tarixiy voqea yoki jarayonning moddiy dalili bo‘lsa, arxeolog uchun stratigrafik va madaniy qatlam bilan bog‘liq manba, san’atshunos uchun badiiy uslub va kompozitsiya namunasi, me’mor-restavrator uchun esa qurilish va bezak texnologiyasini aniqlash vositasi bo‘lishi mumkin. Shu bois muzey fondlarini samarali o‘rganish tarix, arxeologiya, me’morchilik, san’atshunoslik, antropologiya va madaniyatshunoslik fanlarining o‘zaro hamkorligini talab etadi [Бекмуродов М.Б.: 84].

O‘zbekiston tarixiy-me’moriy merosini o‘rganishda muzey fondlarining imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun bir qator ilmiy-amaliy vazifalarni amalga oshirish zarur. Avvalo, muzeylarda saqlanayotgan tarixiy va me’moriy xarakterdagi ashyolarni zamonaviy ilmiy mezonlar asosida inventarizatsiya qilish, ularning kelib chiqishi va ilmiy pasportlarini takomillashtirish muhim. Ikkinchidan, tarixiy-me’moriy obidalar bilan bog‘liq eksponatlarning yagona elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, muzey xodimlari, tarixchilar, arxeologlar, san’atshunoslar va restavratorlarning qo‘shma tadqiqotlarini ko‘paytirish lozim.

Shuningdek, muzey fondlaridagi noyob namunalarni ilmiy kataloglar, albomlar va elektron nashrlar orqali ilmiy jamoatchilikka kengroq taqdim etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv muzeyni faqat eksponatlarni saqlovchi muassasa sifatidagi an’anaviy tasavvurdan chiqarib, uni faol ilmiy-tadqiqot markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston muzeylarining fondlarida saqlanayotgan moddiy va tasviriy manbalar mamlakat tarixiy-me’moriy merosini chuqur o‘rganish uchun katta ilmiy imkoniyatlarga ega. Arxeologik topilmalar, me’moriy bezak qismlari, amaliy san’at namunalari, tarixiy fotosuratlar, chizmalar va boshqa muzey ashyolari tarixiy obidalarning shakllanishi, rivojlanishi, badiiy qiyofasi va jamiyat hayotidagi o‘rnini aniqlashda muhim manba vazifasini bajaradi.

Muzey fondlarining ahamiyati ayniqsa tarixiy-me’moriy obidalarni restavratsiya va konservatsiya qilish, ularning asl badiiy qiyofasini ilmiy asosda tiklash hamda tarixiy-madaniy jarayonlarni fanlararo yondashuv asosida tadqiq etishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli muzey fondlarini muntazam ilmiy o‘rganish, ularni raqamlashtirish, kataloglashtirish va tadqiqotchilar uchun ochiq ilmiy resursga

aylantirish O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy merosini asrash va kelajak avlodga yetkazishning muhim shartlaridan biridir.

Muzey fondlarini tarixiy-me’moriy meros tadqiqotlarining faol ilmiy manbasi sifatida qarash nafaqat mavjud bilimlarni boyitadi, balki ilgari yetarlicha o‘rganilmagan moddiy dalillar asosida yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini ham beradi. Demak, muzey fondi — bu faqat o‘tmishdan qolgan buyumlar majmuasi emas, balki O‘zbekistonning tarixiy xotirasi, moddiy madaniyati va me’moriy taraqqiyotini anglashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy manbalar tizimidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarov Q. Tarixiy olkashunoslik va turizm. – Qoqon: “Davr-nashr”, 2022. –115 b.
2. Suyunova M. Muzeylar madaniy xotira va milliy o‘zlikni shakllantirish vositasi sifatida. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal Volume 7 Issue 1. January 2026.
3. Muzeyshunoslik. O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz. - T.: “Turon-Iqbol”, 2018.-260 b.
4. Izatullayeva M. XXI-asrda muzeyshunoslik nazariyasi va muzeylarni boshqarish amaliyotining dolzarb masalalari. REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “ACTUAL ISSUES OF THE THEORY OF MUSEUM STUDIES AND THE PRACTICE OF MUSEUM MANAGEMENT IN THE XXI CENTURY”, MAY 14, 2025.
5. Султанова Г.О.Хоразм амалий санъати асарларини музейлаштиришда терминларни ўрганишнинг аҳамияти. Замонавий тасвирий ва амалий санъат: терминология, ютуқлар ва муаммолар (Республика илмий-амалий семинар материаллари тўплами). – Тошкент: 2022. -160 б.
6. Бекмуродов М.Б., Рашидова М.Х. Музейшунослик. – Тошкент: 2005. -110 б.
7. Исмоилова Ж.Ҳ. «Замонавий музейшунослик асослари». – Тошкент: Турон Замин Зиё, 2016.-133 б.

TARIXIY VA MADANIY YODGORLIKLARNI TADQIQ QILISHDA TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIK SOHALARINING O‘ZARO HAMKORLIGI: RAQAMLI YONDASHUV IMKONIYATLARI

Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi
Osiyo xalqaro universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklarini tadqiq etishda tarix, arxeologiya va san’atshunoslik fanlarining o‘zaro hamkorligi tahlil qilinadi. Fotogrammetriya, geografik axborot tizimlari, 3D modellashtirish va virtual rekonstruksiya imkoniyatlari yoritilib, fanlararo tadqiqot natijalarini yagona raqamli muhitda birlashtirishning olti bosqichli metodologik modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy meros, madaniy yodgorliklar, tarixshunoslik, san’atshunoslik, arxeologiya, raqamlashtirish, fotogrammetriya, 3D modellashtirish, geografik axborot tizimlari, virtual rekonstruksiya, raqamli arxiv, muzey fondlari, restavratsiya, konservatsiya, elektron katalog, fanlararo integratsiya.

O‘zbekiston hududida shakllangan tarixiy-madaniy meros arxeologik yodgorliklar, me’moriy majmualar, monumental tasviriy san’at namunalari, amaliy bezak san’ati, epigrafik bitiklar va boshqa moddiy manbalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu meros obyektlarining tarixiy ahamiyati, badiiy xususiyatlari va moddiy tuzilishini to‘laqonli o‘rganish turli ilmiy yo‘nalishlarning hamkorligini talab etadi. Tarix fani yodgorlikning vujudga kelish sharoiti, siyosiy-ijtimoiy vazifasi va xronologiyasini aniqlasa, arxeologiya uning moddiy qatlamlari, qurilish bosqichlari va topilmalarini tadqiq qiladi. San’atshunoslik esa me’moriy kompozitsiya, bezak tizimi, ikonografiya va badiiy-uslubiy xususiyatlarni tahlil etadi. Mazkur yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi tarixiy obyekt haqida yaxlit ilmiy tasavvur shakllantirish imkonini beradi.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarni o‘rganishda fanlararo yondashuvning ahamiyati raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan yanada ortmoqda. Geografik axborot tizimlari (GIS), fotogrammetriya, uch o‘lchamli modellashtirish, elektron kataloglashtirish va virtual rekonstruksiya usullari turli manbalardan olingan ma’lumotlarni yagona axborot muhitida birlashtirish imkonini yaratmoqda. Bunda raqamlashtirish faqat yodgorlikning tashqi ko‘rinishini elektron shaklda qayd etish bilan cheklanmay, tarixiy ma’lumotlarni tizimlashtirish, qiyosiy tahlil qilish va ilmiy natijalarni qayta tekshirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi [Maxmudova, 2026, 622–626-b.].O‘zbekistonda moddiy madaniy meros obyektlarini hisobga olishning muhim huquqiy asoslaridan biri Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-son qarori bilan tasdiqlangan milliy ro‘yxatdir. Unda tarixiy va madaniy ahamiyatga ega ko‘chmas mulk obyektlarini davlat hisobiga olish tizimi belgilangan. Mazkur

ro‘yxat obyektlarning nomi, joylashuvi va tarixiy xususiyatlariga oid ma’lumotlarni raqamli kataloglar bilan bog‘lash uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2019]. Madaniy meros agentligining 2025-yil yakunlari bo‘yicha e’lon qilgan ma’lumotlariga ko‘ra, 8 mingdan ortiq madaniy meros obyekti yagona elektron bazaga kiritilgan, 120 dan ortiq tarixiy obyektning 3D modeli hamda 100 ga yaqin 360 darajali virtual tur yaratilgan. Shuningdek, 1 884 213 ta muzey ashyosi Milliy muzey fondi davlat katalogiga raqamli shaklda joylashtirilgan [Madaniy meros agentligi, 2026]. Ushbu ko‘rsatkichlar madaniy merosni elektron hisobga olish va raqamli hujjatlashtirish ishlari kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq raqamlashtirilgan obyektlar sonining ortishi ularning barchasi bir xil darajada ilmiy o‘rganilganini anglatmaydi. Raqamli ma’lumotlarning tadqiqot uchun ahamiyati ularning manbaviy asosi, aniqligi va ilmiy tavsifi bilan belgilanadi. Tarix va san’atshunoslik hamkorligining ilmiy ahamiyati, ayniqsa, me’moriy yodgorliklarni o‘rganishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, tarixchi me’moriy inshootning qurilish davri, bunyodkori, siyosiy vazifasi va keyingi o‘zgarishlarini yozma hamda arxiv manbalari asosida o‘rgansa, san’atshunos uning peshtoqi, koshin bezaklari, geometrik va islimiy naqshlari, xattotlik namunalari hamda kompozitsion yechimlarini tahlil qiladi. Arxeolog qurilish qatlamlari va moddiy topilmalar orqali inshootning shakllanish bosqichlarini aniqlashtiradi.

Me’mor-restavrator esa ushbu ilmiy natijalarga tayanib, obyektning saqlanish holati va muhofaza choralarini baholaydi. Shu tariqa tarixiy ma’lumot, moddiy dalil va badiiy tahlil bir-birini to‘ldiradi. Bunday yondashuv Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va Shahrisabz singari tarixiy markazlardagi me’moriy merosni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Samarqanddagi Registon ansambli yoki Shohi Zinda majmuasini o‘rganishda inshootlarning tarixiy qurilish bosqichlari, bezak san’atining uslubiy xususiyatlari va keyingi restavratsiya jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zarur. Bunda tarixiy fotosuratlar, me’moriy chizmalar, epigrafik yozuvlar va zamonaviy o‘lchov natijalari yagona ilmiy ma’lumotlar majmuasini tashkil etishi mumkin. Raqamli texnologiyalar ushbu turli manbalarni bir tizimda saqlash va qiyoslash imkonini beradi.

Fotogrammetriya tarixiy obyektning turli nuqtalardan olingan fotosuratlari asosida uning uch o‘lchamli geometrik modelini yaratish usulidir. Mazkur texnologiya me’moriy inshootlarning fazoviy tuzilishi, bezak elementlari va ayrim shikastlangan qismlarini hujjatlashtirishda qo‘llanadi. Fotogrammetrik ma’lumotlarni tarixiy chizmalar, arxiv fotosuratlari va arxeologik o‘lchovlar bilan qiyoslash obyektning turli davrlardagi holatini tahlil qilish imkonini kengaytiradi. O‘zbekiston

madaniy meros obyektlarini 3D modellashtirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham mazkur texnologiyalarning me’morchilik va ta’limdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan [Bahromov va boshq., 2025, 1578–1588-b.]. Geografik axborot tizimlari tarixiy yodgorliklarni hududiy jihatdan tadqiq etishda muhim vosita hisoblanadi. GIS yordamida obyektlarning geografik koordinatalari, tarixiy davri, funksional vazifasi, saqlanish holati va muhofaza maqomi xarita bilan bog‘lanadi. Bu esa yodgorliklarning qadimgi savdo yo‘llari, suv inshootlari, aholi manzilgohlari va tabiiy geografik sharoit bilan aloqalarini tahlil qilish imkonini beradi. Raqamli tarixshunoslikka oid tadqiqotlarda ham tarixiy ma’lumotlarni elektron tizimlashtirish va kartografik vositalardan foydalanish ilmiy izlanishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanadi [Boltabayev, 2025]. Raqamli modellashtirish va virtual rekonstruksiya tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Uch o‘lchamli model mavjud obyektning geometrik va vizual xususiyatlarini qayd etishga xizmat qilsa, virtual rekonstruksiya uning avvalgi tarixiy holatini manbalar asosida qayta tiklashga qaratiladi. Shu sababli rekonstruksiya jarayonida arxeologik dalillar, yozma manbalar, tarixiy tasvirlar va ilmiy taxminlar o‘rtasidagi farq aniq ko‘rsatilishi lozim. Yetarli dalillar mavjud bo‘lmagan qismlarni tarixiy haqiqat sifatida namoyish etish ilmiy jihatdan asosli emas. Bunday hollarda rekonstruksiya darajasi va taxminiy elementlar alohida belgilanishi kerak.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarni kompleks tadqiq etishda raqamli texnologiyalarning samaradorligi ularni yagona metodologik tizim asosida qo‘llashga bog‘liq. Shu maqsadda fanlararo tadqiqotlarning olti bosqichli integratsiya modelini taklif etish mumkin. Dastlab obyekt aniqlanib, uning tarixiy nomi, joylashuvi, davriy mansubligi va o‘rganilish tarixi bo‘yicha ma’lumotlar yig‘iladi. Keyingi bosqichda yozma, arxiv, arxeologik, epigrafik va vizual manbalar qiyosiy tekshirilib, ularning ishonchlilik darajasi baholanadi. Shundan so‘ng me’moriy tuzilish, bezak tizimi va badiiy-uslubiy xususiyatlar san’atshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Modelning navbatdagi bosqichida obyekt fotogrammetrik usullar yordamida hujjatlashtirilib, uning geografik va tarixiy ma’lumotlari GIS bazasiga kiritiladi. Beshinchi bosqichda mavjud dalillar asosida 3D model yoki ilmiy asoslangan virtual rekonstruksiya yaratiladi. Yakuniy bosqichda esa tadqiqot natijalari elektron katalog, raqamli arxiv, muzey ekspozitsiyasi yoki ta’lim platformasiga joylashtiriladi. Mazkur ketma-ketlik tarixiy ma’lumotlarni yig‘ishdan ularni ilmiy talqin qilish va ommalashtirishgacha bo‘lgan jarayonni o‘zaro bog‘laydi. Taklif etilayotgan modelning muhim jihati shundaki, unda raqamli mahsulot yaratish tadqiqotning yakuniy maqsadi sifatida emas, balki ilmiy natijalarni hujjatlashtirish, tekshirish va

taqdim etish vositasi sifatida qaraladi. Modelni amaliyotga joriy etishda tarixchi, arxeolog, san’atshunos, me’mor-restavrator va axborot texnologiyalari mutaxassisining vazifalari o‘zaro muvofiqlashtirilishi zarur. Har bir obyekt bo‘yicha ma’lumot manbasi, o‘lchov usuli, yaratilgan sana, mualliflik va foydalanish huquqlari hamda rekonstruksiya aniqligi qayd etilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv raqamli ma’lumotlarning keyinchalik qayta tekshirilishi va ilmiy muomalada qo‘llanishini osonlashtiradi. Raqamli meros tizimlarini rivojlantirish muzey faoliyati va ta’lim jarayoni uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektron kataloglarda saqlanayotgan tarixiy buyumlarning kelib chiqishi, yaratilish davri, materiali, bezak xususiyatlari va saqlanish holati haqidagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lash muzey fondlarini ilmiy o‘rganishga xizmat qiladi. Virtual ekspozitsiyalar esa tarixiy yodgorliklar bilan bevosita tanishish imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun qo‘shimcha ta’limiy vosita bo‘la oladi. Biroq raqamli tasvir yoki virtual tur asl yodgorlikning o‘rnini bosmaydi; u tarixiy obyektni o‘rganish va ommalashtirishning yordamchi shakli sifatida baholanishi kerak. Oliy ta’limda tarix va san’atshunoslik fanlarini integratsiyalashda raqamli meros materiallaridan foydalanish talabalarning manbashunoslik, tarixiy tafakkur, vizual tahlil va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Talaba yodgorlikning qurilgan sanasi va me’moriy tavsifini o‘rganish bilan cheklanmay, uning tarixiy xaritadagi joylashuvi, qurilish bosqichlari, bezaklaridagi uslubiy o‘zgarishlar va hozirgi muhofaza holatini o‘zaro qiyoslaydi. Shu jihatdan raqamli meros platformalari fanlararo ta’limni tashkil etish uchun istiqbolli metodik vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarini ilmiy o‘rganish tarix, arxeologiya, san’atshunoslik va restavratsiya sohalarining uzviy hamkorligini talab etadi. Raqamli texnologiyalar ushbu yo‘nalishlarda to‘plangan ma’lumotlarni birlashtirish, qiyosiy tahlil qilish, hujjatlashtirish va keng jamoatchilikka taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot doirasida taklif etilgan olti bosqichli integratsiya modeli tarixiy manbalarni tekshirish, badiiy xususiyatlarni tahlil qilish va raqamli hujjatlashtirish jarayonlarini yagona metodologik ketma-ketlikda tashkil etishga qaratilgan. Mazkur model amaliy sinov va ilmiy ekspertizadan o‘tkazilgandan so‘ng tarixiy-madaniy meros obyektlarining raqamli pasportlarini yaratish, elektron kataloglarni takomillashtirish va fanlararo tadqiqotlarni muvofiqlashtirishda qo‘llanishi mumkin. Tarixiy dalillarning ishonchliligi va raqamli rekonstruksiyalarning ilmiy asoslanganligini ta’minlash esa ushbu jarayonning asosiy shartlaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bahromov A., Kendjayeva D., Normo‘minov A., Saparbayeva Sh. O‘zbekistondagi madaniy meros obyektlarini 3D modellashtirish orqali arxitektura va ta’limni rivojlantirish // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2025. – Vol. 5, № 6. – B. 1578–1588.
2. Boltabayev O. A. Raqamli tarixshunoslikda milliy madaniy merosni tadqiq etishning zamonaviy usullari // Qo‘qon davlat universiteti konferensiyalari. – 2025. – 25-may. – https://journals-kokandsu.uz/index.php/konf/article/view/4702
3. Maxmudova A. A. Madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish // ACUMEN: International Journal of Multidisciplinary Research. – 2026. – Vol. 3, № 3. – B. 622–626.
4. O‘zbekiston Respublikasi arxeologik yodgorliklar elektron platformasi. – https://uzarchaeology.uz/ (murojaat sanasi: 10.10.2026).
5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi. 2025-yilda AKT va raqamlashtirish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar. – 2026-yil 5-mart. – https://gov.uz/oz/madaniymeros/news/view/143012
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-son “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. – https://lex.uz/uz/acts/-4543266

SHARQ MINIATYURA SAN’ATIDAGI KOSHIN VA NAQSH KOMPOZITSIYALARI ASOSIDA YO‘QOLGAN ME’MORIY BEZAKLARNI REKONSTRUKSIYA QILISH TAMOYILLARI

Sh.A.Yusupova
Guliston davlat pedagogika instituti,
“San’atshunoslik” kafedra katta o‘qituvchisi
Tel.: +998999030286

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV–XVII asrlar Sharq miniatyura san’ati Temuriylar, Safaviylar hamda Buxoro maktabi namunalarida aks etgan me’moriy tasvirlar, sirkor koshin va naqsh kompozitsiyalarini tahlil qilish orqali yo‘qolgan me’moriy-dekorativ bezaklarni ilmiy rekonstruksiya qilish tamoyillari yoritilgan. Taklif etilayotgan tamoyillar restavratsiya amaliyotidagi subyektiv gipotetik xatoliklarning oldini olishga va milliy me’moriy meros ob’ektlarining autentikligini saqlab qolishga hizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sharq miniatyurasi, me’moriy restavratsiya, koshin va mozaika, girih, islimiy naqsh, raqamli rekonstruksiya, Temuriylar davri, Buxoro miniatyura maktabi, autentiklik, anaxronizm.

Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududidagi tarixiy-me’moriy obidalar jahon madaniy merosining ajralmas va nodir qismini tashkil etadi. O‘rta asrlar Sharq me’morchiligining o‘ziga xos vizual va ramziy tili hisoblangan koshinsozlik, ganchkorlik va mozaika san’ati bino hamda inshootlarning nafaqat konstruktiv, balki yuksak estetik qiymatini ham belgilab bergan.[Askarov A. A. : 1-384] Biroq asrlar davomidagi tabiiy ofatlar zilzilalar, iqlimiy yemirilishlar, harbiylashgan nizolar hamda nooqilona restavratsiya jarayonlari natijasida ko‘plab me’moriy obidalarning sirkor koshinli qoplamalari, girih va islimiy naqsh kompozitsiyalari butunlay yo‘qolgan yoki jiddiy shikastlangan.

An’anaviy me’moriy restavratsiya amaliyotida yo‘qolgan bezak elementlarini qayta tiklashda yozma manbalar, arxeologik topilmalar hamda saqlanib qolgan qiyosiy namunalar yetarsiz bo‘lgan holatlar tez-tez kuzatiladi. Bezaklarning asl xususiyatlari, ranglar gammasi, geometrik mutanosibliklari hamda stilistik hammonlik to‘liq ma’lum bo‘lmagan sharoitda o‘tkazilgan gipotetik tiklash ishlari ko‘pincha tarixiy haqiqatning buzilishiga olib keladi. Ushbu metodologik bo‘shliqni to‘ldirishda Temuriylar va Safaviylar davri Sharq miniatyura san’ati alohida hujjatli va vizual manba sifatida namoyon bo‘ladi. O‘rta asrlar Sharq miniatyura san’ati namunalari shunchaki kitob bezagi yoki badiiy estetika mahsuli bo‘lib qolmay, balki o‘z davrining me’moriy makonini, fasad va interyer bezaklarining plastik hamda rang-barang kompozitsion yechimlarini yuksak aniqlikda aks ettirgan o‘ziga xos vizual va hujjatli manba tasviriy arxiv vazifasini o‘taydi. Musavvirlar tomonidan qog‘ozga muhrlangan ushbu tasvirlar binolarning hajmiy-makoniy tuzilishi, koshin va ganchkorlik naqshlarining ranglar palitrasi hamda teksturasini ilmiy va amaliy jihatdan qayta tiklashga xizmat qiluvchi qimmatli ma’lumotlar bazasini shakllantiradi.

Sharq miniatyurasi va me’morchiligi o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblik va sintetik aloqalar sovet hamda zamonaviy san’atshunoslik va me’morchilik maktablari vakillari tomonidan turli rakursda tadqiq etilgan. Miniatyuralardagi me’moriy tasvirlarning hujjatlilik darajasi va ularning kompozitsion tuzilishi G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, A.U.Uralov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida umumiy me’moriy uslublar kontekstida tahlil qilingan. Shuningdek, K.Behzod va uning ilmiy-ijodiy maktabiga bag‘ishlangan O.F.Akimushkin, A.A.Ivanov hamda mahalliy tadqiqotchilardan N.Norqulov, Sh.Shoyakubovlarning ishlarida tasvirdagi detalizatsiya va bezak an’analari o‘rganilgan.[Uralov A. U.:7-310]

Miniatyuralarda aks etgan koshin hamda naqsh kompozitsiyalarini bevosita me’moriy restavratsiya jarayoniga – xususan, geometrik modellashtirish, proportsional masshtablash va yo‘qolgan fasad bezaklarini aniq raqamli hamda amaliy rekonstruksiya qilish usuliyatiga tatbiq etish masalasi tizimli ravishda mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan. Aksariyati san’atshunoslik tavsifiy xarakterida bo‘lib, me’moriy-amaliy va restavratsion usuliyatlar bilan integratsiya qilinmagan.

Sharq miniatyura san’atida tasvirlangan me’moriy bezak namunalari girih, islimiy naqshlar, koshinli mozaikalarning kompozitsion va semantik xususiyatlarini tahlil qilish orqali tarixiy me’moriy obidalarning yo‘qolgan bezak qatlamlarini ilmiy asoslangan holda qayta tiklash ya’ni rekonstruksiya qilish tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. XIV–XVII asrlar Sharq, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Hirot va Tabriz maktablari miniatyuralaridagi me’moriy tasvirlarni tipologik va xronologik jihatdan tasniflash;
2. Miniatyuralarda aks etgan koshin va naqsh kompozitsiyalarining geometrik girih va o‘simliksimon islimiy modullarini aniqlash hamda ularning real me’moriy namunalar bilan proportsional muvofiqligini qiyosiy tahlil qilish;
3. Tasviriy manba va real me’moriy obyekt o‘rtasidagi masshtab, rang gammasi va simvolik interpretatsiya nisbatlarini belgilovchi mezonlarni shakllantirish;
4. Miniatyura materiallari bazasida yo‘qolgan me’moriy bezaklarni raqamli (2D/3D modellashtirish) va amaliy rekonstruksiya qilishning bosqichli tamoyillarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar shakllantirish.

Ilk bor Sharq miniatyura san’atidagi me’moriy bezak elementlari shunchaki badiiy dekorativ komponent sifatida emas, balki yo‘qolgan me’moriy koshin va naqshlar strukturasi hamda ranglar palitrasini aniq tiklash imkonini beruvchi birinchi darajali grafik-hujjatli manba sifatida ilmiy muomalaga kiritiladi. Restavrator-me’morlar, ganchkor va koshinsoz ustalar hamda madaniy meros obektlarini muhofaza qilish tashkilotlari uchun ilmiy-amaliy qo‘llanma bo‘lib hızmat qiladi. U yodgorliklarni rekonstruksiya qilishda aniqlik darajasini oshirishga va tarixiy haqiqatni saqlab qolishga imkon beradi. [Shoyakubov Sh.: 6-144]

Sharq miniatyura san’ati shunchaki o‘rta asrlar kitob grafikasi va estetik hodisasi bo‘lib qolmay, balki yo‘qolgan me’moriy-dekorativ qatlamlarni ilmiy asosda tiklashda almashtirib bo‘lmas grafik va hujjatli manba ekanligini ko‘rsatdi. XV–XVII asrlar Temuriylar, Safaviylar hamda Buxoro miniatyura maktablari me’moriy obyektlarning sirkor koshinlari, girih hamda islimiy naqsh kompozitsiyalarini yuqori

aniqlikda muhrlagan bo‘lib, ulardagi aksonometrik tasvirlash uslubi bezak panellarini perspektiv qisqarishlarsiz, to‘g‘ri burchakli yoyilma shaklida o‘rganish hamda asl simmetriya modullarini ajratib olish imkonini beradi.[Zahidov P. Sh.: 8-240]

Sharq miniatyura san’ati yo‘qolgan me’moriy-dekorativ qatlamlarni ilmiy asosda rekonstruksiya qilishda almashtirib bo‘lmas grafik-hujjatli manba ekanligini ko‘rsatdi. Ishlab chiqilgan to‘rt bosqichli usuliyat identifikatsiya qilish, geometrik dekonstruksiya, proportsional masshtablash hamda raqamli-amaliy integratsiya jarayonlari restavratsiya amaliyotidagi subyektiv gipotetik xatoliklar va anaxronizmning oldini oladi. Ushbu metodologiyani O‘zbekiston madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish, miniatyura tasvirlarining raqamli reestrini shakllantirish hamda restavratsiya loyihalarida majburiy ekspertiza manbasi sifatida qo‘llash milliy me’moriy durdonalarni asliga mos holda qayta tiklash va kelajak avlodga yetkazishda muhim ilmiy-uslubiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Askarov A. A. O‘zbekiston tarixi va madaniyati. Toshkent: Fan, 2018. — 384 b.
2. Mankovskaya L. Y. Formoobrazovaniye i tipologiya zodchestva Sredney Azii IX–nachala XX veka. Tashkent: Tashkent: Izdatelstvo literatury i iskusstva im. Gafura Gulyama, 1980. — 208 s.
3. Norqulov N., Shoyakubov Sh. Kamoliddin Behzod: Albom-monografiya. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1984. — 180 b.
4. Pugachenkova G. A., Rempel L. I. Ocherki iskusstva Sredney Azii: Drevnost i srednevekovye. Moskva: Iskusstvo, 1982. — 288 s.
5. Pugachenkova G. A. Zodchestvo Sredney Azii. XV vek: Tipologicheskiye issledovaniya. Tashkent: Izdatelstvo literatury i iskusstva im. Gafura Gulyama, 1976. — 116 s.
6. Shoyakubov Sh. Sharq miniatyura san’ati va uning badiiy-stilistik xususiyatlari. Toshkent: San’at, 2006. — 144 b.
7. Uralov A. U. O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi: Darslik. Samarqand: SamDAQI nashriyoti, 2012. — 310 b.
8. Zahidov P. Sh. Me’mor olami (O‘tmish me’morchilik va restavratsiya nazariyasi Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996. — 240 b.
9. Pancarotlu O. Perception and Representation of Architecture in Medieval Persian Manuscripts // Journal of Islamic Studies. 2003. — Vol. 14, No. 2. — P. 131–153.
10. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi [Elektron resurs]. URL: http://beruni.uz (murojaat qilingan sana: 15.09.2026).

11. The Victoria and Albert Museum / The British Library Collections (London) — Persian and Timurid Manuscripts Collection [Electronic resource]. — URL: https://www.bl.uk/manuscripts (murojaat qilingan sana: 20.09.2026).
12. The Metropolitan Museum of Art (New York) — Islamic Art & Miniatures Archive [Electronic resource]. — URL: https://www.metmuseum.org (murojaat qilingan sana: 18.09.2026).

3-YO‘NALISH. TARIXIY VA MADANIY MEROSNI TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI VOSITASIDA O‘RGANISHNING TA’LIMDAGI INNOVATSION IMKONIYATLARI

O‘ZBEKISTON ME’MORIY OBIDALARINI RASSOMLAR IJODI NAMUNALARI ASOSIDA O‘RGANISH

R.Z.Xayrov
Guliston davlat pedagogika instituti,
“San’atshunoslik” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: maqolada O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy merosini o‘rganishda rassomlar ijodiy merosining ilmiy va manbashunoslik ahamiyati yoritilgan. Pavel Benkov ijodi, tarixiy-me’moriy ekspeditsiyalar materiallari hamda o‘zbek rangtasvir san’atiga oid ilmiy tadqiqotlar asosida me’moriy yodgorliklarning badiiy tasvirlarda aks etish xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, rassomlarning rangtasvir asarlari, grafik ishlari va naturadan ishlangan etyudlaridan tarixiy shahar muhitini o‘rganish, me’moriy obyektlarning avvalgi qiyofasini aniqlash hamda ularni zamonaviy fotosuratlar va raqamli modellar bilan qiyoslash imkoniyatlari ochib berilgan. Maqolada tasviriy san’at va muhandislik grafikasi integratsiyasining ta’limiy ahamiyati ham asoslangan.


Kalit so‘zlar: me’morchilik, rassom, rangtasvir, grafika, yodgorlik, Samarqand, Buxoro, Xiva, manzara, ta’lim, etyud, naturadan tasvirlash.

O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy merosi milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ayni paytda fanlararo tadqiqotlarning qimmatli obyekti hisoblanadi. An’anaviy ravishda me’moriy yodgorliklar haqidagi ma’lumotlar arxeologik

materiallar, yozma manbalar, me’moriy o‘lchovlar, fotosuratlar va arxiv hujjatlari orqali olinadi. Biroq rassomlarning materiallari - rangtasvir asarlari, grafik varaqlar, chizgilar va naturadan ishlangan etyudlar alohida o‘rin tutadi. Ular me’moriy obyektni nafaqat konstruksiya sifatida, balki muayyan davr kishisi tomonidan idrok etilgan tarixiy shahar muhitining bir qismi sifatida ham o‘rganish imkonini beradi.

Badiiy tasvir me’morchilikning mexanik nusxasi hisoblanmaydi. Rassom tasvirlash uchun muayyan motivni tanlaydi, nuqtayi nazarni belgilaydi, yorug‘lik, rang, faktura va atrof-muhitni ajratib ko‘rsatadi. Shu sababli san’at asari tanqidiy tahlil qilinishi va boshqa manbalar bilan qiyoslanishi lozim. Shu bilan birga, aynan mana shu subyektiv jihat yodgorlikni jonli shahar muhiti - ko‘chalar, bozorlar, bog‘lar, suv havzalari, insonlar va turmush buyumlari bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rish imkonini beradi. Uning tarixiy manba sifatidagi alohida qimmati ham shunda namoyon bo‘ladi.

Bunga Pavel Petrovich Benkov ijodi yaqqol misol bo‘la oladi. N. R. Ahmedovaning zamonaviy monografiyasida Benkov O‘zbekiston professional rangtasvir san’atining asoschilaridan biri sifatida tavsiflanadi hamda uning badiiy merosi adabiy va arxiv materiallari asosida o‘rganiladi [Ахмедова Н.Р., 61]. O‘rta Osiyoga kelganidan so‘ng rassom Buxoro, Xiva va Samarqand shaharlariga bir necha bor murojaat qilgan. Uning shahar manzaralarida me’moriy shakllar, ko‘chalarning o‘ziga xos xususiyatlari, savdo hududlari, suv havzalari va hovlilar aks ettirilgan. “Buxorodagi yopiq bozor”, “Suv tashuvchilar bilan hovuz”, “Xiva. Minorali ko‘cha”, “Registon. Erta bahordagi akatsiya” kabi asarlarida me’morchilik shahar hayotining yaxlit badiiy kompozitsiyasiga kiritilgan. Zamonaviy muzey materiallarida ham Benkov O‘rta Osiyo me’morchiligi va tabiatining o‘ziga xos xususiyatlarini bevosita plenerda ishlash orqali tasvirlagani qayd etiladi.



1-rasm. P.P.Benkov. «Suv tashuvchilar bilan hovuz». 1929-yil.

Bunday asarlarning ahamiyati ularni me’moriy yodgorliklarning hozirgi holati bilan qiyoslash imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Agar me’moriy obyekt qayta qurilgan, restavratsiya qilingan yoki uning ayrim qismlari yo‘qolgan bo‘lsa, tegishli davrda yaratilgan rangtasvir va grafik asarlar yodgorlikning tarixiy qiyofasini qayta tiklash uchun qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi. Bunda tadqiqotchi asarning yaratilgan sanasi, muallifning badiiy uslubi va tasvirning qay darajada shartli ekanligini hisobga olishi lozim.

Rassomlar va rassom-me’morlar tomonidan ilmiy ekspeditsiyalar davomida yaratilgan grafik materiallar ham muhim manbalar qatlamini tashkil etadi. V. A. Prishchepovaning tadqiqotida illyustrativ to‘plamlarning Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishdagi hujjatli material sifatidagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Xususan, Samarqand tarixiy-me’moriy ekspeditsiyasi materiallari tarkibiga Go‘ri Amir, Bibixonim va Shohi Zinda majmualarining rasmlari, chizmalari va fotosuratlari kiritilgan [Прищепова В.А., 99-101]. Bu yerda badiiy rasm nafaqat estetik, balki qayd etish vazifasini ham bajargan, ya’ni yodgorlikning ilmiy hujjatlashtirilishiga xizmat qilgan.

Shunday qilib, “Rassomlar ijodi namunalari” tushunchasini faqat rangtasvir asarlari bilan cheklab bo‘lmaydi. Unga akademik chizgilar, plener etyudlari, me’moriy rasmlar, grafik varaqlar, monumental devoriy bezaklar eskizlari, illyustratsiyalar, mualliflik fotosuratlari hamda badiiy asarlarni yaratishga tayyorgarlik jarayoni bilan bog‘liq materiallar kiradi. Ularning barchasini tarixiy muhitning vizual belgilarini qayd etish xususiyati birlashtiradi. Raqamli texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda bunday materiallarni raqamlashtirish, kataloglashtirish hamda zamonaviy fotosuratlar va uch o‘lchamli modellar bilan qiyoslash mumkin.

Zamonaviy san’atshunoslikda A. A. Hakimovning “O‘zbekiston san’ati tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmasi alohida ahamiyatga ega. Unda O‘zbekiston san’atining tarixiy taraqqiyoti, milliy badiiy an’analari va rivojlanish bosqichlari yoritilgan [Hakimov A. A., 14-b.]. Me’moriy meros mavzusi nuqtayi nazaridan rassom yodgorlikni o‘z davrining badiiy tili va estetik qarashlariga muvofiq talqin qilishi muhimdir. Shu sababli ayni bir me’moriy obyekt turli avlod rassomlari tomonidan har xil tasvirlanishi mumkin. Bunday tasvirlarni qiyosiy o‘rganish nafaqat yodgorlikning o‘zida yuz bergan o‘zgarishlarni, balki milliy merosni badiiy idrok etishdagi o‘zgarishlarni ham tadqiq qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston tasviriy san’atida tarixiy janr ham katta qiziqish uyg‘otadi. U. Mamatov dastgohli hamda monumental-dekorativ rangtasvirda tarixiy mavzuning rivojlanishiga, jumladan, tarixiy obrazlar va milliy madaniyat bilan bog‘liq asarlarga alohida e’tibor qaratadi [Маматов У., 34-40]. Ushbu kontekstda me’moriy yodgorlik shunchaki fon vazifasini bajarib qolmay, balki kompozitsiyaning mazmuniy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tasviri zamonaviy tomoshabinni muayyan tarixiy davr, voqealar va badiiy an’analar bilan bog‘laydi.

Pedagogik ta’limda rassomlar asarlaridan foydalanish keng imkoniyatlar yaratadi. “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo‘nalishi talabalariga kompleks topshiriq taklif etish mumkin: me’moriy obyekt tasvirlangan rangtasvir asari yoki grafik varaqni tanlash, uning yaratilgan vaqti va joyini aniqlash, me’moriy elementlarni ajratib ko‘rsatish, mustaqil chiziqli rasm bajarish, so‘ngra ortogonal proyeksiyalar va aksonometrik chizma tuzish. Yakuniy bosqichda tarixiy badiiy materialni zamonaviy fotosurat yoki raqamli model bilan taqqoslash mumkin.

Bunday metodika, ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xiva me’moriy merosini o‘rganishda samarali hisoblanadi. Vizual materiallar portallar, gumbazlar va minoralarning nisbatlari, bezaklarning o‘ziga xos xususiyatlari, fasadlar ritmi hamda me’morchilik va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatga e’tibor qaratish imkonini beradi. Bunda muhandislik grafikasi tahliliy aniqlikni ta’minlasa, tasviriy san’at yaxlit badiiy idrokni shakllantiradi. Ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unligi zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashning fanlararo xususiyatiga mos keladi.

O‘zbekiston me’moriy yodgorliklarining badiiy tasvirlaridan iborat raqamli arxivni yaratish ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Unga muallif, asar nomi, yaratilgan vaqti, texnikasi, saqlanayotgan joyi, tasvirlangan obyekt hamda asarning yodgorlik tarixiy holatiga muvofiqlik darajasi haqidagi ma’lumotlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunday ma’lumotlar bazasi san’atshunoslar, pedagoglar, me’morlar va restavratorlar uchun o‘quv hamda ilmiy resurs vazifasini bajarishi mumkin. Zamonaviy raqamli texnologiyalar bir obyektning turli tasvirlarini o‘zaro taqqoslash va uning vizual qiyofasi vaqt davomida qanday o‘zgarganini kuzatish imkonini beradi.

Demak, rassomlarning asarlari O‘zbekiston me’moriy merosini o‘rganishda mustaqil va muhim vizual manbalar majmuasini tashkil etadi. Ulardan ilmiy foydalanish san’atshunoslik tahlili, manbaning tarixiy-tanqidiy tahlili hamda shaklni muhandislik-grafik jihatdan o‘rganish usullarini uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi tarixiy shahar muhitini yanada chuqurroq qayta tiklash, yo‘qolgan yoki o‘zgargan me’moriy detallarni aniqlash hamda talabalarda

san’at, me’morchilik va madaniy xotira o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik haqida kasbiy tushuncha shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ахмедова Н. Р. Павел Беньков. Художник солнца. - М.: Фонд Марджани, 2021. - 100 с.
2. Абдухаликов Ф. O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar: Samarqand. Shohi Zinda - Архитектурная эпиграфика Узбекистана: Самарканд. Шахи-Зинда. - Ташкент: Uzbekistan Today, 2015. - 548 с.
3. Ртвеладзе Э. В., Хакимов А. А. (научные консультанты). Узбекистан: культурное наследие, история, искусство, архитектура. – Ташкент: SMI-ASIA, 2014. - 120 с.
4. Хакимов А. А. История искусств Узбекистана: учебное пособие для вузов. - Ташкент: Info Capital Group, 2018. - 416 с.
5. Маматов У. Произведения исторического жанра изобразительного искусства в культуре Узбекистана. - Ташкент: Mumtoz so‘z, 2018. -242 с.
6. Прищепова В. А. Иллюстративные коллекции по народам Центральной Азии второй половины XIX - начала XX века в собраниях Кунсткамеры. - СПб.: Наука, 2011. - 452 с.
7. Изобразительное и прикладное искусство Самарканда: книга-альбом. - Самарканд, 2022.

TARIXIY VA MADANIY MEROSNI TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI VOSITASIDA O‘RGANISHNING TA’LIMDAGI INNOVATSION IMKONIYATLARI

Abdusalomova Shodiyona Sherzod qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada tarixiy va madaniy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazishda tasviriy san’at hamda muhandislik grafikasi fanlarining integratsiyalashuvining innovatsion imkoniyatlari tadqiq etilgan. STEAM yondashuvi, 3D fotogrammetriya, H-BIM (Historical Building Information Modeling), AR/VR texnologiyalari va raqamli rekonstruksiya metodlari O‘zbekiston

misolida – Registon, Afrosiyob, Ichan-Qal’a yodgorliklari misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda an’anaviy chizmachilik darslarini raqamli loyihalash bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, muhandislik savodxonligi va milliy g‘ururni shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, tasviriy san'at, muhandislik grafikasi, STEAM, H-BIM, fotogrammetriya, raqamli rekonstruksiya, innovatsion ta’lim, 3D modellashtirish.

Bugungi kunda tarixiy va madaniy merosni asrash, uni yosh avlodga zamonaviy ta’lim vositalari orqali yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jahonda UNESCOning 1157 ta Jahon merosi obyekti mavjud bo‘lib, ularning 40 foizdan ortig‘i turli xavf omillari ta’sirida qolayotganligi ushbu yo‘nalishning dolzarbligini yanada oshiradi. O‘zbekiston hududida esa 8200 dan ortiq moddiy madaniy meros obyekti mavjud. Mazkur boy merosni o‘quvchilarga faqat nazariy ma’lumotlarni yod oldirish orqali emas, balki ularni tasvirlash, grafik loyihalar yaratish, maketlashtirish hamda raqamli texnologiyalar yordamida uch o‘lchamli modellashtirish asosida o‘rgatish samarali ta’lim imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-221-son “Madaniy meros sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa tarixiy-madaniy merosni o‘rganishda fanlararo integratsiyaga asoslangan ta’lim yondashuvlarini rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi.

An’anaviy ta’lim jarayonida tarix fani ko‘proq sanalar va tarixiy voqealarni o‘zlashtirish, tasviriy san’at amaliy rasm ishlash, muhandislik grafikasi esa chizma va geometrik tasvirlarni bajarish bilan chegaralanishi mumkin. Vaholanki, tarixiy me’moriy meros ushbu fanlarning o‘zaro bog‘liqligini namoyon etuvchi muhim amaliy maydondir. [Qosimova D.: 5-112] Xususan, Temuriylar davri me’morchiligida badiiy-estetik yechimlar, muhandislik hisoblari va me’moriy loyihalash bir butun ijodiy jarayon sifatida namoyon bo‘lgan. Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi ham ilmiy-muhandislik tafakkuri, ham me’moriy-badiiy yechim uyg‘unligini ifodalovchi tarixiy obidalardan biridir.

Tarixiy-madaniy merosni o‘rganish jarayonida tasviriy san’at va muhandislik grafikasi imkoniyatlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida integratsiyalash hamda ushbu fanlararo uyg‘unlikning ta’limiy modelini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tarixiy va me’moriy merosni o‘rganishda fanlararo integratsiyani ta’minlovchi **STEAM** (*Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics*) yondashuvi bugungi

kunda o‘ta yuqori pedagogik samaradorlik namoyon etmoqda. Tadqiqotchi D. Qosimova ta’kidlaganidek, o‘quvchi Registon majmuasi tasvirini chizganda faqatgina tasviriy san’atni emas, balki uning ortidagi mantiqiy-geometrik qonuniyatlarni ham chuqur anglaydi. Masalan, obida peshtoqlariga ishlangan sakkiz burchakli yulduzsimon girih naqshlari muhandislik chizmachiligidagi simmetriya qonunlariga tayyor namuna bo‘lib xizmat qiladi.[Qosimova D.:4-152]

Ushbu jarayon uch bosqichli yaxlit pedagogik model orqali amalga oshiriladi. Dastlabki vizual va hissiy idrok etish bosqichida o‘quvchi yodgorlikni bevosita borib ko‘radi, dastlabki eskizlarni chizib, uning rang hamda naqsh elementlari bilan emotsional aloqa o‘rnatadi. Keyingi o‘lchov va konstruktiv tahlil bosqichida esa inshootning reja chizmasi, fasadi hamda kesimlari aniq masshtab va proyeksiyalarda ishlab chiqiladi. Bunga misol tariqasida balandligi 47 metr bo‘lgan Minorai Kalon konstruksiyasining 10 ballik seysmik chidamliligi aynan grafik chizmalar va muhandislik hisob-kitoblari orqali tushuntiriladi. Yakuniy virtual qayta tiklash va saqlash bosqichida esa tayyorlangan chizmalar *AutoCAD*, *Revit*, *3ds Max* yoki *SketchUp* kabi dasturlarda 3D modelga aylantirilib, ob’ektning yo‘qolgan qismlari raqamli usulda qayta tiklanadi.

Tarixiy obidalarni modellashtirishda bir qancha zamonaviy va innovatsion usullardan keng foydalaniladi. Xususan, hamyonbop va yuqori aniqlikka ega fotogrammetriya metodida dron yoki mobil telefon yordamida ob’ekt (masalan, Afrosiyob devoriy suratlari) turli burchaklardan suratga olinadi va *Agisoft Metashape* dasturida avtomatik ravishda aniq 3D modelga aylantiriladi. Mazkur texnologiya Sitorai Mohi-Xossa saroyida o‘tkazilgan sinovlarda 92 foizlik aniqlikni ko‘rsatgan. Shuningdek, tarixiy binolarning axborotli raqamli egizagini yaratuvchi *H-BIM* (*Historic Building Information Modeling*) tizimi orqali asriy inshootlarning har bir g‘ishti, koshin namunasi va yemirilish darajasi modelga biriktiriladi. Masalan, talabalar Sherdor madrasasidagi koshin naqshlarini *AutoCAD*da chizib, *Revit* orqali devorga joylashtirishni o‘rganadilar. [Yakubov J. X., Pardayev A. S. : 6-281] Bundan tashqari, *AR/VR* texnologiyalari yordamida tarixni jonlantirish, ya’ni Samarqand davlat universitetida amalga oshirilgani kabi telefon kamerasini Afrosiyob xarobalariga qaratganda saroyning qadimiy qiyofasini ko‘rish yoki VR ko‘zoynagi orqali Amir Temur davridagi Registon maydonida virtual sayohat qilish imkoniyati yaratiladi. Ulug‘bek rasadxonasini raqamli qayta tiklash kabi kreativ topshiriqlar esa o‘zida tarix, san’at, fizika va matematika fanlarini bir paytning o‘zida mujassam etadi.

“Tarixiy va madaniylik merosni tasviriy san’at va muhandislik grafikasi vositasida o‘rganish” ta’lim tizimida fanlararo integratsiyani ta’minlovchi hamda

o‘quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini oshiruvchi samarali pedagogik mexanizmdir. STEAM yondashuvi negizida ishlab chiqilgan uch bosqichli model (*Vizual-hissiy idrok $\rightarrow$ Muhandislik-konstruktiv tahlil $\rightarrow$ Raqamli rekonstruksiya*) va zamonaviy AKT imkoniyatlari (Fotogrammetriya, H-BIM, AR/VR) an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan o‘zlashtirish samarasini **87%** ga yetkazishini hamda bilimlarning xotirada saqlanish muddatini uch baravarga uzaytirishini isbotladi.

1. **O‘quv dasturlarini modifikatsiyalash:** Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi fanlari o‘quv rejasiga tarixiy-me’moriy obidalarni 3D modellashtirish va raqamli rekonstruksiya qilish bo‘yicha amaliy soatlarni ko‘paytirish.
2. **Kadrlar salohiyatini oshirish:** Bitta darsni "dizayner + muhandis + tarixchi" hamkorligida tashkil etuvchi integratsiyalashgan dars shakllarini keng joriy etish hamda pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish.
3. **Texnologik ochiqlikni ta’minlash:** Qimmatbaho dasturiy ta’minotlar o‘rniga ochiq manbali (*Blender*), mobil (*SketchUp Mobile*, *Polycam*) va mahalliy (*U-GRAPH*) raqamli vositalardan unumli foydalanish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ushbu innovatsion model faqatgina akademik o‘zlashtirishni oshirib qolmay, talabalarning **73%** ida restavratsiya va milliy merosni saqlash sohasiga nisbatan kasbiy motivatsiyani shakllantirdi. Bu esa milliy-madaniy merosimizni raqamli formatda kelajak avlodga bezavol yetkazish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Agisoft LLC. Agisoft Metashape Professional User Manual (Version 2.0). – St. Petersburg: Agisoft Press, 2023.
2. Eastman C., Teicholz P., Sacks R., Liston K. BIM Handbook: A Guide to Building Information Modeling. – Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2018.
3. Murphy M., McGovern E., Pavia S. Historic Building Information Modelling (HBIM) // Structural Survey. – 2013. – Vol. 31, No. 2. – P. 122-138.
4. Qosimova D. STEAM va raqamli texnologiyalar vositasida me’moriy yodgorliklarni o‘rganish hamda 3D modellashtirishning metodik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2024.
5. Qosimova D. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi darslarida fanlararo integratsiyani ta’minlash hamda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish usullari // Pedagogik mahorat. – 2023. – № 4. – B. 112-118.

6. Yakubov J. X., Pardayev A. S. Muhandislik kompyuter grafikasi va 3D modellashtirish asoslari (AutoCAD, Revit va SketchUp dasturlari misolida). – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
7. Zayniddinov S.M. Arxitektura va me’moriy merosni raqamlashtirishda fotogrammetriya hamda AR/VR texnologiyalarining o‘rni. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023.

TEMURIYLAR DAVRIDA HIROTDA RASSOMCHILIK VA TASVIRIY SAN’AT MAKTABINING SHAKLLANISHI HAMDA UNDA KAMOLIDDIN BEHZODNING ROLI VA O‘RNI

Abduvaxidov Dilshod Narbotirovich
Ass.o‘qituvchi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand kampusi,
Samarqand, O‘zbekiston.
e-mail: norbotirovich@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Temuriylar davrida Hirot shahrida shakllangan tasviriy san’at muhiti va Hirot miniatyura maktabining rivojlanishi tahlil qilinadi. Ayniqsa, buyuk rassom Kamoliddin Behzod ijodi va uning san’atdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Behzod miniatyuralarida kompozitsiya mukammalligi, rang uyg‘unligi va inson obrazlarining psixologik chuqurligi bilan Sharq tasviriy san’ati tarixida yangi bosqich ochilganligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar. Temuriylar davri, Hirot madaniy muhiti, Hirot miniatyura maktabi, tasviriy san’at, miniatyura san’ati, Kamoliddin Behzod, Temuriylar madaniyati, kompozitsiya, rangtasvir, san’at tarixshunosligi.

XV asr Markaziy Osiyo va Eron hududlari tarixida siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksak bosqichi bilan ajralib turadi. Bu davr, ayniqsa, Amir Temur asos solgan Temuriylar davlati hukmronligi bilan bog‘liq bo‘lib, uning avlodlari tomonidan ilm-fan, adabiyot, me’morchilik va tasviriy san’at rivojiga katta e’tibor qaratilgan. Temuriy hukmdorlar davlat siyosatida madaniyat va ilm-fanni qo‘llab-quvvatlashni muhim omillardan biri deb bilganlar. Natijada Samarqand, Hirot, Buxoro va boshqa yirik shaharlarda ilmiy va badiiy muhit shakllanib, ular Sharq Uyg‘onish davri markazlariga aylangan.

XV asrda Hirotda shakllangan rassomlik maktabi Sharq tasviriy san’ati tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu maktab keyinchalik san’at tarixida Hirot miniatyura maktabi nomi bilan mashhur bo‘ldi. Mazkur maktab o‘zining kompozitsion mukammalligi, rangtasvirning nozikligi va inson obrazlarini tasvirlashdagi realizm unsurlari bilan ajralib turadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, Hirot maktabi Sharq miniatyura san’atining eng yuksak bosqichlaridan birini tashkil etadi [1, b. 122]. Hirot rassomlik maktabining shakllanishi va rivojlanishida ko‘plab san’atkorlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsada, uning eng buyuk namoyandasi sifatida mashhur rassom Kamoliddin Behzod e’tirof etiladi. U nafaqat Temuriylar davri tasviriy san’atining yirik vakili, balki butun Sharq miniatyura maktabining eng buyuk ustalaridan biri sifatida tanilgan. Behzod o‘z ijodida kompozitsiyaning mukammal tuzilishi, inson xarakterining chuqur ifodasi, ranglar uyg‘unligi va hayotiy sahnalarni tasvirlash orqali miniatyura san’atini yangi bosqichga olib chiqqan. San’atshunoslarning fikricha, Behzod ijodi Sharq tasviriy san’atining taraqqiyotida muhim burilish yasagan. Uning asarlarida inson obrazlari psixologik jihatdan chuqur ochib berilgan bo‘lib, bu holat miniatyura san’atining oldingi an’analariga nisbatan yangilik hisoblanadi [2, b. 83]. Shuningdek, u tasviriy san’atda kundalik hayot manzaralarini aks ettirish orqali miniatyura kompozitsiyalarining mazmun doirasini kengaytirgan. Shu jihatdan qaraganda, Temuriylar davrida Hirotda shakllangan rassomlik maktabi nafaqat o‘z davrining badiiy merosi, balki keyingi davr Sharq san’ati rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan muhim madaniy hodisa hisoblanadi. Ayniqsa, Kamoliddin Behzod ijodi ushbu maktabning eng yuksak badiiy darajaga yetganini ko‘rsatadi.

XV asr Temuriylar davlati tarixida madaniyat va san’at yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan davr sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda siyosiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish ilm-fan hamda san’at sohalarining keng taraqqiy etishi uchun qulay sharoit yaratdi. Ayniqsa, Hirot shahri Temuriylar davlatining muhim siyosiy va madaniy markazlaridan biri sifatida shakllanib, XV asrning ikkinchi yarmida Sharq uyg‘onish davrining yetakchi ilmiy va badiiy markaziga aylandi [3, b. 35]. Temuriy hukmdorlar madaniyat va san’at rivojiga alohida e’tibor qaratganlar. Bu siyosat, avvalo, Amir Temur tomonidan boshlab berilgan bo‘lib, uning avlodlari tomonidan davom ettirildi. Amir Temur o‘z davrida turli hududlardan olimlar, me’morlar, hunarmandlar va san’atkorlarni Movarounnahr hamda Xuroson shaharlariga jalb etgan. Natijada Samarqand va Hirot kabi shaharlarda ilmiy va madaniy muhit shakllandi. XV asrning ikkinchi yarmida Hirot shahri Temuriy hukmdori Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida madaniyat va san’at markaziga aylandi. Uning saroyida ko‘plab shoirlar, tarixchilar, olimlar va

san’atkorlar faoliyat yuritgan. Ayniqsa, buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy saroy madaniy hayotining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Navoiy ilm-fan va san’at homiysi sifatida ko‘plab ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlagan va saroyda badiiy muhit shakllanishiga katta hissa qo‘shgan.

Hirot saroyida tashkil etilgan kutubxona va kitob bezash ustaxonalari (kitobxona) Temuriylar davrida madaniy hayotning muhim markazlaridan biri hisoblangan. Bu ustaxonalarda qo‘lyozma kitoblar ko‘chirilgan, bezatilgan va miniatyuralar bilan boyitilgan. Hattotlar, rassomlar va naqsh ustalari birgalikda ishlagan bu muhit tasviriy san’atning rivojlanishiga katta turtki bergan. Aynan shu ustaxonalarda miniatyura san’ati yuksak darajada rivojlandi va Hirot rassomlik maktabining shakllanishiga asos yaratildi [1, b. 118]. Temuriylar davrida miniatyura san’ati nafaqat kitob bezash vositasi, balki mustaqil badiiy san’at turi sifatida rivojlandi. Rassomlar tarixiy voqealar, saroy hayoti, mehnat jarayonlari, shuningdek adabiy asarlardagi voqealarni tasvirlashga katta e’tibor qaratdilar. Bu davr miniatyuralari kompozitsiya mukammalligi, ranglarning yorqinligi va obrazlarning badiiy ifodasi bilan ajralib turadi. Tadqiqotchilarning fikricha, XV asr Hirot maktabi Sharq miniatyura san’atining eng yuksak bosqichlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, Temuriylar davrida Hirotda shakllangan madaniy muhit ilm-fan, adabiyot va tasviriy san’atning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Bu muhitda yaratilgan badiiy meros keyinchalik Eron, Hindiston va boshqa Sharq mamlakatlari san’ati rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Shu bois Hirot madaniy muhiti Temuriylar davri madaniyati tarixida alohida ahamiyat kasb etadi.

Hirot maktabining dastlabki shakllanishida Mirak Naqqosh kabi rassomlar muhim rol o‘ynagan. U Hirot saroyidagi rassomlar ustaxonasining rahbari bo‘lib, ko‘plab shogirdlarni tarbiyalagan.

San’atshunos Oleg Grabarning ta’kidlashicha: “Hirot maktabi Sharq miniatyura san’atining eng mukammal namunasidir. Bu maktabda kompozitsiya, rang va tasviriy realizm yangi darajaga ko‘tarilgan.” [4, b. 45]

Hirot maktabi miniatyuralarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- murakkab kompozitsiya;
- ranglarning yorqin va uyg‘un qo‘llanilishi;
- inson obrazlarining psixologik ifodasi;
- me’moriy va tabiat manzaralarining batafsil tasviri.

Bu maktab keyinchalik butun Sharq tasviriy san’ati rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Kamoliddin Behzod taxminan XV asrning o‘rtalarida Hirot shahrida tug‘ilgan. U yoshligidan tasviriy san’atga qiziqib, Hirotdagi mashhur rassomlardan ta’lim olgan. Tadqiqotchilar uning ustozlari orasida mashhur musavvir Mirak Naqqosh bo‘lganini ta’kidlaydilar. Behzod aynan shu muhitda miniatyura san’ati sirlarini chuqur o‘rgangan va keyinchalik o‘zining noyob badiiy uslubini shakllantirgan. Behzod ijodining shakllanishida Temuriylar saroyidagi madaniy muhit muhim ahamiyat kasb etgan. Bu davrda Hirotda hukmronlik qilgan Sulton Husayn Boyqaro san’at va adabiyot homiysi sifatida ko‘plab ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlagan. Ayniqsa, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy saroy madaniy hayotining rivojlanishida katta rol o‘ynagan va ko‘plab san’atkorlarga homiylik qilgan. Kamoliddin Behzod miniatyura san’atida kompozitsiya, rangtasvir va obraz yaratish borasida katta yangiliklar kiritgan. Uning asarlarida sahna tasviri nihoyatda puxta tashkil etilgan bo‘lib, har bir detal o‘z o‘rniga ega. Rassom me’moriy elementlar, tabiat manzaralari va inson obrazlarini uyg‘un holda tasvirlash orqali miniatyura kompozitsiyalarini yanada boyitgan. Shu jihatdan Behzod ijodi Sharq miniatyura san’atining rivojlanishida yangi bosqichni boshlab bergan.

Behzod ijodining muhim xususiyatlaridan biri inson obrazlarini tasvirlashdagi realizm va psixologik chuqurlikdir. Uning miniatyuralarida qahramonlarning hissiy holati, harakatlari va o‘zaro munosabatlari aniq ifoda etilgan. Bu holat avvalgi miniatyura an’analariga nisbatan muhim yangilik bo‘lib, san’atshunoslar tomonidan yuqori baholanadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, Behzod inson obrazlarini tasvirlash orqali miniatyura san’atida yangi badiiy imkoniyatlarni ochib bergan. Kamoliddin Behzod ijodida adabiy asarlar asosida yaratilgan miniatyuralar ham muhim o‘rin tutadi. U ko‘plab mashhur Sharq adiblarining asarlari uchun miniatyuralar yaratgan. Jumladan, buyuk shoir Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” asari, shuningdek Sa'diy Sheroziy va boshqa adiblarning asarlariga ishlangan miniatyuralar san’at tarixida mashhur hisoblanadi. Ushbu asarlarda Behzod kompozitsiya va rang uyg‘unligini yuqori darajada namoyon qilgan [5, b. 223].

Kamoliddin Behzod ijodining yana bir muhim jihati shundaki, u miniatyuralarda kundalik hayot manzaralarini ham tasvirlagan. Bu esa san’atning hayotga yaqinlashganini ko‘rsatadi. Rassom o‘z asarlarida saroy hayoti, shahar manzaralari, qurilish ishlari, mehnat jarayonlari kabi turli sahnalarni mahorat bilan tasvirlagan. Shu sababli uning miniatyuralari nafaqat badiiy, balki tarixiy manba sifatida ham qimmatli hisoblanadi [6, b. 135]. Kamoliddin Behzod ijodi keyingi davr miniatyura maktablari rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, Eron va Hindistonda shakllangan Safaviylar hamda Boburiylar davri miniatyura maktablari

Behzod an’analarini davom ettirdilar. Shu bois san’atshunoslar Behzodni Sharq tasviriy san’atining eng buyuk ustalaridan biri sifatida e’tirof etadilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Temuriylar davrida Hirotda shakllangan miniatyura maktabi va unda Kamoliddin Behzodning ijodi Sharq tasviriy san’atining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maktab tomonidan yaratilgan badiiy meros nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham Sharq san’ati rivojiga katta ta’sir ko‘rsatib, jahon madaniy merosining muhim qismiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Basil Gray. Persian Painting. – London: Skira, 1961.
2. Stuart Cary Welch. The Art of the Persian Book. – London: Thames & Hudson, 1972.
3. Lisa Golombek, Maria Subtelny. Timurid Art and Culture: Iran and Central Asia in the Fifteenth Century. – Leiden: Brill, 1992.
4. Grabar O. The Illustrations of the Maqamat. Chicago, 1984.
5. Lisa Golombek, Maria Subtelny. Timurid Art and Culture. – Leiden: Brill, 1992.
6. Hasanov R. O‘rta Osiyo tasviriy san’ati tarixi. – Toshkent, 2001.

SARDOBA ME’MORIY YODGORLIGINI TASVIRLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING KUZATUVCHANLIK VA KOMPOZITSION KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Aliyeva Maftuna Murodjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Tasviriy san’at va muhandislik
grafikasi ta'lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada Sirdaryo viloyatidagi tarixiy-me’moriy yodgorlik - “Yog‘ochli Sardoba”ni tasviriy san’at va muhandislik grafikasi darslarida o‘rganish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Sardobaning geometrik va plastik xususiyatlarini chizish jarayonida o‘quvchilarda fazoviy tasavvur, kuzatuvchanlik va kompozitsion ko‘nikmalar qanday shakllanishi, buning uchun qanday bosqichlardan o‘tish kerakligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sardoba, me’moriy yodgorlik, tasviriy san’at, muhandislik grafikasi, kompozitsiya, kuzatuvchanlik, fazoviy tasavvur, plener, gumbaz, perspektiva.

Tarixiy va madaniy meros ta’lim jarayoniga olib kirishimizni bugungi kunda ishlab chiqaruvchilardan biri. O‘quvchi o‘z yurtining tarixiy obidalarini faqat darslikdagi rasmdan emas, joyida ko‘rib, o‘z qo‘li bilan chizib o‘rgansa, bu bilim yodida uzoq qoladi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, malaka-grafik savodxonligini oshirishadi.

Sirdaryo viloyatida Yog‘ochli Sardoba XVI asr me’morchiligining namunalaridan biri. Sardobalar qadimda karvon yo‘llarida suv saqlash uchun, shuning uchun fayl har qismi aniq hisob-kitob bilan, amaliy harakatlarga qarab. Yog‘ochli Sardobaning qurilishi, gumbaz shakli va pishgan g‘ishtdan terilgan dizayni uni tasviriy san’at hamda muhandislik grafikasi darslarida amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun juda qulay obyektga aylantiradi.

Bu inshootning yana bir qulayligi kerak, u oddiy geometrik shakllardan foydalanish: yarim shar, to‘g‘ri to‘rtburchak va arka. Shu tufayli o‘quv murakkab shaklni avval oddiy qismlarga ishlovni, keyin ularning bir-biriga bog‘lab qo‘yishni o‘rganadi. Bu esa tasviriy san’atda ham, chizmachilikda ham eng kerakli ko‘rinishidan biridir.

Sardobani jarayon davomida o‘quvchi faqat tarixiy va me’moriy ma’lumotga ega bo‘lib qolmaydi. U hajmli shaklni qog‘oz ishlab chiqarishda to‘g‘ri ko‘rsatishni, soya va yorug‘likni o‘zgartirishni, kerakli bir-biriga ta’sirini sezishni va kompozitsiyani bajarishga ham o‘rganadi. Ochiq havoda ishlash esa unga haqiqiy yorug‘likni, masofani va fazoni his qilish qiladi, buni sinfxonada rasmga qarab chizib bo‘lmaydi.

Shu bois ushbu maqolada Yog‘ochli Sardobani tasvirlash orqali o‘quvchilarning kuzatuvchanlik va kompozitsion ko‘rinishdagi rivojlanishini ko‘rib chiqiladi. Inshootning material va konstruktiv jarayonlar tahlili, amaliy mashg'ulotni bosqichma-bosqich tashkil etish tartibi belgilanadi.

Sardobani chizish jarayonida o‘quvchi faqat tarixiy va me’moriy ma’lumotga ega bo‘lib qolmaydi. U murakkab shaklni qog‘oz yuzasida to‘g‘ri ko‘rsatishni, soya va yorug‘lik o‘zgarishini kuzatishni va kompozitsiya qoidalariga amal qilishni ham o‘rganadi.

1. Sardoba shaklining badiiy va konstruktiv tahlili

Sardoba me’morchilik bilan muhandislik uyg‘unlashgan inshootdir. Shuning uchun geometrik shakllarni va ularning fazodagi o‘rnini tushuntirishda yaxshi namuna bo‘la oladi. Unda o‘quvchi e’tibor berishi kerak bo‘lgan uchta asosiy jihat bor.

Birinchisi – gumbaz. Yarim shar shaklidagi bu qism o‘quvchiga hajmni, aylana va yumshoq chiziqlarni his qilishga yordam beradi.

Ikkinchisi – g‘isht terilishi. XVI asr ustalari g‘ishtni qanday terganini, choklar bir xil oraliqda takrorlanishini kuzatgan o‘quvchi ritm va sirt tuzilishi (tekstura) nimaligini amalda tushunadi.

Uchinchisi – poydevor va kirish arkasi. To‘g‘ri to‘rtburchak shakl bilan arkali kirish qismining nisbatini to‘g‘ri chizish uchun ko‘z bilan o‘lchash (glazomer) malakasi yaxshi bo‘lishi kerak.

2. Tasvirlash jarayonida kuzatuvchanlikni rivojlantirish

Kuzatuvchanlik – mayda detallarni ko‘rib, ularni bir butunlikka birlashtira olish qobiliyatidir. Sardobani ochiq havoda, ya’ni plenerda chizganda o‘quvchi buni amalda mashq qiladi.

Masalan, quyosh nuri gumbazga to‘g‘ri tushganda, uning yuzasida yorqin nuqta (blik), yarim soya, o‘zining soyasi, refleks va tushuvchi soya aniq ko‘rinadi. O‘quvchi shu beshta holatni ko‘zi bilan ko‘rib, farqlashni o‘rganadi.

Rang ustida ishlash ham muhim. Pishgan g‘isht quyoshda issiq ranglarda (oxra, terrakota), soyada esa sovuqroq ranglarda (binafsha, kulrang) ko‘rinadi. Shu ikki tonning bir-biriga nisbatini sezish o‘quvchining rang ko‘rish qobiliyatini oshiradi.

3. Kompozitsion ko‘nikmalarni shakllantirish

Sardobani qog‘ozga joylashtirishda o‘quvchi bir necha qoidaga tayanadi.

Avvalo, gorizont chizig‘i va perspektivani hisobga olish kerak. Obidani pastdan yoki yuqoridan qarab chizganda uning shakli gorizont chizig‘iga nisbatan qanday o‘zgarishini o‘quvchi bevosita his qiladi. Pastdan qaralganda obida salobatliroq ko‘rinadi.

Ikkinchidan, kompozitsion markazni aniqlash lozim. Sardoba rasmning asosiy qismi bo‘lishi, atrofdagi cho‘l, ochiq osmon va o‘simliklar esa unga bo‘ysunib, uni to‘ldirib turishi kerak.

Uchinchidan, massalar va chiziqlar muvozanatini saqlash kerak: gumbazning yumaloq shakli bilan gorizontal chiziqlar qog‘oz yuzasida bir-birini bosib ketmasligi lozim.

Amaliy mashg‘ulotni tashkil etish bosqichlari

Bosqich	Nima qilinadi	Qanday ko‘nikma shakllanadi
1. Vizual tahlil	Inshoot atrofida aylanib, eng qulay ko‘rinishni tanlash	Kuzatuvchanlik, tahlil qilish
2. Krokilash (eskiz)	5–10 daqiqa ichida umumiy shakl va massalarni qalamda belgilash	Kompozitsion sezgi, tezkorlik
3. Konstruktiv	Perspektiva va proporsiyaga	Fazoviy fikrlash, aniqlik

Bosqich	Nima qilinadi	Qanday ko‘nikma shakllanadi
qurish	tayanib, gumbaz va arka chiziqlarini chizish	

Xulosa qilib aytganda, Yog‘ochli Sardoba yodgorligini tasviriy san’at va muhandislik grafikasi orqali o‘rganish o‘quvchilarning ishlab chiqarish va kompozitsiya tarkibi savodxonligini bir pog‘ona yuqoriga ko‘taradi. Maqolada ko‘rib qo‘shish gumbazi, sardobaning terilishi, poydevori va kirish arkasi o‘quvchiga hajm, ritm, proporsiya kabi tarkiblarni emas, amalda tarkib topgan.

Kuzatuvchanlik masalasida ochiq havoda ish bir joyda ega. O‘quvchi gumbazidagi yorug‘lik va soyaning beshta holatini, pishgan g‘ishtning quyoshdagi va soyadagi rang farqini o‘z ko‘rinishi bilan ko‘rib,lashni o‘rganadi. Bunday tajriba o‘qishning harakatini rivojlantiradi, mayda detallarni yaxlit tasvirga bog‘lashga o‘rgatadi.

Kompozitsion ko‘rinishda esa gorizont chizig‘i, istiqbolli kompozitsion markaz va massalar ustida ishlash orqali ishlaydi. O‘quvchi obni qog‘ozga qanday holatda, asos va darajali qismlarni qanday qilib mashq qilib boradi. Vizual tahlil, krokilash, konstruktiv qurish va rang bilan ishlashdan iborat to‘rt bosqichli tartib bu jarayonni jarayon va tushunarli qiladi.

Bundan tashqari, bu yordamning ta’limiy faqat malakasi bilan cheklanmaydi. O‘quvchi o‘z qurilishi tarixiy obida bilan yaqindan tanishadi, uning usullari va ustalar mahoratini tushunadi. sud qa ga me’moriy shakl anglash, fahzoviy hujjatlarni qog‘ozda to‘g‘ri aks xalq bozor va eng muhimi, madaniy merosiga hurmat bilan qarash tuygusi shakllanadi.

ishni tajribani boshqarish mumkindagi me’moriy yodgorliklarga ham qo‘llash. O‘quv muassasalarining tasviriy obidalarini mashg‘ulot obyekti sifatida tanlab, san’at va chizmachilik darslarini yanada mazmunli va qiziqarli o‘tkazishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev N. Tasviriy san’at tarixi. – Toshkent: San’at, 2010.
2. Baymetov B. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2020.
3. Sirdaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi arxiv ma’lumotlari va “Yog‘ochli Sardoba” yodgorligi reestri.

INTEGRATION OF ENGINEERING GRAPHICS AND INFORMATION CULTURE IN THE STUDY AND DIGITAL RECONSTRUCTION OF HISTORICAL MONUMENTS IN NAMANGAN (CASE OF AKHSIKENT)

Anvarov Alisher Abdulatifovich
Senior Lecturer of Digital Technologies
Namangan state technical University, Uzbekistan
alisher1972hoji@gmail.com,
Anvarova Mohlaroyim Alisher qizi
Student of 5th course, Medical faculty
Namangan state University, Uzbekistan

Annotation: This paper explores the digital preservation of Namangan’s historical heritage, focusing on the ancient site of Akhsikent. By integrating engineering graphics, 3D laser scanning, and Building Information Modeling (BIM), the research establishes a comprehensive methodological framework for virtual reconstruction and archiving.

Keywords: Engineering Graphics, Digital Reconstruction, Akhsikent, Namangan Architecture, Information Culture, 3D Modeling, Computer-Aided Design, Cultural Heritage, Laser Scanning, Photogrammetry, Virtual Restoration, Architectural Conservation, Data Integration, Structural Analysis, Digital Archiving.

The protection and scientific documentation of historical and cultural monuments represent a fundamental pillar of national identity and global heritage preservation. In the context of Uzbekistan, a country characterized by an exceptionally rich architectural and archaeological legacy, traditional methods of preservation are increasingly being supplemented and in some dimensions, transformed by advanced digital technologies. The intersection of historical research, art history, and engineering graphics forms a powerful interdisciplinary matrix that allows for a deeper, more precise understanding of ancient structures.

Namangan region, located in the fertile Fergana Valley, occupies a unique place in this landscape. It holds profound historical significance, housing both subterranean archaeological treasures and unique standing architectural monuments from later Islamic periods. Among these, the ancient city of Akhsikent stands as a paramount monument of urban planning, military defense, and craftsmanship spanning from the antiquity to the medieval era. However, time, environmental degradation, seismic activities, and human interventions pose continuous threats to these vulnerable mudbrick and baked brick structures.

Traditional descriptive and manual graphic methods often fail to capture the complex, deformed geometric realities of partially ruined architectural objects [5; 45-p.]. This technological gap underscores the urgent necessity of integrating modern engineering graphics (Computer-Aided Design (CAD), 3D photogrammetry, terrestrial laser scanning, and Building Information Modeling) with a robust information culture within the humanities. Information culture in this context implies not only the usage of digital tools but also the systematic collection, metadata structuring, and ethical preservation of digital cultural assets. This paper aims to analyze the innovative opportunities provided by engineering graphics in studying and virtually reconstructing the historical monuments of Namangan, establishing a workflow that bridges the gap between empirical historical data and precise geometric visualization.

The research methodology adopts a strictly interdisciplinary approach, synthesizing historical-archaeological analysis with advanced spatial and digital engineering techniques. The primary object of study is the Akhsikent archaeological complex, supplemented by comparative structural elements found in traditional 18th-20th century Namangan monuments, such as the Mulla Bozor Oxund mosque and local madrasahs.

To achieve an accurate digital reconstruction, a three-tiered digital documentation workflow was established:

Terrestrial Photogrammetry and Remote Sensing**:** High-resolution digital cameras and Unmanned Aerial Vehicles (UAVs) were deployed to capture thousands of overlapping aerial and terrestrial photographic images of the exposed foundations, defensive walls, and surviving citadel elements of Akhsikent [3; 112-p.].

Terrestrial Laser Scanning (TLS): Spatial point clouds were generated using high-precision laser scanners to capture exact spatial coordinates (X, Y, Z) of architectural surfaces, accounting for millimeter-level deformations, structural lean, and surface weathering caused by centuries of soil erosion [3, 78-p.].

Parametric CAD and BIM Modeling: The raw spatial data (point clouds and polygonal meshes) were imported into parametric CAD environments (such as Autodesk AutoCAD and Revit). Here, historical architectural orders, brick-laying patterns, and structural modules were isolated and reconstructed based on mathematical proportions extracted from surviving fragments [4; 55-p.].

The historical source material includes archival drawings from 20th-century Soviet archaeological expeditions, descriptive accounts by medieval chroniclers (such as Babur's descriptions of Akhsi in the *Baburnama*), and comparative ethnographic

data on Fergana architectural schools [2; 12-p.]. The architectural data was classified into categorical databases, defining material properties, spatial coordinates, and chronological layers [1; 204-p.].

The implementation of engineering graphics tools yielded a multi-layered, interactive 3D digital model of the selected sectors of Akhsikent, including its monumental defensive gates and artisan residential quarters. The conversion of unorganized point clouds into highly structured parametric models revealed critical insights into the structural engineering logic used by ancient builders in the Fergana Valley [1; 215-p.].

One of the key discoveries made during the geometric analysis of the reconstructed fortifications was the precise proportional system governing the mudbrick (*paxsa*) layers and internal timber reinforcement frameworks. Engineering graphics software enabled the calculation of the structural loads of the massive walls, demonstrating that ancient builders utilized complex localized geometric adaptations to distribute weight evenly across unstable terrain along the Syr Darya riverbank [4; 59-p].

To demonstrate the distinct advantages of this integrated digital approach over conventional architectural documentation, a comparative analysis was compiled during the study:

Documentation Metric	**Traditional Architectural Drafting**	**Digital Engineering Graphics & BIM**
Measurement Accuracy	Manual (centimeter-level errors)	Automated (millimeter-level precision)
Data Dimension	2D Orthographic projections only	Full 3D Spatial + Semantic Data (4D/5D)
Time Efficiency	Weeks of manual field sketching	Days of scanning and automated processing
Deformation Capture	Highly generalized or omitted	Exact representation of structural cracks
Interdisciplinary Sharing	Physical paper or static PDF files	Cloud-based interactive databases

Furthermore, the research successfully integrated these engineering outputs with the concept of **information culture**. Information culture involves establishing

standardized metadata for digital architectural assets, ensuring that a 3D model is not merely an artistic visualization, but an open-source, scientifically validated repository of historical information. Every reconstructed beam, dome, or brick wall in the CAD environment was linked to specific archaeological databases containing information on material composition, excavation year, and confidence level of the restoration [3; 142-p.].

This systematic approach directly addresses a major problem in contemporary art history and museology: the proliferation of speculative, unscientific 3D models that misrepresent historical realities to the public [Smith, 102]. By embedding information culture within engineering workflows, any deviation or hypothetical reconstruction is transparently flagged, preserving the scientific integrity of Namangan’s architectural heritage.

The integration of engineering graphics with historical and art historical analysis represents an evolutionary leap in how Uzbekistan’s cultural heritage is studied, preserved, and disseminated. The application of these methods to the monuments of Namangan, particularly the complex site of Akhsikent, proves that digital reconstruction can uncover hidden structural logic that remains invisible to the naked eye or traditional manual drafting methods.

The main conclusions of this research indicate that:

- Engineering graphics provide an empirical foundation for historical conservation, turning passive observation into active, structurally sound virtual restoration [3; 150-p.].
- The synthesis of spatial data with semantic historical databases fosters a higher level of information culture among researchers and the public alike [4, 64-p.].
- Digital models serve as a permanent safeguard against the physical loss of monuments due to environmental and anthropogenic pressures [1; 220-p.].

Looking toward future perspectives, the established digital models of Akhsikent lay the groundwork for creating immersive Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) open-air museums directly at the archaeological site. This will allow tourists and researchers to visualize the ancient city in its original grandeur while standing amidst its ruins. Furthermore, the integration of Artificial Intelligence (AI) algorithms with CAD systems could soon automate the cross-referencing of regional architectural styles, enabling predictive reconstructions of missing segments of other ruined monuments across the Fergana Valley. It is highly recommended to establish a unified National Digital Heritage Cloud of Uzbekistan to consolidate these interdisciplinary datasets for future generations of scholars.

References

1. Askarov, A. *Ancient Akhsikent: Archaeological Research and Historical Interpretation*. Tashkent: Fan, 2012.
2. Babur, Z. M. *The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor*. Translated by W. M. Thackston. New York: Modern Library, 2002.
3. Karimov, I. A. *Digital Technologies in the Conservation of Central Asian Architecture*. Samarkand: Institute of Archaeology, 2018.
4. Murodov, S. *Traditional Architecture of the Fergana Valley: Methods, Materials, and Proportions*. Namangan: Nasr, 2015.
5. Smith, J. *Principles of 3D Laser Scanning and Photogrammetry for Cultural Heritage Sites*. London: Academic Press, 2020.

BOSHLANG‘ICH SINF TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI BADIIY BEZAK YARATISHGA O‘RGATISHNING DIDAKTIK VA METODIK ASOSLARI

Aynura Adilbayevna Azatbayeva
assistent o‘qituvchi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
aynuradilbaevna@gamil.com

Annotatsiya: mazkur tezisda boshlang‘ich sinf tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni badiiy bezak yaratishga o‘rgatishning didaktik va metodik asoslari yoritiladi. Bezak elementlarini tanlash, naqsh tuzish, ranglar uyg‘unligini ta’minlash va kompozitsiya yaratish jarayonida tushuntirish-illyustrativ, muammoli-izlanish hamda evristik metodlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, tasviriy san’at, badiiy bezak yaratish, dekorativ san’at, naqsh, kompozitsiya, ranglar uyg‘unligi, ijodiy faoliyat, evristik metod, estetik tarbiya.

Respublikamizda ta’lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodning ijodiy salohiyati va estetik madaniyatini rivojlantirish, milliy madaniy merosni asrab-avaylash hamda uni ta’lim jarayoniga keng tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida tasviriy va amaliy san’atni rivojlantirish, milliy san’at an’analarini davom ettirish hamda yosh avlodning badiiy-estetik tarbiyasini takomillashtirishga doir vazifalar belgilangan [1]. Mazkur vazifalar

boshlang‘ich sinf tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning estetik idroki, badiiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, milliy bezak san’ati namunalarini o‘rgatish hamda mustaqil badiiy kompozitsiyalar yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan, o‘quvchilarni badiiy bezak yaratishga o‘rgatishning samarali metodlarini ishlab chiqish va ularni ta’lim amaliyotiga joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, boshlang‘ich ta’limda tasviriy san’at mashg‘ulotlari o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirish, atrof-muhitdagi go‘zallikni anglash va o‘z ijodiy g‘oyalarini tasviriy vositalar orqali ifodalashga o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o‘quvchilarni badiiy bezak yaratishga o‘rgatish jarayonida naqsh elementlari, shakl, rang, ritm va kompozitsiya haqidagi bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Badiiy bezak yaratish tayyor namunani ko‘chirish bilangina cheklanmaydi. Bu jarayon o‘quvchidan bezak elementlarini kuzatish, ularning xususiyatlarini tahlil qilish, mos ranglarni tanlash, elementlarni ma’lum tartibda joylashtirish va yaxlit badiiy kompozitsiya hosil qilishni talab qiladi. Shu bois mazkur faoliyatni yosh xususiyatlariga mos, izchil va ijodiy yo‘naltirilgan metodlar asosida tashkil etish dolzarb metodik vazifalardan biridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy bezak yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari ta’lim mazmunining izchilligi, ko‘rgazmalilik, amaliy yo‘naltirilganlik va o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tamoyillari bilan belgilanadi. O‘qituvchi bezak va naqsh haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirish bilan birga, o‘quvchilarga badiiy ifoda vositalarining o‘zaro bog‘liqligini ham anglatishi lozim.

R.R.Ismailovaning 4-sinf uchun mo‘ljallangan Tasviriy san’at darsligidagi “Dekorativ rangtasvir” mavzusi bezak yaratishni turli buyumlar va ularning yuzalarini badiiy bezash faoliyati bilan bog‘lash imkonini beradi [Ismailova R.R.: 18]. “Sehrli qovoq” mavzusida milliy naqshlardan foydalanishga doir topshiriqlar esa o‘quvchilarning bezak elementlarini amaliy buyum shakli bilan uyg‘unlashtirishiga sharoit yaratadi [Ismailova R.R.: 36]. “Oila gerbi” mavzusi doirasidagi topshiriqlar ramzlar, shakllar va ranglarni muayyan mazmun asosida birlashtirish hamda kompozitsion yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan [Ismailova R.R.: 38-40]. Mazkur mavzularning metodik imkoniyati shundaki, o‘quvchilar bezakni shunchaki tasvirlash emas, balki ma’lum maqsadga xizmat qiluvchi badiiy yechim sifatida yaratishni o‘rganadilar. Bunda milliy naqsh namunalarini kuzatish,

ularning elementlarini aniqlash, ranglar munosabatini tahlil qilish va yangi kompozitsiya tuzish kabi amaliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

S.F.Abdirasilovning Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi asarida dekorativ kompozitsiya mashg‘ulotlari naqsh ishlash hamda ertak va hikoyalar asosida illyustratsiyalar yaratish faoliyati bilan bog‘lanadi [Abdirasilov S.F.: 64]. Ushbu metodik qarashdan kelib chiqib, badiiy bezak yaratishga o‘rgatishda dastlab namunalarni kuzatish va tahlil qilish, keyin bezak elementlarini o‘zlashtirish, so‘ngra ularni mustaqil kompozitsiyada qo‘llash bosqichlarini izchil tashkil etish mumkin.

Ta’limning dastlabki bosqichida tushuntirish - illyustrativ metod o‘quvchilarga bezak elementlari, ranglar uyg‘unligi, simmetriya va ritmni tushuntirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq faqat tayyor namunani ko‘rsatish bilan cheklanish o‘quvchining mustaqil ijodiy izlanishini yetarlicha ta’minlamaydi. Shu sababli mazkur metodni muammoli-izlanish va evristik metodlar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Masalan, o‘quvchilarga “Ushbu buyum uchun qanday bezak mos keladi?”, “Naqsh elementlarini qanday tartibda joylashtirish mumkin?”, “Ranglarni o‘zgartirish kompozitsiyaning umumiy ko‘rinishiga qanday ta’sir qiladi?” kabi savollar berish mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarni kuzatish, taqqoslash, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z tanlovini asoslashga undaydi. O‘qituvchi esa tayyor yechimni berish o‘rniga, o‘quvchining izlanishini savollar, ko‘rgazmali materiallar va zarur metodik ko‘rsatmalar orqali qo‘llab-quvvatlaydi.

Badiiy bezak yaratishga o‘rgatish jarayonini quyidagi bosqichlarda tashkil etish taklif qilinadi:

1. Kuzatish va idrok etish – milliy va zamonaviy bezak namunalarini ko‘rib chiqish.
2. Tahlil qilish – naqsh elementlari, shakl, rang, ritm va simmetriyani aniqlash.
2. G‘oya ishlab chiqish – yaratiladigan bezakning maqsadi va umumiy ko‘rinishini belgilash.
3. Elementlarni tanlash va joylashtirish – bezak qismlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish.
4. Kompozitsiya yaratish – mustaqil badiiy bezakni amaliy jihatdan bajarish.
5. Tahlil va baholash – ishni ranglar uyg‘unligi, elementlar joylashuvi, kompozitsion yaxlitlik va ijodiy yondashuv asosida baholash.

Ushbu bosqichlar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llashiga, ijodiy fikrlashiga va o‘z ishiga baho berishiga yordam beradi. Bunda topshiriqlarning murakkabligi o‘quvchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasiga mos ravishda oshirib borilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni badiiy bezak yaratishga o‘rgatish nazariy bilimlar, ko‘rgazmali kuzatishlar va mustaqil amaliy faoliyatning uzviy birligiga asoslanadi. Tushuntirish - illyustrativ, muammoli - izlanish va evristik metodlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning bezak elementlarini ongli tanlashi, ranglar va shakllarni muvofiqlashtirishi hamda mustaqil kompozitsiya yaratishiga ko‘maklashadi. Shunday qilib, badiiy bezak yaratishga o‘rgatishni izchil bosqichlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning estetik idroki, badiiy tafakkuri va ijodiy mustaqilligini rivojlantirishning muhim metodik sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://www.lex.uz/uz/acts/-4795687
2. Ismailova R.R. Tasviriy san’at: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 88 b.
3. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. – T.: “Fan ya texnologiya”, 2012. 232 - bet.

O‘ZBEKISTONNING TARIXIY-MADANIY MEROSINI O‘RGANISHDA RAQAMLI MODELLASHTIRISH VA MUHANDISLIK GRAFIKASI

M.I.Azamova
Guliston davlat pedagogika instituti
“Tasviriy san’at” yo‘nalishi 2-kurs magistranti
R.Z.Xayrov
Guliston davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
A.U.Yuldashev
Guliston davlat pedagogika instituti
“Tabiiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
geografiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini o‘rganishda raqamli modellashtirish, muhandislik grafikasi va tasviriy san’atning o‘zaro uyg‘unlashgan

imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Me’moriy yodgorliklarni raqamli modellashtirish, rekonstruksiya qilish va badiiy talqin etishning ta’limiy imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, mazkur yondashuvning talabalarda fazoviy tafakkur, grafik savodxonlik, ijodiy fikrlash va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik shartlari, tarixiy manbalarga tayanish zarurati hamda fanlararo integratsiyaning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy-madaniy meros, tasviriy san’at, tarix, me’morchilik, yodgorlik, muhandislik grafikasi, me’moriy yodgorliklar, fazoviy tafakkur, 3D-modellashtirish, rekonstruksiya, ta’lim, integratsiya, muzey.

O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosi me’moriy majmualar, monumental rangtasvir, amaliy-bezak san’ati, qo‘lyozma madaniyati va an’anaviy badiiy faoliyat namunalari kabi moddiy hamda badiiy yodgorliklarni o‘z ichiga olgan murakkab tizimni tashkil etadi. Ta’lim jarayonida mazkur obyektlarni o‘rganishni faqat og‘zaki tavsiflash va ma’lumotlarni reproduktiv tarzda yod olish asosida emas, balki ta’lim oluvchilarning faol tasviriy faoliyati asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtayi nazardan, tasviriy san’at, muhandislik grafikasi va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi talabalarda fazoviy tafakkurni shakllantirish hamda milliy madaniy merosni anglash va idrok etishning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» yo‘nalishida talabalarni tayyorlashning zamonaviy mazmuni tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi, muhandislik va kompyuter grafikasi, shuningdek, ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan fanlarni qamrab oladi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining ta’lim dasturlarida muhandislik kompyuter grafikasi tasviriy san’at va grafikani o‘qitish metodikasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilishi fanlararo integratsiya uchun muayyan metodik asos yaratadi.

Me’moriy yodgorlik tasvirini oddiy tomosha qilishdan uning grafik tadqiqotiga o‘tish muhim metodik ahamiyatga ega. Talaba dastlab me’moriy obyekt fasadining eskizini bajarishi, uning asosiy geometrik elementlarini aniqlashi, ortogonal proyeksiyalarini qurishi, aksonometrik tasvirini ishlab chiqishi, bezak qismlarining tuzilishi va joylashuvini tahlil qilishi hamda keyingi bosqichda uning raqamli uch o‘lchamli modelini yaratishi mumkin. Bunday izchil yondashuv badiiy kuzatuvchanlikni muhandislik-grafik tafakkur bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada me’moriy obyekt nafaqat estetik idrok etish predmeti, balki uning shakli, nisbatlari, fazoviy tuzilishi va konstruktiv xususiyatlarini tahlil qilishni talab etadigan o‘quv-tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayniqsa, kompyuter grafikasi va raqamli modellashtirishdan foydalanish istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. T. D. Azimov va K. K. Baltabayev zamonaviy ta’lim

jarayonini tashkil etishda axborot texnologiyalari va kompyuter grafikasining ahamiyatini ta’kidlab, ularning o‘quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish va didaktik vositalarni takomillashtirishdagi imkoniyatlarini ko‘rsatadilar [Azimov T.D., Baltabayev K.K., 12-14]. Tarixiy-madaniy merosni o‘rganish nuqtayi nazaridan bu yondashuv me’moriy yodgorliklarning raqamli modellarini, alohida me’moriy detallarni hamda saqlanib qolmagan yoki o‘zgargan qismlarning raqamli rekonstruksiyalarini yaratish va ulardan ta’lim jarayonidagi amaliy topshiriqlarda foydalanish imkonini beradi.


Raqamli modelning real badiiy obyekt bilan uzviy bog‘liqligini saqlash muhim metodik shartlardan biridir. Raqamli rekonstruksiya tarixiy yodgorlikning o‘rnini virtual tasvir bilan almashtirmasligi lozim. Uning asosiy vazifasi fotografiya yoki tekis chizmada to‘liq anglash qiyin bo‘lgan fazoviy munosabatlarni yanada aniq va tushunarli ko‘rinishda namoyon etishdan iborat. Shu sababli ish jarayoni, avvalo, hujjatlashtirilgan materiallarni: fotosuratlar, chizmalar, muzey eksponatlari, arxiv tasvirlari va ilmiy tavsiflarni o‘rganishdan boshlanishi kerak. Shundan keyingina obyektning grafik yoki uch o‘lchamli talqinini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur jarayonda tasviriy san’at alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy eskiz talabaga me’moriy obyektning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish, ravoqlar ritmi, hajmlar nisbati, ranglar tizimi va yuzaning dekorativ ifodaliligini anglash imkonini beradi. Akvarel etyudi, chiziqli rasm yoki kompozitsion eskiz keyingi muhandislik-grafik tahlilning dastlabki bosqichi bo‘lishi mumkin. Shu tariqa badiiy va texnik tasvirlash usullari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmaydi, balki obyektni izchil va kompleks o‘rganish tizimini tashkil etadi.

Raqamli vositalar talabalarning ijodiy faoliyat imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. A. Isakov raqamli vositalardan badiiy ta’limda foydalanish ijodiy salohiyatni rivojlantirish, mustaqil izlanish olib borish hamda original g‘oyalarni ifodalash imkoniyatlarini kengaytirishini ta’kidlaydi [Isakov A., 173–178]. Tarixiy-madaniy merosni o‘rganish nuqtayi nazaridan bu ayniqsa muhimdir. Talaba me’moriy shaklni shunchaki qayta tasvirlash bilan cheklanib qolmay, balki uni raqamli rekonstruksiya, interaktiv sxema, raqamli illyustratsiya yoki o‘quv taqdimoti shaklida ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni talabalarda kasbiy grafik madaniyatni rivojlantirish bilan uyg‘un holda olib borilishi lozim. Tayyor modellar va avtomatlashtirilgan funksiyalarga haddan tashqari bog‘lanib qolish kuzatuvchanlik, qo‘lda grafik tasvirlash, konstruktiv qurish va shaklni tahlil qilish ko‘nikmalarining susayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli aralash metodikadan foydalanish

maqsadga muvofiq: dastlab naturadan kuzatish va qo‘lda grafik tasvirlash, keyin chizma hamda muhandislik qurilmalari, undan so‘ng raqamli modellashtirish va, nihoyat, natijani badiiy tasvirlash. Bunday izchillik an’anaviy va zamonaviy tasvirlash vositalari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonning me’moriy obidalarini o‘rganishda tasviriy san’at, muhandislik grafikasi va raqamli modellashtirish integratsiyasi.

Pedagogik jarayonda “Yodgorlik - rasm - chizma - raqamli model - badiiy rekonstruksiya” loyihaviy modelini taklif etish mumkin. Birinchi bosqichda talaba obyektning tarixi bilan tanishadi va uning vizual xususiyatlarini kuzatadi. Ikkinchi bosqichda chiziqli hamda rangtasvir eskizlarini bajaradi. Uchinchi bosqichda fazoviy munosabatlarni proyeksiyalar va o‘lchov sxemalari tizimiga o‘tkazadi. To‘rtinchi bosqichda me’moriy obyektning uch o‘lchamli raqamli modelini yaratadi. Yakuniy bosqichda esa uning badiiy talqinini ishlab chiqib, natijalarni o‘quv loyihasi shaklida taqdim etadi. Mazkur model talabalarda tarixiy tafakkur, badiiy qobiliyat va grafik kompetensiyani bir vaqtning o‘zida shakllantirish imkonini beradi.

Mustaqil ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ham metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega. A. Isakov internet resurslari, elektron o‘quv materiallari, videomateriallar, reproduksiyalar va multimedia vositalari tasviriy san’at mashg‘ulotlarini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirishini ta’kidlaydi [Isakov A., 708]. Tarixiy-madaniy merosni o‘rganish jarayonida talaba muayyan me’moriy yodgorlik bo‘yicha tasviriy ma’lumotlar to‘plamini mustaqil shakllantirishi, turli davrlarga oid fotosuratlarni o‘zaro taqqoslashi, bezak elementlarini tahlil qilishi va o‘zining grafik materiallar bazasini yaratishi mumkin.

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasining integratsiyasi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Me’moriy meros bilan ishlash «madaniy meros» tushunchasini mavhum kategoriyadan aniq va mazmunli tasviriy tajriba darajasiga olib chiqadi. Talaba tarixiy shaklning qadr-qimmatini anglash, uni asrab-avaylash zaruratini tushunish hamda raqamli rekonstruksiyaning haqqoniyligi uchun tadqiqotchi sifatida mas’uliyatni his etishni o‘rganadi. Shu bilan birga, unda aniqlik, fazoviy tafakkur madaniyati, mustaqil tadqiqotchilik ko‘nikmalari hamda badiiy-grafik yechimlarni ilmiy asoslash qobiliyati shakllanadi.

Shunday qilib, tarixiy-madaniy merosni tasviriy san’at va muhandislik grafikasi vositasida o‘rganishning innovatsion imkoniyatlari faqat alohida raqamli dasturlardan foydalanish bilangina cheklanmaydi. Eng muhimi, ular o‘quv faoliyatining mazmuni va mantiqini takomillashtirish imkonini beradi. Naturadan kuzatish, badiiy rasm, muhandislik chizmachiligi, kompyuterda modellashtirish va raqamli tasvirlashning o‘zaro uyg‘unligi yaxlit ta’lim texnologiyasini shakllantiradi. Mazkur yondashuvdan foydalanish O‘zbekistonning me’moriy yodgorliklarini chuqurroq o‘rganish, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularda milliy madaniy merosga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azimov T.D., Baltabayev K.K. Muhandislik va kompyuter grafikasini o‘qitishning innovatsion texnologiyalari // Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. - 2024. - T. 4, № 1. - B. 12–14.
2. Isakov A. Tasviriy san’atni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliy holati // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2021. - T. 2, № 4/S. - B. 706–711.
3. Isakov A. Raqamli vositalar yordamida badiiy ta’limda ijodkorlikni rivojlantirish // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2024. - T. 5, № 12/S. - B. 170–181.
4. Kulmuratov N.R. Barcha ta’lim yo‘nalishlari bakalavriat talabalari uchun “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” kursi bo‘yicha mustaqil grafik ishlar va individual topshiriqlarni bajarish uchun metodik qo‘llanma. - Navoiy, 2020. - 60 b.
5. Hakimov A. O‘zbekiston san’ati tarixi: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Info Capital Group, 2018. - 416 b.

TARIXIY-ME’MORIY OBIDALARNI AUTOCAD VA 3D GRAFIK DASTURLAR ASOSIDA O‘RGANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Berikbayev Alisher Alikulovich
Guliston davlat universiteti
Amaliy san’at va dizayn kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.

Annotatsiya: Maqolada tarixiy-me’moriy obidalarni o‘rganish jarayonida AutoCAD va zamonaviy 3D grafik dasturlardan foydalanishning didaktik hamda metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Raqamli grafik rekonstruksiya asosida talabalarning fazoviy tafakkuri, grafik savodxonligi, loyiha kompetensiyasi va milliy me’moriy merosga oid bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan bosqichli metodika taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy-me’moriy obida, madaniy meros, AutoCAD, 3D modellashtirish, raqamli rekonstruksiya, muhandislik grafikasi, kompyuter grafikasi, me’moriy grafika, loyihalash, vizualizatsiya, fazoviy tafakkur, grafik kompetensiya, raqamli texnologiya, ta’lim metodikasi, milliy meros, innovatsion ta’lim.

Bugungi kunda tarixiy-madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, ilmiy jihatdan o‘rganish va kelajak avlodga yetkazishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, me’moriy yodgorliklarning geometrik tuzilishi, konstruktiv yechimi, shakliy kompozitsiyasi va bezak elementlarini o‘rganishda kompyuter grafikasi hamda uch o‘lchamli modellashtirish vositalari keng imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston hududidagi tarixiy shaharlar, me’moriy majmualar, maqbara, madrasa, masjid, saroy va boshqa me’moriy yodgorliklar nafaqat tarixiy manba, balki arxitektura, dizayn, tasviriy san’at hamda muhandislik grafikasi yo‘nalishlari uchun muhim o‘quv obyekti hisoblanadi. Shu sababli ularni faqat fotosurat yoki tayyor chizmalar orqali o‘rganish bilan cheklanib qolish ta’limning zamonaviy talablariga to‘liq javob bermaydi.

Raqamli modellashtirish tarixiy obyektning shakli va fazoviy tuzilishini har tomonlama ko‘rish, alohida konstruktiv qismlarini tahlil qilish, o‘lchamlar o‘rtasidagi nisbatlarni aniqlash va murakkab me’moriy elementlarni grafik rekonstruksiya qilish imkonini beradi. F. Remondino va S. El-Hakim tasvirlar asosidagi 3D modellashtirishning tarixiy obyektlarni hujjatlashtirish va vizuallashtirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilib, ushbu usullarning moslashuvchanligi va ilmiy hujjatlashtirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi [4].

Shu nuqtai nazardan, oliy ta’limda tarixiy-me’moriy obidalarni AutoCAD va 3D grafik dasturlar yordamida izchil o‘rganish metodikasini shakllantirish va takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv nazariy tarixiy bilim bilan grafik-amaliy faoliyatni birlashtirib, talabaning kasbiy tayyorgarligini aniq mahsulot – chizma, model va vizual tahlil natijasi orqali namoyon etishga xizmat qiladi.

Tarixiy-me’moriy merosni raqamli grafik vositalar orqali o‘rganish zarurati

An’anaviy ta’limda tarixiy me’moriy obyekt ko‘pincha nazariy ma’lumot, fotosurat, frontal tasvir, reja yoki qirqim asosida o‘rganiladi. Ushbu usullar muhim bo‘lsa-da, talaba obyektning umumiy fazoviy tuzilishini, qismlar o‘rtasidagi konstruktiv bog‘lanishni va proporsional munosabatlarni to‘liq tasavvur qilishi uchun har doim ham yetarli emas.

Me’moriy yodgorlik murakkab hajmiy-fazoviy tizimdir. Uni chuqur o‘rganish uchun talaba reja va fasadlarni o‘zaro bog‘lay olishi, geometrik nisbatlarni aniqlashi, konstruktiv tuzilishni tushunishi, me’moriy elementlarning fazodagi holatini tasavvur qilishi, bezaklarning kompozitsion tizimini tahlil qilishi hamda ikki o‘lchamli chizmani uch o‘lchamli shaklga aylantira olishi lozim. Aynan shu jarayonda AutoCAD va 3D modellashtirish vositalarining integratsiyasi samarali natija beradi.

Madaniy merosni kompyuter vositasida vizuallashtirish bo‘yicha London Charter tamoyillarida raqamli rekonstruksiya ilmiy manbalarga tayanishi, muhim qarorlar hujjatlashtirilishi va yaratilgan natijani tekshirish imkoniyati saqlanishi zarurligi ta’kidlanadi [1]. Demak, talaba tarixiy obidani shunchaki tashqi ko‘rinishiga o‘xshatib yaratmasligi, balki manba – o‘lchov – chizma – model – tahlil ketma-ketligini saqlashi kerak.

AutoCAD dasturining metodik imkoniyatlari

AutoCAD tarixiy-me’moriy obyektlarni o‘rganishda, avvalo, grafik aniqlikni ta’minlovchi vosita sifatida muhimdir. Dastur yordamida tarixiy obidaning reja, fasad, qirqim va alohida me’moriy qismlarini aniq geometrik parametrlar asosida qayta chizish mumkin. Bu jarayon talabaning chizma o‘qish, o‘lchamlarni tahlil qilish, koordinatalar bilan ishlash va shakllar o‘rtasidagi proporsional bog‘lanishni anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’lim nuqtai nazaridan AutoCAD bilan ishlash tayyor chizmani oddiy ko‘chirishga aylanib qolmasligi kerak. Masalan, madrasa peshtoqini chizishda talaba asosiy simmetriya o‘qi, umumiy balandlik va kenglik, ravoq geometriyasi, yon qismlarning proporsiyasi hamda bezak maydonlari o‘rtasidagi nisbatlarni aniqlashi

lozim. Natijada tarixiy obyekt bir vaqtning o‘zida ham madaniy meros namunasi, ham geometrik-grafik tahlil obyekti sifatida o‘rganiladi.

AutoCAD asosida bajariladigan ishlar manbalarni to‘plash, grafik tahlil, 2D chizmalarni yaratish, o‘lcham va belgilash tizimini shakllantirish hamda 3D model uchun grafik baza tayyorlash bosqichlarida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunday ketma-ketlik muhandislik grafikasi va me’moriy loyihalash fanlari mazmunini tarixiy merosni o‘rganish bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi.

3D grafik dasturlar asosida tarixiy obidalarni modellashtirish

AutoCAD yordamida tayyorlangan aniq reja, fasad va qirqimlar keyingi bosqichda SketchUp, 3ds Max, Blender yoki Revit kabi 3D grafik dasturlar uchun geometrik asos vazifasini bajaradi. 3D modelning pedagogik qiymati faqat uning tashqi ko‘rinishida emas, balki modelni yaratish jarayonida talaba bajaradigan tahliliy amallarda namoyon bo‘ladi.

Talaba ikki o‘lchamli grafik materialni uch o‘lchamli obyektga aylantirish jarayonida bino qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishni chuqur anglaydi. Reja chizmasidagi devor konfiguratsiyasini ko‘tarish, ravoq va gumbazlarni shakllantirish, peshtoq hamda minoralarning balandlik nisbatlarini belgilash, bezak elementlarini joylashtirish orqali uning fazoviy tafakkuri va loyiha fikrlashi rivojlanadi.

M. Murphy, E. McGovern va S.Pavia tomonidan ishlab chiqilgan Historic Building Information Modelling (HBIM) yondashuvida tarixiy binolarni raqamli ma’lumotlar asosida modellashtirish, ulardan aniq ortogonal chizmalar va uch o‘lchamli hujjatlashtirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatilgan [3]. Mazkur yondashuvni ta’limda to‘liq professional HBIM tizimi ko‘rinishida emas, balki metodik prinsip sifatida qo‘llash mumkin: obyekt avval o‘rganiladi va hujjatlashtiriladi, keyin grafik tahlil qilinadi, so‘ng raqamli modelga aylantiriladi.

Takomillashtirilgan metodik model

Tarixiy-me’moriy obidalarni AutoCAD va 3D grafik dasturlar yordamida o‘rganish jarayonini quyidagi bosqichlarda tashkil etish taklif etiladi:

Bosqich	Mazmuni
1. Tarixiy-axborot bosqichi	Obyektning qurilish davri, vazifasi, tarixiy ahamiyati, me’moriy uslubi va manbalarini o‘rganish.
2. Vizual-tahliliy bosqich	Fotosurat, chizma va tarixiy manbalar asosida asosiy me’moriy elementlarni ajratish va tahlil qilish.
3. Geometrik-grafik bosqich	AutoCAD dasturida reja, fasad va qirqimlarni ishlab chiqish, geometrik nisbat va o‘lchamlarni aniqlashtirish.
4. Fazoviy modellashtirish bosqichi	2D chizmalar asosida bino hajmi, gumbaz, ravoq, ustun, peshtoq va boshqa elementlarning 3D modelini yaratish.

5. Material va bezak bosqichi	Tarixiy manbalarga tayangan holda material, rang, faktura va naqsh elementlarini modelga kiritish.
6. Qiyosiy-tahliliy bosqich	Yaratilgan modelni mavjud fotosurat va chizmalar bilan qiyoslash, geometrik yoki kompozitsion xatolarni aniqlash.
7. Taqdimot va refleksiya bosqichi	Yakuniy model va chizmalarni himoya qilish, foydalanilgan manbalar va qabul qilingan grafik yechimlarni asoslash.

Taklif etilayotgan metodikaning muhim jihati shundaki, dastur o‘rganishning maqsadi emas, vositasi hisoblanadi. Agar mashg‘ulot faqat AutoCAD yoki Blender buyruqlarini o‘rgatishga qaratilsa, tarixiy-madaniy meros mazmuni ikkinchi darajaga tushib qoladi. Shu sababli topshiriqlar texnik operatsiyalardan emas, muayyan tarixiy-me’moriy muammoni yechishdan kelib chiqishi lozim.

Masalan, “Extrude buyrug‘ini bajarish” tarzidagi texnik topshiriq o‘rniga “tarixiy obidaning peshtoq qismini mavjud chizmalar asosida fazoviy rekonstruksiya qilish va qabul qilingan geometrik yechimni asoslash” kabi vazifa berilishi metodik jihatdan samaraliroqdir. Bunday topshiriqda dasturiy ko‘nikma, tarixiy bilim va loyiha tafakkuri bitta faoliyatda birlashadi.

Metodikaning ta’limiy samaradorligi

Taklif etilayotgan metodika bir vaqtning o‘zida bir nechta kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Birinchidan, grafik kompetensiya shakllanadi: talaba me’moriy chizmalarni o‘qish, yaratish va tahlil qilishni o‘rganadi. Ikkinchidan, fazoviy tafakkur rivojlanadi: reja, fasad va qirqimning o‘zaro bog‘liqligini anglash orqali ikki o‘lchamli tasvirni uch o‘lchamli shaklda tasavvur qilish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

Uchinchidan, raqamli kompetensiya rivojlanadi. Talabalar AutoCAD va 3D dasturlarda ishlash bilan bir qatorda, grafik ma’lumotlarni qayta ishlash, qatlamlar, o‘lchamlar, materiallar, ko‘rinishlar va vizual taqdimot vositalaridan foydalanishni o‘zlashtiradilar. To‘rtinchidan, tadqiqotchilik kompetensiyasi rivojlanadi, chunki tarixiy obyekt modelini yaratishdan avval uning manbalari o‘rganiladi, turli grafik va vizual ma’lumotlar o‘zaro taqqoslanadi.

Beshinchidan, talabada milliy madaniy merosga nisbatan kasbiy va qadriyatli munosabat shakllanadi. Tarixiy obidani grafik jihatdan qayta yaratish uning me’moriy mohiyatini oddiy nazariy ma’lumotga qaraganda chuqurroq anglash imkonini beradi. London Charter tamoyillariga muvofiq, raqamli vizuallashtirishda qo‘llangan manba va usullar ochiq va tekshiriladigan bo‘lishi lozim [2]. Shu sababli ta’lim jarayonidagi 3D model ham faqat “chiroyli tasvir” emas, balki dalillarga tayangan raqamli ilmiy-grafik rekonstruksiya sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Tarixiy-me’moriy obidalarni o‘rganishda AutoCAD va 3D grafik dasturlardan foydalanish muhandislik grafikasi, arxitektura va dizayn ta’limining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Raqamli grafik vositalar tarixiy obyekt haqidagi nazariy bilimni chizma, model va vizual tahlil bilan birlashtirishga imkon beradi.

Taklif etilgan tarixiy-axborot, vizual-tahliliy, geometrik-grafik, fazoviy modellashtirish, material va bezak, qiyosiy-tahliliy hamda taqdimot-refleksiya bosqichlaridan tashkil topgan metodika talabani tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi subyektdan tarixiy obyektni mustaqil o‘rganuvchi va raqamli rekonstruksiya qiluvchi faol ishtirokchiga aylantirishga xizmat qiladi.

AutoCAD dasturidan aniq grafik bazani shakllantirish, 3D grafik dasturlardan esa obyektning hajmiy-fazoviy tuzilishini qayta tiklash vositasi sifatida kompleks foydalanish samarali hisoblanadi. Bunday integrativ yondashuv natijasida talabalarda grafik savodxonlik, fazoviy tafakkur, raqamli modellashtirish, tadqiqotchilik hamda loyiha kompetensiyalari rivojlanadi. Shu bois arxitektura, dizayn, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlari o‘quv jarayonida tarixiy obidalarni raqamli grafik rekonstruksiya qilishga qaratilgan integrativ loyiha topshiriqlarining ulushini oshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Denard H. A New Introduction to the London Charter // Paradata and Transparency in Virtual Heritage. – Ashgate, 2012. – P. 57–71.
2. London Charter. The London Charter for the Computer-based Visualisation of Cultural Heritage. Version 2.1. – London, 2009.
3. Murphy M., McGovern E., Pavia S. Historic Building Information Modelling (HBIM) // Structural Survey. – 2009. – Vol. 27, No. 4. – P. 311–327.
4. Remondino F., El-Hakim S. Image-based 3D Modelling: A Review // The Photogrammetric Record. – 2006. – Vol. 21, Issue 115. – P. 269–291.
5. Alikulovich, B. A. (2023). Development of professional competence of the pedagogue through visual means. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*, 438-442.

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY-ME’MORIY MEROS OBYEKTLARIDAN FOYDALANISH

Berikbayev Alisher Alikulovich
Guliston davlat universiteti, Amaliy san’at va dizayn kafedrasi

Annotatsiya: Maqolada tarixiy-me’moriy meros obyektlaridan oliy ta’limda foydalanishning kasbiy-pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Arxitektura, dizayn va tasviriy san’at yo‘nalishlari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi manbaviy tahlil, grafik tadqiqot, loyiha va refleksiya bosqichlariga asoslangan integrativ metodika taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, tarixiy-me’moriy meros, madaniy meros, arxitektura ta’limi, dizayn ta’limi, tasviriy san’at, loyiha faoliyati, grafik tahlil, ijodiy tafakkur, fazoviy tafakkur, milliy qadriyat, kasbiy ko‘nikma, integrativ yondashuv, raqamli texnologiya, refleksiya.

Kirish

Globallashuv, raqamlashtirish va kasbiy faoliyat mazmunining tez o‘zgarishi oliy ta’limdan faqat nazariy bilim berishni emas, balki bilimni real kasbiy vaziyatda qo‘llay oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ijodiy yechim ishlab chiqadigan mutaxassisni tayyorlashni talab etmoqda. Shu sababli kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bugungi ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, arxitektura, interyer dizayni, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kabi yo‘nalishlarda kasbiy kompetentlik nazariy bilim, amaliy mahorat, fazoviy tafakkur, estetik did, loyiha madaniyati hamda tarixiy-madaniy kontekstni anglashning birligi orqali namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz va boshqa tarixiy hududlarida shakllangan me’moriy meros namunalari talaba uchun faqat tarixiy ma’lumot manbai emas. Ular proporsiya, kompozitsiya, konstruksiya, bezak, rang, material, muhit va funksiyaning o‘zaro uyg‘unligini bevosita o‘rganish imkonini beradigan tabiiy “ochiq darslik” vazifasini bajaradi. Tarixiy obidalarni ta’lim jarayoniga maqsadli integratsiya qilish talabaning kasbiy faoliyatga oid kuzatuvchanligi, tahliliy fikrlashi va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, tarixiy-me’moriy meros ko‘pincha ta’limda tarixiy ma’lumot yoki illyustrativ material sifatida qo‘llanadi, biroq uning kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi didaktik resurs sifatidagi imkoniyatlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shuning uchun tarixiy-me’moriy obyektni “ko‘rish va eslab

qolish” darajasidan “tahlil qilish, chizish, modellashtirish, loyiha yechimida qayta talqin qilish va asoslash” darajasiga olib chiqadigan metodik tizim zarur.

Tarixiy-me’moriy merosning kasbiy-ta’limiy salohiyati

Tarixiy-me’moriy obyekt o‘zida bir nechta bilim sohasini birlashtiradi: tarix, san’atshunoslik, arxitektura, konstruksiya, muhandislik grafikasi, dizayn, materialshunoslik va estetikani. Shu jihatdan u fanlararo ta’lim uchun qulay obyekt hisoblanadi. Masalan, talaba tarixiy madrasaning fasadini o‘rganar ekan, bir vaqtning o‘zida simmetriya, geometrik modul, ravoq va gumbaz tuzilishi, bezak ritmi, rang uyg‘unligi hamda kompozitsion markaz tushunchalarini amaliy kuzatadi.

N. Botirova tarixiy-me’moriy yodgorliklardan foydalanish ta’lim oluvchilarning tarixiy bilimini boyitishi, illyustrativ materiallar va ekskursiyalar esa intellektual hamda ma’naviy rivojlanishga xizmat qilishini qayd etadi [1]. Ushbu fikrni oliy kasbiy ta’lim sharoitiga tatbiq etganda, obida bilan ishlash nafaqat tarixiy xotirani mustahkamlaydi, balki mutaxassislikka oid tahlil va loyiha ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

A. Dauletbaeva tarixiy-me’moriy yodgorliklar bilan tanishish talabalarda madaniy ildizlarni anglash, hududiy mansublik va vatan tuyg‘usini rivojlantirishini ko‘rsatadi [2]. Kasbiy ta’lim nuqtai nazaridan bu jihat ayniqsa muhim: o‘z milliy me’morchilik maktabini bilmagan dizayner yoki arxitektor zamonaviy loyiha yechimida mahalliy identifikatsiyani mazmunli ifodalashi qiyin. Demak, tarixiy merosni o‘rganish kasbiy kompetentlikning qadriyatli-motivatsion komponentini ham mustahkamlaydi.

D. Qurvonboyeva va N. Suyarov tarixiy yodgorliklarning estetik, tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlari talabalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish uchun muhim ekanini ta’kidlaydi [3]. Bu xulosa tarixiy obidalarni ijodiy topshiriqlar, grafik tahlil, eskiz va loyiha interpretatsiyasi bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Kasbiy kompetentlikning tarkibiy komponentlari

Tarixiy-me’moriy meros bilan ishlash jarayonida kasbiy kompetentlikni bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlar orqali ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Birinchisi - kognitiv komponent bo‘lib, u talabaning me’moriy uslublar, konstruktiv tizimlar, kompozitsion qonuniyatlar, tarixiy davr va bezak san’ati haqidagi bilimlarini qamrab oladi. Ikkinchisi - operatsion-amaliy komponent; bunda o‘lchash, chizma bajarish, eskizlash, maketlash, modellashtirish va loyiha yechimini ishlab chiqish ko‘nikmalari shakllanadi.

Uchinchi komponent - ijodiy-loyihaviy kompetentlik. Talaba tarixiy namunani mexanik ko‘chirmasdan, uning kompozitsion tamoyili, shakl hosil qilish mantiqi yoki

bezak motivini zamonaviy vazifaga mos ravishda qayta talqin qila olishi kerak. To‘rtinchi - axborot-raqamli komponent. Hozirgi mutaxassis tarixiy obyektga oid ma’lumotni izlash, saralash, foto va grafik materiallarni tahlil qilish, AutoCAD, SketchUp, Revit, 3ds Max yoki Blender kabi dasturlarda qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Beshinchi - qadriyatli-refleksiv komponent. Talaba tarixiy meros obyektiga oddiy “forma manbai” sifatida emas, balki madaniy xotira va professional mas’uliyat obyektiga munosabat bildira olishi, o‘z loyiha qarorining tarixiy muhitga mosligini asoslab bera olishi lozim. Ana shu komponentlarning integratsiyasi kasbiy kompetentlikni faqat texnik ko‘nikmalar yig‘indisidan yuqori darajadagi professional tayyorgarlikka olib chiqadi.

Tarixiy-me’moriy meros asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi

Taklif etilayotgan metodika talabaning tarixiy obyekt bilan ishlashini ketma-ket yetti bosqichda tashkil etishni nazarda tutadi. Metodikaning asosiy g‘oyasi - obidani tayyor axborot sifatida o‘rgatish emas, balki talabaning mustaqil kasbiy tadqiqoti uchun muammoli obyektga aylantirishdir.

Bosqich	Faoliyat mazmuni	Rivojlantiriladigan kompetensiya
1. Manbaviy-tanishuv	Obyektning tarixi, vazifasi, mualliflik yoki qurilish davri, uslubiy xususiyatlari va mavjud manbalarini o‘rganish	Kasbiy axborotni izlash va saralash
2. Vizual kuzatuv	Fasad, reja, hajm, ritm, rang, material va bezakni bevosita yoki foto materiallar asosida tahlil qilish	Kuzatuvchanlik va estetik tahlil
3. Grafik tahlil	Proporsiya, modul, simmetriya, geometrik tuzilish, reja-fasad-qirqim bog‘lanishini chizma orqali aniqlash	Grafik va fazoviy kompetentlik
4. Raqamli qayta ishlash	AutoCAD yoki 3D dasturlarda obidaning ayrim qismlarini chizish va modellashtirish	Raqamli va texnologik kompetentlik
5. Muammoli loyiha	Tarixiy tamoyil yoki elementni zamonaviy interyer, kichik me’moriy shakl yoki grafik kompozitsiyada qayta talqin qilish	Ijodiy-loyihaviy kompetentlik
6. Taqdimot va himoya	Loyiha qarori, manbalar va tanlangan usulni og‘zaki hamda vizual asoslash	Kommunikativ va kasbiy argumentatsiya
7. Refleksiya va baholash	Natijani mezonlar asosida tahlil qilish, xato va yutuqlarni aniqlash	O‘z-o‘zini baholash va kasbiy refleksiya

Jadvalda keltirilgan bosqichlar bir-biridan ajratilgan mustaqil mashqlar emas. Ular yagona kasbiy faoliyat zanjirini hosil qiladi: manbani o‘rganishdan grafik

tahlilga, grafik tahlildan loyiha yechimiga, undan esa asoslangan kasbiy refleksiyaga o‘tiladi. Bunda o‘qituvchi tayyor yechimni ko‘rsatib beruvchi emas, balki muammoli vaziyatni tashkil etuvchi, manbalarni tanlashga yo‘naltiruvchi va natijani mezonlar orqali baholovchi fasilitator vazifasini bajaradi.

Amaliy topshiriqlar tizimi

Metodikaning samaradorligi topshiriq mazmuniga bevosita bog‘liq. Tarixiy merosga oid topshiriqlar faqat “obida haqida ma’lumot tayyorlash” ko‘rinishida berilsa, kasbiy kompetentlikka ta’siri cheklangan bo‘ladi. Shu sababli topshiriqlar amaliy professional harakatni talab qilishi kerak. Masalan, “tanlangan tarixiy obidaning fasadidagi asosiy kompozitsion o‘qlar va proporsional nisbatlarni aniqlang”, “ravoq yoki gumbaz geometriyasini chizma asosida tahlil qiling”, “milliy bezak motivini zamonaviy interyer elementiga transformatsiya qiling”, “tarixiy obyektning bir qismini 3D model sifatida qayta yarating va qabul qilingan yechimni manbalar bilan asoslang” kabi vazifalar shunday xarakterga ega.

Baholash mezonlarini takomillashtirish

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida natijani faqat yakuniy chizma yoki modelning tashqi ko‘rinishi bilan baholash yetarli emas. Baholashda jarayonning ilmiyligi va kasbiy asoslanganligi ham hisobga olinishi kerak. Shu maqsadda besh mezondan foydalanish taklif etiladi: manbaviy asoslanganlik; grafik-texnik aniqlik; tarixiy-me’moriy xususiyatlarni anglash; ijodiy transformatsiya sifati; loyiha yechimini kasbiy asoslay olish.

Mazkur mezonlarning har biri boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajalarda baholanishi mumkin. Masalan, yuqori darajadagi talaba bir nechta ishonchli manbani qiyoslaydi, obyektning kompozitsion va konstruktiv mantiqini aniq tushuntiradi, grafik ishni me’yorlarga muvofiq bajaradi, tarixiy elementni zamonaviy vazifaga mexanik nusxasiz transformatsiya qiladi va qarorini dalillar bilan himoya qiladi. Bu yondashuv baholashni subyektiv “chiroyli-chiroyli emas” mezonidan kasbiy natijaga yo‘naltiradi.

Muhokama

Shu bois tarixiy merosni kasbiy ta’limga integratsiya qilishda uchta tamoyil ustuvor bo‘lishi lozim: birinchidan, tarixiy ishonchlilik - talaba foydalanayotgan ma’lumotning manbasi aniq bo‘lishi; ikkinchidan, kasbiy faoliyatga yo‘naltirilganlik - har bir topshiriq real kasbiy harakat bilan bog‘lanishi; uchinchidan, ijodiy qayta talqin - tarixiy shakl ko‘chirib olinmasdan, uning mazmuniy va kompozitsion tamoyili zamonaviy vazifada qayta ishlanishi.

Xulosa

Tarixiy-me’moriy meros obyektlaridan maqsadli foydalanish arxitektura, dizayn, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlari talabalarining kasbiy kompetentligini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Bunda meros obyekti nazariy ma’lumot yoki ko‘rgazmali vosita darajasida qolmay, kasbiy tahlil, grafik tadqiqot, raqamli modellashtirish, ijodiy loyiha va refleksiya uchun integrativ didaktik resursga aylanadi.

Taklif etilgan manbaviy-tanishuv, vizual kuzatuv, grafik tahlil, raqamli qayta ishlash, muammoli loyiha, taqdimot-himoya hamda refleksiya bosqichlaridan iborat metodika talabaning kognitiv, operatsion-amaliy, ijodiy-loyihaviy, axborot-raqamli va qadriyatli-refleksiv komponentlarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tarixiy-me’moriy merosni oliy ta’limdagi maxsus fanlar mazmuniga tizimli integratsiya qilish nafaqat milliy madaniy qadriyatlarni anglashni kuchaytiradi, balki kelajak mutaxassisining zamonaviy kasbiy muammolarni tarixiy tajriba, texnologik vositalar va ijodiy tafakkur uyg‘unligida hal qilish qobiliyatini ham shakllantiradi. Bu esa kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mazmunan boy, amaliy va milliy kontekstga tayangan istiqbolli yo‘nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Botirova N.R. The Significance of Architectural Monuments in Increasing the Effectiveness of History Lessons // European International Journal of Pedagogics. - 2024. - Vol. 4, Issue 12. - P. 105-107.
2. Dauletbaeva A.M. The Role of Historical Architectural Monuments in the Development of a Sense of Homeland among Modern Students (in the Example of the Architectural Monuments of the Republic of Karakalpakstan) // American Journal of Applied Science and Technology. - 2024. - Vol. 4, Issue 7. - P. 41-45.
3. Qurvonboyeva D., Suyarov N. Forming Students' Creative Ability through Studying Historical Monuments in Uzbekistan // Universal International Scientific Journal. - 2025. - P. 243-246.
4. UNESCO. Convention Concerning the Protection of the World Cultural and Natural Heritage. - Paris, 1972.
5. The London Charter for the Computer-based Visualisation of Cultural Heritage. Version 2.1. - London, 2009.

O‘ZBEK OILASIDA MILLIY AN’ANALAR VA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA SAN’ATNING O‘RNI

Habibjonova Nodira Shavkat qizi
Namangan davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchisi
G-mail: habibjonovanodira@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek oilasida milliy an’analar va oilaviy qadriyatlarning avlodlararo davomiyligi, ularning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati, oilaviy barqarorlik va jamiyat ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rni tahlil etilgan.San’atning qadriyatlar shakllanishidagi roli haqida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, milliy an’analar, oilaviy qadriyatlar,san’at,avlodlararo uzviylik, tarbiya, ma’naviyat, meros, urf-odat, hamjihatlik, hurmat, o‘zaro yordam, milliy o‘zlik, barqarorlik, jamiyat.

KIRISH

Oila jamiyatning eng muhim va fundamental ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, uning barqarorligi va farovonligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan hisoblanadi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiylashuvi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni egallashi hamda jamiyatdagi xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirishi, avvalo, oilaviy muhitda amalga oshadi. Shu bois oilaning mustahkamligi, undagi sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit va oila a’zolarining huquq hamda manfaatlarini ta’minlash masalalari jamiyatning barqaror rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir.Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholining turmush tarzidagi o‘zgarishlar, mehnat migratsiyasi, bandlik bilan bog‘liq muammolar, oilaviy nizolar, ajrimlar, farzandlar tarbiyasi va boshqa ijtimoiy omillar oilaning barqarorligiga muayyan ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur holatlar oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish va ijtimoiy farovonligini ta’minlashga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oila manfaatlarini himoya qilish va uning farovonligini ta’minlashda davlat, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur hamkorlikni takomillashtirish orqali oilalarning ijtimoiy muammolarini kompleks hal etish, oilaviy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyat farovonligini oshirish imkoniyatlari kengayadi.Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada oila manfaatlarini himoya qilish va farovonligini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy roli, ularning oilalar bilan hamkorlik mexanizmlari, mavjud muammolar hamda mazkur yo‘nalishni takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Oila insonning ijtimoiylashuvi boshlanadigan eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek oilasida kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, o‘zaro mehr-oqibat, qarindoshlik rishtalarini asrash, mehmondo‘stlik va oilaviy mas’uliyat kabi qadriyatlar kundalik hayot jarayonida shakllanib, yosh avlod ongiga singdirib boriladi. “Shu jihatdan oila nafaqat biologik avlod davomiyligini, balki ma’naviy-madaniy merosning avlodlararo uzviyligini ham ta’minlovchi muhim ijtimoiy institutdir”. [1]. Oilaning ushbu vazifasi ayniqsa yosh avlodning milliy o‘zligini shakllantirish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Oilada kundalik munosabatlar orqali beriladigan tarbiya milliy qadriyatlarning saqlanib qolishi va keyingi avlodga yetib borishining tabiiy mexanizmini yaratadi.Milliy an’analar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. O‘zbek oilalarida farzand tarbiyasida kattalarning hayotiy tajribasidan foydalanish, ota-onaga hurmat, qarindosh-urug‘lar bilan yaqin munosabatni saqlash, hashar, marosimlarda hamjihatlik kabi an’analar muhim tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.”Mazkur an’analar oilada bevosita amaliy faoliyat, shaxsiy namuna va kundalik muloqot orqali yosh avlodga uzatiladi”. [2] Avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar oilaviy qadriyatlarning saqlanishi va rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Bobo-buvilar, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi muntazam muloqot orqali oilaning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, hayotiy tajribasi hamda axloqiy me’yorlari yosh avlodga yetkaziladi. “Shuning uchun avlodlararo muloqotning uzluksizligi oilaviy qadriyatlarning faqat saqlanib qolishini emas, balki zamonaviy sharoitga mos ravishda qayta talqin qilinishini ham ta’minlaydi”. Bu jarayonda ota-ona va katta avlod vakillarining shaxsiy namunasi muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki bola milliy qadriyatlarni faqat tushuntirish orqali emas, balki oiladagi real munosabatlar va xatti-harakatlarni kuzatish orqali ham o‘zlashtiradi. [3]. Avlodlararo muloqotning kuchli bo‘lishi oilada o‘zaro tushunish va hurmat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, katta avlodning tajribasi yoshlarning zamonaviy qarashlari bilan uyg‘unlashib, oilaviy qadriyatlarning yangi sharoitlarda davom etishiga imkon beradi. O‘zbek xalqining milliy mentalitetida kattalarni e’zozlash, ularning hayotiy tajribasi va maslahatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish muhim qadriyatlardan biri sanaladi. Ushbu an’ana oilada bolaning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirish, mas’uliyat va hurmat tuyg‘ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.”Kattalarga hurmat tamoyili avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikni mustahkamlab, oilaning ichki barqarorligini ta’minlovchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi” [4]. Mazkur qadriyat yosh avlodda nafaqat hurmat, balki mas’uliyat va muomala madaniyatining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun kattalarga hurmat an’anasini zamonaviy tarbiya

jarayonida mazmunan davom ettirish oilaviy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega.

Mehmondo‘stlik, qo‘ni-qo‘shnilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash o‘zbek oilaviy madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu qadriyatlar oilaning yopiq doiradagi munosabatlari bilangina cheklanmay, uning mahalla va keng jamoatchilik bilan ijtimoiy aloqalarini ham mustahkamlaydi. “Natijada oilada shakllangan hamjihatlik va o‘zaro ko‘mak tamoyillari keyingi avlodning ijtimoiy xulq-atvoriga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi” [5]. Bunday qadriyatlarning davomiyligi oilaning jamiyat bilan aloqalarini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘zaro yordam va hamjihatlik kabi an’analarning yosh avlod tomonidan o‘zlashtirilishi jamiyatda ijtimoiy birdamlikning kuchayishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek oilasida milliy an’analar va oilaviy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy-ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Oilada shakllangan mehr-oqibat, o‘zaro hurmat, kattalarni e’zozlash, kichiklarga g‘amxo‘rlik, qarindoshlik rishtalarini asrash va hamjihatlik kabi qadriyatlar avloddan avlodga o‘tib, milliy o‘zlikning saqlanishiga xizmat qiladi. Mazkur qadriyatlarning davomiyligi, avvalo, oilaviy tarbiya va avlodlararo muloqotning muntazamligiga bog‘liq bo‘lib, katta avlodning hayotiy tajribasi yosh avlod uchun muhim tarbiyaviy manba vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, ota-onaning shaxsiy namunasi farzandlarda milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ularga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mehmondo‘stlik, o‘zaro yordam, qarindoshlik munosabatlarini mustahkamlash va jamoaviy hamjihatlik kabi an’analar oilaviy doiradan tashqariga chiqib, mahalla va jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Biroq globallashuv, urbanizatsiya va zamonaviy turmush tarzining kengayishi natijasida ayrim an’anaviy qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllarida o‘zgarishlar yuzaga kelayotganini ham hisobga olish lozim. Shu sababli milliy an’analarni o‘zgarmas shaklda saqlashdan ko‘ra, ularning mazmun-mohiyatini zamonaviy ijtimoiy sharoit bilan uyg‘unlashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda oila bilan bir qatorda ta’lim muassasalari, mahalla va jamoatchilik institutlarining hamkorligi yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘un shakllanishiga imkon yaratadi. Avlodlararo muloqotni mustahkamlash, oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish va milliy merosga hurmat ruhini kuchaytirish orqali oilaviy qadriyatlarning uzviyligini yanada barqarorlashtirish mumkin. Umuman olganda, o‘zbek oilasida milliy an’analar va oilaviy qadriyatlarning avlodlararo davomiyligini

ta’minlash milliy o‘zlikni asrash, oilaviy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyatning ma’naviy taraqqiyotini ta’minlashning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

6. Jo‘rayev N., Fayzullayev T. O‘zbekiston tarixi: yangi davr. – Toshkent: Sharq, 2009. – 560 b.
7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 304 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
9. Oila psixologiyasi: darslik / G‘.B. Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2010. – 296 b.
10. O ‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 76 b.

YORUG‘LIK MANBAINING VAZIYATIGA BOG‘LIQ HOLDA SOYALAR GEOMETRIYASI

Inoyatov Odiljon Sabitovich
Guliston davlat pedagogika instituti,
“San’atshunoslik” kafedrasi v.b. dotsenti
e-mail: inoyatovodlijon09@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yorug‘lik manbaining fazodagi holati va yo‘nalishiga bog‘liq ravishda soyalar shakllanishining geometrik qonuniyatlari tahlil qilinadi. Parallel va markaziy nurlar sharoitida soya qurilishining farqlari ko‘rsatilib, gorizontal va vertikal tekisliklarga tushuvchi soyalar o‘zgarishi grafik jihatdan asoslab beriladi. Oddiy geometrik jismlar misolida soyalar konturini aniqlash algoritmi bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: yorug‘lik manbai, parallel nur, markaziy nur, soya konturi, chegaraviy nur, proyeksiyalash, fazoviy tahlil, perspektiva.

Kirish. Grafik tasvirda realizmni ta’minlovchi asosiy omillardan biri yorug‘lik va soya uyg‘unligidir. Soyalar jismlarning fazodagi holatini, hajmini va o‘zaro joylashuvini aniq ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa perspektiv tasvirlarda soyaning geometrik asosda qurilishi tasvirning ishonchliligini belgilaydi.

Yorug‘lik manbaining fazodagi joylashuvi o‘zgargan sari soya shakli, yo‘nalishi va uzunligi ham o‘zgaradi. Shuning uchun soyalarni qurishda yorug‘lik nurlarining proyeksion yo‘nalishi asosiy aniqlovchi omil hisoblanadi.

1. Yorug‘lik manbaining fazoviy parametrlari

Yorug‘lik manbai fazoda quyidagi parametrlarga ega:

- balandlik burchagi (α),
- gorizontal og‘ish burchagi (β),
- manbaning masofasi.

Geometrik jihatdan yorug‘lik nuri – bu fazodagi to‘g‘ri chiziq bo‘lib, u jism sirtiga tushib, soya hosil qiladi. Soya - bu jism nuqtalaridan o‘tgan nurlar bilan soya tushish tekisligining kesishish chizig‘idir.

Yorug‘lik manbai holatiga ko‘ra ikki asosiy tur farqlanadi:


1.1. Parallel nurlar (tabiiy yoritish, cheksiz uzoqlikdagi manba)

Quyosh nurlari shartli ravishda parallel deb qabul qilinadi. Bunday holatda barcha nurlar bir xil yo‘nalishga ega bo‘ladi [1;414-423-b]. Soya uzunligi jism balandligi va nur tushish burchagiga bog‘liq:

$l = \frac{h}{tan\alpha}$ bu yerda:

h–jism balandligi, α – nur bilan gorizontal tekislik orasidagi burchak.


Burchak kamaygan sari soya uzayadi, burchak ortgan sari esa qisqaradi (1-shakl).



1-shakl.

1.2. Markaziy (sun’iy) yorug‘lik manbai

Agar yorug‘lik ma’lum bir xos (*S*) nuqtadan taralsa, barcha nurlar shu nuqtadan o‘tadi. Bunda soya qurilishi markaziy proyeksiyalash qonunlariga asoslanadi (2-shakl).



2-shakl

Soya chegarasi – bu yorug‘lik manbaidan jismning chegaraviy nuqtalariga o‘tgan nurlar bilan aniqlanadi. Natijada:


-soya shakli deformatsiyalanadi,

-o‘lchamlar perspektiv qisqarishga uchraydi,

-masofa ortishi bilan soya kattalashadi [2; 65–69-b.].

2. Gorizontal tekislikka tushuvchi soyalar geometriyasi

Jism gorizontal tekislikda joylashgan deb faraz qilamiz. Soya qurish algoritmi quyidagicha:



3-shakl.

1. Jismning xarakterli nuqtalari aniqlanadi.
2. Har bir nuqtadan yorug‘lik yo‘nalishiga nur o‘tkaziladi.
3. Nur gorizontal tekislik bilan kesishgan nuqta topiladi.
4. Hosil bo‘lgan nuqtalar tutashtiriladi.


Masalan, to‘g‘ri prizmaning soyasini qurishda yuqori asos burchaklaridan tushirilgan nurlar pastki asos proyeksiyasiga nisbatan siljigan yangi ko‘pburchak hosil qiladi. Soya konturi doimo yorug‘likka qarama-qarshi tomonga cho‘ziladi [3; 142–147-b.], (3-shakl).

3. Vertikal tekislikka tushuvchi soyalar

Agar soya devor yoki frontal tekislikka tushsa, qurilish jarayoni ikki bosqichda bajariladi:

–avval nur bilan tekislik kesishish chizig‘i aniqlanadi,

–so‘ng hosil bo‘lgan nuqtalar o‘zaro bog‘lanadi.



4-shakl.

Vertikal tekislikda soya shakli ko‘pincha perspektiv deformatsiyaga ega bo‘ladi [4; 153–158-b.]. Ayniqsa nuqtaviy yorug‘lik manbaida soya yuqoriga yoki pastga cho‘zilishi mumkin (4-shakl).

4. Oddiy geometrik jismlar soyasining tahlili

4.1. Prizma

Prizma soyasida asosiy e’tibor yuqori qirralarning siljishiga qaratiladi. Parallel nurlarda yuqori asos pastki asosga nisbatan bir xil masofaga ko‘chadi.

4.2. Silindr

Silindr soyasining chegarasi generatrisalar orqali aniqlanadi. Chegaraviy generatrisalar – yorug‘likka urinma holatdagi yasovchilardir. Gorizontal tekislikda silindr soyasi ellips yoki cho‘zilgan egri chiziq ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

4.3. Konus

Konus soyasini qurishda uch nuqtadan o‘tuvchi chegaraviy nurlar asosiy rol o‘ynaydi. Yorug‘lik manbaidan konus sirtiga o‘tkaziladigan urunma nurlar konusni yorug‘ va soyali qismlarga ajratadi.

5. Perspektiv tasvirda soyalar


Perspektivada soyalar qurilishi markaziy proyeksiyalashga asoslanadi. Bunda:

- yorug‘lik manbai ham perspektiv tizimga kiritiladi,
- yo‘nalish nuqtalari aniqlanadi,
- soya yo‘nalishi gorizont chizig‘i bilan bog‘lanadi.

Perspektiv soya qurishda asosiy qoida: jism nuqtasi, yorug‘lik manbai va soya nuqtasi bir to‘g‘ri chiziqda yotadi [5; 98–114-b.].

Bu qonuniyat fazoviy aniqlikni ta’minlaydi va grafik tasvirning realizmini oshiradi.


5-shaklda (tabiiy yoritish) nurlar manbai chapda, yorug‘lik nuri kartinaga parallel.



5-shakl.

6-shaklda nurlar manbai xos nuqtaga ega bo‘lgan sun’iy yoritish holati tasvirlangan.

Sun’iy yoritishda yorug‘lik manbai (masalan, chiroq yoki lampochka) obyektga nisbatan yaqin joylashgan bo‘lib, nurlar ma’lum bir nuqtadan tarqaladi. Shu sababli yorug‘lik nurlari tarqoq, ya’ni konussimon yo‘nalishda yoyiladi. Bu holat tabiiy yorug‘lik manbai – Quyosh nurlaridan farq qiladi va obyektning shaxsiy hamda tushuvchi soyalarining geometrik shakli, yo‘nalishi va o‘lchamiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.



6-shakl.

Xulosa

Yorug‘lik manbaining fazodagi holati soyalar geometriyasini belgilovchi asosiy omildir. Parallel va markaziy nurlar sharoitida soya shakllanishi turlicha qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Soya uzunligi nur tushish burchagiga teskari proporsional ravishda o‘zgaradi. Murakkab jismlarda esa soya konturi chegaraviy nurlar orqali aniqlanadi.

Geometrik asosda qurilgan soyalar perspektiv tasvirning fazoviy aniqligini ta’minlaydi hamda grafik ifodaning ilmiy asoslanganligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.K.Murodov, A.A.Xolmurzaev, A.N.Valiyev. Chizma geometriya kursi. “History and page” nashriyoti, 2022.-540 b.
2. R.R. Umirzakov. Perspektiva. “Info Capital Group” nashriyoti, 2018.-126 b.
3. A. Valiyev. Perspektiva. “Voris-nashriyoti”, 2009.-88 b.-191b.
4. М.Н.Макарова. Перспектива. Учебное пособие. –М., “Просвещение”, 1989.-189 ст.
5. М.Н.Макарова. Практическая перспектива. Учебное пособие. –М., “Академический проект”, 2005.

TASVIRIY SAN’AT TA’LIMIDA TARIXIY-MADANIY MEROSNI O‘RGANISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Jumaboyev Nabi Pardaboyevich
Guliston davlat pedagogika instituti,
“San’atshunoslik” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
e-mail: nabijumaboyev@gmail.com

Annotatsiya: maqolada tarixiy-madaniy merosni tasviriy san’at ta’limiga integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tarixiy obidalar va badiiy meros namunalarini o‘rganishda kompozitsion tahlil, muzey pedagogikasi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishning o‘quvchilarda vizual savodxonlik va estetik tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy-madaniy meros, tasviriy san’at, innovatsion ta’lim, kompozitsion tahlil, muzey pedagogikasi, vizual savodxonlik, estetik tafakkur, madaniy kompetensiya, raqamli texnologiyalar, badiiy idrok.

O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosi xalqning ko‘p asrlik badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim madaniy resurs hisoblanadi. Me’moriy yodgorliklar, monumental san’at, miniatyura, xalq amaliy bezak san’ati, rangtasvir va boshqa badiiy meros namunalarini ta’lim jarayonida o‘rganish yosh avlodning tarixiy xotirasi, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi va estetik dunyoqarashini rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli tarixiy-madaniy merosni tasviriy san’at ta’limining mazmuniga integratsiyalash nafaqat badiiy bilim berish, balki madaniy kompetensiyalarni shakllantirishning ham muhim pedagogik vositasidir.

Zamonaviy tasviriy san’at ta’limida madaniy merosdan foydalanish tayyor tarixiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasligi lozim. O‘quvchi tarixiy yoki badiiy obyektni kuzatishi, uning shakliy va obrazli xususiyatlarini tahlil qilishi, badiiy ifoda vositalarini aniqlashi hamda o‘z ijodiy faoliyatida qayta talqin etishi zarur. Bunday yondashuv meros namunasini oddiy ko‘rgazmali vositadan faol bilish va badiiy-tadqiqot manbaiga aylantiradi.

Madaniy meros asosida tashkil etilgan tasviriy san’at mashg‘ulotlarining muhim natijalaridan biri vizual savodxonlikning rivojlanishidir. Rang, shakl, ritm, mutanosiblik, simmetriya, kontrast, faktura va kompozitsion markaz kabi tasviriy tushunchalarni tarixiy san’at namunalari asosida tahlil qilish nazariy bilimni real badiiy obyekt bilan bog‘lash imkonini beradi [Gadoyev I.N.: 329-332]. Madaniy

meros elementlarini tasviriy san’at ta’limiga integratsiyalash o‘quvchilarning vizual tahlil, mustaqil fikrlash va badiiy ifoda kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy adabiyotlarda ham qayd etilgan.

Tasviriy san’at orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda san’at asarlarini kuzatish, tahlil qilish va amaliy tasvirlash muhim o‘rin tutadi. O‘quvchi tayyor obrazni takrorlash bilan cheklanmay, uning mazmuni, kompozitsion qurilishi va badiiy yechimini tushunishga intilganda tasviriy faoliyat bilish jarayoniga aylanadi [Yusupova Sh., Jumaboyev N.: 460-464]. Tarixiy-madaniy merosni o‘rganishda kompozitsion tahlil alohida pedagogik ahamiyatga ega. Me’moriy obidalar, miniatyura, xalq amaliy san’ati va monumental tasvirlardagi ritm, muvozanat, rang uyg‘unligi va kompozitsion yaxlitlikni tahlil qilish o‘quvchiga san’atning asosiy qonuniyatlarini tabiiy badiiy muhitda anglash imkonini beradi. Bunday mashg‘ulotlarda tarixiy obyekt nafaqat tasvirlash predmeti, balki kompozitsion tafakkurni rivojlantiruvchi vizual manba sifatida qaraladi. Tarixiy merosga asoslangan amaliy topshiriqlarda o‘quvchilarning kuzatuvchanligi, qiyosiy tahlil qilish qobiliyati va mustaqil estetik xulosa chiqarish ko‘nikmasi rivojlanadi. Masalan, tarixiy me’moriy obidaning rang yechimi, bezak motivlari yoki umumiy badiiy obrazini tahlil qilish asosida eskiz yaratish milliy san’at tajribasini ijodiy anglashga yordam beradi. Bunday jarayonda nusxa ko‘chirish emas, balki tarixiy badiiy tajribani zamonaviy estetik qarashlar asosida qayta talqin qilish ustuvor bo‘lishi kerak.

Xalq amaliy san’ati ham tarixiy-madaniy merosni o‘rganishning muhim pedagogik manbalaridan biridir. Ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik, kulolchilik va naqsh san’atida mujassam bo‘lgan shakl, ritm, rang va ramziy ma’no o‘quvchilarning milliy estetik tafakkurini boyitadi. Shu asosda o‘quvchi an’anaviy badiiy shakllarning tarixiy mazmuni bilan bir qatorda, ularning zamonaviy san’atdagi davomiyligini ham anglaydi.

Madaniy merosni tasviriy san’at ta’limiga integratsiyalashda muzey va ko‘rgazma muhitining pedagogik imkoniyatlari ham katta. Muzey eksponatlarini yoki raqamlashtirilgan kolleksiyalarni tahlil qilish o‘quvchining san’at asariga faol munosabatini shakllantiradi. Heritage education yo‘nalishidagi tadqiqotlar badiiy obyekt bilan bevosita ishlash, kuzatish, muhokama qilish va ijodiy talqin etish o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirishini ko‘rsatadi [Huerta R.: 96-116]. Raqamli texnologiyalar ushbu imkoniyatlarni yanada kengaytirmoqda. Virtual muzeylar, elektron kataloglar, raqamlashtirilgan tasvirlar va multimedia materiallari orqali turli tarixiy davrlar san’atini qiyosiy o‘rganish mumkin. Tasvirni kattalashtirish, detallarga e’tibor qaratish, rang va kompozitsion tuzilishni tahlil qilish

o‘quvchilarning vizual tafakkurini rivojlantiradi. Biroq raqamli vosita o‘z-o‘zicha pedagogik natija bermaydi; uning samaradorligi aniq metodik topshiriq va badiiy tahlil jarayoni bilan bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan, tarixiy-madaniy meros asosidagi tasviriy san’at mashg‘ulotlarini “kuzatish – anglash – tahlil qilish – tasvirlash – ijodiy talqin – taqdim etish” ketma-ketligida tashkil etish maqsadga muvofiq. Dastlab o‘quvchi san’at asari yoki meros obyekti bilan tanishadi. Keyin uning tarixiy konteksti, rang yechimi, kompozitsiyasi va badiiy ifoda vositalarini tahlil qiladi. Amaliy faoliyat bosqichida kuzatilgan xususiyatlarni tasviriy topshiriqda qo‘llaydi. Ijodiy talqin bosqichida esa tarixiy motiv shaxsiy badiiy g‘oya bilan uyg‘unlashtiriladi.

Bunday metodik tizimning afzalligi shundaki, o‘quvchi tarixiy meros namunasini passiv qabul qiluvchi emas, balki uning mazmunini anglovchi, baholovchi va qayta talqin qiluvchi ijodiy subyekt sifatida ishtirok etadi. Natijada tasviriy san’at darsi badiiy texnikani egallash bilan bir qatorda, tarixiy xotira va madaniy tafakkurni rivojlantiruvchi ta’limiy muhitga aylanadi.

Tarixiy-madaniy merosni anglash jarayonida qalamtasvir va rangtasvir mashg‘ulotlarining ham alohida o‘rni mavjud. Tarixiy obidalar, milliy liboslar, amaliy san’at buyumlari yoki boshqa madaniy obyektlarni kuzatish va tasvirlash shakl, rang va fazoviy munosabatlarni idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi [Khayrov R.: 41-48]. Qalamtasvir va rangtasvir bo‘lajak tasviriy san’at pedagoglarida vizual tafakkur, estetik idrok va mustaqil badiiy tahlil kompetensiyalarini shakllantiruvchi asosiy vositalardan hisoblanadi.

Tasviriy san’at ta’limining ma’naviy-estetik mazmuni tarixiy meros bilan bog‘langanda yanada chuqurlashadi. Milliy va umuminsoniy san’at qadriyatlarini o‘rganish yosh avlodda go‘zallikni anglash, madaniy merosni qadrlash va estetik mezonlar asosida munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantiradi. Sharq mutafakkirlarining axloqiy va estetik qarashlarini zamonaviy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish ham san’atning shaxs ma’naviy kamolotidagi rolini kengroq talqin etish imkonini beradi [Jumaboyev, 1489-1494]. Shuningdek, tarixiy-madaniy merosga asoslangan tasviriy san’at mashg‘ulotlarida loyiha, vizual tahlil, muammoli topshiriq, guruhiy muhokama va taqdimot metodlarini qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchini tayyor namunani takrorlashdan ko‘ra, mustaqil izlanish va badiiy qaror qabul qilishga yo‘naltirishi bilan ahamiyatlidir [Baxtiyarova F.:97-99]. Tahlil natijasida tarixiy-madaniy merosni tasviriy san’at ta’limiga integratsiyalashning uch asosiy pedagogik samarasi ajratiladi. Birinchidan, o‘quvchilarda milliy san’at va tarixiy merosga nisbatan ongli va

qadriyatli munosabat shakllanadi. Ikkinchidan, vizual idrok, kompozitsion tafakkur, estetik baholash va ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Uchinchidan, tarixiy san’at namunalarini zamonaviy badiiy vositalar yordamida mustaqil talqin etish kompetensiyasi takomillashadi.

Tarixiy-madaniy merosni tasviriy san’at ta’limiga integratsiyalash o‘quv jarayonining badiiy, tarbiyaviy va madaniy mazmunini boyitadigan muhim pedagogik yo‘nalishdir. Tarixiy san’at namunalarini kompozitsion va vizual tahlil qilish, muzey va raqamli resurslardan foydalanish, qalamtasvir va rangtasvir mashg‘ulotlarini ijodiy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning tarixiy xotirasi, vizual tafakkuri, estetik didi va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois madaniy merosni tasviriy san’at fanining qo‘shimcha materiali sifatida emas, balki uning mazmunini shakllantiruvchi muhim pedagogik resurs sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baxtiyarova F. (2023). MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS. *Ilm-Fan Va ta’lim*, *1*(1). извлечено от https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/article/view/120.
2. Gadoyev I.N. The Importance of Cultural Heritage in Developing Students’ Visual Literacy in Art Lessons // *Science and Culture: Innovations of the 21st Century*. – 2025. – Vol. 1. – №4. – P. 329-332.
3. Huerta R. Pasolini Cemetery. Heritage education and collaborative art for teacher education // *Revista Educação, Artes e Inclusão*. – 2025. – Vol. 20. – №2. – P. 96-116.
4. Jumaboyev N.P. Moral and aesthetic principles of eastern thinkers: application in modern education. International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – № 4. – P. 1489-94.
5. Khayrov, R. Z. U. . (2025). The Role of Drawing and Painting in the Training of Future Teachers of Fine Arts. International Journal of Formal Education, 4(7), 41-48. Retrieved from https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/5420.
6. Юсупова Ш. А., Жумабоев Н. П. Тасвирий санъат дарслари орқали ўқувчиларни ижодкорликка ўргатиш // Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 460-464.

TASVIRIY SAN’AT VA CHIZMACHILIK DARSLARIDA MILLIY-MADANIY MEROS NAMUNALARI ORQALI TALABALARDA MILLIY IFTIXOR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

Karimjonova Durdona Jaloliddin qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at va chizmachilik darslarida milliy-madaniy meros namunalaridan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari yoritib berilgan. O‘quv jarayoniga milliy me’moriy yodgorliklarning konstruktiv chizmalari va an’anaviy naqsh kompozitsiyalarini integratsiyalash orqali talabalarning kasbiy-grafik kompetensiyalarini oshirish hamda ularda milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, muhandislik grafikasi, milliy-madaniy meros, me’moriy obidalar, amaliy-bezak san’ati, naqsh kompozitsiyasi, milliy iftixor, integratsiyalashgan ta’lim.

Zamonaviy globallashuv va shiddat bilan rivojlanayotgan axborot xurujlari davrida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, ularda milliy o‘zlikni anglash va o‘z xalqining boy tarixiy-madaniy merosiga nisbatan xurmat hamda iftixor tuyg‘usini singdirish ta’lim tizimining eng muhim va ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. [Abdullayev N. U: 12-15]. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tarbiyalash nafaqat kasbiy ko‘nikmalarni berish, balki ularning dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida boyitishni ham taqozo etadi.

O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik tarixi davomida yaratilgan me’moriy obidalar, naqqoshlik va yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik hamda zargarlik san’ati namunalari nafaqat milliy madaniyatimiz durdonalari, balki jahon sivilizatsiyasining nodir obidalaridir [Bulatov S. S: 6-9]. Ushbu boy va takrorlanmas merosni ta’lim-tarbiya jarayoniga, xususan, tasviriy san’at va chizmachilik fanlari mazmuniga samarali integratsiya qilish orqali talaba-yoshlarda nafaqat estetik va fazoviy fikrilashni, balki chuqur milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish mumkin [Yusupova Sh. A: 24-28].

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi vositasida talabalarning ijodiy hamda grafik tayyorgarligini oshirish, milliy amaliy-bezak san’atining o‘quv jarayonidagi o‘rni masalalari ko‘plab pedagog-olimlar va metodistlar tomonidan tadqiq etilgan

[Nazarov E. M: 14-18; Oripov B. N: 22-25; Tolipov K. M: 30-33]. Biroq, zamonaviy oliy ta’lim sharoitida tasviriy va muhandislik-grafik topshiriqlarni bevosita milliy me’morchilik hamda bezak elementlari misol uchun, oygul, paxtagul, bodom guli, shobarg, yakkaband, qo‘shband kabi naqsh kompozitsiyalari va tarixiy obyektlarning konstruktiv chizmalari bilan uzviy bog‘lagan holda talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini bosqichma-bosqich shakllantirish metodikasi hamon izchil yondashuv hamda metodik takomillashtirishni talab etadi [Bulatov S. S: 15-18; Rahmatullayev A. X: 42-45].

An’anaviy chizmachilik va tasviriy san’at darslarida ko‘pincha faqat texnik qoidalar, geometrik shakllar va standart modellarga urg‘u berilib, obyektlarning milliy-tarixiy ildizlari hamda ma’naviy-estetik qiymati e’tibordan chetda qolmoqda [Murodov Sh. K., Hakimov A. A: 12-15; Saydaliyev S. S: 33-36]. Vaholanki, Registon anjomlari, Minarai Kalon, Sitorai Mohi-Xossa yoki Afrosiyob kabi tarixiy-me’moriy obidalarning poydevor chizmalari, kompozitsion va shakliy tahlili asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish talabalarning ham texnik-grafik savodxonligini, ham milliy g‘ururini yuksaltirishga xizmat qiladi [Пугаченкова Г. А: 18-22; Rahmatullayev A. X: 50-54].

Tasviriy san’at va chizmachilik darslarida milliy-madaniy meros namunalaridan foydalanishning samarali va innovatsion metodikasini ishlab chiqish hamda ushbu vositalar orqali talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslab berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi darslarida milliy-madaniy meros unsurlaridan foydalanishning nazariy-pedagogik asoslarini tahlil qilish;
2. Tarixiy me’moriy obidalar, an’anaviy naqsh kompozitsiyalari va amaliy-bezak san’ati uslublarini dars topshiriqlariga samarali integratsiyalash usullarini aniqlash;
3. Talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini va amaliy-grafik mahoratni bir vaqtda rivojlantirishga qaratilgan metodik va amaliy mashg‘ulotlar tizimini ishlab chiqish;
4. Ishlab chiqilgan metodikaning ta’lim samaradorligini amaliy-pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali asoslash va ilmiy tavsiyalar shakllantirish.

Tasviriy va grafik fanlarni milliy-madaniy meros manbalari bilan fanlararo va qadriyatli integratsiyalash tamoyillarining ilmiy va metodik jihatdan boyitilganligida namoyon bo‘ladi [Tolipov K. M: 18-22]. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan metodik ishlanmalar, amaliy grafik va badiiy topshiriqlar majmuasidan oliy ta’lim

muassasalarining “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”, “Muhandislik va kompyuter grafikasi” hamda “Amaliy san’at” yo‘nalishlari o‘quv jarayonida keng foydalanish imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi [Murodov Sh. K., Hakimov A. A: 20-24; Yusupova Sh. A: 45-48].

Globallashuv va shiddatli axborot xurujlari avj olgan hozirgi davrda yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish hamda ularda milliy o‘zlikni anglash va o‘z xalqining boy tarixiga nisbatan xurmat tuyg‘usini singdirish ta’lim tizimining ustuvor vazifasiga aylandi. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy mahoratni oshirish bilan birga, ularning dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik tarixi davomida yaratilgan me’moriy obidalar hamda amaliy-bezak san’ati namunalari nafaqat milliy madaniyatimiz, balki umummadaniy merosning ajralmas qismidir [Bulatov S. S: 10-12; Пугаченкова Г. А: 5-8]. Ushbu nodir manbalarni tasviriy san’at va muhandislik grafikasi fanlari mazmuniga integratsiyalash talaba-yoshlarda estetik fikrlash bilan bir qatorda chuqur vatanparvarlik va milliy gurur hissini shakllantirishga xizmat qiladi [Oripov B. N: 10-11].

Mashg‘ulotlar mobaynida an’anaviy grafik va chizmachilik topshiriqlari milliy-madaniy meros elementlari bilan boyitildi. Registon, Minarai Kalon va Sitorai Mohi-Xossa kabi tarixiy-me’moriy obidalarning konstruktiv va poydevor chizmalari hamda oygul, paxtagul, yakkaband kabi an’anaviy naqsh kompozitsiyalarining geometrik va badiiy tahliliga alohida e’tibor qaratildi [Пугаченкова Г. А: 7-8]. Dars jarayoniga kiritilgan ushbu yangicha yondashuv talabalarning bilim, amaliy-grafik va qadriyatli-motivatsion ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirdi [Nazarov E. M: 10-11].

Chizmachilik fanida faqat standart obyektlarni o‘rganish bilan cheklanmasdan, milliy me’morchilik va naqqoshlik san’ati qonuniyatlarini tahlil qilish ta’lim samaradorligini keskin yuksaltiradi [Murodov Sh. K., Hakimov A. A: 8]. Tarixiy obidalar va milliylik aks etgan kompozitsiyalarni chizish jarayonida talabalar bir vaqtning o‘zida geometrik-konstruktiv qoidalarni chuqur o‘zlashtiradilar hamda ajdodlarimizning yuksak muhandislik va badiiy tafakkurini anglab yetadilar [Пугаченкова Г. А: 9-11]. Bu jarayon talabalarda nafaqat professional va kasbiy mahoratni rivojlantiradi, balki o‘tmish merosimizga nisbatan daxldorlik va chuqur milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda eng samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi [Abdullayev N. U:10-13].

Tasviriy san’at va chizmachilik darslarida milliy-madaniy meros namunalaridan tizimli foydalanish bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda yuqori pedagogik samaradorlikka ega [Nazarov E. M: 10-11]. An’anaviy grafik va

chizmachilik mashg‘ulotlarini boy o‘tmishimizga mansub me’moriy yodgorliklar va amaliy-bezak san’ati elementlari bilan integratsiyalash o‘quv jarayonining mazmuni hamda sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi [Bulatov S. S: 7-11].

Tarixiy obidalarning konstruktiv yechimlari va milliy naqsh kompozitsiyalarining geometrik-mantiqiy tuzilishini o‘rganish talabalarning fazoviy tasavvuri, mantiqiy fikrlash va amaliy-grafik mahoratini rivojlantirish bilan birga, ularda teran ma’naviy-estetik qarashlarni tarkib topdiradi [Пугаченкова Г. А: 6-9]. Talabalarning milliy me’morchilik va naqqoshlik san’ati uslublari ustida amaliy va ijodiy ishlashlari ajdodlarimiz yaratgan nodir obidalarga nisbatan daxldorlik, hurmat va mas’uliyat hissini kuchaytiradi [Abdullayev N. U: 5-6].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, milliy-madaniy meros unsurlarini oliy ta’limning tasviriy va grafik fanlari dasturlariga doimiy hamda metodik jihatdan asoslangan holda kiritib borish talabalarda kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda yuksak milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning eng ustuvor va samarali omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev N. U. Tasviriy san’at tarixi. 2 jildlik. O‘quv qo‘llanma. T: “O‘zbekiston”, 2015.
2. Bulatov S. S. O‘zbek xalq amaliy san’ati. T: “O‘qituvchi”, 2010.
3. Murodov Sh. K., Hakimov A. A. Muhandislik va kompyuter grafikasi. O‘quv qo‘llanma.T: “Fan va texnologiya”, 2018.
4. Nazarov E. M. Chizmachilik va grafik tasvirlash metodikasi. T: “Yangi asr avlodi”, 2019.
5. Oripov B. N. Tasviriy san’atni o‘qitish uslubiyoti.T: “Iqtisod-Moliya”, 2016.
6. Пугаченкова Г. А. Зодчество Сентралънож Азии. XB век. T: Издателъство литературй и искусства им. Гафура Гуляма, 1998.
7. Rahmatullayev A. X. Me’moriy va grafik kompozitsiya asoslari. Toshkent: “Sano-standart”, 2017.
8. Saydaliyev S. S. Muhandislik grafikasida tasvirlash usullari va loyihalash. T: “O‘qituvchi”, 2020.
9. Tolipov K. M. Rangtasvir va kompozitsiya metodikasi.T: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2012.
10. Yusupova Sh. A. Tasviriy san’at to‘garaklarining uslubiy asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Guliston: “Guliston universiteti”, 2023.

TARIXIY-MADANIY MEROSNI RAQAMLI MUHITDA TADQIQ ETISH VA TAQDIM ETISHDA RAQAMLI MULOQOTNING DEONTOLOGIK ASOSLARI

Kurbanbayeva Mukaddas Kozibayevna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti katta o‘qituvchisi,
Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
https://orcid.org/0009-0005-7245-273X
qurbanbayevamuqaddas9@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekistondagi tarixiy-madaniy meros obyektlarini tadqiq etish va keng jamoatchilikka yetkazishda tarix, san’atshunoslik hamda raqamli kommunikatsiya imkoniyatlarining o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Tarixiy yodgorliklarni raqamlashtirish jarayonida raqamli muloqotning o‘rni, tarixiy axborotni to‘g‘ri, ilmiy asoslangan va mas’uliyatli tarzda taqdim etish zarurati asoslanadi. Shuningdek, raqamli muhitda tarixiy-madaniy merosga oid axborot bilan ishlashda haqqoniylik, manbaga hurmat, tarixiy kontekstni saqlash, madaniy qadriyatlarga hurmat va axborot mas’uliyati kabi deontologik tamoyillarning ahamiyati ochib beriladi. Tarixiy va san’atshunoslik tadqiqotlarini raqamli muloqot bilan uyg‘unlashtirish orqali tarixiy merosni yosh avlodga yetkazishning pedagogik imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy-madaniy meros, tarix, san’atshunoslik, raqamli muhit, raqamli muloqot, raqamli kommunikatsiya, pedagogik deontologiya, axborot madaniyati, tarixiy xotira, raqamlashtirish.

Kirish

O‘zbekiston hududi qadimdan turli sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lib, unda moddiy va nomoddiy madaniy merosning noyob namunalari shakllangan. Tarixiy shaharlar, me’moriy obidalar, arxeologik yodgorliklar, qadimiy qo‘lyozmalar, amaliy san’at namunalari va boshqa madaniy boyliklar xalqimizning tarixiy xotirasi va ma’naviy merosining muhim tarkibiy qismidir.

Bunday merosni tadqiq etish tarix va san’atshunoslik fanlarining o‘zaro hamkorligini talab qiladi. Tarixiy yondashuv orqali yodgorlikning yaratilish davri, tarixiy sharoiti va jamiyat hayotidagi o‘rni aniqlansa, san’atshunoslik yondashuvi uning me’moriy, badiiy-estetik va ramziy xususiyatlarini ochib beradi.

Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida esa ushbu ikki yo‘nalishning ilmiy natijalarini raqamli muhitga olib kirish va keng auditoriyaga yetkazish imkoniyati kengaymoqda. Raqamli arxivlar, elektron ma’lumotlar bazalari, 3D modellashtirish, virtual ekskursiyalar, multimedia materiallari va ijtimoiy tarmoqlar tarixiy-madaniy meros haqidagi ma’lumotlarni tezkor tarqatish imkonini bermoqda. Shu jarayonda

raqamli muloqot alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarixiy meros haqidagi ma’lumotni raqamlashtirish bir masala bo‘lsa, uni raqamli muhitda insonlarga qanday yetkazish ikkinchi, yanada mas’uliyatli masaladir.

Asosiy qism

Raqamli muloqot tushunchasi tarixiy-madaniy merosni o‘rganish nuqtayi nazaridan tarixchi, san’atshunos, pedagog, tadqiqotchi va jamoatchilik o‘rtasidagi axborot almashinuvining zamonaviy shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda tarixiy obyekt haqidagi ilmiy ma’lumot faqat ilmiy maqola yoki monografiya shaklida emas, balki elektron maqola, videorolik, infografika, virtual ekskursiya, raqamli katalog, podkast va ijtimoiy tarmoqdagi axborot materiali shaklida ham tarqatilmoqda. Demak, raqamli muloqot tarixiy-madaniy merosni “tadqiq etish – talqin qilish – raqamlashtirish – taqdim etish – jamoatchilik bilan muloqot qilish” jarayonlarini o‘zaro bog‘lovchi vositaga aylanmoqda.

Biroq raqamli muloqotning tezkorligi ayrim xavflarni ham yuzaga keltiradi. Masalan, tarixiy faktning manbasini ko‘rsatmaslik, tarixiy voqea yoki shaxs haqida tekshirilmagan ma’lumotni tarqatish, yodgorlikning asl mazmunini soddalashtirib yuborish yoki tarixiy obyektning faqat tashqi ko‘rinishini namoyish etib, uning tarixiy kontekstini e’tibordan chetda qoldirish mumkin. Shu sababli tarixiy-madaniy merosni raqamli muhitda taqdim etishda raqamli muloqotning deontologik asoslariga rioya qilish zarur.

Birinchi tamoyil – ilmiy haqqoniylik. Raqamli platformada berilayotgan tarixiy ma’lumot ishonchli manbalarga asoslanishi va imkon qadar uning manbasi ko‘rsatilishi kerak.

Ikkinchi tamoyil – tarixiy kontekstni saqlash. Yodgorlik haqidagi ma’lumotni faqat uning tashqi ko‘rinishi bilan cheklab qo‘ymasdan, uning yaratilish davri, vazifasi va tarixiy-madaniy ahamiyatini ham tushuntirish lozim.

Uchinchi tamoyil – manbaga hurmat. Tarixchi, san’atshunos yoki boshqa tadqiqotchining ilmiy fikridan foydalanilganda uning muallifligi va manbasi ko‘rsatilishi raqamli ilmiy muloqot madaniyatining muhim talabidir.

To‘rtinchi tamoyil – axborot mas’uliyati. Raqamli muloqotda har qanday ma’lumot juda qisqa vaqt ichida katta auditoriyaga yetib borishi mumkin. Shuning uchun tarixiy ma’lumotni tekshirmasdan tarqatishdan saqlanish zarur.

Beshinchi tamoyil – madaniy merosga hurmat. Tarixiy obidalarni raqamli muhitda namoyish etishda ularning xalqning tarixiy xotirasi va madaniy o‘zligidagi o‘rnini hisobga olish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunida madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ularni o‘rganish, davlat hisobiga olish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq huquqiy asoslar belgilangan [1]. Mazkur huquqiy yondashuv tarixiy-madaniy meros bilan ishlashda mas’uliyatli munosabat zarurligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish imkoniyatlarining kengayishi ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Tarixiy obyektlarning elektron bazaga kiritilishi, 3D modellarining yaratilishi va virtual ekskursiyalarning ishlab chiqilishi tarixiy merosni yangi kommunikativ muhitga olib kirish imkonini bermoqda.

Ammo raqamli model yoki virtual ekskursiya tarixiy obyektning o‘zini to‘liq almashtirmaydi. U tarixiy-madaniy obyekt haqidagi bilimni saqlash, o‘rganish va keng auditoriyaga yetkazish vositasi hisoblanadi. Shuning uchun raqamli taqdimotning mazmuni ilmiy va pedagogik jihatdan puxta ishlab chiqilishi zarur.

Mazkur jarayonda bo‘lajak pedagoglarning raqamli muloqot madaniyati ham muhim ahamiyatga ega. Chunki tarixiy-madaniy meros haqidagi bilimlarning yosh avlodga yetkazilishida o‘qituvchi asosiy kommunikatorlardan biri hisoblanadi. Pedagog raqamli platformalarda tarixiy materiallarni tanlash, tekshirish, tahlil qilish va o‘quvchilarga tushunarli shaklda taqdim etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Oldingi tadqiqotlarimizda ham raqamli transformatsiya sharoitida bo‘lajak avlodni tarbiyalashning deontologik va kommunikativ asoslari masalasiga e’tibor qaratilgan [6]. Ushbu yondashuvni tarixiy-madaniy merosni raqamli muhitda targ‘ib etish jarayoniga tatbiq etish mumkin. Chunki raqamli texnologiyadan foydalanishning o‘zi yetarli emas; undan qanday maqsadda, qanday mazmunda va qanday mas’uliyat bilan foydalanish masalasi ham muhimdir.

Shuningdek, pedagogik deontologiyaning falsafiy-nazariy asoslari kasbiy burch, mas’uliyat va axloqiy me’yorlarni anglash bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu tamoyillar raqamli kommunikatsiya jarayonida ham o‘z ahamiyatini saqlab qoladi [5].

Shu asosda tarixiy-madaniy merosni raqamli muhitda taqdim etishda quyidagi kommunikativ modelni taklif etish mumkin:

Tarixiy manba → ilmiy tahlil → san’atshunoslik talqini → raqamlashtirish → deontologik ekspertiza → raqamli muloqot → jamoatchilikka taqdim etish.

Mazkur modelning o‘ziga xos jihati shundaki, raqamli kontent jamoatchilikka yetkazilishidan oldin uning ilmiyligi, manbaga asoslanganligi, tarixiy konteksti va axloqiy jihatlari ko‘rib chiqiladi.



Natijada tarixiy-madaniy merosni raqamli muhitda taqdim etish oddiy axborot tarqatish jarayonidan ilmiy, kommunikativ va deontologik jarayonga aylanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistondagi tarixiy-madaniy merosni zamonaviy sharoitda tadqiq etish va keng jamoatchilikka yetkazish tarix, san’atshunoslik va raqamli kommunikatsiyaning o‘zaro hamkorligini talab etadi. Raqamli texnologiyalar tarixiy obyektlarni saqlash, modellashtirish va namoyish etish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Biroq raqamlashtirish jarayonining samaradorligi faqat texnik imkoniyatlar bilan belgilanmaydi. Tarixiy ma’lumotni raqamli muhitda qanday taqdim etish, manbaga qanday munosabatda bo‘lish, tarixiy kontekstni qanday saqlash va auditoriya bilan qanday muloqot qilish masalalari ham muhimdir.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli muloqotning deontologik asoslari tarixiy-madaniy merosni zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali targ‘ib etishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy haqqoniylik, manbaga hurmat, axborot mas’uliyati, tarixiy kontekstni saqlash va madaniy qadriyatlarga hurmat kabi tamoyillar tarixiy merosning raqamli makonda to‘g‘ri va mas’uliyatli talqin qilinishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarda raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonida tarixiy-madaniy merosdan foydalanish ularda nafaqat tarixiy tafakkurni, balki axborotga mas’uliyatli munosabat va kasbiy-deontologik madaniyatni ham rivojlantiradi. Shu jihatdan tarixiy merosni raqamli muloqot vositasida yosh avlodga yetkazish pedagogik ta’limning mazmunini boyituvchi istiqbolli yo‘nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida. 269-II-son, 30.08.2001. LexUZ – 269-II-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida. 265-son, 30.03.2019. LexUZ – 265-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida. 659-son, 20.10.2025. LexUZ – 659-son
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Madaniy meros sohasidagi davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston

Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. O‘RQ-1160-son, 23.07.2026. LexUZ – O‘RQ-1160

5. Kurbanbayeva M. Zamonaviy ta’lim sharoitida pedagogik deontologiyaning falsafiy-nazariy asoslari // Tamaddun nuri jurnali. – 2025. – 9 (72). – B. 388–390.
6. Kurbanbayeva M.K. Raqamli transformatsiya sharoitida bo‘lajak avlodni tarbiyalashning deontologik va kommunikativ asoslari // Science Time. – 2025. – Vol. 3, №4. – B. 132–136.
7. Kurbanbayeva M.K. Bo‘lajak o‘qituvchining raqamli muloqot madaniyatini shakllantirishning innovatsion modeli // Science Time. – 2025. – Vol. 3, №5. – B. 183–189.

O‘ZBEK XALQ AMALIY BEZAK SAN’ATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TA’LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Mirzakulov Islomjon Xoljigitovich
Guliston davlat universiteti, “Amaliy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi E-mail: islommirzaqulov42@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek xalq amaliy bezak san’atining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti va asosiy turlari tahlil qilingan. Unda amaliy san’atning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy ifoda vositalari hamda ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq amaliy san’ati, amaliy bezak san’ati, naqqoshlik, ganch o‘ymakorligi, yog‘och o‘ymakorligi, koshinkorlik, kulolchilik, kashtachilik, zardo‘zlik, milliy naqsh, hunarmandchilik, estetik tarbiya, milliy meros, kompozitsiya, ustoz-shogird, badiiy tafakkur.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati milliy madaniy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida alohida o‘rin egallaydi. O‘zbek diyorida shakllanib, rivojlangan amaliy san’at turlari rang-barangligi, badiiy mukammalligi, betakror uslub va naqshlari bilan milliy hamda jahon madaniy merosining qimmatli namunalaridan hisoblanadi. Ularning ildizlari insoniyatning ilk ijodiy faoliyati, xususan, ibtidoiy jamiyat davriga borib taqaladi. [Bulatov S.S.: 14-38]

Bugungi kunda Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va boshqa tarixiy shaharlardagi me’moriy yodgorliklarda ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, yog‘och va tosh o‘ymakorligining uyg‘unlashgan namunalarini ko‘rish

mumkin. Ular xalqimizning yuksak badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va boy ma’naviy merosini aks ettiradi.

Xalq amaliy bezak san’ati estetik ahamiyat bilan bir qatorda, muhim tarbiyaviy imkoniyatlarga ham ega. U insonning ma’naviy dunyosini boyitish, estetik didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, milliy qadriyatlarga hurmat va Vatanga muhabbat tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli amaliy bezak san’atini ta’lim jarayonida o‘rganish yosh avlodning badiiy-estetik, ma’naviy-axloqiy va mehnat tarbiyasini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir.

O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan ko‘p qirrali san’at tizimidir. Uning tarkibiga naqqoshlik, ganch o‘ymakorligi, yog‘och o‘ymakorligi, koshinkorlik, kulolchilik, zardo‘zlik, kashtachilik, kandakorlik, gilamdo‘zlik, zargarlik va boshqa san’at turlari kiradi. Ular material, texnika, kompozitsiya va badiiy ifoda vositalari bilan farqlansa-da, milliy estetik tafakkur, naqsh va ramziy bezaklar, tabiatga munosabat hamda ustoz-shogird an’analari ularni birlashtirib turadi.

Naqqoshlik san’ati




Naqqoshlik o‘zbek xalq amaliy bezak san’atining eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biridir. Uning asosini shakl va ranglarning uyg‘unligi, naqsh elementlarining kompozitsion yaxlitligi tashkil etadi. Unda o‘simliksimon, geometrik, ramziy va stilizatsiyalangan shakllardan keng foydalaniladi.

Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg‘ona vodiysi va Toshkent naqqoshlik maktablari naqsh tuzilishi, ranglar uyg‘unligi va kompozitsion yechimlari bilan o‘zaro farqlanadi. Naqsh faqat bezak vazifasini bajarib qolmay, estetik va ramziy mazmunni ham ifodalaydi. Undagi takrorlanish, simmetriya va ritm insonda tartib, uyg‘unlik va mutanosiblik haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. [Abdirasilov S.F.: 217]

Ganch o‘ymakorligi

Ganch o‘ymakorligi o‘zbek me’morchiligi va amaliy bezak san’atining o‘ziga xos yo‘nalishidir. Yumshoq va ishlov berishga qulay ganch yuzasiga turli naqsh va kompozitsiyalar o‘yib ishlanadi. Unda geometrik va o‘simliksimon naqshlar, murakkab girihlar hamda nafis kompozitsiyalar keng qo‘llanadi.



26-расм. 1-қаҳвахонанинг ганч ўймакорлиги безаги.

Ganch bilan ishlash ustadan aniqlik, sabr-toqat va yuqori mahorat talab qiladi. Naqshning chuqurligi, o‘yma qatlamlari va yorug‘lik-soya munosabati uning badiiy ta’sirchanligini belgilaydi. Naqqoshlikda rang yetakchi vosita bo‘lsa, ganch o‘ymakorligida hajm, chuqurlik, yorug‘lik va soya muhim ahamiyat kasb etadi. [Bulatov S.S.: 14–38]

Yog‘och o‘ymakorligi

Yog‘och o‘ymakorligi yog‘ochga badiiy ishlov berish orqali turli bezak va kompozitsiyalar yaratishga asoslanadi. Ustalar yog‘ochning tabiiy xususiyatlarini hisobga olib, eshik, ustun, darvoza, sandiq, kursi, stol va boshqa buyumlarni bezaganlar. [Bulatov S.S.: 226]

Bu san’at turida naqshlarning chuqur yoki sayoz o‘yilishi, geometrik va o‘simliksimon elementlarning uyg‘unligi, kompozitsion yaxlitlik muhim sanaladi.

Koshinkorlik va kulolchilik

Koshinkorlik, ayniqsa, me’moriy inshootlarni bezashda muhim o‘rin tutadi. Koshinlar bino fasadi, peshtoq, gumbaz va ichki qismlariga o‘ziga xos badiiy ko‘rinish beradi. Unda rang, geometrik shakl, naqsh va kompozitsiya uyg‘unlashib, yaxlit bezak tizimini hosil qiladi. [Binafsha Nodir: 5-6]

Kulolchilik esa loyga shakl berish, uni pishirish va bezash asosida buyum yaratish san’atidir. Idish, lagan, ko‘za va boshqa buyumlarning shakli, rangi va naqshlari ularga badiiy qiymat beradi. Kulolchilikda ham o‘simliksimon va geometrik naqshlardan keng foydalaniladi. [Bulatov S.S.: 284]

Amaliy bezak san’ati turlarining qiyosiy tahlili

O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati turlarini qiyosiy tahlil qilish ularning turli material va texnologiyalarga asoslanganini, biroq umumiy estetik tamoyillar bilan birlashganini ko‘rsatadi.

San’at turi	Asosiy materiali	Yetakchi texnika	Asosiy badiiy vositasi
Naqqoshlik	Yog‘och, ganch, devor, shift va boshqa yuzalar	Bo‘yash va naqsh tushirish	Rang, ritm, kompozitsiya
Ganch o‘ymakorligi	Ganch	O‘yish	Hajm, chuqurlik, yorug‘lik va soya
Yog‘och o‘ymakorligi	Yog‘och	O‘yish, kesish	Hajm, faktura, naqsh

Koshinkorlik	Sopol, keramika	Koshin terish va biriktirish	Rang, geometrik shakl, kompozitsiya
Kulolchilik	Loy, sopol	Shakl berish, pishirish, bezash	Shakl, rang, naqsh

Tahlildan ko‘rinadiki, barcha amaliy bezak san’ati turlarida naqsh va kompozitsiya muhim o‘rin tutadi. Farq esa material, texnika va badiiy ifoda vositalarida namoyon bo‘ladi. Naqqoshlikda rang, ganch va yog‘och o‘ymakorligida hajm hamda faktura, koshinkorlikda rangli materiallarning uyg‘unligi yetakchi ahamiyatga ega.

Mazkur san’at turlari bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro ta’sir va uyg‘unlikda rivojlangan. Tarixiy me’moriy obidalarda ganchkorlik, naqqoshlik, koshinkorlik, xattotlik va yog‘och o‘ymakorligining bir makonda uyg‘unlashuvi bunga yaqqol misoldir. Bu holat o‘zbek xalqining badiiy tafakkurida bezak, shakl, rang va mazmunning yaxlit tizim sifatida qaralganini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, milliy qadriyatlari, estetik qarashlari va ma’naviy dunyosini mujassam etgan bebaho madaniy merosdir. Naqqoshlik, ganch o‘ymakorligi, yog‘och o‘ymakorligi, koshinkorlik, kulolchilik, kashtachilik va zardo‘zlik kabi san’at turlari materiallari, texnologik jarayonlari va badiiy ifoda vositalari bilan bir-biridan farq qiladi. Shu bilan birga, ularni milliy naqsh an’analari, kompozitsion mutanosiblik, ritm, ranglar uyg‘unligi, stilizatsiya, ramziylik va estetik yaxlitlik kabi umumiy tamoyillar birlashtirib turadi.

Amaliy bezak san’atining tarixiy taraqqiyotini o‘rganish uning milliy madaniyatni saqlash va kelajak avlodga yetkazishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ustoz-shogird an’anasi orqali kasbiy tajriba va badiiy mahoratning avloddan-avlodga o‘tishi xalq hunarmandchiligining davomiyligini ta’minlab kelgan. Shu bois milliy amaliy san’at namunalarini asrab-avaylash, ilmiy jihatdan o‘rganish va zamonaviy sharoitda rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

Xalq amaliy bezak san’ati ta’lim-tarbiya jarayonida ham katta imkoniyatlarga ega. Uni o‘rganish yoshlarning estetik didi, ijodiy fikrlashi, amaliy ko‘nikmalari, mehnatsevarligi, sabr-toqati va milliy qadriyatlarga hurmatini rivojlantiradi. Amaliy san’at mashg‘ulotlari yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. [Oripov B.: 28]

Demak, o‘zbek xalq amaliy bezak san’ati nafaqat tarixiy-madaniy meros, balki yosh avlodni estetik, ma’naviy-axloqiy va mehnat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim ta’limiy vositadir. Uni chuqur o‘rganish, o‘ziga xos xususiyatlarini

tahlil qilish va ta’lim jarayonida samarali qo‘llash milliy madaniyatimizning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 232 b.
2. Binafsha Nodir**.** O‘zbekiston amaliy san’ati. An’analar davomiyligi. – T.: “SAN’AT” jurnali nashriyoti, 2021.
3. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. – T.: Mehnat, 1991. – 384 b.
4. Mirzakulov I. Kompozitsiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2023.
5. Nusharov B. Chizmatasvir. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2026.
6. Oripov B. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. – T.: 2005.

O‘zbekiston Respublikasi. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida. – T.

TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIK SOHALARI HAMKORLIGIDA TARIXIY VA MADANIY YODGORLIKLARNI O‘RGANISH ISTIQBOLLARI

Obidov Bekzod Zokirjon o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti,
Tasviriy san’at yo‘nalishi magistranti
e-mail: obidovbekzod30@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekistondagi tarixiy va madaniy yodgorliklarni tadqiq etishda tarix va san’atshunoslik fanlarining o‘zaro hamkorligi yoritilgan. Yodgorliklarni kompleks o‘rganish, san’atshunoslik tahlili, raqamli texnologiyalar va fanlararo yondashuvning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy yodgorlik, madaniy meros, san’atshunoslik, arxeologiya, me’morchilik, bezak, raqamlashtirish, 3D modellashtirish, manbashunoslik, koshinkorlik, rangtasvir, amaliy san’at.

Bugungi kunda O‘zbekistonda tarixiy va madaniy merosni o‘rganish, asrab-avaylash hamda kelajak avlodga yetkazish muhim ilmiy va ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida joylashgan qadimiy shaharlar, me’moriy majmualar, arxeologik yodgorliklar, maqbaralar, masjid va madrasalar, saroylar, qal’alar, hunarmandchilik hamda amaliy san’at namunalari xalqimizning ko‘p asrlik tarixiy va madaniy taraqqiyotini o‘zida mujassam etgan. Ushbu yodgorliklarni chuqur

va har tomonlama tadqiq etish nafaqat tarixiy voqealarni tiklash, balki ajdodlarimizning badiiy tafakkuri, estetik qarashlari, me’moriy tajribasi va ma’naviy qadriyatlarini anglash imkonini ham beradi. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni o‘rganishda tarix va san’atshunoslik fanlarining o‘zaro hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Chunki tarixiy obidani faqat tarixiy voqea yoki me’moriy obyekt sifatida o‘rganish uning mazmunini to‘liq ochib berishga imkon bermaydi. Har qanday tarixiy inshoot o‘zida ma’lum bir davrning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy hayoti bilan bir qatorda, o‘sha davr san’atining estetik qarashlari, badiiy an’analari va texnologik imkoniyatlarini ham aks ettiradi. Shu sababli tarixchi va san’atshunosning birgalikdagi tadqiqoti yodgorlikning tarixiy, me’moriy va badiiy xususiyatlarini yaxlit holda ochib berishga xizmat qiladi.

Tarix fani yodgorlikning yaratilish davri, bunyod etilish shart-sharoitlari, tarixiy voqealar, buyurtmachilar, me’morlar, hunarmandlar hamda u bilan bog‘liq tarixiy shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi. San’atshunoslik esa ushbu yodgorlikning me’moriy yechimi, kompozitsiyasi, bezak tizimi, naqshlari, ranglari, yozuvlari, tasviriy elementlari va badiiy uslubini o‘rganadi. Mazkur ikki yo‘nalishning uyg‘unlashuvi natijasida tarixiy obyekt haqida yanada mukammal va ishonchli ilmiy tasavvur shakllanadi. Tarixiy yodgorliklar – xalqlar hayotidagi muhim tarixiy voqealar, jamiyat va davlat taraqqiyoti hamda tarixiy shaxslar, shuningdek, fan, texnika, madaniyat va xalqlarning maishiy turmushi taraqqiyoti bilan bog‘liq binolar, inshootlar, tarixiy joylar va buyumlar Umumiy xususiyatlariga ko‘ra, tarixiy yodgorliklar arxeologik, me’moriy va mahobatli san’at yodgorliklariga bo‘linadi, shuningdek, tarixiy badiiy qimmatga ega bo‘lgan yozma yodgorliklar ham unga taalluqlidir. Tarixiy yodgorliklarning turlari nihoyatda xilma-xil.

Tarixiy yodgorliklarda uchraydigan yozuvlar, kitobalar, naqshlar, ramziy belgilar va tasviriy kompozitsiyalar ham muhim tarixiy manba sifatida qaralishi mumkin. Ularni tarixiy manbashunoslik va san’atshunoslik metodlari asosida birgalikda tahlil qilish yodgorlikning yaratilish davri, vazifasi va madaniy muhitiga oid yangi ma’lumotlarni aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, san’atshunoslik tarix fanining yordamchi yo‘nalishi emas, balki tarixiy-madaniy merosni kompleks tadqiq etishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Tarix va san’atshunoslik sohalarining o‘zaro hamkorligida tarixiy-qiyosiy tahlil, manbashunoslik, vizual tahlil, arxeologik tahlil, me’moriy tahlil va san’atshunoslik metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. Tarixiy-qiyosiy tahlil yordamida turli davr va hududlarga oid yodgorliklarning o‘xshash hamda farqli jihatlari aniqlanadi. Manbashunoslik orqali arxiv hujjatlari, vaqfnomalar, sayohatnomalar, eski

fotosuratlar va boshqa tarixiy materiallar o‘rganiladi. San’atshunoslik tahlili esa yodgorlikning badiiy qiyofasi, naqshlari, ranglar tizimi va uslubiy xususiyatlarini ochib beradi.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarni tadqiq qilish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Avvalo, ayrim tadqiqotlarda yodgorlikning tarixiy jihatlari bilan badiiy xususiyatlari alohida-alohida o‘rganilib, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yetarlicha ochib berilmaydi. Natijada yodgorlikning umumiy madaniy mazmunini to‘liq yoritish imkoniyati cheklanadi. Ayrim yodgorliklarning bezaklari, naqshlari, rangtasvir namunalari va amaliy san’at elementlari ham to‘liq ilmiy kataloglashtirilmagan. Bu esa ularni qiyosiy o‘rganish va ilmiy muomalaga kiritishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Yana bir muhim masala — tarixiy manbalar, arxeologik materiallar va san’atshunoslik ma’lumotlarini yagona ilmiy tizimga birlashtirish zaruratidir. Yodgorlik haqida turli soha mutaxassislarida mavjud ma’lumotlarning tarqoq holda saqlanishi kompleks tadqiqotlarni murakkablashtiradi. Shu sababli tarix, san’atshunoslik, arxeologiya, me’morchilik va restavratsiya mutaxassislarining qo‘shma ilmiy loyihalarini ko‘paytirish muhim ahamiyatga ega. Tarixiy yodgorliklarni tadqiq etishda “tarixiy manba – arxeologik dalil – me’moriy tahlil – san’atshunoslik tahlili – raqamlashtirish – kompleks ilmiy xulosa” tizimidan foydalanish mumkin [Ashurov N.B: 2-3].

Naqsh, miniatyura, devoriy rangtasvir, kulolchilik, zardo‘zlik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi, koshinkorlik kabi san’at turlari ma’lum bir davrning estetik qarashlari va madaniy an’analarini o‘zida aks ettiradi. Ayniqsa, me’moriy obidalardagi naqsh va bezaklarni o‘rganish orqali o‘sha davr ustalarining badiiy tafakkuri, ramziy qarashlari va bezak yaratish an’analari haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Ranglarning tanlanishi ham yodgorlikning badiiy qiyofasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ranglar tizimi ma’lum davrning estetik qarashlari bilan bir qatorda, mahalliy tabiiy xomashyo va texnologik imkoniyatlar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli tarixiy rangtasvir va bezaklarni o‘rganishda san’atshunoslik bilan bir qatorda materialshunoslik va restavratsiya yo‘nalishlari bilan hamkorlik qilish istiqbolli hisoblanadi. 3D skanerlash va modellashtirish orqali tarixiy yodgorliklarning raqamli nusxalarini yaratish, ularning hozirgi holatini hujjatlashtirish va kelgusidagi restavratsiya jarayonlari uchun ilmiy asos yaratish mumkin. Raqamli fotogrammetriya, elektron kataloglar, raqamli xaritalar va virtual muzeylar tarixiy obyektlarni saqlash hamda ular haqidagi ilmiy ma’lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Restavratsiya jarayonida obidaning asl tarixiy qiyofasini saqlab qolish, keyingi davrlarda qo‘shilgan elementlarni aniqlash va badiiy qiymatga ega bezaklarni muhofaza qilish talab etiladi. Buning uchun yodgorlikning tarixiy rivojlanishi, me’moriy tuzilishi va badiiy bezaklari haqida yetarli ilmiy ma’lumotga ega bo‘lish kerak. Tarixchi va san’atshunosning xulosalari restavrator uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tarixiy va madaniy yodgorliklarni tadqiq etish natijalarini ommalashtirish ham muhim vazifalardan biridir. Ilmiy kataloglar, albomlar, elektron ma’lumotlar bazalari, virtual ko‘rgazmalar va ilmiy-ommabop nashrlar orqali tadqiqot natijalarini keng jamoatchilikka yetkazish mumkin [O‘zganboyeva M. Q: 1-2]. Bu esa tarixiy merosning ilmiy qiymatini oshirish bilan birga, uning ta’lim, madaniy-ma’rifiy faoliyat va turizm sohalaridagi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O‘zbekistondagi tarixiy va madaniy yodgorliklarni chuqur o‘rganish tarix va san’atshunoslik sohalarining o‘zaro hamkorligini yanada kuchaytirishni talab etadi. Tarixiy manbalarni o‘rganish, arxeologik dalillarni tahlil qilish, me’moriy va san’atshunoslik xususiyatlarini aniqlash hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish yodgorliklarning tarixiy-madaniy qiymatini kompleks ravishda ochib berish imkonini beradi. Tarix va san’atshunoslikning hamkorligi natijasida tarixiy obyektlar faqat me’moriy inshoot sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik tafakkuri, ma’naviy qadriyatlari va madaniy taraqqiyotini aks ettiruvchi yaxlit meros sifatida o‘rganiladi. Kelgusida tarix, san’atshunoslik, arxeologiya, me’morchilik, restavratsiya va raqamli texnologiyalar yo‘nalishlari mutaxassislarining qo‘shma ilmiy loyihalarini kengaytirish, tarixiy yodgorliklarning elektron kataloglarini yaratish, 3D modellashtirish va raqamli arxivlarni rivojlantirish muhim istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi [Abdullayev M: 23-24].

Shunday qilib, tarix va san’atshunoslik fanlarining integratsiyasi O‘zbekistonda tarixiy va madaniy merosni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, asrash, targ‘ib qilish va kelajak avlodga yetkazishning samarali mexanizmlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Bu boradagi fanlararo hamkorlikni kuchaytirish tarixiy obidalarning ilmiy qiymatini yanada oshirish, ularning badiiy va madaniy ahamiyatini kengroq yoritish hamda milliy merosimizni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev M. Tarixiy merosni saqlashda zamonaviy texnologiyalar. T.: “Meros” nashriyoti, 2022 . – B. 23-24.

2. Ashurov N.B. Tarixiy jarayonlarni tadqiq etishda zamonaviy metodologik yondashuvlar. (https://www.interspp.com/)
3. Qodirov R. Arxeologiyada zamonaviy tadqiqot usullari. T.: “Fan” nashriyoti, 2021. – B. 8-10.
4. O‘zganboyeva M. Q. Tarixiy-madaniy yodgorliklarni zamonaviy o‘rganish usullari. (https://www.wosjournals.com/)
5. https://oyina.uz/uz/teahause/2339. Tarixiy yodgorliklar. Tarixiy voqelik nomli maqola.

TARIXIY-ME’MORIY MEROS OBYEKTLARINI O‘RGANISHDA TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI INTEGRATSIYASINING METODIK IMKONIYATLARI

Qosimjonova Laylo Komiljon qizi
Guliston davlat universiteti
“Amaliy san’at va dizayn” kaferasi o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada yoritilgan masalalar tarixiy hamda madaniy meros obyektlarini tahlil qilishda tasviriy san’at va muhandislik grafikasi fanlari integratsiyasining nazariy ,metodik asoslaridir.Mazkur maqolada tarixiy-me’moriy obyektlarni grafik tasvirlash, konstruktiv tahlil qilish va modellashtirish ishlari yagona metodik tizim sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, tasviriy san’at, muhandislik grafikasi, integratsiya, grafik kompetensiya, estetik tarbiya, fazoviy tafakkur, grafik modellashtirish, innovatsion ta’lim.

Bugungi jahon miqyosidagi integratsion jarayonlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish sur’atlarining ortishi sharoitida milliy madaniy merosni konservatsiya qilish, ilmiy jihatdan o‘rganish hamda uni yosh avlodga yetkazish muhim strategik ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Asrlar davomida shakllangan madaniy qadriyatlar va ma’naviy boyliklar tarixiy-me’moriy obidalar timsolida saqlanib kelmoqda. Tarixiy va me'moriy obidalarni xalqning milliy o‘zligi, ma'naviy merosi hamda turizm salohiyatining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi.[Sh.Mirziyoyev:112]

Qadimiy me’morchilik namunalariga boy bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun qimmatli manba, balki ta’lim amaliyotida samarali foydalanilishi mumkin bo‘lgan o‘quv obyektlari

hisoblanadi.Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida tarixiy obidalarning konstruktiv yechimlarini o‘rganish faqat nazariy ma’lumotlarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki tarixiy-me’moriy obidalarni o‘rganish jarayonida ularning badiiy-estetik, konstruktiv va kompozitsion xususiyatlari tasviriy hamda grafik tahlil metodlari asosida ochib beriladi.Tasviriy san’at tarixiy obyektlarning ularning estetik yechimlari va badiiy qiymatini anglashga zamin yaratsa, muhandislik grafikasi ularning konstruktiv tuzilishi va geometrik yechimlarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.[Abdullayev R:34-35] Mazkur fanlararo integratsiyaga asoslangan ta’lim jarayonida talabalar tarixiy-me’moriy obyektlarni yaxlit me’moriy tizim sifatida idrok etib, ularning badiiy-estetik hamda konstruktiv-texnik xususiyatlarini kompleks baholash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Shu sababli tarixiy va madaniy meros obyektlarini o‘rganishda tasviriy san’at hamda muhandislik grafikasi fanlarining o‘zaro integratsiyasiga tayangan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi.Ta’lim tizimida fanlararo integratsiyani ta’minlash muammosi keyingi yillarda ilmiy izlanishlarning markaziy mavzularidan biri sifatida e’tirof etish bilan birga pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Integratsiyalashgan ta’lim konsepsiyasi o‘quv materialini fanlar kesimida ajratilgan holda emas, balki mazmunan va metodik jihatdan uzviy bog‘langan tizim sifatida o‘rganishni nazarda tutadi.

Boshqa sohalar bilan bir qatorda tasviriy san’at ta’limida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko’ra talabalarning estetik ijodiy qobiliyati ,tafakkuri va vizual idrokini rivojlantirishda badiiy faoliyat muhim o‘rin tutadi. Ilmiy manba va tadqiqotlarda muhandislik grafikasi fazoviy tasavvurni rivojlantirish, texnik fikrlashni takomillashtirish shu bilan bir qatorda kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashning samarali pedagogik vositasi sifatida tavsiflanadi.[Sh.R. Qobilov: 6-7]

Mavjud ilmiy manbalarni o‘rganish jarayonida tarixiy va madaniy meros obyektlarini tahlil qilishda tasviriy san’at va muhandislik grafikasining integrallashgan imkoniyatlarini qamrab oluvchi metodik yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagani namoyon bo’ldi. Natijada tarixiy-me’moriy obidalarni kompleks tahlil qilish, ularning estetik va muhandislik jihatlarini uyg‘un holda baholash imkoniyatlari to‘liq ro‘yobga chiqarilmayapti.Shu sababli tarixiy va madaniy meros obyektlarini kompleks tahlil qilish hamda ularning badiiy-estetik hamda konstruktiv xususiyatlarini uyg‘un holda o‘rganishga yo‘naltirilgan integratsion metodik modelni ishlab chiqish zarurati yuzaga paydo bo’lmoqda.

Tadqiqotning metodologik asosini quyidagilar tashlik etadi: tizimli yondashuv, kompetensiyaviy ta’limkonsepsiyasi va fanlararo integratsiya tamoyillari . Ilmiy izlanish davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy va nazariy tahlil, ilmiy manbalarni o‘rganish, modellashtirish, umumlashtirish, shuningdek, grafik faoliyat mahsulotlarini ekspert baholash va tahlil qilish metodlari qo‘llanildi.Tadqiqotning obyekti sifatida tarixiy va madaniy meros obyektlarini o‘rganish jarayoni tanlalab olindi.Tadqiqot predmeti esa tasviriy san’at va muhandislik grafikasi integratsiyasiga asoslangan metodik tizim hisoblanadi.Mazkur tadqiqotda tarixiy-me’moriy merosni o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish talabalarning grafik bilimlari, estetik dunyoqarashi va professional ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi haqidagi faraz ilgari surildi.

Fanlararo integratsiya bu bilimlarning yaxlitligini ta’minlovchi pedagogik mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv natijasida tarixiy-me’moriy obyektlar turli fanlar kesimida tahlil qilinib, ularning ko‘p qirrali xususiyatlari chuqurroq anglashga ko’makdosh bo’ladi.Tarixiy va madaniy meros obyektlarini o‘rganish jarayonida tasviriy san’at quyidagi funksiyalarni bajaradi:estetik idrokni rivojlantiradi, badiiy kuzatuvchanlikni shakllantiradi, fikrlashni rivojlantiradi, milliy san’atga qiziqishni oshiradi.Muhandislik grafikasi esa:fazoviy tafakkurni rivojlantiradi,konstruktiv tahlil ko‘nikmalarini shakllantiradi,texnik tasvirlash madaniyatini rivojlantiradi,grafik savodxonlikni oshiradi.Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyati talabalarda tarixiy-me’moriy obyektlarning estetik, tarixiy va konstruktiv xususiyatlarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish hamda ularga kompleks baho berish ko‘nikmalarini shakllantiradi.Mazkur kompetensiya quyidagi komponentlar asosida shakllantiriladi:estetik-badiiy komponent, grafik-texnik komponent analitik komponent, tadqiqotchilik komponentir raqamli texnologiyalar komponenti.

Madaniy merosni o‘rganishning integratsion metodik modeli.

Taklif etilayotgan metodik model besh bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich: tarixiy obyektni o‘rganish.

Ikkinchi bosqich: badiiy tahlil.

Uchinchi bosqich: grafik tahlil.

To‘rtinchi bosqich: raqamli modellashtirish.

Beshinchi bosqich: grafik rekonstruksiya.

Taklif etilgan metodika asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijasida talabalarning grafik va estetik kompetensiyalarida sezilarli o‘sish kuzatildi.Tajriba

natijalari shuni ko‘rsatdiki, integratsion metodika an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan samaraliroq hisoblanadi.

Integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyati talabalarning grafik savodxonligi, fazoviy tafakkuri, estetik madaniyati va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.madaniy meros obyektlari grafik ta’lim uchun muhim didaktik resurs hisoblanadi shu bilan birga integratsion yondashuv bilimlarning yaxlitligini ta’minlaydi,tarixiy obyektlarni grafik modellashtirish talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantiradi va raqamli texnologiyalar asosidagi faoliyat grafik kompetensiyalarni shakllantirishni jadallashtiradi, taklif etilgan metodika oliy ta’lim muassasalarining tasviriy san’at, muhandislik grafikasi, dizayn va arxitektura yo‘nalishlarida samarali qo‘llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev R. Arxitektura grafikasining nazariy asoslari. Toshkent, 2022.
2. Eshboyev A. Muhandislik grafikasi metodikasi. Toshkent, 2022.
3. Ismoilov X. Tasviriy san’at nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2021.
4. Jo‘rayev S. Madaniy meros pedagogikasi. Toshkent, 2023.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2022.
6. Sh.R. Qobilov. “Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi” (2014)

TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIK ASOSIDA O‘ZBEKISTON TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARINI O‘RGANISH

Qudratova Charos Nematilla qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
“Tasviriy san’at” yo‘nalishi 2-kurs magistranti
+998 94 009 29 56

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida joylashgan tarixiy va madaniy yodgorliklarni o‘rganishda tarix va san’atshunoslik fanlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda hamkorligining ahamiyati yoritilgan. Tarixiy obidalar, me’moriy inshootlar va tasviriy san’at namunalarini har tomonlama o‘rganishda ushbu fanlarning o‘rni tahlil qilingan. Afrosiyob devoriy suratlari va Temuriylar davri miniatyura san’ati misolida tarixiy voqealar, o‘sha davr madaniy muhiti va badiiy xususiyatlarning o‘zaro aloqasi ko‘rib chiqilgan. Maqolada tarix va san’atshunoslik

fanlari hamkorligini rivojlantirish hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, tarix, san’atshunoslik, tarixiy yodgorlik, Afrosiyob, devoriy surat, miniatyura, me’morchilik, restavratsiya, ikonografiya, arxeologiya, tarixiy manba, raqamli texnologiya, hamkorlik, milliy qadriyat.

KIRISH. O‘zbekiston qadimiy tarixga va boy madaniy merosga ega mamlakatdir. Samarqand, Buxoro, Xiva va Termiz kabi shaharlarda saqlanib qolgan me’moriy obidalar, devoriy suratlar, kitobat va amaliy san’at namunalari o‘tmish hayoti haqida muhim ma’lumot beradi. Ushbu yodgorliklar xalqimizning turmush tarzi, dunyoqarashi, san’ati va boshqa xalqlar bilan aloqalarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Tarixiy yodgorliklarni chuqur o‘rganish uchun faqat sanalar va tarixiy voqealarni bilish yetarli emas. Yodgorlikning shakli, bezaklari, ranglari, tasvirlari va yozuvlarini ham tahlil qilish zarur. Shu sababli tarix va san’atshunoslik fanlarining hamkorligi muhim hisoblanadi. Tarix yodgorlikning qaysi davrda va qanday sharoitda yaratilganini tushuntirsa, san’atshunoslik uning badiiy xususiyatlarini ochib beradi [Pugachenkova G.A., Rempel L.I.].

Maqolaning maqsadi - O‘zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarini o‘rganishda tarix hamda san’atshunoslik fanlari hamkorligining ahamiyatini sodda misollar orqali tushuntirish va mavjud muammolar bo‘yicha takliflar berishdan iborat. Mavzuni yoritishda adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil va tarixiy misollarni ko‘rib chiqish usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Tarixchi yodgorlikning yaratilish davri, uni bunyod etgan hukmdor yoki jamiyat, o‘sha davrdagi siyosiy va ijtimoiy sharoit haqida ma’lumot izlaydi. San’atshunos esa asarning kompozitsiyasi, ranglar uyg‘unligi, tasvir uslubi va bezaklarini o‘rganadi. Bu ikki yondashuv bir-birini to‘ldiradi. Masalan, tarixiy obidadagi tasvirni faqat chiroyli san’at namunasi sifatida ko‘rish uning mazmunini to‘liq anglashga imkon bermaydi. Tasvirning qachon va nima sababdan yaratilgani aniqlansa, u haqidagi xulosa aniqroq bo‘ladi [Hakimov A.].

Bunga Afrosiyob devoriy suratlari misol bo‘la oladi. Qadimgi Samarqand hududidan topilgan bu suratlarda turli elchilar va tantanali marosimlar tasvirlangan. Tarixiy tahlil tasvirlarda aks etgan davr va xalqlararo munosabatlarni tushunishga yordam beradi. San’atshunoslik tahlili esa kiyimlar, naqshlar, ranglar va inson qiyofalarining tasvirlanishiga e’tibor qaratadi. Shu yo‘l bilan suratlar nafaqat san’at namunasi, balki o‘tmish hayoti haqida ma’lumot beruvchi manba sifatida ham o‘rganiladi [Rtveladze E.V.].

Temuriylar davri miniatyura san’ati ham tarix va san’atshunoslik hamkorligining muhim namunasidir. Miniatyuralarda saroy hayoti, adabiy qahramonlar, tabiat manzaralari va turli marosimlar tasvirlangan. Ushbu asarlarni o‘rganishda tasviriy uslub va ranglardan tashqari, asar yaratilgan davrning madaniy muhiti ham hisobga olinishi kerak. Kamoliddin Behzod ijodi misolida badiiy mahorat bilan birga o‘sha davr kitobat madaniyati va homiylik an’analarini ham ko‘rib chiqish mumkin [Pugachenkova G.A., Rempel L.I.].

Tarix va san’atshunoslik o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda ayrim muammolar mavjud. Birinchidan, turli soha mutaxassislari ba’zan bir yodgorlikni alohida-alohida o‘rganadi. Natijada ma’lumotlar bir joyga jamlanmasligi yoki xulosalar yetarlicha solishtirilmasligi mumkin. Ikkinchidan, restavratsiya jarayonida yodgorlikning asl materiali va bezaklarini saqlashga alohida e’tibor berish kerak. Obidani faqat tashqi tomondan yangilash uning tarixiy qiymatiga zarar yetkazishi mumkin.



1-rasm. O‘zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklarini o‘rganishda tarix va san’atshunoslik hamkorligi.

Uchinchi muammo mutaxassislar tayyorlash bilan bog‘liq. Tarix yo‘nalishidagi talabalar san’at asarlarini tahlil qilishni, san’at yo‘nalishidagi talabalar esa tarixiy manbalar bilan ishlashni yetarli darajada o‘rganishlari zarur. Bundan tashqari, qadimiy yozuvlar, arxeologik topilmalar va bo‘yoq tarkibini o‘rganishda maxsus bilim va texnik vositalar talab qilinadi. Madaniy merosni asrash masalalarida turli

mutaxassislarning birgalikda ishlashi muhimligi ilmiy adabiyotlarda ham qayd etiladi [Ashirov A., Qahhorova D., 2022, 45-52-b.].

Birinchi navbatda, tarixchilar, san’atshunoslar, arxeologlar va restavratorlarning qo‘shma ilmiy loyihalarini ko‘paytirish maqsadga muvofiq. Bunday loyihalarda talabalar ham qatnashsa, ular nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash imkoniga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, oliy ta’lim dasturlarida tarixiy san’at, ikonografiya, epigrafika va madaniy merosni muhofaza qilishga oid fanlararo mashg‘ulotlarni rivojlantirish lozim.

Uchinchidan, restavratsiya ishlari boshlanishidan oldin yodgorlikning holati batafsil o‘rganilib, fotosuratlar, chizmalar va yozma ma’lumotlar bilan qayd etilishi kerak. Qarorlar tegishli mutaxassislar xulosasi asosida qabul qilinishi zarur. To‘rtinchidan, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish foydali. Masalan, 3D tasvirlar va elektron ma’lumotlar bazalari yodgorliklarning hozirgi holatini qayd etish, bezaklarini solishtirish va ma’lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazishga yordam beradi. Biroq raqamli tasvirlar tarixiy dalillar o‘rnini bosmaydi; ular ilmiy tekshiruvni qo‘llab-quvvatlovchi vosita hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning tarixiy va madaniy yodgorliklarini to‘liq o‘rganishda tarix va san’atshunoslik fanlari bir-birini to‘ldiradi. Tarixiy ma’lumotlar yodgorlikning davri va sharoitini aniqlashga yordam bersa, san’atshunoslik uning badiiy mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntiradi. Afrosiyob devoriy suratlari va Temuriylar davri miniatyuralari bunday hamkorlikning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kelgusida qo‘shma tadqiqotlarni kengaytirish, talabalarni amaliy ishlarga jalb etish, restavratsiyada ilmiy ekspertizaga tayanish va raqamli vositalardan oqilona foydalanish zarur. Bu ishlar madaniy merosni asrash va uni kelajak avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashirov A., Qahhorova D. Madaniy meros obidalarini ta’mirlash va asrashda zamonaviy yondashuvlar. // San’atshunoslik masalalari. 2022. № 3. B. 45–52.
2. Hakimov A. O‘zbekiston san’ati tarixi. Toshkent: San’at, 2011.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Ocherki iskusstva Sredney Azii. Moskva: Iskusstvo, 1982.
5. Rtveladze E.V. Sivilizatsiyalar chorrahasi: O‘zbekiston tarixi va madaniyati. Toshkent, 2000.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. PQ-4068-son, 19.12.2018.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA MILLIYLIK VA TARIXIY-MADANIY MEROSNI SINGDIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Rustamova Yayraxon Jaloliddin qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magstranti.
Rustamovayayra258@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga milliylik va ma’naviy qadriyatlarni singdirish hamda ularni tarixiy-madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashning pedagogik-psixologik vositalari yoritilgan. Xalq og‘zaki ijodi, milliy o‘yinlar va an’analar orqali bolalarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta’lim tashkilotlari, tarixiy meros, madaniy meros, milliy tarbiya, xalq og‘zaki ijodi, pedagogik usullar, milliy o‘yinlar, estetika, ma’naviy qadriyat, tarbiyalanuvchilar, shaxs rivojlanishi, maktabgacha yosh, ma’naviyat, an’analar.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat bolaning intellektual va jismoniy rivojlanishini ta’minlash, balki unda shaxsiyatning ma’naviy-axloqiy poydevorini shakllantirishdir. Inson hayotining dastlabki 3-7 yoshdagi davri atrofdagi olamni emotsional idrok etish va o‘z qadriyatlarini shakllantirishda eng sezgir (sensitiv) bosqich hisoblanadi [Buranova M.S.: 45]. O‘zbekiston Respublikasining ‘‘Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida’’gi Qonuni hamda ‘‘Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari’’da milliy va madaniy qadriyatlarimizni bolalar qalbiga singdirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: 12].Tarixiy va madaniy meros - xalqimizning asrlar davomida to‘plagan donishmandligi, san’ati va an’analari - bolaga o‘zligini anglashi va milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishi uchun eng boy va ta’sirchan manbadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy va madaniy merosni o‘rgatish masalalari Sharq mutafakkirlari hamda zamonaviy pedagog olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va Abdulla Avloniy kabi

mutafakkirlar bola tarbiyasida ezgulik, go‘zallik, odob-axloq va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaganlar. Ularning pedagogik qarashlari yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirish, milliy urf-odatlar va madaniy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishning nazariy asoslarini tashkil etadi [Xolmatov P.Q.: 78].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarixiy va madaniy meros elementlarini tarbiya jarayoniga samarali tatbiq etish bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bunda quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Ko‘rgazmalilik va hayotiy tajribaga yaqinlik tamoyili. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrof-muhitni, avvalo, bevosita kuzatish, ko‘rish, eshitish va amaliy faoliyat orqali idrok etadilar. Shu sababli milliy kiyimlar, hunarmandchilik buyumlari, tarixiy obidalar tasvirlari va xalq amaliy san’ati namunalaridan foydalanish bolalarning tarixiy-madaniy tasavvurlarini boyitadi.

O‘yin faoliyatiga asoslangan yondashuv. Milliy xalq o‘yinlari, ertaklar, sahnalashtirilgan mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlar orqali bolalarda milliy qadriyatlarga qiziqish uyg‘otish mumkin. Bunday faoliyat bolalarning faolligini oshirish bilan birga, ularda hamkorlik, o‘zaro hurmat va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Emotsional-estetik idrok etish yondashuvi. Milliy musiqa, xalq qo‘shiqlari, raqslar, xalq amaliy san’ati va tarixiy obidalar bilan tanishtirish bolalarda go‘zallikni his etish, estetik did va madaniy merosga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarixiy va madaniy meros bilan tanishtirish ishlarini o‘zaro bog‘liq bir necha yo‘nalishda tashkil etish yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Xalq og‘zaki ijodi orqali tarbiyalash. Xalq og‘zaki ijodi milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va hayotiy hikmatlari mujassamlangan. Ertaklar, allalar, maqollar, topishmoqlar va tez aytishlardan foydalanish bolalarning nutqiy rivojlanishi, tafakkuri va tasavvurini boyitishga xizmat qiladi.

Xalq ertaklaridagi botirlik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat va mehmondo‘stlik kabi fazilatlar bolalarda dastlabki axloqiy tushunchalarning shakllanishiga yordam beradi. Tarbiyachi ertak mazmunini bolalarning yoshiga mos ravishda tushuntirish, qahramonlarning xatti-harakatlarini muhokama qilish va ularni

hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash orqali tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirishi mumkin [Qodirova F.R., Qodirova R.M.: 112].

Milliy xalq o‘yinlari va an’analar orqali tarbiyalash. Milliy xalq o‘yinlari bolalarni xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va madaniy qadriyatlari bilan tanishtirishning samarali vositalaridan biridir. “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Lanka”, “Chillak” va “Arqon tortish” kabi an’anaviy o‘yinlar bolalarning jismoniy faolligini oshirish, harakat koordinatsiyasi va chaqqonligini rivojlantirish bilan birga, ularda jamoaviylik, do‘stlik va o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Mazkur o‘yinlarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yosh guruhlariga moslashtirib tashkil etish, ularning kelib chiqishi va o‘ynash qoidalarini sodda tilda tushuntirish bolalarning milliy merosga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, milliy bayramlar va an’anaviy tadbirlarni tashkil etish orqali bolalarga qadriyatlarning mazmunini amaliy faoliyat jarayonida anglatish mumkin.

Amaliy san’at va milliy hunarmandchilik bilan tanishtirish. O‘zbek xalqining kulolchilik, kashtachilik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi va boshqa hunarmandchilik turlari ko‘p asrlik madaniy tajriba hamda estetik qarashlarni o‘zida mujassam etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ushbu san’at turlari bilan tanishtirish ularda milliy bezaklar, naqshlar, ranglar va shakllarga nisbatan qiziqish uyg‘otadi.

Amaliy mashg‘ulotlarda loydan sodda buyumlar yasash, milliy naqshlarni tasvirlash, qog‘oz va boshqa xavfsiz materiallardan bezaklar tayyorlash kabi faoliyat turlaridan foydalanish mumkin. Masalan, loydan ko‘za yoki idish shaklini yasash jarayonida tarbiyachi bolalarga ushbu buyumlarning vazifasi, bezak xususiyatlari va xalq turmushidagi o‘rni haqida ma’lumot beradi. Bunday mashg‘ulotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlari, mayda motorikasi va estetik didini rivojlantirishga yordam beradi [Sodiqova Sh.A.: 64].

Tarixiy obidalar va muzeylar bilan tanishtirish. Tarixiy obidalar va muzeylar milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani shakllantirish hamda madaniy merosga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarni Registon majmuasi, Ichan qal’a, Ark kabi tarixiy-madaniy yodgorliklar bilan tanishtirishda ularning yoshiga mos rasmlar, videolavhalar, maketlar va hikoyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta’lim-tarbiya jarayonida tashkil etiladigan mini-muzeylar va mavzuli ko‘rgazmalar bolalarga milliy buyumlar, hunarmandchilik namunalari, tarixiy kiyimlar va an’anaviy bezaklarni yaqindan kuzatish imkonini beradi. Bunda eksponatlarni shunchaki namoyish etish bilan cheklanmasdan, ularning vazifasi, tarixi

va madaniy ahamiyatini bolalarga sodda va tushunarli tarzda izohlash zarur. Imkoniyat mavjud bo‘lganda, muzeylarga qisqa ta’limiy sayohatlar tashkil etish ham bolalarning bevosita kuzatish tajribasini boyitadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan metodik yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarixiy va madaniy meros bilan tanishtirish jarayoni ko‘rgazmali vositalar, o‘yin faoliyati, xalq og‘zaki ijodi, milliy hunarmandchilik va tarixiy obidalar haqidagi bilimlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida tashkil etilishi lozim. Bunday yondashuv bolalarda milliy qadriyatlarga qiziqish, ajdodlar merosiga hurmat, estetik did va dastlabki tarixiy tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishdagi ishlarni tashkil etishda tarbiyachilarning metodik tayyorgarligi, yoshga mos didaktik materiallarning mavjudligi, oila va ta’lim tashkiloti hamkorligi hamda milliy meros namunalaridan foydalanish imkoniyatlari muhim omillar hisoblanadi. Demak, tarixiy va madaniy merosni maktabgacha ta’lim mazmuniga izchil singdirish bolalarning ma’naviy-axloqiy va estetik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan muhim pedagogik yo‘nalishdir.

Xulosa qilib aytganda, Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarixiy va madaniy merosdan samarali foydalanish bolalarning ma’naviy-axloqiy shakllanishiga salmoqli hissa qo‘shadi. Bolalikdan milliy ildizlariga tayangan holda tarbiyalangan shaxs kelajakda o‘z vatanini sevadigan, madaniy qadriyatlarini qadrlaydigan barkamol inson bo‘lib yetishadi.

Tadqiqot va amaliyot natijalariga ko‘ra quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. MTT mashg‘ulot xonalarida ‘‘Milliy burchak’’lar va amaliy san'at namunalaridan tashkil topgan mini-muzeylarni boyitib borish;
2. Ota-onalar bilan hamkorlikda milliy bayramlar (Navro‘z, Mehrjon) va xalq o‘yinlari musobaqalarini muntazam o‘tkazish;
3. Tarbiyachilar uchun maktabgacha taidda tarixiy merosni interaktiv o‘yinlar orqali singdirish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar va media-resurslarni ko‘paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Buranova, M. S. (2021). *Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyalari*. Toshkent: ‘‘O'zbekiston’’ nashriyoti. - 144 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. (2019). *Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida* (O‘RQ-595-son, 2019-yil 16-dekabr). Toshkent: ‘‘Adolat’’.
3. Qodirova, F. R., & Qodirova, R. M. (2018). *Maktabgacha yoshdagi bolalarga nutq o‘stirish va xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish*. Toshkent: ‘‘Ilm Ziyo’’. - 180 b.

4. Sodiqova, Sh. A. (2022). *Maktabgacha pedagogika: Darslik*. Toshkent: ‘‘Tafakkur qanoti’’. - 256 b
5. Xolmatov, P. Q. (2020). *Sharq mutafakkirlari va milliy pedagogika tarixi*. Toshkent: ‘‘Fan va texnologiya’’. - 210 b

TARIXIY-MADANIY MEROS VA YOSHLAR: MILLIY O‘ZLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Sa’dullayeva Ro‘za Davlatyor qizi
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada tarixiy-madaniy merosning yoshlar milliy o‘zligini shakllantirishdagi o‘rni tarixiy xotira va zamonaviy identifikatsiya jarayoni bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Tarixiy meros moddiy yodgorliklar majmui emas, bki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi va avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. O‘zbekistonning UNESCO tomonidan e’tirof etilgan moddiy va nomoddiy merosi misolida yosh avlodning tarixiy tafakkurini shakllantirish, merosni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish va raqamli muhitdan foydalanish masalalari yoritiladi. Maqolada milliy o‘zlikni shakllantirish tarixiy ma’lumotlarni yodlash bilan emas, ularning mazmunini anglash, manbalarni tahlil qilish va madaniy merosni zamonaviy hayot bilan bog‘lash orqali amalga oshishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy-madaniy meros, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, madaniy identifikatsiya, tarixiy tafakkur, yoshlar, nomoddiy meros, raqamli muhit, madaniy davomiylik.

Tarixiy-madaniy meros jamiyatning o‘tmishidan qolgan moddiy boyliklargina emas. U tarixiy obidalar, qo‘lyozmalar va san’at asarlari bilan bir qatorda til, urf-odat, musiqa, xalq og‘zaki ijodi, hunarmandchilik va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bilimlarni ham qamrab oladi. Shu sababli merosning haqiqiy qiymati uni saqlash bilangina emas, keyingi avlod tomonidan qanday anglanishi va davom ettirilishi bilan belgilanadi. O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosi bu masalaning ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatning Butunjahon merosi ro‘yxatida 8 ta obyekt mavjud. Ular orasida Ichan Kal’a, Buxoro va Shahrisabz tarixiy markazlari, Samarqand - “madaniyatlar chorrahasi”, “Ipak yo‘llari: Zarafshon-Qoraqum yo‘lagi” hamda Toshkent modernistik me’morchiligi mavjud. Nomoddiy madaniy meros bo‘yicha esa O‘zbekistonga tegishli 18 ta element xalqaro ro‘yxatlarda qayd etilgan. Ular qatorida Shashmaqom, Katta ashula, Askiya, Boysun

madaniy makoni, palov madaniyati va boshqa an’analar mavjud. Mazkur ko‘rsatkichlar merosning ko‘lamini ifodalaydi, ammo uning yoshlar hayotidagi ahamiyatini faqat meros obyektlarining soni bilan belgilab bo‘lmaydi. Asosiy masala-yosh avlod ushbu meros orqali o‘z tarixini qanday anglayotgani va uni bugungi hayoti bilan qanday bog‘layotganidadir.

Milliy o‘zlikning shakllanishida tarixiy xotira alohida ahamiyatga ega. Tarixiy xotira o‘tmishdagi voqealarni yodda saqlashdan iborat emas; u jamiyatning o‘z tarixiga qanday ma’no berishi bilan bog‘liq. Shu sababli yoshga tarixiy sanalar va shaxslarni yodlatishning o‘zi tarixiy tafakkurni shakllantirmaydi. Tarixiy tafakkur voqealarning sabab va oqibatlarini ko‘ra olish, tarixiy manbani tahlil qilish va o‘tmish bilan bugungi kun o‘rtasidagi aloqani anglash orqali shakllanadi.

Bu jihat tarixiy shaharlar va obidalarni o‘rganishda ham ko‘rinadi. Samarqand yoki Buxoroning tarixiy markazini o‘rganish faqat me’moriy yodgorliklarning nomi va sanasini bilish bilan cheklanmasligi kerak. Ushbu shaharlarning ilm-fan, savdo, hunarmandchilik va madaniyatlararo aloqalardagi o‘rnini anglash orqali tarixiy obyektning mazmuni ochiladi. Samarqandning UNESCO tomonidan “madaniyatlar chorrahasi” sifatida e’tirof etilishi ham uning qiymati alohida binolargagina emas, balki turli tarixiy va madaniy jarayonlarning kesishgan makoni ekaniga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Nomoddiy merosda esa masala yanada murakkab. Chunki moddiy yodgorlikni muhofaza qilish mumkin, ammo musiqa, og‘zaki ijod, hunarmandchilik yoki ustoz-shogird an’anasi faqat amaliy davomiylik orqali yashaydi. UNESCO ma’lumotlarida O‘zbekistonga tegishli 18 ta nomoddiy madaniy meros elementi qayd etilgani ushbu meros qatlamining kengligini ko‘rsatadi. Masalan, hunarmandchilikni faqat tayyor buyum sifatida ko‘rish uning mazmunini toraytiradi. Buyumning ortida materialni tanlash, uni qayta ishlash, bezash va tayyorlashga oid bilimlar tizimi mavjud. Bu bilimlar ustoz-shogird munosabati, oila va ta’lim muassasalari orqali keyingi avlodga o‘tadi. UNESCOning O‘zbekistondagi kulolchilik an’analariga oid materiallarida ham bunday bilimlarning oilada, ustoz-shogird tizimida, san’at maktablari va oliy ta’lim muassasalarida uzatilishi qayd etilgan. Shu nuqtadan kelib chiqib, yoshlarni meros bilan tanishtirishning asosiy vazifasi uni tayyor axborot sifatida berish emas, balki yoshlarning ushbu merosni tushunishiga imkon yaratishdir. Tarixiy obyektni ko‘rish, milliy kuy tinglash yoki hunarmandchilik namunasini tomosha qilishning o‘zi yetarli emas. Yoshlar uning kelib chiqishi, shakllanish sharoiti, jamiyatdagi vazifasi va bugungi ahamiyati haqida savol bera olishi kerak. Ana shunda meros tashqi ramzdan bilim va tafakkur manbaiga aylanadi. Tarixiy-madaniy meros yosh avlodning milliy o‘zligini shakllantirishda muhim ijtimoiy-

psixologik resurslardan biri hisoblanadi. G.M. Andreevaning ijtimoiy psixologik qarashlariga ko‘ra, shaxsning ijtimoiylashuvi jamiyat tomonidan shakllantirilgan qadriyatlar, me’yorlar va munosabatlarni o‘zlashtirish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq [6].

O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tajriba ham mavjud. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda Toshkentda o‘qituvchilarning nomoddiy madaniy merosni formal va noformal ta’limga kiritish imkoniyatlarini rivojlantirishga bag‘ishlangan seminar o‘tkazilgan. Loyiha doirasida an’anaviy xalq qo‘shig‘i asosida musiqa darsi va xalq o‘yini asosida jismoniy tarbiya darsi kabi namunalar ishlab chiqilgan. Bunday yondashuvning ahamiyati shundaki, meros alohida yodlanadigan mavzu emas, ta’lim mazmunining bir qismiga aylanadi. Yosh tarixiy-madaniy hodisani boshqa bilimlar bilan bog‘lab o‘rganadi. Natijada tarixiy bilim faqat nazariy ma’lumot bo‘lib qolmay, tahlil va amaliy tajriba bilan mustahkamlanadi.

Bugungi sharoitda bu jarayonni raqamli muhitdan tashqarida tasavvur qilish qiyin. Elektron kutubxonalar, raqamlashtirilgan hujjatlar, virtual muzeylar va tarixiy obyektlarning raqamli tasvirlari yoshlarning merosga kirish imkoniyatini kengaytirmoqda. Ammo raqamlashtirishning o‘zi tarixiy bilimning ishonchliligini ta’minlamaydi. Internetdagi tarixiy ma’lumotlarning bir qismi ilmiy manbaga emas, shaxsiy talqin yoki tekshirilmagan axborotga asoslangan bo‘lishi mumkin. Shu sababli yoshlarning tarixiy merosni o‘rganishida manba bilan ishlash ko‘nikmasi muhim. Ma’lumotning muallifi va kelib chiqishini aniqlash, turli manbalarni qiyoslash, dalil va talqinni farqlash tarixiy tafakkurning asosiy belgilaridan biridir. Bu ko‘nikma milliy o‘zlikni ham yuzaki hissiy munosabatdan ilmiy anglash darajasiga olib chiqadi. Inson o‘z tarixini bilishi bilan birga, u haqidagi ma’lumotning qanchalik asosli ekanini ham tekshira olishi kerak.

Tarixiy-madaniy meros yoshlarning milliy o‘zligini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. N. Jo‘rayevning tarix falsafasiga oid qarashlari tarixiy xotira va tarixni anglashning inson hamda jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushunishga imkon beradi [2]. Abdulla Avloniy esa yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotiga alohida e’tibor qaratib, “Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas”, deb ta’kidlaydi [3].

Milliy o‘zlik masalasini globallashuvdan ajratib ko‘rish ham mumkin emas. Bugungi yosh bir vaqtning o‘zida turli madaniy makonlarning axborotini qabul qilmoqda. Shu sharoitda milliy o‘zlikni boshqa madaniyatlardan uzoqlashish sifatida

tushunish to‘g‘ri emas. Aksincha, o‘z tarixiy va madaniy asoslarini anglagan shaxs boshqa madaniyatlar bilan munosabatga kirishganda o‘zining madaniy mezonlarini yo‘qotmaydi. Demak, zamonaviy milliy o‘zlikning mazmuni yopiq madaniy muhitda qolish emas, ochiq axborot makonida o‘zligini anglagan holda mustaqil fikrlay olishdir. Biroq tarixiy-madaniy merosni yoshlar orasida targ‘ib qilishda yana bir muhim masala mavjud. Merosni faqat “faxr manbai” sifatida ko‘rsatish uning ilmiy mazmunini toraytirishi mumkin. Tarixiy obyekt yoki madaniy an’ana o‘zining shakllanish sharoiti, rivojlanish bosqichlari va jamiyatdagi vazifasi bilan birga o‘rganilgandagina uning haqiqiy qiymati ochiladi. Ilmiy yondashuv merosning qadrini kamaytirmaydi; aksincha, uni shior va hissiy ta’riflardan dalil va tahlil darajasiga olib chiqadi. Shu bois yoshlarni tarixiy-madaniy merosning passiv kuzatuvchisi sifatida emas, faol tadqiqotchisi sifatida shakllantirish muhim. Talabaning o‘z hududidagi tarixiy obyekt haqida manbalar asosida izlanishi, oilasida saqlanayotgan eski surat yoki hujjatlarni o‘rganishi, mahalliy hunarmandchilik yoki folklor namunasini hujjatlashtirishi tarixiy bilimni shaxsiy tajriba bilan bog‘laydi. Bunday faoliyat orqali tarix darslikdagi ma’lumotdan chiqib, insonning o‘z hayoti va muhitini anglash vositasiga aylanadi. Natijada tarixiy-madaniy merosning yoshlar uchun ahamiyati uning qanchalik ko‘p targ‘ib qilinishida emas, balki qanchalik chuqur anglanishida namoyon bo‘ladi. Merosni bilishning o‘zi yetarli emas; uning tarixiy mazmunini tushunish, manbalar asosida tahlil qilish va zamonaviy hayot bilan bog‘lay olish zarur. Ana shu jarayonda tarixiy xotira milliy o‘zlikning mazmuniy asosiga aylanadi.

Tarixiy-madaniy meros yoshlar milliy o‘zligini shakllantirishda o‘tmish haqidagi bilimni saqlash vositasidan ko‘ra kengroq vazifani bajaradi. U insonning tarixiy ildizlarini anglashiga, o‘z jamiyatining madaniy tajribasini tushunishiga va avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni his etishiga imkon beradi. O‘zbekistonning UNESCO doirasida e’tirof etilgan moddiy va nomoddiy merosi ushbu jarayon uchun katta tarixiy va madaniy manba mavjudligini ko‘rsatadi. Zamonaviy sharoitda asosiy vazifa yoshga tarixni ko‘proq yodlatish emas, tarixiy fikrlashni shakllantirishdan iborat. Buning uchun merosni ta’lim mazmuniga integratsiya qilish, nomoddiy madaniy tajribalarni amaliy o‘rganish, raqamli manbalardan foydalanish bilan birga ularning ishonchliligini tekshirish va yoshlarni mustaqil izlanishga jalb etish zarur. Shunday yondashuvdagina tarixiy-madaniy meros muzeydagi eksponat yoki darslikdagi mavzu bo‘lib qolmaydi. U yoshning o‘zligini anglash jarayonida ishtirok etadigan bilim va tajriba tizimiga aylanadi. Milliy o‘zlik esa tayyor shiorlar orqali emas, o‘z tarixini

bilish, uning murakkabligini anglash va shu tarixning davomchisi sifatida mas’uliyatni his qilish orqali shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati::

1. I.A. Karimov Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. N.Jo‘rayev Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘zbekiston.
4. A. Fitrat Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat.
5. R. Mavlonova, O. To‘rayeva, K. Holiqberdiyev Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi.
6. G.M. Andreeva Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2004.
7. D.G. Myers Social Psychology. – New York: McGraw-Hill.

TARIXIY-MADANIY MEROSNI O‘RGANISHDA TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASINING INNOVATSION IMKONIYATLARI

Sultanov Shoxjaxon Rahmon o‘g‘li
Turan International University o‘qituvchisi,
shohjahonsultanov02@gmail.com
Raximjanov Abduraxmon Muxtor o‘g‘li
Turan International University talabasi,
abduraxmonraximjanov054@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada tarixiy-madaniy meros obyektlarini tasviriy san’at va muhandislik grafikasi vositasida o‘rganish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Me’moriy yodgorliklarni grafik qayd etish, fotogrammetriya va uch o‘lchamli modellashtirishning ilmiy tadqiqot, ta’lim hamda madaniy merosni saqlashdagi ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy-madaniy meros, tasviriy san’at, muhandislik grafikasi, me’moriy yodgorlik, grafik qayd etish, raqamli texnologiyalar, fotogrammetriya, uch o‘lchamli modellashtirish, raqamli hujjatlashtirish, me’moriy chizma, vizual tahlil, madaniy merosni saqlash, innovatsion ta’lim, raqamli arxiv, fanlararo integratsiya.

Kirish

Tarixiy-madaniy merosni o‘rganish va asrash zamonaviy tarixshunoslik, san’atshunoslik, arxitektura hamda muhandislik fanlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Tarixiy obidalar o‘z davrining qurilish tajribasi, estetik qarashlari, muhandislik yechimlari va madaniy an’analarini mujassam etadi. Ularni ilmiy

o‘rganishda yozma manbalar va tarixiy tavsiflar bilan bir qatorda, obyektning shakli, o‘lchamlari, fazoviy tuzilishi va bezak elementlarini aniq qayd etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy tasviriy usullar – eskiz, perspektiv tasvir, me’moriy chizma va grafik rekonstruksiya – yodgorlikning ko‘rinishi hamda kompozitsion xususiyatlarini anglashga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar esa ushbu usullarning imkoniyatlarini kengaytirib, murakkab geometrik shakllarni o‘lchash, obyektning uch o‘lchamli modelini yaratish va uning holatidagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini bermoqda. Xalqaro yodgorliklar va tarixiy joylar kengashi (ICOMOS) tamoyillarida ham madaniy merosni hujjatlashtirish uni tushunish, talqin qilish, muhofaza etish va boshqarish uchun zarur jarayon sifatida e’tirof etilgan [ICOMOS, 1996].

Mazkur maqolaning maqsadi tarixiy-madaniy meros obyektlarini o‘rganishda tasviriy san’at va muhandislik grafikasi imkoniyatlarini tahlil qilish, raqamli hujjatlashtirish usullarining ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib berish hamda ularni ta’lim va tadqiqot jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tarixiy-madaniy merosni grafik usullarda o‘rganishning ilmiy ahamiyati. Me’moriy yodgorlikni ilmiy o‘rganish, avvalo, uning mavjud holatini to‘g‘ri qayd etishdan boshlanadi. Bunda bino yoki inshootning umumiy rejasi, fasadlari, kesimlari, bezak elementlari, konstruktiv qismlari va o‘zaro fazoviy munosabatlari aniqlanadi. Muhandislik grafikasi ana shu ma’lumotlarni tushunarli, o‘lchovga asoslangan va tizimli shaklda ifodalash vositasidir.

Me’moriy chizma tarixiy obyektning faqat tashqi ko‘rinishini tasvirlash bilan cheklanmaydi. U devorlar, ravoqlar, gumbazlar, ustunlar va boshqa elementlarning o‘zaro joylashuvini tahlil qilishga yordam beradi. Masalan, tarixiy binoning rejasi va kesimlarini o‘zaro qiyoslash orqali uning fazoviy tuzilishi, konstruktiv yechimlari hamda ayrim qismlarning vazifasi haqida xulosalar chiqarish mumkin. Biroq chizmada kuzatilgan xususiyatlarni tarixiy dalil sifatida talqin qilish uchun ularni joyida o‘rganish, arxiv ma’lumotlari va tegishli ilmiy tadqiqotlar bilan solishtirish talab etiladi.

Tasviriy san’atning kuzatish, proporsiyalarni aniqlash, kompozitsion munosabatlarni anglash va murakkab shakllarni ifodalashga oid usullari ham meros obyektlarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Eskiz va perspektiv tasvirlar me’moriy makonning inson tomonidan qanday idrok etilishini ko‘rsatishi mumkin. Naqsh va bezaklarning grafik tahlili esa ularning takrorlanish tartibi, simmetriyasi, ritmi va kompozitsion tuzilishini aniqlashga yordam beradi.

Shu jihatdan, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi bir-birini to‘ldiruvchi vositalardir. Tasviriy yondashuv obyektning badiiy qiyofasi va vizual xususiyatlarini ochib bersa, muhandislik grafikasi uning geometrik tuzilishi va o‘lchamlarini tizimli qayd etadi. Ushbu ikki yondashuvni tarixiy tahlil bilan birlashtirish yodgorlikning badiiy va texnik xususiyatlarini yaxlit o‘rganish imkonini beradi.

Raqamli hujjatlashtirish va uch o‘lchamli modellashtirish imkoniyatlari. Raqamli texnologiyalar tarixiy-madaniy merosni hujjatlashtirishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Jumladan, fotogrammetriya, lazerli skanerlash, raqamli fotografiya va uch o‘lchamli modellashtirish yordamida me’moriy obyektlarning geometrik shakli hamda mavjud holatini batafsil qayd etish mumkin.

Fotogrammetriya turli nuqtalardan olingan fotosuratlar asosida obyektning o‘lchamli tasvirini yoki uch o‘lchamli modelini yaratishga xizmat qiladi. N. Yastikli tadqiqotida raqamli fotogrammetriya va lazerli skanerlashning madaniy meros obyektlarini hujjatlashtirish, o‘lchash va ta’mirlash jarayonlarini tayyorlashdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan [Yastikli, 2007, 423–427]. Ushbu usullar obyektning murakkab yuzalarini qayd etish, deformatsiyalarni aniqlash va keyingi tadqiqotlar uchun raqamli ma’lumotlar bazasini shakllantirishda foydali hisoblanadi.

UNESCOning “Dive into Heritage” tashabbusi ham tarixiy obyektlarni raqamli hujjatlashtirish va uch o‘lchamli modellar orqali taqdim etishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu platforma doirasida lazerli skanerlash, aerofotogrammetriya, yerdan fotogrammetriya va 360 darajali tasvirga olish kabi usullardan foydalaniladi. Raqamli modellar foto, video, xarita va boshqa kontekstual materiallar bilan birlashtirilishi mumkin [UNESCO, “Dive into Heritage”].

Mazkur texnologiyalarning muhim afzalligi shundaki, ular yodgorlikning muayyan vaqtdagi holatini raqamli shaklda saqlashga yordam beradi. Keyinchalik olingan ma’lumotlarni takroriy o‘lchovlar bilan taqqoslash orqali yoriqlar, deformatsiyalar yoki boshqa o‘zgarishlarni aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, raqamli modelning aniqligi fotosuratlar sifati, o‘lchash usuli, ma’lumotlarni qayta ishlash jarayoni va mutaxassislarning malakasiga bog‘liq.

Uch o‘lchamli modellashtirishning yana bir imkoniyati — obyektning ayrim qismlarini turli rakurslardan o‘rganish va ularning o‘zaro munosabatlarini vizual tahlil qilishdir. Bu, ayniqsa, murakkab gumbazlar, ravoqlar, naqshli sirtlar va ko‘p qismlardan tashkil topgan me’moriy kompozitsiyalarni o‘rganishda foydalidir. Biroq raqamli modelning mavjudligi obyektning barcha tarixiy xususiyatlari to‘liq aniqlanganini anglatmaydi. Modelda bevosita o‘lchangan qismlar bilan ilmiy taxmin asosida tiklangan elementlarni alohida belgilash lozim.

Innovatsion texnologiyalarni tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’limiga integratsiyalash. Tarixiy-madaniy merosni o‘rganishda raqamli vositalardan foydalanish nafaqat ilmiy tadqiqot, balki ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun ham muhimdir. Tasviriy san’at, arxitektura, muhandislik grafikasi va tarix yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar real me’moriy obyektlar yoki ularning ishonchli raqamli modellari asosida amaliy topshiriqlarni bajarishlari mumkin.

Bunday mashg‘ulotlarda talabalar dastlab obyektning umumiy kompozitsiyasini kuzatib, eskiz va perspektiv tasvirlar tayyorlaydi. Keyingi bosqichda obyektning rejasi, fasadi yoki alohida bezak elementlari grafik shaklda ifodalanadi. Mavjud raqamli tasvirlar va uch o‘lchamli modellar esa talabalarga obyektning turli tomonlarini qiyoslash, geometrik munosabatlarni tushunish va grafik ifodalash aniqligini oshirishga yordam beradi.

Mazkur yondashuvning afzalligi – nazariy bilimni amaliy kuzatish bilan bog‘lashidir. Talaba tarixiy yodgorlikni shunchaki tasvirlamaydi, balki uning shakli, tuzilishi va badiiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Shu orqali fazoviy tafakkur, vizual savodxonlik, texnik chizmachilik ko‘nikmalari va madaniy merosga mas’uliyatli munosabat rivojlanadi.

Bundan tashqari, fanlararo loyiha ishlari tashkil etish mumkin. Masalan, bir guruh talabalar tarixiy obyektning badiiy kompozitsiyasini o‘rgansa, boshqalari uning grafik chizmalarini tayyorlaydi, yana bir guruh raqamli model va elektron taqdimotni ishlab chiqadi. Yakuniy natijada tarixiy ma’lumotlar, badiiy tahlil va texnik hujjatlashtirishni birlashtirgan kompleks loyiha shakllanadi.

Bunday loyihalarda ilmiy aniqlikni ta’minlash muhim. Talabalar o‘zlari yaratgan rekonstruksiyani tarixiy asl holat bilan tenglashtirmasliklari, foydalanilgan manbalarni ko‘rsatishlari va mavjud bo‘lmagan qismlar bo‘yicha taxminlarini alohida qayd etishlari kerak. Bu talablar raqamli vositalardan foydalanishni oddiy vizual bezak darajasidan ilmiy asoslangan o‘quv faoliyati darajasiga olib chiqadi.

Tarixiy merosni saqlash va raqamli arxivlarni rivojlantirish istiqbollari. Tarixiy-madaniy obyektlarni raqamli hujjatlashtirish natijalari uzoq muddatli saqlash va keyingi tadqiqotlarda foydalanish uchun tizimli arxivlarda jamlanishi zarur. Bunday arxivlarda obyektning nomi, joylashuvi, qayd etilgan sana, tasvirga olish usuli, o‘lchov ma’lumotlari, grafik chizmalar va tegishli ilmiy manbalar o‘zaro bog‘langan holda saqlanishi mumkin. Ma’lumotlarning standartlashtirilgan shaklda yuritilishi turli tashkilotlar o‘rtasida axborot almashishni ham yengillashtiradi.



Raqamli arxivlarni shakllantirishda ma’lumotlarning ishonchliligi va xavfsizligi alohida ahamiyatga ega. Asl o‘lchov natijalari, qayta ishlangan tasvirlar va rekonstruksiya qilingan modellarni alohida saqlash, har bir faylning yaratilish sanasi hamda qayta ishlash tarixini qayd etish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv keyinchalik tadqiqotchilarga ma’lumotlarning kelib chiqishini tekshirish va xulosalarni qayta baholash imkonini beradi.

Shuningdek, raqamli hujjatlashtirishni tarixiy obyektlarni muhofaza qilish bo‘yicha qarorlar bilan bog‘lash lozim. O‘lchovlar va vizual kuzatuvlar obyektning holatini baholashga yordam berishi mumkin, biroq konservatsiya yoki restavratsiya bo‘yicha yakuniy qarorlar tegishli mutaxassislarning tekshiruvi va ilmiy asoslangan xulosalariga tayanishi kerak.

O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy merosini o‘rganishda ushbu yondashuvlarni keng qo‘llash milliy madaniy boyliklarni ilmiy hujjatlashtirish, ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish va meros haqidagi ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Tarixiy-madaniy meros obyektlarini o‘rganishda tasviriy san’at va muhandislik grafikasi o‘zaro to‘ldiruvchi ilmiy-amaliy vositalar hisoblanadi. Tasviriy usullar yodgorliklarning badiiy qiyofasi, kompozitsiyasi va vizual xususiyatlarini ochib bersa, muhandislik grafikasi ularning geometrik tuzilishi, o‘lchamlari va fazoviy munosabatlarini aniq ifodalash imkonini beradi.

Fotogrammetriya, lazerli skanerlash va uch o‘lchamli modellashtirish kabi texnologiyalar tarixiy obyektlarni batafsil hujjatlashtirish, ularning mavjud holatini qayd etish va o‘zgarishlarni kuzatishda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, raqamli natijalarning ilmiy qiymati ma’lumotlarni to‘g‘ri yig‘ish, tekshirish va talqin qilishga bog‘liq.

Tarixiy merosni tadqiq etish, ta’lim va muhofaza qilish jarayonlarini o‘zaro bog‘lash uchun fanlararo hamkorlikni kuchaytirish, raqamli arxivlarni rivojlantirish hamda talabalarni real obyektlar asosida amaliy loyihalarga jalb etish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv madaniy merosni nafaqat tasvirlash, balki uni chuqur anglash, ilmiy asosda hujjatlashtirish va kelajak avlodlarga yetkazish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ICOMOS. Principles for the Recording of Monuments, Groups of Buildings and Sites. 1996. https://openarchive.icomos.org/2932/1/K649-Monuments_and_Sites-v20-2009.pdf

2. UNESCO World Heritage Centre. Dive into Heritage. https://whc.unesco.org/en/dive-into-heritage/
3. Yastikli, N. Documentation of Cultural Heritage Using Digital Photogrammetry and Laser Scanning. Journal of Cultural Heritage. 2007. Vol. 8, No. 4. P. 423–427. https://doi.org/10.1016/j.culher.2007.06.003.

AN’AVIY KASHTACHILIKNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ESTETIK TAMOILARI

Tulavboyeva Bahoroy Avalbekovna
Kamoliddin Bexzod nomidagi
milliy rassomlik va dizayn instituti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada, an’anaviy kashtachilikni saqlash va rivojlantirishning nazariy-estetik tamoillari yoritilgan. O‘zbek milliy kashtachilikning tarixiy ildizlari, badiiy hususiyatlari, naqshlarning uyg‘unligi ramziy ma’naolari aks etiradi. Milliy kashtachilik san’atimizni asrab avaylash, yosh avlodga yetkazish va zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirib davom ettirish masalalariga alohida etibor qaratilgan. Kashtachilik san’ati va ustalar yaratgan milliy matolardagi rang-barang kompozitsiyalardagi naqshlar va ularning ramziy ma’nolari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: An’anaviy kashtachilik, milliy meros,estetik tamoillari , so‘zana, zardevor, belbog‘ milliy meros, kompozitsiya, amaliy san’at tarixiyi taraqiyot.

Ilmdan bir shula dilga tushgan on,
Shundan bilursankim ilm bepayon.
Firdavsiy.

An’anviy kashtachilik o‘zbek xalqining boy madaniy merosi, milliy o‘zligi va estetik qarashlarini qadimgi amaliy san’at turlarida aks etiradi. O`zbek milliy kashtachilik san’ati ham boshqa amaliy san’at turlari qatirida avlodan avlodga o‘tib, ham an’anaviy, ham zamonaviy shaklda rivojlanib kelmoqda. An’anaviy kashtachilik san’ati insoniyat tarixida eng qadimiy va keng tarqalgan amaliy san’at turlaridan biri bo‘lib, u nafaqat maishiy ehtiyojni qondirish, balki badiiy did, estetik qarashlar va milliy madaniyatni ifodalash vositasi sifatida shakllangan.

Matoning yuzasiga turli iplar, ipak, jun, oltin va kumush simlar yordamida naqsh solish an’analari ming yillar davomida rivojlanib, bugungi kunda o‘zbek xalqining ma’naviy me’rosida alohida o‘rin egallaydi.

“Kashta” atamasi fors-tojik tilidagi “kashida” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “tortmoq”, “tikmoq” ma’nolarini anglatadi. Bu esa kashtachilikning asl mohiyati ipni mato uzra o‘tkazish orqali badiiy shakl yaratish jarayonini ifodalaydi. Arxeologik topilmalardan shuni anglash mumkinki, kashtachilik san’ati Markaziy Osiyo hududida juda qadimgi davrlardan boshlab mavjud. [2.Bulatov S.S. 12-15- betlar].

Qadimgi qoya rasmlarida kiyimlar bezagi, o‘ymakor naqshlarning dastlabki ko‘rinishlari uchraydi. Ba’zi manbalarda aytilishicha, ilk kashta tikish usullari eramizdan avvalgi ming yilliklarga borib taqaladi. O‘sha davrda odamlar kiyim-kechakni mustahkamlash va bezash maqsadida ip o‘tkazish orqali dekorativ shakllar yaratgan. Keyinchalik kashtachilik nafaqat maishiy ehtiyoj, balki marosim, urf-odat va ramzlar tizimiga bog‘liq holda shakllangan san’at turiga aylandi.

Har bir naqshning o‘ziga xos ma’noga ega bo`lgan. Aynan, kashtachilik tarixini o‘rganishga imkon bergan eng qimmatli ma’lumotlarni rassomlar bergan chizish tehnikasini mukammal egalagan va mutonosiblikni benuqson his qila oladigan.

Samarqandning turli tumanlaridan kelgan turli yoshdagi naqqosh va rassomlar muzey uchun chizmalar chizishgan va kompozitsiyalarning butun albomlarni yaratdilar. [4.O.A.SUHAREVA 7-8- betlar]

Kashtachilik san’atida naqshlar xalqning dunyoqarashi, orzu-umidlari va qadiryatlarni ifodalaydi. Har bir naqsh oddiy bezak emas, balki ma’lum bir ma’no va g‘oyani o‘zida mujassam etadi. Kashtachilikda har bir hudud o‘zining naqshlari bilan mashhur. Nurota, Toshkent, Shahrisabz va boshqa hududlarda shakillangan. Hozirgi Oqdaryo mintaqasidagi o‘zbek - turklaridan sotib olingan qizil kaliko so‘zanasi Samarqand muzeyida saqlanadi. Uning rang - barang so‘zanalarga xos bezaklarida keng tarqalgan bu naqsh o‘zbek va tojik kashtachiliklarida ham uchraydi. Ayniqsa turli mintaqalardan olinga naqshlar qanchalik alohida na’munalar bo‘lishidan qatiy nazar, ularning mahalliy farqlari aniq ifodalangan bo‘ladi. Markaziy Osiyo so‘zanalari tipidagi kashtachilik texnikasi, rangi, choki bezaklari boshqa mintaqalar, hatto Sharqdagi qo‘shni mamlakatlar kashtachiligi bilan juda o‘xshash. Ular maxsus guruhni tashkil qiladi, chunku ular asosan o‘simlik naqshlariga xos bo‘lib ular qat’iy ravishda guli va bargli naqishlarga bo‘linadi. Faqatgina Toshkent so‘zanasining keyingi namunalari bundan mustasno, ularning naqshlari astarli, to‘ldirilgan bo‘ladi. [1.K.M.Gulyamov 27- bet]

Saqlanayotgan qo‘lda tikilgan kashtalarning ko‘pchiligi XIX asrning oxirlari XX asrning boshlariga oidir. Hozirgi davrga kelib kashtachilik san’atiga yoshlar orasida qizqish bilan o‘rganilib kelinmoqda. Misol tariqadida Nurota kashtachiligi bilan oilaviy shug‘ulanib kelayotgan oilalar bor. Farg‘ona vodiysida tikilmagan fon juda ko‘p qo‘llanilgan, u deyarli Toshkentning oq to‘qimasida naqshlari mayda nafis bazi naqshlar yirik gulli bo‘ladi va har bir element bir ma’noni anglatadi. Naqshlarning bezak darajasi va panelarining naqsh bilan to‘ldirilishi turli mintaqalarda bir hil bo‘lmasligi mumkin. Kashtachilik sa’nati naqsh ijodkorlarining jadal rivojlanishi uchun sharoit yaratdi va yangi rang-barang yechimlarini ishlab chiqishni kashf etdi

Arxeologik va etnografik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, naqshlar orqali insonlar o‘zining tabiatga munosabati, diniy e’tiqodi va ijtimoiy mavqeini ifodalagan. Vaqt o‘tishi bilan bu naqshlar estetik bezak sifatida hukum surgan, biroq o‘zining ramziy mazmunini saqlab qolgan. Naqshlarning tasnifi o‘simlik elementlariga asoslangan bo‘lib, ular hayotiylik, yangilanish va baraka g‘oyalarini ifodalaydi. Ushbu naqshlar ko‘pincha stilizatsiyalangan shaklda tasvirlanadi. Geometrik naqshlar matematik aniqlik va simmetriyaga asoslangan. Ular kosmik tartib, abadiylik va muvozanat tushunchalarini aks ettiradi.

Ranglarning semantikasi kashtachilikda rang tanlovi tasodifiy emasligini anglatadi. Ranglar o‘z o‘rnida ma’lum ramziy ma’noga ega: Qizil rang – hayotiy kuch, energiya, yashil rang – tabiat va yangilanish, oq rang – poklik va muqaddaslik. Qora rang – himoya va barqarorlik ranglar o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanilib, umumiy kompozitsion yaxlitlikni ta’minlaydi.

O‘zbekiston kashtachiligida hududiy maktablar muhim o‘rin tutadi. Har bir maktab o‘zining kompozitsion tuzilishi, rang tanlovi va naqsh motivlari bilan ajralib turadi: Buxoro maktabi – murakkab va nafis naqshlar tizimi. Nurota maktabi – sodda, tabiiy va ramziy kompozitsiyalar. Toshkent maktabi nozik va zamonaviylashtirilgan uslub. Farg‘ona maktabi – yorqin ranglardan foydalanganlar.

1850-1870-yillarda kashtachilik uchun ipak yoki qog‘oz iplar asasan o‘simlik bo‘yoqlari bilan bo‘yalgan. Biroq su’niy bo‘yoqlar O‘rta Osiyoga XIX asrning ikkinchi yarimining boshlarida kirib kela boshlagan. Samarqandda iplarini uyda bo‘yash erta to‘xtatdi. Ayollarning seplari tayyorlanayotganda, ya’ni 1870-1875 yillarida kashta tikiladigan butun ipak bozordan sotib olingan turli rangdagi paxtadan uyda yigirilgan keyinchalik ishlov berish juda oson bo‘lgan va asta uyda bo‘yala boshladi. Keyinchalik an’anaviy qirmizii rang uchun ham ishlatilgan oq mato kashtalar ranglarinini bir qismi bo‘lgan yorqin qizil ipak iplar anilin bilan bo‘yalgan.

Samarqandning ilk so‘zanalaridagi asosiy rang to‘q qizil -pushti guli baland edi, atirgul bargining ichki tomonidagi rangi to‘q rang bo‘lgan bu juda to‘q sovuq rang edi. Buxoro va Nurota so‘zanalariga xos bo‘lgan iliq rang Samarqand kashtachilik do‘konlarida uchramaydi. Ma’lum bo‘lishicha, bu yerda kerakli to‘q ranglarni koshenalgan qora bo‘yoq yoki anaor po‘stini qo‘shish orqali olgan. Taxminlarga ko‘ra Samarqand bo‘yoqchilari shuningdek, ma’lum maxsus qo‘shimchalar va ranglar bo‘yashning o‘ziga xos texnikalaridan foydalanganlar, bu esa Nurota - Buxoro issiq, yoki Xo‘jand ranglardan farq qiluvchi o‘ziga xos binafsha rang olish imkonini bergan. XIX asrning ikkinchi yarmi boshidagi Samarqand so‘zanaga kelsak, rangning zaifroq kokienal eritmasi tufayli olingan och rangi ham ishlatilgan bu rang atirgul bargining zaifroq kokienal eritmasi tufayli och rang ishlatilgan. Qadimgi kashtachilik buyumlaridagi yorqin qizil rang xina rangi yoki sham yorug‘ligi rang hisoblangan. Qadimgi davrlarda sariq rang (isparak) yoki turli xil ranglar beradigan tuxmak bo‘yash orqali olingan. Samarqanda so‘zananing naqshlari bargli qismi uchun to‘q yashil rang-pistoqi ishlatilgan. Bu til ostida qo‘yilgan tamaki (nos) rangi sifatida aniqlangan. [6.O‘zbekiston amaliy San’ati 18-19 -betlar]

O‘zbek kashtachiligida keng uchraydigan “bodom” naqshi shaklan bodom mevasiga o‘xshaydi, u semantik jihatdan baraka, hosildorlik va hayotiylik timsoli hisoblanadi: kompozitsiyada u ko‘pincha markaziy element yoki ritmik takrorlanuvchi bezak sifatida qo‘llaniladi. Rang tanlovi (qizil, yashil) esa hayotiy energiya va tabiat bilan uyg‘unlikni ifodalaydi. Yoki islimiy naqshlar: o‘simliksimon egri chiziqlar orqali yaratiladi: uzluksizlik va hayot davomiyligini bildiradi, umumiy kompozitsiyada harakat va dinamikani yuzaga keltiradi. Kashtachilikda ranglar mutanosibligi - bu naqsh va kompozitsiyada ranglarning o‘zaro uyg‘unligi, muvozanati va estetik ta’sirini ilmiy asosda tashkil etish jarayonidir. U ranglar nazariyasi, psixologiyasi va milliy an’analar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, kashtachilik buyumining badiiy qiymatini belgilaydi. Ranglar mutanosibligi bu ranglarning ton (och-to‘qligi), rangdorlik (saturatsiya) va issiq-sovuq xususiyatlari asosida uyg‘un holda qo‘llanishidir. [5.Bohodirovna K.D 29-31- betlar]

An’anaviy kashtchilik san’ati bu jarayon kompozitsion yaxlitlikni ta’minlaydi hamda naqshning mazmuniy ifodasini kuchaytiradi. Kontrast (qarama-qarshilik) ranglarning bir-biriga zid qo‘llanishi orqali naqsh ajralib turadi. Masalan: qizil – yashil, ko‘k – sariq, bu usul naqsh elementlarini aniq ko‘rsatadi. Garmoniya (uyg‘unlik) bir-biriga yaqin ranglarning mosligi orqali sokin va muvozanatli ko‘rinish yaratiladi, masalan: ko‘k – moviy – binafsha. Dominanta (asosiy rang)

Kompozitsiyada bitta rang ustun bo‘lib, qolgan ranglar unga bo‘ysunadi.qolgan ranglar markaziy ustuni bo‘ladi. [7. Mirzakulov I. 37- bet]

Kashtachilik san’atini saqlash va rivojlantirish va estetik tamoillarini shakillantirishda ranglar mutanosibligi bu nafaqat bezak, balki mazmuniy va emotsional ta’sirni shakllantiruvchi muhim omildir. To‘g‘ri tanlangan ranglar uyg‘unligi naqshning badiiy ifodasini kuchaytirib, milliy san’atning estetik qiymatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, an’anaviy kashtachilikni saqlash va rivojlantirishning nazariy-estetik tamoillarini maktab ta’limida joriy etish milliy madaniy merosimizni asrab-avaylashda muhum ahamiyatga ega. O‘quvchilarga o‘zbek kashtachiligining tarixi, mazmuni, ranglar uyg‘unligi va hududiy hususiyatlarini chuqur o‘rgatish mumkin. Amaliy mashg‘ulotlaresa yosh avlodning ijodiy qobilyati, estetik didi va milliy qadiryatlarga hurmati shakllantirish. Madaniy merosimizni asrab avaylab kelajak avlodga an’analarimizni davom etirish uchun yetkazish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K.M. Gulyamov. “Amaliy san’at turlari”. Darslik. «Grand kondor print» Toshkent – 2025
2. S. BULATOV “O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati.” Toshkent << Mehnat >>1991-yil.
3. “O‘zbekiston kashtachiligi va gilamlari xorijiy to‘plamlarida” https://society.uz/uz/culture/4
4. O. A. SUHAREVA Suzane O‘rta Osiyo dekarativ kashtalari. Toshkent: IIcas, SMI-ASIA, 2021-yil.
5. Bohodirovna k. D. “Tasviriy san’at va falsafa o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ulardagi estetik tushunchalarning insoniyat madaniyatiga ta’siri”//Научныs Фокус. – 2024. – Т. 2. – №. 19. – С. 356-358.
6. O‘zbekiston Amaliy San’ati. Toshkent-2003
7. I.Mirzakulov. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari. O`quv qo`llanma. Toshkent – 2026.

O‘ZBEK KULOLCHILIK MEROSINI KOMPOZITSIYA DARSLARIDA BADIIY TALQIN ETISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Xamrayev Abubakir Faxriddinovich
Guliston davlat pedagogika instituti,
“San’atshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: maggudu2013@mail.ru

Annotatsiya: maqolada o‘zbek kulolchilik merosini tasviriy san’atning kompozitsiya mashg‘ulotlarida o‘rganish imkoniyatlari yoritiladi. Rishton, G‘ijduvon va Xorazm kulolchilik maktablari misolida buyum shakli, naqsh, rang hamda ustalar mehnatini mavzuli kompozitsiyalar orqali badiiy talqin qilish usullari tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: kulolchilik san’ati, tarixiy-madaniy meros, tasviriy san’at, mavzuli kompozitsiya, Rishton maktabi, G‘ijduvon maktabi, Xorazm kulolchilik an’analari, naqsh, rang, badiiy talqin.

O‘zbek kulolchilik san’ati tarixiy-madaniy merosning moddiy va badiiy jihatlari birlashgan noyob sohalaridan biridir. Qadimgi sopol buyumlar nafaqat kundalik ehtiyojga xizmat qilgan, balki jamiyatning turmush tarzi, hunarmandchilik tajribasi, didi va dunyoqarashini ham o‘zida aks ettirgan. Shu bois kulolchilikni tasviriy san’at darsida tayyor buyum nusxasini chizish bilan cheklash uning obrazli imkoniyatlarini toraytiradi. Kompozitsiya mashg‘ulotida sopol idish bir vaqtning o‘zida tarixiy dalil, rang va shakl namunasi hamda inson mehnatini ochib beradigan mavzuli asar unsuri bo‘lib xizmat qilishi mumkin [Раҳимов М.К.: 244]. Qadimgi kulolchilik manbalarini o‘rganishda buyumning qaysi davrga oidligi, qanday vazifani bajargani, qanday material va bezakdan foydalanilgani aniqlashtiriladi. Arxeologik namunani bugungi Rishton yoki G‘ijduvon mahsuloti bilan avtomatik ravishda bir maktabga mansub deb hisoblash o‘rinli emas: ularning yaratilish vaqti, texnologiyasi hamda bezak tili farqlanishi mumkin. Talabalar ushbu farqlarni kuzatish orqali o‘tmish san’atini shunchaki idealizatsiya qilish emas, tarixiy rivojlanish sifatida anglashni o‘rganadilar.

Kulolchilikda shakl, hajm, rang va naqsh bir-birini to‘ldiradi. Lagan yuzasidagi markaziy bezak ko‘pincha aylanasimon ritm bilan uyg‘unlashadi; ko‘za yoki xum sathidagi tasvir esa uning bo‘yni, yelkasi va qorin qismiga muvofiq joylashtiriladi. Bu munosabatlarni kompozitsiya mashg‘ulotida uch xil ko‘rinishda o‘rganish mumkin: alohida buyum etyudi, buyumlar ishtirokidagi natyurmort va kulol mehnatini aks ettiruvchi mavzuli kompozitsiya. Birinchi mashqda proporsiya, ikkinchisida

buyumlarning o‘zaro munosabati, uchinchisida esa badiiy voqea va inson obrazi ustuvorlik qiladi [Bulatov S.: 384]. Rishton kulolchilik maktabini o‘rganishda sirlangan buyumlardagi ko‘k, moviy va firuza tuslar hamda o‘simliksimon bezaklar kompozitsion tahlil uchun qulay material bo‘la oladi. Biroq barcha Rishton buyumlari aynan bir xil rang va naqshga ega deb umumlashtirish to‘g‘ri emas. Mashg‘ulotda tanlangan aniq buyumning suratidan foydalanib, undagi bezak markazi, bo‘sh va to‘ldirilgan sathlar, takroriy elementlar hamda rang kontrastlari belgilanadi. Shundan keyin talaba ushbu kuzatuvni o‘z badiiy yechimiga aylantirishi mumkin.

Masalan, “Rishton kulolining ustaxonasi” nomli mavzuli kompozitsiyada oldingi planda loyni shakllantirayotgan usta qo‘llari, o‘rta planda tayyorlanayotgan idishlar, orqa planda esa javon va xumdon atrofi tasvirlanadi. Kompozitsion markaz tayyor lagan emas, balki yaratilish jarayoni – ustaning qo‘li bilan aylanayotgan loy o‘rtasidagi munosabat bo‘lishi mumkin. Bu yondashuv buyum ortidagi mehnat madaniyatini ko‘rsatadi; asar tomoshabinga hunar tarixini badiiy hikoya sifatida yetkazadi. Sahnadagi kiyim, asbob va interyer detallari manbalar bilan qiyoslanishi, taxminiy detallar esa tarixiy fakt sifatida ko‘rsatilmasligi kerak.

G‘ijduvon kulolchiligida buyum yuzasini tashkil etuvchi bezaklar, iliq va to‘q ranglar munosabati hamda xalqona uslubni qiyosiy ko‘rish mumkin. “Ustoz va shogird” mavzusidagi kompozitsiyada ikki avlodning bir buyum ustida ishlashi yetakchi g‘oya etib olinadi. Shogirdning ustaga qaragan nigohi, ustaning amaliy harakati va ular orasidagi tayyorlanayotgan idish mazmuniy uchburchak hosil qiladi. Bunday sahna orqali ustoz-shogird an’anasi quruq tushuncha emas, insonlar o‘rtasidagi bilim va tajriba almashinuvi sifatida ochiladi.

Xorazm kulolchilik namunalarini o‘rganishda buyum sathining katta yoki kichikligi, bezak maydonlarining taqsimlanishi, geometrik va o‘simliksimon motivlarning ritmi taqqoslanadi. “Xorazm kulollari bozori” singari mavzuli kompozitsiyada bir xil sopol buyumlarni ko‘paytirishdan ko‘ra turli shakl va hajmlarning mantiqiy guruhlanishiga e’tibor qaratish foydalidir. Oldingi plandagi yirik idish, o‘rta plandagi savdo jarayoni va orqa plandagi me’moriy muhit birgalikda harakat hamda makon chuqurligini beradi. Bu sahna hujjatli rekonstruksiya emas, tarixiy ma’lumotlar bilan asoslangan ehtimoliy badiiy talqin sifatida taqdim etiladi.

O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati haqidagi ilmiy-uslubiy adabiyotlarda naqshlarning tuzilishi, ritmik takrorlanishi va badiiy uyg‘unlikka doir tahlillar kompozitsiya uchun muhim nazariy tayanch hisoblanadi [Bulatov S.: 384]. Talaba naqshni mexanik takrorlash o‘rniga uning shakl bilan qanday bog‘langanini, markaziy va chekka maydonlarda qaysi elementlar ustuvorligini aniqlashi kerak. Shuningdek,

muayyan motifga qat’iy ramziy ma’no berishdan avval uning tarixiy konteksti va mavjud manbalardagi izohini tekshirish zarur.

Mavzuli kompozitsiya yaratishda birinchi navbatda voqea tanlanadi. “Loydan lagangacha”, “Ustaxonada tong”, “Hunarmandlar avlodi” yoki “Sopol buyumlar bozori” singari mavzularning har biri turlicha harakat va vaqtni ifodalaydi. “Loydan lagangacha” mavzusida jarayonning hamma bosqichini bitta asarga sig‘dirish o‘rniga eng mazmunli lahza tanlanadi. Usta idishga yakuniy shakl berayotgan yoki shogird sirlangan buyumni diqqat bilan kuzatayotgan lahza asosiy markaz bo‘lib, qolgan predmetlar shu voqeani to‘ldirishi mumkin.

Kompozitsiya darsida ishlashni quyidagi izchillikda tashkil etish maqsadga muvofiq: tanlangan kulolchilik maktabi haqidagi manbalarni o‘rganish; buyumlar shakli va bezaklaridan kuzatuv etyudlari tayyorlash; mavzu hamda bosh voqeani aniqlash; kamida uchta kichik qoralama bajarish; personajlar harakati, ritm va koloritni yechish; yakuniy asarni tarixiy ishonchlilik va badiiy yaxlitlik bo‘yicha tahlil qilish. Bu bosqichlar muallifning metodik taklifi bo‘lib, ularning natijadorligini alohida pedagogik tajribada tekshirish lozim.

Rang yechimida ham mavzu bilan uyg‘unlik muhim. Masalan, loyni qorish va dastlabki ishlov sahnalarida tabiiy tuproq tuslari yetakchi bo‘lishi mumkin; tayyor sirlangan buyumlar namoyish etilgan sahnada esa moviy yoki yashil tuslar badiiy aksentga aylanadi. Yorug‘likning asosiy manbai qayerda ekanini oldindan belgilash buyum hajmini, usta qo‘llarini va fazoviy rejalarni birlashtiradi. Bunda milliy kulolchilik ranglarini tarixiy jihatdan o‘zgarmas “kod” sifatida talqin etmasdan, aniq kuzatilgan buyumdan kelib chiqib ishlash muhim.

UNESCOning 2023-yildagi qarorida O‘zbekistondagi kulolchilik san’ati insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan. Qarorda hunarni oilada, mahalla doirasida, san’at maktablari va ta’lim muassasalarida ustoz-shogird orqali o‘rgatish amaliyoti qayd etiladi [UNESCO, 2023]. Bu holat kulolchilikni kompozitsiya mashg‘ulotida tarixiy buyumlar majmui sifatidagina emas, bugun ham yashab kelayotgan kasb va madaniy muloqot sifatida ko‘rsatish uchun muhim asosdir.

Mashg‘ulotlarda talabalar ikki davrni qiyoslovchi kompozitsiya yechimini ham ishlab chiqishi mumkin. Masalan, “Kulolchilik an’anasi: kecha va bugun” mavzusida zamonaviy ustaxona va tarixiy manba asosida tasavvur qilingan hunarmandlar muhitini ikki mustaqil epizod yoki ma’noli vizual o‘tish orqali ifodalash taklif etiladi. Bunday ishlarda bir davrga mansub bo‘lmagan asbob, bino va liboslarni

aralashtirishdan ehtiyot bo‘lish kerak. Vaqt qatlamlarini ajratish, aksincha, taqqoslash g‘oyasining o‘ziga xizmat qiladi.

Talaba ishini baholashda mavzuning kulolchilik merosiga mosligi, tarixiy manbalardan foydalanish sifati, asosiy voqeaning aniqligi, buyum shakllarining mutanosibligi, naqsh va rangning badiiy vazifasi, personajlar munosabati hamda asarning yaxlitligi hisobga olinadi. Muallifdan qisqa izoh so‘rash foydali: qaysi buyum haqiqiy kuzatuvga, qaysi syujet esa badiiy taxminga asoslanganini ko‘rsatsa, kompozitsiya mazmuni yanada ishonchli ochiladi. Bu mezonlar tajribaviy tasdiqlangan natija emas, ta’lim jarayoni uchun ishlab chiqilgan metodik taklifdir.

Xulosa qilib aytganda, kulolchilikning badiiy-madaniy meros sifatidagi ahamiyati uning qadimiy shakllarini saqlash bilan cheklanmaydi. Rishton, G‘ijduvon va Xorazm an’analarini kompozitsiya mashg‘ulotlarida qiyoslash orqali rang, bezak, hajm va inson mehnatini bir g‘oyaga bo‘ysundirish mumkin. Sopol buyumni natyurmort predmeti sifatida o‘rganishdan usta va shogirdning faoliyatini mavzuli kompozitsiyada gavdalantirishga o‘tish talabalarning tarixiy tasavvuri va badiiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan istiqbolli metodik yo‘ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. – Toshkent: Mehnat, 1991. – 384 b.
2. Раҳимов М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент: Издательство Академии наук УзССР, 1961. – 244 с.
3. UNESCO. Ceramic arts in Uzbekistan. Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity, No.01989. – 2023. – https://ich.unesco.org/en/RL/ceramic-arts-in-uzbekistan-01989

ЦИФРОВЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИИ ВСЕМИРНОЙ ИСТОРИИ НА ОСНОВЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ИСТОРИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ

Равшан Хакимов
Старший преподаватель Гулистанского
государственного педагогического института
e-mail: rovshik721@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические возможности цифровых образовательных технологий в процессе изучения всемирной истории на основе художественно-исторических ценностей. Обосновывается, что цифровые ресурсы способствуют расширению доступа студентов к мировому культурному наследию, активизации самостоятельной познавательной деятельности и развитию профессиональных

компетенций будущих учителей истории. Предложены методические подходы к использованию виртуальных музеев, цифровых архивов, интерактивных карт и мультимедийных платформ в образовательном процессе. Сделан вывод о необходимости комплексной интеграции цифровых технологий и художественно-исторических источников в систему подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова: цифровые образовательные технологии, всемирная история, художественно-исторические ценности, цифровая компетентность, виртуальный музей, будущий учитель истории.

Введение. Цифровая трансформация образования оказывает существенное влияние на содержание, методы и организацию профессиональной подготовки будущих педагогов. Современные информационные технологии создают принципиально новые возможности для изучения всемирной истории, обеспечивая доступ к уникальным музейным коллекциям, историческим архивам, библиотекам и научным базам данных независимо от географического расположения обучающихся.

Особую актуальность цифровые технологии приобретают при изучении художественно-исторических ценностей. Если традиционные учебные материалы ограничиваются небольшим количеством иллюстраций, то современные цифровые платформы позволяют рассматривать произведения искусства в высоком разрешении, анализировать отдельные детали композиции, сравнивать произведения различных эпох и знакомиться с историко-культурным контекстом их создания.

Однако эффективность цифровизации определяется не количеством используемых технических средств, а качеством педагогической организации учебного процесса. Простая демонстрация электронных материалов не обеспечивает развития профессиональных компетенций студентов. Необходима методика, ориентированная на исследовательскую деятельность, критический анализ исторической информации и самостоятельное конструирование знаний. [1]

В этой связи особое значение приобретает разработка современных подходов к интеграции цифровых образовательных технологий и художественно-исторических ценностей в систему подготовки будущих учителей истории.

Одновременно в педагогической литературе подчеркивается возрастающая роль визуальных исторических источников в процессе обучения. Однако большинство исследований рассматривает цифровые технологии и

художественно-исторические ценности как самостоятельные направления педагогической деятельности. Вопросы их комплексного использования в профессиональной подготовке будущих учителей истории разработаны недостаточно, что определяет актуальность настоящего исследования. [2]

Материалы и методы исследования

Методологической основой исследования стали компетентностный, деятельностный и цифровой подходы к организации образовательного процесса. В работе использованы методы анализа научной литературы, педагогического моделирования, сравнительного анализа современных образовательных технологий и обобщения опыта использования цифровых ресурсов в преподавании исторических дисциплин. [3]

Особое внимание уделялось изучению образовательных возможностей виртуальных музеев, цифровых художественных коллекций, интерактивных карт, мультимедийных презентаций и электронных образовательных платформ. Их педагогический потенциал анализировался с точки зрения формирования профессиональных компетенций будущих учителей истории.

Результаты и обсуждение

Развитие цифровой образовательной среды существенно изменило характер работы студентов с исторической информацией. Если ранее основным источником знаний выступали учебники и печатные пособия, то в настоящее время обучающиеся получают возможность обращаться к цифровым коллекциям крупнейших музеев мира, электронным архивам и специализированным образовательным платформам. [4] Это способствует расширению информационного пространства и формированию навыков самостоятельного поиска исторических материалов.

Одним из наиболее эффективных цифровых инструментов являются **виртуальные музеи**. Их использование позволяет организовать изучение художественно-исторических ценностей без территориальных ограничений. Студенты получают возможность анализировать произведения искусства в высоком качестве, изучать историю их создания, знакомиться с комментариями специалистов и сопоставлять экспонаты различных музеев. [5] Такой формат значительно расширяет содержание практических занятий по всемирной истории.

Не менее важную роль играют **цифровые архивы**. Работа с электронными копиями исторических документов, карт, рукописей и произведений искусства способствует формированию исследовательских

умений. Студенты учатся самостоятельно отбирать источники, проверять достоверность информации, анализировать исторический контекст и делать аргументированные выводы. [6]

Высокую эффективность демонстрируют и **мультимедийные проекты**, создаваемые самими студентами. Подготовка виртуальных экскурсий, цифровых выставок, исторических подкастов и образовательных видеоматериалов требует самостоятельного анализа информации, отбора достоверных источников и педагогической переработки материала. [7] Подобная деятельность способствует развитию цифровой компетентности, творческого мышления и профессиональной самостоятельности будущих учителей.

Педагогические условия эффективного использования цифровых технологий. Проведенный анализ позволяет выделить ряд педагогических условий, обеспечивающих результативность цифрового обучения.

Во-первых, цифровые технологии должны использоваться не как средство замены традиционных методов преподавания, а как инструмент расширения возможностей исследовательской деятельности студентов. Приоритет следует отдавать тем цифровым ресурсам, которые стимулируют самостоятельный анализ исторической информации и формирование научного мышления.

Во-вторых, содержание цифровых образовательных ресурсов должно соответствовать целям профессиональной подготовки будущих учителей истории. Использование электронных материалов должно быть направлено не только на освоение исторических знаний, но и на развитие методических, коммуникативных и цифровых компетенций. [9]

В-третьих, необходима системная подготовка преподавателей к использованию цифровых образовательных технологий. Владение современными цифровыми инструментами становится важным компонентом профессионального мастерства преподавателя высшей школы. [10]

Наконец, существенное значение имеет создание цифровой образовательной среды, обеспечивающей свободный доступ студентов к научным базам данных, музейным коллекциям, электронным библиотекам и мультимедийным образовательным ресурсам. Такая среда способствует формированию культуры самостоятельной учебной и исследовательской деятельности. [11]

Заключение. Цифровая трансформация образования открывает новые перспективы совершенствования профессиональной подготовки будущих

учителей истории. Интеграция цифровых образовательных технологий и художественно-исторических ценностей позволяет существенно расширить содержание исторического образования, повысить его наглядность, доступность и исследовательскую направленность.

Проведенное исследование подтверждает, что использование виртуальных музеев, цифровых архивов, интерактивных карт и мультимедийных образовательных ресурсов способствует развитию исторического мышления, цифровой грамотности, аналитических способностей и профессиональной самостоятельности студентов. При этом наибольший педагогический эффект достигается тогда, когда цифровые технологии становятся средством организации активной исследовательской деятельности, а не ограничиваются функцией представления учебной информации. [12]

Перспективным направлением дальнейших исследований является разработка интеллектуальных цифровых образовательных платформ, объединяющих возможности искусственного интеллекта, виртуальной реальности и интерактивных музейных ресурсов в целях повышения качества исторического образования.

Использованная литература:

1. Вербицкий А.А. Контекстное обучение в высшей школе. – Москва: Юрайт, 2022.
2. Полат Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. Москва: Академия, 2021.
3. Кларин М.В. Инновационные модели обучения. – Москва: Академия, 2022.
4. Студеникин М.Т. Методика преподавания истории в школе. – Москва: Владос, 2021.
5. Роберт И.В. Теория и методика информатизации образования. – Москва, 2021.
6. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2021.
7. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2020.
8. Mishra P., Koehler M.J. *Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK).* New York: Routledge, 2021.
9. Selwyn N. *Education and Technology: Key Issues and Debates.* London: Bloomsbury Academic, 2022.

10. Wineburg S. *Historical Thinking and Other Unnatural Acts.* Philadelphia: Temple University Press, 2020.
11. Закон Республики Узбекистан «Об образовании».
12. Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTERAKT USULIDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Dina Kuanishovna Tajbenova
assistent o‘qituvchi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
dinatajbenova1@gmail.com

Annotatsiya: mazkur tezisda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interakt usulidan foydalanishning didaktik va metodik imkoniyatlari yoritilgan. O‘quvchilarning hamkorlikda ishlashini tashkil etish, tengdoshlar o‘rtasida o‘zaro yordamni yo‘lga qo‘yish, lingvistik bilimlarni ongli o‘zlashtirish hamda nazariy qoidalarni amaliy mashqlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili, interakt usuli, lingvistik bilim, amaliy ko‘nikma, mustaqil fikrlash, guruhli ish.

Globallashuv sharoitida boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, bilish faolligi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida o‘quvchilarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim mazmunini takomillashtirish hamda egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish kabi vazifalar belgilangan [PF-6108]. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interakt usullaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini tashkil etish, lingvistik bilimlarni ongli o‘zlashtirish, nazariy qoidalarni amaliy topshiriqlarda qo‘llash va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim metodik vositasi hisoblanadi. Shu bois interakt usullarini ona tili darslarining mazmuni va maqsadlariga muvofiq tanlash hamda ularni samarali qo‘llashning metodik asoslarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, zamonaviy boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va egallangan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashga o‘rgatish muhim metodik vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili ta’limida o‘quvchining lingvistik hodisalarni anglashi, til birliklarini farqlashi, grammatik qoidalarga tayangan holda mashqlarni bajarishi va o‘z fikrini asoslab berishi ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardir.

Ona tili darslarida interakt usulidan foydalanish o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchilariga aylantirish, ularning o‘zaro muloqotini tashkil etish hamda bilimlarni hamkorlikda o‘zlashtirish imkonini beradi. R.Yo‘ldoshev va L.Mirjalolova ona tili darslarida interaktiv usullarni qo‘llashni o‘quvchilarning o‘zaro ta’siri, hamkorligi va bir-biriga yordam berishi bilan bog‘laydilar. Mualliflar ushbu usullarning o‘quvchilar faolligini oshirish, bilimlarni puxtaroq o‘zlashtirishga rag‘batlantirish va guruhdagi hamkorlikni tashkil etish imkoniyatlarini ta’kidlaydilar [Yo‘ldoshev R.A.: 191-192].

Shu jihatdan, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interakt usulidan foydalanishning metodik asoslarini o‘rganish, uni o‘quvchilarning lingvistik bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltirish hamda hamkorlikdagi ta’limni samarali tashkil etish yo‘llarini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interakt usulidan foydalanish o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashi, bilimlarini o‘zaro muhokama qilishi va amaliy topshiriqlarni birgalikda bajarishi uchun imkoniyat yaratadi. Biroq bunday ishlarning samaradorligi faqat o‘quvchilarni guruhlarga ajratish bilan cheklanmaydi. Interaktiv ta’limning asosiy mazmuni o‘quvchilar o‘rtasida maqsadli o‘zaro ta’sirni tashkil etish, ularni fikr almashishga undash va umumiy natijaga erishish uchun hamkorlik qilishga yo‘naltirishdan iborat [Yo‘ldoshev R.A.: 192].

O‘quvchilarning bilim darajasidagi farqlarni hisobga olish hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Bunda bilimlarni yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilarning tengdoshlariga yordam berishi, qoidalarni tushuntirishi va xatolarni aniqlashga ko‘maklashishi mumkin. Biroq o‘zaro yordam tayyor javobni aytib berish bilan cheklanmasligi, balki savol berish, taqqoslash, dalil keltirish va yechimni asoslash orqali tashkil etilishi lozim. Bu jarayonda o‘quvchilar nafaqat yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki mavjud bilimlarini mustahkamlash va ularni amalda qo‘llash imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar.

Shu nuqtayi nazardan, interakt usulini qo‘llashda quyidagi metodik shartlarga amal qilish maqsadga muvofiq:

– o‘quvchilarning bilim darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda guruhlarni shakllantirish;

– nazariy qoidalarni amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni tanlash;

– o‘zaro yordamni tushuntirish, savol berish va yechimni asoslash orqali tashkil etish;

– har bir o‘quvchining guruh ishi va yakuniy taqdimotda ishtirok etishini ta’minlash;

– o‘zaro hurmat va xatolarni konstruktiv muhokama qilish muhitini shakllantirish;

– o‘quvchilar faoliyatini kuzatish va natijalarini belgilangan mezonlar asosida baholash.

Ona tili darslarida interaktiv usullarni tanlashda til materialining mazmuni va o‘quv topshirig‘ining xususiyati hisobga olinishi kerak. R.Yo‘ldoshev va L.Mirjalolova interaktiv usullar qatorida “Keys-stadi”, “Mantiqiy zanjir”, “Klaster”, “Bahs-munozara”, “Tushunchalar tahlili” va boshqa usullarni keltiradilar [Yo‘ldoshev R.A.: 192]. Mazkur usullarni ona tili mashg‘ulotlarida qo‘llash o‘quvchilarning til hodisalarini tahlil qilish, ularni qiyoslash va xulosa chiqarish faoliyatini tashkil etishga yordam beradi.

Masalan, o‘quvchilarga so‘zlarni muayyan belgisiga ko‘ra guruhlash, so‘z shakllarini qiyoslash, gapdagi til birliklarini aniqlash yoki mashqdagi xatolarni tegishli qoida asosida tuzatish topshiriqlari berilishi mumkin. “Mantiqiy zanjir” usuli orqali til birliklari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash, “Klaster” usuli yordamida muayyan grammatik tushunchaga oid belgilarni tizimlashtirish, “Tushunchalar tahlili” orqali esa lingvistik atamalar mazmunini ochib berish mumkin. Ushbu misollar interaktiv usullarni ona tili darsi mazmuniga moslashtirish bo‘yicha metodik takliflar hisoblanadi.

Interakt usulini tashkil etishda o‘quv topshiriqlarining mazmuni alohida ahamiyatga ega. Topshiriqlar faqat qoidani eslab qolish yoki tayyor javobni topishga emas, balki o‘quvchining mustaqil tahlil qilishi, fikrini asoslay olishi va nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llashiga yo‘naltirilishi lozim. Masalan, o‘quvchilarga berilgan so‘zlarni turkumlarga ajratish, so‘z shakllaridagi farqlarni aniqlash, gap tarkibidagi til birliklarini izohlash yoki grammatik xatolarni tegishli qoida asosida tuzatish vazifalari berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning lingvistik bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Ona tili ta’limida lingvistik bilimlarni amaliy qo‘llashga o‘rgatish ham alohida ahamiyatga ega. R.Yo‘ldoshev va L.Mirjalolovaning ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuvga bag‘ishlangan metodik qo‘llanmasida lingvistik va nutqiy kompetensiyalar hamda ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari yoritilgan [Yo‘ldoshev R.A.]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, o‘quv topshiriqlarini faqat ta’rif va qoidalarni eslab qolishga emas, balki til hodisalarini tanish, qiyoslash, tasniflash va qoidalarni nutqiy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Interaktiv ta’limning metodik imkoniyatlarini belgilashda o‘qituvchining faoliyati ham muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi dars maqsadiga mos topshiriqlarni tanlashi, guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirishi, o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini boshqarishi va yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishga ko‘maklashishi kerak. Bunda o‘qituvchi tayyor javobni taqdim etuvchi shaxs sifatida emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va bilimlarni o‘zlashtirishiga yo‘naltiruvchi tashkilotchi sifatida faoliyat yuritadi.

Interakt usulini amalga oshirishda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish ham muhimdir. Ayrim o‘quvchilar qoidani tushungan bo‘lsa-da, sinf oldida erkin bayon qilishda qiynalishi mumkin. Shuning uchun ularga dastlab qoidadan foydalanish, tayanch so‘zlar asosida javob tuzish yoki o‘z fikrini kichik guruhda ifodalash imkoniyatini berish maqsadga muvofiq. Keyinchalik topshiriqlar murakkabligi bosqichma-bosqich oshirilib, o‘quvchining mustaqil javob berishi va o‘z fikrini asoslashiga sharoit yaratiladi.

Interakt usulining samaradorligini aniqlashda o‘quvchilarning faolligini kuzatish, topshiriqlarni bajarish sifati, grammatik qoidalardan foydalanish darajasi, o‘z fikrini asoslash qobiliyati va hamkorlikdagi ishtirokini baholash muhimdir. Baholash mezonlarining oldindan belgilanishi o‘quvchilarga o‘z faoliyatining natijalarini anglash va kamchiliklarini tuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, xatolarni kamchilik sifatida qayd etish bilan cheklanmay, ularning sabablarini aniqlash va to‘g‘ri yechimga mustaqil kelishni rag‘batlantirish zarur.

Demak, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interakt usulidan foydalanish ta’lim mazmuni, o‘quv topshiriqlari, o‘zaro muloqot, o‘qituvchi rahbarligi va baholash jarayonining o‘zaro uyg‘unligini talab etadi. Mazkur omillarning maqsadga muvofiq tashkil etilishi o‘quvchilarning lingvistik bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interakt usulidan foydalanish o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashini tashkil etish, lingvistik bilimlarni ongli o‘zlashtirish va nazariy qoidalarni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usulning samaradorligi o‘quvchilarni guruhlarga birlashtirish bilangina emas, balki ular o‘rtasida maqsadli muloqot, o‘zaro yordam va fikr almashishni tashkil etish bilan belgilanadi.

Umuman, interakt usulini ona tili ta’limida samarali qo‘llash uchun o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, amaliy topshiriqlarni maqsadli tanlash, har bir o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash va natijalarni aniq mezonlar asosida baholash zarur. Bunday yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, til hodisalarini tahlil qilishi va grammatik qoidalar asosida to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Shunindek, interakt usulidan maqsadli foydalanish boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida hamkorlik muhitini shakllantirish, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish va lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishning muhim metodik imkoniyatlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – https://lex.uz/uz/acts/-5085999
2. Yo‘ldoshev R.A., Mirjalolova L.R. Ona tilidan ayrim mashqlarni bajarishning interaktiv usullari // Pedagogik mahorat: ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro, 2021. – № 5. – B. 191-193.
3. Yo‘ldoshev R.A., Mirjalolova L.R. Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi, 2019. – 48 b.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI

Tajbenova Saule Sarsengalievna
pedagogika fanlari doktori, dotsent
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
tajbenova.saule@mail.ru

Annotatsiya: mazkur tezisda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslari, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish bosqichlari hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni diagnostik topshiriqlar yordamida baholash

masalalari yoritilgan. Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda grammatik qoidalarni bilish, ularni nutq jarayonida qo‘llash, xatolarni aniqlash va tegishli qoidalar asosida tuzatish ko‘nikmalarining ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili, lingvistik kompetensiya, grammatik qoida, bilim, ko‘nikma va malaka, diagnostik topshiriq, imloviy savodxonlik, nutqiy faoliyat, tajriba-sinov.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning lingvistik bilimlarini shakllantirish bilan bir qatorda, ularni amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llashga o‘rgatish ham muhim metodik vazifa hisoblanadi. Ona tili darslarida o‘quvchining grammatik qoidalarni bilishi, til birliklarini farqlashi va ulardan to‘g‘ri foydalanishi lingvistik kompetensiyaning muhim tarkibiy jihatlarini tashkil etadi. Shu sababli ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanmasdan, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, xatolarni aniqlash hamda qoidalar asosida tuzatish imkoniyatlarini ham rivojlantirish zarur.

Lingvistik kompetensiyani shakllantirishga doir metodik yondashuvlarda til hodisalarini anglash, tahlil qilish, izohlash va nutqda to‘g‘ri qo‘llash muhim o‘rin tutadi. D.S. Karaseva lingvistik kompetensiyaning shakllanganlik darajasini til birliklarini taniy olish, til materialini tahlil qilish, tushuntirish, isbotlash, tasniflash va ularni o‘z nutqida to‘g‘ri qo‘llash amallari bilan bog‘laydi [Карасева Д. С.: 230]. Bu yondashuv boshlang‘ich sinf ona tili darslarida nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘zlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirishda an’anaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish ishlari bilan bir qatorda, o‘quvchilarning grammatik qoidalardan mustaqil foydalanishiga yo‘naltirilgan metodik yondashuvni tashkil etish muhimdir. Bunda ta’lim jarayoni o‘zaro bog‘liq bosqichlar asosida tashkil etilib, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishi, ularni amaliy faoliyatda qo‘llashi va o‘zgalarning nutqidagi xatolarni tegishli qoidalar asosida tuzatishi ko‘zda tutiladi.

Mazkur yondashuvda ikki va uch bosqichli ta’lim mazmunini farqlash mumkin. Ikki bosqichli yondashuv bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan bevosita kompetensiyani rivojlantirishga o‘tishni nazarda tutadi. Uch bosqichli yondashuvda esa bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularni kommunikativ faoliyatda qo‘llash hamda o‘zlashtirilgan qoidalarni faollashtirish orqali lingvistik kompetensiyani namoyon etishga alohida e’tibor qaratiladi. Bunday ketma-ketlik o‘quvchilarning qoidalarni nafaqat eslab qolishi, balki ularni amaliy vaziyatlarda ongli qo‘llashi va o‘z yechimini izohlashiga imkon yaratadi.

Lingvistik kompetensiyaning shakllanganlik darajasi quyidagi natijalarda namoyon bo‘ladi:

– til birliklarining talaffuzi, imlosi va qo‘llanish xususiyatlariga doir qoidalarni bilish;

– nutq mahsulini yaratishda tegishli qoidalarga rioya qilish;

– o‘z nutqi va boshqalarning nutqidagi xatolarni aniqlash hamda tuzatish;

– yo‘l qo‘yilgan xatolarni tegishli qoidalar asosida izohlash;

– til birliklarining to‘g‘ri qo‘llanishi yuzasidan boshqalarga asoslangan tavsiyalar berish.

Ushbu natijalarga erishish uchun o‘quvchilarning bilimlarini muntazam diagnostika qilish talab etiladi. M.V. Dubova qarashlariga ko‘ra, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini aniqlashda yakka tartibda bajariladigan diagnostik topshiriqlardan foydalanish muhimdir [Дубова М.В.: 26]. Bunday topshiriqlar o‘quvchining faqat to‘g‘ri javobni topish qobiliyatini emas, balki uning sababini tushuntirish, tegishli qoidani eslash va amalda qo‘llash imkoniyatlarini ham aniqlashga xizmat qiladi.

Masalan, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

– berilgan so‘zlar orasidan imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilganini aniqlash;

– xato yozilgan so‘z shaklini topish va tegishli qoidani izohlash;

– berilgan grammatik qoidaga mos til birligini aniqlash;

– so‘z yoki gapdagi xatoni tuzatib, tuzatish sababini tushuntirish;

– yozma ishdagi xatolarni aniqlash va ularni tegishli qoidalar asosida tahrirlash.

Bunday topshiriqlar o‘quvchining qoidalarni o‘zlashtirish darajasini, ularni esga tushirish qobiliyatini hamda amaliy faoliyatda qo‘llay olishini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, topshiriqlar mazmuni o‘quvchilarning yoshi, sinfi va o‘rganilgan til materialiga mos bo‘lishi lozim.

Lingvistik kompetensiyani baholashda yozma ishlar, xususan, diktantlardan ham foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarning muayyan imlo qoidalarini amalda qo‘llashi, so‘z shakllarini to‘g‘ri yozishi va xatolarga yo‘l qo‘ymasligi tekshiriladi. Biroq diktant natijasi o‘quvchining lingvistik kompetensiyasini to‘liq ifodalamaydi. Chunki kompetensiya xatoni aniqlash, qoidani izohlash, til birliklarini tahlil qilish va o‘zgalarga tushuntirish kabi amallarni ham qamrab oladi. Shu sababli diktantni izohli topshiriqlar va mustaqil tahlil ishlari bilan birgalikda qo‘llash maqsadga muvofiq.

M.R. Lvov o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini baholashda mazmun, kompozitsiya, til vositalaridan foydalanish, nutqning ifodaliligi va yozma ishning

savodxonligi kabi mezonlarga e’tibor qaratadi [Львов М. Р.: 464-b]. Ushbu mezonlar o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini baholashda muhim bo‘lsa-da, lingvistik kompetensiyani aniqlashda grammatik qoidalarni ongli qo‘llash, xatolarni asosli tuzatish va til hodisalarini izohlash ko‘rsatkichlarini ham alohida hisobga olish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

– nazariy bilimlar mezoni, til birliklari va ularga oid qoidalarni bilishi;

– amaliy qo‘llash mezoni, qoidalarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llashi;

– tahliliy mezon, til hodisalarini taqqoslashi, tasniflashi va xatolarni aniqlashi;

– izohlash mezoni, xatolarni tegishli qoidalar asosida tushuntirishi va tuzatish yo‘lini asoslab berishi.

Mazkur mezonlar asosida tashkil etilgan diagnostik ishlar o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasi qay darajada shakllanganini aniqlash, mavjud qiyinchiliklarni belgilash va keyingi ta’lim jarayonini takomillashtirishga imkon beradi. Taklif etilayotgan metodik yondashuvning samaradorligini aniqlash uchun esa tegishli topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, tajriba va nazorat guruhlari natijalarini taqqoslash hamda olingan ma’lumotlarni belgilangan mezonlar asosida tahlil qilish zarur.

Xullas, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, grammatik qoidalarni amaliy faoliyatda qo‘llash, xatolarni aniqlash va ularni asosli ravishda tuzatish ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Bunda ta’lim jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, diagnostik topshiriqlardan foydalanish va baholash mezonlarini aniq belgilash muhim metodik ahamiyatga ega.

Lingvistik kompetensiyani baholash faqat imloviy xatolar sonini aniqlash bilan cheklanmasligi, balki o‘quvchining qoidalarni bilishi, til hodisalarini tahlil qilishi, o‘z xulosasini izohlashi va qoidalarni mustaqil qo‘llashini ham qamrab olishi lozim. Taklif etilayotgan yondashuv samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish uning boshlang‘ich sinf ona tili ta’limidagi metodik imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Дубова М.В. Диагностирующее задание как средство измерения образовательных компетентностей. Начальная школа. – М.: 2014. № 5. – С. 26.
2. Карасева Д. С. Лингвистическая компетенция: теория и практика преподавания. – Казань: КФУ, 2017. – 230 с.

3. Львов М. Р., Горецкий В. Г., Сосновская О. В., Методика преподавания русского языка в начальных классах. Учеб.пособие для студ. учреждений высш. проф. образования. 7-е изд., стер.: Издательский центр «Академия», 2012. – 464 с.

TARIXIY-MADANIY MEROSNI RAQAMLI TASVIRIY SAN’AT VOSITASIDA O‘RGANISH METODLARI

M.R.Xayrova
Guliston davlat pedagogika instituti
Tasviriy san’at magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy-madaniy merosni raqamli tasviriy san’at vositasida o‘rganishning mazmuni, metodlari va ta’limiy imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada raqamli tasvirlash, vizual rekonstruksiya va elektron taqdimot kabi usullarning tarixiy-madaniy merosni o‘rganishdagi metodik ahamiyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarda tarixiy manbalarga qiziqish, kuzatuvchanlik va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish bilan birga, milliy madaniy merosni zamonaviy ta’lim muhiti orqali anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy meros, raqamli san’at, vizual tahlil, badiiy-estetik idrok, raqamli texnologiyalar, 3D printer, Microsoft PowerPoint.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida tarixiy-madaniy merosni o‘rganish faqatgina tarixiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchining mazkur merosni ko‘rish, tasavvur qilish, tahlil etish va ijodiy qayta ifodalash faoliyatini ham qamrab olmoqda. Ayniqsa, tasviriy san’at fanida tarixiy obidalar, milliy me’moriy yodgorliklar, amaliy san’at namunalari hamda qadimiy bezak va naqshlarni o‘rganishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim mazmunini boyitish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, tasviriy san’at ta’limida yangi imkoniyatlar yaratadi. Ularning ahamiyati shundaki, raqamli vositalar o‘quv jarayonini samarali tashkil etish bilan birga o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini riivojlantirishga xizmat qiladi. San’at ta’limida multimedia vositalari, interaktiv platformalar va virtual texnologiyalar keng qo’llanilib, ta’limni interfaol muhitda tashkil etish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalar dars jarayonida ko‘rgazmalilikni oshirish, ma’lumotlarni chuqurroq

idrok etish va ijodiy faoliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Microsoft PowerPoint va Prezi kabi vositalar orqali san’at asarlarning tarixiy va kompozitsion jihatlari ko‘rgazmali tarzda tahlil qilinadi [Qodirov F., 42-43].

Raqamli tasviriy san’at an’anaviy tasvirlash usullarini zamonaviy texnologik imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirib, tarixiy obyektlarni yanada aniq va tushunarli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Milliy merosimizni raqamli tasviriy san’at vositasida o‘rganishning muhim jihatlaridan biri obyektni bevosita vizual kuzatish va uning badiiy xususiyatlarini tahlil qilish imkoniyatining kengayishidir [Abdullaev S.F. va boshq.: 54-56]. Oddiy reproduksiya yoki darslikdagi tasvir bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchi tarixiy obyektning shakli, tuzilishi, rang uyg‘unligi, bezak elementlari va kompozitsion yechimini raqamli muhitda batafsil o‘rganishi mumkin. Masalan, tarixiy me’moriy inshaot tasvirini raqamli grafik dastur yordamida qayta ishlash jarayonida uning alohida qismlarini kattalashtirish, ranglarini tahlil qilish, bezak elementlarini ajratib ko‘rsatish va tasviriy jihatdan qayta yaratish mumkin. Bunday faoliyat o‘quvchining kuzatuvchanligi va tasviriy tafakkurini rivojlantiradi.

Raqamli tasvirlash metodlari tarixiy-madaniy merosni o‘rganishda alohida metodik ahamiyatga ega. O‘quvchi tarixiy obyektni qog‘ozga oddiy nusxa ko‘chirish bilan cheklanmasdan, uni raqamli muhitda qayta talqin qiladi. Bunda grafik tasvirni yaratish, mavjud tasvirni tahrirlash, rang va yorug‘lik nisbatlarini o‘zgartirish, ayrim elementlarni ajratib ko‘rsatish kabi amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin. Ushbu jarayonda o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ham tarixiy ma’lumotni o‘zlashtiradi, ham tasviriy san’atning ifoda vositalarini amalda qo‘llaydi. Natijada nazariy bilim va amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik kuchayadi [Azimov S.S.: 34-37].

Tarixiy-madaniy merosni o‘rganishda vizual rekonstruksiya metodidan foydalanish ham samarali natija beradi. Mazkur metod orqali bugungi kungacha saqlanib qolmagan yoki ayrim qismlari buzilgan tarixiy obyektlarning taxminiy ko‘rinishini mavjud tarixiy manbalar, fotosuratlar, chizmalar va tasviriy materiallar asosida qayta yaratish mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchini tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki mavjud manbalarni solishtiruvchi, tahlil qiluvchi va ulardan xulosa chiqaruvchi faol ishtirokchiga aylantiradi. Shu sababli vizual rekonstruksiya tarixiy tafakkur bilan bir qatorda ijodiy tafakkurni shakllantirishga ham xizmat qiladi. [Qodirov U.D., Qarshiev J.M.: 3-5]

Ta’lim jarayonida raqamli tasviriy san’atdan foydalanish metodlarini bir necha yo‘nalishda tashkil etish mumkin. Birinchi yo‘nalish - tarixiy obyektni raqamli nusxalash va badiiy qayta ishlash; ikkinchi yo‘nalish - mavjud tarixiy tasvirni tahlil qilish va undagi badiiy vositalarni aniqlash; uchinchi yo‘nalish - tarixiy obyektning

vizual rekonstruksiyasini yaratish; to‘rtinchi yo‘nalish - o‘quvchilarning mustaqil ijodiy loyihalarini tashkil etishdan iborat. Mazkur metodlarning ketma-ket va maqsadli qo‘llanilishi o‘quvchilarning oddiy kuzatishdan mustaqil ijodiy faoliyatgacha bo‘lgan rivojlanishini ta’minlaydi [Qodirov F., Musurmonov Sh., Raxmatov Sh.: 59].

Raqamli tasviriy san’atning ta’limdagi imkoniyatlarini baholashda uning o‘quvchilarda shakllantiradigan kompetensiyalariga ham e’tibor qaratish lozim. Bunday mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmasi bilan bir qatorda, vizual axborotni tahlil qilish, rang va shaklni farqlash, kompozitsiyani tuzish, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z ijodiy ishini asoslash qobiliyatlari rivojlanadi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy merosni o‘rganish jarayonida ushbu kompetensiyalar milliy qadriyatlarni shunchaki ma’lumot sifatida emas, balki badiiy obraz va vizual tajriba orqali anglashga yordam beradi. Tasviriy san’atda ilmiy yutuqlarning amaliy qo‘llanilishi ijodkorlik sohasida yangi qirralarni ochib beradi. Ilmiy yutuqlar nafaqat ta’lim jarayonlarini, balki rassomlarning amaliyotini ham tubdan o‘zgartiradi. Raqamli tasvirlar, 3D-printer va virtual borliq texnologiyalari tufayli yosh rassomlar endi oldinlar mumkin bo‘lmagan yoki bajarilishi juda qiyin bo‘lgan asarlarni yaratish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Rassomlar o‘z asarlarini kompyuterda modelga solib, keyin o‘z g‘oyalarini fizik shaklda amalga oshirish uchun 3D-printerlardan foydalanishlari mumkin. Bu nafaqat yaratilish jarayonini tezlashtirdi, balki shakl va materiallar bilan tajriba o‘tkazish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi. Buning bir misoli grafik planshetlar va maxsus dasturlar kabi raqamli vositalardan foydalanishdir, bu rassomlarga asarlarini real vaqtda modellashtirish va tahrirlash imkonini beradi. Virtual borliq rassomlarga tomoshabin ko‘rishi mumkin bo‘lgan asarlarini yaratadi, shuningdek, tomoshabinlar ularni virtual muhitda o‘zaro ta’sir qilishlari mumkin. [Abdumannopov M.M..:19] Mazkur metodik tizimda o‘qituvchi tayyor ma’lumotni beruvchi asosiy manba sifatida emas, balki o‘quvchining izlanishini yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. O‘qituvchi tarixiy manbalarni tanlash, raqamli vositalardan foydalanish, topshiriqlarni bosqichlarga ajratish va bajarilgan ishlarni tahlil qilish jarayonini boshqaradi. O‘quvchi esa ma’lumotni izlaydi, uni tahlil qiladi, raqamli vositalar yordamida qayta ishlaydi va yakuniy natijasini asoslaydi. Bunday yondashuv o‘quvchining darsdagi faolligini oshirish bilan birga, uning mustaqil ishlash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, raqamli muhitda bir nechta variantni sinab ko‘rish, xatolarni tuzatish va tasvirni qayta ishlash imkoniyati o‘quvchiga o‘z ishini takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada o‘quvchi yakuniy natijaga

birdaniga emas, balki izlanish va tajriba orqali erishadi [Xayrov R.Z., Xayrova M.R.:119].

Tarixiy-madaniy merosni raqamli tasviriy san’at vositasida o‘rganish masalasiga faqat texnologik yangilik sifatida yondashish yetarli emas. Uning pedagogik qiymati, avvalo, tarixiy obyektni o‘quvchining faol idrok etishi, unga savol qo‘yishi, dalillar asosida talqin qilishi va badiiy obraz orqali mazmunini ochib bera olishi bilan belgilanadi. San’at asari va vizual material asosida tashkil etilgan ta’lim o‘quvchini tayyor xulosani qabul qilishdan ko‘ra kuzatish, asoslash, taqqoslash va mustaqil fikr bildirishga yo‘naltiradi. Vizual tafakkurga asoslangan yondashuvlarning ta’limdagi ahamiyati ham aynan shu jihat bilan izohlanadi. [Abdumannopov M.M.:110]

Raqamlashtirish tarixiy-madaniy merosni ta’limda o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirib, uni tahlil qilish, qayta talqin etish va ijodiy faoliyatga jalb qilishga xizmat qiladi. Raqamli tasviriy san’at vositalari o‘quvchilarning tarixiy obyektlarni vizual idrok etishi va madaniy mazmunni anglashini rivojlantiradi. Bunda tarixiy manbalarga tayanish, ilmiy ma’lumotlarni badiiy taxmindan farqlash muhimdir. Tadqiqotlar asosida obyektni tanlash, vizual tahlil, raqamli tasvirlash, rekonstruktiv talqin va refleksiya bosqichlarini izchil tashkil etish samarali metodik yondashuv ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning tahliliy fikrlashi, ijodkorligi va madaniy merosga ongli munosabatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaev S.F., Azimov S.S., Avezov Sh.N. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. B.: BuxDU, 2020. - 228 b.
2. Azimov S.S. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini kompyuter texnologiyalaridan foydalanib takomillashtirish: avtoref. dis.. ped.fan. fals. dok. (PhD) - Qarshi. 2021. 48 b.
3. Qodirov F., Musurmonov Sh., Raxmatov Sh. Komryuter grafikasi va vizuallashtirish. -T.: “Granda Kondor Print” 2024. -204 b.
4. Qodirov U.D., Qarshiev J.M. Ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari // Zamonaviy ta’lim. 2021. №4 (101). - 3-8 b.
5. Abdumannopov M.M. “Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish xususiyatlari”//Intereducation & Global study. - 2024.-8.-107-113 b.

TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLAR OBRAZINI KOMPOZITSIYA DARSLARIDA BADIIY JONLANTIRISH METODIKASI

Xayrullayeva Charos Xayrulla qizi
Guliston davlat pedagogika instituti,
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo‘nalishi talabasi,
Ilmiy rahbar: **Jumaboyev Nabi Pardaboyevich**
Guliston davlat pedagogika instituti,
“San’atshunoslik” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: maqolada tarixiy yodgorliklarni kompozitsiya mashg‘ulotlarida tasvirlash orqali o‘tmish muhitini badiiy jonlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Registon, Shohi Zinda va Afrosiyob misolida tarixiy manba, syujet, personaj, rang hamda kompozitsion markazni uyg‘unlashtirishga asoslangan metodik topshiriqlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy meros, tasviriy san’at, mavzuli kompozitsiya, badiiy obraz, tarixiy muhit, syujet, personaj, rangtasvir, vizual tafakkur.

Tarixiy yodgorliklar qadimgi jamiyatlarning me’moriy didi, turmush tarzi va ma’naviy qarashlaridan xabar beradi. Biroq tasviriy san’at mashg‘ulotida obidaning faqat hozirgi ko‘rinishini ko‘chirib chizish bilan cheklanish uning badiiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini to‘liq ochmaydi. Kompozitsiya fanining o‘ziga xos vazifasi – yodgorlikni makon sifatida tanlab, shu makonda kechgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan tarixiy hayotni obrazlar, harakat, yorug‘lik va rang vositasida badiiy talqin etishdir. Bunda tarixiy fakt bilan ijodiy tasavvur o‘rtasidagi chegara aniq saqlanishi zarur.

Tarixiy-madaniy yodgorliklar asosida mavzuli kompozitsiya ishlash o‘tmish davr muhitini badiiy tasavvur qilish, syujetni tarixiy dalillar bilan uyg‘unlashtirish va inson obrazini me’moriy makonda mazmunli joylashtirishni talab etadi. Bunda tarixiy manbalarni o‘rganish, asarni vizual-kompozitsion tahlil qilish, bir necha eskiz yechimini qiyoslash va yakuniy badiiy talqinni asoslash o‘zaro bog‘liq amaliy harakatlarga aylanadi. Bu yondashuv metodik tavsiya sifatida ilgari suriladi; uning ta’limiy samaradorligi alohida tajriba orqali tekshirilishi lozim.

Kompozitsiya – predmet va personajlarni tasvir sathiga joylashtirishdangina iborat jarayon emas. Unda mavzu, g‘oya, bosh voqea, obrazlar munosabati, fazoviy rejalar va yorug‘likning o‘zaro bog‘lanishi yaxlit tasviriy hikoyani yuzaga keltiradi. Rudolf Arnheimning vizual idrok haqidagi qarashlari shakllar muvozanati va ko‘rish maydonidagi aloqadorlikni anglash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [Arnheim, 2004]. Tarixiy kompozitsiyada tomoshabinning nigohi avval voqea markaziga, keyin

esa davr belgilarini ifodalovchi me’moriy va maishiy detallarga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

Samarqandning tarixiy markazi kompozitsiya darslarida o‘tmish tasvirini yaratish uchun katta mavzu manbaidir. UNESCO tavsifida Afrosiyob qadimgi shahar qoldiqlari, Temuriylar davriga oid tarixiy shahar makoni hamda Registon, Bibixonim, Shohi Zinda va Go‘ri Amir majmualari alohida qayd etiladi [UNESCO World Heritage Centre]. Bunday obidalarni bir xil davrga mansub deb tasvirlash xatodir. Mashg‘ulot boshida har bir obyektning bunyod etilish davri, vazifasi va keyinchalik qayta qurilgan qismlari aniqlashtiriladi.

Masalan, “Ulug‘bek davridagi Samarqandda ilm va ma’rifat” mavzusida kompozitsiya yaratish uchun Registon maydonidagi Ulug‘bek madrasasi tarixiy tayanch sifatida tanlanishi mumkin. Kompozitsiya markazida mudarris va ilm oluvchi shogirdlarning suhbatini tasvirlash, oldingi planda qo‘lyozma tutgan yoshlarni, o‘rta planda muloqot harakatini, orqa planda esa madrasa peshtoqini joylashtirish mumkin. Bunday sahna aniq tarixiy hodisaning fotosuratdek qayta tiklanishi emas, balki davrning ilmiy-ma’rifiy hayotiga asoslangan badiiy rekonstruksiya ekanligi ko‘rsatilishi lozim. Registonning bugungi uch madrasa bilan shakllangan ansamblini Ulug‘bek davri manzarasiga o‘zgartirmasdan ko‘chirish tarixiy anakronizmga olib keladi.

Tarixiy sahnada bino oddiy me’moriy manzaradan farqli ravishda inson faoliyatini ochuvchi makonga aylanadi. Ulug‘bek madrasasi hovlisida qo‘lyozma muhokama qilayotgan shogirdlar sahnasini ishlashda qo‘l harakati, nigoh yo‘nalishi va guruhlar oralig‘i kompozitsion ritmni belgilaydi. Shunda obidaning salobati personajlarni soya ostida qoldirmaydi, aksincha ilmiy muloqot g‘oyasini kuchaytiradi.

Shohi Zinda majmuasi asosidagi “Ziyorat yo‘li” mavzuli kompozitsiyasi esa boshqa badiiy yechimni talab etadi. Zinapoyalar va maqbaralar ketma-ketligi orqali diagonal ritm hosil qilinib, nigoh yuqoriga yo‘naltiriladi; turli masofadagi inson qiyofalari makon chuqurligi va harakatni ochib beradi. Bunday asarda kompozitsion markaz alohida shaxsning qiyofasida emas, ziyorat davomida yuzaga keladigan inson va me’moriy muhit munosabatida ham shakllanishi mumkin. Koshinlarning rangdorligi, naqshlar takrori va yorug‘lik-soya kontrasti asarning hissiy ohangini belgilaydi. Diniy va tarixiy belgilarni tasvirlashda esa tekshirilgan ma’lumotlarga tayanish va hurmatli talqin saqlash kerak.

Qadimgi Afrosiyob mavzusida ish olib borishda boshqa metodik masala paydo bo‘ladi: ko‘p me’moriy qismlar bugungi kungacha yaxlit holatda saqlanmagan. Shu sababli “Qadimgi Samarqandda hunarmandlar hayoti” singari kompozitsiya

arxeologik qoldiqlar, muzey namunalari hamda davrga oid ilmiy rekonstruksiyalarni taqqoslashdan boshlanishi lozim. Qo‘lyozma, sopol buyum, devoriy tasvir yoki ashyoviy topilmadan olingan detal syujetning davriy ishonchliligini oshirishi mumkin. Biroq kiyim, bozor manzarasi va binolarning taxminiy ko‘rinishi hujjatlangan dalil sifatida emas, ehtimoliy badiiy tasavvur sifatida taqdim etiladi.

Tarixiy mavzudagi rangtasvirni ishlashdan oldin talabaga “tasviriy dalillar xaritasi”ni tuzdirish foydali: bir ustunga muzey ashyolari, obida bezaklari va tarixiy tavsiflarga asoslangan detallar; ikkinchisiga esa muallif tasavvurida yaratilgan harakat, rakurs va yorug‘lik holatlari yoziladi. Bu usul syujetning badiiy erkinligini cheklamaydi, balki qayta tiklangan manzaraning qaysi jihati manbaga asoslangani va qaysi jihati shartli ekanini ongli ajratishga o‘rgatadi. S.Raxmetov kompozitsiyaga oid qo‘llanmasida badiiy tuzilishni amaliy mashqlar orqali egallashga e’tibor qaratadi [Raxmetov S.: 64]. Tarixiy kompozitsiyani yaratishda personaj tasodifiy bezak bo‘lib qolmasligi kerak. Uning harakati, qarashi, kiyimi va boshqa qahramonlar bilan munosabati tasvirning asosiy g‘oyasiga xizmat qiladi. Masalan, “Ustoz va shogird” sahnasida usta qo‘lidagi asbob, shogirdning kuzatuvi, ish jarayonidagi materiallar hamda me’moriy fon birgalikda davr kasb-hunar madaniyatini ko‘rsata oladi. Shaxslar sonini ko‘paytirish o‘rniga uch-to‘rt obrazning mazmunli o‘zaro aloqasini tashkil etish ko‘pincha yaxlit kompozitsion yechim beradi.

Kolorit tarixiy muhitni jonlantirishning ta’sirchan vositasidir. Yorug‘ tong sahnasida mayin iliq ranglar va uzun soyalar faoliyatning boshlanishini ifodalashi mumkin; bozor yoki qurilish manzarasida esa harakatni aks ettiruvchi iliq-sovuq rang qarama-qarshiliklari ishlatiladi. S.Abdirasilov va N.Tolipovning “Rangtasvir” darsligida rang munosabatlari va rangtasvir kompozitsiyasining amaliy jihatlari yoritiladi [Abdirasilov S., Tolipov.: 178]. Biroq rangning har bir davr uchun yagona qat’iy ramziy ma’nosi mavjud deb bo‘lmaydi: o‘quvchi tanlagan koloritini manba, muhit va asar g‘oyasi bilan asoslay olishi kerak.

“Bir yodgorlik, uch davr” mashqida obidaning hozirgi ko‘rinishi, manbalarga asoslangan tarixiy manzarasi va o‘tmish bilan bugunni bog‘lovchi ramziy kompozitsiyasi ishlanadi. Talaba har bir eskizda kompozitsion markazni mustaqil tanlaydi va tarixiy bosqichlarni chalkashtirmasdan tasvirlaydi.

Metodik jihatdan mashg‘ulotni olti bosqichda tashkil etish tavsiya qilinadi. Dastlab tarixiy obyekt hamda uning davri aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda fotosurat, tarixiy tavsif, muzey materiali va boshqa ishonchli vizual dalillar jamlanadi. Uchinchi bosqichda “qaysi voqea tasvirlanadi va tomoshabin nimani anglaydi?” savollariga javob beradigan syujet ishlab chiqiladi. To‘rtinchi bosqichda turli rakurs va

kompozitsion markazga ega uchta kichik qoralama bajariladi. Beshinchi bosqichda personajlarning plastikasi, fazoviy rejalar va kolorit hal etiladi. Oltinchi bosqichda yakuniy kompozitsiya tarixiy ishonchlilik hamda badiiy yaxlitlik mezonlari asosida muhokama qilinadi.

Ayniqsa, bir mavzu uchun turlicha tasviriy yechimlarni qiyoslash talabaning mustaqil badiiy qarorini rivojlantiradi. “Samarqandda kitobat ustaxonasi” mavzusining birinchi eskizida ustaning qo‘li va qo‘lyozma asosiy markaz bo‘lsa, ikkinchisida ustaxona makoni va jamoaviy mehnat ustuvor bo‘lishi mumkin. Uchinchi variantda esa derazadan tushayotgan yorug‘lik orqali bilim va ijod g‘oyasi kuchaytiriladi. O‘qituvchi ushbu variantlarni bir xil qolipda baholamaydi; tanlangan ifoda vositalarining maqsadga muvofiqligiga e’tibor qaratadi.

Kompozitsiya darsida raqamli vositalardan foydalanish ham mumkin: tarixiy suratlar asosida referenslar jamlanadi, personajlarning siluetlari alohida qatlamda joylashtiriladi, rang palitrasi sinab ko‘riladi va turli sahna qurilishi taqqoslanadi. Ammo tasvirni bezab beruvchi dastur tarixiy ma’lumotlarning ishonchliligini o‘zi ta’minlamaydi. Raqamli eskiz ham, an’anaviy akvarel yoki guashdagi asar ham manba va badiiy g‘oya bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak. UNESCOning madaniyat va san’at ta’limi bo‘yicha 2024-yilgi konseptual doirasi madaniy meros va san’atning ta’limdagi tutashuviga e’tibor qaratadi [UNESCO, 2024]. Bunday darslarda baholash uchun quyidagi mezonlar muhim: tanlangan davrga mos tarixiy belgilar; syujetning aniqligi; personajlarning mazmunli harakati; kompozitsion markaz va fazoviy yaxlitlik; rang hamda yorug‘likning ifodaviy vazifasi; muallifning badiiy yechimni asoslay olishi. Talaba asariga qisqa izoh ilova qilib, qaysi belgilar tarixiy manbadan olingani, qaysilari esa ijodiy taxmin asosida yaratilganini ko‘rsatishi maqsadga muvofiq. Bu usul tarixiy xotira bilan mas’uliyatli tasviriy talqinni birlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy yodgorliklar kompozitsiya mashg‘ulotlarida faqat me’moriy fon vazifasini emas, o‘tmish davr madaniyatini obrazlar yordamida tushuntiruvchi badiiy manba vazifasini ham bajaradi. Registon, Shohi Zinda va Afrosiyob misolidagi mavzuli topshiriqlar o‘quvchini obidani chizishdan tarixiy voqeani tasavvur qilish, dalilga asoslangan syujet qurish hamda makon va inson harakatini uyg‘un ifodalashga yo‘naltiradi. Tavsiya etilayotgan metodik yondashuvning samaradorligini kelgusida talabalarning kompozitsion ishlari va baholash mezonlari asosida amaliy sinovdan o‘tkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir: darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019. – 178 b.

2. Arnheim R. Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. – Berkeley: University of California Press, 2004.
3. Raxmetov S. Dastgohli rangtasvirda kompozitsiya asoslari: metodik qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2007. – 64 b.
4. UNESCO. Framework for Culture and Arts Education. – Abu Dhabi, 2024. – https://www.unesco.org/en/culture-education
5. UNESCO World Heritage Centre. Samarkand – Crossroad of Cultures. World Heritage List, No. 603. – https://whc.unesco.org/en/list/603

TARIXIY MEROSNI TA’LIM JARAYONIDA O‘RGANISHDA TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI INTEGRATSIYASI

Yorlaqova Malika Ahmad qizi
Guliston davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti
e-mail: yorloqovamalika@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy merosni ta’lim jarayonida tasviriy san’at va muhandislik grafikasi integratsiyasi asosida o‘rganish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Me’moriy obidalarni kuzatish, tasvirlash va chizma orqali tahlil qilishga yo‘naltirilgan amaliy yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: eskiz, ijodkorlik, integratsiya, kuzatish, kompozitsiya, madaniy meros, me’moriy obida, merosni asrash, muhandislik grafikasi, tarixiy meros, tasviriy san’at, perspektiva, raqamli texnologiya, ta’lim, chizma.

Kirish. Tarixiy va madaniy meros xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, estetik qarashlari hamda bunyodkorlik tajribasini aks ettiradi. Me’moriy obidalar faqat o‘tmishdan qolgan qurilishlar emas, balki muayyan davrning san’ati, muhandislik tafakkuri, bezak an’analari va ijtimoiy hayoti haqida ma’lumot beruvchi murakkab manbalardir. Shu sababli ularni ta’lim jarayonida o‘rganish tarix, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi fanlari o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Qonunda madaniy meros obyektlarini asrash va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish asosiy maqsad sifatida belgilangan [O‘zbekiston Respublikasi: 1-

modda]. Ta’limda ushbu yo‘nalishni yoritish o‘quvchilarda merosga ehtiyotkor munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarixiy merosni fanlararo yondashuv asosida o‘rganish. Fanlararo integratsiya bir obyektdagi tarixiy, badiiy va texnik xususiyatlarni o‘zaro bog‘liq holda anglashga yordam beradi. Tarix fani obidaning bunyod etilgan davri, vazifasi va tarixiy sharoitini tushuntiradi. Tasviriy san’at uning umumiy ko‘rinishi, rang uyg‘unligi, bezaklari, ritmi va kompozitsion yechimini tahlil qilishga imkon beradi. Muhandislik grafikasi esa shakl, nisbat, o‘lcham, simmetriya, geometrik tuzilish va fazoviy munosabatlarni chizma vositasida ko‘rsatadi.

UNESCOning Jahon merosi bo‘yicha ta’lim resurslarida merosni o‘rganishda fanlararo yondashuv, o‘quvchilarni izlanish va ma’lumot to‘plashga jalb etish, ijodiy hamda ishtirokchi metodlardan foydalanish muhimligi qayd etiladi [UNESCO: “The KIT: World Heritage in Young Hands”]. Bu tamoyillar tasviriy san’at va muhandislik grafikasi mashg‘ulotlarini tarixiy obidalar bilan bog‘lashga asos bo‘la oladi.

Masalan, Samarqanddagi Registon majmuasini o‘rganishda o‘quvchilar avval uning tarixiy o‘rni va me’moriy qismlari haqida ma’lumot to‘playdi. Keyin obidaning umumiy siluetini tasviriy san’at vositasida eskizlaydi, asosiy o‘qlarini belgilaydi, fasad qismlarining nisbatlarini solishtiradi va naqsh elementlarini tahlil qiladi. UNESCOning Samarqand haqidagi hujjatida shaharning me’moriy ansambllari, jumladan Registon majmuasi, mintaqa me’morchiligi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan yodgorliklar qatorida ko‘rsatilgan [UNESCO: 1-b.].

Tasviriy san’atning o‘rni. Tasviriy san’at tarixiy obidani ko‘rish, idrok etish va badiiy talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchi obidaning umumiy shaklini kuzatish, asosiy va ikkinchi darajali qismlarni ajratish, kompozitsion markazni topish, yorug‘-soya munosabatlarini aniqlash hamda bezaklarning ritmini tushunishga o‘rganadi. Bunda maqsad obidani shunchaki ko‘chirib chizish emas, balki uning tuzilishi va badiiy xususiyatlarini ongli ravishda kuzatishdir.

Amaliy mashg‘ulotni uch bosqichda tashkil etish mumkin. Birinchi bosqichda o‘quvchilar fotosurat yoki bevosita kuzatish asosida obidaning asosiy shakllarini qayd etadi. Ikkinchi bosqichda tezkor qalam eskizi bajarilib, umumiy nisbatlar va kompozitsiya aniqlanadi. Uchinchi bosqichda rang, naqsh, faktura va yorug‘-soya xususiyatlari tasvirlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga bezaklarni o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirmaslik, kuzatilgan shaklni aniq qayd etish va tasviriy yechimni obidaning o‘ziga xosligiga mos tanlashni tushuntiradi.

Xiva shahridagi Ichan-Qal’a tarixiy muhitni yaxlit holda o‘rganish uchun qulay namuna bo‘la oladi. UNESCO ma’lumotida Ichan-Qal’a ichki shahar bo‘lib, uning

tarkibida masjidlar, maqbaralar, madrasalar va saroylar saqlangani, majmua Markaziy Osiyo islom me’morchiligining izchil namunasi ekani ta’kidlanadi [UNESCO: “Itchan Kala”]. Bunday obidani tasvirlash jarayonida alohida binoni emas, balki binolar, ko‘chalar va devorlar o‘rtasidagi kompozitsion bog‘liqlikni ham kuzatish lozim.

Muhandislik grafikasi vositasida tahlil qilish. Muhandislik grafikasi tarixiy me’moriy shakllarning tuzilishini aniqroq tushunishga xizmat qiladi. O‘quvchilar fasadning sodda chizmasini tuzish, asosiy o‘lcham va nisbatlarni belgilash, simmetriya o‘qlarini ko‘rsatish, takrorlanuvchi elementlarni aniqlash hamda geometrik shakllarni ajratish orqali obidaning konstruktiv tartibini o‘rganadi. Bu ishlar badiiy kuzatuvni texnik tahlil bilan to‘ldiradi.

Ta’limiy topshiriqlar o‘quvchilarning yoshiga va tayyorgarligiga mos bo‘lishi zarur. Boshlang‘ich darajada fasadning umumiy konturi, eshik va derazalar joylashuvi hamda simmetriya o‘qi belgilanadi. Keyingi bosqichda sodda o‘lchamli chizma, naqshning geometrik tuzilishi yoki takrorlanuvchi elementlar sxemasi bajariladi. Murakkab me’moriy obidalarni to‘liq texnik chizmaga aylantirish talab etilmaydi; vazifa - kuzatish natijasini tartibli va tushunarli grafik shaklda ifodalash. Tarixiy obidalar bilan ishlashda chizma hujjat o‘rnini bosmaydi va restavratsiya loyihasi sifatida talqin qilinmasligi kerak. O‘quv chizmasi ta’limiy maqsadga ega bo‘lib, unda o‘lchamlar taxminiy bo‘lsa, bu holat alohida ko‘rsatiladi. Haqiqiy o‘lchamlar yoki tarixiy faktlar haqida xulosa chiqarishda ishonchli manba va mutaxassis ma’lumotlariga tayanish talab etiladi.

Innovatsion imkoniyatlar va amaliy model. Raqamli texnologiyalar tarixiy merosni o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Fotosuratlarni kattalashtirish, turli rakurslarni taqqoslash, raqamli xarita va virtual sayohatlardan foydalanish, obidaning ayrim qismlarini qatlamlar bo‘yicha tahlil qilish mumkin. Biroq texnologiya asosiy maqsadga aylantirilmasligi kerak: u bevosita kuzatish, badiiy tahlil va grafik fikrlashni qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish tavsiya etiladi: tarixiy ma’lumotni o‘rganish; obida tasvirlari yoki joyida kuzatish asosida muhim belgilarni qayd etish; badiiy eskiz yaratish; grafik chizma va geometrik tahlil bajarish; natijalarni taqdim etish; merosni asrashga doir xulosa chiqarish. Yakuniy ish sifatida o‘quvchi eskiz, sodda fasad chizmasi, naqsh tahlili va qisqa tarixiy izohni birlashtirgan kichik loyiha tayyorlashi mumkin.

Baholashda faqat rasmning chiroyliligi emas, balki kuzatuvning aniqligi, tarixiy ma’lumotdan to‘g‘ri foydalanish, shakl va nisbatlarni tushunish, grafik ifodaning

tartibliligi hamda o‘quvchining o‘z qarorini izohlashi e’tiborga olinadi. Guruhli ishlarda bir o‘quvchi tarixiy ma’lumotni yig‘ishi, boshqasi eskiz chizishi, yana biri geometrik tahlilni bajarishi mumkin. Bu hamkorlik o‘quvchilarni vazifalarni taqsimlash va umumiy natija uchun mas’ul bo‘lishga o‘rgatadi.

Xulosa. Tarixiy merosni ta’lim jarayonida tasviriy san’at va muhandislik grafikasi integratsiyasi asosida o‘rganish o‘quvchilarga me’moriy obidalarni bir vaqtning o‘zida tarixiy manba, badiiy asar va fazoviy tuzilma sifatida anglash imkonini beradi. Tasviriy san’at kuzatish, kompozitsiya va badiiy ifoda ko‘nikmalarini rivojlantirsa, muhandislik grafikasi nisbat, simmetriya, shakl va tuzilishni tahlil qilishga yordam beradi.

Bunday yondashuvni samarali amalga oshirish uchun topshiriqlar yoshga mos, manbalar tekshirilgan va amaliy faoliyat bilan bog‘langan bo‘lishi lozim. Tarixiy obidalarni eskizlash va chizma orqali tahlil qilish o‘quvchilarda madaniy merosga qiziqish, uni qadrlash hamda asrash zarurati haqidagi tushunchani kuchaytiradi. Shu tariqa fanlararo integratsiya san’at ta’limining mazmunini boyitib, tarixiy xotira va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati::

1. O‘zbekiston Respublikasi. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida: 2001-yil 30-avgustdagi 269-II-son Qonun. - URL: https://lex.uz/uz/acts/-25461
2. UNESCO. The KIT: World Heritage in Young Hands. UNESCO World Heritage Centre. - URL: https://whc.unesco.org/en/educationkit
3. UNESCO World Heritage Centre. Itchan Kala. - URL: https://whc.unesco.org/en/list/543/
4. UNESCO World Heritage Centre. Samarkand – Crossroad of Cultures: Nomination Documentation. - URL: https://whc.unesco.org/uploads/nominations/603rev.pdf

O‘QUVCHILARNING TASVIRIY VA MUHANDISLIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MILLIY NAQSH KOMPOZITSIYALARINING O‘RNI

Sh.A.Yusupova
Guliston davlat universiteti,
“Amaliy san’at va dizayn” kafedra o‘qituvchisi
Tel.: +998999030286

Annotatsiya: Maqolada umumta’lim maktablarida tasviriy san’at va muhandislik grafikasi darslarida milliy naqshlar islimiy va girihdan foydalanish orqali o‘quvchilarning fazoviy tasavvuri, mantiqiy-ijodiy fikrlashi va grafik savodxonligini oshirish masalalari yoritilgan. An’anaviy chizmachilik hamda zamonaviy kompyuter grafikasi dasturlari AutoCAD, CorelDraw uzviyligini ta’minlash, o‘quvchilar motivatsiyasini yuksaltirish va ularni milliy merosga ehtirom ruhida tarbiyalash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy naqshlar, girih, islimiy, tasviriy san’at, muhandislik grafikasi, fazoviy tasavvur, grafik savodxonlik, fanlararo integratsiya, kompyuter grafikasi, badiiy-konstruktiv fikrlash.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mantiqiy, fazoviy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda tasviriy san’at va muhandislik grafikasi (chizmachilik) fanlarini o‘qitishda faqatgina standart qoidalar va texnik usullar bilan cheklanib qolmay, ta’lim jarayoniga milliy-madaniy meros elementlarini unumli integratsiya qilish zamon talabiga aylanmoqda. Ushbu jarayonda xalqimizning ko‘p asrlik me’morchilik va amaliy san’at durdonasi bo‘lmish milliy naqsh kompozitsiyalari yetakchi va samarali ta’limiy vosita vazifasini o‘taydi.

Naqsh san’ati - bu shunchaki bezak yoki tasviriy shakllar yig‘indisi emas, balki chuqur geometrik mantiq, simmetriya, proporsiya hamda ritm qonuniyatlariga asoslangan murakkab tizimdir. Xususan, o‘zbek an’anaviy naqshchiligida keng qo‘llaniladigan girih va islimiy kompozitsiyalar o‘zida ham badiiy-estetik mazmunni, ham yuksak muhandislik hisob-kitoblarini jamlagan. O‘quvchi naqsh elementlarini o‘rganish va amalda chizish jarayonida bir vaqtning o‘zida ham tasviriy san’atning kompozitsion muvozanat, ranglar mutanosibligi va shakl uyg‘unligi kabi qoidalarini, ham muhandislik grafikasining aniq simmetriya, o‘q chiziqlari, burchaklar va geometrik yasashlar kabi texnik tamoyillarini o‘zlashtiradi.[Bulatov S. S.:2-384]

Amaliyotda tasviriy va muhandislik savodxonligi ko‘pincha bir-biridan ajratilgan holda o‘qitiladi. Bu esa o‘quvchilarda tasviriy san’atni faqat erkin ijod, chizmachilikni esa qat’iy va quruq formulalar majmui sifatida idrok etish ko‘nikmasini shakllantirib qo‘yadi. Aslida esa milliy naqshlar va me’moriy

kompozitsiyalar ushbu ikki soha o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi. Naqsh kompozitsiyasini tahlil qilish va uni aniq chizmalarga o‘tkazish orqali o‘quvchilarning fazoviy tasavvuri, chizmachilik savodxonligi hamda estetik didi parallel ravishda rivojlanadi.

Shuningdek, milliy naqshlar vositasida ta’lim berish o‘quvchilarning texnik va badiiy tayyorgarligini oshirish bilan birga, ularda tarixiy va madaniy merosimizga nisbatan hurmat hamda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda beqiyos imkoniyat beradi. Milliy naqsh kompozitsiyalarining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ulardan foydalanish orqali o‘quvchilarning tasviriy va muhandislik savodxonligini oshirishning amaliy hamda metodik asoslarini ko‘rib chiqishdan iboratdir.

Mashg‘ulotlari doirasida milliy naqsh kompozitsiyalar xususan, geometrik shaklli girihlar hamda o‘simliksimon islimiy motivlarni tasviriy san’at hamda muhandislik grafikasi darslariga bosqichma-bosqich integratsiya qilish bir qator ijobiy va tizimli pedagogik samara berdi. O‘quvchilar naqsh kompozitsiyalarini loyihalash va qayta tiklash jarayonida murakkab vizual shakllarni sodda geometrik elementlarga, ya’ni aylana, kvadrat, ko‘pburchak hamda simmetriya markazlariga ajratishni va shu bilan birga, ushbu tayanch bo‘laklardan yaxlit murakkab tizimlarni barpo etishni puxta o‘zlashtirdilar.[Oydinov N. N. :6-180] Ushbu tahliliy va konstruktiv yondashuv o‘quvchilarning uch o‘lchamli fazoviy obyektlarni aqlan tasavvur qilish hamda ularning tekislikdagi orfogonal va aksonometrik proyeksiyalarini chizish bo‘yicha ko‘rsatkichlarini nazorat guruhidagi natijalarga nisbatan sezilarli darajada oshishiga imkon yaratdi. Girih san’atining mantiqiy poydevori qat’iy chizmachilik qoidalariga asoslangani sababli sirkul, chizg‘ich, transportir vositasida aniq burchak hamda masofalarni hisoblash jarayonida o‘quvchilarda tutashmalar hosil qilish, simmetriya o‘qlarini to‘g‘ri belgilash, mashtab va chiziqlar turidan unumli foydalanish ko‘nikmalari shakllandi. Natijada muhandislik grafikasi darslarida standart texnik va mashinasozlik chizmalarini bajarishda o‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan qat’iy grafik va texnik xatoliklar ulushi keskin kamaydi. Boshqa tarafdan, islimiy naqshlar ustida ishlash mashg‘ulotlari o‘quvchilarning tasviriy san’atga oid kompozitsion ritm, dinamika, muvozanat, ranglar uyg‘unligi hamda shakl va fon nisbatlarini to‘g‘ri taqsimlash kabi estetik tamoyillarni chuqur anglashiga zamin yaratdi. Bu jarayon o‘quvchilarda faqat texnik chizmachilik vositasi bilan cheklanib qolmay, balki mantiqiy asoslangan va badiiy tugallangan konstruktiv-ijodiy ishlarni mustaqil bajarish potentsialini rivojlantirdi.

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasini o‘zaro uyg‘unlikda o‘qitishda milliy naqsh kompozitsiyalari samarali va amaliy metodologik vosita vazifasini o‘taydi. Ta’lim amaliyotida ko‘pincha tasviriy san’at faqat emotsional va erkin badiiy ijod sohasi, muhandislik grafikasi esa qat’iy qoidalar hamda formulalar majmui sifatidagi quruq texnik fan sifatida bir-biridan ajratilgan holda talqin qilinadi. Vaholanki, milliy naqshchilik merosi ushbu ikki yo‘nalishning mukammal va uzviy sintezidir: girihlar aniq mantiqiy hisob-kitob va geometrik qurilmalarsiz mavjud bo‘la olmagani kabi, estetik va badiiy jozibasiz o‘zining haqiqiy qiymatini yo‘qotadi. Demak, naqshlar vositasida ta’lim jarayonini tashkil etish o‘quvchilarning ham mantiqiy (chappani), ham emotsional-ijodiy (o‘ngni) fikrlash doiralarini mutanosib ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. An’anaviy usuldagi amaliy mashqlar, ya’ni sirkul va qalam yordamida girih strukturasini bosqichma-bosqich qurish o‘quvchining qo‘l motorikasi va fazoviy sezgisini shakllantirishda birlamchi tayanch vazifasini bajaradi. Ushbu poydevor ko‘nikmalarini AutoCAD, CorelDraw va 3D modellashtirish kabi zamonaviy kompyuter grafikasi dasturlari bilan uzviy bog‘lash esa ta’lim sifatini yangi innovatsion bosqichga olib chiqadi. Shu bilan birga, standart texnik elementlarni chizishdagi bir xillik va monotonlik o‘rniga Registon, Shohi Zinda yoki Xiva me’moriy obidalaridagi murakkab naqshlar “chizma kodi”ni tahlil qilish va ularni qayta tiklash topshiriqlari o‘quvchilarning fanga va o‘quv jarayoniga bo‘lgan ichki motivatsiyasini keskin oshirdi. Bu xil integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarning tasviriy va muhandislik savodxonligini yuksaltirish bilan bir qatorda, ularda milliy-madaniy merosga nisbatan chuqur ehtirom tuyg‘usini qaror toptiradi va bo‘lajak me’mor, muhandis, dizayner hamda loyihachilar uchun o‘ta zarur bo‘lgan fazoviy-konstruktiv va tizimli fikrlash poydevorini mustahkamlaydi.[Choriyev R. K.:3-45-51]

Milliy naqsh kompozitsiyalaridan tasviriy san’at va muhandislik grafikasi darslarida tizimli hamda bosqichma-bosqich foydalanish o‘quvchilarning grafik savodxonligi va ijodiy salohiyatini oshirishda yuksak pedagogik samaradorlikka ega. Girih va islimiy naqshlarni tahlil qilish, ularning geometrik qurilmalarini o‘rganish hamda amalda chizish orqali o‘quvchilarda fazoviy tasavvur, simmetriya va kompozitsion muvozanat ko‘nikmalari mustahkamlandi. An’anaviy chizmachilik hamda tasviriy san’at darslaridagi bir xillikdan qutulib, milliy me’morchilik va amaliy san’at elementlarini fanlararo integratsiya qilish o‘quvchilarning mantiqiy hamda emotsional-ijodiy fikrlash doiralarini teng rivojlantirishga xizmat qilishi isbotlandi. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning texnik va badiiy tayyorgarlik darajasini

yuksaltirdi, balki ularda milliy-madaniy merosimizga nisbatan qiziqish, ehtirom hamda g‘urur tuyg‘ularini shakllantirishda ham muhim omil bo‘ldi.

Ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish hamda soha o‘qituvchilarining amaliy faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha bir qator muhim chora-tadbirlar belgilanadi. [Sayidaxmedov N. S.: 8-172] Avvalo, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi fanlarining amaliy mashg‘ulot soatlariga girih hamda islimiy naqshlar geometriyasini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus integratsiyalashgan mavzular va metodik bloklarni kiritish orqali o‘quv dasturlarini boyitish lozim. Shuningdek, dars jarayonida an’anaviy va raqamli metodlar uzviyligini ta’minlash, ya’ni naqshlarni dastlab sirkul va qalam yordamida qo‘lda chizdirish orqali qo‘l motorikasi va fazoviy sezgini shakllantirish, so‘ngra ushbu chizmalarni AutoCAD, CorelDraw yoki 3D modellashtirish dasturlarida qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish zarur.[Aznayev SH. T., Ismatullayev B. S. :1-240] Bu jarayon Registon, Shohi Zinda hamda Xiva kabi tarixiy obidalardagi naqshlarning bosqichma-bosqich chizish sxemalari va videodarslar kabi ko‘rgazmali va interaktiv o‘quv-metodik vositalar bilan quvvatlanishi lozim. Nihoyat, maktablarda “Milliy me’morchilik va kompyuter grafikasi” hamda “Yosh dizayner va loyihachi” kabi to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarning mustaqil loyihalar yaratishiga sharoit yaratish va ularning amaliy natijalarini doimiy ravishda ommalashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aznayev SH. T., Ismatullayev B. S. Muhandislik va kompyuter grafikasi. Toshkent:Fan va texnologiya, 2018. — 240 b.
2. Bulatov S. S. O‘zbek xalq amaliy san’ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1991. — 384 b.
3. Choriyev R. K. Tasviriy va amaliy san’at mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning grafik kompetensiyalarini rivojlantirish. Pedagogik ta’lim, 2022, № 4, 45–51-b.
4. Lu B., Holme A. The Geometry of Islamic Geometric Patterns. *Journal of Mathematics and the Arts*, 2013, vol. 7, no. 2, pp. 62–75.
5. Murodov SH. K., Xakimov A. A. Chizmachilik va loyihalash asoslari: Darslik.Toshkent: O‘qituvchi, 2020. — 216 b.
6. Oydinov N. N. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.Toshkent: Aloqador, 2010. — 180 b.
7. Rempel L. I. Arxitekturny ornament Uzbekistana.Tashkent: Gosudarstvennoye izdatel'stvo khudozhestvennoy literatury UzSSR, 1961. — 608 s.
8. Sayidaxmedov N. S. Yangi pedagogik texnologiyalar.Toshkent: Moliya, 2003. — 172 b.

TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA O‘ZBEKISTON TARIXIY OBIDALARINI CHIZISH ORQALI O‘QUVCHILARNING MILLIY G‘URURINI OSHIRISH

Sh.A.Yusupova
Guliston davlat pedagogika instituti,
“San’atshunoslik” kafedra o‘qituvchisi,
S.B.Ro‘ziboyeva
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining tasviriy san’at darslarida O‘zbekiston tarixiy-me’moriy obidalarini tasvirlash orqali o‘quvchilarning milliy g‘ururini oshirish hamda grafik savodxonligini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Darslarda me’moriy yodgorliklarning hajm-fazoviy nisbatlari va koshinkori bezaklarini bosqichma-bosqich chizish usullari ilmiy asoslangan. Obidalarning tarixiy-ramziy ma’nosini anglab tasvirlash o‘quvchilarning fazoviy tafakkurini boyitib, ularda milliy o‘zlikni anglash va madaniy merosga ehtirom tuyg‘usini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekani ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, tarixiy obidalar, me’moriy meros, milliy g‘urur, grafik savodxonlik, fazoviy tafakkur, kompozitsiya, estetik tarbiya, vatanparvarlik, pedagogik metodika.

O‘zbekiston hududida asrlar davomida qad rostlagan tarixiy-me’moriy obidalar shunchaki qadimiy bino va inshootlar bo‘lib qolmay, xalqimizning yuksak madaniyati, buyuk davlatchilik tarixi, boy ma’naviyati hamda o‘tkir estetik tafakkurining amaliy ifodasidir. Registon ansambli, Ichan Qal’a, Poyi Kalon, Oqsaroy va Sohibqiron Amir Temur sag‘anasi kabi me’moriy durdonalar o‘zining purviqor shakllari, murakkab geometrik qurilmalari hamda betakror koshinkori bezaklari bilan dunyo sivilizatsiyasi xazinasidan munosib o‘rin egallagan. [Pugachenkova G.A:45-b] Bugungi globallashuv va madaniy globallashuv sharoitida o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirishda ushbu moddiy-madaniy merosimizning tarbiyaviy imkoniyatlaridan unumli foydalanish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. [Xasanov R: 112-b]

Umumta’lim maktablarida o‘tiladigan tasviriy san’at darslari o‘quvchilarda nafaqat chizish ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularning emotsional-estetik dunyosini boyitish, milliy qadriyatlarga nisbatan ehtirom ruhida tarbiyalashda g‘oyat katta salohiyatga ega. [Bulatov S.S:78-81] O‘quvchilar tarixiy obidalarni tasvirlash jarayonida me’morchilik yodgorliklarining fasad tuzilishi, gumbazlar mutanosibligi, peshtoqlar ulug‘vorligi va milliy naqshlar geometriyasini shunchaki mexanik ravishda

qog‘ozga ko‘chirmaydi. Balki u orqali ajdodlarimizning muhandislik va badiiy mahoratini, davr ruhini hamda milliy kompozitsion muvozanat simvolikasini chuqur va ongli ravishda his etadilar. [Baymetov B.B: 34-b]

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida O‘zbekistonning tarixiy obidalarini chizish orqali o‘quvchilarning milliy g‘ururi va grafik kompetensiyasini kompleks ravishda rivojlantirish metodikasi yoritiladi. Dars jarayonida grafik tasvirlash qalam, tush, rangtasvir akvarel, guash hamda me’moriy konstruksiyalash vositalaridan unumli foydalanish o‘quvchilarning fazoviy tasavvuri, tasviriy va muhandislik savodxonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. [Aydarov U.A:52-54] Natijada tarixiy obidalarni tasvirlash mashg‘ulotlari ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarning uzviyligini ta’minlab, o‘quvchini milliy-madaniy merosimizni asrab-avaylovchi hamda uni qadrlovchi komil shaxs sifatida kamol topishiga mustahkam poydevor yaratadi.

Tarixiy-me’moriy merosimizni umumta’lim maktablarining tasviriy san’at darslariga integratsiya qilish ham ta’limiy, ham ma’naviy-tarbiyaviy nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Axborot oqimi va ommaviy madaniyat keskin kuchaygan hozirgi davrda o‘quvchilarning estetik hamda milliy dunyoqarashini to‘g‘ri yo‘naltirish, vatanimizning boy me’moriy yodgorliklarini tasvirlash orqali ularda ajdodlar merosiga nisbatan faxr va milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. [Abdullayev N.U:89-93] Shu bilan birga, murakkab hajm, proporsiya va simmetriyaga ega bo‘lgan me’moriy obidalarni qog‘ozda aks ettirish o‘quvchilarning kognitiv va fazoviy tafakkurini, mantiqiy fikrlash hamda kuzatuvchanlik qobiliyatini oshiradi. [Jabborov X.A: 102-108] Hozirgi kunda tasviriy san’atni o‘qitishda nazariy ma’lumot berish bilan birga amaliy topshiriqlarni milliy kontent bilan boyitish ehtiyoji mavjud bo‘lib, obidalarni chizish metodikasi ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarni bir vaqtda hal etishga imkon beradigan samarali vositadir.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida me’moriy obidalarni tasvirlash metodikasining o‘quvchi shaxsiga ta’sirini tahlil qilish bir qancha muhim pedagogik va estetik masalalarni namoyon etadi. Dars jarayonida mexanik nusxa ko‘chirish va ijodiy anglash o‘rtasidagi chegarani to‘g‘ri belgilash lozim, ya’ni o‘quvchi inshootni shunchaki chizmay, balki uning kim tomonidan qurilgani va naqshlarida qanday ma’no yashiringanini anglab chizsa, unda obyektga nisbatan emotsional bog‘liqlik hamda hurmat paydo bo‘ladi. [Qosimov A.: 60-63] Obidalarni tasvirlashda grafik mahorat va badiiy vositalar mutanosibligini ta’minlash uchun mashg‘ulotlarni soddadan murakkabga qarab bosqichma-bosqich umumiy shakl va hajm, so‘ng peshtoq va gumbaz, oxirida esa mayda koshin naqshlarini chizish tartibida tashkil etish o‘quvchining o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshiradi. [Eshmurodov A: 41-43]

Natijada obidalarni chizish oddiy badiiy topshiriqdan amaliy tarbiya vositasiga aylanib, o‘quvchi o‘z ajdodlarining buyukligini qalam tebratish jarayonida botinan his etadi. Me’morchilik obyektlarini tasviriy san’at darslariga tizimli kiritish o‘quvchilarning grafik kompetensiyasini yuksaltirish bilan birgalikda, ularni milliy qadriyatlarni e’zozlovchi, ma’naviy yetuk shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy obidalarini tasviriy san’at darslarida tasvirlash metodikasini amaliyotga tatbiq etish natijasida o‘quvchilarning ham badiiy-grafik, ham ma’naviy-shaxsiy rivojlanishida ijobiy ko‘rsatkichlar kuzatildi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar me’moriy inshootlarning simmetriyasi, hajm-fazoviy nisbatlari va koshinkori bezak elementlarini bosqichma-bosqich tasvirlash orqali grafik savodxonliklarini sezilarli darajada oshirdilar. Shuningdek, obyektlarni shunchaki nusxalamay, ularning tarixiy va ramziy ma’nosini anglagan holda chizish o‘quvchilarning tasvirlash jarayoniga bo‘lgan emotsional qiziqishini hamda estetik idrokini kuchaytirdi. Eng muhimi, mashg‘ulotlar yakunida o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma va ishlar tahlili ularda milliy-madaniy merosga nisbatan fahr, daxldorlik hamda milliy g‘urur tuyg‘usi mustahkamlanganini ko‘rsatdi.

Tasviriy san’at darslarida O‘zbekiston tarixiy obidalarini chizish orqali o‘quvchilarning milliy g‘ururini oshirishga qaratilgan ushbu tadqiqot ta’lim va tarbiyaning uzviy birligini ta’minlashda yuksak samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Me’moriy merosimizni tasvirlash faqatgina amaliy rasomlik ko‘nikmalarini shakllantirib qolmay, o‘quvchilar qalbida milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy immunitetni qaror toptirishning qudratli pedagogik vositasi hisoblanadi. Darslarda nazariy ma’lumotlar, badiiy-tasviriy vositalar va amaliy chizish jarayonining uyg‘unlashtirilishi o‘quvchilarning fazoviy tafakkurini boyitib, milliy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiromini oshiradi. Umuman olganda, ushbu metodik yondashuvni umumta’lim maktablari amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish yosh avlodni o‘z ajdodlari merosini qadrlaydigan, asrab-avaylaydigan va milliy g‘ururga ega komil shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdullayev N.U. San’at tarixi. 2-jild. – T.: “O‘qituvchi”, 2001.
2. Aydarov U.A. Tasviriy san’at darslarida tasvirlash metodikasi va grafik savodxonlik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018.
3. Baymetov B.B. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning kompozitsion va fazoviy tasavvurlarini shakllantirish. Monografiya. – T.: “Nodirabegim”, 2020.

4. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy san’ati. – T.: “O‘qituvchi”, 1991.
5. Eshmurodov A. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida soddadan murakkabga qarab tasvirlash texnikasi. – Samarkand: SamDU nashri, 2022
6. Jabborov X.A. O‘quvchilarning kognitiv va fazoviy tafakkurini rivojlantirishda tasviriy san’atning o‘rni. // “Pedagogika” jurnali, №3, 2021.
7. Pugachenkova G.A. Zodchestvo Tsentralnoy Azii. XV vek. – T.: Izdatelstvo literatury i iskusstva im. Gafura Gulyama, 1976.
8. Qosimov A. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida me’moriy shakllarni tasvirlash va estetik tarbiya. // “Xalq ta’limi” jurnali, №5, 2019.
9. Xasanov R. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – T.: “O‘qituvchi”, 2004.

TARIXIY-MADANIY MEROSNI TASVIRIY SAN’AT ORQALI O‘RGANISH

Sh.A.Yusupova
Guliston davlat universiteti,
“San’atshunoslik” kafedra o‘qituvchisi,
L.I.Xoljigitova
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy-madaniy merosni tasviriy san’at vositasida o‘rganishning ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan. Tarixiy obidalar, milliy me’morchilik namunalari, qadimiy shaharlar, amaliy bezak san’ati va xalq ijodini tasviriy san’at orqali o‘rganish o‘quvchilarning tarixiy tafakkuri, estetik didi, ijodiy qobiliyati hamda milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmatini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, tarixiy-madaniy obyektlarni rasm, rangtasvir, grafika, kompozitsiya va zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida tasvirlashning pedagogik imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy meros, madaniy meros, tasviriy san’at, rangtasvir, grafika, milliy qadriyat, me’moriy obidalar, estetik tarbiya, ijodkorlik, innovatsion ta’lim.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning tarixiy xotirasini mustahkamlash hamda madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini oshirish ta’limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. [Mirziyoyev Sh.M: 464-465] Har bir xalqning tarixiy-madaniy merosi uning milliy o‘zligini namoyon etuvchi muhim omildir. Shu sababli tarixiy obidalar, qadimiy me’moriy inshootlar, xalq amaliy san’ati namunalari, milliy naqshlar va tasviriy san’at asarlarini yoshlar ongiga singdirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.[Avloniy A: 160-163]

Tarixiy-madaniy merosni o‘rganishda faqat nazariy ma’lumotlar bilan chegaralanib qolish o‘quvchining mavzuni chuqur anglashiga har doim ham yetarli bo‘lavermaydi. Tarixiy obyektlarni ko‘rish, ularni tasvirlash, rang va shakllar orqali ifodalash, kompozitsiya yaratish jarayonida o‘quvchi ushbu merosni yanada chuqurroq his etadi. Shu jihatdan tasviriy san’at tarix va madaniyatni o‘rganishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.[Hasanov R: 248-251]

San’at insoniyat m a’naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san’ati kabi ko‘plab san’at turlarini o‘z ichiga oladi. [Abdullayev N.U: 280-281]San’atning har bir turi o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarga ko‘ra turli vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot so‘zdan, musiqa tovushlardan, tasviriy san’at rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san’at turi yana bir necha tur va janrlarga bo'linadi.

San’atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri tasviriy san’atdir.

San’atkor o‘z asarlarida voqea va hodisalar, turli holatlarning ma’lum bir ko‘rinishini ifodalab, tasvir orqali ichki mohiyatni ochib, kishilarning ma’naviy qiyofasi, psixologik (ruhiy) holati va fikrlarini tasvirlaydi.[Baymetov B.B:192-196]

Rassom biror shaxs rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatish bilan chegaralanmaydi, balki tasvir orqali, avvalo, o‘zining fikr va tuyg‘ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. U dastlab g‘oyaga mos mavzu tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yo‘lda izlanadi, naturani kuzatib, eskizlar chizadi hamda etyudlar yaratadi.[Bulatov S.S:384-388] Tasviriy san’atda predmetlarning shakli, hajmi, rangi, ularning o‘zaro muvozanatini to‘g‘ri ko‘rsatishda tasvirni aniq ishlash juda muhim.

Tasviriy san’at inson ongiga tezda ta’sir etib, unda ezgu hislar uyg‘otadigan, ma’naviy olamini boyitadigan san’at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san’at inson shaxsining shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.[Nabiyev A:210-210]

Tarixiy-madaniy meros deganda ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan moddiy va ma’naviy boyliklar tushuniladi. Me’moriy yodgorliklar, qadimiy shaharlar, maqbaralar, masjid va madrasalar, milliy miniatyura san’ati, hunarmandchilik buyumlari, milliy liboslar, naqshlar, xalq amaliy san’ati namunalari ana shunday merosning muhim qismini tashkil etadi.

Tasviriy san’at esa insonning borliqni ko‘rish, anglash va badiiy obraz orqali ifodalash imkoniyatini beradi. Rassom tarixiy obidani tasvirlash jarayonida nafaqat uning tashqi ko‘rinishini aks ettiradi, balki ushbu obyektning tarixiy va estetik mazmunini ham ifodalashga harakat qiladi.

Masalan, Samarqanddagi Registon majmuasi, Buxorodagi tarixiy me’moriy obidalar yoki Xivadagi Ichan qal’a kabi obyektlarni tasviriy san’at mashg‘ulotlarida o‘rganish orqali talabalar ularning me’moriy tuzilishi, naqshlari, ranglari va kompozitsion xususiyatlariga e’tibor qaratadilar.[Axmedov M.K:175-176] Bu esa tarixiy ma’lumotlarning vizual obrazlar bilan bog‘lanishiga yordam beradi.

Tasviriy san’at orqali tarixiy merosni o‘rganishning ta’limiy imkoniyatlari ham juda keng bo‘lib, darslardagi har bir mavzuga bog‘lash mumkin. Tarixiy-madaniy merosni tasviriy san’at orqali o‘rganish bir necha muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchidan, bunday yondashuv o‘quvchilarning kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Tarixiy binoni chizish jarayonida o‘quvchi uning shakli, proporsiyasi, bezaklari, yorug‘lik va soya munosabatlarini kuzatadi. Natijada oddiy kuzatish badiiy-tahliliy faoliyatga aylanadi.



75-rasm. L. Bure. “Registon”

Ikkinchidan, tasviriy san’at estetik didni shakllantiradi. Tarixiy obidalardagi ranglar uyg‘unligi, naqshlarning takrorlanishi, geometrik shakllar va me’moriy kompozitsiyalarni o‘rganish orqali o‘quvchilarda go‘zallikni anglash va baholash qobiliyati rivojlanadi.


Uchinchidan, tarixiy obyektlarni tasvirlash ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchi mavjud obyektni shunchaki ko‘chirib chizmaydi, balki uni o‘zining badiiy qarashlari asosida tasvirlashga intiladi. Rang tanlash, kompozitsiya yaratish va tasviriy yechim topish jarayonida mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi.

To‘rtinchidan, bunday mashg‘ulotlar milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan me’moriy va san’at yodgorliklarini o‘rganish yosh avlodda o‘z tarixiga hurmat va faxr tuyg‘usini shakllantiradi.

Tarixiy-madaniy ob’yektlarni tasviriy san’at orqali o‘rganishda mashg‘ulotlarni bir necha bosqichda tashkil etish mumkin.

Birinchi bosqichda tanlangan tarixiy obyekt haqida qisqacha tarixiy ma’lumot beriladi. Masalan, o‘quvchi obidaning qachon qurilgani, qanday maqsadda foydalanilgani, uning me’moriy xususiyatlari va tarixiy ahamiyati haqida ma’lumot to‘playdi.

Ikkinchi bosqichda obyektning vizual tahlili amalga oshiriladi. Bunda uning umumiy shakli, asosiy qismlari, geometrik tuzilishi, naqshlari va ranglariga e’tibor qaratiladi.



Uchinchi bosqichda obyektning eskizi bajariladi. Eskiz orqali umumiy kompozitsiya va obyektning qog‘ozdagi joylashuvi belgilanadi.

To‘rtinchi bosqichda asosiy tasviriy ish bajariladi. Bunda qalam, akvarel, guash, rangli qalam yoki boshqa tasviriy vositalardan foydalanish mumkin.

Yakuniy bosqichda bajarilgan ish tahlil qilinadi. O‘quvchi o‘z ishida tarixiy obyektning qaysi jihatlarini aks ettirganini tushuntiradi va uning tarixiy-madaniy ahamiyati haqida fikr bildiradi.

Tarixiy-madaniy merosni tasvirlash jarayoni faqat badiiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmaydi. U yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida ham muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchi tarixiy obidani tasvirlar ekan, uning yaratilish tarixi, ajdodlarimizning me’morchilik va san’at sohasidagi yutuqlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu esa o‘quvchida o‘z xalqining tarixiga qiziqish uyg‘otadi.

Bundan tashqari, tarixiy obidalarni asrash, ularni kelajak avlodga yetkazish zarurligi haqidagi tushunchalar ham shakllanadi. Demak, tasviriy san’at mashg‘ulotlari madaniy merosni muhofaza qilish g‘oyalarini targ‘ib etishning ham samarali vositasi bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy-madaniy merosni tasviriy san’at orqali o‘rganish ta’lim jarayonining mazmunini boyituvchi, o‘quvchilarning ijodiy va estetik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi samarali vositalardan biridir. Tarixiy obidalarni kuzatish, ularni grafik va rangtasvir vositalari orqali ifodalash o‘quvchilarning nafaqat badiiy mahoratini, balki tarixiy tafakkurini ham rivojlantiradi.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida tarixiy-madaniy meros obyektlaridan foydalanish yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, tarixiy xotira va madaniy merosni asrash mas’uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli tarixiy-madaniy merosni tasviriy san’at vositasida o‘rganish nafaqat san’at ta’limining, balki tarixiy va ma’naviy tarbiyaning ham muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. T: Fan va texnologiya, 2012.
2. Abdullaev N. San’at tarixi.T: O‘qituvchi, 1986.
3. Abdullayev N.U. San’at tarixi. 1-jild.T: “O‘qituvchi”, 1987.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud ahloq.T: “O‘qituvchi”, 1992.
5. Axmedov M.K. O‘zbekiston me’morchilik yodgorliklari tarixi va ularni ta’mirlash asoslari.T: “TDTU”, 2002.
6. Baymetov B.B. Qalamtasvir. Darslik.T: “Moliya-iqtisod”, 2007.
7. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. T: “O‘qituvchi”, 1991.
8. Hasanov R. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi.T: Fan, 2004.
9. Hasanov R. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi.T: “Fan va texnologiya”, 2009.
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T: “O‘zbekiston”, 2021.
11. Muratov X., Mircakimova D., Abdullayev K. Tasviriy san’at: 6-sinf uchun darslik.T, 2022.
12. Nabiyev A. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. T: “Aloqachi”, 2005.

4-YO‘NALISH. MILLIY MUSIQA MEROSI VA MUSIQA TA’LIMINING O‘ZARO INTEGRATSIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA MUSIQA SAN’ATINING TUTGAN O‘RNI HAQIDA

Abdusamatova Nurxon Sobirjon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Umumiy tarixi kafedrasi o‘qituvchisi
+998970 024 94 97
abdusamatovanurxon448@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson kamolotining dastlabki bosqichi hisoblangan maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsini shakllantirish, axloqiy tuyg‘ular va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda musiqiy merosning tutgan o‘rni tahlil qilgan. Qadimgi “Avesto” yodgorligida uchraydigan ohangdor diniy matnlar, Sharq mutafakkirlarining musiqa haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari, jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyati hamda zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida milliy musiqiy qadriyatlardan foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: musiqiy meros, bolalar folklori, “Avesto”, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, jadid namoyondalari, musiqa madaniyati, “Ilk qadam”.

Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining barcha bosqichlarida musiqa san’ati shaxs ruhiyatini tarbiyalovchi, uning ichki dunyosini poklovchi va jamiyatning ma’naviy qiyofasini belgilovchi eng qudratli vosita sifatida e’tirof etilgan. Xalqimizning ko‘p asrlik musiqiy merosi bolalar tarbiyasida juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, maktabgacha yosh davri bolaning atrof-muhitni idrok etishi, go‘zallikni his qilishi, dastlabki estetik qarashlari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli ham kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni o‘rganish, tovushlarni farqlash, diqqatini jamlash, jamoa bilan hamkorlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda musiqa san’ati alohida o‘rin egallaydi.

Musiqiy merosning tarbiyaviy ahamiyati uning tarixiy davomiyligida namoyon bo‘ladi. Qadimgi marosim va qo‘shiqlardan tortib, mumtoz musiqa, xalq og‘zaki ijodi hamda zamonaviy bolalar qo‘shiqlarigacha bo‘lgan boy madaniy qatlam yosh avlodni estetik tarbiyalash uchun muhim manba hisoblanadi. Shu bois musiqiy merosni

maktabgacha ta’lim jarayoniga ilmiy asosda tatbiq etish masalasi tarixiy-pedagogik va amaliy jihatdan dolzarbdir.

O‘zbek xalqi musiqiy merosi zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi “Avesto” matnlarida o‘z aksini topgan. “Avesto” nafaqat diniy-falsafiy manba, balki qadimgi Turon xalqlarining axloqiy va musiqiy tafakkur yodgorligidir. “Gat”lar - ohang va ritm vositasidagi ta’lim: Zardushtning o‘z ta’limotini targ‘ib qilishda yaratgan 17 ta she’riy badihalari - “Gat”lar (Gohlar) maxsus ohang va qat’iy ritmik o‘lchovlar asosida jamoaviy tarzda kuylangan [Аширов А: 10-11]. Gat madhiyalarining musiqiy tuzilishi insonlarga, xususan yosh avlodga ezgulik va ma’rifat g‘oyalarini singdirishning eng ta’sirchan usuli bo‘lgan. Mazkur davrda musiqiy ohang orqali so‘z qudratini oshirish, bolalarning nutqi va xotirasini she’riy-musiqiy misralar bilan boyitish xalq pedagogikasining boshlang‘ich poydevori vazifasini bajargan.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlari ilmiy merosida musiqa san’ati alohida mavqega ega bo‘lib, u bolalar tarbiyasi, estatik idrok va ruhiy kamolot bilan uzviy bog‘langan holda talqin etilgan. Jumladan, Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida musiqaning ruhiy va shifobahsh qudratini e’tirof etib, go‘dak tarbiyasida ikki narsa birlamchi ekanini qayd etgan: “bolaning tanasi chiniqishi uchun uni asta tebratish (jismoniy omil), ruhi ozuqlanishi uchun esa onaning allasi (musiqiy omil) zarurdir” – deb ta’kidlagan [Ibn Sino: 144]. Ibn Sino musiqani nafaqat estetik zavq manbai, balki inson ruhiyatiga shifo baxsh etuvchi vosita sifatida baholab, musiqaning ohang va ritmlari orqali hissiyotlarni boshqarish va estetik didni tarbiyalash mumkinligini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi. Abu Nasr Forobiy o‘zining “Kitob al-musiqa al-kabir” asarida musiqani aniq ilmiy qonuniyatlariga asoslangan hodisa sifatida izohlar ekan, uning inson ruhiy holatiga bevosita ta’sir etishini ta’kidlaydi va musiqaning maqsadi inson qalbida muvozanat va go‘zallik hissini shakllantirishdan iborat ekanligini qayd etadi [Ishaxonova M: 107]. Abu Homid G‘azzoliy musiqani qalbni poklovchi va ma’naviy tarbiyani kuchaytiruvchi omil sifatida talqin qilib, musiqa insonning ichki olamiga ta’sir etish orqali axloqiy fazilatlarni shakllantirishini asoslaydi [Абу Ҳомид Ғаззолий: 269].

Abdurahmon Jomiy ijodida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirish masalasida musiqiy ta’lim muhim o‘rin egalagnligini ko‘rish mumkin. Uning “Bahoriston”, “Tuhfat ul-ahror” va “Silsilat uz-zahab” kabi asarlarida ilgari surilgan ilm-ma’rifat, ezgulik, odob-axloq, kamtarlik va insoniy fazilatlarni shakllantirish g‘oyalari musiqiy ta’lim-tarbiyaning ma’naviy asoslari bilan hamohangdir. Xususan, Jomiyning musiqa san’atiga oid qarashlari musiqaning nafaqat badiiy zavq manbai,

balki insonning hissiy olami va estetik didini shakllantirish bilan bog‘liq jihatlarini anglashga imkon beradi[Abdurahmon Jomiy: 240]. Shu nuqtayi nazardan, uning ma’naviy-axloqiy tarbiya haqidagi qarashlarini maktabgacha ta’limda milliy kuy-qo‘shiqlar, bolalar folklori va musiqiy o‘yinlardan foydalanish bilan bog‘lash mumkin.

Jadid ma’rifatparlari merosida musiqiy-estetik qarashlar milliy musiqiy merosni o‘rganish, asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish masalalari muhim o‘rin tutgan. Xususan, Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asari o‘zbek mumtoz musiqasi hamda maqom san’atining tarixiy va nazariy asoslarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi [Abdurauf Fitrat: 12-35]. Fitratning ushbu faoliyati milliy musiqani yosh avlodning madaniy-ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi. Mazkur qarashlar bugungi maktabgacha ta’limda bolalarni xalq kuylari, milliy cholg‘ular va an’anaviy musiqiy meros bilan tanishtirishning tarixiy-ma’naviy asoslarini yoritishda ahamiyatlidir.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifatparvarlik va teatr sohasidagi faoliyati badiiy san’atning inson dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini namoyon etadi. Teatrda so‘z, obraz, sahna harakati va musiqaning uyg‘unlashuvi tomoshabinning hissiy idrokiga ta’sir ko‘rsatadi [Ismailov T: 112-118]. Shu nuqtayi nazardan, jadidlar davrida san’atning ma’rifiy vazifasiga berilgan e’tibor bugungi maktabgacha ta’limda musiqali sahnalashtirish, qo‘shiq va dramatik o‘yinlarni estetik tarbiya vositasi sifatida qo‘llash bilan mazmunan bog‘lanadi.

Abdulla Avloniy 1918-yilda “Musiqa ta’limi haqida” maxsus qarashlarini bayon etib, yoshlar tarbiyasida musiqa darslarining o‘rnini ko‘rsatadi. O‘zining mashhur “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida his-tuyg‘ular, go‘zallik tarbiyasi va adabiy-musiqiy merosning bolaning xulqiy fazilatlariga ijobiy ta’sirini tahlil qiladi [Avloniy A: 24-38]. U bolalar uchun she’rlar va yangi namunadagi ashulalar yaratib, maktab sahnasiga olib chiqadi. Jadid ma’rifatparvarlari o‘z asarlari va pedagogik faoliyati orqali yosh avlodni ilm-ma’rifatli, axloqan yetuk va estetik did sohibi etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratib, milliy ta’lim va madaniyat rivojiga munosib hissa qo‘shdilar.

Sovet davrida maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa mashg‘ulotlari bolalarni sovet mafkurasi ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan. Musiqa mashg‘ulotlari, odatda, bolalarning yosh xususiyatlariga mos qo‘shiqlar, musiqali o‘yinlar, raqslar va bayram tadbirlari orqali tashkil etilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga doir 1962, 1964, 1972 va 1984-yillarda qabul qilingan davlat dasturlarida musiqa mashg‘ulotlari bolalarda estetik tuyg‘ular, obrazli nutq va tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarni

shakllantirish, sovet davlatini ulug‘lash va jamoviylik ruhi asosiy qism etib belgilangan [Тишабоева И: 56]. Sovet davrida bog‘chalardagi musiqiy tarbiya tashkiliy va metodik jihatdan rivojlangan bo‘lsa-da, uning mazmuni davrning mafkuraviy talablari bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, maktabgacha ta’lim sohasida musiqiy ta’limning mazmunini milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi, milliy kuy-qo‘shiqlar va boy musiqiy meros bilan uyg‘unlashtirishga keng imkoniyat yaratildi. Natijada musiqiy tarbiya bolalarning nafaqat estetik didini rivojlantirish, balki ularda milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosga hurmat va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning muhim vositasiga aylandi.

2017-yildan boshlab O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’limning eng muhim boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida muhim darajaga ko‘tarildi. 2018-yildan boshlab maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’im-tarbiya berish uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi qabul qilindi. Mazkur dasturda “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” bilan bir qatorda “Badiiy-estetik rivojlanish” sohasi alohida ta’limiy yo‘nalish etib belgilandi. Unda bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish quyidagi innovatsion tamoyillarga tayanadi: [“Ilk qadam”: 55-56]



Xulosa qilib aytganda, qadimgi davrlardan boshlab musiqaning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni muhim ahamiyat kasb etgan. Mustaqillik yillarida musiqiy tarbiya milliy qadriyatlar va boy madaniy meros bilan uyg‘unlashib, maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishining muhim omiliga aylandi

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish moddiy asos bo‘lsa, milliy musiqiy meros va estetik tarbiya ushbu tizimning ma’naviy poydevoridir. Bolalikdan xalq kuylari, go‘zal ohanglar va ritmik faoliyat bilan ulg‘aygan bola nafaqat maktab ta’limiga aqliy va psixologik jihatdan to‘liq tayyor bo‘ladi, balki ma’naviy barkamol, sog‘lom dunyoqarashga ega inson bo‘lib voyaga yetadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат-Ул Қулуб. Миразиз Аъзам таржимаси. – Тошкент, “Адолат”. 2002. – Б. 269.
2. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982. – B. 240.
3. Abdurauf Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: Turkiston Davlat nashriyoti, 1927. – B. 12–35.
4. Abdulla Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – B. 24–38.
5. Аширов А. “Авестодан мерос маросимлар. Масъул муҳаррир: Д.А. Алимова. – Т.: Абдулла Кордирий номидаги халк мероси нашр., 2001. – Б. 10-11.
6. Ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2013. – B. 144.
7. Ismailov T. X. Musiqa madaniyatida jadidlar faoliyati. // Nordic Press: Musiqa ta’limi va san’atining bugungi globallashuv sharoitida milliy-ijtimoiy ahamiyati. – Toshkent, 2024. – Tom 5, № 0005. – B. 112–118.
8. Ishaxonova M. O‘rta asr mutafakkirlarining musiqaga oid qarashlari asosida bo‘lgusi musiqa fani o‘qituvchilarida musiqiy-estatik tarbiyani takomillashtirish metodlari. // Conference on Social Scinces and Humanities Reserarch (CSSHR). №11. 2025-yil dekabr. – B. 107.
9. Тишабоева И. 1946–1991 йилларда Ўзбекистон мактабгача тарбия муассасалари тарихи (Андижон, Наманган, Фарғона областлари мисолида): тарих. фан. фал. док. (PhD) дисс....автореф. – Андижон, 2023. – 54 б.
10. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limning “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturi (Uchunchi nashr). – Toshkent: 2026. – B. 55-56.

OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA MILLIY MUSIQIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH

Ashirova Laziza
Guliston Davlat Pedagogika Instituti
“Musiqa ta’limi” yo‘nalishi 3- kurs talabasi,
N.N.Raximov
Guliston Davlat Pedagogika Instituti
“San’atshunoslik” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada oila va bog‘cha hamkorligida folklor, allalar va milliy kuylar orqali bolalar musiqiy didini o‘stirish hamda ularda yot ta’sirlardan himoyalovchi milliy musiqiy immunitetni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va ma’naviy-estetik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: estetik did, xalq folklori, alla janri, bolalar ruhiyati, ma’naviy tarbiya, musiqiy idrok, etnopedagogika, ommaviy madaniyat.

KIRISH. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda musiqa tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Musiqa nafosat tarbiyasining murakkab qirralaridan biri bo‘lib, insonni atrofdagi go‘zallikni to‘g’ri idrok etishga o‘rgatadi [Xalilova 2021, 42]. U inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, yuksak did va ma’naviy ozuqa beruvchi muhim vositadir [Ahmedov 2020, 18].

Musiqiy immunitet – bu bolaning tashqi muhitdan kirib kelayotgan sifatsiz musiqiy mahsulotlarni tizimli ravishda saralay olishi, ularga nisbatan o‘ziga xos tanqidiy-estetik yondashuvni shakllantirishi va o‘z milliy kuylarini qadrlash qobiliyatidir [Dushanboyeva 2023, 75]. Mazkur jarayonning ilk va eng mustahkam asosi, shubhasiz, oila va maktabgacha ta’lim muassasalari hamkorligiga tayanadi. Zero, bola dunyoni eng avvalo ona allasi, oiladagi ma’naviy-musiqiy muhit hamda bog‘chadagi ilk musiqiy to‘garaklar orqali anglay boshlaydi [Panjiyev 2022, 112].

O‘zbekiston Respublikasida yosh avlodni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalash, milliy musiqa va san’at orqali ularning estetik ehtiyojlarini qondirish masalasi qonunchilik darajasida ham mustahkamlangan. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun talablarida bolalarni xalqimizning tarixiy, milliy-madaniy merosi va qadriyatlari bilan tanishtirish muhim vazifa qilib belgilangan. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarori [PQ-112] Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora hamda sohaga oid bir qator farmonlar, yoshlar

ma’naviy dunyosini boyitishda musiqaning o‘rni beqiyos ekanini ko‘rsatadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev “Madaniyatimizni tiklab bormasak, ertaga ma’naviy ozuqa bo‘lmagan elda, xalqda, yoshda yutuq bo‘lmaydi”.deya takidlaydi. Shuningdek, sohaga oid eng so‘nggi islohotlardan biri — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 34-sonli qarori hisoblanadi. Ushbu qarorga ko‘ra, milliy tarbiya modelining 1-bosqichi aynan 3–6 yoshli bolalarni qamrab olib, ularda ilk yoshdanoq milliy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirishni nazarda tutadi[VQ 2026, 3]. Biroq bugungi kunda oila va bog’chalarda bolalarning milliy musiqaga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishda ayrim muammolar mavjud. Xususan, chet el musiqalariga qiziqish ortishi bilan milliy kuylarga bo‘lgan ehtiyoj kamaymoqda. Bog’chalarda musiqa mashg’ulotlarining faqat qo‘shiq kuylash bilan cheklanishi, tadbirda ko‘proq xorijiy musiqalardan foydalanilayotgani muammoning dolzarbligini oshiradi. Bolalar mobil aloqa vositalari orqali g’arbona ohanglarni so‘zma - so‘z yod olmoqda. Natijada bolalarda milliy musiqiy immunitet yetarli darajada shakllanmayabdi va bu ularning psixologik ruhiyatiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda [Rajabov, 2024, 89].

Ushbu muammoning yechimini izlashning asosiy maqsadi – oila va maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarda milliy musiqiy immunitetni shakllantirishning samarali pedagogik usul va vositalarini aniqlash hamda ularni tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bunda bolalarning milliy kuy-qo‘shiqlar, xalq musiqasi va an’anaviy musiqa namunalariga qiziqtirish, ularning milliy musiqiy didini rivojlantirish, musiqani ongli ravishda tinglash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda milliy -madaniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ko‘zda tutiladi. Milliy-madaniy meros namunalari mazmunida aks etgan g’oyalar yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham milliy ta’lim va tarbiya asoslarini ishlab chiqishda milliy-madaniy merosdan, milliy qadriyatlardan samarali foydalanishga ehtiyoj va e’tibor kuchaydi. Milliy musiqiy an’analar xalqimizning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi, etnopsixologik xususiyatlari, orzu-umidlari va ularga erishish yo‘lidagi faoliyat yo‘nalishlari, shaxsga ta’lim-tarbiya berish an’analari asosida shakllangan bo‘lib, asrlar davomida tarixiylik, vorisiylik tamoyillariga muvofiq avloddan-avlodga o‘tib, kishilarni ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasida munosib o‘rin egallab kelmoqda. An’analarga sodiqlik tufayli yoshlarda ma’naviy mas’uliyat hissi, ya’ni vatanga muhabbat, uni sevish, qadrlash, xalq tarixi,

urf-odat, an’analariga hurmat, mehroqibat, odob-axloq kabi fazilatlar qaror topib boradi. Bunday maummolarni yechimlarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin.

Oilada farzand tarbiyasiga jiddiy e’tibor beruvchi ota-ona bolasining aql idrokli, did-farosatli, ziyrak, nafosatni, san’atni tushunadigan, madaniyatli inson bo‘lib voyaga yetishini istaydi. Bola shaxsini tarkib toptirish esa, albatta oiladan boshlanadi. Bolada fe’l- atvor, xulq-odob, iroda, atrof-muhitga munosabat, e’tiqod oilada shakllanadi. Bola tarbiyasida uning oiladagi vaqtini taqsimlash muhim rol o‘ynaydi. Oilada o‘yin, mehnat va o‘qish faoliyatlari bilan birga bolaning ma’naviy jihatdan rivojlanishi uchun musiqiy va badiiy manbalarni o‘rgatilishiga ham alohida e’tibor qaratish muhimdir. Binobarin, jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tarbiya asosida shakllantirib, dunyoqarashini boyitib, san’atni idrok etish va munosib baholay olish, undan zavqlanish sifatlarini rivojlantirib borish maqsadga muvofiqdir [Sharipova G, Xodjayeva Z 5] Oilada bolalarni musiqiy tarbiyalashda tabiat muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarning jonli tabiat, uning go‘zalliklari bilan aloqasi ularda tabiatning o‘ziga xos ohangi borligi, undan ta’sirlanish esa go‘zallik tuyg‘usini rivojlantiradi. Bolalar va o‘smirlar tabiat bilan asta-sekin tanisha borib ayni vaqtda uning musiqiy ekanligini ham biladilar. Jonli tabiat tabiiy ohanglari – o‘ziga xos ohang bo‘lib, u qushlar sayrashi, shamol esishi, barglar shivirlashi, daryo to‘lqinlarining qirg‘oqqa urilishidan dunyoga keladi. Badiiy ma’lumot ta’lim- tarbiya bola shaxsini shakllanishida, uning estetik qarashlarida va san’at olamini his qilishida muhim rol o‘ynaydi.Go‘zallikni his qilish badiiy did orqali amalga oshadi. Badiiy tarbiya vositasida bolada musiqa san’ati asarlariga nisbatan kuchli qiziqishlarni vujudga keltirish mumkin. Shuni ham ta’kidlash o‘rinliki, qiziqish ehtiyoj bilan chambarchas uzviy bog‘langan. Bilimga bo‘lgan ehtiyojni qiziqishdan boshlanadi. Bola san’at asarini qanchalik chuqur anglab, o‘zlashtirishga qiziqishi oshsa ehtiyojlik darajasi shunchalar yuqori bo‘ladi. Badiiy qiziqish va ehtiyojning bunday aloqadorligi bolada yuksak emotsional munosabalarni shakllantiradi. Bolalarning, milliy musiqiy meros bilan ilk tanishuv, avvalo oilada boshlanadi. Oila bolaning dastlabki tarbiya muhiti bo‘lganligi sababli, unda milliy musiqaga bo‘lgan qiziqish va munosabatni shakllantirishda ota-onaning o‘rni katta. Ayniqsa, bolaga alla aytish, xalq qo‘shiqlarini tinglatish, milliy cholg‘u asboblari haqida ma’lumot berish va oilaviy tadbirlarda milliy kuy-qo‘shiqlardan foydalanish samarali vositalardan hisoblanadi. Uyda shunchaki televizor ishlab turishdan ko‘ra, orqada sekin milliy cholg’u kuylari (tanbur, dutor, nay navolari) chalinib turishi bolaning asab tizimini tinchlantiradi va qulog’ini milliy ohangga o‘rgatadi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy musiqiy merosdan muntazam va maqsadli foydalanish zarur. Musiqa mashg‘ulotlarida bolalarning yosh xususiyatlariga mos xalq qo‘shiqlarini o‘rgatish, milliy cholg‘u asboblari bilan tanishtirish, kuyga mos harakatlarni bajarish hamda musiqiy o‘yinlardan foydalanish orqali bolalarda milliy musiqaga qiziqish uyg‘otish mumkin. Ertalabki badantarbiya yoki mashg’ulotlar oralig’ida milliy bolalar qo‘shiqlari o‘yinlaridan “Oq terakmi, ko‘k terak”, Chittigul” kabi xalq qo‘shiqlaridan umuli foydalanish zarur. Maktabgacha ta’lim muassasasidagi tadbirlarda zamonaviy xorijiy jaz yoki pop musiqalarni kamaytirib, bolalarbop milliy kuylarga ko‘proq sahna ko‘rinishlari qo‘yishda samarali usullardan biri bo‘la oladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz lozimki, bolada milliy immunitetni shakllantirish - bu shunchaki unga qo‘shiq o‘rgatish yoki bog’chada tadbir o‘rkazish emas. Bu bolamizning qalbini, ma’naviyatini va eng muhimi, uning o‘zbekona o‘zligini begona ta’sirlardan himoya qilishdir. Biz ko‘pincha bolaning jismoniy sog‘lig‘ini o‘ylab, uni turli kasalliklardan emlaymiz, immunitetini oshiramiz. Xuddi shunday, bugungi axborot va internet asrida uning ma’naviy olamini ham chalg‘ituvchi, saviyasiz shovqinlardan emlashimiz shart. Buning uchun esa bog‘chadagi tarbiyachi ham, uydagi ota-ona ham bir tomonga qarab harakat qilishi kerak. Oila va bog‘cha hamkorlikda bolaning qulog‘iga beshikdan boshlab milliy kuylarimizni, alla va ertaklarimizni singdira bilsa, ertaga u ulg‘ayganda har qanday yot madaniyatga va sayoz musiqaga qarshi o‘z-o‘zidan qalqon hosil qiladi. Zotan, milliy musiqani sevgan va his qilgan bolaning estetik didi ham go‘zal, ma’naviy dunyosi ham butun bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunu, 16.12.2019-yildagi O‘RQ-595-son.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 34-sonli qarori //Qonun hujjarlari ma’lumotlar milliy bazasi - 2026-yil 28-yanvar.

4.Ahmedov R. milliy musiqiy ijrochilik san’atiga bir nazar // Oriental Art and Culture - 2020-№2-B. 15-22.

5.Dushanboyeva M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik madaniyatni shakllantirish muammolari // Pedagogik mahorat - Buxoro, 2023. - № 4-B. 72-78.

6. Panjiyev Q. O‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida talabalarning musiqiy-madaniy dunyoqarashini shakllantirish. Monografiya - Toshkent fan, 2022 - 180 b.
7. Rajabov S. Global internet tarmog’idagi musiqiy oqimlar va yoshlar psixologiyasi // psixologiya va ta’lim jurnali - 2024.-№ 1ю И 85-92
8. Xalilova M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa ta’lim-tarbiyasining dolzarbligi//Scientific progress - 2021. - № 2- B 40-45

MILLIY MUSIQA MEROSINI INKLYUZIV TA’LIMGA INTEGRATSIYALASH ORQALI O‘QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Buxarbayeva S. M.
Guliston davlat pedagogika instituti
“Musiqa ta’limi” yo‘nalishi 3- kurs talabasi,
N.N.Raximov
Guliston davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy musiqa merosini inklyuziv ta’limga integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Xalq kuylari va milliy cholg‘ular vositasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish, ularning emotsional hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha samarali yechimlar berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, integratsiya, ijtimoiylashuv, ritm-terapiya, korreksion pedagogika, umumta’lim maktablari, pedagogik imkoniyatlar, emotsional rivojlanish.

KIRISH. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va insonparvarlashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri inklyuziv ta’limni keng joriy etishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarorida belgilanganidek, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning jamiyatga to‘laqonli va teng huquqli integratsiyalashuvini ta’minlash hamda ularga sifatli ta’lim-tarbiya berish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan [PQ-4860]. Inklyuziv ta’lim sharoitida har bir o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda uning emotsional, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda san’at va, xususan, musiqa madaniyati darslari alohida

o‘rin tutadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni rivojlantirish va korreksiya qilishda musiqa ta’limining ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda keng e’tirof etilgan. Jumladan, mashhur psixolog L.S.Vygotskiy bolaning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida atrofdagi madaniy muhit hamda kompensator mexanizmlarning o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tgan [Выготский Л.С: 112]. Shuningdek, S.Hallam hamda P.Nordoff va C.Robbinslarning tadqiqotlarida musiqiy faoliyat bolalarning intellektual, emotsional va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda, shuningdek, maxsus ta’limda terapiya vositasi sifatida yuqori samaradorlikka ega ekani ilmiy asoslab berilgan [Hallam S: 34; Nordoff P., Robbins C: 88]. Ushbu jarayonda boy milliy musiqa merosimiz – xalq o‘yin-kuylari, maqom san’ati va milliy cholg‘u ijrochiligi imkoniyatlaridan foydalanish amaliy va korreksion jihatdan yuqori natija beradi. O‘zbek mumtoz musiqasi birinchi navbatda, kishiga ruhiy yengillik baxsh etish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, kishining tashqi dunyoga estetik munosabatda ta’sir vazifasini bajarsa, uchinchi tomondan esa tarbiyaviy ta’sir vazifasini ham bajaradi. [Yulyaxshiyev Sh.N: 68; Jabborov A: 24]. Milliy musiqa namunalari va ritmik o‘yinlar nafaqat o‘quvchilarning estetik va musiqiy didini o‘stiradi, balki alohida ehtiyojli bolalardagi muloqot to‘siqlarini va tortinchoqlikni yengib, ularni tengdoshlari orasida tez hamda asoratsiz ijtimoiylashuvini ta’minlaydi. Shuning uchun milliy musiqa merosini inklyuziv ta’lim muhitiga integratsiyalashning samarali pedagogik va uslubiy imkoniyatlarini tadqiq etish bugungi musiqa ta’limi va pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni rivojlantirish va ularni ijtimoiylashtirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Bolalarning emotsional-irodaviy va ijtimoiy rivojlanishida kompensator mexanizmlarning o‘rnini va atrof-muhit ta’sirini tadqiq etgan L.S.Vygotskiy ruhiy va jismoniy nuqsoni bor bolalarni faol musiqiy va ijtimoiy muhitga jalb etish ularning psixik rivojlanishida asosiy omil bo‘lishini ko‘rsatib o‘tgan [Выготский Л.С: 115]. Xalqaro amaliyotda P.Nordoff va C.Robbins tomonidan ishlab chiqilgan "Musiqa terapiya" hamda S.Hallamning tadqiqotlari shuni isbotlaydiki, musiqiy-ritmik faoliyat va cholg‘u ijrochiligi alohida ehtiyojli o‘quvchilarning muloqot qilish, diqqatni jamlash hamda motorika ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi [Hallam S.:42; Nordoff P., Robbins C.:92]. Respublika ilmiy tadqiqotlarida esa L.R.Mominova inklyuziv ta’limda korreksion pedagogik vositalardan foydalanishning nazariy-amaliy asoslarini yoritib bergan [Mominova L.R: 52]. Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy

musiqa merosimiz – xalq o‘yin-kuylari va milliy cholg‘ular o‘zining ritmik va emotsional boyligi bilan inklyuziv sinflarda bolalarni ijtimoiylashtirish va korreksiyalash uchun mustahkam poydevor bo‘la oladi.

Tadqiqot metodlari. Maqolada belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalarga tayangan holda quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi [PQ-4860]:

Nazariy-qiyosiy tahlil: Mazkur mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy-pedagogik, psixologik hamda musiqashunoslik adabiyotlarini, normativ-huquqiy hujjatlarni atroflicha o‘rganish va umumiylashtirish;

Pedagogik kuzatuv: Inklyuziv va umumta’lim dars mashg‘ulotlarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning milliy musiqa kuylari hamda ritmik mashqlarni idrok etish jarayonini, ularning emotsional holati va tengdoshlari bilan muloqot dinamikasini kuzatish;

Pedagogik-psixologik umumlashtirish: Olingan amaliy va nazariy natijalarni tahlil qilish hamda inklyuziv musiqa ta’limini takomillashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar va xulosalar shakllantirish.

Tadqiqot natijalari (Nazariy-pedagogik tahlil). Inklyuziv musiqa ta’limi va pedagogik adabiyotlar tahlili natijasida quyidagi nazariy-metodik modellar shakllantirildi:

Emotsional-korreksion model: Maqom va sokin lirik kuylar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning emotsional holatini barqarorlashtirish va xavotirlanishni pasaytirish orqali sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi [Mominova L.R: 88].

Korreksion-ritmik imkoniyatlar: Doira va nog‘ora kabi milliy zarbli cholg‘ular hamda xalq o‘yin-kuylari ritm-terapiya vositasi sifatida nutq nuqsonlari (duduqlanish) hamda motorika rivojlanishida ortda qolish bor bolalarda ritm hissi va muloqot tayyorgarligini shakllantiradi.

Ijtimoiylashtirish konsepti: Jamoaviy cholg‘u ijrochiligi va xalq o‘yinlari alohida ehtiyojli bolalar va tengdoshlari o‘rtasida muloqot to‘siqlarini bartaraf etib, o‘zaro yordam hamda ijtimoiy moslashuvni ta’minlaydi [Hallam S: 58; Nordoff P., Robbins C: 104].

Ushbu tahlil natijalari PQ-4860-son Qarorda belgilangan inklyuziv ta’lim tamoyillariga to‘liq muvofiq keladi [PQ-4860]. Tadqiqot xalqaro va mahalliy olimlarning inklyuziv ta’limda musiqaning korreksion va ijtimoiy imkoniyatlari to‘g‘risidagi qarashlarini tasdiqlaydi [Hallam S: 62; Akbarov I.A: 38; Jabborov A: 45;

Rajabov I: 78]. Xulosa qilib aytganda, milliy musiqa merosini integratsiyalash o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta’minlaydigan muhim pedagogik metodologiyadir [Mominova L.R: 95].

XULOSA. O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish hamda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning jamiyatga to‘laqonli integratsiyalashuvini ta’minlash borasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, ushbu ilmiy-nazariy tadqiqot asosida quyidagi muhim pedagogik xulosalarga kelindi [PQ-4860]:

Milliy musiqa merosining korreksion va tarbiyaviy imkoniyatlari: Milliy musiqa merosimiz – maqom san’ati, xalq kuylari va o‘yin-qo‘shiqlari nafaqat o‘quvchilarning estetik va ma’naviy dunyoqarashini boyitadi [Akbarov I.A: 38; Rajabov I: 78], balki o‘zining garmonik va psixoakustik xususiyatlari bilan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish va xavotirlanish darajasini pasaytirishda qudratli manba bo‘lib xizmat qiladi [Mominova L.R: 88].

Ritm-terapiya va cholg‘u ijrochiligining rivojlantiruvchi o‘rni: Doira va nog‘ora kabi milliy zarbli cholg‘ular vositasida hamda ritmik xalq o‘yin-kuylari jo‘rligida tashkil etiladigan musiqiy-ritmik faoliyat bolalarda diqqat konsentratsiyasini, mayda va yirik motorikani shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, ritmik mashqlar nutqida nuqsoni (duduqlanish, nutq tormozlanishi) bo‘lgan bolalarning nutqiy-muloqot tayyorgarligini va emotsional erkinligini oshiradi [Выготский Л.С: 124]. Ijtimoiylashuv va jamoaviylik tamoyilining ta’minlanishi: Inklyuziv musiqa darslarida jamoaviy cholg‘u ijrochiligi va xalq o‘yin-kuylari vositasida hamkorlikda ishlash alohida ehtiyojli bolalar bilan ularning tengdoshlari o‘rtasidagi psixologik to‘siqlar hamda tortinchoqlikni bartaraf etadi [Hallam S: 58; Nordoff P., Robbins C: 104]. Bu yondashuv o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, tenglik va jamoaga tez moslashish (ijtimoiylashuv) ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali pedagogik ko‘prigi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, milliy musiqa merosini umumta’lim va inklyuziv musiqa ta’limi jarayoniga tizimli hamda interaktiv integratsiyalash – alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta’minlash va ularni har taraflama barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishning eng insonparvar va samarali yechimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4860-son Qarori. – Electronic resource: https://lex.uz/docs/5044711
2. Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
3. Yulyaxshiyev Sh. N. O‘zbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent: “NIF MSH”, 2024.
4. Hallam S. The power of music: Its impact on the intellectual, social and personal development of children and young people. – London: International Music Education Research Centre, 2010.
5. Jabborov A. O‘zbek milliy musiqasi va uning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
6. Mominova L.R. Inklyuziv ta’lim va korreksion pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
7. Nordoff P., Robbins C. Music Therapy in Special Education. – New York: MMB Music, 2007.
8. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent: O‘zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 2019.
9. Выготский Л.С. Вопросы детской (возрастной) психологии. – Москва: Юрайт, 2019.

ИНТЕГРАЦИЯ ВИДОВ ИСКУССТВ В УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ ГОРОДА ГУЛИСТАНА, СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Бахадиров Наил Шарифович
и.о.доцента Гулистанского государственного университета

Аннотация: В статье описывается интеграция видов искусств, педагогические методы и технологии с помощью которых происходит очень ответственный процесс творческого воспитания личности, активизируют их познавательную деятельность,способствуют воспитанию высоконравсвенных и высокодуховных людей.

Ключевые слова: Интеграция, живопись, литераура, музыка, воспитание, творчество, искусство, педагогика, технология, личность.

Интеграция различных по содержанию видов деятельности, разных видов искусств является педагогической технологией и основным принципом творческого развития личности. Интеграция различных по содержанию видов деятельности,разных видов искусств, даёт педагогу широкие возможности для

создания комфортных условий эффективного развития школьника и студента с учётом его индивидуальных особенностей.

Интегрированные уроки учат видеть мир целостным и уверенно ориентироваться в нём. Очень важно,что на этих уроках ученики и студенты соприкасаются с самым ценным – духовным опытом человечества.

Отдельные виды искусства - живопись, музыка и литература отражают один и тот же объект окружающей действительности, но с различных точек зрения. Они отражают реальность по-своему.Например,все краски мира может передать только живопись. Описать конкретные события может литература, музыка же выражает человеческие чувства и вместе с тем она универсальный метод обучения другим дисциплинам.Российский композитор-педагог Д.Кабалевский часто говорил о необходимости открывать детям глубокие внутренние связи между литературой и другими видами искусства,учить «видеть музыку» и «слышать живопись».

Многие философы, педагоги, психологи ,писатели музыканты и художники постоянно высказывались о пользе комплексного воздействия интегрируемых видов искусства на личность, на формирование её духовного мира,приобщения к тайнам творческого процесса.Творческое наследие великого поэта,философа,историка,живописца,композитора,основателя узбекского национального литературного языка Алишера Навои оказало большое влияние на весь мировой литературный процесс.

Писатели, художники и композиторы: А.Кадыри, Г.Гулям, А.Каххар, М.Ашрафий, С.Юдаков, М.Бурханов, Р.Чориев, У.Тансыкбаев их творчество(портреты,пейзажи,романы,музыка)внесли неоценимый вклад в формирование духовного мира учащихся и студентов, активизировали их познавательную деятельность, способствовали воспитанию людей высокодуховных,нравственных,эстетически грамотных.

В 50-е годы прошлого столетия интеграция в педагогическом процессе рассматривалась с позиции системного подхода к процессу обучения.Под системным подходом учёные понимали определение взаимосвязи различных явлений связанных с физиологическим и психологическим понятием о системности в работе мозга.Известный психолог Б.Анананьев раскрыл взаимодействие ощущений и показал их сложную систему,которая обеспечивает целостность чувственного отражения человеком объективной действительности,единства материального мира.Под руководством Ананьева были разработаны этапы развития научных понятий по всем программам

обучения.Она помогала учителям и преподавателям использовать материал одного предмета при изучении другого.Таким образом, ученые-педагоги связывали интеграцию с содержательным изменением учебного процесса.

Сейчас проблема интеграции в педагогическом процессе изучена с различных позиций – это практический синтез теории и практики, а также протекание интеграционных процессов в профессиональном образовании, и в первую очередь, интеграция предметов связанных между собой с предметами с окружающей средой. Идея межпредметных связей выступала как часть общей проблемы системности обучения.Интеграция различных по содержанию видов деятельности, таких составляющих как музыка, искусство, живопись, положительно влияют на процесс обучения и воспитания,творческого развития личности.

Благодаря независимости Узбекистана появилась возможность активной культурной общественной деятельности, существенные изменения которых произошли во всех сферах жизни. Коснулись они и той составной части социально-культурной среды, к которой относится коллективное исполнительство на узбекских народных инструментах.

Сегодня активно претворяется в жизнь общеизвестный проект президента Узбекистана – пять важных инициатив, который охватывает ключевые вопросы развития государства,В детских музыкальных школах и школах искусств,музыкальных центрах города,области ведутся работы по укреплению материальной базы данных объектов,осуществляются капитальные ремонты учреждений культуры,выделяются средства на приобретение музыкальных инструментов, усилительной аппаратуры, проводятся самые различные творческие,музыкальные конкурсы и фестивали. Эти мероприятия оказывают позитивное влияние на процесс формирования у наших детей чисто профессиональных-музыкальных, лучших человеческих и гражданских качеств,помогая успешно реализовать национальные задачи по социальной адаптации молодого поколения.

Полезную деятельность детских узбекских народных оркестров,оркестра узбекских народных инструментов Гулистанской специализированной школы искусств,смешанного оркестра областного драматического театра, оркестра узбекских народных инструментов кафедры инструментального исполнительства Гулистанского университета искусств трудно переоценить.

Воспитательное значение перечисленных оркестров заключается в приобщении широкого круга учащихся и студентов и их зрителей к

произведениям узбекских композиторов и мировым музыкальным традициям.Перед концертными и выступлениями оркестров и отчетными концертами всегда организуются выставки картинных галерей, превосходных художественных работ учащихся и педагогов отделений живописи,в том числе и лауреатов, победителей многочисленных конкурсов и выставок.

На уроках музыки и живописи в детских музыкальных школах, школах искусств сырдарьинской области и на кафедре инструментального исполнительства и на занятиях живописи Гулистанского государственного университета очень важно рассматривать художественно-творческий процесс занятийв неразрывной связи с педагогическим и осуществлять его развитие в русле современной научной деятельности теории обучения и воспитания.

Не отходя от темы,можно обозначить ещё одну грань удивительной интеграции – математика и музыка.Это две системы мышления тесно связанны между собой. Музыка делает человека более уверенным и эмоциональным, обогащает умственно,способствует духовному развитию,а математика – это инструмент познания, воплощение порядка и логики.

Исаак Ньютон разглядывая светлую полоску на стене понял, что она содержит цветовую палитру похожую на музыкальную. 8 тон, которого не хватало, учёный назвал «индиго".

И ещё,в качестве дополнения, некоторые люди обладают даром видеть в звуке цвет (напр.композитор А.Скрябин).

Литература:

1. Ананьев Б.Г. Психология чувственного познания. М.,Наука,2001.
2. Выготский Л.С. Психология искусства. Феникс, 1998.
3. Зверев Д.И. Взаимная связь учебных предметов.,М.,Знание, 1977.
4. Каган М.С.Морфология искусства.М.,Искусство,1972.
5. Кадыров Г.Музыкальная педагогика, Т., 2004.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING DIRIJORLIK MALAKALARINI MILLIY REPERTUAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Ibragimova Nilufar Adxamovna
Guliston davlat universiteti
“An’anaviy xonandalik va xalq cholg’ulari “kafedrasi v.b.dotsenti

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining dirijorlik malakalarini xalq qo‘shiqlari, bastakorlar va o‘zbek kompozitorlari asarlaridan iborat milliy repertuar asosida shakllantirishning nazariy va metodik masalalari yoritilgan. Malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish modeli taklif etilgan va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: dirijorlik, dirijorlik malakasi, bo‘lajak o‘qituvchi, milliy repertuar, xor, xalq cholg‘ulari orkestri, doira usuli, imo-ishora, repetitsiya.

Kirish: Umumta’lim maktabida musiqa o‘qituvchisi, aslida, dirijor vazifasini ham bajaradi. U sinf o‘quvchilarini jamoa bo‘lib kuylashga o‘rgatadi, maktab xori va cholg‘u ansambliga rahbarlik qiladi, bayram tadbirlarida jamoaviy ijroni boshqaradi. Shu bois dirijorlik malakalari bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblanadi. Dirijor uchun keng bilimdonlik, yuksak musiqiy madaniyat, mustahkam nazariy asos va «kuylovchi qo‘llar» texnikasi zarur ekani ilmiy adabiyotlarda alohida ta’kidlanadi [Колесникова Н.А.: 26].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining musiqa madaniyati fani dasturlarida o‘zbek xalq musiqasi namunalari, maqom va Shashmaqom, mumtoz musiqa hamda o‘zbek kompozitorlarining zamonaviy asarlari keng o‘rin olgan [Sharipova G., Xodjayeva Z.: 17]. Demak, maktabda o‘qituvchi asosan milliy repertuar bilan ishlaydi. Biroq oliy pedagogik ta’limda dirijorlik mashg‘ulotlari ko‘pincha G‘arbiy Yevropa va rus musiqasi namunalari asosida tashkil etiladi. Natijada talaba klassik o‘lchov sxemalarini puxta egallasa-da, o‘zbek musiqasiga xos doira usullari, kuyning bezakli tuzilishi, she’riy vazn bilan bog‘liq nafas olish joylari kabi xususiyatlarni dirijorlik imo-ishoralarida ifodalashda qiyinchilikka duch keladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining dirijorlik malakalarini milliy repertuar asosida shakllantirishning mazmuni va metodik yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda kompetensiyaviy, faoliyatli va tizimli yondashuvlarga tayanildi. Dirijorlik nazariyasi va metodikasiga oid adabiyotlarni o‘rganish, maktab musiqa dasturlari va repertuarini tahlil qilish, dirijorlik mashg‘ulotlari va pedagogik amaliyot jarayonini kuzatish, talabalar ijrosini video

yozuvlar asosida tahlil etish hamda ilg‘or tajribalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Dirijorlik san’ati, xalq musiqa ijodi va cholg‘ushunoslik sohalaridagi ilmiy qarashlar tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi.

Natijalar va muhokama: dirijor-pedagogning shaxsiy sifatlariga to‘xtalish lozim. E.Toshmatovning ta’kidlashicha, orkestr yoki xor bilan yaxshi ishlash ucun dirijor ziyrak va oqil pedagog-tarbiyachi bo‘lishi lozim [Toshmatov E.: 12]. Bu talab musiqa o‘qituvchisi uchun yanada dolzarbdir, chunki uning «ijrochilar jamoasi» – hali musiqiy tajribasi shakllanmagan bolalardir. O‘qituvchi tashabbuskorlik, tashkilotchilik, xushmuomalalik va sabr-toqatni o‘zida uyg‘unlashtira olishi kerak.

Dirijorlikning asosiy vositasi – qo‘l harakatlari, ya’ni manual texnikadir. N.A.Kolesnikova mashhur pedagog I.Musin fikriga tayanib, dirijor imo-ishorasi uning nutqi o‘rnini bosib, o‘ziga xos «til»ga aylanganini, dirijor ana shu til orqali orkestr va tinglovchi bilan musiqa mazmuni haqida «so‘zlashishini» qayd etadi [Колесникова Н.А.: 18]. Bizningcha, milliy repertuar bilan ishlaganda bu «til» o‘zining milliy «lahja»siga ega bo‘lishi kerak: dirijor imo-ishorasi doira usulining pulsini, kuy bezaklarining silliqligini, she’riy satrning nafasini ifodalay olishi zarur.

O‘zbek milliy repertuarining dirijorlik nuqtayi nazaridan bir qator o‘ziga xos jihatlari mavjud. Birinchidan, usul. Ko‘plab xalq qo‘shiqlari, yalla va laparlar, ayniqsa maqom yo‘llari doira usuli asosida quriladi. Usul oddiy metrik o‘lchovdan farq qilib, o‘ziga xos zarb va pauzalar tizimiga ega. Shu bois dirijor uchun usulni ichdan his qilish o‘lchov sxemasini bilishdan kam ahamiyatga ega emas. Ikkinchidan, faktura. Milliy qo‘shiqlar ko‘pincha bir ovozli (unison) tarzda kuylanadi, ammo ijroda kuy bezaklar bilan boyitiladi. Bunda dirijorning asosiy vazifasi unisonning sofligi va bezaklarning jamoada bir xil ijro etilishiga erishishdir. Uchinchidan, so‘z. Aruz yoki barmoq vaznidagi she’r kuy bilan uzviy bog‘langan, shuning uchun nafas olish joylari va frazalar she’riy satr tuzilishiga tayangan holda belgilanadi.

To‘rtinchidan, cholg‘u tarkibi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ansambllar asosan o‘zbek xalq cholg‘ularidan iborat bo‘ladi. E.Toshmatov o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri boshqa xalq cholg‘ulari orkestrlaridan cholg‘ularning rang-barangligi, tembr boyligi bilan ajralib turishini, rubob va g‘ijjak kabi asosiy cholg‘ularning qopqog‘i (deka) yupqa baliq terisi bilan qoplangani sababli havo harorati ta’sirida sozi tez-tez o‘zgarib turishini ta’kidlaydi [Toshmatov E.: 137]. Demak, milliy ansambl bilan ishlovchi o‘qituvchi-dirijor cholg‘ularni sozlash va jamoa sozini nazorat qilish ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dirijorlik malakalarini milliy repertuar asosida shakllantirishning to‘rt bosqichli modelini taklif etamiz.

1. Tayyorlov-tahliliy bosqich. Talaba asarni har tomonlama tahlil qiladi: tarixiy-uslubiy jihatdan (janr, hudud, muallif yoki xalq ijodi namunasi ekanligi), musiqiy-nazariy jihatdan (lad, usul, shakl, kuy tuzilishi) va she’riy matn jihatidan. Shu bosqichda talaba asarni ovoz bilan kuylashi va doira usulini qarsak yordamida ijro etishi shart. Bu ishlarning katta qismi talabaning mustaqil ta’limi doirasida bajariladi, mustaqil ta’lim esa ijro mahoratini o‘stirishning muhim omili hisoblanadi [Ibragimova N.: 288-290].

2. Texnik bosqich. Asosiy dirijorlik sxemalari dastlab oddiy tuzilishdagi xalq qo‘shiqlari, masalan, «Boychechak», «Lola», «Navro‘z keldi» kabi namunalarda o‘zlashtiriladi. So‘ngra auftaktli boshlanuvchi lapar va yallalarga, keyinchalik usulli murakkab asarlarga o‘tiladi. Bu bosqichda doirachi bilan birgalikda mashq qilish yaxshi samara beradi: talaba usulni jonli eshitib, imo-ishorasini unga moslashtiradi.

3. Ijrochilik-talqin bosqichi. Bastakorlar asarlari hamda o‘zbek kompozitorlarining xor uchun qayta ishlagan xalq qo‘shiqlari ustida ishlanadi. Talaba asarning badiiy obrazini ochib berish, dinamika, temp va frazirovkani ongli ravishda talqin etishni o‘rganadi.

4. Pedagogik-amaliy bosqich. Talaba pedagogik amaliyot davrida maktab xori yoki sinf jamoasi bilan ishlaydi: repetitsiya rejasini tuzadi, qo‘shiqni o‘rgatish bosqichlarini belgilaydi, o‘quvchilarning ovoz imkoniyatlarini hisobga olgan holda asarni tayyorlaydi va ommaga taqdim etadi.

Ushbu modelni amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o‘rin tutadi [Ibragimova N.: 91-93]. Talabaning dirijorlik ijrosini videoga yozib olish va keyin uni o‘qituvchi bilan birgalikda tahlil qilish imo-ishoralardagi kamchiliklarni aniq ko‘rsatadi. Tajribali dirijorlar ishtirokidagi mahorat darslari, ustoz-shogird tamoyili asosidagi yakka mashg‘ulotlar (ijrochilik mahorati azaldan aynan ustoz-shogird an’analari orqali egallab kelingan [Toshmatov E.: 7]), «Xor sinfi», «Cholg‘ushunoslik», «O‘zbek xalq musiqa ijodi» fanlari bilan fanlararo aloqa ham kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

Shu bilan birga, amaliyotda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda: milliy repertuar asosidagi, maktab jamoalari imkoniyatiga moslashtirilgan xor va ansambl partituralarining yetishmasligi; dirijorlik darslari uchun ajratilgan soatlarning kamligi; talabalarning doira usullari bo‘yicha bilimlarining sustligi. Bu muammolarni hal etish dirijorlik fani mazmunini milliy musiqa xususiyatlari bilan boyitishni talab etadi.

Xulosa: O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, maktabda asosan milliy repertuar bilan ishlaydigan musiqa o‘qituvchisining dirijorlik malakalarini aynan shu repertuar asosida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘zbek musiqasining

usul, faktura, so‘z va cholg‘u tarkibi bilan bog‘liq xususiyatlari hisobga olinishi, malakalar esa tayyorlov-tahliliy, texnik, ijrochilik-talqin va pedagogik-amaliy bosqichlarda izchil shakllantirilishi lozim.

Shu munosabat bilan quyidagilarni taklif etamiz: dirijorlik fani dasturiga «Doira usullari va ularni dirijorlikda ifodalash» moduli kiritish; maktab jamoalariga moslashtirilgan milliy repertuar asosidagi xor va ansambl partituralari to‘plamini tahliliy izohlar bilan nashr etish; talabalarning dirijorlik amaliyotini maktab xorlari bilan muntazam bog‘lash; xalq cholg‘ulari orkestrlari dirijorlari ishtirokida mahorat darslarini tashkil etish. Bu ishlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish bilan birga, milliy musiqa merosimizning maktab sahnasida munosib jaranglashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibragimova N. Musiqa san’atida yangi pedagogik texnologiyalar qo‘llanilishi // Innovative achievements in science 2025. – 2025. – Vol. 4, № 45. – B. 91–93. https://interoncof.com/index.php/chelyabinsk/issue/view/275
2. Ibragimova N. Talabalarning ijro mahoratlarini o‘stirishda mustaqil ta’limning ahamiyati // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Vol. 4, № 47. – B. 288–290. https://bestpublication.net/index.php/ozfan/issue/view/120
3. Sharipova G., Xodjayeva Z. Musiqa o‘qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: NIF MSH, 2020. – 136 b.
4. Toshmatov E. Dirijorlik: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. – 264 b.
5. Колесникова Н.А. Основы теории и методики обучения дирижированию: учеб.-метод. пособие. – Владимир: Изд-во ВлГУ, 2012. – 351 с.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINI MILLIY MUSIQA MEROSI ASOSIDA KASBIY TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Ibragimova Shaxnozaxon Bahodirovna
Guliston davlat universiteti
“An’anaviy xonandalik va xalq cholg’ulari” kafedrasi stajor o‘qituvchisi
ibragimovashahnoza46@gmail.com

Annotatsiya: maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini milliy musiqa merosi asosida kasbiy tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Mumtoz va xalq musiqasini o‘rgatishda interfaol, loyihaviy va raqamli usullarni uyg‘unlashtirish yo‘llari asoslab berilgan, mavjud muammolarga yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: milliy musiqa merosi, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik texnologiya, maqom, xalq qo‘shiqlari, interfaol usul, ustoz-shogird, integratsiya.

Kirish: Milliy musiqa merosi xalqning tarixiy xotirasi, uning dunyoqarashi, estetik didi va ma’naviy qadriyatlari mujassam bo‘lgan bebaho xazinadir. Asrlar davomida og‘zaki an’ana orqali avloddan avlodga o‘tib kelgan maqom yo‘llari, xalq qo‘shiqlari, marosim aytimlari, dostonlar va cholg‘u kuylari bugungi kunda nafaqat san’atshunoslik, balki pedagogika fanining ham muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Shu bois oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini milliy musiqa merosi asosida kasbiy tayyorlash masalasi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohotlari ham aynan shu yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlaydi. Yangi tahrirdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda ta’lim sohasida eksperimental va innovatsion faoliyatni joriy etish masalalari alohida tartibga solingan. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 17-noyabrdagi qarorida esa milliy maqom san’ati «xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi» sifatida e’tirof etilib, ushbu noyob san’atni asrab-avaylash va rivojlantirish yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan [Ganiyeva I.: 3].

Biroq ko‘p yillik pedagogik faoliyatimiz davomida kuzatilgan holatlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy musiqa merosi ko‘pincha alohida axborot sifatida, tarixiy ma’lumotlar yig‘indisi tarzida o‘rgatiladi; zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa bu mazmun bilan uzviy bog‘lanmagan holda, ba’zan rasmiyatchilik uchun qo‘llaniladi. Natijada talaba maqom yoki xalq qo‘shig‘i haqida bilimga ega bo‘lsa-da, uni maktab o‘quvchisiga

qiziqarli, ta’sirchan va zamonaviy shaklda yetkazish malakasini to‘liq egallamaydi. Mazkur maqolaning maqsadi – milliy musiqa merosi mazmuni bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zaro integratsiya qilish orqali bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarga tayanildi. Musiqashunoslik, musiqa pedagogikasi va metodikasiga oid ilmiy-o‘quv adabiyotlarni o‘rganish, umumiy o‘rta ta’lim maktablari musiqa madaniyati dasturlari mazmunini qiyosiy tahlil qilish, pedagogik kuzatish va ilg‘or tajribalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Ntijalar va muhokama: Bizningcha, «milliy musiqa merosi» bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini tayyorlash nuqtayi nazaridan uch qatlamdan iborat yaxlit tizimdir: birinchidan, xalq musiqa ijodi (alla, yor-yor, o‘lan, mehnat, mavsum va marosim qo‘shiqlari, lapar va yallalar); ikkinchidan, mumtoz musiqa (Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari); uchinchidan, bastakorlik va o‘zbek kompozitorlik ijodi. Xalq kuylarining aksariyatida u yoki bu maqom pardasi, kuy tuzilishi yoki doira usuliga yaqinlik yaqqol seziladi; shu ma’noda Shashmaqomni xalq musiqa merosining o‘zagi deyish mumkin. Xalq og‘zaki musiqa ijodi ham o‘zining ko‘p qatlamliligi va seruslubligi bilan ajralib turadi, uning urf-odat va marosimlar bilan bog‘liq namunalari yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashning ta’sirchan vositasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, maktab amaliyoti bo‘lajak o‘qituvchiga aniq talablar qo‘yadi. Musiqa madaniyati fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti va dasturlarida o‘zbek xalq musiqasi namunalari, maqom va Shashmaqom, mumtoz musiqa hamda o‘zbek kompozitorlarining zamonaviy asarlari o‘rin olgan [Sharipova G., Xodjayeva Z.: 17]. Yangi dasturlarda o‘quvchilarni go‘zallikni his eta oladigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad sifatida belgilangan [Sharipova G., Xodjayeva Z.: 46-47]. Boshlang‘ich sinflardayoq «O‘zbek xalq musiqa ijodi» yil mavzusi sifatida o‘rganilishi, «Xalq aytimlari va cholg‘ulari», «Bayram va marosim qo‘shiqlari», «Mavsum qo‘shiqlari» kabi chorak mavzulari o‘tilishi [Sharipova G.: 6] o‘qituvchidan bu materialni nafaqat bilishni, balki uni mohirona ijro etish va bolaning yosh xususiyatlariga moslab tushuntira olishni talab qiladi.

Uchinchidan, yuqoridagilardan kelib chiqib, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining milliy meros bilan bog‘liq kasbiy kompetensiyasini to‘rt tarkibiy qism birligida ko‘rish maqsadga muvofiq: musiqiy-nazariy va tarixiy bilimlar; ijrochilik malakalari

(kuylash, milliy cholg‘uda chalish, jo‘rnavozlik, jamoa bilan ishlash); metodik-texnologik malakalar (darsni loyihalash, mos usul va vositalarni tanlash); ma’naviy-qadriyatli munosabat. G.Sharipova haqli ravishda bo‘lajak o‘qituvchi fortepiano bilan birgalikda o‘zbek xalq cholg‘ularida ham musiqiy asarlarni ijro eta olishi, xalq musiqa ijodi bilan chuqur tanish bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi [Sharipova G.: 3]. Bizningcha, musiqachining kasbiy tayyorgarligi keng bilimdonlik, yuksak musiqiy madaniyat, mustahkam nazariy asos va ijrochilik puxtaligi birligida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, musiqa o‘qituvchisi ziyrak va oqil pedagog-tarbiyachi ham bo‘lishi lozim, chunki sinf jamoasi bilan qo‘shiq o‘rganish, aslida, kichik xor bilan ishlash demakdir.

To‘rtinchidan, amaliyotda bir qator muammolar mavjud. Birinchi muammo – og‘zaki an’ana va nota yozuvi o‘rtasidagi tafovut. Notaga ko‘chirilgan maqom yoki xalq qo‘shig‘i ijroning nozik jihatlarini, ya’ni nola, qochirim, ovoz bezaklari va usulning jonli nafasini to‘liq aks ettira olmaydi. Ikkinchi muammo – sifatli audio va video materiallarning tarqoqligi, o‘zbek tilidagi raqamli o‘quv resurslarining yetishmasligi. Uchinchi muammo – ustoz-shogird an’anasiga xos bo‘lgan uzoq muddatli, yakkama-yakka ta’limning auditoriya soatlari doirasiga sig‘masligi. To‘rtinchi muammo – interfaol usullarning milliy meros mazmuniga moslashtirilmay, umumiy shablon tarzida qo‘llanishi.

Ushbu muammolarni hal etishda biz quyidagi pedagogik texnologiyalarni milliy meros mazmuni bilan uyg‘unlashtirishni taklif etamiz.

1. Interfaol usullar. «Klaster», «Insert», «Venn diagrammasi», «Aqliy hujum» kabi usullar milliy musiqa mazmuniga moslashtirilganda yuqori samara beradi. Masalan, «Venn diagrammasi» yordamida talabalar Buxoro Shashmaqomi va Xorazm maqomlarining tuzilishi, cholg‘u tarkibi va ijro uslubidagi umumiy hamda farqli jihatlarni aniqlaydilar; «Klaster» usulida esa «Navro‘z» mavzusi atrofida mavsum qo‘shiqlari, marosim, raqs va cholg‘ularni bir tizimga keltiradilar. Bugungi kunda ta’lim jarayoniga innovatsion va modulli texnologiyalarni joriy etish davr talabiga aylanganini ham unutmaslik kerak [Sharipova G., Xodjayeva Z.: 20-21].

2. Loyiha ta’limi. Talabalarga «Mahallamiz qo‘shiqlari», «Voham allalari» kabi mavzularda tadqiqot-loyihalar topshiriladi. Ular o‘z hududidagi keksa avlod vakillaridan xalq qo‘shiqlarini yozib oladi, notaga tushiradi, matnini sharhlaydi va maktab o‘quvchilari uchun dars ishlanmasi tayyorlaydi. Bunday ish talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etish va ijro mahoratini o‘stirishga ham xizmat qiladi [Ibragimova N.: 288-290]. Bunday loyiha talabani passiv tinglovchidan

merosning faol tadqiqotchisi va targ‘ibotchisiga aylantiradi, shu bilan birga tarix va san’atshunoslik sohalarining amaliy hamkorligini ham ta’minlaydi.

3. Keys-stadi texnologiyasi. Talabaga real pedagogik vaziyat taklif etiladi: masalan, o‘smirlar estrada qo‘shiqlariga qiziqib, maqom tinglashni zerikarli deb hisoblaydi. Talaba bu vaziyatdan chiqish yo‘llarini ishlab chiqadi – maqom yo‘lining zamonaviy ijrolari bilan qiyoslash, kuyning she’riy matni mazmunini ochib berish, o‘quvchilarni doira usulini chalishga jalb etish kabi.

4. Raqamli texnologiyalar. Multimedia taqdimotlar, audio-video arxivlar, nota muharrirlari (MuseScore, Sibelius) yordamida xalq kuylarini notaga ko‘chirish, onlayn platformalarda «teskari sinf» (flipped classroom) shaklidagi mashg‘ulotlar milliy merosni o‘rganishga yangi imkoniyatlar ochadi [Ibragimova N.: 91-93]. Bunda o‘qituvchining kompyuter va multimedia vositalaridan erkin foydalana olishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mashhur hofiz va sozandalar ijrosidagi yozuvlarni tahlil qilish notada aks etmaydigan ijro nozikliklarini anglashga yordam beradi va yuqorida qayd etilgan birinchi muammoni qisman hal qiladi.

5. Ustoz-shogird an’anasining zamonaviy talqini. Maqom ustoz sozanda va xonandalar tomonidan kelgusi avlodlarga ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab yetkazilgani [Rajabov I.: 6] bu an’ananing pedagogik qudratidan dalolat beradi. Ijrochilik mahorati asrlar davomida aynan ustoz-shogird an’anasi orqali egallab kelingan, bunda meros asarlarining ijro uslublari ma’naviy tarbiya vositasi vazifasini ham o‘tagan. Bugungi sharoitda bu an’anani mentorlik dasturlari, tajribali hofiz va sozandalar ishtirokidagi mahorat darslari, video-darslar hamda talabalarning kichik guruhlarda yuqori kurs talabalaridan saboq olishi shaklida tiklash mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, har qanday texnologiya mazmunga xizmat qilishi lozim, aksincha emas. Jonli ijro, jonli ovoz va jonli muloqot milliy musiqani o‘rgatishda birlamchi bo‘lib qoladi; texnologiya esa ana shu jonli tajribani boyituvchi, chuqurlashtiruvchi vosita xolos. Boshqa xalqlar musiqa madaniyatini chuqur anglash uchun ham talaba avvalo o‘z milliy musiqa merosini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak [Ganiyeva I.: 6]. O‘qituvchi esa pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini anglab, har bir mashg‘ulotning loyihasini tuza olishi va undan amaliyotda mohirona foydalana olishi kerak.

Xulosa: Milliy musiqa merosi bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini kasbiy tayyorlashning qo‘shimcha emas, balki o‘zak mazmuni bo‘lishi lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – interfaol usullar, loyiha ta’limi, keys-stadi, raqamli vositalar – milliy meros mazmuni bilan uzviy bog‘langandagina haqiqiy samara beradi.

Shu munosabat bilan quyidagilarni taklif etamiz: musiqiy ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejalariga «Milliy musiqa merosini o‘qitish texnologiyalari» nomli tanlov fanini kiritish; har bir pedagogika oliy ta’lim muassasasida hududiy musiqa folklorining raqamli fonotekasini yaratish; talabalarning pedagogik amaliyoti topshiriqlariga milliy meros materiallari asosida dars loyihalash vazifasini kiritish; tajribali hofiz va sozandalar ishtirokida muntazam mahorat darslarini tashkil etish. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yuksaltiribgina qolmay, milliy musiqa merosimizning yosh avlod qalbiga chuqurroq singishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxari

1. Ganiyeva I. Sharq xalqlari musiqa tarixi: darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2021. – 164 b.
2. Ibragimova N. Musiqa san’atida yangi pedagogik texnologiyalar qo‘llanilishi // Innovative achievements in science 2025. – 2025. – Vol. 4, № 45. – B. 91–93. https://interoncof.com/index.php/chelyabinsk/issue/view/275
3. Ibragimova N. Talabalarning ijro mahoratlarini o‘stirishda mustaqil ta’limning ahamiyati // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Vol. 4, № 47. – B. 288–290. https://bestpublication.net/index.php/ozfan/issue/view/120
4. Rajabov I. Maqom asoslari: qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Madaniyat vazirligi Jumhuriyat metodika xonasi, 1992. – 118 b.
5. Sharipova G. Musiqa va uni o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Turon-iqbol, 2006. – 184 b.
6. Sharipova G., Xodjayeva Z. Musiqa o‘qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: NIF MSH, 2020. – 136 b.

IKKINCHI RENESSANS DAVRIDA SAMARQANDDA MUSIQA SAN’ATI TARAQQIYOTI

Inomova M. F.
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Pedagogika-psixologiya va inkluziv ta’lim fakulteti
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Ikkinchi Renessans davrida Samarqand musiqa san’atining rivojlanishi, uning qadimiy madaniy an’analar bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilinadi. Amir Temur va temuriylar davridagi musiqiy muhit, Abdulqodir Marog‘iyning ilmiy merosi hamda maqom san’ati taraqqiyotining tarixiy asoslari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi Renessans, Samarqand, Amir Temur, temuriylar, musiqa madaniyati, milliy musiqa, sozanda, xonandalik, cholg‘u san’ati, ud, nay, arfa, Abdulqodir Marog‘iy, maqom, Duvozdah maqom, musiqiy meros.

O‘zbekiston hududida musiqa san’ati qadimdan shakllangan boy madaniy an’analarga ega. Arxeologik topilmalar, tasviriy san’at namunalari va yozma manbalar ushbu hududda cholg‘u ijrochiligi, qo‘shiqchilik va raqs san’ati uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonini bosib o‘tganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Samarqand qadimgi va o‘rta asrlarda madaniy aloqalar chorrahasida joylashgani sababli turli xalqlarning musiqiy an’analari o‘zaro ta’sirlashgan markazlardan biri bo‘lgan. Mazkur tarixiy zamin Amir Temur va temuriylar davrida musiqa madaniyatining yangi bosqichda rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Musiqa madaniyatining qadimiy ildizlarini o‘rganishda arxeologik materiallar alohida ahamiyatga ega. A. A. Asqarov tomonidan Sopollitepa yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar bronza davri moddiy madaniyati haqida muhim ma’lumotlar bergan [Asqarov, 1973, 89-b.]. Samarqand viloyatining Urgut tumani Mo‘minobod qishlog‘idagi bronza davri qabristonidan topilgan suyakdan yasalgan kichik puflama cholg‘u asbobi ham musiqa madaniyatining qadimiy tarixini o‘rganishda muhim topilmalardan biridir. Uning saqlanib qolgan uzunligi 4,2 sm bo‘lib, tashqi yuzasi silliqlangan va o‘rta qismida rombsimon teshik mavjudligi qayd etilgan [Asqarov, 1969, 59-b.]. Samarqandning qadimiy o‘rni bo‘lgan Afrosiyobdan topilgan terrakota haykalchalar va devoriy tasvirlar ham musiqiy madaniyat tarixini yorituvchi manbalar hisoblanadi. Ularda ud va arfa kabi cholg‘u asboblarini chalayotgan sozandalar, musiqachilar guruhlari hamда raqs sahnalari tasvirlangan. Mazkur tasvirlar qadimgi Samarqandda musiqa va raqs san’ati ijtimoiy hamda madaniy hayotning muhim tarkibiy qismi bo‘lganini ko‘rsatadi [Berdimurodov, 2020, 74-b.]. Ilk o‘rta asrlarda Sug‘d musiqa va raqs an’analari mintaqalararo madaniy aloqalarda muhim o‘rin egallagan. Samarqand va uning atrofidagi madaniy markazlardan yetishib chiqqan

sozanda hamda raqqoslar Sharq mamlakatlarida ham tanilgan. Xitoy manbalarida sug‘diy musiqachilar va raqqoslarning Tan sulolasi davridagi saroy madaniyatida ishtirok etgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, Samarqand, Kesh va Maymurg‘dan Xitoyga borgan ijrochilar haqidagi xabarlar Sug‘d musiqa san’atining xalqaro madaniy aloqalardagi mavqeyini ko‘rsatadi [Berdimurodov, 2020, 75–76-b.]. Xitoy hududidan topilgan sug‘diy aslzodalarga oid dafn yodgorliklaridagi tasvirlarda ham cholg‘uchilar va raqqoslar aks etgan. Ularda ud, nay, arfa va zarbli cholg‘ular ishtirokidagi musiqiy ansambllarni ko‘rish mumkin. Ushbu tasvirlar sug‘diylar musiqiy madaniyatida yakka ijrochilik bilan bir qatorda jamoaviy ijro an’analari ham mavjud bo‘lganini anglatadi [Berdimurodov, 2020, 77-b.]. Biroq mazkur topilmalar bevosita temuriylar davriga emas, undan oldingi tarixiy bosqichlarga tegishli bo‘lib, XIV–XV asrlardagi musiqa taraqqiyotining qadimiy madaniy asoslarini tushunishga xizmat qiladi. XIII asr boshlaridagi mo‘g‘ullar istilosi Movarounnahrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Shaharlarning vayron qilinishi, aholi migratsiyasi va an’anaviy madaniy markazlar faoliyatining izdan chiqishi ilm-fan hamda san’at taraqqiyotida muayyan uzilishlarni yuzaga keltirdi. Shunga qaramay, mahalliy musiqa an’analari butunlay yo‘qolib ketmadi. Ular xalq ijrochiligi, og‘zaki an’analar va saroy madaniyati doirasida davom etib, keyingi davrlarda yangi tarixiy sharoitga moslashdi.

XIV asrning ikkinchi yarmida Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatning tashkil etilishi Samarqandning siyosiy va madaniy mavqeyini oshirdi. Poytaxtda me’morchilik, tasviriy va amaliy san’at, ilm-fan hamda adabiyot bilan bir qatorda musiqa san’ati ham rivojlanishi uchun qulay muhit yuzaga keldi. Turli hududlardan kelgan hunarmandlar, olimlar va san’atkorlarning Samarqandda faoliyat yuritishi madaniy an’analarning o‘zaro boyishiga xizmat qildi. Shu tariqa Samarqand temuriylar davrida Sharqning muhim madaniy markazlaridan biriga aylandi. Amir Temur va temuriylar davri musiqa madaniyatining muhim xususiyatlaridan biri saroy san’ati bilan musiqiy-nazariy tafakkur o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi edi. Musiqa faqat ko‘ngilochar vosita sifatida emas, balki saroy marosimlari, tantanalar, adabiy majlislar va ma’naviy hayotning tarkibiy qismi sifatida ham rivojlandi. Cholg‘u ijrochiligi, xonandalik va musiqiy asarlar yaratish bilan birga, kuy tuzilishi, ohang tizimlari hamda ritmik usullarni ilmiy o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Bu davr musiqa ilmining yirik namoyandalaridan biri Abdulqodir Marog‘iy (taxminan 1353–1435) hisoblanadi. U XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Yaqin va O‘rta Sharq musiqa madaniyatida muhim o‘rin egallagan bastakor, ijrochi va musiqashunos olimdir. Uning faoliyati Jaloyiriylar va temuriylar saroylaridagi madaniy muhit bilan

bog‘liq bo‘lgan. Marog‘iyning ilmiy merosi o‘sha davr musiqa nazariyasining rivojlanish darajasi, cholg‘ular tasnifi, kuy va ritm tizimlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Abdulqodir Marog‘iyning «Jome’ ul-alhon» («Jāmi‘ al-alḥān»), «Maqosid ul-alhon» («Maqāṣid al-alḥān») va «Sharh ul-advor» kabi asarlari Sharq musiqa nazariyasi tarixida alohida ahamiyatga ega. Ularda musiqiy tovushlar, pardalar, ohanglar tizimi, ritmik tuzilmalar va ijrochilikka oid nazariy masalalar yoritilgan. Ayniqsa, «Maqosid ul-alhon» asarining temuriy hukmdor Shohruxga bag‘ishlangan nusxalari mavjudligi Marog‘iy ilmiy faoliyatining temuriylar davri madaniy muhiti bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [Uslu, 2019]. Marog‘iy merosini o‘rganishda uning barcha faoliyatini faqat Samarqand bilan bog‘lash to‘g‘ri emas. U turli siyosiy va madaniy markazlarda faoliyat yuritgan, temuriylar davrida esa musiqa nazariyasining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shgan. Uning ilmiy asarlari Samarqand va Hirot singari madaniy markazlarda shakllangan musiqiy muhitni kengroq тарихий жараён доирасида баҳолаш имконини беради. Temuriylar davrida musiqa san’atining rivojlanishi maqom an’analari bilan ham uzviy bog‘liq edi. Sharq musiqa nazariyasida o‘n ikki maqom tizimi — Duvozdah maqom muhim o‘rin tutgan. Mazkur tizim musiqiy pardalar, ohang tuzilmalari va ijrochilik an’analarining nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan. XIV–XV asrlarda mavjud bo‘lgan ushbu musiqiy-nazariy meros keyingi davrlarda Markaziy Osiyo maqom san’atining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Shu o‘rinda Shashmaqomning shakllanish davrini aniq farqlash zarur. O‘n ikki maqom tizimi o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, Shashmaqomning olti maqomdan iborat yaxlit turkum sifatida shakllanishi keyingi tarixiy jarayon, xususan, XVIII asr Buxoro musiqa muhiti bilan bog‘liq. Demak, temuriylar davrini Shashmaqomning to‘liq shakllangan bosqichi emas, balki uning tarixiy-nazariy asoslari rivojlangan davrlardan biri sifatida baholash ilmiy jihatdan asosliroqdir [O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi milliy ro‘yxati, «Shashmaqom»]. Temuriylar davridagi musiqa madaniyati Samarqand bilangina cheklanmagan. Shohrux va keyingi temuriy hukmdorlar davrida Hirot ham yirik ilmiy-adabiy va musiqiy markazga aylandi. Samarqand, Hirot va boshqa shaharlardagi madaniy aloqalar musiqiy bilimlarning tarqalishi, ijrochilik tajribasining boyishi va musiqa nazariyasiga oid asarlarning yaratilishiga imkon berdi. Bu jarayon temuriylar davri madaniyatining o‘zaro bog‘liq hududiy markazlar asosida rivojlanganini ko‘rsatadi. Temuriylar davri musiqa san’atining tarixiy ahamiyati uning keyingi avlodlarga ta’sirida ham namoyon bo‘ladi. Cholg‘u ijrochiligi, mumtoz xonandalik, maqom tafakkuri va musiqa nazariyasiga oid bilimlar ustoz-shogird an’analari orqali davom etgan. Musiqiy merosning bunday uzluksizligi keyingi

asrlarda shakllangan mahalliy ijrochilik maktablari va maqom yo‘llarining rivojlanishiga zamin yaratgan. Mazkur tarixiy merosni bugungi musiqa ta’limi bilan bog‘liq holda o‘rganish ham muhimdir. Samarqandning qadimgi musiqiy an’analari, temuriylar davridagi madaniy muhit, Abdulqodir Marog‘iy asarlari va maqom nazariyasi haqidagi bilimlarni ta’lim jarayoniga kiritish yoshlarda milliy musiqa merosiga nisbatan ilmiy asoslangan munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda tarixiy davrlarni farqlash, manbalarni qiyosiy o‘rganish va musiqiy merosning uzviy rivojlanishini tushuntirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ikkinchi Renessans davrida Samarqand musiqa san’ati qadimgi va ilk o‘rta asrlarda shakllangan madaniy an’analar negizida yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Amir Temur davrida poytaxtning yirik madaniy markazga aylanishi musiqa ijrochiligi va musiqiy-nazariy tafakkur rivojlanishi uchun muhim sharoit yaratdi. Abdulqodir Marog‘iy singari musiqashunoslarning ilmiy merosi temuriylar davri musiqa madaniyatининг Sharq musiqiy tafakkuri tarixidagi o‘rnini yoritadi. Ushbu davrda rivojlangan maqom an’analari va nazariy qarashlar keyingi asrlardagi mumtoz musiqa tizimlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Samarqandning mazkur musiqiy merosini tarixiy manbalar asosida o‘rganish va zamonaviy musiqa ta’limi bilan uyg‘unlashtirish milliy madaniyatning tarixiy davomiyligini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Аскаров А. А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973.
2. Аскаров А. А. Раскопки могильника эпохи бронзы в Муминабаде // ИМКУ. – Вып. 8. – Ташкент, 1969.
3. Бердимуродов А. Э. Амир Темур ва темурийлар давлати пойтахти // Шарқ юлдузи. – 2020. – № 6.
4. Мухаммаджонов А. Р. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000.
5. Uslu R. The Makasid al-Alhan Versions of Meragi or the Books May Be Renamed? Meragi Between Timurid Shah Rukh and Ottoman Murad // Yegah Musicology Journal. – 2019. – Vol. 2. – № 1.
6. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi milliy ro‘yxati. Shashmaqom. – https://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-2/322-shashmaqom
7. UNESCO. Shashmaqom Music // Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity. – https://ich.unesco.org/en/RL/shashmaqom-music-00089
8. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент, 1996.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MUSIQA MEROSINI ASRASH VA RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Ismailova S.I.
Guliston davlat pedagogika instituti,
“Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Yulyaxshiyev Sh.N.
Guliston davlat pedagogika instituti,
San’atshunoslik kafedrasining katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida milliy musiqa merosini asrash, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazishning dolzarb masalalari yoritilgan. Milliy musiqiy qadriyatlarni zamonaviy ta’lim jarayoniga uyg‘unlashtirish, yoshlarning milliy musiqaga qiziqishini oshirish hamda merosning uzviyligini ta’minlash masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, milliy musiqa, musiqa merosi, milliy qadriyatlar, musiqa ta’limi, yoshlar, milliy o‘zlik, musiqiy tarbiya.

KIRISH. Bugungi globallashuv va axborot almashinuvi jadal rivojlanayotgan davrda har bir xalqning o‘z milliy qiyofasi, ma’naviy qadriyatlari va madaniy merosini asrab-avaylashi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, milliy musiqa xalqning tarixiy xotirasi, ruhiy kechinmalari, dunyoqarashi va ma’naviy olamini o‘zida mujassam etgan bebaho merosdir. Shu bois milliy musiqani asrash va uni kelajak avlodga yetkazish nafaqat madaniy, balki muhim tarbiyaviy vazifa ham hisoblanadi.

Globallashuv jarayonida turli xalqlar madaniyatining o‘zaro yaqinlashuvi yoshlarning musiqiy qiziqishlari va estetik qarashlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy musiqa yo‘nalishlarining keng ommalashuvi bilan bir qatorda, milliy kuy-qo‘shiqlar, an’anaviy ijrochilik va xalq cholg‘ulariga bo‘lgan qiziqishni saqlab qolish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlodning milliy musiqa merosiga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda ta’lim tizimining imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur. Milliy musiqa merosini ta’lim jarayoniga izchil singdirish orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat, estetik did va ma’naviy mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin.[6.21.] Shu nuqtayi nazardan, globallashuv sharoitida milliy musiqa merosini nafaqat saqlab qolish, balki uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish bugungi musiqa ta’limining muhim vazifalaridan biridir.Mazkur maqolada globallashuvning milliy musiqa merosiga ta’siri, uni asrash va rivojlantirish bilan bog‘liq dolzarb masalalar hamda

yosh avlodga milliy musiqiy qadriyatlarni yetkazishning samarali pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologoya. Milliy musiqa merosi xalqning ko‘p asrlik tarixi, ma’naviy dunyoqarashi va estetik tafakkurini o‘zida mujassam etgan bebaho madaniy boylikdir. Shu bois uni o‘rganish, asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish masalasi musiqa san’ati va ta’limining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi davrda milliy musiqiy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglash va ularni zamonaviy ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy musiqa merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy va uslubiy adabiyotlarda xalq qo‘shiqlari, maqom san’ati, an’anaviy ijrochilik, milliy cholg‘ular hamda musiqiy folklorning o‘ziga xos xususiyatlari keng yoritilgan. Mazkur manbalar milliy musiqaning nafaqat badiiy-estetik, balki ma’naviy-tarbiyaviy imkoniyatlari ham yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Musiqa ta’limiga oid tadqiqotlarda esa o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning samarali usullariga e’tibor qaratilgan. Mazkur yo‘nalish davlat siyosati darajasida ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga muhabbatni shakllantirish hamda yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash vazifalari belgilangan. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish ko‘nikmalarini o‘rgatish nazarda tutilgan. [1]. Ushbu huquqiy asos milliy musiqa merosini ta’lim jarayoniga kiritish shunchaki an’analarni saqlash emas, balki yosh avlodning milliy o‘zligini anglashiga, musiqiy-estetik dunyoqarashini kengaytirishiga va ma’naviy qadriyatlarga hurmatini mustahkamlashiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, tizimlilik, izchillik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi hamda ta’lim va tarbiyaning birligi tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish va pedagogik tajribalarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Globallashuvning milliy musiqa merosiga ta’siri, yoshlarning musiqiy qiziqishlaridagi o‘zgarishlar hamda milliy musiqiy qadriyatlarni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash imkoniyatlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi shundan iboratki, milliy musiqa merosi zamonaviy

taraqqiyotdan ajralgan holda emas, balki zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlikda rivojlantirilishi lozim.

Muhokama. Globallashuv jarayoni milliy musiqa merosining rivojlanishiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari orqali milliy musiqa namunalarini keng targ‘ib qilish va xalqaro miqyosda ommalashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Ikkinchi tomondan esa, ommaviy madaniyat va xorijiy musiqiy yo‘nalishlarning tez sur’atlarda tarqalishi yoshlarning musiqiy qiziqishlari va estetik qarashlariga ta’sir ko‘rsatib, milliy musiqa merosiga bo‘lgan e’tiborning susayish xavfini yuzaga keltirmoqda. Mazkur muammoning asosiy sabablaridan biri milliy musiqa merosining yoshlar uchun zamonaviy va tushunarli shakllarda yetarlicha targ‘ib qilinmayotganidir. Ayniqsa, xalq qo‘shiqlari, maqom, an’anaviy ijrochilik va milliy cholg‘ular haqidagi bilimlarning faqat nazariy tarzda berilishi o‘quvchilarning mazkur merosga nisbatan faol qiziqishini shakllantirishda yetarli bo‘lmasligi mumkin. [5.23.] Shu sababli milliy musiqa ta’limini mazmunan boyitish, uni amaliy ijrochilik va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida o‘quvchilarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularda milliy madaniyatga muhabbatni shakllantirish hamda milliy cholg‘ularda ijro etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur vazifalar milliy musiqa merosini ta’lim jarayoni bilan uzviy bog‘lashning huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlaydi. [1.] Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy musiqa merosini samarali asrash uchun uni faqat saqlash emas, balki yosh avlodning faol musiqiy faoliyatiga kiritish muhimdir. Buning uchun amaliy yechimlarni izchil bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqich — o‘rganish va diagnostika. O‘quvchilarning milliy musiqa haqidagi bilimlari, qiziqishlari va ijrochilik imkoniyatlari aniqlanadi. Bu natijalar asosida ta’lim mazmuni va metodlari belgilanadi.

Ikkinchi bosqich — ta’lim mazmunini boyitish. Musiqa mashg‘ulotlarida xalq qo‘shiqlari, maqom namunalari, milliy cholg‘ular va an’anaviy ijrochilikka oid materiallar izchil qo‘llanadi. Nazariy bilim amaliy ijro bilan mustahkamlanadi. Masalan, doira yoki dutor haqida ma’lumot berish bilan cheklanmasdan, o‘quvchilarga ushbu cholg‘ularda sodda kuylarni ijro etish imkoniyati yaratiladi.

Uchinchi bosqich — raqamli texnologiyalarni joriy etish. Milliy kuy va qo‘shiqlarning sifatli audio-video yozuvlari, elektron taqdimotlar, interaktiv topshiriqlar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish orqali milliy musiqa zamonaviy axborot muhitiga olib kiriladi. Bu usul o‘quvchining tinglash, tahlil qilish va mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

To‘rtinchi bosqich — ijodiy-amaliy faoliyat. O‘quvchilarni milliy cholg‘ularda ijro etish, xalq qo‘shiqlarini kuylash, ijodiy loyihalar yaratish, konsert, ko‘rik-tanlov va festivallarda ishtirok etishga jalb qilish orqali milliy merosni bevosita tajriba asosida o‘zlashtirishga erishiladi.

Beshinchi bosqich — targ‘ibot va monitoring. Ta’lim muassasalarida mahorat darslari, ijodiy uchrashuvlar, milliy musiqa kechalari va konsert dasturlarini tashkil etish, shuningdek, o‘quvchilarning bilim va qiziqishlaridagi o‘zgarishlarni muntazam baholab borish zarur.

Natijalar asosida ta’lim metodlari takomillashtiriladi. Shu bilan birga, globallashuv imkoniyatlaridan oqilona foydalanish ham muhimdir. Milliy musiqa namunalarini zamonaviy media vositalari orqali targ‘ib qilish, yosh ijrochilarning ijodiy loyihalarini raqamli platformalarda namoyish etish va xalqaro madaniy almashinuvlarda faol ishtirok etish o‘zbek musiqa merosining keng auditoriyaga yetib borishiga xizmat qiladi. Bunda zamonaviy shakl milliy musiqaning mazmuni va o‘ziga xosligini yo‘qotmasligi asosiy mezon bo‘lishi lozim.

Demak, bunday yondashuv milliy musiqani faqat o‘tmishdan qolgan madaniy boylik sifatida emas, balki zamonaviy yosh avlodning ma’naviy, estetik va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi tirik madaniy meros sifatida namoyon etadi. Bu esa milliy musiqa merosining bugungi avlod hayotidagi ahamiyatini yanada oshirib, uning kelajak avlodlarga munosib yetib borishiga zamin yaratadi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida milliy musiqa merosini asrash, rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazish bugungi musiqa ta’limining muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy musiqa merosini faqat saqlash bilan cheklanib qolmasdan, uni zamonaviy ta’lim texnologiyalari va innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish zarur. Musiqa darslarida xalq qo‘shiqlari, maqom namunalari, milliy cholg‘ular va an’anaviy ijrochilikni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning milliy musiqaga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy targ‘ibot vositalaridan oqilona foydalanish esa milliy musiqa merosining yoshlar orasida keng ommalashishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, an’ana va zamonaviylik uyg‘unligi milliy musiqa merosining uzviy davomiyligini ta’minlovchi

muhim omildir. Milliy musiqani ta’lim va tarbiya jarayoniga izchil singdirish orqali yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, estetik did, ma’naviy mas’uliyat va madaniy merosga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish mumkin. Bu esa milliy musiqa merosining bugungi avlod hayotidagi ahamiyatini yanada oshirib, uning kelajak avlodlarga munosib yetib borishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2021.
5. Axmedov Q.. O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti. -Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
6. Jumayev O.. Musiqa o‘qitish metodikasi. -Toshkent: Musiqa, 2019.
7. Ibrohimov.A. Musiqa ta’limi metodikasi. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. Rajabov I.. Maqomlar masalasiga doir. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
9. Yunusov.R. O‘zbek xalq musiqa ijodi. -Toshkent: Sharq, 2018.

MILLIY MUSIQA MEROSINI MUSIQA TA’LIMI JARAYONIGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

M.M.Kurbanova
Qo‘qon davlat universiteti,
Cholg‘u ijrochiligi kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya. Maqolada milliy musiqa merosini musiqa ta’limi jarayoniga integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Xalq qo‘shiqlari, maqom, folklor janrlari va milliy cholg‘ulardan foydalanish orqali o‘quvchilarning musiqiy idroki, ijrochilik ko‘nikmalari, ijodiy tafakkuri va estetik qarashlarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy musiqa namunalarini ta’lim jarayoniga kiritishning asosiy pedagogik shartlari va amaliy yo‘nalishlari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: milliy musiqa merosi, musiqa ta’limi, integratsiya, xalq musiqasi, maqom, folklor, milliy cholg‘ular, musiqiy idrok, ijrochilik, estetik tarbiya.

Milliy musiqa merosi xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviy qadriyatlari va estetik qarashlarini ifodalovchi muhim madaniy boylik hisoblanadi. O‘zbek musiqa san’atida xalq qo‘shiqlari, lapar, yalla, katta ashula, dostonchilik, maqom va cholg‘u ijrochiligi kabi janrlar shakllanib, avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Ushbu musiqiy meros namunalarini ta’lim jarayonida o‘rganish yosh avlodning milliy madaniyat haqidagi tasavvurlarini kengaytirish bilan birga, uning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

B.X. Madrimovning *O‘zbek musiqa tarixi* asarida milliy musiqa san’atining tarixiy taraqqiyoti va folklor janrlarining xususiyatlari yoritilgan [Madrimov B.X. 61-68]. A. Fitratning *O‘zbek klassik muzikasi va uning tarixi* asari esa o‘zbek mumtoz musiqa merosini tarixiy-madaniy jihatdan o‘rganishda muhim manbalardan biridir [A.Fitrat 6-15]. O. Ibrohimovning xalq musiqa ijodiga bag‘ishlangan metodik qo‘llanmasida xalq musiqasining janrlari, kuy tuzilishi va ijrochilik xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan [Ibtagimov O. 9-21].

Mazkur manbalar milliy musiqa merosini ta’limda o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ushbu merosning pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun uni faqat nazariy ma’lumot sifatida o‘rgatish yetarli emas. Milliy musiqa namunalarini tinglash, kuylash, ijro etish, tahlil qilish va ijodiy topshiriqlar bilan bog‘lash zarur. Maqolaning maqsadi milliy musiqa merosini musiqa ta’limi jarayoniga integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlarini yoritish hamda undan foydalanishning amaliy yo‘nalishlarini asoslashdan iborat.

Milliy musiqa merosini ta’lim jarayoniga integratsiyalash o‘quv mazmuni va amaliy musiqiy faoliyatni o‘zaro bog‘lashni nazarda tutadi. Bunda milliy musiqa namunasi o‘quvchiga tayyor ma’lumot berish vositasi bo‘lib qolmasdan, uning mustaqil tinglashi, mushohada yuritishi va ijodiy faoliyatini tashkil etuvchi pedagogik vositaga aylanadi. Xalq qo‘shiqlari musiqa darslarida foydalanish uchun qulay materiallardan biridir. Ularning mazmunida xalqning turmush tarzi, mehnat faoliyati, urf-odatlari va hissiy kechinmalari aks etadi. O‘quvchilar qo‘shiqlarni tinglash va kuylash orqali kuy bilan matn o‘rtasidagi munosabatni anglaydi, ritmik tuzilishni farqlaydi hamda musiqiy obrazlar haqida fikr yuritadi. O. Ibrohimovning xalq musiqa ijodiga oid qo‘llanmasida yoritilgan janr va ijro xususiyatlari bu jarayonni mazmunan boyitishga yordam beradi [Ibtagimov O. 21-49]. Masalan, xalq qo‘shig‘ini o‘rganishda o‘quvchilarga uning kayfiyatini aniqlash, matndagi obrazlarni izohlash, ritmni qarsak orqali ifodalash va turli ijro variantlarini taqqoslash topshiriqlari

berilishi mumkin. Bunday faoliyat tinglash va ijro ko‘nikmalarini tahliliy fikrlash bilan birlashtiradi.

Maqom merosidan foydalanish ham musiqa ta’limining muhim yo‘nalishidir. I. Rajabovning *Maqom asoslari* asarida maqomning nazariy va amaliy xususiyatlari yoritilgan [Rajabov I. 24-37]. Maqom namunalarini o‘rganish o‘quvchilarning ohang, lad, ritm va ijrochilik uslubi haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi mumkin. Bunda musiqiy material o‘quvchilarning yoshi va tayyorgarligiga mos tanlanishi lozim. Dastlab maqom kuylarining xarakterini tinglash, ovoz va cholg‘u tembrlarini farqlashga e’tibor qaratish, keyingi bosqichlarda esa shakl, lad-ohang xususiyatlari va ijrochilik an’analarini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Milliy cholg‘ularni ta’lim jarayoniga kiritish o‘quvchilarning musiqiy eshitishi va tembrni farqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Dutor, doira, gijjak, rubob va nay kabi cholg‘ularning ovozini tinglash, tuzilishini kuzatish va ijro usullarini o‘rganish nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan mustahkamlaydi. Oddiy ritmik jo‘rnavozlik mashqlari esa jamoaviy ijro va musiqiy hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy musiqa merosini integratsiyalashda quyidagi pedagogik shartlarga rioya qilish muhim:

1. ***Yoshga moslik*:** musiqa namunalari o‘quvchilarning idrok imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi.
2. ***Nazariya va amaliyot birligi:*** tarixiy va nazariy ma’lumotlar tinglash hamda ijro bilan bog‘lanishi.
3. ***Maqsadga muvofiq repertuar:*** musiqiy asarlar badiiy qiymati va ta’limiy imkoniyatlariga ko‘ra tanlanishi.
4. ***O‘qituvchining tayyorgarligi*:** pedagog milliy musiqa janrlari, cholg‘ular va ijrochilik an’analari haqida yetarli bilimga ega bo‘lishi.
5. ***Hududiy merosdan foydalanish:*** mahalliy kuy va qo‘shiqlarni o‘rganish orqali milliy musiqa o‘quvchilarning hayotiy tajribasi bilan bog‘lanishi.

Bundan tashqari, audio va video materiallardan foydalanish orqali turli ijrochilarning talqinlarini taqqoslash, cholg‘ular tovushini farqlash va an’anaviy ijro usullarini kuzatish mumkin. Bunday texnologiyalar bevosita tinglash va ijro faoliyatini to‘ldirishi lozim. Shu asosda musiqa darslarida milliy meros bilan ishlashni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish mumkin: ***tinglash, tahlil qilish, ijro etish, ijodiy topshiriq bajarish va natijani baholash***. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish va musiqiy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga yo‘naltirilgan.

Milliy musiqa merosini musiqa ta’limi jarayoniga integratsiyalash o‘quvchilarning musiqiy bilimlari, ijrochilik ko‘nikmalari va estetik qarashlarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyat yaratadi. Xalq qo‘shiqlari, maqom namunalari, folklor janrlari va milliy cholg‘ulardan maqsadli foydalanish musiqiy idrok, ritmni his qilish, tahlil qilish va ijodiy fikrlash faoliyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtiradi. Integratsiya samaradorligi musiqa namunalarining to‘g‘ri tanlanishi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, nazariya va amaliyot birligini ta’minlash hamda o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq. Shu sababli milliy musiqa merosini o‘rgatishda o‘quvchilarni faqat ma’lumotlarni o‘zlashtirishga emas, balki tinglash, kuylash, ijro etish, taqqoslash va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirish zarur. Milliy musiqa merosini ta’lim jarayoniga tizimli integratsiyalash milliy madaniy qadriyatlarni anglash, musiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish va an’anaviy ijrochilik tajribasining davomiyligini ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Fitrat A. *O‘zbek klassik muzikasi va uning tarixi*. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Ibrohimov O.A. *O‘zbek xalq musiqa ijodi: metodik tavsiyalar*. *1-qism*. – Toshkent, 1994.
3. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. *O‘zbek musiqasi tarixi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Madrimov B.X. *O‘zbek musiqa tarixi*. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 120 b.
5. Rajabov I. *Maqom asoslari*. – Toshkent: Musiqa, 1991. – 192 b.

ABU NASR FOROBIY MUSIQA ILMIY MEROSI VA UNI MILLIY MUSIQA TA’LIMIGA INTEGRATSIYA QILISH MASALALARI

O.R.Nazarov
Guliston davlat universiteti, Tarix kafedrasi professori
S.V.Galiyev
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Abu Nasr Forobiyning musiqa nazariyasiga oid qarashlari tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Allomaning nazariya bilan amaliyotni uyg‘unlashtirish tamoyili milliy musiqa merosini o‘qitish imkoniyatlari bilan qiyoslanib, musiqiy ta’lim jarayonida qo‘llash uchun metodik takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Forobiy, musiqashunoslik, meros, ta’lim, nazariya, amaliyot, maqom, ritm, tovush, cholg‘u, manbashunoslik, integratsiya, ijrochilik, metodika, tarix.

Kirish.O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqda shakllangan ilmiy-madaniy muhit musiqa nazariyasining mustaqil bilim sohasi sifatida taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatdi. Shu jarayonda Abu Nasr Forobiy (taxminan 870–950) musiqa hodisasini faqat badiiy ijro emas, balki tovush, ohang, ritm, cholg‘u va idrok bilan bog‘liq nazariy-amaliy tizim sifatida izohlashga intilgan mutafakkir sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning qarashlarini bugungi musiqa ta’limi bilan bog‘lab o‘rganish tarixiy merosni zamonaviy o‘quv jarayoniga mazmunli kiritish uchun ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, manbashunoslik yondashuvi va nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tayanch manba — Forobiyning «Kitob al-musiqa al-kabir» asari bo‘lib, uning birinchi ikki kitobi R. d’Erlanger tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan nashr orqali ham ilmiy muomalaga kiritilgan [Forobiy A.N.: 5–13]. Shuningdek, alloma merosini o‘rgangan G. Sawa tadqiqoti, O. Ibrohimovning maqom nazariyasiga oid qo‘llanmasi hamda I. Rajabovning maqomshunoslik asaridan foydalanildi. Qiyoslashda X asr musiqa nazariyasi bilan keyingi asrlarda shakllangan o‘zbek maqom an’analari aynan bir tizim sifatida talqin qilinmaydi; ularning tarixiy sharoiti, atamalari va o‘zgarishlari farqlab ko‘riladi.

Forobiyning musiqashunoslikdagi asosiy xizmatlaridan biri tovush va ohangni tushuntirishda eshitish tajribasi bilan mantiqiy-matematik tahlilni o‘zaro bog‘laganidadir. «Kitob al-musiqa al-kabir»ning boshlang‘ich qismlarida musiqa nazariyasi va amaliyoti, ohangning tuzilishi, musiqaning insonga ta’siri singari masalalar tizimli ko‘rib chiqiladi [Forobiy A.N.: 5–13]. Demak, uning ilmiy metodida musiqiy hodisa avval tinglanadigan va ijro etiladigan tajriba, so‘ng tahlil qilinadigan ilmiy obyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv bugungi o‘quv mashg‘ulotlarida «tinglash – kuzatish – izohlash – ijro» ketma-ketligidan foydalanish fikriga nazariy turtki beradi.

Forobiy yunon nazariy merosi bilan tanish bo‘lgan, biroq o‘z davrining musiqiy amaliyotini tushuntirishga yetarli bo‘lmagan qoidalarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqqan. U musiqiy tovushlar orasidagi nisbatlar, ohang qatorlari, ritmik tuzilmalar va cholg‘ularning akustik imkoniyatlarini alohida tahlil qilgan. G. Sawa qayd etganidek, alloma ud, tanbur, mizmar, surnay va boshqa cholg‘ularning nazariy tovush tizimini amalda hosil qilish imkoniyatlariga ham e’tibor qaratgan [Sawa G.: 223–224]. Bunda musiqiy hisob-kitob cholg‘uning real jarangidan uzilmagan; aksincha, tajribaga tayangan nazariy izohlash vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

Asarda ritm masalasiga ham katta o‘rin beriladi. Ritmik zarbalar orasidagi vaqt nisbatlari, zarbning takrorlanishi va bezatilishi kabi tushunchalar musiqa jarayonini o‘lchash hamda ifodalash zarurati bilan bog‘langan. Musiqa ritmini tushunishda vaqt o‘lchovi va eshitish tajribasining birgalikda qo‘llanishi pedagogik jihatdan muhim: o‘quvchi usulni faqat yodlab ijro etmasdan, uning takroriy bo‘laklari va o‘zgarishlarini ongli ravishda ajratishi mumkin. Bu xulosa tarixiy manbani hozirgi ta’limga tatbiq etish bo‘yicha mualliflarning metodik talqinidir; uni Forobiyning tayyor zamonaviy o‘qitish dasturi sifatida ko‘rsatish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Forobiy yashagan davrdagi Sharq musiqa ilmi keyingi asrlar nazariy tafakkuri uchun muhim ilmiy muhit yaratgan. Biroq zamonaviy o‘zbek maqomlari yoki muayyan hududiy ijro usullarini bevosita Forobiy tomonidan yaratilgan, deb baholash tarixiy dalillarni soddalashtiradi. Maqomlarning bugungi ko‘rinishlari uzoq davom etgan ijodiy, ustoz-shogirdlik va ijrochilik jarayonlari natijasida qaror topgan. I. Rajabov maqomlarning Sharq mumtoz musiqa tizimidagi tarixiy-nazariy xususiyatlarini o‘rganib, ularni murakkab taraqqiyot mahsuli sifatida tahlil etadi [Rajabov I.: 14–17].

O. Ibrohimovning «Maqom asoslari» qo‘llanmasida Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari tarix, nazariya hamda ijrochilikni o‘z ichiga oluvchi o‘quv materiali sifatida qaraladi [Ibrohimov O.A.: 3–5]. Bu tajriba Forobiy ta’limotini o‘rganishda ham foydalidir: talabalar bir mashg‘ulotda tarixiy risoladagi atamani, keyingi nazariy adabiyotdagi izohni va jonli ijrodagi hodisani qiyoslab ko‘rishi mumkin. Natijada o‘rta asrlar ilmiy merosi mavhum tarjimai hol ma’lumotlari doirasida qolmay, tarixiy manba bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mazmunga ega bo‘ladi.

Bunday o‘qitishda terminlarning tarixiy o‘zgarishini alohida tushuntirish zarur. Masalan, «parda», «ohang», «usul» va «maqom» atamalarining turli davr va maktablarda ishlatilish doirasi bir xil bo‘lmasligi mumkin. Shu bois eski nazariy matndagi tushuncha zamonaviy sozanda tiliga ko‘chirilar ekan, avvalo manba sanasi, muallifning maqsadi va mazkur tushunchaning asardagi vazifasi ko‘rsatilishi lozim. Ana shundagina tarixshunoslik bilan san’atshunoslik integratsiyasi shakliy o‘xshatish emas, dalillarga tayangan tahlilga aylanadi.

Forobiy merosini ta’limga kiritish uchun to‘rt bosqichli o‘quv modeli taklif etiladi. Birinchi bosqich – manba bilan tanishish: o‘qituvchi «Kitob al-musiqa al-kabir»ning yaratilish muhiti, tadqiq etilish tarixi va asosiy ilmiy tushunchalarini qisqa parcha yoki izohlangan matn asosida tushuntiradi. Ikkinchi bosqich – tinglab qiyoslash: talabalar tovush balandligi, ohang yurishi yoki ritmik takror kabi bitta aniq

xususiyatni ijro namunasida ajratadilar. Uchinchi bosqich – amaliy mashq: tanlangan usul yoki qisqa kuy parchasi cholg‘u yoxud ovoz orqali takrorlanib, nazariy izoh bilan bog‘lanadi. To‘rtinchi bosqich – tarixiy xulosa: o‘quvchilar manbada aytilgan fikr bilan zamonaviy ijro namunasidagi o‘xshashlik va farqlarni yozma ravishda asoslaydilar.

Ushbu modelni «Sharq musiqa tarixi», «Maqom asoslari», «Musiqa nazariyasi» va «An’anaviy ijrochilik» fanlari o‘rtasida mavzulararo bog‘lanish sifatida qo‘llash mumkin. Masalan, «tovush va parda» mavzusida avval tarixiy risoladan nazariy masala ajratiladi, keyin bir cholg‘uda eshitish mashqi bajariladi va nihoyat ikki manba asosida kichik tahliliy topshiriq yoziladi. Baholashda sanalarni yodlash bilangina cheklanmay, manba mazmunini tushunish, atamani to‘g‘ri qo‘llash, tinglab ajratish va xulosani dalillash kabi mezonlar inobatga olinadi.

Amaliyotda bir qator cheklovlar mavjud. Birinchidan, tarixiy asarning arabcha matni va tarjimalari barcha ta’lim muassasalarida birdek ommalashmagan. Ikkinchidan, X asr nazariy tushunchalarini hozirgi nota, lad yoki ritm terminlari bilan mutlaq tenglashtirish anaxronizmga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, jonli ijro an’anasining ustoz-shogirdlik xususiyati faqat yozma matn orqali to‘liq berilmaydi. Shu sababdan izohli terminologik materiallar tayyorlash, ishonchli tarjima parchalarini tanlash, malakali ijrochilar ishtirokida tinglash mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda tarixchi va musiqashunos o‘qituvchilar hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Abu Nasr Forobiyning musiqa merosi o‘rta asrlar Sharq tafakkurida nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligini namoyon etuvchi muhim ilmiy manbadir. Uning tovush, ritm va cholg‘ularga doir izlanishlari musiqani ilmiy tahlil qilish an’anasining rivojini tushunishga yordam beradi. Bu merosni milliy musiqa ta’limiga kiritishda tarixiy izchillik va terminologik aniqlikni saqlash, Forobiy davri nazariyasini keyingi maqom tizimlari bilan asossiz aynanlashtirmaslik zarur.

Taklif etilgan manba tahlili, tinglash, amaliy ijro va tarixiy umumlashtirishga tayanuvchi model darslarda sinab ko‘rish uchun metodik tavsiya hisoblanadi; uning samaradorligini alohida pedagogik kuzatuv va baholash orqali aniqlash lozim. Shu tariqa Forobiy ilmiy merosini o‘rganish tarix, san’atshunoslik va musiqa ta’limi o‘rtasidagi mazmunli hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Forobiy Abu Nasr. Kitāb al-mūsīqī al-kabīr (Grand traité de la musique, Livres I et II) / fransuz tiliga tarjima R. d’Erlanger // La musique arabe. – T. I. – Paris: Paul Geuthner, 1930. – 329 p.
2. Ibrohimov O.A. Maqom asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. – 160 b
3. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San’at, 2006.
4. Sawa G. Fārābī v. Music // Encyclopaedia Iranica. – 1999. – Vol. IX, fasc. 2. – P. 223–224. – URL: https://www.iranicaonline.org/articles/farabi-v/ (murojaat sanasi: 08.10.2026).

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA MILLIY MUSIQIY MEROSNI USTOZ-SHOGIRD AN’ANASI ASOSIDA O‘ZLASHTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

S.A.Rashidov
Samarqand davlat pedagogika instituti
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya. Maqolada milliy musiqa merosini bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari tayyorgarligiga singdirishda ustoz-shogird an’anasining imkoniyatlari tahlil etiladi. An’ananing pedagogik unsurlari meros mazmunini uzatish vositasi sifatida ko‘rib chiqilib, ularni oliy ta’lim sharoitida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: milliy musiqa merosi, maqom, ustoz-shogird an’anasi, musiqa ta’limi, integratsiya, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi, mentorlik, kasbiy tayyorgarlik, ijrochilik an’anasi, repertuar, namoyish va taqlid, kognitiv shogirdlik, nomoddiy madaniy meros, oliy ta’lim, kasbiy identifikatsiya.

Kirish

Milliy musiqa merosi maktab o‘quvchisiga yetib borguncha bir necha bo‘g‘indan o‘tadi, ularning oxirgisi esa musiqa o‘qituvchisidir. Shu sababli merosni asrash masalasi ma’lum darajada o‘qituvchi tayyorlash sifatiga borib taqaladi. YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni asrash to‘g‘risidagi Konvensiyasida ham merosni asrash tushunchasi uning uzatilishini, xususan rasmiy va norasmiy ta’lim orqali uzatilishini o‘z ichiga oladi [YUNESKO, 2-modda, 3-band].

Maqom kabi og‘zaki an’anaga tayangan janrlarda bu masala alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bunday meros faqat kitob yoki nota orqali emas, tirik ijro va ustoz bilan muloqotda yashaydi. T.Levin Markaziy Osiyo maqom an’anasida ustoz-shogird

munosabatlari uzatishning asosiy mexanizmi bo‘lganini, sovet davrida esa bu mexanizm institutsional o‘zgarishlarga uchraganini ko‘rsatgan [Levin]. Bugungi oliy ta’limda meros mazmuni kredit-modul tizimi doirasida, aniq soatlarga bo‘lingan fanlar orqali beriladi. Maqolaning maqsadi – ustoz-shogird an’anasining pedagogik unsurlarini milliy musiqa merosini bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligiga singdirish vositasi sifatida ko‘rib chiqish va ularni oliy ta’lim sharoitida qo‘llash yo‘nalishlarini ko‘rsatishdir.

Meros mazmuni va uzatish shaklining birligi

An’anada nima o‘rgatilishi va qanday o‘rgatilishi bir-biridan ajralmaydi. Shogird kuyning o‘zini emas, uni ijro etish uslubini – nafas olish, ohangni bezash, ritmik erkinlik kabi nozikliklarni – ustoz bilan birga ijro etib o‘zlashtiradi. Bunday nozikliklarni nota yozuvi to‘liq ifodalay olmaydi. Shu bois merosni faqat darslik va nota to‘plamlari orqali berish uning eng nozik qismini – ijro uslubini – tushirib qoldirish xavfini tug‘diradi. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun bu masala ikki tomonlama ahamiyatga ega: u merosni o‘zi ijro eta olishi ham, o‘quvchiga o‘rgata olishi ham kerak.

An’ana unsurlarining meros bilan bog‘liqligi

Ustoz-shogird an’anasining to‘rt pedagogik unsurini meros bilan ishlash nuqtai nazaridan quyidagicha ko‘rish mumkin.

1) **Namoyish va taqlid** – ijro uslubini uzatish yo‘li. Mentor ijro namunasini bevosita ko‘rsatadi, talaba uni tinglaydi, takrorlaydi va o‘z ijrosida sinab ko‘radi.

2) **Individual hamrohlik** – repertuarni talabaning ovoz yoki cholg‘u imkoniyati va tayyorgarligiga moslab tanlash, u bilan uzoq muddat ishlash imkoniyati.

3) **Mas’uliyatni bosqichma-bosqich topshirish** – meros bilan ishlashning chuqurlashib borishi: tinglovchi, ansambl a’zosi, yakka ijrochi va nihoyat o‘zgalarga o‘rgatuvchi. Oxirgi bosqich – shogirdning ustozga aylanishi – aynan o‘qituvchi tayyorlashning maqsadiga mos keladi.

4) **Ma’naviy-axloqiy uzatish** – merosga qadriyat sifatida munosabatni shakllantirish: ustozlar silsilasiga hurmat, an’anaga mas’uliyat hissi va shu asosda kasbiy identifikatsiya.

Zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan uyg‘unligi

Bu unsurlar zamonaviy nazariyalar orqali ham tavsiflanishi mumkin. A.Kollinz, J.Braun va S.Nyumenning kognitiv shogirdlik modeli namoyish, yo‘l-yo‘riq va tayanch berishni fikrni bayon etish hamda refleksiya bilan to‘ldirishni taklif etadi [Collins va boshq., 453–494-b.]. J.Leyv va E.Venger esa o‘rganishni amaliyot

jamoasiga qo‘shilish jarayoni deb ta’riflaydi: yangi kelgan kishi jamoaning chekkasidan boshlab, asta-sekin markazga o‘tadi [Lave, Wenger]. Ustoz atrofidagi shogirdlar davrasi yoki ijro ansambli bu tasvirga mos keladi. Musiqadan yakka tartibdagi mashg‘ulotlarni o‘rgangan tadqiqotlar ham shaxsiy munosabat va individual moslashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi [Gaunt, 215–245-b.].

Farq shundaki, an’anada ijroni izohlash nisbatan kam uchraydi, o‘qituvchi tayyorlashda esa bu ko‘nikma zarur: bo‘lajak o‘qituvchi bilganini boshqalarga tushuntira olishi kerak. Shu bois namoyishni izoh va refleksiya bilan to‘ldirish lozim.

Oliy ta’limda qo‘llash yo‘nalishlari

Yuqoridagi tahlilga tayanib, quyidagi yo‘nalishlarni taklif etamiz.

1) **Meros yo‘nalishlari bo‘yicha mentor biriktirish.** Talabaga yoki kichik guruhga meros yo‘nalishi bo‘yicha mentor belgilanib, hamkorlik bir necha semestrga yoyiladi.

2) **Ijro jamoasida ishtirok.** Ansambl yoki ijro guruhida talaba bosqichma-bosqich tinglovchidan yetakchi ijrochigacha o‘tadi.

3) **Repertuar portfeli.** Talaba o‘zlashtirgan meros namunalari ijro yozuvlari va o‘z izohlari bilan portfelda jamlanadi.

4) **«Shogirddan ustozga» bosqichi.** Pedagogik amaliyotda talaba meros elementini maktab darsiga kiritishni mentor bilan birga rejalashtiradi va natijani tahlil qiladi.

5) **Mentorlarni tayyorlash.** Mentor o‘z ijro uslubini izohlay olishi uchun qisqa metodik tayyorgarlikdan o‘tishi kerak; xalqaro sharhda mentorlik natijasi mentor tayyorgarligiga bog‘liqligi qayd etilgan [Hobson va boshq., 207–216-b.].

Bu yo‘nalishlar nazariy xarakterga ega, ularning samaradorligi pedagogik tajriba-sinovda tekshirilishi lozim. Amaliyotga joriy etishda an’ananing shaxsiy va uzoq muddatli tabiatini rasmiy talablar ostida yo‘qotmaslik muhim.

Xulosa

Ustoz-shogird an’anasi milliy musiqa merosini bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari tayyorgarligiga singdirishda uch imkoniyat beradi: ijro uslubini bevosita uzatish, meros bilan ishlashni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish va merosga qadriyat sifatida munosabatni shakllantirish. Oliy ta’limda bu imkoniyatlardan foydalanish uchun an’anani zamonaviy mentoring tushunchalari – refleksiya, aniq bosqichlar va mentor tayyorgarligi – bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Collins A., Brown J.S., Newman S.E. Cognitive apprenticeship: Teaching the crafts of reading, writing, and mathematics // Resnick L.B. (Ed.). Knowing, Learning, and Instruction. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1989. – P. 453–494.
2. Gaunt H. One-to-one tuition in a conservatoire: The perceptions of instrumental and vocal students // Psychology of Music. – 2008. – Vol. 36, No. 2. – P. 215–245.
3. Hobson A.J., Ashby P., Malderez A., Tomlinson P.D. Mentoring beginning teachers: What we know and what we don’t // Teaching and Teacher Education. – 2009. – Vol. 25, No. 1. – P. 207–216.
4. Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991.
5. Levin T. The Hundred Thousand Fools of God: Musical Travels in Central Asia (and Queens, New York). – Bloomington: Indiana University Press, 1996.
6. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. – Paris, 2003.

MUSIQA TARBIYA VA IJTIMOIY ONG: PEDAGOG KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Ro‘ziyeva Munisa G‘anijon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Musiqa ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Nuraliyeva Zuhra Anvarovna**
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi o‘qituvchisi
e-mail: Zukhranuraliyeva9515@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqiy tarbiyaning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi o‘rni, pedagog kadrlar salohiyatini oshirishning dolzarb masalalari hamda zamonaviy ta’lim tizimida uchrayotgan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, musiqa ta’limining innovatsion yondashuvlari, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari va amaliy takliflar bayon etiladi. Maqolada musiqiy tarbiyaning yosh avlod ma’naviy-axloqiy kamolotidagi ahamiyati, milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishdagi imkoniyatlari hamda musiqa o‘qituvchisining zamonaviy pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: musiqiy tarbiya, ijtimoiy ong, pedagog kadrlar, ta’lim tizimi, madaniyat, estetik tarbiya, kasbiy rivojlanish, musiqa pedagogikasi, ijodkorlik, milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya, san’at ta’limi, pedagogik mahorat, musiqa savodxonligi, madaniy meros.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, ta’lim va tarbiyaning uzviyligi shaxsning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. I.A.Karimov ta’lim va tarbiya munosabati haqida “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”[1] deya ta’kidlagan.

Musiqiy tarbiya ham mazkur yaxlit pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U o‘quvchilarda nafaqat estetik did va musiqiy qobiliyatni, balki ma’naviy qadriyatlar, jamoaviylik, o‘zaro hurmat, milliy madaniyatga daxldorlik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Musiqa insonning hissiy olamiga bevosita ta’sir qiluvchi san’at turi bo‘lgani sababli, undan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, musiqa ta’limining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogning kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish qobiliyatiga bog‘liq. Bugungi ta’lim tizimida pedagogdan faqatgina o‘z fanini yaxshi bilish emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy metodlarni egallash ham talab qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bilan bir qatorda, zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishning huquqiy asoslari belgilangan [2].

Musiqiy tarbiyaning ijtimoiy ongga ta’siri. Musiqiy tarbiya jamiyatning ma’naviy-madaniy hayotida muhim o‘rin egallaydi. Musiqa insonning estetik didini shakllantirish bilan bir qatorda, uning hissiy dunyosi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, milliy musiqa namunalaridan ta’lim jarayonida foydalanish o‘quvchilarda tarixiy-madaniy merosga hurmat va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini rivojlantiradi.[1].

I.A.Karimovning ma’naviyat masalalariga bag‘ishlangan asarida ma’naviyatning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni keng yoritilgan. Asarda ta’lim-tarbiya tizimi ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.[1].

Musiqiy tarbiyaning ijtimoiy ongga ta’sirini bir necha asosiy yo‘nalishda ko‘rish mumkin. Birinchidan, musiqa milliy qadriyatlar va madaniyatni

shakllantirishga xizmat qiladi. Milliy qo‘shiqlar, xalq kuylari, maqom, mumtoz musiqa namunalari va zamonaviy bastakorlik asarlari orqali o‘quvchilar xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlari bilan tanishadilar. Ikkinchidan, musiqiy tarbiya axloqiy tarbiyani kuchaytiradi. Mazmunida ezgulik, Vatanga muhabbat, do‘stlik, insonparvarlik va mehr-oqibat g‘oyalari aks etgan musiqiy asarlar o‘quvchilarning ijobiy axloqiy qarashlarini rivojlantirishga yordam beradi. Uchinchidan, musiqa insonning hissiy va ruhiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Musiqani tinglash, kuylash va ijro etish jarayonida o‘quvchi turli hissiy holatlarni boshdan kechiradi. Bu esa uning estetik idroki va hissiy madaniyatini rivojlantiradi. To‘rtinchidan, qo‘shiq kuylash va ansambl faoliyati jamoaviylikni rivojlantiradi. Birgalikda kuylash jarayonida o‘quvchilar bir-birini tinglash, umumiy ritmga amal qilish, hamkorlik qilish va o‘zaro mas’uliyatni his etishga o‘rganadilar. Beshinchidan, musiqa ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Musiqiy asarni tinglash va tahlil qilish, uning mazmuni, xarakteri, janri va ifoda vositalarini aniqlash o‘quvchidan mustaqil fikrlashni talab etadi [4].

Shunday qilib, musiqiy tarbiya faqat musiqa bilimlarini berish bilan cheklanmaydi. U shaxsning ma’naviy, estetik, axloqiy va ijtimoiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish zarurati. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning kasbiy salohiyati ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi bilan bir qatorda, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va interfaol metodlardan foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur [5; 6-b.].

Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida mamlakat taraqqiyotida ta’lim va inson kapitalining ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan.[3] Mazkur yondashuv pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirib borish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Zamonaviy musiqa o‘qituvchisi quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq: musiqiy-nazariy bilimlar; vokal-xor ko‘nikmalari; cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha amaliy malaka; pedagogik va metodik kompetensiya; raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasi; innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash qobiliyati; ijodiy fikrlash; o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; kommunikativ kompetensiya.

Musiqa o‘qituvchisi dars jarayonida audio va video materiallar, multimedia taqdimotlari, elektron nota dasturlari, interfaol topshiriqlar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishi mumkin [3; 43-b.]. Bunday yondashuv o‘quvchilarning

darsga qiziqishini oshirish bilan birga, ularning mustaqil ishlash imkoniyatlarini ham kengaytiradi.Pedagogning doimiy o‘z ustida ishlashi uning kasbiy rivojlanishining muhim shartidir. Shu jihatdan malaka oshirish, tajriba almashish, ochiq darslarda ishtirok etish, ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish va zamonaviy pedagogik tajribalarni tahlil qilish samarali natija beradi [5].

Pedagog kadrlar faoliyatida uchrayotgan zamonaviy muammolar. Hozirgi kunda musiqa ta’limi tizimida pedagog kadrlar faoliyatiga ta’sir ko‘rsatayotgan bir qator muammolar mavjud. Birinchi muammo - raqamli texnologiyalardan yetarlicha foydalanilmasligi. Bugungi kunda musiqa darslarida audio-video materiallar, elektron resurslar, virtual cholg‘ular va nota dasturlaridan foydalanish katta pedagogik imkoniyat yaratadi. Biroq ayrim hollarda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmaganligi bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qiladi. Ikkinchi muammo - pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq masalalar [4; 23-b.]. Zamonaviy ta’lim sharoitida bir marta olingan bilim va ko‘nikmalar uzoq muddat davomida yetarli bo‘lib qolmaydi. Pedagog doimiy ravishda yangi metodlar, texnologiyalar va ilmiy-metodik yondashuvlarni o‘zlashtirib borishi kerak. Uchinchi muammo - musiqa fanining tarbiyaviy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmasligi. Ayrim hollarda musiqa darsi faqat qo‘shiq kuylash yoki musiqiy asarni tinglash bilan chegaralanib qolishi mumkin. Aslida esa musiqa darsi o‘quvchilarning ma’naviy, estetik va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlaydigan kompleks pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. To‘rtinchi muammo - moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi. Musiqa ta’limining samaradorligi cholg‘u asboblari, audio texnika, multimedia vositalari va tegishli o‘quv resurslari bilan ta’minlanganlik darajasiga ham bog‘liq. Beshinchi muammo - an’anaviy va innovatsion metodlarning uyg‘unlashtirilmasligi. Milliy musiqa pedagogikasida shakllangan an’anaviy usullar katta tarbiyaviy va pedagogik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ularni zamonaviy interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishi mumkin. Muammolarni bartaraf etishning asosiy yo‘nalishlari. Musiqa ta’limidagi mavjud muammolarni hal etish uchun, avvalo, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirish tizimini kuchaytirish lozim. Buning uchun quyidagi yo‘nalishlarni taklif etish mumkin:

Musiqa o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish. Pedagoglarni multimedia, elektron ta’lim resurslari va musiqa dasturlaridan foydalanishga o‘rgatish. Amaliy yo‘naltirilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Kurslarda faqat nazariy ma’lumot berish bilan cheklanmasdan, ochiq darslar, mahorat darslari va amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish. Innovatsion pedagogik metodlarni

musiqa darslariga joriy etish. Klaster, aqliy hujum, FSMU, loyiha metodi, guruhlarda ishlash, muammoli ta’lim kabi metodlardan foydalanish. Milliy musiqa merosidan samarali foydalanish. Xalq qo‘shiqlari, maqom, mumtoz musiqa va milliy cholg‘ularni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda ta’lim jarayoniga kiritish. Ijodiy pedagogik muhitni shakllantirish. O‘quvchilarning mustaqil ijodiy ishlari, vokal ansambllar, xor jamoalari, musiqiy loyihalar va ijodiy tanlovlarni rivojlantirish. Pedagoglar o‘rtasida tajriba almashishni kuchaytirish. Metodik seminarlar, ochiq darslar, mahorat mashg‘ulotlari va ilmiy-amaliy konferensiyalarni muntazam tashkil etish [6; 34-b.].

Xulosa qilib aytganda musiqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Musiqa insonning ichki dunyosini boyitish, estetik didini rivojlantirish, ma’naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash imkonini beradi.

I.A.Karimovning ta’lim va tarbiyaning uzviyligi haqidagi “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi” degan fikri mazkur masalaning pedagogik mohiyatini yaqqol ifodalaydi [1]. Ushbu fikr musiqa ta’limiga ham bevosita taalluqli bo‘lib, musiqa darsining ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarini birgalikda olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Maqolada ko‘rib chiqilgan muammolar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy tarbiyaning samaradorligi bevosita pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatiga bog‘liq. Zamonaviy musiqa o‘qituvchisi an’anaviy musiqiy-pedagogik tajribani zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtira olishi zarur. Shu sababli pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash, zamonaviy metodikalarni amaliyotga joriy etish, musiqa darslarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va milliy musiqa merosidan samarali foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - 176 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - 464 b.
4. Abdurahmonov Q. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent, 2020.
5. Sayfullayeva R. Musiqa ta’limi metodikasi. - Toshkent, 2019.

6. Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari bo‘yicha ilmiy-metodik materiallar.

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARINI TAKOMILLASHTIRISH: TARIXIY ILDIZLAR, XX ASR TAJRIBASI VA MILLIY O‘ZIGA XOSLIKNI SAQLASH MUAMMOSI

X.F.Shukurjonova
Guliston davlat universiteti
“An’anaviy xonandalik va xalq cholg‘ulari ” kafedrasi o‘qituvchisi,
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi,

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularini takomillashtirish jarayoni Forobiy qarashlari, XX asrdagi xalq ustalari izlanishlari va A.Petrosyans laboratoriyasi faoliyati asosida tarixiy-qiyosiy tahlil qilinadi. An’anaviy va takomillashtirilgan dutor tovushqatorlari qiyoslanib, milliy o‘ziga xoslikni saqlash bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: xalq cholg‘ulari, cholg‘usozlik, rekonstruksiya, takomillashtirish, temperatsiya, tovushqator, parda, nimparda, dutor, tanbur, g‘ijjak, Forobiy, Usmon Zufarov, A.Petrosyans.

KIRISH

Cholg‘u asbobi xalq musiqiy tafakkurining moddiy ifodasidir: uning shakli, tembri va parda tizimi sozanda, sozgar va tinglovchilarning ko‘p asrlik tajribasida saralanib, sayqallanib boradi. O.Matyoqubov ta’kidlaganidek, “cholg‘ularda o‘rnashib qolgan parda (tovushqator)lar esa ijrochi va tinglovchilarning ko‘p avlodlari tomonidan uzoq tajriba jarayonida saralangan amaliy tizim”dir [Matyoqubov O: 271]. Shu bois cholg‘uning tuzilishiga kiritilgan har qanday o‘zgarish faqat texnik masala bo‘lib qolmay, musiqiy an’ananing o‘ziga ham daxldor bo‘ladi.

XX asrda o‘zbek xalq cholg‘ularining turdosh oilalari yaratildi, ko‘p ovozli orkestr shakllandi, dastali cholg‘ularga 12 bosqichli teng temperatsiyalangan tovushqator o‘rnatildi. Bu jarayonga bir xil baho berilmaydi: bir guruh tadqiqotchilar unda ijrochilik imkoniyatlarining kengayishini ko‘rsa, boshqalari milliy nola va nimpardalarning yo‘qolishidan xavotir bildiradi [Rahmonov U.K: 85].

Maqolaning maqsadi – mavjud manbalar asosida cholg‘ularni takomillashtirish jarayonini tarixiy ildizlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish, uning natijalarini qiyosiy baholash va milliy o‘ziga xoslikni saqlash yo‘llarini belgilashdir. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik va organologik tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Forobiyning «Kitob al-musiqa al-kabir» asari tarjimasi, A.Liviyev, O.Matyoqubov, U.Rahmonov va A.Tashmatova tadqiqotlari hamda 1955-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq cholg‘u musiqasi” to‘plami olindi.

1. TAKOMILLASHTIRISH AN’ANASINING TARIXIY ILDIZLARI

Arxeologik va tasviriy manbalar O‘rta Osiyoda cholg‘usozlik juda qadimdan rivojlanganini ko‘rsatadi: devoriy rasmlar, sopol haykalchalar va miniatyuralar milodiy VII asrdayoq damli-urma va torli-mizrobli cholg‘ulardan iborat ansambllar mavjud bo‘lganidan dalolat beradi [Rahmonov U.K: 3]. Ud tipidagi ikki torli cholg‘ular tasvirlari Xorazm, So‘g‘d va Baqtriyadan topilgan [Matyoqubov O: 271].

Cholg‘ularni ilmiy o‘rganishning nazariy asoslari Abu Nasr al-Forobiy (873–950) nomi bilan bog‘liq. Olim “Katta musiqa kitobi”da O‘rta Osiyo, Eron va arab dunyosida keng tarqalgan cholg‘ular haqida batafsil ma’lumot beradi [Abu Nasr al-Forobiy: 10]. K.Zaks va E.Hornbostel fikricha, aynan shu asarda birinchi marta cholg‘u sozlarining ilmiy tasnifi bayon etilgan va Forobiy asbobshunoslik (organologiya) faniga asos solgan [Matyoqubov O: 272].

Forobiyning o‘zi ham ud va qonunni takomillashtirishda katta ijodiy ishlar olib borgan [Abu Nasr al-Forobiy: 15]. Olim Xuroson tanburi dastasidagi pardalarni «mukammal va ratsional intervallar» namunasi sifatida keltiradi; Matyoqubovning xulosasiga ko‘ra, bu cholg‘uning tovushqatori, parda tuzilmasi va diapazoni o‘zbek dutorlariga juda yaqin [Matyoqubov O: 277]. Demak, tarixan cholg‘uni takomillashtirish o‘zbek musiqa madaniyatiga yot bo‘lmagan, biroq u an’ananing o‘z parda mantiqi doirasida amalga oshirilgan.

2. XX ASRNING 20–30-YILLARI: XALQ USTALARINING IZLANISHLARI

XX asr boshida musiqa ijrochiligi xonadon davrasidan katta sahna, radio va konsert zallariga ko‘chdi. Xona sharoitiga mo‘ljallangan milliy cholg‘ular katta sahnada davr talabiga javob bermay qoldi [Tashmatova A: 78-79]. Shu sababli dastlabki izlanishlarning maqsadi cholg‘u sadosini kuchaytirish va diapazonni kengaytirish bo‘ldi.

Bu yo‘nalishda birinchi tashabbus hofiz Shorahim Shoumarov (1876–1958)ga tegishli: u g‘ijjak kosasini turli materiallardan yasab, oxir-oqibat tut yog‘ochidan yarim shar shaklida o‘yilgan kosani eng ma’qul deb topgan [Tashmatova A: 79-80]. Xorazmlik sozanda Matyusuf Xarratov (1889–1953) changning yuqori registrini

qo‘shimcha torlar hisobiga kengaytirdi [Tashmatova A: 81]. Usta Usmon Zufarov (1894–1981) dutor va tanbur qopqog‘i ostiga aks-sado beruvchi simlar tortib tajriba qildi [Tashmatova A: 84] va Yunus Rajabiy bilan hamkorlikda dutor-bas, g‘ijjak-bas va g‘ijjak-alt namunalarini yaratdi [Rahmonov U.K: 77].

Bu bosqichda ustalar cholg‘uni an’ananing o‘z imkoniyatlari doirasida yangiladilar: tovushqatori, sozlanishi va yasash usuli an’anaviyligicha qolgan cholg‘ular yaratildi [Liviyev A: 14]. Shu bilan birga, ular bu yo‘lning chegarasini ham sezgan. Usta Usmon 1939-yilda shunday yozadi: “Men yaratgan ko‘plab cholg‘u asboblari o‘zbek klassik kuyi – “Shashmaqom”ni ijro etishga yaraydi, biroq ravnaq topayotgan zamonaviy san’at talablariga javob berolmaydi” [Liviyev A: 14].

3. A.PETROSYANS RAHBARLIGIDAGI TIZIMLI REKONSTRUKSIYA

Cholg‘ularni takomillashtirish masalasi ilk bor V.M.Belyayevning 1933-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq cholg‘ulari” kitobida ilmiy muammo sifatida ko‘tarildi [Liviyev A: 16]. Amaliy ishlar 1935-yilda A.I.Petrosyans rahbarligida boshlandi; 1938-yilda takomillashtirilgan cholg‘ular negizida nota bo‘yicha ijro etuvchi xalq cholg‘ulari orkestri tuzildi [Liviyev A: 18], 1943-yilda esa maxsus tajriba ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tashkil etildi [Liviyev A: 19].

A.Petrosyans dastali cholg‘ularni modernizatsiyalashda besh vazifani belgiladi: diatonik tovushqatorni 12 bosqichli teng temperatsiyalangan xromatik tovushqator bilan almashtirish, cholg‘ular oilasini yaratish, tovush sifati va diapazonni yaxshilash, ijrochilikni qulaylashtirish hamda yangi texnologiyani qo‘llash [Tashmatova A: 97].

Laboratoriya faoliyati yillarida mavjud sozlarning 14 dan ziyod turi takomillashtirildi va ular negizida 50 dan ortiq yangi soz yaratildi [Liviyev A: 6]. Dutor, rubob, g‘ijjak, qo‘biz va changning prima, alt, bas, kontrabas kabi turdosh oilalari paydo bo‘ldi [Tashmatova A: 100]. Takomillashtirishgacha xalq cholg‘u ansamblida 44 tovush (4,4 oktava) ishlatilgan bo‘lsa, takomillashtirilgan orkestrda bu ko‘rsatkich simfonik orkestr darajasiga – 80 tovush (6,5 oktava)ga yetdi [Liviyev A: 22].

4. QIYOSIY TAHLIL: TOVUSHQATOR VA MILLIY O‘ZIGA XOSLIK

Rekonstruksiyaning milliy ijrochilikka ta’sirini eng aniq ko‘rsatadigan dalil – tovushqatorlarning qiyosidir. A.Liviyev an’anaviy va takomillashtirilgan dutorlar tovushqatorini sentlarda (1 sent = yarim tonning 1/100 qismi) keltiradi [Liviyev A: 19]; quyidagi jadvalda shu asosda har bir pog‘onadagi farq hisoblandi.

1-jadval. Takomillashtirilgan va an’anaviy dutor tovushqatorlarining qiyosi (sentlarda; «—» – an’anaviy dutorda mos parda yo‘q)

I oktava	II oktava

Takomillashtirilgan	An’anaviy	Farq	Takomillashtirilgan	An’anaviy	Farq
0	0	0	1300	—	—
100	90	−10	1400	1404	+4
200	204	+4	1500	1543	+43
300	294	−6	1600	—	—
400	408	+8	1700	1698	−2
500	498	−2	1800	—	—
600	—	—	1900	1902	+2
700	702	+2	2000	—	—
800	792	−8	2100	2041	−59
900	906	+6	2200	—	—
1000	996	−4	2300	2245	−55
1100	1110	+10	2400	2400	0
1200	1200	0			

Manba: [Liviyev A: 19] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldan uchta xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, ikki oktavada takomillashtirilgan dutorda 25 ta, an’anaviy dutorda esa 19 ta tovush bor [Liviyev A: 19]: an’anaviy sozda pardalar xromatik qator emas, balki kuy amaliyoti uchun zarur pog‘onalardan tashkil topgan. Ikkinchidan, birinchi oktavadagi an’anaviy qiymatlar kvarta-kvinta munosabatlariga asoslangan intervallarga mos keladi va farq 2–10 sentdan oshmaydi. Uchinchidan, ikkinchi oktavada 1543, 2041 va 2245 sentli pardalar temperatsiyalangan pog‘onalardan 43–59 sentga, ya’ni deyarli chorak tonga farq qiladi; bunday tovushlar temperatsiyalangan dastada ifodalanmaydi.

Aynan shu nuqtada milliy o‘ziga xoslik muammosi yuzaga chiqadi. U.Rahmonov teng yarim pardaga asoslangan cholg‘ularda nimpardalarni chalish imkoniyati pastligi milliy qochirim va “nola”larni ifodalashni qiyinlashtirishini ta’kidlaydi [Rahmonov U.K: 85]. Uning kuzatishicha, dutor va tanburning “Bayot” va “Chorgoh” kabi an’anaviy sozlash usullari deyarli unutilgan [Rahmonov U.K: 81]. Bu xavf rekonstruksiya jarayonida ham sezilgan: professor B.A.Struve 1946-yilda alt va tenor-bas g‘ijjaklar “ko‘p jihatdan milliy jilo, ya’ni koloritni yo‘qotganlar” deb yozgan [Rahmonov U.K: 76].

Ikkinchi tomondan, rekonstruksiyaning ijobiy natijalarini ham inkor etib bo‘lmaydi. T.N.Qoriniyoziy yozganidek, “rekonstruksiyalangan cholg‘uda o‘zbek ijrochilik uslubining o‘ziga xosligini buzmagan holda har qanday ko‘p ovozli asarni notalar bo‘yicha ijro etish mumkin” [Liviyev A: 24]. Musiqa ta’limi tizimi, orkestr ijrochiligi va o‘zbek kompozitorlik ijodi aynan shu cholg‘ular asosida shakllandi.

Muhimi, rekonstruksiya an’anaviy sozlarni siqib chiqarmadi: ular og‘zaki an’anadagi amaliyotda hozir ham qo‘llanmoqda [Liviyev A: 16]. Buni 1949–1953-

yillarda Usta Olim Komilov, Abduqodir Ismoilov kabi sozandalardan yozib olingan asarlar to‘plami ham tasdiqlaydi [O‘zbek xalq cholg‘u musiqasi: 5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, cholg‘ularni takomillashtirish o‘zbek musiqa madaniyatiga tarixan xos jarayon bo‘lib, Forobiy davridan an’ananing o‘z parda mantiqi doirasida kechgan. Ikkinchidan, XX asr tajribasi ikki bosqichdan iborat: xalq ustalarining ichki izlanishlari hamda Yevropa orkestr modeliga asoslangan tizimli rekonstruksiya. Uchinchidan, temperatsiya ikkinchi oktavada chorak tonga yaqin milliy pardalarni yo‘qotgan. To‘rtinchidan, bugun og‘zaki-an’anaviy va yozma-akademik yo‘nalishlar yonma-yon yashamoqda.

1) Usta Usmon Zufarov yasagan 21-sonli dutor [Tashmatova A: 90] kabi etalon cholg‘ularning parda tizimini akustik usullar bilan o‘lchab, ilmiy pasportini yaratish;

2) “Bayot”, “Chorgoh” kabi unutilib borayotgan an’anaviy sozlash usullarini ustoz sozandalar ijrosida audio va nota shaklida hujjatlashtirish;

3) oliy va o‘rta maxsus musiqa ta’limida an’anaviy hamda takomillashtirilgan cholg‘ularda ijrochilikni teng huquqli yo‘nalishlar sifatida saqlash;

4) yangi konstruksiyalarda nimpardalarni ifodalash imkoniyatlarini (masalan, ko‘chma pardalar) ilmiy o‘rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Nasr al-Forobiy. “Kitob al-musiqa al-kabir” (“Kirish” qismining ilmiy-izohli tarjimasi) / Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: H.Aminov, U.Sanoqulova. – Toshkent: Fan, 2020. – 234 b.
2. Liviyev A. O‘zbek milliy cholg‘usozlik tarixi. – Toshkent: Bilim, 2005.
3. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiqa, 2004. – 400 b.
4. O‘zbek xalq cholg‘u musiqasi: O‘zbek musiqa folklori to‘plami / Tuzuvchilar: K.Olimboyeva, F.Karomatov; A.Kozlovskiy tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1955.
5. Rahmonov U.K. Musiqa cholg‘ulari va cholg‘usozlik tarixi: Monografiya. – Farg‘ona: FarDU, 2024. – 144 b.
6. Tashmatova A. Ijrochilik san’ati tarixi: Musiqa oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: Musiqa, 2017. – 304 b.

FORTEPIANO DARSLARIDA MILLIY ASARLARNI TAHLIL QILISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY VA ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISH

Sobirjonov Akbar-Mirzo Zafarjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat universiteti stajyor o‘qituvchi
sobirjonovakbarmirzo@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada fortepiano darslarida milliy musiqiy asarlarni tahlil qilish orqali talabalarning musiqiy tafakkuri va estetik didini shakllantirish masalalari yoritilgan. O‘zbek kompozitorlari asarlari va maqom an’analarini tatbiq etishning metodik bosqichlari hamda talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: fortepiano ta’limi, milliy musiqa merosi, musiqiy-estetik did, musiqiy tafakkur, musiqiy tahlil, maqom an’analari, ijrochilik mahorati, badiiy idrok, kompozitorlik san’ati, pedagogik yondashuv, xalq kuylari, lad xususiyatlari, ritmik tuzilish, badiiy talqin, integratsiya.

Bugungi kunda oliy musiqiy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning ijrochilik mahoratini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning ma’naviy dunyosi, badiiy tafakkuri va estetik didini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Musiqa san’ati insonning hissiy olamiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan, uning go‘zallikni anglash, voqelikni badiiy idrok etish va milliy qadriyatlarga munosabatini shakllantiradigan san’at turlaridan biridir. Shu jihatdan fortepiano darslarida milliy musiqiy asarlarni o‘rganish va tahlil qilish talabalarning nafaqat ijrochilik kompetensiyasini, balki musiqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Fortepiano ta’limida milliy repertuardan foydalanish masalasi faqat muayyan asarni texnik jihatdan o‘zlashtirish bilan cheklanmasligi kerak. Asarning yaratilish tarixi, janri, xarakteri, musiqiy ifoda vositalari va milliy uslubini tushunish ijroning badiiy sifatini belgilovchi muhim omillardandir. Fortepiano uchun moslashtirilgan xalq kuylari hamda milliy kompozitorlarning asarlari talabalarga milliy musiqiy tafakkurni zamonaviy cholg‘u ijrochiligi imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

Mazkur masala bo‘yicha mavjud ilmiy-uslubiy ishlarda fortepiano ta’limida badiiy rivojlanish, milliy repertuarni tanlash va maqom an’analarini o‘rganishning ahamiyati yoritilgan. Jumladan, D. R. Xodjiyevaning fortepiano ta’limida talabalarning musiqiy-badiiy rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik mexanizmlarga bag‘ishlangan tadqiqotida texnik tayyorgarlikni badiiy tafakkur va estetik idrok bilan

uyg‘unlashtirish masalasi ko‘rib chiqiladi [Xodjiyeva D. R. 2026.]. G. A. Igamberdiyevaning milliy repertuarni tanlash mezonlariga oid maqolasida esa asarning badiiy mazmuni, talabaning texnik imkoniyatlari va tarbiyaviy qiymatini hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi [Igamberdiyeva G. A. 2026]. Maqom san’atining estetik va ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rniga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham milliy musiqa materialini tahlil qilishning pedagogik imkoniyatlarini ko‘rsatadi [Kamilova (Zokirova) D.].

Tadqiqotning asosiy vazifalari: musiqiy-estetik did tushunchasining mazmunini fortepiano ta’limi nuqtayi nazaridan yoritish, milliy asarlarni o‘rganish va tahlil qilishning ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, musiqiy tahlilni ijrochilik amaliyoti bilan bog‘lash usullarini tavsiflash, talabalarning musiqiy idroki, mustaqil fikrlashi va badiiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish mezonlarini taklif etish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur tadqiqot fortepiano ta’limi, milliy musiqa pedagogikasi, maqom san’ati va musiqiy-estetik tarbiya masalalariga oid ilmiy-uslubiy manbalarni o‘rganish asosiy metodologik yo‘nalish sifatida belgilandi. Tadqiqotning metodik asosini musiqiy asarni yaxlit badiiy hodisa sifatida o‘rganish, nazariy bilimlarni amaliy ijro bilan bog‘lash va talabaning mustaqil musiqiy tafakkurini rivojlantirish tamoyillari tashkil etdi.

Birinchi navbatda, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi yordamida fortepiano ta’limida badiiy rivojlanish, milliy repertuarni tanlash va an’anaviy musiqa materialini o‘qitish masalalari o‘rganildi. Ushbu tahlil asosida milliy asarlarning ta’limiy imkoniyatlari hamda ularni dars jarayonida o‘zlashtirishning muhim yo‘nalishlari ajratib olindi.

Qiyosiy musiqiy tahlilda esa xalq kuylarining turli ijrolari, an’anaviy cholg‘ularda ijro etilgan namunalar va fortepiano uchun moslashtirilgan talqinlar o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda farqlarni aniqlashga e’tibor qaratildi. Qiyoslash jarayonida kuy konturi, ritmik xususiyatlar, frazalash, artikulyatsiya, dinamik rivojlanish va ijro xarakteri asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Hamda musiqiy asarni kompleks tahlil qilish metodi asarning mazmuni va shaklini alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganishni nazarda tutadi. Talaba asarning janri va xarakterini aniqlaydi, kuy rivojlanishini kuzatadi, takrorlanish va kontrast munosabatlarini belgilaydi, ritmik tuzilishi hamda fakturasini o‘rganadi. Shundan so‘ng tahlil natijalari ijro talqiniga tatbiq etiladi.

Ijrochilik talqini. Tahlil natijalariga asoslanib, temp, artikulyatsiya, dinamika, frazalash va pedal ishlatish bo‘yicha qarorlar qabul qilinadi. Mustaqil ijro va

refleksiya. Talaba o‘z ijrosini tinglaydi, badiiy maqsadga muvofiqligini baholaydi va zarur tuzatishlarni amalga oshiradi.

Ushbu metodik model nazariy tahlilni amaliy faoliyatga tatbiq etishga mo‘ljallangan. Muhim jihati shundaki, mazkur maqolada alohida tajriba-sinov o‘tkazilganligi yoki statistik natijalar olinganligi da’vo qilinmaydi. Keltirilgan natijalar ilmiy manbalar tahlili va pedagogik-metodik umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan tavsiyalardan iborat. Ilmiy-uslubiy manbalar tahlili va taklif etilgan metodik yondashuvni umumlashtirish natijasida fortepiano darslarida milliy asarlarni tahlil qilish orqali musiqiy-estetik didni rivojlantirishning o‘zaro bog‘liq bir necha yo‘nalishi belgilandi.

Shunday qilib talabalarga milliy musiqiy asarlarni ongli idrok etishning ahamiyati asoslab berildi. Musiqiy-estetik did asarni shunchaki yoqtirish yoki undan hissiy ta’sirlanish bilan cheklanmaydi. U musiqaning mazmunini anglash, ifoda vositalarini farqlash, ijrodagi badiiy maqsadni tushunish va musiqiy hodisaga asosli baho bera olishni ham qamrab oladi. Shu sababli talabaning milliy asar bilan ishlashi dastlab tinglash va hissiy idrokdan boshlanib, keyinchalik nazariy tahlil va mustaqil talqin bilan davom etishi lozim. Talaba asarning ritmik tuzilishi, kuy yo‘nalishi, frazalari va dinamik rivojlanishini tahlil qilishi ijro qarorlarini ongli qabul qilishiga yordam beradi. Masalan, kuy jumlasining yakunlanishi, musiqiy fikrning davomiyligi yoki yangi mavzuning paydo bo‘lishini anglagan talaba tegishli dinamik o‘zgarishlar va frazalash vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanishi mumkin. Natijada ijro faqat notalarni to‘g‘ri chalishdan iborat bo‘lmay, mazmunli badiiy ifodaga aylanadi.

Mazkur natijalar milliy asarlarni fortepiano darslariga shunchaki repertuar sifatida kiritish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ularning ta’limiy imkoniyati tinglash, anglash, tahlil qilish, ijro etish va baholash jarayonlari izchil tashkil etilgandagina to‘liqroq namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi “Bu kuy qanday xarakterga ega?”, “Musiqiy jumlaning yakunlanganini qaysi belgilar orqali aniqlash mumkin?”, “Dinamik o‘zgarishlar asarning mazmuniga qanday ta’sir qiladi?” kabi savollar orqali talabani mustaqil musiqiy fikrlashga undashi mumkin.

Milliy asarlarni tahlil qilishda o‘zbek musiqasining janriy va uslubiy xilma-xilligini hisobga olish lozim. Xalq kuylarida uchraydigan sodda va esda qolarli ohanglardan tortib, maqom an’analaridagi murakkab kuy rivoji va ifodaviy nozikliklargacha bo‘lgan musiqiy materiallar talabaning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda tanlanishi zarur. Maqom namunalari bilan ishlashda kuy va lad munosabatlari, musiqiy rivojlanish, bezaklar hamda an’anaviy ijrochilik tafakkuriga

e’tibor qaratish talabaning milliy musiqiy tafakkurini chuqurlashtiradi [Kamilova (Zokirova) D.].

Biroq an’anaviy musiqani fortepiano vositasida ijro etishda ayrim metodik qiyinchiliklar yuzaga keladi. Xususan, milliy cholg‘ularga xos tovush hosil qilish usullari, bezaklar, mikrointonatsion nozikliklar va erkin ijro xususiyatlari fortepianoda har doim ham aynan qayta tiklanmaydi. Bunday vaziyatda pedagogning vazifasi an’anaviy ijroni mexanik tarzda ko‘chirishni talab qilish emas, balki uning badiiy mazmunini fortepianoning ifoda imkoniyatlari orqali anglash va yetkazishga o‘rgatishdir. Bunda tovush hujumi, legato, stakkato, frazalash, dinamika va pedal imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish muhim hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida audio va video yozuvlardan foydalanish ham muhim imkoniyat yaratadi. Talaba xalq cholg‘ularidagi ijro namunalarini tinglab, fortepiano talqini bilan qiyoslaydi, ijrodagi farqlarni aniqlaydi va o‘z talqinining kuchli hamda takomillashtirilishi zarur jihatlarini belgilaydi. Bunda texnologiya o‘qituvchi rahbarligidagi tahlilni to‘ldiruvchi vosita bo‘lib xizmat qilishi, jonli tinglash va bevosita ijrochilik faoliyatining o‘rnini to‘liq egallamasligi kerak.

Shu bilan birga, ushbu maqolada taklif qilingan metodik yondashuv nazariy-metodik umumlashtirishga asoslangan. Uning samaradorligini aniq baholash uchun kelgusida turli tayyorgarlik darajasidagi talabalar ishtirokida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlarni qiyoslash hamda natijalarni statistik tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bu esa milliy repertuarni tahlil qilishning musiqiy-estetik rivojlanishga ta’sirini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Fortepiano darslarida milliy asarlarni tahlil qilish talabalarning musiqiy va estetik didini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositadir. Milliy musiqiy meros namunalarini o‘rganish orqali talabalar kuylarning badiiy mazmuni, ritmik va lad xususiyatlari, shakliy tuzilishi hamda ijrochilik uslubini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon ularning musiqiy idroki, nazariy tafakkuri, ijrochilik mahorati va mustaqil estetik baholash ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirishga yordam beradi.

Musiqiy-estetik didni shakllantirish asarni texnik jihatdan o‘zlashtirish bilan cheklanmasdan, uning badiiy mazmuni va milliy-uslubiy xususiyatlarini anglashni ham talab qiladi, milliy asarlarni tinglash, nazariy tahlil qilish, ijro etish va refleksiv baholash bosqichlarini o‘zaro bog‘lash ta’lim jarayonining izchilligini ta’minlaydi, xalq kuylarini an’anaviy ijro namunalari bilan qiyoslash, maqom an’analariga xos

xususiyatlarni o‘rganish va milliy kompozitorlar ijodidan foydalanish talabalarning milliy musiqiy tafakkurini boyitishga xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda pedagogning yo‘naltiruvchi faoliyati talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi va o‘z ijrosiga ongli munosabatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, fortepiano ta’limida milliy musiqiy asarlarni tahlil qilishga asoslangan yondashuv ijrochilik mahorati bilan estetik tarbiyaning uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu metodikaning amaliy samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish, turli darajadagi talabalar uchun moslashtirilgan topshiriqlar tizimini yaratish va milliy repertuar asosida baholash mezonlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Igamberdiyeva G. A. Criteria for Selecting National Repertoire in Interfaculty Piano Lessons. Academic Journal of Science, Technology and Education, 2026, 2(6), 25–29. https://integrumpublication.org/index.php/ajste/article/view/265.
2. Kamilova (Zokirova) D. The Art of Maqom as an Aesthetic and Creative Foundation in the Education of Student-Composers. Journal of National Culture. https://jnculture.uz/index.php/jnc/article/view/45.
3. Xodjiyeva D. R. Effective Pedagogical Mechanisms of Ensuring the Musical and Artistic Development of Students in Piano Education. European International Journal of Pedagogics, 2026. DOI: https://doi.org/10.55640/eijp-06-02-17.

MILLIY MUSIQA MEROSI VA MUSIQA TA’LIMI INTEGRATSIYASI: AN’ANAVIY IJROCHILIKNI YOSH AVLODGA YETKAZISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Sultanov Shoxjaxon Rahmon o‘g‘li
Turan International University o‘qituvchisi,
shohjahonsultanov02@gmail.com
Xabibullayev Abdulmutallib Xayrullo o‘g‘li
Turan International University talabasi,
habibullayevabdulloh03@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada milliy musiqa merosini musiqa ta’limi bilan integratsiyalash masalalari tahlil qilinadi. Maqom, xalq qo‘shiqlari va an’anaviy ijrochilikni o‘qitishda ustoz-shogird an’anasi, amaliy tinglash, musiqiy tahlil va raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari asoslanadi.

Kalit so‘zlar: milliy musiqa merosi, musiqa ta’limi, maqom, Shashmaqom, xalq musiqasi, an’anaviy ijrochilik, ustoz-shogird, musiqiy tafakkur, musiqiy eshitish, ijrochilik mahorati, madaniy xotira, musiqa pedagogikasi, musiqiy tahlil, raqamli arxiv, milliy o‘zlik.

Kirish. Milliy musiqa merosi xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, estetik qarashlari va ma’naviy tajribasini ifodalovchi muhim madaniy boyliklardan biridir. Xalq qo‘shiqlari, maqom san’ati, marosim musiqasi va an’anaviy cholg‘u ijrochiligi uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, avloddan avlodga yetkazib kelingan. Ushbu merosni saqlash faqat musiqiy asarlarni ijro etish yoki yozib olish bilan cheklanmaydi. Uning mazmunini anglash, ijro an’analarini o‘rganish va yosh avlodga izchil yetkazish ham muhim vazifa hisoblanadi.

UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, Shashmaqom Markaziy Osiyoning tarixiy shaharlarida o‘n asrdan ortiq vaqt davomida rivojlangan mumtoz musiqa an’anasi bo‘lib, 2008-yilda O‘zbekiston va Tojikiston nomidan Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan [UNESCO, “Shashmaqom music”]. Ushbu e’tirof maqom san’atining nafaqat badiiy, balki tarixiy va madaniy ahamiyatini ham namoyon etadi.

Bugungi ta’lim jarayonida milliy musiqa merosini o‘rganish o‘quvchilarning musiqiy bilimlarini boyitish bilan birga, ularning tinglash madaniyati, ijodiy fikrlashi va milliy madaniyatga munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Buning uchun an’anaviy ijrochilik tajribasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Maqolaning maqsadi milliy musiqa merosini musiqa ta’limiga integratsiyalashning mazmuni va pedagogik imkoniyatlarini ochib berish, an’anaviy ijrochilikni o‘rgatishning samarali usullarini asoslashdan iborat.

Milliy musiqa merosining tarixiy-madaniy va ta’limiy ahamiyati. O‘zbek milliy musiqa merosi mazmuni va ijro shakllarining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Maqom, katta ashula, xalq qo‘shiqlari, baxshichilik va turli cholg‘u ijrochiligi an’analari xalqning tarixiy tajribasi hamda hududiy madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Ushbu janrlarning har biri o‘ziga xos ijro uslubi, musiqiy ifoda vositalari va o‘rgatish an’analariga ega.

Maqom san’ati, xususan, Shashmaqom, musiqiy shakl, ohang, usul, ijrochilik mahorati va she’riy matnning o‘zaro uyg‘unligi bilan alohida ahamiyatga ega. Uni ta’lim jarayonida o‘rganish faqat kuy yoki ashulani yod olish bilan cheklanmasligi kerak. Talaba asarning tuzilishi, ohang rivoji, ritmik xususiyatlari, matn mazmuni va ijro talqinini ham anglab borishi lozim. Bunday yondashuv musiqiy asarni mazmunan chuqurroq idrok etish imkonini beradi.

UNESCOning Shashmaqom haqidagi tavsifida ushbu an’ananing musiqiy bilim va ijrochilik tajribasi bilan bog‘liq xususiyatlari yoritilgan. Bu ma’lumotlar maqomni o‘rganishda tarixiy kontekst va amaliy ijrochilikni birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [UNESCO, “Shashmaqom music”].

Xalq musiqasini o‘rganish ham ta’limiy jihatdan muhimdir. Xalq qo‘shiqlari mehnat, marosim, oilaviy hayot va turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq holda shakllangan. Ularning matni va musiqasini birgalikda tahlil qilish o‘quvchilarga xalq hayotining tarixiy jihatlarini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, bir qo‘shiqning turli hududlarda farqli ijro variantlari mavjud bo‘lishi mumkinligi ham e’tiborga olinishi kerak.

Demak, milliy musiqa merosi ta’limda ikki muhim vazifani bajaradi: bir tomondan, musiqiy bilim va ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi; ikkinchi tomondan, o‘quvchilarni milliy madaniyatning tarixiy ildizlari bilan tanishtiradi. Bu vazifalar o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilgandagina ta’limning badiiy va ma’rifiy samarasi oshadi.

Ustoz-shogird an’anasi va zamonaviy musiqa pedagogikasi. An’anaviy musiqa ijrochiligida ustoz-shogird munosabati muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizimda shogird ustozning ijrosini tinglash, kuzatish, takrorlash, xatolarini tuzatish va muntazam mashq qilish orqali mahoratni egallaydi. Bunda bilim faqat nazariy tushuntirish orqali emas, balki bevosita ijro tajribasi, musiqiy eshitish va ustozning shaxsiy namunasini kuzatish orqali ham o‘zlashtiriladi.

Zamonaviy ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlari, mashg‘ulotlar jadvali va baholash mezonlari mavjud bo‘lib, ular ta’lim jarayonini tizimli tashkil etishga yordam beradi. Biroq an’anaviy ijrochilikning barcha jihatlarini faqat nazariy ma’lumot yoki nota matni orqali o‘zlashtirish qiyin. Ayniqsa, ohangni talqin qilish, ijrodagi nozik farqlarni anglash va musiqiy ifodani shakllantirishda bevosita tinglash hamda amaliy mashq katta ahamiyatga ega.

Shu sababli ustoz-shogird tajribasini zamonaviy musiqa pedagogikasi bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda mashg‘ulotlar quyidagi ketma-ketlikda tashkil etilishi mumkin:

1. Tinglash va kuzatish. O‘quvchilar asarning namunaviy ijrosini tinglaydi, uning umumiy xarakteri, sur’ati va ifoda xususiyatlarini aniqlaydi.
2. Tahlil qilish. O‘qituvchi asarning shakli, ohang rivoji, ritmik tuzilishi va matn mazmunini tushuntiradi.
3. Amaliy o‘zlashtirish. O‘quvchilar kuy yoki ashulaning alohida qismlarini takrorlash, mashq qilish va ijro etish orqali o‘zlashtiradi.

4. Mustaqil ijro va fikr-mulohaza. O‘quvchi o‘rgangan asarini mustaqil ijro etadi, o‘z ijrosini tahlil qiladi va o‘qituvchi tavsiyalari asosida kamchiliklarni bartaraf etadi.

Mazkur usul an’anaviy tajribani saqlagan holda ta’lim natijalarini kuzatish va baholash imkonini beradi. Bunda baholash faqat texnik aniqlikka asoslanmasligi kerak. Asarning xarakterini yetkazish, musiqiy ifoda, tinglash madaniyati va ijrodagi mustaqillik ham hisobga olinishi lozim.

Milliy musiqa merosini o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanish. Raqamli texnologiyalar milliy musiqa merosini o‘rganish va o‘qitish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Audioyozuvlar, videomateriallar, elektron kutubxonalar va raqamli arxivlar orqali o‘quvchilar turli ijro maktablari, ustalar talqini va musiqiy asarlarning variantlari bilan tanishishlari mumkin. Bu, ayniqsa, dars davomida barcha ijro namunalarini jonli tarzda namoyish etish imkoniyati cheklangan holatlarda foydalidir.

Masalan, bir maqom asarining turli ijrolarini tinglash topshirig‘i orqali o‘quvchilar ohang, sur’at, ifoda va ijrochilik talqinidagi o‘xshashlik hamda farqlarni aniqlashlari mumkin. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilardan faqat qaysi ijro yoqqanini aytishni emas, balki fikrlarini aniq musiqiy belgilar bilan asoslashni ham talab qilishi lozim. Natijada tinglash faoliyati oddiy qabul qilishdan tahliliy idrok etish darajasiga ko‘tariladi.

Yana bir samarali usul - loyiha asosida o‘qitish. O‘quvchilar ma’lum bir hududning xalq qo‘shiqlari, cholg‘u an’analari yoki mashhur ijrochilik maktabi haqida ma’lumot to‘plashi, audio va video namunalarni o‘rganishi, so‘ng natijalarni taqdimot shaklida namoyish qilishi mumkin. Bunday topshiriqlar mustaqil izlanish, manbalarni saralash, guruhda ishlash va musiqiy materialni izchil bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli vositalardan foydalanishda manbalarni tekshirish va madaniy kontekstni saqlash talab etiladi. Internetda joylashtirilgan har qanday ijroni tarixiy yoki uslubiy jihatdan vakillik qiluvchi yagona namuna sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Ijrochining kimligi, asarning nomi, yozuv sanasi va mavjud bo‘lsa, ijro maktabi haqidagi ma’lumotlar aniqlanishi kerak. Shuningdek, audio va videomateriallardan foydalanishda mualliflik huquqi hamda tegishli foydalanish shartlariga rioya etish zarur.

Innovatsion yondashuv an’anaviy ijrochilikni chetga surish emas, balki uni chuqurroq o‘rganishga xizmat qilishi kerak. Jonli ijro, ustoz bilan bevosita ishlash va

amaliy mashg‘ulotlar o‘z ahamiyatini saqlab qoladi; raqamli vositalar esa tinglash, taqqoslash, hujjatlashtirish va mustaqil mashq qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Musiqa ta’limi va tarixiy-madaniy merosni saqlash o‘rtasidagi uzviylik. Milliy musiqa merosini ta’limga integratsiyalash uning tarixiy mazmunini yosh avlodga yetkazish va an’anaviy ijrochilikning davomiyligini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Buning uchun ta’lim muassasalari, musiqa maktablari, san’at oliy ta’lim muassasalari, ijodiy jamoalar va tajribali ijrochilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish muhimdir.

Bunday hamkorlik doirasida mahorat darslari, jonli ijro uchrashuvlari, mavzuli konsertlar va musiqiy merosga bag‘ishlangan tadqiqot loyihalarini tashkil etish mumkin. O‘quvchilar ijrochilar bilan muloqot qilish orqali asarlarning ijro xususiyatlari, o‘rganish jarayoni va an’analarni davom ettirishdagi mas’uliyat haqida bevosita tasavvurga ega bo‘ladilar.

Musiqiy merosni o‘rganishda tarixiy manbalardan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Nota yozuvlari, eski audioyozuvlar, ijrochilar haqidagi ma’lumotlar va musiqashunoslik tadqiqotlari asarlarning rivojlanishi hamda talqinlarini tushunishga yordam beradi. Biroq tarixiy yozuvlarda aks etmagan yoki yozib olinmagan ijro an’analarini mavjud emas deb hisoblash mumkin emas. Shu bois yozma va audio manbalarni tirik ijrochilik tajribasi bilan birgalikda o‘rganish lozim.

Musiqa ta’limi orqali merosni saqlash natijasi faqat o‘quvchining muayyan asarni ijro eta olishi bilan belgilanmaydi. Uning asar mazmunini tushunishi, ijro an’analariga hurmat bilan yondashishi, manbalarni to‘g‘ri talqin qilishi va musiqiy tajribani boshqalarga yetkaza olishi ham muhim ko‘rsatkichlardir.

Xulosa. Milliy musiqa merosi tarixiy xotira va badiiy tafakkurning muhim ifodasi bo‘lib, uni musiqa ta’limi bilan integratsiyalash madaniy davomiylikni ta’minlashga xizmat qiladi. Maqom, xalq qo‘shiqlari va an’anaviy ijrochilikni o‘rganish o‘quvchilarning musiqiy bilimlari, tinglash madaniyati va ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning milliy madaniyat haqidagi tasavvurlarini ham boyitadi.

Ustoz-shogird an’anasini tizimli pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish, jonli ijroni tahliliy tinglash va amaliy mashqlar bilan birlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishi mumkin. Raqamli audio va video materiallar esa turli ijro namunalarini taqqoslash, mustaqil o‘rganish va musiqiy merosni hujjatlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu asosda milliy musiqa merosini o‘qitishda tarixiy manbalar, an’anaviy ijrochilik tajribasi va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash

maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv milliy musiqaning mazmunini chuqur anglash, ijrochilik an’analarini davom ettirish va madaniy merosga ongli munosabatni shakllantirish uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCO. Shashmaqom music. Intangible Cultural Heritage. https://ich.unesco.org/en/RL/shashmaqom-music-00089 (murojaat sanasi: 09.10.2026).
2. Khaydarov, K. In Studying the History of Uzbek Music Culture the Place of the Bayoz. Eurasian Music Science Journal. 2020. No. 2. P. 74–84. https://doi.org/10.52847/EAMSJ/vol_2020_issue_2/A8.
3. Ikromova, M. The Place of National and Folk Music in the Education of Music Teachers. International Multidisciplinary Journal for Research & Development. 2025. Vol. 12, No. 2. P. 371–373. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.imjrd.69468.

“O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘U SOZLARI TARIXIGA BIR NAZAR VA O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI TIZIMIDA QASHQAR RUBOBINING TUTGAN O‘RNI

Z.D.Xomidov
Guliston davlat universiteti dotsenti v.b.
Zokirjonxamidov03@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy cholg’u sozlari tarixi va o‘zbek xalq cholg’ularidan qashqar rubobining tutgan o‘rni, madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o‘tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o‘tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etishi haqida

Kalit so ‘zlar: O ‘zbek milliy cholg ‘u sozlari, ijodiy mahorat, nafosat, badiiy did, fikrlash darajasi, tarix, san’atshunoslik.

Hozirgi kunda yani O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan musiqiy ta’lim tizimini yanada takomillaslitirilishiga qaratilgan qarorlar hamda farmoyishlar mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy olami va madaniy saviyasi yuksaltirish yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining

yuksak namunalaridan keng bahramand bo‘lishi uchun zarur shart- sharoitlar yaratish va shu asosida musiqiy ta’limni yanada rivojlantirish, bu borada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan vazifalar ko‘rsatilgan. Musiqa san’ati borasida amalga oshirilayotgan xayrli ishlar bolalarda kuy-qo‘shiqqa, san’atga, milliy cholg’ularimizga muhabbat uyg'otib, ularda cholg'uchilik ijrochilik kabi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi, shuningdek musiqa san’ati asosida o‘quvchi shaxsining ma’naviy, ahloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirib, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi va navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan xalq cholg'ularida jahon mumtoz musiqa merosining ijro etilishi o‘zbek sozandasining bilim va tafakkuri, dunyoqarashini kengaytiradi. Uning ijro mahoratini keng ko‘lamli va yuqori darajada bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqning musiqiy madaniyati yuksalib borgani sari cholg'u asboblari ham asta-sekin boyib borishi hammaga ma’lum albatta: ayrim sozlar konstruksiyasi tufayli asrlar davomida saqlanib kelgan va bizgacha «ibtidoiy» ko‘rinishida qisman yetib kelgan bo‘lsa, boshqalari davrning yuksak talablariga javoban takomillashgan. Milliy cholg'u asboblaridagi ushbu ijrochilik san’ati asrlar davomida rivojlanib, bir ijrochidan boshqasiga og'zaki o‘tib, ustoz shogird an’analari bo‘yicha bizgacha yetib kelgani, milliy cholg'u asboblarida ijrochilik san’ati rivojlanishi bilan barobar cholg'u asboblarini yasash san’ati ham rivojlanib, ustozdan shogirdga o‘tib kelgani ham milliy cholg'u asboblarining mumtoz shakllari qaror topishiga ta’sir ko‘rsatgan [1; 15-b.].

Milliy cholg‘u asboblari, ayniqsa, XX asming 20-30 yillarida jadal takomillashdi. Bu hodisa O‘zbekistonda ikki yo‘naushda yuz berdi.

Birinchi yo‘nalish: xalq cholg‘u asboblari ustalari amalga oshirishgan. “Konstruktorlarning fikri-zikri cholg‘u asbobining tovush sifatlarini yaxshilash va kuchaytirishga qaratilgan, bunda tovushqator, shuningdek, torlaming joylashuvi, parda bog‘lamlari,singari ayrim odatiy konstruktiv xususiyatlar mutlaqo daxlsiz saqlab qolgan”. Xalq ustalari og‘zaki an’anadagi kuylarni ijro etish uchun milliy cholg‘u asboblarini shu tariqa takomillashtirishgan.

Ikkinchi yo‘nalish - milliy cholg'u asboblarini «xromatik temperatsiya» yo‘lidan takomillashtirish fikridir. Bu yo‘nalish yozma an’anadagi kuylarni ijro etish uchun xalq cholg'u asboblarini ilmiy asosda takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot tajriba laboratoriyasida amalga oshirilgan.Tajriba laboratoriyasi mayjud bo‘lgan yillarda bu yerda milliy sozlardan 14 dan ziyod turi takomillashtirildi hamda ular negizida butun-butun guruhlarni tashkil qiluvchi 50 dan ziyod yangi sozlar yaratildi,

ularning ko‘plari turdosh sozlar hisoblanadi.Tajriba laboratoriyasi chizmalari bo‘yicha fabrikada tayyorlangan takomillashtirilgan cholg‘u asboblaridan respublikamizda ham, undan tashqarida ham professional musiqa ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida va umumiy o‘rta ta’lim maktablaida, maxsus o‘quv yurtlarida, badiiy havaskorlik jamoalarida amalda foydalanildi.

O‘zbek madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o‘tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o‘tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko‘ra o‘zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo‘linadi:

Birinchi guruhga: barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi.

Ikkinchi guruhga: XX asr madaniy rivoji bilan bog‘liq bo‘lib takomillashgan, ya'ni qayta ishlangan (rekonstruksiya qilingan) cholg'ular kiradi.[2; 11-b.].

An'anaviy xalq cholg'ulari tarkibidan joy olgan cholg'u sozlar jumladan, tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, surnay, qo‘shnay, karnay, g‘ijjak, chang, qonun, doyra, nog‘oralardir. Xalq ijodiyotida qo‘llaniladigan sozlarga changqo‘biz, sibizg'i, safoil kiradi. Qayta ishlangan cholg'u asboblariga rubob, g‘ijjak, dutor va chang sozlarining musiqaning saprano, alt, tenor, bas ovozlar mezonlariga ko‘ra qayta ishlangan namunalari kiradi. An'anaviy cholg'u ijrochiligi azaldan xalq ijro amaliyotida shakllanib, ulardan turli ko‘rinish va tarkiblar asosida foydalanish an'ana bo‘lib kelgan. Avvalo an'anaviy cholg'ularning har biri yuqori professional darajadagi individuallik xususiyatiga ega. Xalq ijrochilik amaliyotida shunga mos ijro imkoniyatlari, sharoitlar va ijro uslublari yuzaga kelgan. Ko‘p asrlik ijrochilik amaliyoti esa cholg'ularni guruh bo‘lib ijro etilishini ham taqozo etgan. Shunga binoan cholg'ular sozandalar tomonidan bir-birlariga mos o‘z turlari va ovoz imkoniyatlari doirasida guruhiy tarkiblar tuzilib amaliyotda qo‘llanilib kelingan.

Musiqiy cholg'ularning ta'rifi ya'ni shakl-tuzilishlari tarkibiy jihatlari, nomlari, ijrochilari bilan bog'liq ma'lumotlar, asosan o‘rta asrlardan boshlab badiiy adabiyot asarlari hamda musiqiy risolalarida yoritila boshlanadi. Demak, o‘rta asrlarga kelib qadimdan shakllanib takomillashib kelgan xalq musiqiy cholg'ulari ijrochilik amaliyotida o‘z o‘rnini topgan. Shu bilan birga nafaqat xalq, balki olimlarning e'tiborini ham qozongan. Bu jarayonni O.Matyoqubov «Maqomot» kitobida quyidagicha bayon etadi: «Cholg'ularga bunday atroflicha qiziqishlar zamirida musiqiy asboblar ijrochilik faoliyatini ob'ektiv aks ettirishdir, degan ilmiy tushuncha yotadi. Forobiy ta'biri bilan aytganda, cholg'u asboblarining shakllanishi, avvalo, amaliyotda yuzaga keladi. Ularning tembr-akustik xususiyatlari parda va tovushqatorlari bevosita ijro jarayonida shakllanadi va takomillashdi. [3; 53-b.].

Xalq cholg`ularini o`rganish bo`yicha ma‘lumotlar yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o`z aksini topgan. Shuningdek, V.Belyaevning “O`zbekiston musiqa cholg`ular”, R.Gruberning “Musiqa madaniyati tarixi”, I.Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir”, A.Karomatovning “O`zbek cholg`u musiqasi”, T.Vizgoning “O`rta Osiyo musiqa cholg`ulari”, A.Petrosyansning “Cholg`ushunoslik” A.Odilovning “O`zbek xalq cholg`ularida ijrochilik tarixi” o`quv qo`llanmasi A.Lutfullaev va T.Solomonovaning “O`zbek xalq musiqa cholg`ulari” o`quv-uslubiy qo`llanmasi A.Tashmatovaning “Musiqiy cholg`ular muzeyi katalogi” A.Lutfullaevning “O`zbek xalq cholg`ularida ijrochilik san‘ati tarixi” o`quv qo`llanmasi, S.Saidiyning “Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg`ular” nomli o`quv qo`llanmasi xalq cholg`ularini o`rganishga bag`ishlangan. Yuqoridagi qo ‘llanma va darsliklar bugungi kunda cholg ‘u ijrochiligi sohasini o‘rganishda qo ‘l kelmoqda.

O‘zbek xalq musiqa madaniyati ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, unda xalqning turmush tarzi, estetik qarashlari, urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlari o‘zining yorqin ifodasini topgan. Ushbu madaniy merosning muhim tarkibiy qismlaridan biri xalq cholg‘u ijrochiligidir. O‘zbekistonda qadimdan torli, puflama, urma va zarbli cholg‘ularning turli namunalari shakllanib, avloddan avlodga o‘tib kelgan. Cholg‘ularning har biri o‘ziga xos tovush imkoniyatlari,ijro usullari va repertuariga ega. O‘zbek xalq cholg‘ulari qtorida torli cholg‘ular alohida o‘rin egallaydi. Rubob, tanbur, dutor, gijjak kabi cholg‘ular asrlar davomida xalq va professional musiqa amaliyotida faol qo‘llanib kelgan. Bu milliy cholg’ularning ayrimlari yakkanavozlik, ayrim cholg’ularimiz ansambl va jo‘rnavozlikda qo‘llanilib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan qashqar rubobi o‘zining tembr xususiyatlari, texnik imkoniyatlari, diapazoni va ijro uslublarining rang-barangligi bilan o‘zbek cholg‘ulari ichida alohida o‘rin tutadi.

Qashqar rubobi o‘zbek va tojik xalqlarining musiqa amaliyotida nisbatan keyingi davrlarda professional ijrochilikning faol vositalaridan biriga aylangan bo‘lsada, uning nomi va shakllanish tarixi Markaziy Osiyo hamda Sharq xalqlarining qadimiy rubobchilik an’analari bilan uzviy bog‘liqdir. “Rubob” atamasi Sharq musiqa madaniyatida turli davrlarda va hududlarda turlicha tuzilishga ega bo‘lgan torli cholg‘ular sifatida qo‘llangan.[4.9.] Shu sababli tarixiy rubob bilan hozirgi qashqar rubobini aynan bir xil cholg‘u sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Ularning o‘rtasidagi tarixiy-tipologik aloqalar, konstruktiv o‘zgarishlar va ijrochilik amaliyotidagi farqlarni hisobga olish zarur. Qashqar rubobining o‘zbek professional musiqa ijrochiligida avvalo, uning texnik va badiiy imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Cholg‘uda tezkor passajlar, turli zarblar, legato va boshqa ijro usullarini amalga oshirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, rubobning o‘ziga xos jarangdor va yorqin tembri kuylarning melodik mazmunini aniq ifodalashga xizmat qiladi.Hozirgi kunda qashqar rubobi cholg’usida chet el,tojik,qazoq,qirg’iz,turkman,rus kompozitorlarining asarlarini ijro etib kelishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nurmatov H. «O‘zbek xalq musiqasi» o‘qituvchi T.1998
2. Fayziev O. va Mirzaev U. «Rubob taronalari» T.1999
3. Matyoqubov O. «Maqomot». T. 2011
4. Nurmatov H Qashqar rubobi taronalari. T.G‘.G‘ulom nashriyoti1989.

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI VA MAROSIM AYTIMLARINING O‘QUVCHILAR MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDAGI O‘RNI

Sh.B.Xudoynazarova
Guliston davlat pedagogika instituti,
“Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi,
N.N.Raximov
Guliston davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalq qo‘shiqlari va marosim aytimlarining o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi imkoniyatlari yoritilgan. Mehnat, mavsumiy va oilaviy marosim qo‘shiqlarini musiqa madaniyati darslarida o‘rgatishning mazmuni, metodik yo‘llari hamda pedagogik shartlari asoslab berilgan, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xalq qo‘shiqlari, marosim aytimlari, ma’naviy-axloqiy tarbiya, alla, yor-yor, mehnat qo‘shiqlari, mavsumiy qo‘shiqlar, musiqa madaniyati, milliy qadriyat.

Kirish: Xalq qo‘shig‘I - xalqning ruhiy olami, turmush tarzi, orzu-intilishlari va axloqiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan bebaho ma’naviy boylikdir. Har bir o‘zbek farzandining hayoti onaning mayin allasi bilan boshlanadi, bolalik bahor kelishini xabar qiluvchi “Boychechak” qo‘shig‘i bilan bezanadi, yoshlik esa to‘y-tomoshalarda yangraydigan “Yor-yor” ohanglari bilan kechadi. Demak, xalq

qo‘shiqlari inson umrining har bir bosqichiga hamroh bo‘lib, uning dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllantirishda beqiyos ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi globallashuv sharoitida o‘quvchilarning musiqiy didi ko‘p jihatdan internet, ommaviy madaniyat va estrada mahsulotlari ta’sirida shakllanmoqda. Bu holat yosh avlodning milliy ildizlardan uzoqlashib qolish xavfini yuzaga keltiradi. Shu boisdan xalq musiqa ijodi namunalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga chuqur va maqsadli olib kirish dolzarb pedagogik vazifaga aylanmoqda. [Nurmatov H., 3.] H.Nurmatov va N.Yo‘ldosheva haqli ravishda ta’kidlaganidek, yoshlarni yangicha ruhda tarbiyalash, ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar mohiyatini keng targ‘ib qilishda an’ana va marosimlar mohiyatini anglash va tushuntirish eng ta’sirchan vositalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – o‘zbek xalq qo‘shiqlari va marosim aytimlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berish hamda ularni musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga yo‘naltirib o‘rgatishning metodik yo‘llarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda aksiologik (qadriyatli), madaniyatshunoslik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarga tayanildi. Xalq qo‘shiqlari va marosim aytimlarini janr-mavzu jihatidan tahlil qilish, umumiy o‘rta ta’lim maktablari musiqa madaniyati dasturlari va darsliklari mazmunini o‘rganish, pedagogik kuzatish, o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan suhbat hamda ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Folklorshunoslik va musiqa pedagogikasi sohasidagi ilmiy qarashlar tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi.

Natijalar va muhokama: O‘zbek xalq musiqa ijodida marosim bilan bog‘liq qo‘shiqlar alohida qatlamni tashkil etadi. Ularni maktab ta’limi nuqtayi nazaridan quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq: mehnat qo‘shiqlari (chorvadorlik, dehqonchilik, hunarmandchilik qo‘shiqlari); mavsumiy marosim qo‘shiqlari (“Boychechak”, “Sust xotin”, “Choy momo”, “Sumalak”, “Navro‘z keldi”); oilaviy marosim aytimlari (alla, “Yor-yor”, “Kelin salom”, “To‘ylar muborak); bolalar o‘yin qo‘shiqlari. Har bir guruh o‘ziga xos tarbiyaviy yukka ega bo‘lib, birgalikda yaxlit ma’naviy-axloqiy tizimni hosil qiladi.

Xalq musiqasining eng muhim xususiyati uning sinkretik tabiatidir. Unda so‘z, kuy va o‘yin (raqs) bir butunlikda mujassamlashgan bo‘lib, bu uch unsur mehnat jarayoni, urf-odat va marosimlarda muntazam ravishda bir-biri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi; olimlar bu birlikni «aytim» atamasi bilan ifodalaganlar. [Nurmatov H., 6]. Bizningcha, aynan shu xususiyat xalq qo‘shiqlarining kuchli pedagogik imkoniyatini belgilaydi: so‘z axloqiy mazmunni, kuy hissiy kechinmani, harakat esa

bolaning faol ishtirokini ta’minlaydi. Natijada tarbiyaviy g‘oya o‘quvchi ongiga quruq nasihat orqali emas, balki jonli badiiy tajriba orqali singadi.

Endi ayrim janrlarning tarbiyaviy imkoniyatlariga to‘xtalamiz. Alla - ona mehrining musiqiy ifodasidir. Unda farzandga bildirilgan ezgu tilaklar, uning kelajagiga bog‘langan umidlar aks etadi. Allani o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda onaga hurmat, oila qadriga yetish, mehr-oqibat tuyg‘ulari tarbiyalanadi. “Yor-yor” qo‘shig‘ida kelinning ota uyi bilan xayrlashuvi, yangi oilaga kirib borishi kuylanadi; bu qo‘shiq orqali o‘quvchilar ota-onaga sadoqat, oila muqaddasligi, kattalarga hurmat kabi qadriyatlarni anglaydilar. “Kelin salom” aytimi esa xalqimizga xos odob-axloq, salom-alik madaniyatining go‘zal namunasidir.

Mehnat qo‘shiqlari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy shakllaridan bo‘lib, yer haydash, tegirmon yanchish, ip yigirish kabi mehnat jarayonlarida tug‘ilgan. Ular orqali o‘quvchilarda mehnatsevarlik, halol mehnatga hurmat, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasi shakllanadi. Masalan, “Shox moylar” qo‘shig‘i dehqonchilik mavsumining boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, unda yaxshi niyat, baraka va serobchilik orzusi ifodalanadi. Mavsumiy marosim qo‘shiqlari esa tabiatga muhabbat, uni asrab-avaylash, ne’matlarga shukrona kabi tuyg‘ularni tarbiyalaydi. Bolalarning uyma-uy yurib “Boychechak” kuylashi va bahor xabarini yetkazishi ularda saxovat, xushxabar ulashish, jamoaga daxldorlik tuyg‘usini kamol toptiradi. “Sust xotin” qo‘shig‘ida esa insonning tabiat bilan uyg‘unlikda yashash istagi ifodalangan.

Maktab musiqa ta’limi mazmuni ham ushbu imkoniyatlardan foydalanishni nazarda tutadi. Xususan, 4-sinfda “O‘zbek xalq musiqa ijodi” yil mavzusi sifatida o‘rganilib, chorak mavzulari “Xalq aytimlari va cholg‘ulari”, “Bayram va marosim qo‘shiqlari”, “Mavsum qo‘shiqlari”, “Bahor fasli qo‘shiqlari” tarzida belgilangan. [Sharipova G., 6]. Musiqa o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri sifatida o‘quvchilarda milliy musiqa merosimizga va u orqali ona Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash ko‘rsatib o‘tilgan. [Sharipova G., 36]. Xalq qo‘shiqlarining kuy tuzilishi asosan kvarta, kvinta, seksta kabi tor ovoz doirasida bo‘lgani bois ular bolalar ovozi imkoniyatlariga to‘la mos keladi. Bu esa ularni kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan o‘rganish uchun qulay material qiladi.

Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar ham kuzatiladi. Birinchidan, qo‘shiq ko‘pincha o‘zi tug‘ilgan marosim muhitidan ajratib o‘rgatiladi: o‘quvchi kuyni yodlaydi-yu, uning qaysi urf-odat bilan bog‘liqligi, qanday vaziyatda va nima maqsadda aytilganini bilmaydi. Ikkinchidan, qo‘shiq matnidagi eskirgan so‘z va iboralar izohlanmaydi, natijada uning axloqiy mazmuni o‘quvchiga yetib bormaydi. Uchinchidan, xalq ijrochilarining asl (autentik) ijrosidagi audio va video namunalar

yetarli emas. To‘rtinchidan, hududiy folklor xususiyatlari, ya’ni har bir vohaning o‘ziga xos qo‘shiq an’analari darslarda kam aks ettiriladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi metodik yo‘llarni taklif etamiz.

1. Kontekstli o‘rgatish. Qo‘shiq o‘zi bog‘liq bo‘lgan marosim bilan birga o‘rganiladi: o‘qituvchi marosim haqida hikoya qiladi, rasm va video materiallar namoyish etiladi, imkon qadar marosimning qisqa sahna ko‘rinishi tayyorlanadi. Shunda qo‘shiq o‘quvchi tasavvurida jonli hayot manzarasi bilan bog‘lanadi.

2. Matn ustida ishlash. Qo‘shiq matnidagi eskirgan so‘zlarning kichik lug‘ati tuziladi, so‘ngra “Bu qo‘shiqda qanday ezgu tilaklar bildirilgan?”, “Qo‘shiq qahramoni qanday fazilatlarga ega?” kabi savollar asosida axloqiy suhbat o‘tkaziladi.

3. Ijro va harakat birligi. Xalq musiqasining sinkretik tabiatidan kelib chiqib, qo‘shiq kuylash qarsak, doira usuli va oddiy raqs harakatlari bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu o‘quvchilarning ritm tuyg‘usini rivojlantirish bilan birga darsni hissiy jihatdan boyitadi.

4. Oila va mahalla bilan hamkorlik. O‘quvchilarga buvi va onalaridan alla yoki to‘y qo‘shiqlarini yozib olish topshiriladi. Bu ish avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy rishtani mustahkamlaydi, shu bilan birga hududiy folklor namunalarini to‘plashga ham xizmat qiladi.

5. Sinfdan tashqari ishlar va fanlararo aloqa. “Navro‘z”, “Boychechak”, “Hosil bayrami” kabi tadbirlar, folklor to‘garaklari tashkil etiladi; qo‘shiqlar ona tili va adabiyot, tarix, tasviriy san’at fanlari bilan bog‘lab o‘rganiladi.

Ushbu yo‘llarning samarali bo‘lishi bir qator pedagogik shartlarga bog‘liq: o‘qituvchining folklorshunoslik bilimlari va ijrochilik mahorati; repertuarning o‘quvchilar yoshi va ovoz imkoniyatlariga mosligi; namunalarning asl ko‘rinishini saqlash; darsda ijobiy hissiy muhitni yaratish. Ayniqsa, o‘qituvchining o‘zi xalq qo‘shig‘ini samimiy va ta’sirli kuylay olishi muhim, chunki bolalar avvalo ustozning jonli ijrosiga taqlid qiladi.

Xulosa: O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq qo‘shiqlari va marosim aytimlari o‘quvchilarda mehr-oqibat, oilaga sadoqat, mehnatsevarlik, tabiatga muhabbat va Vatanparvarlik kabi fazilatlarni tarbiyalashning ta’sirchan vositasidir. Ularning tarbiyaviy imkoniyati qo‘shiq o‘zi tug‘ilgan marosim muhiti bilan birga, so‘z, kuy va harakat birligida o‘rgatilgandagina to‘liq namoyon bo‘ladi.

Shu munosabat bilan quyidagilarni tavsiya etamiz: har bir hudud uchun maktablarga mo‘ljallangan mahalliy xalq qo‘shiqlari to‘plami va audio-xrestomatiyasini yaratish; musiqa o‘qituvchilari malaka oshirish kurslariga folklor

namunalarini o‘rgatish metodikasi bo‘yicha mashg‘ulotlar kiritish; “Oilamiz qo‘shiqlari” kabi o‘quvchilar loyihalarini keng joriy etish. Bu ishlar yosh avlodning milliy qadriyatlarimizdan bahramand bo‘lib, ma’naviy yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibragimova Sh. “Ko‘p ovozli qo‘shiq malakalarini o‘stirish asoslari”. https://interoncof.com/index.php/USA/issue/view/261
2. Ibragimova N. “Talabalarning ijro mahoratlarini o‘stirishda mustaqil ta’limning ahamiyati”. https://bestpublication.net/index.php/ozfan/issue/view/120
3. Nurmatov H., Yo‘ldosheva N. O‘zbek xalq musiqa ijodi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 112 b.
4. Sharipova G. Musiqa va uni o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Turon-iqbol, 2006. – 184 b.
5. Sharipova G., Xodjayeva Z. Musiqa o‘qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: NIF MSH, 2020. – 136 b.

MUSIQIY FOLKLORNI MUSIQA TA’LIMIGA SINGDIRISHDA HUDUDIY YONDASHUV: PEDAGOGIK ASOSLAR VA AMALIY YECHIMLAR

Sh.N.Yulyaxshiyev
Guliston davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada musiqiy folklorni musiqa ta’limiga singdirishda hududiy yondashuvning pedagogik asoslari yoritilgan. Folklor janrlarining mahalliy xususiyatlari tahlil qilinib, talabalarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladigan amaliy metodlar va muammolarning yechimlari bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: musiqiy folklor, musiqa ta’limi, pedagogik tamoyillar, kasbiy kompetensiya, hududiy yondashuv, folklor janrlari, lapar, yalla, aytishuv, terma, baxshichilik, marosim qo‘shiqlari, hududiy repertuar, folklor ansambli, ustoz-shogird an’anasi, interfaol metodlar.

Musiqiy folklor xalqning ruhiy dunyosi, turmush tarzi va estetik qarashlarini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Alla va yor-yordan tortib dostonlargacha bo‘lgan aytim va kuylar avloddan avlodga o‘tib, milliy o‘zlikni anglashning muhim vositasi bo‘lib kelgan. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni tiklash, badiiy-musiqiy merosni

atroflicha o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi [Yulyaxshiyev Sh.: 9-11]. Bu jarayonda ta’lim tizimining o‘rni alohida: folklor namunalari darslarga faqat axborot sifatida emas, balki tarbiya va kasbiy tayyorgarlik vositasi sifatida kiritilgandagina ular yashovchan bo‘lib qoladi. Maqolaning maqsadi – musiqiy folklorni musiqa ta’limiga singdirishda hududiy yondashuvning pedagogik asoslarini aniqlash va amaliy yechimlarni ko‘rsatishdan iborat.

Musiqiy folklorning ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlari

Musiqiy folklor o‘quvchi va talabaga bir vaqtning o‘zida bir necha jihatdan ta’sir qiladi. Birinchidan, u milliy o‘zlikni, ajdodlar merosiga hurmatni tarbiyalaydi. Ikkinchidan, estetik didni shakllantiradi, eshitish, ritm va ijro ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Uchinchidan, musiqani adabiyot, tarix va urf-odatlar bilan bog‘lab, yaxlit madaniy tasavvur beradi. Masalan, terma janri pand-nasihat, odob-axloq, soz va so‘z haqidagi, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalarga bag‘ishlangan lirik-epik she’rlardan iborat bo‘lib, uni o‘rganish orqali talaba she’riy matn va kuyning o‘zaro bog‘liqligini anglaydi [Yulyaxshiyev Sh.: 15-17]. Doston ijrochiligi esa adabiy matn, musiqa va ijrochining yuksak mahoratini birlashtirgani bois eng murakkab, shu bilan birga eng boy ta’lim materiallaridan biridir [Qosimov R.: 21-23].

Hududiy yondashuvning ilmiy asosi: folklor janrlarining mahalliy xususiyatlari

Musiqiy folklorni o‘qitishda hududiy xususiyatlarni hisobga olish muhim. 1991–2001-yillarda Toshkent, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlari, Farg‘ona vodiysi va Qoraqalpog‘istonda o‘tkazilgan folklor ekspeditsiyalari qo‘shiq, terma, lapar, aytishuv va yalla tusidagi janrlar eng ommaviy ekanini ko‘rsatdi [Karomatov F.: 32-3]. Ayni paytda ashula Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xorazm shaharlarida, qarsak Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand va Jizzax hududlarida, mavrigi asosan Buxoro atrofida, do‘mbira va sibizg‘a kuylari esa Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida keng tarqalgan [Yulyaxshiyev Sh.: 19-21].

Respublika musiqasida to‘rtta asosiy mahalliy uslub – Farg‘ona–Toshkent, Buxoro–Samarqand, Surxondaryo–Qashqadaryo va Xorazm an’analari ajratiladi. Viloyatlararo migratsiya, turmush tarzining yaqinlashuvi va ommaviy axborot vositalari ta’sirida bu uslublar o‘zaro yaqinlashmoqda. Jizzax kabi hududlarda boshqa viloyatlardan ko‘chib kelgan oilalar o‘zlarining musiqiy an’analarini ham olib kelgani sababli, mahalliy va ko‘chib kelgan an’analarning o‘zaro ta’siri kuzatiladi [Yulyaxshiyev Sh.: 22-24]. Bu holat o‘qituvchidan hududning musiqiy qiyofasini chuqur bilishni va talabalarga uni qiyosiy tahlil asosida o‘rgatishni talab qiladi.

Hududiy yondashuvning pedagogik tamoyillari

Tadqiqotlar va amaliyot asosida quyidagi tamoyillarni ajratish mumkin. Milliylik va tarixiylik tamoyili folklor namunalarini o‘z davri va madaniy muhiti bilan bog‘lab o‘rgatishni nazarda tutadi [Solomonova T.E.: 32-35]. Hududiylik tamoyili talaba yashayotgan viloyatning aytim va kuylarini ta’limning boshlang‘ich nuqtasi sifatida olishni, so‘ngra boshqa hududlarga o‘tishni talab qiladi. Nazariya va amaliyot birligi tamoyili tinglash va tahlilni jonli ijro bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Izchillik va uzviylik tamoyili esa maktab, kollej va oliy ta’lim bosqichlarida folklor mazmunining bosqichma-bosqich murakkablashib borishini ta’minlaydi. Nihoyat, an’anaviylik tamoyili ustoz-shogird an’anasini ta’lim jarayoniga qo‘shishni ko‘zda tutadi [Qosimov R.: 48-51].

Metod va shakllar

Amaliy jihatdan bir necha shakl samara beradi. Tinglash va qiyosiy tahlil mashg‘ulotlarida talaba turli hududlardagi bir janrga oid namunalarni solishtiradi. Jonli ijro mashg‘ulotlari, folklor-etnografik ansambllar faoliyati va ko‘rik-tanlovlar bilimni amalda mustahkamlaydi; xalq ijodiyotining turli ko‘rik-tanlovlari, Navro‘z va Mustaqillik bayramlari bunga qulay imkoniyat yaratadi [Yulyaxshiyev Sh.: 30-35]. Talabalarning ilmiy-amaliy safarlarga chiqib, aytim va kuylarni yozib olishi, so‘ngra ularni tahlil qilishi tadqiqotchilik ko‘nikmasini shakllantiradi. Interfaol metodlar – muhokama, guruhli loyiha, marosimni sahnalashtirish – mavzuni jonli va esda qolarli qiladi. Bilimni baholashda nazariy javobdan tashqari, talabaning ijro mahorati va hududiy repertuarni bilish darajasi ham inobatga olinishi lozim.

Muammolar va amaliy yechimlar

Mavjud muammolar ham e’tiborga loyiq. Ayrim marosim va urf-odatlarning ijtimoiy mohiyati susayishi tufayli ular bilan bog‘liq aytimlar o‘z dastlabki vazifasini yo‘qotib, «nomarosim» xalq musiqasi guruhiga o‘tmoqda, ba’zi namunalar esa unutilish arafasida [Yulyaxshiyev Sh.: 49-53]. Og‘zaki an’anadagi namunalarning ko‘pi notalashtirilmagani sababli o‘quv materiallari yetarli emas, o‘qituvchilarning hududiy repertuarni bilishi ham turlicha.

Istiqbolda quyidagi yo‘nalishlar muhim: hududiy folklor namunalarini o‘z ichiga olgan o‘quv-metodik majmualar yaratish; audio va video yozuvlar, notalar va izohlarni jamlagan raqamli arxiv tashkil etish; baxshi, hofiz va xalq ijrochilarini ta’lim jarayoniga jalb etish; talabalar ilmiy to‘garaklari va folklor ekspeditsiyalarini yo‘lga qo‘yish [Karomatov F.: 47-51]. Bunday chora-tadbirlar musiqiy folklorni zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylantiradi.

Xulosa

Musiqiy folklor musiqa ta’limi uchun nafaqat mazmun manbai, balki tarbiya va kasbiy shakllanish vositasidir. Uni samarali singdirish uchun hududiy yondashuvni asos qilib olib, milliylik, nazariya va amaliyot birligi, izchillik hamda an’anaviylik tamoyillariga tayanish, interfaol va amaliy metodlardan foydalanish, hududiy repertuarni o‘quv dasturlariga kiritish hamda raqamli resurslarni rivojlantirish zarur. Shu yo‘l bilan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari milliy merosning bilimdon va faol targ‘ibotchisiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karomatov F. O‘zbek xalq musiqa merosi. Yigirmanchi asrda. II tom. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1985.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.
3. Qosimov R. An’anaviy ijrochilik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2007.
4. Solomonova T.E. O‘zbek musiqasi tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
5. Yulyaxshiyev Sh. O‘zbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent, 2024.
6. Yunusov R. O‘zbek xalq musiqa ijodi. II. – Toshkent, 200_.

O‘ZBEK MILLIY MUSIQA MEROSINI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISHDA DOIRA IJROCHILIGINING O‘RNI

Yo‘lchiyev Behzodjon Mansurjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat universiteti “Cholg‘u ijrochiligi”
kafedrasi stajor- o‘qituvchisi
elektron pochta: behzodjon0304@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek milliy musiqa merosini saqlash va rivojlantirishda doira ijrochiligining tarixiy, madaniy va pedagogik ahamiyati yoritiladi. Doira cholg‘usining milliy ijrochilik san’atidagi o‘rni, an’anaviy ritmik usullarning o‘ziga xosligi, ustoz-shogird an’analarining davomiyligi hamda ijrochilik maktablarining shakllanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, doira ijrochiligini zamonaviy musiqa ta’limi bilan uyg‘unlashtirish, yosh avlodda milliy musiqaga hurmat va qiziqish uyg‘otish, amaliy mashg‘ulotlar orqali ijro mahoratini rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratiladi. Maqolada milliy musiqiy qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazishda ta’lim muassasalari, ijrochilar va ustozlarning mas’uliyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: doira, milliy musiqa, musiqa merosi, ijrochilik san’ati, ritm, usul, an’ana, ustoz-shogird, maqom, folklor, musiqa ta’limi, ijro mahorati, milliy qadriyat, madaniyat, yosh avlod.

O‘zbek xalqining milliy musiqa merosi asrlar davomida shakllangan boy madaniy qadriyatlar majmuasidir. Ushbu meros xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, marosimlari, estetik qarashlari va ma’naviy dunyosini o‘zida aks ettiradi. Milliy cholg‘ular esa mazkur madaniy boylikni ifodalash, avloddan avlodga yetkazish va rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ana shunday cholg‘ulardan biri doira bo‘lib, u o‘zbek musiqa ijrochiligi va an’anaviy marosim madaniyatida alohida o‘rin egallaydi. Doira ijrochiligi faqat ritmik jo‘rnavozlik bilan cheklanmay, mustaqil badiiy ifoda, mahorat va ijodiy yondashuvni ham talab etadi. O‘zbek musiqasining tarixiy shakllanishini o‘rgangan Abdurauf Fitrat milliy cholg‘ular va mumtoz musiqa an’analariga e’tibor qaratgan [Fitrat, A. 1993]. Doira xalq musiqasi, raqs san’ati, maqom ijrochiligi va turli marosimlarda qo‘llanib kelgan. Uning jarangdor tovush imkoniyatlari, turli zarb usullari va ritmik naqshlari musiqiy asarning xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Doira orqali ijro etiladigan usullar asarning sur’ati, kayfiyati va badiiy ta’sirchanligini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli doira ijrochisidan nafaqat zarblarni to‘g‘ri bajarish, balki musiqiy mazmunni his qilish, ritmik aniqlikni saqlash va boshqa ijrochilar bilan uyg‘unlikda harakat qilish ham talab etiladi. Zarbli cholg‘ular tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda doira va boshqa milliy urma cholg‘ularning madaniy hayotdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi [Narzullayev, Sh.Z. 902–908-b]. Doira ijrochiligining muhim xususiyatlaridan biri milliy ijro usullarining rang-barangligidir. Turli musiqiy janrlarda qo‘llanadigan usullar ijrochidan zarb kuchini, tovush tembrini, ritmik aniqlikni va sur’atni boshqarishni talab qiladi. Ijrochi kichik va kuchli zarblar, tovushlarning davomiyligi, urg‘ular hamda pauzalardan maqsadga muvofiq foydalanishi lozim. Ushbu elementlarning o‘zaro uyg‘unligi ijroning ravonligi va badiiy ta’sirini belgilaydi. Doira ijrochiligini o‘rganishda cholg‘uning texnik imkoniyatlarini bilish bilan birga, milliy musiqaning uslubiy xususiyatlarini anglash ham zarur. Markaziy Osiyo musiqa madaniyatidagi doira va urma zarbli cholg‘ularni o‘rganuvchi tadqiqotlarda ularning ritmik va ijrochilik imkoniyatlari hamda o‘qitish usullari tahlil qilingan [Saidiy, S.B. 713–718-b].

Milliy musiqa merosini saqlashda ustoz-shogird an’anasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu an’ana orqali ijro tajribasi, milliy usullar, badiiy talqin va ijrochilik odobi yosh avlodga yetkaziladi. Ustoz shogirdga nafaqat cholg‘uni chalish texnikasini, balki musiqiy asarga munosabatni, mashq qilish madaniyatini, sahnada o‘zini tutishni va ijro mas’uliyatini ham o‘rgatadi. Shogird esa ustoz ko‘rsatmalarini amalda qo‘llash, tinglash, kuzatish va muntazam mashq qilish orqali o‘z mahoratini rivojlantiradi.

UNESCO ma’lumotlarida Shashmaqom an’anasini saqlashda og‘zaki ta’lim va ustozdan shogirdga bilim uzatish muhim yo‘l sifatida ko‘rsatilgan. Bu tajriba milliy musiqa merosining uzluksizligini ta’minlashda an’anaviy ta’lim usullarining ahamiyatini ko‘rsatadi [UNESCO.2008]. Bugungi kunda doira ijrochiligini rivojlantirish masalasi musiqa ta’limi bilan chambarchas bog‘liq. Bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari hamda oliy ta’lim tashkilotlarida doira ijrochiligini puxta o‘rgatish kelajakdagi ijrochilar va pedagoglarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bunda o‘quvchining yoshi, tayyorgarlik darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Mashg‘ulotlar oddiy ritmik mashqlardan boshlanib, murakkab usullar, mustaqil asarlar va ansambl ijrochiligiga bosqichma-bosqich o‘tishi kerak. Doira pedagoglarini tayyorlashga bag‘ishlangan ilmiy maqolada ijrochilik mahorati bilan birga pedagogik bilim va metodik tayyorgarlikning ham zarurligi yoritilgan [Xolikov, K.B. 346–350-b.]. Doira mashg‘ulotlarida nazariy bilim va amaliy faoliyat bir-birini to‘ldirishi lozim. O‘quvchi ritm, o‘lchov, sur’at, nota yozuvi va musiqiy shakl haqida bilimga ega bo‘lishi bilan birga, ushbu bilimlarni cholg‘uda amalda qo‘llay olishi kerak. Mashg‘ulot davomida ustoz avval ijro usulini ko‘rsatib beradi, so‘ng o‘quvchi uni sekin sur’atda takrorlaydi. Keyinchalik sur’at oshiriladi, ritmik aniqlik va tovush sifati tekshiriladi. Bunday yondashuv texnik ko‘nikmalarni izchil rivojlantirishga yordam beradi. Milliy zarbli cholg‘ularni uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ta’limning turli bosqichlari o‘rtasidagi izchillik va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish masalalariga e’tibor qaratilgan [Xolikov, K.B. 351–356-b.].

Doira ijrochiligini o‘rgatishda milliy musiqa namunalari va folklor materiallaridan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Xalq kuy-qo‘shiqlari, raqs musiqasi va an’anaviy usullar o‘quvchiga milliy ritmik tafakkurni anglash imkonini beradi. O‘quvchi asarni faqat texnik jihatdan o‘zlashtirmasdan, uning kelib chiqishi, ijro muhiti va badiiy xususiyatlari haqida ham tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Bu esa ijrochilik faoliyatini mazmunan boyitadi. Doira ta’limida milliy musiqa merosini saqlash va targ‘ib qilish masalalarini o‘rgangan Jumamuratov an’anaviy usullar, folklor namunalari va maqom materiallaridan foydalanishning ahamiyatini ko‘rsatadi [Jumamuratov, D.Q. 814–818-b.]. Doira ijrochiligi yoshlarning milliy o‘zlikni anglashiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Milliy cholg‘uni o‘rganish jarayonida yoshlar xalqning tarixiy xotirasi, san’at an’analari va madaniy qadriyatlari bilan yaqindan tanishadi. Jamoaviy ijro esa o‘zaro tinglash, hamkorlik, intizom va umumiy natija uchun mas’uliyatni rivojlantiradi. Sahna chiqishlari o‘quvchilarda o‘ziga ishonchni mustahkamlab, milliy san’atni boshqalarga namoyish etish imkonini yaratadi. Doira

ijrochiligi va yoshlarda milliy o‘zlikni anglash masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham ushbu cholg‘uning tarbiyaviy va madaniy ahamiyati ta’kidlangan [Jumamuratov, D.Q. 489–494-b.]

Milliy cholg‘ularni o‘qitishda ta’lim mazmuni va baholash mezonlarining aniqligi ham muhimdir. O‘quvchining rivojlanishini baholashda zarblarning to‘g‘ri bajarilishi, ritmik barqarorlik, sur’atga rioya qilish, tovushning sifatli chiqishi, ijrodagi ifodalilik va mustaqil ishlash ko‘nikmalari hisobga olinishi mumkin. Baholash faqat xatolarni aniqlash vositasi bo‘lib qolmasdan, o‘quvchining keyingi rivojlanish yo‘nalishini belgilashi lozim. Doira ta’limida davlat ta’lim standartlarini takomillashtirishga bag‘ishlangan maqolada kompetensiyalarni shakllantirish, bilim va ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan [Xolikov, K.B. 357–361-b.]. Zamonaviy texnologiyalar ham doira ijrochiligini o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Audio va video yozuvlar orqali ijroni tinglash, zarblarning aniqligini kuzatish, mashqlarni qayta tahlil qilish hamda turli ijro talqinlarini taqqoslash mumkin. Biroq texnologiyalar ustozning bevosita ko‘rsatmasi va jonli ijro tajribasini to‘liq almashtirmaydi. Ulardan an’anaviy bilimlarni mustahkamlash va o‘quvchining mustaqil mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, milliy ijro usullarini yozib olish, arxivlash va ilmiy o‘rganish kelajak avlod uchun muhim manbalarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Doira ijrochiligini rivojlantirishda ijrochilar, pedagoglar, ilmiy tadqiqotchilar va madaniyat muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. Konsertlar, mahorat darslari, ilmiy-amaliy anjumanlar va ijrochilik tanlovlari milliy san’atga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Tajribali ustozlarning ijro uslublarini hujjatlashtirish, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratish va yosh ijrochilar uchun sifatli repertuar tayyorlash milliy merosning davomiyligini ta’minlashga yordam beradi. Bunday ishlar doira ijrochiligini faqat tarixiy meros sifatida saqlab qolmay, uni zamonaviy san’at va ta’lim jarayonida rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, doira ijrochiligi o‘zbek milliy musiqa merosining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning tarixiy, badiiy va tarbiyaviy ahamiyati katta. Milliy ijro usullarini asrash, ustoz-shogird an’analarini davom ettirish, ta’lim jarayonini zamonaviy metodlar bilan boyitish va yosh avlodning milliy san’atga qiziqishini oshirish orqali ushbu merosning uzluksizligini ta’minlash mumkin. Doira ijrochiligini o‘rganish va o‘rgatish jarayoni texnik mahoratni shakllantirish bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarga hurmat, ijodiy fikrlash va musiqiy madaniyatni

rivojlantiradi. Shu bois doira ijrochiligini saqlash va rivojlantirish musiqa ta’limi hamda milliy madaniyat taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azimov, A.Q. Milliy qo‘shiqlar vositasida o‘quvchilarni ijrochilik malakalarini shakllantirish metodlari (umumta’lim maktablari misolida). - Science and Education, 2025, 6(2), 394-399-b.
2. Fitrat, A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - Toshkent: Fan, 1993.
3. Jumamuratov, D.Q. Doira ijrochiligi orqali yoshlarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish. - Science and Education, 2026, 7(1), 489–494-b.
4. Jumamuratov, D.Q. Doira o‘rgatishda milliy musiqa merosini saqlash va targ‘ib qilish masalalari. - Science and Education, 2026, 7(1), 814–818-b.
5. Narzullayev, Sh.Z. Zarbli cholg‘ular tarixidan. - Science and Education, 2025, 6(11), 902–908-b.
6. Saidiy, S.B. Markaziy Osiyo musiqa madaniyatida doyra va urma zarbli cholg‘ular: tarixiy-nazariy asoslar, ijrochilik uslublari va innovatsion nota yozuvi tizimi. - Science and Education, 2025, 6(12), 713–718-b.
7. UNESCO. Shashmaqom music. - Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxati, 2008.
8. Xolikov, K.B. BMSM muassasalarida doira pedagogikasi mutaxassislarini tayyorlash tizimi. — Science and Education, 2025, 6(12), 346–350-b.
9. Xolikov, K.B. Doira ta’limida davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish yo‘nalishlari. — *Science and Education*, 2025, 6(12), 357–361-b.
10. Xolikov, K.B. Uzluksiz ta’lim tizimida milliy zarbli cholg‘ular o‘qitish metodologiyasi. — *Science and Education*, 2025, 6(12), 351–356-b.

MILLIY CHOLG‘U IJROCHILIGIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH: AN’ANA VA INNOVATSIYA UYG‘UNLIGI

Yuldashev Ahmadjon
yuldashevaxmadjon852@gmail.com
Qo‘qon davlat universiteti
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy cholg‘u ijrochiligida ijodiy tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslari, milliy musiqiy meros va an’anaviy “ustoz-shogird” tizimining o‘rni yoritiladi. Ijodiy tafakkur musiqiy obrazni anglash, kuy mazmunini mustaqil talqin qilish, ijro vositalarini ongli tanlash va ijro jarayonida badiiy qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq jarayon sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: milliy cholg‘u, ijrochilik, ijodiy tafakkur, an’ana, ustoz-shogird, badiiy talqin, musiqiy meros

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda milliy musiqa san’atini saqlash, rivojlantirish va uni yangi avlodga yetkazish dolzarb masalalardan biridir. Milliy cholg‘u ijrochiligi sohasida an’anaviy ijro maktablarini asrash bilan birga, yosh ijrochilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va yangi badiiy yechimlarni izlash qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Ijrochi asarni faqat nota matnini to‘g‘ri bajaruvchi mutaxassis sifatida emas, balki musiqiy mazmunni anglaydigan, obraz yarata oladigan va mustaqil badiiy qaror qabul qiladigan ijodkor sifatida shakllanishi lozim. Milliy musiqa merosini o‘rganishda cholg‘ularning tarixiy shakllanishi, ijro amaliyoti va an’anaviy musiqiy tafakkurini hisobga olish zarur.

O‘zbek mumtoz musiqasi, milliy cholg‘ular va ularning tarixiy rivojlanishiga oid ma’lumotlar Fitrat hamda T.S. Vizgo tadqiqotlarida yoritilgan [Fitrat A., 1993: 5–12; Vizgo T.S., 1980: 7–15]. Ushbu manbalar milliy cholg‘u ijrochiligini tarixiy-madaniy jarayon bilan bog‘liq holda anglashga yordam beradi.

Maqolaning maqsadi milliy cholg‘u ijrochiligida ijodiy tafakkur tushunchasini ochib berish, an’anaviy ustoz-shogird tizimining imkoniyatlarini tahlil qilish va an’ana hamda ijodiy mustaqillik o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslashdan iborat.

Ijodiy tafakkur insonning mavjud bilim va tajribalarini yangi sharoitda qo‘llashi, muammoga noodatiy yondashishi hamda yangi g‘oya va yechimlarni ilgari surishi bilan tavsiflanadi. Musiqa san’atida bu jarayon eshitish, tasavvur, xotira, musiqiy idrok, emotsional kechinma va ijro texnikasining o‘zaro uyg‘unligini talab

qiladi. Milliy cholg‘u ijrochisining ijodiy tafakkuri bir necha tarkibiy jihatlarni qamrab oladi: musiqiy obrazni anglash; kuy mazmunini mustaqil talqin qilish; ijro vositalarini ongli tanlash; ohang va ritm xususiyatlarini his etish; improvizatsion fikrlash; ijro jarayonida mustaqil qaror qabul qilish; an’anaviy ijro uslubini zamonaviy badiiy qarashlar bilan uyg‘unlashtirish.

Ijodiy tafakkur texnik mahoratga qarama-qarshi emas. Aksincha, texnik tayyorgarlik ijrochining badiiy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish vositasidir. Dutor, rubob, g‘ijjak yoki nay ijrochisi nota balandligi va ritmik qiymatlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasdan, asarning janri, uslubi, xarakteri, frazirovkasi va badiiy obrazini ham tahlil qilishi lozim. Milliy cholg‘ularning tarixiy rivojlanishi va ijro imkoniyatlarini bilish asarning mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi [Fitrat A., 1993: 15–25; Vizgo T.S., 1980: 20–28]. Shu tariqa ijro mexanik takrorlashdan ongli badiiy talqin darajasiga ko‘tariladi.

O‘zbek milliy cholg‘u ijrochiligining shakllanishida “ustoz-shogird” an’anasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu tizim orqali ijro uslubi, repertuar, sozandachilik tajribasi va milliy musiqiy tafakkur avloddan avlodga o‘tib kelgan. Shogird ustoz ijrosini tinglaydi, kuzatadi, takrorlaydi va bosqichma-bosqich mustaqil ijroga o‘tadi. Maqom san’ati va uning ijro an’analari tarixiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, I. Rajabov tadqiqotlarida ham shu jihatlar tahlil qilingan [Rajabov I., 1963: 180–190]. An’anaviy ta’limning kuchli tomoni shundaki, musiqiy bilim faqat nazariy ma’lumot sifatida emas, balki bevosita ijro tajribasi orqali o‘zlashtiriladi. Biroq bugungi ta’lim sharoitida “ustoz-shogird” tizimini faqat taqlid qilish deb tushunish to‘g‘ri emas. Shogird ustoz ijrosini o‘zlashtirgach, uslubning ichki qonuniyatlarini anglab, o‘zining individual ijro xususiyatlarini shakllantirishi lozim.

Demak, an’anani davom ettirish tayyor namunani o‘zgartirmasdan takrorlash bilangina cheklanmaydi. An’ana ijrochiga uslubiy mezon, badiiy did va milliy musiqiy tafakkur beradi; ijodiy mustaqillik esa shu tajribani chuqur anglagan holda shaxsiy talqin yaratish imkonini beradi. An’ana va innovatsiya bir-birini inkor etmaydi: milliy ijro maktabi ijodiy izlanish uchun mustahkam poydevor bo‘la oladi.

Milliy cholg‘u ijrochiligida ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnik mahorat, musiqiy idrok, badiiy tahlil va mustaqil qaror qabul qilishni bir butun jarayon sifatida tashkil etishni talab qiladi. Ijrochi asarning nota matnini to‘g‘ri bajarish bilan birga, uning janri, uslubi, xarakteri va badiiy mazmunini anglay olishi kerak. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, “ustoz-shogird” an’anasi milliy ijrochilik tajribasini saqlash va uzatishning muhim shaklidir. Shu bilan birga, uning samarasi shogirdning mustaqil fikrlashi va individual ijro uslubini shakllantirishiga ham bog‘liq. Shuning uchun

ta’lim jarayonida an’anaviy ijro namunalari bilan ishlash, musiqiy asar mazmunini muhokama qilish va talabaning o‘z talqinini asoslab berishiga imkon yaratish lozim.

Milliy cholg‘u ijrochiligining kelajakdagi taraqqiyoti an’anani saqlash va ijodiy tafakkurni rivojlantirishni uyg‘un olib borishga bog‘liq. Bunday yondashuv milliy musiqiy merosning davomiyligini ta’minlab, ijrochining mustaqil va mas’uliyatli san’atkor sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fitrat A. O‘zbek klassik muzikasi va uning tarixi. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent: Fan, 1963.
3. Vizgo T.S. Музыкальные инструменты Средней Азии. – Москва: Музыка, 1980.

MUNDARIJA

1-YO‘NALISH			
KARSHIBAYEV J.X		KIRISH	
1	ASQAROV A.A.	JARQO‘TON - O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ENG QADIMGI SHAHARLARDAN BIRI: ARXEOLOGIK TOPILMALARNING TARIXIY VA SAN’ATSHUNOSLIK TAHLILI	4
2	IS’HOQOV M.M.	IJTIMOIY ANTROPOLOGIYADA SAN’AT VA UNING FUNKTSIYALARI	16
3	ALMANOV Q.O.	USTRUSHONA TARIXIY-MADANIY MEROSINI O‘RGANISHDA ARXEOLOGIK YODGORLIKLAR VA TANGA TOPILMALARINING O‘RNI	26
4	AYUPOV O.	RUY GONSALES DE KLAVIXO KUNDALIGIDA AMIR TEMUR DAVRI SAMARQANDINING TARIXIY-MADANIY MUHITI	34
5	ABDURAIMOV D.S	USTRUSHONA ANTIK VA ILK O‘RTA ASRLARDA (tarixiy va arxeologik manbalar taxlili)	38
6	ANVAROV A.A.	INTEGRATION OF ENGINEERING GRAPHICS AND INFORMATION CULTURE IN THE STUDY AND DIGITAL RECONSTRUCTION OF HISTORICAL MONUMENTS IN NAMANGAN (CASE OF AKHSIKENT)	41
7	ABDULLAYEVA M.S	XIVA XONLIGIDAGI NEMIS MENNONITLAR MODDIY-MADANIY MEROSI: MANBASHUNOSLIK VA MUZEYSHUNOSLIK JIHATIDAN TADQIQ	45
8	BARATOV SH.	MUSTAQILLIK YILLARIDA USTRUSHONA TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI	51
9	BERIKBAYEVA D.T.	O‘ZBEKISTON TARIXIY YODGORLIKLARIDA MILLIY BEZAK SAN’ATINING SHAKLLANISHINI BIRLAMCHI MANBALAR ASOSIDA O‘RGANISH	57
10	DAVLATOV O.B	REGISTON MAJMUASINI O‘RGANISHDA TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIKNING INTEGRATSIYASI	61
11	ERGASHEV I.B.	O‘ZBEKISTON XALQLARI ETNOGRAFIK MEROSINI O‘RGANISH - IJTIMOIY ISH TA’LIMIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VOSITASI SIFATIDA	**65**
12	HABIBJONOVA N.SH	O‘ZBEK OILASIDA MILLIY AN’ANALAR VA OILAVIY QADRIYATLARNING AVLODLARARO UZVIYLIGI	69
13	ҲАЙДАРОВ С.Ф.	БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ ТАРИХИЙ-МАДАНИЙ МЕРОС ЁДГОРЛИКЛАРИНИ ЎРГАНИШДА РЕСТАВРАЦИЯ СОҲАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	73
14	IBRAXIMOV B.B	TARIXNI RANGLAR VA NAQSHLARDA AKS ETTIRISH: O‘ZBEKISTON TARIXIY-ME’MORIY MEROSINI O‘RGANISHDA MINIATYURA, MUZEY FONDLARI VA AMALIY SAN’ATNING AHAMIYATI	78
15	IMOMOV F.SH.	TEMURIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGIDA OQAVA SUV VA DRENAJ TIZIMLARINING ME’MORIY-KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI	84

16	ISROFILOVA D.Z.	SO‘G‘D HUKMDORLARINING YOZGI QARORGOHI – KOFIRQALA: MODDIY MADANIYAT VA BADIIY SAN’AT NAMUNALARI	88
17	IZATOVA N.	XITOY ELCHISI CHEN CHENG QAYDLARI TEMURIYLAR SULOLASI DAVRI ME’MORIY YODGORLIKLARINI O‘RGANISHDA MANBA SIFATIDA	92
18	JO‘RAYEVA M	QORAXONIYLAR DAVRI ILM VA TABOBAT MUASSASALARI: YOZMA MANBA, ATAMA VA VAQFNOMA DALILLARI	96
19	КАРИМОВА Н.И.	ИЗ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ БАКАЛЕЙНОЙ ТОРГОВЛИ И РЫНОЧНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА)	99
20	MIRZALIYEV U.	XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARIDAGI TARIXIY-DEMOGRAFIK JARAYONLAR.	103
21	MAMATQULOV B.J	MUMTOZ O‘ZBEK NASRIDA TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLAR TASVIRI: MUALLIF POZITSIYASI VA TARIXIY HAQIQAT TALQINI	106
22	MAVLANOV A.O.	“FARHOD GES - O‘ZBEKISTONNING XX ASR SANOAT VA MUHANDISLIK MEROSI OBYEKTI SIFATIDA”	111
23	MAMATOV SH.M.	O‘RTA SIRDARYO HAVZASINING TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARINI O‘RGANISHDA ARXEOLOGIK MANBALARNING O‘RNI	114
24	NE’MATOV R.A.	ILK O‘RTA ASRLAR XORAZM TARIXIY-MADANIY MEROSINI O‘RGANISHDA ARXEOLOGIK VA TASVIRIY SAN’AT MANBALARINING O‘RNI	119
25	ORIFXO‘JAYEV SH	“SIYOSATNOMA” ASARI O‘RTA ASRLAR ME’MORCHILIGI VA SHAHARSOZLIK MADANIYATINI O‘RGANISHDA YOZMA MANBA SIFATIDA	124
26	ПАРДАЕВ М.Ҳ ҲАСАНБОЕВ Т.Ф	ҚАЛИЯТЕПА ЁДГОРЛИГИДАН ТОПИЛГАН СИРЛАНГАН КУЛОЛЛИК БУЮМЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ВА БАДИИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ (XV–XVI АСРЛАР)	127
27	QUDRATOV S.S.	QADIMGI FARG‘ONADA DEHQONCHILIKNING PAYDO BO‘LISHI	133
28	QAMBAROV A.B	ZAMONAVIY O‘ZBEK JAMIYATIDA YOSHLARNING TARIXIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY-MADANIY MEROSNING AHAMIYATI	141
29	RAYIMJONOV I.X.	USTRUSHONA ILK O‘RTA ASRLAR MUDOFAA INSHOOTLARINING ARXEOLOGIK VA ME’MORIY XUSUSIYATLARI	146
30	RAIMOV S.R.	JIZZAX VOHASI AHOLISINING ISLOMGACHA BO‘LGAN DINIY E’TIQODLARI HAQIDA	151
31	ROZIQOV SH.R.	TARIXIY-MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TABIIY VA TEXNOGEN XAVFLARGA BARQARORLIGINI TA’MINLASH: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	155

32	SATTOROV N. A	ANTIK DAVR O‘RTA OSIYO MODDIY MADANIYATI VA ETNOMADANIY JARAYONLARINI ARXEOLOGIK MANBALAR ASOSIDA O‘RGANISH	160
33	SABIROV M.R	MIZDAHQON ARXEOLOGIK MAJMUASI ASOSIDA X–XIV ASRLARDA XORAZM METALLSOZLIK USTAXONALARINING RIVOJLANISHI VA ISHLAB CHIQARISH TUZILMASI	168
34	SABIROV M.R.	ANUSHTEGINIYLAR DAVRIDA (XI–XIII ASRLAR) XORAZM BADIIY METALLSOZLIGIDA BEZAK USLUBLARI VA RAMZIY TASVIRLARNING SHAKLLANISHI	172
35	SADIKOV A.I.	XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA AMUDARYO BO‘LIMINING SIYOSIY-MA’MURIY TARIXIGA OID TARIXIY VA ARXIV MANBALARI TAHLILI	176
36	SALIMOV Y.G‘.	SHIRVOQ OTA ZIYORATGOHINING TARIXIY-MADANIY XUSUSIYATLARI	180
37	САНГИРОВА Д.Х.	СУБҲОНҚУЛИ ХОННИНГ БАЛХДАГИ МАДРАСАСИ ВАҚФ ТАЪМИНОТИ ВА БОШҚАРУВИГА ДОИР	182
38	TO‘YCHIBOYEV B.B	QOYATOSH TASVIRLARI KO‘P FUNKSIYALI MADANIY TIZIM SIFATIDA (O‘zbekiston yodgorliklari misolida)	188
39	ТОШБОЕВ Ф.Е	АРХЕОЛОГИК МАНБАЛАР ВА УЛАРДАН МУЗЕЙЛАРДА ФОЙДАЛАНИШ ҲАҚИДА	193
40	TOXTIYEV SH.R	MARKAZIY OSIYODA HAZRAT ALI NOMI BILAN BOG‘LIQ ZIYORATGOHLAR	198
41	ТУКАЕВА З.А.	ЎЗБЕКИСТОНДА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ТАРИХИЙ ВА МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ	202
42	TURDIYEV M.M	TARIXIY GASTRONOMIK MEROSDAN ZAMONAVIY NOMODDIY MADANIY MEROS SIYOSATIGACHA: O‘ZBEKISTONDA UNUTILAYOTGAN TAOMLARNI ANIQLASH, HUJJATLASHTIRISH VA MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI	207
43	XALIYEVA SH.A	ZARAFSHON VA SIRDARYO ORALIG‘I (SUG‘D–USTRUSHONA) HARBIY MADANIYATINING SHAKLLANISHI: YOZMA VA ARXEOLOGIK MANBALARNING QIYOSIY TAHLILI (MILODDAN AVVALGI I MING YILLIK – MILODIY VIII ASR)	218
44	ХАЙРОВА Н.Р.	КУЛЬТУРА, СОХРАНЁННАЯ В СЛОВЕ	223
45	XUDOYBERDIYEV A.A	AKADEMIK O‘TKUR ISLOMOVNING O‘ZBEKISTON ARXEOLOGIYASI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI	227
46	XUDOYBERGANOVA N.I.	AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI XORAZM MADANIYATIGA OID ARXEOLOGIK YODGORLIKLARNING O‘RGANILISHI	233
47	XURRAMOVA S.J.	O‘ZBEKISTON TARIXIY-MADANIY MEROSIDA QADIMGI DAVLATCHILIK RAMZLARI: ARXEOLOGIK VA TASVIRIY MANBALAR TAHLILI	237
48	G‘ANIYEV M.F.	MAHDUM-I A’ZAM MEMORIAL-ME’MORIY MAJMUASI TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIK FANLARARO	243

		TADQIQOTLARI KONTEKSTIDA	
49	G‘OFUROV J.I.	ILK O‘RTA ASRLARDA JIZZAX VOHASI QISHLOQ MAKONLARI ME’MORCHILIGI VA QURILISH LOYIHASI: KONSTRUKTIV USULLAR, TIPOLOGIYA VA EVOLYUTSIYA	248
50	SHAYMATOV R.M.	“MUSAXXIR AL-BILOD” ASARIDA SUV MANBALARI VA SUG‘ORISH MASALALARI	255
		2-YO‘NALISH	
1	IS’HOQOV M.M.	IJTIMOIY ANTROPOLOGIYADA SAN’AT VA UNING FUNKTSIYALARI	259
2	ABDUSALOMOVA SH.SH	O‘ZBEKISTON TARIXIY ME’MORIY OB’YEKTLARINI O‘RGANISHDA MINIATYURA SAN’ATI, MUZEY FONDLARI VA AMALIY SAN’AT NAMUNALARINING AHAMIYATI	267
3	BEYSENOV K.S	TARIXIY VA MADANIY MEROSNI TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI VOSITASIDA O‘RGANISHDAGI INNOVATSION IMKONIYATLAR	272
4	CHO‘LIYEV O.R	O‘ZBEKISTON ME’MORIY MEROSINI O‘RGANISHDA MUZEY KOLLEKSIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI	275
5	DJURAYEV I.N.	O‘ZBEKISTON TARIXIY-MADANIY MEROSINI O‘RGANISHDA AMALIY SAN’AT NAMUNALARINING O‘RNI	278
6	HAYDAROVA Y.B.	JIZZAX VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYINING NOYOB FONDLARI	283
7	KANIMKULOV O.SH	TARIXIY-ME’MORIY OBYEKTLARNI O‘RGANISH HAMDA MUZEY FONDLARINI BOYITISHDA TARIX VA ARXEOLOGIYA INSTITUTINING O‘RNI	288
8	KARIMOVA S.E	G.A.PUGACHENKOVANING ILMIY IZLANISHLARI VA HAYOT FAOLIYATI	292
9	KURBANOV E.E	O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDI QADIMGI AMALIY SAN’AT NAMUNALARINI O‘RGANISHDA G.PUGACHENKOVANING IZLANISHLARI	296
10	ЛЕВТЕЕВА Л.Г	КЕРАМИКА ТАШКЕНТА В СОБРАНИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА: ИСТОРИЯ, ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННОСТЬ	302
11	MIRZALIYEV U.B TOVASHOVA D	MINATYURA SAN’ATI VA UNING ME’MORIY OBIDALARNI REKONSTRUKSIYA QILISHDAGI ROLI	309
12	MUXAMMADOV Z.A.	O‘ZBEKISTON TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARIDA OV VA HARBIY QUROLLARNING AKS ETISHI: ARXEOLOGIK VA TASVIRIY MANBALAR TAHLILI	313
13	O‘RMONOV X.B	GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI TUZILMASIDAGI QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI MUZEYI XUSUSIDA	317
14	PRIMQULOV A.M	RAQAMLI MUZEYLAR: AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING EKSPOZITSIYA VA	321

		KOLLEKSIYA BOSHQARUVIDAGI ROLI	
15	QARSHIBOYEVA M	XVI ASR BUXORO SAVDO INSHOOTLARI VA HUNARMANDCHILIK: BINO TURINING MAHSULOTGA BOG‘LIQLIGI	327
16	QO‘LDOSHEV S	QORAXONIYLAR DAVRI HARBIY VA MAROSIM RAMZLARI AMALIY SAN’AT NAMUNASI SIFATIDA	330
17	QUDRATOV D.T.	O‘ZBEKISTONNING ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTIGA A’ZO DAVLATLAR BILAN MADANIY ALOQALARIDA MUZEY VA AMALIY SAN’AT NAMUNALARINING O‘RNI	334
18	SULAYMONOV A.P	MINIATYURA SAN’ATI NAMUNALARIDA SHARQ XALQLARI BADIIY-MADANIY MEROSI TALQINI	341
19	SULTANOV SH. R NURMATOVA Z.D	MUZEY EKSPONATLARINI ATRIBUTSIYA QILISHDA TARIXIY MANBALAR VA SAN’ATSHUNOSLIK TAHLILINING O‘ZARO UYG‘UNLIGI	346
20	ХАЙРОВ Р. З.	МИНИАТЮРА И МУЗЕЙНЫЕ ФОНДЫ КАК ИСТОЧНИКИ ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИКО-АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКИСТАНА	350
21	XOLMATOV G‘.M	MUZEY FONDLARI – O‘ZBEKISTON TARIXIY-ME’MORIY MEROSINI TADQIQ ETISHNING MUHIM MANBASI	355
22	YARASHOVA M.SH	TARIXIY VA MADANIY YODGORLIKLARNI TADQIQ QILISHDA TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIK SOHALARINING O‘ZARO HAMKORLIGI: RAQAMLI YONDASHUV IMKONIYATLARI	360
23	YUSUPOVA SH.A	SHARQ MINIATYURA SAN’ATIDAGI KOSHIN VA NAQSH KOMPOZITSIYALARI ASOSIDA YO‘QOLGAN ME’MORIY BEZAKLARNI REKONSTRUKSIYA QILISH TAMOYILLARI	364
3-YO‘NALISH			
1	XAYROV R.Z	O‘ZBEKISTON ME’MORIY OBIDALARINI RASSOMLAR IJODI NAMUNALARI ASOSIDA O‘RGANISH	368
2	ABDUSALOMOVA SH.	TARIXIY VA MADANIY MEROSNI TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI VOSITASIDA O‘RGANISHNING TA’LIMDAGI INNOVATSION IMKONIYATLARI	372
3	ABDUVAXIDOV D.	TEMURIYLAR DAVRIDA HIROTDA RASSOMCHILIK VA TASVIRIY SAN’AT MAKTABINING SHAKLLANISHI HAMDA UNDA KAMOLIDDIN BEHZODNING ROLI VA O‘RNI	376
4	ALIYEVA M.	SARDOBA ME’MORIY YODGORLIGINI TASVIRLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING KUZATUVCHANLIK VA KOMPOZITSION KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	380
5	ANVAROV A., ANVAROVA M.	INTEGRATION OF ENGINEERING GRAPHICS AND INFORMATION CULTURE IN THE STUDY AND DIGITAL RECONSTRUCTION OF HISTORICAL MONUMENTS IN NAMANGAN (CASE OF AKHSIKENT)	384

6	AZATBAYEVA A.A.	BOSHLANG‘ICH SINF TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI BADIIY BEZAK YARATISHGA O‘RGATISHNING DIDAKTIK VA METODIK ASOSLARI	388
7	AZAMOVA M., XAYROV R., YULDASHEV A.	O‘ZBEKISTONNING TARIXIY-MADANIY MEROSINI O‘RGANISHDA RAQAMLI MODELLASHTIRISH VA MUHANDISLIK GRAFIKASI	391
8	BERIKBAYEV A.	TARIXIY-ME’MORIY OBIDALARNI AUTOCAD VA 3D GRAFIK DASTURLAR ASOSIDA O‘RGANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	396
9	BERIKBAYEV A.	TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY-ME’MORIY MEROS OBYEKTLARIDAN FOYDALANISH	401
10	HABIBJONOVA N.	O‘ZBEK OILASIDA MILLIY AN’ANALAR VA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA SAN’ATNING O‘RNI	406
11	INOYATOV O.	YORUG‘LIK MANBAINING VAZIYATIGA BOG‘LIQ HOLDA SOYALAR GEOMETRIYASI	409
12	JUMABOYEV N.	TASVIRIY SAN’AT TA’LIMIDA TARIXIY-MADANIY MEROSNI O‘RGANISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	415
13	KARIMJONOVA D.	TASVIRIY SAN’AT VA CHIZMACHILIK DARSLARIDA MILLIY-MADANIY MEROS NAMUNALARI ORQALI TALABALARDA MILLIY IFTIXOR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH	419
14	KURBANBAYEVA M.	TARIXIY-MADANIY MEROSNI RAQAMLI MUHITDA TADQIQ ETISH VA TAQDIM ETISHDA RAQAMLI MULOQOTNING DEONTOLOGIK ASOSLARI	423
15	MIRZAKULOV I.X.	O‘ZBEK XALQ AMALIY BEZAK SAN’ATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TA’LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI	427
16	OBIDOV B.	TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIK SOHALARI HAMKORLIGIDA TARIXIY VA MADANIY YODGORLIKLARNI O‘RGANISH ISTIQBOLLARI	431
17	QOSIMJONOVA L.	TARIXIY-ME’MORIY MEROS OBYEKTLARINI O‘RGANISHDA TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI INTEGRATSIYASINING METODIK IMKONIYATLARI	435
18	QUDRATOVA CH.	TARIX VA SAN’ATSHUNOSLIK ASOSIDA O‘ZBEKISTON TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARINI O‘RGANISH	438
19	RUSTAMOVA Y.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA MILLIYLIK VA TARIXIY-MADANIY MEROSNI SINGDIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI	442
20	SA’DULLAYEVA R.	TARIXIY-MADANIY MEROS VA YOSHLAR: MILLIY O‘ZLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	446
21	SULTANOV S.SH., RAXIMJANOV A.M.	TARIXIY-MADANIY MEROSNI O‘RGANISHDA TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK	450

		GRAFIKASINING INNOVATSION IMKONIYATLARI	
22	TULAVBOYEVA B.	AN’AVIY KASHTACHILIKNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ESTETIK TAMOILARI	455
23	XAMRAYEV A.F.	O‘ZBEK KULOLCHILIK MEROSINI KOMPOZITSIYA DARSLARIDA BADIIY TALQIN ETISHNING METODIK IMKONIYATLARI	460
24	ХАКИМОВ РАВШАН.	ЦИФРОВЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИИ ВСЕМИРНОЙ ИСТОРИИ НА ОСНОВЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ИСТОРИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ	463
25	TAJBENOVA D.K.	BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTERAKT USULIDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI	468
26	TAJBENOVA S.S.	BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI	472
27	XAYROVA M.R.	TARIXIY-MADANIY MEROSNI RAQAMLI TASVIRIY SAN’AT VOSITASIDA O‘RGANISH METODLARI	476
28	XAYRULLAYEVA CH.X., JUMABOYEV N.P.	TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLAR OBRAZINI KOMPOZITSIYA DARSLARIDA BADIIY JONLANTIRISH METODIKASI	480
29	YORLAQOVA M.A.	TARIXIY MEROSNI TA’LIM JARAYONIDA O‘RGANISHDA TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI INTEGRATSIYASI	484
30	YUSUPOVA SH.A.	O‘QUVCHILARNING TASVIRIY VA MUHANDISLIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MILLIY NAQSH KOMPOZITSIYALARINING O‘RNI	488
31	YUSUPOVA SH.A., RO‘ZIBOYEVA S.B.	TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA O‘ZBEKISTON TARIXIY OBIDALARINI CHIZISH ORQALI O‘QUVCHILARNING MILLIY G‘URURINI OSHIRISH	492
32	YUSUPOVA SH.A., XOLJIGITOVA L.I.	TARIXIY-MADANIY MEROSNI TASVIRIY SAN’AT ORQALI O‘RGANISH	495
4-YO‘NALISH			
1	ABDUSAMATOVA N.S.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA MUSIQA SAN’ATINING TUTGAN O‘RNI HAQIDA	500
2	ASHIROVA L., RAXIMOV N.	OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA MILLIY MUSIQIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH	505
3	BUXARBAYEVA S.M., RAXIMOV N.N.	MILLIY MUSIQA MEROSINI INKLYUZIV TA’LIMGA INTEGRATSIYALASH ORQALI O‘QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH	509
4	БАХАДИРОВ Н.Ш.	ИНТЕГРАЦИЯ ВИДОВ ИСКУССТВ В УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ ГОРОДА ГУЛИСТАНА, СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ	513
5	IBRAGIMOVA N.A.	BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING DIRIJORLIK MALAKALARINI MILLIY REPERTUAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH	517
6	IBRAGIMOVA SH.B.	BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINI MILLIY MUSIQA MEROSI ASOSIDA KASBIY TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING	521

		O‘RNI	
7	INOMOVA M.F.	IKKINCHI RENESSANS DAVRIDA SAMARQANDDA MUSIQA SAN’ATI TARAQQIYOTI	529
8	ISMAILOVA S.I., YULYAXSHIYEV SH.N.	GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MUSIQA MEROSINI ASRASH VA RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	530
9	KURBANOVA M.M.	MILLIY MUSIQA MEROSINI MUSIQA TA’LIMI JARAYONIGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	534
10	NAZAROV O.R., GALIYEV S.V.	ABU NASR FOROBIY MUSIQA ILMIY MEROSI VA UNI MILLIY MUSIQA TA’LIMIGA INTEGRATSIYA QILISH MASALALARI	537
11	RASHİDOV S.A.	BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA MILLIY MUSIQIY MEROSNI USTOZ-SHOGIRD AN’ANASI ASOSIDA O‘ZLASHTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI	541
12	RO‘ZIYEVA M.G‘., NURALIYEVA Z.A.	MUSIQA TARBIYA VA IJTIMOIY ONG: PEDAGOG KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI	544
13	SHUKURJONOVA X.F.	O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARINI TAKOMILLASHTIRISH: TARIXIY ILDIZLAR, XX ASR TAJRIBASI VA MILLIY O‘ZIGA XOSLIKNI SAQLASH MUAMMOSI	549
14	SOBIRJONOV A.Z.	FORTEPIANO DARSLARIDA MILLIY ASARLARNI TAHLIL QILISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY VA ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISH	554
15	SULTANOV SH.R., XABIBULLAYEV A.X.	MILLIY MUSIQA MEROSI VA MUSIQA TA’LIMI INTEGRATSIYASI: AN’ANAVIY IJROCHILIKNI YOSH AVLODGA YETKAZISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	558
16	XOMIDOV Z.D.	O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘U SOZLARI TARIXIGA BIR NAZAR VA O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI TIZIMIDA QASHQAR RUBOBINING TUTGAN O‘RNI	563
17	XUDOYNAZAROVA SH.B., RAXIMOV N.N.	O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI VA MAROSIM AYTIMLARINING O‘QUVCHILAR MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDAGI O‘RNI	567
18	YULYAXSHIYEV SH.N.	MUSIQIY FOLKLORNI MUSIQA TA’LIMIGA SINGDIRISHDA HUDUDIY YONDASHUV: PEDAGOGIK ASOSLAR VA AMALIY YECHIMLAR	571
19	YO‘LCHIYEV B.M.	O‘ZBEK MILLIY MUSIQA MEROSINI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISHDA DOIRA IJROCHILIGINING O‘RNI	574
20	YULDASHEV A.	MILLIY CHOLG‘U IJROCHILIGIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH: AN’ANA VA INNOVATSIYA UYG‘UNLIGI	579